11. Yusupova S. X., Zokirov I. I. G ‘O ‘ZA TUNLAMI (HELICOVERPA ARMIGERA HBN.) NING NAMANGAN SHAROITIDA TARQALISHI VA OZUQA O ‘SIMLIKLAR BILAN TROFIK ALOQALARI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 118-124.
12. Zokirov I. I., Mirzayeva G. S., Abdullayeva D. R. Ecological and Faunistic Review of Entomocomplexes of Adyr Zones of the Fergana Valley //International Journal of Science and Research (IJSR). – 2019. – Т. 8. – №. 10. – С. 1231-1234.
13. Zokirov I. I. et al. Phytophagous insects of vegetable and melon agrocenosis of Central Fergana //International Journal of Agriculture, Environment and Bioresearch (IJAEB). – 2020. – Т. 5. – №. 02. – С. 64-71.
14. Zokirov I. I., Azimov D. A. The Fauna of Insects of Vegetables and Melons of Central Fergana, Especially Its Distribution and Ecology //International Journal of Science and Research (IJSR). – 2019. – Т. 8. – №. 8. – С. 930-937.
15. Hatamovich A. M., Karimovich K. A., Ilkhomzhonovich Z. I. The influence of vertical zonation on changes in the ecological niches of aphids //Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. – 2015. – №. 1-2.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-47-52

TALABA YOSHLARNI JISMONIY RIVOJLANISHIDA TURIZMNI VOSITA SIFATIDA ROLI VA AHAMIYATI

Azamat Komuljonovich Masharipov
Urganch Davlat Universiteti “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
azamat_uz86@inbox.ru

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada talaba yoshlarni jismoniy tarbiyasida “Alpomish” va “Barchinoy” dasturini ro‘li va ahamiyati bayon qilingan, shuningdek turizmni talaba yoshlarni jismoniy rivojlantirishda sog‘lomlashtiruvchu vosita sifatida samaradorligi ko‘rsatkichlarda akslantirilgan.

Kalit so‘zlar: dastur, turistik sayr, maxsus testlar, vosita, nazorat, Alpomish, Barchinoy, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, funktsional, test, natija.

ABSTRACT

This article describes the role and significance of the programs "Alpomish" and "Barchinoy" in the physical development of teenage students, and also describes the indicators of the effectiveness of tourism as a health-improving tool in the physical development of students.

Keywords: Program, touristic travel, special tests, tool, control, Alpomish, Barchinoy, physical development, physical training, functional, test, result.

KIRISH

Jahonda COVID-19 koronavirus pandemiyasining yuzaga kelishi dunyo mamlakatlari qatori O‘zbekistonda ham aholining sog‘lig‘i, jismonan salomatligi, sog‘lom hayot kechirish darajasi zaif ekanligini ko‘rsatdi. COVID-19 koronavirus infekciyasi avvalo yurak-qon tomir va nafas olish yo‘llari hamda semizlik (ortiqcha vazn) kasalligiga chalingan fuqarolarimizning sog‘lig‘iga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Barchamiz bundan jiddiy hulosa qilgan holda zararli odatlardan voz kechib, ommaviy sport bilan doimiy shug‘ullanish, sog‘lom turmush tarzini kundalik hayotimizga aylantirishimiz zarur ekanligini bugungi davrning o‘zi taqozo etmoqda. Jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanish hamda sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish orqali har bir fuqaroda kasallikka

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-47-52

qarshi kuchli immun tizimi paydo bo‘lishini ta‘minlash, zararli odatlardan voz kechish, hamda ommaviy jismoniy faollik tadbirlarini tizimli va samarali tashkil qilish, bu borada tegishli infratuzilma va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida: Respublikada aholi o‘rtasida ommaviy sportni rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda -yurish, yugurish sportning ustuvor turlari etib belgilangan[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2019 yil 29 yanvardagi “O‘zbekistonda sog’lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to‘g‘risida” gi VMQ №65-son qaroriga ilova qilingan yangi tahrirdagi “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlarini qabul qilish va musobaqalarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomda maxsus testlarning maqsadi aholining barcha qatlamlari o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish orqali ularni jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, jismoniy qobiliyati va harakat faolligini takomillashtirish, jismoniy va ruhiy barkamollikka erishtirish, mehnatga layoqatini oshirish, zararli odatlar hamda turli kasalliklarning oldini olish va sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, Vatanparvarlik va sadoqat hislatlarini rivojlantirish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralash bo‘yicha tizimli ishlarni tashkillashtirish maxsus testlarning maqsadi hisoblanadi [3].

Mamlakatimiz va xorij olimlarining ilmiy manbalarini o‘rganish shundan dalolat beradiki yoshlarni jismoniy rivojlanganlik darajasi va salomatligini oshirish, jismoniy sifatlarni tarbiyalash va rivojlantirish bo‘yicha qator ilmiy nazariy ma’lumotlar berilgan. Jumladan L.P.Matveev., A.A.Fedyakin., K.Yarashev., R.A.Abdumalikov., R.S.Salomov., A.Abdullayev., Sh.H.Xonkeldiev., K.M.Mahkamjonov., T.T.Yunusov., R.Q.Qudratov., T.X.Holdarov., E.Yu.Daurenov., va boshqa qator yetakchi olimlarning ilmiy manbalari muhim ahamiyat kasb etgan [3,4,5,6,7,8,8,9,10,11,12,13,14].

Tadqiqot ishimizda talaba yoshlar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildilar, jami 80 nafar talaba qatnashdilar. Tajriba guruxi talabalariga turizm vositalari va shakillari uyg’un qo’llanildi. talabalar haftaning dam olish kunlari “Alpomish” va “Barchinoy” dasturida nazarda tutilgan sayrlar bo‘yicha tabiat qo’yniga, turistik sayrga olib chiqilib, biz tomondan ishlab chiqqilgan dastur bo’yicha, uslubiy tavsiya va ko‘rsatmamiz bo‘yicha mashg‘ulotlarda qatnashdilar.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-47-52

Nazorat guruxidagi talabalari mashg‘ulotlari an‘anaviy tarzda, an‘anaviy uslubda davom e‘tib, qanday bo‘lsa shundayligicha qatnashdilar. nazorat guruxi talabalariga turizm vositalari qo’llanilmadi. Tadqiqotdan oldin tajriba va nazorat guruhlari talabalardan jismoniy rivojlanishi, funktsional holati, jismoniy tayyorgarligi testdan o’tkazildi. Pedagogik tajriba davomida talabalarni motivatsiyasi jismoniy rivojlanishi, funktsional ko’rsatkichlari aniqlandi.

Tajriba boshida olingan dastlabki testlardan ma‘lum bo‘ldiki, tajriba va nazorat guruxlaridagi talabalarning jismoniy rivojlanishi, funktsional holati, jismoniy tayyorgarligi, bo’yicha olingan testlarda deyarli tafovut bo‘lmadi, ya‘ni statistik farqga erishilmadi.Tajriba natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Quydagi jadvaldan ko’rinib turibdiki Tajriba boshida talabalarni bo’yi, vazni, genche sinamasi, panja dinamometriyasi bo’yicha biz ishonchli statistik farqlarni aniqlamadik. Bu tadqiqot boshida Tajriba va nazorat guruhlariga bir xil tayyorgarlik darajasiga ega talabalar tanlab olingan degan xulosani asoslantirib, pedagogik tajribani maqsadli amalga oshirishga imkon beradi. Tadqiqot oxirida Tajriba guruxi talabalari va an’anaviy dastur bo’yicha mashg’ulotlarda qatnashgan nazorat guruhi talabalari jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarlik va funktsional holati ko’rsatkichlari qayta o’lchanib qiyosiy statistik tahlil qilindi.Tajriba natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqot ishimizda talaba yoshlarning jismoniy rivojlanish bo’yicha olingan ko‘rsatkichlar

n=80 (TG=40+ NG=40)

	Ko'rsatkichlar	O‘lchov bir.	Guruhlar	Tajriba boshida (X±δ)	Tajriba oxirida (X±δ)	t	p
	Bo’yi	Cm*	Tg*	172,4±0,9	173,3±0,6	0,73	p>0,05
			Ng*	172,9±0,6	173,2± 0,1	0,23	p>0,05
	Vazni	Kg	Tg	71,3±1,30	67,4±1,53	2,21	p<0,05
			Ng	71,1±1,39	71,5±1,15	0,16	p>0,05
	Genchi sinamasi	Soniya	Tg	40,5±1,87	46,4±1,43	2,24	p<0,05
			Ng	40,1±1,35	40,7±1,34	1,19	p>0,05
	Garvard qadam testi indeksi	GSTI Sh.b.*	Tg	75,4±1,36	78,5±1,23	2,08	p<0,05
			Ng	75,6±1,71	76,1±1,61	0,48	p>0,05
	Panja dinam.	Kg	Tg	63,3±1,81	69,1±1,41	2,07	p<0,05
			Ng	62,8±1,48	62,9±1,49	0,03	p>0,05

Izoh1.: TG-tajriba guruhi. NG-Nazorat guruhi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-47-52

Izoh2.:* O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 yanvardagi “O`zbekiston Respublikasida O`lcham birliklarini qo`llash to`g`risida”gi 21-son qaroriga muvofiq o’lchov birliklari shu jumladan, uzunlik o`lchov birligi santimetrning qisqacha belgilanishi sm, qaroriga muvofiq cm ko`rinishida qo`llaniladi. Izoh3.:* sh/b. (shartli/birlik).

Tadqiqot oxiridagi o’lchash natijalaridan ko’rinib turibdiki, Talabalarni bo’y ko’rsatkichi bizga tajriba va nazorat guruhlari o’rtasida statistik farqlarni aniqlab bermadi. Talabalar vazni, genchi sinamasi, Garvard qadam testi indeksi, panja dinamometriyasi ko’rsatkichlari yaxshilanganligini ko’rish mumkin. Talabalarni vazni ko’rsatkichi testi bo’yicha tajribada ishonchli statistik farqlarni aniqladik, bu statistik tahlilar bilan tasdiqlandi. Bu yerda natija tajriba guruhida tajribadan oldin 71,3±1,30 ni, tajribadan keyin esa 67,4±1,53 ni tashkil qilib 5,4 foizga yaxshilandi ($t=2,21$; $p<0,05$). Nazorat guruhida tajribadan oldin 71,1±1,39 ni, tajribadan keyin nazorat esa 71,5±1,15 ni tashkil qildi ($t=0,16$; $p>0,05$). Talabalarni genche sinama ko’rsatkichlari bo’yicha tajribada biz statistik ishonchli farqa ega bo’ldik. Bunda tajribada tajriba guruhida tajribadan oldin 40,5±1,87 soniya, tajriba oxirida 46,4±1,43 soniya, Bu katta statistik farqni ko’rsatib 14,5 foizga yaxshilandi ($t=2,24$; $p<0,05$). Nazorat guruhida tajribadan oldin 40,1±1,35 soniya, tajriba oxirida 40,7±1,34 soniyani tashkil qildi ($t=1,19$; $p>0,05$). Talabalarni garvard qadam testi indeksi ko’rsatkichlari bo’yicha tajribada biz statistik ishonchli farqa ega bo’ldik. Bunda tajribada tajriba guruhida tajribadan oldin 75,4±1,36 soniya, tajriba oxirida 78,5±1,23 soniya, Bu katta statistik farqni ko’rsatib 4,1 foizga yaxshilandi ($t=2,08$; $p<0,05$). Nazorat guruhida tajribadan oldin 75,6±1,71 soniya, tajriba oxirida 76,1±1,61 soniyani tashkil qildi ($t=0,48$; $p>0,05$). Talabalarni panja dinamometriyasi ko’rsatkichlari bo’yicha ham tajribada biz statistik ishonchli farqalarni aniqladik. Bunda tajribada tajriba guruhida tajribadan oldin 63,3±1,81 soniya, tajriba oxirida 69,1±1,41 soniya, Bu katta statistik farqni ko’rsatib 9,1 foizga yaxshilandi ($t=2,07$; $p<0,05$). Nazorat guruhida tajribadan oldin 62,8±1,48 soniya, tajriba oxirida 62,9±1,49 soniyani tashkil qildi ($t=0,03$; $p>0,05$).

XULOSA VA TAKLIFLAR

1.“Alpomish” va “Barchinoy” dasturidagi turistik sayrlar, sog‘lom turmish tarzini targ‘ib qilish, aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb qilish, salomatligini oshirish va sog‘liqlarini mustaxkamlash, hayotning turli bosqichlarida jismoniy tayyorgarligini oshirib borish vositasidir.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-47-52

2.Talaba yoshlarning yoshlarning jismoniy barkamolligini oshirishda “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari muhim ahamiyatga egadir. Shu sababdan sayr bilan bir qatorda Inson salomatligining mustaxkamlashda piyoda yurish sayohatlarining ahamiyati va o’rni kattadir. Piyoda yurish uzoq umr ko’rish va jismoniy fazilatlarning uzoq vaqt saqlab qolish kafolatidir.

3.Talaba yoshlarni jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik va funktsional, salomaltlik darajasiga turizmni ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan pedagigik tajribda turizmni vosita sifatida samaradorligi yuqoriligi aniqlandi. Jumladan:

Talabalarni vazni ko’rsatkichi testi bo’yicha tajribada ishonchli statistik farqlarni aniqladik, bu statistik tahlilar bilan tasdiqlandi. Bu yerda natija tajriba guruhida tajribadan oldin 71,3±1,30 ni, tajribadan keyin esa 67,4±1,53 ni tashkil qilib 5,4 foizga yaxshilandi ($t=2,21$; $p<0,05$). Nazorat guruhida tajribadan oldin 71,1±1,39 ni, tajribadan keyin nazorat esa 71,5±1,15 ni tashkil qildi ($t=0,16$; $p>0,05$).

Talabalarni genche sinama ko’rsatkichlari bo’yicha tajribada biz statistik ishonchli farqa ega bo’ldik. Bunda tajribada tajriba guruhida tajribadan oldin 40,5±1,87 soniya, tajriba oxirida 46,4±1,43 soniya, Bu katta statistik farqni ko’rsatib 14,5 foizga yaxshilandi ($t=2,24$; $p<0,05$). Nazorat guruhida tajribadan oldin 40,1±1,35 soniya, tajriba oxirida 40,7±1,34 soniyani tashkil qildi ($t=1,19$; $p>0,05$).

Talabalarni garvard qadam testi indeksi ko’rsatkichlari bo’yicha tajribada biz statistik ishonchli farqa ega bo’ldik. Bunda tajribada tajriba guruhida tajribadan oldin 75,4±1,36 soniya, tajriba oxirida 78,5±1,23 soniya, Bu katta statistik farqni ko’rsatib 4,1 foizga yaxshilandi ($t=2,08$; $p<0,05$). Nazorat guruhida tajribadan oldin 75,6±1,71 soniya, tajriba oxirida 76,1±1,61 soniyani tashkil qildi ($t=0,48$; $p>0,05$).

Talabalarni panja dinamometriyasi ko’rsatkichlari bo’yicha ham tajribada biz statistik ishonchli farqalarni aniqladik. Bunda tajribada tajriba guruhida tajribadan oldin 63,3±1,81 soniya, tajriba oxirida 69,1±1,41 soniya, Bu katta statistik farqni ko’rsatib 9,1 foizga yaxshilandi ($t=2,07$; $p<0,05$). Nazorat guruhida tajribadan oldin 62,8±1,48 soniya, tajriba oxirida 62,9±1,49 soniyani tashkil qildi ($t=0,03$; $p>0,05$).

4. Mamlakatimiz aholisining salomatlik darajasini oshirish va uni uzoq vaqt saqlab qolish uchun aholining barcha qatlamlari orasida turizmni ommaviyligini oshirish va ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish lozim.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-47-52

REFERENCES

1 . O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF - 6099-sonli farmoni 2020 yil 30 oktyabr Toshkent sh.
2. O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining “O‘zbekistonda sog’lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to‘g‘risida” gi VMQ №65-son qarori va unga ilova qilingan yangi tahrirdagi “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlarini qabul qilish va musobaqalarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomi 2019 yil 29 yanvar Toshkent sh.
3. L.P.Matveev jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi M.: 1991 g.
4. A.A.Fedyakin. Teoretiko-metodicheskie osnovы ozdorovitelnogo turizm: Avtoref. diss.dok. ped. nauk. - M.: 2001. g.
5. K.Yarashev., R.Abdumalikov .“Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari majmuasini ommalashtirish yo’llari. O’quv-uslubiy qo’llanma. T.: 2002 yil
6. A.Abdullayev, Sh.X.Xonkeldiyev “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati”. T.:2005yil
[7].T.T.Yunusov, Yu.M.Yunusova «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari. T, 2 000 y.
8. K.M.Mahkamjonov Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi darslik T.: 2008 yil
9. E.Yu.Daurenov., R.Q. Qudratov “Turistik sayrlarni tashkil qilish” Uslubiy qo’llanma T.: 1995 yil.
10. E. Yu. Daurenov, “Turizm”. Darslik. Tashkent. 2014 yil.
11. X.Tulenova.,T.Xoldarov “Turizm”. O’quv qo’llanma Toshkent 2010 yil
12. E.Yu.Daurenov., A.E.Bobomuradov., A.K.Masharipov. “Turizm”. O’quv qo’llanma Chirchiq 2020 yil
13. R.S.Salomov, “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati”. I Jild Toshkent 2015 yil.
14. R.A.Abdumalikov., T.Kh.Kholdorov “Turizm”. Tashkent 1988 yil.
15. B.B.Musayev.,A.Akbarov “Sport metrologiya” Darslik Toshkent 2015-yil
Internet saytlari:
WWW.Ziyonet.uz
WWW.Google.uz
WWW.Pedagog.uz

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-53-56

TOG’ ILIM SHAROITINING TRANSPORT XARAKATI XAVFSIZLIGIGA TA’SIRINI O’RGANISH

Erkin Zikrillayevich Fayzullayev
Toshkent davlat transport universiteti
erkin.fayzullaev@gmail.com

Isroiljon Sharifjon o'g'li Raxmonov
Toshkent shahar IIBB PPX brigadasi
isroiljonraxmonov1994@gmail.com

Shohruhbek Ilhomjon o’g’li Nosirjonov
Farg’ona politexnika instituti
nosirjonovsh@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada transport xarakati xavfsizligini ta’minlash bo’yicha Kamchiq; dovoni misolida tog’ iqlim sharoitlari taxlil qilib berilgan. Bunda yillik meteorologik taqvim, yillar va oylar kesimida yog’inlar miqdori bo’yicha taxlil natijalari keltirilgan.

Kalit so’zlar. transport vositalari, xarakati xavfsizligini, tog’ iqlim sharoitlari, yo’l transport xodisalari.

ABSTRACT

The article focuses on traffic safety; The mountain climatic conditions are analyzed in the example of the pass. It includes the results of the analysis of the annual meteorological calendar, the amount of precipitation by years and months.

Keywords. vehicles, traffic safety, mountain climate conditions, road traffic accidents.

KIRISH

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14-fevraldagi “Yo’l xo’jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to’g’risida” gi farmoyishida Respublikaning itisodiy rivojlanish shartlarini ta’minlaydigan xalqaro transport yo’laklarini barpo qilish, tranzit va viloyatlar oralig’ida ishonchli transport alosasini ta’minlash, respublikaning tashqi integratsiyalashgan va ichki birikkan

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-33-38

yagona transport muxdtini shakllantirish, Buyuk Ipak Yo'lini qayta tiklash va jaxon bozoriga chiqish kabi masalalar davlat yo'l siyosatining ustuvor vazifalari etib belgilangan. Ushbu vazifalarning amaliy yechimi mavjud avtomobil yo'llari tarmog'ining transport-foydalanish sifatlarini oshirish, yo'llarning texnik va foydalanuv xolatlarini yo'ldan foydalanuvchilar talablariga muvofiqlashtirish, avtomobillar xarakat sharoitining qulayligi va xavfsizligini ta'minlashnini samarali tashkil qilishni talab qiladi *[1]*.

Avtomobil transportining tez rivojlanishi mamlakatimiz iqtisodining jadal rivojlanishiga katta xissa ko'shishi bilan bir qatorda o'ziga yarasha bir qator muammolarga sabab bo'lmoqda . Ya'ni, mamlakatimiz yo'llarida transport oqimining murakkablashishiga va buning natijasida yo'l-transport hodisalari sonining ko'payishiga ham sabab bo'lyapti. Bu esa o'z navbatida davlatimizga moddiy va ma'naviy zararlar yetkazilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda yilning o'tgan 10 oyi mobaynida jami 7681ta YTH ro'y bergan. Ularda 1964 kishi hayotdan ko'z yumgan, 6886 kishi turli darajada tan jarohati olgan.[3] (1-rasm)



1-rasm. 2020 yilda sodir bulgan yo'l-transport xodisalarining kelib chiqish sabablari.[3]

Transport vositalarining xarakati havfsizligiga ularning ekspluatatsiya sharoitlari katta ta'sir ko'rsatadi.

Transport vositalarining ekspluatatsiya sharoitlari: yo'l, transport va tabiiy-

iqlim sharoitlari bilan aniqlanadi. Bularning har biri, o’z navbatida quyidagi omillar: *yo’l sharoitlari* - yo’lning profili va reja elementlari, joy relefi, yo’l qoplamasining ko’rinishi va ravonligi, xarakat jadalligi, xarakatga xalaqitlar, yo’l xopatining barqarorligi, harakat rejimlari bilan; *transport sharoitlari* - yukning turi, tashishlar hajmi, junatiladigan yuklar partiyasi, tashish masofasi, yuk tashish va tushirish usullari, marshrutlar turi va tashishning tashkili, saqlash, texnik xizmat ko’rsatish va ta’mirlash sharoitlari bilan; *tabiiy- islim sharoitlar* - sovuq;, mo’tadil, issiq va tog’ iqdim sharoitlari bilan tavsiflanadi *[3]*.

Tog’li yo’llarda transport vositalarining xavfsiz harakatlanishiga o’rtacha yillik yog’in mikdori baxor oyining fevral-mart aprel oylarida va qish oyining noyabr-dekabr oylarida eng yuqori ko’rsatkichga ega bo’lib, shu oylarda avtomobillarning xarakat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko’rsatib, yo’llarda sodir etiladigan yo’l-transport xodisalarining sonini oshishiga olib keladi.

Xarakat havfsizligini ta’minlashda avtomobillarning shinalari yo’lning qatnov qismi qoplamasi bilan normal ilashishi uchun quyidagi sharoitlar bo’lishi kerak: qoplama yuzasi toza, quruq yoki namlangan bo’lishi; 60 km/s tezlikda bo’ylama ilashish koeffitsienti quruk yuzada 0,6, nam yuzada - 0,45 bo’lishi; yozda xavo xarorati 20°C, nisbiy namligi 50%, ko’rinishning metereologik uzoqligi 500 metrdan ortiq, shamol bo’lmasligi, atmosfera bosimi 760 mm sim. ust. Bo’lishi aniqlangan *[4]*.

Bu omillarning bari yo’l sharoitlarining tarkibiy qismi bo’lib, xarakatlanish rejimi va xavfsizligiga xar tomonlama va keng ko’lamda ta’sir qiladi [3].

Tog’ yo’llarida dengiz satxidan yuqoriga chirqan sari yog’in - sochin ko’payadi, havo xarorati va atmosfera bosimi pasayadi, quyosh reaksiyasi kuchayadi, tuman quyuqlashadi, havoning nisbiy namligi ortadi



2-rasm. 2018 yilda oylar buyicha bir lamchi davoni, Angren va Pop tumanlaridagi sodir bo’lgan yog’inlar sonining oylar bo’yicha o’zgarishi.

Rasmdan Qamchiq davonida yog’inlar sonining maksimum holati aprel oyiga to’g’ri kelishini ko’rishimiz mumkin. Angren va Pop tumanlarida asosiy yog’inlar

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-33-38

soni fevral oyining oxirgi o'n kunligi va mart oyiga to'gri kelishini ko'rishimiz mumkin.

NATIJALAR

Tog' sharoitlarida metereologik omillarning jadalligi va yo'lga ta'sir etish davomiyligi quyidagi oqibatlarga olib keladi:

- qoplamaning ilashish xususiyatlari yomonlashgani sababli avtomobillarning yo'l konstruksiyasiga mexanik ta'siri ham o'zgaradi;
- atmosfera bosimining pasayishi, xarakatlanishga yo'lning qatnov qismi, yo'l chetlari, muxdndislik inshootlari ifloslanib ketishi, qor bosishi, izlar tushgan yo'laklar xosil bo'lishi, qatnov kismi va yo'l chetlarining ko'rinmay qolishi, xarakat bo'lagilarini qor bosib izlar tushadi;
- tuman quyuqlashuvi, yog'inlar va kuyosh reaksiyasi kuchayishi sababli metereologik ko'rinuvchanlik pasayadi;
- avtomobilning texnik ekspluatatsiya sifatlari (xarakatlanishi qulayligi va xavfsizligini ta'minlovchi tizimlar: tormoz, rul boshqaruvi, ko'rinuvchanlikni ta'minlash, signal tizimlari) yomonlashadi;
- yo'l va metereologik sharoitlar yomonlashishi xaydovchining nerv-emotsional zo'riqishiga salbiy ta'sir qiladi.

Tog' yo'llarida balandlik oshgani sari xarakatlanish sharoitlarining o'zgarishi avtomobillarning harakat rejimlarini o'zgartirishni talab etadi va bu xavfsizlik ta'minlanishiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

REFERENCES

1. Prezidentining 2017 yil 14-fevraldagi "Iul xo'jaligini boрщarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida" gi farmoyish.
2. Xikmatov Sh.I., Mirzabekov M.S. Yo'l Felementlarining avtomobillar xarakat sharoitiga ta'sirining ilmiy asoslari. *Fargona politexnika instituti ilmiy-texnika jurnali*. Fargona 2018 y. 131-134 b.
3. https://kun.uz/uz/news/2021/11/13/10-oyda-salkam-2-ming-kishi-yol-transport-hodisalariga-doir-statistik-malumot-elon-qilindi
4. Khusanjonov, A. S. O., & Nosirjonov, S. I. O. (2021). Theoretical foundations of the acceleration slip regulation system. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(9), 618-623.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-57-62

PISA XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

Dadaqo‘zi Juraqo‘ziyevich Meliqo‘ziyev
Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti Fizika va astronomiya kafedrasi o’qituvchisi
dadaxon.xadjaev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola PISA topshiriqlari asosida o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. PISA topshiriqlaridan namunalar berilgan.

Kalit so‘zlar: PISA topshiriqlari, tabiiy-ilmiy savodxonlik, konteks, kompetensiya, savodxonlik modeli.

DEVELOPING STUDENTS 'SCIENTIFIC LITERACY ON THE BASIS OF THE INTERNATIONAL PISA ASSESSMENT PROGRAM

ABSTRACT

This article focuses on the development of students' natural science literacy based on PISA assignments. Samples from PISA assignments are provided.

Keywords: PISA assignments, science literacy, context, competence, literacy model.

KIRISH

Ma‘lumki, Respublikamizda ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan OECD hamda IEA tashkilotlari o‘rtasida imzolangan kelishuv hujjatlariga binoan O‘zbekiston Xalqaro o‘quvchilarni baholash PISA-2022 (avvalgi PISA-2021) da ishtirok etishga kirishildi. O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib, PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish vazifalari belgilangan. PISA xalqaro baholash dasturi 15 yoshdan yuqori yoshdagi o‘quvchilarning o‘qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan.

Shaxsning hayotida tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik muhim o‘rin egallaydi. Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid g‘oyalarni

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-57-62

bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog‘liq muammolarni hal qila olishi tushuniladi.

Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxon bo‘lgan shaxs tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi yani hayotiy muommoli vaziyatlar aks etgan topshiriqlarni mustaqil ravishda hal eta oladi. Bu turdagi topshiriqlar PISA topshiriqlarining asosi bo‘lmish *kontekst* deb yuritiladi. Kontekstlar uchta darajada bo‘ladi: shaxsiy, mahalliy – milliy, global[1] .

Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxon bo‘lgan shaxsda quyidagi kompetensiyalar shakllangan bo‘ladi[2] .

Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasi – texnologiyalar, tabiiy hodisa-jarayonlarning izohlarini bilish, taklif qilish va baholash;

Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasi – ilmiy tadqiqotlarni tasvirlash va baholash hamda muammolarni ilmiy asoslangan holda hal qilish yo‘llarini taklif etish;

Ma‘lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasi – turli ko‘rinishdagi ilmiy ma‘lumotlar, dalillarni tahlil qilish va baholash hamda tegishli xulosalar chiqarish.

O‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik kompetensiyalarini namoyish etishlari ilmiy bilishning uchta turiga bog‘liq[3]. Ilmiy bilish turlariga quyidagilar kiradi:

- fizik sistemalar (fizika va kimyo), tirik sistemalar (biologiya), yer va fazo sistemalari (geografiya, geologiya, astronomiya)ga oid bilimlar, ya‘ni *fanning mazmuniga oid bilimlar;*
- ilmiy ma‘lumot (bilim)lar olish uchun qo‘llaniladigan turli xil metodlarni, shuningdek, standart tadqiqot jarayonlarini bilishga oid *metodologik bilimlar;*
- *epistemik bilimlar*, ya‘ni bizning ilmiy tasavvurlarimiz ilmiy tadqiqot metodlarining imkoniyatlarini tushunishimiz natijasi ekanini, shuningdek, faraz, gipotezaning kuzatish kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini bilish.

Shuni ta‘kidlash lozimki, PISA topshiriqlari tuzilishiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular muayyan fan yoki mavzularga mos kelishni ko‘zda

[1] U.N.Tashkenbayeva “O’quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo’ljallangan Axborotnoma” Toshkent 2020 yil. 65 bet
[2] U.N.Tashkenbayeva “O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan Axborotnoma 1” Toshkent 2020 yil. 64 bet
[3] U.N.Tashkenbayeva “O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan Axborotnoma” Toshkent 2020 yil. 65 bet

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-57-62

tutmaydi. Shunday bo‘lsada, ba‘zi hollarda fanlarning qaysidir mavzusiga tegishli bo‘lishi yoki hech qaysi mavzuga mos kelmasligi ham mumkin. Ularni o‘rganayotgan vaqtda muayyan topshiriqqa oid tayanch bilimlarni faollashtirish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.

Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik modeli va kompetensiyalaridan kelib chiqib, quyida bir nechta PISA topshiriqlari keltiriladi:

1-topshiriq.

Ba’zi kimyoviy reaksiyalar paytida gaz ajraladi. Kimyogarlar ajralgan gaz hajmini normal sharoitda aniqlashi kerak bo‘lib qoldi.

Savol. Gaz hajmini aniqlash uchun kimyogarlar ishlatishi mumkin bo‘lgan asbobning loyihasini taklif eting.

Savolning javobi. Qurilmaning variantlaridan biri 1-rasmda tasvirlangan. Gaz **A** truba orqali gaz aralashib ketmaydigan suyuqlik bilan to‘ldirilgan va graduslarga bo‘lingan **C** ochiq idish ustiga to‘ntarilgan **B** idishga o‘tadi. Gaz **B** idishni to‘ldirib, suvni **C** idishga haydaydi. Idishdagi suv sathining o‘zgarishiga qarab gaz hajmini aniqlash mumkin.



1-rasm.

2-topshiriq.

Qashqadaryo viloyatidagi qishloqlarda to‘lib oquvchi soylar juda ko‘plab topiladi. Ana o‘sha soylarning u tomonidan bu tomoniga o‘tish uchun ko‘priklar qurilgan.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-57-62

Lekin ko‘priklar asosan odamlarning ehtiyoji yuqori bo‘lgan joylargagina barpo etilgan. Ba‘zi hududlarda joylashgan soylarning ustiga ko‘prik qurilmagan. Shu kabi soylarning birida har kuni Botir amaki va uning nabirasining sinfdoshi Zokir soyning bir qirg‘og‘idan ikkinchi qirg‘og‘iga, ya‘ni biri chap qirg‘og‘idan o‘ng qirg‘oqqa, ikkinchisi esa o‘ng qirg‘og‘idan chap qirg‘oqqa o‘tishi kerak. Ariqning har ikkala qirg‘og‘ida bittadan taxta bor, biroq taxtalarning uzunligi qirg‘oqlar orasidagi masofadan kichik. Botir amaki va Zokir har kuni shu soyning bir qirg‘og‘idan ikkinchi qirg‘og‘iga o‘tishadi.

Savol. Ular har kuni qanday qilib soyning bir qirg‘og‘idan ikkinchi qirg‘og‘iga o‘tishlarini tushuntiring.

Javob. Gap shundaki, Botir amaki va Zokir ikkita taxtani rasmda ko’rsatilgan holatda qo’yishadi. Shundan so’ng taxtalarni bir uchidan Zokir bosib turadi, Botir amaki o’tib oladi. Xuddi shu tariqa, Botir amaki taxtani bir uchini bosib tursa Zokir o’tib oladi. Bu jarayon fizika fanining statika bo’limida o’rganiladi.



2-rasm.

3-topshiriq.

Shlyuz – kemalarni daryo yoki kanallarga bir suv sathidan ikkinchi suv sathiga o‘tkazish uchun mo‘ljallangan gidrotexnika inshooti. Shlyuz devorlar va darvozalar bilan ajratilgan kameradan iborat.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-57-62

Savol. Tojikistondagi kanallarning birida shlyuzlar bor: kema unga kirganidan so‘ng shlyuz darvozasi (1) yopiladi, nasoslar shlyuzga (2) suv haydab, suv sathini kema bilan birgalikda ko‘taradi va kema ikkinchi darvoza (3) orqali kanalning yuqori qismiga (4) o‘tib ketadi. Shlyuz kamerasidagi suvning yuzasi $1500\ \text{m}^2$, kemaning massasi 5000 t bo‘lsa, uni 8 m ko‘tarish uchun qancha suv (m^3) haydash kerak?



Javob. Kema 1-holatdan 2-holatga o‘tgan. Kemaning suvga botish chuqurligi o‘zgarmagan, faqat suvning sathi h balandlikka ko‘tarilgan. Demak suv sathini h ga ko‘tarish uchun nasoslar chiqargan suvning hajmi $V = S \cdot h$ ga teng bo‘ladi. U holda $V = 1500 \cdot 8\ \text{m}^3 = 12000\ \text{m}^3$ bo‘ladi.

NATIJA

O‘qituvchilar yuqoridagilar kabi topshiriqlardan dars mashg‘ulotlarining mustahkamlash va takrorlash qismlarida keng qamrovli foydalanishi ayni muddao bo‘ladi. Bu esa, o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, PISA topshiriqlarini darsdan tashqari to‘garak mashg‘ulotlarida taqdim qilish, o‘quvchilarni yanada fan asoslariga qiziqishlarini ortishiga sabab bo‘ladi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-57-62

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, PISA topshiriqlari o‘quvchilarning olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish qobilyatini shakllantiradi. Yani bu topshiriqlarni yechimi ustida muntazam ishlashlari natajasida, o‘quvchilarning hayoti davomida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarda muammoni mustaqil hal eta olish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.03.2021 y. 07/21/5032/0226-son.
2. Xabibullaev P., Bo‘ydedaev A., Baxromov A. va boshq. Fizika. Umumiy o‘rta ta'lim maktablaring 8-sinfi uchun darslik. -T.: O‘qituvchi, 2019.
3. Matkarimov M.A. “Kompetensiyaviy yondashuvli o‘quv jarayonining asosiy jihatlari. Innovasion g‘oyalar, ishlanmalar amaliyotga: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. – Andijon, 2020 yil 27-28 may.
4. Matkarimov M.A. “PISA” xalqaro o‘quvchilarining savodxonligini baholash tadqiqotining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari/ “Zamonaviy ta'lim” jurnali,
№8(93) 2020 yil.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-63-67

TABIY FANLARNI O‘QITISHDA XALQARO PISA DASTURINING ROLI

Saodat Saidmurodovna Qodirova
Diyora Yo‘ldoshjon qizi Salimova
Karimjan Abduraximovich Mutalov
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti biologiya o‘qitish metodikasi 2-boqich magistrantlari
mutalovkarimjan@gmail.com

ANNOTATSIYA

O‘quvchi yoshlarni fanlar kesimida o‘zlashtirayotgan bilim, ko‘nikmalarini va malakalarini rivojlangan horijiy mamlakatlar o‘quvchilari bilimi bilan solishtirib o‘zimizning yutuq va kanchiliklarimizni aniqlab borishda Xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish nazarda tutilgan. Shu o‘rinda PISA dasturini o‘rganish, uning muhim ahamiyati sanaladi.

PISA – o‘quvchilarning ta’limiy yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur bo‘lib (PISA *inglizcha - Programme for International Student Assessment)* u turli davlatlarda o‘quvchilarning savodxonligini (o‘qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dasturdir.

Kalit so’zlar: tabiiy fanlar, PISA, o’qitish, dastur, rol.

THE ROLE OF THE INTERNATIONAL PISA PROGRAM IN TEACHING SCIENCE

ABSTRACT

It is planned to use the International Assessment Program to determine our achievements and shortcomings by comparing the knowledge, skills and abilities of students in the field of science with the knowledge of students from developed countries. It is important to study the PIAS program here. PISA is an international program to assess students 'academic achievement (PISA) and it puts students' literacy (reading, math, science) and knowledge into practice in different countries. is a program that assesses the ability to llash.

KIRISH

Yurtimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida iqtisodiyotdagi o‘sish ko‘rsatkichlari va erishilayotgan yutuqlar barcha sohalarda

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-63-67

malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda.Bu birinchi bo‘lib ta’limdagi o‘qitish tizimidagi yangiliklarni maktabdan boshlash zarurligini anglatadi. “Yangi O‘zbekiston maktab ostanasidan boshlanadi”, deb prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev haqli ravishda aytib o‘tdilar. Chunki yosh avlodni zamon talabi darajasidagi bilimi mutaxassislar qilib tarbiyalashda maktab, litsey, texnikum va Oliy o’quv yurtlarida ta’lim sifatini yanada yaxshilashni talab etmoqda.

Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqishi-e’tiboroni oshirishni va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim ularning tarbiyasiga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘quvchi yoshlarni fanlar kesimida o‘zlashtirayotgan bilim, ko‘nikmalarini va malakalarini rivojlangan horijiy mamlakatlar o‘quvchilari bilimi bilan solishtirib o‘zimizning yutuq va kanchiliklarimizni aniqlab borishda Xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish ko‘zda tutilgan. Shu o‘rinda pisa dasturini axamiyati muhim sanaladi.

PISA–o‘quvchilarning ta’limiy yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur bo‘lib (PISA *inglizcha - Programme for International Student Assessment)* u turli davlatlarda o‘quvchilarning savodxonligini (o‘qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dasturdir.
Mazkur dastur 2000 yildan beri turli mamlakatlarda o‘tkazib kelinayotgan bo‘lib, har 3 yilda 15 yoshli o ‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimini tekshiradi [1].

Monitoring jarayoni uchun nazorat (testlar, yozma ishlar, so‘rovnoma, og‘zaki savollar, audio (video) materiallarini tayyorlashda ularning umumiy hajmiga nisbatan 20 % gacha o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlariga mos keladigan, o‘quv dasturi va darsliklardan tashqari, xalqaro tajribalarda (PISA, TIMSS va h.k.) qo‘llanilgan materiallardan foydalanish mumkinligi pisa dasturining 4- bandida belgilab qo‘yilgan [2].

Ta’lim sifatini baholash bizga nima beradi; jumladan tadqiqotlardan olingan natijalar mamlakatdagi ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o‘rni to‘g‘risida xulosa chiqarish imkonini beradi,milliy ta’lim tizimini isloh qilish,ta’lim mazmunini,pedagog kadrlar tayyorlash va ularni malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxarsliklarni yangi

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-63-67

avlodini yaratishda qo‘llaniladi.Xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkiloti tomonidan o‘tkaziladigan tadqiqotlarda 90 ga yaqin davlat qatnashadi. Shu o‘rinda O‘zbekiston 2021-yilda ilk marotaba PISA (15–16 yoshli o‘quvchilar bilimini baholash bo‘yicha) xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etadi. Mazkur reyting natijalaridan kelib chiqib yurtimizning kelgusi rivojlanishiga baho beriladi.Uzoq muddatga xorijiy investitsiya kiritadigan yirik kompaniyalar tomonidan ushbu reyting natijalari inobatga olinishidan ham ushbu jarayon rivojlanayotgan mamlakatimiz uchun qay darajada muhim ekanligini anglash mumkin [3].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘quvchilarning kognitivlik va kreativlik xususiyatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlarini yaratib ularni, oraliq, yakuniy nazoratlarda muntazam ravishda qo‘llash bilan aniq va tabiiy yo‘nalishdagi tayanch maktablarida ma’ruza va laboratoroya darslarida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanadigan topshiriqlar bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borish yaxshi natija berishi xozirda o‘z natijasini bermoqda. Umum ta’lim maktablarini zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari, internetdan foydalanish imkoniyatini va sifatini yaxshilash Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirilishini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o‘tkazib borish maqsadga muvofiqir. Su o‘rinda umumiy o‘rta ta’limda o ‘quvchilar bilimini oshorish borasida , o‘qituvchilarni kasbiy mahoratini oshirishni va dars jarayonida har bir mavzuni tushuntirishda uni dalillar bilan isbotlab ko‘rsatishi ucun zaruriy ko’rgazmali materiallarni movjud bo‘lish mihim hisoblanadi. O‘z kasbiga hurmat bilanqan qarydigan bugungi o‘qituvchi, zamon bilan hamnafas holda ta’limdagi barcha yangiliklardan habardir bo‘lishi uchun biz o‘qituvchilarni tayyorlashimiz,shuningdek, rivojlantiruvchi ta’limning yanada faol tizimini darslarga tadbiq etishimiz va o‘qituvchilarni ta’lim jarayonida yanada muvaffaqiyatli foydalana oladigan materiallar bilan ta’minlashimiz kerak deb o‘ylaymamiz.

O‘zbekiston ta’lim tizimida yillar davomida bolalar bilimini aniqlash, xatolarini to‘grilash va sinashga urg‘u berib kelgan bo‘lsada, PISA tekshiruvi esa bu jarayonga butunlay teskari jarayon bo‘lib: olingan bilimlarni mushohada qilish, uning natijasini amaliyotda qay darajada qo‘llay olinishini o‘rganadi. PISA dasturini qo‘llash bilan o‘qitish jarayoniga har bir o‘qituvchi o‘zi o‘qitayotgan fanidan doimo ijtimoiy tarmoqdan olingan yangi ahborotlarni dars jarayoniga kiritib borishni, o‘z navbatida o‘quvchilarni ijodiy izlanishiga turtki berilishini anglatadi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-63-67

O‘quvchilarning kognitivlik va kreativlik xususiyatlarini rivojlanishiga ko‘maklashuvchi har bir mavzu kesimida o‘quvchi yoshiga mos PISA topshiriqlarini ishlab chiqish, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarda ulardan foydalanish bilan, tabiiy fanlardan o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirilishini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o‘tkazib borilishi amaliy jihatdan faqat yahshi natija beradi. Bu–biroz muammoli bo‘lishi mumkin. Biroq biz ko‘p yillar davomida yodlashga o‘rgatib kelgan bolalarga: “Bunday yodlashdan to‘xtanglar, endi ijodiy fikrlashingiz kerak yoki bilimingizni hayotiy vaziyatda sinashingiz kerak”, deb birdaniga ayta olmaymiz. Lekin bu kabi o‘zgarishlarga bosqichma-bosqich o‘tib borishimiz zarur.

Masalan, xuddi shu masalada Singapur davlatida “Agar biz bolalarimizga yodlashni o‘rgatsak, ular xuddi biz o‘rgangan holatni o‘rganadi, agar fikrlashni o‘rgatsak, ko‘proq voqeliklarni o‘rganishadi”, degan qarash bor.

Hozirgi kunda yurtimizda o‘quvchilarni tabiyfanlarga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish nazariy ta’lim bilan birgalikda amaliyotni mujassamlashtirgan holatda olib borilishi, tabiatda ro‘y berayotgan voqea va hodisalarni, jumladan o‘simlik va hayvonlarni tabiiy sharoitida o‘zgarish xilma-xilligi ortib borayotgani hamda ba’zi turlarning haddan ziyod kamayib ketishi bu jarayonda antropogen ta’sirning sezilarli darajada ortib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin, ushbu holatda o‘quvchilarni oldindan anglash, fikrlash qobilyatini rivojlantirib, tabiatga qanday munosabatda bo‘lish, har bir o‘simlik, hayvon, mikroorganizmlarni foydalilik xususiyatlarini ocha bilish qobilyatlarini rivojlantirishni taqozo etadi.

XULOSA

O‘quvchilarni tabiy fanlardan fikrlash qobilyatlarini baholashda PISA dasturida berilgan topshiriqlar bilan tanishtirib borish, shuningdek fan mavzulari bo‘yicha PISA topshiriqlarini yangilarini tuzish va uni o‘quvchilarga doimo tanishtirib borish,orqali o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatib ,ularni kundalik hayotda,tabiiy ,noodatiy sharoitlarda ijobiy yechimlarni topishga o‘rgatadi.

REFERENCES

1. K.A.Mutalov Gulmatova, M. K “O’QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISHNING DOLZARBLIGI.” CLUSTER OF PEDAGOGICAL EDUCATION:Building 2A,Istikbol Street,Chirchik, Tashkent region,Uzbekistan

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-63-67

Problems and Solutions. Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar, JUNE 25-26, 2021.1320-1323.

2. Alimova, X. B., & Ramazonov, B. R. (2021). "O „QUVCHI-O „QUVCHIGA USTOZ" TAMOYILI ASOSIDA TABIIY FANLAR DARSLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR. *Academic research in educational sciences*, *2*(9), 940-945.

3. Қурбонов, Ш. Ш., & Рамазонов, Б. Р. (2021). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИНИНГ ПЕДАГОГИКА ВА БОШҚА ФАНЛАР БИЛАН БОҒЛИҚЛИГИНИНГ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, *2*(9), 51-59.

4. Эгамбердиева, Л. Н., Хуррамова, М. А., & Рамазонов, Б. Р. ПРОБУДИТЬ У МОЛОДЕЖИ ЧУВСТВО ЛЮБВИ К ПРИРОДЕ ОДНА ИЗ АКТУАЛЬНЫХ ЗАДАЧ.

5. Alimova, X. B., Bozorova, D. S., & Ramazonov, B. R. TIB ILMINING BUYUK ALLOMASI ABU ALI IBN SINO O'GITLARINING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI AHAMIYATI.

6. Рамазонов, Б. Р., & Муталов, К. А. ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ЭКОЛОГИЕЙ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ-МОНИТОРИНГ ЗАГРЯЗНЕНИЯ ПОЧВЫ.

7. Закиров, Д. У. (2020). МАКТАБЛАРДА БИОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎТКАЗИШДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. *Science and Education*, *1*(7).

8. Алимова, Х. Б., & Рамазонов, Б. Р. (2021). ИНТЕРФАОЛ ТАЪЛИМ ЁРДАМИДА МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. *Academic research in educational sciences*, *2*(1).

9. Атабаева, Д., & Файзиев, В. Б. (2020). ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ СОҒЛОМ ЎСИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИДА УЙҚУНИНГ АҲАМИЯТИНИ ЎРГАНИШ. *Биология ва экология электрон журнали*, *4*(2).

10. Закиров, Д. У. (2020). МАКТАБЛАРДА БИОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎТКАЗИШДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. *Science and Education*, *1*(7).

11. Закиров, Д. У., & Нурметов, Х. С. (2021). ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ШКОЛА ОСНОВНОЙ ИСТОЧНИК ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ. *Academic research in educational sciences*, *2*(Special Issue 2).

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-68-71

ABOUT THE TERMINOLOGY AND LEXICOLOGY

Zulola Najmitdinovna Rashidova
Lecturer, Termez state university

ABSTRACT

One particular area of confusion highlighted by the POINTER Project is that of the differences between terminology and lexicology, and terminography and lexicography. Not only many non-specialists, but even many individuals working in such fields as language engineering and translation frequently confuse these concepts, and it is hoped that the explanations given below will contribute to a clearer understanding of the distinctions between these fields of activity.

Keywords: terminology, classification, direct, method, special

While lexicology is the study of words in general, terminology is the study of special-language words or terms associated with particular areas of specialist knowledge. Neither lexicology nor terminology is directly concerned with any particular application. Lexicography, however, is the process of making dictionaries, most commonly of general-language words, but occasionally of special-language words (i.e. terms). Most general-purpose dictionaries also contain a number of specialist terms, often embedded within entries together with general-language words. Terminography (or often misleadingly "terminology"), on the other hand, is concerned exclusively with compiling collections of the vocabulary of special languages. The outputs of this work may be known by a number of different names - often used inconsistently - including "terminology", "specialised vocabulary", "glossary", and so on.

The work and objectives of lexicographers and terminographers are in many ways complementary, but there are a number of important differences which need to be noted. Dictionaries are word-based: lexicographical work starts by identifying the different senses of a particular word form. The overall presentation to the user is generally alphabetical, reflecting the word-based working method. Synonyms - different form same meaning - are therefore usually scattered throughout the dictionary, whereas polysemes (related but different senses) and homonyms (same form, different meaning) are grouped together.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-68-71

While a few notable attempts have been made to produce conceptually-based general-language dictionaries - or "thesauri", the results of such attempts are bound to vary considerably according to the cultural and chronological context of the author.

By contrast, high-quality terminologies are always in some sense concept-based, reflecting the fact that the terms which they contain map out an area of specialist knowledge in which encyclopaedic information plays a central role. Such areas of knowledge tend to be highly constrained (e.g. "viticulture"; "viniculture"; "gastronomy"; and so on, rather than "food and drink"), and therefore more amenable to a conceptual organisation than is the case with the totality of knowledge covered by general language. The relations between the concepts which the terms represent are the main organising principle of terminographical work, and are usually reflected in the chosen manner of presentation to the user of the terminology. Conceptually-based work is usually presented in the paper medium in a thesaurus-type structure, often mapped out by a system of classification (e.g. UDC) accompanied by an alphabetical index to allow access through the word form as well as the concept. In terminologies, synonyms therefore appear together as representations of the same meaning (i.e. concept), whereas polysemes and homonyms are presented separately in different entries.

In the electronic medium, similar considerations apply in principle to the organisation of entries with reference to synonyms and polysemes/homonyms. However, the retrieval of data still operates at present largely through the term (or a component ! of the term) rather than through the concept. Conceptually-based solutions for the representation and retrieval of data are being sought in the techniques of artificial intelligence.

Work organised conceptually may also be presented alphabetically, whereas the converse, i.e. the presentation of work originally organised according to the form of the word in a thesaurus-type structure, is highly problematic.

Lexical meaning

In dictionaries, related but different senses (or "polysemes") of the same word form are usually presented within one entry, e.g. *bridge* (of a violin, crossing a river, over a gap in teeth); unrelated different senses ("homonyms") of the same word form are normally presented as separate head words or entries, e.g. *pupil* (of the eye) and *pupil* (in a school). Synonym relations are not always made explicit in dictionaries, and the division of word forms into different senses tends to vary considerably between dictionaries. This lack of clear division into senses reflects the

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-68-71

"slippery" nature of general-language words, compared to the more precise nature of terminological meaning.

In terminologies, homonyms and polysemes within the same subject field are treated as separate entries in a terminology (because the definition of the concept is different), e.g. in Automotive Engineering *emission* (the process of emitting exhaust gases) and *emission* (the exhaust gases themselves). Homonyms and polysemes of other subject fields are excluded. Synonyms, on the other hand, are always included as a part of the same entry in a terminology (being alternative representations of the same concept), e.g. *automotive catalyst*, *catalytic converter*.

Grammar

The "headwords" or rather "entry terms" in terminologies are all open-class words, i.e. nouns (the vast majority), some adjectives, verbs and adverbs. The headwords in general-language dictionaries cover all word classes, including so-called grammatical words such as modal auxiliaries (e.g. *can*, *must*), prepositions (e.g. *on*, *with*), articles (e.g. *the*, *an*), certain adverbs (e.g. *very*), and so on. In terminologies, such words may appear as a component of the term or be shown as a part of the term's phraseology (i.e. the usual pattern of its immediate linguistic environment), but never as independent entry terms.

Usage *versus* regulation

Dictionaries of the general language are descriptive in their orientation, arising from the lexicographer's observation of usage. Terminologies may also be descriptive in certain cases (depending on subject field and/or application), but prescription (also: "normalisation" or "standardisation") plays an essential role, particularly in scientific, technical and medical work where safety is a primary consideration. Standardisation is normally understood as the elimination of synonymy and the reduction of polysemy/homonymy, or the coinage of neologisms to reflect the meaning of the term and its relations to other terms. Terminologies - the outcome of this work, often in electronic form as termbases - are then the principal means of dissemination. In other words, in certain circumstances, terminologists may attempt to regulate language (in this case, the vocabularies of special languages), whereas lexicographers describe the words of general language.

Levels of communication

Lexicographers have at their disposal a number of "style labels" which aim to distinguish between, for instance, informal, slang, or vulgar expressions, archaisms, and so on. Terminologists also need to distinguish between different communicative

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-68-71

situations, although in a rather different way. While traditional terminology work is concerned mainly with the terms which characterise communication between subject experts, a broader view also incorporates less abstract levels of communication, e.g. between technicians, or between expert and layperson (such as doctor-patient; lawyer-client). In high-quality terminography, such variants must also be labelled or assigned to a particular source in order to identify the appropriate communicative context for their use.

REFERENCES

1) Rashidova Z. N. ABOUT THE CLASSIFICATION AND DEFINITION OF THE TERM" LANGUAGE ISLAND" IN THE LINGUISTICS //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2019. – №. 12. – С. 85-88.
2) Rashidova, Z. N. "ABOUT THE CLASSIFICATION AND DEFINITION OF THE TERM" LANGUAGE ISLAND" IN THE LINGUISTICS." Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук 12 (2019): 85-88.
3) Kuvanchieva M. D., Jumayev U. N., Alaudinova D. R. FEATURES OF LAND AS CAPITAL AND THE IMPACT AND MECHANISM OF AGRICULTURAL CAPITALIZATION //Научные горизонты. – 2019. – №. 12. – С. 52-56.
4) Alaudinova D. R., Shirinkulova S. M. TRANSLATING PROBLEMS OF MEDICAL ENGLISH TERMS //Преподавание классических языков в эпоху глобальной информатизации. – 2019. – С. 176-178.
5) Rustamovna, Alaudinova D. "Technology Of Teaching Languages." *JournalNX*, 2020, pp. 180-183.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-72-75

FE’L SO‘Z TURKUMLARIGA OID SO‘ZLARDA DARAJALANISH

Gulnoza Djumakuziyevna Shermatova
Andijon davlat universiteti, Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Tabiat va jamiyatda barcha hodisa-yu hosilalar bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi hammaga ayon. Xususan, til fani birliklari ham o‘zaro chambarchas bog‘liq, ularning o‘xshash va farqli tomonlari mavjud. Ularning ayrim xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lsa, ba’zilari hamon o‘z tadqiqini kutmoqda. Bu fikrni graduonimiya va sinonomiya hodisalari haqida ham qo‘rqmasdan aytishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: fe’l, darajalanish, “Muhokamat-ul lug‘atayn” asari, graduonomiya, sinonomik munosabat, ma’nodoshlik

KIRISH

Ma’lumki, o‘zbek tili juda boy imkoniyatlarga ega bo‘lib, qadim tarixga egadir. Shu bois ham tilimizning ildizlarini juda qadim zamonlardan izlamoq darkor.

Darajalanish haqidagi dastlabki qarashlar qisman Alisher Navoiyning “Muhokamat-ul-lug‘atayn” asarida ham uchratamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ulug‘ o‘zbek shoiri Alisher Navoiy o‘zbek tilining ifoda imkoniyatlari kengligini dalillash uchun “yig‘lamoq” fe’lining va boshqa so‘zlarning sinonimlarini tahlil qiladi, shuningdek, fors-tojik tili so‘zlari bilan qiyoslashning o‘zi darajalanish hodisasi ekanligini keltirib o‘tadi.

Borliqdagi barcha narsa-hodisalar bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi hammaga ravshandir. Xususan, tilda mavjud barcha birliklar o‘zaro chambarchas bog‘liq, ularning o‘xshash va farqli tomonlari ham bor. Ularning ayrim xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lsa, ba’zilari hamon o‘z tadqiqini kutmoqda. Bu fikrni graduonimiya va sinonomiya hodisalari haqida ham qo‘rqmasdan aytishimiz mumkin. Agar sinonim va uning xususiy tomonlari anchagina tadqiq etilgan bo‘lsa, graduonimiya hodisasi talab darajasida tadqiq etilmagan.

Sinonomik munosabatlar tilshunoslik tarixida fanimiz kabi uzoq tarixga ega bo‘lsa ham, lug‘aviy ma’nodoshlik muammolariga ming-minglab sahifalar, asarlar bag‘ishlangan bo‘lsa ham, hatto bir emas, bir nechta sinonimlar lug‘ati tuzilgan

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-72-75

bo‘lishiga qaramay, sinonimlar muammosida hali qilinishi zarur bo‘lgan, yechimini kutayotgan jumboqlar talayginadir. Shunday masalalar qatorida, jumladan, quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

I. Sinonimlar va dublet so‘zlar muammosi (arava/ aroba)

II. Sinonimlar, mo‘tadil uslubiy bo‘yoqli va yorqin uslubiy bo‘yoqli so‘zlar (yuz/turq, yuz/aft)

III. To‘liq va qisman sinonimlar (uy/bino; hovli/uy)

IV. Sinonimlar va lug‘aviy ma’noda darajalanish (masalan : yaxshi~tuzuk~binoyi~joyida~soz)

V. Lisoniy va nutqiy sinonimlar masalasi (yor-do‘st; yor~sevgili~jonona~dilbar,mahbuba). Bu ro‘yxatni yana ancha davom ettirish mumkin edi. Lekin shuning o‘zi ham biz uchun yetarli, biz esa lug‘aviy sinonomiya va lug‘aviy graduonimiya masalalari ustida to‘xtalib, bu ikki lisoniy hodisa orasidagi o‘xshashlik va farqlarni tasvirlash bilan cheklanamiz.

Graduonimiya (ma’noviy darajalanish)ni so‘zlararo ma’noviy munosabatlarning alohida bir turi sifatida o‘rganish 80-yillarning oxirlaridan boshlandi.

Tilshunoslikda graduonimiya so‘zlararo ma’noviy munosabatlarning alohida bir ko‘rinishi sifatida ajratilguniga qadar, belgini darajalab ifodalovchi so‘zlar sirasi sinonimlar doirasida o‘rganilar edi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbek tilining sinonimlar lug‘atida ma’nosi darajalanuvchi so‘zlar ko‘p hollarda sinonimlar sirasida berilar edi. Albatta, graduonimiya hodisasi maxsus ajratilmagach, ma’nosi darajalab ko‘rsatuvchi so‘zlar ko‘p holatda turli sinonimik uyalar ichiga tarqatilib yuborilgan. Buning haqqoniy sabablari ham mavjud edi. Chunki sinonimlar ma’nosi bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlarni o‘z ichiga oladi.

Shuni alohida takidlab o‘tish lozimki, til sistema ekan lug‘at tizimi ham sistem tabiatga ega va tilda biror so‘z (leksema) yo‘qki, ma’lum bir lug‘aviy paradigmadan o‘rin olmasa. Ma’noviy darajalanish hodisasi maxsus ajratilmay, ma’noni darajalab beruvchi so‘zlar ko‘p holatlarda sinonimlar tarkibiga singdirib yuborilganligi sababli, masalan: pichirlamoq~gapirmoq~baqirmoqso‘zlari sinonimlar lug‘atidan o‘rin ololmas edi.

Sinonimlarni ajratishning, so‘zlarni sinonomik paradigmalarga birlashtirishning asosiy omili sinonim so‘zlar anglatgan, ular nomlaydigan, ataydigan

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-72-75

narsa, voqea, hodisa, belgi, xususiyatning aynanligidir. Mana shu keskin farq graduonimiyani sinonomiyadan ajratib turadi.

Sinonomik qatorlarni birlashtirishda yetakchi omil sinonomik paradigma so‘zlarining bitta umumiy denotat (atalmish)ga ega bo‘lib, o‘z paradigmasi ichida asosan uslubiy bo‘yoqlar, qo‘llanilish doirasi bilan farqlansa, graduonimik paradigmadagi so‘zlar turli denotatlarni atab keladi, lekin bu denotatlar orasidagi farq denotatlarning sifatlarida emas, balki miqdoriy ko‘rsatkichlaridadir.

Shuning uchun sinonomiya bilan graduonimiya orasidagi asosiy farqni quyidagicha ko‘rsatish mumkin: sinonimik munosabatlar bilan bog‘langan so‘zlar paradigmasining a’zolari ayni bir denotant ayni bir voqelikni turlicha atab, ifodalab, nomlab keladi. Graduonimik munosabatlar bilan bog‘langan so‘zlar paradigmasi a’zolari turli denotatlarda ayni bir belgining turli miqdorda o‘sib borish yoki kamayish munosabatlari bilan bog‘langan bo‘ladi. Bir qarashda sinonimiya va graduonimiya orasidagi chegara aniqqa o‘xshaydi – denotatlar bir xil bo‘lsa – sinonomiya, denotatlar har xil bo‘lsa-yu, bu denotatlar o‘zaro sifat belgilarining so‘zlarning ma’nosi bilan bir qatorda shu so‘zlarning miqdori har xil bo‘lsa – graduonimiya hisoblanadi.

Sinonomik qatorni ajratishda tilshunoslarning tayanch nuqtasi so‘zlarning ma’nosida va bu so‘zlar anglatib nomlab kelgan voqelikning aylanganligida bo‘lsa; graduonimik lug‘aviy qatorlarda so‘zlarning ma’nosi bilan bir qatorda shu so‘zlarning semantik qurilishlaridagi miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan farqlanib turuvchi ayni bir belgining darajasida hamdir.

Lug`aviy birliklar o`zaro ma’noviy munosabatlarga ko`ra ma’lum bir darajalanish qatorlarini hosil etishi tilshunoslikda qadimdan ma’lum. Buni biz quyidagi misolda ko‘rib o‘tishimiz mumkin:

“Issiq-sovuq” so‘zlari ifodalagan belgilar bir biriga ziddir. Shuning uchun bu so‘zlar zid ma’noli so‘zlar – antonimlar sifatida baholanadi. Lekin iliq- issiq- qaynoq qatorida belgini belgini darajalab ifodalash mavjudligini anglash qiyin emas. Belgini darajalab atab keluvchi so‘zlarni o‘zaro birlashtirish tilshunoslikda uzoq tarixga ega.

Darajalanish leksemalararo, frazemalararo, va leksema hamda frazemalarning oralig‘ida (bog‘lanishlarida) voqea bo‘lishi mumkin. Shularga asoslanib , leksik, frazeologik graduonimiyalar haqida gapirish o‘rinlidir.

Lug‘aviy darajalanish maxsus graduonimik qatorlarda aks etadi. Shuning uchun darajalanish qatori buning birliklari hamda ushbu birliklar orasidagi munosabatlar orasidagi munosabatlar haqida fikr yuritish lozim bo‘ladi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-72-75

Darajalanish qatorining eng muhim qurilish belgisi unda bir umumiy belgi miqdorining ortib yo kamayib borishidir. Demak, bu qatordagi leksema va frazemalar bir umumiy belgining ozlik – ko‘plik darajalanish bo‘yicha o‘zaro semantik bog‘lanishlar (tutashishlar) hosil qiladilar. Bir turdagi sema belgisining oshgan yo kamaygan holda turli leksema va frazemalarning turg‘un tarkibiy qismlariga, komponentlarga aylanib qolganliklari gradunomik qator tuzilishining bosh omilidir.

XULOSA

Demak, lug‘aviy darajalanish qatori ikki va undan ortiq birliklardan iborat bo‘lishi mumkin. Graduonimiya aslida uch a’zoli qatorda yaqqol ko‘rinadi. Shunga qaramay qatorining (hodisasining) lisoniy ko‘rinish jihatdan ikki a’zoli ham bo‘la olishini hisobga olishimiz lozim.

REFERENCES

1. A.Navoiy. “Muhokamat-ul lug‘atayn”. Toshkent. “Tafakkur” nashr. 2014
2. Orifjonova Sh, “O’zbek tilda lug’aviy graduonimiya” f.f.n.diss.avtoreferat.Toshkent,1997.
3. Сафарова Р. Гипономия в узбекском языки. Кд. – Ташкент, 1990

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-76-80

OYBEKNING SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI

A. M. Shofqorov
Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti

F. J. Murodova
Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada Oybekning “Fanorchi ota” hikoyasi til xususiyatlari yoritiladi. Unda yozuvchining so‘z qo‘llash mahorati, tildan foydalanish imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek ijodkorning so‘zga uslubiy ma’no yuklay olish mahorati misollar bilan yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: til, adabiyot, uslubiy vosita, so‘z ma’nosi, uslubiy ma’no, til xususiyatlari, so‘z qo‘llash mahorati, tildan foydalanish.

ABSTRACT

The article describes the linguistic features of Oybek's story "Fanorchi ota". It focuses on the writer's vocabulary and language skills. The artist's ability to add stylistic meaning to a word is also illustrated.

Keywords: language, literature, methodological tool, word meaning, methodological meaning, language features, word usage, language use.

KIRISH

Til muqaddas va mo‘tabar ne’mat. Til va adabiyot uzoq yillardan buyon xalqning bebaho mulki sifatida qadrlanadi. Millatning tarixi va adabiy merosi til orqali tarannum etilishi ham sir emas. “Bejiz emaski, xalqimiz tilga, xususan, o‘zining ona tiliga muntazam muhabbat bilan qaragan, uni e’zozlab ardoqlagan, o‘zbek tilining mukammalligi va betakror ohanglaridan faxru iftixor qilgan. [3; 3]

“Adabiyot yashasa – millat yashar”, deb yozgan edi jadid adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon. Haqiqatan ham o‘z tarixini, adabiyotini yaxshi bilgan millatning ertasi farovon bo‘ladi. Adabiyot o‘zbek tilining rivojlanishi uchun asosiy manba hisoblanadi. Chunki tilga xos leksemalar, ularning denotativ va konnotativ ma’nolari, so‘zlarning grammatik shakllari hamda semantikasi, nutq uslublariga xos bo‘lgan mezonlar ana shu manbalar orqali

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-76-80

o‘rganiladi. Shoir va yozuvchilarning so‘z qo‘llash mahorati buning yorqin namunasi hisoblanadi. Badiiy asarda qo‘llangan til birliklari boshqa uslublardagiga nisbatan uslubiy vazifa bajarishi, emotsional-ekspressivlik vazifasining yuqoriligi bilan farqlanib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda badiiy ijodkorlar mahoratini belgilash uning til unsurlaridan foydalanish borasidagi mohirligi mezoni bilan ham bevosita bog‘liq ekanligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Badiiy nutq obrazli nutqdir. Ijodkor badiiy asarda so‘z vositasida obraz yaratadi. Har bir yozuvchi yoki shoir til vositalaridan o‘ziga xos shaklda foydalanib, individual uslubini yaratadi. Shunday mohir ijodkorlardan biri Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek.

Oybek roman va qissalari, ilmiy-nazariy, siyosiy, badiiy publitsistik asarlari, tarjimalari, ajoyib she’rlari, dostonlari, hikoyalari bilan o‘zbek adabiyoti xazinasini boyitgan. U XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga bebaho hissa qo‘shdi. Adib adabiyotimizni turli janr va shakldagi asarlar bilan boyitibgina qolmay, Cho‘lpon va Abdulla Qodiriylar ijodi tufayli shakllangan adabiy tilimizga yanada sayqal berdi. Oybek ijodi xalq turmushi, uning ruhiy va ma’naviy dunyosining serqirraligi va go‘zalligini aks ettiruvchi badiiy lavhalarga boy. Shu bilan birga adibning kishini o‘yga toldiradigan, o‘tmishning og‘ir kunlarini, kishilarning chor-nochor ahvolini ko‘rsatadigan asarlari ham talaygina. Ana shunday asarlaridan biri “Fanorchi ota” hikoyasidir. Badiiy asarlarni talqin etishda tilning imkoniyatlari nihoyatda beqiyos. Nutqda so‘zdan o‘rinli foydalanish, nutq uslublarining o‘zaro aloqasi asar tilining jonli tarzda namoyon bo‘lishini taqozo qiladi.

MUHOKAMA

Ushbu maqolada adibning “Fanorchi ota” hikoyasidagi so‘z qo‘llash mahorati haqida mushohada yuritmoqchimiz. Asar XX asrning 30-yillarida yozilgan.

XX asr boshlarida ko‘chalarga fanorlar ilinar, ular elektr toki bilan emas, kerosin bilan yondirilardi. Fanorlarning moyini, shisha ko‘zlarini almashtirish uchun maxsus xizmatchilar biriktirilar edi. Hikoyada mana shunday voqealar aks etadi. Hikoyani o‘qir ekanmiz, undagi ilk jumlalar ko‘z oldimizda o‘sha davr chizgisini aks ettiradi. “Tor qiyshiq ko‘chaning o‘ksiz oqshomini Tursunqul akaning churuk darvozasi tepasiga o‘tqizilgan bir fanorning titrak nurlarigina yoritar edi”. [8. 42]

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-76-80

Diqqat qiladigan bo‘lsak, jumladagi qiyshiq, o‘ksiz, churuk kabi so‘zlar uslubiy ta’sirchalikka ega, negaki shu so‘zlarga asar g‘oyasi singdirilganday.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *qiyshiq* so‘zi egri-bugri ma’nosini; *o‘ksiz* so‘zi 1) yetim, 2) baxtsiz, himoyasiz, 3) g‘amgin kabi ma’nolarni; *churuk* so‘zi esa eski, juldur, chirib ketgan ma’nolarni ifodalagan. [10] Bu so‘zlar adib tomonidan o‘sha davr ruhini, g‘arib bir ko‘chaning, qorong‘u oqshomini tasvirlash uchun atayin qo‘llangan. Masalan, *o‘ksiz oqshom* birikmasida o‘ksiz so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llanib, xalq hayotidagi qorong‘ulik, o‘ksik qalblarning qorong‘uligini aks ettiradi. Oybekning mahorati shundaki, u so‘zdan shunchaki foydalanmaydi, mohir rassomdek so‘z bilan surat chizadi. Ooqshomning qorong‘uligini miltillagan fanor nurlari bilan yoritish va yorug‘likdan bahra olish – bu yuqoridagi so‘zlar vositasida kelajakka, yorug‘ kunlarga ishora ekanligidan dalolat.

Asar davomida bunday so‘zlar bir necha o‘rinda qo‘llangan: burushiq yuzli, kir ro‘molcha, obkashdek bukilgan, battol, Qosim cho‘loq, qulagan uy, ajava tusda, qari-qartang, teshik oyna kabi so‘z va birikmalar uslubiy bo‘yoqdorligi bilan o‘quvchini o‘sha davrga yetaklaydi. Beixtiyor, hikoya qahramoniga aylanib borasiz. Fanorga do‘ppisini otayotgan, tosh bilan urib shisha ko‘zini sindirayotgan bolalarga dakki bergingiz, hech narda demay, jimgina fanorga “yangi ko‘zoynak” taqib ketadigan fanorchi otaga yordam bergingiz keladi. Chunki nutqning aniqligi so‘zning tildagi ma’nosiga tamomila muvofiq tarzda qo‘llanishi, so‘zning voqelikdagi o‘zi ifodalayotgan narsa-hodisa bilan qat’iy mosligi asosida yuzaga keladigan kommunikativ sifatdir.

Tavsiflanayotgan voqelikni yaxshi bilish, tildagi so‘z ma’nolarini, uning nozikliklarini anglash, hikoya mazmunini ochib berishga imkon yaratadi. Hikoyada keltirilgan so‘zlarning vazifasi estetik ta’sir etishdan iboratligi uchun so‘zning turlicha qo‘llanishi, tovlanishi, xilma-xil ma’nolarni ifodalashiga imkon yaratadi. Oybek qo‘llagan har bir so‘z zamon va undagi xalq hayotining yashash tarzini, kishilarning bir-biriga bo‘lgan munosabatlarini ko‘rsatib bergan. Bu esa o‘quvchini yaxshilik qilishga, voqealardan to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

Yana bir holat o‘quvchi e’tiborini tortadi. Fanor nega aynan Tursulqul akaning eshigi oldida? Nega “yuzi burishgan, gavdasi obkashdek egilgan” bir kimsa fanorni yoqadi? Oybekning shaxsiyatini bilgan kishi, albatta bu savolga javob bera oladi, Oybek nihoyatda kamtar, mehribon, birovga har doim yordam beradigan, bechorahol kishilarga hurmati baland bo‘lgan. Fanorchi ota obrazi orqali hayoti qorong‘ulikda qolgan kishilarning qo‘liga yorug‘likka olib chiqadigan bir mash’ala bergandek,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-76-80

go‘yo. Fanorchi otaning yuvoshligi, beozorligini ham hikoyadagi so‘zlar ortiga berkitadi. Ko‘rinishidan xunukkina bu odamning qalbi go‘zalligini, undagi bolajonlikni va samimiylikni o‘quvchi asar oxirida his qiladi. Qosim kabi bolalarning tarbiyasizligi va shuning natijasida atrofdagilarning ham hurmat-izzatni unutib qo‘yishi o‘sha davr uchun ham dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda Sa’diyning “Guliston” asaridagi bir hikoyani eslab o‘tish joiz bo‘ladi. “Odobni kimdan o‘rganding?” deb so‘radilar. Luqmon javob berdi: “Odobni beodoblardan o‘rgandim, ularning harakatlaridagi menga maqbul bo‘lmagan narsalardan o‘zimni saqladim!” [1; 63].

Oybek ham o‘z hikoyasi orqali falsafona qarashlarini bayon etadi. U qaysi janrda ijod qilmasin, so‘zni ehtiyotlaydi, uni jonlantirishga harakat qiladi. Asarlarida har bir so‘zni mahorat bilan qo‘llaydi. Yozuvchi tilga, so‘zga o‘zgacha munosabatda bo‘ladi. So‘zni qadrlaydi. Uslubiy ma’no yuklaydi. “Har bir davrda ijod etgan shoir va yozuvchilar, hatto bir davrda yashagan ijodkorlarning ham so‘zga, tilga munosabati bir xil emas”. [7; 125]

Zarifa Saidnosirova “Oybegim mening” asarida bu haqida alohida to‘xtalib, shunday yozadi: “Oybek bir jumla ustida soatlab o‘tirardi. U yozar ekan, uyning u burchidan, bu burchiga tez-tez yurardi, uzib olgan qog‘oz parchasini chaynardi, asar qahramonlari bilan so‘zlashardi. Ba’zan tovushini baland qo‘yib, qo‘llarini harakatga solib, hayajon ila gapirib qo‘yardi”. [9;]

Abdulla Qodiriy «Yozg‘uvchilarimizga» nomli maqolasida: «So‘z so‘ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Yozuvchining o‘zigina tushunib, boshqalarning tushunmasligi katta ayb. Asli yozuvchilik aytmoqchi bo‘lgan fikrni hammaga barobar anglata bilishda, oraga anglashmovchilik solmaslikdadir. Bundan tashqari, fikrning ifodasi xizmatiga yaramagan so‘z va jumlalarga yozuvda aslo o‘rin bermasligi lozim. Kishiga ishonish va behuda kuchanish ma’qul gap emas, birovga orqa qilib, o‘zingizda bo‘lgan talantning ruhiga fotiha o‘qiy ko‘rmangiz! Bir soatda emas, o‘n soatda yozish, bir qayta emas, o‘n qayta tuzatish kishining yordamiga termulishga qaraganda ham foydali, ham unumlidir», deb ta’kidlaydi. Shuningdek, Oybek “O‘zbek poeziyasida til” maqolasida poeziya tiliga xos to‘rtta xususiyatni alohida qayd qiladi. Ular - ohangdorlik, bo‘yoqlilik, ixchamlik, chiroylilikdir. Adib “qofiya uchun ma’noni qurbon qilish yaramaydi”, “har bir so‘z uzukka qo‘yilgan qimmatli tosh kabi porlasin”, deydi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-76-80

XULOSA

Oybek tildagi kamchiliklar - chigallik, siqiqlik, balandparvozlik, sun'iylik, qashshoqlik va quruqlikdan iborat so‘zlardan, jumlalardan uzoq yuradi. Uningcha, so‘zlar asarga chertib, tanlab olinishi lozim. Unda ishlatilgan so‘z kuchli, ifodali, ravshan, sodda, toza, xalqqa yaqin bo‘lishi kerak, til hayotni to‘g‘ri ko‘rsatishga xizmat qilsin. Shundagina asar omma ichiga til orqali kirib boradi va xalqning qalbini zabt etadi.

So‘z yoki birikma badiiy tasvirning muhim vositasidir. Ammo ularning badiiy matnda qo‘llanish darajasi, badiiylikni ifodalash imkoniyatlari turli-tuman. Oybek asarlarining jozibasi va o‘ziga xosligi ham yozuvchining tildan foydalanish mahoratida yorqin ko‘rinadi. Oybek eng sodda fikrlarni ifodalash uchun ona tili xazinasidan yagona, ohorli so‘zlar topa oldi. Bunday so‘zlar yozuvchi asarlarida o‘ziga xos jilolandi. Shuning uchun ham Oybek asarlari adabiyot sahifalarida barhayotdir.

REFERENCES

1. Adabiyot xrestomatiyasi. 8 jildli. 8-jild. – T.: “G‘afur G‘ulom nashriyoti”, 2018.
2. Afaqova N. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san’atlar. – Buxoro: “Buxoro”, 1994. -B.102.
3. Mahmudov N. Til. – T.: “Yozuvchi”, 1998, -B. 40.
4. Ne’matov H., Bozorov O. Til va nutq. – T.: “O‘qituvchi”, 1993.
5. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. – T.: Fan, 1982. – B. 87.
6. Qurbonov T. Tarixiy badiiy asar va davr tili masalalari. – T.: O‘zME, 2006. – B. 13.
7. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. – T.: Fan, 1977. – B. 125.
8. Umumiy o‘rta ta’lim 5-sinf adabiyot darsligi. – T.: “Sharq”, 2020.
9. Saidnosirova Z Oybegim mening. – T.: “YAngi asr avlodi”. 2020.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 1-5 jildlar // A.Madvaliev tahriri ostida. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006-2008.
11. Shofqorov A.M. O‘zbek tilida badiiy takror. – T.: “Fan va texnologiya, 2019. -B. 120.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-81-85

TEMURIYLAR DAVRI MINIATYURALARIDA AYOLLAR SIYMOSI

Malika Qahramon qizi Uraimjonova
O'zbekiston Milliy Universiteti tarix fakulteti 2-kurs talabasi
malikauraimjonova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojlangan davrda miniatyuralarida ayollar siymosi haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi. Shuningdek rassomlar tomonidan tasvirlangan miniatyuralarda ayollar timsoliga qanday e'tibor berilganligini bilish mumkin.

Kalit so'zlar: Sharq miniatyuralari, ayollar siymosi,temuriylarda ilm-fan, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Og'abegim xonim.

ABSTRACT

This article provides interesting information about the image of women in miniatures during the development of science and culture during the Timurids. You can also see how much attention is paid to the image of women in the miniatures depicted by the artists.

Keywords: Oriental miniatures, women's figures, science in the Temurids, Alisher Navoi, Kamoliddin Behzod, Ogabegim Khanim

KIRISH

O'tmish davrlaridan to hozirgi davrgach ilm-fan, madaniyat sohalariga katta e'tibor qaratilgan. Tarixda biron bir davlatning kuch qudrati, u yerda rivojlangan madaniyat, ilm-fan sohasiga qarab belgilangan. Xususan davlat qudratli bo'lar ekan albatta u yerda tinchlik hukmron bo'lib, madaniyat rivojlanadi. O'zbekistonda mustaqillik sharoitida tasviriy san'atga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgach, uning barcha sohalarida katta ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, Sharq nafis san'at namunasi bo'lmish miniatyura va xattotlik qayta tikland, yoshlarning uni o'rganishga qiziqishi kuchaydi, maxsus badiiy ta'lim va oliy ta'lim maskanlarida Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn institutida o'qitilmoqda. Sharq miniatyuralar katalogi, Shoyoqubovning Zamonaviy o'zbek miniatyurasi albomidagi o'quv qo'llanma sifatida foydalanilmoqda.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-81-85

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Temuriylar davri ma'daniyatining eng yorqin sahifalaridan biri xattotlik va rassomlik sohalarida erishilgan yutuqlar tashkil etadi .Mana shuning uchun ham Sharq kitoboti va miniatyura san'ati to'g'risida so'z yuritilganda, albatta Temuriylar davri alohida e'tiborga ega.

Amir Temur va temuriylar davridan bizgacha yetib kelgan nafis san'at mo'jaz rasm-miniatyuralarda, o'sha davr jamiyatida ayollar o'ziga xos o'ringa ega ekanligini va ayollar har doim alohida e'tiborga sazovor bo'lganligini bilish mumkun .

Temuriylar davridagi eng qadimgi namuna, shajaradan olingan Amir Temur va farzandlari rasmida ham qizlarining kattasi-Og'ibegim xonimni rasmi mavjud.Bu rasm Turkiyaning Istanbul shahridagi To'pqopi saroy muzeyi kutubxonasida saqlanib qolgan bo'lib, 1405-1409 yillari yaratilgan deb tahmin qilinadi. Suratdagi ayol siymosi juda qunt bilan yaratilgan bo'lsa-da, uning bosh kiyimi an'anaga muvofiq mog'ul xalqlarinikiga o'xshatib ishlatilib chizilgan.[1]

Mashhur Ulug'bek ovda yoki Ulug'bek o'z ayonlari va oilasi bilan deb nomlangan rasmda ham to'rt ayol tasviri mavjud. Bu rasm 1400-yil yaratilgan parokanda qo'lyozmaning qo'sh rasmi o'ng tomoni bo'lib, qog'ozning hajmi 24,1x31,8sm. Rasmni Samarqandda Ulug'bek davrida yaratilganligi shubhasiz. Rasmda ayollarning ikki nafari malikalardan bo'lib, yana ikkitasi hizmatkorlardir. Malikalardan biri Ulug'bekning sevimli xotinlaridan biri Oqsultonxon og'a, ikkinchisi esa, Husn Nigor xonim tasviri deb tahmin qilinadi.[2] Boysung'ur Mirzo musiqa tinglamoqda yoki Boysung'ur xotinlari bilan bog'da nomli She'riy majmua qo'lyozmasiga hijriy 830\milodiy 1426-1427 yillarda yaratilgan rasmda oqar suv yonidagi bog' markazida, ulkan daraxt soyasida to'rt burchak gilam ustida shahzoda va uning mahbubasi , chapda pastroqda naychi, doirachi va changchidan iborat musiqachi ayollar kuy chalmoqdalar ,undan yuqorida esa beshta ayol hizmatda. O'ng tomonda ko'za tutib turgan cho'ri. Pastda suv yoqasida o'tda go'sht qovurayotgan erkak xizmatko'rlar bor.[3] Bundan ko'rinib turibdiki Boysung'ur Mirzo o'z vaqtini hush o'tkazganligi Alisher Navoiy ham ushbu shahzodani hayotdan huzur qilishni yaxshi ko'rishini ta'kidlab o'tdan. Uning rahbarligi va bevosita ishtirokida tuzilgan. Abulqosim Firdavsiyning Shahnomaasari qo'lyozmasi (Xirot 1425-1450) hoshiyasiga

[1] Timur and Princely Vision.Persian art and Culture in the Fifttheeth Century./T.W.Lentz and G.D.Lowry.-Washington:Smithsonian Institution Press,-p,102,fig;37

[2]Madraimov.A. Temuriy va Boburiylar davri miniatyura san'ati rivoji.- "Fan" nashriyoti;T:.2019. 31-bet

[3] Madraimov.A. Temuriy va Boburiylar davri miniatyura san'ati rivoji.- "Fan" nashriyoti;T:.2019. 33-bet.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-81-85

ishlangan naqshlar orasiga ishlangan to'rt qanotli farishta ham go'zal ayollar sifatida tasvirlangan[4].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

She'riy majmua(1434-1440)ga tegishli bo'lishi mumkun bo'lgan bir rasmda Rustam xonasiga kirayotgan Taxminatasvirlangan. Kechki payt ekanini xizmatkor ayolning qo'lidagi va xonadagi shamlar anglatadi. Taxmina to'q sariq qabo kiygan, boshida oltin toj, tortinib, iymanib turgan xolatda tasvirlangan[5]. Uning tarkibidagi yana bir rasmda Xusrav rasmini ko'rayotgan Shirin mavzusidagi miniatyura bo'lib, unda ulkan daraxt yaqinidagi suv yoqasidagi yam-yashil maysazorda malika o'zining to'rtta kanizagi bilan qirmizi kiyimdagi yigit- Xusrav rasmini tomosha qilmoqda. Uzoqdagi qoyalar oldida sarg'ish rangli dalada bir necha gullagan o't-o'lanlarni ko'rish mumku.Shirin qora-qo'ng'ir rangdagi, yengi uzun qabo, och pushti rangdagi ko'yalakda, boshida esa oltin toj. Kanizaklar qizil, qo'ng'ir, oq-pushti,sariq rangdagi ko'ylaklar kiyganlar. Ularning boshida moviy va to'q qo'ng'ir rangdagi ayollar do'ppis tasvirlangan.[6] Iskandar Sulton ibn Umarshayx toleomasi qo'sh rasmdagi (Sheroz 1411-yil 18-aprel) farishta hamda Zuhro yulduzi timsoli ayol sifatida talqin qilingan. Bundan bilamizki ayollar juda go'zal tasavvur qilingan.

Badiiy asarlarga ishlanga rasmlar ichida Abulqosim Firdavsiyning, Shohnoma miniatyuralari eng qadimgilardan hisoblanadi. Bunday rasmlar turkumi ichida ayol farishtalar, malika Bilqis, kanizak, raqqosalar, sozandalar, mulozim kampir tasvirlangan. Barcha obrozlar tasvirlanar ekan o'z davrining estetik-badiiy talablariga ko'ra yaratilgan[7]. Ba'zi obrozlar maftunkor qilib, ijobiy shaxslar qatorida tasvirlanar ekan , albatta ular orasida salbiy korinishlar ham mavjud. Malika Sudoba va mulozim kampir bunga misol bo'ladi.

Temuriylar davrida yashab, ijod etgan ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning Xamsa va Lison ut-tayrdostonlari va Badoyi ul-bidya, Sherozda tartib berilgan devon shu va boshqa dostonlarning to'liq va terma qo'lyozmalargai 15-16 asrlar davomida ko'plab rasmlar ishlangan. Ularning ba'zilarida hayotiy tarixiy shaxslarni ko'rsak, ko'pchiligida Shirin, Layli, Mohinabonu,Diloromlar va boshqa ayollarning uyg'unlashgan siymolarini ko'ramiz.

[4]O'sha joydan 34-bet
[5] O`sha joydan 33-bet.
[6] O`sha joydan 33-bet
[7]Madraimov.A. Temuriy va Boburiylar davri miniatyura san'ati rivoji.- "Fan" nashriyoti;T:.2019.34-bet

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-81-85

Alisher Navoiy dostonlariga ishlangan rasmlar al'bom-to'plamidagi 32 turkumdan 19 tasida ayollar surati mavjud. Ba'zida, xususan Nushurvon Malika bilan saroyda, Majnun Laylining uyida rasmlarda ayollar asosiy qahramonlar sifatida kompazitsiya markazida tasvirlangan. Yosuman Shirinning o'limi haqida Farhodga habar bermoqda rasmida qari yovuz kampirning salbiy siymosini ko'rishimiz mumkun. Yana bir rasmdagi ikki farishta qanotli ayollar sifatida tasvirlangan.[8] Uning yana bir boshqa asarlariga ishlangan rasmlar orasida Sulton Husayn va da'vogar kampir qozi huzuridarasmi mavjud bo'lib unda o'z davrida tilla kampir deb nom olgan ayol siymosini ko'rishimiz mumkun. Yana boshqa rasmda ot mingn Shirinn oti bilan ko'targan Farhodni ko'rib ko'rish mumkun.

Chap tomonda hayratda qolgan kanizaklar tasvirlangan. To'rtta rasmda Bahrom va go'zallar tasviri mavjud. Eng diqqatga loyiq rasm sifatida Hayrat ul-abror dostonidagi so'z tarifiga ishlanganini ko'rsatish mumkun. Unda olti juft yosh yigit va qiz munosabatlari juda yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Ularning bir-biriga bo'lgan munosabati yaqqol sezilib turgan. Bunday ishlangan rasmlarni tomosha qilib xuddiki o'sha davr ichiga tushib qolganday bo'ladi kishi.

XVasrda Hirot fan, san'at va madaniyat olamida paydo bo`lgan juda ko`p shaxslar singari Kamoliddin Begzodning ham ijodiy kamolitida Alisher Navoiy hal qiluvchi rolni o`ynagan va o'zining tug'ma nafis san'atga bo'lgan qobiliyati tufayli juda ko'plab takrorlanmas tasviriy san'at mo'jizalarini yaratgan. Sharqning buyuk musavviri ustod Kamoliddin Behzod ayollar siymosini yaratganda ham juda ishtiyoq bilan ishlaganligini ko'rishimiz mumkin. Rassom ijodiga bag'ishlangan 1432-yilga nisbat berilgan albomdagi rasmlarning birida Layli va dugonalari maktabda tasvirlangan.

So'nggi Temuriylardan bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining Vaqo'iy-Boburnoma asarida zamondosh Temuriylar, o'z otasi Umarshayx Mirzo, amakilari Sultan Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Xuroson podshosi Sulton Husayn Mirzo xotinlari va qizlari to'g'risida juda ko'plab mukammal ma'lumotlar keltirilgan. Hindistonda XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Boburning nabirasi Jaloliddin Muhammad Akbar saroyida Boburnomaning forscha tarjimasi qo'lyozmalariga ishlangan rasmlarning ma'lum qismida kitobdagi eng munosib ayollar tasvirlangan. Ushbu asarda Bobur juda katta ehtirom bilan yod etadigan ayol bu Eson Davlatbegimdir: Xotinlar orasida ra'y va tadbirda, mening ulug' onam Eson Davlatbegimcha kam bo'lgay edi, bisyor oqila va mudabbira edi. Ko'proq ish

[8] Alisher Navoiy dostonlariga ishlangan rasmlar./ Hamid Suloymon.-Toshent; "Fan" nashriyoti,1970[. 3 5 6 7 rasmlar]

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-81-85

alarming mashvarati bila bo'lur edi.- deyiladi Boburnomada. Bunday zukko va oqila ayolni ikki rasmlarda ko'rishimiz mumkin. Birinchi rasmda Esan Davlatbegim Mavlonoyi Qozi bilan Hasan Yoqub qo'zg'olonini oldini olish to'g'risida maslahat qilishmoqda. Ikkinchi tasvirda esa nabirasi Boburga nasihat qilayotgani tasvirlangan

Bizga ma'lumki Boburning suyukli opasi Xonzodabegim orasida uzoq vaqt

ayriliq bo'lgan. To'rtdan ortiq rasmlarda ularning iztirobli ayriliqdan so'ng uchrashganligidagi holati juda tasirli qilib ishlangan. Boburning hayotida muhim ro'l o'ynagan oqila ayol tasviri ko'plab rassomlar tomonidan ishlangan.

XULOSA

Buyuk kamolat sohibi hisoblanmish Amir Temurning shaxsiy fazilatida ayollarga e'tibor, ularni qadrlashga alohida e'tibor qaratgan. Xattoki kelin tanlashda ham alohida qonun, rasm-rusumlari bo'lgan. Uning ayollarga hurmat bilan bo'lgan munosabati avlodlariga ham saqlanib qoldi. Xususan Bobur va uning Hindistondagi avlodlarida saqlanib qolgan edi. Rassomlar tomonidan chizilgan ayollar siymosida ularni qoshlari va lablari ingichka, burunlari kattaroq, ikki yuzi qizargan, boyni uzun, bellari xipcha qilib tasvirlangan. Bu ham oziga xos san'at uslubi bo'lib, bunday ayollarning chiroyda tengi yo'qdek tasvirlangan. Kiyinish uslublarida ham rangbarang va xarir matolardan foydalangan. Umuman olganda Sharq ayollarining barchasi go'zaldir. Ayollar siymosi har doim e'zozda va ardoqda bo'lgan.

REFERENCES

1. Alisher Navoiy dostonlariga ishlangan rasmlar./ Hamid Suloymon.-Toshent; Fan nashriyoti,1970[. 3 5 6 7 rasmlar]
2. H.Sulaymon Boburnoma rasmlari''. ''Yozuvchi'' Toshkent:1995
3. Madraimov.A. Temuriy va Boburiylar davri miniatyura san'ati rivoji.- Fan nashriyoti;T:.2019. 31-bet
4. Timur and Princely Vision.Persian art and Culture in the Fifttheeth Century./T.W.Lentz and G.D.Lowry.-Washington:Smithsonian Institution Press,-p,102,fig;37

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-86-97

КАШТА ТИКИШДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ИПЛАРНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ УСУЛЛАРИ

Жахонгир Адхамович Ахмедов
Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти, т.ф.д., проф.

Қўзибой Эркинович Сабиров
Урганч давлат университети, ўқитувчи

Жўрабек Шомил ўғли Шарипов
Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти, таянч докторант

Темур Дилшод ўғли Турсунов
Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти, изланувчи

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада кашта машиналари ва каштачиликдаги безакларни техник характеристикалари, табиий ипакдан кашта тикув ипларини ишлаб чиқариш усули келтирилган. Кашта ипак ипларини ишлаб чиқариш учун хом ипакларни қайта ўрашда рационал ишлов бериш режимлари, табиий ипакдан 18-136 тексдаги кашта ипи олиш учун 3,23 тексли хом ипакдан дастлабки эшишда 3-10 таси қўшиб чап йўналишда метрига 330-340 та бурам берилганлиги, сўнгра эшилган ипларни яна 2-4 таси қўшилиб ўнг йўналишда метрига 310-340 та бурам берилганлиги, ипак ипларини узилиш кучи ва узилишгача бўлган чўзилиши келтирилган.

Калит сўзлар: хом ипак, тикув, қўл кашта, безак, игна, мато, баҳя, занжирли, кашта манинаси, нақш, эшилган ип, вакуум-буғ, текс, бурам.

ABSTRACT

This article presents the technical characteristics of embroidery machines and embroidery ornaments, the method of production of embroidery threads from natural silk. Rational processing regimes in the rewinding of raw silk for the production of embroidered silk yarns, 330-340 twists per meter in the left direction, adding 3-10 in the first spinning of 3,23 text raw silk to obtain embroidery yarn of 18-136 tex from natural silk, and then spun the addition of 2-4 more yarns in the right direction gave

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-86-97

310-340 twists per meter, the breaking strength of the silk yarns and the elongation to break.

Keywords: raw silk, sewing, hand embroidery, embroidery, needle, fabric, bahya, chain, embroidery manina, pattern, twisted yarn, vacuum-steam, tex, twist

КИРИШ

Республикамизда ипак хомашёсини чуқур қайта ишлаш асосида юқори қўшимча қийматли тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришни жадал ривожлантириш, ипакчилик саноатини модернизация қилиш орқали ички ва ташқи бозорда ипак маҳсулотлари рақобатбардошлигини таъминлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Шу билан бир қаторда, ипак ишлаб чиқаришда энергетик харажатларни камайтиришни таъминлайдиган энергиятежамкор технологияларни яратиш ва такомиллаштириш ўта муҳим аҳамиятга эга.

2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида, жумладан « … миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини ошириш, … иқтисодиётда энергия ва ресурслар сарфини камайтириш, ишлаб чиқаришга энергия тежайдиган технологияларни кенг жорий этиш» вазифаси белгилаб берилди. Ушбу вазифаларни ҳал қилишда, жумладан янги структурали тикув ва кашта ипларини ишлаб чиқариш технологияларини яратиш ва ишлаб чиқаришга жорий этиш муҳим ўрин тутади.

Тадқиқотнинг мақсади табиий ипакдан янги структурали тикув, каштачилик ипларини ишлаб чиқариш технологиясини яратишдан иборат.

Бугунги кунда кашта иплари турли сифатли йигирилган ипларни, тикув ипларини ишлаб чиқарувчи корхоналар томонидан тайёрланади ҳамда тери маҳсулотларига безак беришда, расмийлаштириш ва измани йўрмашда ишлатилади. Каштачилик учун иплар ассортименти турли-тумандир [1].

Rayon – махсус маиший тикув ва кашта машиналари учун ишлаб чиқарилган сунъий ипакдан тайёрланган тикув иплари бўлиб, автомат ва яримавтомат дастгоҳлар талабига мос келади.

Spectra – кашта иплари устки қисмига голографик фольга қопланган, ёруғлик йўналишига қараб рангини ўзгартирадиган тикув иплари.

Neon – қоронғида товланадиган флюорес тусланишдаги кашта учун мўлжалланган тикув иплари.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-86-97

Monofil – бисер ва шиша мўнчоқлар, тасмаларни баҳялаб тикиш, йўрмаш, кўринмас чокларни бажаришга мўлжалланган рангсиз тикув иплари.

Dekor – тикув маҳсулотлари қисмларини йўрмаш, каштачилик, илмоқда тўқиш учун мўлжалланган ялтироқ вискоза ипи.

Ипларни тайёрлаш учун турли-туман иплар, толалар ва пардозлаш турларидан биргаликда фойдаланилади. Ип билан шуғулланувчи фирмалар каталогларида ипларнинг техник характеристикалари келтирилмаган, лекин кашта иплари намуналари келтирилган [2-4].

Хом ипак, ипак маҳсулотлари технологияларини такомиллаштириш ва тайёр ипларнинг замон талабларидаги турларини яратиш борасида жаҳонда олиб борилган илмий тадқиқотлар асосида қатор, жумладан қуйидаги илмий натижалар олинган: тикув ипларини мосланувчан технологик жараёнларини автоматлаштирилган тизимлари ишлаб чиқилган (Tajima, Япония; Eton Ups, Швеция; Schonenberger, Франция; Datatron, Германия); синтетик ипларни текстурлашни янги усуллари яратилган (Turbo ва Heberlein, Швейцария).

Дунёда сифатли ипак маҳсулотларини ишлаб чиқариш жараёнларининг технологияларини яратиш ва такомиллаштириш бўйича қатор, жумладан, қуйидаги устувор йўналишларда тадқиқотлар олиб борилмоқда: юқори ипакчанликка эга бўлган янги зот ва дурагай пиллаларини яратиш асосида юқори сифатли хом ипак олиш технологиясини такомиллаштириш; табиий ипак хусусиятларига ўхшаш тусли ипларни яратиш; синтетик толалар ва ипларни табиий ипакнинг нано бўлакчалари билан модификация қилиш; ипак ва бошқа толалар билан аралаш матолар яратиш; ипак тиббиёт докаси учун хом ашё тайёрлаш технологиясини ишлаб чиқариш; мавжуд технологияларни такомиллаштириш асосида табиий ипакдан янги структурали тикув, жарроҳлик, кашта ипларини ишлаб чиқариш технологиясини яратиш [5-11].

Мамлакатимизда миллий қадриятларимизни, тўқимачилик, кашта тикиш ва бошқа турдаги халқ ҳунармандчилигини тиклашда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш, улар учун керакли асбоб-ускуна, хом ашё етказишда тегишли вазирлик ва идоралар, ташкилотлар, маҳаллий органлар масъулиятини ошириш борасида тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Ҳунармандчилар фикрларини ўрганганимизда: айниқса попоп машинасида ёки қўлда кашта тикишда зарур ипларни етишмаслиги, чет элдан келтирилган бундай ипларнинг қиймати юқорилиги ва зарур вақтда хом ипакни қўлда қўшиб эшиб, бўяб, сўнгра дўппи ёки кашта тикишларини билдиришди.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-86-97

Шу муносабат билан, кичик бизнес соҳасидаги ҳунармандчиларга саноат усулида, нисбатан арзонроқ, рангли ипларни етказиб бериш мақсадида каштачилик ипларини янги ассортиментини яратиш устида изланишлар олиб бордик.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДЛАРИ ВА ТАҲЛИЛИ

Каштачиликдаги безакларни техник характеристикалари. Каштачилик саноатининг мақсади турли хил иплардан игна ёрдамида матога безакларни туширишдир. Игна матони тешиб ўтиб, ипни баҳялаб, тешикдан тешиккача иплар штрихини маълум тартибда жойлашиши натижасида мато юзасида ҳоҳланган безак ҳосил бўлади. Безак фони сифатида барча мумкин бўлган матолардан (рангли ва оқ) ташқари тери, кигиз ва бошқа силлиқ материаллардан ҳам фойдаланиш мумкин. Каштачиликда ишлатиладиган иплар ҳам турли-туман: қоғозли, жунли, ипакли, кумуш, тилла, ялтироқ мунчоқларнинг барча ранги, навлари ва бошқалар. Каштачилик бажариш усулига кўра қўлда ва машинада бажариладиган турларга бўлинади, уларни гуруҳларга ажратишга ҳаракат қилдик.

Қўл каштаси гуруҳи техник характеристикаси бўйича қуйидаги кўринишда бўлади:

1. Хоч кўринишида тўрли матога безак қилиб кашта тикиш. Ушбу каштачилик кўриниши содда ва оммавийлашган бўлиб, тикиладиган безак бўйича турли хил матоларга сидирға ва рангли ипларда бажарилади. Иш тугаши билан тўр суғуриб олинади.

2. Ярим хоч шаклида, яъни хочни ярмини бажариб биринчи каштачилик турини кўп кўринишларини ўзида намоён этади, ҳамда нозик ишларни бажаришда қўлланилади.

3. Оқ матони безаш учун тўлдириб нақш тикиш, яъни олдиндан белгиланган нақш шакли бўйича бир қатор чок ёнидан яна бошқасини тикиш орқали якунланади.

4. Икки марта тўлдириб кашта тикиш матони ўнги ва тескарисини бир хил тусдаги безак билан тўлдириб тикишдир, у бир томонлама тўлдириб тикиш каби кенг оммавийлашмаган.

5. Ҳозирги вақтда кўп фойдаланиладиган, баҳялаб тикишдан олинган тўр бўйича ипни чиқариб, катаклар бўйича уларни чиқариш ҳисобига кашта тикиш.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-86-97

6. Филе каштаси баҳяли тикишга баъзи ўхшаш безак учун махсус тайёрланган мато ўзини кўринишига ўхшаш тўр ёки бошқа тўрсимон иплар билан боғланиб якунланади. Кашта тикиш учун нақшга қараб сидирға ёки рангли иплардан фойдаланилади.

7. Матода ипларни тортиб олиш ҳисобига ҳосил бўладиган зич тўрдаги кашта шлезвик–голштин номи билан маълум бўлган тикиш усули билан бажарилади ва асосан оқ мато учун қўлланилади.

8. Ришелье каштаси кенг тарқалган бўлиб, унда матони безаш олдиндан белгилаб олинган нақш контурларини ҳалқали чок билан ўраб чиқишдан иборат. Иш тугаши билан расмнинг алоҳида қисмларини бўш қолган жойлари кесилади. Натижада очиқ нақш ҳосил бўлади.

9. Занжирли чок (попоп кашта) юмалоқ таранглагичларда махсус илгак игналарда турли матоларга безак бериш учун бажарилади.

10. Кашталар ичида аппликация алоҳида кўринишга эга бўлиб, олдиндан ўша ёки бошқа матодан қирқиб олинган нақш безатилаётган матога ипак ёки сунъий иплар билан тикилади, безак билан мато оралиғи турли кўринишдаги кашталар билан тўлдирилади.

11. Қийин кашта тури шарқона характерга эга бўлиб, тилла ва кумуш рангли иплардан рельеф бўйича нақшнинг белгиланган контурида иплар тўшамаси ёки юпқа картон қўйилиб, кейин иплар билан қалин қоплаб кашта тикилади.

Қўл каштаси ҳозирги кунда хунармандчилик саноатида алоҳида ўрин тутади. Унинг кўп сонли нақшлари турли хил бадиий оқимларни инкор этиб, қадимги изларни ўзида сақлаб қолган. Жун, ипак, мўнчоқ, тилла, кумуш, тошлардан фойдаланиб аёллар кўйлаги ва бош кийимларини безашда бой каштачиликдан фойдаланилган. Каштачиликни турли-туман усуллари мавжуд. Икки томонлама нақш тикиш усули кўп ишлатиладиган усул сифатида тарқалган бўлиб, каноpдан тўқилган матони иккала томонида бир хил нақш тикиш, тикиш жамламалари қўлланилган гулдор кашталар, ўзининг техникаси билан худди матони эслатувчи каштачилик усуллари шулар жумласидандир.

Ушбу кашталарнинг кўпи хоч қилиб тикиш усулида бажарилган. Бундан ташқари, тўрсимон матодан ипларни суғуриб олиш ва ип ўрнидаги катакларни қайтадан тикиш ҳисобига бажарилган замонавий қаторли тикиш усули ҳам мавжуд. Бунда “Хат бўйича тикиш” усулида турли хил нақшлар тикилади ва мато таркибидаги иплар олинмайдиган бўлиб, иш якунланади. Каноpдан

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-86-97

тўқилган матода “Қирқиш бўйича тикиш” усулини қўллаб, нақшни қирқилиши ҳам кўп қўлланилади ва матода фон силлиқ ҳолатда қолади. Турли кўринишдаги нақшлар кундалик анжомларни безашда, маиший ҳаётни чиройли ва кўркам бўлишида кўп ёрдам берган. Кашта машиналари ихтироси билан қўл каштачилиги сиқиб чиқарилди. Қўл усулида бажарилган юқори сифатли кашта, бадиий безак, нақшлар ва предметларни ҳеч қачон замонавий кашта тикиш машиналарида, уларнинг тикилиши қанчалик мураккаб бўлишига қарамасдан, оммавий ишлаб чиқаришдаги каштани қўл иши билан солиштириб бўлмайди.

Машинада тикилган кашта. Механик йўл билан ишлаб чиқарилган кашта турли-туман: ажур, силлиқ, занжирли ва бошқалар. Кашта турли матолар - миткал, кембрик, батист, тюл, жунли матолар ва бошқаларда келиб чиқиши турли бўлган иплар - пахтали, жунли, ипакли, металликларда бажарилади. Барча матолар таг мато ҳисобланиб унга нақшлар тикилади. Турли келиб чиқишдаги ипларнинг комбинацияси ишлатилиб таг матода нақш битказилгандан сўнг нақшга катта рельеф бериш мақсадида ўювчи ишқор билан таг мато йўқотилади, агар мато жунли ёки ипакли бўлса, бунда нақш ипи қоғоздан бўлади. Метал иплар билан каучукли тагликка кашта тикилганда, жараён якунида тагликни йўқотиш учун бензин билан ишлов берилади. Механик кашта тикиш учун кўплаб машина турлари мавжуд, аммо тўхталишимиз керак бўлган машина фабрика шароитида ишлаб чиқаришда қўлланиладиганидир. Одатда бундай кашталар уч кўринишдаги машиналарда ишлаб чиқарилади: а) моккисиз, битта игнада ишлайдиган; б) моккили ва игнали бўлиб, ричакка ўрнатилган полотнони қўлда силжитиб туриш керак; в) автомат машиналар.

Биринчи кўринишдаги машина икки томонлама ўткир бўлган игнага эга бўлиб, ўртасида тешиги бор, олдиндан тайёрланган маълум узунликдаги ип игнадан ўтказилади ва халқа игнага маҳкамланади. Ипни полотнони бир томонидан иккинчи томонига ўтказиш махсус қисқичлар орқали амалга оширилади. Ўтган ипни игна ёрдамида у томондан бу томонга ўтказилади. Машинада махсус тешкич шпиллари бўлиб, алоҳида механизм ёрдамида доскада ўрнатилган матода нақшга мос штрих тешиклар ҳосил қилади. Кейинчалик тешик четлари игнада ип билан йўрмаб чиқилади. Бу машинада деярли ҳамма ишлар-матони силжитиш, тешик очиш ва тикиш қўлда бажарилади. Бу машиналар нозик нақшларни бажариш учун мўлжалланган, иш унумдорлиги паст бўлишига қарамасдан чиқарган маҳсулоти қимматбаҳодир.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-86-97

Иккинчи ва учинчи кўринишдаги игна ва моккида ишловчи машиналар нисбатан кўп тарқалган. Ишлаш принципи иккаласида ҳам бир хил бўлиб, игна матони тешиб ўтганда мокки игна ипини олиб ҳалқа ҳосил қилади (тикув машинасидаги каби). Махсус ғалтакка ўралган ип ва игна машинани бир томонида жойлаштирилади, иккинчи томонида игнали планка горизонтал йўналишда тушиш-қайтиш ҳаракатини амалга оширади. Игна олдида ўққа тортилган таг мато, унинг орқасида эса мокки ўрнатилган планка бўлиб, игнага мос равишда қиялик бўйича пастга-юқорига, баъзида вертикал ҳолатда ҳаракатланади. Моккилар алоҳида “местечка” номли йўналтирувчиларда ҳаракатланади.

Бу ерда каштачини иши шундан иборатки, штифт дастасини нақш бўйича белгиланган штрихларга мос силжитиш, таг матони силжитиш учун фестон аппаратини ўчириб-ёқиш керак. Кўриш мумкинки, ушбу машиналар қўл машинаси ҳисобланади. Мотор игна ва моккини қатъий белгилаган йўналишда ҳаракатлантиради. Автоматларда таг матони силжитиш, тикиш фестон аппаратини ўчириб-ёқиш орқали инсон аралашувисиз жаккард принципида ишловчи махсус кареткада автоматик тарзда амалга оширилади. Машинани икки томонида игна, мокки ва таг матони қандай ҳолатдалигини кўриб туриш учун иккита ярус майдончаси бор. Барча машиналар бир-биридан ўлчами, оғирлиги, ишчи мато эни, игналар оралиғи билан фарқ қилади.

1-жадвалда кашта машиналарини характерловчи кўрсаткичлар келтирилган. Автоматларда тез ҳаракатланиши учун асосий ўқни айланиш тезлиги ўртача 95 мин$^{-1}$, секин ҳаракатланиши учун 45 мин$^{-1}$, патографларда 112-120 мин$^{-1}$ ни ташкил қилади. Бир айлана минут матони бир марта тешиб ўтиши ҳисобланади. Йирик нақшларни тикишда оралиқ игналарни йўқотиш ҳисобига расм раппорти ўзгариши мумкин. Машина раппорти 3/4 - 2 см; 4/4 - 3 см; 6/4 - 4 см ва ҳоказо. Нақшни матога ўтказиш қуйидагича намунани оқ қоғозда машина раппортига нисбатан олти баробар катталаштириб чизилади. Масалан: 3/4 - 12,5 см; 4/4 - 18,5 см; 6/4 - 24,5 см.

1-жадвал

Кашта машиналарини характеристикалари

Кўрсаткичлар номи	Қўл машинаси	Пантографли машина	Автомат машина
Тикиш учун фойдали узунлик, м	4,5	4,5	9,15

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-86-97

Фойдали баландлик, см	28-24	34-60	50-62
Игна сони, машина раппортига нисбатан 6/4*	224-336	224-228	456
4/4	336-504	340	682
3/4	446-669	452	908
Умумий узунлиги, м	6,25	6,75-7,5	11,85-12,3
Эни, м	3,15	1,5-1,7	1,8
Баландлиги, м	3,3	3,2-4	3,5-4
Талаб этиладиган қувват	-	1/3 IP	3/4 IP
Соф оғирлиги, кг	2200-2300	3400-4300	8500-8700
	2700-2900	4500 (икки баробар узунликда 7800-8400)	8900-9100

* бир нечта моделлар учун иккита рақам кўрсатилган.

Нақш учун олинган расм қуйидаги белгиларга эга бўлиши керак: жойи, лозим бўлган туташмалар, марказий нуқтаси, штрихланган таг мато бўлиши, таг мато таглигида эркин қийшиқ чизиқлар. Расмдаги штрихлар сонига қараб машинада нақшни тикиш қиймати аниқланади, штрихларни ўтказишда машинада ишлатиладиган ип тури ҳам ҳисобга олинади.

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ

Тикувчилик ва кашта ипларини ишлаб чиқариш учун табиий ипакнинг ялтироқлик, жилодорлик, гигиеник ва механик хусусиятларини юқорилиги мос келади.

Олиб борилган изланишлар шуни кўрсатдики, Республикамиз худудида табиий ипакдан тайёрланган турли чизиқли зичликдаги тахминан 2 тонна тикув ва кашта ипларидан фойдаланилсада, уларни саноат миқёсида ишлаб чиқариш технологияси ҳалигача яратилмаган. Ҳар бир вилоятда каштачилар ўзлари билган усуллар орқали турли чизиқли зичликдаги ипларни ишлаб чиқариб фойдаланишмоқда. Кашта иплари ишлатилиш жараёнида кўплаб механик юкланишларга, чўзилиш, зўриқишларга учрашини инобатга олиб, уларни олдиндан ҳисоблаш асосида лойиҳалаш мақсадга мувофиқ. Эшилган ипларнинг хусусиятларини лойиҳалашда, айниқса хом ашё танлаш, уни тежамкорлик билан ишлатиш, ип структурасини белгилаш имкониятларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Эшилган ипларни лойиҳалашда узилиш кучи ва узилишгача бўлган чўзилишини ҳамда анизотроп ҳолатини, яъни механик таъсир асосан, бўйламасига таъсир этишини ва ўқ бўйлаб йўналишини инобатга олиш керак.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-86-97

Таркибидаги элементар толалар сони ва хом ашё хусусиятлари бевосита комплекс ипларни хусусиятига таъсир қилади. Комплекс ипларни таркибида кичик чизиқли зичликка эга бўлган элементар иплар сонини ортиши уларни солиштирма мустаҳкамлигини оширади ва фойдаланиш даврида ипларни букилишга чидамлилигига ижобий таъсир қилади.

Қайта ўрашга тайёрлаш учун хом ипак калаваларини кўз билан назорат қилиб, бир-бирига ёпишган жойларини титиб, текислаб қўйиш лозим.

Кашта иплари ишлаб чиқаришда сифатли хом ипак тайёрлаш муҳим ўрин тутади. Қайта ўрашга тайёрлашда хом ипак калаваларини ёпишиб қолган жойларини SC750-1800L дастгоҳида буғ билан ишлов бериб юмшатилди. Бир нечта ўтказилган тажрибалардан сўнг танланган рационал ишлов бериш режимлари 2-жадвалда келтирилди [12]. Ишлов берилган хом ипак калавалари ғалтакларга қайта ўралади.

2-жадвал

Вакуум-буғ билан хом ипакка ишлов беришнинг технологик режими

Кўрсаткичлар	Технологик жараён				
	I-вакуум	I-буғли ишлов бериш	II-вакуум	II-буғли ишлов бериш	III-вакуум
4,65 тексли хом ипак					
Камерадаги босим, кПа	-0,1	-0,1	-0,1	-0,1	-0,1
Ҳарорат, ^{o}C	37-40	60-70	65-70	75-80	40-50
Вақт давомийлиги, мин	4	10	4	10	6
3,23 тексли хом ипак					
Камерадаги босим, кПа	-0,1	-0,1	-0,1	-0,1	-0,1
Ҳарорат, ^{o}C	30-40	65-70	60-65	65-70	50-60
Вақт давомийлиги, мин	4	8	4	8	6

Калавадаги хом ипакни ғалтакка ўрашдан мақсад кейинги жараён учун қулайлик яратиш ва қўшиб эшиш дастгоҳларига тайёрлаб беришдан иборатдир. Иплар қайта ўраш жараёнида назорат қилинади, тозаланади, чигал тугунлар ва нотекис жойлар олиб ташланади. МТ-85 дастгоҳида қайта ўраш жараёни бажарилди. Хом ипакка вакуум буғлаш жараёнида берилган ишловни тўғри танланганлигини қайта ўраш жараёнида узуқлар сони тажрибада назоратга

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-86-97

нисбатан 2,5 баробар кам бўлгани исботлади. Ипларни бир нечтасини қўшиб бир вақтда бурам бериш жараёнидан мақсад, бир нечта ипларни қўшиб, керакли йўғонликдаги ипни олиш ва ип мустаҳкамлигини оширишдир. Қўшиб эшишни амалга ошириш учун қайта ўраш дастгоҳидан келтирилган иплар эшиш дастгоҳига жойлаштирилади. Ушбу дастгоҳда 2 дан 16 тагача ипларни қўшиб эшиш мумкин. Урчуқларни алоҳида электродвигатель юритгани ҳисобига ипларга бурам бир текисда берилади, натижада уларнинг сифати яхшиланади.

Ушбу дастгоҳда табиий ипакдан 18-136 тексдаги кашта ипи олиш учун 3,23 тексли хом ипакдан дастлабки эшишда 3-10 таси қўшиб чап йўналишда метрига 330-340 та бурам берилди. Сўнгра эшилган ипларни яна 2-4 таси қўшилиб ўнг йўналишда метрига 310-340 та бурам берилди. Худди шу қалинликдаги ипни 4,65 тексли хом ипакдан ишлаб чиқариш учун аввал ипларни 2-7 таси чап йўналишда метрига 330-340 бурам бериб қўшиб эшилди. Сўнгра уларни 2-4 таси қўшилиб ўнг томонга 310-340 та бурам берилди. Шу қалинликдаги ипларни хом ипакни бошқа ассортиментларидан ва синтетик иплардан фойдаланган ҳолда ишлаб чиқариш устида тадқиқотлар олиб борилди. Ушбу усулга Ўзбекистон Республикаси Интеллектуал мулк агентлигининг ихтирога патенти олинган (IAP 05253).

Кашта ипак ипларини узилиш кучи ва узилишгача бўлган чўзилиши 1-расмда берилди.



1-расм. Кашта ипак ипларини узилиш кучи ва узилишгача бўлган чўзилиши

Олинган ип намуналари “Кимёвий технология” кафедраси лаборатория-

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-86-97

сида фаол бўёвчи моддалар билан турли рангларга бўялиб, рангларни ўзига қабул қилиш хусусияти тадқиқ қилинди. Хом ипакни қўшишлар ва бурамлар сонини ошиб боришида эшилган кашта ипларини пишиқлигини ошиши билан уларнинг қаттиқлиги ҳам ошиб бориши аниқланди. Шунингдек, ацетат ва вискоза ипларидан кашта иплари тайёрлаш технологиясини яратиш устида илмий изланишлар олиб борилди.

ХУЛОСА

Амалий тадқиқотлар натижасида биринчи марта табиий ипакдан кашта тикув ипларини ишлаб чиқариш усули ишлаб чиқилди, натижада ипак тикув иплари ассортиментини кенгайтириш имкони яратилди. (Патент IAP 05447). Сунъий иплардан вискоза 16,6 текс ацетат 18,2 тексли хом ашёлардан қўшиб бурам бериш асосида мос равишда 66,4 ва 36,2 тексли кашта ипларини ишлаб чиқариш усули яратилди (Патент IAP 05415) ва амалиётда тажрибадан ўтказилди, натижалар кашта ипларининг сифатини оширишга хизмат қилади.

REFERENCES

1. http://nitki.madeira.de/
2. http://www.cataloxy-by.ru/firms/kw/%ED%E8%F2%EA%E8.htm
3. https://www.sodbik.ru/category/nitki-vyshivalnyje/
4. http://www.firma-gamma.ru/catalog/threads/muline/
5. Kh. Alimova, U.Bobatov, J.A.Akhmedov, Q.E. Sobirov, Kh.Umurzakova The formation of defects during the reeling of raw silk. Journal of Physics: Conference Series, 2021 J. Phys.: Conf. Ser. 1889 042049. Scopus.
6. Q.E. Sobirov, B.M. Mardonov, J.A. Akhmedov, Sh.Q. Ermatov, Kh.Umurzakova. Investigation of the process of removing the thread from the surface of the cocoon in an aquatic environment. Journal of Physics: Conference Series, 2021 J. Phys.: Conf. Ser. 1889 042044. Scopus.
7. Sh.K. Ermatov, J.A.Axmedov, K.E.Sobirov, J.Sh.Sharipov, Kh.Umurzakova. Exploration of the Belly Characteristics of Living Cocoons Grown in Repeated Seasons. Annals of R.S.C.B., ISSN: 1583-6258, Vol. 25, Issue 1, Accepted 05 January 2021, Pages. 4275 - 4282. Scopus.
8. D.A. Khabibullaev, Kh.A. Alimova, J.A.Akhmedov, N.N.Nabidzhanova. Raw Materials for Production of Polycomponent Yarn with Silky Effect. Design Engineering Issue: 4 | ISSN: 0011-9342 Pages:458-464.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-86-97

9. Khabibullaev D.A., Umurzakova H.Kh., Aripdjanova D.U., Maxkamov X.P. Producing Yarn from Mixed Fibers // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. Vol. 10, Issue 3, March 2021. DOI:10.15680/IJIRSET.2021.1003071. P.1876-1879.
10. H.H.Umurzakova, I.X.Atabaev, T.D.Tursunov, E.Z.Ortiqova, S.Xoldorova. Birinchi va to'rtinchi mavsumda yetishtirilgan pillalar qobig'ining xususiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor. VOLUME 1 | ISSUE 9. ISSN 2181-1784. B. 291-300.
11. Д.А. Хабибуллаев, Х.Х. Умурзакова. Свойства пряжи из смешанных волокон. ПРОБЛЕМЫ ТЕКСТИЛЬНОЙ ОТРАСЛИ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ: Сборник научных трудов Всероссийского круглого стола с международным участием (22 декабря 2020 г.). - М.: РГУ им. А.Н. Косыгина, 2021. -271 с. -С. 255-257.
12. Axmedov J.A. Tikuv kashta iplari uchun xom ashyo tayyorlash texnologiyasi. // "Texnika va texnologiyalarni modernizatsiyalash sharoitida iqtidorli yoshlarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalari" mavzusidagi OTM miqyosidagi ilmiy–amaliy anjumani, TTESI. 5-6 may. -2016. -S. 26-28.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-98-108

ДИНИЙ МАТНЛАРДА “САБР” КОНЦЕПТИНИНГ ЛИНГВОКОГНИТИВ ТАДҚИҚИ

Ш. Мирзаева
Андижон давлат университети таянч докторанти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада диний матнлардаги сабр концептига лингвокогнитив ёндашув асос қилиб олинганлиги ёритилган. Диний матнларда сабр концептининг эксплицит ҳамда имлицит воқеланиши очиб берилган. Матнларда сабр матннинг семантик-синтактик тузилишида аосий ядро элемент сифатида талқин этилган.

Калит сўзлар: Қуръони Карим, ҳадис, ривоят, концепт, фрейм, семантик майдон, синоним, эксплицит, имплицит, стимул сўз.

КИРИШ

Маълумки, Сабр концепти кенг маънода қўлланувчи сўзлар қаторига киритилади. Илмий тадқиқотларда Сабр концепти фалсафа, педагогика, социология фанларида кенг тадқиқот объекти сифатида ўрганилган. Лингвистик нуқтаи назардан ўрганиш бир қатор тадқиқотларда кузатилади. Айниқса, Сабр концептини диний нуқтаи назардан ўрганиш ва таҳлил этиш фалсафа фанида кенг ёритилиб берилган. Бажарилган илмий тадқиқотларда, Сабр тушунчасига фалсафий ёндашувда ҳар бир миллат, халқ ва этноснинг менталитетидан келиб чиқиб таҳлил этилган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Сабр концептиннинг барча динлардаги фалсафий ифодаси ва мазмунига эътибор қаратилган[1]. Бу соҳада лингвистик таҳлил ва талқинлар фалсафий

[1] ТОЛЕРАНТНОСТЬ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ОПЫТ ЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ //*Сборник научных статей I Международной научно-практической конференции 1-2 декабря 2011 года* Просвиркуна . Баева, Л.В. Толерантность: идея, образы, персоналии [Текст] :Монография / Л.В. Баева. - Астрахань: Издательский дом«Астраханский университет», 2009. - 217 с. Верховский, А. М. Свобода выражения и религиозная толерантность: противоречия в принципиальных основаниях и правоприменении / 77 А. М. Верховский // Свободная мысль. - 2009. - №4. - С.69-80. Гараджа, В. Толерантность и религиозная нетерпимость / В. Гараджа // Философские науки. - 2004. - №3. - С.18-31.ПросвиркинаИ.И.ТОЛЕРАНТНАЯ РЕЧЕВАЯ КОММУНИКАЦИЯ: ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКАЯ ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА .АВТОРЕфЕРАТ диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук Москва 2007.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-98-108

тадқиқотларга нисбатан кам ўрганилган. Лингвистик тадқиқотларда диний матнлардаги Сабр тушунчаси семантик жиҳатдан таҳлил этилмаган, умумий ҳолдаги тавсифига тўхталиб ўтилган[2].

Ўзбек халқи сўз бойлигида сабр лексемасининг фаоллашуви ислом дини билан боғланади. Ислом динининг Марказий Осиё халқлари томонидан қабул қилиниши ва муқаддас Қуръони Карим ва ҳадис матнларининг ёд олиниши бу сўзнинг ана шу халқлар луғат бойлигидан мустаҳкам ўрин олиши учун замин бўлди. Шу ўринда таъкидлаб ўтиш жоизки, сабр лексемаси нафақат Марказий Осиё халқлари, балким, ислом дини мавжуд бўлган халқлар луғат бойлигининг ҳам безагига айланди.

Манбалардан маълумки, ислом динининг бошқа насроний динлардан фарқли томони бир худолилик, кўп худоликни тан олмаслик, Яратган ҳақидаги турли фикрларга йўл бермаслик, инсонни комиллика етаклашдир. Жумладан, ислом дини инсонларнинг бир-бирига бўлган муносабатларида сабрнинг мустаҳкам бўлишини муқаддас китоблардагидек тарғиб этишдир.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Қуръони Каримда сабр 70 дан ортиқ ўринда зикр этилади. Сабрнинг ғояси кутилмаган вазиятлар, машаққату балолар қаршисида ўзини йўқотмай, сабот кўрсатишдир. Зеро, одамлар бир умр қийинчиликларга дуч келади, касал бўлади, сел, зилзила, ёнғин каби фалокатларга юзма-юз келади. Буларнинг ҳаммасида энг катта суянчиқ сабр ва мукофоти ҳам шунга яраша ҳисобсиз: **“Сизларни бироз хавф-хатар, очлик (азоби) билан, молу жон ва мевалар (ҳосили)ни камайтириш йўли билан синагаймиз. (Шундай ҳолатларда) сабр қилувчиларга хушхабар беринг (эй Муҳаммад)!”** (Бақара, 155); **“Мол-мулкларингиз ва жонларингиз (офати ва мусибати) ила синалурсизлар. Шунингдек, сизлардан олдин Китоб берилганлар ва мушриклардан кўп азиятли (аччиқ) гапларни эшитасизлар. Агар сабр қилсаларингиз ва тақволи бўлсаларингиз, албатта, бу ишларнинг пухталигидандир”** (Оли Имрон, 186); **“Дарҳақиқат, ким Аллоҳдан қўрқиб, сабр қилса, албатта, Аллоҳ эзгу иш қилувчиларнинг мукофотини зое этмагай”** (Юсуф, 90).[3]

[2] Стернин И.А.,Шилихина К.М. Коммуникативные аспекты толерантности .Воронеж.2001. Қаранг:МУЛЛАГАЛИЕВА Л.К. Язык толерантности.Уфа .2012.
[3] https://www azon us>vilws

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-98-108

Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф ҳазратлари бу ҳақда шундай ёзади: ”Исломда сабр ахлоқий фазилатлардан бўлиб, мусулмон кишининг руҳий таянчларидан биридир. У мусулмон қалбига сукунат ва хотиржамлик солиб, алам бераётган дардига малҳам бўлади. Сабрли киши қийинчиликларни сабот билан қарши олади, уни “Аллоҳ“ тарафидан юборилган синов деб билади”[4]. Маълум бўладики, ислом дини ҳар қандай жамиятда инсонларнинг бир-бири билан бўлаётган муносабатларини тафаккурнинг лисоний ифодаси сабр орқали, уларнинг фаолиятига объектив баҳо бериш юксак инсоний фазилат эканлигини таъкид этади.

Исломда ”Сабр“ концептининг лингвистик семантик майдони кенг ва ўзига хос таърифига эгалиги билан воқеланади. Исломда “Сабр” сўзининг маъноларига диний илм соҳибларининг тавсифу таърифлари алоҳида мақомга эга бўлган. Низомиддин Шаҳритусий “Ҳидоят сари холис Оллоҳ йўлида“ ҳикматларида шундай ёзади: ”Сабр сўзининг маъноларидан бири танглик ила ўзини тутиб туришдир. Сабрнинг истилоҳий маъноси ҳақида уламо аҳли бир-бирини тўлдирувчи бир неча таърифларни айтганлар: Роғиб: “Сабр нафсни ақл ва шариат тақозо қилганидек тутиб туришдир ёки иккиси тақозо қилган нарсадан тутиб туришдир”, деган. Муновий: “Сабр ҳиссий ва ақлий оғирлик ва аламларга чидашдир”, деган”[5].

Келтирилган манбада Низомиддин Шаҳритусий сабр сўзининг маъноларини Имом Бухорий, Имом Муслим ва бошқа ҳадис илмининг алломалари қилган ривоят, ҳадисларида Оллоҳ ва унинг Пайғамбари соллаллоҳу алайҳи васаллам таърифларини ифода этади.

Сабрнинг таърифида айтилган ҳикматлар семантик жиҳатдан бир-бирини тўлдиради, бадиийлик билан ифодаланганда, сабрнинг маъноси уммон сингари чуқур, суви сингари мусаффо, кенглиги чексиз, илоҳий эканлиги инсоннинг лисоний тафаккурида намоён бўлади.

“Сабр“ концепти семантик майдонини кенгайтирувчи концептосфералар қаноат, вазминлик, ўзини тута билиш, босиқлик, тотувлик, барқарорлик, мулойимлик, эзгулик, бағрикенглик, бардошлилик, ҳалимлик сингари лексемалари ислом динининг муқаддас китобларида кенг қўлланилган. Бу концептосфералар концептуал тузилмани ташкил қилади ҳамда нутқда услубий вазифани бажаради. **Қуръон Карим сураларининг айримларида сабр**

[4] Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Иймон .-Т.,Шарқ. 2006. 282-бет.
[5] https://ok ru >topic

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-98-108

лексемаси идеографик синонимлар билан ҳам ифодаланган. Масалан, қаноат-ирода, бардош-тоқат, вазминлик-оғирлик, шукурона-миннатдорчилик сингари.

Концепт, умуман олганда, “онг ва билим, тажриба асосида пайдо бўладиган ахборот таркибидаги ментал ва психик ресурс; хотира, ментал лексика, концептуал система, мия тили; инсон онгида акс этган олам сувратининг мазмуний ва вазифа бажарувчи бирлиги”дир[6]. Концептосфера концептнинг моҳиятини очиб берувчи фреймал структурага асос ва таянч бўлиб хизмат қилади[7].

Кузатишлардан маълум бўлдики, ислом динида сабр концепти инсоннинг маънавий соғломлигини кўрсатувчи когнитивликни ифодаловчи асосий тушунчалардан бири бўлган фрейм билан боғланади”. ... ҳар қандай фреймда кўп қиррали ахборот ўзаро боғланган бўлиб[8] “матн яратилиши жараёнида когнитив контекст вазифасини бажаради[9], шунингдек, “биргаликда ҳаракатга тушадиган ва бир-бирини “қўзғатадиган “мантиқий идрок элементларининг ўзаро муносабати асосида юзага келадиган тузилма“[10] сифатида намоён бўлади.

Таниқли тилшунос А.Нурмонов Ч.Филлмор ғояларининг тадқиқ этиш жараёнида қуйидагиларни баён этади: ”Амалий синтаксис муаммоларини ҳал қилишда Ч.Филлморнинг “тушуниш мазмуни“ ғояси катта ёрдам беради. Ч.Филлмор мазмуний назарияни “тушуниш мазмуни“ ва “ҳақиқат мазмуни“ назарияларига ажратган ҳолда, “тушуниш мазмуни“ назарияси остида лисоний матнлар билан жараён ўртасида мавжуд бўлган муносабат ҳақидаги умумий тасаввурни тушунади.

“Тушуниш мазмуни“нинг вазифаси лисоний матн билан унинг матнлар қуршовида тўлиқ тушунилиши ўртасидаги алоқа моҳиятини очишдан, жумланинг у орқали ифодалаланаётган вазият билан алоқасини кўрсатишдан иборат.

Сўзлашувчиларнинг лисоний билими деганда лисоний бирликлар билан вазият элементлари ўртасидаги муносабатнинг инсон онгида акс этиши

[6] Краткий словарь когнитивный терминов /Е.С.Кубрякова ,В.З.Демьянков,Ю.Г.Панкрац ,Л.Г.Лузина.-М.,1966.-С-90.
[7] Умарова Н.Р.Алишер Навоий асарларининг лисоний -концептуал тадқиқи.филол.фан.док.(DSc)дис.автореф.Фарғона.,33-бет.
[8] Минский М.Остраумие и логика когинативного бессознательного //Новое в зарубежной лингвистике .Вып.Х111:Когнитивные аспекты языка.-М.:Энергия,1988.-С.289.
[9] Қаранг:Караулов Ю.Н.Русский язык и языковая личность.-М.:Наука ,1977.-420.
[10] Сафаров Ш.Когнитив семантика .Жиззах :Сангзор.”2006.-Б.45.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-98-108

тушунилади. Бундай муносабатнинг акс этишин изоҳлашда, Ч.Филлмор киритган фрейм атамасидан фойдаланиш мумкин”[11]. ... Маълум гуруҳларга мансуб бўлган ортидаги ўзаро боғлиқ бўлган олам узвлари ҳақидаги билимимиз фрейм саналади[12].

Сабр лексемаси билан боғлиқ фреймлар ҳам исломнинг муқаддас китобларида турли шаклларда қўлланилган. Чунки ислом таълимотида сабр лексемаси муқаддас Қуръону Каримнинг барча сураларида баён этилади. Масалан, ”Албатта, сабр қилгувчиларга ажрлари ҳисобсиз, тўлиқ берилур” (“Зумар“ сураси, 10-оят).

“Албатта, Биз сабр этганларни қилиб юрган амалларининг энг гўзалига бериладиган ажр ила мукофотлармиз“ (“Наҳл” сураси, 96-оят).

“Ва сабр қилганликлари учун уларни боғуроғ ва ипаклар билан мукофатлади” (“Инсон сураси, 12-оят).[13] **“(Ҳар бир) инсон зиёнда (бахтсизликда)дир! Фақат имон келтирган ва солиҳ амалларни қилган, бир-бирларига ҳақиқатпарвар бўлишни тавсия этган ва бир-бирларига сабрли бўлишни тавсия этган зотларгина бундан мустаснодирлар”** (Аср, 2–3); **“Сабр қилинг! Бас, албатта, Аллоҳ эзгу иш қилувчилар мукофотини зое қилмагай”** (Ҳуд, 115).[14]

“Сабр “ концептининг фрейм структураси Қуръон ва ҳадисларда инсонда ҳар қандай оғир, машаққатли, руҳий тушкунлик вазиятларида ҳам ўзини йуқотмаслик, ақлий билим, мустаҳкам ирода, вазминлик, бағрикенглик, руҳий тетиклик, айни чоғда, Аллоҳнинг меҳрибонлигига ишонч белгиларини намоён этади. Бу ўринда, табиийки, сабр концепт фрейми матнда Яратганнинг амри билан инсондаги тафаккур, руҳият, ҳатти-ҳаракат ва бошқа семаларнинг уйғунлигини ифодалайди.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, сабр концептининг синонимик қатори контекст таркибида инсоннинг ички ва ташқи руҳий олами, шуурига қўзғатувчи сигнал коммуникациясини ташувчиси ҳисобланади. Албатта, бу бир вақтнинг ўзида юз берувчи жараён ҳисобланиб, қўзғатувчи ва чақирувчи сигнални инсон томон йўналтиради. Чунки суралардаги сабр лексемаси инсон фаолияти билан боғлиқ қўзғатувчанлик ва бошқаларга бўлган муносабатларида онгли бўлишга чақириш маъноларини ифода этади.

[11] Нурмонов А.Танланган асарлар .Уч жилдлик.3- жилд.-Т.,Akademnashr .2012.199-бет.
[12] Яна қаранг:Нурмонов А.Ўша жилд.200-бет.
[13] Яна қаранг:Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф .Келтирилган асар.283-бет.
[14] https://www azon us>vilws

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-98-108

Англашиладики, келтирилган матнларда бош сўз сабрнинг ассоциалашуви инсон хотира заҳирасидаги чидам, ирода, қаътият, қаноат, бардош, тоқат лексемаларини гавдалантиради. Инсон бу лексемалар фонида келтирилган суралар ҳақидаги ўз тасаввур ва тушунчаларини қабул қилади. Келтирилган лексемаларнинг ҳар бирида Оллоҳга муҳаббат ва унинг амрини эътироф этиш инсонга мукофот эканлиги ҳис этилади. Бироқ сабр лексемаси ўрнига бардош, чидам, қаноат, тоқат лексемаларини қўйиб ишлатиш мумкиндек туюлса-да, аслида бу матн мазмунига таъсир этиб, унинг семантик ва синтактик тузилиши ўзгартириб юборади.

Лексеманинг мазмуний томони, яъни семема ҳар бир неча семаларнинг ўзаро муносабатидан ташкил топган нисбий бутунлик ҳисобланади. Семема семалари вазифасига кўра бирлаштирувчи ва фарқловчи семаларга бўлинади[15].

Келтирилган сураларда сабр сememаси, ўзига боғлиқ синонимлари доирасида ассотциалашса-да, семантик жиҳатдан бу синонимлардан эмоционал-экспрессивлик жиҳатдан кенг стилистик маънони ифодалаши билан семантик майдоннинг марказида туради. Яъни доминант семема ҳисобланиб, қўлланиш доирасида янги маъно оттенкаларини ўзида бирлаштиради. Сабр сememаси семаларга бўлинувчанлиги ҳамда қоришиқлик муносабатини ифодалай олиши билан бошқа семалардан ажралиб туради. Айтиш мумкинки, биринчидан, бошқаларнинг фикри, хулқи ва бошқаларни онгли равишда, ўз тафаккури доирасида мақбул йўлини танлаш билан қабул қилиш. Иккинчидан, бошқа инсонлар билан муносабатларини иштирок этувчиларнинг фикрлари, ҳатти-ҳаракат(одоб)ларини табиий қабул қилиш: “бошқа диний, сиёсий, урф-одат, эътиқод”ларга ҳурмат билан қараш ифодаланади. Табиийки, инсон жамиятда аъзоси сифатида бир шахс у бошқалардан ўзига хос белгилари билан ажралиб туради. Бу эса юқорида таъкидлаганимиздек, сабр концепти сематикасида очилади.

Қуръони Карим ва диний муқаддас китобларидаги матнларда ифодаланган сабр концепти, авалло, инсонда мавжуд бўлган руҳий эмоционал ҳолатни юзага чиқарувчиси, иккинчидан, сабаб ва натижани воқелантирувчи **ядроси** ҳисобланади. Табиийки, матнда сабр лексемасига боғланган бўлаклар сабр лексемасининг маъно имкониятларини кенгайтирувчилари сифатида муҳим роль ўйнайди. Ана шу ўзаро боғлиқликда сабр лексемаси матн

[15] Нурмонов А.Танланган асарлар .Уч жилдлик.1- жилд.-Т.,Akademnashr .2012.113-бет.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-98-108

семантикасида инсондаги руҳий ҳолат, вазиятни тез англаш, мантиқий фикрлаш, эмоционал вазиятга онгли муносабатда бўлиш сингари семаларини юзага чиқара олади. Албатта, матнда сабр лексемаси бир вақтнинг ўзида сабаб ва натижа муносабатини англатади. Чунки инсон атрофидаги бўлаётган воқеа-ҳодисаларнинг ривожи сабабини ўзида инъикос этади. Сабр лексемаси инсоннинг кейинги вазият, воқеалар ривожига бўлган муносабатини хотирасига зуҳурлайди. Сабр инсонни келажагига умид беради, натижаси эса эзгуликда намоён бўлади. **Маълум бўладики, Сабр ҳар қандай шахс ёки гуруҳнинг жамиятда инсонлар билан бўлаётган мулоқотида ақлий билим кўникмаларига эга бўлиши ва бу билимни тўғри йўналтира олиш қувватидир.**

Келтирилган сураларда “Сабр” концепти қўлланиши жиҳатдан прагматик маънога ҳам ишора этади. Яъни, сабр лексемаси инсон руҳияти, тафаккурида Аллоҳга муҳаббат ҳамда илоҳий куч -қувват белгиси сифатида гавдаланади. Чунки инсон Аллоҳнинг жамолига етишувини сабрда инкишоф этади.

Сабр лексемаси иштирок этган матнларда унинг ўрнига синонимларини қўллаб бўлмайди. Унда матн мазмунига путур етади. Шу ўринда айтиш мумкинки, муқаддас Қуръони Каримнинг келтирилган сураларида “сабр” сўзи араб ёзувларидаги белгилардек ўз ўрнига тушган ва ўрнига бошқа белгининг қўйилиши унга зийнат бера олмайди. Англашиладики, сабр лексемаси матн таркибидаги бошқа унсурларнинг ўринларини белгиловчи семантик марказ ҳисобланади.

Қуръони Каримнинг ”Анфол”, ”Оли Имрон “, ”Марям” , ”Тоҳа” ва бошқа сураларида сабр концептининг эмоцианал-экспрессив маънолари турли шаклларда ёритилади.

Абу Закриё Яҳё Ибн Шараф Нававийнинг “Риёзус-Солиҳийн“ (“Солиҳлар гулшани”) китобида сабр лексемасининг синонимлари, сўз ва сўз бирикмаларида сабрнинг турли маъно ифодаланиш жиҳатлари ўз ифодасини топган. Масалан, Абу Ҳурайра розияллоҳу анҳудан ривоят қилинади:

Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи вассаллам: ”Одамларни кураш билан енгадиган киши кучли эмас, балки жаҳли чиққанида ғазабини боса оладиган киши ҳақиқий кучлидир“, дедилар.(Муттафақун алайҳ.)

Муоз ибн Анас розияоллуҳу анҳудан ривоят қилинади:

Набий соллалоҳу алайҳи васаллам: “Кимки қодир бўла туриб, ғазабини ютса, Аллоҳ таоло Қиёмат куни уни чақириб бутун халойиқ олдида шаҳло

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-98-108

кўзли ҳурладан хоҳлаганини олишга ихтиёр беради”, дедилар. (Абу Давуд ва Термизийлар ривояти. Термизий ҳасан ҳадис, деди.) [16]

Келтирилган биринчи матнда жаҳли чиққанда ғазабини боса оладиган иборасида **боса** сўзи “ЎЗТИЛ”да босмоқ шаклида берилиб қуйидагича изоҳланган:

3 кўчма. Тартибга тушмоқ, сиполашиб қолмоқ, вазинмлашмоқ, қуйилмоқ, тийилмоқ[17].

Иккинчи матнда “ғазабини ютса” иборасида **ютса** сўзи “ЎЗТИЛ”да ютмоқ шаклида берилиб қуйидагича изоҳланади.

3 кўчма. Бирор нима дейишдан ўзини тиймоқ, ошкор қилмаслик[18].

Келтирилган ҳар икки матнда қўлланилган иборалар таркибидаги боса ва ютса лексемалари мазмунан сабр семантик майдонида турувчи бир парадигмани ташкил этувчи семалардир.

Ушбу матнларда сабр лексемаси иштирок этмаган, жаҳли чиққанда ғазабини боса оладиган, “ғазабини ютса” иборалари матнинг семантик-синтактик-услубий тузилишида когнитив коммуникацияни юзага келтиради. Яъни, инсон хотира заҳирасидаги когнитив белгилар сиполашиб қолмоқ, тийилмоқ, вазмин, бирор нима дейишдан ўзини тиймоқда намоён бўлади. Демак, сабр лексемасининг имлицит тарзда ифодаланиши ҳам матн мазмунига таъсир этмайди. Маълум бўладики, матнда сабр стимул сўз сифатида прагматик маъно орқали воқеланади.

Вазминлик, тежамкорлик, бамаъни хомушлик пайғамбарлик хусусиятининг йигирма тўртдан бир бўлагидир (Ҳадис). Неъматга шукур қилиш унинг заволидан омон сақлайди (Ҳадис). Оғирлик ва ювошлик инсоннинг ютуғидир. Уни тарк этишлик эса зиёнкорликдир (Ҳадис). Эй, одам фарзанди, келиб турган ризқингга қаноат қилмасанг, дилингга орзу ҳавасларни солиб қўяман, улар ҳеч тугамайди ва сен улардан абадий қутулолмайсан (Ҳадиси қудсий). Қаноат тугамайдиган бойликдир (Жавомиъул калим)[19].

Келтирилган ҳадисларда сабр лексемасининг концептосферасида вазминлик, шукур, оғирлик, қаноат, ювош сингари концептул тузилмалар

[16] Абу Закриё Яҳё Ибн Шараф Нававийнинг “ Риёзус -Солиҳийн “(Солиҳлар гулшани) китоби.Самарқанд.Имом Бухорий халқаро маркази.2020.39-44-бет.
[17] Ўзбек тилининг изоҳли луғати .5 жилдлик.1-жилд.-Т.,Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти.2006.319-бет.
[18] Ўзбек тилининг изоҳли луғати .5 жилдлик.5-жилд.-Т.,Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти.2006.94-бет.
[19] Маърифат -тинчлик асоси.-Т.,Тошкент ислом университети нашриёти -матбаа бирлашмаси.2007.69-71-бет.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-98-108

матнга эмоционалликни юклайди. Шунингдек, синонимик қатор ўзи иштирок этган матнда матн семантикасини кенгайтиради. Бироқ уларнинг ўринлари алмаштирилса, яъни комбинация қилинса, матнинг тасвирийлигига ва маънодорлигига путур етади. Когнитив белгилар **вазминлик, шукур, оғирлик, қаноат сабр концептининг семантик** майдонини кенгайтирса-да, диний матнларда ўзи иштирок этаётган контекст таркибидагина матннинг семантик моҳиятини очиб беради. Вазминлик, қаноат, шукур лексемлари араб тилига мансуб бўлиб, сураларда инсон руҳиятига таъсирчанлиги билан прагматик маънони ифодалайди ва унга алоҳида таъкид беради. Оғирлик лексемаси ҳам синонимик қаторда инсон руҳиятига таъсирчанлиги билан матн мазмунига алоҳида маъно касб этади. Англашиладики, келтирилган лексемалар синонимик маъносининг қайд этилган прагматик узвига кўра бир-биридан фарқ қилади.

Алоҳида таъкидлаш жоизки, тилда коннотациянинг мавжудлиги, ранг-баранглиги, барқарорлиги тилнинг нечоғлик бойлигининг қадимий анъаналарга соҳиблигининг, ифода имкониятлари сарҳадсизлигининг, таъсир ва тасвир қувватининг ўткирлигининг далолатидир[20]. Қуръони Карим, ҳадис ва диний ривоятларнинг матнларини ўрганиб чиқилганда асосий когнитив урғу сабр фреймига тушади.

ХУЛОСА

Англашиладики, сабр концепти Оллоҳ томондан белгилаб қўйилган инсондаги сабр -тоқат, чидамлилик, ҳаётга муҳаббат ва фидойилик сингари сифатларни ўзида мужассамлаштиради. Инсоннинг ўзи билан боғлиқ ички руҳий эмоционал ҳолат, маънавий юксалиш, ўзини бошқара билиш, нафс хоҳлаган нарсалардан тийилиш, онгли ҳатти -ҳаракатда бўлиш, руҳий-ҳиссий фазилатларни кучайтириш коннотатив маъно орқали реаллашади. Матннинг когнитив коммуникация ифодаловчи маркази саналади. Яъни, субъект-объект предикат. Субъект-вазифани белгиловчиси, объект-вазифани бажарувчиси, предикат-сабаб ва натижа муносабатини юзага чиқарувчиси ҳисобланади.

Матн структурасида сабр концепти тузилмалари матнидаги марказий ядро элемент сифатида мантнинг семантик-синтактик тузилишида бирлаштирувчи, унинг бирлигини сақловчи, бадиийлигини таъминловчи, айтиш мумкинки, воқеа-ҳодисаларни бошқариш, ҳаракат ва далиллар билан

[20] Маҳмудов Н.Тил тилсими тадқиқи.-Т.,Mumtoz zo’s .2017.22-бет.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-98-108

кенгайтирувчиси ҳисобланади. Жамиятнинг иқтисодий, сиёсий, руҳий, маънавий ҳаёти ва бошқа соҳаларида ҳам фаол ишлатилаётган Сабр лексемаси кенгайтирувчи концептосфералар маънолари орқали матннинг семантик ва синтактик структурасига таъсир этади.

REFERENCES

1. Абу Закриё Яҳё Ибн Шараф Нававийнинг “Риёзус-Солиҳийн“ (Солиҳлар гулшани) китоби. Самарқанд. Имом Бухорий халқаро маркази. 2020.
2. Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Иймон .-Т., Шарқ. 2006.
3. Нурмонов А.Танланган асарлар. Уч жилдлик.1- жилд.-Т.,Akademnashr. 2012.
4. Нурмонов А.Танланган асарлар. Уч жилдлик.3- жилд.-Т.,Akademnashr. 2012.
5. Маҳмудов Н.Тил тилсими тадқиқи.-Т.,Mumtoz so’z. 2017.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 1-жилд.-Т.,Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. 2006.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 5-жилд.-Т.,Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. 2006.
8. ТОЛЕРАНТНОСТЬ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ОПЫТ ЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ //Сборник научных статей I Международной научно-практической конференции 1-2 декабря 2011 года Просвиркуна . Баева, Л.В. Толерантность: идея, образы, персоналии [Текст] :Монография / Л.В. Баева. - Астрахань: Издательский дом«Астраханский университет», 2009. - 217 с. Верховский, А. М. Свобода выражения и религиозная толерантность: противоречия в принципиальных основаниях и правоприменении / 77 А. М. Верховский // Свободная мысль. - 2009. - №4. - С.69-80. Гараджа, В. Толерантность и религиозная нетерпимость / В. Гараджа // Философские науки. - 2004. - №3. - С.18-31.ПросвиркинаИ.И.ТОЛЕРАНТНАЯ РЕЧЕВАЯ КОММУНИКАЦИЯ: ЛИНГВ ОДИДАКТИЧЕСКАЯ ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА .АВТОРЕфЕРАТ диссертации н а соискание ученой степени доктора педагогических наук Москва 2007.
9. Стернин И.А.,Шилихина К.М. Коммуникативные аспекты толерантности. Воронеж.2001. Қаранг: МУЛЛАГАЛИЕВА Л.К. Язык толерантности. Уфа. 2012.
10. Краткий словарь когнитивный терминов /Е.С.Кубрякова, В.З.Демьянков, Ю.Г.Панкрац, Л.Г.Лузина.-М.,1966.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-98-108

11. Умарова Н.Р.Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи. филол.фан.док.(DSc)дис.автореф.Фарғона.
12. Минский М.Остраумие и логика когинативного бессознательного //Новое в зарубежной лингвистике .Вып.X111:Когнитивные аспекты языка.-М.:Энергия,1988.
13. Қаранг: Караулов Ю.Н.Русский язык и языковая личность.-М.: Наука, 1977.
14. Сафаров Ш. Когнитив семантика. Жиззах: “Сангзор.”2006.
15. Маърифат -тинчлик асоси.-Т.,Тошкент ислом университети нашриёти -матбаа бирлашмаси. 2007.
16. https://www azon us>vilws
17. https://ok ru >topic

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-109-113

КЛАССИФИКАЦИЯ, ОБОРУДОВАНИЯ И ОБЛАСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ ФАСОННЫХ НИТЕЙ

Дилфуза Хабибуллаевна Закирова
Учқун Неъматович Азаматов
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

АННОТАЦИЯ

В статье изучены виды, структуры, применяемые оборудования и область применения фасонных нитей. А также, классический способ и новые способы производства фасонных нитей. При получении фасонных нитей новым способым иисследована влияние термообработки нитей разных происхождений. Для проведения исследований использованы натуральные, исскуственные и химические нити. Исследование проведены в разных температурах. Проверены физико-механические показатели исследоваемых нитей.

Ключевые слова: фасонная нить, химические нити, термообработка, кручение, теспература, время, горячий воздух, сокращение нити, трощение.

ABSTRACT

The article examines the types, structures, equipment used and the field of application of shaped threads. And also, the classic way and new ways of producing shaped threads. When obtaining shaped threads by new methods, the influence of heat treatment of threads of different origins was investigated. For research, natural, artificial and chemical threads were used. The research was carried out at different temperatures. The physical and mechanical properties of the threads under study have been checked.

Keywords: fancy yarn, chemical yarns, heat treatment, torsion, tesperatura, time, hot air, thread contraction, spinning.

ВВЕДЕНИЕ

Производство текстильных нитей, обладающих сложной структурой и состоящих из различных по происхождению и свойствам комплексных нитей и пряж, придает изделиям привлекательный вид и позволяет расширить их ассортимент [1-2]. Применение фасонных нитей является одним из наиболее

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-109-113

эффективных путей обновления и улучшения ассортимента тканей и трикотажных изделий. Фасонные нити очень разнообразны по структуре, линейной плотности, характеру поверхности, цвету и т.д. возможности комбинирования различных свойств исходных компонентов в фасонной нити почти не ограничены [3]. Фасонные нити применяют при выработке костюмно-плательных, обивочных и гардинных тканей и гардинно-тюлевых изделий. Они могут быть использованы как для украшения тканей, так и для придания им особой структуры и полезных эксплуатационных свойств. Фасонные нити, применяемые для украшения тканей, относятся к декоративному типу. К этому типу относятся нити с ровничными эффектами, узелковая, с секретинами и застилистая. Такие нити применяются и в основе, и в утке. При их использовании переплетения должны быть такими, чтобы эффекты равномерно распределялись на лицевой стороне ткани, не образуя при этом никаких закономерных сочетаний эффектов [4-5].

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР

По получению и изучению фасонных нитей занимались несколько десятков ученые. Из них, Г.М.Попова, Г.И.Москалев, Д.Б.Рыклин, Н.Г.Снежко, Е.В.Илларионова, А.С.Дориомедов, Н.Н. Набижонова, К.З. Юнусов А.В., Рахимов Ф., Мукимов М.М., Арипджанова Д.Ю., Бастамкулова Х.Д. и др [6]. По разработке технологического процесса производства комбинированных фасонных нитей с применением полого веретена и аэродинамического устройства, способного устойчиво формировать фасонные нити высокого качества из различных компонентов проводил исследования Г.И.Москалев [7]. В работе Е.Б.Белова проводились исследования по разработке технологии получения фасонной пряжи на основе изучения механизма поведения нитей при кручении [8]. По направлению прогнозирования теоретических и прикладных аспектов и распряделения фасонных эффектов и пороков внешнего вида нитей и ткани исследования проводила И.В.Землякова [9].

МЕТОДИЧЕСКАЯ ЧАСТЬ

Фасонная крученая нить состоит из трех элементов: стержневой, нагонно-эффектной и фиксирующей нитей. Стержневая нить обеспечивает необходимую прочность [10]. Формирование фасонных эффектов осуществляется одной или двумя нагонными нитями, подаваемыми со

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-109-113

скоростью, большей, чем скорость стержневой нити. При скручивании нагонная нить, подаваемая с большей скоростью, а, следовательно, слабее натянутая, обвивается спирально вокруг более натянутой стержневой нити [11-12]. Если при этом и скорость выпуска нитей меняется, то нагонная нить образует ряд петелек, узелков или утолщений на стержневой. Иногда для формирования фасонных эффектов в качестве нагонной используют не комплексную нить, а пряжу, ровницу или ленту, окрашенную в яркий цвет. Неравномерно вытягиваясь в вытяжном приборе, ровница образует на нити продолговатые утолщения. Компонентами нагонной нити могут быть кусочки ткани, трикотажа, тесьма, металлическая нить и др. [13-14].

Предлагаемый нами способ получения фасонной пряжи осуществляется термообработкой разных нитей по происхождению. Были выбраны несколько видов химических и синтетических нитей для производства фасонной пряжи, и изучено влияние термообработки на них. В первую очередь изучены сами нити, а после крученые нити. Для получения крученой нити использовались крутильные и перемоточные машины. После термообработки проверены физико-механические показатели нитей [15-16].

ПОЛУЧЕННЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ИХ ОБСУЖДЕНИЕ

Образцы были подготовлены из выбранных химических и синтетических нитей и подверглись термСообработке. Исследования проводились с использованием сухого горячего воздуха. Температура была выше 50°C. В этом случае наблюдалось сокращение нити по длине. Однако самое высокое сокращение наблюдалось, в синтетических нитях, а после исскуственных нитях. В таблице-1 представлены физико-механические свойства нитей [17].

Физико-механические свойства крученых нитей после термообработки

Наименовани	**Полиэстер+полиамид**			**Полиэстер+вискоза**		
Линейная плотность, текс	18,7	18,85	19,01	16,25	16,5	16,7
Крутка, кр/м	141	203	407	148	221	412
Температура, ^{0}C	70^0C			70^0C		
Сокращение,%, 15 мин 30 мин	 49 51	 41 47	 39 43	 33 41	 30 35	 27 30

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-109-113

ВЫВОДЫ

По результатам исследования, стало известно, что синтетическая нить дает более высокую усадку чем искусственная нить. Процент усадки зависит от длительности обработки, температуры и число крутки. Через 15 минут и выше стало заметно сокращение нитей [18]. Это означает, что с помощью термической обработки можно получать фасонную нить.

REFERENCES

1. Н.М.Исламбекова, Д.Х.Закирова, Г.А.Юсупходжаева. Изучение фасонных нитей и их получения. VIII глобальная наука и инновации 2020: Центральная Азия. Международный научно-практический журнал. Стр.196-199. Казахстан, Нур-Султан-февраль, 2020.
2. Alimova Kh., Umurzakova Kh.Kh., Khaydarov S., Nabijonova N., Aripdjonova D. New assortiment of natural silk products // J. “IJARSET” International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. Vol. 6, Issue 3. March 2019. -B. 8568-8571
3. А.П.Эшмирзаев, А.Е.Гуламов, Н.М.Исламбекова, Д.Х.Закирова. Влияние процессов подготовки кручения на физико-механические свойства шелка-сырца. 52-й Международная научно-техническая конференция преподователей и студентов. Стр. 246. Беларусь, Витебск-2019.
4. https://ozlib.com/824140/tehnika/oborudovanie_polucheniya_nitey_fasonnymi_effektami
5. Akhmedov J.A., Azamatov U.N., Umurzakova Kh.Kh. Usmanova Sh.A. Improving technology on manufacturing sewing threads from raw silk // J. “IJARSET” International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. Vol. 5, Issue 10. October 2018. -B. 7219-7222
6. Г.И.Москалев. Разработка и исследование технологического процесса получения комбинированной фасонной нити на машине ПК. Диссертация кан.техн.наук. 1996. 170 с.
7. Е.Б.Белов. Разработка технологии получения фасонной пряжи на основе изучения механизма поведения нитей при кручении. Диссертация кан.техн.наук. 1999. 259 с.
8. И.В.Землякова. Теоретические и прикладные аспекты прогнозирования распределения фасонных эффектов и пороков внешнего вида нитей и ткани. Диссертация доктора.техн.наук. 2006. 303 с.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-109-113

9. Q E Sobirov, B M Mardonov, J A Akhmedov, Sh Q Ermatov and Kh Kh Umurzakova. Investigation of the process of removing the thread from the surface of the cocoon in an aquatic environment. Journal of Physics: Conference Series 2021 J. Phys.: Conf. Ser. 1889 042044 This content was downloaded from IP address 213.230.113.73 on 19/05/2021

10. Н.М.Исламбекова, Д.Х.Закирова, Ж.А.Ахмедов. Кимёвий ипларга иссиқлик билан ишлов бериш орқали шаклдор ип олишнинг тадқиқи. Глобальная наука и инновации 2021: Центральная Азия. Международный научно-практический журнал. стр.96-98. Казахстан, Нур-Султан-февраль, 2021.

11. Набижанова Н.Н., Юнусов К., Рахимов Ф., Мукимов М. Прессовый хлопко - шелковый трикотаж. Матер. Респ. науч. конф. ТИТЛП. -2006. -С. 23-25.

12. Арипджанова Д.У., Алимова Х.А. Основа комфортных свойств одежды из композитных материалов. Ташкент. //Ж. Композиционные материалы. -2012. -№4. -С. 47-50.

13. Н.Г.Снежко. Разработка способа текстурирования ацетилцеллюлозных нитей с использованием пластификаторов и создание ассортимента текстурированных и фасонных нитей на их основе. Диссертация кан.техн.наук. 1983. 248 с.

14. D.X.Zakirova, N.M.Islambekova. Investigation of obtaining shared yarns by heat exposure to chemical yarns. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology “IJIRSET”. ISSN: 2319-8753. Vol.10, Issue 4, April 2021.

15. Н.М.Исламбекова, Д.Х.Закирова, Н.Ф.Расулова, М.К.Ахымбетов. Табиий ипакдан композицион шаклдор ипларни ишлаб чиқаришда хомашё номери ва сарфини аниқлаш. Ўзбекистон композицион материаллар илмий-техникавий ва амалий журнали. 172-177 бетлар. №2, 2020.

16. А.П.Эшмирзаев, А.Е.Гуламов, Н.М.Исламбекова, Д.Х.Закирова. Влияние режимов отварки на прочность шелковых отходов. 52-й Международная научно-техническая конференция преподователей и студентов. Стр. 247. Беларусь, Витебск-2019.

17. Алимова Х.А., Усенко В.А. Ипакни эшиш. -Тошкент. Шарқ нашриёти. -2001. - 249 б.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-114-117

КРЕАТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ

Дилором Бахтияровна Адилова
Город Ташкент, Чиланзарский район
281- средняя школа Учительница русского языка и литературы

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена вопросу развития креативных способностей личности на уроках русского языка в средней школе. Рассмотрены условия и методы развития креативности школьников, а также приведены примеры на основе данных методов.

Ключевые слова: креативность, метод придумывания, метод «Если бы ...», метод образной картины, метод гиперболизации, метод агглютинации.

ВВЕДЕНИЕ

Креативность, согласно исследованию ЮНЕСКО, становится одним из ведущих качеств человека будущего. Это подтверждается и требованиями общества к образованию. В международных сравнительных исследованиях, направленных на оценку образовательных достижений школьников разных стран (например, в PISA - Programme for International Student Assessment), с 2021 г. вводится как один из новых дополнительных компонентов уровень развития креативного мышления подростков. Основная задача связана не с выявлением одаренных детей, а с определением границ, в рамках которых пятнадцатилетние учащиеся способны к самовыражению и креативному мышлению. Следовательно, школе необходим учитель, готовый с учетом сформированных профессиональных качеств и креативного потенциала развивать креативные способности учеников; ориентированный не только на развитие креативного потенциала своих учеников, но и на постоянное саморазвитие, активное освоение новых моделей и технологий в образовательной деятельности; способный соотносить новое с уже известным, гармонично сочетая и комбинируя новые креативные идеи, важные для всех участников образовательного процесса.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-114-117

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Креативные методы обучения – методы, ориентированные на создание учениками собственных образовательных продуктов.

Остановимся подробнее на креативных методах:

Метод придумывания – это способ создания неизвестного ученикам ранее продукта в результате их определённых умственных действий. Метод реализуется при помощи следующих приёмов:

а) замещение качеств одного объекта качествами другого с целью создания нового объекта;

б) отыскание свойств объекта в иной среде;

в) изменение элемента изучаемого объекта и описание свойств нового, изменённого объекта.

Метод «Если бы ...». Ученикам предлагается составить описание или нарисовать картину о том, что произойдёт, если в мире что-либо изменится, например:

- увеличится в 10 раз сила гравитации;
- исчезнут окончания в словах или сами слова;
- все объёмные геометрические фигуры превратятся в плоские;
- хищники станут травоядными;
- все люди переселятся на Луну и т.д.

Выполнение учениками подобных заданий не только развивает их способность воображения, но и позволяет лучше понять устройство реального мира, взаимосвязь всего со всем в нём, фундаментальные основы различных наук.

Метод образной картины воссоздаёт такое состояние ученика, когда восприятие и понимание изучаемого объекта бы сливаются, происходит его целостное, нерасчлененное видение. В результате у ученика возникает образная картина цветка, дерева, облака, Земли или всего Космоса. Поскольку человеку очень важно уметь создавать и передавать целостный образ познаваемого объекта, ученикам предлагается изобразить, например, свою картину природы или всего мира, т. е. выразить с помощью рисунков, символов, ключевых терминов фундаментальные основы природы, связи между ними. Каждый ученик во время такой работы не только мыслит различными масштабами, соотносит свои знания из разных областей науки, но и чувствует, ощущает смысл изображаемой реальности. Предлагая такое задание 2-3 раза в год,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-114-117

можно оценить изменения в картинах мира учащихся, внести необходимые коррективы в процесс обучения.

Метод случайных ассоциаций. Метод применяется для генерации новых идей, связанных с изменением объекта, с улучшением его свойств, решением проблем. Суть метода состоит в опоре на случайные ассоциации, возникающие по отношению к названию объекта, его функциям. Например, со словом «гвоздь» могут быть связаны следующие рождающиеся ассоциации; «молоток», «удар», «боксёр», «чемпион», «фруктовый сок», «моторное масло», «уменьшение трения», «смазывание гвоздя перед забиванием».

Метод гиперболизации. Увеличивается или уменьшается объект познания, его отдельные части или качества: придумывается самое длинное слово, самое малое число; изображаются инопланетяне с большими головами или малыми ногами; приготавливается самый сладкий чай или очень солёный огурец. Стартовый эффект подобным воображениям могут придать «Рекорды Гиннесса», находящиеся на грани выхода из реальности в фантазию.

Метод агглютинации. Ученикам предлагается соединить несоединимые в реальности качества, свойства, части объектов и изобразить, например: горячий снег, вершину пропасти, объём пустоты, сладкую соль, чёрный свет, силу слабости, бегающее дерево, летающего медведя, мяукающую собаку.

«Мозговой штурм» (А.Ф.Осборн). Основная задача метода – сбор как можно большего числа идей в результате освобождения участников обсуждения от инерции мышления и стереотипов. Начинается штурм с разминки – быстрого поиска ответов на вопросы тренировочного характера. Затем еще раз уточняется поставленная задача, напоминаются правила обсуждения, и – старт. Каждый может высказать свои идеи, дополнять и уточнять. К группам прикрепляется эксперт, задача которого – фиксировать на бумаге выдвигаемые идеи. «Штурм» длится 10 – 15 минут. Для «штурма» предлагаются вопросы, требующие нетрадиционного решения. На пример: Как определить длину медной про волоки, намотанной на катушку, не разматывая её? Каким образом определить без компаса, есть ли у незнакомой планеты, магнитное поле или нет. Не прибегая к дополнительному освещению, предложите способ видения предметов под водой.

ОБСУЖДЕНИЕ

Работа ведётся в следующих группах: генерации идей, анализа проблемной ситуации и оценки идей, генерации контр-идей. Генерация идей

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-114-117

происходит в группах по определённым правилам. На этапе генерации идей любая критика запрещена. Всячески поощряются реплики, шутки, непринуждённая обстановка. Затем, полученные в группах идеи систематизируются, объединяются по общим принципам и подходам. Далее рассматриваются всевозможные препятствия к реализации отобранных идей. Оцениваются сделанные критические замечания. Окончательно отбираются только те идеи, которые не были отвергнуты критическими замечаниями и контридеями.

Метод инверсии или метод обращений. Когда стереотипные приёмы оказываются бесплодными, применяется принципиально противоположная альтернатива решения. Например, прочность изделия пытаются увеличить через увеличение его массы, а эффективным оказывается обратное решение - изготовление полого изделия. Или, объект исследуется с внешней стороны, а решение проблемы происходит при рассмотрении его изнутри.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Соответственно, мы делаем вывод о том, что понятие «креативные методы обучения» абсолютно соответствуют целям воспитания креативности в учениках, ведь именно путём создания собственного продукта (будь он образовательный, творческий, материальный или интеллектуальный) личность обретает уникальность мышления, способность к адаптации в условиях изменений, а также способность к нахождению нескольких решений одной задачи, то есть становится обладателем той самой креативности.

REFERENCES

1. Барышева Т.А. Психологическая структура и развитие креативности у взрослых: Дисс. … доктора психол. наук: 19. 00. 13 / Т.А. Барышева. РГПУ им. А.И. Герцена. – СПб, 2015. – 201с.
2. Башина Т. Ф. Креативность как основа инновационной педагогической деятельности // Молодой ученый. – 2013. –№4. – С. 521-525.
3. Воителева Т.М. Теория и методика обучения русскому языку: учеб. пособие для вузов. – М.: Дрофа, 2016. –319 с.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-118-124

ОСОБЕННОСТИ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ЮНОШЕЙ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ СПОРТИВНОЙ БОРЬБОЙ

И. А. Мирзабеков
Л. М. Саидбаева
Ф. Н. Мирзабекова
Андижанский государственный университет, г.Андижан

АННОТАЦИЯ

Изучены антропометрические и физиометрические показатели юношей, занимающихся спортивной борьбой. Показано что систематические занятия борьбой увеличивают показатели массы тела, окружности грудной клетки и её поперечный размер, способствуют развитию адаптационных механизмов организма. По мере развития адаптированности организма к нагрузкам улучшаются восстановительные процессы, повышается их эффективность.

Ключевые слова: Спортивная борьба, антропометрические показатели артериальное давление, жизненная ёмкость легких.

ВВЕДЕНИЕ

Одним из важных показателей состояния здоровья населения является физическое развитие подрастающего поколения состояние здоровья оценивается нормальным уровнем основных функциональных показателей. В литературе накоплен значительный материал по возрастной динамике антропометрических показателей человека и этапы созревания различных функциональных систем[5,6].

Особое внимание уделяется проблемам здорового образа жизни укрепления здоровья, формирования потребности в систематических занятиях физической культурой. В настоящее время в учебный процесс кафедр физического воспитания внедрены многие виды спорта, среди которых можно назвать различные виды борьбы. Занятия борьбой укрепляют здоровье и иммунитет, являются гарантией полноценного общего физического развития.

Систематические занятия спортивной борьбой оказывают положительное влияние на растущий организм. Показано что подростки, которые занимающиеся спортивной борьбой по уровню физического развития значительно отличаются от своих ровестников, не занимающихся спортом.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-118-124

Спортивные занятия укрепляют и увеличивают прочность костей, увеличивают объем скелетных мышц, движения становятся быстрыми и ловкими. Организм начинает работать значительно экономнее, что снижает утомляемость[1,2,3,4].

Спортивная борьба влияет и на нравственное развитие молодого спортсмена, она способствует развитию выдержки, настойчивости, упорству, смелости дисциплинированности и других качеств, которые помогают им в жизни.

Поэтому является актуальной проблема совершенствования постановки физического воспитания и повышения его роли в учебных заведениях.

Целью настоящего исследования явилось изучение влияние занятий борьбой на физическое развитие юношей-борцов обучающихся в спорт-колледже г. Андижана.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Изучено физическое развитие юношей-борцов в возрасте 17-19 лет, обучающихся на I-3 курсах колледжа олимпийского резерва г. Андижана. В каждой группе участвовало по 25 учащихся. Контрольную группу составили учащиеся того же возраста, не занимающихся борьбой спортом.

Были проведены измерения грудной клетки на уровне под мышечной впадины, на уровне соска и на уровне основания мечевидного отростка грудины. Проведены измерения массы тела, длины тела и туловища а также ширины плеч испытуемых. Проведен расчет весо - ростового индекса Кетле.

Мышечная сила кистей рук измерялась ручным динамометром. Определение силы мышц спины произведено становым динамометром.

Для изучения функциональных показателей проведено измерение частоты сердечных сокращений пальпаторным методом, измерение кровяного давления методом Коротково и жизненной ёмкости легких спирометрическим методом. Спирометрические измерения проводились в состоянии покоя и через 1-2 минуты после физической нагрузки (20 приседаний,15 сек быстрый бег и 3 мин медленный бег).

Полученные данные статистически обработаны по методу Стъюдента – Фишера.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Известно, что масса и длина тела являются одним из важных показателей здоровья и физического развития организма. Показатели роста можно

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-118-124

использовать для оценки других признаков физического развития, а масса тела является самым чувствительным параметром свидетельствующим о возникновении заболеваний и нарушении питания организма.

По нашим данным показатели роста студентов 1 курса в среднем составили 168,7+1,1 см, 2 курса 171,5 +1,5 см и 3 курса 174,6+1,8 см Сравнение средних показателей роста учащихся 1-III курсов не выявило статистически достоверных различий (P>00,5)

Показатели массы тела студентов I курса (17 лет) составили среднем 61.4+ 1.5 кг в контрольной группе 60,6+0,2 кг у студентов 2 курса (18 лет) соответственно 65,2+1,4 кг и 61,3+0,3 кг у студентов 3 курса (19 лет) - 69,0 + 1,7 кг и 62,6+2,2 кг Различие массы тела спортсменов колледжа по сравнению с контролем на I курсе составляло 1,0 кг, на II- 4 кг и на 3- 7 кг. Наибольшее увеличение массы тела наблюдалось у студентов II и 3 курса, что можно объяснить увеличением недельной физической нагрузки и систематическими занятиями спорта.

Весо- ростовой показатель - индекс Кетле - составил у студентов 1 курса 365,7 г/см, 2 курса - 380,4 г/см 3 курса - 395,2 г/см. Эти же показатели у учащихся не занимающихся борьбой, составили соответственно 359,0 г/см 354,2 г/см и 336,4 г/см. При помощи этого индекса можно только статистически оценить состояние организма, однако он высоко
коррелируется с массой тела по-этому при помощи этого показателя можно определить особенности физического развития спортсменов.

Показатели ширины плеч учащихся I и II курсов спорт колледжа на 1,52 - 1,60 см больше чем у контрольной группы (43,85+0,45 и 42,27+0,45; 44,73+0,73 и 43,17+0,48 см) на III курсе на 1,8 см больше (46,36+0,85, в контрольной группе - 44,56 + 2,09 см).

Таким образом масса тела учащихся занимающихся борьбой по сравнению с контрольной группой увеличивается, особенно на 3 году обучения. Отставание роста длины тела на II и 3 курса у учащихся спорт колледжа, вероятно связано об спецификой вида спорта (борьба). Ширина плеч у спортсменов борцов на всех курсах была больше, чем у контрольной группы.

В связи с тем что увеличение мышечной массы приводит к увеличению силы мышечных сокращений нами были изучены максимальное сокращение сгибательных мышц кистей рук и мышц разгибателей туловища.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-118-124

По нашим данным максимальная сила сокращения пальцев правой руки у студентов 1 курса в среднем составила 42,0 + 1,7 кгм , 2 курса - 43,0 + 1.2 кГм и 3 курса - 45.0 + 1,3 кГм. Эти же показатели левой руки составили 38,0 + 1,4 кГм , 42,0 + 1,3 кГм и 42,1+103 кГм соответственно. Сравнение этих показателей у учащихся I-III курсов показало статистически достоверное уменьшение максимальной силы сокращения мышц- сгибателей кистей рук у студентов 3 курса ($p<0,01$) Таким образом, занятия борьбой влияют на равномерное увеличение силы максимального сокращения мышц кистей рук.

Показатели становой динамометрии у студентов 1 курса в среднем составили 163,0 + 8,3 кГм, 2 курса 185,0 + 3,2 кГм 3 курса 189,0 5,1 кГм. Разница между средними показателями становой динамометрии студентов 1 и 2 курса составила 20,2 кГм ($p<0,01$). Между этими же показателями достоверных различий не обнаружено, хотя наблюдалась тенденция к их росту.

Наибольший прирост становой силы у студентов 2 курса по сравнению с I курсом объясняется увеличением мышечной массы в этот период.

Результаты изучения особенностей прироста массы длины тела и туловища, а также ширины плеч у юношей - борцов показали что рост студентов в этих возрастных пределах (17-19 лет) изменяется не существенно, в то время как масса тела и сила максимальных сокращений мышц увеличивается в результате систематических занятий спортом.

Полученные результаты показали что окружность грудной клетки (ОГК) на уровне подмышечной впадины (ПВ) у студентов - борцов 1 курса (17 лет) по сравнению с контролем увеличена в среднем на 6,4 см, на уровне соска на 5 ,1 см на уровне основания мечевидного отростка грудины (ОМОГ) - на 3,6 см у студентов II курса (18 лет), ОГК на уровне ПВ нарастает в среднем на 4,0 см , на уровне соска - на 2,66 см , уровне ОМОГ - на 2 см, на III курсе (19 лет) ОГК на уровне ПВ по сравнению с контролем
увеличивается на 7,9 см, на уровне соска - на 7 см, а на уровне ОМОГ - на 6 см.

Поперечный размер грудной клетки (ПРГК) на уровне ПВ у борцов на I курсе увеличивается в среднем на 2,17 см, на уровне соска - на 1,45 см , а на уровне ОМОГ - на 0,79 см, на II курсе ПРТК, на уровне ПВ увеличивается на 2,1 см, соска - на 1,8 см, на уровне ОМОГ - на 1,2 см. На III курсе ПРТК на уровне ПВ становится на 2,6 см, больше чем в контрольной группе, на уровне ОМОГ - на 1,2 см, а на уровне соска не отличается от показателей контрольной группы.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-118-124

Таким образом, в результате систематических занятий борьбой у студентов спорт-колледжа в наибольшей степени увеличивается окружность грудной клетки и её поперечный размер.

При изучении состояния здоровья, уровня физического развития особое внимание необходимо уделять функциональному состоянию различных систем организма. Комплексное изучение изменения различных функций под влиянием физических нагрузок свидетельствует о развитии сложных компенсаторно -приспособительных процессов в организме спортсменов. По этому изучение физиологических особенностей организма, особенно кардио-респираторной системы, может дать важную информацию о его состоянии.

Частота сердечных сокращений (ЧСС) в покое составляла 77,7+1,2 уд/мин через 1 минуту после 20 раз приседаний этот показатель составил 121,8 +1,7 уд/мин, через 2 минуты: 81,4 + 1,1 уд/мин. Через 2 минуты быстрого бега ЧСС была равна 87,7+1,2 уд/мин. Аналогичные данные были получены и после 3 минуты медленного бега. Во всех этих показателях были отмечены достоверные различия ($p<0,01$) между уровнями ЧСС до и после физической нагрузки. Следовательно изменение ЧСС и его восстановительный период зависят от вида нагрузки, возраста и степени физического развития спортсменов. Динамика этого состояния отражает уровень обмена веществ в организме, а интенсивность его восстановления позволяет определить оптимальный интервал отдыха между повторными нагрузками.

Вместе с уровнем ЧСС изучались показатели борцов артериального давления. Так систематическое давление в состоянии покоя в среднем составило 112,7+1,7 мм.рт.ст через 1 минуту после 15 сек быстрого бега эти показатели составили 141,9+2,5 мм.рт.ст через 2 мин. Эти показатели приблизились к таковым в состоянии покоя.

У всех группы испытуемых восстановление исходного уровня систолического давления происходило независимо от возраста. Это свидетельствует о достаточно высоком развитии адаптационных механизмов у испытуемых.

Что касается минимального или диастолического давления, что здесь между показателями до и после физических нагрузок существенных отличий не выявлено, что свидетельствует об относительно малой реактивности этого давление по сравнению с систолическим. Диастолическое давления зависит от ЧСС, эластичности стенок артерий и прохождения крови через капиляры.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-118-124

Одним из важных показателей физического развития является жизненная ёмкость легких (ЖЕЛ). Средний показатель ЖЕЛ у студентов 1 курса составил 3615,0±145,8 мл. Наибольшая величина этого показателя была равна на 5100 мл, наименьшая-2300 мл. У студентов 2 курса ЖЕЛ составила в среднем 4292,0±114,3 мл. На III курсе средние показатели ЖЕЛ составили 4400,0±65,5 мл. Сравнение средних показателей ЖЕЛ студентов I и II курсов выявило достоверное увеличение у студентов 1 курса ($p<0,01$) Такое же достоверное увеличение отмечено и при сравнении показателей студентов I и III курсов.

Соответственно с этим под влиянием физических нагрузок увеличивается и вентиляция легких.

Таким образом, следует отметить, что в этих возрастных пределах рост изменяется не существенно, в то время как масса тела и сила максимальных сокращений мышцы увеличивается в результате систематических занятий спортом.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Полученные результаты свидетельствует о достаточно высоком развитии адаптационных механизмов у спортсменов, занимающихся борьбой по сравнению с показателями контрольной группы. Вместе с тем, по мере развития адаптированности организма к нагрузкам улучшаются восстановительные процессы, повышается их эффективность. Показано, что у нетренированных лиц восстановительный период удлинена фаза сверх восстановления выражена слабо. У высококвалифицированных спортсменов отмечаются непродолжительный период восстановления и более значительные явления суперкомпенсации

Важным фактором, способствующим спортивному росту сохранению и развитию восстановительных процессов является рациональное сочетание нагрузки и отдыха. Дополнительными средствами восстановления могут быть факторы гигиены, питания, массаж. Сбалансированное и полноценное питание должно соответствовать величине энергетических затрат.

Следовательно, при занятиях борьбой, так же как и при занятиях другими силовыми видами спорта необходимо учитывать все особенности возраста и физического развития спортсменов.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-118-124

REFERENCES

1. Алиханов И.И. Техника и тактика вольной борьбы. //М.: ФИС, 1986, 303с
2. Белоцерковский З.Б. Спортивная физиология. //М.: сов. Спорт 2005, 107с.
3. Завьялов Д.А. Трутнев П.В. Анализ фактор оптимизации спортивного мастерства борцов // Физическая культура : воспитание, образование, тренировка. 2002. N4, 49с.
4. Коц М.М. Спортивная физиология. // М. ФИС,1982
5. Фарбер Д.А., Корниенко Н.А., Сонькин В.Д. Физиология школьника. //М.: 1990.
6. Тимушкин И. Закономерности роста и полового созревания детей и подростков. //М.: 2007, 33-74с.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-125-132

КУЙГАНЁР ГИДРОБЎҒИНИ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАМИНЛАШ ЧОРАЛАРИ

Анваржон Неъматжанович Карабаев
Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти доценти,
техника фанлар номзоди
aqxi.karabaev@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Мақолада Қорадарёда жойлашган Куйганёр гидробўғинини эксплуатация қилиш жараёнида униг хавфсизлигига путур етказувчи омилларни вужудга келиши ва салбий оқибатлари тахлил қилинган ва тегишли хулосалар чиқарилган.

Калит сўзлар: Табиий, техноген, фильтрация, фильтрацион деформациялар, кавитация, абразив, антропоген, бетон, темир-бетон, рисберма, регрессия, статистик модель, хавфсизлик мезони.

ABSTRACT

The article analyzes the formation of the reasons that negatively affect the safety of the Kuyganyar hydroelectric complex on the Karadarya river during its operation and the corresponding conclusions**.**

Keywords: Natural, technogenic, filtration, filtration deformations, cavitation, abrasive, anthropogenic, concrete, reinforced concrete, apron, regression, statistical model, safety criteria.

КИРИШ

Гидротехника иншоотларининг талаб қилинадиган ишончлилик ва хавфсизлигини таъминлаш зарурати қарор қабул қилишдаги ҳолатни етарли даражада белгилаб беради.

Маълумки, гидротехника иншоотлари ишончлилиги ва хавфсизлигига таъсир қилувчи омиллар ўртасида биринчи ўринга объектнинг фаолият шароитлари ва қўлланиш усулларини шакллантирувчи омиллар, яъни объектнинг сифати тўғридан-тўғри ёки қисман боғлиқ бўлган ва хавфсизлик бўйича қўйилган талабларни амалга оширишга йўналтирилган омиллар қуйилади [1,2,].

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-125-132

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Гидротехника иншоотлари хавфсизлигини белгиловчи омилларни учта гуруҳга бўлиш мумкин:

-табиий омиллар;

-техноген омиллар;

-табиатдан фойдаланиш бўйича турли хил чеклашларни тавсифловчи (техник-иқтисодий, ижтимоий, экологик ва эстетик) омиллар.

Техноген омиллар ўз навбатида инсон фаолияти билан боғлиқ бўлган, назорат қилиниши мумкин бўлган омиллар хисобланиб, ўз навбатида қуйидагиларга бўлинади:

-лойиҳавий-технологик;

-қурилиш-технологик;

-эксплуатация-технологик омиллар.

Иншоот хавфсизлиги ва ишончлилигини таминлашда эксплуатация-технологик омиллар муҳим ўрин тутади ва қуйидагиларни санаб ўтиш мумкин:

-сув омборида, юқори бьефда ўзанда оқизиқларни тўпланиши;

-иншоот остида заминда бўладиган сув фильтрацияси;

-оқимни ростлаш;

-кавитация хавфи;

-абразив хавфи;

-юқори ва қуйи бьефларда иншоот заминлари ва қирғоқларни ювилиб кетиши;

-ўзан ўзгариши туфайли қуйи бьефда сув сатҳи режимини ўзгариб туриши;

-конструкция элементлари (қопламалар, маҳкамлагичлар ва ш.к.) ни эксплуатация, табиий, антропоген ва бошқа таъсирлар натижасида шикастланиши;

-алоҳида муҳим эксплуатация таъсирлари, масалан, гидробўғин иншоотлари орқали тошқин сувларини ўтказилиши;

-дарёдан сув олиш гидробўғини сув ташлаш оралиқларида сув сарфини бир меъёрда бўлишини таминлаш;

-ўта муҳим вазифани бажарадиган доимий иншоот ва объектлар (сув ташлаш иншоотлари, механик жиҳозлар, фильтрацияга қарши ва дренаж қурилмалари ва ш.к.) ни иш қобилияти;

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-125-132

-объектни бир меъёрда ишлаши учун зарур бўлган ташқи моддий-техник ресурслари (техник-затворларни ер ости механизмларига электр таъминоти ва ш.к., иқтисодий-профилактика ва тиклаш-таъмирлаш ишларига маблағ, ижтимоий-хизмат кўрсатувчи кишилар) ва гидротехника объекти ишини таъминлайдиган объектлар (электр таъминоти линиялари, алоқа воситалари, транспорт коммуникациялари ва ш.к.) билан таъминланганлик;

-гидротехника объектидаги рўй бериши мумкин бўлган эксплуатация давридаги ишдан чиқишлар, бузилишлар ва авариялар тавсифи, авариярларни батараф этишга вақт резерви; авария жараёнларини кечиши динамикаси;

-таъмирлаш ва тиклаш ишларининг эҳтимолий ҳажми; таъмирлаш ва тиклаш учун вақт резерви;

-НЎА (назорат ўлчов асбоблари) ва автоматик бошқарув тизимини ўрнатилганлиги ва ишончлилиги;

-муҳандислик-техник ходимлар (персонал) квалификацияси (салоҳияти);

-гидротехника объектларидан фойдаланиш усуллари (уларнинг ичида объектнинг турли хил таркибий тузилмалари ўртасида функционал вазифаларни қайта тақсимланиши ва кўп функциялиликни қўллаш имконияти ажралиб туради).

Ўзбекистон Республикасининг “Гидротехника иншоотларининг хавфсизлиги тўғрисида”ги қонунига асосан, фойдаланувчи ташкилот “Гидротехника иншооти хавфсизлигининг пасайиши сабабларини мунтазам таҳлил қилиб бориш ва гидротехника иншоотини техник жиҳатдан соз бўлишини ва унинг хавфсизлигини таъминлашга, шунингдек, гидротехника иншооти авариясининг олдини олиш бўйича чора-тадбирларни ишлаб чиқишга ва уларни ўз вақтида амалга оширишга” мажбурдир деб ёзиб қўйилган. [5].

Эксплуатация қилинаётган гидротехника иншоотлари учун қуйидаги эксплуатация ҳолатларини фарқлай олиш лозим;

-нормал ҳолат;

-потенциал хавфли ҳолат;

-авария олди ҳолати.

М1-бу шундай диагностика кўрсаткичлари қийматини бирламчи (огоҳлантирувчи) даражаси ҳисобланадики, унга эришган тақдирда гидротехника иншооти ва унинг заминининг устуворлиги, механикавий ва фильтрация мустаҳкамлиги, шунингдек, сув ташлаш ва сув ўтказиш

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-125-132

иншоотларини сув ўтказиш қобилияти эксплуатациянинг нормал шароитига жавоб беради.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

М1-диагностика кўрсатгичлари қийматини чегаравий даражаси бўлиб, уни ошиб бориши билан гидротехника иншоотини лойиҳавий режимда эксплуатация қилиш мумкин бўлмай қолади.

Иншоотларни М1 хавфсизлик мезони ҳолатига ўтиш сабаблари турлича бўлиб, уларга сабаб қилиб қуйидагиларни кўрсатиш мумкин, масалан: дренаж кольматацияси ва унинг натижасида депрессия эгри чизиғини лойиҳавий максимал ҳолатдан 10-20 см га баландроқ кўтарилиши, бу эса ўз навбатида тўғоннинг ён-бағри қуйи (откос)ни устуворлиги пасайишига, фильтрация сув сарфини ортиши ва ш.к.ларга олиб келиши мумкин. Бундан ташқари иншоотда НЎА лар ўрнатилмаганлиги ёки кам ўрнатилганлиги оқибатида, эксплуатация даврида заминдаги фильтрация оқимини назоратсиз қолдирилиши натижасида суффозион жараёнларни ривожланиши. Бундай ҳолатлар потенциал хавфли ҳисобланади ва маълум чора-тадбирларни кўришни талаб қилади [1,2, 3,4].

Гидротехника иншоотлари нормал ҳолатдан, потенциал хавфли М1 мезон ҳолатини четлаб, М2 хавфсизлик мезон ҳолатига ўтиши мумкин эмас, унинг содир бўлишини эса эксплуатация ходимлари кузатувларида йўл қўйиладиган камчиликлар туфайли деб қараш керак.

Асбоблар ёрдамида кузатишдан ташқари, визуал (оддий кўз билан) кузатувлар ҳам катта аҳамиятга эга, улар бўйича сифатли диагностика кўрсаткичлари (М1 ва М2) олинади. Гидротехника иншоотлари ҳолатини сифат жиҳатдан баҳолашни эксперт ёки экспертлар гуруҳи амалга оширади. Бунинг учун чўкиш ва силжишлар, темир-бетон ва металл элементлар коррозияси, материаллар эскириши ва ейилиши, сув сизиши ва бошқа бузилишларни ташқи кўриниши баҳоланади. Иншоотнинг потенциал хавфли (М1) ҳолатини авария олди ҳолати (М2) ва ҳатто, авария ҳолатига ўтиши баҳоланади [1,2,3].

Қорадарёдаги Куйганёр гидробўғини 1939 йилда қурилган бўлиб, катта Фарғона каналига сув олиш учун мўлжаланган. Гидробўғин иншоотларидан қарийб 80 йилдан бери фойдаланиб келинмоқда. Шу давр мобайнида иншоот бир неча марта реконструкция қилинди.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-125-132

2016 йилда Куйган ёр Гидробўғинининг хавфсизлик декларацияси тузилган. Ушбу декларацияда иншоот элементларининг кейинги беш йил мобайнида беталофат ишлашига кафолат берилган.

Куйганёр гидробўғини барча оралиқлари орқали 1200 $м^3/с$ максимал сув сарфини ўтказиш имкониятига эга. Бу имкониятни 2010 йилда 1250 $м^3/с$ миқдордаги тошқин сувини ўтказишда яна бир марта синаб кўрилди.

Куйганёр гидробўғини кўп йиллик иш фаолияти шуни кўрсатдики, сел ҳавфи асосан Майлисув дарёси томонидан кузатилади. Ушбу дарё Тентаксой билан биргаликда КФК канали юқори қисмида катта сув йўлини ташкил этади ва бу ерда сел келиб чиқиши мумкин бўлган барча хусусиятлар пайдо бўлади.

Кўрилган чораларга қарамасдан, 2017 йил бахор ойларида гидробўғин пастки бьефида ташлама тўғон 4 – 11 оралиқлари рўпарасида флютбет тиш қисмининг узилиб тушиши натижасида кенглиги 2-3 м ни ташкил қиладиган ёриқлар пайдо бўлган (1-расм). Вегетация даврига кириб келинганлиги учун хеч қандай чора кўрилмасдан, гидробўғинни эксплуатация қилиниши давом этган. Фақатгина 2017 йил сентябр-октябр ойларида таъмирлаш ишлари бошланди. Бош пудратчи бўлиб Жалолқудуқ ДУК ишлади. Тамирлаш ишлари марказлашган молиялаштириш бошлангунга қадар корхонанинг ўз маблағлари хисобидан амалга оширилди. Ишларни амалга ошириш учун иншоотнинг сув ташлаш тўғон қисми ва автоматик оралиқлар ўнг қирғоқдан ташламагача баландлиги 6 м, устининг кенлиги 5-7 м ва қиялиги 1,75 бўлган грунтли дамба билан перемичка қилиб, иншоотни бир қисмини оқимдан ажратиб қўйилган.

Иншоотни капитал таъмирлаш лойихасида пастки бьефда, тўғон кўндаланг қирқими бўйлаб сув урилма тиш қисми, учинчи қатор ёғоч ряжалар (2-расм) билан биргаликда олиб ташланиб, янгидан қилиниши, қўшимча рисберма қисмида ўлчамлари 1х1х1 м бўлган бетонит билан мустахкамлаш ишлари амалгга оширилиши белгиланган.

Куйганёр гидробўғини пастки бьефидаги конструктив бузилишларнинг содир бўлиши охирги 10 йилликда иккинчи марта кузатилмоқда. Бизнинг фикримизча бунинг сабаблари қуйидагича: Биринчидан, иншоотдан узоқ муддатдан (қарийб саксон йил) бери узлуксиз фойдаланиб келинаётганлиги сабабли, бетон ва темир-бетон қисмларда чарчаш зўриқишини ортиши туфайли иншоотда хавфли бузилишларнинг содир бўлиш эхтимоли жуда юқори.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-125-132

Иккинчидан иншоот ўтган асрнинг 50-, 60- ва 70 йилларида реконструкция қилинганлигига варамасдан инструментал кузатувни (НЎА) йўлга қўйиш чоралари кўрилмаган. Шунга асосан фильтрация сарфи назорат қилинмаган ва бунга имкон ҳам бўлмаган.

Бунинг натижасида гидробўғин иншоотларини эксплуатация қилиш жараёнида М1 хавфсизлик меъзонини аниқлаш имкони бўлмаган ва М2 авария олди хавфсизлик меъзонини четлаб ўтиб авария содир бўлган.

1-расм. Сув ташлаш тўғони 10-11 оралиқлари рўпарасида шовва қисмида вужудга келган ёриқлар ва бузилишлар

2-расм. Авария натижасида иншоот флютбетининг шовва қисми остида очилиб қолган 1939 йилда қилинган ёғоч ряжалар.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-125-132

Бундан ташқари персонални нокомпетентлиги ёки масъулиятсизлиги оқибатида сув ташлаш тўғони дарвозаларидан бир текисда сув ташланиши таминланмаган деган тахминларимиз хам бор. Хавфли ўпирилишнинг айнан тўғоннинг 10-11 оралиқлари рўпарасида рўй берганлиги бундай тахмин қилишга асос бўлади.

ХУЛОСА

1.Кўрилган хавфсизлик чораларига қарамасдан, иншоот заминида суффозион жараёнлар оқибатида грунт қисмларини кўчиши, гидробўғин конструктив элементларида чокларни бузилиши, ажралиб чиқиши, кенглиги 3-4 м, чуқурлиги 3 м дан ортиқ ўлчамдага ёриқлар пайдо бўлиши рўй берган.

2.Талофат кўламининг кенглиги гидробўғинни нормал холатда эксплуатация қилинишига имкон бермайди.

3.Талофатни келиб чиқиши қуйидаги эксплуатацион омилларга боғлиқ:

а) Иншоот қарийб 80 йилдан буён эксплуатация қилиниши натижасида бетон ва темир-бетон қисмларда чарчаш зўриқишини ортиши натижасида хавфли бузилиш холатларининг рўй бериш эхтимоли кескин ортган;

б) Иншоот бир неча марта реконструкция қилинганлигига қарамасдан инструментал кузатув ишлари йўлга қўйилмаган, яъни керакли миқдорда НЎАлар ўрнатилмаган;

в) Замин грунтларида доимий равишда геологик ва гидрогеологик кузатув ишлари олиб борилмаган;

г) Пастки бьефда дарё ўзани бўйлаб ахоли ва саноат корхоналари эхтиёжлари учун кўп миқдорда шағал қазиб олиш ишлари йиллар давомида қатъий назоратга олинмаган. Натижада иншоот яқинида дарё туби геодезик белгисини хатарли даражада пасайиши кузатилган.

д) Юқоридаги холатлар ўз навбатида иншоот замини грунтида филтрацион деформацияларни вужудга келишига олиб келган бўлиши мумкин;

е) Персонал томонидан иншоотни эксплуатация қилинишида, сув оқимини тўғоннинг барча дарвозалари орқали бир текисда ташланишига риоя қилинмаган.

4. Талафот натижасида кўрилган зарар миқдори бир неча миллиард сумни ташкил қилади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-125-132

REFERENCES

1. Бакиев М.Р., Мажидов И., Носиров Б., Хўжақулов Р.,Рахматов М. Гидротехника иншоотлари. I,II-жилдлар. Т.: 2008. – 840 б.
2.Бакиев М.Р., Кириллова Е.И., Хужакулов Р. Безопасность гидротехнических сооружений ТИМИ, Ташкент, 2008.
3. М.Р.Бакиев Анализ проблем надежной и безопасной эксплуатации грунтовых плотин водохранилищных гидроузлов // “IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA” журнали – Тошкент 2018. - №3(13). – б.10-13.
4. Махмудов А., Карабаев А. Н., Абдувосиев А. Влияние изменения условий эксплуатации Учкурганского гидроузла на его безопасность //Экологическая, промышленная и энергетическая безопасность-2019. – 2019. – С. 1018-1020.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Гидротехника иншоотлари хавфсизлиги тўғрисида” қонуни. Тошкент. 20.08.1999.

.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-133-142

КОГНИТИВ ПОЭТИКА

Фируза Рустамовна Халимова
Самарқанд давлат чет тиллар институти доценти

АННОТАЦИЯ

Замонавий ижтимоий воқелик – бу интеллектуал технологиялар воқелиги, яъни тафаккурнинг (cogito) информацион жамият ривожида асосий ресурс ва манба сифатида ўрин эгаллашидир. Бугунги кунда илмий билишнинг процессуал когнитив йўналиши долзарб саналиб, асосий эътибор инсон тафаккури фаолиятининг яширин усулига қаратилади.

Калит сўзлар: когнитив билим, оламни “ижодий қайта яратиш”, коммуникатив муносабат, концепт, “ифодавий қурилиш”, ботиний нутқ, ментал тузилма, когнитив поэтика мақсади, когнитив поэтика вазифалари.

КИРИШ

“Когнитивлик” (“билишга оид”) тушунчаси икки томонлама характерга эга бўлиб, “когнитив билим” тушунчаси Е.С. Кубрякованинг фикрича, маълум бир соҳаларни бирлаштириш ва табиатнинг энг мураккаб феноменларидан бири бўлган – инсоний билим ва тафаккурни аниқ ва тўлиқ талқин қилиш мақсадида турли соҳа вакиллари ҳаракатларини умумлаштиришда фойдаланиш лозим (Кубрякова, 1996: 58).

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Турли соҳалар когнитив билим таркибида мавжуд бўлиб, “когниция ва у билан боғлиқ жараён ва натижаларни қабул қилувчи шаклларнинг турли аспектлари билан шуғулланишади: масалан, лингвистика - билишнинг тил системаларини; фалсафа – когницияга хос умумий муаммолар ва билиш жараёнининг методологиясини ўрганади” ва ҳ.к. (Ўша асар: 82). Иккинчи томондан, когниция бошқа фанлардаги жараён ва натижалардан фойдаланиши ҳам мумкин. Мисол учун, тилга оид билим инсоннинг шахсияти, унинг фаолияти ва атроф-муҳитни идрок қилиши ҳамда ушбу оламда ўзини англаши билан боғлиқ бўлиши бир қатор психологик жараёнлар ва натижаларни чуқур тафаккур қилиш имкониятини беради.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-133-142

Бугунги кунда когнитив тадқиқотлар нафақат кундалик нутққа оид ўрганишлар доирасида, балки бадиий ва поэтик матнлар доирасида ҳам амалга оширилмоқда. Адабиётшунослик ва тилшунослик фанларининг когнитив нуқтаи назардан бирлашуви қонунияти бадиий асар табиатида намоён бўлади. Поэтик ёки бадиий нутқ тилнинг ифода шаклларидан бири бўлиб, мантиқий ҳамда формал характери (шаклий тузилиши) жиҳатидан ўзига хос хусусиятлари билан характерланади.

“Поэтика” тушунчаси тилшунослик ва адабиётшунослик, ҳамда умуман, филологияда кенг илмий анъанага асосланиб қўлланилади. Поэтик таҳлил ҳам тилшунослар, ҳам адабиётшунослар ишларида ўз аксини топади. Бу поэтиканинг ҳам бадиий билим, хусусан, “адабий турлар ва жанрлар, усул ва услуб хусусиятлари”, “бадиий бутунлик доирасида турли ички алоқалар ва муносабатлар қонуниятлари”ни, ҳам тилшунослик билимлари, хусусан, “тил бирликларининг бадиий хусусиятлари”ни ифодаловчи иккитарафлама характерга эга эканлигидан далолат беради (Гаспаров, 1987: 295-296). Бу борада поэтика тушунчасининг адабиёт назариясига оид моҳияти кенгроқ, поэтик тил ёки адабий нутқ тадқиқоти эса торроқ моҳиятга эга деб қабул қилинган. Бироқ, назаримизда, ушбу икки ҳолатда ҳам биз уни тор маънода тушунамиз, фақат турли фан билан алоқадор ҳолда поэтика асарнинг ҳам бадиий таҳлили муаммоларини, ҳам тил бирликлари ёрдамида тузилишидаги поэтик (бадиий, эстетик, экспрессивлик) вазифаларининг лингвистик таҳлили муаммоларини қамраб олади.

Р. Якобсоннинг фикрича, поэтика – бу умумийликда вербал ахборотнинг ва қисман шеърият поэтик вазифаларининг лингвистик тадқиқидир. ...Поэтика, тил белгилари ёрдамида поэтик асар тадқиқи билан шуғулланиб, шеъриятнинг етакчи вазифасини ўрганади (Якобсон, 1987: 81). Бу, албатта, поэтиканинг бошқа фанлар билан муҳим алоқасини, матнда акс этган аспектларни инкор этмайди. В.М. Жирмунский айтганидек, шеъриятда бадиий образ тил ёрдамида яратилади. Шунинг учун айтиш мумкинки, поэтиканинг биринчи бўлими, унинг қуйи қавати тилшуносликка асосланган бўлмоғи даркор (Жирмунский, 2009: 240).

Г.О. Винокурнинг назарида, поэтика ва тилшунослик ўртасида қонуний фарқ мавжуд эмас. (Винокур, 1990: 59). М.М. Бахтин ҳам поэтикада лингвистик омилларнинг аҳамиятини эътироф этиб, тилнинг лингвистик элементи ва

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-133-142

асарнинг конструктив элементи бир-бири билан мос келиши лозимлигини қайд этган (Бахтин, 1993: 96).

Шунинг учун, назаримизда, когнитив поэтика – турли соҳага оид фан бўлиб, унинг предмети даставвал когниция, бадиий ижод ва тил ҳолатидаги поэтик (бадиий) матнни тадқиқ қилиш принциплари, усуллари ва услубларидир.

Когнитив поэтика лингвистик поэтика, структурал (таркибий) поэтика, тарихий поэтика ва ҳоказо каби соҳалардан бири саналади. Бунда когнитив аспект поэтик таҳлилнинг диққат марказига кўчади. Аввало, тил ёрдамида адабий асар ёки бадиий матнни ижодкор томонидан яратилган ақлий ижодий жараёнлар ва улар натижаларининг моддий репрезентанти сифатида англаш натижасида қабул қиладиган билимлар нуқтаи назаридан. Адабий асар ва унинг тили инсон фаолиятининг ақлий соҳаси билан муносабатда бўлиши шубҳасиздир. Шунинг учун ҳам адабиётшунослик ва тилшуносликнинг когнитологиянинг назарий муаммолари аспектида кўриб чиқилиши мантиқан табиийдир.

Когнитив поэтиканинг мустақил фан сифатида поэтик нутқ билан боғлиқлигини англашнинг муҳимлиги шундаки, тилшунослик нафақат поэтик (бадиий) матнларни ўрганади, ҳамда поэтик матнлар ёки бадиий асар умумий структурасида у ёки бу ифода воситаларининг вазифасини белгилайди. Поэтик нутқ қаторида кундалик, амалий нутқ тушунчалари ҳам мавжуддир. Баъзида нутқ оғзаки, ноаниқ бўлиши мумкин. Айнан шу нутқни ўрганиш асосида баъзан нутқ табиати ва моҳияти тилшуносликнинг объекти деган хулосага келинади.

Воқеликни поэтик нуқтаи назардан қабул қилиш ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, улар тадқиқотчилар томонидан кўп маротаба таъкидланган. В.В. Виноградовнинг қайд этишича, поэтик нутқ бадиий тафаккур воситаси бўлиб, унинг вазифаси – оламни ижодий қайта яратилиши йўли билан англашдир (Виноградов, 1963: 78).

Бизнинг назаримизда, оламни “ижодий қайта яратиш” - нутқ ёрдамида ижодкор томонидан қайта яратилаётган воқелик ифода воситаси орқали амалга оширилади. Ваҳолангки, шоир тафаккуридаги фикр, яъни воқелик ўқувчига ҳам тушунарли бўлмоғи даркор. Акс ҳолда, нутқ ўзининг асосий вазифасини, яъни коммуникативлигини йўқотган бўлади. Бироқ поэтик вазифа воқеликни ифодалашда лисоний моҳиятнинг мураккаброқ ва тўлароқ информацион кўриниши бўлиб, коммуникатив вазифа ривожининг ўзига хос тури сифатида

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-133-142

қаралиши мумкин. Бу эса тил тизимининг ўзига хос ҳолатидир, бунда тадқиқодчи поэтик нутқдаги кундалик нутқда ишлатиладиган ифода воситалардан фарқли, ўзгача ажратилган, имманент тизимни, айнан мулоқот тилида автоматлаштирилишга мойил, поэтик нутқда эса аксинча, актуаллашган ифода воситаларини сезиши мумкин (Звегинцев, 1964, 189).

Поэтик вазифа воқеликни ва унинг кундалик мулоқотдан қандайдир жиҳатлари билан фарқланган у ёки бу шаклларда намоён бўлишини ижодий идрок этиш шароитида коммуникатив вазифани амалга оширилишини ўзида намоён этади. Бироқ бу ҳолатда тилнинг табиий моҳияти ва асосий вазифасини тўлиқ бажаришига имкон берадиган коммуникатив вазифа билан узилиш содир бўлмайди. Бинобарин, амалий (коммуникатив) муносабатда поэтик вазифа иккиламчи саналсада, бироқ у мазмунлироқ, кўпроқ ахборотга эга.

Ҳар қандай коммуникатив акт ҳам оламнинг “ижодий қайта яратилиши” сифатида ўрганилмайди. Шу тарзда поэтик нутқ инсоннинг тафаккур фаолиятини ўзида мужассам этиши билан кундалик мулоқот нутқидан фарқ филади. Поэтик нутқ нутқий тафаккурнинг юқори шаклидир, у инсоннинг атроф-муҳитга, унинг қиймати тизимига бўлган турли муносабатини ифодалайди, яъни поэтик нутқ воситалари орқали ифодаланган нутқий тафаккур қандайдир қисмда ассоциатив-образли деб тавсифланиши мумкин. Халқаро нутқда мавжуд бўлмаган қандайдир ўзига хос аниқ бирликларни учратмасакда, поэтик нутқ халқаро адабий нутқ борлиғининг юқори шакли саналади. Унинг таркибидаги сўзлар нооддий бўлсада, улар халқаро тилдаги барча сўзлар каби қурилишга эга. Шунинг учун айрим тадқиқодчиларнинг поэтик нутқ тил системасидаги бирча имкониятларини ўзида мужассам этишини тасдиқлаши бежиз эмас (В.П. Григорьев, О.Г. Ревзина).

Поэтик нутқ – ўзига хос функционал тизим бўлиб, унинг моҳияти нафақат коммуникатив вазифа асосида, балки, аввало образлар тизимида тасвирланган воқеликни ҳиссий, экспрессив ва ассоциатив қабул қилиш билан боғлиқ эстетик вазифа асосида намоён бўлади. Унда ажралган, имманент тизим бўлмайди. В.Г. Руделев фикрига қўшилган ҳолда, шуни таъкидлаш мумкинки, нутқнинг кўптармоқли ғоялари ва унинг ҳар хил мазмундаги ахборот узатишга қодирлигини инобатга олиб, биз коммуникатив нутқдаги ахборот қисмларини ажратишга етарлича сабаб тополмаймиз (Руделев, 2002: 87).

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-133-142

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Поэтик нутқнинг турли назарий таҳлиллари асосида унинг билиш билан бўлган алоқаси шубҳасизлиги кўрсатилган. Шунингдек лингвистик поэтика ўзининг турли йўналишларида – хоҳ у яратувчанлик поэтикаси бўлсин, хоҳ муаллифнинг шахсий поэтик нутқидаги олам тасвирининг бадиий-лисоний тузилиши бўлсин, бадиий тафаккурда поэтик нутқ вазифасини яққол кўрсатиб бера олди. Когнитив тилшунослик доирасидаги тадқиқодлар тил соҳиблари томонидан “оламни англаш жараёни тилшунослик ва лингвистик поэтика чегарасини кесиб ўтувчи қўшимча таълимот” деган фикрнинг мукаммал эмаслигини кўрсатиб берди (Рювет, 1980: 156). Бизга маълумки, оламни англаш нутқ орқали амалга оширилади. Айни ҳолда оламни поэтик нутқ орқали англаш борасида сўз бормоқда, яъни поэтик нутқ бадиий тафаккурни ифодалаш усули ҳисобланади. Поэтик нутқ олам ҳақидаги яширин билимни тилда намоён этади. О.Г. Ревзина айтганидек, бадиий тафаккурнинг ҳаракатини акс эттирувчи тавсифи мавжуд бўлмасада, лекин бадиий тафаккурни англаш мураккаб бўлмаганлиги туфайли ушбу атама ўз-ўзини изоҳлаши мумкин (Ревзина, 1998: 21).

Поэтик нутқ бадиий тафаккур билан муносабатда бўлган ҳолда тил орқали борлиқ, олам ҳақидаги маълум билимлари ифодалашга хизмат этади. Билим турларини фарқларини ажратувчи белгилардан бири бу – креативлик ва нокреативликдир, уларнинг релевантлиги ноилмий билиш тизимида намоён бўлади. Барча илмий билимлар ўз табиати асосида креатив ҳисобланиб, инсониятнинг ижодий билишга оид фаолиятини акс этади. Бу белгининг ижобий мазмуни ўзига хос креатив ва воқеликни англашнинг мураккаб шакли орқали амалга оширилади. Шунинг учун креатив билимлар ноакреатив билимларга нисбатан белгиланган бўлади.

Ноилмий билимлар тизимидаги креатив билимлар қаторида “бадиийлик” тушунчаси алоҳида ўрин эгаллаб, санъат турларида, бадиий адабиётда намоён этилган воқеликнинг эстетик хусусиятини очиб беради. Бундай тасвирлашнинг ўзига хос хусусияти унинг образлилик характеридадир. Агар илмий ва бадиий каби воқеликни ифодалашнинг икки креатив усулларини таққосласак, уларнинг фарқи ўзига хос тафаккур доирасида намоён бўлади: илмий билим “тушунча моҳиятини англаш”га йўналтирилган бўлса, бадиий билим эса “образни англаш”ни қамраб олади. Биринчи ҳолатда инсоний фаолиятининг билишга оид интеллектуал-ақлий (назарий) томони амалга оширилса, иккинчи ҳолатда эса –

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-133-142

ҳиссий-образлилик намоён бўлади. Бадиий билим билан кундалик билим воқеликни англаш нуқтаи назаридан таққосланганда, кундалик билим кўргазмали, кузатувчанлик ҳиссий англаш билан боғлиқ: фикрлаш тасаввур ва сезиш орқали амалга оширилади; бадиий билим эса экспрессив, эстетик ҳиссий англаш билан боғлиқ бўлиб, фикрлаш индивидуал образлар орқали амалга оширилади.

Е.С. Кубрякованинг фикрича, когнитив тилшуносликнинг калит сўзи – бу концептуализация тушунчасидир (Кубрякова, 1996: 105). Концептуализация назариясининг энг муҳим бошланғич қурилмаси қаторида - назарий ва/ёки кундалик билимларнинг оператив бирлиги, инсоннинг олам билан ўзаро таъсири тажрибаси акс этган концепт ҳақидаги тасаввур киради. Бошқача қилиб айтганда, концепт – бу инсон нутқий фикрлаш фаолияти жараёнида аниқлаган нарса ёки ҳодиса, уларнинг алоҳида хусусиятлари, характеристикаси, бошқа нарса ёки ҳодиса билан ўзаро алоқаси ҳақидаги тафаккур этилган билим бирлигидир (Болдырев, 2009: 25-26).

Муаллифлик дунёқарашини англаш учун, А.В. Громованинг белгилашича, нутқ бирликлари ёрдамида ўқувчининг онгига мақсадга йўналтирилган таъсир ўтказиш талаб этилади. Нутқ бирликлари регулятив вазифани бажарган ҳолда, муаллиф ва ўқувчи мулоқоти жараёнида бевосита иштирок этиб, қабул қилинувчи субъект фаолиятини изоҳлашга мўлжалланган (Громова, 2010: 3).

Бадиий концепт хусусияти шундан иборатки, у ўзига хос “ифодавий қурилиш”га эгадир, ушбу қурилиш матн муаллифи ўз бадиий тасаввурини юқори даражада ўқучига етказиш учун керакли сўз ва ифодаларни танлаб, уларни ўзига хос тарзда мослаштириб жойлаштириши асосида ҳосил бўлади. Бошқача қилиб айтганда, нутқ унинг турли ифода воситалари туфайли ўзига хос қийматга эга бўлади. Кундалик нутққа нисбатан ифоданинг бу турига берилган эътибор, одатда, поэтик нутқда “ифодавий қурилиш” деб айтилади. Р. Якобсоннинг таъриф беришича, шеърият ифодавий қурилиш асосидаги фикр баёнидир (Якобсон, 1987: 10).

Шундай қилиб, шоир ёки ёзувчи нутқий тасаввуридаги асосий ақлий бирлик - яхлит структурага эга бўлган бадиий концепт бўлиб, унинг асосий шаклланиши ҳиссий, ифодавий, ассоциатив механизмларнинг образли эстетик майдон билан ҳамоҳанглиги тарзида ҳосил бўлади

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-133-142

Бадиий концепт, бадиий тафаккур бирлиги ҳисобланиб, бадиий тафаккурнинг асосий принципи – “ягоналикни умумийликка киритиш”ни амалга оширади (Ревзина, 2002: 42). Ва бу, бизнинг фикримизча, тафаккур турлари билан боғлиқ. Бироқ, биринчи ўринда, индивидуал-муаллифлик дунёқарашни аниқлаш ва тушуниш даркор. Концептнинг лисонийлашув жараёни яна бир муҳим ментал босқични босиб ўтади. Воқеликнинг тафаккурдаги умумлашган инъикоси – образнинг мантиқий “қайта ишланиши” натижасида ҳосил бўлган концепт лисоний “либос” олишидан олдин ушбу “либос”нинг тасавурдаги акси – модели юзага келади. Лисоний воқеланиш режаси пайдо бўлган заҳотиёқ уни амалга ошириш услуби изланади. Режа ҳамда “сўзсиз” модел нолисоний ёки “ботиний нутқ” жараёнида юзага келади (Сафаров, 2006: 23).

Бадиий концептуализация ва унинг нутқда намоён бўлиши когнитив поэтика аспектида тасвирланиб, тадқиқот анъанасига айланиши мумкин

Поэтикани когнитив тасвирлашнинг кейинги муҳим жиҳати ментал ва нутқ тузилмаларининг у ёки бу турлари муносабати саналади. Бизнингча, поэтик нутқда тилни когнитив англаш хусусиятидан нутқий репрезентация белгиси инсон ҳаёти давомида шаклланган ички тузилмалар, яъни олам тасвири, ижтимоий ҳаёт ва ўзлигининг тасвири жамланган баъзи-бир ментал репрезентацияни танлашда ўз аксини топади (Андреева, 1998: 8).

Турли усулларда намоён этилган ушбу ментал репрезентация (ақлий идрок) матн таркибида эстетик ва экспрессив вазифани бажаришга мўлжалланган, когнитив тузилмалар билан ўзаро муносабати таркиби ва хусусиятларини аниқлашга кўмаклашадиган тил воситалари таҳлили натижасида аниқланади. Ментал репрезентациянинг турли усуллари муносабатига концепт атамаси етакчилик қилади. Фан тараққиётининг замонавий босқичида концепт, - дейди, А.П. Бабушкин, - ментал воқеланиш шаклларидан бири бўлиб, нарсаларнинг қай тарзда ўзаро боғланиши ва уларнинг қандай категориялашини изоҳлайди (Бабушкин, 2011: 11).

Ж.Н. Маслова когнитив поэтиканинг мақсадини қисқа тарзда изоҳлаш мушкуллигини таъкидлаб, когнитив аспектда муаллиф субъектини ўрганиш ёки ундан узоқлашиш; эътиборни матнлар билан асарлар тафовутига қаратиш ёки берилган далилни маълум тадқиқот доирасидан ташқари ўрганиш мумкин деб айтган (Маслова, 2014: 14).

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-133-142

Когнитив поэтика, даставвал, шеърий нутқда ифодаланган ментал тузилмалар асосидаги когнитив стратегиялар ва жараёнларга эътибор қаратади. Когнитив поэтикада бадиий матн индивидуал ижод онгига хос концептуал тузилмаларининг лисоний воқеланиши ҳолатида ўрганилади.

Когнитив поэтика олдига қўйилган вазифага келсак, “когнитив поэтика доимий саволларга жавоб топишга ҳаракат қилади: бадиий адабиётда олам тасвири усули ҳақида; ижод ва санъат табиати ҳақида; бадиий адабиёт ва кундалик нутқнинг ўзаро муносабати ҳақида (Doležel, 1990: 6-7). Cognitive poetics is a powerful tool for making explicit our reasoning processes and for illuminating the structure and content of literary texts (Freeman, 2002: 253-254).

Когнитив поэтика олдига қўйилган муҳим вазифалардан бири, деб ёзади Ж. Маслова, бадиий (поэтик) нутқ тузилмалари, билишнинг ментал жараёнлари ва бирликлари орасидаги боғлиқликларни фош этиш саналади. Бундан ташқари, эмоционал-эстетик, бадиий тажриба ҳамда уни намоён этиш усулларини қайта ишлашнинг ўзига хос хусусиятларини аниқлаш ва тасвирлаш когнитив поэтика вазифаси саналади (Маслова, 2014: 15).

Когнитив ёндашув муаллиф субъективлигидан узоқлашишга имкон беради. Бу, масалан, жамиятда сўз санъатидек ҳодиса мавжуд бўлишини таъминлайдиган умумий ментал асос ҳақидаги тасаввурни кенгайтириш имконида кўринади.

ХУЛОСА

Шуни таъкидлаш жоизки, шеърият ҳар қандай ижодий фаолият маҳсули каби, даставвал инсон онгида шаклланади, яъни шоир воқеликдан таъсирланган ҳолда ўз ҳиссиётларини қоғозда акс эттириш мақсадида қўлига қалам олади. У тасаввуридаги воқеликни ўқувчига таъсир ўтказиш мақсадида муносиб лисоний воситалардан фойдаланади. Шу тарзда, у оламни “қайта яратишга” мушарраф бўлади. Бироқ шоир танлаган лисоний воситалар, принциплар, усуллар, услублар ўқувчига тафаккурида акс топган воқеликни айнан етказа оладими? Ўқувчи худди шундай таъсирни сеза оладими? Шеърнинг таъсирли, ифодавий бўлишига қайси омиллар сабаб бўлади? Бу саволларга когнитив поэтика жавоб бера олади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-133-142

REFERENCES

1. Андреева Е.А. Ментальная репрезентация: динамика и структура. – М.: Изд-во Институт психологии РАН, 1998. – 319 с.
2. Бабушкин А.П. Языковая объективация типизированных представлений. Воронеж, 2011. – 122 с.
3. Бахтин М.М. Формальный метод в литературоведении. – М.: Лабиринт, 1993. – 207 с.
4. Болдырев Н.Н. Концептуальная основа языка //Когнитивные исследования языка: концептуализация мира в языке. – Москва; Тамбов, 2009. Вып. 4.
5. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. –М.: Изд-во АН СССР, 1963. – 255 с.
6. Винокур Г.О. Филологические исследования. Лингвистика и поэтика. – М.: Наука, 1990. – 452 с.
7. Гаспаров М.Л. Поэтика // Литературный энциклопедический словарь / под общ.ред.В.М. Кожевникова, П.А. Николаева. – М.: Сов. Энциклопедия, 1987. – 752с.
8. Громова А.В. Регулятивный потенциал прилагательных в поэтическом дискурсе М.И. Цветаевой: автореф. дис. … канд. филол. наук. – Томск, 2010.
9. Жирмунский В.М. Введение в литературоведение. – СПб.: Изд-во С.Петербург. ун-та, 2009. – 440 с
10. Звегинцев В.А. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях. – М.: Изд-во Просвещения, 1964.
11. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Изд-во МГУ, 1996. – 245 с.
12. Маслова Ж.Н. Введение в когнитивную поэтику. – Тамбов: Изд. дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2014. – 251 с.
13. Ревзина О.Г. Системно-функциональный подход в лингвистической поэтике и проблемы описания поэтического идиолекта: автореф. дис. … д-ра филол. наук. – М., 1998. – 86 с.
14. Ревзина О.Г. Загадки поэтического текста //Коммуникативно-смысловые параметры грамматики и текста. – М.: Эдиториал УРСС, 2002. – 418 с.
15. Руделев В.Г. Принципы сегментации поэтической речи // Собрание сочинений: в 6 т. – Тамбов, 2002. Т. 6.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-133-142

16. Рювет Н. Границы применения лингвистического анализа в поэтике // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 9: Лингвостилистика. – М.: Прогресс 1980. – 297 с.
17. Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Ж.: “Сангзор” нашриёти, 2006. – 92 б.
18. Тезисы Пражского лингвистического кружка //Звегинцев В.А. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях. – М., 1960.
19. Якобсон Р. Работы по поэтике. – М.: Прогресс, 1987. – 464 с.
20. Doležel L. Occidental Poetics: Tradition and Progress. Lincoln; London: University of Nebraska Press, 1990.
21. Freeman M. Poetry and the scope of metaphor: Toward a cognitive theory of literature // Metaphor and Metonymy at the Crossroads: A Cognitive Perspective. – Berlin; N.Y.: Mouton de Grater, 2002. – P. 253-281.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-143-148

МИФОЛОГИЧИСКИЕ АРХЕТИПЫ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ И ИХ ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ПРИРОДА

Манзура Аманбоевна Атажанова
Кандидат филологических наук, Институт узбекского языка, литературы и фольклора Академии наук Республики Узбекистан

АННОТАЦИЯ

В данной статье на примере анализа мифологий в рассказе писателя Исаджона Султана "Баги Эрам" отражено взаимодействие фольклора и письменной литературы, функционально-семантические особенности древних мифологических символов и образов в структуре художественного текста. Выявлено, что мифопоэтическая интерпретация является одной из особенностей современной узбекской прозы.

Ключевые слова: фольклор, письменная литература, мифология, ремифологизация, мифологизм, история, мифологический сюжет, мотивация, художественный образ, эпическая диффузия, мифологический код, космогонический миф, анимистический миф, композиционная структура.

ABSTRACT

In this article, on the example of the analysis of mythologies in the story of the writer Isajon Sultan "bagi Eram", the interaction of folklore and written literature, the functional-semantic features of ancient mythological symbols and images in the structure of the artistic text are reflected. It is revealed that the mythopoetic interpretation is one of the peculiarities of the present Uzbek prose.

Keywords: folklore, written literature, mythology, remifologization, mythologism, story, mythological plot, motivation, artistic image, Epic diffusion, mythological code, cosmogonic myth, animistic myth, composition structure.

ВВЕДЕНИЕ

Герой рассказа Исаджана Султана “Райский сад”, вспоминает своё беспечное детство, встречу с Халмухаммадом бува, у которого душа болела видя как загрязняют природу, как наполняются мусором некогда сверкающиеся от чистоты воды арыков: “Старик подошёл к нам, и стал наблюдать за нашей игрой. Затем мы увидели как его глаза наполнились слезами. “Почему вы

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-143-148

плачете, дедушка?" – спросил я. Старик с трясущейся бородой сказал: "Когда-то я тоже вот так мочил испечённые мамой лепёшки арычной водой и ел, я плачу вспоминая те времена, сынок. Эх, жизнь моя протекла как этот арык". Я подумал, что ему хочется лепёшки. Помню, что я протянул ему свою лепёшку. А старик взял лепёшки, и не стыдясь, разрыдался". Герой-рассказчик бежит за плачущим дедушкой Халмухаммад бобо. Переступив появившийся на его пути арык, перед его взором предстала потрясающая картина: "Я увидел перед глазами необычайный сад с золотыми дверями, хрустальными ручками! Мальчишка моего возраста, держащийся за ручку двери, улыбаясь, смотрел на меня и звал к себе. Я ступил два шага и взглянул в сад. Я не могу сказать, что я там увидел, если скажу, то вам покажется, что всё как на земле. Но деревья, которые я там видел, хоть и похожи на земные деревья, они совсем другие. Птицы, воды... Это были небесные сады! Необычайно прекрасные! Я затрудняюсь найти определение той красоте".

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Писатель для реализации мифологических представлений о путешествии героя в мир "иной", существующего в узбекском фольклоре, успешно использовал деталь "арык". Использованный здесь архетип в древней мифологии был мифологическим средством, связывающим "этот" и "другой" мир, иными словами, она выполняла функцию границы между этим миром людей и "миром иным" – пространством мифологических сил. Именно поэтому герой рассказа переступив арык очутился в другом мире и перед его глазами предстаёт "сад с золотыми дверями и хрустальными ручками", то есть райский сад.

Согласно мифам, райский сад являетя пристанищем пери (мифический образ красивой женщины), этот сад, который невозможно описать словами, расположен на горе Кухи Каф. Сад охраняли девы (демоны). В этом саду с прекрасной и неописуемой природой жили пери. Мифологические представления о райском саде перекочевали в узбекское народное устное художественное творчество из арабского фольклора. Согласно легендам это чудное местечко под названием "Ирам зат ал-имад" создан легендарным правителем по имени Шаддод. Он приступил к строительству райского местечка на земле и построил прекрасный город-сад, здания которого разукрашены дорогими камнями и металлом. Говорят, что этот город, из за

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-143-148

своей гордыни и корыстолюбия был наказан богом и разрушен. Отдельные специалисты считают, что представления о райском саде образовались на основе мифологических убеждений древних арабских племён. В священной книге мусульман “Коран”, в 6-7-8 аятах приводятся сведения о трагедии племени Од, проживавших в городе Ирами имевших роскошные замки с высокими колоннами. Согласно легендам, “Ирам зат ал-имад”, то есть “Ирам с высокими замками” был построен легендарным правителем по имени Шаддод.

В узбекских народных поэмах *Ирам* или *Боғи Эрам* это – место обитания пери. Согласно мифологическим представлениям, иными словами, по эпическим традициям, Кухи Каф толкуется как граница между землей и Райским садом.

Этот прекрасный сад настолько завораживает мальчика, ступив на этот неземной сад, он видит чудесные вещи, о которых он читал лишь в сказках. “Я был настолько зачарован садом, что невольно сделал ещё один шаг вперёд. Ещё один шаг и я внутри сада. Я мог поймать порхающих золотых стрекоз, поговорить с златокрылой птицей Семург”.

Семург – согласно древним представлениям наших предков, является символом тотемистического покровителя, огромной птицей, оказывающей помощь богатырям. Сложно сказать, когда появился этот прекрасный лирический образ, однако древние сюжеты, связанные с птицей Семург, были широко распространены в фольклоре народов Востока. Она, посадив на свои могучие крылья, могла переносить героя в подземный мир, или выносить его на свет. Первые сведения о птице Семург встречаем в священной книге зороастризма “Авеста”. Как пишется в XIV яште “Авеста”, огромная птица по имени “Саена меруга” построила своё гнездо на верхушке “дерева жизни” по середине моря Ворукаша. Мы считаем, что первые мифы о птице “Саена меруга” (Семург), защищающей “дерево жизни” от злых сил своими огромными крыльями, появились на берегах моря Ворукаша или “Безграничного моря”, то есть Аральского моря, на территории древнего Хорезма.

РЕЗУЛЬТАТЫ

В древней космогонической мифологии образ Семург толковался в тесной связи с легендарным деревом жизни, непосредственно связанного с космическим строением земли. В 62-й главе текста “Минокехратский

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-143-148

памятник", созданного в VI в. на древнеиранском языке пехлеви изображается мифическая картина этих понятий, демонстрирующая эволюцию данного крылатого образа: "Дерево жизни Хома, воскресающая мёртвых, растёт посредине моря Ворукаша. Семург, свившая гнездо на макушке дерева жизни, является символом добра. Каждый раз когда она поднимается со своего гнезда прорастают тысячи новых веточек, и каждый раз когда она садится на своё гнездо, ломаются тысячи веток и и семена всех растений рассыпаются по сторонам". Представления о связи космогонической птицы с древом жизни можно встретить и в народной мифологии скандинавов, индо-европейских, сибирского, арабского народов. Примечательно, что если на макушке дерева жизни в мифах изображается огромная птица (в древних индо-иранских мифах – Семург, арабской мифологии – Феникс), то у корня дерева непременно завивается змея (в скандинавских мифах змея по имени Нидхегг). Если мифическое "дерево жизни" напоминает описанное в "Авеста" дерево Хома (в индийской мифологии – Сома) или "Хварри" ("Обилиющий влагой"), то между образами птицей Семург и змеи, обвивающей дерево, на котором птица свила своё гнездо, есть взбудораживающее ум сходство.

Знаток фольклора и мифологии народов Востока Исаджан Султан в своём рассказе "Боги Эрам" описывая чудесную картину, представшую перед глазами героя, старается сохранить древнюю мифологическую ассоциацию единства птицы и дерева жизни. Как передаётся в рассказе, "Рядом с дверью растёт огромное зелёное дерево", его ветви "запропастились где-то среди туч". Описанное в данном фрагменте "зелёное дерево" есть художественное толкование "дерева жизни", которое в архаичной мифологии объединял три мира – Небо, Землю и Подземный мир. Этнограф М.И.Шахнович констатирует, что космогонических мифах встречаются сведения о "дереве мира". По его мнению, "дерева мира" изображается с корнями, растущими квержу и ветвями, растущими вниз. Это – символ мира или изображение основы мира, то есть ось земного шара. Согласно верованиям шаманов сибирских народов беркут Сэмург очень часто садится на это дерево".

Согласно мифологическим представлениям, корни "дерева жизни" расположены под землёй, а его ветки возвышаются над облаками и касаются неба, и таким образом это древне мифологическое дерево объединяет три мира, то есть Небо (небесный мир – пространство духов), Землю (место, где живут люди) и Подземный мир (низший мир – мир мёртвых). Следовательно, в

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-143-148

шаманистской мифологи древних тюрков изображается как шаманские духи кочуют в иной мир с помощью “дерева жизни”.

В рассказе не зря уделяется особое внимание “зелёному” цвету дерева в чудесном саду, который считается деталью космогонической мифологии. Поскольку согласно мифу, “дерево жизни” являясь вечно зелёным растением, никогда не засыхает и вечно цветёт. Именно поэтому оно называется “деревом жизни”.

Писатель Исаджан Султан с мастерством сумел внедрить в свой рассказ мифические взгляды о “дереве жизни”, то есть расположение души вне тела. Как приводится в рассказе, герой рассказа, попавший в Боги Эрам, окидывая взглядом огромное зелёное дерево, ветки которого уходят далеко в небеса, замечает, что “время от времени с веток падают листья”. Вот к моим ногам упал жёлтый листок. Я нагнулся, чтобы поднять листочек, и заметил на нём надпись. На листочке с жёлтыми крапинками было написано “Холмухаммад Зиё оглы”.

Падающий лист зелёного дерева, имя человека, начертанное на нём – всё это своеобразное своеобразное толкование в письменной литературе анимистических представлений. В мифологии упавший с “дерева жизни” лист понимался как признак умершего на земле человека. То есть, согласно мифологическим представлениям древнего человека, сколько на земле людей, столько листьев у “дерева жизни”. Появление новых листочкев на ветках дерева воспринималось как рождение нового младенца, а упавший листок – признак смерти человека. Следовательно, в рассказе “Боги Эрам” упавший листок с зелёного дерева и надпись на нём “Холмухаммад Зиё оглы” говорит о кончине это человека. Герой-рассказчик, переступивший через арык в конце поля с клевером, теряет сознание, а когда приходит в себя в объятиях матери, узнаёт от неё, что в тот день умер дедушка Холмухаммад бува, который всегда грелся на солнце у своего глинобитного домика.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В заключение, можно отметить, что писатель умело пользуется народными мифологическими представлениями, передающими истинную красоту и живописность девственной природы не только для передачи психологических преживаний героя произведения, но и проблем эпохи, в

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-143-148

частности, для изображения стона матушки-земли, страдающей от экологической трагедии.

REFERENCES

1. Исажон Султон. Озод. Роман ва ҳикоялар. – Тошкент: “Sharq”, 2012. – Б.372-374.
2. “Авесто”. Яшт. XIV, -Б.41.
3. Эта цитата взята из следующей книги: Тревер К.Б. Сэнмурв – Паскудж. Собака-птица – Л., 1937. – С.11-12.
4. Шаханович М.И. Первобытная мифология и философия. Наука. Ленинград. 1971 г. Стр.154-155.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-149-156

ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА СЕН/СИЗ МУРОЖААТ ШАКЛЛАРИ ВА ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Сурайё Серажиддиновна Сайдуллаева
Навоий давлат педагогика институти докторанти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақола ўзбек ва инглиз тилларида мурожаат шакллари “сен” ва “сиз”- “you” ларнинг талқинига бағишланади. Ҳар иккала миллатнинг нутқий мулоқотида коммуникантлар ўртасида ҳурмат категориясини англатувчи ушбу мурожаат шаклларининг қўлланилиши ва лингвомаданий хусусиятлари ўзбек ва инглиз тилидаги бадиий асарлар ҳамда ижтимоий ҳаётимизда учрайдиган матнлар таҳлиллари асосида уларнинг ўхшаш ва фарқли жиҳатлари ёритиб берилган. Шу билан бир қаторда, мақолани ёзишда бир қатор олимларнинг қарашлари ва илгари сурган назарияларидан фойдаланилган.

Калит сўзлар: сен, сиз, you, мурожаат, ҳурмат, афиикслар, жинс категорияси, ёш категорияси, лингвомаданият, ностандарт нутқ, нутқий мулоқот.

ABSTRACT

This article is devoted to the interpretation of the forms of address in the Uzbek and English languages "you-sen" and "you-siz" (Uzbek) - "you" (English). The use, as well as the linguistic and cultural characteristics of these forms of address, which represent a category of respect among communicators in the speech dialogue of both nations, highlight their similarities and differences based on the analysis of works of art in Uzbek and English and texts encountered in our social life. In addition, the views and theories put forward by a number of scientists were used when writing the article.

Keywords: you-sen, you-siz, you, appeal, respect, affixes, gender category, age category, linguistic culture, non-standard speech, verbal communication.

КИРИШ

Ҳар бир миллатнинг миллий маданиятида инсонлар бир бирларига ҳурмат кўрсатиши мулоқотнинг энг юқори одоб-ахлоқи ҳамда этикети ҳисобланади. Ўзбек ва инглиз тилларида нутқий мулоқотда коммуникантлар ўртасида

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-133-142

мулоқотнинг ҳурмат категориясини сақлаб қолувчи **“сен”** ва **“сиз”** мурожаат шакллари мавжуд. Ушбу ўзбек тилидаги мурожаат шаклини Қ.Ш.Қахаров “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” орқали қуйидагича таърифлайди, **сен** – кишилик олмоши, иккинчи шахс, бирлик.

1. Ўзидан кичик, яқин кишига мурожаатда ишлатилади.
2. Кўпчиликка мурожаатда дағаллик ёки менсимасликни билдиради.

Сиз – кишилик олмоши, иккинчи шахс, кўплик.

1. Кўпчиликка мурожаатда ишлатилади.
2. Ўзидан катта кишига ва, умуман, ҳар қандай шахсга нисбатан ҳурматни билдиради.[1]

Бунга қўшимча тариқасида **“сен”** мулоқотда яна бир яъни жонсиз нарсаларга мурожаат тарзида ёки уларнинг номи ўрнида фойдаланишнинг шаклини келтиришимиз мумкин: *“Эҳ,* ***ёшлигим сен*** *бунчалар тез мени* ***тарк этдинг”***.

“Инглиз тилининг изоҳли луғати”[2]да эса қуйидагича берилади: “**You”** ўзбек тилидаги **сен** ва **сиз** мурожаат шаклини англатиб келувчи биргина шаклдир:

1. номинатив ёки объектив ҳолатда иккинчи шахс олмоши якка ёки кўпликда, мурожаат қилинган шахс ёки шахслардан ишлатилади
2. жумла мавзуси билан қўшимчада ишлатилади, баъзан мавзуни таъқиб қилиш учун такрорланади
3. норасмий. (герунд олдидаги сизнинг олмоши ўрнига ишлатилади)

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Инглиз тилида ***“You”*** олмоши бирлик ва кўплик ўртасидаги фарқни аниқлаш учун қўшимча шакллар билан изоҳланади. ***“You”*** олмоши ва мурожаат шакли оғзаки нутқда Жанубий Мидланд ва АҚШнинг жанубида кенг тарқалган. ***“Y’all” (You all)*** моносиллабик шакли Жанубий Мидланд ва Америка Қўшма Штатларининг Жанубида бу минтақавий ўзига хосликни англатишдан кўра, таниш ва норасмий ҳолатларда қўлланилади. Бунинг эгалик шакллари одатда **all’s** дан кўра ***y’all’s*** нинг қўлланилиши мақсадга мувофиқдир. **“You”** (You+ones (кимдир)) шакли жанубий Мидландда фойдаланиладиган кўпинча

[1] Қ.Ш.Кахаров “Ўзбек ва немис нутқий этикетларининг қиёсий тадқиқи” Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси, Андижон – 2020, 86-б
[2] https://www.dictionary.com/browse/you

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-133-142

ностандарт нутқда учрайдиган шаклидир; унинг ўрнини **y'all** ёки **y'all's** олмошлари билан алмаштириш ҳам мумкин. Аммо, Бостон, Ню-Йорк ва Чикаго каби шаҳар марказларида кенг тарқалган **Youse (you + отларнинг кўплик шакли 's)** нутқда кам учрайдиган формаларини учратишимиз мумкин, шунингдек, бу оддий норасмий ифода шакли ҳамдир.

Инглиз тилида **сен** ва **сиз**нинг биргина **you** шакли орқали ифодаланишини кўришимиз мумкин. Бундан ташқари, **you-сен** яқинликни ифодалаши, **you-сиз** мурожаат шакли эса қайсидир маънода масофани сақлаши, расмий вазиятларда ёки бегоналар ўртасида бўладиган мулоқотда қўлланилади яъни **You (Сиз)** – умумий мурожаат шаклидир:

- ***You** know he shot his brother? – said Ursula.* (Bilasiz(сан)mi, u akasini otgan. dedi Ursula). D.H.Lawrence "Women in love" p-6

Инглиз тилидаги **you** олмоши- "сен" ва "сиз" шаклларининг қарама қаршилиги нутқий одатга хос ҳамма вазиятларда ишлатилади ва барча тил бирликларига қўшилади, аммо ҳеч қандай ушбу олмошлари билан қўлланилаётган феълга аффикс қўшилмайди, шунингдек, таржима қилинаётганда контекстнинг маъносига боғлиқ бўлган ҳолда **сен** ёки **сиз** деб таржима қилинади. Ўзбек тилида эса **сен** ва **сиз** шакллари бирлик ва кўпликдаги кишилик олмошлари билан бирга феълнинг шахс-сон аффиксларида ҳам яққол кўзга ташланади:

- ***Сиз** биздан хавотир олмай уйинг**из**га кетаверинг!*

ёки,

- ***Сен** ўз вазифангни нималардан иборат эканлигини билиш**инг** шарт!*

Демак, ўзбек тилида **сиз** олмошига **–из/-з, -сиз,-нгиз, -(и)нг** ёки сен олмошига **–инг/-нг, -сан, -нг,** аффиксларнинг қўшилиши орқали ҳурмат маъносини ифодаланишини ва инглиз тилида бундай аффиксларнинг мавжуд эмаслигини юқорида келтирилган мисолларда кўришимиз мумкин.

Т.П.Арискина эрзян тилида **сен-тон/сиз-тынь** олмоши иккинчи шахс кўплик феъл шакли билан қўлланилса, венгер тилида эса **сен-te/сиз-dn,onbk, maga,maguk** олмоши учинчи шахс бирлик ва кўплик феъл шакллари билан қўлланиш мақсадга мувофиқлигини таъкидлайди, шу билан бир қаторда **сен** ва **сиз** шаклларидан фойдаланишнинг қуйидаги формаларини аниқлайди:

1. Суҳбатдошнинг танишлилик даражаси;
2. Расмий/норасмий мулоқот муҳити;
3. Мулоқотчиларнинг ўзаро муносабати;

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-133-142

4. Суҳбатдошларнинг мулоқотдаги тенглиги / тенгсизлиги;[3]

Бундан кўриниб турибдики, асрлар давомида исоний муносабатлар ривожланиб келган даврлардан бошлаб шахслар ўз муомала меъёрларини турли лингвистик воситалар асосида белгилайдилар.

Нгуен Ву Хыонг Ти ўзининг тадқиқотлари давомида **сен/сиз** шаклларидан фойдаланиш субъектив эканлигини, мулоқотда **“сиз”**дан **“сен”**га ўтиши, суҳбатдошлардан бирининг расмий муносабатлардан яқинроқ ва дўстона муносабатларга ўтиш истагини акс эттиришини ва **“сиз”**дан **“сен”**га ўтиш коммуникатив ҳаракатнинг иккала иштирокчиси томонидан қабул қилиниши керак эканлигини таъкидлайди.[4]

С.Лиу инглиз тилида **сен/сиз** маъносини англатувчи фақат **“You”** иккинчи шахс олмоши бор эканлигини, у бирликда ва кўпликда мулоқотда реципиентни билдириб келишини, мандарин тилида **"ni"** (сен/сиз) олмоши иккинчи шахснинг бирликда ва **“nimen”** кўпликда ифодаланишини таъкидлаб ўтади. Бундан ташқари, **“nin”** олмоши ҳам маълум бир қабул қилувчига ҳурмат кўрсатадиган ягона шаклдир.[5]

Ғ.Зикриллаев ўз тадқиқотларида -сиз ва -сен мурожаат шаклларини қуйидаги муносабатларга бўлади деб ёзади:[6]

1. Қариндошлик муносабати.
2. Таниш-нотаниш ёки яқин эмаслик муносабати.
3. Ёш орасидаги муносабат.

Ўзбек тили ва миллий маданиятида қариндошлар ўртасидаги мулоқот ҳамда мурожаат вазифаси бажарувчи, шу билан бир қаторда ҳурмат маъносини ифодалаб келувчи шакл бу **“сен”** ва **“сиз”**дир. Ушбу шаклларнинг ишлатилиши қариндошликнинг мулоқотдаги аъзолари ўртасидаги генетик яқинлик даражаси ҳамда ёши орасидаги фарққа боғлиқ бўлади. Ўзбек нутқий этикетида бирламчи номланишда сўзлашувчиларининг ёшига қараб намоён бўлади: ота, она, бува, буви, тоға, хола, амма, амаки, ака, опа каби катта ёшли тингловчиларга **“сизлаб”** мурожаат қилинади. Ўзбек халқида ота-оналар ўз фарзандларига **“сен”** деб мурожаат қилиши, фарзандларнинг ўз ота-онасига ва ўзидан ёши катта бўлган барча қариндошларига **“сиз”** деб муносабатда бўлиши меъёр

[3] Т.П.Арискина Выражение речевого этикета в эрзянском и венгерском языках, автореферат, Саранск 2007, с 8
[4] Нгуен Ву Хыонг Ти Обращение как элемент русского речевого этикета на фоне вьетнамской лингвокультуры, Москва-2010, с 10
[5] С.Лиу https://skemman.is/bitstream/1946/20360/1/BA%20thesis.pdf
[6] Зикриллаев Ғ. Феълнинг шахс, сон ва ҳурмат категориялари системаси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.56.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-133-142

ҳисобланади. Шуни ҳам инобатга олиш лозимки, нотаниш кишилар ўртасидаги мурожаат ва мулоқотда ёши ва жинсидан қатъий назар **“сизлаб”** муносабатда бўлиш мақсадга мувофиқдир:

- *Йўлингдан қолма, **сен** менга тўғри келмас экан**сан**.* (Ғафур Ғулом “Шум бола”, 184-б)

- *Менга бир оз қулоқ бер**инг**, Ойимпошша, **сиз** ўзинг**из** шундай соддами**сиз** ёки марғилонликларнинг ҳаммаси шундай содда бўладими?* (Ғафур Ғулом “Шум бола”, 191-б)

- *Хайр онажон! Маним учун бувимни қучоғлаб қўй**инг**.* (А.Қодирий “Ўтган кунлар” 355-б)

- *Ўғлим, **сан** онангнинг гапига аччиғлан**ма**.* (А.Қодирий “Ўтган кунлар” 136-б)

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Биринчи матн парчаси икки таниш ўртасидаги мулоқот, иккинчиси бир бирига нотаниш бўлган инсонлар ўртасидаги мулоқотдан кўриниб турибдики, ҳурмат маъноларини англатувчи **сен** ва **сиз** мурожаат шакллари ҳудудий ва этник жиҳатдан чекланган бўлмай, бутун ўзбек миллати учун умумий ҳисобланади. Учинчи матнда қизнинг онасига **“сиз”** деб мурожаат қилганини, охирги матнда эса отанинг фарзандига **“сенлаб”** муносабатда бўлишини кўришимиз мумкин. Мулоқот жараёнида юзага келадиган нутқ актларининг қўлланилишига кўра, “ҳурмат” категорияси намоён бўлган ёки кучайтирилган тарзда акс этади. Бундай ҳолда контекстда ҳурмат шакли билан бирга, лексик, фонетик, лексик-грамматик восита қўлланилади.

Инглиз тилида ҳам қариндошлар ҳамда бегона кишилар ўртасида мурожаатнинг **сен/сиз** шаклларидан фойдаланилади ва асосан **“сенлаб”** муносабатда бўлиш меъёр ҳисобланади ва мурожаат қилаётганда ушбу шакл энг мақбули ҳисобланади:

- *“**You**’re not an artist, then,” she said in a tone that placed him as an outsider.* (Демак, **сен** рассом эмас**сан**, - деди у уни бегонадек кўрсатган оҳангда.) D.H.Lawrence “Women in love”, p-20

- *How do **you** do, Hermione. I was sketching.* (Қандайсан, Гермиона. Мен эскиз чизаётган эдим.) D.H.Lawrence “Women in love”, p-34

- *Mom I miss you.* (Она сени (сизни) соғиндим).

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-133-142

Юқорида келтирилган мисоллардан кўриниб турибдики, инглиз тилида асосан мурожаатнинг **“сен”** шакли ишлатилади. Қариндошлар, ота-она, ака-ука, бобо-бувилар ўртасидаги мулоқотда ҳам ўзбек тилидаги сингари ёш ва жинсга аҳамият берилмайди ва фақатгина **“сен”**дан фойдаланилади, фарқли томони шундан иборатки, матнни бошқа тилларга таржима қилингандагина таржима қилинаётган тилнинг маданиятидан келиб чиққан ҳолда **“сиз”**га мурожаат қилиниши мумкин.

Европа маданиятида эр-хотиннинг бир-бирига **“сенлаб”** гапириши меъёрий ҳолат саналади. Бу уларнинг бир бирига бўлган муносабатини янада яқинроқ эканлигидан далолат беради:

- *“John, are **you** coming?” asked his wife.* (“Жон, келяпсанми?” сўради турмуш ўртоғи)

Инглиз тилида кишилик олмоши ҳамда мурожаат шаклини ифодалаб келувси **“*you*”** иккинси шахс бирлик ва кўпликда “Сен”ни ифодалаб келади ва феълга ҳеч қандай аффикс қўшилмайди.

Тарихга назар соладиган бўлсак, ота-боболаримиз ўз аёлларига **“сизлаб”** муносабатда бўлишган, бу эса уларнинг ўз аёлларига бўлган ҳурматини билдириб келган:

- *Отабек: — Ким йиғлатди **сиз**ни?*
- *Кумуш:— Йиғлабманми?*
- *Отабек: — Кўзинг**из**, кипракинг**из**...* (А.Қодирий “Ўтган кунлар”, 152-б)

Ушбу мисолдаги мурожаат шаклининг “***сиз”*** формасига **-инг/-ингиз;-нг/-инг** аффикслари қўшилиши орқали ҳурмат категориясини ифодалаб келмоқда.

Ҳозирги кунга келиб, кўпчилик ўзбек эркаклари ўз рафиқасига сенлаб гапирадилар, бироқ аёллар ўз турмуш ўртоғини сенламайдилар, буни эса уларнинг яқинлиги туфайли, деб тушуниш лозим. Шунинг учун ҳам бунда тингловчининг камситилиши англашилмайди:

*– Ўзинг қалай**сан**? Зерикмай турибсанми? Ёки кечалари кўз ёшларинг билан ёстиқларни ивитиб қўйябсанми?* (З.Саидносирова, Ойбегим менинг)

Бундай контекстда сўзловчининг тингловчига ижобий муносабати кўпроқ ифодаланади. Бу ҳам эрнинг хотинига муомаласидаги ғамхўрлик, хайрихоҳлик ва унинг учун куюниш ҳолатлари айнан “сен” шакли ёрдамидаги мурожаат

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-133-142

орқали етказиб берилган. Мулоқотнинг вазияти имкон берса, сўзловчи ўз хотинига сиз шаклида ҳам мурожаат қилади.

Никоҳ муносабатларида ҳам “сен ва сиз” шаклларининг аҳамияти жуда катта. Аввалдан “сенлаб” мулоқот қилиб юрган инсонлар ўзаро турмуш қурса, унаштирилгандан кейин, қиз йигитни ва унинг барча оила аъзоларини ёшларидан қатъи назар “сизлаб” гапириши шарт. Йигит эса бўлажак турмуш ўртоғини хоҳласа сизлаши, хоҳласа “сен” деб мурожаат қилиши мумкин. Аммо унинг ака-ука, опа-сингил ва бошқа яқин қариндошларини, албатта, сизлаши керак. Бу ҳурмат ва одоб белгиси саналади. Сизламаслиги никоҳдан хурсанд эмаслиги, уни менсимаётганлиги каби нохуш мазмунларни келтириб чиқаради. Яқин тарихда эркаклар ўз турмуш ўртоқларини “сиз” деб мурожаат этишмаган, албатта, “сенлаб” гапирганлар. Аёллар эса ҳар доим ўз жуфтларини “сизлаб” гапирганлар. Бу шарқона этикет белгилари ҳисобланган. Баъзи ҳудудларда эса (масалан, Хоразмда) янги келинлар фарзанд кўриб, фарзандларининг тили чиқмагунча, ҳеч кимга бир оғиз ҳам гапирмаганлар. Фақат уйда ёлғиз қолганда, турмуш ўртоқлари билан гаплашганлар. Бу ҳам нутқий этикет саналган. Унинг юмшатилган шаклларига ҳозир ҳам амал қилинади.

ХУЛОСА

Ижтимоий вазифа – мавқеларнинг ўзгариши билан “Сен/сиз” шаклларининг алмашиниши кузатилади: шунчаки таниш бўлган кишиларнинг қадрдонлашиши, шароитнинг расмийдан норасмийга ўтиши ёки, аксинча. Қисқаси, мулоқот давомида бу шаклларнинг танланиши суҳбатдошларнинг ёши, таниш ёки нотанишлиги, расмий ёки норасмий муносабатлар билан белгиланади.

Демак, мурожаатнинг **сен/сиз** шакллари ўзбек ва инглиз тилларида фарқли томонлари мавжуд эканлиги мисоллар ёрдамида таҳлил қилинди. Ўзбек тилида **сен** шаклига **–сан/-инг** аффикси қўшилиши орқали ясалади, инглиз тилида эса бундай аффикс мавжуд эмас; **сиз** мурожаат шаклининг ўзбек тилида **–сиз/-инг, -ингиз, -гиз** аффикслари феълларга қўшилиши орқали ясалади, инглиз тилида эса **сиз (you-сен)** мурожаат шакли фақатгина расмий ҳолатларда ишлатилади ва ҳеч қандай аффикс қўшилмаслиги мисоллар орқали ёритиб берилди. Ўзбек тилида **“сен”** яқин қаридошлар, ёши катталар кичикларга мурожаат қилганда, эр ва хотин муносабатларида; **“сиз”** – ёш ва жинс категориясига, ҳурматни ифодалашда ёши кичиклар катталарга мурожаат

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-133-142

қилишда қўлланилса, инглиз тилида барча муносабатлар **“you”- сен** шаклидан фойдаланилади, **сиз** фақатгина расмий муносабатларда, ёзма нутқда қўлланилади, оғзаки нутқда деярли қўлланилмайди.

REFERENCES

1. Қ.Ш.Кахаров “Ўзбек ва немис нутқий этикетларининг қиёсий тадқиқи” Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси, Андижон – 2020, 86-б
2. https://www.dictionary.com/browse/you
3. Т.П.Арискина Выражение речевого этикета в эрзянском и венгерском языках, автореферат, Саранск 2007, с 8
4. Нгуен Ву Хыонг Ти Обращение как элемент русского речевого этикета на фоне вьетнамской лингвокультуры, Москва-2010, с 10
5. С.Лиу https://skemman.is/bitstream/1946/20360/1/BA%20thesis.pdf
6. Зикриллаев Ғ. Феълнинг шахс, сон ва ҳурмат категориялари системаси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.56.
7. D.H.Lawrence “Women in love” p-6
8. Ғафур Ғулом “Шум бола”, 184-б
9. А.Қодирий “Ўтган кунлар”, 152-б
10. www.google.com

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-157-161

«ОПТИМАЛЬНЫЙ ВЫБОР ШЛИФОВАНИЯ ВАЛОВ И ДРУГИХ ЦИЛИНДРИЧЕСКИХ ПОВЕРХНОСТЕЙ НА КРУГЛО ШЛИФОВАЛЬНЫХ СТАНКАХ»

Шукуржон Шарипович Кенжабоев
Наманганский инженерно-строительный институт

Дилафруз Шухрат-кизи Акрамова
Наманганский инженерно-строительный институт

Ривожиддин Қосимжон-угли Хамиджанов
Наманганский инженерно-строительный институт

АННОТАЦИЯ

В статье описана суть шлифовального процесса, шлифование цилиндрических поверхностей, основные операции при шлифовании, выбран оптимальный метод шлифования цилиндрических поверхностей. Подробности осциллированного шлифования.

Ключевые слова: Вал, цилиндрические поверхности, оптимизирование, шлифование, круглое шлифование металла, осциллирующее шлифование

ABSTRACT

The article describes the essence of the grinding process, grinding of cylindrical surfaces, basic operations during grinding, the optimal method of grinding cylindrical surfaces is chosen. Details of oscillated grinding.

Keywords: Shaft, cylindrical surfaces, grinding, metal cylindrical grinding, oscillating grinding

ВВЕДЕНИЕ

Есть множество способов обработки металла в условиях производства, с помощью которых заготовка приходит к конечному виду «Детали». У каждой детали имеются свои требования, в зависимости от предназначения, выполняемой работы или среды в которой будет использоваться данная деталь. В данной статье рассматривалась обработка тел вращения (валов). Конечной

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-157-161

финишной обработкой детали является шлифование. В шлифовании изменяется шероховатость поверхности заготовки, снимается стружка, и достигается требуемый квалитет точности.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Шлифование металла может проводится при использовании различного специального оборудования.

Подобную технологию не целесообразно использовать для изменения размеров в большом диапазоне.

Цилиндрические поверхности (валы) обычно работают в условиях трения их с корпусом, они производят вращательное движение и также требуется смазывание. Это все говорит о том, что в условиях их работы выделяется теплота и происходит износ. По этой причине поверхность этих деталей требует тщательной обработки а в некоторых случаях и термообработки.

Закалка производится для предотвращения скоротечного износа при взаимодействии со средой или смазочными элементами.

Помимо конструирования технологической карты обработки детали, требуется также выбор оборудования, выбор станочного приспособления, выбор оптимальных способов обработки на станках.

Итак, конечным пунктом технологической карты обработки детали «Вал» является Операция- Шлифование. Для этой операции выбран Кругло шлифовальный станок. Для более подробного изучения рассмотрено описание и элементы процесса шлифования найденные из различных источников.

При проведении рассматриваемой операции учитывается довольно большое количество особенностей:

Скорость круга – параметр, который зависит от наружного диаметра абразива и возможностей станка.

Скорость перемещения детали.

Глубина резания.

Возможность поперечной подачи.

Основные виды шлифовки

Шлифовка деталей может проходить при применении самых различных технологий. Наибольшее распространение получили следующие:

Круглое шлифование металла.

Изменение шероховатости внутренних поверхностей.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-157-161

Круглое наружное шлифование

Шлифовка металла при применении подобной технологии предусматривает использование специального оборудования. Среди особенностей круглого шлифования отметим следующие моменты:

В качестве расходного материала применяется абразивный круг. Он вращается вокруг своей оси.

Одновременно с кругом в обратном направлении вращается заготовка. За счет этого существенно повышается эффективность операции.

Может осуществляться продольная и поперечная подача, за счет которых изменяется глубина врезания инструмента и обеспечивается обработка по всей длине.

Основные операции круглого шлифования

К основным операциям относят:

обдирочное (черновое) шлифование

предварительное шлифование

окончательное шлифование

тонкое шлифование

Обдирочное (черновое) шлифование предусматривает обработку без предварительной токарной операции со снятием увеличенного (от 1 мм и более) припуска на диаметр. Эту операцию целесообразно выполнять в режимах силового и скоростного шлифования при vKp=50...60 м/с. В отличие от токарной обработки обдирочное шлифование обеспечивает более высокую точность (8...9го квалитетов) и более низкую шероховатость поверхности (Ra = 2,5...5 мкм), не требует последующего предварительного шлифования. Его применение целесообразно при наличии точных заготовок или заготовок, плохо обрабатываемых лезвийным инструментом.

Предварительное шлифование обычно выполняют после токарной обработки с повышенной скоростью резания (vкр= 40...60 м/с). Осуществляют его до термообработки для создания базовых поверхностей или в качестве промежуточной операции для подготовки поверхности к окончательной обработке. Предварительным шлифованием достигается точность, соответствующая 6...9му квалитетам, и шероховатость поверхности Ra = 1,2...2,5 мкм.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-157-161

Окончательное шлифование позволяет получать поверхности точностью, соответствующей 5...6-му квалитетам, и шероховатостью Ra = 0,2...1,2 мкм Наиболее часто эту операцию выполняют при скорости vкр= 35...40 м/с.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Тонкое шлифование применяют главным образом для получения поверхности шероховатостью Ra = 0,025...0,1 мкм. Оно требует очень хорошей предварительной подготовки, так как снимаемый припуск не превышает 0,05...0,1 мм на диаметр. Выполнение тонкого шлифования возможно только при наличии прецизионного станка и специальных кругов. Его применение экономически целесообразно лишь в условиях единичного и мелкосерийного производства. В массовом производстве низкая шероховатость поверхности более производительно и надежно достигается на суперфинишных и полировальных станках.

По итогам изучения методов шлифования цилиндрических поверхностей, выбран наиболее оптимальный для обработки валов и цилиндрических поверхностей метод, который позволяет достичь нужных результатов с оптимальным расходом материала и времени. Подробнее рассмотрим данный режим шлифования.

Осциллирующее шлифование

Осциллирующее шлифование - это режим, когда рабочий стол с закрепленным изделием совершает продольное возвратно-поступательное движение, при этом изделие совершает, также, вращательное движение. Поперечная подача (врезная) на глубину шлифования осуществляется периодически (например, 0,015 мм на одинарный или двойной ход стола) до достижения требуемого диаметра изделия.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Осциллирующее шлифование является более универсальным, чем врезное (не требует специальной наладки, одним шлифовальным кругом можно обрабатывать поверхности разной длины). При этом методе шлифования круг изнашивается более равномерно и не оказывает заметного влияния на цилиндричность шлифуемой поверхности, поэтому возможно применение более мягких кругов, работающих в режиме самозатачивания, не требующих

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-157-161

частой правки и обладающих повышенной режущей способностью. Этим методом шлифования достигается шероховатость и наилучшее качество шлифуемой поверхности, минимизируется тепловыделение, также этот метод применяют и для шлифования цилиндрических поверхностей (валов) различной длины .

REFERENCES

1. Альперович Т.А., Константинов К.Н., Шапиро А.Я. Конструкция шлифовальных станков, 1989
2. Генис Б.М., Доктор Л.Ш., Терган В.С. Шлифование на круглошлифовальных станках, 1965
3. Лоскутов В.В. Шлифовальные станки, 1988

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-162-167

ОПРЕДЕЛЕНИЕ АКТИВНОСТИ ПЕРОКСИДАЗЫ НА РАЗНЫХ СОРТАХ КАРТОФЕЛЯ ЗАРАЖЁННЫЕ С Х ВИРУСОМ КАРТОФЕЛЯ

З. А. Биназова
[1]Чирчикский государственный педагогический институт Ташкентской области (ЧГПИ ТО), студент

Д. Т. Жавлиева
[2]Преподователь кафедры Чирчикского государственного педагогического института
Ташкентской области

Б. В. Файзиев
Заведующий кафедры биологии ЧГПИ ТО, доктор биологических наук,доцент

АННОТАЦИЯ

В ходе метаболизма в клетках и тканях растений образуются активные формы кислорода, защита от которых осуществляется высокоактивной антиоксидантной системой, включающей в себя определенный набор низко- и высокомолекулярных соединений. К группе низкомолекулярных антиоксидантов относятся дигоксин, аскорбиновая кислота, гидрохинон, мочевая кислота, мелатонин, глутатион и др. В комплекс высокомолекулярной системы антиоксидантной защиты входят ферменты, которые формируют защитные реакции растений от пероксидного окисления жизненно важных веществ и компонентов внутриклеточных структур [1, 4, 7, 13].

ВВЕДЕНИЕ

Ключевыми ферментами антиоксидантной системы растений являются пероксидазы, которые представляют собой сложные белки-гликопротеиды, содержащие в качестве простетической группы протогем. В клетках высших растений эти ферменты локализованы в хлоропластах и митохондриях, пероксисомах и глиоксисомах, в клеточной стенке, вакуолях, каналах шероховатого эндоплазматического ретикулума, пузырьках и цистернах аппарата Гольджи [3, 8, 11, 12, 14, 16].

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-162-167

Пероксидазы обладают высокой термоустойчивостью, поэтому после стерилизации растительной продукции тепловой обработкой для последующего хранения и переработки в ней определяется активность этих ферментов. Пероксидазы являются чувствительными индикаторами самых различных неблагоприятных воздействий внешней среды на растения [5, 9, 10, 15].

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

В существующих методиках определения активности пероксидаз ферменты выделяют из растительного материала путем экстракции обессоленной водой или ацетатным буфером. По одному из известных методов ферментативную реакцию проводят при смешивании полученного экстракта фермента с раствором бензидина и пероксида водорода. Активность фермента оценивают по интенсивности окрашивания раствора бензидиновой синью, образующейся под действием фермента из бензидина [2].

При определении активности пероксидаз также очень широко используется метод, в основу которого положена ферментативная реакция окисления пирогаллола с участием пероксида водорода. В ходе этой реакции образуется окрашенное соединение пурпурогаллин, позволяющий оценивать активность пероксидаз колориметрическим методом [8].

Мы работали по методике <<Бояркина>>, определения активности пероксидазы в растениях, концентрацию которой можно измерить спектрофотометрически в ультрафиолетовом диапазоне.

Цель работы: Определение активности пероксидазы на разных сортах картофеля и разных ярусах растений, при заражение Х вируса картофеля.

Методика исследовани: В ходе исследований оптимизированы условия среды при проведении ферментативной реакции пероксидазы, которые были выделены на 3х сортах картофеля с разными ярусами. Реактивы:

Attorning "Sulaymon va ko'za" hikoyati nihoyatda ta'sirli, qalbni foniylikka aldanmaslikka undovchi hikoyadir. Kunlardan bir kun Sulaymon alayhissalom o'lik tuprog'idan bo'lmagan, dard, alamdan holi bo'lgan bir ko'za yasashni buyuradi. Payg'ambar xizmatidagilar har qancha qidirishsa ham bunday tuproqni topa olishmaydi. Shunda bir dev suv qariga sho'ng'ib loy olib keladi. Dengiz tubidagi loy darddan yiroq deb o'ylab undan ko'za yasaydilar. Sulaymon ko'zadan suv quygach u o'zining kechmishini bayon etadi. Bu olamdagi har narsa xalq tanidin yaralgan, hatto dengiz qaridan izlasang ham istagan tuprog'ingni topolmassan deya javob beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hikoyat go'zal va ta'sirli o'xshatishlar bilan insonlik haqiqatini bayon qilgan. Sulaymon istagan inson hoki va dardu-g'amdan holi bo'lgan tuproqni topilmasligi insonni tuproqdan yaratilgani va yana tuproqqa aylanishi va yana tuproqdan bunyod bo'lishi tabiiy jarayon ekanligiga ishoradir. Bu holat ilmda moddaning bir shakldan boshqa shaklga o'tishi qonuni deyiladi. Bu yerda gap g'am-qayg'u aralashmagan tuproqni topish imkonsiz ekanligi. Ya'ni, bu dunyo amalga oshmaydigan ko'plab orzular joyidir. Dunyoda bitta amalga oshgan orzular ortida yuzlab amalga oshmagan orzular yotadi. Garchi ko'zimizga baxtlidek ko'ringan insonlar ham aslida qancha orzulariga erisholmay dunyodan o'tadilar. G'amsiz, tashvishsiz insonni bo'lishi bu dunyoda imkonsizdir. Ilohiy hikmat taqozosiga ko'ra dunyoda orzu hech tugamaydi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-180-189

Hikoyat shu ma’noda insonni umri g’amlardan iborat va uni hoki ham g’am bilan qorilgan demoqchi. Mobodo hech qanday g’am yo’q bo’lgan taqdirda ham, dunyodan ketishni o’zi barcha g’amlarning o’rnini bosoladi. Inson dunyoga o’ynab-kulib, nima orzu qilsa erishish uchun kelmagan. Alloh o’z Kitobida shunday degan:

« Darhaqiqat, Biz insonni mehnat-mashaqqatga yaratdik »

(Balad surasi, 4-oyat)

Ish shunday bo’lgach hayotini shariat mezoniga binoan qurish ilohiy ne’matdir. Aks holda hayoti mehnat-mashaqqatdan iborat bo’ladi. Haqiqiy baxt va orzular tugal amalga oshishi mumkin bo’lgan joy jannat bo’lgach u dunyo uchun harakat qilish aqlli insonni ishidir. Hikoyatda u dunyoni qo’lga kiritish uchun ko’ngil tirilishi zarur ekanligini va bunga qanday erishish mumkinligi bayon qilingan:

Tilarsen to safosin ul jahonning,
Go’ristonlarni et sayri makoning.
O’lik ko’rmoq ila ko’ngil tirilgay,
U olamni bisoti qo’lga kirgay...

Bu dunyoni tark etdilar, qanchadan qancha mollari, dunyolari qoldi. Farzandlari qoldi. Qabristonga borib tafakkur aylasak, asl mohiyatni anglab bu dunyo o‘tkinchi bir rabot ekanligiga iqror bo‘lamiz. Bu dunyoning tashvishlarini qo‘yib u dunyoning ozuqasiga intilamiz.

“Azroil ila Hazrati Sulaymon hikoyati” xalq orasida ham ancha mashhur hikoyatdir. Hikoyatda Alloh yozgan taqdirdan qochib qutilib bo‘lmasligi bayon etilgan.

Shayx Attor o’zi hikoyatiga izoh berib aytmoqdaki:

Senga ushbu hikoyat hasbi holdir,
Azal hukm etsa qochmog’ing maholdir.

Ya’ni, Alloh taqdiridan boshqa taqdir yaratib bo‘lmas. Bizning qo’llarimiz ilohiy arqon bilan boylangan, biz qilgan har qanday tadbir, ilohiy taqdirdan o’zga narsa emasligi bayon etiladi.

Kunlardan bir kuni Sulaymon taxtida o‘ltirganda, Azroil uning yoniga keldi va Sulaymon yonidagi yigitga ko‘zi tushdi.

Tikib ko‘z, bir nafas jumboqqa tushdi,
Yigit qo‘rquv bosib, titroqqa tushdi.

Azroilni ko‘rgan odamni qo‘rquvga tushib qaltirashi tabiiy. Ammo Azroil yigitni ko‘rib nega hayron bo‘ladi? So‘ng Azroil hayronliklar ichra Sulaymon huzuridan ketgach, yigit sohibi shamoldan uni Hindistonga eltib qoyishni iltimos

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-180-189

qiladi. Sulaymon amriga muvofiq bulut yigitni Hindistonga olib boradi. Oradan bir necha kun o‘tib Azroil Sulaymon huzurida yana paydo bo‘ladi. Shunda Sulaymon undan yigitga nega ajablanib tikilganligini sababini so‘raydi. Azroil shunday javob beradi:

-Alloh taolo menga bu yigitni jonini uch kundan so‘ng Hindistonda olishni amr etgandi. Uni sening yoningda ko‘rib uch kunda qanday qilib Hindistonga borar ekan deb hayron qoldim. Bulut uni Hindistonga olib keldi, hayron qoldim. Va jonini shu yerda oldim, debdi.

Attor ushbu hikoyati bilan bizga anglatmoqchi bo‘lgan ma’nolari bisyor. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Alloh yozgan taqdiridan qochish imkonsiz. Yigit ajaldan qochmoqchi bo‘ldi, qutulish chorasi deb o‘ylagan bulutda Hindistonga borish rejasi uni ajaliga yaqinlashtirgandi, xolos. Borliqdagi har bir narsa buyuk Allohning irodasi bilangina harakatlanishini u unutgan edi. O‘lim qo‘rquvi qurshagan jismi aqlini zaif-u bechorahol etgandi. Attor bu hikoyati ila ahli xoslar din dardi bilan haqiqat olamiga yo’l izlayotganda, sen sehr-u jodu manzili bo’lgan dunyoga va undagi maishatlarga mubtalosan. Agar senda oxirat dardi bo’lganida edi, dunyo seni sexrlay olmagan bo’lardi. Ish shunday bo’lgach, bilginki seni hamma amallaring bekorchilikdan boshqa narsa emas. Shunday qilib shayx Attor insonlik haqiqati dunyo bilan ovora bo’lish emas, balki, qalbdagi shirkni yo’qotib, birlikka erishishdir demoqchi.

Bir emas, ikki der hamisha mushrik,
Balo bizga hamisha sen-u menlik.

Mushriklar bir demaganlari uchun hamisha balo va mashaqqatdadirlar. Sen ham ularga o’xshab birni ikki deysan, shuning uchun taqdirga ko’nishdagi va vahdat siridagi rohatdan benasibsan. Alloh dardi bilan yashash, dunyo salomatligidan afzaldir. Barcha ishlarda Unga tavakkul qilish va U yozgan taqdirga rozi bo’lish insonni Allohga yaqinlashtiradi. Insonlik haqiqati ham aslida shudir. Xusrav Dehlaviyning ruboiysi ham shunga dalolat qiladi:

Xohlasang nasibam dardu hijron qil,
Xohlasang vaslingla shodu handon qil,
Unday qil, bunday qil meni demayman,
Qanday istar esang, shunday farmon qil...

XULOSA

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-180-189

Shayx Attor “Ilohiynoma”dagi ushbu hikoyatlari bilan Sulaymon obrazini yanada boyitgan. Sulaymon haqidagi ilk manbalar ham, batafsil ma’lumotlar ham diniy-muqaddas kitoblardir. U qadimgi yahudiy, nasroniy va islom ilohiy kitoblarida qayd etilgan. Shuning uchun ham jahon adabiyoti namunalarida barcha xalqlar tarixiga tegishli siymo sifatida talqin etiladi. Adabiyotshunoslikda Sulaymon siymosi tarixi va badiiy ifodasiga alohida ilmiy tadqiqot ham bag’ishlangan . Sharq adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodida Sulaymon umuminsoniy timsol sifatida tasvir etiladi. Buning ikki muhim jihatini e’tirof etishimiz mumkin. Birinchidan, islomiy qarashlar bo’yicha, Sulaymon insoniyat payg’ambarlaridan biri deb talqin etiladi. Shuning uchun diniy manbalarda, tasavvuf adabiyotida, tafsir va hadislarda, payg’ambarlarga bag’ishlangan qissalarda keng tasvirlanadi. Bu esa Sulaymon obrazining umumjahon adabiyotidan o’rin olishiga xizmat qilgan. Ikkinchidan, Sulaymon shoh va jahon shohi sifatida talqin etilishidir. Ma’lumki, Sharq va G’arb adabiyotida shohlar obrazi talqini alohida an’ana hisoblanadi. Sulaymon esa Sharq, xususan, o’zbek adabiyotida to’rtta jahon shohlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Demakki, mifologik qarashlarda Sulaymon shoh sifatida ham jahondagi barcha xalqlar tarixi bilan bog’lanadi. Ko’rinadiki, Sulaymon payg’ambar va jahon shohi sifatida dunyo xalqlari ma’naviy-moddiy hayot tarzlariga daxldorlik kasb etadi. Shayx Attor nubuvvat haylidagi barcha payg’ambarlar silsilsini juda jozibali tasvir etgan. Hikoyatlardagi mohiyat tafakkurni botin olamiga sayr etishga undaydi.

REFERENCES

1. Qur’oni Karim. HILOL-NASHR. Toshkent. 2017
2. Shayx Farididdun Attor. Ilohiynoma. T. :Musiqa,2007
3. Alisher Navoiy “Badoe ul-bidoya” .T.: 1991 (BB.220).
4. Internet
5. Farididdunattor telegram kanali

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-190-195

PEDAGOGIKADA TARBIYA TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH.

X. B. Rahmonqulova
Jizzax davlat pedagogika instituti
Maktabagacha ta’lim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada pedagogikada tarbiya tizimi takomillashtirish va ta’limda didaktik tizimi ta’lim maqsadlari, o‘qish mazmuni, uni tashkil etishning metod va shakllari yoritilgan .

Tayanch so‘zlar: tarbiya tizimi, didaktik tizim, insonparvarlik, individuallashtirish, tarbiyaviy yondashuvlar.

ABSTRACT

The article describes the goals of improving the educational system in pedagogy and the didactic system in education, the content of training, methods and forms of its organization

Keywords: educational system, didactic system, humanism, individualization, educational approaches.

KIRISH

Bugungi kunda barkamol inson tarbiyasi, ularni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish eng dolzarb masalasi hisoblanadi. Tarbiya jarayonining asosi o‘qitish hisoblanadi. Tarbiya jarayoni didaktik vositalar bilan ko‘rinaboshlaydi. Tarbiya tizimining tushunchasi didaktika ichiga qo‘shib amalga oshiriladi.

Tarbiya jarayoni o‘ziga hosligini saqlab qolish uchun "tarbiya?, tarbiya... tarbiya!"... Unda tarbiya tizimi didaktikadan iborat bo‘lmaydi, balki bir tomondan pedagogik -psixologik, boshqa tomondan esa- ijtimoiy-pedagogik tizimdan iborat bo‘ladi. Buda tarbiya tizimi o‘quvchilarga faqat didaktik tizim sifatida emas, balki ijtimoiy omil sifatida ham ularni bizni o‘rab turgan borliqqa jalb etish orqali ham ta’sir ko‘rsatadi. Har bir ta’lim muassasalarida tashkil topadigan ma’lum psixologik muhit tarbiyaga albatta, ota-onalar, o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar orqali ta’sir ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim muassalarida ta’limning didaktik tizimi ta’lim maqsadlari, o‘qish mazmuni, uni tashkil etishning metod va shakllari orqali ifodalanadi. Ma’lumki

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-190-195

pedagogikada «Didaktik tizim» tushunchasi ancha qadimdan shakllangan. Tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda, o‘rganilayotgan material mazmuni, uni etkazish shakli va metodlari, hamda shu kabilarni belgilash orqali o‘qitish jarayonida foydalaniladi. Yana bir tarafdan tarbiyaning ikkinchi tushunchasi mantiqida didaktik tizim –o‘zi tarbiyaviy tizimining – didaktik tizimida ishtirok etadi, ya’ni uning tizimi hisoblanadi.

Shunday qilib, ijtimoiylashtirish insonning maqsadga muvofiq jarayonlar maktabgacha, maktab, maxsus pofessoinal ta’limlarida hamda tasodifiy omillar ta’siri ostida amalga oshiriladi. Bu ta’sir ko‘rsatish tarbiya tizimi insonparvarlikni obro‘ e’tibor, nufuzi vositalar bilan amalga oshirilishi shart emas.Unda o‘qituvchi va bolalar o‘rtasida,insonparvarlik munosabatlari mavjud bo‘lishi, qadriyatlar targ‘ib qilinishi, guruhli va individual ijodkorlik elementlari tatbiq qilinishi mumkin.

Bundan tashqari, ta’sir ko‘rsatish ushbu tarbiya tizimi o‘zi tarbiya jarayoniga demokratik qadriyatlar va qoidalar kiritishi kerak. Tarbiyaning asosan to‘rtta usuli mavjud. O‘rnak namuna; Pand nasihat; Rag‘bat; jazo.

Yuqorida takidlaganimizdek tarbiyaning usullaridan bir bu jazo bo‘lib,tarbiyaviy tizim qandaydir jazo va majburlashlarsiz, mavjud bo‘lishi mumkin emas.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi davlat va jamiyat qurilishini izchil takomillashtirishni ta’minlash, ilg‘or innovatsion va ilm-fan yutuqlariga asoslangan texnologiyalardan foydalangan holda zamonaviy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishga yo‘naltirilgan ishlarga yangicha yo’l ochib berdi. Bu muhim maqsadlar yuqori malakali mutaxassislar, pedagog va ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish va uning eng yaxshi yutuqlarini davlat va jamoat tuzilmalari, iqtisodiyot tarmoqlarida tatbiq etish asosida jiddiy qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish zaruratini taqozo etmoqda.

Mashg‘ulot jarayonida talabalarni kichik guruhlarga birlashtirish hamkorlikdagi faoliyatda o‘yin rollarini yaratish usullari; guruhni muhokamada prezentatsiyaga chiqish tartibi va boshqalar- bularning barchasi pedagoglarning aniq uslublariga misollar. Lekin ulardan hech biri, qandaydir aniq tarbiyaviy masala bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq emas, shuning uchun mana shu uslublarni turli xil texnologiyalarga kiritish mumkin.Jamoaviy yoki guruhli tahlilni tashkil qilish usuli

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-190-195

sifatida, muloqot mashqlar o‘tkazish uslubi sifatida ham qo‘llash mumkin. SHunga mos ravishda ishlab chiqilayotgan pedagogik yordam texnologiyalari, ilgari ma’lum bo‘lgan uslublar yo‘nalishidan iborat bo‘lishi kuzatiladi. Pedagogik yordam texnologiyasi – bu o‘sib borayotgan o‘smirni boshqalardan farqli ekanini anglab etishga yordam beruvchi, o‘zining bo‘shligi va o‘z kuchini- jismoniy, intellektual, ma’naviy, ijodiy vositalardan foydalanishi tizimidir.

Bu ta’lim olishda shaxsiy hayot yo‘li va hayot mazmunini tanlash uchun zarurdir.

Texnologiyani amalga oshirish o‘quvchining savolidan boshlanadi: «men kim bo‘laman!», « qanday bo‘lishim kerak?». O‘qituvchi bilan birgalikda mana shu savollarni muhokama qilish, yana boshqa bir mustaqil savolni ham keltirib chiqaradi: «Qanday yashash kerak?» ... Bildirilgan maslahatlar yordamida o‘quvchiga hos bo‘lgan shaxsiy hayot tarzi, asta-sekin tuziladi, intelektual, emotsional, jismoniy yuklamalar qulay rejimi tanlanadi.

O‘zini boshqarish bo‘yruq bo‘yicha yuzaga kelmaydi, balki uspirinlar qiziqishlari hamda fuqaro huquqlari ham o‘z manfaatlarini o‘zaro himoya qilishlari ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Ushbu o‘zini boshqarish talim muassasasi doirasida talabalar qiziqishlarini birlashtiruvchi bo‘lganida va maktabning o‘zi fuqarolik jamiyati sifatida qurilganda paydo bo‘ladi. O‘zini boshqarishda qoidalar ishlab chiqarish majburiy element hisoblanadi. Talabalarning o‘zlari yaratadigan qoidalar, qonunlar, huquq qoidalarining muhim ahamiyatga egaligi pedagogikada ancha avval ma’lum.

NATIJALAR

Pedagogning kasbiy pedagogik madaniyat – uning pedagogik kasbga ega bo'lgan, uning umumiy madaniyatini loyihalashtiradigan o'qituvchi shaxsining ajralmas sifati hisoblanadi. Bu pedagogning yuqori professionalligi va ichki xususiyatlarining sintezi, o'qitish usullarining mohirligi va madaniy va ijodiy qobiliyatlarning mavjudligida namoyon bo’ladi. Pedagogning kasbiy pedagogik madaniyat - insoniyat tomonidan to'plangan tajribani ijodiy o'zlashtirish va o'zgartirishning o'lchovidir. Pedagogik madaniyatga egalik deganda, pedagogik tafakkur va ongi yaxshi rivojlangan, ijodiy salohiyatga ega bo'lish tushuniladi

Tarbiyadan boshqa yondashish insonparvarlik tarbiyaviy tizimini yaratish bilan bog‘liq. Bu yondashish birinchi navbatda, individuallashtirish jarayoni bilan mos keladi. Yana bir bor eslatib o‘tamiz, individuallashtirish - bizning tushunishimizcha,-

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-190-195

bu o‘quvchi yoshlarda mavjud yoki o‘zining individual tajribasida egallagan yagona, alohida va o‘ziga hosligini ta’minlab turish va rivojlantirish bo‘yicha kattalarning hamda bolaning o‘ziga tegishli bo‘lgan faoliyatlari .

Shaxsni individuallashtirish uning «o‘zligini» rivojlantirish, shunday qilib, keng ma’noda insonparvarlik tarbiyaviy tizimini tashkil etadi. Tarbiyada bunday yondashishning maqsadi, bolalarga, ularning «sub’ektiv mavjudliklarini» tashkil etishda yordam ko‘rsatish hisoblanadi. Buning uchun ushbu tarbiyaviy tizimda, insonga o‘zini anglash va o‘zini amalga oshirishda yordam beruvchi maxsus vositalar ishlab chiqiladi. Insonparvarlik tarbiyaviy tizimining sub’ekti endi faqat pedagog emas, balki bolalarning o‘zlari ham hisoblanadi. Bunda o‘qituvchilar ham, talabalar ham oliy talim muassasasi oldida turgan maqsadlarini birgalikda aniqlashtiradilar, ularni amaliy vazifalar darajasiga ko‘taradilar va birga amalga oshiradilar. Insonparvarlik tarbiyaviy tizimi samaraliligini muhim sharti, talabalar va kattalarni umumiy jamoaga birlashtirish hisoblanadi. Bolalar va kattalarning o‘zaro munosabatlari, ma’lum munosabatlarni yuzaga keltiradi, ular birinchi navbatda tizimning tarbiyaviy imkoniyatlarini belgilaydi.

MUHOKAMA

Bilamizki oly ta’lim muassasining tarbiyaviy vazifasi talabalarda, o‘zini shu dunyoda anglab etish, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, dunyoga, madaniyatga, atrof-muhitga, qadriyatlarga munosabatni shakllantirishdan iborat. Afsuski bu vazifani faqat ta’lim muassasasida dars jarayonida amalga oshirib bo‘lmaydi: Buning uchun o‘quvchini individual manfaatlarini qondirish bilan bog‘liq, ijodiy faoliyati, mehnati, dam olish doirasidagi o‘yin, qiziqarli mashg‘ulotlar bilan ham olib borishni taqazo qiladi. Demak bularni amalga oshirishda, ta’lim jarayonida tarbiya tizimi innovatsiyalarini o‘rganish imkoniyati vujudga keladi. Tarbiya tizimi innovatsiyalarini yaratish va rivojlantirish jarayonida, oldiniga ayrim masalalarni hal etish kerak

Bularga bolalarda dunyoning yaxlit va ilmiy asoslangan ko‘rinishini shakllantirish, o‘z-o‘zini anglashni, vatan tuyg‘usinitarbiyalash, yurt taqdiri uchun javobgarlikni shakllantirish, umuminsoniy qadriyatlarga jalb etish, ular orasida mana shu qadriyatlarga mos bo‘lgan xulqni shakllantirish, o‘sib kelayotgan kelajak avlodda, ijodkorlikni, yordam ko‘rsatishni shakllantirish kabi masalalarni kiritish mumkin. Sanasak ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin. Lekin har qanday holatda

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-190-195

ham, mana shu vazifalarning o‘zi yuqorida sanab o‘tilgan tarbiyalash vazifalarining alohidaligini ko‘rsatadi.

Bunda tarbiya – bu o‘ziga hos mazmunga ega bo‘lgan bola shaxsiga ijtimoiy belgilangan va maqsadga muvofiq ta’sir ko‘rsatishga asoslanadi. Bunday tarbiya ma’lum shakllarda yakka turda, jamoada, guruxlarda ma’lum metodlar asosida amalga oshiriladi. Bu yondashish biz ilgari keltirib chiqargan ijtimoiylashtirish kategoriyasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq, bunda biz tarixiy ishlab chiqilgan ijtimoiy qoidalarni, qadriyatlar, munosabatlar, ma’naviy va moddiy madaniyat bilan munosabat usullarini, inson tomonidan o‘zlashtirilishi jarayonini tushunamiz.

Insonparvarlik tarbiyaviy tizimi aniq tizim hisoblanadi. Tarbiyaviy tizimlar ikki turini ya’ni ta’lim tizimi va insonparvarlik tarbiya tizimi, ularninig predmeti mazmunida ham farq qilishini ko‘rib chiqamiz.

Birinchisi, dunyoning ijtimoiy ko‘rinishini o‘rganadi. Ikkinchi tizim, o‘zi-o‘zini o‘rganish usulini o‘rganadi. Ma’lum ijtimoiy qoidalarni,qadriyatlarni, munosabatlarni etkazib ta’sir ko‘rsatish tarbiya tizimi, bolalarda o‘zini anglashga qobiliyatni rivojlantirish masalasi – bu uning predmeti hisoblanmaydi.

Insonparvarlik tarbiyaviy tizimi-bu boshqa gap. Inson tanlab olish sub’ekti sifatida ishtirok etar ekan, u bu tanlovni o‘ziga nisbatan amalga oshirishi ko‘zda tutiladi, demak o‘zini anglash jarayonisiz, bu tizimni amalga oshirish mumkin emas. SHuning uchun turli insonparvarlik tarbiyaviy tizimlar, hozirgi kunda, aynan mana shu yo‘nalishda rivojlanmoqda.

Pedagogik yordam erkinlik, ijodkorlik, kattalar va bola o‘rtasida haqiqiy demokratiya va insonparvarlikda yuzaga keladigan tarbiya xisoblanadi. Tarbiya maqsadini pedagogik yordam sifatida tarbiya tizimini falsafiy jihatdan qaralganda, innovatsiya hisoblanadi. Bu esa maqsadga mos yangi tarbiya texnologiyasini ishlab chiqishga olib keladi.

Tarbiya texnologiyasi bu tarbiyaning ma’lum maqsadlariga erishishga qaratilgan maxsus pedagogik uslublar tizimi. Har qanday tarbiya metodikasi, tarbiya texnologiyalaridan tashkil topadi. Masalan, o‘smirlar bilan aloqa o‘rnatish, jamoani rejalashtirish, pedagogik diagnostika texnologiyasi va boshqalar.

Texnologiya- tarbiya metodikasining yakunlangan qismi bo‘lsa, uslub esa o‘z navbatida bu umumiy yoki shaxsiy pedagogik madaniyatda qayd etilgan tarbiya texnologiyasiga nisbatan yakunlangan elementdir. Uslub biror bir tarbiya masalasi bilan barqaror bog‘liq bo‘lsa, demak u oddiy tarbiyaviy texnologiya bo‘lib qoladi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-190-195

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining umumiy madaniyati uning malakasi va kasbiy o'sishi uchun tayanch nuqtasida namoyon bo'ladi. O'qituvchi shaxsining umumiy rivojlanishida etakchi o'rinlardan birini uning axloqiy xususiyatlari egallaydi, bu insonning tashqi dunyo bilan aloqasini yaxshilik va yomonlik mezonlari asosida belgilaydi.

Talabalar hayot muammolarini demokratik hal etishga imkon beradi. Bunday qoidalar erkinlik va mas'uliyatlilik doirasini belgilab beradi. Ushbu holatni intizomlilikni rivojlantirish kuchli vositasi sifatida tushunib, ko'pchilik hollarda tadqiqotlarimiz davomida kuzatishlarimiz natijasida aytim maktablarning tirishqoq izlanuvchi pedagoglari tomonidan o'zlarining qonunlarini, o'rtoqlik Nizomlarini yaratmoqdalar. SHuni unutmaslik kerakki, ushbu uslubda ham ma'lum xavfli tomonlari mavjud. O'qituvchi pedagog, ba'zi bolalar boshqalar ustidan nazoratchi bo'lib qolmasliklarini, liderlik, otomonlik tushunchalari avj olib ketmasligini kuzatib borish zarur. Bunday holatda bolalar jamoasida adovat ham yuzaga kelishi va bolalar qonunni bajaruvchilar va ularga qarshi kuzatuvchilarga ajralib qolishlari mumkin. SHunday qilib, yuqorida tasvirlangan uslublar to'plami yangi maqsad, pedagog yordam uchun texnologiyani belgilab beradi. Va mana shu mazmunda innovatsion texnologiyadan iborat bo'ladi.

REFERENCES

1. Tumalev V,V. Uchitelstvo v situatsii sotsialno – politicheskixperemen CH.Z. InnovatsionnnY potensial sovremennogo uchitelya. SP b, 1995.
2. «Xamsa». A.Navoiy o gumannosti.
3. Xomeriki O.G. Innovatsii v praktike obucheniya. Pedagogika, - 1993.№2.
4. XomerikiO.G.,Potashnik M.M., Lorensov A.V. Razvitie shkol kakinnova-sionnoy protsess. - M., 1994
5. SHiyanov E.N. Gumanizatsiya pedagogicheskogo obrazovaniya sostoyanie iperspektiva. - Moskve - Stavropol, 1991.
6. Norquziyeva, M. (2020). The role of educational technology in shaping the professional stability of students. Arxiv Nauchnых Publikatsiy JSPI.
7. 10.Abdurakhmonovna, N. M. (2020). Methodology of giving professional knowledge to future teachers. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 1378-1383.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-196-202

ШАХСНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ

Саиджон Шохобидинович Валиханов
Андижон давлат университети
Факультетлараро жисмоний маданият ва спорт” кафедраси

АННОТАЦИЯ

Мақолада жисмоний тарбиянинг касбий тайёргарликни жадаллаштириш, танланган касбда юқори иш қобилияти ва меҳнат унумдорлигига эришиш, фаол дам олиш ва иш қобилиятини тиклаш учун жисмоний маданиятдан фойдаланиш каби вазифалари ёритилган.

Калит сўзлар: жисмоний тарбия, ривожланиш, шаклланиш, педагогика, касбий фаолият.

PHYSICAL TRAINING IN PREPARATION OF A PERSON FOR PROFESSIONAL ACTIVITY

ABSTRACT

The article describes the tasks of physical education, such as accelerating professional training, achieving high work capacity and productivity in the chosen profession, the use of physical culture for active recreation and recovery of working capacity.

Keywords: physical education, development, formation, pedagogy, professional activity.

КИРИШ

Ижтимоий ҳаётда объектив равишда аниқланган гуманистик жараёнлар инсон индивидуаллигини шакллантириш муаммоларига қизиқиш уйғотади, замонавий педагогика фанининг моҳияти ва мақсадини аниқлашга, унинг шахсни касбий фаолиятга тайёрлашнинг яхлит жараёнидаги ролини, касбий мустақиллик ва ҳаракатга эришишига бевосита таъсир қилади. Ҳозирги кунда касбий ишнинг турли соҳаларида бир неча минг касб ва ўн минглаб мутахассисликлар мавжуд. Уларнинг асосий фарқлари маълум бир ишнинг мавзуси, технологияси ва ташқи шароитлари билан белгиланади, Е.А.Климов

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-196-202

уни "меҳнат пости" деб атайди [1]. Улар ички шароитлар билан бирлаштирилган: ахборотни идрок этиш ва қайта ишлаш учун ҳиссий ва интеллектуал операциялар, иш мавзусига амалий таъсир кўрсатиш учун қарор қабул қилиш ва восита ҳаракати [2]. Буларнинг барчаси касбий жиҳатдан у ёки бу иш тури билан шуғулланувчи кишиларнинг функционал имкониятлари, жисмоний ва бошқа сифатлари учун объектив равишда турли талаблар билан боғлиқ.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Жисмоний тарбия инсоннинг табиий-иқлим муҳитига, ижтимоий-касбий соҳага мослашишида, индивидуал фаолият услубини шакллантиришда доимо муҳим ва ҳал қилувчи аҳамият касб этиб келган. Шу муносабат билан инсон жисмоний тарбиясини оптималлаштиришнинг муаммоли масалаларини ишлаб чиқишда кўпчилик мутахассисларнинг ўз-ўзини фаолликка, ўз-ўзини англашга, ўз-ўзини амалга оширишга бўлган қизиқиши тушунарли. Ушбу ғояни амалга ошириш бўйича назарий ва амалий масалаларни ҳал қилишда таклиф қилинган ёндашувларнинг педагогик моҳиятини аниқлаш учун, аввало, жисмоний ўзини ўзи тарбиялаш билан боғлиқ тушунчалар мазмунини кўриб чиқиш, уларнинг бир-бири билан ўзаро боғлиқлиги шакллари ва усулларини аниқлаш, уларни амалга ошириш жараёнида субъектнинг мазмуний фаолиятини шакллантириш учун шарт-шароитларни яратиш мантиқан тўғри.

Жисмоний тарбия тарихида инсонни касбий фаолиятга тайёрлаш соҳасидаги тадқиқотларнинг ривожланишига, бир томондан, илмий-техник инқилоб шароитида меҳнат мавзусига тобора ортиб бораётган талаблар, бошқа томондан, инсон таълимидаги ушбу муҳим йўналишнинг асосини ташкил этувчи ички физиология, психология ва педагогикани услубий қайта жиҳозлаш таъсир кўрсатди.

Кейинги йилларда тадқиқот йўналишини белгиловчи асосий муаммо касбий кўникмалар муаммоси эди: меҳнат кўникмаларини шакллантириш, янги шароитларда ишлашда уларни қайта қуриш, касбий қобилиятларни шакллантириш жараёни ва бошқалар. Шу билан бирга, тадқиқотларнинг умумий методологик асоси онглилик ва фаоллик тамойилига айланади ва уларнинг назарий мазмуни билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш жараёни учун фаолиятнинг муайян шартларини очиб беради. Ушбу тадқиқотлар натижасида меҳнат моторикасининг шаклланиш динамикаси учун

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-196-202

йўналтирилган жисмоний тайёргарликнинг аҳамиятини очиб берувчи фактлар олинди. Турли таълим шароитлари таъсири остида кўникмаларини шакллантиришда ўзгаришлар тадқиқ қилинади: жисмоний тарбия бўйича ўқув материалининг мазмуни, меҳнат ва спорт моторикасини низомига мувофиқ элементлардан хабардорлик, ўқув жараёнида ўз-ўзини назорат роли [3], жисмоний ўз-ўзини тарбиялашнинг маъноси ва табиати.

Малакаларнинг тренировкадан кейин – касбий фаолият жараёнида кечадиган ўзгаришлари ўрганилади: юзага келадиган қийинчиликларнинг характери ва уларни махсус жисмоний тайёргарлик ёрдамида тузатиш йўллари, спортчиларда ва спортчи бўлмаганларда уларни ростлаш тезлигидаги индивидуал фарқлар. Малакаларни умумлаштириш ва уларни жисмоний маданият ва спортдан ишга ўтказиш, кўникмаларга аралашиш хусусиятини очиб беришга ҳаракат қилинмоқда. Жисмоний тарбия ва спорт фаолиятини ташкил этишда онгнинг тартибга солиш функцияси ва касбий кўникмаларни такомиллаштириш, фаолият шароитларини таҳлил қилиш ва уни режалаштириш, уни амалга ошириш жараёнида ўз-ўзини кузатиш, оралиқ ва якуний натижаларини баҳолаш учун унинг вазифаларини тушуниш шакллари пайдо бўлган [4].

Жисмоний тарбия ва спорт фаолиятининг асосий афзаллиги касбий иш шароитлари ва мазмунига мослашиш омили сифатида пайдо бўлган муаммоларни комплекс ҳал этишдир ва индивидуал спортнинг афзаллиги - зарур амалий кўникмалар, жисмоний ва махсус фазилатларни шакллантириш ва ривожлантиришнинг селективлигидадир.

Тайёргарлик ва асосий машқлар таснифида инсоннинг жисмоний фазилатларига қўядиган талабларга, ҳаракатлар тузилишинг ўзига хос хусусиятларига, восита ҳаракатларини ўзлаштириш жараёнида маълум бир мақсадга йўналганлигига кўра циклик, ациклик ва комбинациялашган (мураккаб) машқлар гуруҳлари анча кенг тарқалган.

Ҳар қандай таснифда ҳар бир машқнинг нисбатан доимий (инвариант) хусусиятлари, жумладан, таъсир қилиш самараси назарда тутилади. Бироқ, аслида, ҳар қандай машқнинг ўзига хос таъсири нафақат машқнинг ўзига хос хусусиятларига, балки уни бажариш учун бир қатор шартларга ҳам боғлиқ, Л. Р. Матвеев таъкидлаганидек: уни ким аниқ бажаради; қандай амалга оширилади; кимнинг раҳбарлиги ва қайси шароитда олиб борилади [3,50].

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-196-202

Шунинг учун, шахснинг касбий ривожланишида жисмоний тарбиянинг ролини тўғри баҳолаш учун, биз ўз-ўзини тарбиялаш муаммоси билан бевосита шуғулланадиган олимлар ва амалиётчиларнинг илмий-маърифий асарларида тақдим этилган жисмоний ўзини камол топтиришнинг айрим жиҳатларини кўриб чиқамиз.

Замонавий жисмоний тарбия инсоннинг муваффақиятли касбий фаолиятга объектив тайёргарлигига эришишга ёрдам берадиган амалий билим, жисмоний ва махсус фазилатлар, кўникмалар ва қобилиятларни шакллантириши керак.

Таълимда жисмоний тарбия қуйидаги вазифаларни ҳал қилади: касбий тайёргарликни жадаллаштириш; танланган касбда юқори иш қобилияти ва меҳнат унумдорлигига эришиш; фаол дам олиш ва иш қобилиятини тиклаш учун жисмоний маданиятдан фойдаланиш (иш ва бўш вақт давомида).

Амалий билим, кўникма ва қобилиятларни шакллантириш, шунингдек, сифатларни ривожлантириш ҳар доим муайян атроф-муҳит шароитида шахснинг жисмоний ва психологик фаолиятининг бирлиги асосида кўриб чиқилиши керак, шахснинг дастлабки жисмоний тайёргарлиги даражаси ва уларнинг турли восита ҳаракатларини ўзлаштиришдаги тажрибаси тўлиқ ҳисобга олиниши керак. Жисмоний тарбия жараёнида кескин фарқ ва кўп томонлама жисмоний тайёргарликнинг мухолифлиги бўлмаслиги керак, чунки бу бўлажак мутахассисларни танланган касбий фаолиятида узоқ муддатли ва юқори самарали ишларга психофизиологик тайёргарликда ўқитишнинг ягона ташкил этилган жараёнидир.

Вазифалардан келиб чиққан ҳолда ҳозирги кунда жисмоний тарбия қуйидаги йўналишлар бўйича амалга оширилмоқда:

- ўқувчиларнинг меҳнат шароити, кундалик ҳаёти ва ёш хусусиятларини ўзгартирган ҳолда жисмоний маданият ва спортдан меҳнат ва дам олиш режимида фойдаланиш бўйича билим ва кўникмаларини шакллантириш;

- индивидуал спорт турлари элементлари бўлган амалий кўникма ва малакаларни ўзлаштириш;

-муайян касбда юқори самарали ишлаш учун айниқса зарур бўлган индивидуал жисмоний ва махсус фазилатларни тарбиялаш.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-196-202

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Кўп ҳолларда, бу соҳаларда иш параллел олиб борилади. Ушбу мақсадлар учун воситалар, усуллар ва улардан фойдаланиш даражасини танлаш турли спорт ва жисмоний машқларни бажаришда восита қобилиятлари (жисмоний ва махсус фазилатлар)нинг ижобий ва салбий ўтказилишини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилиши керак.

Кучни тарбиялаш. Мушак кучи асосан ҳаракат тезлигини белгилайди ва чидамлилик ва эпчиллик талаб қиладиган ишларда муҳим рол ўйнайди. Замонавий меҳнат фаолиятининг аксарият турларида мутлақ бўлмаган нисбий мушак кучининг даражаси жуда муҳим. Максимал куч миқдори унинг намоён бўлиш шароитларига боғлиқ. Ҳар бир куч машқлари махсус куч тайёрлашни таъминламайди: нерв-мушак ҳаракатларининг тузилиши, катталиги ва табиати, иш ҳаракатларининг бурчак амплитудаси ва ҳоказоларга ўхшаш машқларни танлаш керак. Асосий ҳаракат билан ва бу мушакларнинг топографиясини ва меҳнат пайтида уларнинг иш тартибини олдиндан ўрганишни ўз ичига олади.

Кўпчилик мутахассисларнинг касбий фаолиятида максимал мушакларнинг кучланишини талаб қиладиган вазиятлар деярли мавжуд эмас, шунинг учун тўйинмаган юкларни (қаршиликларни) енгиш орқали кучни тарбиялаш, одатда, жисмоний тайёргарликнинг турли даражаларига эга бўлган шахсларнинг касбий фаолият вазифаларини ҳал қилиш учун янада оқилона ва мақбулдир. Бундан ташқари, кўплаб спорт ҳаракатлари ва ишлаб чиқариш соҳасидаги мутахассисларнинг профессионал ҳаракатлари ўртасида сезиларли фарқ мавжуд. Шунинг учун, касбий фаолият мақсадлари учун улар мустақил равишда ёки кам вақт талаб қиладиган динамик ва изометрик машқлар билан биргаликда ишлатилиши мумкин.

Тезликни тарбиялаш унинг ишлаб чиқариш шароитида намоён бўлиш шаклларининг ўзига хос хусусиятларига асосланади, чунки ҳаракат тезлигининг бевосита тўғридан-тўғри берилиши фақат мувофиқлаштирилган ҳаракатларда юз беради. Шунинг учун, келажакдаги мутахассиснинг касбий фаолият мақсадлари учун ҳаракатларнинг тезлиги ва аниқлигини тарбиялашда, у ҳаракат қилиши керак бўлган шароитлар маълум даражада моделлаштирилади.

Касбий фаолият жараёнида бўлажак мутахассиснинг чидамлилигини тарбиялаш марказий асаб тизими ва бутун организмнинг иш чарчашига чидамлилигини оширишга асосланган юқори профессионал кўрсаткичларга

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-196-202

эришишнинг самарали воситаларидан биридир. Чидамлиликни талаб қилувчи машқларда одамнинг функционал имкониятлари мотриканинг ривожланиши ҳамда организмнинг аероб ва анаероб имкониятларининг мавжудлиги ва тегишли даражаси билан белгиланади. Бироқ, меҳнат фаолиятида, спортдан фарқли ўлароқ, тананинг анаероб қобилиятига бўлган талаблар фақат мутахассисликларнинг жуда чекланган рўйхатида ва фақат алоҳида ҳолатларда қўлланилади. Шунинг учун, уларнинг танасининг аеробик имкониятларини ривожлантириш, нисбатан узоқ муддатли иш вақти (иш куни, ҳафта, йил) учун кам қувватли узоқ муддатли самарали ишни таъминлаш келажакдаги мутахассисларнинг касбий фаолият мақсадлари учун катта аҳамиятга эга.

Шахснинг касбий фаолияти мақсадлари учун чаққонлик ва мослашувчанликни тарбиялаш юқори малакали мутахассисларнинг табиати ва иш шароитларининг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда мустақил маънога эга эмас. Аммо чаққонлик ва мослашувчан янги спорт ёки меҳнат ҳаракатларини ўзлаштириш тезлигини, шунингдек, куч, тезлик ва чидамлилик даражасини ва натижада касбий тайёргарликнинг муваффақияти ва меҳнат ҳаракатлари унумдорлигини белгилайди. Бу фазилатларга шахснинг умумий жисмоний тайёргарлигида катта эътибор берилиши керак.

ХУЛОСА

Махсус амалий фазилатлар нафақат жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланиш жараёнида, балки меҳнат жараёнида ҳам ривожланиши мумкин. Бироқ, меҳнатнинг бундай "тайёргарлик" ролининг ўзи фақат касбий фаолиятнинг дастлабки босқичларида намоён бўлади, кейин эса фақат маълум даражага қадар намоён бўлади, бу эса маълум даражада шахснинг касбий ривожланишини чеклайди. Шунинг учун жисмоний тарбиянинг мазмуни инсоннинг маълум касбларга мувофиқлиги мезонига мос келадиган функциялар ва фазилатларни ривожлантириш билан чамбарчас боғлиқ. Турли жисмоний машқлар ва спорт турлари билан шуғулланиш инсондан маълум бир махсус фазилатларни намоён этишни талаб қиладиган фаолиятни моделлаштириш имкониятини беради. Бу жисмоний тарбия ва спорт воситаларини ва уларни қўллаш усулларини мақсадли танлаш орқали алоҳида фазилатларни яхшилаш мумкинлигини кўрсатади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-196-202

REFERENCES

1. Кобачков В.А., Зуев С.Н., Жидких В.П. Физическое воспитание с профессиональной направленностью: Метод, указ. – М.: МИСИ, 1990. – 37 с.
2. Климов Е.А. Психоло-педагогические проблемы профессиональной консультации. – М., 1983. – 188 с.
3. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры: Учебник для институтов физической культуры. – М., ФиС, 1991. – 543 с.
4. Родин Ю.И., Крайнов А.Н. Физическая культура. Тестовые задания для оценки знаний выпускников основной и средней общеобразовательной школы. – Тула, 2002. – 40 с.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-203-215

“ОДАМ ГЕНЕТИКАСИ” ЎҚУВ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ.

Д. Р. Иногамова
Педагогика фанлари бўйча фалсафа доктори (Ph.D), доцент,
Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети

А. И. Рахматуллаев
“Махсус педагогиканинг клиник асослари” кафедраси ўқитувчиси,
Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети

АННОТАЦИЯ

В стате изложены педагогические условия, способствующие решению проблемы об изменениях в системе образования. Раскрывается авторский взгляд на организацию и преподавания бакалавров в педагогических вузах. Анализируются применение инновационных методов обучения. Приведены примеры уроков с новыми образовательными технологиями. В статье предлагаются задания по модульным и проблемным образовательным технологиям обучения.

Ключевые слова: педагог, педагог-дефектлог, психолог, учебный предмет, модуль, ситуационные задачи, проблемная образовательная технология, модульная технология обучения, мотивация.

ABSTRACT

The article sets out the pedagogical conditions conducive to solving the problem of changes in the education system. The author's view of the organization and teaching of bachelors in pedagogical universities is revealed. The application of innovative teaching methods is analyzed. Examples of lessons with new educational technologies are given. The article offers tasks on modular and problem-based educational learning technologies

Keywords: teacher, teacher-defectolog, psychologist, subject, module, situational tasks, problem educational technology, modular learning technology, motivation.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-203-215

КИРИШ

Жамият ривожининг ҳозирги босқичида юз бераётган ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маърифий ўзгаришлар таълим соҳасини тубдан ислоҳ қилиш, ривожланган демократик давлатлар даражасига кўтариш орқали таълим жараёнини такомиллаштириш ҳамда юксак маънавий-аҳлоқий талабларга жавоб берувчи юқори малакали кадрларни тайёрлашга эришишни тақозо этмоқда. Давлатимизни узлуксиз таълим тизими олдига ижтимоий буюртма сифатида қўяётган мазкур талаби, Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”да ўз аксини топган [1–6].

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” ҳар томонлама камол топган, юксак маданият, касбий малака, ижодий қобилият, ижтимоий фаоллик, ижтимоий-ғоявий иммунитетга эга, руҳан тетик, зиммасидаги ижтимоий вазифаларни бажаришга масъул ҳамда илмий билимларни пухта эгаллаган кадрларни тарбиялашга қаратилган педагогик ғояни ўзида акс эттиради [7, 8].

Ушбу ғояни амалга ошириш учун таълимнинг барча босқичларини тубдан ислоҳ қилиш вазифалари белгилаб олинди. Ислоҳ қилишнинг муҳим вазифаларидан бири, бу ўқитиш ҳамда тарбия бериш жараёнига таълим технологияларини жорий қилиш киради.

Педагогика олий ўқув юртларида ўқитиладиган мутахассислик фанлари бўлажак педагог-дефектологларга ҳамда психологларга зарур билимларни ўзлаштириш имкониятини яратади. Мазкур йўналишда замон талабларига жавоб бера оладиган ҳар томонлама етук, юксак инсоний фазилатларга эга шу билан бирга ўз касбини фидоийси бўлган педагог-дефектологларни ҳамда психологларни тайёрлашда “Одам генетикаси” ўқув фани ҳам ўзига ҳос муҳим ўринни эгаллайди.

Бўлажак педагог-дефектологларга ҳамда психологларга “Одам генетикаси” ўқув фанини ўқитишдан асосий мақсад – одам биологик ва ижтимоий мавжудот эканлиги, одамдаги белги ва ҳусусиятларни намоён бўлишининг генетик қонунларга бўйсуниши, ирсий касалликларнинг келиб чиқиш сабаблари, уларнинг турлари, ирсийланиш қонуниятлари, ирсият сабабли болаларда вужудга келадиган ақлий қолоқлик, болалар аутизми ва

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-203-215

жисмоний ривожланиш нуқсонларининг сабаблари, психогенетикаси, ҳулқ-атвори ва бундай нуқсонлар билан туғилган болаларга таълим-тарбия беришда, оилани режалаштиришда, турмуш қуришда генетик маълумотларнинг аҳамияти ва улардан келажакда ўз фаолиятларида фойдаланишлари учун замин яратишдан иборатдир.

Ушбу вазифаларни амалга оширишда замонавий педагог таълим жараёнини ташкил қилиш методикаси ҳамда воситаларидан фойдаланиб, талабаларнинг психологик, индивидуал хусусиятларини инобатга олган ҳолда, ҳар бир ўқув фани машғулотларини ҳозирги ривожланаётган жамият талабларига мос равишда янгича ёндашиб, юқори даражада янги таълим технологияларни қўллаб ташкил қилиш малакасига эга бўлиши лозим.

“Одам генетикаси” ўқув фани машғулотларида талабаларнинг фаоллигини ҳамда билим даражаларини ошириш мақсадида қуйида берилган таълим технологиялардан фойдаланиш яхши натижаларга эришиш имкониятларини яратади.

Муаммоли таълим технологияси. “Одам генетикаси” ўқув фанини ўқитишда талабалар фикрини ривожлантириш учун турли воситалардан ташқари муаммоли ўқитиш, кўргазмали воситалардан, шунингдек, ўқитишнинг техник воситаларидан кенг фойдаланиш, билимларни тизимли назорат қилиш, мустақил ишларнинг турли усулларини қўллаш, талабаларни ўқитишда табақалаштирилган ёндошишдан ҳам фойдаланилади.

Ҳозирги фан техниканинг тараққиёти шароитида таълимнинг ривожлантирувчи функциясига талаб ортиб бормоқда. Шунинг учун ўқитишда фақат билимларнинг оддий жамламасини бериш билан чегараланиб қолиш етарли эмас. Ўқитиш жараёнида талабаларни фикрлашга ўргатиш муҳим аҳамиятга эга. Бу вазифани ҳал қилишда ҳозирда мавжуд бўлган методик усуллар ичида муаммоли таълим янада самарали ҳисобланади [9].

Муаммоли ўқитиш бу ривожлантирувчи ўқитиш бўлиб, талабаларнинг билимларни тушуниб олишга бўлган эҳтиёжини қондиришга қаратилгандир. Амалиётнинг кўрсатишича, талабаларда ниманидир тушунишга бўлган эҳтиёж, муаммоли ўқитиш пайтида яққолроқ намоён бўлади. Ўз навбатида педагог олдида муаммоли ўқитиш доирасида ундан қачон ва қандай фойдаланишни аниқлаш вазифаси туради. Педагогнинг қўйган муаммосини талабалар ҳал қилишда қийналмасликлари зарур. Муаммоли ўқитишни амалга оширишда асосий вазифа мазмунни таҳлил қила олиш, ундаги муаммони аниқлай олиш,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-203-215

сўнгра уларни бир-бирига бўйсундириш тартибида тузишдан иборат. Бундай ҳолда муаммоли ўқитишдан фойдаланиш тизимликка эга бўлади. Бу эса фикрлашни, идрокни ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга.

Педагогика олий ўқув юртларида ўқитиладиган “Одам генетикаси” ўқув фанидаги “Ўзгарувчанлик ва унинг турлари” мавзусида, ўзгарувчанлик ташқи омиллар таъсирида юзага чиқиши мумкинми? Улар наслдан-наслга бериладими? Қизамиқ билан касалланган ҳомиладор аёлнинг боласи соғлом туғилиши мумкинми? – деган муаммолар пайдо бўлади.

Демак, “Одам генетикаси” ўқув фанини ўқитишнинг ҳар бир босқичида талабалар ўзларининг ўқув фани бўйича тайёргарлик даражасига ва фикран ривожланганлигига қараб турли муаммоларни ҳал қилиб берадилар. Муаммоли ўқитиш дастурининг белгилари қуйидагилардан иборат:

- муаммоли вазиятлар сони;
- субъектнинг муаммони ҳал қила олишига тайёргарлиги;
- муаммоларни турли йўл билан ҳал қилишнинг имкониятлари ва бошқалар.

Муаммоли ёндошишни амалга оширишда қуйидаги босқичлар мавжуд:

1-босқич. Муаммони қабул қилишга тайёрлаш. Бу босқичда талабалар муаммоларни ҳал қила олишлари учун уларга зарурий билимлар берилади.

2-босқич. Муаммоли вазиятни яратиш. Бу муаммоли ёндашувнинг энг қийин ва жавобгарликни талаб қилувчи босқичи ҳисобланади.

3-босқич. Муаммони тартибга солиш. Бу юзага келган муаммонинг натижасидир. У талабаларнинг изланиш йўналишини қайси саволга жавоб излаш лозимлигини кўрсатиб беради. Бу педагог томонидан талабалар олдига қўйиладиган билиш вазифасидир. Агар талабалар муаммоларни ҳал қилишига тизимли ёндошсалар, уларнинг ўзлари муаммоларни яратишлари мумкин.

4-босқич. Муаммони ҳал қилиш жараёни. У бир неча поғоналардан иборат:

а) ғояни илгари суриш;

б) ҳар бир ғояни ҳал қилиш учун режа тузиш;

в) ғоянинг тасдиғи ёки тасдиқланмаслиги.

5-босқич. Муаммони ҳал қилиш йўлининг тўғри ёки нотўғрилиги, агар мумкин бўлса уни амалиётда аниқлаш. Муаммоли вазиятни яратиш педагогдан катта маҳорат талаб этади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-203-215

“Одам генетикаси” ўқув фанини ўқитишда муаммоли вазиятни яратиш учун қуйидаги усуллар таклиф қилинади:

- талабаларга маълум бўлмаган ва тушунтириш учун қўшимча маълумот талаб этувчи бир қатор далилларни бериш ёки намойиш этиш ҳамда уларда янги билимни эгаллашга интилишни пайдо қилиш;
- аввал ўрганилган назария ва қонунлар асосида янги билимларни тушунтириш;
- маълум назария асосида ғоя яратилади, сўнгра бу ғоянинг тўғрилиги амалиётда синаб кўрилиб, ишонч ҳосил килинади;
- вазифани бажариш шароити ва оҳирги мақсади берилиб, уни ҳал қилишнинг энг қулай усулини топиш сўралади;
- берилган шароитда вазифани мустақил бажариш сўралади. Бу вазифа ижодий ҳисобланиб, уни ҳал қилиш учун дарсларда ўрганилганларнинг ўзи етарли бўлмайди. Талаба уйида ўйлаб кўриши, қўшимча адабиётларни ва маълумотларни ўқиши тавсия қилинади.

Масалан:

1. Айрим касалликларни ривожланишида ташқи омиллар билан ирсиятнинг аҳамияти ҳақида нима дея оласиз? Бунда организмларни мослашувчанлиги, ирсий мойиллигини, специфик генетик резистентлигини, ҳар бир организмни индивидуаллигини эътиборга олинг.

2. Қандли диабетга мойиллиги бўлган беморнинг реакция нормаси ташқи ёки ички омилларга боғлиқми? Агар ташқи омилларга боғлиқ бўлса, нималар организмни касалликка олиб келади? Ирсий парамиотония (организмнинг совуққа таъсирчанлиги), пегментли ксеродермия (ультрабинафша нурга таъсирчанлиги) касалликларидачи?

3. Кўпгина инфекцион касалликлар билан ферментопатияларни ҳосил бўлишида асосий омил нима? Ташқи муҳитми ёки ирсий омилларми?

Баъзан вазиятли масалаларни бериш ҳам тавсия қилинади. Бундан асосий мақсад: талабалар назарий томондан ўрганган билимларини қайта қайтариб чиқадилар. Масалалар ечиш орқали берилган муаммони ҳал қиладилар ва мавзуни амалиёт билан боғлайдилар.

Масалан:

1. Янги туғилган қиз чақалоқ ҳужайраларида 5-аутосоманинг узун елкаси делекцияси аниқланди. Бу ҳолатда болада қандай белгилар ривожланади. Бола соғлом ривожланиши мумкинми? Жавобингизни асослаб беринг?

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-203-215

2. Мушук чинқириғи синдромли қиз боланинг соматик ҳужайралари экспресс цитогенетик усули билан текширилди. Сизнинг фикрингизча унинг соматик ҳужайраларида қандай ўзгариш содир бўлган. Тушунтириб беринг?

3. Ота-оналар тиббий-генетик маслаҳатхонада текширилганда уларнинг кариограммалари нормал эканлиги аниқланди. Улардан Шерешевский-Тернер синдромли қиз туғилди. Бу ҳодисани қандай тушунтириш мумкин.

4. Шифокор кўригига қуйидаги белгилари: кўзлари қийшиқ кесмали, чучвара қулоқ, тили катталашган, ёриқлари бор, семизликка мойиллиги бўлган ва мускул тонуси пасайган бола олиб келинди. Болада қандай касаллик мавжуд? Бу болага қандай даво комплексини буюриш керак?

5. Туғруқхонада кўз косаси, боши кичик, даҳани ингичка, ясси пешона, бармоқлари чангак ҳолатда бўлган, овоз чиқармайдиган, кўз олмалари нотўғри ҳаракат қиладиган бола туғилди. Бу болада қандай касаллик ривожланган. Кейинги текширишлар натижасида қандай ички органлар нуқсонларини кузатиш мумкин?

6. Боланинг қандай ташқи белгиларига қараб Патау синдроми касаллиги борлигини айтиш мумкин?

7. Генетик шифокор қабулига келган шахснинг бўйи пастлиги, қўл кафтлари калта ва битта чизиқли эканлиги, “atd” трирадиус бурчаги 70^0 эканлиги аниқланди. Шу аниқланган белгилар асосида текширилаётган шахсда ирсий ўзгарувчанлик ҳақида шубҳа туғилиши мумкинми?

8. Туғруқхонада иккита чақалоқ алмаштириб қўйилди. Қандай усулларни қўллаб уларнинг ота-оналарини аниқлаш мумкин?

9. Аёллар ҳомиладорлик вақтида қизамиқ касали билан касалланса, ҳомилада қандай ирсий касалга ўхшаш белгилар кузатилади. Бундай ўзгарувчанликни нима билан тушунтириш мумкин?

10. Агар боланинг тоғайлари сариқ бинафша рангга кириб, сийдиги текширилганда ундан “сичқон ҳиди” келса, сутли овқатларни истемол қилганда қусиш, ўзини ёмон ҳис қилиш белгилари кузатилса, қандай касалликка чалинганлигини айтиш мумкин ва касалликнинг асосий сабаблари нимада?

11. Янги туғилган чақалоқ сут эма бошлаши билан бадани сарғайиб, қайт қила бошласа, диспептик ўзгаришлар пайдо бўлиб тана массаси камайиб кетса, бу болада психик ўзгаришлар кузатилса, қандай касаллик борлигини гумон қилиш мумкин? Бу болани соғлом қилиб вояга етказиш мумкин ёки мумкин эмаслигини тушунтиринг.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-203-215

12. Генетик шифокор қабулига келган эркакнинг лунж шиллиқ қаватидан олинган тери ҳужайралари текшириб кўрилганда, уларда иккита «ноғора чўплари» борлиги аниқланди. Бармоқ учларида ёйсимон чизиқлар кўп бўлиб, трирадиуси кафтнинг проксимал томонида, бурчаги 42^0 атрофида эканлиги маълум бўлди. Ташқи кузатишлар эса бўйининг баландлиги, қўл оёқларни нормага нисбатан узунлиги, гинекомастия борлиги ва суҳбат натижасида эса шизофренияга мойиллиги борлиги аниқланди. Бу касал шифокор томонидан қандай генетик усуллар билан текширилган. Касалликнинг номи нима? Қандай даво чораларини қўллаш мумкин?

13. Генетик врач қабулига келган шахс танасининг турли ўринларида оқ доғлар борлиги, бу доғлар асосан тананинг юқори томонида, сочлар орасида, бўйин ва қўлнинг ички қаватида борлиги аниқланди. Бу қандай касаллик ва ирсийланиш типини айтинг.

14. Врач қабулига келган аёл тез-тез сийиши, тез чарчаши, кўп овқат ейишига қарамасдан озиб кетганлигидан арз қилди. Ташқи кузатишлар натижасида врач беморнинг териси қуруқлиги ва оғиз қуриши, терида қичиш натижасида ярачалар борлигини аниқлади. Врачнинг бирламчи ташхиси қандай?

15. Бармоқ учида чизиқлар сиртмоқсимон бўлиб, улнар томонга очилган. Қўл кафтида тўрт бармоқли кўндаланг эгилувчан эгатчаси бор, «atd» бурчаги 81^0. Бармоқлари калта, жимжилоғи қийшайган, биринчи ва иккинчи бармоқлар орасидаги масофа кенгайган. Бу қўл тузилиши ва дермотоглификасига қараб қайси касаллик эканлигини аниқланг.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Фикримизча, муаммоли таълим билан ҳеч қандай алоқаси бўлмаган ўйлаб кўриш, ўйлаб топиш, ғоя айтиш каби педагогик вазиятларни фарқлаб бериш педагогнинг вазифасидир. Педагогнинг саволлари албатта муаммоли тавсифга эга бўлиши лозим. Муаммоли вазиятни яратиш ва қўйилган вазифаларни ҳал қилишда, аввало педагогнинг ўзи намуна бўлиши лозим. Баҳсни яхши уюштириш, жиддий назарий тайёргарликни ва ўқув фани бўйича чуқур билимга эга бўлишини талаб этади. Муаммоли ўқитишнинг энг фойдали томони шундан иборатки, у кучли ривожлантирувчи таъсирга эга ва бунда талабалар ўз билимига ишонч ҳосил қилишга, мустақилликка ўрганадилар. Ўз кучларига ишонч ҳосил қиладилар. Бундай ёндашиш анча эмоционал характерга эга

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-203-215

бўлганлиги сабабли талабаларнинг ўқишга бўлган қизиқишларини орттиради, кучли тарбиявий таъсир кўрсатади. Бу эса ўз навбатида ўзига бўлган ишончни ва дунёқарашни шакллантиради, билимни мустаҳкамлайди. Чунки мустақил изланиш йўли билан эгалланган билим тайёр ҳолда олинган билимга нисбатан онгда узоқ муддат сақланиб қолади.

Муаммоли таълимни амалга ошириш натижасида талабалар янги билимларни эгаллайдилар, ўзларига маълум бўлган тушунча ва далиллар ўртасидаги янги боғланишларни аниқлайдилар. Муаммоли ўқитишдан талабаларнинг интеллектуал имкониятларини аниқлаш усули сифатида ҳам фойдаланиш мумкин. Ўқитишнинг муаммоли усулидаги камчилик фикрлай олиш жараёнини заиф бошқаришдир. Бироқ унинг устунлик томони шундаки, ижодий фикрлаш, мустақилликни, эркинликни талаб этади. Аниқ бир натижага талабалар турли вақтда етиб келадилар.

Шу сабабли бу методик услуб бошқа услубга нисбатан педагогдан кўпроқ ўз устида ишлашни ва катта масъулиятни ҳис қилишини талаб қилади. Талабаларнинг фикрлаш тезлигини ўзаро тенглаштириш ҳолатида педагогдан ижодкорликни талаб қилади [10].

Демак, муаммоли таълимда асосий босқич муаммоли вазиятни турли усуллар билан юзага келтиришдан иборат. Муаммоли ўқитишда педагогнинг дарс бериш усули ўзгаради.

Модулли таълим технологияси. Талабаларда дарслик, илмий-оммабоп ва қўшимча адабиётлар билан мустақил ишлаш кўникмаларини, ижодий ва мустақил фикрлашни ривожлантириш мақсадида модулли таълим технологияларидан фойдаланиш мумкин. Модулли таълим технологиясининг ўзига хос жиҳати, педагог ўрганилаётган мавзу бўйича талабаларнинг мустақил ва ижодий ишлашларига имкон берадиган модул дастурини тузади. Талабалар модул дастури ёрдамида мустақил ва ижодий ёндашган ҳолда ишлаб дарснинг таълимий, тарбиявий ва ривожлантирувчи мақсадига эришадилар. Педагог эса талабаларни бошқариб, мотивация қилиб, назорат қилиб туради. Бу усулнинг афзаллиги яна шундаки, дарсга тайёр бўлмаган талабалар ҳам дарс давомида ҳаракат қилиб, дарсликдан фойдаланиб маълум билимга эга бўладилар.

Академик Ю.К.Бабанскийнинг фикрича, “Модулли ўқитиш илмий ахборотни талабаларга етказишгина эмас, балки янги ўқув материалининг асосий элементларини ўзлаштириш ва бунда талаба фақат одатдаги умумий таълим кўникмаларига эга бўлибгина қолмасдан, балки ихтирочилик

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-203-215

характеридаги кўникмаларга эга бўлиши кўзда тутилади” [11]. Модулли ўқитишнинг асосий мақсади, талабаларнинг пухта билим олишларига эришишларидир.

Т.Н.Қори-Ниёзийнинг таъкидлашича, маълумот беришдан кўра, талабанинг мантиқий муҳокама қобилиятини ривожлантириш, чексиз маротаба афзалдир.

Модулли таълим жараёнида педагог талабалар учун янги билимларни беришгина қолмай балки, шу билимларни мустақил ўрганишга ва ўзини объектив баҳолашга, мустақил ҳолда фикр юритишга ўргатади [12–15]. Талабалар берилган топшириқларни ўзлари бажариб яна бири-бирларига ёрдам ҳам берадилар. Бу билан педагог уларни ҳамкорликда ишлашга ундайди. Дарс давомида педагог талабаларни жуда кўп маротаба баҳолаши мумкин.

Қуйида “Ирсиятнинг хромосома назарияси” мавзуси бўйича модул дастури берилган.

Дарснинг таълимий мақсади: Т.Морган қонунлари моҳиятини тушунтириш, белгиларни бириккан ҳолда ва жинсга боғлиқ ҳолда ирсийланишини масалалар ечиш орқали тушунтириш.

Дарснинг тарбиявий мақсади: Талабаларнинг мавзуга бўлган қизиқишларини орттириш, масалалар ечиш орқали илмий дунёқарашларини кенгайтириш.

Дарснинг ривожлантирувчи мақсади: Таълим жараёнида талабанинг ақлий камолотини, билиш қобилиятини, ўқишга, меҳнатга бўлган муносабатини ривожлантириш.

“Ирсиятнинг хромосома назарияси” мавзуси бўйича модул дастури.

Ўқув фаолияти элементлари (ЎФЭ).	**Талабалар ўзлаштириши лозим бўлган ўқув материалига оид топшириқлар.**	**Топшириқларни бажариш юзасидан кўрсатмалар.**
ЎФЭ-1	Мақсад: Т.Морган қонуни, белгиларнинг бириккан ҳолда ирсийланиши, жинс генетикаси, белгиларни жинсга боғлиқ ҳолда ирсийланишини ўрганиш. Дарсликдаги матнни диққат билан ўқинг, мавзуга тегишли расмларни кўздан кечиринг ва саволларга жавоб беринг: 1. Т.Морган ўз тажрибаларини нима учун	Талабалар якка дарслик ёрдамида ишлайдилар. Жавобларингизни

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-203-215

	дрозофила пашшаларида ўтказган? 2. Одам танасида неча хил хромосомалар бор? 3. Аутосома ва жинсий хромосомалар сони қанча? Улар генетикада қандай номланади? 4. Жинсий хромосомалар ёрдамида жинсни аниқлаш бўйича Бертрам қандай иш қилган?	асослаб беринг.
ЎФЭ-2	Мақсад: Жинсий хромосомаларда жойлашган генлар таъсирида юзага чиқадиган касалликларни ўрганиш. Дарсликда берилган гемофилия, дальтонизм, мушак дистрофияси, гипертрихоз, ихтиоз, тиш эмали гипоплазияси касалликларини ўқинг, ирсийланиш типини аниқланг ва қуйидаги саволларга жавоб беринг: 1. Гемофилия касаллиги ҳақида нимани биласиз, унинг ирсийланиш типи, наслдан-наслга берилишини мисоллар орқали тушунтиринг? 2. Дальтонизм касаллиги ҳақида нимани биласиз, унинг ирсийланиш типи, наслдан-наслга берилишини мисоллар орқали тушунтиринг? 3. Мушак дистрофияси касаллиги ҳақида нимани биласиз, унинг ирсийланиш типи, наслдан-наслга берилишини мисоллар орқали тушунтиринг? 4. Гипертрихоз касаллиги ҳақида нимани биласиз, унинг ирсийланиш типи, наслдан-наслга берилишини мисоллар орқали тушунтиринг? 5. Ихтиоз касаллиги ҳақида нимани биласиз, унинг ирсийланиш типи, наслдан-наслга берилишини мисоллар орқали тушунтиринг? 6. Тиш эмалининг гипоплазияси касаллиги ҳақида нимани биласиз, унинг ирсийланиш типи, наслдан-наслга берилишини мисоллар орқали тушунтиринг?	Дафтарингизга жинсга боғлиқ ирсийланиш бўйича берилган масалаларни ишланг.
ЎФЭ-3	Жинс ва жинсга боғлиқ ирсийланишнинг моҳиятини изоҳлаб беринг.	Мунозарада иштирок этинг
ЎФЭ-4	Мақсад: Генларни аутосома хромосомаларига бириккан ҳолда ирсийланишини ўрганиш. Дарсликдаги матнни диққат билан ўқиб чиқинг ва қуйидаги саволларга жавоб беринг: 1. Нима учун дидурагайларнинг F_2 авлодида белгиларни мустақил ирсийланиши кузатилмайди	Талабалар якка дарслик ёрдамида ишлайдилар. Жавобларингизни

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-203-215

ЎФЭ-4	ва нисбат 3:1 бўлади? 2. Хромосомада жойлашган генларнинг боғланиш группаларини тушунтиринг, уларнинг сони нимага тенг? 3. Нима учун бирикиш тўла ёки чала бўлиши мумкин? 4. Кроссинговер ва нокроссинговер гаметалар ҳақида нималарни биласиз? 5. Кроссинговер рўй берганда F_2 да нечта фенотипик ва генотипик синфлар ҳосил бўлади?	асослаб беринг. Ҳар бир саволларга берган жавобингизни мисоллар асосида дафтарингизга ёзиб чиқинг
ЎФЭ-5	Мақсад: Т.Морган коидаси, морганида ва генлар орасидаги масофани аниқлаш. Дарсликдаги матнни диққат билан ўқиб чиқинг ва қуйидаги саволларга жавоб беринг: 1. Т.Морган қоидасини таърифлаб беринг. 2. Морганида нима, агар морганида 1% бўлса, генлар орасидаги масофа нечага тенг. 3. Дарсликда дрозофила пашшаси бўйича берилган чала бирикиш натижасида ҳосил бўлган янги генлар комбинацияси мисолида генлар орасидаги масофа неча морганидага тенглигини аниқланг. Саволингизни изоҳлаб беринг. 4. Агар кроссинговер миқдори 50% дан ошса генлар қандай ирсийланади.	Фикрингизни изоҳлаб беринг (таалабалар жуфт-жуфт бўлиб ишлашлари мумкин).
ЎФЭ-6	Бириккан ҳолда ирсийланишнинг моҳиятини изохлаб беринг.	Мунозарада иштирок этинг.
ЎФЭ-7	Модул дастурини якунлаш, билимларни баҳолаш учун дарсликда берилган тест саволларига жавоб беринг.	Мавзу юзасидан ўзлаштирган билимларингизни синанг.

Талабалар учун мўлжалланган модул дастури технологиясидан фойдаланиб машғулотлар ташкил этилганда талабаларнинг фаоллиги, билим даражалари ошади, уларда мустақил равишда дасрликлардан фойдаланиш кўникмалари шаклланади, шунингдек олинган билимларни таҳлил қилиш орқали ўз билим даражаларини аниқлаш имкониятига эга бўладилар.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда, юртимизнинг келажаги, эртанги куни, жаҳондаги обрў-эътибори биринчи галда, фарзандларимизнинг ўсиб, улғайиб қандай

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-203-215

инсонлар бўлиб вояга етишишларига бевосита боғликдир. Ушбу жараёнда билим масканларининг фаоллиги, педагогларнинг билим савияси ва ўқув машғулотларига бўлган педагогик ёндашувлари ҳам муҳим ўринни эгаллайди. Ҳозирги куннинг педагогик вазифаларидан бири, ҳар томонлама камол топган, жамиятга, турмушга мослашган, таълим ва касб дастурларини онгли равишда пухта ўзлаштирган, жамият, давлат ва оила олдида ўз жавобгарлигини онгли равишда ҳис этадиган, хозирги меҳнат бозорида юз бераётган тафовутларни инобатга олган ҳолда рақобатбардош кадрларни вояга етказишдан иборат.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т: “Ўзбекистон”, 2008 й. (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2019 й., 2-сон, 47-модда, Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси,06.03.2019 й., 03/19/527/2706-сон).
2. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикасининг сайланган Президентининг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган маърузаси // Қонун устиворлиги ва инсон манфатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва ҳалқ фаровонлигининг гарови. –Т. Ҳалқ сўзи, 2016 йил 7 декабрь.
3. “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 1-2 –сон, 1-мода, 2009 й., 52-сон, 554-модда.
4. “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида”ги Қонун. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 2-сон, 80-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномасм, 1998 й., 5-6-сон, 102-модда; Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужатлари тўплами, 2004 й., 25 -сон, 287- модда; 51- сон, 514 -модда; 2008 й., 52- сон, 513- модда.(Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепцияси 18.01.2021й 23 сон қарори).
5. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни // Олий таълим Меёрий ҳужжатлари. / Акаемик С.С. Ғуломов тахрири остида. – Т.: “Шарқ”, 2001 й.(“Таълим тўғрисида”ги Қонунга қўшимчалар қилинган. Қонунчилик палатаси томонидан 2020 йил 19 майда қабул қилинган. Сенат томонидан 2020 йил 7 августда маъқулланган).

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-203-215

6. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” // Олий таълим Меёрий ҳужжатлари. / Акаемик С.С. Ғуломов тахрири остида. – Т.: “Шарқ”, 2001 й.
7. Қодиров Б. Таълим тизимидаги ислоҳотлар: мақсад ва йуналишлари. – Т.: Ўзбекистон, 1999 й.
8. Фозилов Ж., Султонов Р., Саидов Ҳ.. Ўқувчи маънавиятини шакллантириш /Нашр учун масъул: Ж.Ғ.Йўлдошев. – Т.: “Ma’rifat-madadkor” нашриёти, 2000 й.
9. Ходжиев М.Т., Олимов К.Т. Муаммоли ўқитиш технологияси. Бухоро. «Технотасвир». 2007 й.
10. Бабанский Ю.К. Педагогика. – М.: Просвещение, 2003 г.
11. Бабанский Ю.К. Интенсификация процесса обучения // Ж. Биология – М.: 1987 й. № 1.
12. Авлиёқулов Н.Х. Касбий фанларни модулли ўқитиш технологияси. –Т.: «Янги аср авлоди». 2004. -106 б.
13. Ашурова С.Ю. Махсус фанларни модулли ўқитиш // Касб-хунар таълими. – Т.: 2004. № 5.
14. Бородина Н.В., Самойлова Е.С. Модульные технологии в профессиональном образовании. Учебное пособие. – Екатеринбург.: 1998. – 26 с.
15. Олимов Қ.Т., Авлиёқулов Н.Х., Рустамов Р.М. Касбий фанларни ўқитишнинг модул тизими // Касб-ҳунар таълими. – Т.: 2003. № 2. – 18 б.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-216-220

АНЪАНАВИЙ ХОНАНДАЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Умида Шакировна Курбанова
ЎзДСМИ катта ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада анъанавий хонандаликнинг ўзига хос хусусиятлари, талаффуз, овоз хусусиятлари ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: анъанавий, мусиқа, талаффуз,қўшиқчилик, хонанда.

ABSTRACT

This article we will talk about the peculiarities of traditional singing, sound characteristics.

Keywords: Traditional, music, pronunciation, singing, singer.

КИРИШ

Анъанавий ижрочиликнинг барча турлари каби якка хонандалик санъатининг илдизлари қадим-қадим замонларга бориб тақалади. Тарихий маълумотлар ва археологик топилмаларга илмий-назарий нигоҳ билан қараган ҳар қандай киши мазкур санъатнинг 3,5 – 4 минг йиллик тарихга эга эканлигига ишонч ҳосил қилади. Ўрта асрларда яшаб ижод этган арба мусиқашуноси Абул Фарож Исфаҳоний ўзининг “Юз қўшиқ” ҳақида китобила таъкидлашича ҳозирги Ўрта Осиё ҳудудларини қамраб олган халифаликларнинг саройларида созандалик ва хонандалик ривожланган бўлиб, мазкур жараённинг асосини мўғанийлар, яъни қўшиқ айтувчилар ташкил этган. Халифалардан бирининг саройида Удчилар ансамбли бўлиб, улар қирқ кишидан иборат бўлган. Эътиборли томони шундаки, уларнинг барчаси қизлар бўлган, улар ҳам чалишган, ҳам қўшиқ айтишган. Республикамиз ҳудудидан топилган нодир обидаларнинг кўпчилигида турли хил соз чалаётган, рақсга тушаётган, қўшиқ айтаётган кишилар тасвирини истаганча топиш мумкин [1].

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Менимча, қўшиқчилигимиз тарихини, унинг моҳиятини, чуқур ҳис қилишда қуйидаги ривоятга эътибор бериш ўринли бўлар эди:

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-216-220

Айтишларича Момоҳаво фарзандлик бўлгандан сўнг болани қандай юпатишни билмай худога нола қилади. Шунда, унинг қалбидан бир нидо отилиб чиқади. Мана шу нидо “алла” бўлса ажаб эмас. Демак, оналар қалбидаги изтироб, шодликни англатувчи унинг руҳий олами маълум даражада белгиловчи “алла” барча қўшиқларнинг онасидир.

Қўшиқ ҳалқимизнинг ҳаёт тарзи турмуши урф одатларига сингиб боради. Уларни инсониятига оҳанглар ёрдамида тақдим этади. Ҳар бир ҳалқнинг қўшиқларида ўша ҳалқнинг тили ва оҳанги яшайди. Қўшиқ кишиларни садоқатга, ишқ, жасоратга бошловчи энг таъсирчан омилларнинг биридир. Шу боис, комил инсонни вояга етказишда қўшиқлардан унумли ва тўла қонли фойдаланиш керак деб ўйлайман.

Муборак китобларни кўздан кечирар эканмиз, уларда қўшиқ ва қўшиқчиликда алоҳида эътибор берилганлигининг гувоҳи бўламиз.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асарида, Алишер Навоийнинг “Мажолис-ун нафоис” асарида, Дарвеш Али Чангининг Мусиқий рисолаларида, ҳофиз Басир, ҳофиз Таниш Буҳорий, Алидўст Ноий, Мутриб Самарқандий, Амир Фатҳи Тошкандий каби ўнлаб тарихий шахсларнинг ҳофизлик ва чолғучилик бобидаги таъкидлари алоҳида таъкидланган. Умуман, қўшиқчилик санъатининг ривожланмаган даври бўлмаса керак. Ҳалқимизнинг маданий ижтимоий ҳаёти таназзулга юз тутган XVIII–XIX асрнинг энг қоронғи даврларида ҳам қўшиқчилик ривожланишдан тўхтамади. Шоир Собир Абдулланинг Муқимий қиссаларида ўша давр ва унда яшаган машҳур хонандалар ҳақида қимматли маълумотлар бор. Асарда таъкидланишича Носир Оҳун Фарзинча каби ҳофизлар ўз даврининг машҳур мақомхонлари сифатида Қўқон хонлигида анча машҳур бўлган. XIX аср ярми XX аср бошларида яшаб ижод этган Мулла Тўйчи Тошмуҳамедов, Ҳожи Абдулазиз Абдурасулов, Худойберган Муҳиркан, Ота Жалол Носиров каби улуғ санъаткорлар ўзбек мусиқа санъати, жумладан қўшиқчилик санъатининг ривожида оламшумул бурилишлар ясашди. “Қўқон ушшоғи”, “Гулузорим”, “Қаландарий” каби ўлмас ашулаларнинг ўша даврда яралганлиги фикримизни қувватлантиради.

Ўтган асрнинг 50-80 йилларини ўзбек мусиқасининг, айниқса, яккахон қўшиқчиликнинг олтин даври дейиш мумкин. Улуғ устозлар анъаналарини муваффақиятли давом эттира олган Тўхтасин Жалилов, Юнус Ражабий, Фаҳриддин Содиқов, Муҳаммаджон Мирзаев, Комилжон Жабборов каби ўнлаб нодир санъаткорларнинг тинимсиз ва самарали ижодий изланишлари

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-216-220

натижасида бугунги кунда мумтоз асарлар даражасида эътироф этиладиган бетакрор қўшиқлар ва ашулалар юзага келди. Бундай қўшиқларнинг ҳар бирида мақомлар руҳи, “Катта ашула”лар салоҳияти “Танавор”лар нафислигини ҳис этган киши. Халқ достонлари руҳида ёзилган мумтоз ашулалар ҳам анчагинадир. Ўша давр санъаткорларининг олдига қўйган энг муқаддас вазифаси яратилган асарларда халқ турмуши дарди ва лирик кечинмаларини атрофлича, ўз аслича ифода этишдан иборат эди назаримда улар бу вазифани муваффақиятли адо эта олишди. Шу йилларда халқимизнинг орасидан етишиб чиққан Мамадбува Саттаров, Жўрахон Султонов, Ҳожихон Болтаев, Назира Юсупова, Берда Давидова, Коммуна Исмоилова каби кўплаб хонандаларимизнинг ижросига сингдирилган миллий, мусиқий бўёқлар ёрдамида бугун биз ўтмишни эслаймиз, кунимиздан шод бўламиз, эртамизга ишонч билан қараймиз.

Республикамизда турли даврларда ташкил этилган мақом ансамбллари, фольклор-этнографик ансамбллари, ашула ва рақс ансамбллари халқимизнинг мусиқий ҳаётининг ривожида алоҳида аҳамият касб этди: Қўшиқларимиз, куйларимиз мазкур ансамбллар туфайли замонавий талаблар асосида бойиб борди, ўзгача маъно ва моҳият касб этди. Менимча 1950-60 йилларда Ўзбекистон радиоси ва филормонияси қошида ташкил этилган профессионал ансамбларни алоҳида қайд этиш керак. Анъанавий қўшиқчиликнинг бугуни ва келажагини белгилашда Ўзбекистон радиоси қошида ташкил этилган мақомчилар ансамбли муҳим аҳамият касб этади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Бугун Юнус Ражабий номи билан аталадиган бу ансамбл узоқ йиллар давомида ўзбек мусиқаси, хусусан қўшиқчилигининг минбари ўлароқ, ўзига хос жонли лаборатория вазифасини бажариб келди. Мазкур ансамблнинг сайи-ҳаракати натижасида Бухоро Шашмақоми, Тошкент-Фарғона мақом йўллари, Хоразм мақомлари кўплаб халқ қўшиқлари ва бастакорларнинг асарлари пластинкаларга туширилди. Магнит тасмаларга ёзилди. “Ўзбек халқ мусиқаси” китобининг 9 томли нашри чоп этилди. Хоразм мақомларининг 3 томли китоби шинавандаларга ҳадя этилди. Юқорида қайд этилган ёзувлар ва китоблар биз талабаларнинг халқ қўшиқлари мақом ва фольклор намуналарини ўрганишимизда бугунга қадар асосий восита бўлиб келмоқда. Китоблар улуғ халқимиз ижодий маҳсули бўлмиш бадиий мусиқий асарларнинг нуфузи,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-216-220

салоҳиятини кўз-кўз этса, ўн минглаб овозли ижролар қўшиқларимиздаги сеҳрли оҳанг бу оҳангни тўла қонли ифодаланишида асосий омиллардан бири бўлган миллий мусиқий бўёқларнинг ўзига хос хусусиятларини намоён этади.

Жаҳондаги ҳар бир халқнинг мусиқаси бир-биридан фарқ қилади. Бу фарқлар ўша халқларнинг тили ва оҳанги, аниқроғи сўзи ва куйининг бир-бирига муносабати, улардаги хос яхлитликда ўз ифодасини топади. Улуғ мутафаккир Абу Наср Фаробий таъкидлаганидек куйининг моҳиятини отишда сўзлар калит вазифасини бажаради. Агар эътибор берадиган бўлсак турли халқлар ўз қўшиқларини ижро этганда уларнинг оғиз очишларида тил, жағ, лаб ҳаракатларида билинар билинмас фарқларини сезамиз бу керак фарқлар ўз навбатида ижрода иштирок этадиган товушлар шаклланишининг хилма-хиллигини таъминлайди. Демак, анъанавий хонандаликда унинг қайси халқ мулкига мансублигини англатувчи биринчи омил талаффуздир.

Талаффуз арабча сўз бўлиб “талаффаза” феълидан олинган, “отмоқ” маъносини беради. Бунга далил сифатида қуйидаги мисолни келтирамиз. Арабларда акалту аттамрата ва лафазту аннавота деган мақол бор. Бунинг маъноси хурмони едим ва данагини отиб юбордим демакдир. Мақолдаги лафазту калимаси - сўзи отдим, аниқроғи, оғиздан отдим маъносини билдиради [3].

Қўшиқ – ашуланинг моҳиятини очиб беришда мусиқий ва адабий матн бир хил аҳамиятга эга. Шунинг учун ҳам дарсда ўтилаётган мавзуни ўқувчи наздида ёрқин ифода этилишида сўзларни тўғри талаффуз эттириш ўқитувчининг асосий вазифаларидан бўлмоғи лозим. Дарс жараёнида ўқувчи ўзи ўрганадиган асарнинг қайси мақомга, аниқроғи, қайси мақом парда тузиги (лад)га яқинлиги айтилади. Сўнгра ўқувчи онгига мазкур парда тузигини сингдириш учун ўша оҳангга яқин куйлар асносида овоз машқлари ўтказилади. Бугунги мумтоз анъанавий ижрода ғазал сўзларининг баъзиларини замонавий тилга кўчиришга интилиш холлари учраб туради. Эҳтимол бу хайрли ишдир. Бироқ бундай уринишлар кўпинча вазн равонлигига, латифлигига халал бергандай бўлади; шубҳасиз, ижро жараёнида ҳам баъзи ноқулайликлар пайдо қилади. Қуйидаги мисолга эътибор беринг:

Қаро кўзим кел эй мардумлиғ, эмди фан қилғил,
Кўзим қаросиға мардум киби ватан қилғил.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-216-220

Байтдаги “Қаро” сўзини “қора”, “киби” сўзини “каби” деб куйлашади, баъзи хонандалар. Байт машҳур “Ушшоқ” ашуласидан олинган бўлиб, шоир, муаррих, тилшунос аллома Алишер Навоий қаламига мансуб.

ХУЛОСА

Биз анъанавий хонандалик фанидан таълим олаётган ўқувчилар ёнида икки нарсани доим бўлишини хоҳлардим. Бири кўзгу, бириси луғат. Кўзгу ташқи кўринишини назорат қилишга, овоз аппратининг тўғри шакллантиришга ва ижро давомида ўзини бемалол, чиройли тутишга ўргатса, луғат унинг маънавий дунёсини бойитади, миллий қадриятларимизга яқинлаштиради.

REFERENCES

1. Ю.Ражабий “Ўзбек халқ мусиқаси” I том Тошкент ш., Бадиий адабиёт нашриёти, 1958 й –Б 10-14.
2. И.Каримов “Юксак маънавият - енгилмас куч” асари Тошкент ш., “Маънавият” нашриёти, 2008 й –Б 60-63; 70-72.
3. Ў.Расулов “Анъанавий хонандалик ўқитиш методикаси” Тошкент ш., А.Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашр. 2006 й –Б 25-30.
4. О.Матёқубов “Мақомот” Тошкент ш., “Мусиқа” нашриёти, 2004 й.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-221-227

ЎҚУВЧИЛАР КАСБ – ҲУНАР КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РОБОТОТЕХНИКАНИНГ ЎРНИ

М. С. Абдуллаева
Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада бугунги кунда хорижий тажрибалар асосида “Баркамол авлод” болалар мактабларида ташкил этилган “Робототехника” тўгараклари муҳандислик кўникмаларини ривожлантиришдаги ўрни ва таълим жараёнидаги авзаллиги ҳамда робототехникани ўргатиш таълим жараёнидаги иновацион технологияларидан бири эканлиги ҳақида.

Калит сўзлар: Модернизациялаш, робототехника, кўникма, мобиль, таълим модели, робот дизайнер, муҳандислик кўникмалари.

ABSTRACT

This article discusses the role of robotics in the development of engineering skills and advantages in the educational process, as well as the fact that the teaching of robotics is one of the innovative technologies in the educational process.

Keywords: modernization, robotics, skill, mobility, training model, robot designer, engineering skills.

КИРИШ

ХХИ аср ахборот ва замонавий илмий билимлар асри ҳисобланади, шунинг учун замонавий жамият ривожланиши ҳар биримиздан юқори даражадаги тайёргарликни талаб қилади. Турли соҳалардаги билим ва тайёргарлик даражасини ривожланганлиги, яъни саноат ва ишлаб чиқариш соҳаларининг ривожланишида юқори малакали кадрларга бўлган эҳтиёжлардан келиб чиқади. Шу муносабат билан бугунги кунда замонавий таълим тизими ахборот ва мобиль шароитда яшаш ва ишлашга асосланган муаммоларни ҳал қилишга ҳаракат қилмоқда[1].

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Замонавий дунёда истиқболли муҳандис кадрлар тайёрлашда, ёш авлодни тарбиялаш, энг янги технологияларни жорий этиш зарурлигини кўрсатмоқда.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-221-227

Замонавий жамиятнинг устувор йўналишларидан бири бу “Робототехника”дир. Бугунги кунда робототехника автоматлаштирилган тизимларни ишлаб чиқиш билан шуғулланади. Шу тамоилга амал тариқасида турли ҳил ўқитиш соҳасидаги техник ва муҳандислар мураккаб техник тизимларни ишлаб чиқиш ва автоматлаштиришда иштирок этмоқдалар. Ҳозирги вақтда муҳандислик ихтисосликлари жамият тараққиёти соҳаларидан энг машҳурларидан бирига айланмоқда. Ҳар бир ўсиб бораётган мутахассис юқори маълумотли ва муҳандислик соҳасида малакали бўлиши учун, ёшликдан техник ижодкорлик қобилятларини ривожлантириш кераклигини англамоқда. Умумий ўрта таълим мактабларининг ҳар бир битирувчиси замонавий жамиятда келажак ҳаётига профессионал даражада тайёр бўлиши кераклигини тушуниб етмоқда.

Ўқувчилар касб – ҳунар тайёргарлигини авволо касбий кўникма ва малакалар шаклланиши жараёни билан бевосита боғлиқ бўлиб ўқувчилар тамонидан дастлабки касбга оид тушунчалар, маълум иш ҳаракат турлари, ушбу ҳаракатларни амалга ошириш усуллари ва мураккаб технологик жараёнларни тушуниш ҳолатлари билан белгиланиб, педагогика фанлари доктори профессор Ў.Қ.Толипов томонидан касбий кўникма ва малакалар шаклланиш жараёнини бир нечта босқичларга ажратиш кўрсатилган.

Ушбу босқичларнинг биринчиси маълум меҳнат, иш ҳаракат ва технологик операцияларни дастлабки таништирув аҳамияти муҳим ҳисобланиб, вазифаси ўқувчини нимага ва қандай эришиш тўғрисидаги билимлар, ўз ҳаракатларини мустақил назорат қила олиш имконини берувчи йўналишлар билан таништиришни кўзда тутади.

Иккинчи босқичда кўникма ва малакалар ҳосил бўлишининг амалий босқичи ҳаракат элементларини эгаллашдан бошланади деб ҳисоблайди.

Навбатдаги малака ва кўникмалар шаклланишининг учинчи босқичи дастлабки кўникмаларнинг такомиллашиши ва мустаҳкамланиши, унинг машқлар ёрдамида малакага айланиб бориши билан белгиланади. [2-3].

Учала босқични эгалаш учун ҳозирги кунда ўқитиш ва ўргатишнинг инновацион технологияларни қўллаш бугунги кунда долзарб муаммолардан бири бўлиб робототехникани ўргатиш ушбу муаммоларни ечими сифатида кўрсатилмоқда. Робототехникани ўргатишни яна бир долзарблиги муҳандисликни эгалалаш, когнитив тадқиқот ва конструктив фаолиятни ривожлантиришдан ибортдир. Ўқув жараёнида содда муҳандислик ва робототехника воситаларидан фойдаланиш орқали ўқувчиларнинг техник

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-221-227

ижодкорлигини ривожлантириш давлат таълим стандарти талаблари билан белгиланган.

Муҳандислик кўникмаларидаги асосий нарса бу аниқ техник, технологик, ишлаб чиқариш, ташкилий ва бошқарув муаммолари ва вазифаларини техник воситалар ёрдамида ҳал қилиш, инновацияларни илгари суриш ва амалга оширишни назарда тутади. Бугунги кунда жамиятимиз ривожланиш тендецияларидан бири бўлган рақамли иқтисодиётни ривожлантиришда техник иқтисодий, самарали ва юқори сифатли натижаларга эришиш, шунингдек, ишлаб чиқариш ва меҳнатни, машиналар ва технологияларни инсонпарварлаштириш учун лозим бўлмоқда.

Таълим жараёнида фойдаланиладиган роботлар ҳозирги пайтда тобора муҳим ва долзарб бўлиб бормоқда. Бу муҳандислик кўникмаларини шаклланиши ва ривожланиши жараёнинг муҳим объекти ҳисобланади. Робототехника муҳандислик таълимининг бир қисми бўлиб бугун биз бу билан фаол равишда шуғулланишимиз керак бўлмоқда. Мактабдан бошлаб муҳандислик касбларини оммалаштириш мақсадида ҳозирги кунда турли танловлар, мусобақалар ташкил этиш лозим бўлмоқда. Робототехника ўқувчиларни илғор ривожланиш режимида ривожлантиради, яъни робототехника информатика, математика, технология, физикага асосланган. Асосий вазифамиз инновацион таълим сермаҳсуллигини аниқлаш, таъминлаш ва шакллантиришдан иборатдир ҳамда ўқувчиларни ўқитишнинг узлуксизлиги орқали муҳандислик кўникмаларни ривожлантириш, янги авлод робот дизайнер воситаларини ишлаб чиқишдан иборатдир.

Ҳар бир мамлакатнинг глобал иқтисодиётдаги роли ва аҳамияти бевосита унинг юқори технологияларга эга бўлишига ҳамда иқтисодий тежамкорликга эга бўлишига боғлиқ бўлиб, муҳандислик таълимини ривожлантириш ҳам шундай муаммоларига қаратилган.

Бу технологик таълимининг фан ва ишлаб чиқариш билан интеграцияси ҳисобланиб таълим асосларидан бошланадиган динамик тизимни яратиши керак, аниқроғи болалар боғчаси, мактаб ва мактабдан ташқари таълим жараёнида узликсиз ва узвийлик асосида. Жамиятнинг ҳозирги ривожланиш босқичи муҳандислик ва технологиянинг жадал ривожланиш суръатлари билан тавсифланади. Янги ғоялар доимий равишда зарур бўлиб, рақобатбардош маҳсулотлар яратиш, юқори малакали кадрлар тайёрлашнинг заминидир. Ташқи шароитлар ижодий ҳаётни амалга ошириш учун зарур шартлардан бири

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-221-227

ҳисобланиб, ўқувчилар шахсий имкониятларини рўёбга чиқаришнинг муҳим воситасидир.

Бугунги кунда таълим жараёнида ўрганилаётган робототехникага оид ўқув материалларининг асосини ҳаракатнинг механик узатилиши ва элементар дастурлашнинг асосий тамойилларини ўрганишни ташкил этади. Бу эса якка, жуфт ёки жамоавий тарзда ишлаш орқали ўқувчилар қандай қилиб моделларни яратиш ва дастурлаш, тадқиқотлар ўтказиш, ҳисоботлар ёзиш ва муҳокама қилишни ўрганишларига замин яратмоқда. Ўқувчилар томонидан ушбу моделлар билан ишлаш вақтида пайдо бўладиган ғоялар, уларнинг ёшлигидан касб – ҳунар тайёргарлигини такомиллаштириш воситаси ҳисобланади. Замонавий дунёда муҳандислик кўникмаларининг ривожлантирилиши етарли даражада муҳим рол ўйнайди.

Робототехникани ривожланиши ўтган асрнинг 90-йилларда хорижий педагогика тизимда махсус йўналиш сифатида - янги ўрганиш фалсафаси билан боғлиқ "Лего педагогикаси" – конструкционизм сифатида ривожлана бошлаган. Унинг муаллифи С.Паперт (С.Паперт) ҳисобланиб Лего конструктори, компьютер дастурлари ёки қум қалъалари тарзида ўз фалсафасини ўқтира бошлаган бўлиб, ўқувчиларни улар билан ишлашга жалб қилинган бўлса, шу билан бирга янги билимларни яратишда хизмат қилиши мумкинлигини ҳам аниқлашган. Лего дизайнери конструкционизм фалсафасида ўқитиш воситаси сифатида жуда мос келди ва ўзининг фаол ҳаракатини бошлади.

Қисқа вақт ичида Лего дизайнерларининг тўпламлари болалар ва ўқитувчилар орасида катта шуҳрат қозонди, чунки улардан фойдаланиш фаол когнитив фаолиятни ўйин лаҳзалари билан уйғунлаштиришга имкон беради. Бугун хорижий мамлакалар таълим тизмида бошланғич синфлардан бошлаб то юқори синф ўқувчилари ҳам робототехникани ўрганишни бошлаб юборишган бўлиб, турли мусобақаларда муваффақиятли иштирок этмоқда.

Инсоният тарихи давомида илмий-техник тараққиёт жадал суратларда ривожланиб замонавий робототехника илмий-техник тараққиётнинг муҳим йўналишларидан бирига айланиб бормоқда, бунда механика ва янги технологияларнинг муаммолари сунъий интеллект муаммолари билан боғлиқ ҳолда ўз ечимларини топади. Дунёда робот технологиясининг жадал ривожланиши - бу технологик сифат кўрсаткичларига нисбатан мутлақо янги бозор талабларидан келиб чиқадиган табиий жараён машиналари ва ҳаракатланувчи тизимларни яратишга имкон яратмоқда.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-221-227

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Замонавий дунёда робототехника воситаларини инсон фаолиятининг турли соҳаларида қўллаш соҳаси жуда кенг бўлиб у ўсишда давом этмоқда. Роботлардан фойдаланиш инсоннинг оғир ва хавфли ишларда иштирокини сезиларли даражада камайтириши мумкин. Масалан, мудофаа, кимёвий, атом соҳаларида ишлаш, ёнғинларни операторнинг ёрдамисиз ўчирадиган, қутқарув ишларини бажарадиган ёки илгари номаълум бўлган жойда ҳаракатланадиган қурилмалар ва машиналар. Аста-секинлик билан роботлар инсоннинг одатий ҳаётига ҳам кириб келмоқда. Шундай роботлардан бири мобиль робортлардир.

Мобиль роботлардан фойдаланиш бизга кундалик эҳтиёжларни қондиришга имкон беради:

роботлар - васийлар, роботлар - энага, роботлар - уй бекалари ва бошқалар, натижада замонавий жамият ҳақиқатан ҳам ушбу соҳада малакали мутахассисларга эҳтиёж сезмоқда.

Бугунги кунда робототехникани ўрганишда қуйидагиларни ҳисобга олиш зарурлиги бизнинг фикримизнинг асосидир:

- нафақат ўтмишдаги ютуқларни, балки келажакда фойдали бўлган технологияларни ўрганиш;

- таркибий қисмларнинг билим ва фаолият йўналишлари бўйича махсус таълим [1].

Робототехникани ўрганиш ўқувчиларга касбий кўникмаларини ривожлантиришга имкон беради асосан роботлар қурилиши бир гуруҳда бўлиб ўтади, мустақил бўлишни ўрганади шу билан биргаликда ностандарт ечимлар, ижодий фикрлашни ривожлантиришга асосланади.

Шунингдек, робототехника нафақат муҳандислик фанлари калити сифатида ўрганилиши, балки рифожланитириши ҳам мумкин. Робот дизайнерлари физика, математика, физика ва технология фанларидан ўқув тажрибаларини намойиш қилиш учун фойдаланиши мумкин, бу бизга ҳақиқий дунё аксини кўришга имкон беради. Роботлардан фойдаланиш ўқув жараёнини янада қизиқарли ва тушунарли бўлишини таъминлайди. Ўқувчи ўзи яратган ва ўзини кўрган нарсани яхшироқ билади. Шунинг учун робототехника асосларини мактаб ўқув дастури давомида қўллаш зарурдир.

Ўқувчиларни робототехника соҳасидаги тадқиқотларга жалб қилиш, техник маълумотлар ва бошланғич муҳандислик билимлари билан алмашиш, янги илмий-техник ғояларни ишлаб чиқиш ўқув жараёнида янги педагогик

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-221-227

ёндашувлар ва янги ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш орқали юқори сифатли таълим олиш учун зарур шарт-шароитларни яратади. Технология феноменини тушуниш, технология қонунларини билиш имкон беради.

Ўқув жараёнида робототехника бизга бир қатор фойдали вазифаларни ҳал қилишга имкон беради: дизайнда нозик моторли кўникмаларни ривожлантириш, ижодий шахсни тарбиялаш, дастурларнинг блок-схемаларини ёзишда мантиқий фикрлаш, дастурлаш тилларини ўрганиш, замонавий технологиялар билан танишиш, тегишли соҳада бўлажак мутахассисларни тайёрлашнинг дастлабки босқичини амалга ошириш. Бироқ, амалда, таълим муассасалари моддий базани таъминлашда қийинчиликларга дуч келади. Робототехника дарсларини ўтказиш учун маълум тўпламлар керак бўлади, уларнинг танланиши кўп нарсага боғлиқ. Робототехника фанининг тармоқларидан бири сифатида ўқув жараёнига жорий этилиши бизга таълим олдида турган муаммоларни ҳал этишда бир қадам яқинлашишга имкон беради.

ХУЛОСА

Бугунги кунда баркамол авлод болалар мактабларда робототехника тўлиқ тўгарак шаклида мавжуд бўлиб, ушбу соҳада дарслар олиб борадиган марказлар ҳам ташкил этилмоқда. Баркамол авлод болалар мактаби ўқувчиларининг ўқув робототехника соҳасидаги фаолиятини ташкил қилиш учун бугунги кунда бозорда ўқувчиларга структурани тезда йиғиш, сенсор ва электр моторларини улаш, дастур яратиш ва робот моделини ишга туширишга имкон берадиган бир қатор дизайнерлар таклиф этилмоқда. Кўпгина таълим муассасаларида робототехника машғулотларини ташкил қилиш учун энг машҳур дизайнер LEGO Mindstorms EV3 ва ARDUINO. Ушбу дизайнерлар 1998 йилдан бери ишлаб чиқариш дунёнинг кўплаб мамлакатларида кенг тарқалган. LEGO конструктор қисмларининг юқори сифати етарли куч, хавфсизлик, махсус воситаларни талаб қилмайдиган монтажнинг қулайлиги билан бирлаштирилган. Дизайнер дастурлаш тизимлари болаларнинг ёшига мослаштирилган.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-221-227

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 сентябрдаги “Халқ таълими тизимидаги мактабдан ташқари таълим самарадорлигини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4467-сонли қарори.
2. Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммеҳнат ва касбий кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари: Пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент: 2004. – 314 б.
3. Leaning, M. A study of the use of games and gamification to enhance student engagement, experience and achievement on a theory-based course of an undergraduate media degree.// Journal of Media Practice, 16(2), 2015. Pp. 155- 170.
4. Сосновский С.А., Гиренко А.Ф., Галиев И.Х. Информатизация математической компоненты инженерного, технического и естественнонаучного обучения в рамках проекта MetaMath.// Образовательные технологии и общество. Выпуск № 4, том 17, 2014. - С.446- 457.
5. Байденко В.И. Болонский процесс: Результаты обучения и компетентностный подход (книга- приложение 1) / Под науч. ред. д-ра пед. наук, профессора В.И. Байденко. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2009. – 536 с.
6. Pardabaev J.E. ““STEAM” - Education as an innovative approach to the development of vocational training for students” // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 3, 2020. ISSN 2056-5852

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-228-237

ЭШИТИШИДА НУҚСОНИ БЎЛГАН БОЛАЛАРНИ НУТҚИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Умида Носирова
Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети
ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада эшитишида нуқсони бўлган болаларни нутқининг ўзига хос хусусиятлари ва ривожлантириш йўллари ёритилган. Эшитишида нуқсони бўлган болаларни сақланган анализаторларига ёндошиш йўллари, бундай болаларни ақлий ривожлантириш усуллари ёритилган.

Калит сузлар: эшитиш нуқсони, нутқ, диққат,хотира,тафаккур.

METHODS FOR DEVELOPING SPEECH IN CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT

ABSTRACT

This article discusses the features of speech and ways of development of children with hearing impairments. Methods of selecting children with hearing impairment and methods of mental development of the child**.**

Keywords: hearing loss, speech, attention, memory, thinking.

КИРИШ

Бошланғич синф эшитишида нуқсони бўлган болаларда барча психик жараёнлар, жумладан, тафаккур, хотира, идрок ва х.к. ларнинг ривожлантириш кузатилади. Нуқсони туфайли эшитишида нуқсони бўлган болалар ўз тенгдошларидан ортда қолади, шунинг учун ҳам бу ҳолларда мақсадли тизимли таълим- тарбия талаб этилади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Кундалик ҳаётда жонли иштирок этадиган, катталар ва тенгдошлари билан мулоқот қилган бола фаол ривожланади. Унинг нутқи шаклланади, атроф олам ҳақидаги тасаввурлари юзага келади. Мактабгача таълим муассасасида кар ва заиф эшитувчи болалар билан олиб бориладиган машғулотлар уларнинг ёшига

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-228-237

мос билим ва кўникмаларни эгаллаши, мактабга тайёрланишида кўмаклашади, интеллектуал фаолиятини ривожлантиради. Эшитишида нуқсони бўлган болалар муаммолари билан кўплаб тадқиқотчи-педагоглар шуғулланишган. Н.А.Рау, Б.Д.Корсунская, А.А.Катайева, Н.Г.Морозова, Т.И.Обухова ишларига асосланиб айтиш маълум хулосалар қилиш мумкин бўлади. Бундай болаларга ихтисослаштирилган мактабгача таълим муассасаларида махсус таълим ва тарбия талаб этилади, гарчи эшитишида нуқсони бўлган болалар ривожланишининг умумий йўналишлари соғлом болаларники билан умуман мос келади. Кар ва заиф эшитувчи болалар қатор хусусиятларга эга. Уларда:

- кўриб идрок этиш борасида етарлича ривожланмаганлик, жумладан, предметларни идрок этиш ва таниб олиш тезлиги паст экани;

- тақлиднинг секин шаклланиши, шунингдек намунага қараб танлашда қийинчиликлар;

- нутқнинг йўқлиги ва нутққача мулоқотнинг камлиги кузатилади.

Бу билиш фаолияти ва оғзаки-мантиқий тафаккурнинг ривожланишидаги кечикишга олиб келади. Айнан шунинг учун заиф эшитувчи болаларнинг ақлий ривожланишига катта эътибор қаратиш талаб этилади.

Бундай болаларнинг ақлий тарбиясида бир қатор вазифаларни ажратиб кўрсатиш мумкин:

1. Атроф олам ҳақидаги тасаввур ва тушунчаларни шакллантириш.
2. Билиш психик жараёнларини ривожлантириш.
3. Интеллектуал фаолиятнинг дастлабки усулларини шакллантириш.
4. Оғзаки нутқни шакллантириш.

Санаб ўтилган вазифаларнинг барчаси ўйин, махсус таълим ва меҳнат жараёнида амалга оширилиши лозим.

Одатда, эшитишида нуқсони бўлган болаларда атроф олам ҳақида тасаввурларни шакллантириш мактабгача таълим муассасасига қабул қилинган дастлабки кунлардан бошланади.

Кар ва заиф эшитувчи болалар дастлабки географик ва тарихий маълумотларни ҳам олишлари керак. Улар ўзи яшайдиган мамлакат номи, йирик шаҳарлар номлари, мамлакатимиз ҳудудидаги катта тоғлар, дарёлар номини билиб олади.

Сақланган анализаторлар ёрдамида эшитишида нуқсони бўлган болалар предметларнинг ранг, шакл, катталик, миқдор, сифатини идрок этишга қодир. Мактабгача ёшдаги болалар турли материаллар: қоғоз, мато, пахта ва ш.к. билан

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-228-237

ишлашга ўрганади. Айрим меҳнат қуроллари билан асосий иш усулларини ўрганади, аниқ хатти-ҳаракатларни ишлайди. Турли буюмлар ясаб, болалар ўз меҳнат фаолиятини мустақил режалаштиради ва ўз меҳнати натижаларини олдиндан кўра билишга уринади.

Эшитишида нуқсони бўлган болалар сенсорикани ривожлантиришга қаратилган махсус машқларни бажаради. Бунинг учун турли кўргазмали қуроллар: ёркин ўйинчоқлар, табиий буюмлардан фойдаланилади. Болалар предметларни қараб чиқиш, предметларнинг у ёки бу хоссаларини аниқлаш, предметларни ўзаро қиёслашга ўрганади. Самарадорликни ошириш учун бола ўрганилаётган нарсани ўз қўлида тутиб кўриши, айланма ҳаракатлар билан уни кўрсатиши керак. Айни пайтда янги сўз жадвал бўйича қайта яратилади.

Қоғоз билан ишлашга катта эътибор қаратилади. Эшитишида нуқсони бўлган болалар қоғоз қандай (рангли – оқ, глянс – силлиқ ва ш.к.) бўлишини, у билан бажариш мумкин бўлган ҳаракатларни (йиртиш, қирқиш, буклаш ва ш.к.) ўрганилади. Қоғоз ишлатиладиган машғулотлар болада геометрик тасаввурларни шакллантириш имконини беради. Масалан, болалар янги геометрик шаклларни бутунни қисмларга бўлиш йўли билан: квадратдан икки тўғри тўртбурчак олиш, уларни иккига бўлиш билан тўртта квадрат олиш мумкинлигини билиб олади. Турли буюмларни ишлаш жараёнида болаларда майда моторика ривожланади, бу ўз навбатида нутқ ва фикрлаш операциялари ривожланиши учун муҳим саналади.

Эшитишида нуқсони бўлган болаларнинг нутқий ривожланишдаги қийинчиликлари қуйидаги сабаблар билан белгиланади:

- миянинг нутқий зоналари овоз стимулятсиясининг йўқлиги ёки заифлашуви;

- нутқнинг эшитиш ахборотидаги нуқсон билан белгиланган нисбатан секин ва ўзига хос ривожланиши.

Нутқий ривожланишдаги нуқсоннинг оғирлик даражаси эшитишнинг пайдо бўлиш вақти ва унинг бузилганлик даражасига бевосита боғлиқ. Овоз дифференциатциясининг етарлича ривожланмаганлиги мазмуний бўлаклашнинг пасайишига олиб келади. Фонематик ривожланишдаги бузилишлар эшитиш-нутқий хотирада бузилишларнинг пайдо бўлишига кўмаклашади. Нутқий етишмовчилик бошқа билиш жараёнларининг ривожланишидаги ўзгаришлар, боланинг психик ривожланиши секинлашишига сабаб бўлади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-228-237

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Кар болалар учун махсус муассасалар ташкил этилади. Бундай муассасалар кар болаларнинг умумтаълим ва меҳнат тайёргарлиги, тарбияси, уларнинг ривожланишидаги бузилишларни коррекциялаш ва компенсатциялаш билан бир қатор вазифаларни ҳал этади. Мактаб таркиби 11 синфдан иборат, бундан ташқари 6 ёшли болалар учун тайёрлов синфи ҳам мавжуд. Одатда, бита синфда 12 тагача ўқувчи ўқийди. Коррекция ва ўқув-тарбия фаолиятида вербал нутқни ҳамда лисоний-мантиқий тафаккурни шакллантириш ва ривожлантириш, фаол нутқий амалиётни кенгайтириш, қолдиқли эшитишни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилади. Кар ва заиф эшитувчи болаларни ўқитиш тизимининг дидактик асоси предметли-амалий фаолият саналади ва умумий ҳамда нутқий ривожланиш, билиш фаоллиги, билим, кўникма ва малакаларни эгаллашда мустақиллик, онглиликнинг шаклланиши учун пойдевор саналади. Таълим жараёнига қўйиладиган асосий талаб – ривожлантирувчи, оғзаки нутқни эшитиб-кўриб ва эшитиб идрок этишни кўзда тутадиган, эшитиш-нутқ муҳитини яратиш.

Кар ва заиф эшитувчи болалар учун ихтисослаштирилган мактабгача ва мактаб-интернатлар тарбия, таълим ва меҳнат тайёргарлиги, эшитиш қобилиятининг пасайиши ва нутқий ривожланишдаги кечикишнинг оқибатларини бартараф қилишни амалга оширади. Болаларни фаол нутқий амалиётга, эшитиш идрокини ривожлантиришга ва лабдан, юзига қараб ўқиш кўникмаларини шакллантиришга максимал даражада рағбатлайдиган методлардан фойдаланилади. Мактаб-интернатлар болаларни 7 ёшдан қабул қилади. Эшитишида нуқсони бўлган болаларнинг меҳнат таълими 12 ёшдан бошланади ва таълим дастурида асосий ўринни эгаллайди. Кар ва заиф эшитувчи болалар билан даволаш-реабилитатция, санитар-гигиеник, маслаҳат ишлари олиб борилади. Ҳамма сай-ҳаракатлар қолдиқли эшитишни максимал сақлаб қолишга қаратилади.

Эшитишида нуқсони бўлган боланинг ақлий ривожланишда орқада қолишига асосий сабаб нутқ ривожланишининг бузилиши саналади. Муаммо қуйидагидан иборат: бола ўз овозини ва атрофдагилар нутқини эшитмайди, демак, тақлид қилолмайди. Нутқий нуқсонлар характери эшитиш қобилияти бузилишининг ифодаланганлиги ва эшитиш аномалиясининг пайдо бўлиш вақтига бевосита боғлиқ. Дифференциацияланган таълим тамойили айнан шу жиҳатларни ҳисобга олади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-228-237

Эшитишида нуқсони бўлган болаларнинг ижтимоий-маданий мослашиши кўпинча ҳиссий ва хулқий бузилишлар билан мураккаблашади. Кўп ҳолларда бундай болалар камгап, ўзи кабилар билан мулоқотни маъқул кўради, нуқсонларини билиб қолишларини оғриқли қабул қилади. Кар ёки заиф эшитувчининг нутқи миқдорий етишмовчилик ва сифат жиҳатидан ўзига хослик билан тавсифланади. Кўпинча сўзларнинг товуш-ҳарф таркиби бузилиши қайд этилади, чунки бола айрим товушларни илғай олмайди, бошқаларини нотўғри идрок этади, фақат урғули бўғинларни аниқ эшитади, сўз охирини, олд қўшимчаларни етарлича аниқ фарқламайди. Буларнинг ҳаммаси ўқув-тарбия ишларини имкон қадар эрта бошлаш заруратини келтириб чиқаради.

It is well known that the distribution of real variable functions in a trigonometric series Fure is well studied. Here we look at functions with matrix variables and the analog of the series Fure for functions with matrix arguments.

Keywords: complex number, matrix, unitary matrix, theorem Shur, diagonal, eigenvalue, series Fure, upper triangle matrix

Bizga $\mathbf{C}$ kompleks fazosi berilgan bo'lsin. $M_n(\mathbf{C})$ bilan barcha n tartibli matritsalar to'plamini belgilaymiz. Bu fazoda Shur teoremasiga ko'ra A, B matritsalar uchun shunday $T \in M_n(\mathbf{C})$ unitar matritsa mavjudki $B = T^{-1}AT$ tenglik bajariladi, bu yerda B yuqori uchburchak matritsa. Endi $q_i(x),\ i = 1,\ldots,n$ har biri $q_i(0) = 0$ shartni qanoatlantiradigan haqiqiy ko'phadlar bo'lsin. $\mathbf{C}(x)$ bilan ratsional kasrlarni belgilaymiz. $B \in M_n(\mathbf{C}(x))$ holni ko'rib chiqamiz.

Quyidagi diagonal matritsani qaraymiz:

$$d(q_i(x)) = \begin{pmatrix} q_1(x) & . & 0 \\ . & . & . \\ 0 & . & q_n(x) \end{pmatrix}$$

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-277-279

$B(q_i(x)) = B + d(q_i(x))$ ni qarasak bu matritsa ham $B(q_i(x)) \in M_n(\mathbf{C}(x))$ ga tegishli bo'ladi. $q_i(x)$ larni shunday tanlaymizki, $B_{ii} + d(q_i(x))$ elementlar turli bo'lsin. U holda $B(q_i(x))$ ning xos sonlari turli bo'ladi va $\exists S \in M_n(\mathbf{C}(x))$ teskarilanuvchi matritsa topilib u orqali $B(q_i(x))$ matritsani diagonal ko'rinishga keltirish mumkin.

$$S^{-1}B(q_i(x))S = \begin{pmatrix} B_{11} + q_1(x) & . & 0 \\ . & . & . \\ 0 & . & B_{nn} + q_n(x) \end{pmatrix} \quad (1)$$

Agar $x = 0$ desak bundan kelib chiqadiki (1) ni o'ng tomoni quyidagiga teng bo'ladi.

$$\begin{pmatrix} B_{11} & . & 0 \\ . & . & . \\ 0 & . & B_{nn} \end{pmatrix}$$

Bundan kelib chiqadiki, (1) ning chap tomoni ham $x = 0$ da yuqoridagiga teng bo'ladi.

U holda

$$B = B(q_i(x))|_{x=0} = S \begin{pmatrix} B_{11} + q_1(x) & . & 0 \\ . & . & . \\ 0 & . & B_{nn} + q_n(x) \end{pmatrix} S^{-1}|_{x=0} \quad (2)$$

Bu yerda $|_{x=0}$ bilan $x = 0$ ni qo'yishni belgilaymiz.

$A = TBT^{-1}$ va $T_1 = TS$ desak u holda quyidagi bo'ladi.

$$A = T_1 \begin{pmatrix} B_{11} + q_1(x) & . & 0 \\ . & . & . \\ 0 & . & B_{nn} + q_n(x) \end{pmatrix} T_1^{-1}|_{x=0} \quad (3)$$

Yoki uni x o'zgaruvchi bo'yicha quyidagi limit ko'rinishida yozish mumkin.

$$A = \lim_{x \to 0} T_1 \begin{pmatrix} B_{11} + q_1(x) & . & 0 \\ . & . & . \\ 0 & . & B_{nn} + q_n(x) \end{pmatrix} T_1^{-1} \quad (4)$$

$\lambda_1, \lambda_2, \ldots \lambda_s$ xos sonlarga ega A matritsa berilgan bo'lsin.

λ_k, $k = 1, \ldots s$ larning biror atrofida $m_k - 1$ tartibli hosilasi mavjud bo'lgan f skalyar funksiya qaraymiz. U holda $f(A)$ matritsa argumentli funksiya va

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-277-279

fiksirlangan x uchun uning atrofida $B_{ii}+q_i(x),\ i=1,...n$ aniqlangan hamda f matritsaviy funksiya uchun quyidagi tenglik o'rinli bo'ladi:

$$f(T_1\begin{pmatrix} B_{11}+q_1(x) & . & 0 \\ . & . & . \\ 0 & . & B_{nn}+q_n(x) \end{pmatrix}T_1^{-1}) = (T_1\begin{pmatrix} f(B_{11}+q_1(x)) & . & 0 \\ . & . & . \\ 0 & . & f(B_{nn}+q_n(x)) \end{pmatrix}T_1^{-1})$$

(4) tenglikdan kelib chiqadi

$$f(A)=\lim_{x\to 0} T_1\begin{pmatrix} f(B_{11}+q_1(x)) & . & 0 \\ . & . & . \\ 0 & . & f(B_{nn}+q_n(x)) \end{pmatrix}T_1^{-1} \qquad (5)$$

Teorema: Agar f haqiqiy o'zgaruvchili skalyar funksiya A matritsa xos sonlarining biror atrofida trigonometrik qatorga yoyilsa, bu atrofdagi hamma x lar uchun quyidagi tenglik o'rinli bo'lsa:

$$f(x)=\frac{a_0}{2}+\sum_{k=1}^{\infty} a_k\cos kx+b_k\sin kx$$

U holda quydagi tenglikni o'rinli bo'ladi:

$$f(A)=\frac{a_0}{2}I+\sum_{k=1}^{\infty} a_k\cos kA+b_k\sin kA$$

REFERENCES

1. Гантмахер Ф.Р. Теория матриц. М.: Наука. 1967. 576 с
2. Ланкастер П. Теория матриц. М.: Наука. 1978. 280 с
3. А. М. Тер-Крикоров Матричные функции и линейные дифференциальые уравнения. Москва 2014 .

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-280-283

ОИМ-ГОМЕОМОРФИЗМЫ И КВАЗИКОНФОРМНОСТЬ

Азизбек Тоир ўғли Утаев
Ассистент Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства Каршинский филиал

АННОТАЦИЯ

В этой статье показано, что если OIM-гомеоморфное отражение является переносом поля в поле, то это отражение будет квазиконформой и будет определен его коэффициент квазиконформность.

ABSTRACT

This article shows that if an OIM-homeomorphic reflection is a transfer of a field into a field, then this reflection will be a quasiconform and its quasiconformality coefficient will be determined.

ВВЕДЕНИЕ

Отображение пространства $\bar{R}^n$ полностью характеризуется соотношением между модулями семейств кривых Γ и модулями их образов Γ^*, наличие константы $K>0$, с которой для всех семейств Γ выполнено двойное неравенства

$$K^{-1}M(\Gamma)\le M(\Gamma^*)\le KM(\Gamma) \qquad (1)$$

Определяет $K-$квазиконформное отображение. В частности, если рассматривать ограничение $K-$квазиконформного отображения пространства $\bar{R}^n$ на некотором континиуме Σ, то для любой пары подконтиниумов $E,F\subset\Sigma$ двойное неравенства (1) выполняется для семейства Γ всех кривых в $\bar{R}^n$, соединяющих контениумы E и F. В качестве Γ^* рассматривается семейство всевозможных кривых в $\bar{R}^n$ соединяющих $f(E)$ и $f(F)$, Это позволяет рассмотреть класс гомеоморфных отображений континиума Σ в $\bar{R}^n$, для которых неравенство (1) выполняется при любом выборе подконтиниумов $E,F\subset\Sigma$. В этом классе, в частности, содержатся ограничения на Σ всех К-квазиконформных отображений пространства $\bar{R}^n$. Первоначальная идея рассмотрения гомеоморфизмов, определенных на континиумах и ограниченно

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-280-283

искажающих модули (ОИМ-гомеоморфизмы), принадлежит П.П. Белинскому. В работах [3], [5]. изучены ряд свойств ОИМ-гомеоморфизмов. Прежде всего возникает воирое о квазиконформносты ОИМ-гомеоморфизмов, то есть при каких областей определения Σ, заданные на них ОИМ-гомеоморфизмы являются квазиконформными, конечно весьма актуальным является зависимость коэффициента К при неравенства (1).

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Определение [5]. Гомеоморфное отображение $f:\Sigma\to\bar{R}^n$ связного подмножества $\Sigma\subset\bar{R}^n$ называется ограниченно искажающим модулем (или ОИМ-гомеоморфизмом), если имеется константа $K>0$ такая, что неравенство

$$K^{-1}M\left(E,F\right)\le M\left(f(E),f(F)\right)\le KM\left(E,F\right)$$

выполняется для любой пары непересекающихся континиумов $E,F\subset\Sigma$. Наименшая из всех таких констант К, называется коэффициентом искажения гомеоморфизма f.

Пусть $f:D\to D'$ гомеоморфизм пространственных областей. Тогда f является квазиконформным только в том случае, если величина

$$\left\{\limsup_{r\to 0}\frac{\max\limits_{|x-x_0|=r}|f(x)-f(x_0)|}{\min\limits_{|x-x_0|=r}|f(x)-f(x_0)|},x\in D\setminus\left\{\infty,f^{-1}(\infty)\right\}\right\}$$

ограничена [2].

Приводим некоторые свойства ОИМ-гомеоморфизмов.

Теорема 1 [4]. Если гомеоморфизм $f:\Sigma\to\Sigma^*$ поверхностей класса C^1 в $\bar{R}^n$ является ОИМ-гомеоморфизмом с коэффициентом искажения Q, то он является $K-$квазиконформным с $K\le Q$.

Определение [5]. Парой называется объект вида $<\Sigma,U>$, где $U\subset\bar{R}^n$ является окрестностью континиума $\Sigma\subset\bar{R}^n$. Гомеоморфизм $f:\Sigma\to\Sigma^*$ называется ОИМ-гомеоморфизмом пары $<\Sigma,U>$ на пары $<\Sigma^*,U^*>$ если он удовлетворяет следующему условию: существует константа $Q>0$, такая, что для любых непересекающихся компактных континуумов $E,F\subset\Sigma$ и их образов $E^*,F^*\subset\Sigma^*$ выполняется оценка

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-280-283

$$Q^{-1}M\left(E,F;U\right)\le M\left(E^*,F^*;U^*\right)\le QM\left(E,F;U\right).$$

Пары $<\Sigma,U>$ и $<\Sigma^*,U^*>$ называются квазиконформно эквивалентным, если существует ОИМ-гомеоморфизм $f:<\Sigma,U>\to<\Sigma^*,U^*>$.

Теорема [5]. Если Σ-компактный континиум в области $U\subset\bar{R}^n$, то тождественное отображение $i:\Sigma\to\Sigma^*$ осуществляет ОИМ-гомеоморфизм пар $i:<\Sigma,U>\to<\Sigma^*,\bar{R}^n>$.

Следствие [5]. Пусть континуум Σ и Σ^* компактны соответственно в области U и U^*. Пары $<\Sigma,U>$ и $<\Sigma^*,U^*>$ квазиконформно эквивалентны тогда и только тогда, когда квазиконформно эквивалентны пары $<\Sigma,\bar{R}^n>$ и $<\Sigma^*,\bar{R}^n>$.

Это утверждение позволяет при изучение ОИМ-гомеоморфизмов не обращать внимание на объемлющее области U и U^*, если нас не интересует фактическая величина константы Q в определении ОИМ-гомеоморфизма.

В настоящей работе изучается свойства квазиконформности ОИМ-гомеоморфизма при отсуствие гладкости области определения. Для простоты приводим утверждение в случае $n=3$. Имеет место следующая.

Теорема. Если гомеоморфизм $f:\Sigma\to\Sigma^*$ поверхностей в $\bar{R}^n$ является ОИМ-гомеоморфизмом с коэффициентом искажения Q, то он является квазиконформным.

Доказательства. Пусть

$$B^3(x_0,r) \text{ есть шар } \left\{x\in R^3:\left|x-x_0\right|\le r\right\}$$

$$B^3(r)=B^3(0,r),\ B^3=B^3(0,1)$$

$$S^2(x_0,r) \text{ есть сфера } \left\{x\in R^3:\left|x-x_0\right|=r\right\}$$

$$S^2(r)=S^2(0,r),\ S^2(0,1)$$

Предположил, что $0\in\Sigma$, $f(0)\in\Sigma^*$. Для $0<r<1$, рассмотрим сферу S^2.

Пусть

$$M=\max_{|x-x_0|=r}\left|f(x)-f(x_0)\right|,$$

$$m=\min_{|x-x_0|=r}\left|f(x)-f(x_0)\right|.$$

Рассмотрим величину

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-280-283

$$L(r)=\frac{\max\limits_{|x-x_0|=r}|f(x)-f(x_0)|}{\min\limits_{|x-x_0|=r}|f(x)-f(x_0)|}$$

и оценим её сверху

Обозначаем через S_1 и S_2 – прообразы сфер $S^2(f(0),M)$ и $S^2(f(0),m)$ соответственно и $E=\text{ext}S_1$, $F=\text{int}\,S_2$ на Σ.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Если γ_1 есть континиум, соединяющий о со сферой $S^2(0,r)$, γ_2 – континиум, соединяющий $S^2(0,r)$ с бесконечно удаленной точной, то имеет место следующее неравенство

$$M\left(E,F;R^3\right)\geq M\left(\gamma_1,\gamma_2;R^3\right)\geq a(3). \qquad (2)$$

Следовательно

$$\overline{\lim_{r\to 0}}L(r)\leq \exp\left\{\left[\frac{4Q\pi}{a(3)}\right]^{\frac{1}{2}}\right\},$$

и f является квазиконформным отображением.

REFERENCES

1. Сычев А. В. Модули и пространственные квазиконформные отображения,- Новосибирск «Наука». 1983., с. 152.
2. David B. Gauld and M. K. Vamanamurthy. Quasiconformal extensions of mappings in n-space. Ann. Acad. Sci. Fenn. SerAI, 1977. V. 3. P. 229-248.
3. Варисов А. К. О продолжении пространственных квазиконформных отображений. Докл. АН СССР. Издательство «наука». Москва. 1977. Том 234. № 4.стр. 740-742.
4. Асеев В. В. Ворисов А. К. Об одном признаке квазиконформности отображений гладких поверхностей. Докл. АН СССР. Издательство «наука». Москва. 1977. Том 234. № 5. Стр. 1001-1003.
5. Асеев В. В. О гомеоморфизмах, ограниченно искажающих модули в объемлющем пространстве. Теория отображений, ее обобщения и приложения. Сб. научных трудов. Киев, Наукова думка 1982,стр. 9-18.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-284-288

ИСЛОМ ДИНИНИНГ БАҒРИКЕНГЛИК ТАМОЙИЛЛАРИ

М. З. Раджапова
Андижон давлат университети катта ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада ислом динида мавжуд толерантлик қарашлари қисқача кўриб чиқилади.

Калит сўзлар: дин, ислом, толерантлик, эътиқод, руҳ, қалб.

КИРИШ

Инсоният янги минг йилликка қадам қўйди ва ўтган XX аср илм-фан,техника юксак даражда ривожланган аср бўлиб тарихга кирди.Лекин,шундай моддий тараққиёт ва улуғ илмий кашфиётлар нега инсониятга бахт- саодат олиб келмади? Бир томонда гиёҳвандлик,яна бир томонда яна бир томонда экстремизм,яна бир тарафда эса баччавозлик ва ҳ. Бундай инсониятни кемириб келаётган салбий иллатларни санаб адоғига етмайсан,киши.Инсонинг фаровон ҳаёти,чиройли кийимлар-у бир-биридан лаззатли таомлар зиёдалашган сари руҳий изтироб вақалб безовталиги ортиб боради.Масаланинг асл моҳияти ана шу изтироб ва безовталикнинг туб илдизлари динни мағлуб этиб,моддий асосларга суянганликдадир.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Динни жамият ҳаётидан батамом сиқиб чиқариб қўйганликдадир.Ҳозир бутун инсониятнинг(муболаға бўлмайди албатта)мутлақ кўпчилиги йўқотган,ундан мосуво бўлган диний руҳониятини топиш истагида.Моддий ҳфётнинг энг юқори чўққиси ҳам инсонларни тўла тўкис бахтли қилолмади.,,Одамларнинг яшаш шароити яхшиланиб,турмуши фаравонлашганига қарамай,уларнинг руҳий олами қашоққлашиб кетди,қалблардан эътиқод ҳаловати йўқолди,ахлоқ бутунлай издан чиқди.”[1.6.б] Қалб тасаллиси,руҳий хотиржамлик инсон соф диний эътиқоддаги таълимотни билишидадир.Бугунги кунда ислом динига нисбатан бутун дунёда қизиқиш ва интилиш кучайиб,унинг ҳайрихоҳ тарафдорлари кўпайиб бораётгани ҳеч кимга сир эмас.Бунинг асосий сабаби-муқаддас динимизнинг хаққонийлиги ва поклиги,инсонпарварлиги ва

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-284-288

бағрикенглиги,одамзотни доимо эзгуликка чорлаши,ҳаёт синовларида ўзини оқлаган қадрият ва анъаналарни аждодлардан авлодларга етказишдаги беқиёс ўрни ва аҳамияти билан боғлиқ.Муқаддас илоҳий китоб-Қуръони Карим ўзида жам қилган мавзулар кўлами ва мазмун мундарижасини муфассал ўрганиб чиқишга бор салоҳиятини ишга солса ҳам бани одам ожизлик қилади.,,Алмул Худо”[2] имом Мотуридий,,соф диний эътиқоддаги маълумотни билиш,аслида,осон иш эмас”эканлигини уқтиради.Илм-фаннинг турли соҳаларида буюк кашфиётлар яратган аждодларимиз ислом илмларида ҳам пешқадам бўлишган.Ислом тараққиёти,ислом тамаддуни,ислом маданияти ҳам инсоният цивилизациясининг бир бўлагидир.Ҳамма цивилизациялар сингари ислом цивилизациясининг ҳам пайдо бўлиш омиллари,кўтарилиши ва юксалиши,ҳамда таназзули сабаблари бор.Ислом цивилизацияси ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб,улар қуйидагилардир:

Ақидада мутлақ ваҳдоният асосида барпо бўлган.

Ирқ,насаб,ватанидан қатъий назар инсон қавмининг ягоналиги.

Буюк ва юксак ахлоқий асосларга таянади.

Илмда соф ақидага таянишдир.

Диний эркинлик ва бағрикенглик.

Ақидада мутлақ ваҳдоният асосига барпо бўлган,ҳукмда-ю,мулкда шериксиз ягона Илоҳга даъват қилган биринчи ҳазорадир.,,Имомул Мутакаллимийн”нинг ,,Китоб ат-тавҳид”асари ислом цивилизациясининг биринчи хусусиятига бағишланади.Манбаларда,,Китоб ат-тавҳид”илк калом таълимотини ўрганишда муҳим аҳамият касб этади,деб баҳоланади.Илоҳнинг ўзигагина ибодат қилинади ва ,,Сенгагина ибодат қиламиз ва Сендангина ёрдам сўраймиз” калимасида кўзда тутилган зот ҳам Унинг ўзидир.Осмону ердаги борлиқ Унинг қудрати остидадир.Бергувчи ҳам,олувчи ҳам ўзи,азиз ва хор қилгувчи ҳам Унинг ўзидир,деган ғояни илгари суради.[1.б.10]

,,Эй одамлар!Биз сизларни бир эркак бир аёлдан яратдик ва сизларни ўзаро танишишинггиз учун халқлар ва қабилалар қилиб қўйдик.Албатта,Аллоҳ билувчи ва хабардор зотдир”(Ҳужорот сураси 13-оят)[3.б.558]

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ҳар бир миллат ўз олиму фузалолари билан фахрланса,мусулмон тараққиёти эса барча миллат ва элатлардан иборат умумий оиладан чиққан даҳо ва истеъдод эгалари билан ифтихор этади.Абу

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-284-288

Ханифа,Молик,Шофеъий,Киндий,Ғаззолий,Форобий,ибн Сино,ибн Рушд,Мотуридий,Ашъарий,Румий,Навоий ва б.

Мусулмон умматига мансуб олимлар ҳам,мақтанишни,мақташни ҳам ўзларига эп кўришмаган,лекин жаҳон цивилизацияси ривожида мусулмонлардан етишиб чиққан алломаларнинг хизматлари беқиёсдир.

Уруш,тинчлик,илм,қонун,ҳукм,иқтисод,оила жамиятнинг ҳар соҳасида инсон манфаатини ахлоқий қонунларига риоя қилинди.

Мисол учун,салиб урушлари мусулмон олами бошига жуда кўп бало-офатлар келишига сабаб бўлди.Икки юз йил давом этган урушлар сабабидан мусулмон олами мисли кўрилмаган катта зарар тортди.Аммо мусулмон халқлар ҳукамолар ва уламолар раҳбарлигида бошларига ткшган бу мусибатларнинг сабабларини ўргандилар ва уни бартараф этиш чораларини кўрдилар.Аллоҳ таолодан ёрдам сўраган холда ҳаракат қилиб,яхши натижаларга эришдилар.

Ундан кейинги катта мусибат мўғул босқинилари томонидан бўлди.Дастлаб мусулмонлар гангиб қолдилар. Улар орасида, мўғулларни қиёмат қоим яқин қолганда чиқадиган яъжуж ва маъжужлар, деб ҳаёл қилганлар ҳам бўлган.Аммо бу сафар ҳам мусулмон олами аста-секин ўзига кела бошлади...Аллоҳ таолодан ёрдам сўраган холда ҳаракат қилдилар ва яхши натижаларга эришдилар.

Мусулмон оламининг бошига тушган учинчи катта мусибат мустамлакачилик бўлди...бу сафарги мусибат аввалги икки мусибатдан кам бўлмади...Аллоҳ таолодан ёрдам сўрадилар,ҳаракат қилдилар ва яхши натижаларга эришдилар.

Мусулмон олами ҳозирда бошидан кечириб турган мусибатлар ҳам зини билган ҳар биршахс учун жуда катта мусибатдир.Бу мусибатнинг асосий айбдорларидан бири мусулмонларнинг ўзларидан бемаъни тоифалардир,десак муболаға қилмаган бўламиз.Мазкур тоифалар қўзғаган ва олиб бораётган жоҳилона ҳаракатлар оқибатида бутун мусулмон олами жафо чекмоқда.

...Жумладан,охирги пайтда мусулмонлар бошига тушаётган мусибатларга сабаб бўлаётган тоифаларга қарши баъзи мусулмон уламолар,,о чиқ хат” билан чиқдилар.Бу хат муаммони ҳал қилиш бўйича кўрилаётган,кўпчиликка яхши таъсир қилган чоралардан бири бўлди.[4.б.4-5]

Илмнинг чин манбаи ва ақиданинг соф асосига таянишдир.У ақл ва қалбга баробар хитоб қилади.Бир вақтнинг ўзида ҳам фикр,ҳам туйғуни қўзғайди.[1.б.12]

,,Имомул Худо” Мотуридий шундай сўзларни айтади:,,Улар тафаккур ва тадқиқ билан қарасалар эди,Аллоҳ таоло ҳам бандаларини тафаккур ва

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-284-288

тадқиқот,ибрат ва тажриба билан иш қилишга буюрганини тушунар эдилар,ибрат ва тафаккур эса илм манбаларидан биридир”.[5.б.5]

Мотуридий таълимотининг мағзи-маълумотларни қабул қилишда ақл билан нақл[6.]ни қўшиб фойдаланишнинг зарурлигидир.Бу таълимот ислом илоҳиёт мактабининг ривожланишига улкан улуш қўшди,илоҳиёт илмлари тўла шаклланиб,такомилига етишида уларни қайта ишлаб чиқиб,маълум тизимга солди.

Ислом цивилизациясининг хусусиятларидан ўзига хослиги-ажойиб диний эркинлик бўлиб,дин устига қурилган бирон –бир цвилизация бундай эркинликни билмайди.

Тарихда ягона цивилизация дин устига қурилган ва унинг қоидалари дин асосларига бино бўлгани,сўнгра у энг эркин,энг адолатли,энг раҳмдил,энг инсоний ҳазора сифатидақолгани қандай ажойиб.[1.б.13]

Ислом цивилизацияси жаҳон ҳайратини қўзғади,жинси ва динидан қатъий назар эркин ва закий кишиларнинг қалб тўридан жой олди.

Дарҳақиқат,ислом тараққиёти инсоний ривожланиш тарихида муҳим роль ўйнаган.Ислом цивилизацияси ақида,илм,ҳукм,фалсафа,санъат.адабиёт ва бошқа майдонларда ўзидан кейинги цивилизациялар ета олмаган чўққиларга кўтарилди.

Ғарб айниқса,Европа фалсафани,хусусан юнон фалсафасини фақатгина исломий -мусулмон олимлари шарҳлари ва таржималари орқали таниди.Шунинг учун инсофли ғарблик олимлар мусулмонлар Европанинг устози бўлган деб эътироф этадилар.

Европа фалсафа,тиб,риёзиёт,кимё,жуҳрофия ва фалакшунослик илмларини асосини мусулмонлардан олди.Бир сўз билан айтганда Европа Ислом оламининг олим ва файласуфларининг овозидан уйғонди.Имом Ғаззолий,Абу Наср Форобий,ибн Рушд,ибн Сино,Мусо Хоразмий,Абдуллоҳ Хоразмий,Ҳасан ибн Ҳайсам ва б.

Европа адабиёт намояндалари ҳам араб адабиёти ва тасаввуф аҳли ижодидан илҳом олганлар ва унинг таъсирида бўлганлр.

Ғарб олимлари тасаввуф тариқатлрига муносабатда ҳудудий,миллий ва мазҳабий таснифларни илгари сурганлар.(Джорж Тремингэм,Е.Э.Бертельс) Лекин тасаввуф давомли суратда ривожланиб борди.Тасаввуф,бир томондан,дин ва шариат,иккинчи томондан,фалсафа ва ҳикмат илми билан боғлиқ холда ривожланди.(Фариддин Аттор,Жалолиддин Румий,ибн

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-284-288

Арабий,Форобий,ибн Сино,ибн Рушд,Умар Ҳайём,Азизиддин Насафий,Абдураҳмон Жомий,Баҳоуддин Нақшбанд,Нажмиддин Кубро ва б.)

ХУЛОСА

Эрон олими Муҳаммад Тақи Жаъфарий ўзининг,,Мавлави ва Шарқу Ғарб мактабларидаги дунё қарашлар" номли китобида кўпдан-кўп мисоллар қиёси билан исботлаганки,------Жалолиддин Румий,,Маснавий маънавий"номли олти дафтардан иборат муҳташам асари бутун бир фалсафий қомусдир.

Румийнинг биринчи бўлиб яратган оламнинг заррадан коинот қадар ўзаро боғлиқ,ҳамда диалектик тараққиёти ҳақида фикрларини бир неча асрдан кейин Гегель томонидан ривожлантирилди.Бундай мисолларни кўплаб келтиришимиз мумкин.

REFERENCES

1.Аҳмад Муҳаммад,Мубашшир Аҳмад Ислом ҳазораси Т.,2004
2.Аламул Худа-Ҳидоят бароғи
3.Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф Тафсири Ҳилол 5-жуз,Т.,2007
4.Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф Очиқ хат Т.,2015
5.Зиёдов Ш.Абу Мансур Мотуридий Т.,2012
6.Қуръон ва хадис назарда тутилмоқда.
7.Комилов Н.Тасаввуф(иккинчи китоб) Тавҳид асрори Т.,1999

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-289-292

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ

Мухайё Салимовна Валиева
Преподаватель Кокандского ГПИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы применения инновационных методов в обучении, в частности ,методика развития критического мышления.

Ключевые слова: критическое мышление, направленное мышление, ТРКМЧП, инновационные приемы.

ABSTRACT

This article discusses the use of innovative methods in training, in particular, the methodology for the development of critical thinking.

Keywords: critical thinking, directional thinking, TRKMCP, innovative techniques.

ВВЕДЕНИЕ

В настоящее время, когда приоритетным направлением обучению выбрано личностно- ориентиранное обучение, перед нами стоит цель сделать его содержательным и практическим, доступным и интересным. Проблема формирования критического мышления стала актуальной зарубежом в последние 20-25 лет. Среди исследователей, которые занимаются этой проблемой с философской, психологической и педагогической точек зрения можно отметить таких, как Д.Халперн, Д. Клустер, Дж. Стил, К.Меридит, Ч. Темпл и др. Лишь в последние 10-15 лет она привлекла внимание отечественных ученых с точки зрения необходимости и возможности формирования критического мышления обучающихся, студентов и педагогов, хотя исследования по формированию критического мышления школьников были начаты еще в 70-е годы прошлого столетия и возобновлены лишь в конце 90-х годов [11, с.5].

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Термин «критическое мышление» известен очень давно из работ таких известных психологов, как Ж. Пиаже, Дж. Брунер, Л. С. Выготский. Но в образовании Узбекистана его стали употреблять сравнительно недавно.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-289-292

Критическое мышление – это открытое мышление, не принимающее догм, развивающееся путем наложения новой информации на жизненный личный опыт [12,с.5]. Критическое мышление иногда называют направленным мышлением, поскольку оно направлено на получение желаемого результата.

При традиционной системе обучения целью выступало формирование у детей азов грамотности, когда учитель показывает и объясняет, а ученик – запоминает и повторяет; а общение на уроке, как правило, было фронтальное. ТРКМЧП меняет деятельность ученика, привыкшего к получению готовых знаний, подчинению, послушанию, монотонной работе на уроке, а значит, меняет и его смысловые установки. При использовании ТРКМЧП учащиеся являются субъектами при определении целей учебной работы, критериев оценки ее результатов; у детей есть возможность исправления, редактирования работ. Такие уроки дают учащимся возможность проявить себя, показать свое видение предложенных тем и проблем, дают большую свободу творческого поиска.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Базовая модель технологии вписывается в урок и состоит из трёх этапов (стадий): стадии вызова, стадии осмысления и стадии рефлексии.

На стадии вызова принимаются все версии. Студент ставит перед собой вопрос «что я знаю по данной проблеме», формируется представление о том,чего же он хочет узнать. В процессе работы студент пишет всё, что он знает по теме. При обсуждении мнения не критикуются.Здесь приемлимы такие методы как, «мозговая атака», «кластер», «корзина идей» и т.д.

На второй стадии- стадии осмысления преподаватель даёт возможность отследить процесс новых идей, то есть студенту приходится работать с книгой, с текстом. С помощью таких приёмов как «инсерт», «ведение двойных дневников», «ведение бортовых журналов» он работает с текстом как активный и думающий читатель.

На стадии рефлексии можно применить такие приёмы, как «синквейн», «эссе», «диаманта». Таблицы, схемы становятся основой для дальнейшей работы: обмена мнениями, эссе, исследований, дискуссий и т.д.

Применение инновационных приемов и методов положительно влияет не только на процесс усвоения студентами знаний, но также и на общее развитие личности студента, развитие его интеллектуальных способностей и

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-289-292

коммуникативных умений, формирование информационной культуры, развитие критического мышления, что отвечает современным требованиям образования. Интерактивные методы обучения позволяют активизировать и использовать громадный образовательный потенциал обучающихся, внести в учебный процесс элементы состязательности и использовать свойство синергии, присущее позитивно функционирующим системам: интеллектуальная сила группы обучающихся больше суммы сил ее членов (т.е. групповой результат всегда выше, чем сумма индивидуальных результатов).

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Таким образом, все активные и интерактивные методы обучения призваны развивать критическое мышление, основанное на анализе ситуации, построению логической цепочки и принятию взвешенного и аргументированного решения. Целью внедрения данных методов является развитие критического мышления учащихся всех возрастов независимо от изучаемого предмета.

REFERENCES:

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Ташкент 2005 г.
2. Пашковская И.Н.Разработка и внедрение инновационных образовательных технологий в образовательный процесс при введении в действие новых ФГОС ВПО.Методические рекомендации для профессорско-преподавательского состава/ И.Н. Пашковская, Н.И. Королева**.–** СП.: Изд-во СПбГУСЭ, 2011.
3. Ахмедова Л.Т., Лагай Е.А., Современные технологии преподавания русского языка и литературы.-Ташкент-2016.
4. Бершадский М., О методе интеллект-карт. М.:Просвещение, 2009.
5. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход: Метод. Пособие.— М.: Высш. шк., 1991.
6. Жук А.И. Деятельностный подход в повышении квалификации: активные методы обучения: учеб, пособие.
7. Использование информационной технологии в учебном процессе /Отв. ред. Н. И. Шкиль. - Киев, 2003
8. Смолкин А.М. Методы активного обучения: Науч.-метод. пособие.— М.: Высш. шк., 1991.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-289-292

9. Смолкин А.М. Методы активного обучения: науч.-метод. пособие: Высш. шк., 2001.
10. Тони Бьюзен. Думайте эффективно - Попурри, 2006 г.
11. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М., 1985.
12. Э.Г. Азимов, А.Н. Щукин – «Словарь методических терминов» - Санкт-Петербург; 1999.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-293-301

САЙЛОВ ЖАРАЁНЛАРИГА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ- КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ

О. Каримжонов
ТАТУ Ахборот хавфсизлиги магистранти
oybek.karimjanov13@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада мамлакатимизда демократик тамойилларнинг амалдаги ифодаси бўлган сайлов жараёнларини ташкил этиш, уларни адолатли ва шаффоф ўтказилишини таъминлашда ахборот коммуникация технологияларини қўллашнинг ва замонавий усулларни жорий этишнинг ўзига хос тенденциялари ҳамда илғор инновацияларни қўллашнинг зарурияти ва ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: Сайлов кодекси, халқаро сайлов тамойиллари, сайлов участкаси, ахборот-коммуникация технологиялари, ахборот тизими, электрон рўйхат, махсус вебпартал, оммавий ахборот воситалари.

ABSTRACT

The article discusses specific trends in the use of information and communication technologies and the introduction of modern methods in the organization of electoral processes in our country, which are a practical expression of democratic principles that ensure their fair and transparent conduct, as well as the need and improvement of the legal framework.

Keywords: Election Code, international election principles, polling station, information and communication technologies, information system, electronic list, special web portal, media.

КИРИШ

Демократик тараққиёт йўлидан дадил одимлаётган Мустақил Ўзбекистоннинг энг улуғ мақсади, аввало, халқимизнинг манфаатлари кўзланган буюк ислоҳотларни амалга оширишдир. Мамлакатимиз миллий тараққиётининг янги босқичини бошлаб берган Ҳаракатлар стратегиясининг мазмун-моҳияти замирида ҳам, давлатимиз мустақиллиги ва суверенитетини,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-293-301

юртимиз тинчлиги ва сарҳадларимиз даҳлсизлигини, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик муҳитини янада мустаҳкамлаш, халқимиз турмуш фаровонлигини ошириш, жамиятда қонун устуворлигини ва адолатли бошқарув тизимини вужудга келтириш каби инсонпарвар мақсадлар мужассам.

Ривожланган мамлакатларда сайлов жараёнларида замонавий ахборот технологиялари имкониятларидан самарали фойдаланилиши сайловнинг очиқлиги ва ошкоралигини таъминлашнинг асосий омили сифатида қаралмоқда. Таъкидлаш жоизки, бугунга келиб замонавий ахборот технологияларининг сайлов жараёнига таъсири ҳам сезиларли даражада ошди. Сўнгги йилларда сайлов амалиётида ахборот-коммуникация технологияларининг янги имкониятларидан фойдаланиш бўйича муайян тажриба тўпланди. Бу фуқаролар сайлов ҳуқуқларининг Ўзбекистон Конституцияси ва миллий қонунчиликка, халқаро сайлов стандартларига мувофиқ, амалда таъминланишига замин яратмоқда.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Мамнуният билан қайд этиш лозим, 2021 йил 24 октябрь янгиланиб, яшариб, демократик тараққиётининг янги саҳифаларини очиб, шиддатли инсонпарвар ислоҳотларни амалга ошириб дунё ҳамжамиятига уйғунлашиб бораётган янги Ўзбекистонимиз ижтимоий-сиёсий хаётида сўзсиз тарихий ахамиятга молик сана сифатида мухрланиб қолади.

Бу борада, Президентимиз Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан 2019 йил 25 июнда қабул қилинган ва яқинда кучга кирган Ўзбекистон Республикасининг Сайлов кодекси бу борада мустаҳкам ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилади.

Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг 2017-2021 йилларга мўлжалланган бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида мамлакатимизда мустақиллик йилларида амалга оширилган кенг кўламли ислоҳотлар миллий давлатчилик ва суверенитетни мустаҳкамлаш, хавфсизлик ва ҳуқуқ-тартиботни, давлатимиз чегаралари дахлсизлигини, жамиятда қонун устуворлигини, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик муҳитини таъминлаш учун муҳим пойдевор бўлди, халқимизнинг муносиб ҳаёт кечириши, фуқароларимизнинг бунёдкорлик салоҳиятини рўёбга чиқариш учун зарур шарт-шароитлар яратилганлиги эътироф этилган.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-293-301

Мамлакатимизда сайлов жараёнларини сифатли ташкил этиш ва ўтказишда харажатларни оптималлаштириш ҳамда шаффоф тезкор тўлиқ маълумотлар базаларини яратиш борасида кўплаб меъёрий ҳужжатлар қабул қилинди.

Хусусан, замонавий АКТни татбиқ этиш орқали сайлов жараёнини ислоҳ қилиш Ҳаракатлар стратегиясини 2018 йилда амалга оширишга доир давлат дастурида кўзда тутилган эди. Бу ҳужжатда замонавий АКТ кенг жорий этилиши мамлакатдаги сайлов жараёнини янада такомиллаштиришнинг энг муҳим йўналишларидан бири сифатида белгилаб берилди.

Таъкидлаш жоизки, сайлов жараёнларига ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш борасида жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 октябрдаги “Сайлов жараёнига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3961-сон қарори, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 августдаги “Ўзбекистон Республикаси сайловчиларининг ягона электрон рўйхатини шакллантириш ва юритиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 630-сон қарори, Ўзбекистон Республикаси марказий сайлов комиссиясининг 2021 йил 9 августдаги “Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловини ўтказувчи сайлов округларини тузиш тўғрисида”ги қарорларининг қабул қилиниши ҳуқуқий базанинг муҳим таркибий қисми бўлиб муҳим аҳамият касб этади.

Шунингдек, юқорида келтирилган меъёрий ҳуқуқий ҳужжатларда сайлов жараёнини ривожлантиришнинг устувор вазифалари билан бирга, ушбу соҳада АКТдан кенг фойдаланиш, ахборот хавфсизлигини таъминлаш борасида энг муҳим вазифалар белгилаб берилган.

Таъкидлаш жоизки, АКТни кенг жорий этиш йўли билан миллий сайлов жараёнини янада такомиллаштиришга қаратилган биринчи қадам сифатида Ўзбекистонда 2017 йили сайловчиларнинг ягона электрон рўйхатини шакллантириш борасида ишлар бошланди. Бунда Вазирлар Маҳкамасининг қарори билан “Ўзбекистон Республикаси сайловчиларининг ягона электрон рўйхатини шакллантириш ва юритиш тўғрисида”ги низом тасдиқланган эди. Мазкур ахборот тизими 2017 йил декабрь ойида Тошкент шаҳар халқ депутатлари кенгашига сайловларда синовдан ўтказилди ҳамда у хорижий ва маҳаллий мутахассислар томонидан ижобий баҳоланди. Эндиликда ушбу йўналишдаги энг муҳим вазифа – сайлов жараёнини бошқариш ахборот

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-293-301

тизимини жорий этиш, бутун мамлакат бўйлаб сайловчиларнинг ягона электрон рўйхатини шакллантириш ва такомиллаштиришдан иборат бўлди.

Ҳозирда миллий сайлов жараёнида замонавий АКТ кенг кўламда қўлланилмоқда. Сайлов жараёнини бошқариш ахборот тизими (кейинги ўринларда СЖБАТ юритилади), сайловчиларнинг ягона электрон рўйхати (кейинги ўринларда СЯЭР юритилади), сайлов жараёнларини видеокузатув, интерактив хизматларга эга бўлган Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг расмий веб-сайти (масалан, “Ўзингизни сайловчилар рўйхатидан топинг”, “Сайлов участкасини аниқлаш ва ўзгартириш” ва бошқалар) ва “Sailov2021” махсус вебпортали, электрон почта, махсус телеграм бот, фейсбук, инстаграм, ютуб ва твиттердаги тезкор хабарлар, сайлов комиссиялари аъзолари тезкор фойдаланиши учун махсус мобил иловалар шулар жумласидандир. Яратилаётган бундай кенг имкониятлар сайлов жараёни самарадорлигини оширишга хизмат қилаётир.

Айни пайтда мазкур соҳадаги ислоҳотларни амалга ошириш энг муҳим вазифалардан бири сифатида белгилаб олинди ва қатор ҳужжатлар қабул қилинди.

Ушбу жараёнга Марказий сайлов комиссияси томонидан умумий раҳбарликни ва мувофиқлаштиришни амалга ошириш, Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожланитириш вазирлиги ягона технологик ёндашувларни амаамалга ошириши, Ер ресурслари, геодезия, картография ва давлат кадастри давлат қўмитаси реестрларни юритиш ва “UNICON.UZ” — “Фан-техника ва маркетинг тадқиқотлари” маркази давлат унитар корхонаси ушбу тизимни яратиш ва унга техник хизмат кўрсатиш вазифаларини амалга ошириш мақсадида жалб этилган.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Сайловчиларнинг ягона электрон рўйхатини шакллантириш ва ундан сайловда сайловчиларнинг электрон рўйхатини тузиш, аниқлаштириш ва улардан фойдаланиш тартиби Марказий сайлов комиссиясининг “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатасига, халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар кенгашларига сайлов ўтказувчи участка сайлов комиссияларининг фаолияти тартиби тўғрисида”ги Низомида ҳам ўз аксини топган. Шунингдек, фуқаролар сайлов ҳуқуқларининг тўлиқ амалга оширилишини таъминлаш ва бир-неча бор овоз беришнинг олдини олишга

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-293-301

қаратилган “Сайловчиларнинг ягона электрон рўйхатидан фойдаланишнинг айрим масалалари тўғрисида”ги Марказий сайлов комиссиясининг махсус қарори қабул қилинди.

Сайлов жараёнига ахборот коммуникация технологияларини татбиқ этиш бўйича кўрилган амалий чора-тадбирлар қаторида қуйидагиларни алоҳида кўрсатиш мумкин:

- СЯЭРни шакллантириш доирасида 2018 йилнинг ноябридан 2019 йилнинг апрель ойига қадар уйма-уй юришлар орқали аҳолини рўйхатга киритиш ташкиллаштирилди. Фуқароларнинг паспорт маълумотлари етти миллионга яқин кўчмас мулк объектлари кадастр рақамига бириктирилди. Натижада 20,5 миллиондан ортиқ сайловчидан ташкил топган СЯЭР шакллантирилди ва улар сайлов участкаларига автоматик равишда тақсимланди;

- сайлов кампанияси даврида участка сайлов комиссиялари томонидан яна бир марта уйма-уй юрилиб сайловчилар рўйхати аниқлаштирилди. Сайловлар давомида ташкил этилган барча 6720 сайлов округи ва 10260 сайлов участкаси СЯЭР билан ишлаш учун интернет тармоғига уланди. Мавжуд телекоммуникация тармоғи орқали интернет хизматларини кўрсатишнинг техник имконияти мавжуд бўлмаган олис ва тоғли ҳудудларда жойлашган 40 га яқин сайлов участкаси интернет тармоғига сунъий йўлдош алоқа тизими орқали уланди;

- 60 та сайлов участкасига 120 та видеокузатув камералари трансляцияси МСКнинг халқаро матбуот марказида ва веб-сайтида, шунингдек, “O‘zbekiston-24” телеканалида намойиш қилиниши орқали сайлов жараёнларини реал вақт режимида тўғридан-тўғри кузатиб бориш имконияти яратилди;

- тажриба тариқасида 20 та сайлов участкасида сайловчилар паспортларининг биометрик маълумотларини идентификация қилувчи 60 та мослама ўрнатилди, ушбу ахборот тизимида Олий Мажлис аъзолари, вилоят ва туман (шаҳар) сайлов округлари, сайлов участкалари тўғрисидаги маълумотлар тўпланди. Марказий сайлов комиссияси веб-сайтида “Ўзингизни сайловчилар рўйхатидан топинг” хизмати ишга туширилди, ундан 110 мингдан ортиқ фуқаро сайлов кампанияси давомида фойдаланди.

Ўзбекистонда жорий йилнинг 24 октябр кунида бўлиб ўтадиган президент сайловини ўтказиш бўйича округ сайлов комиссияларининг

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-293-301

қарорларига асосан республика бўйича жами 10760 та сайлов участкаси тузилди. Сайлов участкаларининг асосий қисми таълим муассасаларининг биноларида жойлашган (1-жадвал).

Президент сайловини ўтказиш бўйича сайлов участкаларининг тақсимоти*

/р	Сайлов участкалари белгиланган жой	Сайлов участкалари сони
	Таълим муассасаларида	7346
	Маҳаллалар биноларида	573
	Тиббиёт муассасаларида	452
	Маданият ва спорт марказларида	322
	Ишлаб чиқариш корхоналарида	206
	Давлат хизматлари агентлиги биноларида	93
	Санаторийларда	33
	Савдо марказларида	16
	Ҳарбий қисмларда	145
0	Озодликдан маҳрум этиш ва қамоқда сақлаш жойларда	20
1	Бошқа турдаги корхона, ташкилот ва муассасалар биноларида	414
2	Хорижий давлатлар ваколатхоналарида	54

*Манба: Маълумотлар асосида муаллиф ишланмаси. https://kun.uz/news/2021/08/25/prezident-saylovini-otkazish-boyicha-10-mingdan-ortiq-saylov-uchastkasi-tuzildi

Юқоридаги маълумотлардан кўриниб турибдики сайлов жараёнига ахборот коммуникация технологияларини жорий этилиши нафақат Ўзбекистон Республикаси бўйича белгиланган округлардагина, балки дипломатик ваколатхоналари ва консуллик муассасалари ҳузурида ҳам интернет орқали жорий этилганлигини кўришимиз мумкин бўлади. Айниқса, мамлакатимизда Республикаси Президенти сайловини ўтказишда коронавирус инфекцияси

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-293-301

(COVID-19) хавфи мавжудлиги яна бир бора сайлов жарёнига ахборот коммуникация технологияларини жорий этиш объектив зарурият эканлигини тасдиқлайди.

МДҲ Парламентлараро ассамблеяси экспертлар гуруҳи ҳисоботида экспертлар гуруҳининг кузатуви натижаларига кўра, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Сайлов жараёнига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори Ўзбекистон тарихида илк бор Қонунчилик палатасига сайловлар учун сайлов кампанияси бошланишига қадар СЯЭР ва сайлов жараёнини бошқариш ахборот тизими шаклланишига имкон яратди. АКТдан фойдаланиш сайлов жараёни ташкилотчилари ишини сезиларли енгиллаштиришга, сайлов қонунчилиги бузилишини истисно қилишга имкон яратаётгани таъкидланди. “Бундан ташқари, рақамли технологиялар сайловчиларнинг сайлов ҳуқуқларидан фойдаланиш имкониятларини сезиларли даражада кенгайтирди. Масалан, чет элдаги фуқаролар saylov.mfa.uz веб-сайти орқали хориждаги сайлов участкаларига сайловчилар рўйхатига киритишни сўраб электрон шаклда мурожаат қилиши мумкин эди. Умуман олганда, сайлов кампанияси даврида чет элда бўлган Ўзбекистон Республикаси фуқароларига қийинчиликларсиз овоз бериш ҳуқуқидан фойдаланиш учун қулай шароит яратилганлиги таъкидланган.

Маълумки, умумийлик, тенглик, эркинлик, адолатлилик, махфийлик, очиқлик ва ҳисобдорлик умумэътироф этилган халқаро сайлов тамойиллари ҳисобланади. Ушбу демократик тамойилларнинг амалдаги ифодаси сайлов пайтида ҳар бир овоз ҳисобга олиниши ва ҳар бир фуқаро давлат ҳокимияти вакиллик органларини шакллантиришда бевосита иштирок этишида ўз аксини топади.

Бундан ташқари, сайлов жараёнида сайловчилар рўйхатига киритилганлар сони-салмоғи асосида, масалан, маъмурий бирликлар сони ва сайлов участкаларининг жойлашуви, сайлов участкаларига етказилиши лозим бўлган бюллетенлар ва сайлов материалларининг миқдори, овоз беришда қатнашганлар сони кабилар билан боғлиқ муҳим қарорлар қабул қилинди.

Миллий қонунчиликда СЯЭР ваколатли давлат органларининг ахборот базаларига мувофиқ сайловчи фуқаролар, уларнинг доимий ва вақтинча яшаш жойлари манзиллари ҳақидаги ахборотни ўз ичига олган давлат ахборот ресурси сифатида таърифланади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-293-301

Фикримизча, сайлов жараёнига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этилишининг афзалликлари шундан иборатки, сайлов жараёнлари учун харажатлар камайишига, шаффоф ҳамда тезкор маълумотлар олинишига, вақтнинг тежалишига, фуқароларнинг ушбу жараёнда тўлиқ ва фаол иштирок этишида қулай шароитлар яратади, шунингдек, мамлакатимизда COVID-19 хавфини янада олдини олишда кенг имкониятларга эришилади.

Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси ҳузуридаги Кадастр агентлиги томонидан фуқароларнинг кўчмас мулк объектлари кадастр рақамлари ва улар жойлашган манзили маълумотларини тақдим этиш белгиланиши СЯЭРни шакллантиришда қулайликлар яратилганлигини юқорида кўриб ўтдик, бироқ, фуқароларнинг шахсий мулкига оид маълумотларни сақлаш хавфсизлигини таъминлаш ва уларнинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш масалаларига эътибор қаратиш лозим бўлади.

ХУЛОСА

Хулоса сифатида таъкидлаш жоизки, хорижий экспертлар томонидан қисқа давр ичида Ўзбекистон халқи ва ҳукумати прагматик ва чинакам демократик йўлни босиб ўтганлиги, бу йўлнинг юксак самаралари халқаро ҳамжамият томонидан аллақачон тан олинганлигини эътироф этиш мумкин.

Юртимизда қарор топган тинчлик ва ободликнинг қадрига етувчи халқимизнинг Президент сайловида фаол иштирок этиб, энг муносиб номзодга овоз беришига шубҳа йўқ. Буни “Ижтимоий фикр” маркази маълумотлари ҳам кўрсатиб турибди: келажакка комил ишонч билан яшаётган Ўзбекистон аҳолисининг 88,2 фоизи бўлажак Президент сайловида иштирок этишга тайёр.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси. Т.: Ўзбекистон, НМИУ, 2017 йил.
2. Ўзбекистон Республикасининг Сайлов кодекси. 2019 йил 25 июнь.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Рреспубликасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартишлар киритиш тўғрисида” ЎРҚ-683-сон Қонуни. 2021 йил 21 апрель.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-293-301

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947 - сон Фармони. 2017 йил 7 февраль.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Сайлов жараёнига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3961-сон қарори. 2018 йил 4 октябрь.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси сайловчиларининг ягона электрон рўйхатини шакллантириш ва юритиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 630-сон қарори. 2017 йил 15 август.
7. Ўзбекистон жамоатчилик фикри-2021. https://ijtimoiyfikr.uz/matbuot-uchun/yangiliklar/2227.htm.
8. Президент сайловини ўтказиш бўйича сайлов участкаси тузилди. uz/news/2021/08/25/prezident-saylovini-otkazish-boyicha-10-mingdan-ortiq-saylov-uchastkasi-tuzildi.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-302-306

МИНИ ФУТБОЛ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ СПОРТЧИЛАРНИ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ

Илхом Тоштемирович Арислонов
Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти катта ўқитувчиси
arislonov@qmii.uz

АННОТАЦИЯ

Мақолада мини-футболнинг спорт оламидаги ва Қашқадарё вилоятидаги ўрни кўриб чиқилади. Футболдаги жисмоний тайёргарликни назорат қилишнинг долзарб муаммолари муҳокама қилинди. Тадқиқот мини футболда вазиятни назорат қилиш стандартидан фойдаланишни экспериментал асослайди. Ўқув жараёнининг самарадорлиги ва Ё-Ё тест кўрсаткичларининг корреляция таҳлили ва вазиятни назорат қилиш стандарти баҳоланди. Тадқиқотда Қарши муҳандислик институти мини-футбол терма жамоаси спортчилари иштирок этишди. Мақолада жамоанинг тадқиқотдан кейинги истиқболлари муҳокама қилинади.

Калит сўзлар: мини-футбол, жисмоний тайёргарлик, мониторинг, Ё-Ё тести, вазиятни назорат қилиш стандарти.

КИРИШ

Ўзбекистонда футболни аҳоли ўртасида энг оммавий спорт турига айлантириш, юқори иқтидорга эга бўлган ёш футболчиларни танлаш, саралаб олиш ва уларни профессионал спортчилар сифатида тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш, мамлакат футболини ривожланган мамлакатлар билан рақобат қила оладиган даражага етказиш, халқаро талаб ва стандартлар асосида футбол бўйича мутахассисларни тайёрлаш, футбол клублари фаолиятини ривожлантириш, терма жамоалар учун ўқув-машғулот жараёнини самарали ташкил этиш, мамлакатимизда футбол бўйича йирик халқаро мусобақалар, жумладан, ўсмирлар, ёшлар ва хотин-қизлар жамоалари ўртасида жаҳон ва қитъа биринчиликларини ўтказиш, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019 йил 4 декабрь санасидаги “Ўзбекистонда футболни ривожлантиришни мутлақо янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5887-сонли Фармони доирасида, 2030 йилгача бўлган давр ичида эришишимиз керак бўладиган мақсадлар сифатида белгилаб берилди [1].

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-168-174

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 30-октябрдаги “Соғлом турмуш тарзини кенг татбиқ этиш ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6099-сон Фармони ижросини таъминлаш ҳамда 2017—2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили”да амалга оширишга оид Давлат дастури ижросини таъминлаш, шунингдек, аҳолининг кенг қатламаларини жисмоний тарбия ва спортга жалб қилиш мақсадида бир қанча қарорлар чиқарилди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Bunday aloqani yuzaga chiqaruvchi leksik – grammatik vositalardan biri takrorlardir. Kesimlilik shakllari yordamida birisining fe`l- kesimlarning bir xil zamonda shakllanganligi matn butunligini ta`minlaydigan vositalardan hisoblanadi.Olimlar hisoblab chiqishicha, Pushkin o‘z asarlarida 21ming 197 ta betakror so‘z ishlatgan. Shekspir salkam 20 mingta, Servantes 18 mingga yaqin, Alisher Navoiy esa 1million 378 ming 660 ta so‘z, shu jumladan 26 mingta betakror so‘z ishlatgan. Boisi, buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiy, urdu, xitoy, mo‘g‘ul va boshqa tillardagi so‘zlardan ham mahorat bilan foydalangan.

Olmoshlar yordamida birikish. Bunda matnning birinchi komponenti tarkibidagi ot, sifat, son turkumidagi so‘zning keyingi komponentlarida olmosh so‘zlar bilan almashtirilishi tushuniladi. “Muhammad Rahimjonning Tozabog‘dagi sayrgoh bog‘i. Uning bir chekkasidan ikkinchi chekkasigacha aylanib chiqish amri mahol, kishi charchab qoladi. Katta hovlining orqasida qirg‘oqlariga marmar o‘rnatolgan xon hovuz.Undagi zog‘ora baliq, cho‘rtan baliq, laqqa baliqlar goh suv yuziga chiqib tashlangan nonlarni yer, goh biltanglab o‘ynab sho‘ng‘ib ketardi. Hovuzning to‘rt tomonida yo‘g‘on-yo‘g‘on qayrag‘ochlar, tanlari qulochga sig‘maydi. Xorazmda hovuz desa, darhol ko‘z oldinga katta-katta gujumlar – qayrag‘ochlar keladi. Bu daraxtlar go‘yo azamat dubni eslatadi. Hovuz labiga husn berib turganlar ham o‘shalar. Ularning kichkina-kichkina barglari orasidan quyosh nurlari mo‘ralaydi. Ammo ular quyosh haroratini o‘zida singdirib, pastga tanga-tangaday oq shu`lalarini tushiradi.Ular kishiga orim beradi.” (J.Sharipov).

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu matn tarkibidagi komponentlar zanjirli aloqa usulida munosabatga kirishgan. Dastlabki komponentda bog‘ va uning kimga tegishli ekanligi haqida axborot keltiriladi. Keyin o‘sha bog‘ning kattaligi va hovuz haqidagi informatsiya. Hovuz ichi va atrofi tasviri. Daraxtlar va ular bilan bog‘liq tafsilotlar. Mazkur tasvirdan butun-bo‘lak munosabati anglashiladi. Zanjirli aloqani quyidagi so‘z va shakllar ta`minlaydi: bog‘ - uning, hovuz undagi, gujumlar? qayrag‘ochlar-bu, o‘shalar, ularning, ular. Ko‘rinadiki, olmoshlar o‘zidan oldin kelgan gaplardagi ot turkumiga mansub so‘zlarning o‘rniga qo‘llangan va matn komponentlari o‘rtasidagi aloqadorlikni mustahkamlashtirgan. Hamda ayni so‘z takrori bilan yuzaga chiqadigan uslubiy g‘alizlik oldi olingan.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-323-327

Takrorlar yordamida aytilayotgan fikrni alohida ta'kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Nutqning ta'sirchanligi yanada ortadi. "Leksik takrorlar, olmoshlar va sinonimlar yordamida xosil qilinadigan aloqa zanjirli aloqa, bir xil grammatik formalar bilan boshlanuvchi yoki tugallanuvchi komponentlar yig'indisidan tashkil topadigan aloqa parallel aloqa deyiladi". Takrorlar yordamida birikish birinchi gapda qo'llangan ayrim affikslar, so'z, so'z birikmasi yoki gaplarning keyingi komponentlari tarkibida takroran qo'llanilishi orqali matn shakllantirilishi mumkin.

- Janoblar, siz bu yerga turli mamlakatlardan kelgansiz. Siz turli millat, turli xalqning vakillarisiz. Bu yerda xech mamlakat, xech bir xalqning vakili bo'lmagan yolg'iz men. Men hamma xalqlarning, hamma mamlakatlarning vakiliman. Men she`riyatman. Men butun olamga teng nur sochuvchi oftobman. Men hamma o'lkalarga teng yog'uvchi yomg'irman. Men dunyoning hamma yerida teng gullaguvchi daraxtman. (R. Xamzatov).

Turmush tashvishlari,
Turmush tashvishlari,
Biz sendan balandroq tura olsaydik,
Biz sendan balandroq yura olsaydik,
Balki ung'ayadi dunyo ishlari,
Turmush tashvishlari,
Turmush tashvishlari. (A.Oripov)

Takrorning bir necha ko'rinishlari bor, ular xam matn tashakkulida uslubiy vazifa bajaradi: Alleteratsiya, assonans, anafora, epifora kabilar. **Alleteratsiya** deb undosh tovushlarning uslubiy maqsadlarda takrorlanishiga aytiladi. **Assonans** esa unli tovushlarni takrorlanishidir. **Anafora** deganda so'z yoki so'z birikmlarining she`riy misralar boshidan takrorlanishi tushuniladi. **Epifora**da esa misralar oxiridagi so'z yoki qo'shimchalarning takrorlanishi nazarda tutiladi. Bularning bari matn deb kompozitsion butunligi uchun xizmat qiladi. Takrorlar qo'llanish o'rniga ko'ra gorizontal va vertikal takrorlarga bo'linadi. Bu kabi takrorlar, ayniqsa she`riy matnlarda o'ziga xos oxangdorlikni yuzaga keltiradi. Takrorlanuvchi birlikning qaysi turkumga mansubligiga ko'ra ot takrori, sifat takrori, olmosh takrori, fe'l takrori kabilarga bo'linadi.

XULOSA

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-323-327

Sintaktik tabiatiga ko‘ra so‘z birikmasi takrori va jumla takrori ham farqlanadi. Mazkur birliklarning joylashish tartibiga ko‘ra ham tasnif qilish mumkin: simmetrik takror va asimmetrik takror. Shuningdek, o‘rtadagi masofasiga ko‘ra guruhlashimiz mumkin bo‘ladi. Yaqin o‘rinli takror, uzoq o‘rinli takror. Badiiy asarlarda ma’lum bir fikrning turli shakllarda takrorlanishiga qarab mazmuniy takror turini ham kuzatishimiz mumkin. Badiiy matn qismlarini takrorlar yordamida birikishini biz badiiy adabiyot namunalaridan ko‘plab uchratishimiz mumkin. Deyarli barcha shoiru yozuvchilar asarlarida takrorlab salmoqli o‘rin egallaydi.

REFERENCES

1. Yo’ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 134-B
2. Abdullaev A. O’zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi.–Toshkent: Fan, 1983. 88 b.
3. Abdurahmanov X., Mahmudov N. So’z estetikasi.– Toshkent: O’qituvchi, 2002.
4. Yo’ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. 54-59-B
5. Yo’ldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili fanidan amaliy mashg’ulotlarni tashkil etish.–Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007. 228-B
6. https://fayllar.org/4-mavzu-matn-turlari-va-tarkibi-matn-tahlili-va-tahriri.html

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-328-334

G‘ARB VA MUSULMON OLAMI DIALEKTIKASIDAGI ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Mukhtor Nazirov
Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o‘qituvchisi
m.nazirov@iiau.uz

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada dunyo siyosatida tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan islom omili haqida so‘z boradi. Xususan, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida musulmon mamlakatlarning kollektiv subyektligiga doir yondashuvlar ko’rib chiqilgan. Musulmon dunyosidagi demografik o‘sish, migratsiya, xalqaro islomiy tashkilotlar faoliyati yoritilgan. Islom sivilizatsiyaning bugungi holati, G‘arb va musulmon olami o‘rtasidagi qarama-qarshi tendensiyalar tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: islom omili, G‘arb, sivilizatsiya, din, demografik o‘sish, musulmon mamlakatlari, migratsiya, xalqaro islomiy tashkilotlar.

CONTEMPORARY TRENDS IN THE DIALECTICS OF THE WEST AND THE MUSLIM WORLD

ABSTRACT

This article surveys the Islamic factor, which is becoming increasingly important in world politics. In particular, the article considers approaches to the collective subjectivity of Muslim countries in the modern system of international relations. It highlights the demographic growth in the Muslim world, migration and the activities of international Islamic organizations. The current state of Islamic civilization and contradictory trends between the West and the Muslim world are analyzed.

Keywords: Islamic factor, West, civilization, religion, demographic growth, Muslim countries, migration, international Islamic organizations

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-328-334

KIRISH

XXI asrning birinchi yarmida dunyoda “g‘arblashish” jarayoni taraqqiyot va modernizatsiya manbai sifatida birmuncha pasaydi. Mutaxassislar tomonidan AQSH va G‘arbiy Yevropa davlatlarining ko‘pyillik hukmronlik davri tugayotgani, alohida jamiyat yoki mintaqaning milliy, ijtimoiy-madaniy, tarixiy xususiyatlari tobora dolzarblashayotgani qayd etilmoqda.

Mashhur amerikalik siyosatshunos F.Zakariya “Post-Amerika dunyosining kelajagi” nomli kitobida ta’kidlaganidek, Xitoy, Hindiston va Rossiya kuchayib borayotgani sababli, Amerika hukmronligi darajasining kamayishi muqarrardir. [1: 280]

Mazkur tendensiya G‘arb va musulmon olami o‘rtasidagi ziddiyatli jarayonlarga ham taalluqlidir. Taniqli amerikalik olim S.Xantington tomonidan ilgari surilgan “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” konsepsiyasiga ko‘ra, Sovuq urushdan keyingi dunyoda madaniy va diniy o‘ziga xoslik to‘qnashuvlarning asosiy manbai bo‘lishi mumkin. Kelajakda urushlar mamlakatlar o‘rtasida emas, balki madaniyatlar, sivilizatsiyalar o‘rtasida olib borilishini prognoz qilar ekan, amerikalik olim islom G‘arb sivilizatsiyasining hozir hukmron mavqeiga asosiy tahdid sifatida qayd etadi, chunki u olimning fikricha, G‘arbdan tubdan farqlanuvchi boshqa sivilizatsiyadir. [2]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

S.Xantington bashorat qilgan sivilizatsiyalar to‘qnashuvi hanuz ro‘y bermadi, ammo bugungi kunda sivilizatsion yorilish mavjud va u chuqurlashib bormoqda.

Ko‘plab siyosatshunoslarning fikriga ko‘ra, hozirgi vaqtda islomni global geosiyosiy kuch sifatida ko‘rishga nisbatan uchta asosiy yondashuv shakllangan. Birinchi yondashuv tarafdorlari musulmon olamini jahon siyosatining konsolidatsiyalangan aktori sifatida belgilashni taklif qilishadi. G‘arb bu qarashning asosiy raqibidir.

Ikkinchi yondashuv musulmon aktorlarning tarqoqligi va tashqi siyosiy mustaqillikka to‘liq ega emasligini ta’kidlaydi.

Uchinchi yondashuv doirasida musulmon dunyosi alohida sivilizatsion makon vazifasini bajaradi va unga umumiy birlik sifatida qaraladi. Chunki sivilizatsion yondashuvsiz zamonaviy xalqaro siyosiy jarayonlarni tahlil qilish mushkuldir. [3: 254]

Dunyoning barcha mintaqalarida musulmon jamoalari safi kengayib bormoqda. Musulmon olamidagi yuqori demografik o‘sish kuchlar muvozanati o‘zgarishida hal

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-328-334

qiluvchi omilga aylanmoqda. G‘arb mamlakatlarida musulmon jamoalarning kengayishi tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Jumladan, endilikda islom AQShda ikkinchi yirik dinga aylandi.

G‘arbiy Yevropada 20 million musulmon istiqomat qiladi va kelgusi o‘n yil ichida ularning soni ikki karra ko‘payishi kutilmoqda, chunki Yevropa Ittifoqining tub aholisi o‘sish dinamikasi zarur ishchi kuchini ta’minlab berish uchun yetarli emas. Mutaxassislar qayd etishicha, 1960 yilda yevropaliklar dunyo aholisining to‘rtdan bir qismini, 2000 yilda esa oltidan bir qismini va hozirgi rivojlanish sur’ati bilan 2050 yilda bu ko‘rsatkich o‘ndan birini tashkil etishi mumkin. Yosh ko‘rsatkichlari ham muhim. 2000 yilda Yevropada 15 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan 444 million kishi istiqomat qilgan bo‘lsa, 2050 yilga kelib ularning soni 365 milliongacha kamayishi kutilmoqda. 50 yil ichida ishchi va pensionerlar nisbati ham o‘zgaradi. Buning oldini olish uchun Yevropa Ittifoqi davlatlari uchun muhojirlar oqimini, ishchi kuchlar migratsiyasini qabul qilish og‘ir zaruratdir.

Pew Research Center tadqiqot kompaniyasi ma’lumotlariga ko‘ra, immigratsiya bo‘lmasa ham, yaqin 30 yil ichida Yevropadagi musulmonlar soni 4,6% dan 7,4% gacha ko‘payadi. Bu esa Yevropada musulmonlar yoshi va yuqori tug‘ilish darajasi bilan bog‘lanmoqda. Agar Yevropaga mo‘tadil migratsiya davom yetsa, keyingi 30 yilda qit’adagi musulmonlar soni 11,2 foizga oshadi. [4]

Hindistonda musulmonlar soni allaqachon 200 million kishini tashkil etadi. Xitoyda, rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 39 million musulmonlar istiqomat qiladi. Lotin Amerikasida ham musulmonlar soni tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Bu tendensiyalar Rossiyani ham chetlab o‘tmaydi. Rus olimi A.Kazansevning fikriga ko‘ra, agar hozirgi tendensiyalar davom etsa, 2050 yilga kelib mamlakatda musulmonlar va nasroniylar soni tenglashishi mumkin. [5]

Musulmon olami uchun universal xalqaro tashkilot sifatida Islom hamkorlik tashkiloti bugungi kunda 57 mamlakatni birlashtiradi. Uning qanotidagi boshqa ko‘plab tuzilmalar – Islom taraqqiyot banki, ISESCO, Islom savdo-sotiq palatasi va boshqalar faoliyat yuritmoqda.

Tashkilotga a’zo davlatlar musulmon xalqlarining barqaror taraqqiyoti va farovonligi yo‘lida hamkorlik qilib kelmoqda. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda G‘arb va musulmon olami o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashib borayotgan bir sharoitda IHTga a’zo davlatlar sivilizatsiyalar, madaniyat va dinlar muloqotiga har tomonlama yordam berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymoqda.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-328-334

Taniqli rossiyalik sharqshunos olim V.Naumkin “Islom jamoaviy o‘yinchi sifatida?” nomli maqolasida [6] zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida islomning subyektligiga nisbatan quyidagi uch yondashuvni ilgari suradi:

Birinchi yondashuvga ko‘ra, musulmon olami yagona kollektiv aktor vazifasini bajaradi. Bu nuqtai nazardan musulmon dunyosi o‘zini islomiy deb ko‘rsatadigan ko‘pchilik musulmon mamlakatlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur mamlakatlar – IHT, Musulmon olami ligasi, Arab davlatlari ligasi va boshqa ko‘plab tashkilotlarni ta’sis etishgan. Bu yondashuvda boshqa aktor – G‘arb yoki yahudiy, xristian dunyosida musulmonlarni ham nazarda tutadi. Shu sababli, V.Naumkin so‘zlariga ko‘ra, “G‘arb – musulmon olami” ziddiyati tobora ommalashib bormoqda.

So‘nggi yillarda G‘arbda islom dinini jiddiy tahdid sifatida qabul qilayotganlar faollashmoqda. Yevropada mafkuraviy qarama-qarshilik ortmoqda. Buni nafaqat terrorchilik harakatlari, balki “karikatura janjallari”, Yevropada musulmon mamlakatlardan muhojirlarga qarshi noroziliklar, o‘ng partiyalarning faollashuvi misolida ko‘rish mumkin.

Ikkinchi yondashuv doirasida davlatlar va transmilliy tuzilmalar mustaqil aktorlar sifatida ajratib ko‘rsatiladi. Unga ko‘ra, pozitsiyalardagi o‘xshashlik va tafovutlar ma’lum vaziyatlarda birlashishga va G‘arbga nisbatan qarshi kuch sifatida harakat qilishga imkon beradi.

Uchinchi yondashuvga ko‘ra, davlat yoki nodavlat aktorlarga bo‘lgan bog‘liqlikni rad etadi, chunki bu aktorlar o‘z faoliyatida kamdan-kam dindan foydalanadi. Bu yondashuv doirasida islom din sifatida talqin qilinadigan “sivilizatsiya” tushunchasi orqali ifodalanadi.

Musulmon mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlari turlicha. Ko‘p millatli musulmon mamlakatlar “umumiy til (arab tili), yagona muqaddas kitob (Qur’on) asosida asrlar davomida yagona sivilizatsiyani tashkil etgan. Islom musulmon mamlakatlari madaniyati va ijtimoiy tuzilishining umumiy mafkuraviy asosi vazifasini bajaradi, musulmon hayotining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi”. [7]

Islom diniga e’tiqod qiluvchilar Yer yuzidagi barcha qit’a mamlakatlarida yashaydi. U ulkan makonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy tarixiga ta’sir ko‘rsatdi. Uzoq tarix davomida islom jamiyati Yer yuzidagi eng buyuk sivilizatsiyalardan biri bo‘lgan. Aynan musulmonlar dunyoga matematika, tibbiyot, geografiya, astronomiya, falsafa va boshqa sohalarda buyuk kashfiyotlar berdi. Musulmon olimlar jahon madaniy makonining shakllanishiga ulkan hissa qo‘shdilar. [6]

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-328-334

Amerikalik olim E.Kordesman fikricha, bugungi kunda asosiy masala G‘arb va islom sivilizatsiyalari o‘rtasidagi to‘qnashuvlar emas, balki arab-musulmon dunyosidagi ichki qarama-qarshiliklardir. Bu arab dunyosi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va demografik muammolarni islohot va o‘zgarishlar orqali hal qila oladimi yoki ko‘plab zo‘ravonlik va inqiloblarga duch keladimi, degan savol ochiq qolmoqda. [8]

Ta’kidlash joizki, mavjud ichki ziddiyatlarga qaramay, musulmon olami hanuz yagona siyosiy kuch sifatida harakat qilishga intilmoqda. Bu g‘oya islomda mavjud bo‘lgan ummat – etnik va davlat chegarasi bo‘lmagan musulmonlar jamiyati tushunchasiga asoslanadi. Hozirgi davrda islom dini musulmon mamlakatlarining aksariyatida davlat dinidir.

Albatta, sivilizatsiyalar xilma-xil va ular ziddiyatlarga boy. O‘tgan asrlarda musulmon mamlakatlarning kam rivojlanganligi, asosan, jahon siyosatining chetida qolishiga olib keldi va bu fundamentalizm va radikalizmning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Shu bilan birga, musulmonlarning mutlaq ko‘pchiligi mo‘tadil va bag‘rikeng xalqlardir.

Musulmon mamlakatlari hamjamiyatining xalqaro maydondagi ishtirokini kengaytirishda energetika sohasi muhim omildir. Dunyodagi energiya resurslarining uchdan ikki qismidan ortig‘i, neft va gazning katta zaxiralari musulmon mamlakatlari hududida joylashgan. Zamonaviy dunyoning neft va gazga bog‘liqligini hisobga olsak, musulmon mamlakatlarining jahon iqtisodiyotidagi o‘rni oydinlashadi. [9]

Zotan, dunyoning eng yirik yigirmata iqtisodiyotiga uchta musulmon mamlakat – Indoneziya, Turkiya va Saudiya Arabistoni kiradi. Neft eskport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti – OPEKning a’zolari bo‘lgan boy musulmon mamlakatlarining moliyaviy qudrati ortib bormoqda. 2009 yilda Dubayda ochilgan dunyodagi eng baland osmono‘par bino neft eksportchilarining yangi qudratining ramzi bo‘lib, bunday ramzlar tobora ko‘payib bormoqda. Inqiroz davrida islom moliyasiga asoslangan banklar samarali faoliyat yuritmoqda. Islom taraqqiyot banki musulmon mamlakatlarning rivojlanish dasturlari moliyalashtirishda muvaffaqiyatli ishlamoqda.

Islom dinini ekstremizm, terrorizm va zo‘ravonlik bilan bir o‘ringa qo‘yishga urinishlar kuchaygan hozirgi davrda musulmon dunyosida buni oldini olish uchun ko‘p ish qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-328-334

Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz.

Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi”. [10]

Darhaqiqat, musulmon dunyosi ekstremistlarga qarshi kurashish uchun o‘z resurslarini safarbar qilmoqda va bu kurash tobora samarali tus olmoqda. Musulmon dunyosining mo‘tadil kuchlarini birlashtirish – hozirda kuchayib borayotgan jarayon tusini olmoqda.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, hozirda musulmon dunyosi tobora o‘zini xalqaro maydonda asosiy aktorlar qatorida ko‘rsatmoqda. XXI asrda bir qator musulmon mamlakatlarining jahon hamjamiyatidagi o‘rni mustahkamlanganligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Ko‘plab siyosatshunoslar ilgari “kambag‘allar sivilizatsiyasi” deb atagan musulmon olami hozirda jahon siyosatining yuqori pog‘onasiga chiqmoqda, tobora aniq ko‘rinishga ega bo‘lmoqda. Musulmon olamida o‘zaro birdamlikni rag‘batlantiruvchi umumiy manfaatlar mavjud.

Barqaror taraqqiyot maqsadlariga birgalikda erishish, xatarlarga qarshi kurashish va o‘zaro hamkorlik yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun yetarlicha resurs va imkoniyatlarning mavjudligi istiqbolda musulmon mamlakatlarining xalqaro munosabatlardagi roli va ahamiyati ortishiga xizmat qilishi mumkin.

REFERENCES

1. Zakariya, Farid. Postamerikanskiy mir budushego. - M.: Izd. «Yevropa», 2009. - 280 s.
2. Huntington, Samuel P., The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order, New York, Simon & Schuster, 1996.
3. Baranov, O.N., Golitsin, V.A., Tereshenko, V.V. Globalnoye upravleniye. - M.: MGIMO, 2006. - 254 s.
4. Europe’s Growing Muslim Population”, Pew Research Center, 29 Kasım 2017. Available at: http://www.pewforum.org/2017/11/29/europes-growing-muslim-population/
5. Popov, V.V. O roli islamskogo faktora. Sivilizatsionniy aspekt. 24.05.2010. Available at: https://mgimo.ru/about/news/experts/154205/

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-328-334

6. Naumkin, V. Islam kak kollektivniy igrok? 16.12.2013. Available at: https://www.antiterrortoday.com/glavnaya/konfessionalnye-aspekty/2153-islam-kak-kollektivnyj-igrok
7. Sajin, V.I. Islam v novix geopoliticheskix usloviyax. Noviye realii, noviye problemi. Available at: http://www.iimes.ru/rus/frame_stat.html
8. Kordesman, E. Clash for civilization [Electronic resource]. 2015. February 18. Available at: https://www.csis.org/analysis/clash-civilization.
9. Petrol ve güvenlik: Orta Doğu`daki krizlerin ekonomi politiği. Arı, Tayyar, Ayhan, Veysel Uludağ Üniversitesi/Sosyal Bilimler Enstitüsü/Uluslararası İlişkiler Anabilim Dalı/Uluslararası İlişkiler Bilim Dalı.
10. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so‘zladi. 20.09.2017. Available at: https://president.uz/uz/lists/view/1063
11. Berdiyev, B. (2020). Central Asia: international relations as a factor of regional stability and integration. The American Journal of Political Science Law and Criminology. Vol. 02. Iss.10, 118-122.
12. Nazirov, M., Mukhammadsidiqov, M. (2020). Central Asia: Involvement of Afghanistan in Regional Development Processes. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(12), 266-272.
13. Nazirov, M. (2020). Processes of forming new centers of power in the SCO space. The American Journal of Political Science, Law and Criminology. Vol 2, 11, 26-32.
14. Nazirov, M.M. (2014). O konseptualnix voprosax politicheskix issledovaniy. In Sovremenniye podxodi k transformatsii konsepsiy gosudarstvennogo regulirovaniya i upravleniya v sotsialno-ekonomicheskix sistemax, Kursk (pp. 243-246). Available at: https://www.elibrary.ru/item.asp?id=21546286
15. Saydaliyeva, N., Nazirov, M. (2020). Youth policy as a priority area of development. Sociosphere. 3, 104-111.
16. Nazirov, M. (2020). Processes of Forming New Centers of Power in the SCO Space. The American Journal of Political Science, Law and Criminology, 2(11), 26-32.
17. Nazirov, M. (2020). Youth as a leading power of Uzbekistan. Light of Islam. 4, 107-116.
18. Idirov, U., Nazirov, M. (2021). Uzbekistan: Modern Strategic Directions of Development of Ideas and Values of Democracy. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(02), 147-154.
19. Muhammadsidiqov, M. (2019). Problems of regulation of secularism and religious principles in Arab countries. Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research. No. 4(6).

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-335-339

USE OF INTERNET RESOURCES IN TRAINING AUDITING OF BACHELOR STUDENTS OF NON-LANGUAGE FACULTIES

Makhim Artikova
Uzbekistan State World Languages University
martikova1978@gmail.com

ABSTRACT

This article is devoted to the use of Internet resources in teaching English, contributing to the development of listening skills. Particular attention is paid to the aspect of improving the listening skills of bachelor students of non-language faculties.

Keywords: teaching English; Internet resource; listening skills; authentic material; audio material; audiotext.

INTRODUCTION

For a long time, in the methodological literature, listening was considered an unattended aspect in teaching a foreign language on the part of teachers [7]. This was explained by the fact that listening skills are automatically developed in students through their immersion in the language environment and practice, when working on grammatical, lexical and phonetic material [8, 9]. Currently, members of society need to develop a high level of proficiency in the listening process, because they themselves want to learn to understand what they say in English in personal conversation, at business meetings, on television, in the theater, watching a film, traveling to foreign countries, listening to audio recordings, etc. [4, 5].

MATERIALS AND METHODS

Listening is considered to be the most difficult aspect of mastering the English language. This complexity is explained by overcoming such factors as the nature of the language material, presentation conditions, semantic content, sources of information, as well as the individual characteristics of both the speaker (manner of speech, tempo, presence of an accent) and the listener, his auditory experience and many others [6] ...

On the other hand, listening is a powerful means of teaching a foreign language, since it contributes to the assimilation of the lexical composition of the

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-335-339

language and its grammatical structure, makes it possible to master the sound side of the language being studied, its phonemic composition and intonation: rhythm, stress, melody. In one of his latest publications, M. Rost described listening as “a necessary type of speech activity, because it provides the listener with information. Without understanding the information, no study can begin ... ”[10].

It should not be forgotten that listening, along with speaking, provides an opportunity for communication in a foreign language. Without mastering the ability to distinguish a foreign language by ear, communication with representatives of other cultures is impossible in principle.

Unfortunately, with two or three academic hours of English per week, the teacher fails to pay due attention to the development of students' listening skills. More and more emphasis is being placed on independent work, which has become possible thanks to the emergence of Internet resources. As an example, consider some of them in more detail:

1. TED (Technology, Entertainment, Design) is a universal online platform with many conferences of leading experts in the field of science, art, design, politics, culture, business, global issues, technology and entertainment. The mission of the conference is to spread unique ideas (“ideas worth spreading”) [13]. Recordings of the most distinguished speakers can be found on the official TED.com website. Currently, more than 1,500 selected lectures with translations into different languages are available on the website. All videos are released under the Creative Commons BY-NC-ND license, which allows free distribution [14].

The system of working with such a site, as with any other audio text, boils down to the following scheme: "sound - text - sound" (♪ + T + ♪). First, students are encouraged to watch a video without subtitles and grasp the main meaning. This is followed by a detailed analysis of the text using the subtitles provided, as well as, if the teacher wishes, with the help of additional exercises on vocabulary and grammar. After that, the video is re-watched, during which auditory-visual synthesis occurs, the simultaneous broadcast of sound and image (with subtitles or with a just analyzed test), which contributes to the development of skills and abilities of listening to speech and stimulates oral-speech communication of trainees during further discussion of the video.

2. Ororo.tv [12] - a site that provides access to the latest TV series and some films with subtitles in different languages, which can be turned on and off at the request of the viewer.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-335-339

Watching films and TV series in the original is of great importance in the process of teaching foreign languages, since it is based on one of the basic methodological principles - the principle of clarity. While watching a video, all types of speech activity are involved. As you know, seen and heard information is remembered five times better than just heard [3].

Viewing authentic video materials is also an effective means of increasing student motivation to learn a foreign language, since they demonstrate the functioning of the language in the form accepted by its native speakers in a natural social context, introduce the norms and rules of communication and behavior, show various types of relationships and illustrate the language of facial expressions and gestures. ... Video is a unique tool for teaching speaking and foreign language communication [2].

3. BBC Podcasts [11]. BBC radio stations have a wide range of topics, which, in the absence of subtitles, would be useful to listen to as a kind of background, which will turn the listener into a state of “flow” and create the illusion of “complete immersion” in the authentic environment. Due to the sensation of the "streaming" state, forgotten knowledge of grammar and vocabulary begins to activate by itself, and the melody of the language itself is caught, which is also important when teaching speaking.

RESULTS AND DISCUSSION

It is worth noting here that in such radio programs as, for example, BBC Learning English - 6 minute English [15], the hosts of podcasts are native speakers, so that it is possible to listen and learn living language in the form in which ordinary residents use it. English-speaking countries, that is, authentic material is used. Podcasts are divided into 3 levels: the first is for beginners (elementary), the second is for learners with an average knowledge of English (lower intermediate and intermediate), and the third is for learners with upper-intermediate knowledge. The advantage of the BBC Learning English project is that the rate of speech of the voiced dialogues is different, depending on the level of language proficiency. 6 Minute English contains passages from English-language dialogues from BBC correspondents, in addition,

Please note that all explanations are given exclusively in English. Moreover, scripts are attached to podcasts (text transmission option). It should be emphasized that many foreign language learners do not realize that when they listen to their

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-335-339

native speech, in fact, they do not listen to every word, moreover, they underestimate the fact that a person closely links linguistic knowledge with existing experience and knowledge. concepts such as theme and culture. Fairch and Kasper point out that absolute understanding of audio text is a misconception of how the natural process of perceiving information in a native language occurs [6]. The effort to understand everything does not lead to effective results, causes a feeling of fatigue and, ultimately, leads to failure.

CONCLUSION

In our opinion, it is necessary to teach students to select the necessary information, ignoring the irrelevant, that is, teach them how to do it the way they do it in their native language [1]. The main thing is to develop the skill of guessing, to learn to predict what could be discussed, what the speaker could say in a given situation, thus leveling possible gaps in perception.

Internet resources are an effective means of organizing educational space, maintain social relations, since they allow participants in the learning process to carry out joint activities, use the latest materials in various formats, and also train various types of speech activities. Authentic educational audio material is interesting, informative, meaningful, understandable, corresponds to the modern reality of a foreign-language society and creates favorable conditions for students to master new regional information, speech behavior of native speakers, contributes to their acquaintance with a living language, the way of life of the people, its culture, modern realities.

REFERENCES

1. Elukhina N. V. Teaching to listen to a foreign language speech // IYaSh. - 1996. - No. 5. - P. 20–22.
2. Kazantsev A. Yu., Kazantseva G. S. Effective forms and methods in teaching students to listen to foreign language speech in a non-linguistic university using the example of English. TSPU Bulletin. - 2015 .-- S. 153.
3. Malinina I. A. The use of Internet resources of the second generation Web 2.0 in teaching listening // Young scientist. - 2012. - No. 11. - P. 446–448.
4. Anderson A., Lynch T. Listening. Oxford: OUP, 1993.
5. Brown G. Twenty-fi ve years of teaching listening comprehension // Forum. - 1987. 25, 4. P –. 11-15.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-335-339

6. Faerch C., Kasper G. The role of comprehension in second language learning. Applied Linguistics. - 1986.7/3. - P. 257-274.
7. Hedge T. Teaching and learning in the language classroom. Oxford: OUP, 2008. - P. 227-258.
8. Richards J. C. “Listening comprehension: approach, design, procedure”. In: MH Long and JC Richards (eds.), Methodology in TESOL: A Book of Readings. Heinle and Publishers, 1987. P. 161-176.
9. Rivers W., Temperley M. 1978. A practical guide in the teaching of English. New York: Oxford University Press; Celce-Murcia. 1995. 'Discourse analysis and the teaching of listening' in G. Cook and B. Seidlhofer (eds.). P. 363-377.
10. Rost M. Introducing listening. Penguin 1994 P. 94.
11. http: //www.bbc.co.uk/podcasts
12. https: //ororo.tv/ru
13. https: //ru.wikipedia.org/wiki/TED_(conference)
14. https: //te-st.ru/entries/ted-ideas-worth-spreading/
15. http: //www.bbc.co.uk/learningenglish/russian/features/6-minuteenglish

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-340-345

MEDIATA'LIM – YOSHLARNI SALBIY AXBOROTLARDAN HIMOYA QILISHNING MUHIM OMILI

Baxtiyar Egamkulovich Karshiev
Samarqand meditsinasu institute Toshkent filiali dotsenti v.b

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mediata'limning yoshlar ta'limiy-tarbiyaviy jarayonidagi ahamiyati, mediata'limning o'ziga hos hususiyatlari va uni tashkil etish jarayonida qo'llaniladigan usullar va samaradorligi xaqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: axborot, media, mediata'lim, axborot xavfsizligi, mediasavodxonlik, mediamadaniyat.

ABSTRACT

This article discusses the role of media education in the educational process of young people, the specifics of media education and the methods and effectiveness of its organization.

Keywords: information, media, mediaeducation, information security, medialiteracy, mediaculture.

KIRISH

Bugungi kunda endi shakllanayotgan yoshlarni turli axborotlarning salbiy ta'siridan himoya qilish va ularning sog'lig'ini asrash muammosi dunyodagi tng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yoshlarga atrofini o'rab turgan olam haqidagi ma'lumot beruvchi asosiy manbalarga esa, matbuot, televidenie, radio, global kompyuter tarmoqlari va boshqalar kiradi. Bugungi yosh avlod ongiga ulkan axborot oqimi ta'sir ko'rsatmoqda, uni majoziy ma'noda "axborot yomg'iri" yoki "axborot seli" deb atash mumkin. Bugungi axborot makonidagi kutilmagan obrazlar, zamonaviy, yorqin tasvirlar, syujetlar va xatti-harakatlar xali ongi yetarli darajada shakllanmagan yoshlarni albatta ko'proq o'ziga jalb qiladi, chunki yosh xususiyatlari va hayotiy tajribaga ega bo'lmaganligi sababli, bola ulkan ma'lumotlar oqimini qabul qilish va tushunish uchun hali tayyor emas hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Barchaga ma'lumki bugungi yoshlarning telefon, kompyuter va televizor

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-340-345

oldida o'tkazadigan vaqtlari maktabda yoki boshqa ta'lim muassasalarida o'tkazadigan vaqtlaridan ancha ko'proqni tashkil etadi. Bu ularning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi turli buzuq, ziddiyatli dasturlar, shoular, saytlarni doimiy ko'rishlariga ko'proq imkon beradi, uning nozik ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Ular esa bularning turli salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko'pincha tushunmaydi. Agar e'tiborimizni qaratsak, faqat ko'ngilochar saytlar, turli shoularni tanlaydigan va ko'radigan yoshlar deyarli yurtimizda va dunyoda bo'layotgan ta'limiy-tarbiyaviy, ma'naviy-madaniy teledasturlar, ijtimoiy tarmoqlarni ko'rishdan o'zlarini chetga olishadi.

Hozirda urf bo'lgan majoziy iboraga ko'ra, "inson o'zining "axborot pillasi"ga o'ralib olishi, o'zini real dunyodan ajratib qo'yishi, illyuzion axborot makonida yashashi mumkin [1].

Media sohasidagi eng nufuzli tadqiqotchilarning tadqiqot natijalariga asoslanib shuni ta'kidlash mumkinki, ommaviy axborot vositalari tomonidan manipulyatsiya ob'ekti bo'lib ko'proq yoshlar tanlanadi, chunki:

- ular axborotning muhim qismini, to'liq idrok etmaydilar, chunki ular xali uni idrok etishga tayyor emaslar;
- ular xabarlarning ma'nosini yoki bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkinligini qisman tushunadilar;
- ular ommaviy axborot vositalariga nisbatan passiv pozitsiyani egallaydilar, o'zlarini ularning ta'siridan qanday himoya qilishni bilmaydilar va ko'pincha bunday himoya zarurligini tushunmaydilar.

Bugungi kunda axborot xavfsizligi va inson ongini ommaviy axborot vositalari tomonidan manipulyatsiya qilinishidan himoya qilish davrimizning eng asosiy muammosiga aylandi, va bu hozirda ota-onalar, shifokorlar, psixologlar va o'qituvchilarni tashvishga solmoqda. Ushbu muammoni hal etishning eng samarali yo'li sifatida maktab va ta'lim muassasalarida mediata'lim va mediamadaniyatni rivojlantirish orqali amalga oshirish taklif etilmoqda. Hozirgi kunda dunyoda jadal rivojlanayotgan mediata'lim bu - pedagogikaning ommaviy axborot qonuniyatlarini o'rganish asosida yoshlarni axborot xurujlaridan o'zini himoya qilish va odamlar bilan muloqot qilish va o'zligini namoyon qilishning zamonaviy shakllari bilan tanishtiradigan yo'nalishdir.

Mediata'limni o'rganish natijasida inson quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin:

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-340-345

- o‘zi bilan qabul qilinuvchi axborot o’rtasida “psixologik masofa” o’rnatish mexanizmlarini yaratish, o‘zining ongini manipulyatsiya qilinishidan psixologik himoya qilish, axborotlarni tanqidiy baholash ko’nikmalarini egallash;
- audiovizual idrok etishning ongli tajribasini egallash; idrok etish qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish;
- amaliy darajada noverbal xabarlar tillarini (teletasvirlar tahlili, kino tili, reklama tili va boshqalar) o’zlashtirish, bu esa ularnga axborotlarning mazmuni anglashga va o‘zini namoyon etish imkonini beradi

Mediata’limning o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlariga erishish uchun quyidagi faoliyat yo‘nalishlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi:

- maktabda shakllangan bilimlar tizimiga sinfdan tashqari qabul qilinadigan axborotni kiritish, bu bilimlardan turli mediadagi axborotlarni idrok etish va ularni tanqidiy tushunishda foydalanish;
- axborotni talqin qilish, uning mohiyatini anglash, uni maqsadli yo’naltirish, axborot tarqalishining maqsadi, axborotlardagi yashirin ma’nolarga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish; kerakli ma’lumotlarni turli manbalardan topa olish, belgilangan mezonlar asosida ularni tizimlashtira olish;
- axborotlarning kommunikativ jihatdan o’zaro ta’sir maqsadini va mo’ljallangan auditoriya xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni hajmini, shaklini, belgilari tizimini, tashuvchisini o’zgartira olish;
- o’z fikrlari yuzasidan bahslasha olish, olingan ma’lumotlarda kamchiliklar va ma’nolarni topa olish va ularni tuzatish bo’yicha takliflar kirita olish;
- axborotlardagi turli muqobil nuqtai nazarlarni qabul qilish va ularning har biriga «yoqlash» va «qarshi» bo‘lgan asosli dalillar keltira olish;
- axborot xabarlari o’rtasida maqsadli assotsiativ va amaliy aloqalarni o’rnatish; axborot xabaridagi eng muhim jihatlarni ajrata olish.

Hozirgi vaqtda kino va videofilmlar, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar va turli teledasturlarning parchalari asosan ko'rish tamoyilini amalga oshirish sifatida qo’llaniladi. Biroq yoshlarga qaratilgan elektron, audiovizual, bosma medialarining didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlaridan ta’lim-tarbiyaviy yo‘nalishlardagi maqsadlarda yetarlicha foydalanilmayapti, ammo ular insonning xulq-atvor hususiyatlarini shakllantirishga sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. Zamonaviy axborot madaniyatini shakllantirish va yoshlarning axborot xulq-atvor hususiyatlarini rivojlantirishning yangi usullarini ishlab chiqish sharoitda albatta, media ta’limning o‘ziga hos pedagogik salohiyatini hisobga olish muhimdir.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-340-345

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, pedagoglar va ota-onalar tomonidan olib boriladigan turli xil ta'limiy va tarbiyaviy ta'sirlarni yoshlar turlicha qabul qilishlari mumkin: ularga xushmuomalalik bilan muloqot qilish natijasida paydo bo'ladigan ijobiy munosabatlardan so'ng ular o'zining xatti-harakati haqida o'ylaydi va faollik ko'rsatib, o'zini takomillashtirish va rivojlantirishga intiladi. Ana shunda bunday tarbiya usuli haqiqatan ham uning shaxsiy ijobiy hususiyatlarini shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Agar ota-onalar, tarbiyachilar va pedagoglarning tarbiya usuli ular bilan yoshlar o'rtasida ijobiy munosabat o'rnatmasa, bu usul yoshlarning psixologik rivojlanishida ijobiy rol o'ynamaydi va hatto ular tomonidan ma'lum bir qarshilikka ham uchrashi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, o'quvchi tarbiyaviy ta'sirning nofaol ob'ekti hisoblanmaydi. Ularda bunday ta'sirlarga nisbatan ichki pozitsiya shakllanadi, ularda ushbu ta'sirlarga nisbatan o'zini takomillashtirish (rivojlantirish), o'z ustilarida faol ishlashlari yoki passiv bo'lib qolishlari mumkin. S etoy tochki zreniya mojno otmetit, chto vospitanie igraet opredelyayuщuyu rol v razvitii lichnosti tolko pri uslovii, yesli ono okazыvaet polojitelnoe vliyanie na vnutrennee stimulirovanie yeyo aktivnosti v rabote nad soboy. Shu nuqtai nazardan ta'kidlash mumkinki, ta'lim-tarbiya shaxsning kamol topishida, uning o'z ustida ishlashidagi faolligini ichki jihatdan rag'batlantirishga ota-onalar, tarbiyachi hamda pedagoglar tomonidan ijobiy ta'sir ko'rsatgandagina bu usullar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aynan quyidagi hususiyatlar ya'ni o'sib kelayotgan shaxsning faolligi va shaxsiy intilishi, o'zini takomillashtirishga bo'lgan istagi, pirovardida uning shaxsiy rivojlanishini belgilaydi[2].

Yoshlarning darsdan tashqari mashg'ulotlarida mediata'limdan foydalanishning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati shundaki, ularga o'zini namoyon qilish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratishda ham hisoblanadi, chunki hamma bola ham o'qish jarayonida o'zini namoyon qila olmaydi. Bunday sabablar sirasiga yoshlarda etakchilik, turli qobiliyatlarini va o'zlashtira olmaslik kabi muammolarni ko'rsatish mumkin. Shu sababli, ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan turli sinfdan tashqari mashg'ulotlarda yoshlar o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ijtimoiy motivlar va ehtiyojlarlarini amalga oshiradigan ulkan imkoniyat bilan ta'minlanadilar. Zamonaviy, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni to'g'ri tanlash ta'lim-tarbiya vazifalarini yanada to'liq

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-340-345

amalga oshirishga yordam beradi. Bu jarayonda eng ahamiyatli jihatlardan biri shundaki, yoshlarning o'zlari ularni rivojlantirishning yangi shakllarni taklif qilishlari ham mumkin.

Yoshlarni medialardan to'g'ri foydalanishga o'qitishdagi samarali uslubiy usullarini quyidagi asoslar bo'yicha tasniflash mumkin:

1. Tarbiyaviy ishlar turlari bo'yicha (axloqiy, vatanparvarlik, ekologik, oilaviy va boshqalar). Bu tasnifni fin olimi Z. Tell ta'biri bilan aytganda, "mediaxabarlari fanlararo va ko'p tarmoqli xususiyatga ega bo'lishi" bilan murakkablashadi[3]. Masalan, maktab o'quvchilarini axloqiy jihatdan tarbiyalash masalalarini hal qilish maqsadida medianing badiiy yoki multfilmlarni namoyish etish orqali ulardagi estetik tarbiya imkoniyatlarini kengaytiramiz, chunki biz san'at asarini axborot manbai deb hisoblaymiz.

2. Global kompyuter tarmoqlari va boshqa ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlar bo'yicha. Axborotdan foydalanishning turli xil imkoniyatlarini izlash va joriy etish yoshlarga media sohasi bilan yaxshiroq tanishishiga va ta'lim muammolarini samarali hal qilish imkonini beradi.

Mediata'limning tarbiyaviy salohiyatidan foydalangan holda, yoshlar ongni media vositalari tomonidan manipulyatsiya qilinishidan himoya qilish va ularning bu boradagi qobiliyatini rivojlantirish maqsadida samarali zamonaviy usullar ishlab chiqilmoqda, jumladan:

- talabalarni media vositalar va muassasa kutubxonasidan axborotlarni axborot markazi sifatida mustaqil izlab topish va foydalanish qobiliyatini shakllantirish,
- muammoli vaziyatdan chiqish yo'lini bir necha usulda topish, mavjud vaziyatni modellashtirishga o'rgatish, ya'ni, yoshlarni vaziyatdan chiqish yechimning alternativ tanlovini to'g'ri topish vazifasini oldiga qo'yadi. Ushbu xarakatlar usulini tanlash yoshlarning o'zida qoladi, lekin shu bilan birga u o'z harakatlarini asoslashi lozim bo'ladi;
- ijtimoiy tarmoqlar, gazeta va jurnallarda o'qilgan maqolalar, tele va radio hikoyalar muhokamasi;
- turli xil media vositalaridan foydalangan holda o'z ma'lumotlarini tayyorlashga o'rgatish. Bunda media usullaridan qaysi birini tanlash unchalik muhim emas (oddiy qog'oz varag'idan Internetdagi veb-saytgacha): chunki zamonaviy yoshlar murakkab texnik vositalardan foydalanishni afzal ko'rishadi, ya'ni, kameralar, videokameralar, kompyuterlar, telefonlar. Ushbu zamonaviy texnikalardan foydalanishda topshiriqni shunday tuzish maqsadga muvofiq bo'ladiki, u fanni

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-340-345

o'qitish va tarbiya vazifalarini o'zida mujassamlashtirsin;

- bir vaqtning o'zida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal qilishga qaratilgan turli xil uslubiy usullardan foydalanishga imkon beradigan Internetning axborot resurslaridan foydalanish.

Yoshlarning Internetga qiziqishi to'rtta asosiy omil tufayli rivojlanadi deya hisoblanadi:

- turli xildagi ma'lumotlarga kirishga imkoniyatning mavjudligi;
- keng interaktivlik, doimiy muloqotning mavjudligi;
- o'zi haqidagi ma'lumotlar ustidan shaxsiy nazorat, ma'lum bir "obraz"ni yaratish imkoni;
- uzatilayotgan ma'lumotlarning anonimligi.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mediata'lim jarayonida yoshlarni Internet bilan muloqot jarayonida xavfsizlikni ta'minlashning muhim qoidalari bilan tanishtirish zarur: barcha shaxsiy ma'lumotlarni (ismi, manzili, telefon raqami, elektron pochta manzili, ota-onalarning shaxsiy ma'lumotlari) oshkor qilmaslik; media tarmoqlardagi begonalarga ishonmaslik: Internetda har kim o'zini kimligini ochiq ko'rsatmasligi, aslida kimligini sir tutishi mumkin va hokazo.

Mediata'limning asosiy maqsadi sifatida yoshlarning mediasavodxonligini oshirish, ularda mediamadaniyatini shakllantirish, medialarning salbiy kontentlaridan himoya qilish, manipulyatsiya qurboniga aylanib qolishiga yo'l qo'ymaslik, shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va zamonaviy dunyoda axborotlarni ongli ravishda izlash, talqin qilish va qo'llash, dunyoqarashini kengaytirish orqali kommunikativ ko'nikmalarini va mediakompetensiyalarini rivojlantirish vazifalarni ta'limning oldiga qo'yishdir. Buning uchun xar bir ta'lim maskanlarida bosqichma-bosqich mediata'limni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1. Зазнобина, Л.С. Медиаобразование в школе: как выжить в мире СМИ [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.mediaeducation.ru.
2. Харламов, И.В. Педагогика / И.В. Харламов. – Минск. Высшая школа, 2004. –195 с.
3. Tella S. Media nykypaivan koulutuksessa. // An electronic files: http://www.helsinki.fi/~tella.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-346-350

ФЛОВАНОИД ВА ИРИДОИД САҚЛОВЧИ CISTANCHE ЎСИМЛИГИНИНГ ФАРМАКОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Н. М. Маматова
Тошкент педиатрия тиббиёт институти

Н. Ф. Рахимова
Тошкент давлат стоматология институти

М. Н. Агзамова
Тошкент педиатрия тиббиёт институти

АННОТАЦИЯ

2. Европа мамлакатларининг таълим дастурларини аккредитациялаш миллий тизимини яратиш, ривожлантириш ва бир-бирига мослаштириш;

3. TQM – сифатни ялпи бошқариш концепцияси, Халқаро ISO 9000:2000, ENQA (Олий таълимда сифатни кафолатлаш Европа ассоциацияси), Сифат менежменти бўйича Европа фонди модели ҳамда бошқа миллий моделлар асосида олий таълим муассасасининг сифат тизимини ишлаб чиқиш ва жорий этиш;

4. Таълим жараёни сифатини бошқариш тизимини сифатни ялпи бошқариш концепцияси тамойиллари асосида ташкил этиш;

5. Таълим жараёни сифати ва унинг натижаларини миллий аттестация ва аккредитация тизими асосида ташқи назорат қилишдан у ёки бу танланган модел асосида таълим муассасасининг ички ўз-ўзини баҳолаш тизимига ўтиш;

6. Ташқи назорат меъёрий ва илмий жиҳатдан таъминланиш борасида жиддий муваффақиятларга эришган бўлсада, эпизодик тарзда миқдорий кўрсаткичларни аниқлашга асосланганлиги сабабли мавжуд муаммо ва ютуқларни тўлиқ аниқлаш, таълим сифатини оширишни режалаштириш имконини бермаслигини инобатга олиш [5. 92 б.].

Таълим сифати аввало, давлат таълим стандартларининг бажарилиш сифатига, жамият ва истеъмолчилар томонидан қўйилган талабларга, ОТМ мақсадлари, меъёрлари, яратилган шарт-шароитлар, таълим жараёни ва якуний натижалар сифатига боғлиқ (1-расм) .

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-414-422



1-расм.Таълим сифати тушунчасини ташкил этувчилар [2]

Таълимда сифатни бошқариш тизими қуйидаги тамойилларга асосланади:

таълимга бўлган талабларни илмий-техник тараққиёт ютуқлари ва халқаро стандартларни ҳисобга олган ҳолда англаш;

истеъмолчига мўлжал олиш, меҳнат бозоридаги кескин рақобат бошқариш тизимидан сафарбарлик ва динамикликни талаб этади;

мониторинг натижаларини ҳисобга олган ҳолда ўқув жараёнини доимий такомилаштириб бориш.

Болонья жараёни иштирокчиларининг Берлин шаҳрида бўлиб ўтган йиғилишида (сентябрь, 2005 й.) асосий оралиқ устуворликлар белгиланган бўлиб, булар: сифатни таъминлаш, икки даражали тизим, даражалар ва таълим даврларини тан олиш ҳисобланади. Бу жараёнда сифат масаласи биринчи ўринда турибди, уни таъминлаш ОТМларининг зиммасига юклатилади.

Илмий-педагогик адабиётларда таълим сифати асосан таълим натижалари билан баҳоланиши қайд этилиб, асосий урғу когнитив масалаларга берилади. Таълим сифати на фақат битирувчиларнинг «чиқиш» натижалари билан, балки таълим жараёни сифати, яратилган шароитлар билан ҳам баҳоланиши таъкидланади [4. 23 б.].

Таълим сифати таълим жараёни натижадорлиги ва аҳволи, унинг жамият ва давлат талабларига мослигини белгиловчи, шахснинг фуқаролик, маиший ва касбий компетенцияларини шакллантирувчи ва ривожлантирувчи ижтимоий интеграл категория сифатида талқин этилади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-414-422

Замонавий таълим концепцияларида таълим сифати таълим натижаларининг давлат норматив талаблари, ижтимоий ва шахсий кутишларга мос таълим тизимининг интеграл хусусияти сифатида талқин этилмоқда.

Республикамизда мустақиллик йилларида яратилган ва бугунги кунда янги босқичда ривожлантирилаётган таълим модели давлат, жамият ва шахс талабларига мос таълим сифатини таъминлашга қаратилган бўлиб, шахсга йўналтирилган ва компетенциявий ёндашувлар асосида амалга оширилмоқда.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, биз «Таълим сифати» тушунчасини давлат таълим стандартлари ва давлат талабларида белгилаб қўйилган натижаларга эришишни таъминлайдиган таълим жараёни, яратилган шарт-шароитлар ҳамда таълим олувчилар тайёргарлигининг юқори даражаси сифатида таърифлашни илгари сурамиз.

Шу билан бирга, сифат тушунчаси олий таълимдан манфаатдор гурухлар ва турли ваколатли ташкилотлар томонидан турлича қабул килиниши мумкин.

Олий таълимда сифат ва сифатни баҳолаш масаласи XX асрнинг охирида дунё миқёсида энг долзарб масала сифатида майдонга чиққан. ЮНЕСКО томонидан 1998 йилда ўтказилган конференцияда бутун дунё деклерацияси кабул қилинди ва унинг 11-моддаси “Сифатни баҳолаш” деб номланди ва унда сифат олий таълим соҳасида кўп ўлчамли концепция деб таърифланди. Унга кўра, ўқув ва академик дастурлар, илмий тадқиқот ишлари, профессор-ўқитувчилар, талабалар, ўкув бинолари, моддий-техника база, жиҳозлар, жамият учун сифатли кадрлар тайёрлаш, академик муҳит сифатни белгиловчи дастурлар қаторида келтирилади. Шунингдек сифатни баҳолайдиган ташкилотлар тўғрисида маълумот берилади [14. 6-сон, 22 б.].

Хорижий илмий манбалар таҳлили шуни кўрсатадики, жаҳон олий таълимидаги сифат тушунчасини ёритиб бериш ва унинг универсал изоҳи бўйича муайян ва якуний тўхтамга келинган эмас. Шундай бўлса-да, унинг бир неча талқинлари бор. Бу борада ғарб олимларининг турлича қарашлари юзага келди.Олий таълимда сифат тушунчасини талқин қилишда Диана Гриннинг қарашлари ўзига хосдир[7. P.1-21.]. У сифатнинг анъанавий маьноси (the traditional concept of quality) тўғрисида фикр юритади. Унга кўра, мижозлар томонидан қўйилаётган талаб даражасида маҳсулот етказиш, сервис кўрсатиш ва муваффакиятга эришиш, имиджга эга бўлиш сифат ҳисобланади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-414-422



2-расм. Олий таълим «сифати» тушунчасини аниқлашга бўлган ёндашувлар [3. 443-446.б**].**

Д.Грин сифатнинг мақсадга мувофиқлиги (Quality as fitness for purpose) ҳақида ҳам фикр билдиради. Грин бу ғояни бир неча саволлар қўйиш орқали тушунтириб беради: олий таълимнинг мақсади жамиятга етук кадрларни

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-414-422

етказиб бериш бўлса, у ҳолда бу вазифани улар уддалай олмокдами, таълим дастурлари етарлича билим ва кўникмаларни акс эттира олганми, ОТМ ўзи белгилаган истиқбол (vision) ва миссия (mission)mKpo этилмоқдами? каби.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Демак, ушбу қарашлар орқали таълим стандартлари сифатни аниқлашда асос бўлади деб ҳисобланади, лекин олий таълимнинг мақсадини аниқлаш ва интерпретация қилишда ҳам турли қарама-қарши фикрлар мавжуд. Олий таълим мақсадини талабалар, ўқитувчилар, илмий ходимлар, раҳбарият ёки хукумат аниқлаб бериши мунозараси ҳам бор. Албатта, ушбу манфаатдор гурухларнинг олий таълимдан кўзлаган мақсадлари бир-бирларидан айни ўринда фарқли ва уларнинг уйғунлиги ҳам бор. Бу эса олий таълимнинг кўп максадли эканлигини ҳам кўрсатади.

Иқтисодиётдан олинган тажрибалар шуни кўрсатадики, олий таълимда юқоридаги каби истиқболли йўналишлар тенг даражада долзарбликка эга бўлиб, ўзаро мувозанатни сақлаган ҳолда ривожлантириш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. АҚШ, Англия ва Италияда давлат ташкилотлари, соғлиқни сақлаш ва таълимда КМСТкўп йиллардан бери қўлланиб келинмокда. Масалан, Италияда олий таълим вазирлигининг 2007-2009 йилларга мўлжалланган университетларда режалаштириш ишларини амалга ошириш учун КМСТ методидан кенг фойдаланилган [6. p2]. Англиядаги Эдинбург университети 2002 йилда бошқарув ва стратегик режалаштириш бўйича ўзига хос КМСТ ишлаб чиққан. Унда университетнинг стратегик мақсади ва вазифаларини амалга оширишни акс этувчи 32та асосий кўрсаткичлар мавжуд бўлган [15]. Бундан кўринадики, ушбу метод асосан кўрсаткичли натижага эга бўлган жараёнлар учун қўл келади. Руминияда ушбу методдан ОТМменежментини такомиллаштиришда қўлланилган [16]. Кайзен ёки узлуксиз сифат яхшиланиши (Continuous Quality Improvement) методи эса сифатга эришишда ташкилотнинг барча жабҳаларини, иш фаолиятларини, барча персоналлар (раҳбардан тортиб қуйи поғона ишчи-ходимларигача) фаолиятини жалб этиш тушунилади. Кайзен ташкилотдаги кераксиз ва фойдасиз фаолият ва тадбирларга чек қўйиб, илмий янгиликлар ва экспериментал тажрибаларни кенг қўллаш асосида барча жараённи ташкилот ривожланишига қаратади. Кайзен (Kaizen) японча сўз бўлиб “ривожланиш” маьносини билдиради ва фанда узлуксиз сифат яхшиланиши маъноси билан жой олган. Кайзен асосан ишлаб чиқариш ва

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-414-422

бизнесда кенг тарқалган бўлиб, иккинчи жаҳон урушидан сўнг Японияда пайдо бўлган. Япониянинг Тойота ва бошқа йирик компанияларининг юксак ютуқларга эришишига сабабчи бўлган. Узлуксиз сифат яхшиланиши олий таълпмда 1990 йилдан бошлаб қўлланила бошлаган. Масалан, Америкадаги Жоржиа Тек (Georgia Tech), Мариланд (Maryland), Шимолий Дакота (North Dakota), Орегон давлат (Oregon State), Пенсилвания давлат (Penn State), Пурдю(Ригёие), Висконсон (Wisconsin) каби университетларда ва Рочестр технология институтида (Rochester Institute of technology) узлуксиз сифат яхшиланшпи талабаларга хизмат кўрсатиш ишларини такомиллаштиришда, ўқув дастурларини талаба-мижознинг эҳтиёжларига мослаштиришда ҳамда административ операцияларнинг самарадорлигини оширишда қўлланилган.[12. 35-48.р6] Бундан ташқари, Шимолий Ирландиядаги Улстер (Ulster) университети, Англиядаги Волферҳамптон (Wolverhampton) университети, Астон университетида ҳам кампус инфраструктурасини ва ўқув жараёнини такомиллаштиришда қўлланилган. Узлуксиз сифат яхшиланиши маълум фанларни ривожлантиришда ҳам қўлланилган. Бунга АҚШдаги Аризона университетининг фармацевтика факулътетида “Фармацевтикада илмий тадқиқот” фанини яхшилаш учун қўлланилганини мисол қилиш мумкин. Унда фаннинг бошқа фанлар билан ўзаро интеграциясини ошириш, талабаларни мустақил ўрганишга кўниктириш, маърузаларни инновацион методлар билан ўтиш каби вазифалар кўзланган. [9. 11 б.]

Юкорида келтирилган сифатни ошириш ёки сифатга эришиш методлари билан бирга ҳозирги даврда унинг янги турлари пайдо бўлмоқда, лекин уларнинг қай бири қачон, қайси муассасада ва қай ҳолда қўлланилиши юзасидан ҳозиргача бир тўхтамга келинган эмас. Тадқиқотчилар ўртасида Ҳамон баҳс-мунозаралар давом этиб, методлар янада такомиллаштирилиб ва уларга ўзгартиршплар киритиб келинмокда. Кўрилган методларнинг олий таълимда қўллашга бўлган талаб ва эҳтиёж ҳам кундан кунга ошиб бормокда. Албатта, бу борада ғарб мамлакатлари ҳамда ривожланган Осиё давлатларидаги ОТМлари сезиларлитажриба орттирган. Айни тажриба ва амалиётлар шуни тақозо килмоқдаки, улар орасида бенчмаркинг ва тюнинг каби методларнинг ўрни олий таълимда муҳим аҳамиятга эга бўлмоқда. Чунки, бенчмаркинг ва тюнинг методлари хорижий ОТМларда кенг қўлланмоқда ва бой тажриба шаклланган.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-414-422

ХУЛОСА

Хулоса қиладиган бўлсак олий таълимда сифатга эришиш унинг салоҳиятини, иқтисодий барқарорлигини таъминловчи кафолатдир. Хорижий мамлакатларда олий таълим сифат менежменти тушунчаси амал қилади ва у сифат кафолати, баҳолаш каби таркибий қисмларга эга. Бу уч таркибий унсурлар баҳолаш, аудит, аккредитация терминлари билан юритилади ва моҳияти жиҳатидан ўзига хослиги бўлса-да, мазмун жиҳатдан умумийликка эга. Уларга турли мамлакатларда турлича мазмун-моҳият ҳам берилган. Жумладан, аккредитациянинг ўзи амалга ошириш доирасига кўра, оир неча турлари мавжуд. Бу масалада Ўзбекистон Республикасидаги аккредитация халқаро меъёрлар хисобга олинган ва аниқ мақсад, вазифаларни амалга оширшпи билан характерланади.

Таълим стандартлари сифатни кафолатловчи энг муҳим ҳужжат ҳисобланади. Хорижий мамлакатларда унинг икки тури, яъни таълим стандарти ва академик стандартлар амалда қўлланади. Академик стандартлар тушунчаси автономия асосида ишлаётган университетларда жорий этилган, лекин у аксарият ўринларда давлат тасарруфидаги ҳамда автономия асосида фаолият кўрсатадиган таълим стандартларига нисбатан ҳам қўлланади.

Таълим стандарти ҳам, академик стандарт ҳам таълим сифатини кафолатлаш жиҳатидан умумийликка эга, лекин таълим дастурларининг эксклюзивлиги жиҳатидан улар бир-бирига ўхшамаслиги мумкин. Уларнинг таълим дастурларида танлов фанларининг кўплиги билан олий таълим муассасалари таълим стандартлари ўзаро фарқланади. Хорижий мамлакатларда таълим сифати билан асосан нодавлат структуралар, ижтимоий асосда фаолият кўрсатадиган ташкилотлар шуғулланади. Уларнинг олиб борган аудит ишлари, хулосалари ижтимоий фикр сифатида ижро этилиши қонунлаштирилган. Бундай нодавлат ташкилотлар келгусида мамлакатимгода ҳам шакллана бошлаши мумкин. Бунга ҳозирги пайтда олий таълим муассасалари қошида шакллантирилаётган васийлик кенгашлари асос бўлиб хизмат қила олади.

REFERENCES

1. Каримов А.А., Перегудов Л.В. Основн системм мониторинга и управления качеством вьюшего образования. -Т-2003. Стр 54.
2. Мустафакулов А.А. Качество образования и его обеспечение в педагогических образовательных учреждения // Молодой учёный. –Чита (Россия). 2014. -№ 6 (65). – С.733-737.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-414-422

3. Мустафақулов А.А. Педагогика олий таълим муассасасида кадрлар тайёрлаш сифатини бошқариш тизими // Бошланғич таълим ва жисмоний маданият йўналишида сифат ва самарадорликни ошириш: муаммо ва ечимлар мавзусидаги Халқаро илмий конференция. –Тошкент. 2017. –Б.443-446.
4. Бердиева, Д. Ш. (2019). Роль экологической культуры в повышении экологических отношений. *Евразийское Научное Объединение*, (10-6), 455-458.
5. Стандарты и руководства для обеспечения качества высшего образования в европейском пространстве высшего образования (ESG) // Одобрено Конференцией министров в Ереване, 14-15 мая 2015 г. С. 156.
6. Юлдашев М.А.Халқ таълими ходимларининг малакасини оширишда таълим сифати менежментини такомиллаштириш: докторлик диссертацияси автореферати – Т.: 2016.
7. Angela Maria D'Uggento, Massimo Iaquinta, Vito Ricci. (2010). A Proposal of a Balanced Scorecard for Govemanceand Strategic Planning in an Italian University.p2.
8. Green, Diana, ed. (1994). What is Quality in Higher Education?.Society for Research into Higher Education Ltd London (England).p
9. Hakan Wirlund.(2003). Innovation and TQM in Swedish higher education institutions-possibilities and pitfalls/TQM Magazine.Volume 15, number 2, 2003, pp99-107.1 бет.
10. JoLaine R. Draugalis, Marion K. Slack. (1999). A Continuous Quality Improvement Model for Developing Innovative Instructional Strategies American Journal of Pharmaceutical Education Vol. 63, Fall 1999. 1 бет.
11. LazarVlasceanu, LauraGriinberg, andDanParlea.(2004). *Quality Assurance and Accreditation: A Glossary of Basic Terms and Defmitions.Bucharest:* UNESCO [ISBN 92-9069-178-6], p49.
12. Linda M.Baldwin. "Total quality management in higher education: the implications of internal and external stakeholder perseptions". New Mexico State University. May, 2002. 16 бет.
13. Robert V. Hoggl and Mary C. Hogg.(1995). Continuous Quality Improvement in Higher Education.International statistics Review, 1995, 63, 1, 35-48.p6
14. Wouter Van den Berghe.(1997). Application of ISO 9000 Standards to Education and training.European Centre for the Development of Vocational Training.www.cedefop.gr 25 бет.].
15. Всемирная Декларация о вмсшим образовании для XX1века: подходм и практичнью мерь. / Интернет янгиликлари // Ахборот технологиялари ва масофавий ўқитиш маркази ахборотномаси, 2002 Сентябрь 6-сон, 22 бет.
16. http://www.planning.ed.ac.uk/Strateaic Plannina/BalancedScorecard.htm.
17. http://www.highbeam.com/European+Joumal+of+Management/ publications.aspx?date^200806.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-423-426

TEACHING CREATING SOFTWARE IN SOLVING INTEGRAL MODELS

Kholikulov Bekzod Jovliyevich
Karshi Engineering and Economics Institute
Senior Lecturer of the Department of Information Technology
bekzod1106@umail.uz

ABSTRACT

In this work, to find exact and approximate solutions of integral models using the object-oriented programming language Delphi 7.

Keywords: Delphi 7 programming language, mathematical model, optimal solution, exact solution, approximate solution.

INTRODUCTION

Mathematical models built as a result of modeling integral problems in higher education are often expressed in the form of different types of integral equations. Depending on the nature of the structured model, the solution of these models is solved using methods for solving integral equations. In the process of solving these equations, a sequence of operations is performed, such as various approximate calculations or analytical substitutions. We mentioned above that this process can be simple or complex depending on the structure and nature of the model. If the process is complex, in these cases it is advisable to create a software algorithm and develop software suitable for the computer operating system after choosing the method of solving the model. It is known that in the mathematical modeling of some objects it is necessary to determine the surface area and volume of the body, the center of gravity of the body and the moment of inertia, the amount of work done under the influence of a force. These quantities, on the other hand, lead to the precise integration of a given function in a range. However, depending on the nature of the problem under consideration, the function under the integral takes on the appearance that as a result it is not always possible to integrate it precisely. In this case, the integral has to be approximated. There are several ways to approximate the exact integral. Let's take a look at some of these methods.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-423-426

LITERATURE REVIEW AND METHODOLOGY

The flow of matter. [a, b] is a continuous function f (x) defined in the interval as follows

$$I = 4\int_a^b f(x)dx \qquad (1.1)$$

require the calculation of the integral with a given accuracy ε.

DISCUSSION

It is known from the higher mathematics course that if the function f (x) is given in the interval [a, b], then (1.1) is a definite integral x = a, x = b, u = f (x) curves bounded by lines and the abscissa axis represents a linear trapezoidal surface. Below (1.1) we present a number of approximate solution methods for the approximate calculation of the exact integral software in the Delphi 7 programming environment.

$$\int_{0.2}^{1.2} \frac{dx}{\sqrt{x^2+1}}$$

The program text is generated based on the algorithm of the above methods and the following result dialog box is generated in the Delphi7 programming environment.





Using this program, it is possible to solve arbitrary integral equations on the basis of the given conditions (1.1) Calculate the integral equation using the rectangular method. Results obtained in the Delphi7 programming environment:

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-423-426



Fig. 2 Approximate the integral equation using the trapezoidal method. The result obtained in the Delphi7 programming environment:.



Figure 3

(1.1) approximate the integral equation using the trapezoidal method. Results obtained in the Delphi7 programming environment:



Fig. 4

(2,3,4) - As can be seen in the figures, the methods of solving the integral equation in the form of a rectangle, trapezoid, simpson are given.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-423-426

CONCLUSION

Denmak can solve any specific problem in several ways. If the real process in question can be expressed with sufficient accuracy through mathematical relations, it will be possible to solve this problem by constructing a mathematical model. Solving a problem in this way is called the process of mathematical modeling.

REFERENCES

1. Эшматов Х., Абдуллаев З.С., Акбаров У.Й. «Математическое моделирование нелинейных несвязанных задач динамики термовязкоупругих систем».-Тошкент, 2004.
2. Эшматов Х., Бобаназаров Ш.П., Ахмеров И.С., Абдикаримов Р.А. «Математическое моделирование нелинейных задач о колебаниях и динамической устойчивости вязкоупругих систем». -Тошкент, 2006.
3. Зшматов Х., Юсупов М., Айнақулов Ш., Ходжаев Д. «Математик моделлаштириш ўқув қўлланма» -Тошкент, 2004

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-427-436

IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYA: SHAKLLANISHI, RIVOJLANISHI VA MUAMMOLARIGA OID BA'ZI MULOHAZALAR

Jo'rabek Abduazizovich Namozov
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Maqolada iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani shakllanishi va rivojlanishi hamda uning tarmoqlanish jarayoni to'g'risida mulohazalar keltirib o'tilgan. Fanning rivojlanishi jarayonida metodologiyasi va nazariyasining o'zgarib borishi bilan bog'liq muammolar ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, tabiiy geografiya, aholi, hududiy mehnat taqsimoti (HMT), rayon, mintaqaviy iqtisodiyot

ECONOMIC AND SOCIAL GEOGRAPHY: SOME CONSIDERATIONS ABOUT FORMATION, DEVELOPMENT AND PROBLEMS

ABSTRACT

The article discusses the formation and development of economic and social geography, as well as its branching process. Problems related to changes in methodology and theory during the development of science have been scientifically analyzed.

Keywords: economic and social geography, natural geography, population, territorial division of labor (HDI), region, regional economy

KIRISH

Fanlar o'rtasida differensiatsiya jarayoni boshlangach, alohida – alohida fan tarmoqlari vujudga kela boshladi. Bunda dastlabkilari keyingilari rivojlanishiga yordamchi vazifasini bajarib berdi deyish mumkin. Tarixdan ma'lumki, har bir davrda ayrim fanlarga ehtiyoj boshqalariga nisbatan ko'proq bo'ladi. Chunki, shu vaqtda, ma'lum bir joydagi vaziyat shuni taqozo etadi. Masalan: olam va odamni o'rganishga bo'lgan qiziqishlar orqali dastlabki fan "falsafa" vujudga keldi va rivojlandi (mil.avv. V-XI asrlar). Undan amaliy falsafa ajralib chiqdi, so'ngra boshqa fanlar mana shu ikki fan negizida shakllanib tarmoqlana boshladi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-427-436

Geografiya fani ham kishilarning atrof – muhitga bo‘lgan qiziqishlar orqali yuzaga keldi. Bu haqda dastlab, qadimgi yunon olimi, ushbu fanning otasi Eratosfen aniq ma’lumot berdi, “geografiya” terminini ilk bora fanda ishlatdi. Strabon ham geografiya to‘g‘risida 17 ta kitob yozib, juda ko‘p ma’lumot qoldirdi. Biroq XV-XVIII asrlarga kelibgina, ya’ni “buyuk geografik kashfiyotlar” davrida, bu fan ayniqsa juda tezlik bilan rivojlanib ketdi. Ushbu jarayon dunyoning barcha joylari o‘rganilib bo‘lguncha davom etdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya metodologiyasiga oid tadqiqotlar bilan juda ko’p geograf olimlar shug’ullanishgan. Bu borada rus geograflaridan dastlab E.Den fanning iqtisodiy geografiyani ishlab chiqarish bilan bog’lagan bo’lsa (Дэн Э.М. «Курс экономической географии»), N.Baranskiy va A.Grigoryev rayonlar ahamiyatini kuchaytirib berdi (Баранский Н.Н. Избранные труды. Научные проблемы географии). Saushkin esa fanning fundamental tushunchasi bo’lgan “hududiy mehnat taqsimotini asoslab berdi”.

O’zbek olimlaridan Z.Akramov, T.Raimov, A.Qayumov va boshqalar fanning turli yo’nalishlari bo’yicha tadqiqot olib bordilar. Ayniqsa, A.Soliyev iqtisodiy va ijtimoiy geografiya nazariyasi hamda metodologiyasiga oid asarlari bilan fanning rivojlanishiga ulkan hissasini qo’shdi (Солиев А.С. Иқтисодий география: назария, методика, амалиёт).

NATIJALAR

Geografiya ham fundamental fanlar qatoriga kirganligi uchun, jamiyat rivojini usiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Biroq so‘nggi yillarda, dunyo miqyosida, shular qatori yurtimizda ham bu fanga bo‘lgan qiziqish susayib ketdi, aniqroq aytganda, jahonda, ayniqsa yurtimizda rivojlanishi sekinlashib qoldi. Mamlakatimizda geografiya fanining bunday holga tushib qolmasligi uchun zamonaviy nazariya va metodikalar bilan boyitish zarur. Bu borada qilinayotgan ishlar juda kamligi sababi ko‘pchilik fanlar kabi, bu yerda ham (to‘g‘ri ma’nodagi) raqobatning sustligidir. Boshqa fanlar qatori bu yerda ham differensiya jarayoni to‘xtovsiz davom etmoqda, ammo integratsiya (birlashish, hamkorlik) ancha orqada qolmoqda. Natijada geografiyaning tarixiy yutuqlaridan (landshaft, region yoki mintaqa, rayon va boshqalar) boshqa fan vakillari ustalik bilan foydalanishmoqda.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-427-436

Dastlab geografiya fani ichidagi jarayonlar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Geografiya ya’ni umumiy geografiya (yoki umumiy yer bilimi) ikki yirik guruhga bo‘linadi:

1. Tabiiy geografiya
2. Iqtisodiy (va ijtimoiy) geografiya

Bulardan biri tabiiy fanlar qatoriga kirsa, ikkinchisi ijtimoiy sohalarga yaqin kelib qolgan, yoki shu yo‘nalish muammolari bilan ko‘proq shug‘ulanyapti. Eng birinchi va asosiy differensiatsiya jarayoni ham mana shu yerda kuzatiladi va bu geografiya fanidagi ilk uzilish bo‘lib hisoblanadi. Boshqa fundamental fanlarda bo‘lganidek, geografiya ham zamon bilan hamnafas rivojlanib bormoqda, yangidan – yangi yo‘nalishlar vujudga kelmoqda. Biroq asosiy jihatni esdan chiqarmaslik lozim, bular o‘zining asosi, o‘zagi bo‘lmish tabiiy geografiyadan uzoqlashib bormoqda. Boshqa geografiyaga yaqin fanlar qatori iqtisodiy geografiya ham usiz (tabiiy geografiyasiz) rivojlana olmaydi. Sababi tabiiy geografiya (oliy o‘quv yurtlarida “umumiy yer bilimi” o‘qitiladiki, tabiiy geografiyaning asosiy barcha tushunchalari mana shu fan orqali o‘rgatiladi) barcha geografiya fanlari uchun fundament vazifasini bajaradi. O‘z navbatida geografiyani zamonaviy fanlar qatoriga qo‘shgan, uni iqtisodiyotga, ishlab chiqarishga, ayniqsa insonga yaqinlashtirgan tarmog‘i bu iqtisodiy yoki iqtisodiy va ijtimoiy geografiyadir. Demak ikkalasi bir – biriga chambarchas bog‘langan, biri ikkinchisini taqozo etadi, keyingisi oldingisisiz

rivojlana olmaydi.

O‘zi iqtisodiy geografiya qachon paydo bo‘lib qoldi? Amaliy jihatdan ushbu fan XIX asrda, Germaniyada vujudga kelgan bo‘lib, u nemis kameral statistikasi, ingliz tijorat geografiyasi (kommercheskaya geografiya) hamda eng asosiysi Fransiya (va Rossiya) regional geografiyasi (peysaj) asosida shakllandi va rivojlana boshladi. Bundan taxminan bir asr oldin (1760 y.) rus olimi M.V.Lomonosov ushbu atamani fanda birinchi marta ishlatgan edi. Nazariy jihatdan esa iqtisodiy geografiya yer yuzida inson paydo bo‘lgandan (tabiiy geografiya esa yer shakllangandan) so‘ng vujudga kelgan deb hisoblash mumkin. YA’ni odamzod tabiatdan, iste’mol maqsadi uchun foydalana boshlashi bilan iqtisodiy geografiya (aniqrog‘i iqtisod hamda uning

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-427-436

hududiy xususiyatlari) shakllana boshlagan edi. Garchi odamlar dastlab, hech narsa yaratmagan, ishlab chiqarmagan, tabiatdan faqat tayyor mahsulotlarni olgan bo‘lsa ham, ma’lum bir (geografik) qonuniyatlar asosida hayot kechirishgan. Masalan: har bir kishi bir umr yashashi, hayot kechirishi uchun (u paytda o‘rtacha umr ko‘rish yoshi taxminan 20 – 25 lar atrofida bo‘lgan) unga 500 gektar yer kerak bo‘lgan, kuniga 30 – 35 km yo‘l bosishga majbur bo‘lishgan [1].

Iqtisodiy geografiyani aholi bilan bog‘liq bo‘lgan jihati, ushbu fanning asosida, markazida inson yoki aholining turishidir. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, bu fan geografiyani, insonga, jamiyatga yaqinlashtirdi.

Umuman olganda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning o‘zi ham uchta asosiy bo‘limdan iborat (A.Soliyev).

Iqtisodiy geografiya: sof iqtisodiy geografik masalalarni o‘rganadi. Bularga sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi va boshqalarni kiritish mumkin.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya: iqtisodiy geografiyani insoniyat bilan bog‘liq muammolarini o‘rganadi: aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari geografiyasi, aholi manzilgohlari geografiyasi, shaharlar geografiyasi, qishloq joylari geografiyasi va hok.

Sotsial geografiya: Sotsial geografiya tor ma’nodagi ijtimoiy geografiya bo‘lib, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bu yo‘nalishida, insonni, jamiyatni hududlarga bog‘liq holda o‘rganadi. Bular: tibbiyot, din, jinoyat, fan va ilmiy tadqiqotlar geografiyasi va boshqalar.

Fanda aslida to‘rtinchi tarmoq ham mavjud va u oldinroq paydo bo‘lgan. Bu siyosiy geografiya (dastlab harbiy geografiya deb atalgan) bo‘lib, u ham bir necha tarmoqlarga bo‘linadi. Bular, elektoral (saylovlar) geografiya, limologiya (chegaralar haqidagi fan), konfliktologiya va boshqa yo‘nalishlardan iborat. Bir vaqtlari geografiya ham siyosiy yoki harbiy geografiyaning ichida vujudga kelgan.

MUHOKAMA

Shu o‘rinda bir qiziq holatni kuzatish mumkin. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya umumiy geografiyani odamga, aholiga qanchalik yaqinlashtirgan bo‘lsa, sotsial geografiya jamiyat hayotiga yanada chuqurroq kirib borganligini qayd qilish lozim. Aynan mana shu uchinchi bo‘lim o‘zining asosidan, bazisdan ajralgandek ko‘rinmoqda, go‘yo. E’tibor bering o‘y – xayollar geografiyasi, xulq – atvor geografiyasi, sport geografiyasi va hok. Bizda ushbu yo‘nalishlar o‘rganilgani yo‘q,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-427-436

ammo XX asrning o‘ttizinchi yillaridayoq iqtisodiy geografiyaning asoschilaridan biri N.N.Baranskiy “iqtisodiy geografiya insonni nafaqat ishlab chiqarishdagi ishtiroki, yashash sharoiti va faoliyatini, balki uning o‘y – xayollarini o‘rganishi lozim” deb aytgan edi (“geologiyadan idealogiyagacha”). Bizda hali bu borada ko‘zga tashlanarli ishlar qilingani yo‘q, borlarini ham faqat shu sohani mutaxassislari yaxshi tushunishi mumkin, boshqalar esa bu yo‘nalishlarni geografiyaga tegishli emas deb hisoblashadi. Umuman ushbu sohalarni o‘rganish uchun talabning o‘zi ham yetarli emas.

Yuqorida ta’kidlanganidek iqtisodiy geografiya bevosita aholi bilan bog‘langan, uning diqqat – markazida inson va u bilan bog‘liq omillar turadi (o‘zi ishlab chiqaradi, o‘zi iste’mol qiladi). Demak bu fan uchun inson yoki aholining o‘rni be’qiyos, shuning uchun uni o‘rganadigan alohida “aholi geografiyasi” fani vujudga kelgan. O‘z navbatida aholi geografiyasi ham bir necha qismlarga bo‘linadi (etnogeografiya, geodemografiya, aholi manzilgohlari geografiyasi va boshqalar). Aholi manzilgohlari geografiyasi nisbatan avvalroq o‘rganilgan bo‘lib, u o‘z navbatida ikki yirik tarmoqqa shaharlar va qishloq joylari geografiyasiga bo‘linadi. Bularning ichida shaharlar geografiyasi dunyo miqyosida, shu jumladan respublikamizda ham ancha yaxshi tadqiq etilgan.

Geodemografiya aholi geografiyasining muhim qismi bo‘lib, zero u aholini miqdoriy jihatdan rivojlanishini, ya’ni takror barpo bo‘lishini o‘rganadi. Chunki, aholi soni muntazam ravishda o‘zgarib, o‘sib borgan. Ana shunday keskin o‘zgarishlardan biri, aholini keskin ko‘payishi, yoki demografik revolyutsiya (inqilob)dir. Milodning boshigacha bo‘lgan davrda ushbu jarayon asosan ikki marta sodir bo‘ldi.

Olovning kashf qilinishi (miloddan avvalgi 60 minginchi yillarda).

Ulkan sivilizatsiyaning vujudga kelishi (bronza davrida, miloddan avvalgi 3 minginchi yillarda).

Olovning kashf qilinishi insoniyat hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi. Jumladan;

- tug‘ilishning yuqori ko‘rsatkichlari saqlangan holda, o‘lim holatlari keskin kamaydi;
- yashash areali ancha kengaydi (odamlar sovuq joylarda ham yashay boshlashdi)
- shu asosda aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi uzayib bordi;
- umuman olganda insonlar birinchi marta tabiatdan ustun kela boshladi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-427-436

Ma’lum bir davrda, har qanday jamiyatda o‘ziga xos qonuniyatlar shakllanadiki, odamlar unga qat’iy bo‘ysunadi, yo‘riqlariga amal qiladi. Bundan tashqari bu qonuniyatlar vaqt davomida o‘zgaradi, rivojlanadi va takomillashib boradi. Ularni o‘zgartirish uchun kuchli sabab (turtki) kerak bo‘ladi. Bunga olovning ixtiro qilinishini misol qilib keltirish mumkin. Keyinchalik odamlar faqat tayyor mahsulotlarga qarab qolmasdan, balki o‘zlari ham mehnat qilib, kerakli ozuqalar yetishtira boshlashdi. Dastlab chorvachilik ovchilikdan, so‘ng dehqonchilik chorvachilikdan ajralib chiqdi va o‘zi mustaqil rivojlana boshladi. Bu iqtisodiy geografiya tarixidagi ilk geografik (hududiy) mehnat taqsimotidir.

Hududiy mehnat taqsimoti (HMT) – biror joyning ma’lum bir mahsulot yetishtirishga ixtisoslashuvidir. U ijtimoiy mehnat taqsimotining (IjMT) bir qismi, iqtisodiy geografiyaning to‘rt asosiy tushunchasidan biridir. IjMT – bu mehnatni, ishlab chiqarishni xalqlarning (dehqonlar, chorvadorlar, savdogarlar, hunarmandlar va boshqalar) orasidagi taqsimlanishi bo‘lib, HMT dan ancha oldin vujudga kelgan edi. HMT iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fundamental tushunchasi bo‘lganligi uchun, bu voqea muhim ahamiyat kasb etadi. Demak iqtisodiy geografiya shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan sabablar birma – bir sodir bo‘la boshladi.

- ✓ yer yuzida hayotning paydo bo‘lishi (tabiiy geografiya);
- ✓ insoniyatning vujudga kelishi;
- ✓ birinchi hududiy mehnat taqsimoti
- ✓ karta (xarita)ning vujudga kelishi va rivojlantirilishi.

Iqtisodiy geografiya rivojlanish davrida, nafaqat o‘z nomini, shu bilan bog‘liq ravishda, maqsadi va vazifalari, predmeti va obyektini o‘zgartirdi (kengaytirdi), rivojlantirdi. Iqtisodiy geografiyani amaliy jihatdan rivojlanishiga sabab, iqtisodiyot fani ichida vujudga kelganligidir (1924 yil, V.E.Den). Biroq haqiqiy iqtisodiy geografik fan sifatida faqatgina “rayon” tushunchasi kiritilgandagina shakllandi, iqtisoddan ajralib chiqdi (1930 yil, N.N.Baranskiy). Agar tabiiy geografiyada landshaft asosiy, birlamchi tushuncha bo‘lsa, iqtisodiy geografiyada bu rayondir (A.Lyosh fikricha, iqtisodiy landshaft). Zero iqtisodiy geografiya bu iqtisodiy rayondir (A.A.Soliyev).

Bizga ma’lumki, geografiyadan ko‘ra iqtisodiyot fanlari aholi hayot faoliyati bilan yaqinroq shug‘ullanadi. Iqtisodiy geografiya iqtisoddan ajralib chiqqandan so‘ng, mamlakat hududlarining iqtisodiy jihatlarini o‘rganadigan alohida fanga ehtiyoj tug‘ila boshladi. Bunga AQShda 1929-1933 yillarda yuz bergan iqtisodiy

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-427-436

bo‘hron (krizis) katta turtki berdi. Mamlakatning kichik bir joyida boshlangan ocharchilik keyinchalik butun hududiga o‘z ta’sirini o‘tkaza boshlagan, bu esa ulkan inqirozning vujudga kelishiga sababchi bo‘lgan edi. Voqea har tomonlama o‘rganilgach, uning yana takrorlanmasligi choralari ko‘rila boshlandi. Ushbu muammolarni hal qilish asnosida yangi fan shakllana boshladi. Aynan mintaqaviy iqtisodiyot fani, iqtisodiy geografiya sodir etgan bo‘shliqni to‘ldirgan edi.

50 yillarning boshlarida bir qator mintaqashunoslik fanlari vujudga kela boshladi (mintaqaviy demografiya, mintaqaviy sotsiologiya va boshqalar). Uning asoschisi amerikalik geograf olim U. Izard hisoblanadi. Mintaqaviy iqtisodiyot ham mintaqashunoslik fanlari qatoriga kiradi. Ushbu fan yuqorida qayd qilinganidek qaysidir ma’noda iqtisodiy geografiyani o‘rnini egallay boshlagan edi. Bunga sabab ikkala fanning ham vazifasi, hamda tadqiqot doirasining bir-biriga o‘xshashligidir. Chunki, ta’kidlab o‘tilganidek, bir vaqtlari (XX asr boshlari, Den) iqtisodiy geografiya iqtisod fanining tarmog‘i hisoblanar edi. U geografiya fanining bir qismiga aylangach, uning o‘rnini mintaqaviy iqtisodiyot egalladi hamda ushbu ikki fan olimlari o‘rtasida turli bahs - munozaralar vujudga kela boshladi. Bu yerda go‘yoki, obyekt va predmet bir xil bo‘lib qolgan ekan. Bundan xulosa qilsa bo‘ladiki, bularning qaysisidir ortiqcha (kimlarningdir fikricha, keraksiz) fan bo‘lib qoladi. Mana shunday jiddiylashib ketgan muammo esa juda g‘alati usulda (1980 yilda) hal etildi. Iqtisodiy geografiya bu iqtisodiylashgan geografiya bo‘lsa, mintaqaviy iqtisodiyot esa geografiyalashgan iqtisod deb tan olindi. Bu yerda iqtisodiy geografiyaga berilgan ta’rif qaysidir ma’noda mos kelishi mumkin. Biroq, mintaqaviy iqtisodiyot, bizningcha sof iqtisodga, aniqrog‘i makroiqtisodiyotga, boshqa tomondan esa mintaqashunoslik fanlariga tegishlidir. Demak bu fanlarning har birini o‘z o‘rni, obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari bor ekan. Ular jamiyatda vujudga keladigan muammolarni birgalikda, aniqrog‘i birin-ketin o‘rganadilar. Bunda taxminan quyidagicha ko‘rinishda zanjir vujudga keladi.

Tabiiy geografiya ⟹ **Iqtisodiy geografiya** ⟹ **Mintaqaviy iqtisodiyot**

Iqtisodiy geografiya boshqa tabiiy resurslarning ham xo‘jalikda foydalanish nuqtai-nazaridan hududlar bo‘yicha oqilona taqsimlashni yo‘lga qo‘yish bilan shug‘ullanadi. Bu jihat ushbu fanning asosiy yutug‘i bo‘lishi bilan birga, jiddiy kamchiligi hamdir. Chunki tabiiy resurslar, shu jumladan, yer va suvdan hududlardan tashqari tarmoqlarda ham turli xil maqsadlarda foydalaniladi. Bu borada uning eng yaqin hamkori, sohasi hamda raqobatdoshi mintaqaviy iqtisodiyot fanidir. Chunki

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-427-436

ushbu fan tarmoqlar bo‘yicha ham tadqiqot olib boradi, bundan tashqari uning asosiy maqsadi resurslarning foydalilik koeffitsiyentini o‘rganishdan iborat. Demak mazkur fan iqtisodiy geografiyaga nisbatan amaliyotga ancha yaqinroq turadi. Biroq mintaqaviy iqtisodiyot asosan tarmoqlar bilan bog‘langan. Iqtisodiyot tarmoqlarning tabiiy-xo‘jalik xususiyatlari, tabiiy sharoit va tabiiy boyliklar, xususan, yer va suv resurslarining hududiy jihatlarini o‘rganishda, iqtisodiy geografiya fani asosiy rol o‘ynaydi. Tabiiy sharoit va resurslarni shakllanishi, ularning zonal xususiyatlarini tabiiy geografiya aniqlab beradi. Demak, mintaqaviy iqtisodiyot iqtisodiy geografiyaga, iqtisodiy geografiya esa tabiiy geografiyaga bevosita bog‘langan. Mazkur bog‘lanishni ikki tomondan yana uzaytirish ham mumkin. Masalan, tabiiy geografiya geologiya va geomorfologiya, bular yana paleogeografiyaga, mintaqaviy iqtisodiyot esa makroiqtisodiyotga va hokazo. Biroq bu yerda asosiy maqsad tabiiy boyliklarni tadqiq qilish uchun faqatgina mazkur tabiat unsurlarini xo‘jalikdagi ahamiyatini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan fanlar aloqasidan foydalanishdan iborat. Barcha tabiat komponentlari tabiatda, tabiiy holda shakllanadi hamda xo‘jalik maqsadlarida ishlatiladi va bu jarayon uzluksiz davom etadi. Bundan tashqari iqtisodiy (va ijtimoiy) geografiya nafaqat iqtisodiylashgan, shu bilan birga ijtimoiylashgan geografiya hamdir.

XULOSA

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya yanada ijtimoiylashib quloch yoyib rivojlanib bormoqda. Ammo sof iqtisodiy geografik tadqiqotlar biroz susaygandek, sekinlashgandek go‘yo-ki. Bunga sabab esa birinchidan qaysidir ma’noda unga ehtiyojning kamligi bo‘lsa, ikkinchidan shu bilan bog‘liq ravishda fanning o‘qitilish jarayoniga etiborning ozligidir. Ayniqsa, maktab darsliklarida u faqat tasviriy fan bo‘lib, asosiy qonuniyatlari to‘g‘risida umuman so‘z yuritilmagan. Uning amaliy ahamiyati haqidaku gapirmasa ham bo‘ladi. Shuning uchun o‘rtada katta tortishuv boshlangan. Geografiya (iqtisodiy va ijtimoiy geografiya) o‘zi qanday fan? Tasviriymi yoki amaliy? Geografiya fani atrofdagilar uni amaliy deyishsa, boshqalar faqatgina tasvirlab beruvchi fan deyishmoqda. Shubhasiz u amaliy, ammo bizningcha esa bu fan ham tasviriy, ham amaliy fandir, ya’ni har doim tasviriydan amaliyga aylanib boradigan fan desa ham bo‘ladi (avval tasvirlaydi, so‘ng amaliy ish bajaradi). Demak bu borada hammasi tushunarli, faqatgina boshqa soha kishilariga ham buni isbotlash lozim. Buning uchun esa fanni yangi (zamonga mos) tadqiqotlar bilan boyitib borish kerak.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-427-436

REFERENCES

1. Баранский Н.Н. Избранные труды. Научные проблемы географии. — М.: Мысль, 1980.
2. Дэн Э.М. «Курс экономической географии» (1924).
3. Изард У. Методы регионального анализа: введение в науку о регионах = Methods of Regional Analysis: an Introduction to Regional Science: 1960 / Пер. с англ. В. М. Гохмана, Ю. Г. Липеца, С. Н. Тагера. - М. : Прогресс, 1966. - 660 с.
4. Колосовский Н.Н. Избранные труды. - Смоленск, 2006.
5. Кистанов В.В. Территориальная организация производства. –М., 1981.
6. Лапкин К.И. Размещение и специализация сельскохозяйственного производства Узбекистана. -Т., 1966.
7. Липец Ю.Г., Пуляркин В.А., Шлихтер С.Б. География мирового хозяйства. - М., 1999.
8. Саушкин Ю.Г. История и методология географической науки. - М.: МГУ, 1976.
9. Солиев А.С. Иқтисодий география: назария, методика, амалиёт. - Т.: Университет, 2013.
10. Чистобаев А.И., Баженов Ю.Н. Территориальные комплексные программы. -Ленинград, 1984.
11. Abduazizovich, N. J., Muxamajanovich, S. S., & Amanovich, U. E. (2016). The territorial features of effective use of water resources (as Zarafshan basin). European science review, (1-2).
12. Namozov, J. A., Khamroeva, F. A., & Dovulov, N. L. (2021, September). Specific and integral efficiency use of land and water resources. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 839, No. 2, p. 022025). IOP Publishing.
13. Umirkulovich, S. A., Abduazizovich, N. J., & Turakulovich, R. F. (2021). Pasture Livestock Effects on Agricultural Land in Samarkand Region. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 447-451.
14. Саттаров Абдисамат Умиркулович, Намозов Джурабек Абдуазизович, Раджабов Фуркат Туракулович. (2021 год). Влияние пастбищного животноводства на сельскохозяйственные угодья Самаркандской области. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology* , *25* (2), 447–451. Получено с http://annalsofrscb.ro/index.php/journal/article/view/969

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-427-436

15. Фуркат Туракулович Ражабов, & Азиза Абдуллаевана Олимова (2020). ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ЕЧИМИДА ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРНИНГ АҲАМИЯТИ (ГЕОГРАФИЯ ТАЪЛИМИ МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, (3), 697-702.
16. Oybek Uralovich Abdimurotov (2021). "YEVROSIYO MATERIGI"NI O'QITISHDA "KEYS STADI" METODIDAN FOYDALANISH USULLARI. Academic research in educational sciences, 2 (1), 377-382. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00048
17. Шерзод Иброим Ўғли Иброимов, & Гулчехра Курдашевна Юсупова (2021). БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ (ТАБИАТШУНОСЛИК ФАНИ МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, 2 (Special Issue 1), 370-378.
18. Ражабов, Ф. Т., & Абдимуротов, О. У. (2020). ТАБИИЙ ГЕОГРАФИЯ КУРСЛАРИДА АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШДА ЯНГИ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ УСЛУБИЁТИ. Academic research in educational sciences, (4), 663-671.
19. Sherzod Ibroim Ogli Ibroimov, & Maxina Anarbayevna Usmanova (2021). GEOGRAFIYANI O'QITISHDA OG`ZAKI BAYON QILISH METODLARI. Academic research in educational sciences, 2 (10), 961-970.
20. Sherzod Ibroim Ogli Ibroimov, & Munisa Maxkambayevna Fatxullayeva (2021). MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH. Academic research in educational sciences, 2 (10), 1148-1157.
21. Ibroimov Sherzod Ibroim Ogli, & Ismoilov Azamat Adxamovich (2021). O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TARIXIGA NAZAR. Academic research in educational sciences, 2 (10), 999-1007.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-437-441

PROBLEMS OF TRANSLATING STYLISTIC DEVICES FROM ENGLISH INTO RUSSIAN IN FICTION

Madina Shakirovna Davlyatova
Master, TerSU, Termez, Uzbekistan

ABSTRACT

Language is a unique phenomenon through which the majority of communication in society takes place. One of the most important problems of modern linguistics is the problem of interlingual communication, which is usually carried out by means of translation.

Keywords: pragmatically receptor-oriented, syntactic constructions, the non-equivalent vocabulary, the target language, transferring information.

INTRODUCTION

Translation is a socially-caused process and result of transferring information (content), expressed in a written or spoken text in one language, through an equivalent (adequate) text in another language.

In a work of fiction, the function of the word is not limited to the transmission of specific information. Often the word is used to aesthetically influence the reader, which is made possible by artistic imagery. The brighter and more truthful the image, the stronger its impact on the reader.

Often in their works, writers refer not only to the vocabulary of the literary language, but also to the obsolete dialectal words, as well as to the vernacular.

MATERIALS AND METHODS

It should be noted that the emotionality of fiction narrative is very different from the emotionality of colloquial and journalistic styles. In a fiction text, it fulfills an aesthetic function. This style implies a careful and reasonable selection of language means. A distinctive feature of a fiction text is the use of special figures of speech, which add brightness and imagery to the narration.

Artistic expressive means are very diverse and numerous. These include tropes: comparison, personification, allegory, metaphor, metonymy, synecdoche and the like. Stylistic figures also belong to the means of artistic expression: epithets, hyperbole, litotes, anaphora, epiphora, gradations, parallelisms, rhetorical questions, reticence,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-437-441

etc.

A large number of tropes (turns of speech in which a word or expression is used in figurative sense) are characteristic of the literary style.

The tropes are based on the transfer of features of one object or phenomenon to another. There are different reasons for transferring the features in a trope, which are divided into simple ones like epithets, comparisons, metaphors, allegories, ironies, hyperboles, etc.

Translation is a complex process of transferring information from one language to another. There are still different approaches to studying the theory of translation and how to transform the linguistic units of the source text and the target text.

The challenge for the translator is to translate the meaning of the source text in such a way that the reader understands what is being said. But this is not always easy to achieve, because not all the concepts that exist in the source language, are fully contained in the target language, so there is a difference between the concepts of reality and the non-equivalent vocabulary.

Translation, as a process and a result of translation activity, depends on the orientation towards a certain receptor, a typical representative of the culture of the target language. The act of translation is pragmatically oriented in two ways. Firstly, it consists in a complete reproduction of the original; secondly, translation is pragmatically receptor-oriented.

The degree of similarity between the source and target texts depends on the degree of freedom the translator has in adapting information from the source text. Even experienced translators consider a translation that retains 80% of the content of the original to be excellent. Obviously, the greater the translator's degree of freedom, the further the text is from the original, the less it reflects the content and form of the original, and the vaguer the perception the reader has of the original.

The imagery and expressiveness of a narrative is provided by various stylistic figures in addition to tropes. These are turns of phrase and syntactic constructions used to enhance the expressiveness of a statement.

RESULTS AND DISCUSSION

Thus, such a technique as inversion (lat. "transposition", "flipping") is the arrangement of sentence members in a special order that violates the traditional (straight) order of words in a sentence in order to enhance and emphasize the expressiveness of speech.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-437-441

Parcellation is a division of a sentence in which the content of a sentence is realized not in one, but in two or more consecutive intonational units.

Punctuation is a stylistic figure that refers to the union of the members of a simple sentence or of parts of a compound sentence, whereas Polyjunctuation is the contrary, a deliberate increase in the number of conjunctions in a sentence, usually to connect homogeneous members.

Syntactic parallelism as a stylistic figure is characterized by the same construction of adjacent sentences or segments of speech.

Also, worth mentioning are such stylistic figures as alliteration and assonance. Their function is to repeat consonantal and vowel sounds respectively.

The translator does not translate at the level of individual language units, but at the level of the text, which creates a number of difficulties when choosing a translation option, so one of the issues of translation theory is to study the nature of translation creativity as a process of intuitive decision-making by the translator, in some cases, based on the etymology of nominations.

Hermeneutics is not so much a means of reaching the directly perceived object, that is, what we see and hear (touch), but rather those hidden relationships and determinants which together form the overall context and through the disclosure of which the directly perceived becomes intelligible. In the process of interpretation, the invisible content of a work becomes the subject of understanding and interpretation.

Understanding is the original phenomenon of thinking, as one starts to think only when one wants to understand something. For hermeneutics, understanding is the search for meaning written in the language of the text, meaning that must be recoded from the source language to the translated language. The core of text understanding is meaning, behind which human subjectivity, the author's individuality, can be traced.

Understanding is the translator's mastery of the meanings embedded in the work. Text comprehension is divided into two stages: process and result. The result of the process of understanding is the comprehension of the meaning of the work, which has to be recoded into the translated language. To understand a text, one must interpret the language of the work (the plan of expression and content of linguistic units), which carries a certain amount of information about the country, people, language and culture.

Let us emphasize that the problem of understanding would not arise in the process of recoding works into a translated language if all languages had a

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-437-441

homogeneous structure reflecting the subject world, thoughts and feelings. But languages are not unified; firstly, the volume of vocabulary varies; secondly, the fact that some subject fields overlap does not guarantee the identity of the lexical units intended to denote them.

The translation of stylistic devices that carry the imagery of a work often causes difficulties for translators because of the national features of the stylistic systems of different languages. All linguists emphasize the need to preserve the image of the original in translation, rightly believing that, first and foremost, the translator should strive to reproduce the function of the reception, rather than the reception itself.

Transmission of stylistic units is one of the most important tasks of translation. Special attention should be paid to it. There are certain stylistic requirements that a translation must meet, i.e. normative rules that characterize texts of a similar type in the target language. These requirements can include:

1. Conformity of meaning. The translator must always endeavor to ensure that the text translated will reflect the true meaning of the source text, depending on the style and direction of the translation. Meaningful consistency includes stylistic accuracy, adequacy and completeness.

2. Literacy. The main requirement is that the text must be in line with the general norms of Russian and foreign languages. As a rule, the absence of stylistic, grammatical and spelling errors is assumed.

3. Lexical and stylistic compliance. The correct choice of equivalents of the source terms, search of equivalents for abbreviations and acronyms, correct transliteration is assumed. The overall style of the translated text and the style of the original must not diverge in perception. For technical translations accuracy of phrases, absence of emotionally colored words, simple sentence structures and impersonality are typical.

In order for a speech to meet the basic stylistic requirements, be expressive, precise, stylistically motivated, and the means used in it would be the most appropriate to express this content and relevant in this context, the speaker has to master the stylistic resources of the language, know its stylistic norms.

CONCLUSION

Translation, both spoken and written, is a rather complex and multifaceted process. Translation is not just replacing one language with another. Different

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-437-441

cultures, personalities, levels of development, traditions and attitudes collide in translation. The translator's challenge has always been and always will be to keep in mind the complexities of translation and try to express the author's thoughts as faithfully as possible, all the while retaining the translator's various literary techniques. As mentioned above, becoming aware of these challenges is a step towards a successful professional translator. The translator's self-confidence should not turn into self-confidence, and the available knowledge - into a fixed dogma, not subject to verification or improvement. It's important to remember that translation is, above all, a difficult, painstaking, responsible job that requires not only versatile knowledge and creative attitude, but also a great desire to convey the author's intention as clearly as possible. It should be noted that such a transfer is virtually impossible, and a literary translation would only be an attempt to reproduce by means of another language the totality of the techniques of the original, a kind of variation on the theme of the original.

REFERENCES

1. Akhmanova, O. S., Zadornova, V. Ya. Theory and practice of translation in the light of the doctrine of functional styles of speech. // Linguistic problems of translation. - M., 1981. - C. 3-12
2. Boldyreva, L. V. Social and historical vertical context and the problem of understanding a literary and artistic text. D. ... Candidate of Philological Sciences. - M., 1991. - 133 л. Selemeneva L. V. Allusive aspect of the literary text as an object of pragmalinguistic and linguopoetic research (on the material of English and American literature). D. ... Ph. - M., 2000. - 257 c.
3. Flyagina, Y. V. Literary continuation as a subject of linguopoetic research. Dissertation. Candidate of Philological sciences. - M., 2000. - 178 c.
4. Issues of Translation Theory in Foreign Linguistics (ed. by V. N. Komissarov). - M., 1978. - 227 p. Questions of the Theory of Fiction Translation (ed. by T.A.Ruzskaya). - M., 1971. - 252 c. Current Issues of the Theory of Creative Translation. Materials of the All-Union Symposium. T. 1. - M., 1967. - 369 c.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-442-445

JISMONIY MADANIYAT SOHASINING O‘ZIGA XOSLIGI

Mansurbek Qobiljonovich Xodjayev
ADU, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti

ANNOTATSIYA

Maqolada jismoniy madaniyat sohasining o‘ziga xos jihatlari, maqsad va vazifalari, vosita hamda metodlari haqida fikr yuritilgan. Jamiyatimizda bu sohaning qay darajada muhim ekanligi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy madaniyat, prinsip, metod, sport, jamiyat, malaka, ko‘nikma.

ABSTRACT

The article discusses the specifics of physical culture, goals and objectives, means and techniques. In our society, how important it is important in our society.

Keywords: Physical culture, princip, methods, sports, society, qualifications, skills.

KIRISH

Jismoniy madaniyat aniq bir tizimga tayansagina, oldindan ko‘zlangan natijaga erishiladi. Jismoniy madaniyat tizimi deganda, avvalo, jismoniy madaniyatning prinsiplari, vositalari, metodlari va uni tashkillash shakllarining shunday umumiyligi tushuniladiki, u jamiyat a’zosini har tomonlama garmonik rivojlantirishning maqsad va vazifalariga mos bo‘ladi

Vatanimiz mudofaasi masalasi ham jamiyatimizda yo‘lga qo‘yilgan jismoniy madaniyat jarayoniga qator talablar qo‘yadiki, bu talablarni amalga oshirish natijasida jismoniy madaniyat tizimining obyektiv xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Mamlakatimiz aholisining har tomonlama jismoniy tayyorgarligi, jismoniy sifatlarini yaxshi rivojlanganigi Vatan mudofaasiga tayyorligining ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qilish lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Demak, O‘zbekistonda jismoniy madaniyatning asosiy maqsadlaridan biri O‘zbekiston xalqini jismoniy kamolotga erishgan, huquqiy davlatning aktiv quruvchilari, ijodiy mehnatga va Vatan mudofaasiga tayyor qilib tarbiyalashdir. Bu

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-442-445

maqsad mamlakatda jismoniy madaniyatni amalga oshirayotgan barcha tashkilot va muassasalar uchun umumiy hisoblanadi.

Maqsadning umumiyligi jismoniy madaniyat tizimining asosiy qonuniyatlaridan biridir. Ko‘rsatilgan maqsad va sharoitlarga javoban uni amalga oshirishda shug‘ullanuvchilarning yoshi, sog‘ligi, jismoniy tayyorgarligi, shug‘ullaniladigan kasbi hisobiga olinadi va jismoniy madaniyatda konkret vazifalar hal qilinadi. Jismoniy madaniyat tizimiga umumiy vazifalar qo‘yilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

a) odam organizmi forma funksiyasi garmonik rivojlantirish, jismoniy qobiliyatni har tomonlama kamolga yetkazish, sog‘likni mustahkamlash va xalqning uzoq umr ko‘rishini ta’minlashga yo‘nalish berish;

b) hayotiy zaruriy harakat malakalarini va ko‘nikmalarini, kundalik turmushda kerak bo‘ladigan jismoniy madaniyatga molik maxsus bilimlarni shakllantirish;

v) har tomonlama rivojlantirish uchun jismoniy sifatlarni madaniyatlash;

Inson jismoniy madaniyatining maqsad va vazifasi, uning boshqa madaniyat jarayonlari bilan bog‘liqligi shundagina muvofiq deb tushuniladiki, bu muvofiqlik obyektiv xarakterda bo‘ladi va jismoniy madaniyat jarayoniga qonuniy yo‘nalish beradi. Jismoniy madaniyat jarayonida madaniyatning boshqa sohalaridagidek maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat rejalashtirilgan natijaga har doim ham to‘g‘ri kela olmasligi amaliyotda isbotlangan. Jismoniy madaniyatda madaniyat natijasini yosh sportchi yoki jismoniy madaniyatchi mashg‘ulotidagi rejalashtirilgan jismoniy mashqlar uning organizmiga qanday ta’sir qilayotganligini hisobga olishni taqazo qiladi:

Qisqa yo‘nalishdagi sport mashg‘ulotlarining natijasiga e’tibor bersak, shuni ko‘ramizki, yuqori natijalarga erishish ma’lum davr ichida bo‘lib, oldingilari unutilsa, mashg‘ulotlar keyinchalik o‘zini oqlamaydi. Bu esa har tomonlama garmonik rivojlanishga halal beradi va sport yutuqlarini yo‘qqa chiqaradi.

Shuning uchun pedagog va trener oldida uzoqni kurish talabi ustuvor vazifa bo‘ladi. Bu vazifani hal qilish esa o‘qimishli, o‘z ishini biladigan, sevadigan mutaxassislar tayyorlash talabini qo‘yadi. Bu mutaxassislar esa mamlakatdagi jismoniy madaniyat tizimida amalga oshishi lozim bo‘lgan maqsad va vazifalarni ijobiy hal qilishga qodir, yosh avlodni bolalik chog‘idan jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk qilib tarbiyalash kerak bo‘ladi. Navqiron, o‘zligimizni endigina e’tirof etayotgan mamlakatimiz turli toifasidagi davlat va nodavlat sport jamiyatlari, jismoniy madaniyat havasmandlari uyushmalari tashabbusi bilan yagona jismoniy

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-442-445

madaniyat tizimini tuzishga e'tiborni kuchaytirib u o'zida quyidagi asosiy xususiyatlarni: ma'naviy barkamollik va ilmiylikni mujassamlashtiradi.

Sharq mutafakkirlari ma'naviy barkamol, komil inson masalasiga azal-azaldan alohida e'tibor berganlar. Komillik fazilatlaridan ulug'i tanning, inson jismining barkamolligidadir deyilgan. Insonning matonati, diyonati, riyozati, qanoati, ilm, sabr, intizom, nafs, vijdon, haqqoniyat, nazariy ibrat, iffat, hayo, idrok, zakovat, iqtisod, itoat, xayrixoxlik, munislik, sadokat, adolat, muhabbat, oliy himmatlik, afv, vatanni sevish kabi ijobiy xislatlari (A.Avloniy. "Turki guliston yoxud axloq" Toshkent "o'qituvchi"1992 .13.bet) ga faqat sog'lom jism, tansihatlilik orqali erishiladi deb qaralgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mamlakatimiz jismoniy madaniyat tizimining xalqchilligi deganda biz milliy o'yinlar tarzida xalq ommasi orasida keng tarqalgan jismoniy mashqlar. milliy sport turlari, ommaviy sport, olimpiadalar dasturidan o'rin olgan "katta sport" bilan ko'p milatli respublikamiz xalqlarini shug'ullanish imkoniyati borligi tushuniladi.

Jismoniy madaniyat tushunchasining ilmiyligini shunda ko'rish mumkinki, jismoniy madaniyat sohasi bo'yicha ilmiy tekshirish ishlarining keng tarqalganligi va uni amaliyot bilan bog'lab olib borilayotganligi, jismoniy madaniyat nazariyasi va amaliyoti ilmiy fanlari hisoblangan pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya, biomexanika, sport metrologiyasi, sport tibbiyoti, davolash jismoniy madaniyatsining va boshqalarga tayanganligi, ularning ilmiy yutuqlari xalqimiz hayotiy ehtiyojini qondirishga yo'naltirilganligidadir.

XULOSA

Jismoniy madaniyat tizimi bir-biri bilan o'zviy bog'liq bo'lgan guruhlarga bo'linib, hozirgi kunda ham madaniyat jarayonining turli dasturlarining bajarilishi shu guruhlarda amalga oshirilmoqda:

a) maktabgacha ta'lim(davlat va nodavlat maktabgacha bolalar muassasalari) guruhi;

6) maktab yoshidagilar jismoniy madaniyati (umumiy o`rta ta'lim I-IX sinflar) guruhi;

v) o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (akademik litseylar, kasb-hunar maktablari) guruhi;

g) oliy ta'lim guruhi;

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-442-445

d) armiya guruhi;

Jismoniy madaniyat tizimi o‘zida quyidagi asosiy elementlarni birlashtiradi:

a) jismoniy madaniyatning maqsadi, vazifalari va prinsiplarinnig maqsadga muvofiqligi;

b) jismoniy madaniyat tizimida qo‘llaniladigan vositalar - gimnastika, o‘yinlar, sport, turizm va boshqalar tipidagi jismoniy mashqlar;

Shu narsa e’tiborga molikki, rivojlangan mamlakatlarda jismoniy madaniyat sohasining turlicha tizimlaridan foydalanish chegaralab qo‘yilmagan.

REFERENCES

1. Aliev A. O'qituvchining ijodkorlik qobiliyati.-T., “O'qituvchi”.1991 y
2. Ataev A.K.Kurash.O'quv qo'llanma.-T., 1987 y
3. Abdumalikov R., Jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning nazariy asoslari. O'quv qo'llanma, -T., O'zDJTI nashriyoti. 1996 y

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-446-450

ИССЛЕДОВАНИЕ И АНАЛИЗ СИСТЕМЫ ВЕНТИЛЯЦИИ И ВЕНТИЛЯЦИОННЫХ ОБОРУДОВАНИЙ ГЛУБОКИХ ГОРИЗОНТОВ РУДНЫХ ШАХТ

И. Т. Мислибаев
д.т.н., профессор, декан Горного факультета НавГГИ
mislibaev65@mail.ru

А. Махмудов
к.т.н., доцент, заведующий кафедры ГЭМ НавГГИ
maxmudov-azamat@inbox.ru

Э. Ш. Мусурманов
Базовый докторант НавГГИ
elyor8606@mail.ru

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрен исследование и анализ метода решения актуальной задачи регулирования потоков воздуха в рудных шахт. Представлены основные особенности реализации комплексного подхода к оптимизации вентиляционных сетей рудных шахт в системе автоматизированного проектирования вентиляционных систем.

Ключевые слова: подземный, рудник, шахта, вентилятор, вентиляционная сеть, проветривание, регулирование потоков воздуха, моделирование.

RESEARCH AND ANALYSIS OF VENTILATION SYSTEM AND VENTILATION EQUIPMENT OF DEEP HORIZONS OF ORE MINES

ABSTRACT

The article considers the study and analysis of the method for solving the urgent problem of regulating air flows in ore mines. The main features of the implementation of an integrated approach to the optimization of ventilation networks of ore mines in the automated design of ventilation systems are presented.

Keywords: underground, mine, mine, fan, ventilation network, ventilation, air flow regulation, modeling.

ВВЕДЕНИЕ

Как известно, главными методами и средствами борьбы с газом в метанообильных рудных шахтах являются методы и средства вентиляции и дегазации, поэтому уровень развития этих важнейших областей горного дела

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-446-450

определяет и уровень метанобезопасности руда добывающего производства. Проблема создания безопасных по газовому и пылевому фактору условий ведения горных работ на рудных шахтах и других руда добывающих стран мира остается и в настоящее время очень острой. Сложность решения этой проблемы резко возрастает по мере ухудшения горно-геологических условий ведения горных работ, что связано с ростом глубины ведения работ, уровня выбросо- и удароопасности горного массива и другими негативными факторами.

МЕТОДОЛОГИЯ

Рудничная вентиляция занимает особое место в решении задачи дальнейшего улучшения охраны труда, обеспечивая требуемые санитарно-гигиенические условия труда и безопасное состояние рудничной атмосферы.

В последнее время возросла роль вентиляции и в создании условий для высокопроизводительной работы в шахтах. Требования непрерывного повышения безопасности труда и интенсификации производственных процессов поставили перед рудничной вентиляцией ряд новых задач и явились причиной ее быстрого развития в последние полтора десятилетия. Это привело к значительному углублению знаний в классических разделах вентиляции, таких, как дегазация, аэродинамическое сопротивление горных выработок, вентиляционные сети и другие, а также к формированию новых разделов этой науки (автоматизация вентиляции, динамика шахтных аэрозолей, надежность вентиляционных систем) и новых направлений в ранее существовавших разделах. Коренным образом изменились методы проектирования вентиляции.

В горной промышленности для проветривания подземных выработок и поверхностных сооружений применяются вентиляторы главного проветривания (главные и вспомогательные), вентиляторы частичного проветривания и вентиляторы общего назначения (сантехнические).

Вентиляторы главного проветривания обеспечивают подачу воздуха всей шахте (главные вентиляторы) или отдельному ее крылу (вспомогательные вентиляторы). Они располагаются на поверхности земли у устья герметически закрытых стволов или шурфов и действуют непрерывно. Вентиляторы главного проветривания являются стационарным электромеханическим оборудованием рудных шахт. Для их установки сооружаются фундаменты, здания и воздухоподводящие каналы. На газовых шахтах вентиляторы должны работать

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-446-450

на всасывание. Работа нагнетанием допускается на негазовых шахтах и при разработке первых горизонтов шахт I и II категории по газу. Главные вентиляторные установки должны оборудоваться реверсивными устройствами для изменения направления движения воздушной струи, поступающей в подземные выработки шахт. Для привода вентиляторов главного проветривания применяются синхронные и асинхронные электродвигатели с фазовым и короткозамкнутым ротором.

Для поддержания и увеличения производственных мощностей горно-добывающие предприятия вынуждены расширять площади отрабатываемых участков месторождений и переходить к вскрытию более глубоких залежей полезных ископаемых. В связи с этим увеличивается удаленность рабочих зон от шахтных стволов, глубина шахтных стволов, а следовательно, и суммарное аэродинамическое сопротивление шахт, и суммарные утечки воздуха в шахтах. При этом большинство главных вентиляторных установок на действующих рудниках работают на пределе своих возможностей, а единственным способом обеспечения требуемого количество воздуха на удаленных участках является установка дополнительных главных вентиляторных установок (ГВУ).

РЕЗУЛЬТАТЫ

Эффективность совместной работы нескольких ГВУ зависит от правильно подобранных режимов их работы. У каждого вентилятора, как правило, образуется своя зона максимального влияния – т. е. те выработки, расход воздуха в которых определяется преимущественно (более 50 %) работой данного вентилятора. При этом вентиляционная сеть шахты или рудника в целом может быть поделена на зоны влияния отдельных вентиляторов.

Для отработки новых горизонтов требуется пересматривать схемы вентиляции горных работ, учитывая связность вентиляционной сети и взаимосвязи вентиляционных параметров разных выработок.

Современные возможности вычислительной техники позволяют ставить задачи по проведению сложных процедур многокритериальной оптимизации вентиляционной сети, традиционно решаемых проектировщиками преимущественно на основе эмпирических подходов.

Усложняют процесс регулирования вентиляционной сети следующие факторы:

- наличие зон обрушения, через которые происходят утечки воздуха;

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-446-450

-многодиагональные соединения выработок сложной конфигурации;

- работающие на сеть вентиляторы главного, вспомогательного и местного проветривания, создающие нестабильность при регулировании распределения воздуха и риск опрокидывания струи;

- действие естественной тяги.

Особенно сложным вопросом является определение устойчивости и эффективности проветривания в сложных многодиагональных соединениях, так как зачастую очистные выработки, требующие максимально устойчивой и надежной подачи воздуха, представляют собой многочисленные диагонали.

Регулирование воздушных потоков в вентиляционной системе рудника с помощью местных регуляторов - перемычек различных типов и вспомогательных вентилирующих устройств - позволяет организовать оптимальное распределение воздуха внутри сети выработок и обеспечить добычные участки необходимым по санитарным нормам количеством свежего воздуха.

Анализ теоретических исследований и разработанных программных продуктов в этой области показал, что проблема оптимизации размещения регуляторов в протяженной вентиляционной сети шахт решена не полностью и остается важной научно-технической задачей.

ВЫВОД

Существующие методы регулирования распределения воздуха в сети обладают рядом недостатков, не позволяющих применять их для автоматизации процесса принятия решений по выбору мест расположения, типам и параметрам регуляторов для сложных вентиляционных сетей при комбинированном способе проветривания. Очевидно, что в наиболее общей постановке задача регулирования воздухораспределения в вентиляционной сети является сложной и решение ее в аналитическом виде не представляется возможным.

REFERENCES

1. Скочинский А. А, Комаров В. Б. Рудничная вентиляция. М.:2015 . 443 с.
2. Пучков Л. А., Бахвалов Л. А. Методы и алгоритмы автоматического управления проветриванием угольных шахт. М.: Недра, 2012. 399 с.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-446-450

3. Цой С. В. Автоматическое управление вентиляционными системами шахт. Алма-Ата: Наука, 2016. 366 с.
4. Отчет о научно-иследовательский работе «Проведение воздушно-депрессионной съёмки на подземных объектах рудника Зармитан ЮРУ, разработка схем проветривания на перспективу и исследования по определению оптимальной схемы проветривания», Тошкент-2019 г.
5. Б.Ф. Кирин, Е.Я. Диколенко, К.З.Ушаков. Аэрология подземных сооружений (при строительстве). - Липецк: Липецкое издательство, 2000. - 456 с.
6. Колесниченко Е.А., Колесниченко И.Е., Ткачук Р.В. Закономерности вентиляции призабойного пространства тупиковых выработок: новая концепция. // Уголь. - 2007. - №2. - С. 16-19.
7. Э.Ш. Мусурманов, Структурный анализ управления вентиляцией шахт и рудников /Э.Ш. Мусурманов //Интернаука. – 2017. – №11-1(15). – С. 71-74.
8. Хамзаев, А.А. Повышение энергоэффективности вентиляторных установок /А.А. Хамзаев, Э.Ш. Мусурманов, М.Э. Хайдарова //Молодой ученый. – 2017. – № 7(141). – С. 95-98.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-451-455

ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН СЎНГ ФАРҒОНА ВИЛОЯТИДА ПАХТА ЯККАҲОКИМЛИГИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ

Г. Хасанбоева
Фарғона давлат университети ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада иккинчи жаҳон урушидан сўнг Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида Фарғона вилоятининг ўрни ёритилган. Шу билан бирга вилоятда пахта яккаҳокимлигининг кучайтирилиши ва унинг салбий оқибатлари илмий адабиётлар асосида ўрганилган.

Калит сўзлар: Фарғона вилояти, пахта яккаҳокимлиги, совет ҳукумати, қишлоқ хўжалиги, аграр сиёсат, қўриқ ерлар, пахта хомашёси.

КИРИШ

Маълумки, Россия империяси ҳукмронлиги ҳамда совет даврларида Ўзбекистон қишлоқ хўжалигининг муҳим тармоғи сифатида фақатгина пахтачилик ривожига алоҳида эътибор берилди. Россия империяси мустамлакачилиги андозасидаги аграр сиёсат совет ҳокимияти йилларида ҳам изчил тарзда давом эттирилиб, республика марказнинг пахта хомашё базасига айлантирилди, ялпи ҳосилни кўпайтириш ва етиштирилган пахта, пилла, қоракўл тери, мева-сабзавот, полиз маҳсулотлари доимий равишда собиқ Иттифоқ хирмонига ташиб кетилди. Тайёрланган пахта маҳсулоти асосан Россия ҳамда бошқа Европа мамлакатларидаги тўқимачилик корхоналарини, кимё-фармацевтика, ҳарбий соҳаларини хомашё билан мунтазам равишда таъминлашга қаратилди. Ушбу мустамлакачилик характеридаги сиёсат айнан Фарғона водийсидаги соҳани тараққий эттиришга ҳам йўналтирилди. Чунки водий ҳудудларида пахта етиштириш учун қулай иқлим шарт-шароитлари мавжуд эди. Бу эса совет ҳокимиятининг аграр соҳада амалга оширган иккиёқлама сиёсати мазмун-моҳиятига тўла мос келарди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Чунки, пахта яккаҳокимлиги Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ривожланишини ортда қолдирди. Яъни, марказнинг иқтисодий жабҳадаги ўзбошимчалиги уруш йилларида эътиборсиз қолган ўзбек қишлоқларига салбий

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-451-455

таъсир кўрсатган эди. Чунки уруш даврида имкон даражада қишлоқдан (озиқ-овқат, хомашё, ишчи кучлари ва ҳоказо) олинди, аммо қишлоққа берилмади. Натижада, урушдан кейинги йилларда Ўзбекистон қишлоқ хўжалигининг тинч қурилишга ўтиши мураккаб халқаро вазиятда кечди. Ўзбекистон халқлари олдида ҳарбийлашган қишлоқ хўжалигини тинч қурилиш йўлига солиш, уни урушдан олдинги даражага етказиш ва ривожлантириш каби мураккаб вазифалар турар эди. Хусусан, марказ манфаатига бўйсундирилган республика иқтисодиётини ривожлантиришга қаратилган вазифалар белгиланди. Бу борада ўзбек халқнинг меҳнатсеварлиги, сабр-тоқатлилиги ва тинчликсеварлиги каби фазилатлар муҳим рол ўйнади.

“Иқтисодиёт олдига қўйилган энг муҳим вазифалар Ўзбекистон ССР Олий Кенгашиниг 1946 йил августида чиқарилган 8-сессиясида қабул қилинган. Ушбу вазифалар 1946-1950 йилларга мўлжалланган режада белигиланди. Бунга кўра, халқ хўжалигининг барча соҳаларига 3 млрд. 900 минг сўм капитал маблағ ажратилди. Саноатни ривожлантириш республика иқтисодиётининг етакчи соҳаси пахтачиликни ривожлантиришга қаратилди.[1]” Иқтисодиётни тиклаш қишлоқ хўжалигида айниқса, пахтачилик соҳасида қийин кечди. Совет ҳукуматининг пахтачиликни ривожлантириш тўғрисидаги ўнлаб қарорлари ЎзССРда изчиллик билан амалга оширилмади. Шунинг учун ҳам кутилган натижани бермади. Натижада, 1947-1948 йилларда пахта тайёрлашнинг давлат режаси бажарилмади. Бироқ, 1949 йилдан бошлаб аҳвол бирмунча ўзгарди. Шунингдек, 1950 йилда 2 млн 222 минг тонна пахта етказиб берилди, ҳосилдорлик 20,7 центнерга етди. Лекин, деҳқончиликнинг бошқа соҳаларда экин майдоннинг қисқартирилгани оқибатида ғалла ва сабзавот тайёрлашда кутилган натижага еришилмади.

Айниқса, пахтага эътибор кучайди, кўплаб янги ерлар ўзлаштирилди қишлоқ хўжалигида полиз ва сабзавот экинлари камайди. Оқибатда, қишлоқ хўжалигида совет аграр сиёсатининг тобора янги зарарли иллатлари ўзини намоён қила бошлади. Қишлоқ хўжалигини юксалтириш учун йирик маблағ талаб қилинар еди. Бироқ, улар етарлича берилмас эди. Бу пайтда Ўзбекистон аҳолиси пахта етиштириш билан бир қаторда қишлоқ хўжалигининг бошқа тармоқларини ҳам етиштирилишидан манфаатдор еди. Шу сабабли республика аҳолисининг моддий аҳволини яхшилашга ёрдам берадиган озиқ-овқат экинларини маълум миқдорда етиштиришга эътибор берилди. Бу ҳол еса

[1] Муртазаева Р. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2003 – 503бет.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-451-455

марказнинг пахта яккаҳокимлигини кенгайтиришга қаратилган йўлига зид келади. Марказнинг йўл-йўриқларига мувофиқ устунлик фақат пахтачиликка қаратилди. Шунингдек, белгиланган режани бажариш йўлида миллий раҳбарларга ва пахтазорларда оғир меҳнат қилаётган қишлоқ меҳнаткашларига нисбатан жазо тазйиқлари кучайтирилди. Натижада, 1952 йилда Ўзбекистон давлатга 2 млн. 367 минг т. пахта топширди, бу 1940 йилдагига нисбатан деярли икки баравар кўп эди

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Пахта яккаҳокимлигини мустаҳкамлашга қаратилган бу сиёсат республика қишлоқ хўжалигининг умумий аҳволига жиддий таъсир кўрсатди. Пахтадан тобора кўпроқ ҳосил олишга эришиш учун янги ерлар ўзлаштирилди ва бу ерларда ҳам пахта етиштириладиган бўлди. Иттифоқ органлари томонидан 1956 йил 6-августда “Ўзбекистон ССР ва Қозоғистон ССР да Мирзачўлнинг қўриқ ерларини ўзлаштириш тўғрисидаги қарор[2]” қабул қилинди. Мазкур қарорга мувофиқ еса 1962 йилга келиб Мирзачўлда 300 минг гектар қўриқ ерларлар ўзлаштирилиши ва 34 пахтачилик давлат хўжаликлари ташкил этиш мўлжалланган эди. Қўйилган вазифаларнинг бажарилишини таъминлаш учун Ўз ССР министрлар кенгаши ҳузурида Мирзачўлни суғориш ва ўзлаштириш бўйича бошқарма ташкил этилди. Бошкарма негизида ирригация ва совхозлар қурилиши бўйича Ўрта Осиё Бош бошқармаси юзага келди. “Фақатгина Мирзачўлда емас, балки ЎзССРнинг бошқа ҳудудларида ҳам янги ерларни ўзлаштириш билан шуғулланиш лозимлиги таъкидланди. Жумладан, бошқа вилоятларда 400 минг гектар ерни ўзлаштириш ва қишлоқ хўжалик оборотига киритиш керак еди.[3]”

Мирзачўл билан биргаликда марказий Фарғона ерлари ҳам фаоллик билан ўзлаштирилди. Совет ҳокимиятининг аграр сиёсати таъсирида Фарғона водийсида пахтачиликка ихтисослашган хўжаликлар ва туманлар ташкил қилинди. Жумладан, Марказий Фарғонада 1950 йил 5 апрелда Бўз (ҳозирги Бўстон) тумани ташкил қилинган дастлабки йилданоқ хўжаликлар пахтадан ҳосил олиш ва режани бажариш учун бир қатор амалий ишлар қилинди. Сурхандарё, Зарафшон воҳаларида, Амударё этакларида ҳам йирик ирригация-

[2] Ҳимматов Ф.ХХ асрнинг 60-70 йилларида Ўзбекистонда пахта яккаҳокимлигининг кучайиши ва унинг салбий оқибатлари: Магистрлик диссертацияси. – Самарқанд, 2012. – 32бет.
[3] Раззоқов А. Ўзбекистон пахтачилиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1994. – 220бет.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-451-455

мелиорация ишлари амалга оширилди. Қарши ва Шеробод чўлларига ҳужум кенг авж олдирилди.

Ирригация ишларининг қизғин тус олдирилиши 1955-1959 йилларда 160 минг га. янги ерларни ишга туширишга имкон берди. Қарорга мувофиқ 1965-йилда Ўзбекистоннинг экин экиладиган майдонлари 350минг га.га кўпайди. Шу жумладан, суғориладиган ерлар 200 минг га.га ортди. Йирик қўриқ ва бўз ерлар қишлоқ хўжалиги ҳисобига киритилиши республикада пахта экин майдонларини кенгайтиришга ёрдам берди. Лекин, ҳосилдорлик пасайиб кетди. Масалан, 1956 йилда республика бўйича ҳар гектар ердан ўрта ҳисобда 22.0 ц. пахта ҳосили олинган бўлса, 1962-йилда у пасайиб, 19.2 ц.ни ташкил қилди. Кўпгина хўжаликларда хосилдорлик бундан ҳам камроқ бўлди.

Ўзбекистонда ҳам, умуман, бутун СССР да бўлганидек, қўриқ ерларнинг оммавий равишда ўзлаштирилиши мўлжалланган натижаларни бермади. Техникадаги камчиликлар туфайли вазият янада чуқурлашди. Пахта етиштириш устувор ҳисоблангани сабабли органлар пахтачиликни механизациялашга асосий эътиборни қаратдилар. Бошқа тармоқлар эса эътибордан четда қолаверди. Бу йилларда Ўзбекистон қишлоқ хўжалик меҳнаткашларининг 90% и асосан жисмоний меҳнат билан шуғулланган. Республиканинг илмий-техникавий имкониятларидан эса етарли даражада фойдаланилмаган.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда, пахта яккаҳокимлиги туфайли илмий жиҳатдан асосланган алмашлаб экиш тизими бузилди. Ўтган асрнинг 60-80 йилларида пахта майдонларига беда ва маккажўхори ҳамда бошқа экинларни алмашлаб экиш атиги 14% ни ташкил этди. Бу аҳволда шу нарса маълумки, асосий ер майдонларига 10 йиллар давомида доимий пахта экиб келинган. Бунинг оқибатида ернинг ҳосилдорлиги йилдан-йилга камайди, унумдорлик пасайди. Пахта майдонларининг йилдан-йилга ошиб бориши аҳолининг полиз экинларига, ҳўл мевага талабини оширди. Уларнинг бозорлардаги нархи ошиб борди. Бундан ташқари ўлкада экологик ҳолат ёмонлашиб, турли касалликларнинг кўпайди. Республикада оналар ва болалар ўлимининг ортишига олиб келди.

Шуни таъкидлаб ўтиш жоизки, Ўзбекистонда етиштирилган пахтанинг 95% и шу ерда қайта ишланмасдан республикадан ташқарига олиб чиқиб

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-451-455

кетилган. Чунки, бу даврда республикада қишлоқ хўжалик маҳсулотларини қайта ишловчи саноат тармоқлари етарли эмас эди. Мустамлакачиларнинг асосий мақсадлари эса тўқимчилик саноатини пахта хомашёси билан таъминлашдан иборат эди. Шундай қилиб, қишлоқ хўжалигида собиқ иттифоқ даврида амалга оширилган пахта яккаҳокимлиги ўкада жуда кўплаб салбий оқибатларни келтириб чиқарди.

REFERENCES

1. Ҳимматов Ф. XX асрнинг 60-70- йилларида Ўзбекистонда пахта яккаҳокимлигининг кучайиши ва унинг салбий оқибатлари: Магистрлик диссертацияси.– Самарқанд, 2012. – 66бет.
2. Муртазаева Р Х. Ўзбекистон тарихи – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – 673бет.
3. Раззоқов А. Ўзбекистон пахтачилиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1994. – 300бет.
4.w.w.w. Архив. уз интернет сайти.
5.w.w.w. google.uz.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-456-459

СПОРТ МАШҒУЛОТЛАРИДА СПОРТЧИНИНГ ТАЙЁРГАРЛИК ЖИҲАТЛАРИ

Абдухолиқ Абдулхалимович Холиқов
Андижон давлат университети факультетлараро жисмоний маданият ва спорт кафедраси катта ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Бизнинг назаримизда, умумий ва махсус тайёргарлик ўзининг алоҳида вазифалари, воситалари, услуби ва шу билан бирга ўзининг машғулот жараёнидаги тутган ўрни билан фарқ қилади.

Калит сўзлар: спорт, тарбия, шахс, машғулот, қобилият, тайёргарлик, жисмоний тарбия.

ABSTRACT

In our opinion, general and special preparation differs from its specific functions, means, styles, and the role they hold in the process of training.

Keywords: sports, upbringing, individual, session, abilities, physical education.

КИРИШ

Ҳозирги кунда спортчининг жисмоний ва маънавий сифатларини ривожланишига, билимларини янада оширишга қаратилган кўпёқлама тарбия жараёни бўлиб тузилгандагина, спорт машғулотининг педагогик тўлиқ натижа бера олиши исбот талаб қилмайди. Спорт машғулотининг бундай йўналиши жисмоний тарбиянинг умумий асосига мос келади ва барча фаолият шахснинг гармоник ривожлантиришга қаратилган бўлиб, спорт якка мақсад эмас, балки киши қобилиятини ҳар томонлама ривожлантириши, ижодий ва онгли фаолиятга тайёрлаш воситасидир.

МЕТОДОЛОГИЯ

Спорт машғулоти иккита узвий йўналишни бирлаштиради: умумий ва махсус тайёргарлик. Умумий тайёргарлик жисмоний фаолият жараёнидаги аъзолар, тизим ва иш қобилиятларни ривожланиши асосида спорт ихтисослигига имкон берувчи дастлабки шарт шароитларни яратади ва

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-456-459

кенгайтиради, шу билан бирга уни турли ҳаракатдаги моҳирлик ва малаканинг ўзаро таъсири ривожланиши билан бойитади. Махсус тайёргарлик муайян спорт тури учун ўзига хос сифат ва имкониятларнинг ривожланишини таъминлайди, шу билан бирга унинг учун характерли бўлган техника ва тактика билан қуроллантиради.

Умумий тайёргарликни ҳам, махсус тайёргарликни ҳам шикастсиз бажариш, хизмат юзасидан машғулот жараёнидан чиқиш, бирини бошқаси билан алмаштириш мумкин эмас. Спортчининг умумий ва махсус тайёргарлиги ўртасида яқин боғлиқлик мавжуд, шунинг учун улар ўртасини чеклаб бўлмайди. Баъзи мутахассислар спорт машғулотининг бу томонларини умуман айирмасликни таклиф қилади.

Бизнинг назаримизда, умумий ва махсус тайёргарлик ўзининг алоҳида вазифалари, воситалари, услуби ва шу билан бирга ўзининг машғулот жараёнидаги тутган ўрни билан фарқ қилади. Махсус тайёргарлик спорт ихтисослигининг омили ҳисобланади, умумий тайёргарлик эса-спортчининг у ёки бошқа томонлама ривожланиш ўртасидаги турли туман боғлиқлик орқали ихтисослик жараёнига таъсир этувчи омиллардир. Спортчининг умумий тайёргарлигида худди алоҳида жисмоний машқларда ҳам ижобий, ҳам салбий таъсир бўлгани каби, ихтисосликнинг хусусиятлари ҳам акс этиши лозим, шунинг учун умумий тайёргарлик турли спорт турлари учун бир хилда бўлиши мумкин эмас.

Спорт билан шуғулланишнинг кўп йиллик жараёнида умумий ва махсус тайёргарлик доимо спорт машғулотининг таркибий қисмини ташкил қилиши зарур. Кўпгина муаллифлар спортчининг маҳорати ошишга мос равишда УЖТга ажратиладиган вақт ва машқлар миқдорини камайтириб бориш зарурлигини таъкидлайдилар. Спортчининг маҳорати ошиб бориши билан организм имкониятлари ҳам кўпроқ талаб этилади, демак бу ғоя ҳам тўғри эмасдир. Албатта, УЖТ меъёри камайиб бориши керак, лекин у МЖТ ажратилган вақтини камайтирилиши ҳисобига эмас балки, махсус жисмоний тайёргарлик ишининг вақтининг оширилиши ҳисобига амалга оширилиши керак.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Шундай қилиб, ҳар томонлама тайёрлаш принципига мувофиқ гимнастикачиларнинг жисмоний тайёргарлиги умумий ва махсус тайёрлашнинг

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-456-459

узвий бирлиги асосида ташкил қилинади. Гимнастикачиларнинг умумий ва мхсус тайёргарлигининг бирлиги умумтайёргарлик, махсус тайёргарлик ва мусобақа машқларининг ўзгарувчан нисбатини тақозо этади .

Кўплаб адабиётларда таъкидланганидек, гимнастикачининг турли босқичдаги тайёргарлиги умумий ва махсус тайёргарлик воситаларига нисбатан ҳар хил бўлиши мумкин. Масалан, ўтиш даврида ва тайёргарлик даврининг бошларида УЖТ машқлари, бундан кейинги мусобақа даврида эса МЖТ ва мусобақа машқлари кўп хажмда ўтказилади. Бу нисбат гимнастикачининг шахсий хислатлари ёки машғулотнинг айрим даврларидаги алоҳида вазифалар сабабли бир оз ўзгариши мумкин.

Ёш гимнастикачилар билан текшириш (Тимофеев В.И. 1988) шуни кўрсатдики, ўргатишнинг биринчи йилида бошқа тайёргарлик турига қараганда жисмоний тайёргарликка анча кўп вақт ҳисобидан мақсадга мувофиқ бўлган нисбат аниқланган, бу жисмоний тайёргарлик - 60%, техник тайёргарлик - 20% ва махсус ҳаракат тайёргарлиги - 20%. В.И.Тимофеев таъкидлаганидек, воситаларнинг бундай нисбатига ўқув йилидаги ўқув вақти тақсимлангандаги каби ҳар бир машғулотда риоя қилиниши керак.

Кўпинча, тайёргарликнинг даражасини ушлаб туриш учун бошқа спорт турлари (сузиш, енгил атлетика, спорт ўйинлари ва ҳ.к.) воситаларидан фойдаланган ҳолда характерли ҳажмдаги машғулотни бажариш мақсадга мувофиқдир.

13-15 ёшли гимнастикачилар учун 180 дақиқали машғулотда 30% - УЖТ (55 дақ), 36,6% - МЖТ (65 дақ) ва 33,4% - ТТ (техник тайёргарлик 60 дақ) ажратишни тавсия этилади. Бу билан бир хафталик микроциклдаги юклама қуйидагича тақсимланади: жисмоний тайёргарлик -1; 3; 6 - кун, техник тайёргарлик - 2; 5-кун, 4; 7 - кун хафтанинг дам олиш кунлари. Кичик разрядли гимнастикачиларни тайёрлашда ҳам муайян фикр маъқуллайди. Бироқ, муаллиф юқори малакали гимнастикачиларни тайёрлашда 50% вақтни жисмоний тайёргарликка ажратиш зарурлигини таклиф қилади.

ХУЛОСА

Чунончи, умумий машқ хажмининг 22% жисмоний тайёргарликка ажратиш зарурлиги кўрсатилади, бунга эрталабки бадан тарбиянинг турли туман машқлари кирмайди. Бунда хафталик микроциклда умумий шуғулланиш

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-456-459

вақти 45 соатни ташкил қилган. Шу жумладан 20,6% УЖТ учун, 44,4% МЖТ учун тўғри келади.

Тайёргарлик даври. Спорт машғулоти соҳасидаги кўпгина илғор назариётчилар шуғулланишнинг тайёргарлик даврида умумтайёргарлик ва махсус тайёргарлик машқлари қўлланилишини ажратиб кўрсатадилар. Шуғулланиш жараёнининг биринчи поғонасининг асосий йўналиши-шуғулланиш даражаси шаклланадиган омилларни ҳосил қилдириш, кенгайтириш ва такомиллаштиришдан иборат. Бу даврда умумий жисмоний тайёргарликнинг солиштирма оғирлиги махсус жисмоний тайёргарликдан юқори бўлади, бироқ уларнинг ўзаро нисбати спортчининг неча йил

REFERENCES

1. Абдуллаева Ш.А. ва бошқалар. Педагогика. Т., “Фан”. 2004.
2. Ботиров Х.А. Ўзбекистонда жисмоний тарбия тарихи, оммабоп китоб. Т., Ибн Сино. 1993й.
3. Брил М.С. Отборь в спортивных играх. – М., 1980й.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-460-466

TAHLIL QILISH, ME'YORLASH, REJALASHTIRISH HAMDA BASHORAT QILISHDA KORRELYATSIYA VA REGRESSIYA USULI

Utkir Rustamovich Ismatov
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tabiat, jamiyat va iqtisodiyotdagi miqdoriy ko'rsatkichlarning funksional bo'lmagan bog'lanishlari uchun umumlashgan matematik usul ya'ni korrelyatsiya usuli qaralgan bo'lib, miqdoriy ko'rsatkichlarning chiziqli bog'lanishi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyotda miqdoriy ko'rsatkichlar, korrelyatsiya koeffitsiyenti, regressiya chizig'i, eng kichik kvadratlar usuli.

KIRISH

Tabiat, jamiyat va iqtisodiyotdagi barcha hodisa va voqealar o'zaro bog'langan va bir-biriga ta'sirini o'tkazadi. O'z navbatida har bir hodisa boshqa hodisalarning biror bir ta'siri natijasida ro'y beradi. Metamatikada barcha hodisalar miqdor ko'rsatkichlar va kattaliklar bilan ifodalanadi. Shuning uchun ham voqealarning sabab-oqibatlari bir miqdorning boshqa kattaliklardan bog'liqligi ko'rinishida tasvirlanadi.

Iqtisodiyotda miqdoriy ko'rsatkichlar tizimi alohida iqtisodiy hodisalarni yoki butun bir xo'jalik faoliyatining rivojlanish jarayonini ifodalashda keng qo'llaniladi. Bunday sharoitda funksional bog'lanish bilan iqtisodiy ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishlarni to'laligicha aks ettirib bo'lmaydi, ya'ni funksional bog'lanishda ta'sir etuvchi omillar natijaviy ko'rsatkichni to'laligicha aniqlab bera olmaydi. Bunday ko'rsatkichlarning funksional bo'lmagan bog'lanishlari uchun matematikada umumlashgan korrelyatsiya usuli yaratilgan bo'lib, funksional bog'lanish uning xususiy holi bo'lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

1988-yilda A.A.Spirin va G.P.Fomin bozor munosabatlarida iqtisodiy matematik usullarni qo'llanilishi haqida izlanish olib borishdi va iqtisodiy jarayonlarda foydalaniladigan miqdoriy ko'rsatkichlarni o'zaro bog'liqligini o'rganishgan. Shuningdek, O.T.Kenjaboyev, A.O.Ro'ziyevlar ham iqtisodiy

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-460-466

jarayonlarda muhim bo'lgan muammolarni yechishda qo'llaniladigan iqtisodiy matematik modellarni tuzish haqida izlanish olib borishgan va muhim modellarni o'zlarining "Iqtisodiy matematik usullar va modellar" nomli o'quv qo'llanmasida keltirishgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Korrelyatsion bog'lanish - bu miqdorlar orasidagi shunday bog'lanishki unda ta'sir etuvchi miqdor (omil) ni aniq bir qiymatiga, qaram miqdor (funksiya)ni ma'lum qonuniyat bilan taqsimlangan ko'p qiymati mos keladi.

Umuman olganda korrelyatsion va regression tahlil usuli yordamida quyidagi masalalar yechiladi:

- ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishlarning ko'rinishini aniqlash va ularni regressiya tenglamalarini tuzish;
- o'rganilayotgan ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishlar darajasini, kuchini aniqlash.

Ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishlarning ifodalovchi eng yaxshi to'g'ri chiziqlarni - nazariy regressiya tenglamalarining koeffitsiyentlarini eng kichik kvadratlar usuli bilan, ya'ni:

$$\sigma_{yx}^2(a,b)=\frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}\left(\overset{H}{y_i}-\overset{X}{y_i}\right)^2=\frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}(\overset{H}{y_i}-a-bx_i)^2=\min$$

aniqlanadi hamda σ_{yx}^2 - ning xususiy hosilalarini (***a,b*** larga nisbatan) nolga tenglashtirib quyidagi

$$\begin{cases}\bar{y}-a-b\bar{x}=0\\ \overline{xy}-a\bar{x}-b\overline{x^2}=0\end{cases}$$

normal tenglamalar sistemasini yechib, eng yaxshi nazariy to'g'ri chiziqni koeffitsiyentlari:

$$\left.\begin{aligned}b&=\frac{\overline{xy}-\bar{x}\,\bar{y}}{\sigma_x^2}\\ a&=\bar{y}-b\bar{x}\end{aligned}\right\}$$

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-460-466

aniqlanadi, bu yerda a – parametr, hech qanday ma'noga ega emas, $b = tg\alpha$ burchak koeffitsiyentini anglatib, shu bilan birga $\boldsymbol{x}$ – bir birlikka o'zgarganda $\boldsymbol{u}$ ning qancha miqdorga o'zgarishini ifodalaydi.

Ko'rsatkichlar orasidagi korrelyatsion bog'lanishlarni (chiziqli bo'lgan holda) korrelyatsiya koeffitsiyenti

$$r = \frac{\overline{xy} - \overline{x}\,\overline{y}}{\sigma_x \sigma_y} = b\frac{\sigma_x}{\sigma_y}$$

bilan aniqlanadi. Agar ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanish chiziqsiz ko'rinishda bo'lsa, u holda aloqalarning tig'izlik darajasi – kuchi, korrelyatsiya indeksi

$$i = \sqrt{1 - \frac{\sigma_{xy}^2(silliq)}{\sigma_y^2}}$$

formula bilan baholanadi. Korrelyatsiya koeffitsiyenti va indeksining qiymatlari 17 – jadvalda keltirilgan

15-jadval

n / p	3	4	5	6	7	8	9	10	15	20	60	100
0,5	0,82	0,77	0,74	0,73	0,72	0,71	0,71	0,70	0,69	0,69	0,68	0,68
0,7	1,39	1,25	1,19	1,16	1,13	1,12	1,11	1,10	1,08	1,07	1,05	1,04
0,9	2,92	2,35	2,13	2,02	1,94	1,90	1,86	1,83	1,76	1,73	1,67	1,66
0,95	4,30	3,19	2,78	2,57	2,45	2,31	2,23	2,18	2,1	2,09	2,00	1,98
0,99	9,93	5,84	4,60	4,03	3,71	3,50	3,36	3,25	2,98	2,86	2,66	2,62

16-jadval

n / p	3	4	5	6	7	8	9	10	20	100	200
0,9	2,92	1,66	1,23	1,01	0,87	0,77	0,70	0,65	0,40	0,17	0,12
0,95	4,30	3,35	1,60	1,28	1,10	0,97	0,84	0,77	0,49	0,20	0,14
0,99	9,93	1,13	2,65	2,01	1,66	1,37	1,20	1,06	0,69	0,27	0,18

17-jadval

Korrelyatsiya koeffitsiyent-lari qiymati	0	0,1-0,3	0,3-0,5	0,5-0,7	0,7-0,9	0,9-0,99	1
Aloqa kuchi	yo'q	kuchsiz	sezilarli	o'rtacha	yuqori	juda yuqori	aloqa funksional

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-460-466

Shuningdek korrelyatsion munosabatlar ***r*** va ***i*** quyidagi xossalarga ega:

$$0 \le i \le 1$$

$$-1 \le r \le 1$$

$$\sigma_{y.x}(tenglashtirish) = \sigma_y^2(1-r^2)$$

$$\sigma_{y.x}(silliqlash\ tirish) = \sigma_y^2(1-i^z)$$

Eng kichik kvadratlar usuli

$$\overset{n}{y} = a + bx = (\bar{y} - b\bar{x}) + \frac{\overline{xy} - \bar{x}\bar{y}}{\sigma_x^2}$$

to‘g‘ri chiziqli regressiya uchun sodda nazorat chegarasini qurishga imkoniyat yaratadi. To‘g‘ri chiziqli regressiya qancha ko‘p nuqtalar orqali aniqlansa, u shuncha ishonchli va asoslangan bo‘ladi. Biroq regressiya tenglamasidan va regressiya egri chizig‘idan uning qanchalik ko‘p miqdordagi statistik nuqtalar asosida qurilganligini aniqlash qiyin. Shuning uchun $y(x) = a + bx$ to‘g‘ri chiziqli regressiyani asoslanganligini ishonchli bo‘lishi uchun uni nazorat yoki ishonchli oralig‘i aniqlanadi, ya’ni

$$\left[\overset{H}{y}(x) \pm \Delta(x)\right] = \left[a + bx \pm \Delta(x)\right]$$

Mazkur oraliq to‘g‘ri chiziqli regressiyaga simmetrik bo‘lgan sodda funksiya – giperbola orqali tashkil qilinadi.

Ishonchlilik oralig‘ini quyi va yuqori chegaralarini $y(x) = a + bx$ ni tenglashtirilgan qiymatlariga o‘zgaruvchan ishonchlilik oralig‘i $\Delta(x)$ ni qo‘shish va ayirish bilan aniqlanadi. Bu yerda $\Delta(x)$ ***Ox*** o‘qiga simmetrik bo‘lgan giperbolaning yuqori uchi sifatida aniqlanadi:

$$\Delta(x) = \frac{t_p(n)\sigma_{y.x}}{\sqrt{n-2}}\sqrt{1 + \frac{(x-\bar{x})^2}{\sigma_x^2}} = C_p(n)\sigma_{y.x}\sqrt{1 + \frac{(x-\bar{x})^2}{\sigma_x^2}}$$

bu yerda $t_p(n)$ parametr 15-jadvaldan, $C_p(n)$ 16-jadvaldan ***n*** - ning amaliyotda tez-tez uchraydigan qiymatlari uchun aniqlanadi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-460-466

Har bir yangi nuqtani qo‘shganda to‘g‘ri chiziq joylashuvi o‘zgaradi, biroq ishonchlilik oralig‘i har bir ***x*** - uchun tanlangan ishonch darajasi $\underline{p}(90, 95, 99\%)$ bilan *u* (yaxshi to‘g‘ri chiziq) markazida tenglashtirilgan qiymatlari joylashgan

$$\overset{H}{y}(x),\ \left[\overset{H}{y}(x) \pm \Delta(x)\right]$$

ishonchli oraliq chegarasidan chiqib ketmaydi.

n nuqtalar soni ko‘paytirilsa, ishonchlilik oraliq qismlari kichrayadi. Shu bilan birga agar ishonchli oraliq darajasi ***R*** oshirilsa u holda ishonchli oraliq kengayadi.

Ishonchlilik zonasi qisqa qismi argumentning $x = \bar{x}$ qiymatiga to‘g‘ri keladi va eng kichik ishonchlilik chetlanishi

$$\Delta(\bar{x}) = C_p(n)\sigma_{y.x},$$

va eng kichik ishonchlilik oralig‘i esa

$$\left[\overset{H}{y}(x) \pm \Delta(\bar{x})\right]$$

bo‘lib to‘g‘ri regressiyada yotadi hamda argumentning o‘rtacha qiymati $\bar{x}$ ga mos keladi. ***x*** qanchalik $\bar{x}$ dan katta bo‘lsa, u holda ishonchli chetlanish $\Delta(\bar{x})$ va ishonchli oraliq $\left[\overset{H}{y}(x) \pm \Delta(\bar{x})\right]$ ham keng bo‘ladi.

Agar natijaviy ko‘rsatkich ***u*** ikkita ***x*** va *z* ko‘rsatkichlarning qiymatlaridan bog‘liq bo‘lsa, u holda ***u*** ni ***x*** va ***z*** dan bog‘liqligini chiziqli regressiya tenglamasini

$$y = a + bx + cz$$

shaklida ham ifodalash mumkin, bu yerda ***a, b, c*** lar regressiya tenglamasini koeffitsiyentlari bo‘lib, eng kichik kvadratlar usuli yordamida aniqlanadi, ya’ni:

$$b = \frac{r_{yx} - r_{yz}r_{xz}}{1 - r_{xz}^2} \cdot \frac{\sigma_y}{\sigma_x}$$

$$c = \frac{r_{yx} - r_{yz}r_{xz}}{1 - r_{xz}^2} \cdot \frac{\sigma_y}{\sigma_z}$$

$$a = \bar{y} - b\bar{x} - c\bar{z}$$

Ko‘plik korrelyatsiya koeffitsiyenti:

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-460-466

$$R = \sqrt{\frac{r_{xy}^2 + r_{yz} - 2r_{yx}r_{yz}r_{xz}}{1 - r_{xz}^2}}$$

O‘rtacha kvadratik chetlanish:

$$\sigma_{y.xz} = \sqrt{\frac{1}{n}\sum_{1}^{n}(\overset{H}{y_i} - \overset{X}{y_i})^2}$$

Xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari:

$$r_{yx.z} = \frac{r_{yx} - r_{yz}r_{xz}}{\sqrt{1 - r_{yz}^2}\sqrt{1 - r_{xz}^2}}$$

$$r_{yz.x} = \frac{r_{yz} - r_{yx}r_{xz}}{\sqrt{1 - r_{yx}^2}\sqrt{1 - r_{xz}^2}}$$

U holda chiziqli regressiya tenglamasini quyidagicha yozish mumkin:

$$y - \bar{y} = z_{yx.z}\frac{\sigma_{yz}}{\sigma_{xz}}(x - \bar{x}) + z_{yz.x}\frac{\sigma_{yx}}{\sigma_{zx}}(z - \bar{z})$$

NATIJA VA XULOSALAR

Korrelyatsiyaning xususiy koeffitsiyentlari omillar yig‘indisiga ikkita belgining bog‘liqligini tavsiflaydi, bunda ushbu omillarning boshqa omillar bilan barcha bog‘liqliklari yo‘qotilgan, ya’ni shartli-doimiy (o‘rtacha) darajada mustahkamlangan bo‘lishi kerak.

Xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti qolgan omillarning qat’iy belgilangan qiymatida ikkita o‘zgaruvchi o‘rtasidagi bog‘liqlikning jipsligini tavsiflaydi. Agar ikkita tasodifiy kattalik o‘rtasidagi korrelyatsiya juft koeffitsiyenti o‘sha tasodifiy kattaliklar o‘rtasidagi alohida koeffitsiyentdan katta bo‘lib chiqsa, u holda bu uchinchi qat’iy belgilangan kattalik o‘rganilayotgan kattaliklar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytiradi, ya’ni juft koeffitsiyentning yuqori qiymati uchinchi kattalikning ishtirok etishi bilan shartlangan. Tegishli koeffitsiyentlar bilan solishtirilganda korrelyatsiya juft koeffitsiyentining past qiymati qat’iy belgilanadigan kattalik ta’siri ostida o‘rganilayotgan kattaliklar o‘rtasidagi bog‘liqlikning zaiflashganidan dalolat beradi.

Hozirgi vaqtda korrelyatsiya modellarini tuzishda asosiy yig‘indini taqsimlash ko‘p o‘lchovli qonunning normalligi shartlaridan kelib chiqiladi. Ushbu shartlar o‘rganilayotgan omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning chiziqli xususiyatini ta’minlaydi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-460-466

Bu hol ko‘rsatkichlar sifatida korrelyatsiyaning juft, alohida koeffitsiyentlari va ko‘p omilli korrelyatsiya koeffitsiyentidan foydalanishni belgilab beradi.

Chiziqsiz korrelyatsion tahlil masalasini chiziqli masalaga keltirish mumkin. Buning uchun chiziqsiz funksiyaga keltiruvchi tegishli o‘zgaruvchilarni almashtirish zarur bo‘ladi. Masalan bizga

$y = a + bx^2$, $y = a + b\sqrt{x}$, $y = a + \frac{b}{x}$ chiziqsiz funksiyalar berilgan bo‘lsin. Mos ravishda $z = x^2$, $z = \sqrt{x}$, $z = \frac{1}{x}$ kabi o‘zgaruvchilarni almashtirib $y(x)$ chiziqsiz funksiyalar o‘rniga quyidagi chiziqli funksiyaga ega bo‘lamiz:

$$y = a + bx$$

REFERENCES

1. А.А.Спирин, Г.П.Фомин, Экономико - математические методы и модели в торговое М.Экономика, 1988 г.
2. Методические указания и задания для контрольных работ по курсу экономико-математические методы и модели, ЗИСТ, М., 1985 г.
3. Задания для практических занятий по курсу «Экономико-математические методы и модели в планировании» Москва, 1981 г.
4. Ю.М.Сиддиков Методические указания и задачи по курсу “Экономическо-математические методы и модели в планировании”, Самарканд СКИЦ, 1982 г.
5. O.T.Kenjaboyev, A.O.Ro’ziyev. “Iqtisodiy matematik usullar va modellar”. Toshkent, 2004 y.
6. T.Shodiyev. “Ekonometrika”. Toshkent, 1999 y.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-467-476

LITERARY TRANSLATION AS AN INSTRUMENT OF INTERCULTURAL COMMUNICATION

Dilshod Dilmurodovich Togaymurodov
Master of Termez State University
dtogaymurod@gmail.com

ABSTRACT

The term translation itself has numerous meanings: it can refer to the general subject field, the product (the text that has been translated) or the process (the act of producing the translation, otherwise known as translating). In addition, there are several types and directions in translation theory. In the translation process of literary works language and culture are main issues to be solved. Some translators prefer to keep the cultural message and language units of source text original while others consider that transferring meaning with adaption to target culture is essential in translation. Translating a literary work means re-writing it for the readers of another cultural atmosphere. In this process the problem of adequacy is important notion to keep the idea original and at the same time to make it understandable. In this article I will study proper ways of translating literary works on several genres. Moreover, following paper can supply readers with information about types of literary text and features of translation process that occurs while transferring cultural message.

Keywords: literary text, inter-lingual translation, intra-lingual translation, inter-semiotic translation, apprehension, interpretation, re-stylisation.

INTRODUCTION

Literature is one of the key notions to reflect or understand certain nation's culture. Literary works by writers and poets serve to demonstrate specific features related to time, location and lifestyle of peculiar period when they live in. It is possible to recognize the political, social, cultural and natural conditions of exact geographical places while reading descriptions which writer used. Furthermore, literary works can be created to illustrate unreal but wanted situations if they are associated with fictional stories. Imaginary works such as utopian and anti-utopian novels help writer to reflect appropriate cases to what they admire. On the other hand, literature helps not only describe known peculiarities of some period but also create possible solutions to the problems by giving imaginary options. Literary works are

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-467-476

used to enlarge readers' outlook to the life and social atmosphere where they survive. Writers use national-cultural bound phrases, ideological items to make literary work comprehensible for representatives of a certain nation. During the translation process of these works of art translators might face difficulties to adapt those ideas into target culture. The problem of adequacy comes into stage. The aim of this article is to review numerous linguists' theoretical works, discuss the problems of literary translation from source language into target one and give possible solutions.

LITERATURE REVIEW

The process of translation between two different written languages involves the translator changing an original written text (the source text or ST) in the original verbal language (the source language or SL) into a written text (the target text or TT) in a different verbal language (the target language or TL). (Munday, 2008, p. 5)

According to Catford, translation is the replacement of textual material in one language (SL) by equivalent textual material in another language (TL) (Catford, 1995, p. 20).

Susan Bassnett states that translation involves transfer of "meaning" contained in one set of language signs into another set of language signs through competent use of the dictionary and grammar; the process involves a whole set of extra-linguistic criteria also. (Bassnett, 2005, p. 21)

The second half of the 20th century has been crucial period for the translation study which is called like theory of translation, Science of translation, Translation linguistics or Translatology. According to Zoya Proshina (Proshina, 2008, p. 7) there are several aspects of translatology:

- General theory of translation which investigate on typical notions of translation from any languages.
- Specific theory of translation which studies rules of translation from particular selected languages.
- Special theory of translation that deals with the texts of various registers and genres.

Translation can be defined by using several approaches to it. In case language is considered as a system of signs, it is possible to use semiotic approach to define translation properly. If all the elements of the source language are described as signs, then they can be used as alternative elements for code switching in the target language while translating. In his article 'On Linguistic Aspects of Translation',

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-467-476

Roman Jakobson differentiates three types of translation relying on semiotic approach. The first type is called **"intra-lingual translation"**. It is possible to name this type as rewording. It means an interpretation of verbal signs by means of other signs in the same language. Secondly, he distinguishes **"Inter-lingual translation"** or 'translation proper' In this type verbal signs are interpreted by means of some other language. The third one is **"Inter-semiotic translation"** or 'transmutation'. In this type of translation verbal signs are interpreted by means of signs of nonverbal sign systems) (Jakobson, 1959, p. 9). Translation might also be investigated according to its communicative features. In communication process speakers produce their speech in their mind and exchange by the means of language. In this situation the elements of communication in the same language and between two different languages are also different. Below it is possible to understand their differences with the help of images by Z. Proshina (Proshina, 2008, p. 10). Since both interlocutors use the same language, speaker creates some meaningful utterance and addresses to the listener. So, there is a text which is comprehensible to both participants of the communication process.



If in this case addresser and addressee of the communication are from various language area, the elements of this process will be different including source text, target text and translation.



While translating any text a translator has to feel a huge responsibility because history gives verification for the cases that translators have been punished strictly for the reason of mistranslating texts. In her book "Translation studies" Susan Bassnett writes about French humanist Etienne Dolet (1509–46) who was tried and executed for heresy after 'mistranslating' one of Plato's dialogues in such a way as to imply

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-467-476

disbelief in immortality. In 1540 Dolet published a short outline of translation principles, entitled ‘La manière de bien traduire d’une langue en aultre’ (How to Translate Well from one Language into Another) and established five principles for the translator must fully understand the sense and meaning of the original author, although he is at liberty to clarify obscurities, should have a perfect knowledge of both SL and TL, avoid word-for-word renderings, use forms of speech in common use and choose and order words appropriately to produce the correct tone. (Bassnett, 2005, p. 60)

The adequacy and good quality of translation is also considered one of the most essential peculiarities of translation process. To keep these features of a good translation, in his book ‘Translate to communicate: A guide for translators’ M. Massoud gives following citeria:

‘A good translation is easily understood, fluent and smooth, idiomatic, conveys, to some extent, the literary subtleties of the original, distinguishes between the metaphorical and the literal, reconstructs the cultural/historical context of the original, makes explicit what is implicit in abbreviations, and in allusions to sayings, songs, and nursery rhymes, and the last, will convey, as much as possible, the meaning of the original text.’ (Massoud, 1988, p. 13)

There are a large number of definitions for the principles of translation. Below, these principles can be specified with the decisions made between following contradictory statements by Savory (Savory, 1957, p. 49):

1. A translation must give the words of the original.
2. A translation must give the ideas of the original.
3. A translation should read like an original work.
4. A translation should read like a translation.
5. A translation should reflect the style of the original.
6. A translation should possess the style of the translator.
7. A translation should read as a contemporary of the original.
8. A translation should read as a contemporary of the translator.
9. A translation may add to or omit from the original.
10. A translation may never add to or omit from the original.
11. A translation of verse should be in prose.
12. A translation of verse should be in verse

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-467-476

RESULTS AND DISCUSSION

In order to understand the stages of translation process Jiri Levy suggests table of 'Communication chain in translation'.

Figure 1. The communication chain in translation

		Author			**Translator**			**Reader**	
Reality	→	Selection	Stylisation	Text in → foreign language	Reading	Translation	Text in → Translator's language	Reading	Concretisation

In his book 'The art of Translation' Jiri Levy gives following (Levy, 2011, p. 23) definition and binomial chain for the translation. 'Translation is communication. More precisely, translators decode the message contained in the text of the original author and reformulate (encode) it into their own language. The message contained in the translated text is then decoded by the reader of the translation. A binomial chain of communication is established, which can be represented as follows.'

Jiri Levy distinguishes three main stages of translator's work. (Levy, 2011, p. 31)

1. Apprehension of the source;
2. Interpretation of the source;
3. Re-stylisation of the source.

'Apprehension of the source' means not only understanding of a text but consciously understanding all its characteristics. A translator, first of all, must be a good reader. While reading the source language text he is expected to be able to comprehend linguistic and literary terms in it. In this process translator must possess specialized training and experience. Some mistakes can occur because words might have several meaning or associations according to source language features. Translator is supposed to apprehend their meanings in the context, not only dictionary definition. This ability is considered one of the main parts of apprehension of the source text. Furthermore, Levy states about apprehension: *"a true reading of the text mediates to the reader its ideo-aesthetic values, i.e. its emotional tone, ironic or tragic undertone, aggressive attitude towards the reader or pure statement of fact etc. The ordinary reader is not expected to be aware of these attributes, but the translator ought to be capable of rationally identifying the means used by the author to achieve these effects. Over and above the understanding of a work that is derived from a*

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-467-476

straightforward reading, translation requires not only a more in-depth understanding, but above all a more conscious understanding". (Levy, 2011, p. 32)

'Interpretation of the source' comes into stage when translator faces difficulties to find alternative concept for translating the notion in the target text. This problem can be in various forms. Sometimes either there is no same concept in both source and target languages or notions differ from each other according to their gradation layer. In such cases translation should be relied on interpretation of that expression. Translator must specify the expression to make them equal in both source and target languages.

The language of the source text and the language of translation are not always be commensurate. They do not match in the stylistic quality of expressions. It is connected with style of the source and target text. Because the verbal means of languages are not equivalent, it is hard to translate mechanically. Meanings and their aesthetic values do not coincide precisely; consequently, the greater the role of language in the artistic structure of the text, the more difficult translation becomes. The translation of poetry therefore demands greater flexibility and greater freedom overall. This means that translator can recreate the style of the translation. This stage of translation can be called **'Re-stylisation of the source'**.

Translation process can vary according to the type of material which is being translated. Z. Proshina states that (Proshina, 2008, p. 21) according to the dominating function of the source text, translations are divided into two types. The first type is called **literary translation** which the poetic function of the text prevails in it. This type of translation comes into stage when the work of fiction prose, drama, and poetry are translated from one language into another. Translator usually should ask permission from author to translate this kind of works. The second type of translation is **informative** one which is the translation of texts on science, technology, official writings, business messages, newspaper and magazine articles, etc. The aforementioned texts can also have an expressive or emotive function, but it is not in the outstanding function in the text. The dominating function in these texts is informative.

Ashurova D.U claims that according to the functional styles reference text are divided into following groups (Ashurova D. , 2011, p. 29) :

- newspaper articles (brief news items, press reports, the editorial, etc);
- official documents (business letters, records of proceedings, applications, etc);
- publicistic (chronicle, sketches, essay);

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-467-476

- fictional (story, novel, play, etc);
- scientific (review, article, monograph).

Regarding to this classification the main material of literary translation is fictional texts. In their book "Stylistics of literary texts" D. Ashurova and M. Galiyeva states that first and foremost the fictional text reflects an imaginary world not associated with the practical activity of communicants, and therefore it is certainly devoid of the facto logical accuracy (Ashurova & Galiyeva, 2013, p. 32). From this point of view fictional texts can be called literary texts. For providing adequate and equivalent literary translation the particular features of literary texts are supposed to be discussed. In the aforementioned book following definition for these features has been found:

> *A distinguishing feature of the literary text is its aesthetic function. The aesthetic function presupposes a certain impact on the reader called forth both by the beauty of a linguistic form and the conceptual significance of its content. The aesthetic information is aimed at arousing aesthetic feelings, i.e. the feelings of pleasure and beauty on the part of the reader. Aesthetics of the text is closely interlinked with the categories of imagery, evaluation, emotiveness.* (Ashurova & Galiyeva, 2013, p. 32)

As it is seen, in literary texts there are numerous dominating peculiarities which differentiates from informative texts. For this reason, various techniques are suggested for literary translation. John Dodds suggests following areas of source text as crucial points for the translator to pay attention (Dodds, 1994, p. 141).

- Phonological features (rhythm, alliteration; sense in sound)
- Syntactic features (verb tense, word constructions, pre/suffixes, grammatical structures, …)
- Positional features (foregrounding, parallelisms, paragraph structure, poem line breaks, …)
- Semantic features (partial synonyms, antonyms, leitmotifs, keywords, …)
- Figures of speech (analogy, metaphor, metonymy, …)

In the sphere of literary translation, linguists spend more time on researching into possible solutions to the problems of translating poetry than other literary texts. When translator translates a poetic text, he can use several methods to make it clear to the reader. Susan Bassnett, in her book "Translation studies", gives Andre Levefere's catalogue of strategies for translating poetry (Bassnett, 2005, p. 87). According to his catalogue one of these strategies is "**Phonemic translation"**. This

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-467-476

strategy helps translator transfer not only meaning, but also reproduce the source language sound in the target language. He believes that phonemic translation plays a huge role I the translation of poems which have onomatopoeia in the lines. The second strategy is **"Literal translation"** which emphasizes word-for-word translation. This strategy is able to give exact translations of the words but it distorts the sense and the syntax of the original. "**Metrical translation"** is following in the catalogue, where the main criterion is the reproduction of the source language metre. Levefere concludes that, like literal translation, this method concentrates on one aspect of the SL text at the expense of the text as a whole. The fourth strategy is called "**Poetry in prose".** In this strategy poetic text is transferred into prose. Although there is some distortion on the sense, syntax and communicative value of the source language, it is not to the same extent with literal and metrical translations. The following strategy is "**Rhymed translation"** where is more difficult for translator to enter into double bondage of metre and rhyme simultaneously. The sixth strategy is named **"Blank verse translation"**. In this strategy limits by the choice of structure are emphasized. However, the greater accuracy and higher degree of literariness can be obtained. The last one in the catalogue is "**Interpretation"** which is called *versions* by Lefevere. In this strategy of the translation the substance of the source language is saved but the form is completely changed. Translator produces imitations on his own. Only title and plot of the translation can be in common with the source text.

Like in the translation of poetry, texts in prose should be translated by obeying particular rules of translation. S. Bassnett defines six general rules (Bassnett, 2005, p. 120)for the translation in prose which was given by Hilaire Belloc:

1. The translator should not plod on, word by word or sentence by sentence, but should always block out his work. She understands that by 'block out', Belloc means that the translator should consider the work as an integral unit and translate in sections, asking himself "before each what the whole sense is he has to render".
2. The translator should render idiom by idiom 'and idioms of their nature demand translation into another form from that of the original.
3. The translator must render "intention by intention", bearing in mind that 'the intention of a phrase in one language may be less emphatic than the form of the phrase, or it may be more emphatic'. Bassnett explains that by "intention", Belloc seems to be talking about the weight a given expression may have in a particular context in the SL that would be disproportionate if translated literally into the TL.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-467-476

4. Belloc warns against *les faux amis*, those words or structures that may appear to correspond in both SL and TL but actually do not. These kinds of words are also called “false friends of a translator”. For example, the word “magazine” has similar variant “магазин” in Russian which means “shopping centre”.
5. The translator is advised to ‘transmute boldly’ and Belloc suggests that the essence of translating is ‘the resurrection of an alien thing in a native body’.
6. The translator should never embellish. He means that translator should never try to make the target text more attractive and emotive than the source one by adding extra elements of his own.

CONCLUSION

Translation is one of the most important fields of linguistics because it contains several phenomena on intercultural communication. Translator has to pay attention to all aspects of work while he is translating umpteenth literary work. All features of literary text such as stylistic, lexical, syntactical, morphological, phonetical peculiarities must be taken into consideration because translated text should have almost the same features in order to keep emotiveness and literary effect on a reader. What is more, cultural and social ideology of a work must be converted to target language without losing main points. Translation might be considered as a successful piece of work if that conversion is done sensibly and accurately. Adequacy of a text should be in balance so that the reader from different cultural background does not get misinformed about the original idea. In this case translation can make bridge between source and target culture to exchange valuable information and ideas effectively.

REFERENCES

1. Ashurova, D. (2011). Text linguistics. Tashkent.
2. Ashurova, D. U., & Galiyeva, M. R. (2013). Stylistics of literary text. Tashkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
3. Bassnett, S. (2005). Translation Studies. Taylor & Francis.
4. Catford, J. C. (1995). A Linguistic Theory of Translation. Oxford: Oxford University Press.
5. Dodds, J. (1994). Aspects of literary text analysis and translation criticism. Udine: Campanotto Editore.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-467-476

6. Jakobson, R. (1959). On Linguistic Aspects of Translation. Cambridge: Harvard University Press.
7. Levy, J. (2011). The Art of Translation. Amsterdam: John Benjamins.
8. Massoud, M. (1988). Translate to communicate: A guide for translators. Illinois: David C. Cook Foundation Elgin.
9. Munday, J. (2008). Introducing Translation Studies. New York: Routledge.
10. Proshina, Z. (2008). Theory of translation. Vladivostok: Far Eastern University Press.
11. Savory, T. H. (1957). The Art of Translation. London: Cape.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-477-482

PEDAGOGOK TA'LIMNING INNOVATSION KLASTERI MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA

Shohida Rahmatullayevna Mahkamova
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Musiqa ta'limi "kafedrasi mudiri

Mastura Abduvaxobovna Asadullayeva
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Musiqa ta'limi "kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada insoniyat vujudga kelishi va uni rivojlanib taraqqiy topishida musiqaning o'rni va ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Bayon etilgan ma'lumotlar o'z navbatida, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Al-Farobiy kabi buyuk ajdodlarimizning musiqaga bildirgan fikrlari bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, klaster, musiqa, maktab, tarbiya.

INNOVATIVE CLUSTER OF PEDAGOGICAL EDUCATION IN MUSIC CULTURE CLASSES

ABSTRACT

This article provides an overview of the role and importance of music in the evolution and development of humankind. The information provided, in turn, is enriched with music by our great ancestors, such as Ibn Sina, Alisher Navoi, Al-Farabi.

Keywords: pedagogy, cluster, music, school, education.

KIRISH

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Har bir insonning ma'naviy shakllanishida oilaning, maktabning, jamiyatning ahamiyati katta. Chunki insonning insoniylik xususiyatlari jamiyatda tarkib topadi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-477-482

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Umumiy o’rta ta’limning Davlat ta’lim standarti (DTS) ni belgilab beruvchi mazkur qaror Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son qaroriga asosan qabul qilindi. Mazkur me’yoriy xujjatda barcha fanlar qatori musiqa fanidan uzluksiz majburiy ta’limning Davlat ta’lim standartini takomillashtirishga qaratilgan, kompetesiyaviy yondashuvga asoslangan yangi taxrirdagi standartning amaliyotga joriy etilishi ta’lim sifatining huquqiy tomonini belgilab bersa, uning amaliyotga joriy etilishdagi pedagogik jixatlari fanni metodikasini belgilab beradi. Ta’lim oluvchilar ya’ni: bog’cha tarbiyalanuvchisi, maktab o’quvchilari, oliy ta’lim muassasa bitiruvchilari hamda oliy ta’limdan keying bosqichdagilarning barchasi yagona ta’lim klasteri asosida bog’lanadi. Shuningdek yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyani ko‘plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo‘lib, insonni atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. Haqiqiy musiqa asarlari zamonning estetik-axloqiy va siyosiy g'oyalarini umumlashtiradi. Inson hayotini musiqa san'atisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. San'at kishilarga faqatgina ma'naviy ozuqa beribgina qolmasdan, jismoniy kamolotga erishuvida ham muhim o'rin tutadi. Musiqa san'atining axloqiy-estetik tarbiyadagi rolini to'g'ri his etib, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini aslo unutmaslik zarur. Musiqiy go'zallik insonning ma'naviy qiyofasi shakllanishida muhim omildir.

Barcha fanlarda bo’lgani kabi musiqa fanida ham pedagogik ta’lim innovatsion klasteri ta’limda tayanch kompetensiyalarni shakillantirish asnosida zamon talabidagi har tomonlama yetuk kadrlarni tayyorlashni ko’zda tutadi.

Klaster nazariyasining asoschisi Garvard universiteti professori Maykl Porterning fikriga ko’ra klasterning muvafaqqiyatli rivojlanishi barqaror rivojlanish strategiyasining mavjudligiga bog’liq.

Donishmand xalqimiz azal-azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo‘l topa olishi, uning ruhiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan. Oilada farzandni qo‘shiq aytishga, soz chalishga o‘rgatish ota-ona orzusi hisoblangan. Bola musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqadan umrbod ozuqa oladi. Chunki bola hali yurishni, so‘zlashni bilmay turib, musiqani eshitib, turli qo‘l harakatlari bilan musiqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun qadimdan har bir oilada musiqa cholg‘u

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-477-482

asboblaridan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo‘lib qolgan. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak ma’naviyatli, go‘zallikni his eta oladigan inson bolishi kerak. “Har qanday jamiyatning kelajagi yoshlar ekan, kelajagi buyuk davlatni barpo etilishi, ularni qanday tarbiya olishiga bog’liq. Chunki ma’naviy jihatdan qudratli davlat, ijtimoiy jihatdan kuchli bo‘ladi” !. deb ta’kidlaganlar Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Musiqa go'zallikka intilish, estetik ehtiyoj tug'ma hislat emas. U insonda mehnat va atrof-tevarakdagi olamni ta'sirida paydo bo'lgan. Tashqi olamni o'zgartirish bilan insonning o'zi ham o'zgarib bordi, bunda faqat u jismoniy jihatdangina taraqqiy qilib qolmay, balki ma'naviy jihatdan ham taraqqiy etdi. Insonning ma'naviy qobiliyati va avvalo, estetik hissi asta-sekin taraqqiy etib, tarbiyalanib boradi. Musiqa san'ati hayotni bilish va inson tarbiyasining qudratli vositasidir. Ammo uning bilish va tarbiyalashdagi xizmat darajasi kishiga estetik, badiiy jihatdan ta'sir etish kuchiga bog'liqdir. Musiqa san'ati kishi faoliyatining muayyan bir turi bo'lib, uning vazifasi jamiyatga estetik xizmat ko'rsatishdir. Shu ma'noda uning o'rnini hech bir narsa bosa olmaydi. Musiqa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida faol sur'atda o'rin oladi. Shunday qilib, voqelikka bo'lgan estetik munosabat bastakorlar tomonidan yaratilgan musiqa asarlarida ham, mehnatga, maishiy hayotga va odamlar munosabatiga olib kiriladigan badiiy asoslarda ham ifodalanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Har bir san'at turi singari musiqa san'ati ham juda qadim zamonlarda, odamlar g'orlarda yashab, tosh qurollaridan foydalanib, hayvon terilarini yopinib yurgan o'tmish davrlarida paydo bo'lgan. Unda odamlaming ma'naviy dunyosi cheklangan, tili kambag'al, atrofdagi voqea - hodisalar haqidagi tasavvurlari juda noaniq edi. Lekin shunga qaramay musiqiy asarlarni, garchi u asarlar "yovvoyi" holatda bo'lsada, qadimgi odamlar yaratgan. San'atning deyarli hamma turlari minglab yillar ilgari vujudga kelgan. San'at qandaydir birgina yerdagina emas, balki bir yo'la bir necha qit'alarda, turli kengliklar, iqlim sharoitlarida paydo bo'ldi. Qoyalardagi juda qadimgi zamon tasvirlari Afrikada ham, Ispaniyada ham, Onega ko'li qirg'oqlarida ham, Xitoyda ham topildi. Qadimgi Yunonistonda "musiqa bilan davolash ilmi" keng taraqqiy etgan. Masalan: matematik va faylasuf Pifagor musiqani kishi ruhiga va tanasiga har tomonlama davo bo'ladigan vosita sifatida tavsiya etgan. Aytishlaricha, Iskandar

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-477-482

Zulqarnayn ham ko'p ishlami musiqa sadolari ostida bajargan. O'zbek xalqi yaratgan musiqiy merosning ildizlari juda uzoq asrlarga borib taqaladi. Ajdodlarimizning maftunkor tasviriy san'ati tufayli bizgacha yetib kelgan yodgorliklar o'zbek cholg'u musiqasi qadim zamonlardan boshlanganligini ko'rsatadi. Ko'xna Afrosiyobda olib borilgan qazilmalarda qo'lida surnay ushlagan haykalcha topilgan. Olimlar bu haykalchani eramizdan, ya'ni miloddan avval III-I asarlarda yaratilgan, deb tahmin qilmoqdalar. Ayritosh nomi bilan fanda mashhur bo'lgan nodir yodgorliklar, Sulton Uvays tog'ining janubiy tizmalari boshlanadigan tekislikdagi qadimiy To'proq qal'adan arfa chaluvchi ayol tasviri tushirilgan topilmalar olimlar fikricha, III-IV asrlarga mansub ekan. VIII-XII asarlarda Sharqshunoslik tarixida **"Sharq yoki musulmon Renessansi"** davri deb nom olgan davr Sharqda O'rta asrlardagi barcha taraqqiyotlarning eng yuksak cho'qqisi hisoblanadi. Abu Yusuf Yoqub ibn Is'hoq al-Kindiy, Abu Nasr ibn Muhammad al- Forobiy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar shu davrning ajoyib vakillari bo'lganlar.

Al-Forobiyning musiqaga bag'ishlangan **"Kitob ul-musiqiy al-Kabr"** ("Musiqa haqida katta kitob") asarida yozilishicha, musiqa haqidagi fan amaliy va nazariy sohalardan iborat.

✓ Birinchisi musiqiy asboblar yordamida musiqiy asarlarni ijro etishga oid soha.

✓ Ikkinchisi esa ohanglaming kelib chiqishi va musiqiy asarlarni yaratilish qonunlarini o'rganadi.

Forobiyning tabiricha san'at, shu jumladan, musiqa ilohiy ne'mat emas, balki inson ijodining mahsulidir. Uning vazifasi insonga o'z intellektual va axloqiy sifatlarini takomillashtirishda foydali bo'lishidan iborat.

Musiqa haqida **Abu Ali Ibn Sino** o'zining asarida yozgan. Bu "Kitob ash-shifo", ("Shifo kitobi") nomli ko'p jildlik qomusiy asaming musiqa haqidagi bo'limidir. Ibn Sinoning ta'rificha, san'at, jumladan, musiqa fandir. Bundan san'atning "aql bilan idrok etish" yoki "buyumlaming bilish" mohiyati kelib chiqadi. Ibn Sino musiqaning tarbiyaviy mohiyatini alohida ta'kidlab o'tgan. Bunda san'at vositasi orqali estetik didni tarbiyalashga asosiy e'tibor qaratilgan. Buyuk olim ta'kidlaydiki, shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun ikki tomonlama-jismoniy barkamollik uchun jismoniy mashqlar, ma'naviy rivojlanishi uchun musiqa va boshqa san'at turlari orqali ta'sir o'tkazish lozim.

She'riyat mulkining sultoni **Alisher Navoiy** nozik ta'b, yuksak zakovat egasi sifatida musiqani sevib tinglar, dil-dildan zavqlanardi. Shoir talantli

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-477-482

san'atkorlarga hamisha g'amxo'rlik qildi, yoshlarning kamoloti uchun tinmay qayg'urdi. Insoning kamolotga yetishuvida asosiy rol o'ynovchi vositalardan biri - musiqa san'atidan bahramand bo'lish deb bildi. "Musiqani idrok etmagan shoir nim shoirdir", - deydi, A.Navoiy. Bu kalima shoir estetik qarashlarining mohiyatini yaqqol ko'rsatadi. O'zbek xalqi hayotidagi murakkab tarixiy sharoitlar madaniyat va turmushning feodal me'yorlari doirasidan tashqari chiqish imkonini bermagan. Asrlar davomida yig'ilgan oddiy va ma'naviy boyliklami bosqinchilar egallab olgan yoki yo'q qilib tashlashgan. Qilich va zo'rlik o'zbek xalqining ko'pgina madaniy boyiklarini yo'q qilib yubordi. Lekin shunga qaramasdan davrlar osha, tarixiy davrlar osha xalqning qimmatli madaniy merosi shu kunlarga yetib keldi.

Ongli mehnat jarayonida inson tafakkuri takomillashdi va taraqqiy etdi. His-tuyg'ularni, kayfiyat, ehtiroslarni ifodalash musiqaning eng kuchli xususiyatiga aylandi. Kishining his va kayfiyati o'z-o'zicha namoyon bo'lmaydi. Kishining his va kayfiyatlari manbai real hayotdir. Biz vaziyat ta'siriga ko'ra yo g'am chekamiz, yoki xursand bo'lamiz, g'azabimiz oshadi, yoki shodligimiz ichimizga sig'maydi, yoki ranju-alam chekamiz. Binobarin, agar musiqa bunday his-tuyg'ularni ifodalar ekan, demak, u voqelikni aks ettiradi. Ammo musiqa mazmunini muayyan bir hislar ifodasidan iborat qilib qo'yish yaramaydi. Musiqa, shuningdek, fikrlarni o'zida mujassamlantirishga ham qobildir. Musiqiy merosni asrash tushunchasining mohiyati shunchaki o'tmish g'oyalarini ko'r-ko'rona takrorlash va saqlash emas, balki uni ongli dunyoqarash va insoniyat manfaatlari nuqtai nazaridan rivojlantirish, tanqidiy o'zlashtirish va ijodni qayta ko'rib chiqish zarurligini bildiradi. Kompozitorlarimizning xalq musiqa san'atini ijodiy o'rganishi natijasida o'zbek madaniyati xazinasiga bebaho dur bo'lib qo'shilgan san'at asarlari vujudga keldi. Go'zallikka tashnalik sezgan inson qalbidan, yurak to'ridan o'rin olgan qo'shiqlar kompozitorlar ijodini shakllanishida fundamental asos sanaladi.

O’qitishning klaster usuli o’quv materiallarining puxta, tizimli vabosqichma-bosqichlikda bo’lishini taqazo etadi. Ularda nazariy bilim va ko’nikmalar hayot talablariga mos va uyg’un bo’lishi shart. Shu sababli o’quv adabiyotlarining mavzulari, boblari o’zaro bog’liq bo’lishi va ta’lim yoki kurs bosqichlarida bir-birini takrorlamasligi, mutaxassislik va pedagogic turkumlardagi fanlarning integrallashuviga erishish muammolarini hal etish taqazo etilmoqda. Bu borada ilmiy va amaliy izlanishlar olib borilmoqda, hozirgi kunda bu masalada muayyan

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-477-482

masalalarga kelindi va endigi maqsad o’quv materiallarini klaster usuli talablariga mos ravishda ishlab chiqarishdan iborat.

XULOSA

Xulosa qilib, musiqa voqelikni alohida, faqat unga xos shaklda aks ettiradi, jamiyat va zamonning asosiy g'oyalarini, kishilar munosabatidagi eng muhim narsalarni ifodalaydi. Musiqa voqelikni falsafiy umumlashtirilgan asosda anglaydi. Har bir kompozitor ijodida u yashayotgan zamonning, davrning qandaydir xususiyati o'z ifodasini topadi. Musiqaning kishilarga ta'siri juda kuchlidir, chunki u kishilar his-tuyg'ularini o'ziga maftun etadigan, yuksak emotsional san'atdir. Musiqa kishiga ilgari uncha ma'lum bo'lmagan ajoyib yuksak tuyg'ularni ochib beradi, u kishini o'zgartirib yuborishga, uning qalbini noziklashtirishga, ruhan boyitishga qodir. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, uni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy g‘oyaviy tarbiyalashni muhim vositasidir. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma’naviy ozuqa beradi. Shuningdek, musiqa insonni go'zallikka yetaklovchi bir vosita bo'lib, u insonning estetik va emotsional xususiyatlarini shakllantiradi. Shuning uchun ham musiqani inson tabiatidagi barcha yaxshi hislatlarning ifodasi deb bekorga aytmaganlar. Musiqani sevgan kishi ruhan boyiydi, qalban noziklashadi, ma'naviyati yuksaladi.

REFERENCES

1.I.A. Karimov "Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch", - T."Ma’naviyat nashriyoti", 2008-yil
2. T.Ortiqov. Musiqa o’qitish metodikasi. O’quv qo’llanma. T.2010 y.
3. Mannonov S. O’zbek xalq musiqa madaniyati. Monografiya.
4.H.Nurmatov, N.Yo‘ldosheva « O’zbek xalq musiqasi ijadiyoti» o‘quv qo‘llanma. - T «G‘ofur G‘ulom» nashriyoti, 2007 y.
5.H.Nurmatov, O.Ibrohimov Musiqan o’quv qo'llanma. - T.O’qituvchi nashriyoti 1997 y.
6. G. Sharipova «Musiqa metodikasi». - T.« O‘zbekiston faylasuflar» nashriyoti, 2012 y
7. Маҳкамова, Ш. Р. (2020). Мусиқа илми ва ислом дини: талқин муаммоси. Academic research in educational sciences, (3).

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-483-491

YORUG‘LIK OQIMI TUSHUNCHASINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH

Mansur Baysoatovich Dusmuratov
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
mansurdusmuratov099@gmail.com

Azlarxon Magbarxonovich Tillaboyev
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
tillaboev.azlarkhon@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Optika bo‘limini o‘qitishdagi yorug‘lik oqimi tushunchsini o‘zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf qilish maqsadida ularni zamonaviy dasturiy vositalarni qo‘llab bayon qilish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: elektromagnit nurlanish oqimi, yorug‘lik oqimi, sezgirlik egri chizig‘i, sezgirlik koeffitsiyenti, chastota, to‘lqin uzunlik, ko‘rish diapazoni, differensial, integral, dasturiy vosita.

USING OF MODERN SOFTWARE AT TEACHING THE CONCEPT OF LIGHT FLOW

ABSTRACT

This paper discusses how to explain the flow of light at teaching of Optics using of modern software in order to overcome the difficulties occurred in the process of mastering the concept of light flux.

Keywords: electromagnetic radiation flux, luminous flux, sensitivity curve, sensitivity coefficient, frequency, wavelength, rang of vision, differential, integral, software.

KIRISH

Ma’lumki, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida Optika bo‘limining Fotometriya qonunlarini o‘qitish jarayonida “Yorug‘lik oqimi”, “Yorug‘lik kuchi”, “Yoritilganlik”, “Ravshanlik”, “Fazloviy burchak” va boshqa yangi tushunchalarga duch kelinadi. Shular orasida boshqa tushunchalarga nisbatan “Yorug‘lik oqimi” tushunchasini talabalarning o‘zlashtirishi va uning tub mohiyatini anglab yetishi bir

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-483-491

muncha mushkul kechadi. Mazkur maqolada ana shu tushunchani kengroq yoritib berish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishni havola etamiz [1, 2, 4].

Elektromagnit nurlanish oqimi hamda yorug‘lik oqimi tushunchalari bir-biriga o‘xshash bo‘lsada, aslida ular butunlay boshqa-boshqa ma’nolarni anglatadi. Avvalo talabalar mana shu ikki kattalikning farqini yaxshi anglab olishlari zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshqa to‘lqinlar kabi elektromagnit nurlanish ham biror muhitda tarqalayotganida bir nuqtadan boshqa nuqtaga energiya olib o‘tadi. Biror sirtdan vaqt birligi ichida o‘tgan elektromagnit to‘lqin energiyasiga elektromagnit nurlanish oqimi deyilishini bilamiz [2, 3, 4].

$$\Phi = \frac{W}{t}, \quad \left[\frac{J}{s}\right] = [W]$$

Elektromagnit nurlanish oqimi quvvatning o‘lchamiga egadir. Bu yerda W – sirt orqali o‘tuvchi to‘lqin uzunligi $0 \le \lambda \le \infty$ oraliqda bo‘lgan barcha elektromagnit to‘lqinlar (radioto‘lqinlar, mikroto‘lqinlar, infraqizil nurlar, oq yorug‘lik, ultrabinafsha nurlar, rentgen nurlari va gamma nurlar) energiyasidir. Hozirgina sanab o‘tilgan nurlarning ichida oq yorug‘likdan boshqa birorta nur, garchi qanchalik elektromagnit nurlanish oqimi katta bo‘lmasin, baribir inson ko‘zida ko‘rish tuyg‘usi hosil qilmaydi. Shuning uchun ham “Yorug‘lik oqimi” tushunchasi “Elektromagnit nurlanish oqimi” tushunchasidan keskin farqlanib, u inson ko‘zida ko‘rish tuyg‘usini hosil qiladigan faqat oq yorug‘likka tegishli bo‘lgan tushunchadir [4, 5, 7].

Optikada bizni sirt orqali o‘tuvchi to‘liq elektromagnit to‘lqin energiyasi emas, balki bu elektromagnit to‘lqinlarning bevosita ko‘zga ta’sir etadigan qismi qiziqtiradi. Oq yorug‘lik $(\lambda = 400 - 760\,nm)$ inson ko‘ziga tushganda unda ko‘rish tuyg‘usi hosil qiladi. Lekin, ko‘zga ko‘rinuvchi nurlarning barchasi ham bir xil ko‘rish tuyg‘usini hosil qilmaydi. Keling, bizda oq yorug‘likning har bir tor oraliqlari uchun bir xil quvvatga ega spektrlar olish imkoniyati bo‘lsin. Bu spektrlar inson ko‘ziga tushganida, ularning barchasi birdek sezgirlik uyg‘otmasdan, balki $\lambda = 555\,nm$ $(\nu = 540\ TGs)$ to‘lqin uzunlikdagi yashil nurlarni inson ko‘zi juda yaxshi sezar ekan [3, 4, 5].

Ko‘z sezgirligining to‘lqin uzunligiga bog‘liqligini baholash maqsadida tajribalarga asoslangan holda yangi sezgirlik koeffitsienti $\varphi(\lambda)$ degan kattalik kiritilgan. Sezgirlik koeffitsiyentining qiymati eng yaxshi ko‘rinuvchi yashil

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-483-491

$(\lambda = 555\,nm)$ nur uchun $\varphi(\lambda)=1$ bo‘lib, qolgan barcha nurlar uchun $\varphi(\lambda)<1$ bo‘ladi. Sezgirlik koeffitsientining to‘lqin uzunligiga bog‘lanish grafigi **sezgirlik egri chizig‘i** deyiladi (1-rasm).



1-rasm. Sezgirlik egri chizig‘i

Uning tajribalar asosida olingan qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

λ, nm	φ_λ	λ, nm	φ_λ	λ, nm	φ_λ	λ, nm	φ_λ
400	0,0004	495	0,260	590	0,757	685	0,0126
405	0,0007	500	0,323	595	0,694	690	0,0082
410	0,0012	505	0,408	600	0,631	695	0,0060
415	0,0024	510	0,503	605	0,567	700	0,0041
420	0,004	515	0,605	610	0,503	705	0,0031
425	0,009	520	0,710	615	0,442	710	0,0021
430	0,016	525	0,786	620	0,381	715	0,00155
435	0,019	530	0,862	625	0,343	720	0,00105
440	0,023	535	0,914	630	0,265	725	0,00078
445	0,030	540	0,954	635	0,220	730	0,00052
450	0,038	545	0,978	640	0,175	735	0,00038
455	0,047	550	0,995	645	0,140	740	0,00025
460	0,06	555	1,000	650	0,107	745	0,00018
465	0,074	560	0,995	655	0,083	750	0,00012
470	0,091	565	0,977	660	0,061	755	0,00009
So‘z insonning eng kuchli quroli.[1] Insondagi hech bir narsa so‘zchalik kuchli ta`sir kuchiga ega emas. So‘z bo‘lganda ham har qanday so‘z emas, balki badiiy, adabiy til me`yorlariga amal qilgan so‘zdir. Uni mahorat bilan go‘zal tarzda yetkazib beruvchi ijodkor esa u dunyodagi eng daxshatli texnik quroldan ham kattaroq kuchga ega bo‘ladi. Mana shunday qudratli qurolni ishlata olgan buyuk ijodkor, yozuvchilardan biri Abdulla Qodiriydir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Buyuk va zabardast ijodkorimiz bo‘lgan Abdulla Qodiriy XX asrning ko‘zga ko‘ringan, asarlari qalbimizdan joy olishga ulgurgan, fidoyi insondir. U butun umr halol, rostgo‘y va haqiqatparvar inson bo‘ldi, hattoki uning har bir asarining bosh qahramonlarini shunday bo‘lishiga da`vat etgan. Misol uchun uning birgina suddagi nutqiga ahamiyat beradigan bo‘lsak, unda shunday jumlalar bor: ”Men to‘g‘rilik

[1]Yunon olimi Aristotel.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-534-539

orqasida bosh ketsa “ih” deydigan yigit emasman… Ko‘nglida shamsi g‘uboroti, teskarichilik maqsadi bo‘lmog‘on sodda, go‘l, vijdonlik yigitga bu qadar xo‘rlikdan o‘lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha ma`naviy o‘lim bilan o‘ldirildim. Endi, jismoniy o‘lim menga qo‘rqinch emasdir”.[2]
Hayot shunday tuzilgan, hayotning qonuni, mohiyati shundan iborat. Abdulla Qodiriyning bizga qoldirgan adabiy merosi esa juda ulkandir. Har bir asarida uning hayotiy haqiqatlari aks etadi. Shulardan eng mashhurlari esa uning romanlaridir.

Haqiqatdan, Abdulla Qodiriy nomi tilga olinganda bir entikib, hayratlar bilan romanlaridagi Otabek va Kumush, Anvar va Ra`nolar taqdirini esga olmaydigan inson topilmaydi. Adibning badiiy so‘zida betakror joziba mujassam bo‘lgani bois “O‘tkan kunlar”ni yoki “Mehrobdan chayon”ni necha topqir o‘qilsa ham, odam to‘ymaydi, zerikmaydi; qayta o‘qishga zarurat sezaveradi. Romanlar zavq-shavq bilan o‘qiladi, qayta o‘qishda asarlarning yangidan-yangi qirralari ochilib boradi. Bir o‘qilganda e `tiborsiz o‘tilgan tasvir va epizodlar boshqa safar diqqatni tortadi. Shubhasiz, bu adibning obraz yaratish mahoratiga, inson qalbini chuqur anglashiga, voqea-hodisalar bayonining usuliga tegishlidir. Zeroki, adabiyotdek so‘z san`atida badiiy til juda muhim sanaladi, so‘z vositasida obrazlar, manzaralar, tuyg ‘ular suvratlantiriladi. Shu jihatdan shuni anglaymizki, Abdulla Qodiriyning so‘zga, badiiy tilga, o‘zbek adabiy tiliga e`tibori juda kuchlidir. Uning so‘zida insonni o‘ziga bog‘lab turadigan mustahkam ma`naviy iplar, odamni o‘ziga ohanrabodek tortib turgan kuch-quvvat bor. Uning romanlarida har bir qahramonning nutqini hissiyotsiz va ta`sirsiz o‘qiy olmaymiz. Chunki har bir qahramonni tirik va voqealar rivojini chetdan turib emas, balki aynan uning ichida bo‘lgandek his etilishi ham, ijodkorning buyuk so‘z san`atkori ekanligidan dalolat beradi.

Abdulla Qodiriy asarlarida nafaqat badiiy adabiyot, balki tarixiy shaxslar va tarixiy voqealarni, umimiy qilib aytganda, o‘tmishimizdagi tarix haqida ham ancha to‘liq ma`lumotlarga ega bo‘lamiz. Xususan, bir necha asrlar muqaddam bizning yurtimiz amirlik va xonliklarga bo‘linib ketgan bir davr edi. Bular: Buxoro amirligi, Xiva va Qo’qon xonliklari edi. Shu xonliklardan bir bu Qo‘qon xonligi bo‘lib, bu xonlik XVIII asrda asos solingan,unda ko‘plab hukmdorlar birin-ketin yurtga humronlik qilishgan. Xonlarning so‘nggi vakili esa bu Xudoyorxondir. Abdulla Qodiriy ikkala romanida ham Xudoyorxon obrazini kiritadi va “Tariximizning eng kirlik, qora kunlari”[3] deb aynan shu davr ya`ni Xudoyorxon davrini aytib o‘tadi.

[2]1926-yil iyundagi suddagi nutqidan.
[3]A.Qodiriy “O’tkan kunlar” romanidan.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-534-539

Tarixiy ma`lumotlardan shuni bilamizki, XIX asrda Rossiya deyarli bizning yurtimizni o‘z tassarufiga olishga ulgurgan bir payt edi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan o‘z yurtiga, undagi aholi turmushiga bee`tibor bo‘lgan Xudoyorxon shaxsiga qanday qarashimiz kerak.

Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” asarida zulm o‘chog”i deb aynan saroyni shu nom bilan atagan. Shuncha imoratlar, masjidlar, bog‘lar bo‘lishiga qaramasdan, go‘zaldan go‘zal va bahaybat imoratlar, ariqlar qazilishi hammasi qora xalqning peshona terisidan bunyod bo‘lgan edi, aynan ularning achchiq ko‘z yoshlari ariqlarda suvlar bo‘lib oqqan edi va bu mashaqqat va azoblar xalqni xonga nisbatan nafratining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan edi. Oddiy bir qora ish bilan shug‘ullanayotagn ishchining uyida bir burda non bo‘lmagan, ochlikdan qiynalayotgan paytda, xonning xonadonida o‘g‘li O‘rmonbekning to‘yi munosabati bilan har kuni sakkiz yuz qozonda oshlar pishishi, ikki yuz tandirda nonlar yopilishi, yuzdan ziyod chorva mollarning suyilishi [4] insofdanmikan? Shunday xonni biz beklikka loyiq deb qaray olamizmikan?

Ahmad Zaki Validiy o‘zining asarida shunday ma`lumot keltiradi: “Xudoyorxon—ko‘p badavlat bo‘lib, xotinlarni ko‘paytirishga hirs qo‘ygan, kayf-u safoni, rohatni va tinchlikni yaxshi ko‘rgan. Xalqning foydasiga ish yuritmagan. Mamlakatning turli tomonlarida bir nechta bog‘larida gullar orasida kayf-u safo qilib yotgan, bedana, kaklik va xo‘rozlarni urushtirish bilan shug‘ullangan. Masxaraboz va hofizlar hamda ma`nosiz o‘yinlar bilan umrini o‘tkazgan. Mol-u dunyoga haddan ziyoda hirs qo‘ygan va o‘zining xazinasini boyitish uchun ko‘p soliqlar solgan”. [5] Hayotning beshavqatligi, undagi zamon kamchiliklari, katta va boy insonlarning oddiy xalq ustidan beayov azoblashi, bu o‘tmishimizning “eng qora va eng chirkin” kunlaridir. Shu o‘rinda “Haram” ahli va “qirq qizlar” haqidagi boblariga ham to‘xtalib o‘tish o‘rinlidir. Boisi, bu yer bir qaraganda jannatdek tuyulishi, ahli ayol-qizlarning shodligini ko‘rish mumkin, ammo ularning qalbi dard, iztirobga limmo-limdir. Shu o‘rinda Uvaysiyning “Anor” chistoni yodga keladi:

Ul na gumbazdir, eshig-u tuynugidin yo‘q nishon,
Necha gulgunpo‘sh qizlar manzil aylabdir, makon?
Sindirib gumbazni, qizlar holidin olsam xabar,
Yuzlariga parda tortig‘liq turarlar bag‘ri qon!

[4]“Mehrobdan chayon” romanidan.
[5]Ahmad Zaki Validiy “Xudoyorxonning so’nggi kunlari” asaridan

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-534-539

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Uvaysiz bu chistoni orqali saroydagi haramni shunday tasvirlaydiki, unga ortiqcha izohga hojat qolmaydi. “Mehrobdan chayon” asarida Xudoyorxonning haramida yuz ellikdan ziyod qiz-u juvonlar borligi aytib o’tiladi. Nahotki, ular hayotda bag‘ri qon holatda yashashga majbur, nahotki ularni bir buyumchalik qadri bo‘lmagan bo‘lsa(chunki, bir davlat boshqa bir davlat tomonidan bosib olinga, mag‘lub xonning harami to‘liq holatda boshqa xonga o‘tib ketgan)? Shu jarayonlardagi holatlarni o‘qiganda, yuzda mahzunlik, ko‘zda yosh va qalbda og‘riq paydo bo‘lishi tabiiy holatdir. Shu o‘rinda Nazmi(haramdagi kanizaklardan birining ismi)ning nazmidan keltirib o‘tish o‘rinlidir:

Tirnamagil sen yaram, yig‘latma ko‘p, qil karam,
Turgan o‘rningdir haram, ya`ni shohim bazmidir!
Jabru sitam bazmidur!
Oy-u yillar yig‘lagan, bag‘rini har dam tig‘lagan,
Hasratidan yiqilgan, baxtsiz bir qiz Nazmidur!
Baxtsiz bir qiz Nazmidur!

Bundan tashqari, Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” asarini ham shunday boshlagan:

“Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar. Shunga ko‘ra mavzuni moziyda, yaqin o‘tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo‘lg‘an keying “ xon zamonlar”dan belguladim”. Tarixiy-biografik romanlarda zamon va makon chegaralari tanlangan tarixiy shaxs-qahramon hayoti solnomasiga ko‘p jihatdan muvofiq keladi. Ammo adabiyot olamidagi tarixiy asarlar turli asoslar ustiga quriladi. Abdulla Qodiriy o‘zining kamtarona ta`biri bilan “havas”lanib roman yozishga kirishar ekan, moziyga nazar tashlaydi. Moziy esa zamon va makon jihatidan cheksiz hamda mavhumdir. A.Qodiriy “moziy”ga aniqlik kiritaroq “yaqin o‘tgan kunlar”, “xon zamonlari” birikmalarini kiritib o‘tadi. Bu o‘ziga xos ahamiyatga ega jarayondir.

Abdulla Qodiriy romanlarida Musulmon va Abdurahmon oftobachi kabi tarixiy shaxslar ham uchraydi. Birinchi navbatda, Abdurahmon oftobachi haqida aytib o‘tadigan bo‘lsam, u asarda Musulmonqulning o‘g‘li, Xudoyxonning ishonchli amaldorlaridan biri ekanligi aytib o‘tiladi. Tarixiy manbalarda, Xudoyorxon davrida Abdurahmon boshchiligida qo‘zgo‘lon bo‘ladi, ammo bu Oftobachi Abdurahmon emas, butunlay boshqa shaxs, ya`ni ikkalasini bitta odam deb hisoblasak, katta tarixiy

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-534-539

xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz. Xudoyorxon, Abdurahmon qo‘zg ‘olonini bostirib uchun oftobachini yuborganida, Abdurahmon oftobachi xonga xiyonat qiladi va qo‘zg‘olonchilar tarafiga o‘tib ketadi. Shuni eslatib o‘tish joizki, “Mehrobdan chayon” asarida Abdurahmon oftobachi obrazi bir marotaba qo‘llanilgan xolos.

Keyingi tarixiy obrazlardan biri bu Musulmonquldir. U asarda shunday ta`riflanadi: “Xonning so‘l tomonidag‘i oltin hallik kursi kishidan bo‘sh, o‘ngdagi –ichki saroyga kiradirgan eshikcha yonidag`i kursi ustida O‘ratepa chakmani ustidan qayish kamar bog‘lab, soddag‘ina qilich taqing‘an, boshig‘a oq barra popoq kiyib, basharasidagi burni yuzi bilan bir qatorda deyarlik tekis yaratilg‘an, o‘rtacha soqol, qisiq ko‘z, bug‘doy rang, o‘rta yoshliq bir qirg‘iz—Musulmonqul o‘lturar va hozirg‘ina hudaychi tarafidan o‘ziga topshirilg‘an ariza va maktublardan ochib o‘qur edi”.[6]

Darhaqiqat, tarixiy ma`lumotlarga ko‘ra, Musulmonqul—Qo‘qon xonligida qipchoqlar rahbari bo‘lgan va bir qancha qo‘zg‘olonlarga boshchilik qilgan. Musulmonqul o‘zining qizini Sheralixonning o‘g‘li Xudoyorxonga turmushga beradi va Qo‘qonda muvaqqat hukmdorlikni qo‘lga kiritadi. O‘sha davrdan boshlab Qo‘qonda faqat qipchoqlar to‘dasining hukmronligi boshlanadi. Musulmonqul xonning yoshligidan foydalanib xonlikni deyarli mustaqil ravishda o‘zi boshqaradi. “O‘tkan kunlar” romanida ham bu eslatib o‘tiladi: “ Arkoni davlat yig‘ilib, Xudoyor taxtiga mingan, Musulmonqul xon bo‘lmasa ham xonlikdan-da yuqori bir kuchga molik bo‘lg‘an siyosat kursisiga o‘ltirgan edi”. Hayotda yomon inson yoki yaxshi inson bo‘lmaydi, aksincha, yaxshi yoki yomon amal qilguvchi insonlar bo‘ladi, shu xolos. Musulmonqul ham yomon amal qilguvchi, o‘z manfaatlari ustun qo‘yguvchi bir inson edi. Ammo, “ Yomonning umri qisqa” — deb bejizga aytishmagan ajdodlarimiz. Ya`ni Musulmonqulning ham hukmronlik davri uzoqqa bormaydi. 1852-yil farg‘onalik mulkdorlar toshkentliklar yordamida qipchoqlar hokimiyatiga qarshi qurolli kurash boshlashadi va Farg‘onaning sharqidagi Bilqillama hududidagi jangda qipchoqlar yengiladi, Musulmonqul esa shu jangda o‘ldirilgan.[7]

Bunga qo‘shimcha tarzida shuni aytish mumkinki, asarda xudaychi, jallod, darvozabon,qo‘shbegi,dasturxonchi, qo‘rboshi kabi kasb egalarining ham nomlari keltirib o‘tiladi, bularning barchasi qadimgi kasb nomlari, ammo ulardagi lavozim egalarining nomlari aniq tarixiy faktga ega emas.

[6]”O’tkan kunlar” romanidan.
[7]H.Bobobekov “Qo’qon tarixi” asaridan

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-534-539

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, asar romantik va tarixiy jarayonni o‘zida birlashtirib juda go‘zal badiiyatni yaratgan. Bir oilaning taqdiri orqali Abdulla Qodiriy butun bir jamiyatning ahvoli, vaziyati, o‘sha davrdagi tuzumga bo‘lgan munosabatini aks ettirgan. Bu asarni o‘qigan har bir kitobxon o‘ziga nafaqat estetik zavq, balki tariximiz, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va eng muhimi, o‘tmishimizning eng qiyin damlarini o‘zining qalbi ila his etadi. Abdulla Qodiriy romanlarining qiymati va qadri shundadir va ular bebaho va durdona asarlarimiz bo‘lib qoladi.

REFERENCES

1. B.Karimov “Jahon adabiyoti” jurnali. T. 2013.
2. H.Bobobekov “Qo‘qon tarixi”. T.1996.
3. Ahmad Zaki Validiy “Xudoyorxonning so‘nggi kunlari”.
4. I. J. Ibrat. “Farg‘ona tarixi”.
5. O‘zME. 1-jild. T. 2000.
6. A. Qodiriy “Mehrobdan chayon”. T. 1994.
7. A. Qodiriy “O‘tkan kunlar” T. 2007.
8. www.ziyouz.com.
9. www.ziyonet.uz saytidan.
10. www.kh-davron.uz.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-540-543

YENGIL ATLETIKA SPORTINING SAKRASH QOIDALARI

Mashxur Adixamjanovich Butabayev
Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada yengil atletika sporti bilan shug‘ullanuvchi atletlarning musobaqa va tayyorgarlik jarayonlarida kerak bo‘ladigan usullar va sport qoidalari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sakrash, yugurish, tezlik, sport, uchish, harakat, mushak

ABSTRACT

The article contains information about the methods and sports rules of the athletics sports in the competition and preparations.

Keywords: jump, run, speed, sport, fly, muscle, muscle

KIRISH

Gorizontal tezlikni vertikal tezlikka o‘tkazish samaradorligini belgilab beruvchi omillardan biri depsinadigan oyoqni qo‘yish burchagi hisoblanadi. Hamma sakrashlarda oyoq itarilish joyiga tez, chaqqon va qattiq qo‘yiladi, oyoq kafti tayanchga tegishi bilanoq u tizza bo‘g‘imidan tekislanishi kerak. Depsinadigan oyoqni qo‘yish burchagi oyoqni qo‘yish joyi va UOMni sirt chizig‘i bilan bog‘lovchi oyoqning uzunasiga o‘qi bo‘yicha aniqlanadi. Gorizontal tezlikni vertikaliga qancha ko‘proq o‘tkazish kerak bo‘lsa, oyoqni qo‘yish burchagi shuncha kichikroq (o‘tkirroq) bo‘ladi, oyoq UOM proyeksiyasidan uzoqroqqa qo‘yiladi. Tekislangan depsinadigan oyoqni qattiq va tez qo‘yish yana shunga bog‘liqki, tekis oyoq yuklamani yengilroq ko‘taradi, tayanchga beriladigan bosim itarilishning birinchi qismida sakrovchining tana og‘irligidan bir necha marta ortiq bo‘ladi. Oyoqni qo‘yish paytida oyoq mushaklari zo‘riqqan bo‘ladi, bu egiluvchan amortizatsiyaga va mushaklarning qayishqoq tarkiblarining samaraliroq cho‘zilishiga yordam beradi. Anatomiyadan ma’lumki, zo‘riqqan mushaklar ular cho‘zilganda keyinchalik katta mushak kuchlanishlarini hosil qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Depsinishning birinchi qismida itariladigan oyoqning gorizontal tezligi va to‘xtatuvchi harakati, qadam tashlaydigan oyoq va qo‘llar harakatining inertsiya

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-540-543

kuchlari hisobiga tayanchga bosim o‘tkazish kuchi oshadi; UOMning kamayishi uzatiladi (kamayish kattaligi sakrash turiga bog‘liq); zo‘riqqan mushaklar va boylamlarni cho‘ziltirish amalga oshiriladi. Ikkinchi, yaratuvchi qismida tayanch reaksiyasi kuchining oshishi natijasida sakrovchi tanasining harakat tezligi vektori o‘zgaradi; depsinish tugashiga yaqin tayanchga bosim o‘tkazish kuchlari kamayadi; cho‘zilgan mushaklar va boylamlar o‘z energiyasini sakrovchi tanasiga beradi; qadam tashlaydigan oyoq va qo‘llar harakatlarining inertsiya kuchlari harakat tezligi vektorining o‘zgarishida ishtirok etadi. Bu hamma omillar sakrovchi tanasining boshlang‘ich uchib chiqish tezligini hosil qiladi.

Sakrovchi tanasining boshlang‘ich uchib chiqish tezligi vektori va gorizont tufayli hosil bo‘ladigan burchak uchib chiqish burchagi deb ataladi. U depsinadigan oyoq depsinish joyidan uzilgan paytda hosil bo‘ladi. Uchib chiqish burchagini tayanch nuqtasini va UOMni birlashtirib turuvchi depsinadigan oyoqning uzunasiga o‘qi bo‘yicha aniqlash mumkin (uchib chiqish burchagini to‘g‘ri aniqlash uchun maxsus asboblar qo‘llaniladi). Sakrashlarning natijaliligini belgilab beruvchi asosiy omillar – sakrovchi UOMining boshlang‘ich tezligi va uchib chiqish burchagi. Sakrovchi UOMining boshlang‘ich tezligi depsinadigan oyoq uzilgan aytda aniqlanadi va quyidagilarga bog‘liq bo‘ladi:

- yugurib kelishning gorizontal tezligiga;
- gorizontal tezlikni vertikaliga o‘tkazish paytidagi mushak kuchlanishlari kattaligiga;
- shu kuchlanishlarning ta’sir qilish vaqtiga;
- depsinadigan oyoqni qo‘yish burchagiga.

Gorizontal tezlik qismini vertikal tezlikka o‘tkazish paytidagi mushak kuchlanishlari kattaligini tavsiflab, sof kuchlanishlar kattaligi emas, balki kuch impulsi, ya’ni vaqt birligi ichidagi kuchlanishlar kattaligi to‘g‘risida gapirish lozim. Mushak kuchlanishlari kattaligi qancha ko‘p va ularning namoyon bo‘lish vaqti qancha kam bo‘lsa, mushaklarning portlovchan kuchini ifodalovchi kuch impulsi shuncha yuqori bo‘ladi. Shunday qilib, sakrashlarda natijani ko‘tarish uchun oyoq mushaklarining faqat kuchini emas, balki kuch impulsi bilan tavisflanuvchi portlaydigan kuchini rivojlantirish muhim. Bu xususiyat “to‘ntarilib” va “fosbyuri-flop” usullarida balandlikka sakrashlarda depsinish vaqti taqqoslanganda aniq ko‘zga tashlanadi. Birinchi usulda depsinish vaqti ikkinchisiga qaraganda ancha ko‘p, ya’ni birinchi holda kuch bilan depsinish, ikkinchisida esa tezkor (portlovchan) depsinish kuzatiladi. Ikkinchi holda balandlikka sakrash natijalari yuqoriroq. Bu farqlarning anatomik belgilarini qarab chiqadigan bo‘lsak, shuni ko‘ramizki, “to‘ntarilib” sakrash

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-540-543

usulida sakrovchilar “fosbyuri-flop” usulida sakrovchilarga nisbatan ancha gavdaliroq, oyoqlarining mushak massasi ko‘proq bo‘ladi. “Fosbyuri-flop” usulida sakrovchilar, odatda, ozg‘in va oyoq mushak massasi ularda kamroq bo‘ladi. Uchib chiqish burchagi depsinadigan oyoqni qo‘yish burchagiga va tezlik o‘tkazilayotgan paytda mushak kuchlanishlarining kattaligiga bog‘liq bo‘ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Uchish. Sakrashning bu yaxlit bajarilish fazasi tayanchsiz hisoblanadi. Langarcho‘pga tayanib sakrash bundan mustasno bo‘lib, bu yerda uchish ikkita qismga bo‘linadi: tayanchli va tayanchsiz. Shuni tushunib olish muhimki, uchish fazasida sakrovchi UOMning harakat yo‘nalishini hech qachon o‘zgartira olmaydi. Bu yo‘nalish itarilish fazasida beriladi. Biroq sakrovchi UOMga nisbatan tana a’zolari holatini o‘zgartirishi mumkin. Nima uchun sakrovchi qo‘llari, oyoqlari yordamida turli xil harakatlarni bajaradi, havoda gavda holatini o‘zgartiradi? Uchish texnikasi nima uchun o‘rganiladi? Bu savollarga javob mazkur sakrash fazasining maqsadida yotadi. Balandlikka sakrashda sportchi o‘z harakatlari bilan to‘sinni engib o‘tish uchun optimal sharoitlar yaratadi. Langarcho‘pga tayanib sakrashda birinchi tayanch qismida – bu langarcho‘pning bukilishi va yozilishi uchun (uning cho‘ziluvchan xususiyatlaridan samaraliroq foydalanish uchun) optimal sharoitlar yaratishdir.

Ikkinchi tayanchsiz fazada to‘sinni oshib o‘tish uchun optimal sharoitlar yaratishdir. Uzunlikka sakrashlarda – uchishda muvozanatni saqlash va yerga tushish uchun optimal sharoitlar yaratish. Uch hatlab sakrashda – muvozanatni saqlash va keyingi depsinish uchun optimal sharoitlar yaratish, oxirgi sakrashda esa uzunlikka sakrashdagi maqsad ko‘zlanadi. Uchish paytida UOMning harakat yo‘nalishini o‘zgartirish mumkin emas, lekin tana a’zolari holatini UOMga nisbatan o‘zgartirish mumkin. Masalan, gimnastika, akrobatika, suvga sakrash kabi sport turlarida har xil aylanishlar bajariladi, lekin ularning barchasi UOM atrofida bajariladi. Ma’lumki, sakrovchining biron bir tana a’zolari holatining o‘zgarishi boshqa a’zolarning diametral qarama-qarshi o‘zgarishlarini keltirib chiqaradi. Masalan, “fosbyuri-flop” usulida balandlikka sakrashda to‘sindan oshib o‘tayotganda qo‘llar, bosh va elka tushirib yuborilsa, bu oyoqlarning ko‘tarilishini yengillashtiradi; agar uzunlikka sakrashda qo‘llar yuqoriga ko‘tarilsa, bunday harakat oyoqlarning qisqarishini keltirib chiqaradi, bu orqali sakrash uzunligi qisqaradi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-540-543

XULOSA

Demak, uchish paytida gavda a’zolarini harakatlantirish orqali biz yoki optimal uchish sharoitlarini yaratishimiz, yoki ularni buzishimiz va shu orqali sakrash natijasini pasaytirib yuborishimiz mumkin. Sakrashlarda g‘olib va sovrindorlarni 1-2 sm ajratib turgan paytlarda uchishda oqilona va samarali harakatlanish texnikasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

REFERENCES

1. Саломов Р.С. Исследование воспитания качества быстроты у учащихся IV класса с использованием игрового метода.: Автореф.дис. ... канд. пед. наук.- М. 1975.
2. Саломов Р.С. Спорт машқларида қўлланиладиган усуллар. – Т.: Ўзавтотранстехника, 1991.
3. Махкамжанов К.М., Насриддинов Ф.Н. Мактабгача ва мактаб ёшдаги болаларнинг жисмоний ривожланиши ва тайёргарлигини такомиллаштириш. – Т., 1995.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-544-547

YENGIL ATLETIKA SPORT TURIDA TAYYORGARLIK USULLARI

Odiljon Baxadirovich Karimov
Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolda sport bilan shug‘ullanuvchi har bir shaxsning jismoniy, ma’naviy, ruhiy jihatdan tarbiyalashda qaysi jihatlarga e’tibor berilish yo‘l-yo‘riqlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: yengil atletika, sport, jismoniy rivojlanish, sog’lik, tarbiya, sportchi, sakrash, tayyorgarlik

ABSTRACT

A proverb provides guidance on which aspects of each person involved in the physical, spiritual and spiritual education.

Keywords: athletics, sports, physical development, health, education, jump, preparation.

KIRISH

Har bir shaxs har tomonlama jismoniy rivojlanish, sog’liqni mustahkamlash va sportda muvaffaqiyat qozonib, o‘z o‘rnini topish uchun jismoniy va ma’naviy-irodaviy jihatlarning asosiylarini rivojlantirish va tarbiyalash kerak bo‘ladi. Ana shu sifatlarning asosiylarini rivojlantirish va tarbiyalash yengil atletikachilar tayyorgarligining muhim qismidir. Yengil atletikachilarning asosiy jismoniy sifatlarini rivojlantirish (jismoniy tayyorgarlik) – eng avvalo, sportchining har tomonlama va maxsus jismoniy rivojlanish jarayonidir. Shunga binoan jismoniy tayyorgarlik umumiy jismoniy tayyorgarlikka va maxsus jismoniy tayyorgarlikka bo‘linadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Umumiy jismoniy tayyorgarlik deganda yengil atletikachining har tomonlama rivojlanishi, ya’ni harakatlanish apparatini rivojlantirish, organizm va tizimlarni mustahkamlash, ularning funksional imkoniyatlarini oshirish, boshqara olish qobiliyatini yaxshilash, kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlikni oshirish, qomat va tana tuzilishidagi kamchiliklarni tuzatish nazarda tutiladi. Bunga

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-544-547

erishish uchun turli xil harakat faoliyatida qatnashuvchi organizm organlari va tizimlari hamda tana qismlariga jismoniy mashqlar yordamida muntazam ta’sir etib turish zarur. Buning uchun esa yuqorida aytib o‘tilgan 3 guruh mashqlardan, ayniqsa, turli xil umumiy rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik yengil atletikaning mazkur turini bajarish uchun nima talab etilishiga qarab, sportchi organizmining hamma funksional imkoniyatlarini, barcha organlar va tizimlarini yuqori darajada rivojlantirishga qaratilgan. Buning uchun, tabiiyki, tanlab olingan yengil atletika sport turining mashqlari va maxsus mashqlardan foydalaniladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik uchun ko‘pgina umumiy ta’sir ko‘rsatadigan mashqlardan, maxsus tayyorgarlik uchun esa aniq maqsadga yo‘naltirilgan mashqlardan foydalaniladi. Lekin umumiy jismoniy tayyorgarlikda ham jismoniy rivojlanish, tana tuzilishi, qomatdagi ayrim kamchiliklarni yo‘qotish uchun aniq yo‘naltirilgan mashqlar qo‘llaniladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikda kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlik xususiyatlarini rivojlantiruvchi mashqlar asosiy rol o‘ynaydi. Aynan shu jismoniy sifatlarda yengil atletikachining butun organizmidagi organlar va tizimlar ish qobiliyatiga asoslanib, uning harakat qilish imkoniyati aks etadi.

Yengil atletika sakrashlari ikki turga bo‘linadi:

1) vertikal to‘siqlarni yengib o‘tish bilan sakrashlar (balandlikka sakrash va langarcho‘pga tayanib sakrash);

2) gorizontal to‘siqlarni yengib o‘tish bilan sakrashlar (uzunlikka sakrash va uch hatlab sakrash).

Sakrash samaradorligi depsinish fazasida, sakrash natijaliligining asosiy omillari hosil bo‘ladigan paytda aniqlanadi. Bunday omillarga quyidagilar kiradi:

1) sakrovchi tanasining boshlang’ich uchib chiqish tezligi;

2) sakrovchi tanasi

UOMining uchib chiqish burchagi. UOMning uchish fazasidagi harakat yo‘nalishi depsinish xususiyatiga va sakrash turiga bog’liq bo‘ladi. Uch hatlab sakrash uchta uchish fazasiga, langarcho‘pga tayanib sakrash esa uchish fazasining tayanch va tayanchsiz qismlariga ega. Yengil atletika sakrashlari o‘z tuzilishiga ko‘ra aralash turga taalluqlidir, Ya’ni bu yerda ham tsiklik, ham atsiklik harakat elementlari mavjud. Sakrashni yaxlit harakat sifatida tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

- yugurib kelish va depsinishga tayyorlanish

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-544-547

– harakat boshlanishidan tortib to depsinadigan oyoqni depsinish joyiga qo‘yish paytigacha;

- depsinish (itarilish) – depsinadigan oyoqni qo‘ygan paytdan boshlab, to uning depsinish joyidan uzilish paytigacha;

- uchish – depsinadigan oyoq depsinish joyidan uzilgan paytdan boshlab to yerga qo‘nish joyiga tegish paytigacha;

- yerga tushish – yerga tushish joyiga tegish paytidan boshlab to tana harakati to‘liq to‘xtagunga qadar.

Yugurib kelish va depsinishga tayyorlanish. To‘rt xil sakrash turlari (uzunlikka, uch hatlab, balandlikka, langarcho‘pga tayanib sakrash) yugurib kelishda o‘ziga xos xususiyatlarga ega, lekin ma’lum bir umumiy tomonlari ham bor.

Yugurib kelishning asosiy vazifasi – sakrovchi tanasiga sakrashga mos bo‘lgan optimal yugurib kelish tezligini berish hamda depsinish fazasi uchun optimal sharoitlarni yaratish. Yugurib kelish depsinishga tayyorlanish boshlanishidan oldin tsiklik harakat tuzilishiga ega. Unda yugurish harakatlari yugurib kelishdagi harakatlardan bir oz farq qiladi.

Yugurib kelish maromi doimiy bo‘lishi kerak, ya’ni uni urinishdan urinishga o‘zgartirib turish kerak emas. Odatda yugurib kelish sportchida ayni paytda kuzatiladigan uning jismoniy imkoniyatlariga mos keladi. Tabiiyki, jismoniy funksiyalar yaxshilanishi bilan yugurib kelish o‘zgaradi, tezlik, qadamlar soni oshadi (ma’lum chegaragacha), lekin yugurish maromi o‘zgarmaydi. Bu o‘zgarishlar sakrovchining ikkita asosiy jismoniy sifatlariga bog’liq, ularni parallel tarzda rivojlantirish zarur. Bu tezkorlik va kuchdir. Yugurib kelishning boshlanishi odatiy, har doim bir xil bo‘lishi kerak. Sakrovchi yugurib kelishni, go‘yoki start olgandek, turgan joyidan yoki yugurib kelish boshlanishining nazorat belgisigacha kelish bilan boshlashi mumkin.

Yugurib kelishda sakrovchining vazifasi nafaqat optimal tezlikka erishish, balki depsinadigan oyoqni itarilish joyiga aniq qo‘ya bilish lozim, shuning uchun yugurib kelish, uning maromi va hamma harakatlar doimiy bo‘lishi kerak. Yugurib kelishning ikkita variantini ajratish mumkin:

1) bir xil tezlanish bilan yugurib kelish;

2) tezlikni saqlab turishi bilan yugurib kelish.

Bir xil tezlanish bilan yugurib kelishda sakrovchi asta-sekin tezlik ola boshlaydi, uni yugurib kelishning oxirgi qadamlarida optimal darajagacha yetkazadi. Tezlikni saqlab turish bilan yugurib kelishda sakrovchi deyarli darrov, birinchi

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-544-547

qadamlardanoq optimal tezlikni oladi, uni butun yugurib kelish davomida saqlab turadi, oxirida so‘nggi qadamlarda uni biroz oshiradi. U yoki bu yugurib kelish variantining qo‘llanilishi sakrovchining individual xususiyatlariga bog’liq.

XULOSA

Yugurib kelishning oxirgi qismining (depsinishga tayyorlanish) ajralib turuvchi xususiyati sakrash turiga bog’liq. Umumiy ajralib turuvchi xususiyati – yugurib kelish va yugurib kelish bo‘lagida tana a’zolari harakatlari tezligining oshishidir. Yugurib kelib uzunlikka sakrashda depsinishga tayyorlanishda oxirgi qadamlarning uzunligi biroz kamayadi va ularning sur’ati oshadi. To‘g’ri chiziqli yugurib kelishga esa hamma usuldagi sakrashlarda (“hatlab o‘tish”, “to‘lqin”, “yumalab o‘tish” (perekat), “to‘ntarilib o‘tish” (perekidnoy) depsinishga tayyorlanish oxirgi ikkita qadamda, qadam tashlaydigan oyoq ancha uzunroq qadam tashlagan paytda (shu orqali UOMni kamaytirgan holda), depsinuvchi oyoq esa ancha qisqa tez qadam tashlaydi, bunda sakrovchi yelkasi UOM proyeksiyasi ortiga tashlanadi.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги қонуни Халқ сўзи.- 2000. – 28 май.
2. Андрис Э.Р., Кудратов Р.К. Енгил атлетика: Ўқув қўлланма.-Т.: ЎзДЖТИ, 1998.
3. Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов.-М.: Физкультура и спорт, 1988.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-548-555

ТАШИШ ЖАРАЁНИДА АВТОМОБИЛЛАРНИНГ ЭКСПЛУАТАЦИОН ХУСУСИЯТИНИ БАҲОЛАШ

Бувражаб Канкеловна Қурбонова
Жиззах политехника нститути
qbibirajab@gmail.com

Ойбек Абдувоси ўғли Авлаев
Жиззах политехника нститути 102-20 ТВМ гуруҳи талабаси

Шахзод Ўктам ўғли Абдукаримов
Жиззах политехника нститути Магистрант

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада ишлаб чиқилган тавсиялар асосан автотранспорт воситаларини эксплуатация қилиш даврида ташиш меъёрий кўрсаткичларни ва ҳаракат хавфсизлигини таъминлашдаги фаолиятини оширишга хизмат қилади.

Калит сўзлар: автомобил,ташиш, хусусият, хизмат кўрсатиш, иқлим, ҳаракат хавфсизлиги, кўрсаткич, миқдор.

ABSTRACT

This article describes the development of methodological recommendations and the application of their results in production in order to improve the operation of transportation and road safety of motor transport

Keywords: car, traffic safety, traffic, traffic signs, dangerous site

КИРИШ

Автомобиль транспорти мамлакатимиз иқтисодиётида муҳим рол ўйнайди. Қўйилган муаммога бағишланган илмий ишларни таҳлил этишдан кўринадики, автомобиль транспортидан фойдаланиш самарадорлиги унинг хусусиятларига боғлиқ. Хусусиятлар эса эксплуатация жараёнида юзага чиқади ва транспорт воситаси берилган шароитларда эксплуатация қилишга лойиқ ёки лойиқ эмаслигини кўрсатади. [1,2]

Эксплуатация шароитларини шартли равишда карьерлар, тоғлар, текисликларга ажратиш мумкин.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-548-555

Автотранспорт воситаларида ўзига хос махсус хусусиятларнинг мавжудлиги, берилган ишлаб чиқариш шароитларида бошқа транспорт турлари ёки воситаларидан фойдаланиш умуман мумкин эмаслигини ёки мақсадга мувофиқ эмаслигини кўрсатади.[1]

Эксплуатация шароитларининг турли – туманлиги транспорт воситаларининг кенг кўламда ихтисослашувига олиб келди, муайян шароитларда энг самарали тарзда фойдаланиш мумкин бўлган ихтисослашган транспорт воситалари ишлаб чиқилди.

Автопоездларнинг хусусиятларини ўрганиш учун уларни турли белгиларига қараб гуруҳларга ажратиш керак. Бунда сифатлар, йирик хусусиятлар (ишончлилик, экологиябоплик, эстетик, эксплуатацияга оид хусусиятлар ва б.) иерархик тизим ҳосил қилади. Биз фақат битта хусусиятлар гуруҳини – автомобилнинг эксплуатация хусусиятларини таҳлил қиламиз.

Эксплуатация хусусиятлари – транспорт турини ихтисослашган восита сифатида (ер усти ғилдиракли, рельссиз), берилган шароитларда ишлатишга мослигини билдирадиган хусусиятлар гуруҳидан иборат. [3]

Автомобилларнинг эксплуатация хусусиятларини қуйидаги гуруҳларга ажратиш мумкин: тортиш-тезлик ва тормозлаш хусусиятлари, ёнилғи тежамкорлиги, бошқарилувчанлик, турғунлик, маневр, юриш равонлиги ва ўтувчанлик.[7, 8] Булардан ҳаракатланиш режимига таъсир этадиганлари тортиш-тезлик, тормозланиш, бошқарилувчанлик, турғунлик, бурилувчанлик ва ўтувчанлик хусусиятларидир.

Ғилдиракли машиналарнинг ҳаракатланиш режимига таъсир этувчи асосий эксплуатацион хусусиятлари – бошқарилувчанлик ва турғунликдан иборат.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

“Ҳаракатланиш турғунлиги” деганда қуйидаги хусусиятлар тушунилади: йўналиш (курс) турғунлиги, транспорт воситаларининг хусусий турғунлиги, бўйлама турғунлиги, бошқарувчи ғилдираклар барқарорлиги ва б.[4, 5, 6]

Буларнинг ҳар бирига қисқача таъриф берамиз:

а) йўналиш турғунлиги – ҳайдовчи бошқараётган автомобилнинг, унга ташқаридан қўзғатувчи кучлар таъсир этса ҳам, берилган ҳаракат йўналишини сақлаб қолиш хусусияти;

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-548-555

б) хусусий турғунлиги – автомобилнинг, ҳайдовчи иштирокисиз (махкамланган ёки эркин рул бошқаруви билан) ташқи қўзғовчи кучларга қарши туриш хусусияти;

в) бошқарилувчанлик – ҳайдовчи бошқараётган автомобилнинг, муайян йўл-иқлим вазиятларида, берилган йўналишни сақлаш ёки уни ҳайдовчи, рул бошқаруви орқали ифода этган ихтиёри бўйича ўзгартириш хусусияти;

г) бошқарувчи ғилдиракларнинг барқарорлиги – бошқарилувчи ғилдиракларнинг, эркин рул бошқарувида, ҳайдовчининг ёрдамисиз нейтрал ҳолатга қайтиш хусусияти.

Ғилдиракли машиналарнинг ҳаракати турғунлигини баҳолаш учун кўплаб мезонлар таклиф этилган. Д.А.Чудаковнинг фикрига кўра[1], автомобилнинг турғун ҳаракати бузилишини автомобиль кўпригининг бўйлама ва ёнлама сирпаниши бўйича баҳолаш мумкин.

Автопоездларнинг тузилиши икки ўқли автомобилларга қараганда анча мураккаб бўлгани учун, ҳаракати турғунлигини тадқиқ этиш анча қийин – бошқарувчи таъсирлар билан реакциялар орасидаги умумий мезон топилмаган. Д.А.Антонов [2] кўп ўқли автомобилларнинг турғунлигига оид масалалар мажмуасини тадқиқ этиб, Ляпуновнинг турғунликни аниқлаш бўйича маълум теоремаси ёрдамида турғунлик масаласини ечишнинг аналитик усулини топди.

Қўзғатилган ҳаракатнинг дифференциал тенгламалари берилган бўлсин:

$$dx_s/dt = X_s(X_1, X_2, ..., X_n), \quad (s = 1, 2.. .n), \qquad (1)$$

Агар бу тенгламалар учун шундай, ишораси ўзгарувчан V $(X_1, X_2, ..., X_n)$ функциясини топиш мумкин бўлсаки, унинг вақт бўйича тўла ҳосиласи [(1)формулага мувофиқ] шу функциянинг ишорасига тескари ва ўзгармас ишорали бўлса, ёки айниятда нолга айланса, демак қўзғатилмаган ҳаракат – турғундир.

Бу теореманинг моҳияти шундан иборатки, агар унинг шартлари қониқтирилмаса ва ҳаракатланиш параметрларининг бошланғич қийматлари $X = X(t_o)$, $t = t_o = 0$ вақт онида, қўзғовчилар таъсирида қандайдир кўлам – σ дан ташқари чиқмаса (яъни, ҳамма X^o_s қийматлар $(X_s) < \sigma$ ораликда бўлади), бошланғич вақт онида бошқа исталган $t > t_o$ қўзғотилган ҳаракат дифференциал тенгламаларнинг ҳамма X_s ечимлари учун $(X_s) < E$ (E ва σ – исталган мусбат сонлар, $E > \sigma$) тенгсизлиги бажарилади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-548-555

Ғилдиракларнинг йўл юзаси билан ўзаро таъсири ёмонлашувига асосий сабаб – орада учинчи бир элемент (сув, лой, қор, муз) борлигидир. Натижада, илашиш коэффициенти пасайиб, тортиш кучи ҳам камайиб кетади.

Йўл юзасининг нам бўлиши шиналарнинг ёнлама тортиб кетишга қаршилик коэффициентига салбий таъсир этади, оқибатда автомобилнинг турғунлиги ва бошқарилувчанлиги ёмонлашади [1].

Кўп ўқли автомобилнинг ҳаракатланувчанлиги бир-бири билан боғланиб кетган кўплаб омилларга боғлиқ. Шулардан бири – ҳаракат турғунлигидир [2].

Автомобиль шинаси айрим элементлари эластик бўлгани сабабли траекториядан (бўйлама ўқнинг берилган йўналишдан) бир мунча оғиши рухсат этилади. Бироқ, бутун машина ёки унинг қайсидир ўқи (кўп ўқли машиналарда – битта ўқ ёки ўқлар гуруҳи) ёнлама йўналишда сирпанса, бу турғунлик йўқолишининг чегаравий ҳолати бўлади. Бу ҳолатни “Занос” – “Ёнламасига тортиб кетиш” дейилади. [10, 11, 12,]

Машина, таянч юзага параллел бўйлама ва кўндаланг ўқларга нисбатан турғунлигини йўқотиши – шу ўқлар атрофида ағдарилиш, деб баҳоланади.

Илашиш шарти бўйича ҳаракатнинг критик тезлиги $V_{kp\varphi}$, айланма ҳаракат учун аниқланган. $V_{kp\varphi}$ – турғун ҳаракатнинг чегаравий тезлиги ҳисобланади. Бунда автомобилга бўйлама ва кўндаланг йўналишларда таъсир этадиган ҳамма кучлар йиғиндиси ғилдиракларнинг йўл билан илашиш кучига тенг [9, 13, 14].

НАТИЖАЛАР

Ушбу мақолада, биз тамондан ишлаб чиқилган автопоезднинг турғун ва хавфсиз ҳаракатлари таъминланадиган даражадаги максимал тезлик режимини илмий асослаш услуби келтирилган. Услуб автопоезд ҳаракатининг математик моделига асосланади. У ғилдиракли машиналар динамикасининг тескари масаласини ечиш усулига асосланади, натижада суюқ юкнинг оғирлик маркази ўзгаришини ҳисобга олган ҳолда ҳаракат турғунлиги асосланади.

Бу ерда, ағдарадиган ва унга қаршилик қиладиган жами кучлар, ёнга тортиб кетадиган ва унга қаршилик қиладиган жами кучлар (суюқликнинг цистерна деворларига динамик таъсирини ҳисобга олган ва олмаган ҳолда) ҳисоби қуйидаги тенгламалар ёрдамида топилади:

Ярим тиркама учун:

$$F_{onp} = \left(m_n g \frac{B}{2} \cos\beta + m_n g \sin\beta \cdot h_g - \frac{m_n \vartheta^2}{r} h_g - N_k h_c - R_k \frac{B}{2} - \mathrm{P}_n h_g \right) / B \quad F_{onp} \geq 0 \qquad (1)$$

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-548-555

$$F_з = \frac{m_n \vartheta^2}{\mathrm{r}} + \mathrm{P}_к - \mathrm{N}_к - m_n g \sin\beta - \sum \mathrm{R} \cdot \varphi_2 . \qquad F_з . \geq 0 \qquad (2)$$

Автошатакчи учун:

$$F_{опр} = \left(m_T g \frac{B}{2} \cos\beta + m_T g \sin\beta \cdot h_g - \frac{m_T \vartheta^2}{r} h_g + N_к h_c - R_к \frac{B}{2} \right) / B \qquad F_{опр} \geq 0 \qquad (3)$$

$$F_з . = \frac{m_T \vartheta^2}{\mathrm{r}} + \mathrm{N}_к - m_T g \sin\beta - \sum \mathrm{R} \cdot \varphi_2 . \qquad F_з . \geq 0 \qquad (4)$$

Бу ерда R –чап ва ўнг ғилдираклардаги реакция кучлари; $R_к$ –илашма қурилмасидаги реакция кучлари, $N_к$ –илашма қурилмасидаги ёнлама реакция кучи; $P_{jкр}$ -илашма қурилмасидаги бўйлама инерция кучи; $m_п$, $m_т$ –тиркама ва шатакчининг тўла массаси; h_g – ярим тиркаманинг оғирлик маркази; V-автопоезд тезлиги; α-йўлнинг қиялик бурчаги; r-бурилиш радиуси; β-йўлнинг кўндаланг қиялик бурчаги; h-шатакчи оғирлик марказининг баландлиги; B_t-шатакчининг колеяси; g-эркин тушиш тезланиши (9.8 м/с^2); h_c -илашма қурилмасининг баландлиги; B-ярим тиркаманинг колеяси; f_{i1}- бўйлама илашиш коэффициенти; f_{i2}-кўндаланг илашиш коэффициенти; $P_к$, $P_Б$ суюқликнинг цистерна деворига кўндаланг ва бўйлама динамик таъсири.[15, 16, 17]

МУҲОКАМА

Математик моделни ечиш учун MatLab Simulink компьютер дастури ишлаб чиқилиб, Ўзбекистон республикаси давлат патент идорасидан расмий рўйхатдан ўтказиш учун тайёрланмоқда. Ҳар бир ғилдиракдаги реакция кучлари автопоезднинг тоғ шароитларида турғун ҳаракатланиш параметрларини аниқлаш имконини беради.[21,22]

Суюқликнинг цистерна деворларига динамик таъсири Новье-Стокснинг цилиндрик координаталари (r, φ, z) учун тузган тенгламаси ёрдамида аниқланди, UGS I-DEAS NX дастурлар комплексидан фойдаланилди.[18, 19, 20]

Автопоезднинг эгри чизиқли ҳаракатида суюқликнинг цистерна деворлари ва тўсиқларга босимининг ўзгаришлари ва бу босимнинг автопоезд тезлигига боғлиқлиги 1- расмда кўрсатилган.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-548-555



1-расм. Суюқликнинг цистерна деворларига босимининг автопоезд тезлигига қараб ўзгариш графиги



2-расм. Суюқликнинг динамик таъсири ҳисобга олинмаган



3-расм. Суюқликнинг динамик таъсири ҳисобга олинган

Юқорида келтирилган графиклар ағдарилишга ва ёнга сурилишга ёрдам берадиган ва қаршилик қиладиган йиғинди кучларнинг ўзгаришини кўрсатади. Улардан автопоезднинг беқарор (нотурғун) ҳаракати бошланадиган критик тезликни топиш мумкин (эгри чизиқлар ордината ўқининг “0” қийматидан ўтказилган абсциссани кесиб ўтган нуқтаси) (2,3-расмлар).

ХУЛОСА

Ҳисоблаш натижалари кўрсатишича, нефт махсулотларини мингашма автопоездлар билан ташиганда суюқликнинг цистерна деворларига таъсири эътиборга олинса, эътиборга олинмаган ҳолатига қараганда, критик тезлик қиймати тўғри чизиқли ҳаракатда – 8-10 %га, эгри чизиқли ҳаракатда – 10-14%га кам бўлиши аниқланди.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-548-555

Эксплуатация хусусиятларини баҳолашда уларнинг кўрсаткичлари база сифатида қабул қилинган қийматлар билан таққосланади. Кўрсаткичларнинг бир қисми ОСТлар ва ГОСТлар билан белгиланган меъёрий қийматларга эга, қолганлари учун тажриба ёки ҳисоблар орқали аниқланган ўртача статистик қийматлар ёки ўхшаш автомобилларнинг кўрсаткичларига тегишли экстремал қийматлар аниқланади.

Шундай қилиб, эксплуатация хусусиятларини таҳлил қилиш кўрсатадики, автопоездларда суюқ юкларни ташиш жараёнида турғунлик асосий хусусият ҳисобланади. Уни, одатда, критик тезлик орқали баҳоланади.

REFERENCES

1. Литвинов А.С. Теория эксплуатационных свойств: Учебник для ВУЗов по специальности «Автомобили и автомобильное хозяйство». – М., Машиностроение, 1989- 240с.
2. Смирнов Г.А. Теория движения колёсных машин: Учебник для студентов машиностроит. спец. вузов.-2-е изд. – М., Машиностроение, 1990. -352 с.
3. Azimov, A. (2020). Avtomobilsozlik sanoatida polimer va kompozit materiallardan foydalanishning samaradorlik ko’rsatgichlari. Academic research in educational sciences, (1).
4. Islomov, S. (2020). Kichik quvvatli atklarda texnik xizmat ko’rsatish samaradorligini oshirish. Архив Научных Публикаций JSPI.
5. Islomov, S. (2020). Республикамизда автомобиль сервиснинг истиқболи. Архив Научных Публикаций JSPI.
6. Islomov, S., & Nomozboyev, O. (2021). Avtotransport korxonalarini innovatsion jihozlashga ta’sir qilivchi ekspluatatsion omillar. Academic research in educational sciences, 2(4), 216-223.
7. Nurmukhammad, O. (2021). Safety methods at gas filling stations for cars. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(1), 27-36.
8. Raxmatov, O., & Sotvoldiyev, X. R. O. G. L. (2021). Avtotransport vositalariga mavsumiy servis xizmat ko’rsatish turlari va ularning xarakat xavfsizligiga ta’siri. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 1147-1151.
9. Suvanov, U., Hamraqulov, Y., & Agzamov, J. (2021). Transport vositasining texnik holat masalalari. Academic research in educational sciences, 2(2).
10. Адилов, О. К., Умиров, И. И. Ў., & Барноев, Л. (2020). Транспортни ҳавфсиз бошқариш кўрсаткичларини баҳолаш. Academic research in educational sciences,(1).

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-548-555

11. Адилов, О. К., Умиров, И. И., & Уразов, Б. А. (2020). Методика определения деталей, критических по надежности автомобилей. Academic research in educational sciences, (1), 109-113.
12. Адилов, О., Зуҳурова, Д., & Мамарасулов, Р. (2021). Транспорт воситалар техник ҳолатини баҳолаш. Academic research in educational sciences, 2(10), 137-143.
13. Адилов, О., Нуруллаев, У., & Турушев, С. (2021). Методика оценки приспособленности конструкции подвижного состава к условиям эксплуатации. Academic research in educational sciences, 2(5), 650-658.
14. Бегматов, Б. Я., & ўғли Холиқов, Д. Р. (2021). Автотранспорт корхоналари мисолида автомобиллар техник ҳолатининг ҳаракат хавфсизлигига таъсирини баҳолаш. Academic research in educational sciences, 2(1).
15. Бегматов, Б. Я., & Ҳаққулов, Б. А. (2020). Кафолат даврида автомобилларнинг техник ҳолатини текшириш. Academic research in educational sciences, (3).
16. Нуруллаев, У. А., & Умиров, И. И. У. (2020). Создание программных средств автоматизированной информационной системы транспортных предприятий. Academic research in educational sciences,(1).
17. Нуруллаев, У., Умиров, И., & Исоков, Г. (2021). Методика определения деталей, критических по надежности автомобилей. Academic research in educational sciences, 2(5), 678-684.
18. Odilov, N. (2020). The analysis of the development of gas cylinder supply system. Academic research in educational sciences, (3).
19. Суванкулов, Ш., Исламов, Ш., Каршибаев, Ш., & Бердиѐров, Т. (2015). Способы расчета вредных веществ возникающих на постах повседневного предоставления услуг транспортным средствам. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 8, pp. 23-27). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
20. Тожиев, Ж. (2021). Автотранспорт корхоналарида мавжуд ёрдамчи устахоналар фаолиятини ташкил қилиш ва такомиллаштириш. Academic research in educational sciences, 2(5), 1344-1353.
21. Тожиев, Ж. З. Ў. (2020). Кафолат даврида бузилишларни олдини олиш мақсадида автомобилнинг техник ҳолатини текшириш. Academic research in educational sciences, (3).
22. Эрназарова, Л. М., Азизов, Б. Д., & Кулмурадов, Д. И. (2015). Принципы формирования и развития терминальных систем в Узбекистане. In Технические науки: проблемы и перспективы (pp. 79-83).

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-556-564

x^2 METODI ASOSIDA F_2 DAGI BELGILARNING AJRALISHINI STATISTIK USULDA TEKSHIRISH

Mirmuxsin Uchqunbek o`g`li Maxmudov
Farg`ona davlat universiteti tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Maqola genetikaga doir masalalarni ishlash yoki yaratish jarayonida kutilgan nazariy natijani aniqlik darajasini statistik usul yordamida aniqlashga qaratilgan. Drozofila meva pashshasining (*Drosophila melanogaster*) bir xromosomaga birikkan genlarida F_2 dagi belgilarning ajralishini x^2 metodi yordamida statistik usulda tekshirilishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: populyatsiya genetikasi, drosophila melanogaster, statistik usul, x^2 metodi, fisher jadvali, fenotip, genotip, dominant, retsessiv.

ABSTRACT

The article aims to determine the level of accuracy of the expected theoretical result in the process of processing or creating genetic problems using a statistical method. In the genes of the Drosophila fruit fly (*Drosophila melanogaster*) attached to a single chromosome, the separation of characters in F_2 was analyzed statistically using the x^2 method.

Keywords: population genetics, drosophila melanogaster, statistical method, x^2 method, fisher table, phenotype, genotype, dominant, recessive.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son qaroriga asosan, mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishlarda ta’lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyot yili” Davlat dasturining qator ustuvor vazifalari belgilandi.

Shuningdek, ushbu qarorda o‘rta maxsus, professional, oliy ta’lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda sohadagi ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanish borasida uzviy bog‘liqlik, samarali muloqot va hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi kerakligi, shu bilan birga, umumta’lim maktablaridagi kimyo va biologiya fanlarini o‘qitish sifati bugungi davr talablariga

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-556-564

javob bermasligini, o‘qitish metodologiyasi to‘liq joriy qilinmaganligini alohida ta’kidlandi.

Hozirgi kunda biologiya fanidan oliy o‘quv yurtiga kirish imtihonlarida genetika bilan bir qatorda biologiyaning boshqa sohalariga doir masalalarda yechimini topishga qiynalishmoqda. Mamlakatimizdagi oliy o‘quv yurtlariga kirish testlariga tayyorlanuvchi maktab va akademik litsey o‘quvchilarning ba’zilarida biologiyaga doir masalalarni yechish va ularni nazariy tushunish muommo bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, yurtimizdagi fan olimpiadalarida ko‘p savollar biologiyaning molekulyar biologiya va genetika yo‘nalishlaridan berilmoqdai. Genetikaga doir masalalarda berilayotgan organizmlar soni, hosil bo‘layotgan avlodlar nazariy jihatdan taxminan olinmoqda. Shularni hisobga olgan holda, bunday olinayotgan nazariy, taxminiy avlodlar soni har doim ham to‘g‘ri emasligini ta’kidlamoqchimiz.

x^2 metodi yordamida F_2 dagi belgilarning ajralishini statistik usulda tekshirish metodi drozofila meva pashshasining (*Drosophila melanogaster*) bir xromosomaga birikkan genlari misolida tahlil qilindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma’lumki, G.Mendelning uchinchi qonuniga binoan organizmdagi genlar mustaqil holatda irsiylanadi. Lekin ba’zi holatlarda bu ma’lumot barcha genlarga tegishli emas, chunki ayrim genlar xromasomalarga birikkan holda irsiylanishi ham mumkin. Genlarni birikkan holatda irsiylanishini T.Morgan drozofila meva pashshasi (*Drosophila melanogaster*) da aniqlagan. T.Morgan o‘tkazgan tajribalari asosida shuni o‘rganganki drozofila meva pashshasi (*Drosophila melanogaster*) ning tanasining rangi kulrang bo‘lishi dominant, tanasining rangi qora bo‘lishi retsessiv, qanotlari uzun yoki normal bo‘lishi dominant, qanotlari kalta bo‘lishi retsessiv holda irsiylanib, ushbu genlar gomologik xromasomada joylashadi va bir-biriga allel hisoblanadi [2, 3, 9, 10, 11].

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, hasharotlarning morfometrik o`lchamlari bilan bog`liq masalalar ko`plab olimlarni o`ziga jalb etgan. Ularda populyatsiya dinamikasining mavsumiy o`zgarishlari, ayrim turlarning evolyutsion jarayondagi divergensiyasi qator ilmiy manbalardan o`rin olgan [1, 4, 5, 6, 7, 8]. Biroq hasharotlardagi genlar mustaqil holatda irsiylanish jarayonlariga doir statistik tahlillar olib borilmagan.

Amalga oshirilgan matematik-statistik tahlillar B.Lakin uslubi bo`yicha amalga oshirildi [10].

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-556-564

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

T.Morgan tajribalarida tanasi kulrang, qanotlari uzun meva pashshasini tanasi qora, qanotlari kalta meva pashshalarini o‘zaro chatishtiradi, F_1 da tanasi kulrang va qanotlari uzun bo‘lgan avlodlar olinadi. Tajribani quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

kulrang- AA
qora- aa
uzun- BB
kalta- bb

	kulrang uzun		qora kalta
P	AABB	x	aabb
	|		|
gametalar	AB		ab
F_1			

AaBb
kulrang uzun

Agar F_1, duragayning genotipini aniqlash maqsadida tahliliy (bekross) chatishtirish amalga oshirilsa, nazariy jihatdan 4 xil fenotipdagi: kulrang tanali uzun qanotli, kulrang tanali kalta qanotli, qora tanali uzun qanotli va qora tanali kalta qanotli avlodlar hosil bo‘ladi, ya’ni quyidagicha bo‘lishi mumkin.

F_b	kulrang uzun			qora kalta
P	AaBb		x	aabb
gametalar	AB	Ab	aB	ab
ab	AaBb kulrang uzun	Aabb kulrang kalta	aaBb qora uzun	aabb qora kalta

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-556-564

T.Morgan o‘tkazgan tahliliy chatishtirishi natijasida bunday natija kuzatilmaydi, tahliliy chatishtirishidan keyin ota-ona fenotipiga o‘xshash duragaylar olinadi. Buning sababi genlar mustaqil holda gametalarga tarqalmasdan birikkan holda irsiylanishi tufayli amalga oshadi.

T.Morgan kulrang tanali, uzun qanotli meva pashshasini qora tanali, kalta qanotli meva pashshasi bilan chatishtirib, F_1, da olingan avlodlarning barchasi fenotip bo‘yicha kulrang tanali, uzun qanotli bo‘lgan.

P $\frac{A}{B}\frac{A}{B}$ x $\frac{a}{b}\frac{a}{b}$

gametalar A, B x a, b

F_1 $\frac{A}{B}\frac{a}{b}$

Kulrang tanali, uzun qanotli

Tahliliy (bekross) chatishtirish quyidagicha bo‘ladi.

P $\frac{A}{B}\frac{a}{b}$ x $\frac{a}{b}\frac{a}{b}$

gametalar A, B x a, b x a, b

F_1 $\frac{A}{B}\frac{a}{b}\frac{a}{b}\frac{b}{a}\frac{b}{b}$

F_b kulrang tanali, uzun qanotli — qora tanali, kalta qanotli

Demak, ko‘rinib turibdiki AB va ab genlari bitta xromosomada birikkan holda nasldan naslga o‘tib qolmoqda. T.Morgan bu irsiylanishni xromasomaga to‘liq birikkan holda irsiylanish deb nomlagan.

To‘liq dominantlik irsiylanishga ega bo’lgan organizmlarning F_2 avlodilari tahlil qilinganda fenotip bo‘yicha 3:1, genotip bo‘yicha 1:2:1 nisbatda ajralish kuzatiladi. Huddi shunday holatlarda nazariy olingan natijani statistik yo‘l bilan tekshirib tahlil qilib ko‘ramiz. Nazariy olingan natijani tekshirish uchun tajribada olingan natija bilan nazariy jihatdan kutilgan natija o‘zaro taqqoslanadi. Tajribada olingan ma’lumotlar nazariy jihatdan kutilgan natijaga mos bolsa, bunday holatda

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-556-564

nazariy olingan natija to‘g‘ri deb topiladi. Agar, tajribada olingan ma’lumot nazariy jihatdan kutilgan natijaga to‘g‘ri kelmasa, ushbu holatlarda nazariy olinagan natija mutlaqo xato bo‘lib chiqadi.

Tajribalarda olingan ma’lumotlar bilan nazariy jihatdan olingan natija orasidagi farq har xil bo‘lishi mumkin. Ayrim holatlarda farq kichik yoki tasodifiy bo‘lsa, ayrim holatlarda katta yoki aniq to‘g‘ri chiqishi ham mumkin. Shuning uchun, tajribada olingan va kutilgan nazariy natijalarni statistika bo‘yicha aniqlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday muammolarni aniqlashda ko‘proq x^2 metodidan foydalaniladi. Bu metodni 1900-yili ingliz matematigi K.Pirson fanga kiritgan. Bu metoddan quyidagicha foydalanish mumkin.

Buning uchun jadval kerak bo‘ladi, va jadval ikki bo‘limdan ya’ni ma’lumotlar va individlar miqdoridan iborat bo‘ladi. Individlar, hosil bolgan fenotipik sinflar miqdoriga ko‘ra:

1) dominant belgili;
2) retsessiv belgili;
3) jami individlarga bo‘linadi.

Ma’lumotlar bo‘limiga tajribada olingan ajralish *(p)*, uning ostiga kutilgan nisbat va nazariy jihatdan kutilgan ajralish *(q)* yoziladi.

Eng ko‘p qo‘llaniladigan organizm drozofila meva pashshasining (Drosophila melanogaster) tana rangi kulrang va qora formalarini chatishtirishdan F_2 da 78 ta kulrang, 18 ta qora tanali, jami 96 ta drozofila pashshasi olindi deb faraz qilaylik, Bunday holatlarda kutilgan nisbat grafasini to‘ldirganda 78 raqamining ostiga 3; 18 raqamining ostiga 1 deb yoziladi. Chunki AA x aa genotipli organizmlar o‘zaro chatishtirilganda F_2 da olingan avlodlar soni jami 4 ta bo‘ladi va fenotip bo‘yicha 3;1 nisbatda, genotip bo‘yicha esa 1;2;1 nisbatda ajralish ro‘y beradi.

Barcha organizmlar F_2 da 96 ta bo‘lsa, nazariy jihatdan kutilgan ajralish 72 ga 24 bo‘lishi kerak. Endi jadvalning yana bir qator pastiga tajribada olingan natija va nazariy jihatdan kutilgan natija orasidagi farq d=p-q yoziladi.

Kuzatishimiz natijasida, u 78-72=+6; 18-24=-6 ga teng. d qiymatining ishoralarini tenglashtirish uchun kvadratga ko‘taramiz. d^2 har ikki holda ham 36 teng bo‘ladi. (x^2 ni aniqlash uchun har bir fenotipik sinf bo‘yicha chiqqan d^2 ni nazariy jihatdan kutilgan fenotipik ma’lumotga (q) taqsimlaymiz. Keltirilgan misolda 36:72=0,50 dominant belgili, 36:24=1,50 retsessiv belgili fenotiplar bo‘yicha malumot olindi. $\mathbf{x^2}$=2 (d^2/q) ekanligini e’tiborga olgan holda, dominant va retsessiv

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-556-564

belgilar bo‘yicha olingan ma’lumotlami jamlab chiqsak, u holda x^2=2,00 bo‘lishini ko‘ramiz.

1-jadval (1900, K.Pirson)

Ma’lumotlar		olingan natija (p)	kutilgan nisbat	nazariy jihatdan kutilgan nisbat (q)	farq d=p-q	d^2-farqning kvadrati	d^2/q nisbat
Organizmlar	kulrang	78	3	72	+6	36	36:72=0,5
	qora	18	1	24	-6	36	36:24=1,5
	Jami	96	4	96	-	-	x^2=2

x^2 metodining mohiyati shundan iboratki, uning yordamida kuzatilgan va kutilgan natijalar orasidagi farq tasodifiy yoki muqarrar ekanligini aniqlash mumkin bo‘ladi. Bu R.Fisher jadvali yordamida amalga oshiriladi. Jadvalning chap tomonida vertikal ustunda ozodlik darajalari, yuqorida gorizontal bo‘yicha turli ehtimolliklar ko‘rsatilgan.

Har xil ozodlik darajasida x^2ning qiymatini aniqlash

2-jadval (Fisher)

Ozodlik darajasi N=n-1	Ehtimollik						
	0,99	0,95	0,80	0,50	0,10	0,05	0,01
1	0,000157	0,0393	0,642	0,455	1,642	3,841	6,635
2	0,101	0,103	0,446	1,386	3,219	5,991	9,210
3	0,115	0,352	1,005	2,366	4,642	7,815	11,341
4	0,297	0,711	1,649	3,357	5,989	9,488	13,277
5	0,554	1,145	2,343	4,351	7,289	11,070	15,086
6	0,872	1,635	3,070	5,348	8,558	12,592	16,812
7	1,239	2,167	3,822	6,346	9,803	14,067	18,475
8	1,646	2,733	4,594	7,344	11,030	15,507	20,090
9	2,088	3,325	5,380	8,348	12,242	16,919	21,666
10	2,558	3,940	6,179	9,342	13,442	18,307	23,209

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-556-564

Ozodlik darajasining qiymati n=n–1=2-1=1 ga teng bo‘ladi, n-fenotipik sinflar soni, monoduragay chatishtirishda F_2 da 2 ta fenotipik sinf hosil bo‘lganligi sababli ozodlik darajasi n=l ga teng. Ehtimolliklaming qiymatini aniqlash qanday maqsadda tajribalar olib borilishiga bog‘liq. Meditsinada ko‘proq 0,01% ehtimollik ishlatiladi, bizning misolimizda 0,05 % ehtimollikdan foydalanilsa kifoya. 0,05 ehtimollik 100 ta voqelikdan 95 tasida biz ilgari surilgan faraz to‘g‘ri chiqadi degan ma’noni bildiradi. Shunday qilib, ozodlik darajasi 1 ga, ehtimollik 0,05 ga teng bo‘lgan qiymat Fisher jadvalida 3,841 ga teng. Biz tomondan hisoblab chiqilgan x^2 - miqdori 2,00 jadvalda berilgan qiymatdan kichik bo‘lsa, nol farazga muvofiq tajribada olingan natija bilan nazariy jihatdan kutilgan natija orasida farq muqarrar emasligini anglatadi, ya’ni 3:1 nisbatga to‘g‘ri keladi. x^2 ning jadvalda belgilangan qiymatdan kattaligi, oldinga surilgan faraz o‘rinsizligini bildiradi, ya’ni nol faraz noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi. Endi nol farazni tasdiqlovchi va uning o‘rinsizligiga doir misol bilan tanishamiz.

Drozofilaning kulrang tanali va qora tanali formalarini chatishtirib, ulardan olingan F_1, urg‘ochi drozofilani qora tanali erkak pashsha bilan chatishtirish oqibatida ikkinchi tajribada F_b 300 ta (ulardan 160 tasi kulrang tanali, 140 tasi qora tanali) va birinchi tajribada 60 ta (ulardan 40 tasi kulrang tanali, 20 tasi qora tanali) individga ega oilalar olindi deb faraz qilaylik. Agar ularning qiymatini x^2 metodi bilan aniqlasak, quyidagicha natija olinadi:

3-jadval **(**1900, K.Pirson**)**

Ma’lumotlar			Olingan natija (p)	Kutilgan nisbat	Nazariy jixatdan kutilgan (-q)	Farq – d^2=p-q	d^2 - farqning kvadrati	d^2 /q nisbat	
Organizmlar soni	60 individ	kulrang	40	1	30	+10	100	100:30= 3,3333	x^2= 6,66
		qora	20	1	30	-10	100	100:30= 3,3333	
	300 individ	Kulrang	160	1	150	+10	100	100:160= 0,67777	x^2= 1,34
		qora	140	1	150	-10	100	100:160= 0,67777	

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-556-564

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, drozofilaning turli oilasida olingan x^2 ning miqdori bir-biridan keskin farq qiladi. Birinchi holatda kuzatilgan va nazariy jihatdan kutilgan natijalar orasida farq katta bo‘lganligi sababli x^2 miqdori katta va Fisher jadvalidagi 3,841 dan yuqori. Demak, nol faraz no‘to‘g‘riligini anglatadi. Ikkinchi holatda olingan x^2 miqdori jadvaldan olingan qiymatdan kichik (1,34<3,84), ya’ni olingan natija 1:1 nisbatga mos keladi deyish mumkin.

Izoh: **AA** – dominant
Aa - geterozigota
aa – retsessiv
p - olingan natija
q - nazariy jixatdan kutilgan natija
n – ozodlik darajasi
d - olingan natija va nazariy jixatdan kutilgan natija orasidagi
F_1 – birinchi avlod
F_2 - ikkinchi avlod
F_b – taxlliliy (bekross) chatishtirish

XULOSA

Genetikaga doir masalalar yechimini topish yoki yaratish jarayonida kutilgan nazariy natijani aniqlik darajasini statistik usul yordamida aniqlash maqsadga muvofiq bo’ladi. Chunki kutilgan nazariy natija olingan amaliy natijaga mos kelmasligi o’rganildi. Ilmiy tadqiqot jarayonlarida ham nazariy natijani olishda bunday jarayonlar ba’zi holatlarda uchrab turadi. Huddi shunday holatlarni inobatga olib, drozofila meva pashshasining (*Drosophila melanogaster*) bir xromosomaga birikkan genlarida F_2 dagi belgilarning ajralishini x^2 metodi yordamida statistik usulda tekshirilishi tahlil qilib aniqlik kiritildi.

REFERENCES

1. Akbarovich M. A., Ilkhomjonovich Z. I., Sharibjonovich S. D. Ecological-Faunistic Analysis of Longhorn Beetles (Coleoptera: Cerambycidae) of Fergana Valley //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 6819–6830-6819–6830.
2. G‘ofurov A.T., Fayzullaev S.S., Xolmatov X., Genetikadan masala va mashqlar. Darslik. T.O‘qituvchi, 1991.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-556-564

3. G‘ofurov A.T., Fayzullayev S.S., Saidov.J., Genetika. Darslik. “Tafakkur” nashriyoti. Toshkent. 2010. 272 bet.
4. Hatamovich A. M., Karimovich K. A., Ilkhomzhonovich Z. I. The influence of vertical zonation on changes in the ecological niches of aphids //Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. – 2015. – №. 1-2.
5. Ilkhomjonovich Z. I., Khasanbaevna Y. S. FOOD SPECTRUM OF THE BEET ARMYWORM (SPODOPTERA EXIGUA (HÜBNER, 1808))(LEPIDOPTERA, NOCTUIDAE) IN RAINFED AGRICULTURE OF THE FERGANA VALLEY. – 2021.
6. Zokirov I. I. et al. Phytophagous insects of vegetable and melon agrocenosis of Central Fergana //International Journal of Agriculture, Environment and Bioresearch (IJAEB). – 2020. – T. 5. – №. 02. – C. 64-71.
7. Zokirov I. I., Azimov D. A. The Fauna of Insects of Vegetables and Melons of Central Fergana, Especially Its Distribution and Ecology //International Journal of Science and Research (IJSR). – 2019. – T. 8. – №. 8. – C. 930-937.
8. Zokirov I. I., Mirzayeva G. S., Abdullayeva D. R. Ecological and Faunistic Review of Entomocomplexes of Adyr Zones of the Fergana Valley //International Journal of Science and Research (IJSR). – 2019. – T. 8. – №. 10. – C. 1231-1234.
9. Жимулев И.Ф., Общая и молекулярная генетика. Новосибирск. -Сибирское университетское издательство, 2003.
10. Лакин Г.Ф., Биометрия. – Высшая школа, 1990.
11. Тихомирова М.М., Генетический анализ. Л. Издательство Ленинградского университета, 1990.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-565-575

ТРАНСПОРТ ХИЗМАТЛАРИНИНГ ЭКСПЛУАТАЦИОН СИФАТЛАРИНИ БЕЛГИЛОВЧИ ОМИЛЛАР

Оқбўта Каримович Адилов
Жиззах политехника институти
oqbuta@mail.ru

Мирқосим Миразим ўғли Абдурахмонов
Жиззах политехника институти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада ишлаб чиқилган тавсиялар асосан ташиш даврида ташиш самарадорлигини, ҳаракат хавфсизлигини таъминлашдаги фаолиятини оширишга хизмат қилади.

Калит сўзлар: автомобил, ҳаракат хавфсизлиги, йўл хавфсизлиги, ташиш, самарадорлик.

ABSTRACT

This paper provides designing methodical recommendations and using there results to improve traffic safety in transport.

Keywords: car, traffic safety, traffic, traffic signs, dangerous site

КИРИШ

Маълумки, халқаро юкларни ташувчи автомобиль транспорти корхоналари (АТК) фаолиятида рақобат муҳити ривожланишнинг асосий манбаларидан бири бўлиб ҳисобланади. Аммо, рақобатдошлар ҳам, шу жумладан ресурсларнинг катта захираларига эга бўлган йирик транспорт корхоналари ҳам, ўз имкониятларининг асосий қисмини ўз фаолиятларини амалга оширишга сарфласалар ҳам мавжуд мижозларининг барча талабларини қондиришга имкониятлари етмайди.

Маълумки, рақобат моҳиятан икки жиҳатга эга:

- автомобиль транспорти корхоналари ўртасидаги рақобат;

-мижозлар ўртасидаги рақобат.

Рақобатнинг икки жиҳатга эга эканлиги унинг турларини кўплигига сабаб бўлади. Турли АТК ва уларнинг транспорт хизматлари турлича эксплуатацион сифатларга эга бўладилар (1, 2 - схемалар).

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-565-575

Тадқиқот мақсадларидан келиб чиққан ҳолда автотранспорт корхоналариаро рақобат уларни эксплуатацион сифатларига мувофиқ юзага келиши ва айнан мана шу сифатлар мижозларга ҳал қилувчи таъсир кўрсатиши ҳисобга олинди.

Автомобиль транспорти корхоналари ўз фаолиятларида рақобат курашининг турли шакл ва усулларидан фойдаланадилар ва бунда уларни турлича эксплуатацион сифатлари руёбга чиқади (1-2 схемалар).

Рақобатдошлик мураккаб тушунча бўлиб илмий манбаларда турлича таърифланади.[3] АТК рақобатдошлик сифати амалий жиҳатдан уларни эксплуатацион сифатлари билан белгиланади. Шу туфайли мазкур тушунчани очиб бериш мақсадга мувофиқдир.



1-схема. Автомобиль транспорти корхоналарининг эксплуатацион сифатларини белгиловчи омиллар



2-схема. Автомобиль транспорти корхонасининг эксплуатацион сифатларини келиб чиқиш манбаалари

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-565-575

Биринчи навбатда, автомобиль транспорти корхонасининг эксплуатацион сифатлари тушунчасига таъриф бериш лозим бўлади. Автомобиль транспорти корхонасининг эксплуатацион сифатлари – бу унинг транспорт хизмати бозорида (ТХБ) бошқа транспорт корхоналари ўртасида етакчи ўринни узоқ вақт давомида эгаллаб туриш қобилияти тушунилади.[7, 8, 18,20] Автомобиль транспорти корхонасининг эксплуатацион сифатларини келтириб чиқарувчи асосий манбалар 2-схемада келтирилган.

Мазкур масалага мантиқий ёндашувнинг асосий тамойили – мижозлар манфаатларини устуворлигидир. Демак, автомобиль транспорти корхонасининг эксплуатацион устунлигини асосий манбаси бўлиб, транспорт-логистик хизматлар кўрсатишнинг (ТЛХ) самарадорлиги хизмат қилади. Транспорт корхонаси қанчалик самарали ТЛХ тақдим этса, мижозларнинг шунчалик кўп сони ундан фойдаланишга ҳаракат қилади. Аммо, корхона сифатлироқ ва самаралироқ ТЛХ тақдим этгандагина, унда кўп сонли мижозларнинг эътиборини қозониш ва рақобатдошларга нисбатан юқорироқ эксплуатацион сифатларни яратиш ва уни ушлаб туриш имконини беради. [9]

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Автотранспорт хизмати кўрсатишни сифати ва эксплуатацион сифати – бу мижоз эҳтиёжларини қондириш ва транспорт маҳсулотини, уни харид қилиш даражаси бўйича муайян вақтда ТХБнинг аниқ сегментида рақобатдошлар маҳсулотидан устунлигини намойиш этувчи техник-технологик истеъмол хусусиятлари, кафолатлар тизими, компенсация ва имтиёзлар йиғиндисидир.

Автомобиль транспорти корхонасининг (АТК) эксплуатацион сифати имманент хусусият эмас, чунки автокорхона унга омиллар орқали таъсир кўрсатувчи маълум рақобат муҳитида фаолият юритади.

Юқорида қайд этилганлар асосида АТК рақобатбардошлигига ташқи ва ички омиллар таъсир кўрсатади дейишимиз мумкин. Ташқи омилларга корхонанинг макро ва бевосита ички муҳити томонидан юзага келтирилган омилларни киритиш мумкин. Макромуҳитга эса корхона таъсир кўрсата олмайди, аммо ўз фаолиятида уларни ҳисобга олиши лозим. Бевосита ички муҳит омиллари – бу АТК-га боғлиқ бўлмаган, аммо у таъсир кўрсатиши мумкин бўлган омиллардир. Ички омиллар қаторига АТК-га боғлиқ омиллар ҳам киради ва уларнинг ташаббускори бўлиб корхонанинг ўзи чиқади.[10, 11, 21]

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-565-575

Тизимли ёндашувни қўллаш ташаббускор омиллар манбаидан, сифат ва нарх таркибий қисмларидан келиб чиққан ҳолда аниқланган омилларни тизимлаштириш имконини берди (1-жадвал). Эксплуатацион сифат тушунчаси АТКдан ташқари унинг автотранспорт воситаларига ҳам тегишли бўлиб, уни баҳолаш мақсадларини 3-схемага мувофиқ гуруҳлаш мумкин.

Автотранспорт хизматлари эксплуатацион сифатларига таъсир кўрсатувчи омиллар

1-жадвал

Омил ташаббускори	**Транспорт маҳсулоти сифатига таъсир этувчи омиллар**	**Транспорт хизматлари эксплуатацион сифатларига таъсир этувчи омиллар**
Автомобиль транспорти тизими фаолиятини мувофиқлаштирувчи идора	Норматив ҳужжатлар, автомобиль транспортида корхоналарнинг янги турларини пайдо бўлиши	Автомобиль транспортида мулк ва бизнес тузилмасининг ўзгариши
Ҳукумат	Экологик сиёсат, норматив ҳужжатлар	Иқтисодий, кредит-пул, фискал, божхона сиёсати, сиёсий омиллар, иқтисодий, сиёсий ва ижтимоий барқарорлик
Мижозлар	Мижозлар эҳтиёжлари	Талаб қонуни, талабнинг нарх эластиклиги, сегментлаштириш
Рақобатдошлар	Рақобатдош транспорт маҳсулотининг сифати	Нарх стратегиялари, рақобатдошлар транспорт маҳсулоти нархлари
Ҳамкорлар	Ҳамкор корхоналарнинг стратегик салоҳияти	Ҳамкорлар ҳатти-ҳаракати
Инвесторлар	Инвестиялаш шартлари	Кредит бўйича фоиз ставкалари, қарз мажбуриятларининг миқдори
Меҳнат ресурслари	Кадр ресурсларининг сифати	Ишчи кучи қиймати
Атроф муҳит	Иқлим, йўл шароитлари	Иқлим, йўл шароитлари
Юкларни етказиб берувчилар	Моддий ресурслар сифати, ресурслар билан таъминланганлик	Моддий ресурслар нархларининг даражаси
Бюджетдан ташқари жамғармалар	Жамғармалар сиёсати	Фоиз ставкалари ва шартлари
Ноқонуний муҳит	Рекет, ўғрилик, ноқонуний вазиятнинг кескинлашуви	Рэкет, ўғрилик, ноқонуний вазиятнинг кескинлашуви

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-565-575

Тасодиф	Форс-мажор ҳолатлар	Форс-мажор ҳолатлар
АТК ички муҳити	Корхона стратегик салоҳиятининг самарадорлик даражаси, бошқарув тузилмаси, бизнес-стратегия	Корхона бизнес - стратегиялари бошқарувининг ташкилий тузилмаси ва бозор стратегиялари, транспорт маҳсулоти тури
Автомобиль транспорт тизими	Автомобиль транспортидаги илмий-техника тараққиёти (ИТТ) ютуқлари	Автомобиль транспортида ИТТ ютуқлари, иқтисодиётдаги тенденциялар, юкларни ташишга бўлган эҳтиёжнинг ривожланиш даражаси

НАТИЖАЛАР

Эксплуатацион сифатларнинг таҳлилий тизимларида эса баҳолар қиймати ҳисоб услубларидан фойдаланган ҳолда топилади. Улардан қуйидагилар энг кўп қўлланилади: дифференциал, мажмуавий ва аралаш услублар.

Дифференциал услубда эксплуатацион сифатларнинг нисбий кўрсаткичлари қийматлари ҳисобланади:

$$q_i' = \frac{P_{iб}}{P_i}, (i = 1,..., n) \quad (1)$$

бу ерда: P_i - і-чи кўрсаткич қиймати;

$P_{iб}$ - і-чи кўрсаткичнинг базис қиймати;

n – кўрсаткичлар миқдори.

(1) формуладан шундай кўрсаткич танланади ва кейинчалик қўлланиладики, унда q-нинг ошиши ҳаракат воситалари эксплуатацион сифатларини ошишига олиб келади.

Баҳолашнинг дифференциал услуби бир вақтнинг ўзида энг яхши, эксплуатацион афзал моделни шубҳасиз топиш имконини бермайди.[12, 14, 19]

Бундай ҳолатда ҳаракат воситалари рақобатдошлигини баҳолашнинг мажмуавий услубини қўллаш қабул қилинган. Ушбу услуб бўйича миқдорий баҳолаш, илмий манбаларда ишлаб чиқилган ва қуйидагича амалга оширилади:

$$K_{б.р.} = \frac{E_{б.с.}}{E_{т.б}} \quad (2)$$

бу ерда: $K_{б.р.}$ – ҳаракат воситасининг таҳлил қилинаётган моделини муайян бозордаги эксплуатацион сифатини кўрсатувчи бирлик улушлари;

$E_{б.с.}$ – таҳлил қилинаётган ҳаракат воситаси моделининг муайян бозордаги самарадорлиги;

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-565-575

$E_{с.б.}$ – муайян бозорда қўлланиладиган энг яхши, яъни эксплуатацион афзал моделнинг самарадорлиги.

Эксплуатацион сифатлиликнинг мажмуавий баҳоси учун ўртача арифметик (U) умумлаштирилган кўрсаткич қуйидаги формула бўйича ҳисобланади:

$$U = \sum_{j=1}^{n} m_j \times Q_{ja} \qquad (3)$$

бу ерда: m_j – кўрсаткичлар j-чи гуруҳининг вазн кўрсаткичи;

Q_{ja}- кўрсаткичлар j-чи гуруҳининг мажмуавий кўрсаткичи;

$j = \overline{1,n}$ - эксплуатацион сифатларни баҳолаш учун келтирилган, кўрсаткичлар гуруҳи сони.

Q_{ja} j-чи гуруҳининг мажмуавий кўрсаткичи қуйидаги формула бўйича ҳисобланади:

$$Q_{ja} = \sum_{i=1}^{n_j} m_{ij} \times q_{ij}\ , \qquad (4)$$

бу ерда: m_{ij} – j-чи гуруҳнинг i-чи кўрсаткичининг вазн коэффициенти;

$i = \overline{1,n_j}$ - j-чи гуруҳга кирувчи кўрсаткичлар сони;

q_{ij} – (1) нисбатдан танланадиган нисбий кўрсаткич (ҳаракат воситаси эксплуатацион сифатларининг базис аналогга нисбатан кўрсаткичлари). (4) формулада келтирилган m_{ij} балларда ифодаланади.

3-Схема. Халқаро автомобиль ташувлари учун ҳаракат воситалари эксплуатацион сифатини баҳолашнинг мақсадлари

Ҳисоб-китобларда умумлаштирилган мажмуавий кўрсаткич ролида одатда эксплуатацион сифатлиликнинг интеграл кўрсаткичи хизмат қилади, у

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-565-575

эса ҳаракат воситасини ишлатишдан олинган самара йиғиндисини, уни яратиш ва ишлатиш харажатлари йиғиндисига нисбати билан аниқланади:

$$K_И = \frac{П_Σ}{X_Я + X_Э} \quad (5)$$

бу ерда: $П_Σ$ – ҳаракат воситасини ишлатишнинг самаралари йиғиндиси;

$X_Я$ – ҳаракат воситасини яратиш харажатларининг йиғиндиси;

$X_Э$ – ҳаракат воситасини эксплуатация қилиш харажатларининг йиғиндиси.

Турли хил манбаларда эксплуатацион сифатни баҳолаш услубларида, бундай кўрсаткичларни аниқлаш эксперт баҳолашлар натижаларини таҳлилий баҳолашнинг шартли эквивалентига келтиришга асосланган. Бундай ёндашувнинг камчилиги шундаки, экспертлар фикрини жалб қилиш шундай вазиятга олиб келиши мумкинки, унда айрим кўрсаткичларнинг қабул қилинган аҳамияти объектив ҳолатни акс эттиришини кафолатлаш мумкин бўлмай қолади.[15, 17, 22]

Шунинг учун диссертацияда эксперт баҳолашларини қайта ишлаш услубияти таклиф этилди.

Балл баҳолари мувофиқлигини таъминлаш учун, ҳар бир бош нуқтада маълум бўлган боғлиқликлар бўйича тарқоқлик кўрсаткичи ҳисобланади.

$$r = \frac{S}{\delta_{\max} - \delta_{\min}}, \quad (6)$$

бу ерда: S – мазкур бош нуқтада индивидуал балл баҳоларининг ўртача квадратик чекланиши;

$\delta_{\max}$, $\delta_{\min}$ – балл шкаласида фойдаланиладиган балларнинг тегишли тарздаги максимал ва минимал қиймати, яъни $\delta_{\max} - \delta_{\min}$ – шкала диапазони.

$$S = \sqrt{\frac{1}{m-1} \cdot \sum_{i=1}^{m} (\delta_i - \bar{\delta})^2} \quad (7)$$

бу ерда: m – экспертлар сони;

δ_i - і-чи эксперт баҳосининг қиймати;

$\bar{\delta}$ - баҳолар индивидуал балл қийматларининг ўртача арифметик қиймати.

$$\bar{\delta} = \frac{1}{m} \cdot \sum_{i=1}^{m} \delta_i \quad (8)$$

Айрим экспертлар томонидан барпо этилган эгри чизиқлар бўйича, ўртача эгри чизиқ барпо этилади ва у ҳисоб-китоблар қулайлиги учун таҳлилий тарзда таърифланиши мумкин.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-565-575

$$K_i = \left(\frac{P_i}{P_{iББА}} \right)^a \quad (9)$$

бу ерда: K_i - і-чи кўрсаткич баҳоси;

P_i - і-чи кўрсаткич қиймати;

$P_{iБАЗ}$ - і-чи базис кўрсаткич қиймати;

а – мусбат бутун сон.

МУҲОКАМА

Тартибга солиш матрицасини тузишда, энг муҳим кўрсаткичга 1-даража берилади, кейинги энг муҳим кўрсаткичга 2-даража берилади, яъни j омилларни тартибга солишда барча омиллар йиғиндиси $j \cdot (j+1)/2$ га тенг бўлади.

Ўзаро боғланган даражалар мавжуд бўлганда, бир хил муҳимликка эга бўлган t –та кўрсаткичлар гуруҳига нисбатан, бу ерда t = 2, 3, ..., n, муҳимроқ кўрсаткичлар сони 1 орқали белгиланади. t кўрсаткичларнинг ҳар бири r даражасини олади, бу ерда r = 1 + (t+ 1)/2.

Юқорида қайд этилганидек, барча даражалар йиғиндиси $j \cdot (j+1)/2$-га тенг. Тартибга солиш натижаси бўлиб {Xjγ} эксперт баҳолари матрицаси хизмат қилади, бу ерда $X_{j\gamma}$ – j-чи омилга γ-чи эксперт томонидан берилган даража, $j = \overline{1,M}; \gamma = \overline{1,N}$.

Энг аҳамиятли омиллар танлови, даража ошиб бориши тартибида жойлашган кумулятив йиғинди бўйича амалга оширилади.

Модел адекватлигининг муайян даражасидаги (мисол учун 90%дан кам эмас) омил аҳамиятининг чегаравий қиймати (мисол учун, 2%) билан кифояланиш мумкин. [16, 23]

Экспертлар фикрларининг келишилган баҳосини Кендал конкордация коэффициенти бўйича амалга ошириш мумкин [4]:

$$W = \frac{12 \cdot S}{N^2 \cdot (M^3 - M)}, \quad (10)$$

бу ерда: S – даражалар йиғиндисини даражаларнинг ўртача йиғиндисидан чекланиши квадратларининг суммаси;

$$S = \sum_{j=1}^{M} \left[\sum_{\gamma=1}^{N} X_{j\gamma} - \frac{1}{2} \cdot N \cdot (M+1) \right]^2, \quad (11)$$

Конкордация коэффициентининг аҳамиятини χ^2 – ни эркинлик даражалари v = M+l ва ишончлилик эҳтимоли даражалари α билан тақсимлаш

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-565-575

бўйича баҳолашади. Яъни ишончлилик эҳтимоли α билан экспертларнинг қониқарли келишилганлиги қабул қилинади:

$$\chi_a^2 = N \cdot (M-1) \cdot W \geq \chi_{a\,ТАБЛ}^2, \quad (12)$$

агарда $\chi^2_a < \chi^2_{aТАБЛ}$ бўлса, унда α эҳтимоллик билан экспертлар фикрларининг қониқарли келишувига эришилмайди. N=2 бўлганда Фишер мезонини қўллаш лозим. Экспертлар фикрларида келишувчанлик кузатилмаса, эксперт тадқиқотларида хатоликка йўл қўйилган ёки улар анча фарқ қиладиган ижтимоий гуруҳлар манфаатларига мос келмаган, ёки гуруҳдаги экспертлар сони етарлича бўлмаган деб қабул қилинади. Юқорида келтирилган ҳолатларни ҳисобга олган тадқиқотни давом эттириш мақсадга мувофиқ деб топилди.[5, 6]

Ҳар бир экспертнинг баҳолашини асослилигини даражали корреляция коэффициенти бўйича баҳолаш мумкин:

$$R_\gamma = \frac{1 - 3 \cdot \sum_{j=1}^{M} d_{j\gamma}^2}{M^3 - M}, \quad (13)$$

бу ерда: $d_{j\gamma}$ - γ-чи эксперт томонидан j-чи параметрга берилган, ўртача даража ўртасидаги айирма:

$$d_{j\gamma} = X_{jr} - \frac{\sum_{\gamma=1}^{N} X_{j\gamma}}{N}, \quad (14)$$

Ҳаракат воситалари эксплуатацион сифатлари тадқиқотлари доирасида ушбу услубни қўллаган ҳолда сифат кўрсаткичларининг қуйидаги рўйхатини келтириш мумкин:

1. Ҳаракат воситаси шаклининг ташқи ифодалилиги;
2. Ҳайдовчи кабинасининг қулайлилиги;
3. Юкларни ҳаракат воситасига ортиш ва ундан туширишнинг қулайлиги ва ҳ.к.

ХУЛОСА

Шуни ҳам таъкидлаш жоизки, техник тавсифлари ва эксплуатация харажатлари деярли бир хил бўлган ҳаракат воситалари моделларини ТХБда илгари суриш, ташувлар сифатини оширишга қаратилган кўрсаткичлар воситасида мумкин бўлади, уларнинг ичида эса эстетика, эргономика ва ҳ.к. кўрсаткичлар катта аҳамиятга эга.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-565-575

Юқорида таъкидланганлар асосида шундай дастлабки хулоса чиқариш мумкинки, қўйилган масалаларнинг муҳимлиги даражасидан келиб чиққан ҳолда сифатни баҳолашнинг у ёки бу услубидан фойдаланиш мумкин.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси - Т.: Адолат, 1999.
2. Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 29 августдаги №674-1-сонли “Автомобил транспорти тўғрисидаги” Қонуни.
3. Солиев Э.А, Назаров К.М., Адилов О.К Транспорт логистика асослари.Т. Райхона Хондамир 2014й 138б.
4. Солиев Э.А, Қулмухаммедов Ж.Р., Адилов О.К, Назаров К.М. “Йўл харакат қоидалари ва биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш асослари”. Т. Хондамир- пресс. 2014й 108-б.
5. Адилов О., Абауазизов Т., Автомобилларни бошқаришни ўрганиш майдончасида ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш. // «Замонавий илм-фан ва технологияларнинг энг мухим муаммолари» Республика илмий-амлий анжумани тўплами. Жиззах 2004 й 212 б
6. О.К.Адилов, М.Б.Тиркашева И.Б.Аскаров Карерда ишловчи автомобилларнинг экологик хавфсизлигини таъминлашнинг эксплуатацион усуллари. ФарПИ илмий – техник журнали 2015 йил 125-129б.
7. Eshquvvatovich, I. S., & Abdurakhimovich, P. U. (2021). The importance of the level of motorization in the development of vehicle maintenance. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(1), 18-26.
8. Azimov, A., & Muxtarov, A. (2021). Avtotransport korxonalarida texnik xizmat ko’rsatish va ta’mirlash ishchilarini kompetensiyaviy yondoshuv asosida tayyorlash va malakasini oshirish metodikasi. Academic research in educational sciences, 2(1).
9. Mansurovna, M. L., & Eshquvvatovich, I. S. (2021). Study of the influence of operating factors of a vehicle on accident by the method of expert evaluation. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(1), 10-17.
10. Odilov, N. (2020). The analysis of the development of gas cylinder supply system. Academic research in educational sciences, (3).
11. Raxmatov, O., & Sotvoldiyev, X. R. O. G. L. (2021). Avtotransport vositalariga mavsumiy servis xizmat ko’rsatish turlari va ularning xarakat xavfsizligiga ta’siri. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 1147-1151.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-565-575

12. Suvanov, U., Hamraqulov, Y., & Agzamov, J. (2021). Transport vositasining texnik holat masalalari. Academic research in educational sciences, 2(2).
13. Адилов, О. К., & Уролбоев, А. У. (2021). Оценка эффективности работ по техническому обслуживанию автотранспортных средств. Вестник науки.
14. Адилов, О. К., Кулмурадов, Д. И., & Бегматов, Б. Я. (2014). Переходные характеристики машины при скачкообразном повороте рулевого колеса. Молодой ученый, (20), 101-104.
15. Адилов, О. К., Умиров, И. И., & Уразов, Б. А. (2020). Методика определения деталей, критических по надежности автомобилей. Academic research in educational sciences, (1), 109-113.
16. Адилов, О., Зуҳурова, Д., & Мамарасулов, Р. (2021). Транспорт воситалар техник ҳолатини баҳолаш. Academic research in educational sciences, 2(10), 137-143.
17. Адилов, О., Нуруллаев, У., & Турушев, С. (2021). Методика оценки приспособленности конструкции подвижного состава к условиям эксплуатации. Academic research in educational sciences, 2(5), 650-658.
18. Бегматов, Б. Я., & ўғли Холиқов, Д. Р. (2021). Автотранспорт корхоналари мисолида автомобиллар техник ҳолатининг ҳаракат хавфсизлигига таъсирини баҳолаш. Academic research in educational sciences, 2(1).
19. Бегматов, Б. Я., & Ҳаққулов, Б. А. (2020). Кафолат даврида автомобилларнинг техник ҳолатини текшириш. Academic research in educational sciences, (3).
20. Нуруллаев, У. А., & Умиров, И. И. У. (2020). Создание программных средств автоматизированной информационной системы транспортных предприятий. Academic research in educational sciences,(1).
21. Нуруллаев, У., Умиров, И., & Исоков, Г. (2021). Методика определения деталей, критических по надежности автомобилей. Academic research in educational sciences, 2(5), 678-684.
22. Тожиев, Ж. З. Ў. (2020). Кафолат даврида бузилишларни олдини олиш мақсадида автомобилнинг техник ҳолатини текшириш. Academic research in educational sciences, (3).
23. Эрназарова, Л. М., Азизов, Б. Д., & Кулмурадов, Д. И. (2015). Принципы формирования и развития терминальных систем в Узбекистане. In Технические науки: проблемы и перспективы (pp. 79-83).

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-576-586

ТРАНСПОРТ ҲАРАКАТЛАНИШИДА ШОВҚИН МИҚДОРЛАРИНИ БАҲОЛАШ

Тожибой Алматаев
Андижон машинасозлик институти

Лочин Барноев
Жиззах Политехника институти
lochinbarnoyev@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада ишлаб чиқилган тавсиялар асосан автотранспорт воситаларидан эксплуатация даврида техноген зарарланишини камайтириб, экологик хавфсизлигини таъминлашдаги фаолиятини оширишга хизмат қилади.

Калит сўзлар: транспорт воситалари, автотранспорт корхоналари, экологик хавфсизлиги, жараён, услуб, техник хизмат, техник ҳолат, эксперт, бозор иқтисодиёти, техник талаблар.

ABSRTACT

In this article are resulted working out of methodical recommendations and application of their results in manufacture with a view of improvement of security service of movement at the Motor transportation enterprises.

Keywords: vehicles, trucking companies, environmental safety, qualifications, process, method, maintenance, technical condition, expert, market economy, technical requirements

КИРИШ

Турли ҳил мамлакатларнинг турли ҳил университетларида хар-ҳил лойҳалар ишлаб чиқиляптики буларнинг барчаси эндиликда экологиянинг яхшиланиши, экологик соф энергия ишлаб чиқариш ва зарарсиз, шовқинсиз автомобилларни ишлаб чиқаришни йўлга қўйишга қаратилган. Бу эса инсонлар эзгуликга интилётганидан дарак берувчи омиллардир. Хозирги кунда ҳар бир инсон бу оқибатларга бефарк бўлмасдан ўз ҳиссасини қўшса келажак авлод учун биз заҳарланган оламни эмас балким мусаффо оламни мерос қилиб қолдирган бўлардик. Бугунги куннинг долзарб массалаларидан бири,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-576-586

эксплуатация давомида транспорт воситаларининг техник соз ҳаракатланишини таъминлашдир.[1, 2]

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Мавжуд муаммо: Республикамиз худудларида автотранспортнинг ҳаракатланишида шовқин миқдорларининг ошиб кетиши натижасида экологик хавф ошиб бормоқда.

Муаммони ечишдан мақсад: автотранспорт воситаларидан эксплуатация даврида ҳосил бўлаётган шовқин миқдорини тажриба йўллари билан аниқлаш, эксплуатация давридаги конструктив фаолиятини ошириш ва экологик хавфсизликни таъминлаш.

Албатта, транспорт воситалари ҳаракатланиш давомида унга таъсир этувчи омиллар миқдори қуйдагилардир:

- Йўл шароити;
- Иқлим шароит;
- Эксплуатацион шароит;
- Ҳайдовчи малакаси ва тажрибаси.

Омиллар таъсирида транспорт воситаларининг техник ишчи қобиляти йўқолиб боради ва экологик кўрсаткич ҳисобланган шовқин даражаси белгиланган меъёр кўрсаткичидан ошиб кетади. Шу ўринда қуйида шовқин турлари қайд этилган.[12, 13]

НАТИЖАЛАР

Механик шовқин: автомобил конструкцияси ёки деталларидаги турткилар, ташқи жиҳозланиш ва автомобил ташқарисидаги тебранишдан ҳосил бўладиган жараёнлар.

1-жадвал

Юқори частотали тебранишларни подшибниклар айланиши бўйича диагностикалаш методи билан қиёсий таҳлили	
Peak Vue методи ва юкори частотали тебранишни сўндириш	Зарба импулс методи
Афзаллиги	
1.Мойлашдаги нуқсонларнинг сезувчанлиги 2.Ейилиш нуқсонларига юқори сезувчанлиги 3.Йиғиш жараёнларига юқори	1.Мойлашдаги нуксонларнинг юкори сезувчанлиги 2.Ейилиш нуксонларнинг юқори сезувчанлиги 3.Йиғиш жараёнлари юқори сезувчанлиги

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-576-586

сезувчанлиги 4.Нуксонлар турларини аниқлаш имконияти 5.Нуксонлар таркалиш даражасини аниқлаш имконияти 6.Техник ҳолатини башорат қилиш имконияти	4.Техник холати бўйича қисқа тезкор башоратлаш имконияти
Камчилиги	
1.Мойлашдаги нуқсонлар аниқлашда ишончлилигининг чегараланганлиги 2.Нуқсон пайдо бўлишдаги кучлар гуруҳи сезувчанлигининг пастлиги 3. Деталлар юзасидаги шовқин даражаси юқорилиги	1.Нуқсонлар турларини аниқлаш имконияти йўқлиги 2.Ишқаланувчи юзалардаги бир қатор нуқсонларни аниқлаш имкони йўқлиги 3.Тарқалувчи нуқсонларни аниқлаш имконияти



1-расм. Механик узатма таснифи

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-576-586

Аэродинамик шовқин: ишлатилган газлар чиқариш жараёнида (киритиш ва чиқариш коллектори). [25]

Дизел,инжектор ва карбюраторли двигателлардан чиқувчи чиқинди газлар зараралилигини таққословчи кўрсатгичлар. (Ҳажм бўйича)

2-жадвал

Чиқинди газлар Таркибидаги моддалар номи	Чиқинди газлар таркиби, %	
	Бензинли двигателлар	Дизел двигателлари
Азот	74-77	76-78
Кислород	0,3-8,0	2-18
Сув	3,0-5,5	0,5-4,0
Углерод-2 оксиди	5-12	1-10
Углерод оксиди	1-10	0,02-0,50
Азот оксиди	0-0,8	0,001-0,400
Углеводородлар	0,20-0,30	0,1-0,10
Олтингуугурт гази	0-,002	0-,03
Қурум, г/м^3	0-,04	0,1-1,5
Бензопирин, г/м^3	0,0002	0,00001

Бу тизим нафақат двигателдан чиқаётган газларни тозалаб қолмасдан балки ундан чиқаётган шовқинни ҳам меъёр даражасида пасайтиришга ҳам хизмат қилади. Автомобилни бу тизим билан жихозлаш унинг конструкциясига ва двигател қуввати йўқолишига кўп таъсир қилмайди, лекин шовқин даражаси сезиларли даражада таъсирини кўрсатади.[11, 10] Шу мақсадда, ҳозирда автомобил ва двигател конструкциясига боғлиқ равишда кўп цлиндрли двигателларда иккита каталитик нейтрализатор қўлланилади, ҳамда пайвандланиб қувурлар орқали марказий овоз сўндиргич билан шовқинни пасайтиради.[6, 7, 8]

2-расм. каталитик нейтрализатор

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-576-586

Нейтрализаторлар актив каталитик моддалар билан қопланган керамик ёки метал монолит элемент бўлиб шовқин даражасини камайтиради.[20, 24]

Электромагнитли шовқин: электромеханик қуриллма элементларидаги магнит кучларидан (статор, генератор) ҳосил бўладиган шовқинлар.

Маънбалардан маълумки, инсон қулоқлари товушнинг тебранишлар сони 16 Гц дан 20000 Гц гача ораликда бўлса эшитади. Герц – бу товуш частотаси. Яъни бир секунд давомида тебранишлар сони билан ифодаланади. Шовқин-товушнинг босими, жадаллик ва бошқа кўрсаткичлар билан тавсифланади. Товуш жадаллиги шартли ўлчам – 1Б (белл) билан ўлчанади. Бу одамнинг эшитиш аъзоси қабул қила оладиган энг кучсиз товуш. Амалда товуш жадаллиги децибел (дБ) билан ўлчанади, у 0,1Б га тенг. Одамнинг эшитиш органи қабул қиладиган энг кичик жадаллик 1Б ёки 10 дБ “эшитилиш остонаси” дир.[9, 14,15]

Шовқин даражаси. Шовқин даражасини меъёрлаштириш-шовқиннинг инсонга салбий таъсирини камайтиришга қаратилган асосий тадбирлардан бири ҳисобланади. Шовқиннинг инсон соғлигига таъсири унинг частотасига боғлиқ бўлганлиги сабабли, ҳар бир шовқин октава полосаси учун алоҳида руҳсат этилган шовқин даражаси белгиланган. [21, 22, 23] Шовқиннинг энг юқори руҳсат этилган даражаси паст частоталар учун, руҳсат этилган паст даражаси эса юқори частотали шовқинлар учун қабул қилинган. Масалан, энг кичик товуш босими назарий ва илмий ишлар бажариладиган иш жойлари учун белгиланган бўлиб, у ўртача геометрик частота 8000 Гц бўлганда 30 дБ деб қабул қилинган. Энг юқори товуш босими эса доимий иш жойларида, ишлаб чиқариш бинолари, машина ва тракторларнинг кабиналари учун белгиланган бўлиб, у ўртача геометрик частота 63 Гц бўлганда 99 дБ га тенг.[11, 16, 17]

Шу ўринда шовқин кучи характерига кўра 4 гурухга бўлинади:

1. Шовқин кучи 0-05 ДБ бўлса нормал овоз ҳисобланади. Масалан: дарахтларнинг шивирлаши, соатнинг юриши, нормал мусиқа овози.
2. Шовқин кучи 60-90 ДБ бўлса ёқимсиз овоз ҳисобланади. Масалан: енгил саноат корхоналари, кўча транспорти шовқини, чанг ютгич, кир ювиш машиналарининг овози.
3. Шовқин кучи 100-120 ДБ бўлса, зарарли ва инсон соғлиғига салбий таъсир кўрсатадиган овоздир. Масалан: тўқимачилик, пахтачилик саноатидаги дастгоҳлар, мотоцикл, трамвай, темир йўл, қишлоқ хўжалиги машиналари, қаттиқ мусиқий овоз.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-576-586

4. Шовқин кучи 130-200 ДБ бўлса, жуда хавфли. Масалан: портлаш, реактив самалёт овози, ҳаво тревогаси.

Ҳар-бир синов ўтказилаётган вақтда шовқинни ўлчаш қурилмаси колибировка қилиниб кейин тадқиқот ўтказилади.

Тадқиқот жараёни, ҳайдовчи иш ўрни, унинг жойлашуви ва унинг иш фаолиятига таъсир этувчи турли таркибдаги шовқинлар миқдори бўйича аниқлаш мақсадга мувофиқдир. [4, 5]



3-расм. NOR-140-NNR маркали шовқин ўлчаш қурилмаси.



4-расм. Шовқинни аниқлаш нуқтаси.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-576-586

МУҲОКАМА

Бир қанча автомобилларнинг харакатланишидаги ҳосил қилаётган шовқин даражасини қуйидаги метод бўйича баҳолаш амалга оширилади:

-Танланган n тоифадаги автомобиллар шовкиннинг ўртача арифметик $L_{ўрт}$ киймати

$$L_{ўрт} = \frac{1}{j}\sum_{i=1}^{i} L_{mi} \quad (1)$$

Бу ерда: L_{mi}- m - чи автомобилларнинг шовкин таснифининг *i*- киймат микдори

j - m - чи автомобилни ўлчаш қиймати

m- танланган автомобил номери

Шовқин тасниф кўрсаткичларнинг арифметик миқдори

$$L = \frac{1}{n}\sum_{m-1}^{i} L\,ўр \quad (2)$$

Бу ерда n – танланган автомобиллар сони

-ишлаб чикариш меъёр оғишининг ўртача квадрати $S_р$ ни баҳолаш

$$S_р = \sqrt{\frac{1}{n-1}}\sum_{m-1}^{n}(L_{ўр} - L)^2$$

-Жами ўртача квадрат оғиши S_1 ни бахолаш

$$S_1 = \sqrt{S_k^2 + S_p^2}$$

Бу ерда S_k - ўлчов хисоби бўйича ўртача квадрат оғиш баҳоси, бу шовкинга синов меъёр стандарти бўйича ўрнатилади.

-Танлаб олинган автомобилларнинг тахлил коэффициенти K қуйидагича ҳисобланади.

$$K = 1{,}5S_1 + 0{,}564\,(G_m - S_1)$$

Бахоловчи кўрсаткич G_m тажриба жараёнида жадвал асосида ўтказилган кўрсаткичлар бўйича танланади ва S_1 =0,5 ДБ тенг деб хисобланади.[18, 19, 20]

3-Жадвал

Шовкин таснифини аниклаш методи	Баҳоловчи кўрсаткич, G_mДБ									
	Ўртача геометрик частота Гц								$L_{ўр}$ товуш қувватининг корректив киймати	Ўртача товуш даражаси учун $L_р$
	60	125	250	500	1000	2000	1000	8000		

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-576-586

Ҳайдовчининг ишчи ўриндиғида стационар ҳолатда	-	3,5	2,5	2,0	2,0	2,0	2,0	3,0	2,0	-
Ҳайдовчининг ишчи ўриндиғида динамик ҳолатда	5,5	5,5	3,5	2,5	2,5	2,5	2,5	3,55	2,5	3,0

ХУЛОСА

Автомобилдан шовқинни камайтириш бўйича тавсиялар:.

- автомобилда механик шовқинни конструктив хусусиятининг юқори аниқликни ошириш;
- механик шовқинни юзага келтирувчи зарба билан ишлайдиган деталларга термо ишлов бериш;
- Аэродинамик шовқиннинг юзага келишида Дизел,инжектор ва карбюраторли двигателлардан чиқувчи чиқинди газлар зарарлилигини камайтириш;
-двигателларда каталитик нейтрализатор қўллаш;
-электромеханик қуриллма элементларидаги магнит кучларидан ҳосил бўладиган шовқинларни ростлаш ва махкамлаш даражасини ошириш орқали камайтириш.

Хулоса ўрнида эксплуатация шароитларида автотранспорт воситаларининг экологик хавфсизлик назоратини амалга оширганда, фойдаланадиган экологик меъёрлар автотранспорт корхонасининг ишлаб чиқариш техника базаси билан жиҳозланганлик даражасига боғлиқлигини ҳисобга олиш талаб қилинади. Шу ўринда ишлаб чиқариш техник база белгиланган тартибда бўлиши, транспорт воситаларининг техник ҳолатини техник жиҳатидан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатлар талабларига мувофиқлигини баҳолашни ташкил этиш ва ўтказиш учун тегишли технологик, синов жиҳозлари ва ўлчаш воситалари билан таъминланган бўлиши мақсадга мувофиқ бўлиб, автомобиллардан чиқаётган шовқин даражасини камайтиришга олиб келади.

Юқоридаги тартибда автомобилларнинг шовқин даража ҳолатларини баҳолаш етарли эмас, шу мақсадда эксплуатацион кўрсаткичлари билан баҳолаш ташкил этилса, автомобилларнинг экологик хавфсизлиги таъминланиб, самарали ишлашига олиб келади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-576-586

REFERENCES

1. Ўзбекистон республикаси вазирлар маҳкамасининг Қарори Йўл ҳаракати қоидаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон республикаси йўл хавфсизлигини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 19 майдаги 377-сон қарори) Тошкент ш.,2019 йил 9 апрел,292-сон қарори
2. Солиев Э.А, Қулмухаммедов Ж.Р., Адилов О.К, Назаров К.М. “Йўл харакат қоидалари ва биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш асослари”. Т. Хондамир- пресс. 2014й 108-б.
3. Адилов О К Махамадалиев ЗТ Мирзаев Д Ў Йўлларда шовқин муҳофазаси бўйича таҳлил. муҳандислик коммуникациялари соҳасида инновацион технологияларини жорий қилишнинг муаммо ва ечимлари‖ мавзусида халқаро илмий–амалий анжуман материаллари. и-қисм (2020 йил, 21-22 май) 67-70 б Самарқанд-2020
4. Agzamov, J., Hamraqulov, Y., & Baratov, I. (2021). Jizzax shaxrining magistral kochalarida harakat xavsizligini tahlil qilish. Academic research in educational sciences, 2(6), 363-368.
5. Mansurovna, M. L., & Eshquvvatovich, I. S. (2021). Study of the influence of operating factors of a vehicle on accident by the method of expert evaluation. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(1), 10-17.
6. Odilov, N. (2020). The analysis of the development of gas cylinder supply system. Academic research in educational sciences, (3).
7. Odilova, S. S. Q., & Odilov, N. E. O. (2021). Muqobil yonilg'ilardan motor yonilg'isi sifatida foydalanish istiqbollari. Academic research in educational sciences, 2(1).
8. Nurmukhammad, O. (2021). Safety methods at gas filling stations for cars. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(1), 27-36.
9. Raxmatov, O., & Sotvoldiyev, X. R. O. G. L. (2021). Avtotransport vositalariga mavsumiy servis xizmat ko’rsatish turlari va ularning xarakat xavfsizligiga ta’siri. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 1147-1151.
10. Suvanov, U., Hamraqulov, Y., & Agzamov, J. (2021). Transport vositasining texnik holat masalalari. Academic research in educational sciences, 2(2).

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-576-586

11. Азимов, А., & Хамроев, Д. (2021). Диагностика двигателя автомобиля по стандартным нормам шума. Academic research in educational sciences, 2(3).
12. Адилов, О. К., & Уролбоев, А. У. (2021). Оценка эффективности работ по техническому обслуживанию автотранспортных средств. Вестник науки.
13. Адилов, О. К., Кулмурадов, Д. И., & Бегматов, Б. Я. (2014). Переходные характеристики машины при скачкообразном повороте рулевого колеса. Молодой ученый, (20), 101-104.
24. Нуруллаев, У. А., & Умиров, И. И. У. (2020). Создание программных средств автоматизированной информационной системы транспортных предприятий. Academic research in educational sciences,(1).
25. Нуруллаев, У., Умиров, И., & Исоков, Г. (2021). Методика определения деталей, критических по надежности автомобилей. Academic research in educational sciences, 2(5), 678-684.
26. Тожиев, Ж. З. Ў. (2020). Кафолат даврида бузилишларни олдини олиш мақсадида автомобилнинг техник ҳолатини текшириш. Academic research in educational sciences, (3).
27. Эрназарова, Л. М., Азизов, Б. Д., & Кулмурадов, Д. И. (2015). Принципы формирования и развития терминальных систем в Узбекистане. In Технические науки: проблемы и перспективы (pp. 79-83).

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-0611-0615

МАЛАКА ОШИРИШ ЖАРАЁНИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ БОШҚАРУВ ХОДИМЛАРИНИНГ АХБОРОТ КОММУНИКАЦИЯ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Ўткир Бердибоевич Саитмурадов
“Ўзбектелеком” акциядорлик компанияси

АННОТАЦИЯ

Таълим тизими бошқарув ходимлари малака ошириш жараёнида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш тингловчига ўзини шахс сифатида англаш, унинг имкониятларини аниқлаш, ёритиш, ўз-ўзини англашни шакллантириш, шахсий аҳамиятга эга ва ижтимоий жиҳатдан мақбул шахсий хусусиятлар ўз тақдирини ўзи белгилаш, ўзини ўзи англаш ва ўзини ўзи тасдиқлашни амалга оширишда ёрдам беришни назарда тутади. Мақолада малака ошириш жараёнида ахборот коммуникация компетентлигини ривожлантириш масалалари тўғрисида сўз юритилади.

Калит сўзлар. Компетентлик, фаолият, билим, кўникма, малака, сифат, компетентли ёндашув, ахборот, коммуникация, компьютер.

Компетентлик тушунчаси бўлажак мутахассисни касбий фаолиятга тайёрлашни нафақат талабанинг фанлардан олган билим, кўникма ва малакаларининг стандарт тизимини ўзлаштириш нуқтаи назаридан, балки ушбу билимларни малакали, сифатли қўллашлари учун шахсий сифатларни ривожлантириш нуқтаи назаридан ҳам кўриб чиқишга имкон беради. Сўнгги йиллардаги таълим ислоҳотининг мақсади “танлаган касби бўйича муваффақият қозонган ва муваффақиятли мамлакатда яшайдиган инсонларни тайёрлаш”дан иборат. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, компетентли ёндашув мақсадга эришиш учун энг муносиб илмий-назарий асосдир. Малака ошириш жараёнида таълим тизими ходимларининг ахборот коммуникация компетентлигини ривожлантириш бир қатор талабларни илгари суради.

Узлуксиз педагогик таълим амалиётида, таълимнинг бошқа соҳаларида бўлгани каби, малака ошириш тизими, унинг турли жиҳатлари ва элементлари ҳам яхши тадқиқ этилган ва илмий адабиётларда тақдим этилган. Таълим тизими бошқарув ходимлари малакасини ошириш масаласи Е.П.Белозерцев, А.Н.Волковский, С.Г.Воровщиков, Н.К.Гончаров ва бошқаларнинг илмий

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-0611-0615

ишларида тадқиқ қилинган. Бир қатор номзодлик ва докторлик диссертациялари малака оширишнинг турли жиҳатларига бағишланган [1].

АКТнинг жадал ривожланиши, шунингдек, қўшимча касбий таълим тизимида ўқув, бошқарув ва илмий жараёнларда ахборот-коммуникация технологияларини фаол қўллаш таълим муҳитини маълум даражада ўзгартиришга олиб келади. Аввало, “ахборот” ва “коммуникация” тушунчаларининг технологиялар билан боғлиқлигига эътибор қаратамиз. Ушбу тушунча технологияларнинг ахборот мазмуни ва коммуникатив имкониятларини бирлаштирилиб, компьютер тармоқларида ахборотни киритиш, қайта ишлаш, сақлаш, чиқариш, излаш ва узатиш метолдари ва усуллари тизими, шунингдек ташкилотлар ва аҳолини ахборот-коммуникация маҳсулотлари ва хизматлари билан таъминлашга мўлжалланган замонавий ахборот, компьютер ва телекоммуникация технологияларини ҳамда уларни тартибга солиш тизимлари ва воситаларини бирлаштириш мажмуаси сифатида тушунилади.

Таълим жараёнини максимал даражада индивидуаллаштириш, глобал ахборот ресурсларидан интерактив фойдаланишни таъминлаш, жамоавий ахборот маҳсулотини яратиш, илмий-амалий муаммоларни жамоавий муҳокама қилишда иштирок этиш, лаборатория асбоб-ускуналаридан масофавий равишда тажриба-тадқиқот фаолиятини амалга ошириш, у ёки бу шаклда ўқув жараёнига қайта-қайта қайтиш имкониятига эга бўлиш таълим тизими ходимларининг ахборот коммуникация компетентлигини ривожлантиришнинг муҳим асослари ҳисобланади. “Бутун умр давомида таълим олиш” тушунчаси (lifelong learning) шу тушунчага яқиндир. Бунда янги билимларни олиш ва зарурий компетентликни ўзлаштиришда норасмий, текис бўлмаган таълим асосий рол ўйнайди. Иккинчидан, таълим хизматлари истеъмолчиси ушбу имкониятдан исталган вақтда ва исталган даврда фойдаланиши мумкинлигини кўзда тутади.

Шунингдек, ҳар бир инсон бутун умр давомида ўз билим, кўникма ва дунёқарашини кенгайтириш ҳамда касбий компетентлигини, ўзгарувчан, мураккаб ва ўзаро боғлиқ дунёга мослашиш қобилиятини ривожлантиришни ўрганиш имкониятига эга бўлиши керак. Қўшимча касбий таълим амалиёти ва айрим ижтимоий тадқиқотларнинг [2] кўрсатишича бугунги кунда бир марта олинган асосий педагог кадрнинг меҳнат бозорида беш йил рақобатбардошлигини таъминлайди. Узлуксиз таълим элементи сифатида тез ўзгарувчан дунёда кадрларнинг зарур малакасини сақлаб қолишнинг зарур

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-0611-0615

бўлмоқда. Хусусан, таълимни анъанавий таълим муассасаларида, таълим олувчиларга маълум шаклда олиб бориш тўхтатилмоқда. Малака ошираётган ва касбий қайта тайёрлашдан ўтаётган, иккинчи касбий таълимни олаётган фуқаролар сонининг ўсишига қарамай, узлуксиз таълим тизимининг кўлами, унинг салоҳияти ўсиб бораётган иқтисодиёт ва ижтимоий соҳани ривожлантириш эҳтиёжларига мос келмайди. Қайта тайёрлаш ва малака ошириш тизими турли фаолият соҳаларида банд бўлганларнинг 5-10 фоизини қамраб олади. Йилига иш билан банд бўлганларнинг 25-30 фоизини малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш, шунингдек, катталар таълимининг бошқа шаклларини ривожлантириш зарур меъёр бўлиши керак. Жамиятнинг юқори малакали мутахассисларга бўлган эҳтиёжини самарали ҳал қилиш учун аҳолининг таълимга бўлган турли хил талаблари ва долзарб амалиёти, шунингдек, шахсни ривожлантириш муаммоси, масофавий малака оширишни қўллаб-қувватлаш керак.

Мамлакат иқтисодиёти, ижтимоий-сиёсий ҳаётида амалга оширилаётган таркибий ўзгаришлар бугунги кунда касб-ҳунар таълимининг барча йўналишлари, жумладан, педагогика йўналиши бўйича 40 миллиондан ортиқ кишининг малакасини ошириш ва қайта тайёрлашни тақозо этмоқда.

Шунингдек, “узлуксиз таълим” тушунчасини аниқлаштириш керак. Жаҳон амалиётида “узлуксиз таълим” тушунчаси жуда кўп атамалар билан ифодаланган, жумладан: “давом этувчи таълим” (continuing education), умрбод таълим (lifelong education), доимий таълим (permanent education), кейинги таълим (Weiterbildung) ва бошқалар. “Узлуксиз таълим” тушунчасини “қисмларга бўлган ҳолда” бутун умр давомида ишдан ажралган ҳолда таълим муассасасида, таълимни бошқа фаолият, асосан иш билан алмаштирган ҳолда узоқ муддатли таълим билан боғлаш мумкин.

В.М. Монаховнинг фикрига кўра, узлуксиз таълим жараёни (мактаб, олий ва малака ошириш) параллел таълимнинг турли шакллари билан тўлдирилиши керак [3]. Бундай янги шакл замонавий инновацион ахборот-коммуникация технологиялари билан классик таълимнинг илғор жиҳатларини умумлаштирадиган ва асосан қўшимча ёки муқобил таълим шакли бўлган масофавий малака оширишни қўллаб-қувватлаш бўлиши мумкин.

Узлуксиз таълим концепциясини ривожланишида маълум даврийлик мавжудлигини кўрсатади, масофавий малака ошириш тизимини ривожлантиришни дастлабки баҳолаш учун, хусусан: аниқлаш босқичи

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-0611-0615

(ривожланишнинг дастлабки босқичи, бунда масофавий таълим тизимининг мақсадлари, вазифалари, функциялари ва тамойиллари ишлаб чиқилади); феноменологик босқич (масофадан кузатишнинг моҳияти ўрганилади, унинг амалий аҳамияти ёритилади); масофавий малака оширишни тизимининг назарий-методик асосларини изоҳлайди ва турли моделларни ишлаб чиқиш билан якунланади; амалий қўллаш босқичи (турли муассасалар фаолиятида моделларни синовдан ўтказиш ва амалга ошириш).

Таълим тизими бошқарув ходимлари малака ошириш жараёнининг назарий-методик асослари ҳақида гапирганда, биринчи навбатда, “педагогика методологияси” атамасининг замонавий талқинини аниқлаш керак, айниқса кейинги йилларда унинг маъноси маълум даражада ойдинлашган. Н.Д.Никандров томонидан педагогика методологиясини тушунишга янгича муносабат шакллантирилган, унинг фикрига кўра педагогика методологияси нафақат билим, балки педагогик воқеликни ўзгартириш ҳақидаги билимлардир [4].

Таълим тизими бошқарув ходимлари малака ошириш жараёнида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш тингловчига ўзини шахс сифатида англаш, унинг имкониятларини аниқлаш, ёритиш, ўз-ўзини англашни шакллантириш, шахсий аҳамиятга эга ва ижтимоий жиҳатдан мақбул шахсий хусусиятлар ўз тақдирини ўзи белгилаш, ўзини ўзи англаш ва ўзини ўзи тасдиқлашни амалга оширишда ёрдам беришни назарда тутади.

Педагог кадр тадқиқ қилинаётган фаолият жараёнида асосий шахс ҳисобланади. Унда намоён бўлган мотивлар, мавжуд билим, кўникма ва малакалар даражасидан келиб чиқиб, малака ошириш жараёнини ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда ташкил этиш мазмуни ва педагогик воситалари танланади. Бошқача қилиб айтганда, педагог шахси масофавий малака ошириш жараёнида тизимни ташкил этувчи омил ҳисобланади.

Таълим тизими бошқарув ходимлари малака ошириш жараёнининг самарадорлиги фақатгина ходимнинг фаоллиги билан белгиланмайди, бу ерда ўқитувчилар (тьюторлар), масофавий таълим маркази ходимлари, таълим муассасаси маъмурияти, таълимни бошқариш органлари ва бошқаларнинг ҳам кузатуви аҳамиятли ҳисобланади. Бундан ташқари, ўқитувчилар (тьюторлар), масофавий таълим маркази ходимлари, шунингдек, таълим ходимлари ушбу фаолиятнинг тенг ҳуқуқли иштирокчилари ҳисобланадилар. Бошқача айтганда,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-0611-0615

масофавий малака ошириш жараёниа таълим тизими бошқарув ходимлари ва ўқитувчилар (тьютор)нинг иштироки тенг асосда амалга оширилади.

А.Г.Теслиновнинг фикрига кўра, таълим тизими бошқарув ходимлари масофавий малака ошириш жараёнида етакчи мотивлар сифатида: малака ошириш (касбий такомиллашиш, ўз фаолияти ва касбини ўзгартириш ва ривожлантириш); одамларни бошқариш самарадорлигини ошириш (таълимда, назария ва амалиёт ўзлаштиришда, ўқитишда юқори фаоллик); мартаба истиқболлари (нафақат билимларни тўлдириш, балки янги алоқалар ва рақобатдош устунликларга эга бўлиш имконияти); дунёқарашни кенгайтириш учун таълим олиш (тингловчилар учун таълим жараёнининг сифат даражаси муҳим); мулоқотга бўлган эҳтиёжни қондириш (Интернет глобал тармоғида коммуникатив мулоқот); АКТ компетентлигини шакллантириш ва ривожлантириш [5]. Малака ошириш жараёни ходимнинг ахборот-коммуникация компетентлигини шакллантириш механизми билан боғлиқ бўлиб, касбий такомиллашиш, ўз фаолияти ва касбини ўзгартириш ва ривожлантиришда рағбатлантирувчи вазифани бажаради.

REFERENCES

1. Скорнякова, Э. Р. Коммуникационно-информационная модель развития образовательного учреждения в условиях лингвистической среды / Э. Р. Скорнякова, Е. В. Харчилава // Академический вестник. Вестник Санкт-Петербургской академии постдипломного педагогического образования. - 2014. - № 1 (24). - С. 96-100.
2. Амонашвили, Ш. А. Императивное обучение и его недостатки / Ш. А. Амонашвили // Мир науки, культуры, образования. - 2007. - № 1. - С. 76- 78.
3. Монахов В. М. Введение в теорию педагогических технологий : монография / В. М. Монахов; М-во науки и образования РФ, Федер. агентство по образованию, Межвуз. центр дистанц. образования МГОПУ им. М. А. Шолохова, Волгоград. гос. пед. ун-т. - Волгоград : Перемена, 2006 (Волгоград : Перемена). - 318 с. : ил. ; 20 см. - Библиогр.: с. 299-316
4. Никандров Н.Д. Известия РАО. 2003. № 1. - С. 3-22.
5. Теслинов А. Г. Развитие систем управления: методология и концептуальные структуры. – М.: «Глобус», 1998

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-616-621

МАҲСУЛОТ СИФАТИНИ БОШҚАРИШ ОМИЛЛАРИ

А. М. Назаров
А. Н. Файзуллаев
А. С. Аликулов
Тошкент давлат аграр университети
nazarov@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Мақолада мамлакатнинг иқтисодиётини бозор иқтисодиёти шароитида ривожлантиришнинг асосий мақсади илмий-техник тараққиётни шакллантириш жаҳон стандарти талаблари асосида сифатли маҳсулотлар ишлаб чиқаришда меҳнат, моддий ва молиявий ресурслардан оқилона фойдаланиш, сифатни ошириш ҳисобига рақобатдошликни ошириш ҳақида қисқача маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: сифат масаласи, объект, эҳтиёжлар,тавсифлар, қўлланувчанлик, «ИСО 9001» сифатни.

ABSTRACT

The article presents a summary of strengthening the role of international standards in the market economy as the main factor of increase of competitiveness of production and scientific and technological development by improving the quality, efficiency of production, labor, material and moral resources

КИРИШ

Ҳар қандай мамлакатнинг иқтисодий ҳолати унинг илмий-техник тараққиёти билан бевосита боғлиқдир. Илмий-техник тараққиётнинг асосий мақсади юқори сифатли маҳсулот ишлаб чиқаришда меҳнат, моддий ва молиявий ресурслар сарфини камайтириш ҳисобланади. Шубҳасиз, иқтисодиёт ва илмий-техник ривожланишнинг мақсади муштарак бўлиб, жамият эҳтиёжларини қондиришга қаратилган.

Сифат масаласи барча мамлакатлар учун иқтисодий тараққиёти ҳолатидан қатьий назар долзарб масалалардан ҳисобланади. Шундай экан, маҳсулот ва хизматлар сифатини яхшилаш ва хафсизлигини кафолатлашга муҳим объектив зарурият сифатида қаралиши зарур.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-616-621

Сифат – бу маҳсулот ва хизмаларнинг истеьмолчи талабларини қондиришга олиб келувчи хусусият ва тавсифлар йиғиндисидир.

“Сифат” тушунчасини аниқроқ талқин қилганда кўпроқ иқтисодий аҳамиятга эга бўлиб, ўзида кўп қиррали натижаларни мужассам этади. Бундан ташқари, бу атамани ташкил этувчи тушунчалар: “даража”, “хусусий тавсиф” ва “талаблар” аҳамиятини аниқ ифодалаш муҳим.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Шуни таькидлаб ўтиш жоизки, “сифат” атамаси мураккаб бўлиб, объектнинг универсал жиҳатларини ўзида намоён этади. Мақсад ва қўлланилиши боғлиқлиги бўйича сифатнинг қуйидаги: фалсафий, ижтимоий, иқтисодий, техникавий, ҳуқуқий ва информатив жиҳатларини эьтироф этиш мумкин.

Сифатнинг фалсафий ифодаси “объектнинг ўзлигини намоён қилувчи туб моҳиятини” билдиради.

Сифатнинг информатив жиҳати ҳақида сўз борганда, ихтиёрий обьект тўғрисида умумий ахборотларнинг сифатини аниқлаш учун етарли бўлмайди ва шунинг учун аниқ ифодаланиши лозим. Шу сабабли, баҳолаш учун сифат тавсифларини чегаралашга мажбурмиз. Бундан ташқари сифат тушунчаси кўраётган обьектимизга мувофиқ ҳолда “маҳсулот” сўзи билан ифодаланади. Қаралаётган маҳсулотнинг сифатини стандартлаштириш нуқтаи назаридан қуйидагича таърифлаш мумкин:

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-616-621

Маҳсулот сифати-маҳсулотнинг қўлланилишига тегишли аниқ эҳтиёжларни қаноатлантирувчи ва унинг яроқлилигига боғлиқ хусусиятлар мажмуидир.

“Сифат” тушунчаси учта элементни қамраб олади:

1. Объект;
2. Эҳтиёжлар;
3. Тавсифлар.

Объект фаолият ёки жараён; маҳсулот, хизмат; ташкилот; тизим ёки алоҳида шахс, уларнинг турлича комбинацияси ҳам бўлиши мумкин.

Эҳтиёж. Талаблардан қаноатланмаслик ҳолати сифатида қаралади. Энг оддий даражаси-физиологик эҳтиёж бўлиб, озиқ-овқат маҳсулотлари ёрдамида қаноатланишга таалуқли бўлган унинг хавфсизлигига бўлган эҳтиёждир. Энг юқори даражасига эстетик эҳтиёж ва бадиий эҳтиёжлар киради.

Талаблар универсал ҳисобланиб, уларга қўлланувчанлик, хавфсизлик, экологик тозалик, эргономика, ресурслар тежамкорлиги, техналогик ва эстетик талабларга бўлинади.

Қўлланувчанлик талаблари - бу маҳсулотга қўйилган талабни бажариш учун асосий вазифаларни аниқловчи, маҳсулот хусусиятининг яроқлилиги, материаллар ва хомашёнинг асосий таркиби ва тузулиши, мослиги ва ўзароалмашувчанлигини ифодалайди.

Эргономик талаблар– фойдаланишда қулайликни таъминлаш учун инсон организмининг хусусиятлари билан буюм конструкциясининг ўзаро мутаносиблигини белгиловчи талаблардир.

Ресурслар тежамкорлигига – хомашё, материаллар, ёнилғи, энергия ва меҳнат ресурсларидан тежамкорлик билан фойдаланишга бўлган талаблар.

Техналогик талаблар – маҳсулотни белгиланган сифат кўрсаткичларида минимал харажатлар билан тайёрлаш, эксплуатация ва таъмирлашга мослашганлиги билан боғлиқ талаблардир.

Эстетик талаблар – шакллар аломатларини инсон қабул қилиб сезишида маҳсулот ёки хизматнинг бадиий шакли, ижтимоий-маданий аҳамиятини ифода этиш каби хусусиятларини ўз ичига олади.

Тавсифлар – объект хусусиятлариниг фарқланишини белгилайди.

Ҳозирги кунда таъминотчиларнинг стандарт талабларига етарли даражада риоя этишларини ишлаб чиқарилаётган маҳсулот ва кўрсатилаётган хизматларнинг сифат ва хавфсизлик сертификати билан асосланмоқда, бироқ

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-616-621

сифат тизими сертификати истеъмолчи ва буюртмачилар ишончини янада кўпроқ қозонишга олиб келади.

Сифат тизими сертификати сифатнинг турғунлиги, ўлчанаётган сифат кўрсаткичларининг аниқлиги ва ишончлилигини яратиб, кўрсатилаётган хизмат ва ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларни тайёрлаш жараёнлари юқори даражада амалга оширилаётганлиги ҳақидаги далиларни ўзида номоён этади.

Маҳсулотларнинг сифат кўрсаткичларини аниқлаш ва сифатини таъминлаш ҳамда сифатини бошқаришда метралогия, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш фаолияти муҳим ўрин тутиши маҳаллий ва хорижий тажрибаларда ўз аксини топган. Маҳсулот сифатини баҳолаш ва таъминлаш, маҳсулотни ишлаб чиқариш корхоналарнинг иқтисодий самарадорлиги ва рақобатбардошлигини таъминлайди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Натижавийликни баҳолаш усулини ишлаб чиқишда СМТ ишлаб чиқилган СМТ моделидан фойдаланиш тавсия этилади (1-расм). Ушбу корхона менежменти тизими ҳажмий модели, менежментга умум тан олинган классик ёндошувига асосланган, уни ичидан қуришга рухсат этилади, аммо, сифат менежменти тизими ва бошқа налогик менежмент тизимлари билан праллел бўлмаслиги лозим.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-616-621



1-расм. Интегрирланган менежмент тизими модели

«ИСО 9001» сифатни бошқариш халқаро сертификатига эга. Уларни жорий қилишдан кўзланган мақсад эса товарларни халқаро бозорда интеграллашувини таминлашдир. СМТ жорий қилиш корхоналарнинг тендерларда қатнашиш, менежмент тизимини такомиллаштириш, ишлаб чиқариш жараёнларини оптималлаштириш ва ҳамкорлик муҳитини ривожлантириш имкониятларини беради.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-616-621

ХУЛОСА

Корхонада ИСО 9001 сертификатни мавжудлиги ҳамкорлик муносабатларни ривожлантириш, инвеститсияларни жалб этиши, жаҳон молиявий бозорига чиқиш учун мажбурий шартлардан бўлиб ҳисобланмоқда. ИСО сертификати – нуфузли ва обрўли халқаро ташкилот (ИСО) томонидан холисона тан олинган гувоҳномадир. Ундан ташқари ИСО сертификатига эга бўлган корхоналарда бошқарув тизими тўғри йўлга қўйилган бўлади.

ИСО 9000 оиласидаги стандартлар учта моделини сертификатлаштиришга асосланган:

1. ИСО 9001 – Ишлаб чиқиш (ишлаб чиқариш, лойиҳалаштириш, монтаж ва хизмат кўрсатиш) босқичларида сифатни таъминлаш модели.
2. ИСО 9002 – Ишлаб чиқариш ва монтаж босқичларида сифатни таъминлаш.
3. ИСО 9003 – Тайёр маҳсулотни синаш ва текшириш босқичида сифатни таъминлаш модели.

Янги версия стандарти сертификатлаштирувчи, муқобил сифат моделларини ўзида мужассам этмайди. Пайдо бўлган ИСО 9001:2008 стандартини қайта кўриб чиқиш натижасида 1994 йилги ИСО 9001, ИСО 9002, ИСО 9003 стандартлар версияси қатор тамойилли фарқлари мавжудлигини ўзининг моҳияти бўйича аламаштирилган. Масалан, ҳужжатлар мажмуаси аввал 24 та стандартдан иборат бўлган бўлса, ҳозирда ўзида қуйидаги 4 та асосий стандартларни қамраб олади.

REFERENCES

1. Абдувалиев А.А., “Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш” Дарслик “Шарқ” 2018. 607-Б.
2. Парпиев М.П., Назаров А.М. “Стандартлаштириш асослари”. Ўқув қўлланма. –Тошкент: ТДАУ, 2021. 115 б.
3. Буриев Х., Жураев Р., Алимов О. Мева-сабзавотларни саклаш ва уларга дастлабки ишлов бериш. Т.: «Мехнат», 2002.
4.Орипов Р.О. ва бош. Кишлок хужалиги маҳсулотларини саклаш ва кайта ишлаш технологияси. Т.: «Мехнат», 1991.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-622-625

ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШДА МАВЖУД ТЕХНОЛОГИК ХАВФ-ХАТАРЛАРНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ

А. М. Назаров
Тошкент давлат аграр университети

М. А. Мавлянов
"Ўзбекистон миллий метрология институти" ДМ
nazarov@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини ишлаб чиқариш жараёнида илғор тажрибаларни ўрганиш ва уни амалиётда қўллаш мамлакат озиқ-овқат ресурсларини кўпайтириб, унинг ҳавфсизлигини таъминлайди. Ўзбекистон Республикасида қишлоқ хўжалик маҳсулотларини экспорт қилиш мамлакатимизга катта даромад келтирмоқда.

Калит сўзлар: Озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш,Сут маҳсулотлари ҳам шундай технологик жараёнларни натижаси

КИРИШ

Мамлакатимиз мустақилликка эришгандан сўнг маҳсулотлари сифатини ва рақобатбардошлигини ошириш ҳамда сифатни назорат қилиш соҳасида ислоҳатларни олиб борилиши ва амалга оширилишига катта эътибор қаратиб келинмоқда. Ишлаб чиқариш жараёнларининг жадаллашуви ҳамда озиқ-овқат маҳсулотларнинг сифат кўрсаткичларини оширишга, унинг давлат ва истеъмолчилар учун хавфсизлик даражасини таъминлашга имкон беради.

Озиқ-овқат саноатида муҳим масалалардан бири сифатли маҳсулотларини ишлаб чиқаришни амалга ошириш – озиқ-овқат (истеъмол) маҳсулотларини технологик жиҳатларига боғликдир. Озиқ-овқат маҳсулотларининг энергетик қувватини оширишда уларни қайта ишлаш ва ишлаб чиқариш жараёнларини назорат қилиш билан эришиш мумкин. Сут маҳсулотлари ҳам шундай технологик жараёнларни натижасида ҳосил бўлади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-622-625

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Дарахт шаклидаги жадвални қўллаган ҳолда сут маҳсулотлар ишлаб чиқаришда келиб чиқиши мумкин бўлган хавфсизликнинг технологик хавф-хатарлари тахлилига кўра рационал ва самарали назоратнинг қуйидаги уч критик назорат нуқталари ўрнатилди: сутни хомлигича сақлаш босқичи (биологик хавф); сутни пастеризациялаш босқичи (биологик хавф), аралашмаларни пастеризациялаш босқичи (биологик хавф).

Тайёр маҳсулотнинг хавфсизлигига технологик жараённинг қуйидаги босқичлари кўпроқ таъсир этиши аниқланди: аралашмани қайта ишлаш; маҳсулотни пастеризациялаш; қадоқлаш ва етилтириш. Маҳсулотга энг кўп таъсир этувчи босқичлар аралашмани қайта ишлаш,қуйқа тайёрлаш,ишлаб чиқариш томизғисини тайёрлаш, тўлдирувчиларни тайёрлаш босқичларидир.

Сут маҳсулотларини ишлаб чиқариш учун дастлабки мажбурий чора тадбирлар лойихаси дастури, ХАССП режаси ва технологик хавф-хатарларни бошқариш ва назорат қилиш имконини берувчи ишлаб чиқариш назорати дастури ишлаб чиқилди.

Сут маҳсулотлари нуқсонларини келтириб чиқарувчи технологик жараёнлар бахолашлари натижалари тахлили асосида ишлаб чиқаришда нуқсонлар келиб чиқишини олдини олиш бўйича қуйидаги чора-тадбирлар тизими ишлаб чиқилди:

1. Пиширилмаган сутни КМАФАнМ қиймати бўйича назорат қилиш.
2. Гомогенизациянинг босими ва температурси назорати.
3. Аралашмани пастеризациялаш температураси ва давомийлиги.
4. Ивиш жараёни давомийлиги ва температураси назорати.
5. Ивишдан кейинги механик қайта ишлаш интенсивлигини оптималлаштириш.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-622-625

6. Ивишдан кейинги пастеризация температураси ва давомийлигини назорат қилиш.

7. Мевали қўшимчалар киритиш дозаси ва таркибни оптималлаштириш.

8. Ишлаб чиқариш томизғисини тайёрланишини ва унинг келгусидаги сақлаш муддатини назорат қилиш.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Тадқиқот натижаларини умумлаштириш асосида 2-расмда схематик тарзда ифодаланган ўз ичига технологик жараённи тузиш ва унинг блок схемасини тахлил қилиш, маҳсулот ишлаб чиқаришнинг технологик хавф-хатарларини идентификациялаш, технологик хавф-хатарларнинг сабабларини, технологик хавф-хатарнинг истеъмолчининг соғлигига зарар етказиш хавфини бахолаш ва тайёр маҳсулотда нуқсонларни келтириб чиқарувчи технологик хавф-хатарларни комплекс кўрсаткичини ҳисоблашни олган технологик хав-хатарларни бахолашни ўтказиш процедураси ишлаб чиқилди.

Сут маҳсулотларнинг нуқсонларини олдини олиш бўйича ишлаб чиқилган чора тадбирлар тизимининг самарадорлигини бахолаш учун корхонада апробация жараёни ўтказилди.

Сут маҳсулотларининг технологик хавф-хатарларини юқоридаги чора тадбирларни қўллашдан олдин ва кейинги холати 3-расмда график кўринишида тасвирланган. Олинган маълумотлар сут маҳсулотлар ишлаб чиқаришдаги технологик хавф-хатарларни бахолаш методикаси ва ишлаб чиқилган олдини олувчи харакатларнинг самарадорлиги ушбу методикани қўллаш мумкинлигидан далолат бермокда.

Истеъмолчилар талабларини ҳисобга олган ҳолда юқори сифат ва хавфсизликни таъминлаш муаммоси айниқса сут маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларни кескин вазиятга солиб қўймоқда. Бунга сабаб биринчидан сут маҳсулотларининг бузилишига олиб келувчи микрофлоралар ривожланиши учун қулай мухит бўлиб ҳисобланишидир. Шу сабабдан бундай маҳсулотларни

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-622-625

ишлаб чиқариш ва сақлашда номувофиқ маҳсулотнинг келиб чиқиши ва истеъмолчи саломатлигига хавф солиш даражаси юқоридир.Иккинчидан маҳаллий бозор турли хилдаги маҳсулот билан тўлдирилган рақобат шароитида ишлаб чиқарувчилардан истеъмолчиларнинг тобора ўсиб бораётган талабларини қондириш мақсадида сифатни бошқариш, хамда маҳсулот хавфсизлигини таъминлашнинг янги усулларини излашларини талаб этади.

Озиқ-овқат маҳсулотлари сифати ва хавфсизлиги озиқ-овқат инфекциялари ва ундан захарланишни олдини олувчи зарурий омилдир. Таъм ва ҳиддаги камчиликлар, бузилган ташқи кўриниш маҳсулотни истеъмолчини жалб этувчанлигини йўқотади, бу эса рақобатбардошликни камайтиради ва ишлаб чиқариш рентабеллигини пасайтиради. Замонавий ишлаб чиқаришнинг асосий ва долзарб муаммоси, технологик хавф-хатарларни камайтириш, уларни бошқариш ва олдини олишдан иборатдир.

REFERENCES

1. “Техник жиҳатдан тартибга солиш тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг Қонуни 2009 йил 23 апрель № ЎРҚ-213.
2. “Озиқ-овқат маҳсулотларини сифати ва хавфсизлиги” тўғрисида Ўзбекистон Республикаси қонуни. 30.08.1997 й. №438-1.
3. “Маҳсулот ва хизматларни сертификатлаштириш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси қонуни 28 декабр 1993 й.
4. Р. Нормаҳматов.“Озиқ-овқат товарлари сифат экспертизаси”. Дарслик. Тошкент. 2015.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

ЎЗБЕКИСТОН ХУДУДИДА ТАРҚАЛГАН САРИҚ ЗАНГ КАСАЛЛИГИНИНГ ПОПУЛЯЦИЯСИ

Х. С. Тўрақулов
Б. Х. Чиниқулов
Т. А. Бозоров
М. Мардонова
С. Исақулов
Генетика ва ўсимликлар экспериментал биологияси институти

АННОТАЦИЯ

Буғдой сариқ занг касаллигининг Республикамиз турли худудларида тарқалган намуналаридан изолятлар тўпланиб уларнинг ирқлари таркиби ўрганилди. Бахолаш ишларига кўра, Олинган натижаларга кўра, Фарғона вилояти Учкўприк туманидан 203Е231, Тошкент вилояти Чиноз туманидан 199Е223, Зангиота туманидан 199Е218, Янгийўл туманидан 207Е238, Бекобод туманидан 239Е242, Жиззах вилоятининг Ғаллаорол туманидан 207Е217, Қашқадарё вилояти Китоб туманидан 231Е223, Сурхондарё вилояти Денов туманидан 235Е239, Олтинсой туманида 195Е216 ирқлари аниқланди. Ушбу ирқларнинг умумий вирулентлик даражалари бир бирига яқинлиги, Республика сариқ занг популяциялари орасида катта фарқ йўқлиги ва хилма хиллик даражаси нисбатан паст эканлиги кузатилди

Калит сўзлар: Буғдой, касаллик, сариқ занг, изолят, ирқ, чидамли, чидамсиз, вирулент, авирулент, ген, инокуляция.

WHEAT YELLOW RUST POPULATION IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

Isolates were collected from samples of wheat rust cultivating in different regions of the country and their race composition was studied. According to the results of the experiments, 203E231 from Uchkuprik district of Fergana region, 199E223 from Chinaz district of Tashkent region, 199E218 from Zangiota district, 207E238 from Yangiyul district, 239E242 from Bekabad district, 207E217 from Gallaorol district of Jizzakh region, 231E223 from Kitab district of Kashkadarya region, 235E239 from Denov district of Surkhandarya region, 195E216 races were

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

identified in Altynsay district of Kashkadarya district. It was observed that the general virulence levels of these races were close to each other, there was no significant difference between the yellow rust populations of the Republic, and the level of diversity was relatively low.

КИРИШ

Ўзбекистон мустақилликка эришгач хукуматимиз томонидан ўша пайтгача асосан катта валюта захиралари хисобидан четдан келтириладиган ва халқимизнинг энг асосий ва севимли озиқ овқат манбаи бўлмиш буғдойни республикамиз қишлоқ хўжалигидаги бор имкониятлардан фойдаланиб ўзимизда етиштиришдек одил вазифани ўртага қўйди. Тан олиш лозим ушбу вазифа улкан муваффаққият билан амалга оширилди ва Ўзбекистон жуда қисқа фурсат ичида Марказий Осиё давлатлари ичида буғдой дони хосилдорлиги бўйича биринчи ўринга чиқиб олди. Бироқ сўнгги икки ўн йилликда дунё ғаллачилигида асосий муаммога айланган ва энг катта иқтисодий зарарни келтираётган сариқ занг касаллиги эпидемиялари [6,7, 12], бизни республикамизни хам табиийки четлаб ўтмади ва аксинча ушбу касалликнинг дунёдаги асосий “қайноқ нуқталари”дан бирига айланди. Аввалари республикамизда суғориладиган буғдой далаларининг камлиги туфайли унчалик иқтисодий ахамиятга эга бўлмаган ва ахён ахёндагина (1968, 1970, 1978, 1982 йиллар), янада аниқроғи деярли 50 йил мобайнида (1960-1999 йилларда) бор йўғи 4 маротаба унчалик сезиларли бўлмаган даражада содир бўлган сариқ занг эпидемияси [1, 2, 3, 5], 1999-2010 йиллар давомида 5 маротаба содир бўлди (1999, 2001, 2005, 2009, 2010 йиллар) ва улкан иқтисодий зарарларга сабабчи бўлди [6]. Дунёнинг машхур занг фитопатолог олимлари ва генетикларининг охирги йиллардаги тадқиқотларига кўра занг касалликларини келтириб чиқарадиган патоген популяциясидаги вирулентлик хусусияти хилма хиллигининг энг юқори даражаси Ғарбий Хитой, Кавказ ва Марказий Осиё [8, 13] худудларидан олинган занг замбуруғи намуналаридан топилган.

Экин майдонларининг асосий қисмини юмшоқ буғдой эгаллаши ва экилаётган навлар орасида, айниқса махаллий навлар ичида сариқ занг касаллигига чидамсиз бўлган навлар мавжудлиги ушбу касалликнинг ғалла деҳқончилигига бундан кейин доимо хавф солиб туришини кўрсатади ва мазкур соха мутахассисларидан ушбу муаммо устида тадқиқот ишларини янада кучайтиришни талаб этади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

Шу мақсадда ЎзР ФА Генетика ва ЎЭБИда буғдойнинг сариқ занг касаллигининг Республикада тарқалган ирқларини ўрганиш устида доимий тадқиқотлар ўтказиб келинмоқда ва қуйида охирги йилги тадқиқотлар устида тахлиллар қиламиз.

МАТЕРИАЛ ВА УСЛУБЛАР

Намуналарни йиғиш. Буғдой далалари мониторинги Республика вилоятлари бўйлаб Апрел ва Май ойларида, сариқ занг касаллигининг буғдой далаларида асосий тарқалиш мавсуми даврида ўтказилди. Далада сариқ занг касаллигининг урединиоспоралари намуналари касалланган ўсимлик баргларини хаво ўтказувчи қоғоз пакетчаларга жойлаштириш орқали йиғилди. Касалланган барглар хавода қуритилиб, кўпайтириш ва инокуляция ишларига қадар +4-+5 ^{0}C хаво харорати шароитида сақланди [11].

Вирулентлик ва касаллик ирқларини аниқлаш. Буғдой сариқ занг касаллигининг ирқларини Johnson, R., бошқалар услубида [9] Жахон (9 нав) ва Европа (8 нав) сариқ занг касаллигиги ирқларини аниқлаш дифференциатор навлари тўплами ёрдамида аниқланди. Бунинг учун ушбу тўплам буғдой намуналари уруғлари 10 см диаметрли тувакчаларга тупроқ, қум ва гумусли аралашмага (3:3:4 нисбатда) 7-8 донадан икки қапйтариқда экилди.

Касаллик урединиоспораларини жонлантириш учун йиғиб келинган ва +4-+5 ^{0}C хаво харорати шароитида сақланаётган касалланган барглар олиниб, сув билан намланган фильтр қоғоз жойлаштирилган петри идишчаларига жойлаштирилиб, қоронғи мухитда 10-15 соат давомида сақланди. Жонлантирилган урединиоспоралар 10 кунлик ва биринчи барглари тўлиқ очилган буғдой майсаларига Солтрол 170 минерал ёғига аралаштирилган холда сепиш орқали инокуляция қилинди. Инокуляция қилинган намуналар инкубация жараёнини ўтказиш учун +9 ^{0}Сли хаво харорати ва 100 фоизлик намлик шароитида қоронғилик мухитида 1 сутка давомида қолдирилди. Сўнгра +16 - +18 ^{0}Сли иссиқхонага, 12 соатлик кун узунлигида, 10000 люксли флюроцент ёруғлиги берувчи лампалар остида намуналар ўститирлди.

Намуналарни бахолаш. Сариқ занг касаллигига чидамлиликни майсаларда баҳолаш 14-17 кундан сўнг 0-9 балл асосида бахоланиб, 0-6 балл авирулентликни, 7-9 балл эса вирулентликни белгилади [11], [12]. Бунда бахолашнинг аниқлиги чидамсиз намуна ва икки қайтариқдаги бахолаш натижаларининг мослиги билан текширилиб борилди.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

Олинган натижалар ва уларнинг тахлили. Тадқиқотимизда Жанубуй минтақадан Сурхондарё вилоятидан, Марказий минтақадан Сирдарё вилоятидан ва нисбатан шимолий ва алохида худуд хисобланган Фарғона вилоятидан келтирилган изолятлар тажриба мақсади учун танлаб олинди ва ушбу уч минтақа намуналарида касаллик популяцияси фарқлари ўрганилди. Барча изолятлар бутун дунё миқёсида сариқ занг касаллиги ирқларини аниқлашда кенг қўлланиладиган қуйидаги дифференциатор навлар тўпламида инокуляция қилинди ва тахлил қилинди.

Тадқиқотларимизда Тошкент, Фарғона, Жиззах, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари буғдой далаларидан сариқ занг касаллигининг йиғилган изолятлари махсус дифференциатор тўпламларда тахлил қилинди. Аввало Фарғона вилоятининг Учкўприк туманидан келтирилган изолятларни ўрганамиз.

Учкўприк туманидан келтирилган изолят дифференциатор навларга нисбатан қуйидагича боҳоланди: Халқаро тўпламдан Chinese 166, Lee, Vilmorin 23, Suwon92 x Omar, Clement навларига вирулентликни, Heine’s Kolben, Moro, Strubes Dickopf, Triticum spelta навларига авирулентликни намоён қилди. Европа тўпламдан Hybrid 46, Reichersberg 42, Heine‘s Peko, Carstens V, Spalding Prolific, Heines VII навларига вирулентликни, фақатгина Nord Desprez, Compair навларига нисбатан авирулентлик кузатилди (1-жадвал). Натижада ушбу намуна ирқ формуласи **203E231** эканлиги қайд этилди.

1-жадвал.

Фарғона вилояти Учкўприк туманидан (баландлик-407м, N 40.53238, E 070.99706) олинган сариқ занг касаллиги изолянтини баҳолаш натижалари

Халқаро тўплам		Генлар	Касалланиш даражаси (балл)		Ўнлик даража қиймат-лари	Вирулент (+), Авирулент (-)
			1 қайтарик	2 Қайтарик		
1	Chinese 166	Yr1	7	7	1(=2°)	+
2	Lee	Yr7	7	8	$2(=2^1)$	+
3	Heine’s Kolben	Yr6,Yr2	6	6	$4(=2^2)$	-
4	Vilmorin 23	Yr3V	7	7	$8(=2^3)$	+
5	Moro	Yr10	0	0	$16(=2^4)$	-
6	Strubes Dickopf	YrSd	5	6	$32(=2^5)$	-
7	Suwon92 x Omar	YrSu	7	8	$64(=2^6)$	+

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

8	Clement	Yr9,Yr2+,Cle	7	7	128(=2^7)	+
9	Triticum spelta	Yr5	0	0	256(=2^8)	-
203						
Европа тўплам						
10	Hybrid 46	Yr4+	7	7	1(=2°)	+
11	Reichersberg 42	Yr7+	8	7	2(=2^1)	+
12	Heine‘s Peko	Yr6,Yr2+	7	8	4(=2^2)	+
13	Nord Desprez	Yr3N	6	6	8(=2^3)	-
14	Compair	Yr8,YrAPR	4	5	16(=2^4)	-
15	Carstens V	Yr32,YrCv	7	7	32(=2^5)	+
16	Spalding Prolific	YrSp	7	8	64(=2^6)	+
17	Heines VII	Yr2+	8	8	128(=2^7)	+
231						
Қўшимча навлар						
1	Yr8 Avocet NIL	Yr8	8	7		+
2	Yr17 Avocet NIL	Yr17	6	6		-
3	Lal Bahodur (Yr29)	Yr29	7	7		+
4	Pastor (Yr31+APR)	Yr31+APR	3	4		-
5	Yr7 Avocet NIL	Yr7	7	7		+
6	Fed4/Kavkaz (Yr9)	Yr9	9	8		+
7	TPI 1295 (Yr25)	Yr25	5	6		-
8	Yr27 Avocet NIL	Yr27	8	7		+
9	Morocco		9	9		+

203E231 ирқи Yr7, Yr3V, YrSu, Yr4+, YrSp, Yr2+, Yr8, Yr29, Yr9, Yr27 генларга ва Yr6+Yr2, Yr9+Yr2+Cle, Yr32+YrCv генлар комбинациясига нисбатан вирулентлик шунингдек Yr1, Yr10, YrSd, Yr5, Yr3N, Yr17, Yr25 генларга ва Yr8+YrAPR, Yr31+APR генлар комбинацияларига нисбатан авирулентлик кузатилди.

Кейинги изолят Тошкент вилоятининг Чиноз туманидан олиб келинган бўлиб, Халқаро ва Европа тўпламлари дифференциатор навларга ва қўшимча, сарик занг касаллигига жавоб беррувчи генлари маълум булган изоген линияларга инокуляция килиниб, ўсимликни патогенга жавоб реаксияси асосида вирулентлик хусусияти баҳоланди. Ушбу изолят жахон тўпламидаги

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

навлардан Chinese 166, Lee, Heine's Kolben, Suwon92 x Omar, Clement навларига, шунингдек Европа тўпламидаги навлардан Hybrid 46, Reichersberg 42, Heine's Peko, Nord Desprez, Compair, Spalding Prolific, Heines VII Навларига вирулентлик намоён қила олди (2-жадвал).

2-жадвал.

Тошкент вилояти Чиноз туманидан (баландлик-306 м, N41.00390 E068.82621) олинган сариқ занг касаллиги изолянтини баҳолаш натижалари

Халқаро тўплам		Генлар	Касалланиш даражаси (балл)		Ўнлик даража қиймат-лари	Вирулент (+), Авирулент (-)
			1 қайтарик	2 қайтарик		
1	Chinese 166	Yr1	7	8	1(=2°)	+
2	Lee	Yr7	7	7	2(=2^1)	+
3	Heine's Kolben	Yr6,Yr2	8	7	4(=2^2)	+
4	Vilmorin 23	Yr3V	6	5	8(=2^3)	-
5	Moro	Yr10	0	0	16(=2^4)	-
6	Strubes Dickopf	YrSd	6	6	32(=2^5)	-
7	Suwon92 x Omar	YrSu	8	8	64(=2^6)	+
8	Clement	Yr9,Yr2+,Cle	9	8	128(=2^7)	+
9	Triticum spelta	Yr5	0	0	256(=2^8)	-
199						
Европа тўплам						
10	Hybrid 46	Yr4+	7	8	1(=2°)	+
11	Reichersberg 42	Yr7+	7	7	2(=2^1)	+
12	Heine's Peko	Yr6,Yr2+	8	7	4(=2^2)	+
13	Nord Desprez	Yr3N	8	8	8(=2^3)	+
14	Compare	Yr8,YrAPR	7	8	16(=2^4)	+
15	Carstens V	Yr32,YrCv	6	5	32(=2^5)	-
16	Spalding Prolific	YrSp	9	8	64(=2^6)	+
17	Heines VII	Yr2+	7	7	128(=2^7)	+
223						
Қўшимча навлар						
1	Yr8 Avocet NIL	Yr8	9	8		+
2	Yr17 Avocet NIL	Yr17	8	7		+
3	Lal Bahodur (Yr29)	Yr29	7	8		+
4	Pastor	Yr31+APR	8	8		+

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

	(Yr31+APR)					
5	Yr7 Avocet NIL	Yr7	9	8		+
6	Fed4/Kavkaz (Yr9)	Yr9	8	7		+
7	TPI 1295 (Yr25)	Yr25	9	8		+
8	Yr27 Avocet NIL	Yr27	7	8		+
9	Morocco		9	9		+

Жадвалдан кўриниб турганидек, даража қийматларини қўшиш орқали Тошкент вилояти Чиноз туманидан келтирилган сариқ занг касаллиги (*Puccina striiformis f.sp. tritici*) намунасининг ирқ формуласи **199E223** эканлиги қайд этилди.

Дифференциатор навлари, қўшимча изоген линиялар боҳолаш натижаларини умумлаштириб сариқ занг касаллигининг маҳаллий 199E223 ирқи Yr3V, Yr10, YrSd, Yr5 генларининг моногенли холатига хамда Yr32,YrCv генларининг битта генотип комбинацияларига авирулентликни намоён килди. Моногенли холатида Yr1, Yr7, YrSu, Yr4+, Yr3N, YrSp, Yr2+, Yr8, Yr17, Yr29, Yr9, Yr25, Yr27 генларига ва битта ўсимлик генотип Yr6+Yr2, Yr9+Yr2+Cle, Yr6+Yr2, Yr8+YrAPR, Yr31+APR комбинацияларига вирулентлик кузатилди.

Ушбу вилоятнинг Зангиота туманидан олиб келинган сариқ занг намунаси вирулентлик хусусияти ўрганилганда, халқаро тўпламидаги дифференциатор навлардан Chinese 166, Lee, Heine’s Kolben, Suwon92 x Omar, Clement навларини, шунингдек Европа тўпламидаги навлардан Reichersberg 42, Nord Desprez, Compair, Spalding Prolific, Heines VII навларини ҳамда қўшимча линиялардан Yr8 Avocet NIL, Yr17 Avocet NIL, Lal Bahodur (Yr29), Yr7 Avocet NIL, Fed4/Kavkaz (Yr9), Yr27 Avocet NIL ларни ушбу изолят касаллантиргани кузатилди (3-жадвал).

3-жадвал.

Тошкент вилояти Зангиота туманидан (баландлик-361м, N 41.17977, E 069.07796) олинган сариқ занг касаллиги баҳолаш натижалари

Халқаро тўплам		**Генлар**	**Касалланиш даражаси (балл)**		**Ўнлик даража қиймат-лари**	**Вирулент (+), Авирулент (-)**
			1 қайтарик	**2 қайтарик**		
1	Chinese 166	Yr1	7	7	1(=2°)	+

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

2	Lee	Yr7	8	8	2(=2^1)	+
3	Heine's Kolben	Yr6,Yr2	8	7	4(=2^2)	+
4	Vilmorin 23	Yr3V	6	6	8(=2^3)	-
5	Moro	Yr10	0	0	16(=2^4)	-
6	Strubes Dickopf	YrSd	3	4	32(=2^5)	-
7	Suwon92 x Omar	YrSu	8	8	64(=2^6)	+
8	Clement	Yr9,Yr2+,Cle	7	8	128(=2^7)	+
9	Triticum spelta	Yr5	0	0	256(=2^8)	-
			199			
Европа тўплам						
10	Hybrid 46	Yr4+	6	5	1(=2°)	-
11	Reichersberg 42	Yr7+	7	8	2(=2^1)	+
12	Heine's Peko	Yr6,Yr2+	5	4	4(=2^2)	-
13	Nord Desprez	Yr3N	7	7	8(=2^3)	+
14	Compare	Yr8,YrAPR	8	7	16(=2^4)	+
15	Carstens V	Yr32,YrCv	6	6	32(=2^5)	-
16	Spalding Prolific	YrSp	8	8	64(=2^6)	+
17	Heines VII	Yr2+	7	8	128(=2^7)	+
			218			
Қўшимча						
1	Yr8 Avocet NIL	Yr8	7	7		+
2	Yr17 Avocet NIL	Yr17	8	7		+
3	Lal Bahodur (Yr29)	Yr29	8	9		+
4	Pastor (Yr31+APR)	Yr31+APR	6	6		-
5	Yr7 Avocet NIL	Yr7	7	8		+
6	Fed4/Kavkaz (Yr9)	Yr9	7	7		+
7	TPI 1295 (Yr25)	Yr25	5	6		-
8	Yr27 Avocet NIL	Yr27	7	7		+
9	Morocco		9	8		+

Тошкент вилояти Зангиота туманидан келтирилган сариқ занг касаллиги (*Puccina striiformis f.sp. tritici*) изолятининг Халқаро ва Европа тўпламлари дифференциатор навларга вирулентлик қайд этилганлари 2.1-жадвалда

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

кўрсатилган даража қийматларини қўшиш орқали ирқ формуласи **199E218** эканлиги ҳисобланди.

Қўшимча изоген линиялар ва дифференциатор навларини боҳолаш натижаларини умумлаштириб Зангиота туманидан олиб келинган сариқ занг касаллигининг 199E218 ирқи Yr3V, Yr10, YrSd, Yr5, Yr4, Yr25 генларининг моногенли холатида хамда Yr6+Yr2, Yr32+YrCv, Yr31+APR генлар комбинацияларига авирулентлик кузатилди. Шу билан бирга Yr1, Yr7, YrSu, Yr7+, Yr3N, YrSp, Yr2+, Yr8, Yr17, Yr29, Yr7, Yr9, Yr27 генларига хамда Yr6+Yr2, Yr9+Yr2+Cle, Yr8+YrAPR генлар комбинацияларига вирулентликни намоён қилди.

Тошкент вилоятининг Янгийўл туманидан олиб келинган сариқ занг намунасида бахолаш ишлари ўтказилганда, халқаро тўпламдан Chinese 166, Lee, Heine’s Kolben, Suwon92 x Omar, Clement навларини, шунингдек Европа тўпламидагилардан Reichersberg 42, Nord Desprez, Compair, Spalding Prolific, Heines VII навларини ҳамда қўшимча линиялардан Yr8 Avocet NIL, Yr17 Avocet NIL, Lal Bahodur (Yr29), Yr7 Avocet NIL, Fed4/Kavkaz (Yr9), Yr27 Avocet NIL ларни ушбу изолят касаллантиргани кузатилди (4-жадвал).

4-жадвал.

Тошкент вилояти Янгийўл туманидан (баландлик-328м, N 41.02783, E 068.86272) олинган сариқ занг касаллиги изолятини баҳолаш натижалари

Халқаро тўплам		**Генлар**	**Касалланиш даражаси (балл)**		**Ўнлик даража қиймат-лари**	**Вирулент (+), Авирулент (-)**
			1 қайтарик	**2 қайтарик**		
1	Chinese 166	Yr1	7	7	1(=2°)	+
2	Lee	Yr7	7	8	$2(=2^1)$	+
3	Heine’s Kolben	Yr6,Yr2	7	7	$4(=2^2)$	+
4	Vilmorin 23	Yr3V	8	7	$8(=2^3)$	+
5	Moro	Yr10	0	0	$16(=2^4)$	-
6	Strubes Dickopf	YrSd	6	5	$32(=2^5)$	-
7	Suwon92 x Omar	YrSu	7	7	$64(=2^6)$	+
8	Clement	Yr9,Yr2+,Cle	7	8	$128(=2^7)$	+
9	Triticum spelta	Yr5	0	0	$256(=2^8)$	-
207						
Европа тўплам						

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

10	Hybrid 46	Yr4+	0	2	1(=2°)	-
11	Reichersberg 42	Yr7+	7	7	2(=2^1)	+
12	Heine‘s Peko	Yr6,Yr2+	8	7	4(=2^2)	+
13	Nord Desprez	Yr3N	7	7	8(=2^3)	+
14	Compare	Yr8,YrAPR	6	6	16(=2^4)	-
15	Carstens V	Yr32,YrCv	7	8	32(=2^5)	+
16	Spalding Prolific	YrSp	8	7	64(=2^6)	+
17	Heines VII	Yr2+	7	7	128(=2^7)	+
238						
Қўшимча навлар						
1	Yr8 Avocet NIL	Yr8	6	5		-
2	Yr17 Avocet NIL	Yr17	8	7		+
3	Lal Bahodur (Yr29)	Yr29	7	8		+
4	Pastor (Yr31+APR)	Yr31+APR	7	8		+
5	Yr7 Avocet NIL	Yr7	7	7		+
6	Fed4/Kavkaz (Yr9)	Yr9	8	7		+
7	TPI 1295 (Yr25)	Yr25	7	8		+
8	Yr27 Avocet NIL	Yr27	8	8		+
9	Morocco		9	9		+

Сариқ занг касаллигининг Янгийўл туманидан олиб келинган изоляти вирулентлик қайд этилган навларнинг даража қийматларини қўшиш орқали жахон дифференциатор навлар тўпламида «207» ва Европа дифференциатор навлар тўпламида «238» қийматни ташкил қилди. Демак, Тошкент вилоятининг Янгийўл туманидан келтирилган сариқ занг намунаси **207E238** ирқи эканлиги қайд этилди.

Тошкент вилоятининг Бекобод туманидан келинган сариқ занг замбуруғи намунасини ирқ таркиби ўрганилда ва ушбу намунани баҳолаш натижаларига кўра Халқаро тўпламидаги навлардан Chinese 166, Lee, Heine’s Kolben, Vilmorin 23, Strubes Dickopf, Suwon92 x Omar, Clement ларига, ва Европа тўпламидаги навлардан Reichersberg 42, Compair, Carstens V, Spalding Prolific, Heines VII ларига ва Yr8 Avocet NIL, Yr17 Avocet NIL, Pastor (Yr31+APR), Yr7 Avocet NIL, Fed4/Kavkaz (Yr9), Yr27 Avocet NIL линияларга вирулент эканлиги қайд

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

қилини (5-жадвал). Ирқ Yr10, Yr5, Yr4+, Yr3N, Yr29, Yr25 генларига ва Yr6,Yr2 генлар комбинациясига авирулентликни шунингдек Yr1, Yr7, Yr3V, YrSd, YrSu, YrSp, Yr2, Yr8, Yr17, Yr9, Yr25, Yr27 генларга ҳамда Yr6+Yr2, Yr9+Yr2+Cle, Yr8+YrAPR, Yr32+YrCv, Yr31+APR генлар комбинацияларига нисбатан вирулентликни намоён қилиб, ўз навбвтида **239E242** ирқ формуласига эга ирқ эканлиги қайд этилди.

5-жадвал.

Тошкент вилояти Бекобод туманидан (баландлик-368м, N40.44484, E069.22336) олинган сариқ занг касаллиги изолянтини баҳолаш натижалари

Халқаро тўплам		**Генлар**	**Касалланиш даражаси (балл)**		**Ўнлик даража қиймат-лари**	**Вирулент (+), Авирулент (-)**
			1 қайтарик	**2 қайтарик**		
1	Chinese 166	Yr1	7	8	1(=2°)	+
2	Lee	Yr7	7	7	2(=2^1)	+
3	Heine’s Kolben	Yr6,Yr2	7	9	4(=2^2)	+
4	Vilmorin 23	Yr3V	8	7	8(=2^3)	+
5	Moro	Yr10	0	0	16(=2^4)	-
6	Strubes Dickopf	YrSd	7	7	32(=2^5)	+
7	Suwon92 x Omar	YrSu	8	7	64(=2^6)	+
8	Clement	Yr9,Yr2+,Cle	7	8	128(=2^7)	+
9	Triticum spelta	Yr5	0	0	256(=2^8)	-
239						
Европа тўплам						
10	Hybrid 46	Yr4+	4	5	1(=2°)	-
11	Reichersberg 42	Yr7+	7	7	2(=2^1)	+
12	Heine‘s Peko	Yr6,Yr2+	6	6	4(=2^2)	-
13	Nord Desprez	Yr3N	6	5	8(=2^3)	-
14	Compare	Yr8,YrAPR	7	8	16(=2^4)	+
15	Carstens V	Yr32,YrCv	8	8	32(=2^5)	+
16	Spalding Prolific	YrSp	8	9	64(=2^6)	+
17	Heines VII	Yr2+	8	8	128(=2^7)	+
242						
Қўшимча навлар						
1	Yr8 Avocet NIL	Yr8	8	8		+
2	Yr17 Avocet NIL	Yr17	7	8		+

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

3	Lal Bahodur (Yr29)	Yr29	6	6		-
4	Pastor (Yr31+APR)	Yr31+APR	7	8		+
5	Yr7 Avocet NIL	Yr7	8	7		+
6	Fed4/Kavkaz (Yr9)	Yr9	9	9		+
7	TPI 1295 (Yr25)	Yr25	6	6		-
8	Yr27 Avocet NIL	Yr27	8	9		+
9	Morocco		9	9		+

Халқаро тўплам дифференциатор навларидан фақатгина Moro ва Triticum spelta лар, Европа тўпламидан Hybrid 46, Heine‘s Peko, Nord Desprez лар, Қўшимча линиялардан Lal Bahodur (Yr29), TPI 1295 (Yr25) лар ушбу изолятга нисбатан чидамлиликни намоён қила олди.

Олиб борилган тажрибаларимиз давомида Жиззах вилоятининг Ғаллаорол тумани ғалла майдонларидан келтирилган сариқ занг касаллиги изоляти хам тахлил қилинди ва унинг ирқ формуласи ҳисоблаб топилди. Ушбу ирқ Халқаро тўпламдан Chinese 166, Lee, Heine’s Kolben, Vilmorin 23, Suwon92 x Omar, Clement навларини, Европа тўпламидан Hybrid 46, Nord Desprez, Compare, Spalding Prolific, Heines VII навларни касаллантири олди ва ирқ формуласи **207E217** эканлиги қайд этилди. Шу билан бирга қўшимча изоген линиялардан Yr8 Avocet NIL, Yr17 Avocet NIL, Pastor (Yr31+APR), Yr7 Avocet NIL, Fed4/Kavkaz (Yr9), TPI 1295 (Yr25), Yr27 Avocet NIL ларга вирулентликни ва Lal Bahodur (Yr29) га авирулентликни намоён қилди (6-жадвал).

6-жадвал.

Жиззах вилояти Ғаллаорол туманидан (баландлик-566м, N 40.01708, E 067.60447) олинган сариқ занг касаллиги изолянтини баҳолаш натижалари

Халқаро тўплам		**Генлар**	**Касалланиш даражаси (балл)**		**Ўнлик даража қиймат-лари**	**Вирулент (+), Авирулент (-)**
			1 қайтарик	**2 қайтарик**		
1	Chinese 166	Yr1	8	7	1(=2°)	+
2	Lee	Yr7	8	7	2(=2^1)	+
3	Heine’s Kolben	Yr6,Yr2	7	7	4(=2^2)	+
4	Vilmorin 23	Yr3V	7	8	8(=2^3)	+
5	Moro	Yr10	0	0	16(=2^4)	-

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

6	Strubes Dickopf	YrSd	5	6	32(=2^5)	-
7	Suwon92 x Omar	YrSu	8	7	64(=2^6)	+
8	Clement	Yr9,Yr2+, Cle	7	7	128(=2^7)	+
9	Triticum spelta	Yr5	0	0	256(=2^8)	-
207						
Европа тўплам						
10	Hybrid 46	Yr4+	7	8	1(=2°)	+
11	Reichersberg 42	Yr7+	6	6	2(=2^1)	-
12	Heine‘s Peko	Yr6,Yr2+	5	6	4(=2^2)	-
13	Nord Desprez	Yr3N	8	7	8(=2^3)	+
14	Compare	Yr8,YrAPR	8	7	16(=2^4)	+
15	Carstens V	Yr32,YrCv	6	6	32(=2^5)	-
16	Spalding Prolific	YrSp	7	7	64(=2^6)	+
17	Heines VII	Yr2+	7	7	128(=2^7)	+
217						
Қўшимча навлар						
1	Yr8 Avocet NIL	Yr8	8	8		+
2	Yr17 Avocet NIL	Yr17	7	7		+
3	Lal Bahodur (Yr29)	Yr29	6	6		-
4	Pastor (Yr31+APR)	Yr31+APR	8	7		+
5	Yr7 Avocet NIL	Yr7	8	8		+
6	Fed4/Kavkaz (Yr9)	Yr9	9	8		+
7	TPI 1295 (Yr25)	Yr25	7	7		+
8	Yr27 Avocet NIL	Yr27	8	9		+
9	Morocco		9	9		+

Генотипида сарик занг касаллигига жавоб беррувчи генлари маълум булган изоген линиялар ва дифференциатор навларни боҳолаш натижаларини умумлаштириб, 207E217 иркси Yr1, Yr7, Yr3V, YrSu, Yr4+, Yr3N, YrSp, Yr2+, Yr8, Yr17, Yr7, Yr9, Yr27, Yr25 генларининг моногенли холатида хамда Yr9+Yr2+Cle, Yr8+YrAPR, Yr31+APR генларининг битта ўсимликда комбинация ҳолатига вирулентликни шунингдек Yr10, YrSd, Yr5, Yr7+, Yr29

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

генлари ва Yr6+Yr2+, Yr32+YrCv генлар комбинациясига вирулентликни намоён килди.

Қашқадарё вилоятининг Китоб туманидан келтирилган намуна дифференциатор навлар ва қўшимча изоген линияларни касаллантира олиш хусусияти баҳоланганда халқаро тўпламдаги Chinese 166, Lee, Heine's Kolben, Strubes Dickopf, Suwon92 x Omar, Clement навларини, шунингдек Европа тўпламидаги навлардан Hybrid 46, Reichersberg 42, Heine‘s Peko, Nord Desprez, Compair, Spalding Prolific, Heines VII навларини ҳамда қўшимча линиялардан Yr8 Avocet NIL, Yr17 Avocet NIL, Lal Bahodur (Yr29), Pastor (Yr31+APR), Yr7 Avocet NIL, Fed4/Kavkaz (Yr9), TPI 1295 (Yr25) ларни ушбу изолят касаллантиргани кузатилди (7-жадвал). Дифференциатор навлардан касалланганларини даража қиймалари қўшилди. Қўшиш натижаси ушбу изолятни ирқ формуласи **231E223** эканлигини кўрсатди.

7-жадвал.

Қашқадарё вилояти Китоб туманидан (баландлик-713м, N 39.12997, E 066.86510) олинган сариқ занг касаллиги изолянтини баҳолаш натижалари

Халқаро тўплам		Генлар	Касалланиш даражаси (балл)		Ўнлик даража қиймат-лари	Вирулент (+), Авирулент (-)
			1 қайтарик	2 қайтарик		
1	Chinese 166	Yr1	8	7	1(=2°)	+
2	Lee	Yr7	7	7	$2(=2^1)$	+
3	Heine's Kolben	Yr6,Yr2	8	7	$4(=2^2)$	+
4	Vilmorin 23	Yr3V	5	4	$8(=2^3)$	-
5	Moro	Yr10	0	0	$16(=2^4)$	-
6	Strubes Dickopf	YrSd	7	8	$32(=2^5)$	+
7	Suwon92 x Omar	YrSu	7	7	$64(=2^6)$	+
8	Clement	Yr9,Yr2+,Cle	8	7	$128(=2^7)$	+
9	Triticum spelta	Yr5	0	0	$256(=2^8)$	-
231						
Европа тўплам						
10	Hybrid 46	Yr4+	7	7	1(=2°)	+
11	Reichersberg 42	Yr7+	7	8	$2(=2^1)$	+
12	Heine‘s Peko	Yr6,Yr2+	7	8	$4(=2^2)$	+
13	Nord Desprez	Yr3N	8	9	$8(=2^3)$	+
14	Compair	Yr8,YrAPR	7	7	$16(=2^4)$	+

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

15	Carstens V	Yr32,YrCv	6	6	32(=2^5)	-
16	Spalding Prolific	YrSp	7	7	64(=2^6)	+
17	Heines VII	Yr2+	7	7	128(=2^7)	+
223						
Қўшимча навлар						
1	Yr8 Avocet NIL	Yr8	8	7		+
2	Yr17 Avocet NIL	Yr17	7	8		+
3	Lal Bahodur (Yr29)	Yr29	8	8		+
4	Pastor (Yr31+APR)	Yr31+APR	7	7		+
5	Yr7 Avocet NIL	Yr7	8	7		+
6	Fed4/Kavkaz (Yr9)	Yr9	7	7		+
7	TPI 1295 (Yr25)	Yr25	8	7		+
8	Yr27 Avocet NIL	Yr27	6	6		-
9	Morocco		9	9		+

Халқаро ва Европа дифференциатор навлари шунингдек қўшимча изоген линиялар боҳолаш натижаларини умумлаштириб сариқ занг касаллигининг 231E223 ирқи Yr3V, Yr10, Yr5, Yr27 генларининг моногенли холатига хамда Yr32,YrCv генларининг битта генотип комбинациясига авирулентликни намоён килди. Yr1, Yr7, YrSd, YrSu, Yr4+, Yr3N, YrSp, Yr2+, Yr8, Yr17, Yr29, Yr9, Yr25 генларига ва битта ўсимлик генотип Yr6+Yr2, Yr9+Yr2+Cle, Yr8+YrAPR, Yr31+APR комбинацияларига вирулентлик кузатилди. Бу эса 2019 йил Самарқанд вилояти Оқдарё туманидан келтирилган сариқ занг замбуруғи изоляти билан битта ирқ таркибига мансублигини билдиради. Ўзбекистон ҳудудида шамоллар асосан шимол, шимолий-ғарбдан бўлишини ҳисобга олган ҳолда, 231E223 ирқи Самарқанд вилояти Оқдарё туманидан Қашқадарё вилояти Китоб туманига шамоллар ёрдамида миграция қилгани мумкинлигини тахмин қилишимиз мумкин.

Тадқиқотларимиз давомида Сурхондарё вилоятини Денов ва Олтинсой туманларидан келтирилган изолятлар вирулентлик хусусиятлари ўрганилди.

Денов туманидан йиғиб келинган сариқ занг замбуруғи намунаси Халқаро тўпламдан Chinese 166, Lee, Vilmorin 23, Strubes Dickopf, Suwon92 х

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

Omar, Clement навларига вирулентликни ва Heine’s Kolben, Moro, Triticum spelta навларига авирулентликни намоён қилди. Европа тўпламидан Hybrid 46, Reichersberg 42, Heine‘s Peko, Nord Desprez, Carstens V, Spalding Prolific, Heines VII навларига вирулентлик ҳамда фақат Compair навига авирулентлик кузатилди. Изоген линиялардан Yr17 Avocet NIL, Lal Bahodur (Yr29), Pastor (Yr31+APR), Yr7 Avocet NIL, Fed4/Kavkaz (Yr9), Yr27 Avocet NIL ларга вирулентлик шунингдек Yr8 Avocet NIL, TPI 1295 (Yr25) линияларига нисбатан авирулентлик кузатилди (8-жадвал). Баҳолаш натижалари изолят ирқ формуласи **235E239** эканлигини кўрсатди.

8-жадвал.

Сурхондарё вилояти Денов туманидан (баландлик-540м, N 38. 33192, E 067.90934) олинган сариқ занг касаллиги изолянтини баҳолаш натижалари

Халқаро тўплам		Генлар	Касалланиш даражаси (балл)		Ўнлик даража қиймат-лари	Вирулент (+), Авирулент (-)
			1 қайтарик	2 қайтарик		
1	Chinese 166	Yr1	7	8	1(=2°)	+
2	Lee	Yr7	8	8	2(=2^1)	+
3	Heine’s Kolben	Yr6,Yr2	4	5	4(=2^2)	-
4	Vilmorin 23	Yr3V	8	7	8(=2^3)	+
5	Moro	Yr10	0	0	16(=2^4)	-
6	Strubes Dickopf	YrSd	7	7	32(=2^5)	+
7	Suwon92 x Omar	YrSu	8	7	64(=2^6)	+
8	Clement	Yr9,Yr2+,Cle	7	8	128(=2^7)	+
9	Triticum spelta	Yr5	0	0	256(=2^8)	-
235						
Европа тўплам						
10	Hybrid 46	Yr4+	8	8	1(=2°)	+
11	Reichersberg 42	Yr7+	7	7	2(=2^1)	+
12	Heine‘s Peko	Yr6,Yr2+	8	7	4(=2^2)	+
13	Nord Desprez	Yr3N	7	7	8(=2^3)	+
14	Compair	Yr8,YrAPR	6	6	16(=2^4)	-
15	Carstens V	Yr32,YrCv	8	7	32(=2^5)	+
16	Spalding Prolific	YrSp	8	8	64(=2^6)	+
17	Heines VII	Yr2+	7	8	128(=2^7)	+
239						
Қўшимча навлар						

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

1	Yr8 Avocet NIL	Yr8	4	5		-
2	Yr17 Avocet NIL	Yr17	7	7		+
3	Lal Bahodur (Yr29)	Yr29	9	8		+
4	Pastor (Yr31+APR)	Yr31+APR	8	7		+
5	Yr7 Avocet NIL	Yr7	7	8		+
6	Fed4/Kavkaz (Yr9)	Yr9	9	9		+
7	TPI 1295 (Yr25)	Yr25	6	5		-
8	Yr27 Avocet NIL	Yr27	7	7		+
9	Morocco		9	9		+

Сарик занг касаллигига жавоб берувчи генлари маълум булган изоген линиялар ва дифференциатор навларни баҳолаш натижаларини умумлаштириб, 235E239 ирқи Yr1, Yr7, Yr3V, YrSd, YrSu, Yr4+, Yr3N, YrSp, Yr2+, Yr17, Yr29, Yr9, Yr27 генларининг моногенли холатига хамда Yr9+Yr2+Cle,Yr6+Yr2+, Yr32,YrCv, Yr31+APR генларининг битта ўсимликда комбинация ҳолатига вирулентликни намоён килди. Шу билан бирга, Yr10, Yr5, Yr8, Yr25 генларига ва Yr6+Yr2, Yr8+YrAPR генлар комбинацияларига авирулентлик кузатилди.

Ушбу вилоятнинг Олтинсой туманидан олиб келинган изолятни баҳолаш натижаларига кўра ушбу изолят Халқаро тўпламдан Chinese 166, Lee, Suwon92 x Omar, Clement навларини касаллантирганини ҳамда Heine’s Kolben, Vilmorin 23, Moro, Strubes Dickopf, Triticum spelta навларни касаллантирмаганини кўришимиз мумкин. Европа тўпламидан эса Nord Desprez, Compair, Spalding Prolific, Heines VII навларни касаллантирганини шунингдек Hybrid 46, Reichersberg 42, Heine‘s Peko, Carstens V навларини касаллантирмагани маълум бўлди. Қўшимча сифатида олинган линиялардан Yr8 Avocet NIL, Yr17 Avocet NIL, Lal Bahodur (Yr29), Pastor (Yr31+APR), Yr7 Avocet NIL, Fed4/Kavkaz (Yr9) ларни касаллантирганини ва TPI1295 (Yr25), Yr27Avocet NIL линияларни касаллантирмаганини кўришимиз мумкин (9-жадвал). Дифференциатор навларни касаллантира олган навларни мувофиқ равишда даража қийматларини қўшиш орқали, ушбу изолятни ирқ формуласи **195E216** эканлиги қайд этилди.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

9-жадвал.

Сурхондарё вилояти Олтинсой тумани (баландлик-530м, N 38.12002, E 067.71611) олинган сариқ занг касаллиги изолянтини баҳолаш натижалари

Халқаро тўплам		Генлар	Касалланиш даражаси (балл)		Ўнлик даража қиймат-лари	Вирулент (+), Авирулент (-)
			1 қайтарик	2 қайтарик		
1	Chinese 166	Yr1	8	8	1(=2°)	+
2	Lee	Yr7	7	7	$2(=2^1)$	+
3	Heine's Kolben	Yr6,Yr2	5	4	$4(=2^2)$	-
4	Vilmorin 23	Yr3V	4	4	$8(=2^3)$	-
5	Moro	Yr10	0	0	$16(=2^4)$	-
6	Strubes Dickopf	YrSd	6	5	$32(=2^5)$	-
7	Suwon92 x Omar	YrSu	8	8	$64(=2^6)$	+
8	Clement	Yr9,Yr2+,Cle	8	7	$128(=2^7)$	+
9	Triticum spelta	Yr5	0	0	$256(=2^8)$	-
195						
Европа тўплам						
10	Hybrid 46	Yr4+	3	2	1(=2°)	-
11	Reichersberg 42	Yr7+	4	4	$2(=2^1)$	-
12	Heine's Peko	Yr6,Yr2+	4	3	$4(=2^2)$	-
13	Nord Desprez	Yr3N	7	7	$8(=2^3)$	+
14	Compair	Yr8,YrAPR	7	7	$16(=2^4)$	+
15	Carstens V	Yr32,YrCv	6	5	$32(=2^5)$	-
16	Spalding Prolific	YrSp	7	8	$64(=2^6)$	+
17	Heines VII	Yr2+	7	7	$128(=2^7)$	+
216						
Қўшимча навлар						
1	Yr8 Avocet NIL	Yr8	8	7		+
2	Yr17 Avocet NIL	Yr17	7	7		+
3	Lal Bahodur (Yr29)	Yr29	7	7		+
4	Pastor (Yr31+APR)	Yr31+APR	8	7		+
5	Yr7 Avocet NIL	Yr7	8	8		+
6	Fed4/Kavkaz (Yr9)	Yr9	7	8		+
7	TPI 1295 (Yr25)	Yr25	5	6		-
8	Yr27 Avocet NIL	Yr27	4	3		-
9	Morocco		9	8		+

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

195E216 ирқи сариқ занг касаллиги чидамлилик генлари маълум дифференциатор навлар ва изоген линияларни касаллантира олиш хусусиятларини ўрганиш орқали генлар ва генлар комбинвцияларига нисбатан вирулентлигига баҳо берилди. Ушбу ирқ Yr1, Yr7, YrSu, Yr3N, YrSp, Yr2+, Yr8, Yr17, Yr29, Yr7, Yr9 генлари ва Yr9,Yr2+,Cle, Yr8,YrAPR, Yr31+APR генлар комбинацияларига вирулент, шунингдек Yr3V, Yr10, YrSd, Yr5, Yr4+, Yr7+, Yr25, Yr27 генлариинг моногенли холатига ва Yr6+Yr2, Yr32+YrCv генлар комбинацияларига авирулент эканлиги кузатилди.

Олинган натижаларга кўра, Фарғона вилояти Учкўприк туманидан **203E231**, Тошкент вилояти Чиноз туманидан **199E223**, Зангиота туманидан **199E218**, Янгийўл туманидан **207E238**, Бекобод туманидан **239E242**, Жиззах вилоятининг Ғаллаорол туманидан **207E217**, Қашқадарё вилояти Китоб туманидан **231E223**, Сурхондарё вилояти Денов туманидан **235E239,** Олтинсой туманида **195E216** ирқлари аниқланди.

ХУЛОСА

Ушбу ирқларнинг умумий вирулентлик даражалари бир бирига яқинлиги, Республика сариқ занг популяциялари орасида катта фарқ йўқлиги ва хилма хиллик даражаси нисбатан паст эканлиги кузатилди. Бундан ташқари Тошкент вилоятининг Чиноз ва Янгийўл туманлари ирқлари деярли бир популяция эканлиги, Жиззах вилоятида аниқланган ирқ Тошкент вилоятига яқинлиги, Қашқадарё ва Сурхондарё ирқлари бошқа вилоят ирқларидан нисбатан фарқ қилиши маълум бўлди.

REFERENCES

1. Койишбоев М. Болезни зерновых культур. – Алма-ата: Бастау, 2002. –367 с.
2. Кратенко В.П., Солотчина Г.Ф., Баженова В.М. “Подрезка-3.1” Изучение внутрипопуляционных процессов у возбудителей ржавчины пшеницы с целью прогнозирования состояния генофонда вирулентности // Отчет за 1987 год (годовой). –Ташкент, 1987. –48 с.
3. Солотчина Г.Ф., Баженова В.М., Якубова Е.В. Тема: “Подрезка-3.1” Изучение внутрипопуляционных процессов у возбудителей ржавчины пшеницы с целью прогнозирования состояния генофонда вирулентности // Отчет о НИР за 1986-1990 гг. (итоговый). –Ташкент, 1990. –90 с.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-626-645

4. Чкаников Д.И., Коновалова Н.Е., Суздальская М.В., Смирнова Л.А., Куликова Г.Н. Изучение динамики расового состава возбудителей ржавчинных заболеваний зерновых культур на территории СССР// Итоговый отчет за 1976-1980 годы. –Тема № 9.2-179-76 ПК. Ташкент, 1980. –125 с.
5. Шаварина З.Г. Изучение внутрипопуляционных процессов у возбудителей ржавчины пшеницы с целью прогнозирования состояния генофонда вирулентности. –Отчеты о НИР Среднеазиатского НИИ фитопатологии за 1977-1989. Ташкент, 1990. – 94 с.
6. 138. Тўрақулов Х.С., Бабоев С.К., Гулмуродов Р.А. Буғдойнинг занг касалликлари. Тошкент-2005. -Б.52.
7. George N Agrios “Plant pathology” 2005. Fifth edition. Elsevier Academic press. Florida, USA. 948 pages
8. Hovmøller M. S. and Justesen A. F. 2009. “Rates of evolution in *Puccinia striiformis*”. //12th International Cereals Rusts and Powdery Mildews Conference. October 13-16, 2009. Antalya, Turkey. p-21
9. Johnson, R., Stubbs, R.W., Fuchs, E., and Chamberlian, N.H. 1972. Nomenclature for physiologic races of *Puccinia striiformis* infecting wheat. Trans. Br. Mycol. Soc. 58:475-480.
10. Kolmer J., Chen X., and Jin Y. 2009. Diseases which challenge global wheat production-The wheat rusts. Pages 89-124 in: Wheat, Science and Trade. B. E. Carver, ed. Wiley-Blackwell, Ames, IA.
11. McIntosh, R.A., Wellings, C.R., and Park, R.F. Wheat rusts: an atlas of resistance genes. Commonwealth Scientific and Industrial Research Organization, Australia, and Kluwer Academic Publishers, Dordrecht, Netherlands. 1995. –205 p.
12. McNeal F.H., Konzak C.F., Smith E.P., Tate W.S., Russel T.S. A uniform system for recording and processing cereal research data. USDA, ARS, 1971: pp. 34-121
13. Wellings CR (2007) “*Puccinia striiformis* in Australia: a review of the incursion, evolution, and adaptation of stripe rust in the period 1979-2006”. Aust J Agric Res 58:567–575

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-646-651

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ЭКСПОРТ ҚИЛИШДА «GLOBAL G.A.P.» ВА «ORGANIC» СТАНДАРТИНИНГ РОЛИ

А. М. Назаров
З. У. Усмонов
С. Б. Тухтаев
Б. Б. Юсупов
Тошкент давлат аграр университети
nazarov@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Экспортчиларнинг халкаро бозорларда эгаллаган позицияси мустахкамлиги уларнинг ишлаб чиқарган маҳсулотлари рақобатбардошлиги ҳамда рақобатлаша олиш имкониятлари билан ўлчанади. Бугунги кунда жаҳон озиқ-овқат бозорларига ўз маҳсулотларини экспорт қилувчи товар ишлаб чикарувчилар олдида турган энг мухим вазифалардан бири - бу маҳсулотларнинг рақобатбардошлик даражасини бахолай олиш ва туғри аниқлашдир.

Калит сўзлар: “Ўзстандарт” агентлиги ва “Ўзбекозиқовқатхолдинг” ХК, “Global GAP”, “Halal” ва “Organic” сифат стнадартларини жорий этишни жадаллаштириш борасида бир қатор вазифалар юклатилган

GLOBAL G.A.P. IN THE EXPORT OF AGRICULTURAL PRODUCTS AND THE ROLE OF THE ORGANIC STANDARD

ABSTRACT

The strength of the position of exporters in international markets is measured by the competitiveness and competitiveness of their products. One of the most important tasks facing commodity producers today, who export their products to world food markets, is to assess and accurately determine the level of competitiveness of products.

Keywords: Uzstandard Agency and Uzbekiston Holding FE, Global GAP, Halal and Organic set a number of tasks to accelerate the implementation of quality standards

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-646-651

КИРИШ

Ўзбекистон Республикаси Президентнинг 18.05.2020 йилдаги “Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг сифат ва хавфсизлик кўрсаткичлари халқаро стандартларга мувофиқлигини таъминлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони имзоланди.

Жаҳон бозорида маҳсулотларга қўйилган сифат ва хавфсизлик талабларининг тобора кучайиб бориши, юртимизда етиштирилаётган маҳсулотларнинг халқаро бозорлардаги ўрнини мустаҳкамлаш учун қўшимча чоралар кўришни талаб қилмоқда.

Органик қишлоқ хўжалиги — жаҳон тренди ҳисобланади. 2019 йилда органик қишлоқ хўжалиги бўйича халқаро бозорлардаги савдо айланмаси 96,7 миллиард еврони ташкил этиб, 71,5 миллион гектар майдонда 2,8 миллион ишлаб чиқарувчи ушбу фаолият тури билан шуғулланган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Экспертларнинг фикрича, дунё органик маҳсулотлари бозорида сўнгги беш йилда йилига ўртача 15 фоиздан ўсишга эришилиб, 2022 йилда савдо айланмаси 212 миллиард долларни ташкил этиши тахмин қилинмоқда.

«Ўзстандарт» агентлиги қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш соҳасидаги салоҳиятини янада ошириш мақсадида халқаро стандартларни соҳага кенг жорий этиш борасида тизимли ишлар олиб борилмоқда.

- Органик қишлоқ хўжалиги тадқиқотлари институтининг маълумотларига кўра, дунёнинг 103 та мамлакатида органик қишлоқ хўжалиги тўғрисида қонун қабул қилинган бўлиб, 6 та мамлакатда қонун ишлаб чиқилмоқда, - дейди «Ўзстандарт» агентлиги матбуот котиби Абдурауф Расулов. - Органик қишлоқ хўжалиги ҳаракати бўйича халқаро федерациянинг Жаҳон органик қишлоқ хўжалиги статистикаси бўйича 2019 йилда Ўзбекистон мева етиштириш бўйича қулай шароитга эга бўлган дунёдаги 10 та давлат қаторига киритилган ва органик мева ишлаб чиқариш учун қулай ер майдонларига эга эканлиги қайд этилган.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-646-651

Қулай шароит ва имкониятлар мавжудлигига қарамасдан, юртимизда органик қишлоқ хўжалигини ривожлантиришга етарли эътибор берилмаётганлиги нафақат атроф-муҳитга, инсонлар саломатлигига, юқори сифатли маҳсулотларни ишлаб чиқаришга, балки ҳудудларнинг экспорт салоҳиятини ошириш ва географиясини кенгайтиришга ҳам салбий таъсир кўрсатмоқда.

Юртимизда Organic ва Global G.A.P. халқаро стандартлари талабларига мувофиқ маҳсулот ишлаб чиқариш, тартибга солиш ва мувофиқлаштириш тизимларини ривожлантириш, қишлоқ ва ўрмон хўжалиги маҳсулотларининг сифат ва хавфсизлик кўрсаткичларини яхшилаш, экспорт географиясини кенгайтириш мақсадида жаҳон мамлакатлари стандартларини қабул қилишга жиддий эътибор қаратилмоқда.

Ҳозирда аграр тармоққа тегишли 1276 та стандарт амалга киритилган. Буларнинг 309 таси халқаро ва 6 таси хорижий давлатларнинг стандартларидан иборат. Шунингдек, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига тегишли етмишга яқин ООН стандартлари қабул қилинди.

Қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат маҳсулотларининг қўшимча қиймат занжирини ташкил этишда иштирок этувчи барча корхона ва ташкилотлар фаолиятларида бажариладиган жараёнларга ISO 28000 церийасига кирувчи 10 та халқаро стандартни жорий этиш мақсадида уларни қабул қилиш ишлари якунланмоқда.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

2020 йилда юртимизда 164 та, шундан 155 таси Global G.A.P., 9 та Organic экспортёр корхоналарга «Global G.A.P.» ва «Organic» стандартларини жорий этиш ва сертификатлаштириш бўйича режа тасдиқланди. Ҳозирда 10 та сертификат тақдим этилган бўлиб, 135 та корхонадан зарур ҳужжатлар олинган.

Агентлик тизимидаги “UzTest” синов лабораториялари Жаҳон банки кредити асосида модернизация қилинмоқда. Кредит маблағларини ўзлаштириш натижасида Республика маркази қошида озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини халқаро стандартлар талабларига мувофиқ сифат ва хавфсизлик кўрсаткичларини аниқлаш имконияти яратилади. Бухоро ва Наманган марказлари қошида янги йўналишдаги маҳсулотлар таркибидаги ГМО миқдорини аниқлаш лабораторияси ташкил этилади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-646-651

Албатта, «Ўзстандарт» агентлиги тизимида олиб борилаётган бундай ишлар юртимизда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари сифатини ошириш билан бирга унинг жаҳон бозорларида рақобатбардошлигини таъминлашга ёрдам беради.

Ўзбекистон дунёдаги бир қатор ривожланган мамлакатлар билан қишлоқ хўжалиги соҳасида келишувларга эришмоқда. Улардан бири Бельгия. Бельгиянинг Гринярд компанияси жаҳонда мева-сабзавот маҳсулотларини ишлаб чиқариш, қайта ишлаш ва сотиш бўйича 4 миллиар евро савдо айланмасига эга бўлган йирик компания ҳисобланади.

Айни вақтда Гринярд компанияси билан инвестиция киритиш, мутахассисларни ўқитиш, экспортбоп қишлоқ хўжалиги махсулотларини ишлаб чиқариш учун уруғларни танлаш, етказиб бериш, иссиқхона комплекслари ва замонавий логистик марказларини ташкил этишга доир “Йўл харитаси”ни ишлаб чиқилган.

Фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгашидан маълум қилишларича, экспортга чиқариладиган маҳсулотларнинг асосий қисмини органик қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ташкил этиш мўлжалланмоқда.

Халқаро органик қишлоқ хўжалиги тадқиқотлари институти таҳлилларига кўра бугунги кунда, дунёдаги 250 дан ортиқ мамлакатнинг 172 таси органик қишлоқ хўжалиги етиштириш билан шуғулланмоқда. 90дан ортиқ мамлакат органик қишлоқ хўжалиги соҳасида меъёрий-ҳуқуқий актларга эга. Органик қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштириш учун дунё бўйича 43,7 миллион гектар ер майдонида 2,3 миллион фермер хўжалиги бандлиги аниқланган.

Бу борада мамлакатимизда ҳам кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 17 октябрда қабул қилинган “Мева-сабзавот маҳсулотларини ташқи бозорларга чиқариш самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори бу борада муҳим аҳамият касб этмоқда.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-646-651

– Аслида юртимизда етиштирилаётган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ҳаммасини органик маҳсулот деб бемалол айтиш мумкин, –дейди Фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши Маркетинг ва экспортга кўмаклашиш бўлими бошлиғи Нажмиддин Мирабдуллаев. –Бироқ, уларнинг қонуний жиҳатдан мустаҳкам қилиб қўйиш жуда муҳим. Шу боис «Global GAP», «Halal» ва «Organic» стандартлари талабларига мувофиқликка сертификатлаштириш бўйича халқаро тан олинган ташкилотлар билан ҳамкорлик ўрнатиш ишлари олиб борилмоқда. Шунингдек, бу стандарт талабларига мувофиқ мева-сабзавот етиштирувчи маҳаллий корхоналарни сертификатлаш бўйича мутахассисларни тайёрлаш чоралари кўрилмоқда.

Барчага маълумки, мамлакатимиз нафақат пахта толаси билан, балки бутун мевалари, узумлари, сабзавот ва полиз маҳсулотлари билан дунёга машҳур. Уларнинг кўпгина турлари ва навлари бошқа мамлакатларда учрамаслиги боис Ўзбекистонда етиштирилаётган мева-сабзавот маҳсулотлари жаҳон қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари бозорида юқори даражада рақобатбардошдир. Хусусан, Ўзбекистонда етиштириладиган узум навлари таркибидаги шакар моддаси 18–30 фоизни ташкил этади. Помидор таркибидаги қуруқ моддалар миқдори эса 5,5 фоиздан ошади. Бу кўрсаткичлар европалик ишлаб чиқарувчиларнинг шундай маҳсулотларидагидан анча юқори бўлиб, шуниси билан харидорни ўзига тортади.

– Ўзбекистон мева-сабзавот маҳсулотининг ўта қимматли навларини етиштириш, қайта ишлаш ва экспорт қилиш соҳасида катта салоҳиятга эга, – дейди Н. Мирабдуллаев.– Аграр секторда экспортга мўлжалланган маҳсулот ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш ва уни қайта ишлайдиган саноатни етакчи ўринга кўтариш қишлоқ хўжалигида барқарор иқтисодий ўсишни таъминлайди. Ушбу вазифани ҳал қилиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотининг сифатини ҳамда уни қайта ишлайдиган корхоналарнинг самарадорлигини оширишни, ички ва ташқи сотиш бозорларини янада кенгайтиришни талаб қилмоқда. Шу боис қишлоқ хўжалиги экинларининг минтақалар тупроқ-иқлим шароитига мослаштирилган янги истиқболли навларини яратиш бўйича аниқ мақсадли ишлар олиб борилмоқда, бу эса, охир-оқибатда, ишлаб чиқарилаётган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини экспорт қилиш имкониятини оширади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-646-651

ХУЛОСА

Шу ўринда қайд этиш жоизки, экспорт қилинаётган қишлоқ хўжалиги маҳсулотининг сифатини самарали назорат қилиш масалаларида мулкдорлар бир қатор қийинчиликларга учрамоқда. Бунда халқаро талабларга жавоб берадиган синов марказлари ва лабораториялар етишмаслиги сезилмоқда. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотини етиштириш, ташиш, унга ишлов бериш, қайта ишлаш, қадоқлаш ва истеъмолчиларга сотишнинг ресурсларни тежайдиган технологияларини жорий этиш билан бир вақтда озиқ-овқат маҳсулотларининг экологик хавфсизлигини таъминлаш зарур. Шунингдек, қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг ҳуқуқий асосларини ташкил этувчи қонунчилик лойиҳалари ва ташаббуслар ҳамда амалдаги қонунчилик, органик қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг ҳуқуқукий асослари ишлаб чиқилиши лозим.

REFERENCES

1. Ўзбекистон республикаси Вазирлар маҳкамасининг 2019 йил 14 мартдаги “Ўзстандарт агентлиги ҳузуридаги стандартлаштириш, сертификатлаш ва техник жиҳатдан тартибга солиш илмий-тадқиқот институти фаолиятини ташкил этиш тўғрисидаги”ги 220-сонли қарори (1-4 илова)
2. Абдувалиев А.А., “Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш” Дарслик “Шарқ” 2018. 607-Б.
3. Парпиев М.П., Назаров А.М. “Стандартлаштириш асослари”. Ўқув қўлланма. –Тошкент: ТДАУ, 2020. 78 б.
4. Буриев Х., Жураев Р., Алимов О. Мева-сабзавотларни саклаш ва уларга дастлабки ишлов бериш. Т.: «Мехнат», 2002.
5. Орипов Р.О. ва бош. Кишлок хужалиги маҳсулотларини саклаш ва кайта ишлаш технологияси. Т.: «Мехнат», 1991.
6. Остонакулов Т.Э., Нарзиева С.Х. Мевачилик асослари. Укув кулланма. Т.: 2010.
7. Бузнашвиди П.Ш., Устинников В.Д., Степанов В.Н. Экструдированные продукты // Пищевая промышленность. 1990. № 2. С.41.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-652-662

A.VAMBERINING “O’RTA OSIYOGA SAYOHAT” ASARIDA BUXORO VA SAMARQAND SHAHRI TARIXIY- ME’MORIY BINOLARI, HAMDA, ZIYORATGOHLARINING TADQIQ ETILISHI

Sunnat Shavkat o’g’li Nasilloyev
Buxoro Davlat Universiteti o’qituvchisi

Feruza Zoyirovna Sirocheva
Buxoro Davlat Universiteti 1-bosqich magistranti
sunnatnasilloyev5@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada vengriyalik elchi va sayyoh A.Vamberining O’rta Osiyoga, jumladan Buxoro amirligiga sayohati davomidagi faoliyati, XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro va Samarqand shaharlari umumiy qiyofasi hamda u tadqiq etgan me’moriy inshootlar tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Vixar, A. Vamberi, elchi, sayyoh, Labi hovuz, pishtak, Masjidi Temur**,** Dunay, madrasa, masjid, Tillakori

THE STUDY OF THE HISTORICAL AND ARCHITECTURAL BUILDINGS, AS WELL AS PILGRIMAGE PLACES OF BUKHARA AND SAMARKAND BY A.VAMBERI IN “JOURNEY TO CENTRAL ASIA”

ABSTRACT

This article analyzes the activities of the Hungarian ambassador and tourist A. Vamberi during his trip to Central Asia, including the Emirate of Bukhara, the general appearance of the cities of Bukhara and Samarkand in the second half of the XIX century and the architectural structures he studied.

Keywords: Vikhar, A. Vamberi, ambassador, tourist, Labi hauz, pishtak, Mosque Temur, Danube, madrasah, mosque, Tillakori

KIRISH

Buxoro azal-azaldan Buxxor (Vixar) - “ilmlar markazi” sifatida mashhur bo’lgan. Islomiyat davrida u “Buxoroyi Sharif” deb ulug’langan, “Qubbat-ul islom” unvoni bilan sharaflangan. Buxoro Markaziy Osiyodagi tarixan boy o’tmishga ega

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-652-662

bo'lgan, Buyuk Ipak yo'lida joylashgan va jahon ilm-fani, madaniyatida o'ziga xos qiyofasi, madaniy meros obyektlari, tarixiy-me'moriy yodgorliklari bilan ajralib turadigan eng qadimiy shaharlardan biridir. Mutaxassislar tomonidan Buxoro shahriga ochiq osmon ostidagi ulkan muzey, tirik kitobdir, deya ta'rif beriladi. Shonli tariximizdagi yuksak mahoratli me'mor ustalarning binokor avlodlari tomonidan o'ziga xos me'morchilik uslublarida barpo etilgan Buxoro shahri Vatanimiz, millatimiz iftixoridir. Ikki yarim ming yildan ko'proq vaqt ichida yaratilgan yaxlit arxitektura ansambllari Buxoro me'morchilik maktabining mevasidir. Buxoroning arxitekturaviy ansambllari bir necha ming yilliklar davomida shakllangan bo'lib, ular yagona rejaviy va hajm - fazoviy kompozitsiya bilan bog'liqdir. Buxoro tarixan uzoq davr mobaynida o'zining qulay geografik sharoiti, tabiiy resurslari hamda boy madaniyati bilan Yevropa davlatlari nigohida bo'lgan. Ular o'z vakillarini ko'proq sayyoh, savdogar, elchi qiyofasida O'rta Osiyoga jo'natishdi. Shunday shaxslardan biri 1863-1865-yillarda O'rta Osiyo bo'ylab sayohat qilgan vengriyalik sayyoh A. Vamberi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

XIX asrda Buxoro amirligiga tashrif buyurgan xorijlik elchi va tadqiqotchilar asarlari alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan bo'lsa-da, ularning esdalik va qaydnomalari o'lkamiz tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. XIX asrlarda Buxoro amirligidagi chet el elchi hamda tadqiqotchilari faoliyati yoritilgan ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Buyuk Britaniya tarixchi va ilmiy tadqiqotchilari tomonidan yozilgan asarlar.
2. Rossiyada nashr etilgan tarixiy asarlar va yozma adabiyotlar.
3. O'zbeksitonda yaratilgan tarixiy, adabiy asarlar va ilmiy tadqiqotlar.

Birinchi guruh ingliz tadqiqotchilari, tarixchilari tomonidan yozilgan esdalik asarlar bo'lib, asarlarda muhim tarixiy ma'lumotlar, xususan, xonlik hamda amirlikning qal'a va shaharlari, karvon yo'llari, qadimiy inshootlar, shahardagi mavjud diniy muhit, Buxoro va Samarqanddagi ziyoratgohlarga oid ma'lumotlar o'z aksini topgan. Bu asarlarni XIX asrga oidlari asosan yurtimizda faoliyat yuritgan elchilar, turli missiya vakillari tomonidan yozilgan esdaliklar, ilmiy ma'lumotlar va boshqalar bo'lsada, keyingi davrlarda ham Britaniya tarixchilari va olimlari tomonidan inglizlarning O'rta Osiyodagi faoliyatlari, ayniqsa ingliz-rus raqobatiga

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-652-662

bag'ishlangan asarlari, shuningdek ularning qadimiy Buxorodagi faoliyatiga bag'ishlangan asarlari va ilmiy tadqiqotlari soni ortganini ko'rishimiz mumkin. Ingliz tarixchilari bu jarayonlarni turli xil ta'riflashgan va tarixchi, yozuvchi, tadqiqotchilar tomonidan yozilgandir[1].

Arminiy Vamberi 1832-yilning 19-mart kuni Dunay orollaridan birida joylashgan kichik venger shahri Duna Sherdaxelida yahudiy oilasida tug'ilgan. 12 yoshgacha qishloq maktabida tahsil olgan, so'ngra Avliyo Georgiy gimnaziyasiga qabul qilingan. 16 yoshida u major, lotin tillaridan tashqari, fransuz, nemis, ingliz, hamda skandinaviya tillarini yaxshi bilgan, rus va boshqa slavyan tillaridan xabardor bo'lgan[2]. Dunyoga mashhur venger sayyohi Arminiy (German) Vamberi o'z asarlarida Turkistonning tarixi, geografik muhiti, madaniyati, tarixiy-me'moriy tavsifi haqida ham ma'lumotlar beradi[3]. Arminiy Vamberi 1863-yilda o'z safarini boshlaydi. Dastlab chin musulmon "hoji" sifatida Tatariyaga tashrif buyurgan tadqiqotchi Xiva orqali o'sha yilning yozida Buxoro amirligiga tashrif buyuradi. O'zini buxorolik nufuzli musulmon kishilarga Hoji Rashid afandi deya tanishtiradi va ular bilan mustahkam aloqa o'rnatishga, ular yordamida xavfsiz bo'lish, hamda shaharni tadqiq etishga harakat qilgan. Zero, ular yordamisiz ushbu vazifani bajarish tadqiqotchi (josus) uchun g'oyat mushkul bo'lar edi. Tez orada Hoji Solih va yana to'rt nafar do'stlari hamrohligida A. Vamberi shahar va bozorlarni ko'zdan kechirishga muvaffaq bo'lgan. Tadqiqotchining qaydlarida xolislik hamda vaziyatni hissiy baholash kabi xususiyatlarni ko'ramiz. Quyida keltiriladigan ma'lumotlar Vamberining esdaliklari sahifalarida keltirilgan. Sayyoh hamda josus shaharga nisbatan "garchi ko'chalar va uylarning qashshoqligi Fors shaharlaridagi eng achinarli uylar ortida yashiringan qashshoqlikdan ancha ustun bo'lsa-da, Buxoro "zodagon" nomini saqlab qolgan" deya ta'rif beradi[4].

A. Vamberining ayniqsa Labi hovuz me'moriy obidasi haqida keltirgan fikrlari e'tirofga loyiqdir. "Uch soatga yaqin yurganimizdan so'ng, men yo'lboshchim va olijanob do'stim Hoji Solihdan meni dam olish va tetiklashadigan joyga olib borishini so'radim. Hoji Solih meni "Timche choy furushi" (choy bozori) orqali taniqli Labi hovuz Devonbegi maydoniga (ya'ni Divanbegi hovuzining qirg'og'iga) olib bordi, men uni Buxoroning eng go'zal joyi deb bilaman"[5]. Bu deyarli muntazam to'rtburchak, uning o'rtasida 100 fut uzunlikdagi va 80 fut

[1] Hopkirk Peter. The Great Game: On Secret Service in High Asia. London. John Murray. 2006. – 590 p.
[2] Исматуллаев Х. Вамбери олимми, ё жосус? // Фитна санъати.тўплам. – Тошкент: "Фан", 1993. –Б. 89.
[3] Karimov B.. Vamberi-o'zbek she'riyatiga oshufta qalb, "Moziydan sado". 2.(62).2014 y. –B. 32.
[4] Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии. -Москва.: "Восточная литература". 2003.- С. 85.
[5] Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии. -Москва.: "Восточная литература". 2003. -С. 86.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-652-662

kenglikdagi chuqur suv havzasi joylashgan[6]. Hovuzning qirg'oqlari to'rtburchak plitalar bilan o'ralgan; sakkizta qadam suv havzasi yuzasiga olib boradi. Sohil bo'ylab bir nechta chiroyli qarag'aylar ko'tarilib, ularning soyasida Rossiyada Buxoro uchun maxsus tayyorlangan ulkan samovarlari bo'lgan Buxoro choyxonalari joylashgan. Shuningdek, ushbu asarda Labi hovuz atrofidagi vaziyat, undagi ko'chma do'konlar to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan. Maydonning uch tomonida chodirlar bilan soya solingan peshtaxtalarda shirinliklar, non, meva, issiq va sovuq gazaklar sotilayotganligi, yuzlab ko'chma do'konlar asalarilar singari tinmas chanqagan va och odamlar bilan o'ralganligi, bularning barchasi o'ziga xos manzara kasb etishi kabi ma'lumotlarga duch kelamiz. Sayyoh hovuzning g'arbiy tomonida masjid (Masjidi Devonbegi) joylashganligi, uning oldida, daraxtlar ostida, darveshlar va rivoyatchilar taniqli jangchilar hamda payg'ambarlar haqida hikoya va she'rlar aytishini qayd etadi[7].

A. Vamberi o'z esdaliklarida Bahouddin Naqshband majmuasiga ham biroz to'xtalib o'tib, bu yerda masjid borligi va Bohauddin qishlog'ida B.Naqshband qabridagi marmar qabr toshini Abdulazizxon 1490- yilda o'rnatishni buyurganligini aytib o'tadi. A. Vamberining asaridagi (Путешествие по Средней Азии) ma'lumotlar orasida Bohauddin Naqshbandning qabri haqidagi faktlar ham mavjud. "Bohauddin qishlog'i Buxorodan ikki soatlik masofada joylashgan bo'lib, ushbu qishloqda shu nomdagi ta'limot asoschisi va asosiy tashabbuskori bo'lgan mashhur Bohauddin Naqshbandning qabri bor. Ushbu ziyoratgoh Buxoroliklar uchun g'oyatda qadrli. Bohauddin, ikkinchi Muhammad kabi Turkistonning milliy avliyosi sifatida hurmat qilinishini alohida ta'kidlashimiz mumkin[8]". A. Vamberi mazkur ziyoratgoh haqida to'xtalib, unga borish va qaytishdagi yo'lning ahvoli hamda mahalliy transport tizimi to'g'risida axborot beradi. "Bu yerni hatto uzoq Xitoyliklar ham ziyorat qilmoqda. Buxoroda ziyoratgohga haftada bir marta kelish odat bo'lib, shahar bilan aloqa Darvaza Mozori oldida turgan va bir necha o'q (kichik mis tanga) uchun yollanishi mumkin bo'lgan 300 eshak yordamida amalga oshiriladi. Muallif esdaligida nafaqat ziyoratgoh haqida, balki hazrat Bahouddin Naqshbandning qabrlari haqida ham ma'lumotlar keltiradi. Qabr kichik bog'da, uning yonida masjid joylashgan. Bunga faqat ko'zi ojizlar va boshqa nogiron tilanchilar yashaydigan hovli orqali yetib borishingiz mumkin. Hazratning maqbarasi to'rtburchak shaklda bo'lib, balandligi 1,75 m, har bir tomoni 12 qadam uzunlikda. Mavzoleyning bir tomoniga

[6] Кўрсатилган асар. -С. 86
[7] Кўрсатилган асар. -С. 86
[8] Кўрсатилган асар. -С. 94.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-652-662

Buxoroliklar tomonidan Sangi Murod deb ataluvchi qora tosh qo'yilgan[9]. Buxoroliklar qabrni ziyorat qilishdan oldin bu toshni qo'llari bilan silab, yuzlariga tekkizadilar Qabrning o'zida ko'plab qo'chqor shoxlari, bayroq va supurgi bor, ular uzoq vaqt davomida Makkadagi ma'badni supurish uchun xizmat qilgan.

Shuningdek, Vamberi 26 ta do'kondan iborat kitob bozoriga borganini, u yerda bosma ishlar hali ham kamdan-kam uchrashini yozadi. U bu yerda va katta omborlarda joylashgan kitob sotuvchilarining uylarida Sharqni o'rganayotgan tarixchilar va filologlar uchun juda foydali bo'lgan juda ko'p xazinalarni ko'rganligini, ammo ularni olish uchun imkoni yo'qligini bir qator sabablar bilan izohlaydi. Buxoro va Samarqandning kitob bozorlarida mavjud bo'lgan, sharqshunoslidagi katta bo'shliqlarni to'ldirishi mumkin bo'lgan asarlarni tark etishga majbur bo'layotganidan afsusdaligini yozadi[10]. Kitob bozoridan chiqqach ancha uzoq bo'lgan Registonga borgani, garchi u yerda ilgari aytib o'tilgan Labi Hovuzga qaraganda ancha kengroq va ko'proq odam bo'lgan bo'lsa-da, u qadar jozibali emasligini qayd etadi. Shuningdek, bu yerda choy do'konlari (choyxonalar) bilan o'ralgan suv havzasi mavjud. Uning qirg'og'idan amirning balandlikda joylashgan qal'asini yoki saroyini (arkini) ko'rish mumkinligini aytadi[11]. "Darvoza yaqinidagi yerda 14 ta mis to'p bor edi. Ularni amir Buxoroga , Qo'qonga qarshi g'alabali yurishining sovrinlari sifatida olib kelgan",- deb yozadi A.Vamberi. Saroydan uncha uzoq bo'lmagan yerda Shayboniy tomonidan qurilgan Buxorodagi eng katta masjid - Masjidi-Kalon ko'tarilgan.

A. Vamberi esdaligida qayd etilgan ma'lumotlar orasida Buxoroning suv ta'minoti bilan bog'liq faktlar ham anchagina qimmatlidir. "Buxoro shahri suvni Zaravshondan oladi. Zaravshan daryosining suvlari Pomirning g'arbiy qismida, Qashqar-Dovonda joylashgan Iskandarko'ldan, uning asosiy yo'nalishi sifatida sharqdan g'arbga qarab, yuqori qismida Penjikent shahriga, vodiyga tomon oqadi[12]. Har tomondan baland tog' tizmalari bilan chegaralangan, janubda joylashgan Altaba tog'lari janubi-g'arbiy tomonga qarab, asta-sekin terrasalarda daryoga tushadi. Zarafshonning suvga boy ekanligi suvni Buxoroga yetkazib berishga imkon beradi. Vaholanki suvning o'zi tabiiy ravishda Buxoroga kirib kelmaydi". A. Vamberi bu borada to'liqroq ma'lumot keltiradi: Bu esa o'z navbatida kanallar qazishni talab etadi (masalan, Shohrud kanali). Nurato tog'idan janubga to'rtta muhim daryo

[9] Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. СПб.: 1843. –С. 94.
[10] Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии. -Москва.: "Восточная литература". 2003. –С. 88.
[11] Кўрсатилган асар. -С. 88.
[12] Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии. -Москва.: "Восточная литература".2003. -С. 90. // Радлов "Журнале берлинского Географического общества" (т. 6, вып. 5)

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-652-662

quyiladi. Birinchisi, Qora-Abdal Sariq-Bel tog' dovonidan boshlanib, Xodum-Tog' va Qoracha-Tog' oralig'ida oqadi. Ikkinchisi, Tursun, Uxum bulog'idan janubga oqib o'tadi va Karacha tog'lari bo'ylab to'g'ri yo'lni bosib o'tadi. Uchinchisi, Pshat (Penkent qishlog'i yaqinida), Qora-Tagning janubiy shoxlaridan biridan kelib chiqadi va Oq-Tog' va Qoracha-Tog' o'rtasida oqadi. Irmoqlarning suvi baland tog'larda joylashgan dalalarga ishlatiladi. Shimoldan Zarafshanga quyiladigan to'rtinchi irmoq - Jisman, Xatirchidan shimolga, Tikenlik tog' dovoni yaqinidagi Oq-Tog'dan boshlanadi. Pshat va Jisman o'rtasida Oq-Tog'dan uchta kichik daryolar oqadi: Zerbant, Andak va Buyurgan[13]. Zarafshonga janubdan quyiladigan ko'plab mayda daryolarning eng ahamiyatlisi quyidagilar: 1) Penjikentning sharqidagi Chorvoq; 2) uchta daryodan tashkil topgan Churcha, (Penjikent yaqinida); 3) Daul qishlog'i yaqinidan shimolga oqib tushadigan Kumanik; 4) Qorasu va 5) Inom Yaxshi (Katta-Qo'rg'on yaqinida). Yozda, havo issiq bo'lgan kezlarda daryo shaharni juda kam miqdorda suv bilan ta'minlaydi. Mozor darvozasi ichidagi kanal orqali shaharga suv kiradi (u ham bo'lsa daryo sathi o'zgarishiga qarab har 8 yoki 14 kunda).

O'rta Osiyo hududida o'n asr oldin ham pochta aloqasi yo'lga qo'yilganligi shubhasizdir[14]. A. Vamberi, aynan pochta aloqasi, shuningdek cho'l qismida mavjud bo'lgan yomlar haqida ham to'xtalib o'tgan. "Karmanadan quyosh botishi bilan yo'l oldik, tungi salqinlik bizning toliqqan otimizga biroz yengillik berdi. Yarim tunda biz ikki soatcha to'xtadik va ertalab, issiqlik boshlanishidan oldin, biz keyingi bekatga yetib bordik. Yo'lda, ko'p joylarda men tosh bekatlarni payqadim (tosh turkchada "tash", bu so'z milni belgilash uchun ham ishlatiladi). Ba'zilari buzilmagan, boshqalari esa juda ta'mirtalab[15]. Bularning barchasi Amir Temur tomonidan qurilgan[16]", bu ajablanarli emas, chunki O'qtoy (1186-1241.11.7) - mo'g'ullar davlati ulug' qooni[17] (1229-1241.11.7) davrida Marko Polo Markaziy Osiyoda muntazam pochta aloqasi bo'lganligini ko'rsatib o'tgan. Ayni vaqtda bunday bekatlar saqlanmagan. Shuningdek A.Vamberi ushbu yomlar (bekatlar)ning XIX asrdagi holatiga to'xtalib "Buxorodan Qashqargacha bo'lgan butun yo'lda hali ham avvalgi madaniyat izlari saqlanib qolgan. Hozirgi amir ham o'zini e'tirof etishlarini xohlaydi va odamlarga yoqish uchun yo'l yaqinidagi bir necha joylarda namoz o'qish uchun

[13] Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии. -Москва.: "Восточная литература".-С . 90.
[14] Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) –Toshkent.: "Sharq", 2000. –B. 95
[15] Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии. -Москва.: "Восточная литература". 2003. -С .95.
[16] Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) – Toshkent.: "Sharq", 2000 –B. 194
[17] https://uz.wikipedia.org/wiki/ O'qtoyxon

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-652-662

maxsus joylar qurishga buyruq bergan. Bu turdagi qo'lbola masjidlar har bir o'tayotgan odamga o'z e'tiqodiy vazifasini bajarishini eslatishi kerak[18]" degan fikrni bildiradi.

Sharqshunos A. Vamberi esdaligining yana bir ilmiy jihati shundaki, unda sahro ichidan o'tuvchi yo'l hamda undagi suv resurslari haqidagi ma'lumot mavjuddir. Shuningdek, Vamberi Samarqand shahrining uzoqdan ko'rinishini, hamda o'ziga xosligini real tuyg'ular orqali ifodalaydi. "Yaqinlashayotganingizda, avval maftunkor kichkina gumbaz ko'rinadi, so'ng janubda yana balandrog'i. Birinchisi - qabr, ikkinchisi esa - Temur masjidi. To'g'ridan-to'g'ri sizning oldingizda shaharning janubi-g'arbiy chekkasida, tepalikda, qal'a joylashgan. Uning atrofida boshqa binolar, masjidlar va qabr toshlarini ko'rish mumkin. Bularning barchasini bog'larning zich ko'kalamzorlarida tasavvur qiling, shunda siz Samarqand haqida g'ira-shira fikrga ega bo'lasiz, chunki forscha maqolda shunday deyilgan: "Inson nafaqat eshitish, ko'rish, balki his etishi ham kerak[19]".

Samarqandga tashrif sharqshunos uchun ayni muddao edi. Uning tadqiqot obyekti endi "Sayqali ro'yi zamin"[20]ga qaratiladi. "Samarqand o'zining hozirgi ko'rinishiga qaramay, Markaziy Osiyodagi boshqa shaharlarga qaraganda boyroq[21]". Uning esdaligida quyidagi arxitektura yodgorliklari haqida to'xtalib o'tilgan:

Hazrati Shohi Zinda. Ushbu avliyoning asl ismi Qosim bin Abbos[22]; U shaxs Islomni Samarqandga olib kelgan arablarning boshlig'i sifatida juda hurmatga sazovor. Uning qabri shahar tashqarisida, uning shimoli-g'arbiy qismidagi devor yonida, buyuk Temurning yozgi qarorgohi bo'lib xizmat qilgan va o'zining oldingi hashamatini saqlagan binoda joylashgan. Butun inshoot 40 ta keng marmar zina orqali chiqiladigan tepalikda joylashgan. Yuqoriga ko'tarilib, o'zingizni kichik bog'ning oxirida joylashgan binoda ko'rasiz. Bir nechta tor zallar katta xonaga olib boradi va undan o'ng tomonga tor yo'l avliyoning qadimiy qabriga olib boradi. Binoning masjid vazifasini bajargan ushbu qismidan tashqari, boshqa xonalar ham mavjud. Ularda turli rangli g'ishtlar va mozaikalar eng ajoyib ranglar bilan porlaydi,

[18] Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии. -Москва.: "Восточная литература". 2003. -С. 95.
[19] Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии. -Москва.: "Восточная литература". 2003. -С. 98.
[20] https://xs.uz/uz/post/amin-maaluf-samarqand-sajqali-roji-zamin-ast
[21] Арминий Вамбери. Кўрсатилган асар. -Б. 99
[22] Gap Qusam ibn Abbos ibn Abdul Mutalib - Muhammad payg'ambarning amakivachchasi haqida ketmoqda; mahalliy xalq afsonalariga ko'ra, u Samarqandda dafn etilgan. Shohi-Zinda me'moriy majmuasi Temuriylarga qadar shakllana boshladi va asosan Ulug'bek davrida qurib bitkazildi. Temur va Temuriylar davrida Shohi-Zinda majmuasini tashkil etuvchi binolar ansamblida bir nechta maqbaralar qurilgan. Samarqand tarixi. Toshkent.: 1969, -B. 167.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-652-662

xuddi kechagina usta qurib bitkazgandek. Har bir yangi kirgan xonamizda biz ikki rakat[23] o'qishimiz kerak edi.

Masjidi Temur (Temur masjidi). Ushbu masjid shaharning janubiy qismida joylashgan[24] bo'lib, uning kattaligi va hashamatli bezaklari (rangli g'ishtlar) Abbos II Isfaxonda qurishni buyurgan Masjidi Shohga juda o'xshaydi, ammo gumbaz, Fors masjididan farqli o'laroq, qovun shaklida. Qur'ondan oltin harflar bilan "sullar" yozilgan yozuvlar, men ko'rganlarning eng chiroylisidir, biroq Sultoniya xarobalaridagi yozuvlardan tashqari.

Ark (qal'a). Qal'a anchagina mustahkam qurilgan bo'lib, u ikki qismga bo'linadi: ichki va tashqi[25]. Tashqi qismda xususiy kvartiralar, ichki qismda esa amir saroyi joylashgan. Garchi saroy menga avvalida ko'p jihatdan ajoyib tuyulgan bo'lsada, deyarli yuz yil muqaddam qurilgan bu oddiy uyning qiyofasida qiziq narsani topmadim. Dastlab ular menga amirning xonalarini ko'rsatdilar. Ulardan biri, Oynaxonalar. Nometall parchalari bilan ishlangan ushbu xona dunyoning ajabtori deya hisoblanadi, ammo bu menga Talari-Temur (Temurning ziyofat zali) deb nomlangan xonadan ham kamroq qiziqish uyg'otdi. Bu yopiq galereya bilan o'ralgan uzun, tor hovli. Uning old tomonida mashhur ko'ktosh, ya'ni amir uchun taxt vazifasini bajargan ko'k tosh joylashgan.

Turbati Temur (Temurning qabri, maqbarasi[26]) shaharning janubi-sharqida joylashgan. U yerda devor bilan o'ralgan, muhtasham gumbazli chiroyli maqbara mavjud. Baland darvozalarning ikkala tomonida katta gumbazlarga o'xshash ikkita kichkina devor bor va devor bilan maqbara oralig'ida daraxtlar ekilgan, u bog' bo'lishi kerak edi, ammo hozir bularning barchasi dahshatli xarobadek ko'rinadi. Maqbara kirish qismi sharqdan, uning peshtoqi reja bo'yicha Makka (qibla) tomonga burilgan. O'rtada, gumbaz ostida, sharafli joyda, Makkaga qaragan ikkita qabr bor. Ulardan biri ikkiga bo'lingan va quyuq yashil rangli tosh ko'rinishida. (Tosh nega bo'linib ketganligi haqida turli xil hikoyalar mavjud). Bu Temurning qabri. Boshqa tomonda xuddi shu uzunlikdagi, ammo biroz kengroq qora tosh mavjud. bu Temurning ustozi Mir-Sayid Barakaning qabri, uning yoniga minnatdor ulug' amir dafn etilishni xohlagan. Ushbu qabrlar atrofida amirning xotinlari, nabiralari dafn etilgan katta-kichik bir qancha odamlar bor, ammo, agar yanglishmasam, keyinchalik ular shaharning turli qismlaridan bu yerga ko'chirilgan. Fors va arab tillaridagi qabr

[23] Rak'at - Gaffarov M. A. Forscha-ruscha lug'atga qarang. T.I Moskva, 1976, -B. 389.
[24] Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии. -Москва.: "Восточная литература". 2003. -С. 99.
[25] Арминий Вамбери. Кўрсатилган асар. -Б. 99
[26] Raximova M.. Usta sangtaroshlar, "Moziydan sado" -Toshkent.: 2(66).2015. –B. 43.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-652-662

toshlari, hech qanday sarlavhasiz, hatto amir qabridagi yozuv ham juda sodda, hamma joyda faqat “ko’ragon” so’zi yozilgan[27]. Maqbara ichki bezashiga kelsak, juda mukammal va yorqin moviy lazurga ega mohirona ijro etilgan arabesklar chindan ham ajoyibdir. Hammaning ko’ziga tegishi uchun turbotning[28] etagida, ko’k yuzada oq harflar bilan: “Isfahonlik Mahmudning o’g’li bechora Abdulloh tomonidan tayyorlangan” deb yozilgan. Sana topilmadi. Ushbu binodan yuz qadam narida yana bir gumbaz ko’tarilgan, me’morchiligi sodda, ammo qadimiyroq.

Abu Nasr Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi. Bular tarbiyachilar va murabbiylar tomonidan turli metodlar yordamida amalga oshiriladi. Forobiy ta'lim-tarbiya ishlarini nazariy yo'l bilan amalga oshirishga ko'proq e'tibor beradi. Shuning bilan birga u ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish va vaqti kelganda majbur etish metodlaridan foydalanish g'oyalarini ham ilgari surgan. U matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, huquq, tilshunoslik, poetika kabi sohalar bilan shug'ullangan, turli tillarni o'rgangan. Manbalarda yozilishicha, u 70 dan ortiq tilni bilgan.

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Uning fikricha, ta'lim oluvchilarga ta'lim berishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

-ta`lim oluvchilarni zeriktirmaslik;

-bilim berishda bir xil narsani yoki fanni o`rgatavermaslik shart, bu dars jadvaliga qo`yilgan talablardan biri;

-uzviylik va izchillik;

-taxlil qilish va taqqoslash;

-takrorlash;

-materialni ko`rgazmali bayon etish va shu kabilar.

Abu Ali ibn Sino ta`lim oluvchilarni jamoa qilib o`qitishni ta`kidlaydi. U o`quvchilarni o`qitishda ularni birdaniga kitob bilan band qilib qo`ymaslik kerak, deb ta`kidlaydi. Shuningdek, olimning fikricha, olib boriladigan o`quv mashg`ulotlarining mazmun-mohiyati o`quvchilarning yosh xususiyatlariga ham mos keladi va unda turli xil metodlardan foydalanib o`quvchi yoshlarni fanga nisbatan qiziqishlarini rivojlantirish ko`zda tutiladi. Ibn Sino ta`limoti bo`yicha bilishda qaysi metodlardan foydalansa ham og`zaki ifodalash, bilimlarni tushuntirish, turli usuldagi suhbatlarni tashkil etish bilan bolalarda mustaqil fikrlash qobilyatini va og`zaki bayon qilish qobilyatini rivojlanishini ta`minlash maqsad bo`lgan.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-679-685

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ta'lim metodi psixologik asosga ega. Bolaning o'quv materialini o'zlashtirishdagi yosh imkoniyatlari va uning yetuklik darajasi o'qitish va o'qish usullariga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini va shaxsiy xususiyatlarini yaxshi bilish o'qitishning samaraliroq usullarini topish imkoniyatini beradi. Mutaxassislar tayyorlashning shaxsiy faoliyati konsepsiyasi bo'yicha ta'lim jarayonida individual ta'lim jarayonini individual-ijodiy shaxsni shakllantirish jarayoni sifatida qarashga, shuningdek, o'qitishni nafaqat o'qitiladigan fan mantiqiga, balki shaxsning rivojlanishi mantiqiga muvofiq holda tashkil etishga imkon beradi, deb qaraladi. Ta'lim oluvchining yaratuvchilik (ijodiy potension) qobiliyati, uning rnuloqot qila olish qobiliyatini, ta'lim olish madaniyatini, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida samaradorlik va sifatni oshirishda axborotlashgan jamiyat qurish orqali ijtimoiy jamiyat buyurtmasini bajarish (axborot texnologiyalari sohasi, axborot ta'lim hujjatlari, foydalanuvchilar)ini va shu kabi jarayonlarni rivojlantirishdagi optimal variantlarni tanlashda istiqbolli natijalarni qo‘lga kiritishni kafolatlaydi. Bunda faol ta'lim jarayonini amalga oshiriladi. Faol ta'lim - bu ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining ongli va faol ishtiroki, mustaqilligi hamda ijodiy qobiliyatlarini ta'minlovchi tizimli pedagogik jarayondan iborat. Faol ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan bilim va harakat usullari mazmunan mukammal tizimli, mantiqan tugal va turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga yaroqli bo'ladi. Bunda asosan quyidagi ta'lim metodlaridan foydalaniladi: bahs-munozara; fikrlashga jalb qilish; doskada mustahkamlash; turli ta'limiy-kasbiy o'yinlarni amaliyotga joriy etish va hokazo. Ta'lim metodlarini faollashtirish quyidagi ta'lim qonunlariga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi.

Darxaqiqat, zamonaviy pegagogik texnologiyalar ta`lim jarayoning unumdorligini oshiribgina qolmay o`quvchilarning mustaqil firlash malakasini oshiradi. Shuning uchun ham o`quv jarayoniga pedagogik yangiliklarni kiritish, ta`limda pedagogik texnologiyalarni qo`llash, turli innovatsion usul va metodlaridan foydalanish, ta`lim sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylandi.

Ma`lumki bugungi kunda dars jarayonida “Krassword’’, “Muzyorar”, “Sinkveyn”, “Keys stady”, “Insert”, “BBB”, “Ven diagrammasi”, “Aqliy hujum”, va “Zig-zag” texnologiyalaridan o`quv jarayonini tashkil qilishda foydalanilmoqda. Mazkur maqolada dars jarayoning samarasi va sifatini ta`minlashga xizmat qiluvchi yana bir nechta innovatsion metodlarni tavsiya etamiz.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-679-685

“Kamalak jilosi” metodini pedagogik faoliyatimizda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod ona tili, matematika, va o`qish darslarida ham foydalanish mumkin. Masalan: ona tili darsida so`zlarni turkumlarga ajratishda: ayiq, mashina gapirdi, yig`ladi, sariq, qora, katta, kichik, to`qqiz, bir kabi so`zlarni turkumlarga ajratish ot so`z turkimiga oid so`zlarni ko`k rangli chiziqqa olish, sifat so`z turkimiga oid so`zlarni havorang chiziqqa joylashtirish vazifasi beriladi. Matematika darsida sonlarni xona birliklariga ajratish davomida ushbu metodni qo‘llash mumkin. Ya`ni kamalakni 1chi chizig`ini 1 xonali son deb oladigan bo`lsak ikkinchi qatordagi rangi ikki xonali songa misol bola oladi.

“Krossword” metodi avvaldan qo`llanilib kelinayotgan metodlardandir, uni har bir sinfning har bir darsida uchratishimiz mumkin. Krasswordlarni tayyorlashda, asosan, axborat kommunikatsiya texnologiya vositasi bo`lgan kompyuterning Microsoft Word dasturidan foydalaniladi. Innovatsion krasswordlarda barcha jabxalarda foydalanish mumkin. Microsoft Excell dasturida tayyorlangan kraswordni bajarishdan oldin o`quvchilarni krassword bajarishiga undovchi gaplarni aytishimiz va bu orqali qiziqishini yanada oshirish shart.



Innovatsion krasswordni yechish mobaynida o`quvchilar xato qilsa smayl hafa bo`lishini agar to`g`ri bajarsala smayl kulishini ko`radilar.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-679-685

Microsoft Excell dasturida yaratilgan innovatsion “Krossword” metodi orqali o`quvchilarda quydagi bilim, ko`nikma, malakalar va sifatlar rivojlanadi:

-bolalarda bajarilayotgan krassword mavzusiga doir bilimlar bilan birga “Informatika” fani haqidagi bilimlar ham shakllanadi:

-dars jarayonini yaxshilanishini ta`minlaydi,

-o`quvchilar tomonidan belgilangan javoblarning to`g`riligini tekshirish o`qituvchi tomonidan emas, kompyuter tomonidan aniqlanadi va monitorda paydo bo`ladi. Bu o`quvchilarda vaqtni telajalishi va o`qituvchining imkoniyatining oshishini taminlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytishim mumkinki, axborot kommunikatsiya tizimining ulkan darajada rivoj topib borayotgan bir davrda pedagoglar texnika va tehnologiyani chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratish darajasida ilmli va mahoratli bo`lishi lozim. Buning uchun darsni tashkil etish jarayonida barcha bilim oluvchilarga soda, tushunarli va oson bo`lgan usullarni tanlashi va qo`llay olishi, ko`rgazmali qurollardan foydalanishi, pedagogik texnologiyalardan to`g`ri va samarali foydalanishi maqsadga muvofiq deb o`ylayman. Pedagog yaratuvchanlik asosida darsni qiziqarli tashkil qila olsa, o`quvchi yoshlar ham fanga bo`lgan qiziqishi va sifatli, samarali bilim olishi oshib boraveradi.

REFERENCES

1. I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi” T., “Sharq” 1999 y
2. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” T., 2000 y
3. O‘.Asqarova, M.Nishonov, M.Xayitbaev “Pedagogika” T., “Talqin” 2008 y
4. A.To‘xtaboyev, A.Eraliyev “Tashkiliy xatti-xarakatlar” Andijon, “Xayot” 2001y
5. O.Musurmonova “Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi” T., “O’qituvchi” 1990 y
6. R.Mavlonova “Pedagogika” T., “O’qituvchi” 2004 y
7. Подласий И.П. Педагогика.—Москва, Висщая образования, 2008 г
8. M.To’xtaxo‘jayeva “Pedagogika” T., “O‘qituvchi” 2010 y
9. N.X.Avliyoqulov, N.Musayeva “Pedagogik texnologiyalar” –T., 2008 y
10. N.M.Azizxo`jayev Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - T., 2002 y.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-686-689

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA MATN YARATISHNING AHAMIYATI VA O‘RNI

Manzura Saparboyevna Ernazarova
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti, Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi mudiri, f.f.d. (DSc)

Muqaddas Said qizi Jo‘rayeva
Navoiy davlat pedagogika institute, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta'lim) mutaxassisligi 2-kurs magistranti
jurayevamuqaddas@mail.ru

ANOTATSIYA

Ushbu maqola ona tilida matn yaratish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsuli og‘zaki va yozma shakllarda tog‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish lozimligi haqida.

Boshlang‘ich sinf ona tili mashg‘ulotlarida asosiy e’tibor o‘quvchilarga tilning grammatik qurilishini emas, balki ularning so‘z boyligini oshirish, so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish, fikrini sharoitiga mos ravishda ifodalay olish ko‘nikmalarini kengaytirishga qaratishimiz zarurligi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich sinf, zamonaviy fikrlaydigan, matn yaratish, ta'lim va tarbiya berish, kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish, nutqiy vaziyat, og‘zaki nutq**,** so‘z va iboralar, nutqiy mahorat.

THE IMPORTANCE AND PLACE OF TEXT WRITING IN PRIMARY SCHOOL MOTHER TONGUE LESSONS

ABSTRACT

This article discusses the need for primary school students to develop creativity, independent thinking, and the ability to express ideas fluently and fluently in oral and written forms by creating a text in their native language. In primary school mother tongue lessons, the focus is not on the grammatical structure of the language, but on increasing students' vocabulary, correct and appropriate use of words, and the ability to express their thoughts in a contextual manner. 'We need to focus on expanding our skills.

Keywords: Elementary class, modern thinking, text creation, education and upbringing, development of communicative literacy, speech situation, oral speech, words and phrases, speaking skills.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-686-689

KIRISH

Yangi O‘zbekistonni buyuk davlatga aylanishida ta’lim-tarbiya ishlarini oqilona yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan doimiy ravishda tanishtirib borish benihoya katta ahamiyatga ega. Chunki taraqqiyot taqdirini ma`naviy jihatdan yetuk, texnikaviy bilimlar va murakkab texnologiyani egallagan, irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy fikrlaydigan, yuksak salohiyatliyoshlar hal qiladi. Shuning uchun, mamlakatimiz tomonidan ta'lim muassasalari faoliyatini tubdan yaxshilash, eng ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish masalalariga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga har tomonlama puxta ta'lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali ularni ona Vatanga muhabbat, pokiza orzular ruhida kamol toptirish bugungi kundagi eng muhim, eng dolzarb masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limini o‘rganishdan asosiy maqsad grammatik va kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish, mustaqil, erkin va ijodiy fikrlay oladigan, qiroat va chiroyli so‘zlash san’atidan xabardor bo‘lgan, yozma va og‘zaki nutq hamda matn yaratish ko‘nikmalarini mukammal egallagan, ma’naviyati yuksak barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida ona tili ta’limining asosiy maqsadi o‘quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil va ijobiy fikrlashga yo‘naltirish, fikr mahsulini to‘g‘ri, ravon, o‘rinli ifodalashga o‘rgatish ekan, uni amalga oshirishning ishonchli omillaridan biri – matn yaratishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish, uni o‘quv amaliyotiga izchil joriy etish, o‘quvchini muammoli o‘quv topshiriqlari orqali izlanish va kashf qilishga yo‘naltirish, o‘quvchi lug‘at boyligini kengaytirish jarayonida nutqiy faoliyatini shakllantirish, (so‘zning lug‘aviy ma’nolarini sharhlash) fikr ifodalash (og‘zaki nutq va matn yaratish)da so‘zni tanib va tanlab ishlatishni talab qiluvchi o‘quv topshiriqlari, nutqiy madaniyatni yuksaltiruvchi ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdir. Boshlang‘ich sinfda matn yaratishning asosiy maqsadi – matn ustida ishlash bilan esa matnning tili, mantiqiy va uslubiy shakllanganlik darajasi o‘rganiladi, o‘quvchining kommunikativ

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-686-689

savodxonlik darajasi esa, matn yaratish mahoratini aniqlash jarayonida o‘z yechimini topadi.

Boshlang‘ich sinlarda ona tilining yangi – yangi ifoda imkoniyatlarini izlab topish va uni dars jarayoniga tadbiq etish o‘quvchilarning ijodiy tafakkur, hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez, tanlash, guruhlash, yaratish kabi bilish qobiliyatlarini takomillashtirib, ularda milliy mafkura, mustahkam e’tiqod, milliy dunyoqarashini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Turli til xodisalari (so‘z va iboralarni) ma’nosini to‘liq anglash va uni xususiy nutqda qo‘llashga intilish – ulardan nutqiy vaziyatga mosini tanlash o‘z fikrini ixcham, aniq va ravon ifodalash malakalarining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi.

“Ona tili ta’limi mazmuni” o‘quv-metodik qo‘llanmasi mualliflari H.Ne’matov, A.G‘ulomovlar o‘quvchilarni ijodiy yozma ish – matn ustida ishlashga o‘rgatishda egallangan bilimlarni quyidagi ko‘nikma va malakalar bilan mustahkamlashni tavsiya qiladilar.[1]

Tilshunos E.Qilichev “Matnning lingvistik tahlili” nomli kitobida “Matn – hamma elementlari o‘zaro zich aloqada bo‘lgan va avtor nuqtai nazaridan ma'lum bir maqsadga yo‘naltirilgan nominativ-estetik axborotni ifodalovchi murakab tuzilma» degan ta'rifni beradi. I.Rasulov esa matnni quyidagicha ta'riflaydi: “Gapdan katta birlik murakkab sintaktik butunlik bo‘lib, u fikran va sintaktik jihatdan o‘zaro bog`liq bo‘lgan gaplar birlashmasidan iborat. Unda fikr gapga nisbatan ancha to‘liq bo‘ladi”.

Ta’limning rivojlanuvchi va takomillashib boruvchi texnologiyasi boshqa fanlar qatori ona tili ta’limida ham keng miqyosdagi umumpedagogik vazifani bajaradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi nutqiy mahoratining yuksalib borishi – ona tili ta’limi mazmuni, o‘quv jarayoni va uning to‘g‘ri shakllantirilishiga bog‘liqligi isbot talab qilmaydigan haqiqat bo‘lsa, nutq tilning ifoda vositalaridan foydalangan holda voqyeylikka aylangan fikrdir. U nutq a’zolarining ongli harakati jarayonida paydo bo‘ladi. Ruhiy hodisa bo‘lgan tilning ifoda vositalari nutq ixtiyoriga o‘tgach, haqiqatga aylanadi.

Demak, nutqning vazifasi – ong, xotira va tafakkurning uyg‘unlikdagi faoliyati mahsulini barcha uchun tushunarli, adabiy me’yoriy shaklga kiritish, uni moddiylashtirish (axborotga aylantirishdan) va tinglovchiga yetkazishdan iborat.

Tilda har bir unsurning o‘z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog`lanish qonuniyatlari bor. Ana shu qonunityalardan mukammal boxabar

[1] Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълим мазмуни, Т., “Ўқитувчи”, 1995.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-686-689

o‘lgan, so‘z sezgisi va mahorati yuksak yozuvchi betakror tasvir, kutilmagan, ohorli badiiy lavhalar paydo qila oladi. Shunda kitobxon asarning nafaqat g`oyasi, balki go‘zal tilining asiriga aylanadi. Bunda umumxalq tilidagi badiiy tasvirga favqulodda muvofiq birliklarni tanlash, saralash va sayqallash asosida, lisoniy-badiiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda ularga yuklangan xilma-xil badiiy-estetik ma'nolar hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Matn – nutq ko‘rinishi bo‘lib, vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlikdir. Har bir matn murakkab tuzilish va mazmun mundarijasiga ega bo‘lib, u og`zaki hamda yozma ijod namunasi hisoblanadi. Tilshunoslikda matn tilning alohida birligi (supersintaktik butunlik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy ob'ekti sifatida talqin qilinadi.

XULOSA

Matn so‘z birikmasi va gapdan farqlanadi, chunki matnning ham o‘z kategoriyasi va qonuniyatlari mavjud. Matn so‘zining lug`aviy ma'nosida birikish, bog`lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o‘zaro qaysidir bog`lovchilar yordamida birikishni o‘rganish “Matn tilshunosligi” sohasining asosiy muammolaridan biridir.

Shu bois, boshlang‘ich ta’lim davri o'quv-tarbiya jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda o‘quvchining savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Boshlang‘ich sinf o'quvchilarning intellektual salohiyati, mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlari, tafakkurini rivojlantirish, egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishlari, amaliy ko'nikma va malakalarini hosil etishga matn yaratishning o‘rni beqiyosdir.

REFERENCES

1. To‘xliyev B, Niyozmetova R, Boltayeva I. “Darsliklar ustida ishlash”. Toshkent “Fan” nashriyoti 2007 yil.
2. Ziyodova T., “O‘quvchi kitobi”, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 2002. 130-bet.
3. Ziyotova T “Matn yaratish texnologisi” Toshkent, “Fan” 2007 yil.
4. Hamroyev A. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayonida kognitiv - pragmatik usul elementlaridan foydalanish xususida. Pedagogik mahorat. 2014. 140 b.
5. Otaxonova Nasiba. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matn tuzish orqali nutqini o‘stirish. Bitiruv malakaviy ish. Nukus. 2018. 58 b.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-690-693

VOLEYBOL SPORT TURIDA O‘YIN TEXNIKASI VA UNING TASNIFI

Qudratillo Nematulayevich O‘rinboyev
Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada voleybol sport turiga oid ba’zi ma’lumtolar keltirib o‘tilgan. Ya’ni ushbu sport turning texnikasi, tasnifi o‘ziga xos xususiyatlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: voleybol, o‘yin, texnika, xususiyat, sport, mahorat, burchak, tezlik, malaka

ABSTRACT

The article provides some identities related to volleyball type. That is, the technique, classification of this sport is described in specific features.

Keywords: volleyball, game, technique, features, sports, skills, angles, speed, qualification.

KIRISH

Voleybol o‘z mohiyati, mazmuni va xususiyati bilan boshqa sport o‘yinlaridan farq qiladi. Voleybol o‘yini nisbatan kichik bo‘lgan, ya’ni o‘rtasidan teng ikkiga bo‘lingan 18x9 metrli to‘g‘ri burchakli to‘rtburchak shaklidagi maydonchada amalga oshiriladi. Zamonaviy voleybol turli o‘yin malakalari va taktik kombinatsiyalarga nihoyatda boy bo‘lib, o‘ta katta shiddat va tezlikda o‘tadi. Binobarin, voleybolning yuqorida aytilgan o‘ziga xos xususiyatlari o‘yinchilardan mukammal takomillashgan texnik mahorat talab qiladi. Musobaqa o‘yinlarida texnik mahorat qanchalik keng va tashqi ta’sirlarga nisbatan mukammal shakllangan bo‘lsa, shunchalik g‘alabani qo‘lga kiritish imkoni ko‘p bo‘ladi.

O‘yin texnikasi – bu bir vaqtning o‘zida ketma-ket va muayyan maqsadli tartibda ijro etiladigan ixtisoslashgan harakat yoki harakatlar majmuasidir. O‘yin texnikasi – harakatni aniq, tez, engil, vaziyatga muvofiq, kam kuch sarf etib yuqori samarada bajarishga mo‘ljallangan bo‘lishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Texnika” atamasi yunoncha (texnus) so‘z bo‘lib, juda keng ma’noda foydalaniladi va o‘zbek tilida “san’at” tushunchasini anglatadi. Miloddan avvalgi

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-690-693

776-yildan boshlab har 4 yilda Yunonistondagi Olimp tog‘larining etagida joylashgan Olimp qishlog‘ida Xudo Zevs sharafiga o‘tkaziladigan umumyunon bayram musobaqalari ishtirokchilari 2 g‘ildirakli aravachada poyga, mushtlashish, beshkurash sporti bo‘yicha o‘z san’atlarini (texnikasini) namoyish etganlar. Qizig‘i shundaki, har bir ishtirokchi musobaqadan oldin o‘z qaddi-qomatini, mushaklarini shakllanganligi va boshqa shu sportga oid xislatlarni namoyish qilishi mazkur musobaqaning shartlaridan biri bo‘lgan. Demak, muayyan sport turi bilan shug‘ullanish natijasida odamning qaddi-qomati, mushaklari va organizmning jamiyki barcha organlari shakllanadi, binobarin, sportchining texnik mahorati, san’atini takomillashishi ta’minlanadi. Texnikaga oid barcha vositalar borki (samolyot, avtomobil, raketa, televizor, sovutgich, soat va hokazo), ularning texnik pasporti mavjud bo‘lib, unda mazkur vositaning texnik ko‘rsatkichlari va o‘lchamlari berilgan bo‘ladi. Sportda ham muayyan harakat malakasining o‘ziga xos texnik ko‘rsatkichlari, o‘lchamlari va uni ijro etishda shakllangan texnik tartibi mavjuddir.

Voleybol o‘yini texnikasi o‘yinni olib borish uchun zarur bo‘lgan harakat usullari majmuasidan iboratdir. Harakatlar texnikasi turli vaziyatlarda maqsadga muvofiq, samarali harakat qilish bilan baholanadi. O‘yindagi har bir texnik usulni bajarish bir-biri bilan uzviy bog‘langan harakatlanish tizimidan tashkil topadi. Harakat texnikasi harakat vazifalarini muayyan usul bilan hal qilish uchun zarur va yetarli bo‘lgan harakatning dinamik va kinematik xususiyatlaridir (kuchlarning muayyan izchilligi, gavdaning ayrim qismlari o‘rtasidagi muvofiqlik va shu kabilar).

Texnikaning asosiy qismi – ma’lum bir harakatdagi asosiy mexanizmning eng muhim va hal qiluvchi qismidir. Texnikaning asosiy qismini bajarish nisbatan qisqa vaqt oralig‘ida katta kuch sarflanishi bilan ifodalanadi.

Texnikaning detallari – harakatning asosiy mexanizmini buzmaydigan ikkinchi darajali xususiyatdir. Texnika detallari turli sportchilarda turlicha bo‘lib, bu ularning morfologik va funktsional imkoniyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Texnik harakatlarni bajarishda harakatlarning vaqt jihatidan ma’lum bir fazalari farqlanadi. Odatda, harakatlarning uch fazasi: tayyorgarlik, asosiy va yakunlovchi fazalarini belgilab qo‘yish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tayyorgarlik fazasining ahamiyati harakatni bosh fazada bajarish uchun qulay sharoit yaratishdan iborat. Bu sharoitlar yugurib kelish, sakrash, aylanma harakatlarni (to‘siq qo‘yganda, koptokni o‘yinga kiritganda, hujum zarbasini berishda) bajarish

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-690-693

bilan yaratiladi. Asosiy fazadagi harakatlar bevosita asosiy harakat vazifalarini hal qilishga qaratiladi. Biodinamik nuqtayi nazardan bu fazadagi eng muhim narsa harakatlantiruvchi kuchlardan tegishli vaziyatda, tegishli yo‘nalishda samarali foydalanishdan iboratdir.

Yakunlovchi fazadagi harakatlar gavda muvozanatini saqlash maqsadida so‘nib boradi yoki keskin tormozlanadi. Voleybol juda dinamik o‘yin bo‘lganligi sababli voleybolchi turli texnik usullarni egallashi, o‘yin vaziyatidan kelib chiqqan holda ularni tanlay olishi va uni tez, aniq bajarishi lozim. Bu esa o‘yinchining texnik mahoratini belgilaydi.

Yuqori texnik mahorat belgilari quyidagilar bilan ifodalanadi:

- harakat usullarining aniq va samarali bajarilishi;
- xalal beruvchi omillar (charchash, tashqi sharoitning salbiy ta’sirlari) mavjudligida harakatlarning bajarilish barqarorligi;
- raqib harakatlariga qarab javob harakatlarini tanlash, ularni qayta qurish va bunda harakat qismlarini boshqara olish;
- usullarning bajarilish ishonchliligi.

Voleybol taraqqiyotining har xil davrlarida texnik harakatlarni bajarish usullari, talablari, shakli, mazmuni o‘zgaradi va takomillashib boradi. Texnik usullarning o‘zgarishiga o‘yin qoidalarining o‘zgarishi, taktik harakatlarning takomillashuvi, o‘yinchilar jismoniy tayyorgarligi darajasining o‘sib borishi asosiy sabab bo‘ladi. Hujum va himoyadagi o‘yin dinamikasining o‘sishi, harakatlar potensialining oshib borishi, hujum va himoyadagi kombinatsiyalar arsenalining kengayishi ham texnik usullarni yangilashga yoki qayta qurishga turtki bo‘ladi. Shunday bo‘lsada, o‘yin texnikasida foydalaniladigan usullarning bundan-da samaraliroq imkoniyatlari yo‘q deb bo‘lmaydi. Malakali sportchilarning funktsional va jismoniy imkoniyatlari o‘yin texnikasiga yangi, ilg‘or usullarni kiritish va uni ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratadi.

XULOSA

O‘yin texnikasini tasniflash – ularni shakli, mazmuni, qo‘llaniladigan usullarning nimaga mo‘ljallanganligi, harakatlarning bir-biriga bog‘liqligi, harakatlarning kinematik va dinamik tuzilishiga qarab ma’lum guruhlar va bo‘limlarga ajratishdir. Voleybol texnikasi ikkita katta bo‘lim: hujum va himoya texnikalariga bo‘linadi. O‘z navbatida, yuqoridagi bo‘limlar ham texnik usullarning

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-690-693

shakli va mazmuniga ko‘ra bir qancha guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhda texnik harakatlarning o‘ziga xos bajarish usullari mavjud bo‘ladi.

REFERENCES

1. Masharipov F.T., Ro`zmetov N.Q., Ro`zmetov R.T. Voleybol mashg`ulotlarini olib borish va boshqarishning pedagogik asoslari. O`quvuslubiy qo`llanma. Urganch 2012 y
2. Усмонхўжаев Т.С., Жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари. Тошкент. “Ўқитувчи” 2005
3. Керимов Ф.А. Спорт соҳасида илмий тадқиқотларни олиб бориш. Т.2005.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-694-704

ZAMONAVIY HAYOTDA ROBOTLARNING O'RNI

Baxtiyor Bahrom o'g'li Hamidov
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani 5-IDUM Texnologiya fani o'qituvchisi
baxtiyorhamidov61@gmail.com

Dilshoda Odilovna Kamolova
Buxoro Davlat universititeti Pedagogika instituti 1-kurs magistranti
dilshodaodilovna1911@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada robototexnikaning zamonaviy hayotdagi o'rni, avtomatlashtirilgan mashinalarning turli sohalarda, ayniqsa tibbiyotda muhimligi va o'ziga xos xususiyatlari. Robot yaratish uchun kerak bo'ladigan zamonaviy intelektual qurilmalar haqida yoritilgan. Robotlarning hayotdagi alohida o'rni haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Robot, sun'iy intellekt, manipulyatorlar, adaptiv boshqarish, mikrokontrolleri, arduino, sensor, reflector, actuator.

ABSTRACT

In this article, the role of robotics in modern life, the importance and specific features of automated machines in various fields, especially in medicine. Describes the modern intelligent devices needed to create a robot. It's about the special place of robots in life.

Keywords: Robot, artificial intelligence, manipulators, adaptive control, microcontrollers, arduino, sensor, reflector, actuator.

KIRISH

Robototexnika taraqqiyoti uzoq istiqbolga ega. Agar biz ushbu sohaning tarixiga nazar tashlasak, robototexnika taraqqiyoti har yili tezlashayotganini tushunishimiz mumkin. Va avtomatlashtirilgan mashinalarning turli sohalarda, ayniqsa tibbiyotda muhimligini hisobga olsak, ularga qanday umidlar ishonish qiyinligini tasavvur qilish qiyin emas.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-694-704

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Robototexnika rivojlanish tarixi nisbatan yaqinda boshlanganiga qaramay, ushbu texnologiya sohasi juda yuqori darajaga ega. Dunyoning eng yaxshi olimlari robotlarning yangi turlarini - tibbiyotda turli kasalliklarni davolashda ishlatiladigan nanorobotlardan tortib to zamonaviy sun'iy aqlga ega mustaqil mashinalargacha yaratish ustida tinimsiz mehnat qilmoqdalar. Hozirgi vaqtda siz robototexnika sohasida qanday yuqori cho'qqilarni zabt etishni tasavvur qilishingiz mumkin.

Robotlarning 3 turi aniqlandi:

- qat'iy harakatlar dasturi bilan;
- inson operatori tomonidan boshqariladi;
- inson aralashuvisiz maqsadli (oqilona) harakat qiluvchi sun'iy intellekt (ba'zan integral deb ataladi) bilan.

Ko'pgina zamonaviy robotlar (uchala nav ham) robotlarning manipulyatorlari bo'lib, garchi boshqa turdagi robotlar mavjud bo'lsa (masalan, ma'lumot, yurish va boshqalar). Birinchi va ikkinchi nav robotlarini bitta mashinada birlashtirish mumkin, ularning ishlash vaqtini ajratish mumkin. Biror kishi uchinchi turdagi robot bilan ishlashi ham maqbuldir (nazoratchilar deb ataladigan rejimda). Quyidagi jadvalda robotlar funksiyalari odamlar funksiyalari bilan solishtirilgan.

Robotlar manipulyatorlar deb ataladigan mashinalar sinfga kiradi. Manipulyatorlar – ko'p zvenolardan iborat mexanizm bo'lib, odam qo'li harakatlarini imitatsiya qilishga mo'ljallangan qurilmadir, u masofadan operator yoki programmali boshqarish tizimi tomonidan boshqariladi.

1-jadval

Robotlarning funksional imkoniyatlari

Funksiyalar	**Odamning funksional organlari**	**Robotdagi analog**
Fikrlash	Markaziy nerv tizimi	Boshqarish tizimi
Tashqi muhit bilan aloqa	Sezish organlari	Sezish elementlari (datchiklar va sensorlar)
Ish va harakat	Qo'l, oyoq va h.k.	Manipulyatorlar va harakatlanish qurilmasi
Hayot ta'minoti	Qon aylanish va hazm qilish organlari	Energiya manbalari

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-694-704

Dastur nazorati - bu sanoat ob’ektlarida manipulyatorlarni boshqarish uchun ishlatiladigan eng oddiy boshqaruv tizimi. Bunday robotlarda hissiy qism yo’q, barcha harakatlar qat’iy ravishda o’rnatiladi va muntazam ravishda takrorlanadi.

Adaptiv boshqarish. Adaptiv boshqaruv robotlari sensorli qism bilan jihozlangan. Datchiklar tomonidan yuborilgan signallar tahlil qilinadi va natijalarga qarab, keyingi harakatlar to’g’risida qaror qabul qilinadi, harakatlarning keyingi bosqichiga o’tish va boshqalar.

Aqlli boshqaruv. Aqlli boshqaruv usuli sun’iy intellekt usullariga asoslangan. Bunday robotning misoli uzoqdan boshqariladigan minalarni tozalash mashinasi.

Arduino - bu unchalik katta bo’lmagan plata bo’lib o’zining protsessori (mikrokontrolleri) va xotirasiga ega bo’lgan qurilma hisoblanadi.

Arduinoning ko’plab turlari mavjud bo’lib bularga misol qilib: arduino uno, arduino mega va h.k larni olishimiz mumkin (2-jadval).

Arduino robototexnika va elektronikiga qiziquvchi va izlanuvchi yoshlarga juda qo’l keladi chunki bu qurilmada kichik va katta bo’lgan dastur, algoritmlar yaratgan holda xar hil qurilmalar, robotlar va boshqa qiziq amaliyotlarni bajarsa bo’ladi.

Boshqacha qilib aytganda, Arduino dasturiy va texnik qismlarni birlashtirib beruvchi qurilmadir.



1-rasm. Arduino ko’rinishi.

Yuqorida keltirib o’tganimizdek Arduinoning juda ko’p turlari mavjud bo’lib, Arduinoni o’rganishni boshlovchilar asosan Arduinoning Uno yoki Nano turidan foydalanishni boshlashadi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-694-704

2-jadval

Arduino turlari

Arduino nomi	Arduino rasmi
Arduino Yun	
Arduino Uno	
Arduino Duemilanove	
Arduino Diecimila	
Arduino Nano	

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-694-704

Arduino Mega	
Arduino Leonardo	
Arduino Micro	

Arduinoning Uno va Nano turini yaxshilab o’rganib bo’lgan yoshlar endi Arduinoning buturiga qoniqmay Arduinoning Mega yoki Mega 2560 turini sotib olishga oshiqishadi. Chunki, endi Arduino Uno, Nano turning xarakteristikasi (texnik ko’rsatkichlari) robototexnik uchun kamlik qiladi. Ayrim robototexniklar esa Arduino Uno bilan tanishib chiqib uni imkoniyatlaridan foydalanib bo’lgandan so’ng, Arduinoning Mega turini sotib olib o’tirmay o’zlari yasab tayyorlab ko’rishga harakat qilishadi. To’g’rida chunki endi ular dasturchi, robototexnik bemalol mikrokontrollerga dastur yozib uni mikrokontrollerga yuklay oladi. Arduino Uno ning boshqa turlaridan farqi protsessori, mikrokontrolleri, raqamli va analog chiqishlarning ko’p yoki kamligi bilan farqlanadi. Arduinodan foydalanayotgan kishi unga har xil elektr komponentalar va modullarni ulash imkoniyatiga ega bo’ladi, masalan: led chiroqlar, datchiklar, rele modullari tarmoq (Wi-fi, Bluetooth, Ethernet) modullari, sensorlar, motorlar, magnit eshik qulflari va elektr energiyasi bilan ishlaydigan barcha narsalar. Yuqorida aytilgandek Arduino texnik va dasturiy qismni birlashtirib beruvchi qurilma.

Arduinoning Uno turi texnik ko’rsatkichlari:

- Mikrokontroller: ATmega328;

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-694-704

- Ishlash kuchlanishi: 5 V;
- Kirish kuchlanishi(tavsiya etilgani): 7-12 V;
- Kirish kuchlanishi(eng yuqori): 6-20 V;
- Raqamli kirish/chiqish: 14 ta (ulardan 6 tasi KIM (Широтно-Импульсная модуляция) sifatida foydalanish mumkin);
- Analog kirish: 6 ta;
- Kirish/chiqish orqali o'zgarmas tok: 40 mA;
- 3.3 V kiritish uchun o'zgarmas tok: 50 mA;
- Flesh xotira: 32 KB(ATmega328) undan 0.5 KB yuklovchi sifatida foydalaniladi;
- Tezkor xotira: 2 KB(ATmega328);
- EEPROM: 1 KB(ATmega328);
- Chastota: 16 MGs;

Robot yoki bot (Eng. Bot, abbr. Robot) - bu avtomatik ravishda va yoki belgilangan jadvalga binoan doimiy foydalanuvchi kabi bir xil interfeyslar orqali har qanday harakatlarni bajaradigan maxsus dastur. Qoidaga ko'ra, atama Internetga nisbatan ishlatiladi. Tarmoq o'yinlarida botlarni ba'zan kompyuter tomonidan boshqariladigan pleyerlar deyishadi.

Robot atamasi barqarorlikka ega emas. Qo'shimcha so'z (masalan, sanoat yoki BEAM) unga deyarli har doim kerak.

Robot uchta tarkibiy qismni o'z ichiga olishi kerak:

1. Sensor - Robot muhitini sezadigan sensor.

2. Reflektor - Dastur, ishlov berish moslamasi, neyron, neyron ...

3. Aktuator - Robotning ishlashi muhitida ishlarni bajarishga imkon beradigan mexanizm.

Robot sensor – reflector - aktuator zanjirida aloqa mexanizmini amalga oshiradigan ish muhitidan mustaqil bo'lgan avtonom tizimdir.

«Robot» so'zining kelib chiqishi shubhasizdir, ammo juda g'alati, kam ma'lum.

1921 yilda mashhur chex yozuvchisi Karel Shapek «R.U.R.» pyesasini yozdi. («Rossum universal robotlar»), ularning qahramonlari odamlar va robotlar - sun'iy odamlar edi.

Apapek robotlari mexanik emas, balki biologik mavjudotlar edi. Ularga shunchaki insoniy funktsiyalar, xususan, oshiq bo'lish qobiliyati yetishmayotgan edi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-694-704

Apapek «robot» so'zi Chexiya robotasidan kelib chiqqan - bizning fikrimizcha «ish».

Spektakl qahramonlaridan biri, RURP bosh direktori «Robotlar nima?» Degan savolga javob berar ekan, deydi: «Robotlar odamlar emas, ... ular bizdan ko'ra mexanik jihatdan mukammaldirlar, ular aql bovar qilmaydigan darajada aql-idrokka ega, lekin ularning joni yo'q.

Ushbu fazilatlar («mexanik mukammallik» va «aql bovar qilmaydigan darajada kuchli aql») tufayli robotlar odamlar kabi ishlashga va takomillashishga qodir.

Robotlarning prototiplari shuningdek arab olimi va ixtirochisi Al-Jazari tomonidan yaratilgan mexanik shakllar edi (1136-1206). Shunday qilib, u daf chaladigan, arfa va nay chaladigan to'rtta mexanik musiqachilar bilan qayiq yaratdi.

Gumanoid robotning rasmini Leonardo da Vinchi 1495 yil atrofida yasagan. Leonardoning 1950 yillarda topilgan yozuvlarida mexanik ritsarning o'tirishi, qo'llarini yoyishi, boshini silkitishi va qopqog'ini ochishi mumkin bo'lgan batafsil rasmlari mavjud. Dizayn, ehtimol, Vitruviyalik odamda o'tkazilgan anatomik tadqiqotlar asosida yaratilgan.Leonardo robotni yaratishga uringanmi yoki yo'qmi noma'lum.

G'arbiy Evropada XVI-XVIII asrlarda odamlar yoki hayvonlarga o'xshab ko'rinadigan va ba'zida juda murakkab harakatlarni amalga oshiradigan avtomatika - soat mexanizmi qurilishi keng tarqaldi. Smitson instituti kollektsiyasida bunday avtomatlarning eng qadimgi namunalaridan biri bor - «Ispaniyalik rohib» (balandligi taxminan 40 sm), yura oladigan, o'ng qo'li bilan ko'kragiga urib, boshini qimirlatgan; vaqti-vaqti bilan chap qo'lidagi yog'och xochni lablariga olib kelib, uni o'padi. Bu avtomat taxminan 1560 yilda imperator Charlz V uchun mexanik Xuanelo Turriano tomonidan yaratilgan deb ishoniladi.

XVIII asrning boshidan boshlab matbuotda «aql belgilari» bo'lgan mashinalar paydo bo'la boshladi, ammo aksariyat hollarda bu firibgarlik ekanligi ma'lum bo'ldi. Tirik mexanizmlar yoki o'qitilgan hayvonlar mexanizmlarning ichiga yashiringan.

«Robot» so'zi chex yozuvchisi Karel Shapekning engil qo'lidan aytilgan. 1920 yilda nashr etilgan RUR («Rossum Universal Robotlar») pyesasida ekapek robotlar deb ataydigan «sun'iy odamlarni» ishlab chiqaradigan fabrikani tasvirlaydi.

Ammo, mashhur e'tiqodga qarshi, Karel Chapek bu so'zni ixtiro qilmagan. Oksford inglizcha lug'ati mualliflariga yozgan qisqa maktubida u o'zining akasi, rassom va yozuvchi Jozef Chapekni «robot» so'zining haqiqiy muallifi deb ataydi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-694-704

Ba’zilarning ta’kidlashicha, robot so’zi birinchi marta Jozef Chapek tomonidan 1917 yilda nashr etilgan «Opilec» («Ichkilikboz») hikoyasida ishlatilgan. Ammo bu ham haqiqat emas, muallif bu hikoyada «avtomat» so’zini ishlatgan. Va «robot» so’zi birinchi marta Karelning «RUR» spektaklida paydo bo’ldi va mana, Karel Chapekning maqolasidan parcha, unda butun voqeani Chapekning o’zi batafsil aytib bergan.

«... shunday bo’ldi: spektakl g’oyasi yozuvchiga noma’qul daqiqalarda keldi. Ammo u hali ham issiq bo’lganda, Yusuf akasining oldiga shoshilib bordi va rassom dastgoh oldida turardi va tuval yorilib ketguncha bo’yalgan edi.

«Yusufni tinglang, - dedi yozuvchi, - menda spektakl uchun g’oya bor.

- Nima? - deb g’o’ldiradi rassom (u chindan ham g’o’ldiradi, chunki o’sha paytda og’zida cho’tka bor edi. Muallif unga bu fikrni iloji boricha tezroq aytib berdi.

Shunday qilib yoz, - dedi rassom og’zidan cho’tka olib va ustida to’xtab.

«Ammo» deydi muallif, «bu sun’iy ishchilarni nima deb atashni bilmayman. Men Laboriga qo’ng’iroq qilmoqchiman, ammo bu menga juda yoqimsiz tuyuladi.

- Xo’sh, ularni robotlar deb chaqiring, - dedi rassom og’ziga cho’tka bilan va tuvalga qarab.

Shunday bo’ldi. Shunday qilib, Robot so’zi tug’ildi ...

Shunday qilib, robot so’zi bizga chex tilidan kelgan va «majburiy mehnat, mashaqqatli mehnat» degan ma’noni anglatadi.

Aslida, «robot» so’zi slavyancha kelib chiqqan va vulgar lotindan kelib chiqqan.

Robotlar insonga nima beradi?

Texnologiyalar inson faoliyatining barcha sohalariga chuqur kirib borgan bo’lsa-da, insonlar va mashinalar haligacha teng hamkorlik asosida o’zaro aloqaga kirishgani yo’q.

Avtozavodda robot va ishchi bir safda turibdi. Ya’ni bitta ishni robot ham, inson ham bajarmoqda. Mehnatning bunday taqsimoti inson va mashina uyg’unligida erishish mumkin bo’lgan salohiyatni ancha chegaralab qo’yadi. Dunyo inson va mashina yakdil texnologiya sifatida ishlaydigan davrga qarab ketmoqda.

Sun’iy idrok – ma’lumotni qabul qilib, uni qayta ishlagan holda muayyan funksiyani bajaruvchi tizim. Sun’iy idrok insonning o’rnini egallash, uning vazifalarini batamom tortib olishni maqsad qilmaydi. Balki inson imkoniyatlarining chegarasini kengaytirishga xizmat qiladi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-694-704

Sun’iy idrok ustida ishlovchi novator kompaniyalar inson va mashinaning o’zaro aloqasini kuchaytirgan holda original simbiozga erishishga intilishmoqda. Mazkur simbioz quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

Imkoniyatlarni kuchaytirish. Sun’iy idrokning asosiy maqsadi – insonning tabiat tomonidan berilgan imkoniyatlarini yanada kengaytirish va kuchaytirishdir. Bu superkuchga ega kiborgni eslatadi.

Deylik, stanok buzilib qolgan taqdirda zavod ishchisi uni tuzatish uchun mashaqqat chekishi, stanokning ichki mexanizmini hijjalab o’rganib, shunga qarab ish tutishi kerak. Sun’iy idrok esa qog’oz yo’riqnomaning o’rnini bosishi mumkin.

Misol uchun, aqlli ko’zoynaklarni taqib stanokning ichki proyeksiyasini ko’rish va nosozlikni darhol bartaraf etsa bo’ladi.

Robodunyoda yangidan yangi kasblar paydo bo’la boshlaydi. Xususan, mashina bilan o’zaro aloqaga kirishgan holda bir jamoada ishlay olish muhim ko’nikmaga aylanadi. Hozir ham rezyumening shaxsiy ko’nikmalar degan qismida kompyuter dasturlari, ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlash deb yozish sezilarli ustunlik bera boshlagan. Inson sun’iy idrok uchun murabbiy, sharhlovchi va chidamlilik bo’yicha ekspert vazifasini o’tay boshlaydi.

Bunday robotlarda boshqarish qurilmasi sifatida programmali boshqarish qurilmasi yoki kompyuter ishlatiladi. Birinchi avlod robotlari yetarli darajada universal va ko’p imkoniyatlarga ega hisoblanadi. Mavjud avtomatlashtirish vositalariga qaraganda, birinchi avlod sanoat robotlari yangi topshiriqlarni bajarishgatez va yaxshi moslashadi

O’zbekistondagi bog’chalarda dasturlashni o’rgatadigan robotlar paydo bo’ladi.

Yurtimizdagi bolalar bog’chalarida dasturlashni o’rgatadigan robotlar paydo bo’ladi. Bu haqda Maktabgacha ta’lim vazirligida o’tkazilgan tadbirda ma’lum qilindi, deb yozadi Xabar.uz nashri.

Koreya Respublikasida 2021-yil 9-fevralda bolalarga robototexnika va dasturlash ko’nikmalarini o’rgatishga mo’ljallangan Albert va Genibot aqlli robotlarini topshirish marosimi bo’lib o’tdi. Koreya Respublikasidan kelgan hamkorlar O’zbekistonning MTTga 275 ta robot va 350 ta o’quv qo’llanmasini sovg’a qildilar.

Tadbir Maktabgacha ta’lim vazirligi, Koreya robot sanoatini rivojlantir ish instituti (KIRIA), Koreya o’qituvchilar uyushmasi, shuningdek, FRGKorea,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-694-704

DazzleEdu, GenieRobot va SKTelecom kompaniyalarining vakillari ishtirokida onlayn tarzda o'tkazildi.

Dunyo axborot texnologiyalari davriga qadam qo'ydi. Dasturiy ta'minot bilan ishlash, kompyuterlar tilida gapirish va buyruq berish qobiliyati majburiy bo'lib qoldi. Biz bolalarimiz egallagan ko'nikmalar zamon talablariga javob berishini istaymiz», – dedi MTV huzuridagi Axborot va pedagogik texnologiyalar innovatsion markazi direktori Oyatillo Rahmatillayev.

Albert va Genibot robotlari 6 yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan. Birinchi bosqichda bola tayyor kodlash kartalari yordamida o'yinchoqni harakatlanishga, ko'zini miltiratishga, gapirishga majbur qiladi. Shu tarzda u kod bloklarining qanday ishlashini tushunib oladi. Yoshi kattaroq bolalar robotni smartfonga ulab, o'z buyruqlari va algoritmlarini yaratishlari mumkin.

«Biz bolalar bog'chalarida dasturlash ko'nikmalari haqida gapirganda, kod yozishni nazarda tutmaymiz». Gap zamonaviy real hayot sharoitlarida muvaffaqiyat garovi bo'lmish algoritmik tafakkurni rivojlantirish haqida ketmoqda. O'yin uslubidagi robotlar ijodkorlik, mantiq, namunalarni tanib olish va optimal yechimlarni topish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

XULOSA

Robotlarga asoslangan o'qitish dasturi Koreya Respublikasida yaxshi natijalar ko'rsatdi. U yerda hukumat ko'magida butun mamlakat bo'ylab mingdan ziyod o'quvchilarni qamrab olgan 140 ta sinf ochildi. Fransiya, Ispaniya, Kosta-Rika va Perudagi maktablar va bolalar bog'chalarida ham shu kabi pilot dasturlari ishga tushirilgan.

«Kelajak robototexnika va avtomatlashtirilgan sanoatga tegishli bo'ladi. Biz O'zbekistonda ushbu taraqqiyotga daxldor ekanligimizdan mamnunmiz hamda Koreya va O'zbekiston nafaqat robototexnika sohasida, balki innovatsiya sohasida ham samarali hamkorlik qilishiga umid qilamiz», – dedi KIRIA kompaniyasi prezidenti Chonil Mun.

Albert va Genibot robotlari butun O'zbekiston bo'ylab 53 ta TMTga taqsimlanadi. Joylarda ustozlarni o'qitish va pilot loyihasi natijalarini monitoring qilish ishlari MTV huzuridagi Axborot va pedagogik texnologiyalar innovatsion markazi tomonidan olib boriladi.

Agar pilot loyihasi muvaffaqiyatli yakunlansa, O'zbekiston Maktabgacha ta'lim vazirligi yanada ko'p bolalar bog'chalarini aqlli robotlar bilan ta'minlaydi,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-694-704

shuningdek, ularning ish funksiyalarini imkoniyatlari cheklangan bolalarga mo'ljallangan dastur bilan to'ldiradi.

REFERENCES

1. Nazarov X.N. Robototexnika asoslari. TOSHKENT "IQTISOD-MOLIYA" 2016, 63 b.
2. Хасанов П.Ф., Назаров Х.Н. Мобильные робототех нические системы. – Т.: ТашПИ, 1987. 98 с.
3. Робототехника Ю.Г., Андреанов и др. – М.: Машиностроение, 1984. 348 с.
4. Робототехнические системы и комплексы: учебное пособие (Х.Н.Назаров.; TGTU, - Т.: 2004, 101 стр.
5. Шахинпур Н. Курс робототехники.– М.: Мир, 1990.516с.
6. Зенкевич С.Л. Управление роботами. – М.: Изд-во MGTU, 2000. 456 с.
7. Роботехника и гибкие автоматизированные производства: Учебное пособие для втузов/под ред. И.М. Макарова. – М.: Высшая школа, 1986. 159с.
8. Хасанов П.Ф., Киселёв О.Д. Адаптивные роботы и системы технического зрения. Учебное пособие. – Т.: ТашПИ, 1986. 96 с.
9. Nazarov X.N.; Juraev R.; Robototexnik sistemalari ; TDTU., Toshkent:, 2004 , 50-b.
10. www.kun.uz
11. www.gilos.uz

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-705-712

ДАВЛАТ ХУСУСИЙ ШЕРИКЧИЛИК ТИЗИМИ АСОСИДА АГРОСЕРВИС ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Фарҳод Озодович Абдуллаев
Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқарув академияси Хоразм вилояти ҳудудий филиали директори, и.ф.н., доцент
farhodeconomy@mail.ru

Дилшод Тухтабаевич Худайберганов
Урганч давлат университети Иқтисодиёт факультети Туризм ва меҳмонхона хўжалигини бошқариш кафедраси доценти, и.ф.н.
dilshodx@bk.ru

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада давлат хусусий шерикчилик тизими асосида республикамизда хизмат кўрсатувчи корхоналар томонидан кўрсатиладиган агросервис хизматлари ва уларни самарали ривожлантириш йўналишлари таҳлил қилиниб, уларни изчил амалга ошириш юзасидан таклифлар ва тавсиялар берилган.

Шунингдек, ушбу янги тизим асосида келажакда агросервис хизматларини ривожлантиришнинг имкониятлари ҳам ёритилган.

Калит сўзлар: Иқтисодиёт, қишлоқ хўжалиги, агросервис, давлат-хусусий шерикчилиги, фермер хўжаликлари, боғдорчилик, сабзавотчилик, лизинг, хизмат, шартнома.

DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF AGROSERVICE ON THE BASIS OF PUBLIC PRIVATE PARTNERSHIP SYSTEM

ABSTRACT

This article analyzes the agroservice services provided by service enterprises in the country on the basis of public-private partnership system and the directions of their effective development and makes suggestions and recommendations for their consistent implementation.

The opportunities for further development of agroservice services on the basis of this new system are also highlighted.

Keywords: Economy, agriculture, agroservice, public-private partnership, farms, horticulture, vegetable growing, leasing, service, contract.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-705-712

КИРИШ

Бугунги кунда муҳим устувор йўналиш бўлиб иқтисодиёт тармоқларини янги йўналиш ва усул орқали ислоҳ қилиш ҳисобланади. Хусусан, бунга республика иқтисодиётини эркинлаштириш ва модернизациялаш хос бўлиб, ушбу шароитда аграр секторнинг тизимли ва узлуксиз тараққиётини таъминлаш муҳим вазифа бўлиб қаралади. Бу эса қишлоқ хўжалиги корхоналари ҳисобланган фермер ва деҳқон хўжаликларида ишлаб чиқариш жараёнини самарали ташкил этиш ва изчил фаолият юритишига кўмак берувчи ҳамда уларга турли хизматлар кўрсатувчи агросервис субъектларини кўпайтириш ва ривожлантиришни тақозо қилади. Мазкур вазифанинг янги ёндашувларга асосланиб, хизмат турларини ривожлантириш ҳисобланади. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти таъкидлаганидек: “Бир нарсани аниқ тушуниш лозим - хизматлар соҳасини ривожлантириш учун ҳар бир ҳудудга алоҳида ёндашув зарур” [1].

Дарҳақиқат, янги ёндашув асосида давлат-хусусий шерикчилик тизимини жорий қилиш ҳисобланади. Давлат-хусусий шерикчилиги, жумладан концессиялар соҳасидаги муносабатларни тартибга солиш мақсадида 2019 йил 10 майда 537-сонли Ўзбекистон Республикасининг “Давлат-хусусий шериклик тўғрисида”ги қонуни [2] қабул қилинди. Мазкур қонунга келтирилишича, давлат-хусусий шериклик - давлат шериги ва хусусий шерикнинг муайян муддатга юридик жиҳатдан расмийлаштирилган, давлат-хусусий шериклик лойиҳасини амалга ошириш учун ўз ресурсларини бирлаштиришига асосланган ҳамкорлик, деб изоҳланади. Яъни, бу орқали давлат-хусусий шерикчилигини ривожлантириш мумкин бўлади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Тадқиқотда кузатиш, қиёсий таҳлил, синтез, контент таҳлил, тизимли ёндашув каби усуллардан фойдаланилди.

Аввало, агросервис хизматларини ривожлантириш бугунги кун талаби бўлиб, бу борада республикамиз олимларидан Қ.Д.Мирзаев қуйидагича таъкидлайди: “Агросервис хизматлари - бозор иқтисодиёти шароитида аграр соҳа тизимида қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш эҳтиёжларини қондиришга қаратилган, шу жараёнда замонавий техника ва технологияларга асосланган ҳолда истеъмолчилар талаб ва таклифларини ўзаро уйғунликда шакллантирувчи ҳамда уни амалга ошириш даврида даромад келтиришга

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-705-712

йўналтирилган мақсадга мувофиқ фаолиятлар мажмуидир” [3]. Мазкур таърифга асосан, агросервис хизматлари истеъмолчиларнинг эҳтиёжларини қондиришга қаратилган бўлиб, уни мақсадга мувофиқ амалга ошириш учун янги тизим зарур бўлиб, бу ўз навбатида ушбу муносабатларни амалга оширишда давлат ва тадбиркорларнинг фаолигини биргаликда ташкил қилиш ҳисобланади. Ушбу муносабат давлат-хусусий шерикчилик муносабатларини юзага келтиради.

Давлат-хусусий шерикчилик муносабатлари тушунчасининг моҳиятини англаб олишда Louis Witters, Revital Marom, Kurt Steinert, E.Yescombe, Б.Сазонов, Н.Степанова, Е.Махортов, А.Семченков, М.Дерябина ва Е.Дынинларнинг тадқиқотлари муҳим манба бўлиб хизмат қилади. Уларнинг изланишларида давлат-хусусий шерикчилик муносабатларининг мазмун-моҳияти, келиб чиқиши ва ушбу шерикчилик муносабатлари доирасидаги механизмлар тадқиқ этилган.

ДХШ турли ташкилотлари ва мутахассислар томонидан турлича талқин қилганлар. Жумладан, БМТ томонидан “ДХШ – давлат сектори томонидан ишлаб чиқарилувчи ва тақдим этилувчи хизматларни молиялаштириш, режалаштириш, амалга ошириш ва объектлардан фойдаланиш узоқ муддатли тақдим қилинишини таъминлаш, рискларни хусусий инвесторга ўтказиш, давлат ва маҳаллий тузилмалар билан юридик шахсларнинг кўп қиррали узоқ муддатли шартнома шаклларини амалга ошириш билан фарқланади”, деб таъриф берилган [4].

Олимлардан У.И.Джуманиязов қуйидагича таърифлайди: “Давлат-хусусий шерикчилиги - амалдаги қонунлар доирасида давлатнинг узоқ муддатли стратегик вазифа ва мақсадларидан келиб чиққан ҳолда юзага келиши мумкин бўлган турли хил иқтисодий, сиёсий, ижтимоий, маданий ва бошқа таваккалчиликлар, хавф-хатарлар, рискларни тақсимлаш асосида хусусий сектор билан аҳоли учун ўта ижтимоий-иқтисодий, сиёсий аҳамиятга молик объектларни қуриш ёки шу аснодаги ижтимоий хизматларни кўрсатиш учун хусусий сектор билан амалга оширадиган том маънодаги ўзаро манфаатли алоқаларидир”. [5] Шу боис, давлат хусусий шерикчилик тизими асосида ҳар бир хизматларни ривожлантириш муҳим вазифа бўлиб ҳисобланади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-705-712

МУҲОКАМА

Бугунги кунда давлат хусусий шерикчилик тизими асосида қишлоқ хўжалигининг замонавий кўринишларидан бири бўлган агросервис хизматларини ривожлантиришдир. Сабаби қишлоқ хўжалигида такрор ишлаб чиқариш жараёнларини узлуксиз амалга ошириш ва тармоқни интенсив ривожлантиришда юқори унумли замонавий машиналар, техника воситалари, асбоб-ускуналар ва бошқа ишлаб чиқариш воситалари муҳим аҳамият касб этади. Шу боисдан ҳам, ушбу тармоқни барқарор суръатлар билан ривожлантириш учун унинг техника базасини янада юксалтиришга жиддий эътибор қаратиш лозим.

Ҳозирги кунда давлат-хусусий шерикчилик тизимини шакллантириш мақсадида фермер хўжаликларининг техника воситаларини сотиб олишга бўлган эҳтиёжларини қондириш агросервис хизматларини амалга ошириш омили бўлиб ҳисобланади. Ушбу жараён қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сотиш олиш борасида қуйидаги йўналишлар ёки агросервис хизматларини кўрсатиш орқали таъминланади (1-расм):



1-расм. Фермер хўжаликларининг агросервис хизматларини кўрсатиш асосида уларнинг эҳтиёжларини қондириш[1]

Ушбу расмга асосан, фермер хўжаликларининг техника воситаларини сотиб олишга бўлган эҳтиёжларини максимал қондириш учун агросервис хизматларини изчил равишда ташкил этиш лозим. Чунки, кўпчилик фермер хўжаликлари техника воситаларига эга бўлиш ва улардан самарали фойдаланишни хоҳлайдилар. Бунинг асосий сабаби сифатида кўп харажат қилмасдан, қишлоқ хўжалиги экинларини белгиланган агротехника

[1]Муаллифлар ишланмалари

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-705-712

муддатларига кўра сифатли ишлов бериш, моддий ресурслар ва тайёр маҳсулотларни керакли жойга етказиб беришдир. Бунинг учун республикамизда турли фаолият юритишга ихтисослашган фермер хўжаликларининг ер майдонларини кенгайтириш ҳамда уларнинг барқарор суръатлар асосида ривожланишига шарт-шароитлар яратиш лозим. Бу орқали моддий-техника воситалари билан таъминлашга эришилади.

Шунингдек, республикамизда боғдорчилик, узумчилик ва сабзавотчиликка ихтисослашган фермер хўжаликларининг республикамиз ҳудудлари бўйича ер майдони улуши тақсимланиши ва улар майдонига қараб техника етказиб беришни тақозо этади. Бунинг учун давлат хусусий шериклик тизимининг янги шакли лизинг усули ёки фаолияти бўлиб ҳисобланади.

Сўнгги йилларда республикамизда боғдорчилик ва сабзавотчиликка ихтисослашган хўжаликларга лизинг асосида техникалар етказиб бериш бўйича етарли ишлар олиб борилмоқда. Хусусан, бу борада республиканинг ички имкониятлари ва хорижий инвестицияларга кенг таянилиб, турли қувватга эга бўлган универсал, махсус тракторлар ва машиналарни серияли ишлаб чиқариш муҳим масала бўлиб ҳисобланади. Бунинг учун қишлоқ хўжалигига юқори унумли, замонавий ва ресурс тежовчи техникаларни жалб этиш ҳамда бу борада хориж компаниялари билан ҳамкорлик қилиш талаб этилади.

Лизинг бозорида мавжуд муаммолар сақланиб қолган бўлса-да, мамлакатимизда лизинг бозорини ривожлантиришнинг кейинги вазифалари ва устувор йўналишлари аниқ белгилаб олинган. Хусусан, 2020 йил якунлари бўйича республика лизинг хизматлари бозорида 48 та лизинг берувчи фаол равишда лизинг фаолияти билан шуғулланган бўлиб, улардан 18 таси банклар ташкил этади. Ҳисобот даврида лизинг операцияларининг жами умумий портфели 5 трлн. 673 млрд. сўмни ташкил этди. Ҳисобот даврида лизинг берувчилар томонидан 5875 янги лизинг битимларини тузилди, уларнинг ҳажми 1 трлн. 852 млрд. сўмни ташкил этди ва бу эса ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 33,7 фоизга ёки 943,2 млрд. сўмга кам кўрсаткичга тенг бўлди [6].

Пандемиянинг асосий таъсири ва мажбуран қабул қилинган карантин чоралари лизинг компаниялари фаолиятига ҳам таъсир қилди. Яъни, муҳим аҳамиятга эга бўлган корхоналардан ташқари кўпгина корхоналар ўз ишларини вақтинча тўхтатиб туришди. Охир-оқибатда, аҳолининг сотиб олиш қобилияти пасайиб, экспорт ва импорт пасайиб кетди. Натижада, лизинг компанияларининг кўплаб мижозлари тўловларни кечиктира бошладилар,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-705-712

уларни кечиктиришларни ва жадвалларни қайта тузишни талаб қилдилар. Айниқса, иқтисодиётнинг транспорт, туризм, умумий овқатланиш, қурилиш каби COVID-19 таъсир қилган соҳаларида лизинг хизматларига талаб камайди. Амалдаги лойиҳалардан тушумларнинг пасайиши 2020 йилда янги режалаштирилган лизинг лойиҳаларини амалга оширишга салбий таъсир кўрсатди.

2020 йилнинг якунларига кўра, қишлоқ хўжалиги техникаси лизингга берилган объектлар орасида етакчи ўринни эгаллади ва унинг лизинг операцияларининг умумий таркибидаги улуши 45,5 фоизни ташкил этди. Ундан кейин 21,4 фоизни ташкил этган технологик ускуналарнинг улуши ва 20,2 фоизни ташкил этган автотранспорт воситаларининг улуши келади. Ушбу йил давомида лизинг компаниялари орасида “O'zagrolizing” АЖ (723,2 млрд. сўм), “Uzbek Leasing International A.O.” АЖ ҚК (169,8 млрд. сўм), “Kamaz Asia Leasing” МЧЖ ҚК (121,3 млрд. сўм), “O’zavtosanoat-Leasing” МЧЖ ЛК (120,9 млрд. сўм) ва “Asaka-Trans-Leasing” МЧЖ ЛК (107,4 млрд. сўм) бозорнинг энг йирик иштирокчилари бўлишди [6]. Бу эса соғлом рақобат сервис хизмати кўрсатувчи корхоналарнинг ривожланиб бораётганлигини кўрсатади.

Давлат-хусусий шерикчилиги асосида агросервис корхоналарини иқтисодий ривожлантиришда уларга бир қатор имкониятлар яратилади. Хусусан, бугунги кунда давлат-хусусий шерикчилиги асосида ташкил этилган агросервис кўрсатадиган корхоналарга солиқ тўлашдан имтиёзлар берилиши лозим. Ҳамда қишлоқ хўжалиги техникаларини сотиб олиш учун лизингнинг кредит ресурсларини кўпайтириш мақсадида хорижий инвестицияларни кенг жалб қилиш лозим. Бунда давлат-хусусий шерикчилиги асосида агротехник хизматни ташкил этиш тўғрисидаги низомни ҳам ишлаб чиқиш лозим.

Шунингдек, агросервис хизматини кўрсатувчи корхоналарнинг молиявий фаолиятини янада қўллаб-қувватлаш лозим бўлиб, бунинг учун улар инвестицияларни ўзларига жалб қилиш мақсадида қуйидаги чора-тадбирларни амалга ошириш лозим:

- иқтисодий фаолиятни амалга оширишда уларнинг фаолиятига аралашув тизимини қатъий ман қилиш;

- корхоналарнинг мол-мулкини хусусийлаштириш ва уларни сабабсиз ўзлаштирилишидан ҳимоялаш;

- лойиҳага киритилган инвестициялар, улардан олинадиган даромадга эркин эгалик қилиш, фойдаланиш ва ихтиёрий тасарруф қилиш;

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-705-712

- битимларга асосан агросервис фаолиятига салбий таъсир қиладиган ҳолатларни қайта кўриб чиқиш.

НАТИЖАЛАР

Юқорида амалга ошириладиган чора-тадбирлардан келиб чиқиб, давлат-хусусий шерикчилиги асосида агросервис хизматларини кўрсатувчи фермер хўжаликларга қуйидаги афзалликларни яратиб беради:

- сотиб олинаётган техниканинг қийматини узоқ муддат давомида бўлиб-бўлиб тўлаш;
- бирнинг вақтнинг ўзида замонавий техника ва технологияларни жалб қилиш мумкинлиги;
- техника ва ускуналар учун лизинг тўловларини ундан олинадиган даромад ҳисобидан қоплаш;
- техника ва ускуналарни тўлиқ қиймат бўйича сотиб олмаслигини айланма маблағларни озод қилиш;
- лизингга олинган техника воситаларини кафолат муддати давомида бартараф қилиш.

ХУЛОСА

Ҳозирги кунда фермерларнинг техникага бўлган талабини қондириш улар билан ҳамкорлик қилишнинг янги йўналиши бўлиб ҳисобланади. Бу борада фермерлар техникадан ўзаро ҳамкорликда фойдаланиш асосида уюшиб фаолият кўрсатадилар. Ушбу жараённи амалга оширишда давлат қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари учун лизингни инвестиция компаниялари орқали молиялаштиради, лизинг хизматлари бозорида соғлом рақобатни сақлаб қолади ва ўз фаолиятини янада қўллаб-қувватлайди. Ушбу муносабат давлат хусусий шерикчилик тизими асосида ташкил этилади ва улар ўз навбатида агросервис хизматларини ривожлантиришни тақозо қилади. Бу борада ушбу тизим асосида агросервис хизматларини ривожлантиришни янада такомиллаштириш учун лизинг хизматлари турини янада кўпайтириш ва лизинг корхоналарининг маҳсулот етиштиришдани фаол иштирокини янада жадаллаштириш зарур.

Умуман олганда, қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчиларга ўз вақтида ва сифатли механизация хизматларини кўрсатиш, лизингни ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш, давлат-хусусий шериклик

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-705-712

асосида аграр тармоқни янгилаш ва техник модернизациялаш мақсадида давлат-хусусий шериклик асосида агротехник сервис хизматларини ташкил этиш мақсадга мувофиқ. Бунинг учун давлат томонидан қуйидаги йўналишлардаги чора-тадбирларни амалга ошириш лозим:

- доий мониторинг ўтказиш, агросервис хизматлар миқдорини аниқлаш ва давлат инвестицияларига эҳтиёжни ҳисоб-китоб қилиш;

- агросервис асосида фаолият кўрсатиш учун бино, иншоотлар, ускуналар ва станоклар миқдорини ҳисоб-китоб қилиш;

- танлов ва тендерлар ўтказиш орқали давлат-хусусий шерикчилиги асосида агротехник хизматларни яратиш бўйича ишларни ташкил этиш;

- давлат-хусусий шерикчилиги асосида ташкил этилган агросервис учун механизация хизматларнинг қийматини аниқлаш;

- давлат-хусусий шерикчилиги асосида фойдаланилмаётган бинолар, ишлаб чиқариш майдонлари, таъмирлаш устахоналари ускуна ва жиҳозлари, гаражлардан фойдаланиш имкониятини қайта кўриб чиқиш;

- агросервис хизматларини инфраструктура хизматларининг турлари билан таъминлаш.

REFERENCES

1. https://uza.uz/ru/posts/prezident-hizmatlar-sohasini-rivozhlantirish-uchun-har-bir-hududga-alohida-yondashuv-zarur_329377?q=%2Fposts%2Fprezident-hizmatlar-sohasini-rivozhlantirish-uchun-har-bir-hududga-alohida-yondashuv-zarur_329377
2. https://lex.uz/docs/4329270
3. Мирзаев К.Д. Агросервис хизматлари самарадорлигини оширишнинг методологик асослари. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Самарқанд: СамИСИ, 2012. – 48 б.
4. Балиев А. Выгода делится на пять. // Российская Бизнес-газета» - Государственно-частное партнерство. № 958 (29) от 29 июля 2014 г. URL: http://www.rg.ru /2014/07/29/opit.html.
5. Джуманиязов У.И. Давлат-хусусий шерикчилиги асосида уй-жой қурилиши соҳасида корпоратив бошқарув механизмларини такомиллаштириш. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент: ТДИУ, 2017. – 57 б.
6. http://uzbekleasing.uz/uz/about/news/3758/

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-713-718

ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИСИ ФАОЛИЯТИДА АХЛОҚИЙ СИФАТЛАРНИНГ ЎРНИ

Ў. Б. Шакаров
Ўзбекистон халқаро ислом академияси “Халқаро муносабатлар ва ижтимоий фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси, PhD
o.shakarov@iiau.uz

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада давлат хизматчиларининг ахлоқий сифатлари, жумладан, давлат хизматидаги раҳбарларнинг ҳокимиятни бошқариш ва бунда ахлоқий ҳатти-ҳаракатлари билан намуна бўлиш талаблари ҳақида сўз юритилади. Шунингдек, давлат хизматчиси ўз вазифасини нафақат ижро этиши балки, уни қандай ижро қилиши, унинг халқ олдидаги масъуллигини ҳис қилишида, касбий салоҳиятидан ташқари унинг шахсий сифат ва фазилатларини белгиловчи механизмларни шакллантириш лозимлиги ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар: давлат, давлат хизматчиси, жамият, адолат, адолат концепцияси, регламент, бошқарув ахлоқи, ахлоқ, Ахлоқ кодекси, ахлоқ нормалари, ахлоқий қадриятлар, раҳбар, раҳбар ахлоқи, танқид, рағбат, ҳокимият.

THE ROLE OF MORAL QUALITIES IN THE ACTIVITIES OF A CIVIL STAFF

ABSTRACT

This article discusses the ethical qualities of civil servants, including the requirements for civil service leaders to govern and set an example in their ethical behaviour. It is also said that a civil servant should not only perform his duties, but also how to perform them, his sense of responsibility to the people, in addition to his professional potential, the formation of mechanisms that determine his personal qualities and attributes.

Keywords: state, civil servant, society, justice, concept of justice, regulation, management ethics, morality, moral code, moral norms, moral values, leader, leader ethics, criticism, encouragement, authority.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-713-718

КИРИШ

XX аср бошларида ривожланган мамлакатларнинг давлат бошқарувига доир таълимотларида ахлоқий қадриятлар устуворлик касб этганлигига гувоҳ бўламиз. Жумладан, Германия, Франция, Америка Қўшма Штатлари, Хитой, Корея ва Япония каби қатор давлатларда раҳбар кадрларнинг салохияти - ривожланиш ва тараққиётнинг бош мезони сифатида кенг кўламли назарий методологик таълимотлар вужудга келди. Улар "давлат хизматчиси"нинг объекти ва предметини ташкил этишга олиб келди. Бугун кўпгина ривожланаётган мамлакатларда ҳам "Давлат хизматчиси" категорияси асосида "Ахлоқий кодекс", "Ахлоқ нормалари" бошқарув соҳасига кириб келди. Бунда шахснинг раҳбарлик салоҳиятини аниқлаш, интелектуал ресурс сифатида уни жамият ривожига тадбиқ этиш технологиялари, жорий этиш механизмлари яратилди.

Бугун мустақил тараққиёт йўлини танлаган Ўзбекистон учун ҳам бундай масала муҳим аҳамият касб этиши турган гап. Шу жиҳатдан, мустақиллик йилларида давлат бошқарув органлари тубдан ўзгартирилди. Уларнинг мазмун-моҳиятида демократик ва бозор иқтисоди тамойиллари Ўзбекистон Республикаси Конституциясида ўз ифодасини топди. Жумладан, "давлат ўз фаолиятини инсон ва жамият фаровонлигини кўзлаб, ижтимоий адолат ва қонунийлик принциплари асосида амалга оширади" [1] деган тамойилни таъминлашда давлат органлари раҳбарлари фаолиятида қатор масъулият ва жавобгарликнинг белгиланиши, фуқароларнинг давлат бошқарувидаги иштироки, фуқаролик жамияти асосларининг кенгайтириб борилишига хизмат қилмоқда. Зеро, ислоҳотларнинг амалга оширилиши кўп жиҳатдан раҳбар кадрларнинг ўз ишига бўлган муносабатига боғлиқ бўлади. Бу борада мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев шундай дейди: "Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиб қолиши керак". [2] Дарҳақиқат, бугунги давр раҳбарлардан қатор ахлоқий сифатларни талаб қиладики, бундай талабларсиз раҳбар ўз вазифасини тўлақонли бажара олмайди. Инчунун, давлат хизматчисининг ахлоқи – бу маълум интизом ва тартиблар тизими сифатида бошқарув самарадорлигини оширишга хизмат қилувчи омиллар қаторига киради.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-713-718

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Давлат хизматидаги раҳбарларнинг ҳокимиятни бошқариш ва бунда ахлоқий ҳатти-ҳаракатлари билан намуна бўлиш талаби қадимий давлатчилик маданиятимиз билан бевосита боғлиқ қадриятларимиздан бири ҳисобланади. Зеро, раҳбарнинг халқпарвар ва адолатпарвар бўлиши давлатнинг истиқболи ва ривожини белгилаб келган. Бу борада бобомиз Муҳаммад Қози шундай дейди: - “У (раҳбар) шуни билсинки, амирлик мансаби ва ҳукумат бир восита бўлиб, бу восита орқали абадий саодат ва эзгу ном қўлга киритилади. Даврон подшоҳлари ва ҳокимларининг аксари фоний дунёнинг бевафо давлатига мағрур бўлиб, нафслари учун ўз динини вайрон қиладилар ва беномусликлари туфайли иймонни шамолга учирадилар”. [3] Ҳокимиятнинг обрўйи, нуфузи уни бошқарётган шахслар ахлоқи билан боғлиқ эканлиги тўғрисидаги қарашлар қадимий қадриятларимиздан ҳисобланади. Давлат хизматчисининг ахлоқий қиёфаси, бошқарувни ахлоқий қадриятлар асосида ташкил этишни такомиллаштиришда бундай ўлмас меросимиз замонавий давлатчилигимизда ҳам ўз аҳамиятини йўқотган эмас. Аммо, раҳбарнинг фуқароларга, фуқароларнинг давлатга бўлган ўзаро ишончи ва ҳамкорлик муносабатларини ташкил этиш, қолаверса, ҳокимиятнинг ички муносабатларини соғлом ахлоқий қоидалар асосида қуришда айрим зиддиятли қарашлар ҳам мавжуд. Бундай зиддиятлар раҳбарнинг ўз вазифаси доирасида адолат ва қонун тамойилларига амал қилишида, ижтимоий фаолиятига, шахсий фазилатларига боғлиқ муносабатларда намоён бўлади. Зеро, ҳокимият доимо сиёсий ва молиявий эркинлик манбаи бўлганлиги учун унинг “хушторлари” кўп бўлади. Бундай имконият ва воситаларга эгалик қилиш, уни ўз манфаати йўлида фойдаланиш истаги сақланиб келмоқда. Бу биринчи сабаб. Раҳбарнинг ахлоқий қадриятларга амал қилиш борасидаги зиддиятининг иккинчи сабаби, у яшаётган ижтимоий-маънавий, сиёсий-иқтисодий муҳит. Агар ишлаб чиқариш муносабатлари адолатли тақсимот мезонлари асосида қурилмаса, ҳуқуқий муносабатлар шаклланмаган бўлса, бу бошқарув маданиятининг саёзлигини ифодалайди. Маданий саёзлик ҳолатида эса раҳбар фаолиятига ахлоқий талаб ва қадриятларни тадбиқ этиб бўлмайди. Бундай шароитда бошқарувчи ва бошқарилувчилар ўртасидаги маърифий муносабатлар тартиби ишламайди. Оқибатда, бошқарув тизими раҳбар ва ходимлар фаолиятида тарафкашлик, талончилик, таъмагирлик, порахўрлик каби манфаатларни қандай бўлсада, қондириш кайфияти ҳукмронлик қилади. Бундай муҳитни тартибга солишдан

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-713-718

кўра, айрим раҳбарлар учун муроса йўлини танлаш осон кечади. Шунинг учун, ҳокимиятга ва унинг лавозимларига эгалик қилиш ёхуд унга интилиш ҳуфиёна йўллар орқали эришиш иштиёқи ортади. Бу эса, ўз ўрнида носоғлом кучларнинг ҳокимият ёки раҳбарлик лавозимларига келишига – ахлоқсиз муҳитнинг қарор топишига олиб келади.

Бошқарув ва раҳбар ахлоқи билан боғлиқ муносабатларни тартибга солишда замон талабига жавоб берувчи бошқарув идора усуллари, кадрлар ахлоқий - касбий салоҳиятининг ўлчов мезонларининг ҳуқуқий асослари сифатида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 2 мартдаги №62-сонли қарори билан тасдиқланган “Давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари ходимларининг одоб-ахлоқ намунавий қоидалари” [4] аҳамияти катта албатта. Ушбу қоидаларнинг асосий мақсади давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари ходимлари одоб-ахлоқининг ягона принциплари ва қоидаларини белгилаш, уларнинг ўз хизмат вазифаларини виждонан ва самарали бажаришлари учун шарт-шароитлар яратиш, давлат хизматида суиистеъмолликларнинг олдини олишга қаратилган. Давлат хизматчилари мазкур қоидалар билан таништирилиши ҳамда унга риоя этиши шартлиги биринчидан, ўз ишига бўлган масъулиятини оширишга ундаса, иккинчидан, ходимларнинг ўзаро муносабатларида юксак маънавий-ахлоқий фазилатларни шакллантиришнинг ягона услуби эканлигидан далолат беради. Масаланинг муҳим жиҳатларидан бири шуки, давлат хизматчисининг мазкур қоидаларга риоя этиши касбий фаолиятини ва хизматдаги хулқ-атворини баҳолаш мезонларидан бири ҳисобланишидир.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 8 сентябрдаги ПФ-5185-сон Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислоҳотлар концепцияси” [5]нинг қабул қилиниши бугунги кунда давлат хизматчиларини лозим даражада масъулият ва ташаббускорлигини оширишга хизмат қилмоқда. Мазкур концепция давлат хизматчиларининг мақомини белгиловчи ягона нормалар, уларнинг фаолиятини баҳолаш мезонлари шакллантирилиши ва давлат хизматчиларининг профессионал корпусини яратиш имконини беради. Шунингдек, давлат хизматчиларининг профессионал корпусини яратиш мақсадида давлат хизматини ташкил этиш, шу жумладан, ҳуқуқий мақоми, давлат хизматчиларининг классификацияси, хизматга қабул қилишнинг шаффоф механизмлари (танлов асосида), кадрлар захирасини

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-713-718

шакллантириш, хизматни ўташ, ахлоқ нормаларига риоя этилишини таъминлаш масалаларини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқиш имконини бермоқда. Ахлоқий жиҳатдан эътиқодли раҳбар, биринчи ўринда, жамоанинг ахлоқий қадриятлар фалсафасини шакллантиришга аҳамият қаратади, мавжудларини мустаҳкамлайди. Жамоада мазкур фалсафага эътибор бермаслик жамоанинг маънавий қиёфасини, унинг шаъни ва қадр-қимматини мавҳумлаштиришга олиб келади. Натижада мажбурият олдидаги масъулият ҳам нисбий кўриниш касб этади. [8]

Шунингдек, “халқ давлат органларига эмас, давлат органлари халққа хизмат қилиши керак” деган принцип барча бўғиндаги раҳбарлар фаолиятида асосий қоидага айланиши керак [6] деган норманинг белгиланиши ҳам масаланинг муҳимлигини билдиради. Шу ўринда раҳбар кадрларнинг салохият сифатларини аниқловчи ва белгиловчи механизмларни бошқарувнинг турли соҳа ва хусусиятларига мувофиқлаштирган ҳолда амалда жорий этишимиз зарурлиги кўриниб турибди. “...давлат хизматчисининг ахлоқи нафақат унинг муваффақиятларига, балки давлатнинг обрўсига ҳам кучли таъсир қилади” [7], дейди А. Бегматов. Афсуски, мамлакатимизда, ютуқлар баробарида давлат бошқарувидаги раҳбар ходимларнинг турли даражада ўз хизмат вазифасини суиистеъмол қилиш ҳолатлари учраб турибди. Мавжуд иллатларнинг ижтимоий сабабларини аниқлаш, уларни келтириб чиқараётган омилларни таҳлил этиш давлат ва жамият бошқарувининг айрим заиф томонларини ойдинлаштиришга ёрдам берган бўлар эди. Давлат бошқаруви мунтазам равишда таҳлил этиб борилиши ва унинг фаолият натижалари тегишли хулосалар билан мустаҳкамланиши лозим. Чунки, жамият ривожи ва бугунги кунда қўйилаётган талаблар бизнинг ихтиёримиздан ташқари ҳар дақиқа ўзгариб турибди. Шундай экан, бошқарувни назарий жиҳатдан таҳлил қилиб боришга эътиборни кучайтиришимиз зарур.

Бугунги кунда давлат хизматчиси ўз вазифасини нафақат ижро этиши балки, уни қандай ижро қилиши ҳам муҳим масала. Унинг халқ олдидаги масъуллигини ҳис қилишида, касбий салоҳиятидан ташқари унинг шахсий сифат ва фазилатларини белгиловчи механизмларни шакллантириш лозим. [9]

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда, давлат хизматчисининг маънавий-ахлоқий хулқ-атвори давлат хизмати фаолиятининг асосий тамойилларидан бири бўлиб

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-713-718

ҳисобланади. Чунончи, давлат хизматининг маънавий-ахлоқий таркиби демократик даражалар яхлитлиги ва унинг истиқбол самарадорлиги таъминлайди, айни пайтда у давлат хизматининг ахлоқий-ҳуқуқий мақомини мустаҳкамлашга хизмат қилади. Шу маънода, давлат хизматчиси – раҳбарнинг маънавий-ахлоқий омиллари келгусида ҳам долзарб аҳамияти касб этиб боради. Зеро, замонавий раҳбарнинг ахлоқий фазилатлари ўзбек жамиятини мустаҳкамлашда ва барқарорлигини таъминлашда ижобий сиёсий-ахлоқий муҳитни шакллантиришда муҳим аҳамият касб этади.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2017. –Б. 7.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. –Т.: Ўзбекистон, 2017. –Б.6.
3. Муҳаммад Қози. Ҳукмдорга ўгитлар. –Т.: Шарқ, 1999. Б-26.
4. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 9-сон, 94-модда
5. Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислоҳотлар концепцияси. Т., 2017 йил 8 сентябрь, ПФ-5185-сон
6. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гаровидир. Т.: Ўзбекистон, 2017, 16-бет.
7. Бегматов. А. Давлат хизмати одоби. // Жамият ва бошқарув. № 3. 2004. – 8-бет.
8. https://www.oriens.uz/journal/article/boshqaruv-reglamentini-tashkil-etishda-axloqiy-tamoyillarning-orni/
9. U Shakarov. MORAL PRINCIPLES FOR ESTABLISHING RULES OF FAIR GOVERNANCE. The light of Islam 2019 (4), 27

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-719-727

DRACOCEPHALUM DIVERSIFOLIUM RUPR. НИНГ БАЛАНДЛИК МИНТАҚАЛАРИ ВА ИҚЛИМ КЎРСАТКИЧЛАРИ БЎЙИЧА ТАРҚАЛИШИ

Т. Х. Махкамов
Тошкент давлат аграр университети

Ф. И. Акбаров
Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Ботаника институти

Д. Х. Рахматова
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
mturobzhon@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Мақолада *Dracocephalum diversifolium* нинг экологияси тўғрисида маълумотлар келтирилган. *D. diversifolium* нинг мавжуд координаталарини баландлик минтақалари бўйича жойлашувини моделлаштириш шуни кўрсатдики, бу тур тоғ минтақасига ҳос бўлиб, текисликларда кузатилмади. Турнинг баландлик минтақалари бўйича тарқалиш диапазони 1089 м (Помиролой) – 3363 м (Помиролой) ташкил этиб, ўртача баландлик Тиёншон 2190 м, Помиролой 2244 м га тўғри келди. Шимолдан (Тиёншон) жанубга (Помиролойга) борган сари турнинг баландлик диапазони ортиб бориши кузатилди**.** *D. diversifolium* тарқалган майдонларда йиллик ёғинларнинг умумий амплитудаси 297 мм (Тиёншон) – 967 мм (Помиролой) эканлигини кўрсатди. Ёғинларнинг ўртача кўрсатгичи Тиёншон 530 мм, Помиролой 693 мм га тенг. Йиллик ёғинлар учун энг оптимал оралиқ 600–800 мм ҳисобланиб, унга намуналарнинг 40% тўғри келади. Йиллик ўртача ҳарорат бўйича таҳлиллар *D. diversifolium* -4.1°–12.03°C оралиғида тарқалганлигини кўрсатди. Моделлаштириш натижаларига кўра шимолдан (Тиёншон) жанубга (Помиролой) борган сари, *D. diversifolium* нинг мавжуд ўсиш нуқталарининг баландлик диапазони, йиллик ёғинлар миқдори ва ўртача ҳарорат ортиб борди. Биоиқлимий тенденциялар орасида, *D. diversifolium* гербарий намуналари йиғилган координаталар учун BIO14 энг юқори чекловчи хусусятга эга бўлиб 7 та координатани ўз ичига олди.

Калит сўзлар: баландлик, ёғингарчилик, ҳарорат, Тиёншон, Помиролой, DIVA-GIS, Map-Viever, SRTM.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-719-727

DISTRIBUTION OF DRACOCEPHALUM DIVERSIFOLIUM RUPR. BY HIGH REGIONS AND CLIMATE INDICATORS

ABSTRACT

The article provides information on the ecology of *Dracocephalum diversifolium*. Modeling the location of the existing coordinates of *D. diversifolium* above the altitudinal belts showed that this species is specific to the highlands and does not occur on the plains. The distribution area of the species in the altitudinal zones was 1089 m (Pamiralay) - 3363 m (Pamiralay), the average height was 2190 m in Tianshan and 2244 m in Pamiralay. The elevation range of the species was observed to increase from north (Tianshan) to south (Pamiralay). *D. diversifolium* showed that the total amplitude of annual precipitation in the distributed territories was 297 mm (Tianshan) - 967 mm (Pamiralay). Average rainfall is 530 mm in Tianshan and 693 mm in Pamiralay. The optimal range of annual precipitation is 600–800 mm, which is 40% of the samples. Analysis of the average annual temperature showed that *D. diversifolium* was distributed in the range of -4.1-12.03 °C. According to the modeling results, the range of heights of the existing growth points of *D. diversifolium*, the amount of annual precipitation and the average temperature increased from the north (Tianshan) to the south (Pamiralay). Among bioclimatic trends, herbarium specimens of *D. diversifolium* had the highest limiting property BIO14 for the collected coordinates and included 7 coordinates.

Keywords: altitude, precipitation, temperature, Tianshan, Pamiralay, DIVA-GIS, Map-Viever, SRTM.

КИРИШ

Ўзбекистон флорасидаги обориген ва интродуцент ўсимликларни биоэкологик хусусиятларини ўрганиш жадал равишда олиб борилмоқда [1, 2]. Аммо қимматбахо хўжалик ахамиятига эга бўлган турларнинг тарқалиш қонуниятларини очиб бериш бўйича ишлар деярли мавжуд эмас.

Dracocephalum L. туркуми Nepetinae кенжа трибаси Mentheae трибаси Lamiaceae оиласи таркибига киради. Туркумнинг дунё миқёсида 76 тури [3], Ўзбекистонда 15 тури учраши қайд этилган [4].

Туркум буйича дастлабки маълумотлар К.Линнейнинг “Species plantarium” (1753) асарида келтирилган [5]. К.Линнейнинг ушбу асарида Dracocephalum туркумининг 11 тури тўғрисида маълумот келтирилган: *Dracocephalum virginianum* L. (*Physostegia virginiana* (L.) Benth.),

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-719-727

Dracocephalum canariense L. (*Cedronella canariensis* (L.) Webb & Berthel.), *Dracocephalum pinnatum* L., *Dracocephalum austriacum* L., *Dracocephalum ruyschiana* L., *Dracocephalum grandiflorum* L., *Dracocephalum moldavica* L., *Dracocephalum canescens* L. (*Lallemantia canescens* (L.) Fisch. & C.A.Mey.), *Dracocephalum peltatum* L. (*Lallemantia peltata* (L.) Fisch. & C.A.Mey.), *Dracocephalum nutans* L., *Dracocephalum thymiflorum* L.

Dracocephalum diversifolium Rupr. Ўрта Осиёда кенг тарқалган тур хисобланиб, Н.С. Абдуллаева [4] томонидан Ўзбекистон флорасида қуйидаги жамоаларда учраши қайд этилган: ҳар хил ўтли - бўзбошли - наъматакзор (*Rosa ecae - Dracocephalum diversifolium - Poa bulbosa - Oxytropis lehmannii, Hypericum scabrum, Festuca valesiaca*); ҳар хил ўтли - қашқарбедали - бўзбошзор (*Dracocephalum diversifolium - Mellilotus officinalis - Carex pachystylis, Poa bulbosa, Hypericum scabrum*); бетагали - бўзбошли - бодомчазор (*Amygdalus spinosissima - Dracocephalum diversifolium- Festuca valesiaca*); бозулбангли - бўзбошли - наъматакзор (*Rosa maracandica -Dracocephalum diversifolium - Lagochilus seravschanicus*).

Dracocephalum diversifolium ер устки қисмида 1,25-1,50% эфир мойи мавжуд бўлиб, асосий таркибий қисмлари: сабинен (20.7%), β-пинен (10.6%), DL-лимонен (7.5%), транс-валеренил ацетат (7,5%), м-цимол (6.2%), 1,8-цинеол (5.0%), Т-кадинол ацетат (4.4%), δ-кадинен (3.9%), кариофиллен (2.4%) [6]. Шу билан бирга *Dracocephalum diversifolium* таркибида алкалоилар [7, 8,], флавоноилар [9, 10], ёғ кислоталари [11] мавжуд.

ТАДҚИҚОТ ОБЪЕКТИ ВА УСЛУБИЁТИ

Тадқиқот объекти Марказий Осиёда кенг тарқалган, Lamiaceae оиласи вакили *Dracocephalum diversifolium*.

Турни Марказий Осиё бўйлаб кенг тарқалганлиги сабабли Тиёншон ва Помиролой тоғ тизмаларидан 40 та ўсиш нуқталари олинди. Ўсиш нуқталари бўйича маълумотлар 1 жадвалда келтирилди.

Жадвал 1.

Гербарий намуналари терилган маъмурий худудлар, координаталар сони ва олинган манбалар

Тизмалар	Маъмурий худудлар	Координаталар сони	Маълумот олинган манбалар
Тиёншон	Киргизистон	16	MW, GBIF
	Қозоғистон	4	MW, GBIF
Помиролой	Ўзбекистон	18	TASH
	Киргизистон	2	GBIF

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-719-727

Dracocephalum diversifolium нинг гербарий намуналарини мавжуд нуқталар ва потенциал тарқалиши мумкин бўлган ҳудудларнинг биоиқлимий кўрсаткичларини аниқлашда DIVA-GIS ва Map-Viever [12, 13] дастурлари ёрдамида амалга оширилди, баландлик минтақалари бўйича тақсимланиши SRTM (Shuttle Radar Topography Mission – NASA JPL) [14] асосида моделлаштирилди.

ОЛИНГАН НАТИЖАЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ

D. diversifolium нинг мавжуд координаталарини баландлик минтақалари бўйича жойлашувини моделлаштириш шуни кўрсатдики, бу тур тоғ минтақасига ҳос хусусиятларга эга бўлиб, текисликларда тур намуналари кузатилмади. Турнинг баландлик минтақалари бўйича тарқалиш диапазони 1089 (Помиролой) – 3363 (Помиролой) м. ташкил этиб, ўртача баландлик Тиёншон 2190 м, Помиролой 2244 м га тўғри келди. Шимолдан (Тиёншон) жанубга (Помиролойга) борган сари турнинг баландлик диапазони ортиб бориши кузатилди (1-расм).



1-расм. *D. diversifolium* баландлик минтақалари бўйича тарқалиши

Хар қандай ўсимликларнинг географик тарқалиши ва ареалини шаклланишида баландлик диапазони, ҳамда иқлим кўрсатикичларини таъсири

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-719-727

жуда катта аҳамиятга эга. Шунинг учун бу омилларнинг тур намуналари мавжуд ҳудудлардаги кўрсаткичлари аниқланди (2-жадвал).

Моделлаштириш натижалари *D. diversifolium* тарқалган майдонларда йиллик ёғинларнинг умумий амплитудаси 297 мм (Тиёншон) – 967 мм (Помиролой) эканлигини кўрсатди. Ёғинларнинг ўртача кўрсатгичи Тиёншон 530 мм, Помиролой 693 мм га тенг. Йиллик ёғинлар учун энг оптимал оралиқ 600–800 мм ҳисобланиб, унга намуналарнинг 40% тўғри келади (2-расм).

Жадвал 2.

***Dracocephalum diversifolium* гербарий намуналари мавжуд худудларнинг баландлик диапазони ва иқлим кўрсатикичлари**

Тизманинг номи	Баландлик, м	Йиллик ўртача ҳарорат, °C	Йиллик энг юқори ҳарорат, °C	Йиллик энг паст ҳарорат, °C	Йиллик Ёғинлар, мм
Тиёншон	2840	-1	20,2	-20.1	737
Тиёншон	3317	-3,7	17,1	-23.8	607
Тиёншон	2523	1	21,8	-18.9	570
Тиёншон	3012	-2	18,9	-21.8	607
Тиёншон	1946	4	25,1	-15.7	482
Тиёншон	2196	1,6	23,6	-17.2	516
Тиёншон	1623	2,2	27,1	-13.9	421
Тиёншон	3316	-4,1	16,5	-25	499
Тиёншон	2222	1,9	22,6	-19.1	405
Тиёншон	1183	1,1	22,6	-12.1	493
Тиёншон	1637	7,2	27,2	-14	502
Тиёншон	2829	0,2	20,9	-18.6	769
Тиёншон	1563	5,3	28,5	-11.1	648
Тиёншон	2253	0,1	21,4	-20.3	297
Тиёншон	2121	8,1	23,3	-18.1	384
Тиёншон	2176	2,8	24,2	-16.3	680
Тиёншон	1659	2,7	27,6	-12.8	501
Тиёншон	1795	4	24,7	-17.2	318
Тиёншон	1637	7,2	27,2	-14	502
Тиёншон	1958	4,1	25,5	-14.9	675
Ўртача:	**2190**	**2.1**	**23.3**	**-17.6**	**530**
Помиролой	1393	10,1	30,1	-7.1	424
Помиролой	1089	12,03	31,9	-5.1	392
Помиролой	1409	9,5	29,9	-7.9	482
Помиролой	1769	8,1	28,1	-8.9	636
Помиролой	2724	2,9	22,1	-14.3	805
Помиролой	3630	-2,8	16,3	-20.1	965
Помиролой	2904	1,8	20,1	-15.5	830

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-719-727

Помиролой	3663	-2,8	16,1	-20.2	967
Помиролой	2784	2,2	21,1	-15.1	856
Помиролой	2182	5,8	25,6	-11.4	751
Помиролой	1923	4,3	27,2	-9.8	687
Помиролой	1923	4,3	27,2	-9.8	687
Помиролой	1923	4,3	27,2	-9.8	687
Помиролой	1923	4,3	27,2	-9.8	687
Помиролой	1923	4,3	27,2	-9.8	687
Помиролой	2586	3,4	23,1	-14	832
Помиролой	2453	4,1	24,6	-15.2	457
Помиролой	2453	4,1	24,6	-15.2	458
Помиролой	2116	6,1	26,3	-11.6	784
Помиролой	2125	4,4	26,2	-11.5	789
Ўртача:	**2244**	**4.5**	**25.1**	**-14**	**693**

Йиллик ўртача ҳарорат бўйича таҳлиллар *D. diversifolium* -4.1°–12.03°C оралиғида тарқалганлигини кўрсатди. Бу турнинг ўсиши учун энг қулай йиллик ўртача ҳарорат 0°–5°C га тенг бўлиб, мавжуд координаталарнинг 60% ни ўз ичига олади (3-расм).

Ўртача йиллик ҳарорат Тиёншонда 2.1°C, Помиролойда 4.5°C га тенг. Йиллик энг юқори ҳароратнинг ўртача кўрсаткичи Тиёншонда мавжуд координаталар учун 23.3°C, энг паст ҳарорат -17.6°C ни ташкил этса, бу кўрсаткичлар Помиролойда 25.1°C ва -14°C га тенг.



2-расм. *D. diversifolium* гербарий намуналари мавжуд координаталарни йиллик ёғингарчилик бўйича жойлашуви

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-719-727



3-расм. *D. diversifolium* гербарий намуналари мавжуд ўсиш нуқталарни йиллик ўртача ҳарорат бўйича жойлашуви

Моделлаштириш натижаларига кўра шимолдан (Тиёншон) жанубга (Помиролой) борган сари, *D. diversifolium* нинг мавжуд ўсиш нуқталарининг баландлик диапазони, йиллик ёғинлар миқдори ва ўртача ҳарорат ортиб борди. Демак, олиб борилган тадқиқотлар географик қонунятларга тўлиқ мос келди.

Маълум бир жойларда турларнинг ўсишига таъсир этувчи муайян биоиқлимий чекловлар мавжуд. Гербарий намуналари мавжуд координаталар учун айнан ўша чекловчи, яни салбий таъсирга эга биоиқлимий ўзгарувчанлик тенденциялар аниқланди. Биоиқлимий тенденциялар орасида, *D. diversifolium* гербарий намуналари йиғилган координаталар учун BIO14 (қурғоқчилик ойдаги ёғингарчилик) энг юқори чекловчи хусусятга эга бўлиб 7 та координатани ўз ичига олди. Бу координаталарнинг 6 таси Помиролойга тўғри келди. BIO6, BIO10, BIO11, BIO18 ва BIO19 биоиқлимий тенденциларда эса, хеч қаси координаталарга нисбатан чекловчи таъсирга эга эмас (4-расм).

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-719-727



4-расм. *D. diversifolium* гербарий намуналари мавжуд ўсиш нуқталарга чекловчи биоиқлимий тенденциялар таъсири

Энг ғарбдаги билан энг шарқдаги ўсиш нуқтаси орасидаги масофа 1022 км, Энг шимолий ва жанубий ўсиш нуқталар орасидаги масофа 372 км, Тиёншон ва Помиролойда мавжуд бир-бирига энг яқин ўсиш нуқталарининг масофаси 172 км ни ташкил этди.

ХУЛОСА

D. diversifolium нинг баландлик минтақалари бўйича тарқалишда шимолдан (Тиёншон) жанубга (Помиролойга) борган сари турнинг баландлик диапазони ортиб бориши кузатилди**.** *D. diversifolium* тарқалган майдонларда йиллик ёғинларнинг умумий амплитудаси 297 мм (Тиёншон) – 967 мм (Помиролой) эканлигини кўрсатди. Ёғинларнинг ўртача кўрсатгичи Тиёншон 530 мм, Помиролой 693 мм га тенг. Йиллик ёғинлар учун энг оптимал оралиқ 600–800 мм ҳисобланиб, унга намуналарнинг 40% тўғри келади. Йиллик ўртача ҳарорат бўйича таҳлиллар *D. diversifolium* -4.1°–12.03°C оралиғида тарқалганлигини кўрсатди. Биоиқлимий тенденциялар орасида, *D. diversifolium* гербарий намуналари йиғилган координаталар учун BIO14 энг юқори чекловчи хусусятга эга бўлиб 7 та координатани ўз ичига олди.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-719-727

REFERENCES

1. Sotiboldieva D.I., Mahkamov T.X. Component Composition of Essential Oils Curcuma longa L.(Zingiberaceae) Introduced in Uzbekistan // American Journal of Plant Sciences, 2020. №11. - P. 1247-1253.
2. Сотиболдиева Д., Махкамов Т.Х., Дусчанова Г.М. Анатомо-гистологическое строение корневища *Curcuma longa* L. (сем. Zingiberaceae) в условиях интродукции) // АндДУ “Илмий хабарнома”, 2019. №1. – Б. 55-60.
3. Plants of the World Online. http://www.plantsoftheworldonline.org/ (accessed 15.12.2021).
4. Абдуллаева Н.С. Ўзбекистонда тарқалган Dracocephalum L. туркуми турларининг географияси, экологияси ва аҳамияти: дис... биол. (PhD) – Гулистон, 2020. – 38 б.
5. Linnaeus, C. Species plantarum. Ed. 1. Vol. 2. Holmiae. 1753. – P. 594-596.
6. Мелиева Ш.О., Бобакулов Х.М., Абдуллаева Н.С., Эшбакова К.А., Каримов А. Эфирное масло и летучие компоненты Dracocephalum diversifolium // Химия растительного сырья. – 2020. №2. – С. 87-92.
7. Хожиматов К.Х. Пряно-ароматические растения Узбекистана. Ташкент, 1992. – С. 48.
8. Хожиматов О.К. Лекарственные растения Западного Тянь-Шаня (в пределах рес. Узбекистан). Дисс....докт. биол. наук. – Ташкент, 2008. – 316 с.
9. Денекеева М.Ф., Алимбаева П.К., Гаммерман А.Ф. // Растительные ресурсы. 1967. Т. 3, вып. 1. С. 47–52.
10. Медведева Р.Г. Лекарственные растения Казахстана. Алма-ата, 1972. – С. 305.
11. Kakasy A.Z. New phytochemical data on Dracocephalum species. Theses of the Ph.D. dissertation. Budapest, 2006. – 14 p.
10. Hijmans R.J. et al. DIVA-GIS 7.5 // A geographic information system for the analysis of species distribution data. - 2012.
11. Hijmans R. J., Guarino L., Mathur P. DIVA-GIS Version 7.5 Manual. 2012. – 71 p.
12. Shuttle Radar Topography Mission – NASA JPL. http://www.2jpl.nasa.gov (accessed 15.03.-17.03.2021).

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-728-733

НЕФТШЛАМЛАРИНИ ОКСИДЛАШДА КУБ ҚОЛДИҚ АРАЛАШМАНИ ОЛИШ

Нодир Шарифович Яхяев
Бухоро муҳандислик-технология институти, докторанти

Нуриддин Шамшидинович Мухторов
“Ўзбекнефтгаз” департаменти бошлиғи ўринбосари, техника фанлари доктори

Азамат Юлдашович Шомуродов
Бухоро муҳандислик-технология институти

АННОТАЦИЯ

Резервуарнинг юқори ва пастки қатламларидан олинган нефтшламларини реакторда компрессор орқали хаво билан оксидлаш жараёни олиб борилди. Олинган куб қолдиқ аралашмаларнинг сифат кўрсаткичлари оксидланиш жараённинг 4, 8, 12, 16 ва 20 соатларидан кейин аниқланди. Оксидланиш жараёнида битум ўрнини босувчи куб қолдиғи аралашманинг пенетрацияси ва юмшаш ҳарорати қурилиш битумнинг стандарт талабларига мос келади.

Калит сўзлар:Нефтшлами, битум, гидроизоляция, том ёпиш, пенетрация ва юмшаш, оксидланиш.

КИРИШ

Бухоро нефтни қайта ишлаш заводининг шлам йиғиладиган омборларидаги нефт чиқиндиларининг салмоғи 200 минг тоннадан ортади. Узоқ муддат давомида сақланиши натижасида углеводородлар буғланиб, атроф-муҳитга салбий таъсир кўрсатади. Углеводородларнинг бир қисми тупроқ қатламида сингиб, тупроқнинг структурасини бузади, қатлам сувларининг ифлосланишига олиб келади. Ҳозирда бундай чиқиндиларни бартараф қилиш, табиатни муҳофаза қилиш, қўшимча ёқилғи ресурсларни ҳосил қилиш долзарб муаммолардан бири ҳисобланади. Нефт шламлари асосий ифлословчилар ва заҳарлилик кўрсаткичи бўйича хавфлилик синфини аниқлаш учун тадқиқ қилинади. Шлам кимёвий таркиби, тузилиши ва углеводородли қисмининг компонентлари хоссаларини чуқур тадқиқ қилиш, уларнинг

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-728-733

заҳарлилик хоссаларини, қайта ишлашнинг барча босқичларини аниқлаш, алоҳида фракцияларни ажратиш ва утиллаш баҳолаш имконини беради. [1].

Сақлаш резервуарларидан нефтшламини саноат йўли билан ажратиб олиш жараёнида уларни турли қатламларга самарали ажратиш мумкин эмас, шунинг учун нефт сақловчи чиқиндиларнинг компонентли таркиби ўртача ҳисобланади. Тадқиқотда нефтшламининг энг йирик вакиллари ва ҳар хил таркибдаги иккиламчи гудроннинг ўртача намуналари (юқори қатлам ва пастки қатлам= 1:1 нисбатда) ишлатилган.

ТАДҚИҚОТ УСУЛИ

Юқорида айтилганлар шартлар остида олинган дистиллаш қолдиқларини оксидлаш бўйича тажриба синови олдиндан белгилаб берди, том ёпиш ва изоляцион битумни саноат ишлаб чиқаришига ўхшаш (20 соат давомида 280 ° С ҳароратда ва 3,2 л/мин оқим тезлиги билан ҳаво билан қайнатиш) иш билан таққослаган [2]. Олинган куб қолдиқ аралашмаларнинг сифат кўрсаткичлари оксидланиш жараённинг 4, 8, 12, 16 ва 20 соатларидан кейин аниқланади (1-расм).



1-расм. Нефтшламини қайта ишлаш схемаси

Нефтшламини қайта ишлаш схемасига эътибор берсак бу ерда резервуарнинг юқори ва пастки қатламларидан олинган ва иситилган

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-728-733

нефтшламини реакторда компрессор орқали хаво билан оксидлаш жараёни олиб борилади. Шунда буғ ҳолатда айланган сув ва дизель ёқилғилари совуткичда совутилиб олинади ва реакторнинг пастки қисмидан оксидланган куб қолдиғи аралашмаси олинди.

Оксидланиш вақтига қараб, аралашманинг энг мухим сифат кўрсаткичлари, масалан, юмшаш ҳарорати, игна кириш чуқурлиги ва дуктиллиги сезиларли даражада фарқ қилиши мумкин. Бу оксидланишнинг турли вақтларда олинган намуналарда ушбу кўрсаткичларни аниклаш натижалари билан тасдикланади. Бунинг сабаби оксидланиш жараёни вақти ошиши билан оксидланган куб қолдиғи аралашмаси таркибидаги смолалар ва мойлар миқдорининг камайиши ва смола-асфалтен моддаларининг тўпланиши содир бўлишидир [3]. Гидроизоляция сифатида ишлатиладиган битум ўрнини боса олиши учун куб қолдиғининг сифат кўрсаткичларининг оксидланиш жараёнининг вақтга боғлиқлик 1-расмда график шаклда кўрсатилган.

НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМАЛАР

2-расмда келтирилган графиклардан кўриниб турибдики, оксидланиш вақтининг 20 соатгача ошиши билан пенетрация ва юмшаш ҳарорати қийматлари сезиларли даражада ўзгарган, бу эса олинган битум ўрнини босувчи аралашмаларнинг физик-механик кўрсаткичларини келтириб чиқаради. Гидроизоляция ва том ёпиш учун ГОСТ 9812-74 стандарти [4] талабларига мувофиқ. Бундан ташқари, 2-расмда келтирилган графиклардан кўриниб турибдики, оксидланиш пайтида куб қолдиғи аралашмаларнинг ҳаракати кўп жиҳатдан битум ишлаб чиқариш учун стандарт хом ашёнинг хатти-ҳаракатига ўхшайди [5].

Олинган маълумотларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, игнанинг 25°C ва 0°C да кириш чуқурлиги қийматлари, шунингдек, ҳалқа ва шар бўйлаб юмшаш ҳарорати стандарт битум БН 70/30 ва БН 90/10 талабларига жавоб беради. Бироқ кучланиш қийматлари стандарт талабларига жавоб бериш учун етарли эмас.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-728-733



2-расм. Куб қолдиғи аралашмаларнинг сифат кўрсаткичларининг оксидланиш вақтига боғлиқлиги.

Гуруҳ таркибини аниқлаш ГОСТ 6617-76 стандартининг зарурий талаби эмас [6], аммо адабиётларда [7-9] кимёвий таркиб битумнинг физик-механик хусусиятларига сезиларли таъсири ҳақида гапирилади. Шунинг учун оксидланган куб қолдиғи аралашмаларнинг сифат кўрсаткичлари стандарт талабларига мос келмаслиги сабабларини яхшироқ тушуниш учун уларнинг гуруҳли таркиби ўрганилди. Оксидланган пастки қолдиқнинг намуналари гуруҳли таркибини кейинги таҳлил қилиш учун 4, 8, 12, 16 ва 20 соатлик оксидланиш вақтида мос ёзувлар нуқталарида олинган. Натижалар 3-расмда кўрсатилган.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-728-733



3-расм. Куб қолдиғи аралашмани оксидлаш жараёнида гурухли таркибнинг ўзгариши

ХУЛОСА

Олинган маълумотлардан хулоса қилиш мумкинки, мой ва смолалар миқдори стандарт битумларнинг пластиклик хусусиятларига таъсир қилади, хусусан уларнинг чўзилучанлигига. 2-расмда кўрсатилган графиклар асосида кўриниб турибдики, оксидланиш жараёнида битум ўрнини босувчи куб қолдиғи аралашманинг пенетрацияси ва юмшаш ҳарорати стандарт талабларига таяниб стандарт битумнинг оксидланиш жараёнига ўхшаб мой ва смолалар миқдори камаяди ва натижада чўзилувчанлик кўрсаткичлари камаяди.

ISSN: 2181-1385
Қўшма терминлар.Қўшма терминлар бирдан ортиқ асоснинг ўзаро бирикиб,тўла – тўкис қўшма сўзга айланишидан ҳосил бўлади.Темирйўл терминлари тизимида қўшма терминлар кўп .Мисоллар : *қаламтўсин, яримкўприк, сувтўсиқ, пардевор,тагтиралма , девустун* кабилар.

Жуфт терминлар .Йўлсозлик терминлари тизимида жуфт терминлар кам учрайди.Мисоллар:темир –бетон,термос –бункер,цемент –тупроқли кабилар.

Бирикма терминлар. Айтилганидек,барча терминосистемаларда бирикма тероминлар кўп миқдорни ташкил қилади.Бу ҳолат йўлсозлик терминосистемасига ҳам дахилдор.

Бирикма терминлар бошқа мураккаб лексемалар каби бирдан ортиқ лексик бирликлардан ташкил топадива кўп холларда бирикма ҳолатида бўлади.Мисоллар:ёй биссектрисаси, пландаги эгрилик чизиғи,ёрдамчи ёй, йўлнинг кўндаланг кесим юзи.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-746-754

Қисқартма терминлар.Темирйўл терминосистемасида бирикма терминлардан ясалган қисқартма терминлар хам мавжуд.бундай терминлар, асосан , қуйдаги тартибда шакллантирилган:

1)бирикма итермин компонентларининг бош ҳарифи асосида ҳосил қилинади.Масалан: АБТ(автоматлаштирилган бошқарув тизими) ВТХКП (вагонларга техникавий хизмат кўрсатиш пунктлари) кабилар;

2) бирикма терминнинг биринчи компоненти биринчи бўғини вакейинги компонентларини тўлиқ қўллаш асосида ҳосил қилинади. Масалан: КИШ АСБОБИ(КИШ- “Колсо и шар”)

ХУЛОСА

Биз ушбу ишимизда терминларни тематик гуруҳларга семантик хусусиятлар таҳлили асосида тақсимладик. Бутун инглиз темир йўл терминологик сўз туркумлари ўзаро боғлиқ, тизимли ташкил этилган гуруҳлар, синфлар, терминларнинг уялари, семантик майдонлар тизимидир. Шу билан бирга "терминлар фақат эркин тартибда эмас, балки махсус парадигма ҳосил қилувчи маълум бир фан ёки соҳанинг систематикасига асосланган ҳолда гуруҳланади" .

REFERENCES

1. Дониёров Р.Ўзбек техник терминларининг айрим масалалари.-Тошкент: Фан, 1977- Б.97
2. Кўчимов Ш.Н. Ҳуқуқий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари (лингвоюридик таҳлил): Филол. фан. докт. ...дисс. – Т., 2004. – 280 б.
3. Мираҳмедова З. Ўзбек тилининг анатомия терминологияси ва уни тартибга солиш муаммолари. – Т., 2010.
4. Норхўжаева Х. Ўзбек тилида жараёни англатувчи терминларнинг лингвистик хусусиятлари.. Филол. фан. докт. ...дисс. – Т., 2017 – 87 б.
5. Қосимов Н. Ўзбек илмий-техникавий терминологияси масалалари. - Т., 1985.
6. Temmerman R. Questioning the inivosity ideal. The difference between socio-cognitive terminology and traditional terminology.-Amsterdam-Rodopi.2000.-P.3.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-755-762

1945-1953 ЙИЛЛАРДА СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДАГИ АГРАР СИЁСАТИ

Фирузбек Эргашалиевич Тожибоев
Андижон давлат университети магистранти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Совет давлатидаги Иккинчи жаҳон урушидан кейинги даврдаги аграр сиёсат ва унинг натижалари таҳлил қилинмоқда. Мақолада қайд этиладики, Сталин раҳбарлиги даврида деҳқончиликка нисбатан сиёсатда жиддий хатоларга йўл қўйилган. Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш учун етарли аҳамият берилмаган, қолхозларнинг моддий-техник базаси оғир аҳволда қолаверган. Колхозчилар ва умуман, қишлоқ аҳолисининг моддий аҳволида сезиларли ижобий ўзгаришлар юз бермаган.

Калит сўзлар: Иккинчи жаҳон уруши, аграр сиёсат, қишлоқ хўжалиги, пахтачилик, деҳқон хўжаликлари, колхоз, солиқ, қатъий мажбурият, шахсий томорқа хўжалиги.

AGRARIAN POLICY OF THE SOVIET GOVERNMENT IN UZBEKISTAN IN 1945-1953

ABSTRACT

This article analyses the agrarian policy of the Soviet state in the period after World War II and its results. The article notes that during the leadership of Stalin, serious mistakes were made in policy towards agriculture. Not enough importance was attached to the development of agriculture, the material and technical base of the collective farms remained in serious condition. In the material situation of collective farmers and the general rural population, significant positive changes did not occur.

Keywords: World War II, agrarian policy, agriculture, cotton farming, dekhkan farms, collective farm, tax, firm commitment, individual subsidiary economy.

КИРИШ

Совет давлати иқтисодиётнинг аграр сектори Иккинчи жаҳон урушидан ўта ҳароб аҳволда чиқди. Колхоз ва совхозлар моддий-техник базаси урушдан аввалги учта беш йиллик мобайнида яратилган бўлиб, бу моддий техник база

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-755-762

уруш натижасида тамоман вайрон бўлди. Қишлоқ хўжалигида фойдаланилаётган кўпгина техника воситалари (юк автомобиллари ва тракторлар) фронт эҳтиёжлари учун олиб қўйилди, аграр сектор тасарруфида қолдирилган техника воситаларининг аксарияти эса уруш йилларида яроқсиз ҳолга келган, чунки, уруш йилларида саноат корхоналари бундай техника воситалари учун эҳтиёт қисмлар ишлаб чиқармаган эди. Энг оғири, уруш даврида меҳнатга яроқли аҳоли сонининг кескин камайиши қишлоқ хўжалиги ҳолатига айниқса оғир таъсир кўрсатди. Уруш йилларида мамлакатдаги меҳнатга яроқли аҳоли сони деярли учдан бир қисмга ёки 32,5% га камайди. Хусусан, меҳнатга яроқли эркаклар 1941 йил 1 январдаги 16,9 миллион кишидан 1946 йил 1 январида 6,5 миллион кишига ёки 2,6 бараварга камайди[1]. Шу боис, урушдан кейинги илк йилларда қишлоқ хўжалигини тиклаш асосан аёллар, кексалар ва ўсмирлар зиммасига тушди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Урушдан кейинги йилларда Ўзбекистон халқ хўжалигининг тинч қурилишга ўтиши мураккаб вазиятда кечди. Урушдан кейинги даврда бутун мамлакатда вайрон бўлган иқтисодиётни тиклашда устувор аҳамият қишлоқ хўжалигига эмас, балки саноатга қаратилди. Аграр соҳага, аввало, саноат учун арзон ишчи кучи билан етиштириладиган хомашё манбаси сифатида қаралди. Урушдан кейинги иқтисодий сиёсатда аграр соҳа тамоман саноат эҳтиёжларига ва асосан мамлакат мудофааси манфаатларига бўйсундирилди. Бу шуни кўрсатар эдики, қишлоққа давлат томонидан ёрдам кўрсатилиши минимал даражада эди.

Ўзбекистон урушдан кейинги йилларда ўз халқининг арзон кучидан, бой хомашё манбаларидан чексиз равишда фойдаланишга асосланган, компартия чизиб берган беш йиллик режаларни бажаришга киришди. Бир томонлама, Марказ манфаатига бўйсундирилган Республика иқтисодиётини урушдан олдинги даражага етказиш ва янада ривожлантиришга қаратилган вазифани бажаришда ўзбек халқининг меҳнатсеварлиги, сабр-тоқатли ва тинчликсеварлиги каби фазилатлардан фойдаланилди[2].

Қишлоқ хўжалиги эҳтиёжларига иқтисодиётни тиклаш учун йўналтирилган умумий маблағлар ҳажмининг 7% дан ортиқроғини йўналтириш

[1] История советского крестьянства. – В 5 томах. Т.4. – Москва: Наука, 1988. – С. 28–29.
[2] Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқалар. – Тошкент: 2000. – Б. 504.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-755-762

режалаштирилган эди. Шундай ёндашувда қишлоқ хўжалиги санотга қараганда секинроқ ва қийинчилик билан тикланиши мумкин эди. 1946 йилда мамлакатнинг бир қатор минтақаларида юз берган қурғоқчилик қишлоқ хўжалигига катта зарар етказди. Қурғоқчилик оқибатида ғалла ва бошқа озиқ-овқат маҳсулотлари ҳосилдорлиги кескин камайиб кетди. Бу йилдаги ялпи ғалла ҳосили бор-йўғи 39,6 миллион тоннани ташкил этди, бу 1945 йилдаги ҳосилга (47,3 млн тонна) нисбатан анча кам, 1940 йилдаги ялпи ҳосил 95,6 миллион тоннани ташкил қилгани эътиборга олинса, ундан қарийб 2,2 бараварга қисқарган эди[3].

Қурғоқчилик натижасида юзага келган очлик аввало, деҳқончиликка оғир талофат келтирди, зеро, колхозлар ўзлари етиштирган ғаллани тўлиғича давлатга топширган эди. Бундан ташқари, деҳқонлар ўзларининг шахсий ёрдамчи хўжаликларида етиштирилган маҳсулотлардан ҳам давлатга натурал солиқ тўладилар ва уларнинг меҳнатига пул билан кафолатланган ҳақ тўлаш тизими хали мавжуд эмас эди. Колхозчилар меҳнати учун натурал ҳақ тўлаш ўта оз миқдорни ташкил қиларди.

Ўзбекистон ССР иқтисодиёти олдига қўйилган энг муҳим вазифалар 1946-1950 йилларга мўлжалланган режада белгиланди. Бунга кўра, халқ хўжалигининг барча соҳаларига 3 млрд. 900 млн. сўм капитал маблағ ажратилди. Саноатни ривожлантириш ишлари республика иқтисодиётининг етакчи соҳаси пахтачиликни ривожлантиришга қаратилди[4].

ВКП(б) Марказий Комитетининг 1947 йил февраль Пленуми қишлоқ хўжалигини ривожлантириш муаммоларига бағишланган бўлса-да, унда аграр соҳадаги мавжуд муаммоларни ҳал қилиш бўйича бирон бир янгилик баён этилмади. Урушдан кейинги аграр сиёсат моҳиятан урушдан аввалги сиёсатнинг давоми бўлиб қолмоқда эди. Бундан ташқари, давлатнинг қишлоққа нисбатан арзон даромад манбаи сифатида ёндашуви янада кучайиб бормоқда эди[5].

Пленумнинг нисбатан аниқ қарорлари аввало қишлоқ хўжалиги моддий-техник базасини мустаҳкамлашга қаратилди. Автомобиль ва тракторлар ишлаб чиқариш, шунингдек, ўғитлар, турли қишлоқ хўжалиги машиналари ва ускуналари ишлаб чиқаришни кўпайтиришга эътибор берилди. Халқ хўжалигини ривожлантиришнинг тўртинчи беш йиллиги (1946-1950) давомида

[3] История советского крестьянства. Т. 4. – Москва: Наука, 1988. – С. 25.
[4] Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. – Ташкент: 1967. – С. 117.
[5] Пихоя Р.Г. Советский Союз: история власти. 1945–1991. – Новосибирск: 2000. – С. 16.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-755-762

мамлакат саноати қишлоқ хўжалиги учун 248 минг дона трактор, 93 мингта ғалла ўрадиган комбайни, 281 мингта юк автомобилларини етказиб берди. Мамлакат қишлоқ хўжалигида 1950 йилда трактор ва комбайнлар урушдан аввалги даврдагига нисбатан 40-50% га кўпайди[6]. Лекин қишлоқ хўжалиги техникаси батамом давлат тасарруфида эди, колхозлар бу техникаларни фақат МТСлар орқали фойдаланиши мумкин эди, холос. Колхозлар МТСларнинг қишлоқ хўжалик техникаси билан кўрсатган ёрдами эвазига катта миқдордаги қишлоқ хўжалик маҳсулотлари билан ҳақ тўлаши зарур эди. Ана шундай мураккаб шароитлар остида бутун мамлакатда уруш асоратлари бартараф этиб борилди.

Урушдан кейинги йилларда аграр соҳада кўрилган бир қатор чора-тадбирлар натижасида уруш талофатлари бартараф этиб борилди. 1950 йилда айрим муҳим маҳсулотлар етиштириш кўрсаткичи бўйича 1940 йилдагига даражага яқинлашилди. Хусусан, ялпи қишлоқ хўжалик маҳсулоти 1940 йилдаги даражанинг 99% ини, барча тоифадаги хўжаликларнинг маҳсулот ишлаб чиқариш даражаси 97% ни ташкил қилди. Айрим маҳсулотлар бўйича кўрсаткичлар урушдан олдинги даражалан кўпроқ бўлди. Жумладан, пахта етиштириш 1940 йилдаги миқдордан 58% га кўпроқни, қанд лавлаги ва картошка 16% кўпроқни ташкил этди[7].

Бироқ, иқтисодиётнинг аграр соҳасидаги аҳвол жида зиддиятли эди. Бу ҳақида иккита ҳолат далолат бермоқда. Биринчиси қишлоқ хўжалигини ривожлантириш тенденцияси билан боғлиқ. 1950 йилларнинг бошларида қишлоқ хўжалигининг ривожланиш суръати сезиларли даражада пасайган. Шундан сўнг ўзгарувчан, стагнацияга ўхшаш барқарорлик кузатилган. Ялпи қишлоқ хўжалик маҳсулотининг ўртача йиллик ўсиш суръати 1940 йиллар охирларида қарийб 8% ни ташкил этган бўлса, 1950 йиллар бошида бу кўрсаткич 1-2% гача тушиб кетди[8]. Иккинчи ҳолат деҳқонларнинг оғир ижтимоий ҳолати билан боғлиқ эди.

Сталин бошчилигидаги совет раҳбариятининг аграр сиёсати доирасида қишлоқ хўжалигини инқироздан чиқариш ва қишлоқ хўжалигида фаолият кўрсатаётган деҳқонларнинг аҳволини яхшилаш имконсиз эди. Юқорида таъкидланганидек, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг давлат томонидан

[6] Капитальное строительство в СССР: Стат. сб. – Москва: 1960. – С. 174.
[7] История СССР с древнейших времен до наших дней. – В 12 томах. Т. XI. – Москва: 980. – С. 204, 206.
[8] Зеленин И.Е. Советская аграрная политика в 1950-начале 1980-х годов // Россия в XX веке. Реформы и революции. – Том 2. – Москва: 2002. – С. 605.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-755-762

жуда арзон нархларда харид қилиниши колхозчилар моддий аҳволини яхшилаш ва турмушини фаровонлаштириш имконини бермас эди. Қишлоқ хўжалигининг имкониятлари аввалгидек саноат ишлаб чиқариши манфаатларига бўйсундирилган эди. 1950 йилларда ҳам қишлоқ хўжалик маҳсулотлари харид нархлари жуда пастлигича қолган, ҳатто давлат харид нархлари айрим қишлоқ хўжалик маҳсулотлари етиштириш таннархини ҳам қопламас эди. Масалан, Ўзбекистон ССРда 1950 йилда пахтанинг давлат харид нархлари пахта таннархининг 75% ини, сутнинг харид нархи унинг таннархининг 67% ини, мол гўшти харид нархлари маҳсулот таннархининг 82% ини ташкил қилган[9]. Аксарият қишлоқ хўжалик маҳсулотлари колхозлардан мажбурий тайёрлов тизими орқали ўта паст нархларда олинган. Шуни алоҳида кўрсатиб ўтиш лозимки, совет давлатида қишлоқ хўжалик маҳсулотларининг давлат томонидан белгиланган харид нархлари 1928 йилдан буён ўзгармай келаётган эди. Ваҳоланки, саноат маҳсулотлари нархи ўтган давр ичида 20 баравардан кўпроққа ошган эди. Кейинчалик Н.С. Хрушчев қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари давлат томонидан деярли текинга олинганини тан олган эди[10]. Иқтисодиётни тиклаш ишлари Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида айниқса пахтачиликда қийинчилик билан кечди. 1947-1948 йилларда пахта тайёрлашнинг давлат режаси бажарилмади. 1949 йилдан бошлаб аҳвол бирмунча ўзгарди. 1950 йили 2 млн. 222 минг тонна пахта тайёрланди, хосилдорлик гектаридан 20,7 центнерга етди. 1950 йилдан пахтанинг харид нархи оширилиб, 1 тоннасига 2200 сўм яъни аввалгидан икки баравар кўп ҳақ тўланди. Лекин деҳқончиликнинг бошқа соҳаларида экин майдонининг қисқартирилганлиги оқибатида ғалла ва сабзавот тайёрлашда урушдан олдинги даражага эришилмади[11].

Кўриб ўтилаётган давр аграр сиёсатидаги колхозларни йириклаштиришга қаратилган чора-тадбирларни ижобий деб ҳисоблаш мумкин. Икки йил давомида (1950-1952 йиллар) бирлаштирилиши муносабати билан бутун мамлакатда колхозлар сони 252 мингтадан 91 мингтага ёки 2,7 баробарга камайди. Энди колхозлар аввалгиларидан анча катта бўлиб, бир неча қишлоқларни ўз ичига олар эди. Илгари битта колхозга ўртача 80 та хўжалик

[9] Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 376.
[10] Хрущев Н.С. Строительство коммунизма в СССР и развитие сельского хозяйства. – В 8 т. – М., 1964. – Т. 6. – С. 423.
[11] Народное хозяйство Узбекской ССР за 60 лет. Юбилейный статистический сборник. – Ташкент: Узбекистан, 1984. – С. 77-78.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-755-762

тўғри келган бўлса, йириклаштирилганидан кейин битта колхозга 220 та оила тўғри кела бошлади. Ҳар бир колхоз ихтиёрида ўртача 4 минг гектардан ортиқ қишлоқ хўжалик ҳудудлари бор эди[12]. Колхозларнинг кенгайтирилиши уларни кўп тармоқли хўжаликларга айланиши учун шароит яратди, МТС техникаларидан оқилона фойдаланиш, бошқарув аппарати таъминоти учун молиявий харажатларни қисқартириш имконини берди. Бироқ ушбу ташкилий ислоҳотнинг ижобий аҳамияти амалга оширилаётган иқтисодий сиёсат соясида йўқ бўлиб кетдики, умумий аграр сиёсат натижасида айрим колхозлар хонавайрон бўлган бўлса, бошқалари фақат кичик даромад олиш имконига эга бўлди, холос. Яъни, колхозлар қўлида колхозчиларнинг меҳнатига ҳақ тўлаш учун жуда кам маблағ қолар эди. Колхозларда меҳнат харажатлари шартли бирлик – меҳнат куни билан ўлчанган. Меҳнат учун ҳақ календарь йилининг охирида икки шаклда: бир қисмини натурал шаклда, бошқа бир қисмини пул ҳисобида тўланган. Аксарият колхозларда урушдан кейинги йилларда ҳам меҳнатга ҳақ тўлаш фақат натурал шаклда амалга оширилган. Иш ҳақи учун одатда бир кунлик меҳнат учун бир неча килограмм ғалла берилган. Кўпгина ночор хўжаликлар бундай тўловга қодир ҳам бўлмаган[13].

Статистик маълумотларга кўра, 1952 йилда битта колхозчи колхоздаги бир кунлик меҳнати эвазига ўз меҳнати қийматининг фақат 20% и миқдорида иш ҳақи олган. 1950 йилларнинг ўрталарида йиллик энг кам иш кунлари 150-200 кунни ташкил этган[14]. Колхозчиларнинг асосий даромад манбаи шахсий томорқа хўжалиги эди. Колхозчилар кичик томорқа участкаларида анча кўп маҳсулот етиштирар эдилар. Бироқ, деҳқонлар ўз томорқаларида етиштирган маҳсулотларининг ҳаммасига ҳам эгалик қила олмаганлар. Деҳқонларнинг шахсий хўжалиги икки турдаги – пул шаклидаги ва натурал кўринишидаги солиққа тортилган. Иккала солиқ миқдори ҳам узлуксиз ошиб борган. Агар 1940 йилда битта деҳқон хўжалиги ўртача 112 сўм солиқ тўлаган бўлса, 1949 йилда бу миқдор 419 сўмни, 1950 йилда 431 сўмни, 1951 йилда 471, 1952 йилда 528 сўмни ташкил қилган[15]. Колхозчиларнинг шахсий ёрдамчи хўжаликларида ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар бўйича давлатга мажбурий етказиб бериш

[12] Советское крестьянство. Краткий очерк истории. 1917–1970. – Москва: Наука, 1973. – С. 430–431.
[13] Волков И.М. Трудовой подвиг советского крестьянства в послевоенные годы. Колхозы СССР в 1946–1950 годах. – Москва: 1972. – С. 256–263.
[14] Вербицкая О.М. Российское крестьянство от Сталина к Хрущеву: середина 1940-х – начало 1960-х гг. – Москва: 1992. – С. 52.
[15] Попов В.П. Крестьянство и государство (1945 – март 1953) // Исследования новейшей русской истории. – Париж: 1992. – № 9. – С. 180, 219.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-755-762

кўринишидаги солиқлар солинган. Шахсий хўжаликларга қатъий мажбурият дон, гўшт, сут, картошка, тухум, жун ва бошқа маҳсулотлар бўйича жорий этилган. 1940 йилда битта шахсий томорқа хўжалиги қатъий мажбурият сифатида давлатга ўртача 32-45 кг гўшт топширган бўлса, урушдан кейинги йилларда бу миқдор 40-60 кг ни ташкил қилди[16]. Фақат 1953 йилга келибгина давлатга мажбурий етказиб берилиши лозим бўлган қишлоқ хўжалик маҳсулотлари нормалари камайтирилди, 1958 йилдан бошлаб қатъий мажбуриятлар тўлиқ бекор қилинди[17].

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Сталин деҳқон хўжаликларига қарши зўравонлик қилиш, қатағон қилиш сиёсатини ўз ҳаётининг охиригача амалга оширди. Бунинг яққол далили сифатида шуни келтириш мумкинки, 1952 йил охирида ВКП(б) МК комиссияси томонидан тайёрланган чорвачилик маҳсулотларига давлат харид нархларини ошириш тўғрисидаги қарор лойиҳаси кўриб чиқилганида Сталин бу таклифга кескин қарши чиқиб, колхоз ва колхозчилар тўлаётган солиқларни 40 миллиард сўмга ошириш тўғрисида таклиф киритади[18]. Бу миқдордаги солиқ колхоз ва колхозчилар учун жуда оғир мажбурият эди. Зеро, мамлакатдаги барча деҳқон хўжаликлари давлатга қатъий мажбурият тариқасида топширган маҳсулотлари учун ҳам 40 миллиард сўм олмаган эдилар. Масалан, 1952 йилда колхозлар ва колхозчилар барча топширилган қишлоқ хўжалик маҳсулотлари учун 26 миллиард 280 миллион сўм маблағ олган, холос[19].

ХУЛОСА

Умуман, 1950 йиллар бошида аграр соҳанинг коллектив шакли ҳам, якка тартибдаги хўжаликлар ҳам инқироз ҳолатида эди. 1952 йилда мамлакатда ялпи ғалла ҳосили бор-йўғи 5,6 миллиард пудни (89,6 миллион тонна) ташкил қилди, ваҳоланки режа бўйича 9,2 миллиард пуд ғалла етиштириш кўзда тутилган эди. 1953 йилда 80 миллион тонна ғалла етиштирилди, бу 1940 йилда етиштирилган ғалла ҳосилидан (95,6 миллион тонна) ҳам кам эди. Бу шундан далолат эдики, Сталин ҳукмронлиги шароитида амалга оширилган аграр сиёсат давомида қишлоқ хўжалигини инқироздан чиқариб бўлмади. Иқтисодиётнинг бу соҳаси

[16] История крестьянства СССР. – Т. 4. – С. 179.
[17] Безнин М.А., Димони Т.М. Завершение раскрестьянивания в России (вторая половина XX века) // Россия в XX веке. Реформы и революции. – Том 1. – Москва: 2002. – С. 633.
[18] Известия ЦК КПСС. – Москва: 1989. – №3. – С. 161.
[19] Ўша жойда.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-755-762

туб ислоҳотларга муҳтож эдики, бундай ислоҳотлар Сталин вафотидан кейингина амалга оширила бошлади.

REFERENCES

1. История советского крестьянства. – В 5 томах. Т.4. – Москва: Наука, 1988. – С. 28–29.
2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқалар. – Тошкент: 2000. – Б. 504.
3. История советского крестьянства. Т. 4. – Москва: Наука, 1988. – С. 25.
4. Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. – Ташкент: 1967. – С. 117
5. Пихоя Р.Г. Советский Союз: история власти. 1945–1991. – Новосибирск: 2000. – С. 16.
6. Капитальное строительство в СССР: Стат. сб. – Москва: 1960. – С. 174.
7. История СССР с древнейших времен до наших дней. – В 12 томах. Т. XI. – Москва: 980. – С. 204, 206.
8. Зеленин И.Е. Советская аграрная политика в 1950-начале 1980-х годов // Россия в XX веке. Реформы и революции. – Том 2. – Москва: 2002. – С. 605.
9. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 376
10. Хрущев Н.С. Строительство коммунизма в СССР и развитие сельского хозяйства. – В 8 т. – М., 1964. – Т. 6. – С. 423
11. Народное хозяйство Узбекской ССР за 60 лет. Юбилейный статистический сборник. – Ташкент: Узбекистан, 1984. – С. 77-78.
12. Советское крестьянство. Краткий очерк истории. 1917–1970. – Москва: Наука, 1973. – С. 430–431.
13. Волков И.М. Трудовой подвиг советского крестьянства в послевоенные годы. Колхозы СССР в 1946–1950 годах. – Москва: 1972. – С. 256–263.
14. Вербицкая О.М. Российское крестьянство от Сталина к Хрущеву: середина 1940-х – начало 1960-х гг. – Москва: 1992. – С. 52.
15. Попов В.П. Крестьянство и государство (1945 – март 1953) // Исследования новейшей русской истории. – Париж: 1992. – № 9. – С. 180, 219
16. История крестьянства СССР. – Т. 4. – С. 179.
17. Безнин М.А., Димони Т.М. Завершение раскрестьянивания в России (вторая половина XX века) // Россия в XX веке. Реформы и революции. – Том 1. – Москва: 2002. – С. 633.
18. Известия ЦК КПСС. – Москва: 1989. – №3. – С. 161.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-763-766

DZYUDO SPORT TURIDA JISMONIY TAYYORGARLIK BOSQICHLARI

Elmurodjon Sharoidinovich Salaydinov
Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada dzyudo sportida olib boriladigan o‘quv-mashg‘ulot bosqichlari, sportchilarning jismoniy tayyorgarliklari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Yana dzyudochilarning jismoniy tayyorgarlik vazifalari, harakat funksiyalari ham aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: dzyudo, jismoniy tayyorgarlik, harakat, funksiya, bosqich, o‘quv-mashg‘ulot, ko‘nikma, malaka

ABSTRACT

This article contains information on the training stages of judo, the physical training of athletes. Again the functional functions of the judokas, movement functions are also mentioned.

Keywords: judo, physical fitness, movement, function, stage, training, skills, qualification

KIRISH

Dzyudochilar bilan olib boriladigan o‘quv-mashg‘ulot bosqichida har tomonlama jismoniy tayyorlikni egallashga, sog‘likni mustahkamlash va garmonik o‘sishga, xilma-xil ko‘nikma va malakalarni egallab olishga, dzyudodagi bellashuv texnik-taktik harakatlarining boshlang‘ich asoslariga o‘rgatishga qaratilgan vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Dzyudochilarning jismoniy tayyorgarlikning vazifasi dzyudochilarning harakat funksiyalarini kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va epchillik, shuningdek o‘z harakatlarini vaqt oralig‘ida, muskullarning zo‘r berish darajasiga ko‘ra boshqara bilish harakat funksiyasining asosiy komponentlarini shakllantirishdan iborat bo‘ladi. Dzyudochilarning harakatlar tezligini rivojlantirishga bolalik yoshida ana shu jismoniy sifatni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar mavjuddir. Shuning uchun maxsus tezkor-kuchni rivojlantirishda sur’ati va katta muskul kuchini talab etadigan harakatlar chastotasini maksimal ravishda oshirishga harakat qilish kerak. Bunda

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-763-766

tabiiy harakatlarga ko‘proq o‘rin berish lozim. Bellashuv, musobaqa formasida bajariladigan mashqlar ham juda katta yordam ko‘rsatishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mashg‘ulot yuklamalarini bajarish kurashchi musobaqada g‘alabaga erishish uchun maksimal kuch sarflashga majbur etadi. Mashg‘ulot yuklamalarini umumiy vaqtning 50% ni egallashi kerak. Har bir mashq qisqa vaqt ichida (10-15 soniya) bir necha seriyali usulda bajariladi, dam olish intervali 10-15 min bo‘ladi. Maksimal tezlik bilan qayta yugurish muhim ahamiyatga ega, bu 20 m gacha masofada estafeta usulida bajariladi. Mashg‘ulotlarga estafetalardagi tashkari 10-15 m ga yugurish bo‘yicha teng mashqlarni kiritish ham tavsiya etiladi. Murakkab harakat reaksiyasini va harakatlar chastotasini rivojlantirish uchun turli sport holatidan yuguriladigan tezkorlik mashqlaridan keng foydalanish kerak. Bu mashqlar turli xil ko‘ruv signallariga binoan, yugurish yo‘nalishini o‘zgartirib bajariladi. Bu esa o‘yin jarayonida vujudga keladigan murakkab vaziyatlarni modellashtirib, signallarning har biriga javob harakatlari bilan reaksiya ko‘rsatish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sport ixtisoslashuvi bosqichida keng ko‘lamdagi o‘yinlar, o‘yin mashqlarini qo‘llashdan tashqari asosiy jismoniy sifatlarni, avvalo, tezkorlik va kuchni rivojlantiruvchi maxsus tayyorgarlik mashqlari komplekslaridan foydalanish mumkin. Bu har tomonlama jismoniy tayyorgarlikning mustahkam bazasini yaratish uchun qulay-shart-sharoit yaratadi. Ko‘proq tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan komplekslarni trenirovkasning asosiy qismlarida qo‘llanish kerak, shundan so‘ng bu sifatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashqlarni qo‘llanish lozim. Kuch talab qiluvchi tegishli mashqlari kompleksiga, shuningdek, chidamlilik ko‘rsatishni talab etadigan mashqlar komplekslariga ancha kam vaqt ajratiladi. Ular tegishli trenirovkaning o‘rtasida va oxirida o‘tkaziladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jismoniy qobiliyatlar ularning namoyon bo‘lishinigina emas, ularni bajarishning muayyan rejimini ham talab qiladigan faoliyat jarayonida rivojlanadi. Rejim deganda, bir mashg‘ulot yoki mashg‘ulotlar tizimi doirasida qandaydir jismoniy mashqlarning bajarilishi va ular orasidagi dam olish tushuniladi. Kerakli tartibni o‘rnatishda, eng avvalo, insonning ish qobiliyatidagi bosqichlar tebranishi muhim ahamiyatga ega. Jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida organizmning

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-763-766

quvvat va funksional zahiralari sarfi bilan bog‘liq holda ishchanlik qobiliyati darajasi pasayadi.

Har bir mashq dam olishning qaysi bosqichida takrorlanishiga qarab, harakat faolligining uch asosiy rejimini ajratib ko‘rsatish mumkinki, ular jismoniy sifatlarning rivojlanishiga har xil ta’sir ko‘rsatadi.

1. Trenirovkadagi har bir at en mashq qisqa muddatli dam olish oraliqlari bilan, ya’ni kuch sifati to‘la tiklanmagan bosqichda takrorlanadi. Ishchanlik qobiliyatining barcha ko‘rsatkichlari muntazam pasayib boradi. Ish va dam olishning bunday navbatlashish rejimi chidamlilikning rivojlanishiga mosdir.

2. Mashq organizmning bir qancha funksional ko‘rsatkichlarini faoliyat ko‘rsatishdan avvalgi darajaga qaytaradigan dam olish oraliqlari bilan, ya’ni ishchanlik qobiliyati to‘la tiklangan bosqichda takrorlanadi. Bunday rejim tezkorlik, kuch va muvofiqlash imkoniyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan darslarga xos bo‘ladi.

3. Mashq ishchanlik qobiliyati ortig‘i bilan tiklangan bosqichga mos keluvchi ancha uzoq muddatli dam olish oraliqlari bilan takrorlanadi. Bunday rejimda mashq takrorlangani sayin insonning harakat imkoniyatlarida xar tomonlama o‘zgarishlar kuzatiladi – mushak kuchi va tezkorlik oshib, chidamlilik pasayadi.

Kuch dzyudochining raqib qarshiligini yengib o‘tish yoki mushak kuchlanishi hisobiga unga qarshilik ko‘rsatish qobiliyati tushuniladi. Kuchning quyidagi turlarini ajartish qabul qilingan: umumiy va maxsus, mutlaq va nisbiy, tezkor va portlovchan, kuch chidamliligi. Umumiy kuch – bu kurashchining maxsus harakatlariga taaluqli bo‘lmagan holda kurashchi tomonidan namoyon qilinadigan kuch. Maxsus kuch musobaqa harakatlariga mos bo‘lgan maxsus harakatlarda kurashchi tomonidan namoyon bo‘ladi. Mutlaq kuch kurashchining juda katta xususiyatiga ega harakatlarida namoyon bo‘ladigan kuch imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. Kurashchilarning kuch bellashuvlarda muhim ahamiyatga ega. Nisbiy kuch, ya’ni sportchining bir kg vazniga to‘g‘ri keladigan kuch kurashchining shaxsiy og‘irligini yengib o‘tish imkoniyati ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bu usullarning tezkorlik bilan bajarilishida muhim ahamiyatga ega.

Tezkor kuch mushaklarning nisbatan kichik tashqi qarshilikni yengib o‘tish bilan bog‘liq harakatlarni tez bajarishga bo‘lgan qobiliyatida aks etadi. Portlovchan kuch qisqa vaqt ichida o‘z shiddatiga ko‘ra katta kuchlanishlarni namoyon qilish qobiliyatini tavsiflaydi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-763-766

XULOSA

Kuch chidamliligi – bu sportchining nisbatan uzoq vaqt davomida mushak kuchlanishlarini namoyon qilishga bo‘lgan qobiliyatidir. Kurashchining kuch imkoniyatlarini rivojlantirish uchun quyidagi uslublar qo‘llaniladi: takroriy kuchlanishlar; qisqa muddatli maksimal kuchlanishlar; tobora o‘sib boradigan og‘irliklar, zarbdor, birgalikda ta’sir ko‘rsatish; variantililik; izometrik kuchlanishlar uslublari.

Takroriy kuchlanishlar uslubi shundan iboratki, sportchi mashqni “so‘nggi nafasgacha” bajarishda maksimal og‘irlikdan 70-80% ga teng bo‘lgan og‘irliklar bilan mashqlarni takroran bajaradi. Ushbu uslub kuch mashqini seriyalab bajarishni nazarda tutadi. Har bir seriya “so‘nggi nafasgacha”, hammasi bo‘lib 3-4 seriya, seriyalar o‘rtasidagi dam olish oralig‘i 3-4 daqiqadir.

Takroriy kuchlanishlar uslubining bir turi dinamik kuchlanish uslubi hisoblanadi. U mashqlarni maksimumdan 20-30% og‘irlikda chegaradagi tezlikda bajarish bilan tavsiflanadi. Bunda katta mushak zo‘riqishi og‘irlik vazni hisobiga emas, balki yuqori tezlikdagi harakat hisobiga erishiladi. Qisqa muddatli maksimal kuchlanish uslubi hozirgi paytda mushaklarning mutlaq kuchini oshirish uchun eng samarali hisoblanadi. U chegaradagi va chegaraga yaqin bo‘lgan og‘irliklar bilan ishlashni nazarda tutadi. Mushaklar mashqida maksimal kuchlanishlar uslubi trenajerlarda va bitta yondashishda bitta-ikkita harakatlar yordamida, katta og‘irlikdagi shtanga bilan bajariladigan mashklarda (jim, siltab kutarish, dast ko‘tarish, o‘tirib-turish) namoyon bo‘ladi.

REFERENCES

1. Abdullaev A.,Xonkeldiev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Toshkent-2005
2. Голковский Н.М. Керимов Ф.А. Волная борба. Т, 1993.
3. Turaboyev B.S., Daminov I.A. “Dzyudo” T.2014
4. www.google.uz

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-767-771

“QORA KITOB” QISSASIDA MODERNISTIK RUHIYAT

Surayyo Mahmasharif qizi Mirzayeva
Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
Adabiyotshunoslik kafedrasi 2-bosqich magistranti
surayyo_mirzayeva@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek modern adabiyoti vakili Nazar Eshonqulning “Qora kitob” nomli qissasi tahlil qilinadi. Asarning modernistik uslubi haqida fikrlar bildiriladi. Badiiy jihatlari haqida xulosalar qilinadi.

Kalit so‘zlar: Nazar Eshonqul “Qora kitob” qissasi, o‘zbek modern adabiyoti, badiiy talqin, modernistik ruhiyat.

THE MODERNIST SPIRIT IN THE STORY OF THE “QORA KITOB”

ABSTRACT

The article analyzes the story “Qora kitob” by Nazar Eshankul, a representative of modern Uzbek literature. An opinion is expressed the style of interpretation of the work in the modernist spirit. Conclusions are made about the artistic aspects.

Keywords: Nazar Eshankul, the story “Qora kitob”, artistic interpretation, modernist psyche, uzbek modern literature.

KIRISH

Keyingi yillarda yaratilyotgan badiiy asarlarda inson ichki dunyosini yoritishga intilish kuchaya borayotganini sezish mumkin. Kitobxon o‘rganib qolgan an’anaviy yozish uslubidan boshqacha asarlarga ”modernistik” sifatining berilishi ham buning yorqin isbotidir. Inson dunyoqarashining shakllanishi jamiyat va siyosatning mahsuli emas, balki ulardan ham ustun turuvchi o‘zgacha bir olam ekanini tan olish an’anaga aylanib bormoqda.

Inson tafakkuri, fikrlari bilan bir qatorda ijtimoiy hayot ham o‘zgardi. Hayot va dunyoqarash o‘zgardimi, o‘z-o‘zidan adabiyot mazmuni ham o‘zarib boradi. Nazar Eshonqulning “Qora kitob” qissasi fikrimizni ma’lum darajada tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Insoniyat tarixidagi inson erki bilan bog‘liq o‘zgarishlar dastavval san’at asarlarida namoyon bo‘ladi. Istiqlol sharofati bilan boshlangan Yangilanishlar o‘zbek

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-767-771

badiiy adabiyotida ham yuz ocha boshladi. Bu holat ayniqsa, an'anaviy uslubda voqelikni yangicha badiiy talqin etishda, shu bilan birga, shakliy o'zgarishlarda ham ko'zga tashlanadi.

Inson ruhiy olamiga yangicha qarab o'zgacha badiiy talqin etish jarayonlari M. Muhammad Do'st, O. Otaxonov, X. Do'stmuhammad, T. Murod ijodida ancha ilgari boshlandi. Nazar Eshonqul, Shodiqul Hamro, Ulug'bek Hamdam kabi yosh nosirlar ijodida bu tamoyil davom etdi va yetakchi uslubga aylandi.

N. Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" [4. Nazar Eshonqul. Ijod falsafasi, 243-bet] to'plamiga kirgan hikoya qissalar biz yuqorida eslatib o'tgan yo'nalishning orginal namunalari bo'ldi. Bu asarlar badiiy adabiyotda yangicha tafakkur yuritish inson iztiroblarini tasvirlashi bilan xarakterlanadi.

N. Eshonqulning "Qora kitob" qissida voqea-hodisalar, his-tuyg'ular faylasufona fikr-mulohazalar va ruhiy kechinmalar birinchi shaxs tilidan bayon qilinadi. "Qora kitob" – insonga abadul-abad hamroh bo'lgan va to qiyomatga qadar Odamni (Odam Atodan boshlangan) to'g'ri yo'ldan ozdirishga ont ichgan Shaytonning nayranglari haqida. Asarning syujet liniyasi retrospektiv syujetga asoslangan bo'lib, voqealar rivoji davomida qahramon xarakteridagi ichki kurashlar, ruhiy bir isyon jarayonida uning hayotida tub burilish bo'lgan holatni ko'ramiz. Bu tasvir xususiyati ma'lum ma'noda qahramon iroda yo'nalishini belgilab beradi. Adib ko'proq ramziy ma'no kasb etuvchi detal va obrazlar orqali kitobxonni jalb qilishga harakat qiladi, tasvir voqeligini aniq bir g'oyaviy yo'nalishga bo'ysundiradi. "Qora kitob" shayton qutqusini o'z hayotiga dasturulamal etib olgan va uni o'z farzandlari tarbiyasiga ham singdirgan va alaloqibat o'z xatosini ilg'ab yetgan kishining boshidan kechirganlari haqidagi asardir.

Qissa mohiyat e'tibori bilan yetmish yoshga chiqib o'zligini o'z qilmishi va hayotidagi mavqeini anglab olgan kishining tazarrusini eslatadi. Qahramon turmushning past-balandini, achchiq-chuchugini, yaxshi-yomonini ko'rgan inson sifatida kelgan xulosalari o'ta tushkun ruhda. Uningcha "odamzoddan umid qiladigan narsaning hammasi o'lgan. Hammasi halok bo'lgan". Hamma narsa boy berilgan barbod bo'lgan. "Endi buni hech narsa qutqara olmaydi. Na go'zallik na ishonch, na ezgulik".

Farovon hayotga ishonch ezgulik, yaxshilik, umidvorlik kabi tushunchalardan bir yo'la ko'ngli sovigan qahramon insoniyatning bugungi holi, turish-turmushi, atrof-muhitda yorug'likdan nishona yo'qligi, noloyiq tarbiya oqibatida xulqi yomon farzandlarning voyaga yetgani, ayniqsa, o'zi, o'zining qilmishlari va individual "men"i xususida tinimsiz fikrlaydi. U o'zining 42 yilllik ongli faoliyati haqida mulohaza yuritib: "Men insonning ulug'ligi ezgu va go'zal fazilatlari, ota va farzand burchi, oila totuvligi, jamiyat va inson munosabati, axloq va muhabbat haqida 42 yil ma'ruza o'qidim, endi o'ylasam 42 yil odamlarni aldabman",- deya iqror etadi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-767-771

Uning ma’ruzalari dastlab ko‘tarinki kayfiyatda bo‘lgan, juda ko‘p talabalarni o‘ziga rom etgan. Ammo umrining ma’lum bir bekatiga yetgach (30 yildan so‘ng) hamma narsa sarobga aylangan. Go‘zallik, komillik va ezgulik tushunchalarining o‘rnini yovuzlik va vahshiylikka oid qarashlar egallagan. Qahramon shunday xulosaga keladi: ”Inson – yovuzlik ijodkori. Inson yovuzlikni ulug‘ san’at asari darajasiga ko‘taruvchi birdan-bir jonzot... go‘zal narsalarning hammasi halokatdir. Har qanday go‘zallik ortida vahshiylik yashiringan bo‘ladi, go‘zallik vahshiylikning yuvosh ko‘rinishidir”.

Bir-biriga munosib bo‘lmagan narsalarning jamlanishi va bir-birining mantiqiy davomi sifatida berilishi, qahramonning favqulotda teran fikrlari uning ichki dunyosida kechayotgan jarayon ifodasi kitobxonni beixtiyor hushyor torttiradi. Bu g‘aroyib insonda o‘z kasbini sevgan va maroqli ma’ruzalar o‘qigan muallimda o‘z qizini o‘ldirib, qotilga aynalgan otada bunday bir qarashda purhikmat bo‘lib ko‘ringan fikrlar qayerdan paydo bo‘ldi? Yetmishga kirgan har qanday kishi shunday xulosalarga keladimi? Hamma ham hayoti poyoni yetgach, o‘zining o‘tgan umriga shu tarzda tupuradimi? Bu barcha insonlarga xos xususiyatmi?

Ehtimol, bu tarzda qo‘yilgan savollar o‘rinlidir. Ammo qissaga va bugungi adabiyotga bunday yondashuv, bunday talab noo‘rindir. Chunki bugungi adabiyot insonning nuqson (birgina inson, omma, olamon) va fazilatlarini o‘zida mujassam etgan muayyan tiplardan tashqari, yolg‘iz bir inson umriga xos alohidalikni ham, yolg‘iz bir inson ruhiyatiga xos yemirilishlarni tasvir etishga haqlidir. Biz badiiy adabiyotning tashqi omillariga urg‘u berishga, asar mazmunini qayta so‘zlashga o‘rganib qolamiz. Agar asarning ichki qatlamlariga ramzlar ortiga yashiringan ma’nolarga jiddiy e’tibor berilsa, chegara va qoliplar parchalanadi.

Inson hayotida shunday lahzalar bo‘ladiki, u muayyan fikrlar majmuasini o‘z turmush tarzi uchun dastur qilib oladi, uni eng to‘g‘ri va o‘zgarmas haqiqat o‘rnida qabul etadi. Ilohiy dasturlarni nazariga ilmagan, borlig‘ida faqat aql hukmronlik qilgan inson tomonidan yozilgan shaytoniy kitobga yoki shayton insho qilgan qora kitobga maftun bo‘lgan kishining umr lahzalari, kunlari, boringki, umrning oxiri pushaymonlikdir. Pushaymonlik, afsus-nadomat, tavba- tazarru har vaqt nisbatan yuksakroq, oliyroq qadriyat qarshisida tug‘iladi; qandaydir haqiqatni teranroq anglash, umr mazmunini (yoki mazmunsizligini) his etish oqibatida yuzaga keladi.

“Qora kitob” qissasidagi qahramon (ya’ni qissago‘y) o‘z umr daftarini varaqlay turib: “ Men ulug‘ gunohkorman”,- deydi. Yozuvchi bu e’tirof bayoniga kirishar ekan, qahramonining o‘tmishiga nazar soladi. “ Yoshlikda bir kitob o‘qiganman, keyin umr bo`yi shu kitobning ta’sirida yashadim. Bu kitob umrimni boshqardi. U men uchun muqaddas kitob bo`lib qoldi. Fojialarning boshi ana shu kitobda… Hayotda nimaki

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-767-771

yaratgan bo`lsam, shu kitob ta'sirida yaratdim. Shu kitob hukmida hukm qildim. Bolalarimni ham shu kitob bilan tarbiya qildim, ularning ham qalbiga singdirdim bu kitobni, so'zma-so'z, satrma-satr yod oldirdim. Umrimni kitob qo'liga xuddi tovada kuyedirilgan piyozdek qovurib berdim".

Bu kitob yoshlik ko'chasida unga ro`baro` kelgan cho'qqi soqol Iblisning shaytoniy kitobi edi. Zotan, Cho`qqi soqol unga daho bo`lib ko'ringan, uning ovozi, so'zlash va yashash tarziga yigit maftun bo`lgan. Shu kitob uning umr mazmuniga aylangan, shu kitob uni oxir-oqibat rasvo qilgan. Har qanday voqea- hodisaga shu kitob mezoni bilan yondashgan.

Qissago'y bir o'rinda: "Taqsir, men o'qigan va umrimni baxshida qilgan insoniyat tarixi ojiz va kuchlilarga, xo'rlashga loyiq va xo'rlanishga loyiqlarga, ezuvchi va ezuluvchilarga, qullar va xojalarga, qo'y va bo'rilarga bo'linadi", - degan fikrni aytadiki, jamiyat tarixini bu tarzda tasniflash yaqin o'tmishda aynan bizning jamiyatda yuz berganligi beixtiyor xayolga keladi. Muallifning qaysi davr kishisi ekani sezilib turadi.

N. Eshonqul o'z uslubiga ko'ra ma'lum bir joyga atayin urg'u bermaydi. Natijada "Qora kitob"ning sahifalari ortadi. Asar qahramoni o`y-xayolidagi har qanday falsafa va hodisa singdirib beriladi; aniqrog'i qissago'yning hikoyati muallifning tasavvur quvvatiga muvofiq ravishda tovlanadi.

MUHOKAMA

Shuni ta'kidlash kerakki, hech qachon asar qahramoni bilan muallif orasiga tenglik belgisini qo'yish to'g'ri emas. Chunki "Yozuvchi holati bilan ijodi orasida uzviy bog'liqlik bor. Yozuvchi yashagan, muhit siyosiy mafkuraviy iqlim, hukmdorlar nomi-qilmishi bora-bora unutiladi. Ammo yozuvchi yaratgan san'at asari yashayveradi. Mana shu asar qatlarida yozuvchi ruhi-holati o'zini hamisha namoyon etib turadi…" [Rasulov A. Ilmi g'aribani qumsab… - T.: Ma'naviyat, 1998, 27-bet.]

Badiiy asar birinchi shaxs tilidan bayon qilinganda qissago'y qahramon va muallif muammosi paydo bo'lishi mumkin. Muallifning asl dunyosini, asl maqsad-g'oyasini anglash ham nisbatan mushkullashadi. Tadqiqotchi bunda roviyning har qanday fikrini hukmi yoki xulosasini to'g'ridan to'g'ri muallif ustiga yuklab ko`ysa, muallif qarashi tarzida tahlil etsa, adashgan bo'ladi.

Insoniyatni ezgulik sari yetaklamoqchi bo'lgan inson qalbiga ezgulik va yaxshilik urug'ini ekishga intilgan har qanday harakatga shon-shuhrat, xudbinlik urug'i bo'lishi mumkin. Xudbinlik, doimo birinchi bo'lishga intilish bu- insoniyat tabiatiga xos xususiyat. Qissago'y bu xususiyatni o'zida farzandlarida, Iblisda ko'radi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-767-771

NATIJA

Badiiy tafakkur azaldan abadga qadar olam va odam uyg‘unligini muhokama qiladi, insonni ilohiy uyg‘unlik rishtalari bilan bog‘lab turadi. Badiiy tafakkur esa, o‘zining maqomiga chiqa olgan asarni o‘zining aql o‘yiniga – idrok tegirmoniga tashlaydi – aynan ana shu tasavvur va tafakkur o‘yiniga erishish bugungi asr adabiyotining orzusidir. [4. Nazar Eshonqul. Ijod falsafasi, 243-bet].

“Qora kitob” qissasida iblisona ”dasturlar” vositasida avlodni tarbiyalagan jamiyat xarob bo‘ladi. Nazar Eshonqulning ”Qora kitob” qissasida bayon qilingan voqeylik tasviri shunday xulosalar chiqash uchun asos beradi.

XULOSA

Anglashiladiki, qissa tabiatida tasvir xususiyati milliy adabiy an’analar, epik nasr tajribalari, milliy estetik tafakkurga murojaat qilish, jahon adabiyoti uslubiy izlanishlaridan o‘rganib badiiy talqinning yangi imkoniyatlarini kashf etish bilan uyg‘unlashib ketadi. Ijodkorning ayni paytdagi tuyg‘ulari, kayfiyati, o‘ziga xos shakl va uslubni taqozo etadi. Badiiy didning turfa xilligi uslubiy rang-baranglik hamda tafovutlanishini ta’min etadi. Shu o‘rinda, tasvir predmeti ichki va tashqi omillar ijodkor iqtidori, jamiyat ideali hamda ijtimoiy-tarixiy sharoit birligidan oziqlanishini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir.

REFERENCES

1. Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. – T.: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Rasulov A. Ilmi g‘aribani qumsab… - T.: Ma’naviyat, 1998, 27-bet.
3. Nazar Eshonqul “Qora kitob”. T.: “SHARQ”. 2018.
4. Nazar Eshonqul. “Ijod falsafasi” (“Mendan mengacha”). T.: Akademnashr, 2018.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-772-777

TIMSS XALQARO TADQIQOTINING MAMLAKATIMIZ HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Maxfuza Tagayeva
Guliston davlat universiteti ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi, 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Bu maqola yurtimizda yoshlar uchun innovatsion ta'lim yaratishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan TIMSS test dasturi haqida. Unda bu tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasiga kirib kelishining sabablari aytilgan. Bu tadqiqot 2023- yilga mo'ljallangan. Bizning davlatimiz bu loyihada 1-marta ishtirok etadi. Shu sababli unga alohida ishtiyoq bilan tayyorgarlik ko'rish zarur. Chunki rivojlangan davlatlar aynan xalqaro tadqiqotlarda yuqori ko'rsatkichga ega bo'lishadi. Biz ham Koreya Respublikasi o'qitish tizimidan zamonaviy tizim sifatida foydalanyapmiz. Ishonamanki, barcha xalqaro tadqiqotlarda o'zimizning yuqori natijamizga erishishimiz kerak.

Kalit so'zlar: tadqiqot, matematika va tabiiy fanlar, IEA rahbariyati.

ABSTRACT

This article is about the importance of TIMSS testing system in the innovational education. The reason of intending to this test in the educational sector of the Republic of Uzbekistan. It is targetted for 2023 year. Our country will attend to this test for the first time. So that, we should prepare hardly for this system. Because the developed countries have great indicators on the international projects. We also use the education system of the Republic of Korean as a modern system. Surely, we should achieve best results on international projects.

Keywords : project, mathematic and natural sciences, the leadership of IEA.

KIRISH

Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizning yangilanishi hayotimiz taraqqiyoti zamon talablariga mos keladigan yuqori malakali ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-772-777

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lidan shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro me'zon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi:

PIRLS – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash;

TIMSS – 4- va 8-sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash;

TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish;

PISA – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash.

Ushbu loyihalar o'quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi.

Ma'lumotlar to'plashning uchinchi o'n yilligi va yettinchi davriylikni boshlagan TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) - bu to'rtinchi va sakkizinchi sinflarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha keng joriy qilingan xalqaro baholash dasturi. TIMSS tadqiqoti doirasida birinchi baholash 1995-yilda o'tkazilgan va har to'rt yilda takrorlangan: 1999, 2003, 2007, 2011, 2015, 2019. TIMSS 2019 tadqiqoti TIMSS tadqiqotlari ketma-ketligining eng oxirgisidir. 60 ga yaqin mamlakat global kontekstda o'z ta'lim tizimining samaradorligini monitoring

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-772-777

qilishda TIMSS trend ma'lumotlaridan foydalanadi va har bir davriylikda TIMSS tadqiqotiga yangi davlatlar qo'shiladi.

Kabi bandlarida bir qator fanning va umumiy o’rta ta’lim va oliy ta’limning bir qator muammo hamda kamchiliklari keltirib ketilgan. Yuqoridagi qaror bandlarida keltirilgan ba’zi kamchiliklar sifatida shuni aytish mumkinki, birinchi bandda keltirilganidek matematika fanini o’qitishda uzviylik ta’minlanmagan. Sababai shundaki ba’zi mavzular boshlang’ich tushunchalari keltirilmay turib asosiy tushunchalar keltirilgan va misol, masalalardagi tadbiqlari qiyinlilik darajasi yuqori tartibdagi misollar berilgan. Ikkinchi banddagi aytib o‘tilganidek maktab matematika kursi darsliklari maktab o‘quvchilarining yosh jixatdan o‘zlashtirish darajalari inobatga olinmasdan ishlab chiqilgan. Ammo maktab matematika kursining mavzulari va boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi ko‘pam taxlil qilinmagan. Xozirgi kunda har bir fanning fanlararo bog‘liqligi hamda hayotiy tadbiqlarini o‘rgatish xar bir fanning zamonaviy muammolaridan bo‘lib hisoblanmoqda. Shularni inobatga olib qarasak, Finland ta’lim tizimi bir qator qulay va umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini faqat formulalar bilan emas balki mantiqiy fikrlashga tayangan holda yechim topishga o‘rgatishga qaratilgandir. Bundan tashqari finlandiya ta’lim tizimi asosan xalqaro baxolash tizimiga asoslangan bo‘lib, Finlandiya umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ematematika kursi darsliklari (PISA, TIMS) kabi bir qator baxolash tizimining dasturlariga asosan ishlab chiqilgandir. Biz quyida Finlandiya umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9- sinf o‘quvchilari uchun matematika fanining darsliklari va darslikda mavjud misol va masalalarni taxlil qilamiz.

Masalan:

1) quyidagi jadvalda berilgan notalarning har biri vaqt birligini bildiradi (soat hisobida)

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-815-819

𝅝	1
𝅗𝅥	$\frac{1}{2}$
♩	$\frac{1}{4}$
♪	$\frac{1}{8}$
𝅘𝅥𝅯	$\frac{1}{16}$

Shulardan foydalanib quyidagilarni hisoblang.

a) 𝅗𝅥 𝅗𝅥 𝅗𝅥
b) ♩ ♩ ♩ ♩
c) ♪ ♪ 𝅘𝅥𝅯
d) 𝅗𝅥 𝅘𝅥𝅯

Kabi misollar berilgan bo‘lib, odatda oliy ta’lim muassasasida o‘qiydigan matematika fani bilan bog‘liq bo‘lmagan yo‘nalishlar talabalarida matematika fani o‘zining yo‘nalishida nimaga kerak? Kabi savollar paydo bo‘ladi. Masalan musiqa ta’limi yo‘nalishida ham matematika fani nima uchun kerak kabi savollar paydo bo‘ladi. Yuqoridagi kabi misollar har bir o‘quvchi va talabalarni matematika faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi va bundan tashqari hisoblashga osn bo‘lib bir qator qiyin misollarga nisabatan o‘quvchilarning darsdan zerikib qolishlarini oldini oladi.

2) Quyidagi notalardan keyingi nuqta har bir notaning o‘z miqdarini yarmicha oshirishini bildiradi. Shularni hisoblang.

a) 𝅘𝅥𝅯.
b) 𝅗𝅥.
c) ♪.
d) ♩.

3) Bunday misollar ham ratsional sonlar ustida ishlashga o‘rgatadi va bunday misollar odatda bizning umumiy o‘rta ta’lim maktab 6- sinf o‘quvchilariga o‘rgatiladi. Ammo yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, bu kabi misollar Finlandiyaning 9- sinf o‘quvchilariga o‘rgatiladi.
4) Berilgan to‘rtburchaklarning asoslari berilgan ularning yuzidan yon tomonlari va perimetrlarini toping.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-815-819



Kabi misollar maktab matematikasining 7-sinf darsliklarida “Birhadlar va ko‘phadlar” mavzularida keltirib o‘tilgandir. Finlandiya umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9- sinf o‘quvchilari uchun beriladigan misollardandir. Ushbu misollar yordamida o‘quvchilarning fiklash va mantiqiy fikrlash doirasini oshirishga yordam beradi.

Quyidagi formuladan $\boldsymbol{T_1}$ni toping.

$$\boldsymbol{\rho_1 = \frac{T_1 - T_2}{T_1}\rho_0}$$

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu misol yordamida maktab o‘quvchilari fizika, kimyo va biologiyaga o‘xshagan fanlarda formulalar bilan ishlashni va matematika fanida parametrlar bilan bog‘liq ifodalarni soddalashtirish va taxlil qilish tushunchasi paydo bo‘lishiga yordam beradi.

Yuqoridagi misol va masalalardan ko‘rinadi Finlandiya o‘qitish tizimining 9-sinf o‘quvchilariga o‘ragtiladigan mavzu va misol, masalalar bizning 6-7- sinf o‘quvchilarining maktab darsliklari dasturlariga kiritilgandir. Shulardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, darlikdagi mavzular qisqartirilishi yoki misolning qiyinlashtirilishi bu maktab o‘quvchilarining fanni o‘zlashtirishlariga ijobiy ta’sir qilmaydi. Aksincha mavzu yoki misollarning qiyinlashishi bu maktab o‘quvchilarida fanga bo‘lgan qiziqishining so‘nishiga olib kelishi mumkin.

XULOSA

Xulosa o‘rnida umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini matematika faniga bo‘lgan qiziqishlarini va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshirish uchun qiyinlilikdan osonlikka tomon qadamma-qadam metodidan foydalangan holda dars jarayonlarini olib borgan ma’qul. Ushbu metod yordamida o‘quvchilar fanga bo‘lgan qiziqishlari oshishi bilan bir qatorda, mavzularni o‘zlashtirishlarida his qilishni va mantiqiy o‘ylashni o‘zlashtirishadi. Bundan tashqari matematika fanining hayotiy va fanlararo bog‘liqligini o‘zlashtirishadi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-815-819

REFERENCES

1. Marika Toivola ja Tiina Härkönen AVOIN MATEMATIIKKA 9 lk. Osio
2. M. Ahtee & J. Lavonen (Eds.) *How Finns learn mathematics and science* (pp. 11-34).
3. *The Finnish success in PISA – and some reasons behind it 2.* Jyväskylä: University of Jyväskylä, Institute for Educational Research.
4. https://lex.uz/docs/-5085887.
5. Andrews. P., Ryve. A., Hemmi. K. & Sayers. J. (2014). PISA; TIMSS and Finnish mathematics teaching (TIMSS va fin matematikasini o'qitish): an enigma in search of an explanation. In Educ.Stud.Math DOI 10.1007/s10649-014-9545-3
6. Heidi Krzywacki . Leila Pehkonen and Anu Laine. University of Helsinki. Promoting mathematical thinking in Finish mathematics education.
7. https://www.infofinland.fi/en/living-in-finland/education/the-finnish-education-system; Finlandiya o‘rta ta’lim maktablarini matematika fani o‘qituvchilari uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalari.
8. E.M.Mahkamov, N.J.Quljonov, Finlandiya o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitishni tahlil qilish (matematika fan misolida) Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2021-yil, 25-26 iyun146-148b

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-820-825

ERKIN IQTISODIY HUDUDLARGA INVESTITSIYA JALB ETISHNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Saida Azatovna Sheraliyeva
NavDPI geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

O’zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yoqilg’i energetika va don mustaqilligini ta’minlash, iqtisodiyotda tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirish, eksport salohiyatini oshirish va import o’rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarishni ko’paytirish uchun ustuvor sohalarni qo’llab-quvvatlash, chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun ochiq eshiklar siyosatini olib borish kabilarga qaratildi. Ushbu maqolada, erkin iqtisodiy hududlar ha investitsiya jalb etish boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish haqidagi fikr va mulohazalar qilinadi.

Kalit so‘zlar: erkin iqtisodiy hududlar, investitsiya, boshqarish, mexanizm, takomillashtirish, tamoyillar, ustuvorlik, loyihalar.

KIRISH

“Loyiha” so’zi bugungi kunga kelib iqtisodiy nazariya va amaliyotda keng tarqalib ulgurdi. Uning mazmunini talqin qilishda ham turlicha qarashlar mavjudligi mazkur atamaning tub mohiyatini o’rganish va ochib berishga bo’lgan qiziqishni oshiradi. Jahon bankining Iqtisodiy rivojlanish instituti mutaxassislari tomonidan aniqlanishicha loyiha: birinchidan, maqsadli faoliyat; ikkinchidan, foyda uning xarajatlaridan har doim ortiq bo’ladi; uchinchidan, u cheklangan vaqt va resurslarda qat’iy cheklanganlikka ega bo’ladi. Iqtisodiy rivojlanish kompleks jarayon sifatida o’zini namoyon etadi va bunda mazkur sohada yuksalish bir qancha ko’rsatkichlar: yalpi ichki mahsulot, daromad, foyda, iste’mol darajasi, sog’liqni saqlash, umrning uzunligi, savodlilik, sifatning oshishi va shu kabilar orqali aks ettirilishi mumkin. Shu sababli ham loyiha g’oyasi barcha holatlar uchun bir xil mazmun kasb etmasligi mumkin va loyihani ishlab chiqish va uni baholashnig ham yagona namunaviy shakli bo’lishi mumkin emas. O’z navbatida, loyihalar ularning alohida elementlari va ko’rsatkichlarini ifodalovchi bir qator maqsadli tadbirlar, loyihani amalga oshirish va ko’zlangan natijaga erishishga qaratilgan boshqaruv tizimi va boshqalardan tashkil topadi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-820-825

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Har qanday loyihani amalga oshirish investitsiyalar bilan bevosita bog'liqdir. Shunga ko'ra, hayotda loyihalarning turli-tumanligidan kelib chiqib, unga yo'naltiriladigan investitsiyalarning ham yo'nalishlari, sohalari, manbalari, muddatlari, ishtirokchilari, investorlari, ahamiyati turlicha bo'ladi. Biroq, turli loyihalarga yo'naltirilgan investitsiyalarda shunday umumiylik saqlanib qoladiki, buni anglash maqqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda O'zbekistonda ham katta hajmdagi investitsiyalarni talab etuvchi davlat Dasturlari amalga oshirilayotganligi barchamizga ayon va bunga qishloq joylarda aholini uy-joylar bilan ta'minlash va ular qurilishini amalga oshirish, sanoatni rivojlantirish, aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, transport va aloqa tizimini rivojlantirish va boshqa (yonilg'i va energetika, mashinasozlik, yo'llarni qurish va ta'mirlash, lokalizatsiya kabilar) davlat sasturlarini misol qilib keltirish mumkin. "Investitsiya loyihasi" tushunchasi 2 xil ma'noda talqin etiladi:

- muayyan maqsadlarga erishish (muayyan natijalarni olish)ni ta'minlovchi qandaydir harakatlar kompleksini amalga oshirishni nazarda tutuvchi ish, faoliyat, chora-tadbir sifatida;
- qandaydir harakat, faoliyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-huquqiy, texnik, hisob-moliyaviy hujjatlar tizimi sifatida. Birinchi holatdagi mazmunga "xo'jalik tadbiri", ish "ishlar yig'indisi", "loyiha" terminlari yaqin hisoblanadi.

Loyihaning amalga oshirilishi ma'lum ichki dinamik va tashqi muhit qurshovida yuz berib, unga ma'lum ta'sirini o'tkazadi. Shu bilan birga, qurilish loyihalarida bino etilayotgan qurilma konstruktsiyalariga tushadigan barcha turdagi statistik va dinamik yuklarni aniqlay olish va hisoblay olish zarurligi kabi, kengroq ko'lamdagi loyihada ham, loyihaga va uning muhitiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha jismoniy, iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy tashkiliy va omillarni aniqlash va hisobga olish muhim, ma'lum sharoitlarda bunday omillarning har biri loyiha uchun xavfli bo'lib chiqib, uning buzilishiga olib kelishi mumkin. Loyiha atrof-muhit o'rtasidagi munosabatni ma'lum bir mahsulot ishlab chiqaradigan korxona uchun mahsulotni rivjlantirish loyihasi misolida ko'rib chiqish mumkin. Oddiy, uzoq muddat faoliyat tashkilot o'zgarishlar va yangilanish sharoitida talabning yuzaga chiqishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-820-825

natijada loyihaning paydo bo'lishiga olib keladi. Qachonki loyiha xaqiqatdan boshlangan bo'lsa, u mustaqil rivojlana boshlaydi. Loyihani amalga oshirish jarayonida uning ishtirokchilari o'z vazifalarini bajarishga e'tibor qaratadilar.

Loyihani amalga oshirish davomida korxonaning ishlab chiqarish, sotish, boshqaruvdagi oddiy hayoti davom etaveradi. Xuddi shu holat loyihaning muhitiga ham tegishli. Bu yerda ham o'zgarishlar yuz berib, ular korxona orqali loyihaga ta'sir etadi. Ishlab chiqarishni kengaytirishga qilingan investitsiyalarda tavakkalchilik xavfi yangi ishlab chiqarishga qilingan investitsiyalarga qaraganda pastroq. Ayni paytda samaradorlikni oshirishga qilinadigan investitsiyalar bozor allaqachon qabul qilgan tovarlarning sifatini oshirish, tannarxini kamaytirishni ko'zda tutgani uchun ham, ularda tavakkalchilik xavfi darajasi ikkinchi va uchinchi guruhlar investitsiyalarinikidan ancha past bo'ladi. Xuddi shu kabi davlat boshqaruv idoralari talablarini bajarishga sarflangan investitsiyalarning tavakkalchilik xavfi darajasi ancha kichik hisoblanadi. Loyihalarning turlariga tasniflanish va bo'linmalariga mos ravishda loyihalarni bir-biridan ajratib turadigan bir necha xususiyatlari va odatiy shartlarni ajratish mumkin. Shunga ko'ra, uning quyidagi turlarini bilish zarur. Loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilish jarayoni loyihaning ichki muhitiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar quyidagilardir:

Maxsus tashkillashtirilganlik – loyihaning asosiy ishtirokchilari, huquqlar, taqsimot, javobgarlik va majburiyatlar orasidagi o'zaro aloqani aniqlab beradi hamda loyihani amalga oshirish muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi. Loyiha ishtirokchilari – loyihani amalga oshirish jarayonida turli xil qiziqishlarni amalga oshirib, maqsad va rag'batga mos ravishda o'z talablarini shakllantiradi va o'zlarining qiziqishlari, qobiliyatlari va loyiha "jalb qilinganlik" darajasi bilan loyihaga ta'sir ko'rsatadi. Loyiha jamoasi – loyihaning "aql markazi", motori va ishni bajaruvchi a'zosi bo'lib, loyihaning rivoji va muvaffaqiyati, ko'p jihatdan. unga bog'liq. Loyiha ishtirokchilarining tarkibi. Ularning roli, loyihaning turi, qurilish ko'lami va murakkabligiga bog'liq holda vazifa va javbgarlikni taqsimlash hamda loyihaning hayotiylik sikli fazalariga bog'liq holda shunday qilib, loyihaning vazifalari bo'yicha uning butun hayotiylik sikli davomida amalga oshirish doimiy bo'lib hisoblanadi, ishtirokchilar tarkibi esa uning roli javobgarlik va majburiyatlarni taqsimlash o'zgarishi mumkin. Bu yerda umum qabul qilingan qattiq reglamentlar yo'q. Quyida loyiha ishtirokchilari va ularning vazifalari sanab o'tilgan.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-820-825

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tashabbuskor – loyihaning bosh g'oyasi bo'lgan tomon, uning loyihani amalga oshirish bo'yicha boshlang'ich asoslari va takliflari. Tashabbuskor sifatida loyihaning kelajakdagi ishtirokchilaridan deyarli har qaysi maydonga chiqishi mumkin, lekin, natijada loyihani amalga oshirish bo'yicha ishbilarmonlik tashabbusi loyiha buyurtmachisidan kelib chiqishi kerak. Buyurtmachi – asosiy tomon bo'lib, u loyihani amalga oshirish va uning natijalariga erishishdan manfaatdor. Loyihaning yangi egasi va natijalardan foydalanuvchidir. Buyurtmachi loyihaning asosiy talablari va ko'lamini aniqlab beradi, o'z vositalari yoki jalb qiluvchi investorlar vositalari hisobiga loyihani moliyalashtiradi, loyihani asosiy bajaruvchilari bilan shartnomalar tuzadi. Bu shartnomalar bo'yicha javobgar bo'ladi, loyihaning barcha ishtirokchilari orasidagi o'zaro munosabatlari jarayoni boshqaradi. Loyiha bo'yicha butun jamiyat va qonun oldida javobgar hisoblanadi.

Investor(lar) – loyihaga investorlar kirituvchi tomonlar, masalan, kredit yo'li bilan. Investorlar maqsadi loyihani amalga oshirishdan o'z investitsiyalari bo'yicha maksimal foyda. Agar buyurtmachi va investor bitta shaxs bo'lmasa, unda investor sifatida odatda banklar, investitsion fondlar va boshqa tashkilotlar chiqadi. Investorlar buyurtmachi bilan aloqaga kirishadi, kontraktlar bajarilishini nazorat qiladi va loyihani amalga oshirish bo'yicha boshqa tomonlar bilan hisob-kitoblarni bajaradi. Investorlar loyihaning teng huquqli sherigi va uning mulklari egasi bo'lib, buyurtmachi bilan shartnoma yoki kredit kelishuvi bo'yicha, ularga barcha vositalar to'lanmaguncha, o'z investitsiyalari hisobiga hosil qilinadi.

Loyihalarni boshqarish boshqaruv orqali amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, aytish mumkinki, boshqaruv – bu ma'lum bir ijobiy natijaga erishish uchun, uslublar va tamoyillar yig'indisi orqali biror ob'ektga maqsadga muvofiq ta'sir etish. Inson faoliyatining barcha sohalariga, shu jumladan, investitsiya loyihalarini amalga oshirish sohasiga ham boshqaruv jarayoniga taalluqlidir. Investitsiya loyihalarini boshqarish ma'lum bir uslub va tamoyillarga tayanib maxsus loyiha menejeri yoki loyiha boshqaruv kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Loyihalarni boshqarish, aksariyat hollarda, loyiha menejeri tomonidan amalga oshiriladi. Loyiha menejeri – bu loyihaga yo'naltirilgan kapital harakati, pul oqimi, foyda, jamg'arma va reinvestitsiyalash, daramad va xarajatlar balansini uzluksiz tahlil qilib va o'rganib boruvchi hamda ularga ta'sir ko'rsatuvchi sub'ekt. Investitsiya loyihalarini boshqarish moliyaviy

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-820-825

menejmentning asosiyni tashkil etish bilan birga o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Moliyaviy menejment shunday tizimki, bunda korxonani boshqarishning umumiy maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan foliyat amalga oshiriladi. Investitsiya menejmenti quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan bo'ladi:

- xo'jalik sub'ektining ishlab chiqarish salohiyati va iqtisodiy o'sishini ta'minlashga;
- investitsiya loyihasi, ob'ektining daromadliligini maksimallashtirish;
- investitsiya faoliyati, loyihasi risklarini minimallashtirish;

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda strategik faoliyat terminiga nisbatan 2 xil yo'nalish mavjud. Kompaniyalarning investitsion faoliyatdagi strategik boshqaruv, shuningdek, uning investitsion strategiyasini ishlab chiqish jarayoni ushbu investitsion kompaniya portfelidagi boshqaruv taktik faoliyat yo'nalishi jarayoniga aniqlik kiritishni o'z ichiga oladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, korxona rivojlanishida investitsiya turlarining o'zaro nisbatini aniqlash, bu korxona faolyati funksional yo'nalishi bilan o'zaro bog'liq. Ko'p xollarda investorlar o'zlarining investitsion faoliyatini fond bozorida amalga oshiradilar. Bunda investorlar uchun qimmatli qog'ozlar bozorida o'z mablag'larini investitsiya qilish yaxshi samara berishi mumkin. Ularning uzoqqa mo'ljallangan investitsion faoliyatining asosiy shakli aksiya, obligatsiyalar va boshqa xil qimmatli qog'ozlar bo'lishi mumkin. Bu vaqtda ba'zi bir korxonalar (investorlar) real investitsiyalarga mablag'lar sarflashni o'zlari uchun maqsad qilib qo'yishadi. Bu esa kelajakda korxona asosiy fondlarini yangilash, texnik qayta jixozlash bilan yangi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga zamin yaratadi. Bu esa korxonaning yangi tovar va hududiy bozorlarga kirishga imkon beradi. Shuningdek, erkin iqtisodiy hududlar ha investitsiya jalb etish boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bu zamon va texnologiyalarning rivojlanishi, tomonlarning manfaatlariga ham bog'liqdir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni. 2019-yil, 9-dekabr.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-820-825

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori
3. "O’zbekiston respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari tog’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 2018-yil, 1-avgust.
4. Sh.SH. Shodmonov, U.V.G’afurov, “Iqtisodiyot nazariyasi” , T.: - “Fan va texnologiya”, 2009 yil
5. Tojiboyeva D. ―Iqtisodiyot nazariyasi‖: 2-kitob: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. -T. «Sharq», 2008, 79-b.
6. Korxonalarda investitsion faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirish yo’llari. https://fayllar.org/industrial-va-innovatsion-iqtisodiyot.html?page=2

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-826-830

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TARBIYACHILARINING PEDAGOGIK QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Gulnoza Ilhom qizi Xasanova
JDPI, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yo'nalishi tarbiyachilarining pedagogik qobiliyatlarini takomillashtirishda integrativ yondashuvning mazmuni xaqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Kasbiy mahorat, pisixologik bilimlar, o'tkir iroda, pedagogik mahorat, mahorat, tarbiyachi modeli, tarbiya samaradorligi, insonparvar munosabat.

ABSTRACT

This article discusses the content of an integrative approach to improving the pedagogical skills of preschool educators.

Keywords: Professional skills, psychological knowledge, sharp will, pedagogical skills, skill, educator model, educational effectiveness, humane attitude.

KIRISH

Xozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan texnika va axborot kamunikatsiya texnalogiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr tarbiyachisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik pisixologik bilimlarni, o'z ishini chuqur bilishini va yuksak tafakkurini, siyosiy savoxonlikni, fkrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatiyotgan tarbiyachilar tarbiya shakllarining optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakklantirish nazariyasini, turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Jamiyatda tarbiyachi modeli o'z mahoratiga ega bo'lishi tarbiya samaradorligini ta'minlovchi shaxs bo'libgina qolmasdan ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro e'tiborini ham oshiradi, tarbiyalanuvchilarga unga nisbatan hurmat yuzga keladi. Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan hatolardan holi bo'lish, tarbiyachilar, hamkasblar, hamda ota – onalar bilan munosabatda muvofaqqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan tarbiyachi bolani

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-826-830

tushina olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholasa, yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyatda hamisha ilg'orligi jamiyat taraqqiyoti hamda pedaggik jarayonda tarbiyalanuvchilar ongida singdirilayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan bog'lay olishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Barchamizga ma'lumki, shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok eta olishi unda shakllangan kompetensiyalarga bevosita bog'liq. Tarbiyachi jamiyatda o'z o'rni va ahamiyatini rivjlantirishda uning o'z faoliyati davomida egallagan bilim ko'nikma va malalakalri muhim ahamiyat kasb etadi. V.A.Slasttelin tariflashicha, pedagogik qobiliyat shaxsining kasbiy yo'nalishidagi yuqori ko'rinishi bilan har qanday faoliyat qobiliyatning asosiy ko'rsatkichi uning fikricha, maxsus umumlashgan malakalarni egallaganligidir. Tarbiyachilik kasbiy bilimlarining xuxusan pedagogik pisixalogik bilimlarining yetishmasligi yoki uning rad etilishi va hatti – harakati unga yetarlicha e'tibor bermaslik ko'pgina xollarda tarbiyachi tayyor materiallardan foydalanib o'z ustida izlnishlarni to'xtati qo'yadi. Bu esa tarbiyachi shaxsiga nisbatan bilimsizlik darajasini olib keladi.Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg tarbiyachining jamiyatda o'z o'rnini egallash uchun doimiy ravishda fanlarni mutola qilish bilan shug'ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: "Tarbiyachi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday tarbiyachidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi." Tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi o'zi yashab turgan tabiyat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fizalogiyasini egallashi va bolalarning yosh hususiyatlarini bilishi kerak. Shuningdek, pedagok tarbiyachining hodisalarnitahlil qilishga ilmiy nuqtayi nazardan yondashuvi bolani har tamonlama rivojlantirishmufaqqiyatni amalaga oshirishga imkon beradi. L.Y.kolnlmskiy o'z Tadqiqotida tarbiyachining bolalarga munosabati so'ssiz tarbiyachi mehnati muafaqqiyatlarida hal qiluvchi ro'l o'ynashi hamda pedagogik mahoratning muhim tamoni bo'lib hisoblanishini takidlagan edi. Uning fikricha tarbiyachi bilan bolalarning o'zaro munosabati ko'p jihatdan aynan mana shu jarayon harakteriga bog'liqdir. Taniqli rus pedagogi A.S.Makarenko o'z asarlarida o'qituvchining kasbiy fazilati to'g'risida fikrlarini quyidagicha bayon qiladi: "Pedagog darsda ma'lum bir

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-826-830

o‘ziga xos rolni o‘ynamasligi mumkin emas. Sinf sahnasida rol o‘ynashni bilmaydigan o‘qituvchi kasbiy faoliyat olib borolmaydi. U ma’lum ma’noda aktyor. Bizning xulq-atvorimiz, fe’limiz, xarakterimiz biz uchun pedagogik qurol bo‘lishi ham aslo mumkin emas. Bolalarni qalb va ko‘ngil azoblari bilan, hijronli his-tuyg‘ularimiz yordamida tarbiyalashga umuman yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Axir biz insonmiz. Har qanday boshqa kasb egalarida ko‘ngil zahmatisiz ish bitirish mumkin bo‘lsa, pedagog ham ko‘ngil azobisiz faoliyat olib borishi lozim bo‘ladi. O‘quvchiga ba‘zan muloqotda ko‘ngil azobini namoyish etishga to‘gri keladi. Buning uchun pedagog sahnadagi aktyordek ijobiy rol o‘ynashni ham bilishi kerak.

NATIJALAR

Qobiliyat bu- shaxsning individual-psixologik xususiyati bo‘lib, muay-yan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig‘indisi hisoblanadi. Tarbiyachi bolalarni o’qitish emas, o’qishga boshqarib turishi tarbiyalash emas, tarbiya jarayoniga raxbarlik qilish uchun yaratilgan bu vazifani u qanchalik chuqur anglab yetsa u o’z bolalariga shunchalik erkinlik, tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash uchun sharoit yaratib bergan bo’ladi. Tarbiyachilik qobiliyatini haqiqatdan ham yuqori darajada egallagan tarbiyachi ta’lim tarbiya jarayonini go’yo chetdan kuzatib turgandek tuyuladi aslida esa bu jarayon boshqarilib boriladi.

Buyuk grek faylasufi Suqrot o’sha davrlardatoq mutaxasis tarbiyachilarni “fikr akusherlari” deb nomlagan edi. Tayyor haqiqatni e’lon qilish emas balki bolalarongida yangi fikr tug’ulishini taminlash zarur. Tarbiyachi ta’lim – tarbiya jarayonini boshqarishdagi birinchi vazifasi – maqsadni belgilaganidadir. Maqsad esa pedagogik faoliyatda tayanch omildir. Tarbiyachi va bolalarning umumiy mehnatini ma’lum yo’nalishga boshqarib boradi. Bu esa o’z o’rnida kutilgan natijalarga yetaklaydi. Boshqarish jarayoning mohiyati ana shundan iboratki, pedagogik jarayon ishtirikchilari harakatini muofiqlashtirb turadi. Tarbiyachi shaxsi tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo’lishi lozim. Tarbiyachi tomonidan bajariladigan vazifalarning ko’pligi uning kasbida boshqa ko’plab boshqa ko’plab mutaxasisliklar elementlaridan foydalanishni taqqozo etadi, aktyorlik, rejissiyorlik, menjerlik, tadqiqotchilik kabilardir. Ya.A Komenskiyning takidlashicha tarbiyachilikning asosiy belgisi shundan iboratki, u o’zining yuqori darajadagi axloqiyligi, kishilarga muhabbati, bilimi va mexnatsevaarligi va boshqa sifatlari bilan tarbiyachiga namuna bo’lsin va namuna ko’rsatib ularda insoniylikni tarbiyalasin.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-826-830

MUHOKAMA

Integrativ yondashuv asosida maktabgacha ta’lim yo’nalishi o’qituvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlarda turli xildagi o‘yinlardan foydalanish kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi desak mubolag’a bo’lmaydi. Sababi, ushbu metod yordamida shaxsiy, intellektual, umumiy, kommunikativ ko‘nikmalar o‘zaro uyg‘unlashib refleksiv kompetensiya shakllanadi.

Pedagogik ensiklopediyada keltirilishicha, pedagogik refleksiya - o’quv tarbiya jarayonlarining subyektlarining o’zaro munosabat jarayonida o’z- o’zini tenglashtirishini anglatadi. Pedagogning refleksiv kompitentsiyasi subyektlarning o’z xatti- harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi anglashga qaratilgan nazariy faoliyat jarayoni xisoblanadi.

Integratsiyalashuv printsipi zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda yetakchi tamoyil hisoblanmoqda. Integratsiyalashuv tamoyilning mohiyati shundan iboratki, maktabgacha yoshdagi bolalarga dunyoning yaxlit ko'rinishi haqida tasavvur beradigan sintetik, yaxlit bilim tizimini yaratish istagi xisoblanadi. Natijada ularda o‘zlikni anglash xissi rivojlanib ijtimoiylashish, muammoli vaziyatlarga echim topish layoqati shakllanadi. Natijada jamiyat qonunlariga amal qilish asosida maktabgacha ta’lim yo’nalishi o’qituvchilaridafaol fuqarolik kompetensiyasi shakllanadi. Keys metodi esa o‘quvchilarni amaliy faoliyatga jalb etish bilan bir qatorda o‘yin ko‘lamini kengaytirish, uni real xayotiy voqelik bilan bog‘lashga ham xizmat qiladi. Mazkur metod o‘quv jarayonini aniq hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lab, o‘quvchilarni qo‘yilgan muammolarning echimini faol izlash, birgalikdagi faoliyat natijalarini bosqichma-bosqich muhokama qilishga undaydi.

XULOSA

Jamiyatda tarbiyachi modelini shakllantirishning ijtimoiy va pedagogik, psixalogik tayyorgarligi – tarbiyachining ta’lim tarbiya jarayonining qonun qoidalarinio’zlashtirishi, pedagogik , psixalogik bilim malakalarga ega bo’lishi, ta’lim oluvchi shaxsining yosh va individual xususiyatlarini bilishi hamda ularning psixalogik holatni boshqara olish, ta’lim jarayonini , uning mazmuni, tamoyillari, ta’limni tashkil etishning shakl, metod, va vositalari haqida dastlabki nazariy ma’lumotlarga egalik darajasi bilan taqqoslanadi. Tarbiyalanuvchilarni boshqarishga moyil, qiziquvchan bo’lganliklari uchun tarbiyachi o’z metodlarini to’g’ri va aniq qo’llashi zarur jamiyatda tarbiyachi modelining ijtimoiylashuvida uning pedagogik

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-826-830

mahorati, qobiliyati, har bir tarbiyalanuvchilarning yosh hususiyatlariga etibor berishi, davlat talablari asosida olib borilishi va bu jihatlarnng to'g'ri yo'lga quyishi eng avvalo tarbiyachi shaxsiga bog'liqdir. Tarbiyachidan tarbiyalanuvchilarning yosh hususiyatlariga mos bo'lgan mashg'ulotni oson o'zlashtirishlarini bilimlarini mustahkam o'rganishni taminlaydigan metodlarni tanalshi va foydalanishni talab etadi.

REFERENCES

1. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: «Istiqlol», 2006.
2. Педагогика: энциклопедия. Ш жилд / тузувчилар: жамоа. -П 29 Тошкент: ≪Узбекистан миллий энциклопедияси≫ Давлат илмий нашриёти, 2017. - 424 бет.
3. Г.И.ХАСАНОВА "Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари" Жиззах: 2020. 420 бет. 223-225б
4. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-831-835

УМУМЛАШГАН МОМЕНТЛАР УСУЛИ БАҲОСИ ВА УНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Гузал Сайдиллаевна Абдужалилова
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети, Эконометрика ва иқтисодий моделлаштириш кафедраси таянч докторанти
rasulova2406@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Номаълум параметрларни баҳолашда бир қанча усуллар мавжуд бўлиб, улар ичида ҳақиқатга максимал ўхшашлик усули кенг қўлланиладиган усуллардан бири ҳисобланади. Ушбу усул ёрдамида олинган баҳолар асимптотик нормаллик, асимптотик эффективлик каби бир қанча яхши хоссаларга эга бўлади. Аммо тасодифий миқдор математик кутилмаси мавжуд бўлмаса ёки ҳақиқатга максимал ўхшашлик тенгламаси аниқ ечилмаса бу усуллар ишламайди ҳамда бошқа баҳолаш усуллардан фойдаланишга тўғри келади. Иқтисодиётда бир қанча жараёнлар тақсимотлари маълум ўрганилган тақсимот бўлган ҳолда ҳам баҳолаш турли сабабларга кўра қийинчилик туғдириши мумкин. Ушбу мақолада умумлашган моментлар усули, бу усул ёрдамида олинган баҳоларнинг асимптотик хоссалари ўрганилади.

Калит сўзлар: баҳолаш, вақтли қаторлар, умумлашган моментлар усули, характеристик функциялар, эффективлик.

ABSTRACT

There are various methods for estimating an unknown parameter. The most common of them are the maximum likelihood method and the method of moments. These methods allow us to obtain consistent, effective estimates and they are asymptotically normal under general conditions. However, in the case when the random variables does not have a mathematical expectation, or the likelihood equation is not solved explicitly, then these methods do not work and in these cases we have to look for other methods. There are many processes in economics where the maximum likelihood approach is difficult to implement, both in the independently identically distributed case and in the dependent case. In this paper, we study a generalized method of moments for evaluating models of a linear time series. The obtained estimates are compared with traditional estimation methods, such as the maximum likelihood method. Investigated the properties of the estimation: asymptotic unbiased and consistency.

Keywords: estimation, time series, generalized method of moments, characteristic function, efficiently.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-831-835

КИРИШ

Одатда анъанавий ҳақиқатга максимал ўхшашлик усули ёрдамида баҳолаш ёки моментларни топиш имконияти мавжуд бўлмаганлигида эмпирик характеристик функциялар усулидан фойдаланилади. Чунки эмпирик момент ҳар доим мавжуд ҳамда характеристик функция ва тақсимот функция орасида ўзаро бир қийматли мослик мавжуд. Яъни эмпирик характеристик функциялар усулида кузатилмалар тўғрисидаги информация мавжуд. Эмпирик характеристик функциялар усули иқтисодиётда дисперсияси етарлича катта бўлган тақсимотдан олинган кузатилмалар бўлган ҳолда қўлланилади. Дисперсияси катта бўлган кузатилмалар:

1. Фирманинг ҳафталик/ойлик ишлаб чиқариш сериясида кузатилмаларни четланиши сифатида иш ташлаш ёки таътил вақтида ишни тўхтаб туриши;

2. Кундалик фоиз ставкаларидаги ўзгаришларда катта ҳажмда сотиб олишни кузатилмаларни четланиши деб қараш мумкин.

Умумий ҳолда жараёнларнинг тақсимотлари барқарор тақсимот, нормал тақсимот қоришмалари кўринишида ифодалаб бўлмайдиган ҳолларда ҳақиқатга ўхшашлик функцияси параметрик фазода чегараланмаган функция бўлади (яъни мазкур фазода унинг максимумини топиб бўлмайди).

Эмпирик характеристик функциялар усулининг энг яхши томони кузатилмалардаги барча информацияни сақлаб қолади. Эмпирик характеристик функцияларга асосланган ҳулоса эмпирик тақсимот функцияга асосланган ҳулосалар кабидир. Характеристик функцияларни қўлланилишининг афзаллиги бу функция текис чегараланганлиги сабабли натижани барқарор тақсимотга олиб келишидир.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ҳақиқатга максимал ўхшашлик усули- кенг қўлланиладиган усуллардан бири ҳисобланиб, мазкур усул ёрдамида олинган баҳолар асимптотик нормаллик, асимптотик эффективлик каби бир қанча яхши хоссаларга эга бўлади. Айрим ҳолатларда ушбу усул билан баҳолаш турли сабабларга кўра қийинчилик туғдириши мумкин. Шундай ҳолларда альтернатив баҳолаш усулларидан фойдаланишга тўғри келади. Масалан, (Hansen (1982)) нинг моментлар усули, (Bollerslev и др. (1992)) нинг шартли ҳақиқатга максимал ўхшашлик усули, (White (1982)) нинг квази-ҳақиқатга максимал ўхшашлик усули ёки (Danielsson (1994b), Duffie ва Singleton (1993)) методлари асосида

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-831-835

моделлаштириш мумкин. Баҳолаш усулларидан бири эмпирик характеристик функциялар усулининг энг яхши томони характеристик функция ва тақсимот функция орасида ўзаро бир қийматли мослик мавжуд. Боғлиқсиз ва бир хил тақсимланган тасодифий миқдорлар учун жарактеристик функциялар усули Feuerverger, Mureika (1977) ва Csörgő (1981) олимлар томонидан ўрганилган. Умумлашган моментлар усули математик статистика хамда эконометрикада тақсимотлар ва эконометрик моделлар параметрларини баҳолашда кенг қўлланилади. Умумлашган моментлар усули – моменлар усулининг классик методи бўлиб, 1982 йилда Hansen томонидан таклиф этилган. Laszlo Matyas (1999) нинг монографияси умумлашган моментлар усулининг иқтисодий моделларда қўлланилишига бағишланган. Мазкур монографияда стационар авторегрессия моделлари параметрларини эффектив баҳолаш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган.

НАТИЖАЛАР

$\{X_n\}_{n\geq 1}$ – боғлиқсиз ва бир хил тақсимланган тасодифий миқдорлар кетма-кетлиги ҳамда тақсимот функцияси $F(x,\theta)=P(X_1<x),\quad x\in R$ бўлсин, бу ерда $\theta\in\Theta$ номаълум параметр, $\Theta\in R^1$.

Номаълум параметр θ ни эмпирик характеристик функциялар усули билан баҳолаш масаласини кўрамиз:

$$C(t;\theta)=\int_{-\infty}^{+\infty}\exp(itx)dF(x;\theta),\quad t\in R,\quad \theta\in\Theta$$

X_1 тасодифий миқдорнинг характеристик функцияси ва унинг эмпирик баҳоси

$$C_n(t)=\int_{-\infty}^{+\infty}\exp(itx)dF_n(x)=\frac{1}{n}\sum_{j=1}^{n}\exp(itx_j),$$

бу ерда $F_n(x)=\frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}(X_i<x)$ – эмпирик тақсимот функция ва $I(A)$ - A ҳодиса индикатори.

Эмпирик характеристик функциялар усули моҳияти: θ ни баҳолаш учун $\psi(t)$ вазн функциясини танлаб, қуйидаги тенглама қурилади:

$$\int(C_n(t)-C(t;\theta))\psi(t)dt=0.$$

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-831-835

Feuerverger ва Mureika (1977) нинг ишларида ψ вазн функциясини

$$\psi(t)=\frac{1}{2\pi}\int_{-\infty}^{+\infty}\frac{\partial \log f(x;\theta)}{\partial\theta}\exp\{-itx\}dx,$$

кўринишда танлаш баҳонинг эффективлигини таъминлаши кўрсатилган.

Масалан, нормал тақсимот номаълум параметрларини баҳолаш масаласини кўрамиз. $X^{(n)}=(X_1,\ldots,X_n)$ танланма $N(\theta_1,\theta_2^2)$ тақсимотдан олинган бўлсин. У ҳолда зичлик функцияси қуйидаги кўринишда бўлади:

$$f(x;\theta)=\frac{1}{\sqrt{2\pi}\theta_1}\exp\left\{-\frac{(x-\theta_1)^2}{2\theta_2^2}\right\},\quad -\infty<x<+\infty,\ \theta_1\in(-\infty;+\infty),\ \theta_2\in(0;+\infty).$$

Вазн функциясини топамиз

$$\omega_{\theta_1}(x)=\frac{1}{2\pi}\int_{-\infty}^{+\infty}\left(\frac{x-\theta_1}{\theta_2^2}\right)e^{-itx}dx=\frac{1}{2\pi}\int_{-\infty}^{+\infty}\frac{x}{\theta_2^2}e^{-itx}dx-\frac{1}{2\pi}\int_{-\infty}^{+\infty}\frac{\theta_1}{\theta_2^2}e^{-itx}dx=\frac{1}{\theta_2^2}\delta'(x)-\frac{\theta_1}{\theta_2^2}\delta(x),$$

бу ерда $\delta(x)=\int e^{-itx}dx$ - Диракнинг дельта функцияси.

$$\int_{-\infty}^{+\infty}\omega_{\theta_1}(t)\phi_n(t)dt-\int_{-\infty}^{+\infty}\omega_{\theta_1}\varphi_\theta(t)dt=\int_{-\infty}^{+\infty}\left(\frac{1}{\theta_1^2}\delta'(t)-\frac{\theta_1}{\theta_2^2}\delta(t)\right)\varphi_n(t)dt-$$

$$-\int_{-\infty}^{+\infty}\left(\frac{1}{\theta_1^2}\delta'(t)-\frac{\theta_1}{\theta_2^2}\delta(t)\right)\varphi_\theta(t)dt=0$$

Мазкур тенгламани ечиб, характеристик функциялар усули орқали баҳо топамиз: $\hat{\theta}_1=\bar{x}$.

Худди шундай,

$$\omega_{\theta_2}(x)=\frac{1}{2\pi}\int_{-\infty}^{+\infty}\left(-\frac{1}{2\theta_2^2}+\frac{(x-\theta_1)}{2\theta_2^4}\right)e^{-itx}dx=\frac{1}{2\theta_2^4}\delta''(x)-\frac{\theta_1}{\theta_2^4}\delta'(x)+\frac{\theta_1^2-\theta_2^2}{2\theta_2^4}\delta(x).$$

$$\int_{-\infty}^{+\infty}\omega_{\theta_2}(t)\varphi_n(t)dt-\int_{-\infty}^{+\infty}\omega_{\theta_2}(t)\varphi_\theta(t)dt=\int_{-\infty}^{+\infty}\left(\frac{1}{2\theta_2^4}\delta''(t)-\frac{\theta_1}{\theta_2^4}\delta'(t)+\frac{\theta_1^2-\theta_2^2}{2\theta_2^4}\delta(t)\right)\varphi_n(t)dt-$$

$$-\int_{-\infty}^{+\infty}\left(\frac{1}{2\theta_2^4}\delta''(t)-\frac{\theta_1}{\theta_2^4}\delta'(t)+\frac{\theta_1^2-\theta_2^2}{2\theta_2^4}\delta(t)\right)\varphi_\theta(t)dt=0$$

Бу тенгламанинг ечими $\hat{\theta}_2^2=\overline{x^2}-\bar{x}^2$.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-831-835

$\begin{cases} \theta_1 = \overline{x}, \\ \theta_2^2 = \overline{x^2} - \overline{x}^2 \end{cases}$ - характеристик функциялар усули орқали маълум тақсимот учун топилган баҳо маълум яхши баҳолаш усуллари ҳисобланган ҳақиқатга максимал ўхшашлик усули ва моментлар усллари баҳолари билан устма-уст тушди.

ХУЛОСА

Номаълум параметрларни турли баҳолаш усуллари мавжуд бўлиб, мазкур баҳолаш усуллари ёрдамида олиган баҳолар маълум шартлар ўринлилигида асосли ва эффектив баҳолар бўлади. Мақолада бу усуллар ёрдамида баҳоларни топиш имконияти бўлмаганлигида эмпирик характеристик функциялар усулидан фойдаланиш, эмпирик характеристик функциялар усули баҳоси бошқа баҳолаш усуллари ёрдамида олинган баҳолардан афзаллиги кўрилган.

REFERENCES

1. Matyas L. *Generalized methods of moments estimation* (Cambridge University Press, New York, 1999), pp. 4-29.
2. Hansen L. Large sample properties of generalized method of moments estimators. Econometrica, **50**, 1029-1054 (1982).
3. Csörgő S. Estimating characteristic functions, under random censorship // Carleton Math. Lect/ Note. 1981. №30. P. 301-315.
4. Danielsson J. Stochastic volatility in asset prices estimation with simulated maximum likelihood. Journal of Econometrics, 1994, vol. 64, issue 1-2, 375-400
5. White B., Maximum Likelihood Estimation of Misspecified Models. // Econometrica, Vol. 50, No. 1 (Jan., 1982), pp. 1-25 (25 pages)
6. Bollerslev T., A Conditionally heteroskedastic time series model for speculative prices and rates of return. // The Review of Economics and Statistics, Vol. 69, No. 3 1987, 542-547.
7. FEUERVERGER A., McDUNNOUGH PH. One the efficiency empirical characteristic function procedures // J. Royal Statist. Soc. Ser. B. 1981. Vol. 43. №1. P 20-27.
8. FEUERVERGER A., McDUNNOUGH PH. One some Fourier methods for inference // J.A.S.A. 1981. Vol.76. №374. P. 379-387.
9. FEUERVERGER A., McDUNNOUGH PH. One statistical transform methods and their efficiency // Canadian J. Statist. 1984. Vol.12. №4. P. 303-317.
10. Duffie D, Singleton K., Simulated Moments Estimation of Markov Models of Asset Prices // Econometrica, 1993, vol. 61, issue 4, 929-52.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-836-843

ИЖТИМОИЙ ИДЕНТЛИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШУВИ МЕХАНИЗМИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ ЖАРАЁНИДА «МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК» ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ

Хатам Шаймардонович Жалилов
Ўзбекистон Миллий университети ижтимоий фанлар факултети социология йўналиши II-босқич магистранти

АННОТАЦИЯ

Мақолада бугунги кунда кечаётган дунёнинг глобаллашуви жараёнлари ижтимоий фанларларда «идентиклик» масаласига берилаётган ўзига хос ёндашувларни атроф-муҳитда рўй бераётган социомаданий ўзгаришлар, жумладан дунё харитасида янгидан пайдо бўлган давлатларнинг таснифи илмий атамалар изоҳи асосида баён этилган, шу билан бирга идентиклик тушунчаси ва унинг мазмун моҳияти илмий-таҳлилий хулосалар асосида кенг ўрганиб чиқилган. Бундан ташқари идентиклик тушунчасини кенг таҳлили борасида кичик социал гуруҳлар, синфлар, ҳудудий бирликлар, этник ва миллий гуруҳлар, халқлар, социал ҳаракатлар, шунингдек, давлат ва глобал миқёсида бутун бир инсоният билан боғлиқ тушунчаларни ҳам ўзаро боғлиқлиги мақолада илмий асослар билан ёритиб ўтилган.

Калит сўзлар: Идентиклик, социал гуруҳлар, социал синф, глобал, Миллий идентиклик, ахлоқий стереотип, субъект, индивид, давлат, миллат, халқ, социум ижтимоийлашув, маданий алоқалар, тарихий воқеа.

THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF "NATIONAL IDENTITY" IN THE STUDY OF THE MECHANISM OF TRANSFORMATION OF SOCIAL IDENTITY

ABSTRACT

The article describes the modern processes of globalization in the social sciences, features of approaches to the problem of "identity", sociocultural changes in the environment, including the classification of developing countries on the world map based on scientific terms, as well as the concept of identity and the essence of its content are widely studied on the basis of scientific analytical conclusions. In addition, the article highlights the relationship between the concepts of small social groups, classes, territorial units, ethnic and national groups, peoples, social movements, as well as all mankind at the state and global levels.

Keywords: Identity, social groups, social class, globality, national identity, moral stereotype, subject, personality, state, nation, people, socialization, cultural ties, historical event.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-836-843

КИРИШ

Идентиклик ижтимоий ривожланиш жараёнида пайдо бўлиб, муайян яхлик структурага дахлдорлик ҳисси билан боғлиқ ҳолда, инсон томонидан ўзининг ана шу структурани бир қисми эканлиги ва унинг таркибида муайян аниқ ўринга эга эканлигини англашни билдиради. Идентиклик кишига ўз эҳтиёжларини қондириш ва жамиятда ўз ўрнини топишга ёрдам беради. Бу эса ўз навбатида унга энг оғир азоб – буткул ёлғизлик ва шубҳалардан халос бўлиш имконини беради. Шулардан келиб чиқиб, биз «идентиклик» тушунчасига ўзимизнинг муаллифлик таърифимизни бердик: **«Идентиклик – бу ривожланиш жараёнида пайдо бўлади ва муайян яхлит структурага мансублик ҳиссини туйиш, шунингдек, шахснинг айнан ушбу структурага тегишли эканлиги ва унинг таркибида муайян аниқ ижтимоий гуруҳнинг бир қисми эканлигини англашни билдиради. Идентиклик воситасида инсон ўзи мансуб бўлган ижтимоий макондаги социомаданий эҳтиёжларини қондиради ва у орқали жамиятда ўз ўрнини топади».** Шундай бўлсада, айрим ҳолатларда идентиклик миллий руҳ, характер ва ўзликни англаш омиллари билан эътироф қилинади.

Жамиятда етакчи ва устун ҳисобланган социомаданий идентификация одатда, нафақат шахсни, балки социумда истиқомат қилаётган авлодларнинг ҳам ўзини ҳар томонлама ижобий баҳолаши ёки социал муҳитга муваффақиятли ижтимоийлашуви билан боғлиқ мутаносибликларни акс эттиради. У ёки бу идентификациянинг ижтимоий структурадаги ўрни социомаданий контекстнинг ўзгариши таъсирида алмашиши мумкин. Масалан, ҳар бир даврнинг бошқарув аппаратидаги ўзгаришлар янги шахслараро ёки авлодлараро идентификацияни пайдо қилиши мумкин. Жумладан, XX асрнинг 30-60 йилларидаги инсонлар учун нон мукофот ролини бажариши муқаррар эди. Аммо бугунги кун авлодига ноннинг қадрини андроид тизимидаги техник воситалар (компьютер, телефон, турли маиший техника буюмлари) қиймати билан солиштириш мутлақо тушунарсиз ҳолат ҳисобланади. **Лотинча (identus – айнанлик, мансублик, ўхшашлик)** - шахс томонидан ўзининг қайси социал гуруҳга мансублиги ҳамда шу социал гуруҳ доирасида ижтимоий, иқтисодий, маънавий, маиший, ахлоқий стереотипларга амал қилиниши. Идентиклик инсонда «мен кимман», «менинг бошқалардан фарқим нима» деган саволлар

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-836-843

асосида вужудга келади ва бунда инсон ўзликни англаш жараёнидаги мураккаб йўлни босиб ўтади.[1]

Яқин вақтларгача «идентиклик» тушунчаси илмий баҳс-мунозараларда деярли ишлатилмас ва қўлланмасди. Мазкур атаманинг назарий ва эмпирик ўрганиш предмети бўлмаган. У монография, дарслик ва журнал материалларида учрамасди. Бу тушунчани ҳатто фалсафа, психология луғатларининг сўнгги нашрларида ҳам учратмаймиз. Фақат сўнгги ўн йилликларда «идентиклик» атамаси миллий матбуот саҳифаларида пайдо бўла бошлади. Шундай бўлса-да, у ҳамон аксарият ўқувчилар учун нотаниш, тушунарсиз бўлиб, одатий илмий категориал аппаратга қийинчилик билан мослашмоқда.

Миллий идентикликни тушунишда ёндашувлар таҳлилини мутаҳассислар инструментал, примордиал ва конструктив ёндашувларга ажратадилар. Айнан шу ёндашувлар идентиклик омилини белгилашда кўплаб мунозара ва бахсларга сабаб бўлмоқда.

Идентиклик ривожланиш жараёнида пайдо бўлади ва кишиларнинг муайян яхлит структурага дахлдорлик ҳиссини туйиш асосида ўзининг муайян аниқ ўринга эгалигини у орқали намоён этишини англатади. Идентиклик инсонга ўз эҳтиёжларини қондиришга ва жамиятдаги ўз ўрнини топишга ёрдам беради. Бу эса ўз навбатида инсонга энг оғир азоб, яъни буткул ёлғизлик ва шубҳалардан халос бўлиш имконини беради.

«Миллий идентиклик» таълимоти П.Альтер назариясига кўра мавжуд компонентларни маданий-миллий идентиклик ва фуқаровий-сиёсий монандликка ажратади. Унга кўра маданий-миллий идентиклик асосини – анъаналар, урф-одатлар, диний эътиқод, тил умумийлиги қамраб олади. Фуқаровий ва сиёсий идентикликнинг шаклларини эса социумда истиқомат қилаётган аҳоли қатламининг сиёсий онги ва ҳуқуқий маданияти ривожланиши билан боғлиқ бўлган интегралаштирувчи омил, яъни жамоавий идентиклик ташкил этади.[2]

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Америкалик тадқиқотчи К.Левин ўзининг «майдонлар назарияси» таълимотида идентиклик: а) «субъект» (индивид/давлат), б) «атроф-муҳит

[1] Фромм Э. Бегство от свободы. М.: АСТ. 2009 – С. 22.

[2] Қаранг: Степаненко О.А. Поиск идентичности как константа немецкой культуры. // Журнал: Вестник Ленинградского гос.унив. им. А.С.Пушкина. 2013. № 7. – С. 80-90

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-836-843

фазоси» (E-enviranment) ва в) «ҳаёт фазоси» (L-life) орқали шакллантирилади. Идентиклик (I-identitiy)ни моделлаштирар экан, К.Левин географик, тарихий, диний, тил ва бошқа шу каби унсурларни қуйидаги формулага солади, яъни I=E-L ёки «идентиклик» (I) «ҳудуд», «иқлим» (E) асносида «цивилизациялар», «мафкуралар» (L)га таяниб миллийликни ташкил этади.[3]

Ушбу назарияларга асосланиб, биз тадқиқот ишимизда қорақалпоқ миллий идентиклигининг структуравий компонентларини қуйидагича таснифладик: а) эмоционал-ҳиссий компонент; б) ҳулқ-атвор компоненти; в) когнитивлик компоненти. Ўз навбатида, **эмоционал-ҳиссий компонент:** а) миллий туйғу; б) ифтихор; в) кайфият; г) миллий характерни; **ҳулқ-атвор компоненти:** а) фуқаролик позициясини кўрсатиш; б) ўзи мансуб бўлган фуқароларни қўллаб-қувватлаш; в) ижтимоий муносабатлар бирлигини таклиф этиш; **когнитивлик компоненти:** а) миллий онг; б) миллий ўзликни англаш (рационаллик) омилларини ташкил этишини таклиф қилдик.

Бундай вазиятда МДҲ мамлакатларида аввал мавжуд бўлган “совет киши‌си” идентиклигининг янги пайдо бўлган мавжуд этник идентиклик олдидаги “инқирози” кузатилади. Бу салбий гетеростереотипларнинг пайдо бўлиши, этник даҳлдорлик билан боғлиқ негатив туйғуларнинг шаклланиши, шунингдек, “камситилиш”ни ўткир ҳис қилиш ва «титул», яъни асосий этносдан маданий йироқлашиш билан боғланиб кетди. Бунда «мажбурий этниклик синдроми» намоён бўлиб, у «инсонларнинг ўз иродаси ва хоҳишига қарши ўлароқ қайсидир этносга тегишлилик билан уланиб кетди ва унинг ижтимоий ҳаёти ва тафаккурида муҳим характеристикага айланади. Янги ғоявий қарашлар кишининг жамиятдаги ўрни, ҳуқуқ ва мажбуриятлари доирасини белгилай бошлади, натижада ҳар бир аъзонинг янги тизимга ўзини ўзи идентификациялашиши юқори ўринга чиқади. Табиийки, ҳар қандай жамият янгитдан шаклланаётган идентикликни ижобий мазмун касб этишини истайди.

Ижобий (позитив) идентиклик кўпчилик одамларга хос бўлиб, у кишида ўзи мансуб бўлган ва бошқа этник гуруҳларга нисбатан толерантлик мувозанатини намоён этади. Уни бир томондан, этник гуруҳнинг мустақил ва барқарор ҳаёт кечиришини таъминловчи шарт сифатида, иккинчи томондан, полиэтник дунёда осойишта маданиятлараро мулоқотнинг шакли сифатида баҳолаш мумкин. «Ҳар бир инсон – деб ёзади Абу Наср Форобий, – ўз табиати

[3] Левин К.Теория поля в социалних науках. СПб., 2000. – С. 67-68

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-836-843

билан шундай тузилганки, у яшаш ва олий даражадаги етукликка эришмоқ учун кўп нарсаларга муҳтож бўлади. У бир ўзи бундай нарсаларни қўлга кирита олмайди, уларга эга бўлиш учун инсонлар жамоасига эҳтиёж туғилади. Шу сабабли яшаш учун зарур бўлган, кишиларни бир-бирларига етказиб берувчи ва ўзаро ёрдамлашувчи кўп кишиларнинг бирлашуви орқалигина одам ўз табиати бўйича интилган етукликка эришуви мумкин. Бундай жамоа аъзоларининг фаолияти бир бутун ҳолда уларнинг ҳар бирига яшаш ва етукликка эришуви мумкин. Буларнинг ҳар бирига яшаш ва етукликка эришув учун зарур бўлган нарсаларни етказиб беради».[4] Шунинг учун ижобий этник идентикликнинг «меъёрий» (норма) мақоми айнанлик касб этади. Унинг таркибида киши ўз этник гуруҳининг ижобий образлари орқали бошқа этник гуруҳлар билан ижобий қадриятли муносабатларга уйғунлашади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ижтимоий фанлар тизимида идентиклик, яъни мансублик «меъёр» категорияси орқали ҳам ифодаланади. Шаклига кўра этник мансублик ижобий мазмун билан бойитилган «толерантлик» (бағикенглик, чидамлилик) кўмагида турли этносларнинг ўзаро мулоқот ҳиссини «ижобийлик» асосида шакллантиради. Ижтимоий ҳаётда «ижобийлик» омили ҳамма вақт бир хил мазмун касб этмаслиги мумкин. У «космополитизм» (дунё фуқароси маъносида келади) назариясидан фарқли равишда «меъёрий» этник идентикликка эга бўлган этномаданий қадриятларни афзал деб билади. Социологик «меъёр» «айнанлик» ёки «мансублик»дан чекиниб, «индифферент» (лоқайд)лик ва гипоидентиклик (этнонигилизм) хусусиятларни намоён қилиши мумкин.

XX асрнинг 90 йилларидан бошлаб дунё харитасининг кескин ўзгариб бориши ва бир қатор мустақил давлатларнинг вужудга келиши илмий мулоқотда «ўзликни англаш» ғоясини гиперидентиклик шаклида ривожлантириб борди. Социумда этник ва фуқаролик мансубликни қўллаб-қувватлаш ёки улардан бутунлай воз кечиш геометрик прогресс асосида кучайиб кетди. Ўз навбатида ушбу омилнинг у ёки бу маънода тезлашиши маълум бир этник жамоалар учун норасолик, чекланиш, этник гуруҳ вакилларининг ўзлик учун уялиш ҳиссини келтириб чиқаради. Идентикликда ўзидаги мансубликка нисбатан салбий муносабатда бўлиш, шахснинг атроф

[4] Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент, Абдулла Қодирий номидаги Халқ меъроси нашриёти, 1993. – Б.186.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-836-843

билан ижтимоий маданий мулоқотга киришишида маълум қийинчиликларни сезишга олиб келади. Натижада «этнонигилистик» кайфият инсоннинг ўзидаги этник мансубликдан бегоналашувига сабаб бўлади.

Мансубликнинг яна бир шакли «гиперидентиклик» бўлиб, унда гуруҳ аъзолари социумда этник устунликка эришиш учун қатъий ҳужум тамойилига асосланади. Социологияга оид адабиётларда гиперидентиклик тушунчасига холис қонун-қоидалар доирасида мавжуд турга нисбатан ҳаракатланувчи «этноэгоизм» ибораси қўлланилади. Аввалги турларга нисбатан «этноэгоизм» тартибли ҳаракат қилади ва жамиятдаги қайсидир этник гуруҳ аъзолари билан мулоқотга киришишда «нафрат», «ғазаб» ёки ўз халқи муаммоларини ўзгалар ҳисобига ҳал этиш ҳуқуқини қўлга киритиш ҳиссини намоён этади.

Халқлар психологиясини илмий ўрганиш ҳамма вақт долзарб муаммолардан бири бўлишига қарамай, унинг умумий томонлари турли фан вакиллари ва мутахассислари тадқиқотларида турлича ўрганилган. Шундай бўлсада, муаммонинг хусусий томонлари, айниқса айрим этник гуруҳлар, катта ёки кичик миллатларга хос хусусий томонлар етарлича таҳлил этилмай қолаверади. Немис тадқиқотчиси В.Вундт халқлар психологияси хусусида қуйидаги фикрларни илгари суради: «халқлар психологияси индивидуал психология сингари мустақил фан бўлиб, у индивидуал психик жараёнлар асосида ривожланиб боради».[5] Вундт «миллат» ва «халқ» тушунчаларини тенглаштирган ҳолда этнопсихологиянинг тадқиқот объектини тил, фольклор ва урф-одатларнинг аҳлоқ куртаклари билан бирга ўрганишни таъкидлайди. У «тил халқ руҳида яшайдиган тасаввурлар, қонунлар ва уларнинг алоқадорлигини умумий шаклда қамраб олади. Афсоналар эса тасаввурларнинг илк мазмунини ўзаро бир-бирига ҳиссий алоқадорлик ва улуғворлик руҳида намоён этади, урф-одатларда мавжуд тасаввур ва улуғворликдаги ифоданинг умумий йўналишлари акс эттирилади»[6] – деб изоҳ беради. Табиийки, этник идентиклик халқ психологиясининг ифодасини беради.

Инсон идентиклиги қандайлигига қараб, унинг хатти-ҳаракатларини қабул қиладиган ёки инкор этадиган қадрият ва нормалар, қизиқиш ва тамойиллари, стереотиплар ва амал қиладиган йўриқларини прогнозлаш мумкин. Ижтимоий идентиклик ўзида ижтимоий гуруҳга мансублигини англашга қаратилар экан, унда мазкур гуруҳда аҳамиятли бўлган қадрият ва

[5] Вундт В. Проблемы психологии народов. – СПб:. 1914. – С. 28.
[6] Вундт В. Фантазия как основа исскуства. – СПб:. 1914. – С.2.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-836-843

йўриқномалар, шакллантирилган стереотипларнинг жамият учун қабул қилинган мавжуд меъёрлари яшовчанлиги ошади. Тахмин қилиш мумкинки, индивид учун ҳар бир ҳолатда идентиклик турлари турли даражада долзарб бўлади. Яъни айни шу ҳолатда бирон бир алоҳида идентиклик юзага чиқади ва асосий, «етакчи» (доминант) бўлади. Демак, шу пайтда индивид ўз мансублигини англаш баробарида, меъёр, қадриятлар ва бошқаларнинг бутун бир тизимига ўзининг боғлиқ бўлишлигини таъминлайди. Батафсил фикр билдириладиган бўлинса, айтиш мумкинки, қадриятлар иерархияси доимий эмас, у муайян пайтда долзарб аҳамият касб этади ва идентиклик талабларига боғлиқ равишда амалга оширилаётган хатти-ҳаракат моделларини қайта тизимлаштиради. Шу нуқтаи назардан муаммога назар ташланса, ҳар қандай долзарб ижтимоий идентиклик хатти-ҳаракат ва ички моҳиятни баҳолашда қарорлар орқали ифодаланади.

ХУЛОСА

Индивид ўзига у ёки бу ижтимоий маконни танлар экан, шу билан ўзи учун аниқ идентикликни ҳам танлайди. Бироқ нотурғун ҳаёт кишиларнинг социумдаги ўрнини ўзгарувчан, яъни – бугун турмушнинг социал пиллапояларида бирор нарса аҳамиятли бўлса, эртасига эса бошқа ҳолат «оммабоп, нуфузли, долзарб» бўлиши туфайли индивиднинг айни дамдаги жамиятда эгаллаган ўрнини ҳамма вақт ҳам нуфузли ва фойдали бўлишига кафолат беролмайди. Табиийки, индивид барқарор мансубликни истайди, чунки ўзгарувчан шарт-шароитлар унинг ижтимоий-руҳий барқарорлигини издан чиқариб юбориши мумкин. Шундан келиб чиқиб унда баъзан этник мансублик устуворлик қилса, баъзида диний идентикликка эҳтиёж пайдо бўлади.

Мутахассисларнинг эътироф этишларига кўра, бугунга келиб ер юзида 1600 дан ортиқ миллат ва элатларнинг вакиллари истиқомат қиладилар.[7] Географик харитага диққат билан назар ташлайдиган бўлсак, унда бор-йўғи 250 та атрофидагина давлатларнинг рўйхати келтирилганлигини кўриш мумкин. Агарда, улардаги диний эътиқод ҳолатини кузатадиган бўлсак, рақамлар янада қисқаради, балким у бор-йўғи бир нечта ўнтани ё ташкил қилади ёки йўқ. Жинслар орасидаги тафовутни кузатадиган бўлсак, мавжуд саноқ тизими иккига келиб тўхталади холос, яъни эркак ва аёл. Ички ва ташқи, иқтисодий ва

[7] Қаранг: Ҳусниддинов З. Ўзбекистонда диний бағрикенглик (монография). Т.: «Тошкент ислом университети», 2006. – 7 бет.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-836-843

ижтимоий сиёсатимизда барча омилларни чуқур тафаккурга асосланиб таҳлил этиладиган бўлинса, мураккаб синовлардан илгарилаб ўтилиши учун идентикликнинг муҳим омили бўлган ментал хусусиятлар ва уни белгилаб берувчи социал даражаларга алоҳида эътибор қаратилиши лозим бўлади.

Хулоса сифатида яна шуни таъкидлаш керак, миллий идентиклик тизими демократик тафаккур салоҳиятининг намоён бўлишида илгари суриладиган мақсад ва вазифаларга боғлиқ бўлади.

REFERENCES

1. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент, Абдулла Қодирий номидаги Халқ меъроси нашриёти, 1993. – Б.186.
2. Фромм Э. Бегство от свободы. М.: АСТ. 2009 – С. 22.
3. Ҳусниддинов З. Ўзбекистонда диний бағрикенглик (монография). Т.: «Тошкент ислом университети», 2006. – 7 бет.
4. Вундт В. Проблемы психологии народов. – СПб:. 1914. – С. 28.
5. Вундт В. Фантазия как основа исскуства. – СПб:. 1914. – С.2.
6. Левин К.Теория поля в социалних науках. СПб., 2000. – С. 67-68
7. Степаненко О.А. Поиск идентичности как константа немецкой культуры. // Журнал: Вестник Ленинградского гос.унив. им. А.С.Пушкина. 2013. № 7. – С. 80-90

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-844-852

ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ВА ИҚТИСОДИЁТ ТАРМОҚЛАРИНИ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШГА ҚЎШГАН ҲИССАСИНИ ТАҲЛИЛИ

Достонбек Абдуазизович Джалилов
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
djalilov.dostonbek@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётида иқтисодий ўсиш динамикасини таҳлили қилинган бўлиб, иқтисодиётгнинг қайси тармоқлари асосида мамлакатда иқтисодий ўсиш таъминланланганлиги аниқланган. Бундан ташқари, иқтисодиёт тармоқларини ЯИМдаги улуши ва уларнинг ўсиш суръатларини динамикаси таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: ЯИМ, иқтисодий ўсиш, иқтисодий ўсишга қўшган ҳиссаси, иқтисодиёт фаолият турлари, стационар ҳолат.

ABSTRACT

This article analyzes the dynamics of economic growth in the economy of the Republic of Uzbekistan and identifies the sectors of the economy on the basis of which economic growth is provided in the country. In addition, the share of sectors of the economy in GDP and the dynamics of their growth rates were analyzed.

Key words: GDP, economic growth, contribution to economic growth, types of economic activities, stationarity.

КИРИШ

Сўнги йилларда мамлакатимиз иқтисодиётидаги ўзгаришлар ва жаҳон иқтисодиётидаги юз берган ўзгаришлар натижасида иқтисодиётнинг макроиқтисодий кўрсаткичлар ўзгаришига сабаб бўлмоқда. Мамлакатимизда иқтисодиёт тармоқларини модернизациялаш ва диверсификациялаш орқали ишлаб чиқари ҳажмини ошириш мақсадида ишлаб чиқариш омилларини фаоллаштирилаётганлигини кузатиш мумкин.

Мамлакатимизда сўнги йилларда иқтисодиётни ривожлантириш ва аҳоли турмуш фаровонлигини ошириш бўйича қатор чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномасида

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-844-852

“2021 йилда иқтисодиётни камида 5 фоизга ўсишини, бюджет дефицити ялпи ички маҳсулотга нисбатан 5,4 фоиздан ошмаслигини таъминлашимиз зарур. Келгуси 2 йилда эса бюджет дефицитини 2 фоиздан оширмаслик бўйича Ҳукумат зарур чора-тадбирларни белгилаши лозим” деб таъкидладилар. Бундан ташқари, ўрта муддатларга мўлжалланган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича қабул қилинган Ҳаракатлар стратегиясининг учинчи устивор йўналишин “Иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришнинг устувор йўналишлари”[2] да мамлакат иқтисодиётини ва аҳоли ижтимоий фаровонлигини ривожлантиришга қаратилган вазифалар белгиланган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Бугунги кунда мамлакатнинг макроиқтисодий ҳолати ва унга таъсир қилувчи омилларни миқдорий жиҳатдан баҳолаш, ҳамда макроиқтисодий муаммоларни ва номутаносибликларни олдиндан кўра билиш ҳамда унинг олдини олиш бўйича илмий асосланган чора-тадбирларни ишлаб чиқишнинг зарурлиги нафақат бир давлатнинг, балки бутун дунё давлатларининг асосий вазифасига айланиб бораётганлиги макроиқтисодий кўрсаткичларни моделлаштириш юзасидан ҳорижда ҳам самарали илмий изланишлар олиб бораётганлигини кўрсатиб беради. Жумладан, макроиқтисодий жараёнларни моделлаштириш ва прогнозлаш муаммолари билан хорижий малакат иқтисодчи олимлардан Р.Солоу [3], В.Леонтьев [4], Л.Клейн[5], Дж.Сакс[6], Е. Домар[7] тадқиқотларида иқтисодий ўсиш динамикасини моделлаштириш, макроиқтисодий кўрсаткичлар ўртасида миқдорий боғлиқликларни ўрнатиш, тармоқлараро баланс муаммоларини тадқиқ этиш, эконометрик усуллар асосида характерланади.

Мамлакатимизда ҳам макроиқтисодий кўрсаткичларни моделлаштиришга алоҳида эътиборнинг мавжудлиги Республикамиз иқтисодчи олимларининг бу борадаги илмий қизиқишлари предмети бўлиб келмоқда. Жумладан, мамлакатимиз иқтисодчи олимларидан Т.Ш.Шодиев [7], С.В. Чепел [8], Н.М.Махмудов [9], А.М.Абдуллаев [10], Б.К. Ғойибназаров [11], С.О. Ҳомидов [12], А. илмий изланишлари иқтисодий ўсиш ва макроиқтисодий кўрсаткичларни моделлаштириш ва таҳлил қилиш масалаларига бағишланган.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-844-852

НАТИЖАЛАР

Республикамизда ЯИМ 2000-2020 йиллар оралиғида барқарор ўсиш суръатларига эга бўлди. Сўнги 21 йил оралиғидаги оралиғида ўртача иқтисодий ўсиш суръатлари 5,9 % ни ташкил этган, энг юқори иқтисодий ўсиш суръати 2007 йилга тўғри келиб 9,5 % ни ташкил қилди ва энг паст иқтисодий ўсиш суръати 2020 йилда коронавирус пандемияси натижасида юзага келиб ўсиш суръатлари кескин пасайгани ҳолда 2020 йилда мамлакатимизда иқтисодий ўсиш 1,6 % ни қайд этилган. Мазкур давр оралиғида ЯИМни реал ҳажми 3,68 баробарга ошиб 2000 йил нархлариги кўра 11993,82 млрд сўмни ташкил қилди (2.1.1-расм).

Қишлоқ хўжалиги тармоғида 2000-2020 йиллар оралиғида мазкур давр оралиғида ўртача ўсиш суръатлари 3,7 % ни ташкил этган. Энг юқори ўсиш суръатлари 2005 йилда қайд этилиб 10,1 % ни ташкил қилди, энг паст иқтисодий ўсиш кўрсаткичи 2020 йилда 2,4 % ни ташкил қилди. Кузатув даврининг охирида қишлоқ хўжалиги тармоғи ишлаб чиқариш ҳажми 2,81 баробарга ошиб 2000 йил нархларига кўра 2753,2 млрд. сўмни ташкил қилди (1-расм).

Саноат тармоғини модернизациялаш натижасида саноат тармоғида ишлаб чиқарилган махсулотларнинг 2000-2020 йиллар оралиғида ўртача ўсиш суръатлари 6,02 % ни ташкил қилди. Мазкур давр оралиғида энг юқори ўсиш суръатлари 2013 йилда қайд этилиб 10,1 % ни ташкил қилди, энг паст ўсиш суръатлари эса 2020 йилда кузатили 1,5 % ни ташкил қилди. 21 йилда саноат ишлаб чиқариш ҳажми 2,73 баробарга кўпайди. Шу ўринда, қурилиш соҳасида мазкур давр оралиғидаги ўртача ўсиш суръатлари 11,4 % ни ташкил қилиб энг юқори ўсиш суръати 2009 йилга тўғри келиб 34,2 % ни ташкил қилди. Бундан ташқари, қурилиш соҳасининг ўсиш суръатлари 2016 йилдаги пасайишдан кейин кейинг тўрт йилда яна юқори ўсиш суръатига эга бўлди (2.1.1-расм).

Ҳизматлар соҳасида 2000-2020 йиллар оралиғида ўртача ўсиш суръати бошқа тармоқларга нисбатан юқори бўлиб ўртача ўсиш суръати 7,6% ни ташкил этди. Ўз навбатида хизматлар соҳасида энг юқори ўсиш суръати 2008 йилда 13,6% ни ташкил қилди, энг паст ўсиш суръати эса 2020 йилда 0,2% ни ташкил қилди, мазкур давр оралиғида ҳизмат соҳасининг ҳажми 4,02 баробарга кўпайди (1-расм).

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-844-852

1-расм. ЯИМ ва иқтисодиёт фаолият турлари ўсиш суръатлари, фоиз[1]

Юқоридаги таҳлил натижаларига кўра мамлакатда ишлаб чиқарилган товар ва ҳизматлар ҳажми йилдан-йилга ошиб борганлигини ифодалайди. Бунда иқтисодий ўсишда тармоқлар ҳиссаси ва уларнинг таркибини ўзгариши муҳим вазифалардан бирини бажарган. Қишлоқ хўжалиги тармоғини иқтисодий ўсишга қўшган ҳиссаси 2001-2006 йилларда ўртача 1,97 % ни ташкил қилиб мазкур даврдаги энг юқори иқтисодий ўсишга қўшган энг юқори қиймати 2006 йилга тўғри келиб 2,23 % ни ташкил қилди. Кейинги йилларда эса қишлоқ хўжалигини иқтисодий ўсишга қўшган хиссасини пасайиганини кузатиш мумкин, 2007-2012 йилларда мазкур тармоқнинг иқтисодий ўсишга қўшган ҳиссаси ўртача 2,01 % ни ташкил қилиб энг паст иқтисодий ўсишга қўшган ҳиссаси 2008 йилда кузатилиб 1,43 % ни ташкил қилган. Кейинги тўрт йилда қишлоқ хўжалигини иқтисодий ўсишга қўшган ҳиссаси доимий пасайишига эга бўлиб 2016 йилда мазкур кўрсаткич 1,6 % ни ташкил қилди. Кейинги тўрт йилда иқтисодиётни либерализациялаш натижасида иқтисодиётнинг барча тармоқларини таркибини ўзгаришлар бўлганлиги сабабли 2019 йилда қишлоқ хўжалигининг иқтисодий ўсишга қўшган ҳиссаси 0,73 % ни ташкил қилди (2-расм).

[1] www.stat.uz Ўзбекистон Республикасининг Давлат статистика қўмитасининг расмий маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб-китоблари.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-844-852

Саноат тармоғининг иқтисодий ўсишга қўшган ҳиссасининг 2001-2020 йиллардаги ўзгариш динамикаси стационар ҳолатга эга бўлиб, мазкур даврда иқтисодий ўсишга қўшган ўртача ҳиссаси 0,62 % ни ташкил қилди, 2018 йилда мамлакатимизда саноатнинг жадал ривожлантириш натижасида саноат тармоғининг иқтисодий ўсишга қўшган ҳиссаси 1,13 % ни ташкил қилди (2-расм).

Ҳизматлар соҳаси иқтисодиётни етакчи соҳаларидан бўлиб 2001-2020 йилларда мамлакатимиз иқтисодиётида иқтисодий ўсишни асосий қисмини таъминлаган асосий соҳалардан бири бўлиб ҳисобланади. 2001 йилда ҳизматлар соҳасини иқтисодий ўсишга қўшган ҳиссаси 1,9 % ни ташкил қилган бўлса, кейинги икки йилда иқтисодий ўсишга қўшган ҳиссасин 1,2 % гача тушган. 2004-2011 йиллар оралиғида ҳизматлар соҳасини иқтисодий ўсишга қўшган ҳиссаси доимий ўсишга эга бўлиб 2011 йилда ҳизматлар соҳасини иқтисодий ўсишга қўшга ҳиссаси 4,46 % га етган. Кейинги саккиз йилда ҳизматлар соҳасини иқтисодий ўсиша қўшган ҳиссаси пасайиш тенденциясига эга бўлиб, 2019 йилда ҳизматлар соҳасини иқтисодий ўсишга қўшган ҳиссаси 2,62 % ни ташкил қилди (2-расм).

Қурилиш соҳасини 2001-2020 йиллар оралиғида иқтисодий ўсишга қўшган ўртача ҳиссаси 1,01 % ни ташкил қилган, мазкур кўрсаткичнинг энг паст қиймати 0,2 % ни ташкил қилиб 2001-2002 йилларда кузатилган, энг юқори қиймати эса 2019 йилда кузатилиб 2,75 % ни ташкил қилган. Мазкур соҳани сўнги уч йилда иқтисодий ўсишга қўшган ҳиссасини кўтарилишини кузатиш мумкин, бунга сабаб мамлакатимизда иқтисодиётни фаоллаштириш мақсадида қурилиш ишларни кўпайганлиги билан изоҳлаш мумкин. Соф солиқлар 2001-2020 йилларда иқтисодий ўсишга қўшган ҳиссасини динамикаси стационар ҳолатга эга бўлиб мазкур давр оралиғида соф солиқларни иқтисодий ўсишга қўшган ўртача ҳиссаси 0,75 % ни ташкил қилган (2.1.2-расм).

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-844-852



2-расм. Иқтисодиёт фаолият турлари бўйича иқтисодий ўсишга қўшган хиссалари, фоиз[2]

Иқтисодиётдаги катта улушга эга тармоқ ҳизмат кўрсатиш соҳаси ҳисобланади, ҳизматлар соҳасининг улуши 2000 йилда 37,2 % ни ташкил қилиб, 2020 йилда ҳизматлар соҳасини ЯИМдаги улуши 33,6 % ташкил қилган. Бундан ташқари, қишлоқ хўжалиги тармоғининг улуши 2000 йилда 30,1 % ни ташкил қилиб, 2010 йилда 17,6 % ни ташкил қилди, 2015 йилдан бошлаб мамлакатимизда қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг янги босқичига ўтила бошланди, қишлоқ хўжалиги тармоқлари таркибига кўра дивверсификациялашув даражаси оширилиб унинг қишлоқ хўжалигида интенсив боғларнинг ташкил этилиши, балиқчилик, қуёнчилик, паррандачилик соҳаларини ривожлантирилиши натижасида 2020 йилда мазкур қишлоқ хўжалигининг иқтисодиётдаги улуши 26,1 % ни ташкил қилди. 2000-2020 йилларда қишлоқ хўжалиги тармоғи ва ҳизматлар соҳасини иқтисодиётдаги улушини камайишига сабаби бунга сўнги йилларда саноат тармоғини ривожлантиришга қаратилган чора-тадбирлар натижасида 2020 йилда саноатнинг ЯИМдаги улуши 2000 йилга нисбатан 1,85 баробарга ошиб 26,4 % ни ташкил қилди. Қурилиш соҳасининг улуши кузатув даврида сезиларли даражада ўзгармаган 2000-2020 йиллар оралиғидаги қурилиш соҳасининг улуши ўртача 5,6 % атрофида бўлган. Соф солиқларнинг ЯИМдаги улуши 2020 йилда 2000 йилга нисбатан 4,9 % га камайиби иқтисодиётдаги улуши 7,6 % ни ташкил қилди (3-расм).

[2] www.stat.uz Ўзбекистон Республикасининг Давлат статистика қўмитасининг расмий маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб-китоблари.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-844-852



3-расм. Иқтисодиёт фаолият турлари бўйича ЯИМдаги таркиби, фоиз[3]

2000-2020 йилларда экспорт ҳажмида жиддий динамик ўзгаришлар кузатилган бўлиб, 1,7 баробарлик ўсиш кузатилган. Энг юқори кўрсаткич 2019 йилда (27,3 млрд), энг паст кўрсаткич эса 2000 йилда (10,3 млрд) қайд этилган. Шунга мувофиқ энг юқори импорт кўрсаткичи 2018 йилда (27,1 млрд), энг паст импорт кўрсаткичи эса 2000 йилда (7,8 миллиард) қайд этилган. Келтирилган иқтисодиётда эришилган натижалар асосан асосий капиталга киритилган инвестицияларнинг ҳажмини ошиши ва иқтисодиётдаги бандлар сонини ошиши натижасида эришилди. Хусусан асосий капиталга киритилган инвестицияларнинг 2000-2020 йиллар оралиғида ўртача ўсиш суръати 12 % ни ташкил қилиб 2020 йилда асосий капиталга киритилган инвестицияларнинг ҳажми 9,5 баробарга ошиб иқтисодиётдаги улуши 40,5 % ни ташкил қилди. Иқтисодий бандларнинг 2000-2020 йиллар оралиғидаги ўртача ўсиш суръати 2,2 % ни ташкил қилиб 2020 йилда иқтисодий бандлар сони 2000 йилга нисбатан 1,2 баробарга ошиб 2020 йилда иқтисодий бандлар сони 9,4 млн. кишини ташкил қилди.

[3] www.stat.uz Ўзбекистон Республикасининг Давлат статистика қўмитасининг расмий маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб-китоблари.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-844-852

ХУЛОСА

Мазкур бобдаги таҳлил ва натижаларга кўра миллий иқтисодиётда макроиқтисодий кўрсаткичларнинг таркиби бўйича таҳлилидан маълум бўлидики ЯИМни 21 йил оралиғида доимий ўсиш суръатларига эга бўлиб кузатув даврини охирларида саноат тармоғида ишлаб чиқариш ҳажмини сезиларли даражада ошганлигини кузатиш мумки. Бундан ташқари, асосий капиталга киритилган инвестицияларнинг ҳажми кузатув даврида 9,2 баробарга ошиб охирги уч йилда (2020 йилни ҳисобга олмаганда) юқори ўсиш суръатларига эга бўлган. Шу билан бирга, 2016-2019 йилларда қурилиш соҳаси ҳам иқтисодиётда ишлаб чиқариш ҳажмини ошиб 2019 йилда иқтисодий ўсишга қўшган ҳиссаси 1,59 % ни ташкил қилди.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси”, 29 декабр 2020 йил
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947-сонли Фармони. // “Халқ сўзи” 2017 йил 8 февралдаги 28 (6722)-сон.
3. Solow R. M. (1970) Growth theory: an exposition. Oxford: Oxford University Press, 109 p.
4. Леонтев В. Экномические эссе . Теория исследования, факты и политика «Политиздат» – 1990г. 415с.
5. Сакс Д.Д., Ларрен Ф.Б. (1996) “Макроэкономика. Глобальний подход” – с. 39-58.
6. Domar E. (1946) Capital Expansion, Rate of Growth and Employment // Econometrica. -April Volume 2.
7. Шодиев Т.Ш. ва бошқалар “Эконометрика” Тошкент-2007й. ТДИУ 178бет.
8. Чепел С.В. Системный анализ и моделирования перспектив устойчивого развития национальной экономики Узбекистана/монография/Ташкент:IFMR, 2014. – 316с.
9. Махмудов Н.М., Хомидов С.О., Джалилов А.А.. Иқтисодий ўсиш моделлари. Ўқув қўлланма. ТДИУ-2015 248б.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-844-852

10. Абдуллаев А. М., Ирматов М. М., Хайдаров М. Т., Ашурова Д. С. Прогнозирование экономического и социального развития. Учебное пособие. – Т.: ТГЭУ, 2006. – С. 10-15.
11. Ғоийбназаров Б.К. Ўзбекистонда уй хўжаликлари даромадлари ва харажатларини статистик таҳлили // Иқтисодиёт ва инновацион теҳнологиялари илмий электрон журнали. № май-июнь, 2018 й.
12. Хомидов С.О. Саноатнинг ривожланиш тенденциясини моделлаштириш (Ўзбекистон Республикаси мисолида).: Иқтисодиѐт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореф. – Т. ТДИУ, 2018.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-853-859

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҲУДУДЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ

Бобур Сойибжонович Мирзаев
ЎзМУ “Эконометрика ва иқтисодий моделлаштириш” кафедраси таянч докторанти
bmirzaev90@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Суғурта тизими мамлакатимиз ижтимоий-иқтисодий ҳаётида муҳим аҳамиятга эга. Суғурта тадбиркорликнинг фаол ривожланишини рағбатлантиради, инвестицияларни жалб қилишни яхшилайди, аҳолини ижтимоий муҳофаза қилишда алоҳида аҳамиятга эгадир. Шу сабабли, мамлакатимизда суғурта хизматларини шакиллантириш, замонавий суғурта турларини жорий этиш, сифатли суғурта фаолиятини ташкил этишга қаратилган бир қатор чора тадбирлар амалга оширилмоқда.

Калит сўзлар: Суғурта бозори, суғурта мукофоти, инвестиция, риск, капитал.

ABSTRACT

The insurance system plays an important role in the socio-economic life of our country. Insurance stimulates the active development of entrepreneurship, improves investment attraction, plays a special role in the social protection of the population. Therefore, a number of measures are being taken in our country to form insurance services, introduce modern types of insurance, and organize quality insurance activities.

Keywords: Insurance market, insurance premium, investment, risk, capital.

КИРИШ

Мамлакатимизда молия бозорини янада ривожлантириш ва бозор иштирокчилари фаолиятини кенгайтириш шунингдек суғурта компанияларида инновацион хизмат турларини жорий этиш ва компанияларнинг самарадорлигини ошириш, молиявий хизматларининг ҳажини уларнинг янги турларини жорий қилиш ва сифатини ошириш ҳисобига кенгайтириш, шунингдек капитални жалб қилиш ҳамда корхона, молиявий институтлари ва

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-853-859

аҳолини эркин ресурсларини жойлаштиришдаги муқобил манба сифатида фонд бозорини ривожлантириш” стратегик вазифалардан бири этиб белгиланди.

Дарҳақиқат мамлакат ҳудудларида суғурта хизматларини такомилаштириш ва ҳудудий суғурта бозорини ривожлантириш молия тизими олдига қўйилган долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда.

Нафақат мамлакатимиз балки ҳорижий мамлактларнинг еттакчи иқтисодий олимлари томонидан олиб борилган илмий изланишларда хам суғуртанинг мамлакат иқтисодиётида тутган ўрни ва аҳамияти борасида кўплаб фикрлар билдириб ўтилган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Хитойлик олимлар Л. Хан, Д. Ли ва бошқалар томонидан 1994-2005 йиллар бўлган давр ва 77 та мамлакатни қамраб олган ҳолда GMM моделидан фойдаланиб олиб борилган тадқиқотда суғурта бозори ривожланиши ва иқтисодий ривожланиш ўртасидаги боғлиқлик ўрганилган. Тадқиқотда мамлакатлар ривожланган ва ривожланаётган мамлакатларга бўлиб ўрганилган. Ривожланаётган мамлакатлар учун суғурта бозори жумладан, ҳаёт суғуртаси ривожланишининг аҳамияти ривожланган мамлакатларга нисбатан юқори эканлиги аниқланган[1].

Бошқа олимлар Ч. Юан ва Ю. Жианг томонидан олиб борилган тадқиқотда жаҳондаги энг йирик ривожланаётган мамлакати бўлган Хитойда суғурта соҳасида амалга оширилган ислоҳотлар ва сўнгги йиллар мобайнида суғуртага бўлган талабнинг ошиши натижасида суғурта бозорини жадал ривожлантиришга эришилгани таъкидланган. Улар томонидан 2000-2012 йил ҳудудлар кесимидаги маълумотлар асосида умумий суғурта ва ҳаёт суғуртасига бўлган талабга таъсир этувчи омиллар тадқиқ этилган. Ушбу тадқиқотчилар томонидан томонидан эмпирик таҳлиллар натижасида суғурта тизимида давлат иштирокини камайтириш, хусусийлаштириш, аҳоли даромадлари даражаси, суғурта бозори ривожланишига таъсир этувчи умумий омиллардан ҳисобланиб, ижтимоий суғурта, фарзандларнинг ота- онасига ва кекса ёшдаги аҳолининг фарзандларига қарамлик даражаси ҳаёт суғуртаси ривожланишига, инфляция даражаси эса бошқа суғурта хизматлари ривожланишига таъсир кўрсатиши аниқланган. Шунингдек ушбу тадқиқотда суғуртанинг ривожланишига таъсир этувчи омиллар мамлакатнинг ҳудудларида турли хил даражада таъсир кўрсатиши аниқланган[2].

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-853-859

Шунингдек Руминиялик олим С. Драгос Осиё ва Европада жойлашган 17 давлатнинг 10 йиллик маълумотларини таҳлил қилиш асосида урбанизация, аҳоли даромадлари ва уларни тақсимлаш, шунингдек аҳолининг саводхонлик даражаси суғурта сектори ривожланишида аҳамиятли омиллардан ҳисобланади деган фикрга келган. Унинг фикрича, урбанизация даражаси ҳаёт суғуртаси ривожланишига сезиларли таъсир кўрсатган. Шунингдек, ҳар иккала ҳудуд учун аҳоли саводхонлик даражаси ҳаёт суғуртасидан ташқари суғурта ривожланишига таъсир ўтказиши, даромад даражаси эса Осиё минтақасида ҳаёт суғуртасидан ташқари суғуртанинг ривожланишида аҳамияти юқори эмаслиги аниқланган[3].

Юқорида келтириб ўтилган фикрлардан келиб чиққан ҳолда шуни айтиш мумкинки бугунги кунда нафақат шахарда балки мамлакатнинг четка ҳудудларида истиқомат қилувчи аҳоли ва тадбиркорлик субъектлари суғурта хизматларига эхтиёж сезганида, ушбу хизматлардан эркин фойдалана олиши лозим. Бунда ҳудудларда суғурта компаниялари фаолиятини такомиллаштириш ва ҳудудий хизматлар бозорини ривожлантириш керак.

НАТИЖАЛАР

Ҳудудларда суғурта компанияларини ривожлантиришда уларнинг ҳозирги молиявий ҳолати суғурта компанияларининг рақобатбардошлиги ва молиявий барқарорлигини оширишни талаб этади. Ушбу муаммоларни ҳал этиш йўлларидан бири суғурта ташкилотларининг молиявий салоҳиятини самарали бошқариш ҳисобланади, бунда;

- суғурта ташкилотининг ички захираларини аниқлаш;
- суғурта ташкилотининг молиявий салоҳиятидан самарали фойдаланиш;
- суғурта ташкилотининг молиявий барқарорлигини ошириш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш;
- ҳудуднинг ижтимоий-иқтисодий ҳолатини баҳолаш;

Мамлакатимизда ҳудудий суғурта бозорини ривожлантириш ва тез суратда ўсиши учун давлатимиз томонидан кўплаб шароитлар яратилмоқда. Тўпланган бадаллар, тўлов коэффициентлари ўсиши кузатилмоқда, ҳудудларда суғурталаш кенгайиб бормоқда ва ҳудудий суғурта хизматлари бозорида суғурталанувчилар сони ортмоқда. Ҳудудларда тўпланган суғурта мукофотларининг ЯХМдаги улушихам йилдан йилга ортиб бормоқда.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-853-859

2016 йилда суғурта бозорида умумий суғурта мукофоти 34,3 фоизга ошиб, 692,6 млрд. сўмни ташкил этди. Тошкент шахрида тўпланган суғурта мукофотларининг 2015 йилга нисбатан умумий мукофотлардаги улуши 3,2 фоиз пункитига камайган. Жиззах ва Сурхандарё вилоятларида 2016 йилда тўпланган суғурта мукофотлари63,8 фоизгаўсган. Бошқа вилоятларда эса 40фоиздан 60 фоизгача ўсиш кузатилган



1-расм. 2015-2016 йилларда ҳудудларда тўпланган суғурта мукофотлари, млрд,сўм.

Ҳудудларда суғурта мукофотларининг 2015 йилга нисбатан 2016 йилда ўсиши, суғурта компанияларининг ҳудудий филиалларини фаолияти такомиллаштирилиши натижасида ҳудудларда суғурта хизматларига бўлган талабни ошганини билдиради.

Лекин шунга қарамай ҳудудий суғурта бозорини ривожлантиришда бир қанча муаммолар мавжуд бўлиб, улар;

– Ҳудудларда фаолият юритаётган суғурта бўлинмаларини асосий қисми вилоят марказларида жойлашгани, ҳудуднинг чека қисмида жойлашган туманлардаги аҳоли суғурта хизматларидан фойдалана олиш имкони мавжуд эмаслиги;

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-853-859

– Ҳудудларда суғурта инфратузилмасини яхши ривожланмаганлиги яъни вилоятда содир бўлган бахтсиз ходисани зарарини баҳолашда Тошкент шахридаги бош оффисдан мутахасисларни жалб этиш;

– Эркин иқтисодий ҳудудларда ташкил этилган йирик ишлаб чиқариш объектлари суғурта компанияларнинг бош оффисларида суғурта қилиниши каби муаммолар мавжудир.

Юқорида келтирилган муаммоларни ижобий хал этиш, ҳудудий суғурта бозорини ривожлантириш ва суғуртачилар фаолиятини такомиллаштиришда бир қанча омиллар мавжуд бўлиб, улар иқтисодий, ижтимоий, технологик омиллардир.

Ҳудудий суғурта бозорини ривожлантиришга таъсир этувчи омиллар

1-жадвал

Иқтисодий омиллар	1.Аҳоли даромадларининг ўсиши. 2.Ҳудудларда ишлабчиқариш объектларини ташкил этилиши. 3.Суғурта компанияларининг молиявий барқарорлиги.
Ижтимоий омиллар	1.Ҳудудларда истиқомат қилувчи аҳоли сони. 2.Ҳудудий суғурта компаниялари ва молия институтларига аҳоли ишончи. 3.Ҳудудларда суғурта хизматларига бўлган талабнинг юқорилиги. 4.Аҳоли даромадлари ва харажатлари.
Технологик омиллар	1.Онлайн суғурта хизматларини ривожлантириш. 2.Суғурта полисларини онлайн сотиш тизимини жорий этилиши. 3.Суғурта ташкилотлари фаолиятини такомиллаштиришда суғурта компанияларини замонавий технологиялар билан таъминлаш.

Юқорида келтириб ўтилган иқтисодий- ижтимоий омиллар ҳудудий суғурта бозорини ривожлантиришда асосий омилларидан бири хисобланиб, у ҳудуд аҳолисини бугунги кундаги яшаш шароити, харид қобиляти, бозорга бўлган талабини билдиради. Ялпи ҳудудий маҳсулот эса мамлакат иқтисодий

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-853-859

кўрсаткичларидаги улуши ҳудуднинг иқтисодий ҳолатидан дарак беради (2-жадвал).

Мамлакатимиз ҳудудларида амалга оширилган ислохотларни амалга оширилиши натижасида мамлакат ЯИМ 2016 йилда 199 325,1 млрд.сўмни ташкил этиб, 2016 йилда 2010 йилга нисбатан 3,5 баробарга ўсган. Бу эса мамлакат иқтисодиётини ривожланаётганлигидан дарак беради.

Ҳудудлар иқтисодиётини ривожлантириш мақсадида асосий капиталга киритилган инвестициялар 2005 йилда 15923,4 млрд.сўмни 2016 йилда 171 808,3 млрд.сўмни ташкил этиб, бу кўрсаткич 2005 йилга нисбатан 10,5 баробарга ўсган. Асосий капиталга киритилган хорижий инвестициялар 2005 йилда 3165,2 млн сўмни 2016 йилда 698,0 млрд. сўмни ташкил этган. Ҳудудлар бўйича жон бошига тўғри келадиган инвестицияларнинг энг юқориси Навоий, Қашқадарё, Тошкент вилояти ва Тошкент шахри хиссасига тўғри келмоқда.

Бугунги кунда ҳудудий суғурта бозорини ривожлантиришда аввалambор хуқуқий норматив асосларни такомиллаштириш яъни давлат томонидан суғурталанувчиларни хуқуқларини химоялаш ва кафолатлаш суғурталанувчиларда суғуртага нисбатан ишонч уйғатади.

ХУЛОСА

Мамлакатимизда ҳудудларни комплекс ривожлантириш, ҳудудий инвестиция дастурларини ишлаб чиқиш ва ҳудудларга хориж инвестицияларини кенг жалб этиш, йирик инвестицион лойихаларни амалга оширишда ушба лойиҳаларни рискларини суғурталашда ҳудудий суғурта компанияларини ташкил этиш лозимдир. Бунда инвестицион лойиха рисклари ҳудудий суғурта компаниялари томонидан суғурталанади. Бу эса ҳудудий суғурта компаниялари мижозлари суғурта хизматларидан ҳудуднинг ўзида фойдалана олиш имконини берса, ҳудудларда истиқомат қилувчи аҳолини иш билан таъминланишига замин яратади. Бунда ҳудудий суғурта компаниялари олдидаги вазифа ҳудудий мижозларни сонини ортишида янги инновацион хизмат турларини жорий этиш ва бахтсиз ходиса юз берганда мижозларга суғурта бадалини ўз вақтида тўлаши лозим.

Эркин иқтисодий ҳудудлардаги ишлаб чиқариш объектларида фаолият юритаётган ишчи ходимларни мехнат фаолияти давомида содир бўладиган бахтсиз ходисадан суғурталаш механизмини жорий этиш лозим. Бунда суғурталанувчи соғлиғини таклашда суғурта компаниялари томонидан

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-853-859

молиявий қўллаб қувватланиши керак. Юқорида келтириб ўтилган таклифларни амалиётга жорий этилиши ҳудудий суғурта компаниялари фаолиятини такомиллаштирилишига олиб келса, суғурталанувчиларга суғурта хизматларидан самарали фойдаланиш имконини беради.

REFERENCES

1. Han L., Li D., Moshirian F. and Tian Y. (2010). Insurance Development and Economic Growth. The Geneva Papers on Risk and Insurance. Issues and Practice Vol. 35, No. 2, pp. 183-199
2. Yuan Ch., Jiang Y. (2015). Factors affecting the demand for insurance in China. Applied Economics Volume 47, Issue 45
3. Dragos S. (2014). Life and non-life insurance demand: the different effects of influence factors in emerging countries from Europe and Asia. Economic Research. Volume 27, Issue 1
4. Базанов А.Н., Белинская Л.В., Власов П.А. и др. (2009). Страхование: учебник / под.ред. Г.В. Черновой. – М.: Проспект, 432 с.
5. Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Страхование (2013). Учебник для вузов. – СПб.:Питер, 256 с.
6. Балабанов И.Т. (1996). Риск-менеджмент. – М.: Финансы и статистика. 92 с.
7. Бакиров А.Ф. (2007). Формирование и развитие рынка страховых услуг: Монография. – М.: Финансы и статистика, 304 с.
8. Баутов А.Н. (2009). Комплексный показатель эффективности антикризисного управления страховой организацией и критерии его оценки // Страховое дело. – М., №7. – С. 10-12.
9. Беллман Р., Заде Л. (1976). Принятие решений в расплывчатых условиях // В кн.: Вопросы анализа и процедуры принятия решений. – М.: Мир.
10. Блинков А., Киселев А. Анатомия катаклизма: Бифуркация на все случаи жизни // http://dere.kiev.ua/library/blinkov/anat_kata_0.shtml

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-860-871

ЛАЛМИКОР ЕРЛАРДА НЎХАТ ЕТИШТИРИШ

М. К. Турсунова
Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти таянч докторанти

Ғ. Н. Аликулов
Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти доценти

АННОТАЦИЯ

Мақолада нўхат нав ва нав намуналарининг ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлигини иқлим омилларига боғлиқлиги ўрганилган. Лалмикор ерларда етиштирилган нўхатнинг фенологияси, биометрик кўрсаткичлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: нав, селекция, оқсил, дуккак, вегетация даври, ҳосил, дон сифати.

ABSTRACT

The article examines the dependence of the growth, development and yield of varieties and varieties of chickpea on climatic factors. Phenology and biometric parameters of chickpea grown on rainfed lands have been analyzed.

Keywords: type, selection, protein, legumes, growing season, yield, grain quality

КИРИШ

Нўхат дунёдаги энг муҳим дуккакли экинлардан бўлиб, инсон рационида оқсил ва аминокислоталарнинг асосий манбаи бўлиб хизмат қилади. Нўхат 50 дан ортиқ мамлакатларда, Австралия, Канада, Ҳиндистон, Эрон, Мексика, АҚШ ва Россияда етиштирилади. Бироқ нўхат ишлаб чиқариш аҳолининг оқсилга бўлган эҳтиёжларини қондира олмайди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7-февралдан ПФ-4947-сонли Фармони билан тасдиқланган “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-860-871

Ҳаракатлар стратегияси”нинг учинчи устувор йўналиши қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш ва жадал ривожлантиришга эътибор қаратилган[1].

Нўхат унумдорлигига атроф-муҳитнинг салбий омиллари катта таъсир кўрсатади. Гуллаш пайтида ва дон тўлиш даврида юқори ҳарорат ва қурғоқчилик ҳосилни 40-45 % гача камайтириши мумкин. Замонавий селекциянинг асосий вазифаси ўзгарувчан иқлим шароитига мос юқори маҳсулдор навларни яратишдир. Кенг ва тизимли селекция ишлари натижасида бир қатор юқори маҳсулдор стресс шароитларга чидамли нўхат навлари яратилган.

Дала тажрибалари Қашқадарё вилоятининг Қамаши тумани худудидаги лалмикор ерларда жойлашган бўлиб, ҳар бир намуна қатор ораси 45 см, узунлиги 4 м, 3 қатордан 5 м^2 да 3 қайтариқликда экилди. Экиш меъёри 1 п.м да 5 дона унувчан уруғ ҳисобида бўлди. Экиш қўлда амалга оширилди. Андоза нав сифатида Обод нави экилди.

Экиладиган уруғ учун I синф уруғлик стандарти талабларига кўра унувчанлиги 95% дан кам бўлмаган, намлиги 14% дан юқори бўлмаган, нав тозалиги 100% бўлган уруғликлардан фойдаланилди.

Фенологик кузатиш бўйича ривожланиш фазаларининг бошланиши (10-15%) ва тўлиқ (75%) ўтиши ойнинг қайси кунига тўғри келиш санаси махсус журналга ёзиб борилди. Ўрганилган навлар айрим ривожланиш фазалари орасидаги даврларнинг (фазалараро давр) давомийлиги асосида вегетация даври ҳамда тезпишарлиги аниқланди.

Ўсимлик ўсув даврининг давомийлиги навнинг алоҳида муҳим кўрсаткичларидан бўлиб ҳисобланади. Бу хусусият нўхат ўсимлигининг генетик жиҳатидан ирсий тузилишига боғлиқ бўлиши билан бирга, унинг қандай шароитда ўстирилаётганлигига, яъни тупроқ-иқлим ва метеорологик шароитларга, ўстириш агротехникасига, экиш муддатига ҳам боғлиқдир.

Селекция кўчатзорида элита ўсимликларнинг наслларига маҳсулдорлиги ва биокимёвий-технологик кўрсаткичлари бўйича дастлабки таққослаш ишлари ва энг яхши наслларни кейинги йилларда ўрганиш ва кўпайтириш учун ажратиш ишлари олиб борилади.

International Elite Nursery-Large Seeded-2019 (CIEN-LS-19) Халқаро кузги нўхатнинг йирик донли назорат кўчатзорида нўхатнинг 36 та нав ва намуналари ўрганилди.

[1]**Мирзиёев Ш.М.**Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги. / Расмий нашр/ - Тошкент: “Адолат”, 2017. – 112 б.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-860-871

Ушбу кўчатзорда ўрганилган намуналарнинг қурғоқчиликка, иссиқликка, касаллик ва зараркунандаларга ўта чидамлилари, ноқулай иқлим шароитларда ҳам ҳосилдорлик кўрсатгичларини сақлаб қолиши билан табиий танланган 11 та намуналар ажратиб олинди.

International Elite Nursery-Large Seeded-2019 (CIEN-LS-19) кўчатзорида ўрганилган намуналарнинг униб чиқиш даври 12-14 март, шохланиш фазасига ўтиши 30 март 01 апрел, ғунчалаш фазасига ўтиши 19-29 апрел, гуллаш фазасига ўтиши 25 апрел 05 май, дуккак ҳосил бўлиш фазаси 9-16 май, пишиш фазаси 16-23 июн кунларига тўғри келганлиги, вегетация давринининг давомийлиги 85-102 кунни ташкил қилгани қайд этилди.

Андоза нав сифатида танланган Обод (Local Check) навнинг униб чиқиш фазаси 13 март, шохланиш фазасига ўтиши 31 март, ғунчалаш фазасига ўтиши 24 апрел, гуллаш фазасига ўтиши 03 май, дуккак ҳосил бўлиш фазаси 12 май, пишиш фазаси 17 июн кунларига тўғри келганлиги, вегетация давринининг давомийлиги 97 кунни ташкил қилгани аниқланган.

1-жадвал

Нўхат намуналарининг ўсув даври давомийлиги

№	Номи	Униб чиқиш, сана	Шохланиш, сана	Ғунчалаш, сана	Гуллаш, сана	Дуккак ҳосил бўлиш, сана	Пишиш, сана	Ўсув даври
1	ОБОД (Local Check)	13.03.	31.03.	18.04.	27.04.	07.05.	18.06.	97
2	X06TH36/X05TH144XFLIP98-80	12.03.	30.03.	26.04.	03.05.	14.05.	22.06.	102
3	X05TH186/ICCV03309XFLIP91-96	13.03.	31.03.	26.04.	03.05.	14.05.	22.06.	101
4	X05TH106/FLIP97-131XFLIP00-14	14.03.	01.04.	26.04.	03.05.	14.05.	22.06.	100
5	X05TH69/X04TH-207XFLIP00-17	14.03.	01.04.	26.04.	03.05.	14.05.	22.06.	100
6	X07 TH 157/FLIP00-65CXFLIP 03-1	12.03.	30.03.	28.04.	04.05.	15.05.	23.06.	101
7	X07 TH 112/FLIP05-7XFLIP 03-97C	12.03.	30.03.	26.04.	03.05.	14.05.	22.06.	102
8	X05TH26/X04TH-146XFLIP01-29	14.03.	01.04.	23.04.	30.04.	10.05.	17.06.	96
9	X05TH12/X04TH-131XFLIP02-42C	14.03.	01.04.	21.04.	28.04.	07.05.	16.06.	94
10	X89TH258/ (FLIP 85-122CXFLIP 82	14.03.	01.04.	22.04.	01.05.	09.05.	16.06.	95
11	X05TH29/X04TH-149XFLIP02-36C	13.03.	31.03.	26.04.	03.05.	14.05.	22.06.	101

Танланган 11 та намунанинг шохланиш фазасига ўтиши 30-31 март, ғунчалаш фазасига ўтиши 21-27 апрел, гуллаш фазасига ўтиши 27 апрел 03 май,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-860-871

дуккак ҳосил бўлиш даври 9-12 май, пишиш фазаси 19-23 июн кунларига тўғри келганлиги аниқланди. Жадвал маълумотларидан кўриниб турибди танланган намунанинг вегетация даври давомийлиги 94 дан 102 кунгача бўлгани қайд қилинган.

Жумладан, ушбу кўрсаткич X07 TH 112/FLIP05-7XFLIP 03-97C намунада 94 кунни,, X05TH34/X04TH-154XFLIP00-69 намунада 95 кунни, X05TH188/ICCV96323XFLIP91-186, X05TH186/ICCV03309XFLIP91-96, X05TH69/X04TH-207XFLIP00-17 намуналарда 96 кунни, , X07 TH 103/FLIP 03-117CXSari-98 (FLIP 85-1C), X89TH258/ (FLIP 85-122CXFLIP 82-150C)/FLIP 86-77C, намуналарда 100 кунни, X05TH38/X04TH-159XFLIP01-29, X07 TH 157/FLIP00-65CXFLIP 03-108C, X05TH106/FLIP97-131XFLIP00-14, X06TH36/X05TH144XFLIP98-80 намуналарда 101 кунни, X06TH37/X05TH147XFLIP98-121, X05TH164/FLIP97-85XICCV-95311, X05TH26/X04TH-146XFLIP01-29, X05TH12/X04TH-131XFLIP02-42C намуналарда 102 кунни, X05TH29/X04TH-149XFLIP02-36C намунада 103 кунни ташкил қилган аниқланган.

2020 йил ҳосили учун лалми майдонларда назорат кўчатзорида нўхатнинг 30 та нав ва намуналари 10 м^2 майдонда, 2 қайтариқда экиб ўрганилди. Тажриба оралиғи 45 см, 1 пм. 5 донадан қўлда экилди.

Назорат кўчатзорда ўрганилган маҳаллий ва хориждан келтирилган намуналарнинг қурғоқчиликка, иссиқликка, касаллик ва зараркунандаларга ўта чидамлилари, табиатнинг ноқулай иқлим шароитларда ҳам ҳосилдорлик кўрсатгичларини сақлаб қолиши билан табиий танланган намуналар ажратиб олинди.

Назорат кўчатзоридан танлаб олинган нав ва намуналарнинг вегетация давринининг қисқа бўлиши айниқса Республикамизнинг жанубий минтақалари учун янги навлар яратишда муҳим аҳамиятга эга. Жанубий минтақаларда май ойининг иккинчи ярмига бориб ҳаво хароратининг кўтарилиб хамда ҳаводаги нисбий намликнинг камайиб кетиши ўсимлигининг пишиш фазасига тасир қилади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-860-871

2-жадвал

Назорат кўчатзорида нўхат нав ва намуналарининг ўсув даври

Лагохилус ўсимлиги асосида олинадиган препаратларга бўлган талаб йилдан йилга ортиши билан бирга, ёввойи ҳолда ўсувчи Lagochilus ўсимлиги табиий заҳираси тубдан камайиб борган ва ҳозирги кунда у Қизил китобга киритилган. Ҳозирги кунгача ушбу доривор ўсимликни республикамиз худудида етиштириш ва маданийлаштирилган ўсимлик плантацияларини яратиш бўйича амалий ишлар деярли бажарилмаган. Шунинг учун Lagochilus inebrians ўсимлигини лаборатория шароитида маданийлаштириш учун уруғнинг униб чиқишига ва ўсишига Гиббереллин A_3 ($ГА_3$) ҳамда Ауксин – индолил-3-сирка кислотаси (гетероауксин) стимуляторларни таъсирини ўрганишни куриб чиқамиз.

Гиббереллинлар ўсимлик гормонлари гиббереллинлар ўсимликларнинг ўсишини бошқаради ва ривожланиш жараёнларига таъсир кўрсатади. Булар пояни узайтириш, униб чиқиш, ҳаракатсизлик ҳолати, гуллаш, фермент индукцияси, барг ва мевани қариши кабиларни ўз ичига олади. Гиббереллинлар биринчи марта 1926 йилда япон олими Eiichi Xurasava томонидан кашф қилинган[12].

У биринчи марта 1935 йилда Teijiro Yabutaва Sumuki томонидан замбуруғ турларидан ажратиб олинган ва Xurasava томонидан ўрганилган. Yabuta ажратиб олинган моддани Гибберелин сифатида номлаган [12]. Гиббереллинларга кизикиш Япониянинг ташкарисида II жахон урушидан кейин бошланган. АКШ да гиббереллинга доир биринчи илмий ишлар Марйландда Camp Detrick томонидан олиб борилган. У ловия Vicia faba нинг уруғдан кўкартирилган кўчатига гиббереллинни стимулятор сифатида синаб кўрган. Бирлашган кироллкда гиббереллинларнинг янги турларини ажратиб олишни йирик кимёвий саноатлар бошлаган. Гиббереллинларга қизикиш дунё бўйича тарқалган, унинг фойда келтирадиган муҳим ўсимликларда фойдаланилиши кўпроқ кўзга ташланган.Масалан , бунга доир

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1004-1014

илмий иш Калифорнияда 1960 йил ўрталарида Давид томонидан амалга оширилган. Томсон 1962 йилларда Калифорниянинг махсус жойларида ўстирилган уруғсиз узумларда гиббереллинларни синаб кўришда рахбарлик қилган [13].

Гиббереллинлар энт-гиббереллан скелетлари билан ясалади. Гиббереллинлар кашф қилинганида Ган қоидасига кўра $ГА_1$ (Гиббереллин $А_1$) сифатида номланган. Гиббереллик кислота, биринчи ўзига хос тузилишга эга бўлган Гиббереллин $ГА_3$ эди. 2003 йилларда ўсимликлардан, замбуруглардан ва бактериялардан 126 Гиббереллик кислотаси ажратиб олинган[12]. Гиббереллинлар тетрациклик дитерпен кислоталар. Ҳар бирининг асосида 19 ёки 20 та углерод қатнашган 2 татура мавжуд: 19-углеродли гиббереллинлар масалан, гиббереллик кислотаси 20- углероди мавжуд емас ва унинг ўрнида 4 ва 10-углеродларга боғланган беш аъзоли лактон кўприги мавжуд. 19-углеродли ҳолатлари умумий олганда, гиббереллинларнинг биологик фаол шакллари хисобланади. Шунингдек гидроксилланган гиббереллинларнинг биологик фаол шаклларида юкори самара мавжуд. Умумий олганда энг кўп биологик фаол бирикмалар дигидроксилланган гиббереллинлар ҳисобланади. Улардаги 3 ва 13-углеродларнинг иккаласида ҳам гидроксил гурухлар қатнашган. Гиббереллик кислотаси дигидроксилланган ҳисобланади [14].



Гиббереллин $А_1$ ($ГА_1$)



Гиббереллик кислотаси ($ГА_3$)

Гиббереллинлар Биологик функциялари табиий жараёнда ҳаракатсизлик ҳолатининг тўхташи ва поя узайишининг турли кўринишларини ўз ичига олади. Фотосинтетик аппарат яралишидан олдин, поя узайишининг дастлабки босқичларида уруғдан ўсган ўсимликни озиқлантириш учун крахмалнинг етарлича озуқа захирасини сақлайди. Одатда поя узайишида,крахмалнинг глюкозага парчаланишида уруғ сувга солингандан кейин эндоспермда бошланади. Агарда ўсимликлар нокулай

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1004-1014

ҳароратларга дуч келса,гиббереллинларни кўп миқдорда ишлаб чиқаради. Улар ҳужайранинг узайиши, синиш ва куртакланиш, уруғсиз мевалар ва уруғ униб чиқишини кучайтиради. Гиббереллинлар уруғнинг ҳаракатсизлик ҳолатини тўхтатиш оркали тўлиқ бажаради ва кимёвий хабарчи сифатида иштирок этади. Унинг гормонлари рецепторларга боғланади, протеинларни ҳаракатга келтиради, мураккаб ДНК га боғланади ва эмбрионда ўстиришни кучайтирадиган фермент ишлаб чикаради. Гиббереллинларнинг асосий таъсири протеинларини камайтириш, кейин яна фитогормонларни бир-бирига таъсир этишида ва генни бошқаришда иштирок этмасликдир.[15]

Ауксинлар баъзи морфологик ўхшаш хусусиятлари билан ажралиб турадиган ўсимлик гормонларининг (ёки ўсимлик ўстирувчи моддалар) синфи. Ауксинлар ўсимликнинг ҳаёт давридаги ҳаракат жараёнлари кўпинча нормал ўсишида асосий рол ўйнайди. Шунингдек у ўсимлик танасининг ривожланишида ҳам катта ахамиятга эга. Ауксинлар ва уларнинг ўсимлик ривожланишидаги роли биринчи бўлиб голландиялик олим Фритс Вент томонидан кўрсатиб берилган. Кеннес Симан бу фитогормонни ажратиб олган ва унинг кимёвий тузилиши Индол-3-сирка кислота эканлигини аниқлаган [16]. Вент ва Симан кейинчалик 1937 йилда Фитогормонлар яъни Ўсимлик гормонлари китобининг ҳам муаллифига айланган.

Маҳаллий ауксинлар индол-3-сирка кислотаси ўсимликларда учрайдиган ва энг мухим вазифани бажарадиган энг сероб маҳаллий ауксин. У ўсимликларда ауксин таъсирларининг кўпчилигига сабаб бўлади ва энг кучли махаллий ауксин хисобланади. Учтадан кўпрок махаллий-эндоген ауксинлар бор. Барча ауксинлар битта карбоциклик кислота гурухи ароматик халка билан боғланган бирикмалар.



Индол-3-сирка кислотаси



4-хлориндол-3-сирка кислотаси



Индол-3-бутан кислотаси

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1004-1014

Ауксинлар номи грекчадан келиб чиккан сўздир (аухеин- ўстириш / кўпайтириш). Улар биринчи кашф қилинган асосий ўсимлик гормонлари эди. Ауксин намунасини ўсимлик ичидаги тақсимланиши ўсимлик ўсиши учун омил калитидир, унинг реакцияси атроф-мухит ва ўсимлик органларининг ривожаниши учун муҳим ҳисобланади. У жуда мураккаб ва яхши мувофиклаштирилган ауксиннинг фаол транспорти (қутбий ауксин транспорти деб номланган) орқали ўсимлик танасининг ҳамма жойидаги молекулаларни ҳужайрадан-ҳужайрага етказади[16]. Шундай килиб, ўсимлик ташқи кўринишларига таъсир кўрсатади ва нерв системаси талабисиз уларни тартибга солади.

Ауксинларнинг ўзига хос хусусияти бошқа ўсимлик гормонлари билан келишиб ёки қарши таъсир кўрсатади. Масалан, ауксиннинг цитокининга нисбати айнан ўсимлик тўкималарида илдизнинг қаршисидаги куртак ғунчаларини ҳисоблаш орқали аниқланади. Молекуляр даражада, барча ауксинлар битта карбоциклик кислота группаси бензол халкаси билан боғланган бирикмалар. Ауксин оиласининг энг мухим аъзоси индол-3-сирка кислотаси[13]. У энг кучли маҳаллий ауксин хисобланади. Маҳаллий ауксин сифатида унинг барқарорлиги ўсимликларда кўп усулларда текширилган. Масалан, ҳар доим шароитга кўра, унинг молекулаларини камайтириш орқали олинган натижаларни умумлаштириши аниқланган.

Шунга қарамасдан, Индол-3-сирка кислотасининг молекулалари сувли эритмада кимёвий ўзгарувчан, шунинг учун, у ўсимлик ўсишини бошқарувчи сифатида ишлатилмайди. Тўртта табиий (эндоген) ауксинлар учрайди: Индол-3-сирка кислотаси, 4-хлориндол-3-сирка кислотаси, фенилсирка кислотаси ва индол-3-бутан кислотаси. Уларнинг ҳаммаси ўсимликлардан ажратиб олиб аниқланган[16]. Эндоген (махаллий) ауксинлар билан бир каторда, олимлар ва ишлаб чикарувчилар ауксиник фаолият билан кўпчилик синтетик ауксин бирикмаларини ривожлантиришган.

Синтетик ауксин аналоглари ичига 1-нафталинсирка кислота, 2,4-дихлорфеноксисирка кислота ва бошқалар киради. Баъзи синтетик ауксинлар, масалан, 2,4-дихлорфеноксисиркакислота ва 2,4,5-трихлорфеноксисирка кислота гербицидлар сифатида ишлатилган. Шунингдек, 2,4-дихлорфеноксисирка кислотанинг натрийли тузи - ёввойи ўтларга қарши курашда ишлатиладиган гербицидлардир.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1004-1014

Кенг- япрокли ўсимликлар (икки уруғ паллали) масалан, қоқиўтлар (момокаймоклар) ингичка баргли ўсимликлар (бир уруғ паллали) масалан, ўтлар ва донли ўсимликларга қараганда ауксинларга кўпрок таъсирланувчан ҳисобланади. Шунинг учун ҳам синтетик ауксинлар гербитцидлар сифатида фойдалидир[12-16].

НАТИЖАЛАР МУҲОКАМАСИ

Lagochilus inebrians ўсимлигини маданийлаштириш учун уруғнинг униб чиқишига ва ўсишига Гиббереллин A_3 ($ГА_3$) ва Ауксин – индолил-3-сирка кислота (гетероауксин) стимуляторлар таъсирини ўрганишни учун Гиббереллин A_3 ($ГА_3$) нинг 10^{-4} М, 10^{-5} М, 10^{-6} М, 10^{-7} М ва 10^{-8} М ли эритмаларини тайёрлаш учун Гиббереллин A_3 ($ГА_3$) дан беш ҳилдаги массасини тортиб олинди ва 2 литр сувда эритилди. Гиббереллин A_3 нинг 10^{-4} М ли эритмасини тайёрлаш учун Гибберелин A_3 (Мр=346,4 гр/ мол) дан 0,06928 гр ёки 69,28 мг, 10^{-5} М ли учун эса 6,928 мг тортиб олинди ва 2,0 литр сувда эритилди. Кейин эса бир сутка қолдирилди. Қолган эритмалар ҳам худди шу тарзда тайёрланади. Ауксин – индолил-3-сирка кислота (гетероауксин) нинг 10^{-4} М, 10^{-5} М, 10^{-6} М, 10^{-7} М ва 10^{-8} М ли эритмаларини тайёрлаш учун Ауксиндан беш ҳилдаги массасини тортиб олинди ва 2 литр сувда эритилди. Ауксин нинг 10^{-4} М ли эритмасини тайёрлаш учун Ауксин (Мр=175,184 гр/мол) дан 0,350368 гр ёки 350,368 мг, 10^{-5} М ли учун эса 35,0368 мг тортиб олинди ва 2 литр сувда эритилди. Кейин эса бир сутка қолдирилди. Қолган эритмалар ҳам худди шу тарзда тайёрланади ва ўсимлик 10 тадан уруғлари юқоридаги эритмаларда 24 соат давомида ивитилди ва тувакчаларда тупроқ:қум:гўнг 2:1:1 нисбатларда тайёрлаб, 3-5 см чуқурликда экилди. Гиббериллин A_3 ва Ауксин – индолил-3-сирка кислота (гетероауксин) нинг 10^{-4}, 10^{-5}, 10^{-6}, 10^{-7}, 10^{-8} М ли эритмалари таъсирида ўстирилган ўсимликнинг асосий кўрсаткичлари1-жадвалда келтирилган.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1004-1014

1-жадвал

Гиббериллин A_3 ва Ауксин – индолил-3-сирка кислота (гетероауксин) нинг лагохилус ўсимлиги уруғларининг униб чиқиш ва ўсиш жараёнига таъсири

Препарат концентра-цияси, Моль	Уруғларнинг униб чиқиш вақти (кун)	8 кунлик ўсимликнинг узунлиги (см)	10 та уруғдан униб чиққан ўсимликсони	Уруғларнинг унувчанлик даражаси (%)	Ўсимлик илдизининг узунлиги,см
Назорат ГКМАТ	9-12	3,8	3	30	12,6
Гиббереллин A_3					
10^{-4}	7	5.2	4	45	13,5
10^{-5}	6	5.9	5	60	13,6
10^{-6}	7	5.7	4	50	13,4
10^{-7}	8	5.3	4	45	13,3
10^{-8}	10	4.8	4	55	13,2
Ауксин – индолил-3-сирка кислота					
10^{-4}	7	5,2	4	45	14,6
10^{-5}	6	5,6	4	50	15,0
10^{-6}	7	5,8	5	55	15,5
10^{-7}	8	5,1	4	60	14,8
10^{-8}	10	4,9	2	50	14,3

1-жадвалида келтирилган кўрсаткичлардан кўринадики, лагохилус ўсимлигининг ўсиши ва уруғларининг унувчанлик даражаси, униб чиқиш вақти, ўсимлик ва унинг илдизи узунлигига гиббереллин A_3 ва Ауксинларнинг 10^{-4}-10^{-5} М, концентрациялар таъсирида ўсимлик узунлигига ва барглар сонининг ошишига самарали таъсир кўрсатиши аниқланди ва 10^{-4},10^{-5} концентрация ўсимлик уруғларининг унувчанлик даражаси 40% дан 60% гача кўпайди. Ўсимлик узунлиги 5,6 см, илдизи узунлиги эса 14,3 см ни ташкил этди. Ўсимлик уруғи 7-10 кунда униб чиқди. Ўсимликнинг ўсиш жараёнига энг мақбул бўлиб, лагохилус ўсимлигини дала шароитида уруғидан кўчат қилиб кўпайтиришда мазкур концентрацияли эритмалардан фойдаланилса бўлади. Назоратда лагохилус ўсимлиги уруғлари 9-12 кун орасида униб чиқди, ўсимлик узунлиги 3,8 см, илдиз узунлиги 12,6 см ни ташкил этди.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1004-1014

Ўсимлик уруғларининг унувчанлик даражаси назоратда 20% дан 30% гача бўлиши кузатилди.

Тажриба қисмда Гиббереллин A_3 ($ГА_3$) эритмаларни тайёрлаш учун Гиббереллин A_3 ($ГА_3$) дан беш ҳилдаги массасини тортиб олинди ва 2 литр сувда эритилди. Гиббереллин A_3 нинг 10^{-4} М ли эритмасини тайёрлаш учун Гибберелин A_3 (Мр=346,4 гр/ мол) дан 0,06928 гр ёки 69,28 мг, 10^{-5} М ли учун эса 6,928 мг тортиб олинди ва 2,0 литр сувда эритилди. Кейин эса бир сутка қолдирилди. Қолган эритмалар ҳам худди шу тарзда тайёрланди.

Ауксин – индолил-3-сирка кислота (гетероауксин) эритмаларни тайёрлаш учун Ауксиндан беш ҳилдаги массасини тортиб олинди ва 2 литр сувда эритилди. Ауксин нинг 10^{-4} М ли эритмасини тайёрлаш учун Ауксин (Мр=175,184 гр/мол) дан 350368 гр ёки 350,368 мг, 10^{-5} М ли учун эса 35,0368 мг тортиб олинди ва 2 литр сувда эритилди. Кейин эса бир сутка қолдирилди. Қолган эритмалар ҳам худди шу тарзда тайёрланади.

Тупроқни тайёрлаш ва ишлов бериш учун оддий тупроқ, қум ва гўнг олинди. Тупроқ:кум:гўнг нисбатларини 2:1:1 (масса жихатидан) да олиниб бир-бири билан яхшилаб аралаштирилди. Кейин экиш учун тайёрланган махсус идишларга солинди. Махсус идишларнинг тагига тупрок:кум:гўнг аралашмасини солишдан олдин 3,0-3,5 см ли қилиб майда тошлар солинди. Бундан мақсад униб чиққан ўсимликни яхши ўсиши ва идиш тагидан ҳаво кириб туриши учун. Ер экишга тайёр ҳолга келтирилди.

Лагохилус уруғига ишлов бериш учун Лагохилус ўсимлиги уруғи олиниб ҳар битта эритма билан ишлов берилди. Бу жараён қуйидагича олиб борилди. Синалаётган ҳар бир модданинг турли консентрациядаги эритмаларига лагохилус уруғларини бўктирилди ва бир кундан кейин ҳар бир идишга мос равишда 1,5-2,0 см чуқурликда экилди. Уруғлар экилгандан сўнг суғорилди. Ҳар бир жараён кузатиб борилди. Хона ҳарорати ва ёруғлик бир хилда берилди.

ХУЛОСА

Лагохилус ўсимлигининг ўсиши ва ривожланишига гиббереллин $ГА_3$ ва Ауксин – индолил-3-сирка кислотасининг 10^{-5} ва 10^{-6} моляр концентрацияда лагохилус ўсимлигининг илдизи ва пояси узунлигини ошириши аниқланди.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1004-1014

Ауксин таъсирида ён ва қўшимча илдизларининг ҳосил бўлиши кўпайиши аниқланди.

REFERENCES

1. Зияев Ш.Т., Исломов А.Х. Маданийлаштирилган ва ёввойи лагохилус ўсимликларини кимёвий ўрганиш. Мирзо Улуғбек номидаги ЎзМУ ташкил топганлигининг 90 йиллигига бағишланган профессор ўқитувчилари ва ёш олимларнинг илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. 27-28 май 2008 йил. Б.13.

2. Зайнутдинов У.Н, Далимов Д.Н, Матчанов А.Д, Исломов А.Х, Тлегенов Р.Т, Бозорова Н.Х., Собирова Ф.А. Сравнительное изучение дикорастущей и культурной форм Lagochilus inebrians // Химия растительного сырья. 2011 №2 С.189-190.

3.Зайнутдинов У.Н., Маулянов С.А., Исломов А.Х. //“Lagochilus авлодига мансуб ўсимликлар кимёси, биологияси ва физиологик хоссалари” //Монография. ISBN Тошкент, “Универстет”нашриёти, 2019 й Б.194

4.Исломов А.Х., Далимов Д.Н., Матчанов А.Д., Зайнутдинов У.Н //К Окультуриванию эндемичного растения Lagochilus Inebrians// Материалы 1 Республиканской конференции с международным участием «Зеленая химия». Самарканд 2012г. 26-28 март. С 62-63

5.Ҳамдамов Ў.И. Исломов А.Х. Далимов Д.Н. //Лагохилус ўсимлигини маданийлаштириш // ГулДУ»Табиий бирикмалардан қишлоқ хўжалигида фойдаланиш истиқболлари» Респ. илмий амалий анжумани материаллари тўплами 2013 й. 4-5 май Б.162

6.Далимов Д.Н. Тонких А.К. Кушиев Х.Х. Исломов А.Х Ҳамдамов Ў.И. //Низкомолекулярные природне стимуляторы роста и развития растений// Сборник трудов межд.конференции «Актульные проб. развития биоорг. химии» 15-16 ноябрь Ташкент. 2013г С. 270-307

7.ЗайнутдиновУ.Н. Далимов Д.Н. Матчанов А.Д. Исломов А.Х. Собирова Ф.А.// Охрана и культивирование эндимичного растения лагохилуса опьяняющего (Lagochilus Inebrians)// ГулДУ»Табиий бирикмалардан қиш-лоқ хўжалигида фой-даланиш истиқбол-лари» Респ. илмий амалий анжумани материаллари тўплами 2013 й. 4-5 май Б.161

8.Исломов А.Х., Матчанов А.Д., Зайнутдинов У. Н., Эсонов Р. С., Тошпулатов Ф., Алланиязова М. К.// Lagochilus Inebrians ўсимлиги вегетатив органлари

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1004-1014

дитерпеноидлари// Академик Амин Бахиевнинг 80- йил-лик юбилейига багиш-ланган «Умри ўрнак олим» номли илмий амалий конференция. ЎзРФА Қарақалпогистон булими. 28 апрель 2017 йил.Б.67-69.

9.Далимов Д.Н., Исломов А.Х., Ҳамдамов Ў.И., Пулатова М.П.// Лагохилиннинг ацетил ҳосилаларини синтез қилиш ва лагохилус ўсимлигини ўсиш даврида уларнинг қайси вақтда Синтез бўлишини аниқлаш // УзМУ хабарлари Т. №3/2 2017 й Б.403-407

10.Собирова Ф.А. Исломов А.Х. Тошппулатов Ф.Н. ЗайнутдиновУ.Н. Матчанов А.Д.// Изучение динамики накопления и локализации 9,13-эпоксилабданов в вегетативных органах интродуцированных растений рода lagochilus// Химия растительного сырья. 2021 й №2 С247-255

11.Зулфанова Н.С. Исломов А.Х. Матчанов А.Д. Матёқубов А. // Lagohilus inebrians bge ўсимлигидан лагохилин дитерпеноидини ажратиб олиш ва ик спектрини ўрганиш.// ARES, Academic Research In Educational Sciences Volume 2. Issue 6. 2021\06. ISSN:2181-1385. Sceintific Journal impact Factor (SJIF) 2021:5.723. 2021 й Б.555-561.

12.Gibberellin: A Short History, from http://www.plant-hormones.info, the home since 2003 of a developed by the now-closed Long Ashton Research Station. California

13.Gibberellin and Flame Seedless Grapes from a University of California, David website

14.James D.Metzger, ” Gibberellin “, in AccessScisnce@ McGraw-Hall, htt://www.accessscience.com.ezproxy.torontopubliclibrary.ca, DOI 10.1036/1097-8542.289000.

15.Daviere, Jean-Michel; De Lucas, Miguel; Prat, Salome (2008). “Transcriptional factor increaction: A central step in DELLA function”. Current Opinion in Genetics Development 18 (4): 295. Doi:10.1016/j.gde.2008.05.004.

16.Auxins page on www.plant-hormones.info- a website set up at Long Ashton Research Station an institute of the BBSRC (site is now on independent server).

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1015-1022

КЎП ҚИРАЛИ ВАФЕЛ ЎРИЛИШЛИ ТЎҚИМАЛАРИНИНГ ТЕХНОЛОГИК КЎРСАТКИЧЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Абдували Маматханович Акрамов
Наманган муҳандислик-технология институти мустақил тадқиқотчиси

Охунжон Абдурахманович Ахунбабаев
Ўзбекистон табиий толалар илмий тадқиқот институти директори, техника фанлари доктори, профессор

Дилбар Ганиевна Алиева
Наманган муҳандислик-технология институти доценти. техника фанлари номзоди

АННОТАЦИЯ

Мақолада амалдаги ўрилишлар асосида вафел ўрилишли тўқимани такомилашган намунаси тўла тахтлаш тасвирлари келтирилган,шунингдек олинган тўқималар оғирлиги ҳисоби келтириб ўтилган.

Таянч сўзлар: вафел ўрилиш, танда, арқоқ, тўқима,танда қоплама,тахтлаш тасвири

КИРИШ

Вафел ўрилишли тўқималари ассортиментини кенгайтириш ва тўқималарининг сифат кўрсаткичларини яхшилаш ва «VAMATEX» -русумли тўқув дастгоҳнинг технологик имкониятларидан самарали фойдаланиш мақсадида ишда вафел ўрилишли тўқимаси асосида вафел ўрилишли тўқимасининг 3 та варианти яратилди ва ишлаб чиқарилди, ҳомашё сифатида $T_т$= 18.5х2 текс; $T_а$= 27 текс чизиқли зичликка эга бўлган пахта калава ипидан фойдаланилди. Тўқимани арқоқ бўйича зичлиги $P_а$=200 ип/10см, ишлатиладиган тиғ номери № 80. Барча намуналар Италиянинг ITEMA фирмаси томонидан ишлаб чиқарилган ишчи эни 190 см бўлган «VAMATEX» маркали тўқув дастгоҳида ишлаб чиқилган.

Тадқиқотимиз жараёнида вафел ўрилишли тўқимаси тузилишига танда ва арқоқ йўналишига марказдаги қопламлар қаторларини киритиш ҳисобига матони кўп қиррали шакл кўринишига эга бўлиши, ҳажмий зичлиги ошиши ва

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1015-1022

вафел ўрилишли тўқиманинг сифат кўрсаткичларини яхшилашга эришилганлигини келтириб ўтдик.

Тадқиқот ишида вафел ўрилишли тўқимани капиллярлик хусусиятини ошириш учун вафел ўрилишли тўқимаси тузилишига танда ва арқоқ йўналишига марказдаги қопламлар қаторларини киритиш ва натижада кўп қиррали шакл кўринишлари таклиф этилди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Вафел ўрилишли тўқима ассортиментини кенгайтириш, капиллярлик ва матони кўп қиррали шакл кўринишига эга бўлиш мақсадида «VAMATEX» русумли тўқув дастгохида вафел ўрилишли тўқимани танда ва арқоқ йўналишига марказдаги қопламлар қаторларини ошириш орқали тўқиманинг 3 хил варианти ишлаб чиқарилди Ишлаб чиқарилган вафел ўрилишли тўқима намуналарининг технологик кўрсаткичлари ва физик-механик хусусиятларини таққослаш учун амалдаги тўқима сифатида вафел ўрилишли тўқимаси тузилишига 1 тадан танда ва арқоқ йўналишига марказдаги қопламлар қаторларини киритиш ҳисобига кўп қиррали вафел ўрилишли тўқима намуналари ишлаб чиқарилди (2-3расм).

Танда ипи сифатида Тт=18.5х2 текс чизиқли зичликка эга бўлган пахта калава ипидан, арқоқ ипи сифатида эса Та=27 текс чизиқли зичликли пахта калава ипидан фойдаланилди.Ишлаб чиқарилган вафел ўрилишли тўқимаси танда йўналишига марказдаги қопламлар қаторларини киритиш ҳисобига олинган 1-намунанинг ҳисоби келтирилган. 1-вариант намунасини ишлаб чиқариш учун амалдаги ўрилиш саржа С1/4, силжиши S=1 тенг ўрилиш асосида танда йўналишига марказдаги қопламлар қаторларини 1та қўшиб киритамиз.

Демак : Rб=1+4=5 , S=1

$$R_T = (2 \cdot R_B - 2) + H_{тан} \qquad (1)$$

$$R_T = (2 \cdot R_B - 2) + 1 = 9$$

$$R_a = 2 \cdot R_b - 2 = 8$$

Ишлаб чиқарилган кўп қиррали вафел ўрилиш тўқимасининг тўла тахтлаш тасвири 1 - расмда кўрсатилган.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1015-1022



1- расм

Шуниндек ишлаб чиқарилган вафел ўрилишли тўқимаси арқоқ йўналишига марказдаги қопламлар қаторларини киритиш ҳисобига олинган 2-намунанинг ҳисоби келтирилган. 2-вариант намунасини ишлаб чиқариш учун амалдаги ўрилиш саржа С1/4, силжиши S=1 тенг ўрилиш асосида арқоқ йўналишига марказдаги қопламлар қаторларини 1та қўшиб киритамиз.

Демак : Rб=1+4=5 , S=1

$R_T = 2 \cdot R_б - 2 = 8$ $R_a = (2 \cdot R_б - 2) + H_{арқ}$ $R_a = (2 \cdot R_б - 2) + 1 = 9$

Ишлаб чиқарилган кўп қиррали вафел ўрилиш тўқимасининг тўла тахтлаш тасвири 2 - расмда кўрсатилган.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1015-1022



2 - расм

ишлаб чиқарилган 3 намунанинг вафел ўрилишли тўқимаси танда ва арқоқ йўналишига марказдаги қопламлар қаторларини киритиш ҳисобига олинган ҳисоби келтирилган.

3-вариант ишлаб чиқариш учун амалдаги ўрилиш Саржа С1/4, силжиши S=1 тенг ўрилиш асосида танда ва арқоқ йўналишига марказдаги қопламлар қаторларини 1тадан қўшиб киритамиз.

Демак : Rб=5 , S=1

$$R_T = 2 \cdot R_б - 2 = 8 \quad (2)$$

$$R_{t,a} = (2 \cdot R_b - 2) + H_{t,a}$$

$$R_{t,a} = (2 \cdot 5 - 2) + 1 = 9 \quad (3)$$

Ишлаб чиқарилган кўп қиррали вафел ўрилиш тўқимасининг тўла тахтлаш тасвири 3 - расмда кўрсатилган.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1015-1022



3 - расм.

Ишлаб чиқарилган намуналарнинг технологик кўрсаткичлари ва физик-механик хусусиятлари Наманган муҳандислик-техналогия институти қошидаги “Тўқимачилик” синов лабораториясида стандарт усулда аниқланди ва олинган натижалар 1-жадвалда келтирилди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Тўқиманинг юза зичлиги анъанавий равишда хомашё сарфи критерияси бўйича ҳисобланади. Маълумки, вафел ўрилишли тўқимасининг юза зичлигини ошиши, унинг физик-механик хусусиятлари ўзгаришига олиб келади. Шунинг учун бир вақтнинг ўзида тўқиманинг ҳомашё сарфини ва сифат кўрсаткичларини тавсифловчи оғирлик кўрсаткичлари киритилган.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1015-1022

Вафел ўрилишли тўқимасининг оғирлик кўрсаткичлари бу погон метр, метр квадрат ва ҳажмий оғирликлардир.

Турли тузилишга эга бўлган кўп қиррали вафел ўрилишли тўқималарнинг оғирлик кўрсаткичлари ҳар бир намуна учун турлича.

Ҳар бир намуналар учун оғирлик кўрсаткичларининг қийматлари ва ҳисоби келтирилган

Тўқимани оғирлигини ҳисоби.

амалдаги тўқима

Бир погон метр тўқимани оғирлиги

$$M^1 = \frac{Вхом \cdot M}{L} = \frac{184.99 \cdot 141}{100} = 261 \text{ г/пог. м}$$

Бир квадрат метр тўқимани оғирлиги

$$M_1 = \frac{10^6 \cdot M}{L \cdot B} = \frac{10^6 \cdot 1.41}{100 \cdot 100} = 141 \text{ г/м}^2$$

Тўқиманинг ҳажмий оғирлиги.

$$\delta = \frac{10^3 \cdot M}{L \cdot B \cdot b} = \frac{10^3 \cdot 1.41}{100 \cdot 100 \cdot 2.176} = 0.064 \text{ мг/мм}^3$$

1-намуна тўқимаси

Бир погон метр тўқимани оғирлиги

$$M^1 = \frac{Вхом \cdot M}{L} = \frac{184.99 \cdot 174}{100} = 322 \text{ г/пог. м}$$

Бир квадрат метр тўқимани оғирлиги

$$M_1 = \frac{10^6 \cdot M}{L \cdot B} = \frac{10^6 \cdot 1.74}{100 \cdot 100} = 174 \text{ г/м}^2$$

Тўқиманинг ҳажмий оғирлиги.

$$\delta = \frac{10^3 \cdot M}{L \cdot B \cdot b} = \frac{10^3 \cdot 1.74}{100 \cdot 100 \cdot 2.176} = 0.079 \text{ мг/мм}^3$$

2-намуна тўқимаси

Бир погон метр тўқимани оғирлиги

$$M^1 = \frac{Вхом \cdot M}{L} = \frac{184.99 \cdot 177}{100} = 327 \text{ г/пог. м}$$

Бир квадрат метр тўқимани оғирлиги

$$M_1 = \frac{10^6 \cdot M}{L \cdot B} = \frac{10^6 \cdot 1.77}{100 \cdot 100} = 177 \text{ г/м}^2$$

Тўқиманинг ҳажмий оғирлиги.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1015-1022

$$\delta = \frac{10^3 \cdot M}{L \cdot B \cdot b} = \frac{10^3 \cdot 1.77}{100 \cdot 100 \cdot 2.104} = 0.084 \text{ мг/мм}^3$$

3-намуна

Бир погон метр тўқимани оғирлиги

$$M^1 = \frac{Вхом \cdot M}{L} = \frac{184.99 \cdot 185}{100} = 342 \text{ г/пог. м}$$

Бир квадрат метр тўқимани оғирлиги

$$M_1 = \frac{10^6 \cdot M}{L \cdot B} = \frac{10^6 \cdot 1.85}{100 \cdot 100} = 185 \text{ г/м}^2$$

Тўқиманинг ҳажмий оғирлиги.

$$\delta = \frac{10^3 \cdot M}{L \cdot B \cdot b} = \frac{10^3 \cdot 1.85}{100 \cdot 100 \cdot 3.281} = 0.056 \text{ мг/мм}^3$$

1-жадвал

Ишлаб чиқарилган намуналарнинг технологик кўрсаткичлари ва физик-механик хусусиятлари

	Намуналар	Намуна оғирлиги (гр.)	бир погон метр тўқимани оғирлиги (г/м)	Бир квадрат метр тўқимани оғирлиги (г /м^2)	Тўқиманинг ҳажмий зичлиги. (мг/ мм^3)
	Амалдаги	1.41	261	141	0.064
	1-намуна	174	322	174	0.079
	2-намуна	1.77	327	177	0.084
	3-намуна	1.85	342	185	0.083

Мазкур жадвалдан кўришимиз мумкинки, амалдаги тўқимага нисбатан тавси яэтилаётган кўп қиррали вафел ўрилишларнинг оғирлиги юқорироқ. Айниқса 3-намунаники, унинг сабаби танда ва арқоқ йўналишида қопламлар сони кўпайгани ва шунингдек, қўшилган ипларнинг йўғонлиги сабабли унинг оғирлиги ортган.

REFERENCES

1. Г.Б.Дамянов., Ц.З.Бачев., Н.Ф.Сурнина.Строение ткани и современные методы ее проектирования.// М.: Легкая и пищевая промышленность.1984.ст-46-47

2. Е.Ш.Алимбаев Тўқима тузилиши назарияси. – Ташкент: “Алоқачи”. -2005.– 97-99.б

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1015-1022

3. Мартынова А.А., Слостина Г.Л., Власова Н.А.; под редакцией А.И. Цветковой. Строение и проектирование тканей: учебник.// - М.:МГТУ им. Косыгина, 1999. - 434 с.
4. Saloydinov, S. Q. (2021). PAXTA TOZALASH ZAVODLARIDA ENERGIYA SARFINI KAMAYTIRISHNING TEXNIK-IQTISODIY MEXANIZMINI YARATISH. “ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES”, 2(9), 886-889. https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-9-886-889
5. Бавструк Н.Ф. Курс ткацких переплетений: учебник. - М.: Искусство, 1951.- 343 с
6. Лунд-Иверсен Б. Ткацкие переплетения. Пер. с норв.:- М.: Легпром-бытиздат, 1987.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1023-1027

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA BOSHLANǴICH SINF O`QITUVCHISINING KASBIY KOMPOTENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM O`RNI

Perdexan Alimbetovna Saliyeva
QRXTXQTMOHM "Maktabgacha, boshlanǵich va maxsus talim metodikasi" kafedrasi katta o`qituvchisi

ANNOTATSIYA

Jamiyat hayotida ta'limning o`rni kundan-kunga ortib bormoqda. Ma'lumki, ta'lim yosh avlodni hayotga tayyorlashning asosiy va eng samarali vositasidir. Shu bilan birga, u ishlab chiqarish, texnika, boshqaruv sohasida insoniyat tajribasini oqilona o`zlashtirish vositasi hamdir.

Kalit so'zlar: boshlanǵich sinf, ta'lim, kompotentlik, tarbiya, xalq ta'limi, malaka oshirish.

KIRISH

O`qituvchining kasbiy kompotentligini rivojlanganlik darajasi tizim xususiyatlarini hisobga olish hamda ta'lim jarayonining ilmiyligi, samaradorligiga bog`liq.

Ta'lim oluvchilar rivojlanishining yuqori darajasiga faqat rivojlantiruvchi ta'lim orqali erishish mumkin, bunda ta'lim oluvchilar bilimlarnigina o`zlashtirib qolmay, balki bilim olish usullarini ham o`zlashtiradi. Bilim olish usuli bu - sub'ektiv bilish vositalari bo`lib, ularsiz ta'lim oluvchilarning ijodiy faoliyati amalga oshmaydi. Rivojlantiruvchi tizimda bilimlar ta'lim oluvchilarning faol mustaqil bilish faoliyati jarayonida olinadi, o`qituvchining asosiy vazifasi, ta'lim oluvchilarga ularning bu bilimlarga bo`lgan ehtiyoji va faolliklariga bog`liq bo`lmagan holda tayyor bilimlarni uzatishdan iborat bo`lgan an'anaviy tizimdan farqli, ta'lim oluvchi faoliyatini boshqarishdan iborat bo`ladi.

Ta'lim-tarbiya sifatini oshirishning asosiy omili o`qituvchi va ta'lim oluvchining ta'lim jarayonidagi va tadqiqot ishlaridagi o`zaro munosabati, o`zaro aloqasidir. O`qituvchi faqat axborot uzatuvchi emas, balki tashkilotchi, rahbar, maslahatchi bo`lishi, ilmiy metodlar bilan qurollanib, ta'lim jarayoni qonuniyatlari va mexanizmlarini chuqur anglab, uni boshqarishi lozim.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1023-1027

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLGIYA

Rivojlantiruvchi ta’lim o`qituvchi va ta’lim oluvchi faoliyatlarining rivojlanish jarayoni. Shunga asosan, o`qituvchi va tinglovchilar faoliyati, umuman olganda, malaka oshirish tizimida o`quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy tashkil qilish muammosini hal qilishga, xususan, pedagogik jarayon sub’ektlari - o`qituvchi va tinglovchilarning mustaqil ijodiy faoliyati shakllanganlik darajasiga bog`liq bo`ladi. Bu tinglovchilarning muayyan muammolar bo`yicha individual izlanuvchan faoliyatini tashkil qilish, izlanish natijalarini referat, ma’ruza, metodik maqola, malaka ishi ko`rinishida taqdim etishida namoyon bo`ladi.

Uzluksiz malaka oshirishda boshlanǵich sinf o`qituvchilarida ijodiy faollikni shakllantirish omili o`quv jarayonini optimallashtirish va jadallashtirish, tinglovchilarning o`quv-bilish faoliyatlarini ilmiy tashkil qilish, ularning birgalikda olib boradigan ilmiy faoliyatini uyushtirish kabilarda namoyon bo`ladi. Zamonaviy sharoitlarda xalq ta’limi tizimida pedagoglarning intellektual salohiyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish, uni amalga oshirishning infratuzilmasini ishlab chiqish davr talabiga aylandi. Bugungi kunda dunyo miqyosida xalq ta’limi xodimlarini aqliy-intellektual jihatdan rivojlantirishning insonparvarlikka asoslangan ko‘p parametrli konsepsiyalari ilgari surilmoqda. Bu borada pedagogik-psixologik tadqiqotlardagi aksariyat yondashuvlar shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirishga, ya’ni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muammosiga qaratilganligidir. Binobarin, bu jarayon amaliyotda malaka oshirish tizimini yanada takomillashtirish, innovatsion jarayonlarni kengaytirish, ta’lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, sifat menejmentini joriy qilish, kasbiy ehtiyojlarga asoslanish, individual faoliyatni modellashtirish, loyihalashtirish, uzluksizlik, uzviylikni ta’minlovchi ko‘p komponentli yondashuvlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltiradi. Respublikamizda olib borilgan keng qamrovli islohotlar natijasida xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimining moddiy-texnik bazasi, huquqiy-me’yoriy, ilmiy-metodik ta’minoti mustahkamlandi, pedagoglar kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirish usullari joriy etilmoqda. Amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda pedagog-xodim imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish va malaka oshirish kurslarida ta’lim turlarini uyg‘unlashtirish orqali o‘quv modullaridagi amaliy mashg‘ulotlarni mukammallashtirish ehtiyoji tug‘ilmoqda. Jumladan, malaka oshirish ta’lim muassasalari amaliy faoliyati, o‘quv reja va dasturlarining tahlili hamda bir necha yillik kuzatishlar kurslarda asosiy e’tibor pedagog xodimning umumiy tayyorgarligini, kasbiy kompetentligini takomillashtirishga qaratilishini, ularning

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1023-1027

kasbiy xususiyatlari, individualizmi, mahorat darajasi va ehtiyojlari yetarlicha inobatga olinmayotganligini ko‘rsatdi. Shu nuqtai nazardan malaka oshirish tizimi oldida kechiktirmasdan hal etilishi lozim bo‘lgan muhim vazifalardan biri sifatida o‘quv jarayonida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishga alohida e’tibor qaratish, ularni loyihalashtirish va amaliy ishlanmalar, topshiriqlar hamda turli metodlarni qo‘llash natijasida quyidagilarga erishish nazarda tutiladi: - pedagogni sust ob’ektdan faol, mustaqil, intiluvchan, raqobatbardosh subyektga aylantirish; - pedagogning faol hayotiy, kasbiy pozitsiyasini shakllantirish, dunyoqarashini o‘zgartirish; - kompensiyaviy rivojlanish bosqichlarini shakllantirish orqali kompetentligini muntazam oshirishga yo‘naltirish.

NATIJALAR

Bu vazifalarga e’tiboran o‘qituvchilarning kasbiy bilim va mahoratlarini rivojlantirish hamda yangilashga undaydigan shaxs, davlat va jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim xizmatlari bozorining shakllanishiga mos yangi malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini yaratishga alohida e’tibor berilmoqda. Binobarin, shu o‘rinda xulosa qilish mumkinki, o‘qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ular malakasini oshirish tizimining samaradorliligi bu tizimni ehtiyojga asoslangan holda tashkil qilish yoki boshqacha qilib aytganda, malaka oshirish dasturlari ehtiyojidan kelib chiqib tuzilgan bo‘lishi kerakligi bilan belgilanadi. Malaka oshirish muassasalarida amaliy mashg‘ulotlarni takomillashtirish pedagog-xodimlarda motivlarining mustahkamlanishi, kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirishning qulay, samarali vositalarini tanlash hamda amalga oshirishga sharoit yaratadi. Shuningdek, pedagoglarning individual xususiyatlari, kasbiy qiyinchiliklari, qiziqishlari, ehtiyojlari, shaxsiy motivlari, tajribasi, malaka darajasi va ijtimoiy imkoniyatlarini inobatga olishga xizmat qiladi. Psixologlar katta yoshli ta’lim oluvchini o‘quvchi yoki talabadan farqlab turuvchi 5ta asosiy belgilarni ko‘rsatadilar [___, 36-b]:

Birinchidan, katta yoshli inson o‘zini mustaqil, o‘z-o‘zini boshqaradigan shaxs sifatida anglaydi va uni boshqarish harakatiga ko‘p hollarda tanqidiy munosabatda bo‘ladi.

Ikkinchidan, katta yoshli inson dunyoqarashni shakllantiradigan hayotiy, ijtimoiy, kasbiy tajribaning katta zaxirasini to‘playdi va kelayotgan har qanday axborotni shu tajriba nuqtai nazaridan baholaydi.

Uchinchidan, katta yoshli inson o‘qishga amaliy yondashadi, o‘qish yordamida

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1023-1027

hayotiy muammolarini hal etishga harakat qiladi.
To‘rtinchidan, o‘quvchi yoki talabadan farqli ravishda, u olgan bilimlarini shu zahoti qo‘llashga va o‘quv jarayonidan shu zahoti qoniqish hosil qilishga intiladi.
Beshinchidan, uning axborotni idrok etish jarayoni emotsional baholash bilan birga kechadi, bunda uning miyasi salbiy hissiyot uyg‘otadigan har qanday axborotni to‘xtatib qo‘yishga harakat qiladi.
Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishda, andragogika tamoyillariga asoslanish zarurdir, chunki bunday tamoyillar quyidagilarni o‘zida mujassamlashtiradi

1. Kattalar bilan o‘zaro birgalikda faoliyat ko‘rsatish madaniyatini shakllantiruvchi kasbiy bilimlar.

2. Butun hayot davomida ma’naviy-madaniy, kasbiy taraqqiyotni axborot va uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni ta’minlovchi bilimlar.
Insonning tobora o‘sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish o‘z shaxsini rivojlantirish muammosi ham juda dolzarbdir, kattalar ta’limi esa o‘z shaxsini takomillashtirish va o‘zligini namoyon qilishga yordam beradi. O‘z-o‘zini rivojlantirish – shaxsning o‘zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi hisoblanadi. Kasbiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishi – kasbiy tayyorgarlik, kasbni egallash va kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida shaxsni rivojlantirish, shaxsni kasbiy shakllantirish jarayoni individual ravishda o‘ziga xosdir, kasbiy faoliyat insonga o‘zini anglash, o‘zini o‘zi rivojlantirish imkoniyatlarini beradi, shaxsning kasbiy hayotining individual trayektoriyasi normativ va normativ bo‘lmagan hodisalar bilan belgilanadi, kasbiy rivojlanishning psixologik xususiyatlarini bilish insonga o‘z kasbiy biografiyasini ongli ravishda loyihalashtirish, qurish, o‘z tarixini yaratishga imkon beradi. Shunday qilib, mehnat bozorida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o‘zida kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi. Lug‘aviy jihatdan “qobiliyat”, mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish” ma’nosini anglatuvchi kompetentlik negizida ijtimoiy, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion hamda kommunikativ), shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik kabi sifatlar aks etadi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1023-1027

XULOSA

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, hozirgi kunda xalq ta’limi xodimlarining kasbiy ehtiyojlarini aniqlash va ularning malakasini oshirishga differensial yondashuv dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.Bunday muammolarni hal etish esa o‘z navbatida malaka oshirishning samarali tizimini yaratishni taqozo etadi. O`qituvchining kundalik ishida tadqiqot elementlari har doim bo`lgan va u kelajakda ortib boradi. Shu sababli ayniqsa, boshlanǵich sinf o`qituvchisining kasbiy-metodik faoliyati xususiyatlarini chuqur o`zlashtirishi, kasbiy o`z-o`zini anglashiga sharoit yaratish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirgan holda tadqiqot ko`nikmalarini rivojlantirish, kasbiy fikrlashga o`rgatish lozim. Bu esa har bir tinglovchini tadqiqot faoliyatiga jalb qilish bo`yicha yaxlit tizimni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Tinglovchilarning bilish mustaqilligi va ijodiy ko`nikmalarini rivojlantirishda mustaqil ish keng imkoniyatlarga ega. Didaktikada mustaqil ish ta’lim oluvchilarda bilish mustaqilligini rivojlantirishga imkon berishi, bilish mustaqilligi o`z navbatida mustaqil ta’lim olish poydevori ekanligi isbotlangan.

Xozirgi davrda oliy ma’lumotli mutaxassislardan mustaqil ta’lim olish faoliyatiga tayyorlik talab qilinmasdan, balki unga mos tajribaga ega bo`lish talab qilinadi. Buning uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlarida o`quv jarayonini tashkil etishda mustaqil ta’lim olish ustunligini ta’minlagan holda ta’lim va mustaqil ta’lim olish uyg`unligiga erishish mumkin. Xulosa shuki, pedagoglar auditoriyadan tashqari o‘z bilimlarini mustaqil ravishda oshirib, fanga doir zarur bilimlarni egallagan bo‘lshlari kerak. Mustaqil ta’lim orqali o‘qitish jarayonining samaradorligini ta’minlovchi pedagogik malakalar, siyosiy, gumanitar bilimlarni anglatuvchi kasbiy tafakkurni shakllantirish, pedagogik bilimlar tizimini egallash hamda mutaxassisligi bo‘yicha o‘qitish texnologiyalarini egallash muhim hisoblanadi.

REFERENCES

1. Jo‘rayev R., va boshqalar. Pedagog kadrlar malakasini uzluksiz oshirish mexanizmini takomillashtirish. O‘quv-metodik qo‘llanma. –T.: Adabiyot uchqunlari, 2014, –160 b.
2. Ibragimov A.A., Fayzullayeva G.Sh. Malaka oshirish kurslarida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazish.Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand.: SVXTXQTMOHM, 2020. –104 b.
3. N.Raxmanqulova. , va boshqalar.Xalq ta`limi xodimlarining malaka oshirish kurslaridan keyingi faoliyatlarini pedagogik qo`llab-quvvatlash. – T.: Lessonpress, 2018. –160 b

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1028-1033

ЛИНГВОСТИЛИСТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ЯЗЫКОВОГО СТИЛЯ АВТОРА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Мухаё Юсупбаева
Студентка Чирчикского государственного педагогического института Ташкентской области

Камилжан Муратов
Научный руководитель: преподаватель Чирчикского государственного педагогического института Ташкентской области

АННОТАЦИЯ

Несмотря на появление большого количества работ, посвященных исследованиям в области лингвостилистики, проблема языка и стиля художественной литературы еще не получила однозначного освещения. Разногласия касаются самого предмета лингвостилистики, принципов, методов и основных теоретических предпосылок науки о языке художественного произведения.

Ключевые слова: лингвостилистика, интерпретация, стиль писателя, стилистика автора, стилистика восприятия, текстовые категории, парадигма.

ABSTRACT

Despite the emergence of a large number ofpapers devoted to research in the field of linguistic stylistics, the problem of language and style offiction has not yet received a clear light. Disagreement is the very subject of linguistic stylistics, principles, methods and basic theoretical assumptions of the science of language of art.

Keywords: linguistic stylistics, interpretation, style writer's style, the style of perception, text search paradigm.

ВВЕДЕНИЕ

Проблема лингвостилистики и интерпретации художественного текста занимают в последние десятилетия особое место в филологической науке и привлекают к себе пристальное внимание и интерес языковедов. Как отмечает В. Виноградов, эти различия обусловлены «самой природой художественного

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1028-1033

стиля, которая гармонично сочетает в себе категории таких разных общественных явлений: язык, литературу, эстетику» [1,15].

Чрезвычайно существенным в этом отношении является разграничение собственно лингвистической и литературоведческой стилистики. Исследования многих лингвистов свидетельствуют о единстве лингвистической и литературоведческой стилистики в объекте исследования, а именно в ткани художественного произведения, хотя они и отличаются своими задачами и подходом к материалу, принципами и методами исследования. Ткань художественного произведения исследуется ими с разных точек зрения. Лингвистическая стилистика выходит из способов реализации идейно-тематического содержания к самому содержанию, литературоведческая стилистика - с идейно-тематического содержания произведения и на основе этого раскрывает художественно-изобразительные средства.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Лингвостилистика как наука о лингвостилистических особенностях художественного произведения по праву обязана своим рождением Л. Щербе, который не только очертил саму проблему, но и обозначил причины ее возникновения, обусловив пути решения, предложил блестящие образцы лингвопоэтических исследований. Его исследования лингвистического толкования стихотворений не потеряли своего теоретического и практического значения и сегодня. Он отмечал, что лингвистический анализ художественного произведения «должен показать те лингвистические средства, с помощью которых выражается идейное и связанное с ним эмоциональное содержание литературного произведения. В своих лингвостилистических исследованиях ученый дал образцы изучения всех языковых средств, функционирующих в словесной структуре художественной ткани произведения» [4,23].

Теоретические основы и практические принципы лингвостилистического анализа художественного текста изложены в трудах отечественных лингвистов Б. Ларина, В.В. Виноградова, Г. Винокура, Р. Будагова и других. Так, установка Б. Ларина на художественное целое при анализе конкретно-языкового материала стала основой филологической интерпретации эстетического факта не только для лингвистов, но и для литературоведов. Определяя общие признаки художественного языка, ученый ввел в исследовательский обиход

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1028-1033

«эстетическое значение слова» как проявление индивидуально-авторского взгляда на мир через смысловую призму. Он отмечал, что в лингвистическом анализе художественного произведения «надо изучать художественные заделки во взаимодействии всех компонентов: «звучности и семантических колоритов, композиции и смысловой идейной оси» [3,68].

Р. Будагов подчеркивает, что «стилистика - душа каждого развитого языка, должна занять важное место как в науке о языке, так и в науке о художественной литературе. Однако «лингвистика изучает все аспекты языка, в том числе и стилистические, тогда как к компетенции литературоведа входит рассмотрение только тех стилистических ресурсов языка, которые используются писателями для воплощения определенных художественных замыслов» [2,43]. Как видим, лингвисты отмечают, что в лингвистическом анализе художественного текста следует изучать лингвостилистические особенности художественного произведения в органической связи с идеей и художественным замыслом писателя. Именно это и составляет основной исходный принцип лингвостилистического анализа текста художественного произведения. В процессе проведения комплексного лингвостилистического анализа художественного произведения, как считает И.Ковалик, необходимо изучать всю систему лингвостилистических средств для создания художественных образов определенного литературного произведения. Итак, системно-структурный подход в изучении текста художественного произведения представляет собой второй основной лингвостилистический принцип в изучении языка художественного текста.

Еще один исследователь Н. Гоца в своих работах отмечает, что сегодня текст понимается как целостное коммуникативное образование, отличающееся структурно-семантическим, композиционно-стилистическим и функциональным единством и характеризуется определенным набором категориальных признаков (текстовых категорий): информативностью, завершенностью, линейностью, интегративностью, повторяемостью, что особым образом проявляются на надфразовом уровне. Хотя текст внешне представлен последовательностью линейно расположенных предложений, абзацев и других фрагментов, он является качественно новым образованием, не сводится к сумме составляющих его элементов. Так, текст выступает

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1028-1033

самостоятельным объектом лингвистического и лингвостилистического анализов.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Теоретические достижения современной лингвистики, лингвистики текста, лингвостилистики, единство объекта исследования (художественный текст), единство общеметодологической базы отечественных лингвостилистических исследований являются ведущими принципами материалистической диалектики. Диалектика категорий общего и отдельного обусловливает ориентацию лингвостилистических исследований художественного текста на текст как неразрывное единство формы и содержания.

Н. Купина подчеркивает, что «поскольку специфика языковой формы заключается в ее содержательности, лингвистический анализ, ориентированный на выявление сущности объекта, должен также быть содержательным».

Обоснование методики целостного лингвистического анализа художественного текста связано с осмыслением позиции языковой составляющей текста - единицы языка того или иного уровня, которая реализована в тексте. Н. Купина предлагает различать три статуса языковой составляющей текста:

I. Языковая составляющая, которая в изолированном виде обладает основными категориальными свойствами целого текста, имеет статус единицы текста.

2. Языковая составляющая, которая является членом внутритекстовой подсистемы (парадигмы), имеем статус компонента.

- introduce the situation and present the children with the task;
- practice some typical dialogues in a more controlled environment;
- do the role play;
- feedback from the teacher and children: how did the children do the task and how well did they complete it?

While doing role-play, the students have an opportunity to interpret their roles in the target language creatively. The teachers seldom interfere when the students make mistakes and this will decrease the anxiety of most shy students. Also since role-play is much like doing a mini-drama, the students know that they are not displaying their own personalities. Moreover, while doing role-play, the students who are better at acting than speaking can have a chance to participate. They can express themselves by both words and actions, which will allow them to engage in the class activity instead of sitting or standing still in a normal classroom.

During my lessons I have tried to let students act out several short plays adapted from children's favorite story books. Students love acting and playing, but lines normally take a lot of time and efforts for students to learn, practice and memorize. So, instead of asking students to perform an entire story, I tried to extract some situations and dialogs from teaching materials and have students act out some dramatic situations. Students played characters and said their lines aloud. It is much easier to teach vocabulary, lines, and the dramatic elements needed for a role play situation than to teach the elements of an entire play. In addition, by letting students practice in pairs or small groups, every student can be involved in the role-play exercises and enjoy the benefits of role-play.

CONCLUSION

In Conclusion we want to say that role playing activity is an essential part of the learning process, as it engages students in real-life situations or scenarios that can be “stressful, unfamiliar, complex, or controversial” which requires them to examine personal feelings toward others and their circumstances. Moreover, implementation of role playing activities in language teaching is pivotal, as:

- It enables students to learn and practice the target language in meaningful context;
- It improves students’ different skills needed for the language acquisition process;
- It motivates students to be interested and involved in learning;

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1052-1056

- It creates low-anxiety learning environments for students;
- It offers students a variety of experiences and improves their 4 language skills;
- It helps to improve students' cultural and nonverbal behavior.

REFERENCES

1. Ladousse, G. P. (1997) *Role play*. Oxford: Oxford University Press
2. Larsen-Freeman, D. (1996) *Techniques & Principles in language teaching*. Oxford University Press.
3. Van Ments, M. (1997) *The effective use of role-play: A handbook for teachers and trainers.* New York: Nichols Publishing
4. Yadikar Küçüker. (2004) *The effects of activities based on role-play on ninth grade students' achievement.* Thesis
5. Khamraeva, G.I., Kurbanova, N.R. (2021) *The effectiveness of implementing role playing activities in teaching foreign languages.* https://virtualconferences.press/wp-content/uploads/2021/05/TURKEY_17052021.pdf

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1057-1062

AVTOMOBILLARGA GAZ BALLONLARINI KEVLAR MATOSI BILAN XIMOYALASH ORQALI XAVFSIZLIKNI OSHIRISH

Sarvar O‘taganov
Jizzax politexnika instituti assistenti
sarvar.uta@inbox.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada avtomobil gaz ballonlari portlashining asosiy sabablari hamda avtomobillarga yetkazadigan zararlari va uni kamaytirishning yangicha usullari tahlil etilgan. Gaz ballaonlarni xavfsizlik texnikasi qoidalari asosida foydalanish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: avtomobil, gaz yonilg‘isi, gaz ballon, xavfsizlik, kompressor, gaz to‘ldirish shahobchasi, xavfsizlik texnikasi qoidalari.

ABSTRACT

This article analyzes the main causes of car gas cylinder explosions and the damage they cause to cars and new ways to reduce it. Recommendations for the use of gas cylinders in accordance with safety regulations.

Keywords: car, gas fuel, gas cylinder, safety, compressor, gas filling compressor station, safety rules.

KIRISH

Tabiiy gazda harakatlanayotgan avtomobillar xavfsizligini oshirish, ular bilan sodir bo‘layotgan mudhish hodisalarning oldini olish va zararlarini kamaytirish, siqilgan tabiiy gazda ishlaydigan avtomobillarning gaz uskunalarining muammoli vaziyatlarni hal qilish yuzasidan ko‘plab ishlar bajarilmoqda. Lekin tabiiy gaz yonilg‘isi bilan harakatlanuvchi transport vositalarining sonining oshishi bilan proporsional ravishda gaz ballonlarining portlashi bilan bog‘liq baxtsiz hodisalarning soni ham oshib bormoqda.

Avtomobillar uchun suyuq yoqilg‘ilardan tashqari gazsimon yonilg‘ilardan ham keng foydalanilmoqda. Gazsimon yonilg‘ilar odatda suyultirilgan va siqilgan holatda ishlatiladi hamda uni qayta ishlash neftni qayta ishlashdan arzonligi va yonganda chiqindi gazlar zaxarliligi darajasi kamligi bilan ajralib turadi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1057-1062

Avtomobil transporti uchun neft asosidagi yonilg‘i ishlab chiqarish bilan bir qatorda gazsimon yonilg‘ilarni qayta ishlash va shu bilan birgalikda qishloq-xo‘jalik chiqindilaridan olinadigan alternativ yonilg‘ilarni qayta ishlash o‘sib bormoqda. Gazsimon yonilg‘ilardan foydalanish uchun transport vositalari qayta jihozlanmoqda va gaz quyish, gaz to‘ldirish kompressor shahobchalari qurilishi, ulardan foydalanish yuzasidan bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda tannarxi jihatidan arzon bo‘lgan tabiiy gazlardan avtomobillarning yonilg‘isi sifatida foydalanish keng yo‘lga qo‘yilgan. respublikamizda tabiiy gazning ko‘plab zahiralari bor va bu zahiralarda yuqori sifatli tabiiy gazlar bo‘lib ulardan avtomobil dvigatellari uchun yonilg‘i sifatida foydalanishda ortiqcha gazni qayta ishlash yoki kimyoviy usullarda ishlov berish texnologiyalari qo‘llanilmasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yonilg‘i sifatida foydalanish mumkin.

Avtomobil gaz ballonlari portlashi bilan bog‘liq hodisalar asosan avtomobillarni gaz bilan to‘ldirish kompressor shahobchalarida gaz ballonlarini to‘ldirishda, gaz balloni uskunalarining birikkan joylari zichligi va ishonchliligini davriy sinovdan o‘tkazishda, shuningdek, jismonan va ma’nan eskirgan gaz ballonlaridan foydalanish oqibatida belgilangan talab va tartiblarni buzish holatlari natijasida sodir bo‘lmoqda. Portlayotgan gaz ballonlarining qariyb 90%i aynan avtomobillarga gaz to‘ldirish shahobchalarida gaz to‘ldirish va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilmaslik natijasida sodir bo‘lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kevlar matosi mustahkam va olovga bardoshli, issiqlikka chidamliligi bilan o‘q o‘tkazmaydigan maxsus harbiy zirxli avtomobillarda avtomobil shinalarida o‘q o‘tkazmaydigan jiletlarda askarlarning dubulg‘alarida (1-rasm) suv osti kabellarida qo‘llaniladi.

Yuqori texnologiyali materiallar orasida kevlar matosi borligini va u xavfli kasblarda odamlarni himoya qilish vositalari sifatida qollanilib kelmoqda. Kevlar materiallari boshqa ko‘plab sintetik tolalar singari noyob polimer maxsulotidir. Bunday tolaning kiristal tuzilishi kesishmasida benzol xalqasi yotadi (2-rasm), bu esa strukturaga juda yuqori kuch beradi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1057-1062

1-rasm kevlarning askarlar dubulg‘a va maxsus kiyimlarida qo‘llanilishi.



2-rasm Kevlar materiallari kiristal tuzilishi

Buning natijasi esa polatdan bir necha barobar yuqoriligini ta’minlaydi. Kevlar matosi 1000 tagacha tolalar iplaridan ishlab chiqariladi va turli soxalarda ishlatilib shu bilan farq qiladiki mustaxkamlik darajasi yuqori bo‘lgan kevlar ipidan to‘qilgan mato yordamida turli hil hajmdagi gaz ballonlarini mustaxkam qilib qoplash evaziga ushbu yuqori bosimli ballonlarda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan noxush xolatlarning oldini olib hamda zarba kuchini pasaytirishga erishiladi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1057-1062

Kevlar matosi ingichka va yengil - ipning uzunligiga qarab bir metr og‘irligi 3 dan 6 grammgacha. Yuqori valentlik va valentlik kuchiga ega, past zichlik (30-60 g kvadrat metr); 200 darajagacha past haroratlarda mustaxkamlik darajasi oshishi; yuqori elastiklikka; past elektr o‘tkazuvchanligi; yonish va eritishga qarshiligi, korroziyaga bardoshli, yuqori haroratga bardoshli. U yonmaydi, parchalanmaydi va mog‘orlanmaydi. Ishlash harorati oralig‘i -190°C dan +250°C gacha. Ularning kuchi haroratning oshishi bilan pasayadi va +450°C daraja haroratda parchalanish jarayoni sodir bo‘ladi. Kevlar o‘z kuchini va elastikligini past haroratlarda, kriyogen (-196°C) gacha saqlaydi, shuningdek, past haroratlarda u biroz kuchliroq bo‘ladi. Kevlar erimaydi, lekin nisbatan yuqori haroratda (430-480°S) parchalanadi. Parchalanish harorati isitish tezligiga va harorat ta'sir qilish davomiyligiga bog‘liq. Yuqori haroratlarda (150° C dan yuqori) vaqt o‘tishi bilan Kevlar kuchi pasayadi. Masalan, +160° C da 500 soatdan keyin tortishish kuchi 10-20% ga kamayadi. +250° C haroratda Kevlar 70 soat davomida 50% quvvatini yo‘qotadi.

Kevlarning turli xildagi markalari har xil soxalarda qo‘llaniladi masalan:

K29: Bu xilma-xillik eng keng tarqalgan. Kevlar kiyimlari favqulodda vaziyatlar xizmati, harbiy xizmatchilar uchun maxsus kiyimlar. Alohida himoya elementlari, masalan, taktik qo‘lqoplar, tizzalar, tirsak qismlari va boshqalar. Sport uchun kiyimlar, masalan, snoubord yoki motorli sport turlari (mototsikllar, dubulg‘alar va boshqalar), ya'ni shikastlanish xavfi bilan bog‘liq bo‘lgan sport turlari. Ortopedik protezlarni ishlab chiqarish uchun. Sport anjomlari (eshkaklar, velosiped shinalari va boshqalar).Simli musiqa asboblarida torlarni yig‘ish uchun ishlatiladi.

K49: Ushbu yuqori modulli tolalar optik tolali mahsulotlarda, kemasozlikda, aviatsiyada ishlatiladi va kompozitlarni mustahkamlash uchun mo‘ljallangan

K2100: Bu xilma-xillik rangli ipdir. Bunday iplar shikastlanishdan himoya qilish uchun kabellar va arqonlarga o‘rash uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, ushbu xilma himoya va sport kiyimlarini tikishda ham qo‘llaniladi.

K119: Asosan rezina mahsulotlarini mustahkamlash uchun ishlatiladi.

KM2 va KM2 Q :Ushbu turlar huquqni muhofaza qilish va harbiy tuzilmalar xodimlari uchun himoya kostyumlarini ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Kevlar o‘q o‘tkazmaydigan jeletlar, dubulg‘alar - bularning barchasi materialning yomg‘irda kuchini yo‘qotmasligi uchun suv o‘tkazmaydigan mato bilan qoplangan.

NATIJALAR

Mustahkamlik darajasi po‘latdan besh marta yuqori bo‘lgan kevlar ipidan

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1057-1062

to‘qilgan g‘ilof yordamida tibbiyot sohasidagi hamda avtomobillardagi yuqori bosimli gaz ballonlarini mustahkam qilib qoplash evaziga ushbu yuqori bosimli ballonlarda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan noxush xolatlarning oldini olish hamda zarba kuchini pasaytirish mumkin. Avtomobillarda qo‘llanilgan gaz ballonlarni Kevlar material qoplamalar bilan qoplash va portlash natijasida yetkazadigan zarba va zarar miqdorini kamaytirish mumkin. Tibbiyot soxasida hamda avtomobillardagi gaz ballonlarini kevlar ipidan foydalanib g‘ilof to‘qiladi va ushbu g‘ilof turli hajmdagi gaz ballonlarga qoplanadi (4-rasm) natijada xavfsizligi oshiriladi ular yetkazishi mumkin bo’lgan talofatlarni kamaytirishga erishiladi.



3-rasm Avtomobillarda qo‘llaniladigan gaz ballonlarni kevlar bilan qoplangan xolatdagi tasviri

gaz ballon -1, shtutser -2, kevlar g‘ilofi-3, kevlar arqonli g‘ilof bo‘g‘zi – 4.

Ushbu xolatda avtomobil gaz balloni portlagan xolatda ushbu moslama zarba kuchini uch barobardan yetti barobargacha kamaytiradi. Bu esa insonlar va avtomobilga yetkaziladigan moddiy zararlarni yetarli darajada kamaytirish uchun imkonyat yaratadi. Xozirgi kunda tibbiyot soxasidagi kislorod ballonlarning ko‘p miqdorda qo‘llanilishi tibbiyot ballonlarini ham xavfliligini ko‘rsatib berdi. Endigi kunda ushbu ballonlarning ham xavfsizligi yuqori o‘rinlarga chiqib kelmoqda. Ushbbu qoplamani tibbiyot ballonlarga qo‘llanilishi ushbu soxadagi xavflarni ham kamaytirishga erishishishimiz mumkin ekanligini ko‘rsatib o‘tagi Ushbu kislorod ballonlari faqatgina tibbiyot soxasida emas avtomobillarda xizmat ko‘rsatish soxasida

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1057-1062

ham qo‘llaniladi(5-rasm). Buni aynan payvantlash uskunalarida ko‘rishimiz mumkin.



5–rasm, Tibiyyot soxasida qo‘llaniladigan kislorod ballaonlarning kevlar bilan qoplangandagi tasviri.
1- gaz ballon, 2- shtutser, 3- kevlar g‘ilofi, 4-kevlar arqonli g‘ilof bo‘g‘zi, 5-ballonning asosi.

XULOSA

Ushbu ishlab chiqilgan g‘ilofimiz mustaxkamlik darajasi po‘latdan besh marta yuqori bo‘lgan kevlar ipidan to‘qilgan g‘ilof yordamida turli hil hajmdagi gaz ballonlarini mustaxkam qilib qoplash evaziga ushbu yuqori bosimli ballonlarda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan noxush xolatlarning oldini olib hamda zarba kuchini pasaytirishda qo‘llaniladi.

REFERENCES

1. Газобаллонные автомобили: Справочник/А.И.Морев,
2. Газобалонный Тракторы и//Н.Е.Основенко, Ю.В.Сиянко, А.Е.Попов, А.Е.Глеза/трактор. сельскохозяйственные машины, 1992, № 10-11. С.25-27
3. Газовый двигатель с искровым зажиганием. / Багдасаров И.Г., Савельев Г.С., Бакиров Ю.А., Брагин А.В. // Газовая промышленность. - 1999. - №10 - с. 32,56.
4. Otaganov, S. Q. O. (2021). AVTOMOBILLARGA GAZ TO‘LDIRISH KOMPRESSOR SHAXOBCHALARIDA XAVFSIZLIK TALABLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Academic research in educational sciences*, *2*(1).

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1063-1071

ПОЛИВИНИЛХЛОРИД ПЛАСТИКАТИ ҲАМДА ЧИҚИНДИЛАР АСОСИДА ОЛИНГАН АНИОНИТГА Mn (VII) ИОНИНИНГ СОРБЦИЯ ИЗОТЕРМАСИ

Н. М. Қутлимуратов
Г.О. Матчанова
Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти

М. Н. Пўлатова
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети

АННОТАЦИЯ

Мақолада янги синтез қилинган поливинилхлорид (ПВХ) ва чиқиндилар асосида олинган, кучсиз асос хоссасини намоён қилувчи ионитга турли концентрацияли сунъий эритмалардан Mn (VII) ионларининг сорбцияси 293К, ҳароратда изотермаси ўрганиш натижалари келтирилган. Жараёнларнинг мувозанат холатидаги адсорбция механизмини ифодалаш учун Ленгмюр, Флори-Хаггинс, Фрейндлих, Темкин ва Дубинин-Радушкевич изотерма моделларидан фойдаланилди. Олинган натижалар асосида ҳисоблаб топилган Ленгмюр изотерма модели бўйича q_{max}= 125 (293К) мг/г, Флори-Хаггинс изотерма модели бўйича ΔG_{ads}=-22,07 кЖ/моль, Фрейндлих изотерма модели бўйича n= 1,9, Темкин изотерма модели бўйича B_T =96 Ж/моль, Дубинин-Радушкевич изотерма модели бўйича B_D=6,29•10^{-3} кЖ/моль•К ва E_a= 8,91 кЖ эканлиги келиб чиқди. Бу эса поливинилхлорид ҳамда чиқиндилар асосида таркибида азот сақлаган янги ионитга Mn(VII) ионларини юқори даражада сорбциялашини кўрсатади.

Калит сўзлар: поливинилхлорид (ПВХ), ионит, марганец (Mn(VII)) ионлари ва изотерма моделлари.

ABSTRACT

The article presents the results of the study of the isotherm of sorption of Mn (VII) ions from artificial solutions of different concentrations to ionite obtained on the basis of polyvinyl chloride (PVC) and waste, showing weak base properties at temperatures of 293K. Langmuir, Flori-Haggins, Freundlich, Temkin and Dubinin-Radushkevich isothermal models were used to represent the mechanism of adsorption

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1063-1071

of processes in equilibrium. Based on the results obtained, Q_{max}=125(293K) mg/g for the Langmuir isotherm model, ΔG_{ads}=-22.07 kJ/mol for the Flori-Haggins isotherm model, n = 1.9 for the Freundlich isotherm model, Temkin isotherm according to the model B_T =116J/mol, according to the Dubinin-Radushkevich isothermal model B_D=6.29•10^{-3} kJ/mol•K and E_a = 8.91 kJ. This indicates a high sorption of Mn(VII) ions to a new ionite containing nitrogen on the basis of polyvinyl chloride and waste.

Keywords: polyvinyl chloride (PVC), ionite, manganese (Mn (VII)) ions and isothermal models.

КИРИШ

Жаҳонда синтетик полимерлар асосида ионитлар синтез қилиш усулларини аниқлаш, ишлаб чиқариш технологияларини жорий этиш, уларнинг физик-кимёвий хоссаларини ўрганиш, хусусий тавсифлари, техник шартлари ва талабларини ишлаб чиқиш бўйича илмий изланишлар олиб борилмоқда. Бу борада, жумладан, нефт-газ, табиий углеводородлар ва иккиламчи саноат маҳсулотларидан фойдаланиб ионалмашинувчи материаллар олиш, уларнинг физик-кимёвий параметрлари, тозалиги, таркиби ва тузилишини замонавий усулларда аниқлаш, физик, механик, энергетик ва квант-кимёвий хоссаларини таҳлил қилиш ва саноатда кенг масштабда ишлаб чиқариш усулларини такомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Мамлакатимизда тармоқларини ривожлантириш учун замон талабларига мос, экологик тоза, иқтисодий самарали, рақобатбардош, импорт ўрнини босадиган маҳсулотлар чиқарадиган корхоналар яратилмоқда. Бундай корхоналардан «Шўртан-Газ-Кимё», «Устюрт-Газ-Кимё» мажмуаларидан бир неча турдаги полимерлар катта миқдорда ишлаб чиқарилмоқда. Республикамизда маҳаллий хомашёлар асосида ишлаб чиқариладиган полимер материалларининг ишлатилиш соҳаларини кенгайтириш, ион алмашинувчи материаллар олинишининг мақбул шароитларини аниқлаш ва уларнинг жорий этиш бўйича бир қатор илмий тадқиқот ишлари олиб борилиб, муайян натижаларга эришилмоқда. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси[1]да «маҳаллий хомашёларни чуқур қайта ишлашни ва улар асосида янги импорт ўрнини босувчи махсулотлар ишлаб чиқаришни кўзда тутувчи саноатни янги сифат жиҳатдан юқорига кўтариш» га

[1]2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича харакатлар стратегияси/Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1063-1071

йўналтирилган муҳим вазифалар белгилаб берилган. Бундан ташқари чиқинди сувлар таркибидаги турли захарли таъсирга эга ионларнинг концентрациясини экологик меъёрларгача камайтириш ҳам долзарб саналади. Энг асосий омиллардан бири сув таркибида, инсон саломатлигига таъсир кўрсатиб сияноз, юрак-қон томир касалликлари, квадриплегия, нерв системаси касалликлари, ҳазм қилиш системаси ва тўқима некрозларини келтириб чиқарувчи, организмда парчаланмайдиган ионлар жуда ҳам кўп. Бу муаммоларни бартараф қилиш бугунги кунда долзарб саналади[1]. Бу борада маҳаллий хом ашёлар асосида истиқболли сорбентларни яратишнинг инновацион ва иқтисодий жиҳатидан самарадор йўлларидан бири бу саноатда ишлаб чиқариладиган кўп тоннажли полимерларни кимёвий ўзгартириш жараёнини аниқлаш, ионитлар олишнинг мақбул шароитларини топиш, олинган ионитларнинг айрим металл ионларига нисбатан селективлигини аниқлаш ва физик-кимёвий хоссаларини тадқиқ қилиш муҳим ахамият касб этади. Сўнги йилларда сувни тозалашнинг турли хил технологик усуллар қўлланиб келинмоқда, жумладан кимёвий ишлов бериш, физик, биологик ва бошқа усуллар. Ушбу усуллардан ионитлар иштирокида адсорбциялаш усули кенг қўлланилади. Бу усулнинг ишлаш жараёни оддийлиги, экологик ва иқтисодий самарали, қайта ишлаш имконини бериши билан бошқа усуллардан устун туради. Республикамиз саноат корхоналаридан чиқадиган техноген ва оқава сувларни тозалаб қайта ишлатиш учун ишлатиладиган сорбентлар чет элдан импорт қилинади. Шунинг учун маҳаллий хомашёлар асосида ионитлар олиш, олинган ионитнинг физик-кимёвий хоссаларини ўрганиш орқали оқова сувларни тозалашга қўллаш долзарб ва катта амалий аҳамиятга эга. Жахон миқёсида олимлар томонидан янги ионитларнинг сорбцион хоссалари баҳолашда кинетик ва термодинамик тахлиллардан кенг фойдаланилади.

Хусусан, ушбу иш юқорида келирилган долзарб муаммони маълум даражада ҳал қилишга қаратилган бўлиб, махаллий хомашёлар ва чиқиндилардан асосида олинган ионитга Mn(VII) ионлариниг сунъий эритмаларида сорбция жараёнининг сорбцион хоссаларини ўрганишда Ленгмюр, Фрейндлих, Темкин, Дубинин-Радушкевич ва Флори-Хаггинс изотерма моделларидан фойдаланилди[2].

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1063-1071

МАТЕРИАЛЛАР ВА МЕТОДЛАР

Ишда ПВХ ва чиқиндилар асосида олинган янги ионалмашиниш хусусиятига эга бўлган таркибида азот сақлаган статик алмашув сиғими HCl бўйича 3,8 мг•экв/г бўлган ионитдан 5 г/л миқдорди Mn(VII) ионлари сақлаган ҳар хил (аниқ консентрацияли) сунъий эритмаларидан 100 мл олиб, 293К, 303К ва 313К ҳароратларда, мувозанатга келгунча сорбция жараёнининг сорбцион хоссалари ўрганилди. Сорбция жараёнидан олдинги ва кейин эритмадаги Mn(VII) ионининг концентрациясини ўзгариши Спектрофотометр (EMC-30PC-UV Spectrophotometr) прибори ёрдамида оптик зичлигининг ўзгаришига қараб, ҳисоблаб топилди.

Ҳисоб китоблар

Спектрофотометрда Mn(VII) ионларининг турли хил концентрацияларининг ўзгариши оптик зичлик орқали қуйидаги (1) тенглама асосида ҳисобланади:

$$A = C \bullet \varepsilon \bullet l \qquad (1)$$

Оптик зичлик концентрация функцияси A=f(C), эканлигидан қуйдагича (2) тенглама орқали ҳисоблаш мумкин[3]:

$$\mathrm{C_{кейинги}} = \frac{C_{\text{дастлабки}} \bullet \mathrm{A_{кейинги}}}{\mathrm{A_{дастлабки}}} \qquad (2)$$

Сорбция миқдори қуйидаги(3) формула орқали ҳисобланди[4]:

$$q_e = \frac{(C_0 - C_e)}{m} \times V \qquad (3)$$

Бунда: q_e-ионитга ютилган иони миқдори мг/г, C_0- ионнинг дастлабки концентрация мг/л, C_e-ионнинг мувозанат концентрацияси мг/л; V –эритма ҳажми (л); m- қуруқ сорбент массаси(г).

Ленгмюр изотермаси моделида асосий Ленгмюр формуласи қуйидаги(4) тенглама билан ифодаланади[4].

$$q_e = q_{\max} \frac{K_L C_e}{1 + K_L C_e} \qquad (4)$$

Бу ерда: q_{max} – маълум массали сорбентга ютилган металнинг максимал миқдори (мг/г).

q_{max} ва $К_L$ қийматларидан ажратиш коефициенти (R_L)ни ҳисоблаш мумкин. Мувозанат параметри R_L ёрдамида сорбат ва сорбент ўртасидаги яқинликни тахмин қилиш ҳамда жараённинг бориши ҳақида билиш мумкин

$$R_L = \frac{1}{1 + К_L \cdot C_0} \qquad (5)$$

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1063-1071

Бунга (4) кўра 0< R_L <1 адсорбция жараёни қулай, R_L >1 ноқулай, R_L = 1 адсорбция изотермаси чизиқли кўринишда деб хисобланади ва R_L = 0 эса адсорбцияни қайтмас бўлишини ифодалайди.

Фрейндлих изотерма модели асосий формула қуйидаги (6) тенглама билан ифодаланади:

$$q_e = K_F {C_e}^{1/n} \qquad (6)$$

Фрейндлих тенгламаси ёрдамида турли (идеал бўлмаган) эритмаларда борадиган сорбция жараёнларини ўрганиш мумкин. Ушбу моделнинг чизиқли тенгламасини қуйидаги(7) кўринишда ифодалаш мумкин[5].

$$\log q_e = \log K_F + \left(\frac{1}{n}\right) \log C_e \qquad (7)$$

Темкин изотерма моделининг чизиқли тенгламасини (8) қуйидагича ифодаланади[6]:

$$q_e = \frac{RT}{b_T} \bullet lnK_T + \frac{RT}{b_T} \bullet lnC_e \qquad (8)$$

Дубинин-Радушкевич изотерма моделининг чизиқли тенгламасини (9) қуйидагича ифодланади[7]:

$$ln\ q_e = ln\ Q_D - 2B_D \bullet RT \bullet ln\left(\frac{1}{C_e} + 1\right) \qquad (9)$$

$$E = 1/\sqrt{2B_D} \qquad (10)$$

Флори-Хаггинс изотерма моделининг умумлашган ва чизиқли тенгламалари (11-13) қуйидагича[9]:

$$C_0 = \frac{\theta}{K_{FH} \bullet (1-\theta)^n} \qquad (11) \qquad log\frac{\theta}{C_o} = \log K_{FH} + n \bullet \log(1-\theta) \qquad (12)$$

ΔG_{ads} - Адсорбцияланиш жараёнининг эркин энергияси. Ушбу тенглама адсорбция жараёнининг эркин энергиясини ҳисоблашга (13) замин яратади[4-11].

$$\Delta G = -RTln_{KF} \qquad (13)$$

ОЛИНГАН НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА

Поливинилхлорид (ПВХ) ва чиқиндилар асосида олинган, кучсиз асос хоссасини намоён қилувчи ионитга турли концентрацияли сунъий эритмалардаги Mn (VII) ионларининг сорбцияси 293К ҳароратда адсорбция жараёнининг мувозанат ҳолатидаги изотерма жараёнларини ўрганиш натижалари қуйидагича бўлди:

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1063-1071

Барча изотерма моделларининг графиклари



Ленгмюр изотерма модели



Фрейндлих изотерма модели



Темкин изотерма модели



Дубинин-Радушкевич изотерма



Флори-Хаггинс изотерма модели

Юқоридаги изотерма моделлар асосида тузилган графикларидан қуйидаги натижалар олинди:

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1063-1071

Mn (VII) ионининг ютилиш изотермаси			
№	Изотерма параметрлар	Қийматлар	Бирликлар
Ленгмюр изотерма модели			
1.	q_{max}	125	мг/г
2.	K_L	0,862	
3.	R_L	0,03<	Қулай
4.	R^2	0,9999	
Флори-Хаггинс изотерма модели			
5.	N	2,8057	
6.	K_{FH}	7352	
7.	ΔG_{ads}	-22,057	кЖ/моль
8.	R^2	0,97	
Фрейндлих изотерма модели			
9.	1/n	0,5247	
10.	n	1,9	
11.	K_F	3,87	Л/г
12.	R^2	0,943	
Темкин изотерма модели			
13.	K_T	0,191	Л/г
14.	B_T	96,81	Ж/моль
15.	R^2	0,995	
Дубинин-Радушкевич изотерма модели			
16.	Q_D	165,4	моль/г
17.	B_D	0,00629	кЖ/моль•К
18.	E	**8,91**	кЖ
19.	R^2	0,944	

ХУЛОСА

ПВХ ва чиқиндилар асосида олинган, кучсиз асос хоссасини намоён қилувчи ионитга турли консентрациядаги сунъий эритмалардан **Mn (VII)** ионларининг сорбция қонуниятлари ўрганилган. Сорбция жараёнининг мувозанати асосида адсорбция механизмини ўрганиш учун қўлланилган турли хил замонавий изотерма моделлари Ленгмюр, Флори-Хаггинс, Фрейндлих, Темкин ва Дубинин-Радушкевич моделларига мос келди R^2(0,944–0,999).

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1063-1071

Ленгмюр изотерма модели бўйича Q_{max}= 125 мг/г, R_L қийматининг барча ўрганилган консентрацияларида 0,03-0,127 эга эканлиги сорбция жараёни қулай бўлганлигидан далолат беради. Флори-Хаггинс изотерма модели бўйича ΔG_{ads}=-22,07 кЖ/моль, Фрейндлих изотерма модели бўйича n= 1,9 собрция қулай бўлган, Темкин изотерма модели бўйича B_T =96 Ж/моль, Дубинин-Радушкевич изотерма модели бўйича B_D=6,29•10^{-3} кЖ/моль•К ва E_a= 8,91 кЖ эканлиги келиб чикди.

REFERENCES

1. Davron, B., Mukhtar, M., Nurbek, K., Suyun, X., Murod, J., 2020. Synthesis of a New Granulated Polyampholyte and its Sorption Properties. International Journal of Technology. Volume 11(4), pp. 794-803.
2. Мухамедиев М.Г., Бекчанов Д.Ж. Новый анионит на основе поливинилхлорида и его применение в промышленной водоподготовке. Журнал прикладной химии. 2019. Т. 92. Вып. 11. Ст. 1401-1407.
3. А.В.Лысенко «Фотометрические методы анализа» Курск-2016
4. Qutlimuratov N.M., Tursunmuratov O.X., Bekchanov D.J. 2020-yil, 5-son Polivinilxlorid Plastikati Asosidagi Anionitning Fizik-Kimyoviy Xossalari. ILMIY AXBOROTNOMA/ SAMARQAND .
5. Кутлимуратов Н.М., Бекчанов Д.Ж., Мухамедиев М.Г. Изотерма и кинетика сорбции ионов Cu (II) анионитами, на основе поливинилхлорида пластиката и отходов аминов используемых в газоочистке//Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2021. 8(86).
URL:https://7universum.com/ru/nature/archive/item/12160
6. Keno David Kowanga and etc. Kinetic, sorption isotherms, psedo-first-order model and pseudo-second-order model stuies of Cu (II) and Pb(II) using defatted Moringa oleifera seed powder. The Journal of Phytopharmacology 2016;5(2):71-78.
7. Rahman M.S and Islam M.R. Effects of pH on isotherms modeling for Cu (II) ions adsorption using maple wood sawdust. Journal of Chemical Engineering, 2009;149: 273–280.
8. K. M. Elsherif and etc. Adsorption of Co(II) ions from aqueous solution onto tea and coffee powder: equilibrium and kinetic studies. Journal of Fundamental and Applied Sciences 2019, 1 1(1), 65-81.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1063-1071

9. K.Y. Foo and B.H. Hameed. Insights into the modeling of adsorption isotherm systems/ Chemical Engineering Journal156 (2010) 2–10 (journal homepage:www.elsevier.com/locate/cej).
10. Dada, A.O and etc. Langmuir, Freundlich, Temkin and Dubinin–Radushkevich, Isotherms Studies of Equilibrium Sorption of Zn^{2+} Unto Phosphoric Acid Modified Rice Husk/ IOSR Journal of Applied Chemistry (IOSR-JAC) ISSN: 2278-5736. Volume 3, Issue 1(Nov. – Dec. 2012), PP 38-45 www.iosrjournals.org.
11. Ali Kara and Emel Demirbel Kinetic, Isotherm and Thermodynamic Analysis on Adsorption of Cr(VI) Ions from Aqueous Solutions by Synthesis and Characterization of Magnetic-Poly (divinylbenzene-vinylimidazole) Microbeads, Water Air Soil Pollut (2012) 223:2387–2403.
12. T. Ravi and etc. Preparation and characterization of higher degree-acetylated chitosan-coated magnetic adsorbent for the removal of chromium (VI) from its aqueous mixture, J. APPL. POLYM. SCI.2017, APP.45878(1-16).

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1072-1084

ЎҚУВЧИЛАРДА ВАТАНПАРВАРЛИК ТУЙҒУСИНИ ТАРБИЯЛАШ ОРҚАЛИ ДАСТЛАБКИ ҲАРБИЙ ОФИЦЕРЛИК КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Маъруф Эшдовлат ўғли Салимов
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети мустақил тадқиқотчиси.
smarufe1995@gmail.com

АННОТАТЦИЯ

Ушбу мақолада ўқувчиларда ватанпарварлик туйғусини тарбиялаш орқали дастлабки ҳарбий офицерлик касбий компетентликни такомиллаштиришдаги муаммолар, таълим тизимида ёшларни ҳарбий ватанпарвалик туйғусини тарбиялаш орқали дастлабки компетентликни ривожлантириш учун амалга оширилиши керак бўлган ишлар ва зарур чора тадбирлар ҳамда ёшларда касб танлашдаги кўникмаларни шакилланиш омиллари, уларда ҳарбий касбга бўлган кўникмларни шакиллантиришнинг айрим масалалари илмий таҳлил этилган.

Калит сўзлар: ҳарбий касб компетентлиги, “Ҳарбий ватанпарварлик консепсияси”, Ҳаракатлар стратегиясининг устувор йўналиши, Мудофаа Доктринаси, расмий компетентлик, Қуролли Кучлар тизими, ватанпарварлик, таълим ва армия уйғунлиги, Миллий ғоя ва мафкура руҳияти.

ABSTRACT

In this article, the problems of improving the Initial Military Office Professional Competence by yeducating the students the feeling of patriotism, the work that must be done to develop the initial competence by yeducating young people in the yeducational system the feeling of military patriotism, and the necessary measures, as well as the factors of formation of skills in the selection of professions

Keywords: military profession competency, "Military patriotism consortium”, Priority direction of the strategy of action, Defense Doctrine, official competency, Armed Forces system, patriotism, combination of yeducation and army, The spirit of national idea and ideology.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1072-1084

КИРИШ

Жаҳонда ҳарбий таълим соҳасига замонавий билим, илғор хорижий тажрибалар, ахборот коммуникация технологияларини кенг жорий этиш асосида таълим муассасаларида ўқувчиларни дастлаб ҳарбийликка тайёрлаш борасида уларда касбий компетентликни ривожлантиришга алоҳида еътибор қаратилмоқда. Халқаро миқёсда мактаб ўқувчиларининг компетентлик даражасини ривожлантириш ва баҳолаш стратегик аҳамият касб этиб, ҳарбий таълим тизимини модернизациялаш, ижтимоий муҳит талабларига интеграциялаш, компетенсияларга асосланган давлат таълим стандартларини жорий этиш таълим муассасаларида таълим жараёнини самарадорлигини оширишга хизмат қилувчи илғор иновацион механизимларини ишлаб чиқишни тақазо этмоқда.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Бугунги кунда Кадрлар тайёрлаш миллий дастури ёш авлодга узлуксиз таълим бериш ва уни тарбиялаш жараёнини яхлит қамраб оладиган ягона таълим мажмуи ҳисобланади. Бунда таълим тизимининг ҳар бир бўғини алоҳида ўрин ва масъулиятга эгадир. Дастурни тўлиқ амалга ошириш, қўйилган вазифаларга эришиш ана шу бўғинларнинг ҳолати ва ривожланиш даражасига, уларнинг ўзаро уйғунлигига боғликдир.

Таълим муассасаларида офицерликка тайёрлаш касбий компетентлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш ҳарбий таълим тизимини модеринизациялаш энг илғор инновацион ёндашувларга асосланган давлат таълим стандартларини жорий этиш ўқув жараёнига замонавий педагогик технологияларини тадбиқ этиш ва ахборот-коммуникация технологияларинг имкониятларидан кенг кўламда фойдаланишни янги сифат даражасига кўтаришни талаб этмоқда.

Мактабларда, ўрта таълимда, таълим сифатини янада ривожлантириш, ёшларда ҳарбийликка бўлган қизиқиш ва ишонч руҳиятини, жисмоний маданият, касбий тайёргарлик, касбга йўналтириш масалалари бугунги кунда долзарб аҳамиятга эга бўлиб бормоқда.

Бугунги кунда, ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ҳамда Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари тизимидаги маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қабул қилинган консепсияларни амалга ошириш доирасида ҳар томонлама ривожланган, билимдон, халқига,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1072-1084

шунингдек, Ватанга хизмат қилиш ишига содиқ ёшларни тарбиялаш бўйича кенг миқёсли ишлар амалга оширилмоқда.

Шу билан бирга, миллий қадриятларга, халқларнинг маданиятига ва ўзлигига бўлган таҳдидлар, ёд ғояларни сингдиришга бўлаётган уринишлар кучайиб бораётган глобализация жараёнлари жадал ривожланаётган шароитда ёшлар энг заиф қатлам бўлиб қолаётганлиги сабабли бу йўналишда қўшимча комплекс чора-тадбирлар қабул қилиниши долзарб вазифалардан бири бўлиб қолмоқда.

Ҳозирги кунда ёшларни туғилган ва яшаб келаётган она заминини севиш ардоқлаш ҳамда ҳарбий ватанпарварлик туйғусида тарбиялашда оммавий ахборот воситалари муҳим ўрин тутади.

Хозирги даврда Интернет манбалари ва ОАВ(оммавий ахборот воситалари) ахборотларининг ижтимоий ҳаётдаги ўрни тобора мустаҳкамланиб, жамият тараққиётининг кўзгуси, кишилар ва ёшлар онги, дунёқараши сиёсий савиясини шакллантирувчи асосий омилга айланмоқда. Эндиликда демократик давлат, еркин фуқаролик жамияти ҳақидаги консепсияларни ахборот соҳасидаги ислоҳотларсиз тасаввур этиб бўлмайди.

Маълумки, ўтган асрнинг иккинчи ярмида вужудга келган Интернет тармоғи ахборот соҳасида туб бурилиш ясади. Эндиликда анъанавий ОАВ нинг информацион технологиялар асрида ўз мавқеини сақлаб қолиши кўп жиҳатдан глобал тармоқ имкониятлари билан чамбарчарс боғлиқ бўлиб қолди. Бу борада юртбошимиз алоҳида таъкидлаб, «…бугунги кунда миллий ахборот тизимини шакллантириш жараёнида Интернет ва бошқа глобал ахборот тизимларидан кенг фойдаланиш, айниқса, муҳим аҳамиятга эга. Бунга эришиш XXI асрда мамлакат тараққиёти учун ҳал қилувчи аҳамият касб этади», — дея яратилган имкониятлардан унумли фойдаланишга чақирганлар [1].

Албатта, ёш авлод дунёқарашини кенгайтириш ва билимини оширишда мазкур ахборот манбалари муҳим аҳамиятга молик. ОАВ ва ижтимоий тармоқларнинг ижобий жиҳатларини инкор этмаган ҳолда, унинг ёшлар орасида самарасиз, салбий таъсирга эга бўлган имконияти мавжудлигини ҳам таъкидлаш лозим. Телеканалларда намойиш этилаётган ва ижарага бериладиган ҳамда сотиладиган минглаб видео, ижтимоий тармоқ, лазер дисклари воситасида тарқатилаётган жангари филмларда яшаш учун кураш ғояси тарғиб этилади. Уларнинг ёшлар онгини заҳарлаш, миллий-маънавий

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1072-1084

қадриятларимиздан узоқлаштириш, миллий нигилизм ва манқуртликка мубтало қилиши ўз-ўзидан аён ва очиқ ҳақиқатдир [8].

Ёшларда бузғунчи, деструктив ғояларга қарши мафкуравий иммунитет ҳали тўла шаклланмаганлигини, уларда эшитган ёки ўқиган маълумотига жуда тез ишонишини назарда тутсак, бу анча еътибор қаратиш зарур бўлган глобал муаммодир. Таъкидлаш лозимки, Интернетдан тарқатилаётган қўпорувчилик руҳидаги ахборотлар орқали баъзан ҳарбий ҳаракатлар эвазига амалга ошириб бўлмайдиган мақсадларга ҳам эришиш мумкин. Бундай ахборот хуружлари эса ёшларнинг маънавий-ахлоқий, психологик дунёқарашини, сиёсий нуқтаи-назари ва еътиқодини мақсадли равишда ўзгартиришга қаратилганлигини унутмаслик керак. Бунинг асосий сабабларидан бири эса тажовузкорликни тарғиб этувчи теле, радио, аудио, видео ва мултимедиа маҳсулотлари, интернетдаги маълумотлар, компютер ўйинларининг кўпайиб бораётгани, хилма-хил усулларда тарқатилаётганидир. Уларнинг барчаси болалар ва ёшларни психик ва психоемоционал ҳолатига босим ўтказиш, уларни зимдан бошқариш ахборий-психологик таъсир ўтказишнинг самарали воситаси сифатида намоён бўлади.

Оммавий ахборот воситалари энг асосий, қудратли ва таъсирчан мафкура воситалиги хозирги ёшларнинг онгига ижобий ва салбий томонлама таъсир этмоқда. Чунки оммавий ахборот воситалари омманинг ўзига хос тарбиячиси, муҳим тадбирларнинг ташкилотчиси, долзарб муаммоларни ҳал қилишнинг таъсирчан қуроли бўлиб хизмат қилади. Айнан оммавий ахборот воситалари орқали миллий қадриятларимиз ва умуминсоний қадриятлар, миллий ғоя ва демократик тамойиллари ҳамда ватанпарварлик ғоялари тарғиб-ташвиқ қилинади.

Оммавий ахборот воситалари орқали миллий истиқлол ва ватанпарварлик ғоясини сингдиришнинг яна бир муҳим жиҳати мавжуд. Бу жиҳат - ахборот террорига, мафкуравий таҳдидларга муносиб жавоб бериш, маънавий-мафкуравий жиҳатдан халқимизни тобе этишга интилишларнинг пайини кесиш ва Ўзбекистон фуқароларида мафкуравий иммунитетни шакллантириш билан боғлиқ оммавий ахборот воситаларининг таъсир кучини кўрсатадиган шундай бир гап бор “ҳар қандай пуч ғоя, уйдирма ҳафтасига уч мартадан тўрт йил давомида такрорланса – “ҳақиқат” тайёр бўлади, одамлар унга чиппачин ишонадилар” [9].

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1072-1084

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Охирги пайтларда информацион ҳуружларнинг тез-тез уюштирилаётгани аслида урушга муносабатнинг ўзгарганлигидан, қуролнинг янги тури кашф қилинганидан дарак беради. Бу қурол - ахборотдир. Бундай қурол ёрдамида олиб бориладиган информацион урушларда ёшларнинг онги ва қалби нишонга олинади. Гарчи у дайди ўқ сингари инсонни жисмонан йўқ қила олмаса-да, унинг қўпорувчилик кучи, келтирадиган талофотлари ҳар қандай оммавий қирғин қуролиникидан кам эмас. Чунки бу қурол ёрдамида онга берилган зарбалар кишини адаштиради, уни ўз манфаатларига зид ҳаракат қилишга ундайди ва демак инсонни бошқариш, унинг устидан ҳукмронлик қилиш имконини беради. Аслида, ахборот мақсадга эришишнинг энг арзон воситаси ҳам саналади. [9].

Ҳақиқатан ҳам, информацион ҳуружлар уюштириш учун у қадар кўп меҳнат, у қадар кўп ҳаракат, у қадар кўп ҳаражат талаб этилмайди. Гарчи бундай мафкуравий експансия отишмалар ва қон тукишларни келтириб чиқармаса-да, миллий ўзликни англашни заифлаштириш эвазига таназзулга олиб келади.

Замонавий ОАВ, телевидение, компютер, интернет, уяли телефон ва бошқа воситалар, инсонлар, айниқса, ёшларнинг миллийлиги, тафаккури ва дунёқарашини ўзгартириб юбормоқда. Тараққий қилган мамлакатларнинг мазкур воситалар ёрдамида жаҳон халқлари онги, дунёқараши ва турмуш тарзини бир қолипга солиш ҳамда унга ўзлари шакллантираётган «оммавий маданият»ни сингдириши бош стратегик сиёсатга айлантираётганлигида яққол намоён бўлмоқда.

Бугунги кунда глобал ахборот маконидаги қарама-қаршилик, инсон, айниқса ёш авлоднинг онги ва қалби учун курашнинг кучайиши шароитида ҳарбий-ватанпарварлик тарбиясининг роли ва аҳамияти ортиб бормоқда.

Шунинг учун давлат раҳбари томонидан аҳолининг ва биринчи навбатда ёшларнинг ҳарбий-ватанпарварлик тарбияси тизимини такомиллаштириш, уларни мамлакатда амалга оширилаётган ислоҳотлар жараёнига жалб қилиш, интеллектуал ва ижодий салоҳиятни намоён қилишга шароит яратиш юзасидан кўрсатмалар берилди [7].

Ўсмирларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш хамда Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ва давлат хизмати учун кадрлар захирасини тайёрлаш тизимини такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1072-1084

тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарорида белгиланган вазифалар ўқувчида ватанпарварлик туйғусини тарбиялаш орқали дастлабки ҳарбий офицерлик касбий компетентликни такомиллаштиришини таъминлайди.

Мамлакатимизда олиб борилаётган ҳарбий ислоҳотлар туфайли Қуролли Кучларимиз учун юқори малакали мутахассисларни юксак интеллектуал маънавий-ахлоқий салоҳиятга эга бўлган офицер кадрларни тайёрлашга алоҳида еътибор қаратилмоқда.

Президент томонидан 2017−2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегияси асосида, мамлакат ҳаётининг бошқа жабҳалари билан бир қаторда, ҳарбий соҳанинг энг муҳим йўналишлари бўйича замон талабларига мос қарорлар қабул қилингани, амалга оширилган тизимли ва стратегик комплекс чора-тадбирлар натижасида қисқа давр ичида миллий армиянинг жанговар шайлиги ва умуман мамлакатнинг мудофаа қобилияти сезиларли даражада ошгани таъкидлаб ўтилди [2].

Йиғилишда давлат раҳбари Қуролли Кучларни ривожлантириш ва мамлакат мудофаа қобилиятини янада мустаҳкамлаш ҳамда бу борада замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ва илғор инновацияларни кенг татбиқ этиш бўйича муҳим кўрсатмалар берди.

Ҳарбий кадрларни тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳамда ҳарбий илмни ривожлантириш борасида Қуролли Кучлар Олий бош қўмондони томонидан ҳарбий можаролар ва замонавий жанг амалиётларини ҳамда миллий ҳарбий санъат тарихини чуқур ўрганиб, қўшинларнинг тайёргарлик усул ва услубларини янада такомиллаштириш вазифаси қўйилди.

Бунда ҳарбий таълим тизимида бошланган ислоҳотларни узвий давом эттириш, олий ҳарбий билим юртлари, лицей ва коллежлар, жумладан, «Темурбеклар мактаби» ҳарбий академик лицейлари фаолиятини такомиллаштириш, уларда таълим олаётган ўқувчилар қалбида миллий руҳ, она-Ватанга меҳр ва садоқат, адолат туйғусини ҳар томонлама кучайтириш, буюк аждодлар, жумладан, Жалолиддин Мангуберди, Амир Темур, Шоҳруҳ Мирзо, Заҳириддин Муҳаммад Бобур каби саркардаларнинг бой жанг санъатидан кенг фойдаланиш муҳимлиги алоҳида таъкидлаб ўтилди [7].

Шунингдек, Тошкент шаҳрида барпо этилган «Ғалаба боғи» ва «Шон-шараф» музейи мажмуасини ҳарбий хизматчилар, мамлакат аҳолиси, айниқса,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1072-1084

ёшлар учун ҳарбий тарихни ва буюк аждодлар қаҳрамонлигини ўрганиш илмий марказига айлантириш бўйича кўрсатмалар берилди.

Мамлакат аҳолисини ва ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, уларнинг фуқаролик позициясини кучайтириш билан боғлиқ ишларни «Жасур жангчи — ёшлар учун намуна» шиори остида янада жадаллаштириш, ҳарбий округлар қўмондонликларига камида 10 тадан мактабни оталиққа олиш ҳамда ҳарбий қисм командирлари томонидан уларда ватанпарварлик ва ҳарбий шон-шараф дарсларини йўлга қўйиш вазифаси қўйилди.

Қуролли Кучларда яратилган замонавий инфратузилмадан фойдаланган ҳолда уюшмаган ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш билан бирга, меҳнат бозорида талаб қилинадиган касб-ҳунарга ўргатиш бўйича ишларни ташкил этиш вазифаси ҳам қўйилди.

Шунингдек, президент, — «ўз фарзандларида юксак ватанпарварлик руҳини камол топтира олмаган давлат, қандай қудратли қуролга эга бўлмасин, мудофаа қобилиятини мустаҳкамлай олмайди», — дея таъкидлаб ўтди [1].

Бундан ташқари, йиғилишда мамлакат мудофаа саноати комплексини янада ривожлантириш, давлат чэгараларини қўриқлаш тизимини такомиллаштириш, фавқулодда вазиятлар прогноз ва мониторинг қилиш ҳамда авария ва техноген ҳалокатларнинг олдини олиш бўйича ишлар самарадорлигини ошириш бўйча зарур топшириқлар берилди.

Президент Шавкат Мирзиёев ҳарбий оилаларда маънавий-ахлоқий муҳитни яхшилаш, соғлом турмуш тарзи ва болалар тарбиясига ёндашувларни намунали даражага кўтариш, ҳарбийлар ва уларнинг оила аъзоларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш ва уй-жой билан таъминлаш ишлари келгусида ҳам муҳим ва устувор йўналиш сифатида қолишини қайд этди.

Тадбир якунида давлат раҳбари Қуролли Кучларни янада ривожлантириш бўйича олиб бораётган ишлар, биринчи навбатда, халқимизнинг хавфсизлиги, тинчлиги ва осойишталигини таъминлашга қаратилган янги Ўзбекистонни барпо этиш бош талаб эканини таъкидлади.

Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида ҳам “Ўрта таълим муассасалари фаолиятининг сифати ҳамда самарадорлигини ошириш, Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий тузуми суверинитети, худудий яхлитлигини муҳофаза қилиш, фуқаролик, миллатлараро ва конфессиялараро тинчлик ҳамда тотувликни мустахкамлаш,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1072-1084

давлатнинг мудофаа қобилиятини мустаҳкамлаш, Ўзбекистон Республикасининг жанговор қудрати ва салоҳиятини ошириш” каби муҳим вазифалар белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини” янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисидаги фармони, 2018-йил 4-августдаги ПҚ-3898-сон “Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ҳарбий хизматчиларининг маънавий-маърифий савиясини ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги Қарори, Вазирлар Махкамасининг 2018-йил 23-февралдаги 140-сон “Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш консепсиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори ва мазкур фаолиятга доир бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда ушбу диссертация тадқиқоти муайян даражада хизмат қилади [2].

Ҳозирги ахборот маконидаги қарама-қаршилик, одамлар, айниқса ёш авлоднинг онги ва қалби учун кураш кучайган шароитда ҳарбий-ватанпарварлик руҳидаги тарбиянинг ўрни ва аҳамияти тобора ортиб бораётгани алоҳида қайд этилди.

Аҳолини, аввало, ёшларни шундай руҳда тарбиялаш тизимини такомиллаштириш, мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар жараёнига жалб қилиш, уларнинг интеллектуал ва ижодий салоҳиятини рўёбга чиқариш бўйича қўшимча топшириқлар берилди.

– Армия моддий жиҳатдан энг замонавий ва зарур воситалар билан таъминланган бўлиши мумкин, лекин ахлоқий жиҳатдан заифлиги, жанговар руҳи, Ватанга содиқлик ва муҳаббат, унинг тақдири учун масъулият ҳисси йўқлиги ёки лоқайдлик тузатиб бўлмас оқибатларга олиб келиши мумкин, – дея таъкидлади давлатимиз раҳбари [7]

Ўзбекистон 30 ёшгача болган аҳолиси бутун аҳолининг 60 фоизини ташкил этадиган ноёб демографик ҳолатга юз тутиш арафасида. Кейинги йигирма йилда бугунги кундаги катта болалар ва ёшлардан ташкил топган аҳоли ишчи кучига айланади, бу эса Ўзбекистон тарихидаги энг катта ишчи кучи бўлади. Бугунги кундаги тўғри сармоялар билан, ҳозирги ёшлар Ўзбекистонни кейинги ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасига кўтарадиган авлодга айланиши мумкин.

Шу билан бир қаторда, бугунги кундаги болалар ва ёшларнинг фаровонлигини таъминлашга мувофиқ маблағни сарфламаслик ёшларнинг

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1072-1084

ҳуқуқларини таъминламаслик ва улар орасида ишсизлик даражасини кенгайишига олиб келиши мумкин. Бу эса, ўз навбатида, сиёсий ва диний екстремизм учун пойдевор яратиши ва меҳнат миграциясини кучайтириши ва шу билан бирга жуда ҳам қиммат “демографик дивиденд”ни йўқотишга олиб келиши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Ҳукумати ҳар бир ёш фуқаро ўз салоҳиятини тўлиқ рўёбга чиқариши учун зарур кўмак ва имкониятга эга бўлишини та'минлашга устувор аҳамиятни қаратмоқда. Давлатнинг ёшлар бўйича сиёсатини такомиллаштириш Ўзбекистоннинг 2017-2021 йилги ривожланиш стратегиясининг асосий устувор йўналишларидан биридир [8].

Ўзбекистон Республикасида аҳолининг 60 фоизни ёшлар ташкил қилар экан, шундан келиб чиқиб униб ўсиб улғайиб келаётган ёш авлодни ҳарбий ватанпарварлик туйғуси билан тарбиялаш муҳим вазифа, хозирги кундаги мураккаб ишни аввалambор оиладан бошламоқ жуда ҳам зарур, чунки фарзанга дастлабки тушунчани ва тарбияни ота-она беради, кейинги ўринларда эса таълим муассасалари.

Водийнинг юқори минтақаларида яшаган аҳоли асосан чорвачилик, лалмикор деҳқончилик ва тоғ боғдорчилиги билан шуғулланган. Чорвачилик билан шуғулланувчи аҳолининг ярим ўтроқ ҳаёт кечириши кузатила бошлагандан сўнг, уларни водийнинг қуйи қисмларига тушиб, қишлов учун ўзларига қўрғонлар шаклидаги яшаш жойлари ташкил этишган. Ушбу қишлаш учун яратилган ҳудудлар «қўрғон»лар шаклида ташкил этилган бўлиб, бундай «қўрғонлар» қиш ойларида гавжум, савдо, хунармандчилик ривожланган қишлоқлар кўринишида бўлса, бошқа ойларда аҳолининг асосий қисмини тоғли яйловларга кўчиб кетиши кузатилган. Ю.Аҳмадалиевнинг таъкидлашича

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1127-1136

водийсининг тоғ, адир, чўл ландшафтлари туташган минтақасида қўрғон, қўрғонча сўзлари қатнашган 100 ортиқ жой номлари қайд этилади. Уларга Қўрғонтепа, Каттақўрғон, Жарқўрғон, Қумқўрғон, Ёвқўрғон, Тўпқўрғон, Учқўрғон, Тепақўрғон, Қўрғонча кабилар мисол бўлади. Бу қўрғонча шаклидаги аҳоли масканлари кўпроқ яримўтроқ қирғиз, қипчоқ, турк, қорақолпоқ каби чорвадор аҳоли учун хос бўлиб, улар одатда деҳқончилик билан шуғулланувчи ўзбек ва тожиклар яшайдиган қишлоқлар яқинида бунёд этилган. Бу номларнинг аксарият қисми уни ташкил этган уруғ ёки уруғ оқсоқолининг номи билан аталган. Айнан бу даврда тоғ-яйлов чорвачилиги ривож топган.

Суғорма деҳқончиликнинг шаклланишига қадар мавжуд бўлган Воруҳ, Исфара, Боткент, Шоҳимардон, Сўх, Новқат, Ўш, Чодак, Чоркесар, Сефедбулон каби аҳоли масканлари орасида ўзаро боғлиқлик мавжуд бўлиб, улар ўзига хос этник марказларни шакллантирган [11; 91-б.]. Бундан ташқари бу даврда водийнинг гавжум аҳоли масканлари нисбатан реълефи баланд, тоғ яйловлари ҳудудида шаклланганлигидан, улар ўртасида турли алоқалар горизонтал кўринишда водий атрофини ўраб олган. Натижада ўзаро иқтисодий ва ижтимоий алоқалар ҳам анчайин кўп вақт талаб қилувчи ва суст жараённи ҳосил қилган.

Суғорма деҳқончилик даври. З.Исоқовнинг маълумот беришича Ўрта Осиёда қулай табиий иқлим шароити бу минтақада инсонларининг узоқ ўтмишдан бошлаб деҳқончилик билан шуғулланишларига имкон яратган. Ўлкадаги бу тараққиёт бир қатор омиллар таъсирида ўзига хос кўринишда юз берди. Деҳқончиликнинг ибтидоий шакли неолит даврида бошланган бўлсада, Фарғона водийсида бу жараён милоддан аввалги II минг йилликнинг ўрталарида бошланган [8; 14-б.].

Эрамиздан аввалги XV-XIV асрларда ҳам водийда суғорма деҳқончиликнинг оддий кўринишлари билан шуғулланилган [11; 17-б.]. Бироқ бу жараён аҳоли масканларини шаклланишига у қадар ҳам таъсир этмаган. Шунинг учун суғорма деҳқончиликнинг аҳоли пунктлари шаклланишига қатъий таъсир этган давр сифатида эрамиздан аввалги VI-V асрлар кўрсатилган. Бу даврларга келиб, чорвачиликдан деҳқончиликнинг ажралиб чиқиши, деҳқончилик учун эса водийнинг қулай ҳудудни танланиши натижасида марказий қисмга қараб ўзлаштириш ва аҳоли масканлари шакллантириш бошланган.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1127-1136

Водийда дастлабки деҳқончилик унинг атрофидан унинг марказига томон йўналган дарё, сой ва ариқларнинг юқори қисмида юзага келган. Асосий экин эса тариқ бўлганлиги таъкидланади [7; 74-75 б.]. Кейинчалик водийнинг қуйига қараб аста-секин деҳқончиликнинг сурилиши бошланди. Бу эса водийнинг нисбатан текис, марказий қисмга яқинроқ жойлашган аҳоли манзилгоҳларининг шаклланишида асосан лентасимон кўринишни ҳосил қила бошлаган. Айнан суғорма деҳқончилик билан шуғулланиш водийнинг аҳоли пунктлари шаклланишида муҳим рол ўйнаган.

Водийнинг текислик қисмида, сой ва дарё ўзанларидаги кичик-кичик воҳалардаги аҳоли деҳқончилик билан шуғулланган. Аммо улар тўла ўтроқ аҳолини ҳосил қилмаган. Уларнинг ўтроқлашуви анча кейин юзага келган. Тоғ ва текислик ўртасида фаслий маятниксимон ҳаракат ҳосил бўлган (қишда текисликкка, ёзда тоғликка) [5; 186-190-б.]. Деҳқончилик ва чорвачилик ўртасида ўзаро узвий алоқадорлик туфайли, улар ўзаро товар айирбошлаш билан ўзига хос моддий маданиятни юзага келтира бошлаган.

Юқорида таъкидланганидек, эрамиздан аввалги XV-XIV асрларда деҳқончиликнинг оддий кўринишлари биринчи навбатда Қорадарё, Оқбўра, Косонсой ва Ғовасой каби сой ва дарёларнинг адир орти қисмидаги ҳавзаларнинг энг қулай ва унумдор ерларини ўзлаштириш билан шаклланди [2; 9-15-б.]. Айнан адир орти текисликларида дастлабки жамоавий аҳоли мангилгоҳлари юзага келди. Шунингдек, бу ўзлаштирилишга бошқа сабаб ҳам кўрсатилади. А.Анарбаев буни шундай изоҳлайди: -«Сойлар адирлар ортидан оқиб ўтаётганда ўз ҳавзасида ўзига хос воҳа ёки воҳачаларни ташкил қилади. Бу ерда сой суви секинлашиб, ёйилиб оқади, баъзида бир неча ирмоқларга бўлиниб оқади. Бу, албатта қадимги деҳқон ирригаторларга катта имконият туғдирган, яъни, улар сувни осонлик билан жиловлаб, деҳқончиликда фойдаланишган». Иккинчидан, бундай адир орти текисликларида баҳор ойларида юз берадиган тошқинлардан ҳоли ҳудуд сифатида ҳам қулай бўлган [8; 17-б.].

Фарғона водийси ғарб билан шарқни боғловчи транзит вазифани бажарганлиги туфайли ундан ўтган кўплаб кўчманчи қабилалар, унинг қулай табиий географик ва ўша даврдаги ижтимоий шароити учун у ерда яшаб қолишган. Улар асосан чорвадор халқлар бўлиб, Хўжанд орқали, баъзан тоғ довонлари орқали кириб келганлар. Ҳудудга ўрнашган турли маданият

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1127-1136

вакиллари ҳам аста-секин ўлканинг табиати ва ландшафтига мослашиб, аҳоли пунктларини шакллантиришнинг анъанавий шаклига риоя этганлар.

Фарғона водийсида суғорма деҳқончиликнинг анъанавий хўжалик юритиш шаклига айланиши билан, аҳоли пунктлари шаклланишида тартибсизлик йўқолиб борди. Суғориладиган ернинг асосий манбаи ҳисобланган сой ва дарёлар бўйига ва этак қисмларига аҳоли масканлари шаклланган. Натижада ўзига хос лентасимон аҳоли масканлари, хусусан «марказий аҳоли масканлари» шакллана борди (1-расм). Турли тарихий даврларда ўзига хос аҳоли масканлари ва марказлари пайдо бўлди. А.Н.Бернштамнинг маълумот беришича кўчманчи туркларнинг водий ҳудудига жойлашиши натижасида Ахсикент шаклланган ва у Фарғона водийсининг йирик иқтисодий ва маданий марказига айланган [5].



1-расм. Дарё ва сойлар ёқалаб марказий аҳоли масканларининг шаклланиши: 1) кичик; 2) ўрта; 3) йирик; 4) жуда йирик (*марказий аҳоли маскани*).

Бу даврда дарё ва сойлар ёқалаб, ўзига хос табиатдан оқилона фойдаланиш анъаналари шаклланди. Ер учун мос экин турини танлаш, деҳқончилик учун сувни тежаш, дарё режимидан тўғри фойдаланиш ва сув тақчиллигини юзага келишини олдини олиш каби даврий анъаналар пайдо бўлди. Деҳқончиликда сувдан фойдаланиш маданияти билан биргаликда аҳоли масканларини сув ёқалаб тизимли жойлаштириш маданияти ҳам шаклланди. Сўх, Шоҳимардонсой, Шаҳрихонсой, Андижонсой, Аравонсой, Намангансой

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1127-1136

бўйлаб ташкил этилган аҳоли пунктлари айнан бу даврнинг ҳудудий ташкил этиш мазмунини очиб беради.

Мустамлака даври (XIX аср охири XX аср охиригача). Кейинги даврлардаги аҳоли пунктларининг шаклланиши у қадар қадимийсидан фарқ қилмади. Чунки яқин-яқингача маҳаллий аҳолининг асосий хўжалик юритиш шакли деҳқончилик бўлганлиги қишлоқлар тузилиши ва жойлашувига катта таъсир кўрсатмади. Ҳудуднинг Чор Россияси томонидан истило этилиши билан аҳоли пунктларининг тузилмаларида катта ўзгаришларга олиб келди. Катта миқдорда русийзабон халқларнинг ўрнашиши, янги-янги аҳоли масканларининг жойлаштириши ва кенг ишлаб чиқариш ҳамда транспортнинг олиб кирилиши билан Фарғона водийсида аҳоли пунктлари шаклланишининг навбатдаги даврини бошлаб берди. Асосан иккинчи жаҳон уришидан кейинги йилларда марказий Фарғонанинг ўзлаштириши билан янги суғориш тармоқларини юзага келтирилди. Шунингдек, юқорида таъкидланган марказий аҳоли масканлари шакллари ҳам ўзгаришга учради. Барча шаҳарлар ягона план асосида «янги шаҳар» бунёд этилди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Бироқ, XIX-XX асрларда водийнинг марказий ҳудудлари кенг ўзлаштирилиши билан анъанавий аҳоли пунктлари шаклланишида ўзгаришлар юзага келди. Янги ўзлаштирилган ҳудудларда ҳам кичик ва ўрта типдаги аҳоли пунктлари шаклланди. Совет хукуматининг мустамлакача кўчириш сиёсатига асосан чўл ҳудудларига оилалар кўчириб ўтқазилди. 1951 йилда Марказий Фарғонада йирик жамоа хўжаликлари ташаббуси билан бир неча хўжаликлараро каналлар қазилди. 1952 йилда Марказий Фарғонанинг янги ерларига Андижон, Фарғона ва Наманган вилоятларидан 2060 та колхозчи оиласи кўчириб ўтказилди [12; 29-б.].

1959 йил Ўзбекистон ССР Министрлар Совети «1959-1965 йилларда Марказий Фарғонада қўриқ ва бўз ерларни суғориш ва ўзлаштириш тўғрисида» қарор қабул қилади. Ушбу қарор асосида Марказий Фарғона ҳудудларидаги бўз ва қаровсиз ерларни ўзлаштириш натижасида 250 кмдан ортиқ автомобиль йўллари ва 22 та жамоа хўжалик посёлкалари барпо қилинди [10; 191-б.].

Янги давр ўзининг табиат ва унинг неъматларидан энг кўп фойдаланишни жорий этиши билан ҳам характерлидир. Бу даврда йирик геологик қидирув ишлари, зарур транспорт коммуникация тармоқлари шакллантирилди. Ташкил этилган аҳоли масканлари ўз даври нуқтаи-назардан тўғри ташкил этилган

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1127-1136

бўлсада, кейинчалик уларнинг ожиз томонлари кўриниб қолди. «Ресурс шаҳарлар» сифатида ташкил этилган Жанубий Оламушук, Шўрсув, Полвонтош каби аҳоли пунктларида ресурсларнинг тугаб қолиши натижасида шаҳарчанинг барқарорлиги бузилган бўлса, йўл ёқасида (транспорт негизида) шакллантирилган аҳоли пунктлари яшаш ҳудудининг транспорт тармоғи бўйлаб, лентасимон шаклни ҳосил қилиши кўплаб ижтимоий муаммоларни юзага келтирди (турли муассасаларнинг бир-биридан узоқлашиб кетиши). Аҳоли масканларини бундай ташкил этиш у қадар самарали эмаслиги кўриниб қолди.

Янги давр. 1991-1992 йиллардан кейин Фарғона водийсида аҳоли пунктлари шаклланишининг янги даври бошланди. Бу даврда жамият ривожи учун кўплаб ўзгаришларга қўл урилди. Мустақилликнинг дастлабки даврларида хўжалик учун юқори талабни ҳисобга олиб, давлат ерларидан аҳоли пунктларини шакллантиш учун ер участкалари ажратила бошланди. Бу эса хўжаликлар сонинг кескин ортишига, аҳоли пунктлари тўрининг водийни янада зичроқ тўлдиришига сабаб бўлди. Бу эса айнан ўсиб бораётган аҳолининг катта талабини қондириш мақсадида амалга оширилган.

Мамлакатдаги вазиятни ўнглаш, мамлакат аҳолисини ҳаётга қарашини, бугунги ва эртанги кунга ишончини мустаҳкамлаш учун, уларнинг иқтисодий, моддий аҳволини яхшилаш зарурати юзага келади. Бу даврда аҳоли учун энг зарурий масала - томорқа ер бериш масаласини кун тартибига қўйилди [9; 9-б.]. 1989 йил 17 августда ҳукуматининг кенгайтирилган йиғилишида аҳолига томорқа ва шахсий участкалар ажратиш масаласи муҳокама қилинган ва «Қишлоқда яшовчи ҳар бир оилани томорқа билан таъминлаш, уларга якка тартибда уй-жой қуриш учун барча шарт-шароитларни яратиб бериш ҳақида» қарор қабул қилинган. Бу эса мамлакатда томорқа майдонларини қарийб 4,5 баробар кўпайишига, 1,5 миллион оилага қўшимча ер берилишига, 700 минг оилага янги томорқа ерлари ажратилишига олиб келган. Ўша даврда ҳам ҳудди ҳозиргидек демографик жиҳатдан энг катта аҳолига эга бўлган Фарғона водийси вилоятларида томорқалар ажратиш йирик кўрсаткични ҳосил қилди. Бу эса водийда хўжаликлар ва янги аҳоли пунктларининг ортишига сабаб бўлди.

Аҳолининг ҳудудий таркибига таъсир этувчи ижтимоий-иқтисодий омиллардан қаторига ресурс омили ҳам киритилади. Ресурслар билан таъминланганлик бугунги замонавий иқтисодий география фанининг асосий

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1127-1136

тушунчаларидан бирига айланиб улгурган. Ҳудудий ташкил этишлар, иқтисодий жойлаштириш ва истиқболли режалаштиришнинг туб моҳияти ресурслар билан таъминланганлик омили чамбарчас боғлиқ. Чор Россияси таъсирга ўтган Фарғона водийси ўша даврларда ўзининг ёқилғи ресурслари, қурилиш хом ашёлари билан республиканинг исталган ҳудудлари билан рақобатлаша олган. Хусусан, 1880-йилда дастлабки нефть конининг очилиши, 1904 йилларда саноат усулида қазиб олишнинг жорий этилиши билан водийда аҳоли пунктлари шаклланишининг янги босқичи бошланди. Шўрсув, Тинчлик (Ҳамза), Чимён, Полвонтош, Жанубий Оламушук каби посёлкалар айнан ресурсларни ўзлаштирилиши билан юзага келган аҳоли пунктларидир [3].

Тадқиқот нуқтаи-назардан бундай ташкил этишни «ресурсли ташкил этиш» деб қабул қилиш мумкин. Айнан нефт-газли аҳоли пунктларининг кенг ёйилиши водий аҳоли масканлари тузилмаси жиддий таъсир кўрсатди. Бугунги кунда бундай аҳоли пунктлари сони 30 дан ортади. Бу жиҳатдан бундай аҳоли пунктларнинг аксарияти кейинги йилларда ресурсга қарамли жойлаштириш ҳисобига аҳоли сони кескин қисқарди (Шўрсув, Тинчлик, Полвонтош, Жанубий Оламушук ва б.). Бироқ, ўсишнинг барқарор кўринишида ривожланган аҳоли пунктлари ҳам мавжуд бўлди. Бундан аҳоли пунктлари қаторига сўзсиз Қувасой шаҳрини киритиш мумкин. Статистик маълумотларга эътибор берилса, ҳудуд аҳолисининг тезлик билан ўсаётганлигини кўриш мумкин. Унда 1970 йилда 33,9 минг киши истиқомат қилган бўлса, бугунги кунда унда 90,3 минг киши истиқомат қилмоқда (ўсиш 1/2,66 нисбатда). Бунга сабаб сифатида ресурс омили асосида юқори ишлаб чиқариш ташкил этилганлиги бўлди. Ваҳолангки, республикамизнинг 5 йирик шаҳарларидан бири бўлган Фарғона шаҳрида аҳоли сони 1970 йилда 146,7 минг кишидан 2019 йилда 278,5 минг кишига етди. Ўсиш кўрсаткичи 1/1,89 нисбатни ҳосил қилди.

Водийда бундан ташқари Рапқон, Чимён, Қизилтепа, Косонсой, Чортоқ, Мингбулоқ каби ҳудудларда минерал-шифобахш булоқлардан фойдаланиш ҳисобига ҳам аҳоли пунктлари шаклланди. Бироқ, мустақилликдан кейинги йилларда ресурсли ташкил этиш у қадар аҳамият касб этмади.

Аҳолининг ҳудудий таркибига таъсир этувчи ижтимоий иқтисодий омиллар ичида ишлаб чиқариш омилини аҳоли эътироф этиш зарар. Чунки у ҳар бир даврда жамиятга мос ҳолдаги ишлаб чиқариш жараёни билан қатнашиб келган. Бироқ, бугунги замонавий жойлашувда ишлаб чиқариш омилнинг роли қадимий даврлардан анча муҳим эканлиги бизга маълум [14, 15].

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1127-1136

ХУЛОСА

Бугунги кунга келиб инсониятнинг табиатга нисбатан салбий таъсири ортиб бораётганлиги барчамизага маълум. Дунёнинг турли бурчакларида юз бераётган экологик ҳалокатлар табиатдан нооқилона фойдаланиш натижасида баҳоланмоқда. Айниқса, бундай вазият аҳоли сони ўсиб бораётган, зичлик нисбатан катта бўлган аҳоли масканлари атрофларида кўп юзага келмоқда. Уларни тартибга солиш, аҳоли масканларининг ҳудудий ташкил этилишидаги ижтимоий-иқтисодий вазиятни баҳолаб бориш замонавий иқтисодий-географик тадқиқотларни талаб этмоқда.

REFERENCES

1. Абдуллаев У. Валихонова Г. Фарғона водийси аҳолиси: Этник таркибининг шаклланиши ва этномаданий муносабатлар тарихи. Т.:, Navroz, 2016. 252 б.
2. Анорбоев А. Ўзбекистонда илк суғорма деҳқончиликнинг шаклланиши ва антрпоген ландшафтни ташкил топиши // Я.Ғуломов номидаги республика илмий семинарининг «Ўзбекистон ҳудудларида деҳқончилик маданиятининг тарихий илдизлари ва замонавий жараёнлар» мавзусидаги 37-йиғилиш материаллари. –Тошкент, 2006. -9-15 б.
3. Аҳмадалиев Ю. Абдувалиев Ҳ. Норасмий меҳнат бозорлари шаклланишининг геодемографик хусусиятлари//Ўзбекистонда бозор ислоҳотлари шароитида банд бўлмаган аҳоли муаммоларини ечишда олий таълим муассасаларининг ролини ошириш. Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. –Фарғона, 2019. 63-64 бетлар
4. Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана / Соч., Т.3. - М.: Наука. 1965. -С.5-31.
5. Бернштам А.М. Деревняя Фергана. Т., Ан УзССР, 1951. ст. 13.
6. Жумаханов Ш. Наманган вилояти аҳолисининг ҳудудий таркибини такомиллаштириш. Геог. фан. ном. ...дис. автореф.-Т., 1998.-22 б.
7. Заднепровский Ю.А. Древне земледельческая культура Ферганы. –М.; Л., 1962. –с 224.
8. Исоқов З. Фарғона водийси анъанавий деҳқончилик маданияти (Хўжалик-маданий анъаналар: тавсифи ва тахлили). Т.: “Янги аср”, 2011.
9. Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. -Т.: «Ўзбекистон», 2011. - 440 б.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1127-1136

10. Комилов О. Ўзбекистонда суғориш тизими ривожланиши: ютуқ, муаммо ва оқибатлар–Т.: Akademnashr. 2016, 336 б.
11. Комилова Н.Ў. Этноэкологик маданиятнинг географик жиҳатлари (Фарғона водийси мисолида). геогр. фан. фалсафа доктори (PhD) ... дисс. Автореф. – Т., 2019. – 48 б.
12. Очилов Н. Ўзбекистонда ирригация ва мелеорация ишлари (1946-1964). – Т.: Фан, 1991. -104 б.
13. Солиев А., Назаров М., Қурбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудларини жтимоий-иқтисодий ривожланиши. – Т.: Мумтоз сўз, 2010. 300-б.
14. Абдувалиев Ҳ. А. Geographical trends of the ethnoecological researches //Узбекистон ва Россияда география фани: умумий муаммолар, ҳамкорлик салоҳияти ва истиқболи. – 2019. – С. 14-17.
15. Abduvaliyev H. A., Jarqinova M. X. AHOLINING HUDUDIY TARKIBINI TABIIY-LANDSHAFT BIRLIKLARI BO ‘YICHA TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 33-38.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1137-1140

EKOTURISTIK MARSHRUTLAR VA ULARNI ISHLAB CHIQISH USULLARI

Elyorjon G‘ayratovich Mahkamov
Farg‘ona davlat universiteti goografiya kafedrasi tayanch doktoranti

Dilafruz Baxromjon qizi Karimqulova
Farg‘ona davlat universiteti geografiya mutaxasisligi magistranti

ANNOTATSIYA

Muallif maqolada turizmni rivojlantirishda turistik marshrutlarni ishlab chiqish, turistik marshrutni o‘tkazish, ularni tashkil qilish va marshrutda belgilangan tadbirlar qayd qilish kabi masalalarning ahamiyatli jihatlariga batafsil to’xtalib o’tgan.

Kalit so‘zlar: turistik marshrutlar, tabiiy sharoit, ekzotika, turistik marshrut texnologik xaritasi, ekskursiya, turistik xizmatlar.

ABSTRACT

The author examines in detail important aspects of tourism development, such as the development of tourist routes, the organization of tourist routes, their organization and accounting for activities along the route.

Keywords: tourist routes, natural conditions, exotic, technological map of tourist routes, excursions, tourist services.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining landshaftlari ham boy madaniy va tarixiy merosning integral qismidir. Ushbu merosning reprezentativ obhektlari va komponentlari albatta saqlanishi zarur. Bu boradagi istiqbolli yo‘nalishlardan biri ekoturizm hisoblanadi. Kishilarni tabiiy muhitga sayohatlari yoki ularning doimiy yashash joylaridan muayyan muddatga dam olish, sport bilan shug‘ullanish, sog‘liginit tiklash, mahrifiy-mahnaviy tadbirlarni olib borish maqsadida muayyan hududlarga qiladigan sayohatlari ekoturizm sifatida baxolangan. Ekoturistik marshrutlarini ishlab chiqishda turist va sayohlarning hayoti xavfsizligini tahminlash birinchi vazifa sifatida belgilanadi. Bu borada marshrut rahbari belgilangan tartibda yo‘riqnoma ishlab chiqadi. Marshrutdagi eng mahsulli xizmatlar bu – transport

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1137-1140

xizmatlari hisoblanadi. Turistik marshrutga transport turlari marshrut yo‘nalishi, ekskursiya turi, yo‘lning holati (avtomagistral, tosh yo‘l, shosse, mahalliy yo‘l va hakozo) bo‘yicha tanlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Agar turistlar palatkalarda tunaydigan bo‘lsa, albatda yig‘ma karovatlar, yig‘ma stol-stullar, toza choyshablar tayyorlanishi lozim bo‘ladi. Palatkalarni joylashtirishda iloji boricha ochiq sayhonlik, yoki o‘tloqzorlar tanlanishi maqsadga muvofiq. Qalin o‘suvchi o‘tzor, pichanzorlarda hashorotlar ko‘p bo‘lganligidan bunday joylarda ilon, chayon, qoraqurt, falanga, ari kabi chaquvchi hashorotlar turistlarning hayotga xavf solishi mumkin. Turistik marshrutda yoz oylari dalada tunashni hohlovchi turistlarga maxsus ko‘rpachalar berilishi lozim. Bu usulda tunash ekspeditsiya usuli ham deyiladi. Bunday sharoitda maxsus ko‘rpachalarda mashinalar bortida, balandliklarda bemalol tunash mumkin.

Shuningdek, turistlarni ovqatlantirishda jiddiy ehtiyot choralarini ko‘rish talab qilinadi. Mavsumlarda turistlarni ovqatlantirishda dastlab may-iyun oylarida pishib yetiladigan mevalar (qulupnay, gilos, olma, anjir, tut)ni dasturxoniga tortishda mehyordan oshirmaslik. Yoz mavsumida haroratni yuqori bo‘lishi ichimlik suvi bilan bog‘liq muammolarni (meyoridan ortiq istemol qilishdan saqlanish) keltirib chiqarishi mumkin. Turistlarni milliy taomlarimiz bilan ovqatlantirishda ham ehtiyotlik choralarini ko‘rish lozim bo‘ladi (2-3 xil ovqat tayoyrlash, yog‘li ovqatlar berish va hakozo). Turizm marshrutlaridagi ekskursiyalarda turistlarning hayotiga xavf soluvchi vaziyatlar transport, dam olish, sayrlarda va ovqatlanish xizmatlarida ham yuz berishi mumkin. Chunki, marshrut davomida sayoyhlarga rejada belgilangan barcha xizmatlar ko‘rsatiladi. Ayniqsa ekoturizm marshrutlaridagi (tog‘larda, suv havzalarida, daralardagi so‘qmoqlarda, ekologik inqirozli hududlarda va hakozo) ekskursiyalarda harakatlanishdagi xavfsizlik oldindan tahminlanishi zarur.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Turistik marshrutlar mavzuli, majmuali va kartografik usullar asosida amalga oshiriladi va tayyorgarlik (marshrut hujjatlarini tayyorlash); marshrutda yurish va marshrutning tugashi bosqichlariga bo‘linadi. Tayyorgarlik bosqichida marshrut yo‘lini o‘rganib chiqish, ekskursiya va xizmatlar ko‘rsatish dasturlari tuziladi. So‘ngida turistlarga xizmatlar ko‘rsatish hujjatlari rasmiylashtiriladi. Marshrutni

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1137-1140

amalga oshirish bosqichida marshrutga chiqish (boshlash, yo‘lga chiqish), ekskursiyalar, uchrashuvlar, dam olish va boshqa tadbirlarni marshrut dasturi asosida o‘tkazish, marshrutdan qaytish hamda turistlarning fikri, tahsurotlari, taklifi va taqrizlarini to‘plash, tahlil qilish jarayoni amalga oshiriladi.

Yakunlovchi bosqichda marshrut o‘tkazilganligi haqida hisobot tayyorlanadi. Marshrut davomida yuz bergan kutilmagan muammolar tahlil qilinadi hamda tavsiyalar asosida qo‘shimchalar kirishga kelishib olinadi. Turistik marshrutni o‘tkazishni amalda tashkil qilish va o‘tkazish ishlari, marshrutda belgilangan tadbirlar «marshrut hujjatlarida» qayd qilinishi lozim. Bu hujjatlar quyidagilardan iborat bo‘ladi:

–turistik marshrutni o‘tkazish haqida hujjat (ruxsatnoma, xarita va boshq.);

–turistik marshrutda turistlarga xizmat qiluvchilar haqida hujjatlar (haydovchi, tarjimon, oziq-ovqat bilan tahminlovchilar, yuklarni ko‘taruvchi, axborotchi, boshlovchi va boshqalar);

–hisobot uchun hujjatlar va turistik marshrutning texnologik xaritasi;

–turistga beriladigan yo‘llanma (axborotlanganlik varaqasi mahlumotlar - axborotlanganlik tamoyili bo‘yicha) va marshrutning sxemasi.

Turistik marshrutni o‘tkazish og‘zaki va amaliy metodlar asosida tashkillanadi. Turistik marshrutni o‘tkazishdagi og‘zaki metodika bo‘yicha dastlab turistlar bilan uchrashuv tashkil (turfirma yoki marshrut rahbari) qilinadi. Marshrut davomida marshrut rahbari quyidagi metodik-yo‘l axborotlarini berish usullaridan foydalanadi: ehlonlar, tushuntirishlar, xabarlar, mahlumotlar va suhbatlar. Turistik marshrutni o‘tkazishda amaliy metodida axborotlar qisqa, mazmunli, maqsadli, qiziqarli bo‘lishi marshrut rahbaridan o‘z ishi bo‘yicha usta bilimdon, yetuk mutaxassis bo‘lishligini talab qiladi.

XULOSA

Ekoturistik marshrutlar ishlab chiqishda dastlabki talab marshrutdagi jozibadorlik, turistlarning diqqatini tortadigan va qiziqtiradigan turistik obhektlar hisoblanadi. Marshrut ishlab chiqilgandan keyin ham ushbu tur haqida imkon darajasida rangli bukletlar ishlab chiqishga ehtibor beriladi. Aslida ham har qanday turning jozibadorligi, qiziqarli ekanligi haqida ana shu bukletlar dastlabki turizm bozoriga chiqariladigan reklama mashuloti ham hisoblanadi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1137-1140

REFERENCES

1. Abduvaliev H. A. Geogra'hical trends of the ethnoecological researches //Uzbekiston va Rossiyada geografiya fani: umumiy muammolar, hamkorlik salohiyati va istiqboli. – 2019. – S. 14-17.
2. Maxkamov E. G. Rekreatsiya va turizmni tashkil etishda tabiiy sharoitni baholashning nazariy jihatlari //GEOGRAFIYa: PRIRODA I OBO'ESTVO. – 2020. – T. 1. – №. 4.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1141-1145

ЛАНДШАФТ ОМИЛИ АСОСИДА АҲОЛИ ҲУДУДИЙ ТАКРИБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Ҳайитбой Абдуғаниевич Абдувалиев
Фарғона давлат университети география кафедраси катта ўқитувчиси, г.ф.ф.д.
h.abduvaliyev@mail.ru.

Ферузахон Алижон қизи Ҳамдамова
Фарғона давлат университети, география мутахасислиги магистранти

Зилолахон Зохиджон қизи Эралиева
Фарғона давлат университети, география мутахасислиги магистранти

АННОТАЦИЯ

Муаллиф мақолада аҳолини жойлаштиришда ҳудуднинг табиий имкониятларидан фойдаланиш аҳолини жойлаштиришдаги иқтисодий ҳаражатларни камайтиришини тахлил этади. Камроқ маблағ сарфлаб аҳолига қулай, ишлаш ва яшаш учун шароитларни яратиш мумкинлиги ҳамда бу вазият экологик муаммолар келиб чиқишини олдини олишини таъкидлайди.

Калит сўзлар: аҳоли, ишлаб чиқариш, ландшафт, аҳоли меъёри, аҳоли зичлиги, демографик босим, табиий демографик имконият.

ABSTRACT

The author analyzes the use of the natural resources of the region during the resettlement of the population, which reduces the economic costs of resettlement. He emphasizes that with lower costs it is possible to create comfortable working and living conditions for the population, and such a situation will prevent the emergence of environmental problems.

Keywords: population, production, landscape, population rate, population density, demographic pressure, natural demographic opportunities.

КИРИШ

Бугунги иқтисодий географик тадқиқотлар қаторига аҳолини ҳудудий ташкил этилишини такомиллаштиришда табиий-ландшафт имкониятларидан максимал фойдаланиш масалалари тегишли бўлмоқда. Ҳудудларнинг табиий-

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1141-1145

ландшафт имкониятларидан ўзига хос иқтисодий географик ёндошув сифатида қаралмоқда. Бундай ёндошув бугунги кунимиздаги 2 та долзарб муаммони ечимига қаратилган. Биринчидан, аҳолини жойлаштиришда ҳудуднинг табиий имкониятларидан фойдаланиш аҳолини жойлаштиришдаги иқтисодий ҳаражатларни камайтиради. Озроқ маблағлар билан аҳолига қулай, ишлаш ва яшаш шароитлари яратилади. Бозор иқтисодиёти шароитида бу муҳим масалалардан бири ҳисобланади. Иккинчидан, аҳоли ва ишлаб чиқаришни ландшафт имкониятларидан келиб чиқиб жойлаштириш, ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичларни табиий-ландшафт талабларга мослаштириш экологик муаммолар келиб чиқишини олдини олади. Ҳудудга тушадиган демографик босим миқдорини меъёрлаштириш имкониятини беради [1].

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ҳар бир суғориладиган ландшафт учун ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан самарали, экологик жиҳатдан хавфсиз бўлган демографик юк (1 км^2 майдонга тўғри келадиган аҳоли зичлиги кўринишида) миқдорининг оптимал кўрсаткичлари ҳисоблаб чиқилди. Бугунги иқтисодий ривожланиш даражаси ва урбанизация жараёнидан келиб чиқиб, Фарғона водийсида энг юқори табиий-ландшафт кўрсаткичларига эга бўлган конуссимон ёйилмалар текисликларида аҳоли зичлигини қишлоқ туманларидаги максимал зичлиги 650 киши атрофида бўлиши белгиланган [1]. Демографик юкнинг энг кичик кўрсаткичи паст тоғлар, тоғ олди пролювиал текисликлари ва адир ландшафтлари учун қайд этилди [2].

Аҳолининг ҳудудий ташкил этилишини ландшафт омили асосида ишлаб чиқилган тавсиялар маъмурий туманлар кесимида, ҳар бир ландшафт баландлик минтақаси учун алоҳида картографик усулда бажарилди (1-расм). Масалан, Жалақудуқ туманида 2 та ландшафт баландлик минтақасида (адир ва адир оралиғи аллювиал-пролювиал текисликлари) аҳоли зичлиги мос равишда 190,3 ва 671,3 кишини ташкил этади. Баҳолаш шкаласи бўйича адир ландшафтларда аҳоли зичлигини оптимал кўрсаткичи 422 киши бўлиши белгиланган. Демак, Жалақудуд туманида ландшафтли режалаштириш дастури доирасида аҳоли зичлигини 204 кишига кўпайтириш имконияти мавжудлиги башорат қилинди.

Фарғона водийси табиий-демографик имконияти (ТДИ) маъмурий туманлар бўйича ҳисобланиб, таснифий жадвал ишланди. Таснифий жадвал

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1141-1145

ёрдамида Фарғона водийсидаги маъмурий туманлар аҳоли зичлиги кўрсаткичида ифодаланган демографик босим миқдори меъёрдан жуда юқори (Асака, Шахрихон, Булоқбоши, Избоскан, Олтинкўл, Тўрақўрғон, Норин, Пахтаобод, Тошлоқ, Наманган, Бувайда), меъёрдан юқори (Андижон, Учкўприк, Уйчи, Баликчи, Марҳамат, Хўжаобод, Риштон, Жалақудуд), меъёрдаги (Боғдод, Қува, Қўрғонтепа, Қўштепа, Чортоқ, Фарғона), меъёрдан паст (Данғара, Бўстон, Янгиқўрғон, Учқўрғон, Косонсой, Олтиариқ, Фурқат, Сўх, Ёзёвон, Қувасой ш.), меъёрдан жуда паст (Ўзбекистон, Чуст, Бешариқ, Улуғнор, Мингбулоқ, Поп) бўлган маъмурий туманлари ажратилди. Чуст, Бешариқ, Улуғнор, Мингбулоқ, Поп туманларида ТДИнинг юқори даражада сақланиб қолаётганлиги аниқланди [3].

Шуни алоҳида айтиб ўтиш зарурки, ТДИ сақланиб қолаётган маъмурий туманларда аҳоли яшаши ва хўжаликни ташкил этиши нуқтаи-назардан имконият паст бўлганлиги сабабли юқоридаги ҳолат юзага келганлиги очиб берилди. Олинган натижаларни батафсил тахлил қилиш мақсадида маъмурий туманларнинг амалдаги аҳоли зичлигини, маъмурий туманнинг ТДИни, маъмурий туман аҳолисини ландшафт омили бўйича такомиллаштириш таклифини ўзида ифодалаган ҳамда маъмурий туманнинг меъёр даражаларини ифодаловчи Фарғона водийси аҳолиси ҳудудий таркибини ландшафт омили



1-расм. Фарғона водийсидаги маъмурий туманлари доирасида ландшафт баландлик минтақалари бўйича аҳоли зичлиги (*Картанинг муаллифлик нусхаси 1:200000 масштабда тузилган. Бу ерда кичрайтириб берилган*).

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1141-1145

Ландшафт доирасида берилган тавсия ва таклифларни амалга оширувчи (ҳаётга тадбиқ этувчи) маъмурий бошқарув марказларининг мавжуд эмаслиги сабабли тадқиқотда табиий ва маъмурий бўлинишни умумлаштириш йўналишда тавсиялар берилди. Бунинг учун ҳар бир ландшафт баландлик минтақасининг қайси маъмурий туман ва ҚФЙ ҳудудида жойлашганлиги аниқланди. Бу ёндошув маъмурий туманларда аҳолини ҳудудий таркибини такомиллаштиришда ландшафт омилини тўла инобатга олиш имкониятини берди.

МУҲОКАМА

Водийнинг 7 та ландшафт баландлик минтақаларининг 3 тасида (конус ёйилмаларининг пролювиал-аллювиал текисликлари, аллювиал текисликлар, адир оралиғи аллювиал-пролювиал текисликлари) ТДИ дан тўлиқ фойдаланиб бўлинган, 4 тасида (тоғ олди пролювиал текисликлари, қадимги аллювиал текисликлар, адирлар, паст тоғлар) ТДИ сақланиб қолганлиги ва бу минтақаларда аҳолини ҳудудий ташкил этиш имконияти мавжуд эканлиги аниқланди. ТДИ тўлиқ фойдаланиб бўлинган деб ҳисобланган 3 та ландшафт баландлик минтақасида саноатнинг аҳоли катта қатламини банд қилиши мумкин бўлган мехнатталаб тармоқларини ривожлантириш, урбанистик вазиятни шакллантириш орқали мавжуд демографик юкни бир оз камайтириш бўйича тавсиялар бериш имконияти юзага келди.

ХУЛОСА

Аҳолининг ҳудудий ташкил этилишини такомиллаштиришда ландшафт баландлик минтақаларининг табиий имкониятларидан максимал фойдаланиш ҳамда ландшафтларнинг «демографик юк» кўтариш даражасини аниқлаш мақсадида ҳар бир ландшафт баландлик минтақасига оид «табиий-демографик имконияти» аниқланди. Баҳолаш жараёнида ҳисоблаш ва карталаштиришнинг илмий-услубий асослари такомиллаштирилди. Бу аҳолини ҳудудий жойлаштиришда ҳар бир ландшафт баландлик минтақасининг «демографик юк» кўтариш даражасини эътиборга олиш имкониятини яратади. Аҳоли зичлигида ифодаланган амалдаги «демографик юк»ни оптимал миқдорларини аниқлаш, эко ва социо-демографик муаммоларни олдини олиш учун ҳар бир ландшафт баландлик минтақасининг табиий-демографик имкониятларидан келиб чиқадиган демографик юк кўтариш меъёрлари аниқланди. Мавжуд 7 та

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1141-1145

ландшафт баландлик минтақасининг 3 тасида табиий-демографик имкониятдан тўлиқ фойдаланиб бўлинганлиги, кўрсаткичлар ҳисобланган меъёрдан бир неча баробар юқорилиги қайд этилди. Табиий-демографик имкониятдан фойдаланиб бўлинган минтақаларда аҳолини ҳудудий таркибини такомиллаштиришнинг иқтисодий-ижтимоий имкониятларидан кенгроқ фойдаланишни тавсия этиш лозим.

REFERENCES

1. Abduvaliyev H. A., Jarqinova M. X. AHOLINING HUDUDIY TARKIBINI TABIIY-LANDSHAFT BIRLIKLARI BO ‘YICHA TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 33-38..
2. Аҳмадалиев Ю. И., Абдувалиев Ҳ. А., Алимджанов Н. Н. ABOUT THE ETHOGEOGRAPHIC ROOTS OF PROBLEMS OF THE CONSUMING WATER AND GROUND RESOURCE //Геоэкологические проблемы бассейна Аральского моря: научные идеи, исследования, инновации. Сборник материалов Международной научно-практической конференции. – 2019. – С. 107-111.
3. Ахмадалиев Ю. И. НЕОБХОДИМОСТЬ ПРОБЛЕМНОГО ПОДХОДА К ИССЛЕДОВАНИЮ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ РЕГИОНА //Актуальные вопросы современной науки. – 2015. – №. 3. – С. 24-28.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1146-1150

“MANTIQ UT-TAYR” VA “LISON UT-TAYR” DOSTONLARIDA ISHQ TALQINI

Shahnoza Abdimuminovna Qahhorova
Qarshi davlat universiteti dotsenti
shahnozak69@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada “Mantiq ut-tayr” va “Lison ut-tayr” dostonlarida ilohiy ishqning badiiy talqini haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: solik, maqom, suluk, ishq, fano, baqo, vahdat ul-vujud.

POETIC INTERPRETATION OF DIVINE LOVE (ISHQ) IN THE EPIC “MANTIQ UT-TAYR’’ AND “LISON UT-TAYR’’

ABSTRACT

In the article It is conceived about the interpretation of the divine love in the epic poems of "Mantiq ut-tayr" and “Lison ut-tayr”.

Keywords: tax, status, leech, love, death, eternity, unity.

KIRISH

Tasavvuf insoniyat yaratgan ma’naviy-ruhiy kashfiyotlardan biri bo‘lgan murakkab ta’limotdir. Tasavvufni lo‘nda qilib ilohiy muhabbat haqidagi ilm deyish mumkin. Chunki tasavvuf ilohiy ma’rifatni egallash, Allohning sifat va ismlari orqali Uning zotini bilish va tanishni talab qilar ekan, buni aql va nazariy tafakkuriy bilimlar bilan emas, balki yashirin bir ichki tuyg‘u, botiniy basirat, ya’ni muhabbat vositasida amalga oshirish mumkin, deb ta’lim beradi[1:48]

Solikdan ma’lum bosqichlarni bosib o‘tishi talab etiladi. Lekin bu bosqichlar ichida ishq, tavhid, fano muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” va Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonlarida tasavvufning muayyan mavzulari, shu jumladan, ilohiy ishq nihoyat darajada yorqin badiiy talqin qilingan.

Tasavvuf ta’limotida ilohiy ishq solik ma’naviy kamolotining eng yuqori bosqichi fano uchun dominant vazifasini o‘taydi. Ishq oshiqni baqo olamiga olib

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1146-1150

boruvchi olov, Ishq solik shavqu zavqi, mushohada-mukoshifasini tezlastiruvchi kuch. Qalbda ishq olovi qanchalik kuchli bo'lsa, solik haqqa yetishmoq pog'onalaridan shuncha oson ko'tarila boradi.

"Mantiq ut-tayr" va "Lison ut-tayr" dostonlari ilohiy jamolni bilish va uni tanishga intilishda ilohiy ishq asosiy kuch ekanligi o'z badiiy ifodasini topgan. Ikki dostonda ham talab vodiysidan so'ng ikkinchi bo'lib ishq vodiysi ta'rifi beriladi. "Mantiqu-t-tayr" dostonida ishq ta'rifi yigirma bir bayt, "Lisonu-t-tayr"da yigirma besh bayt maqolatdan tashkil topgan. Ikki dostonda ham ishqning mohiyati aniq ifodalab berilgan. Attor ishq vodiysi ta'rifini *"Gar nasibing ersa g'aybdin senga ko'z, sen ko'rarsen qaydin ermish ishqu so'z"*deb ifoda etadi. Ya'ni: Agar kishida g'ayb olamini ko'rish fazilati ato etilsa, asl ishq ana shudir. Navoiy ishqning talqinini *"Ishq o'tig'a oshiqi pok o'rtanur, barqdin ondoqki xoshok o'rtanur"* ishq o'tida pok oshiqning o'rtanishi xirmonga chaqmoq tushgandek kuydirib yuboradi deb ta'riflaydi.

Attor ishqning mohiyatini olti hikoyat orqali ochib berishga urinadi. Birinchi hikoyat bir kishi Faqoiydan "ishq nima?" degan savoliga quyidagicha javob oladi:

Dedi: ishq ul, yuz jahon molingni, bas,
Bir qadah sharbatga etgaysen evaz…
Tushmaguncha boshiga savdoyu sir,
Kimsa bilmas ishq nadir, savdo nadir. [2:295]

Ikkinchi hikoyat Majnunning Laylini ko'rish uchun qo'y terisini yopinib borib ko'rgach ishqdan behush bo'lgani, unga kiyim-bosh bermoqchi bo'lishganda Majnun rad etib:

Ishq kerak aqlu xiradni haydasin,
Dil sifotingni mubaddal aylasin.
Bo'lmagay oshiqda o'zga fikr-uy
Jon tikarsen unga, o'zga gapni qo'y.
Qo'y qadam, joning sarafro'z ersa ul,
Bu o'yinmas balki jonbozlik erur. [2:296]

deb javob qaytargani haqida

Uchinchi hikoyat bir faqirning Ayozga oshiq bo'lgani va Ayozning unga e'tibor ham qilmagani. Buni ko'rgan Sulton Mahmud gadoga shoh bilan tenglashmoqni istaysanmi? Deb aytganda gado hech qachon men shoh bilan tenglasha olmayman. Nima qilay aql bu yerga kelma desa ham ishq meni bu yo'lga boshlayveradi deb javob berganligi haqida.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1146-1150

To’rtinchi hikoyat bir arabning Ajam yurtiga borib guzarni sayr etib yurganda bir qalandarxona uning etiborini tortadi. U yerga yaqinlashganda “ichkari kir” degan ovoz ehitiladi. Qalandarxonaga kirganda unga may quyqasi ichirishadi. U bir ichishda mast bo’lib qoladi. U hamma oltin kumushlarini sochib hech vaqosiz qoladi. Arab yurtiga qaytganda yaqinlari ajamga borish xayrsiz bo’ldi deb aytishadi. U arab butunlay yo’qlikka botgandi, uning yodida faqat “kir ichkari”degan so’z qolgandi. Hikoyat oxirida ushbu misralar keltiriladi:

Yo’lga kir yo bosh olib ket bir tomon,
Jonga qo’sh joningniyu o’t bir tomon.
Jon ila etsang qabul asrori ishq,
Jon berib, boshingni et darkori ishq.
Benavo qolsang yana, jondin nari,
Senga qolgan so’z bo’lur: kir ichkari… [2:301]

Beshinchi hikoyat bir oshiq yigit mashuqasining og’ir dardga chalinib darddan qiynalib o’limi yaqinlashib borardi. Bu xabarni eshitgan oshiq qo’liga pichoq bilan mashuqasini o’ldirishga otlanadi. Odamlar unga o’likni o’ldirib nima qilasan deganlarida oshiq ularga:

Jonki ketsa o’rtadin, bejon bo’lur,
Xilvat aylar, maxrami jonon bo’lur.
Xilvat etsa, yo’lda bir dayyor yo’q,
Ikki olam yoru bir ag’yor yo’q.
Kimki bu xilvatga topsa yo’l dame,
Ko’rmagay ul axli xilvatda g’ame. [2:302]

Oltinchi hikoyat Xalilullohning o’lim vaqti kelib uning jonini olishga Azroil keladi. Xalilullohning Azroil jon berishdan bosh tortib, faqat jon ato etgan uni qaytarib olishga haqli deb aytgani haqida.

Alisher Navoiy ishq bobida faqat bitta hikoyat keltiradi. Asmaiy hajga ketayotganda bir gulzorda chashma yoniga hordiq chiqarayotganda chashma boshida bir toshga yozilgan xatni ko’radi.”Ey ahli Hijoz, chorasin oning chu bilgaysiz bu roz. Kimsa bo’lsa ishq zori naylasun? Bo’lmasa sabru qarori naylasun?” [3:206] deb yozilgan edi. Asmaiy qo’liga qalam olib, bu xat ostiga bunday yozdi: “Kim bu varta ichra istar poklik, Qilmasun fosh etkoli beboklik” [3:206]. Asmaiy ertasiga kelib qarasa, o’sha kotib yana quyidagilarni yozib qo’yibdi.

«Kim agar ul oshiqi ozurda jon,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1146-1150

Bo‘lsa poku tutsa ishqin ham nihon,

Lek ul shavqu muhabbat shiddati,
Tez o‘lub, toq o‘lsa oning toqati,

Vasl bo‘lsa ehtiyoji naylasun,
Topmasa bu ish iloji naylasun?» [3:207]

Asmaiy bu sirni ko’rgandan keyin, sehrli qalami bilan shunday yozdi:

«Ul notavoni dardmand,
Kim anga ishq ichra yozdim bo‘yla pand.

Topmasa ul pand birla ixtisos,
O‘lsunu ishq o‘tidin bo‘lsun xalos» [3:207]

Berahm nasihatchi yana chashma yoniga kelib, oshiq javobini bilmoqchi bo’ldi. Qarasaki :

Boshin ul tosh uzra ul yanglig‘ urub,
Kim ikisin bir-biridin sindurub.

Chashma suvin qoni aylab lolagun,
Suv sari tosh ustidin boshi nigun. [3:208]

Har ikki dostonda ham ishqning badiiy talqini orqali uning mohiyati bir-biriga muvofiq keladi. Biroq ishqni yoritishdagi talqinlar farqlidir. Attor olti hikoyat orqali mavzuni ochib berishga urinadi. Navoiy bir hikoyat keltirib mohiyatni aniq ko’rsatadi. Ayniqsa hikoyat oxirida:

Foniyo, ishq ichra foniy bo‘yla bo‘l,
Bo‘lmasa sabru shikebing, bo‘yla o‘l.

Kimga bu o‘lmak nasib etsa xudo,
Yuz tuman jon bo‘yla o‘lmakka fido,- [3:208]

deb yakunlashi ishq dardiga mubtalo bo’lgan solik vaslga yetishmoq uchun shu kabi foniy bo’lish yo’li ana shunday bo’lishini takidlab yakunlaydi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1146-1150

Dostonning ikkalasida ham baqo olamini anglashda, olam mohiyatini ochishda asosiy qurol bo'lgan ishq go'zal badiiy talqin qilingan. Chinakam solik — bu oshiq solikdir.

REFERENCES

1. Комилов Н. Тасаввуф. –Тошкент: Ёзувчи, 1996.
2. Attor, Shayx Fariduddin. Mantiq ut-tayr (J.Kamol tarjimasi). – T.: Fan, 2006.
3. Navoiy, Alisher. Lison ut-tayr/ Navoiy, Alisher. To'la asarlar to'plami. Yigirma jildlik. O'n ikkinchi jild. – T.: Fan, 1996.
4. Turor Usmon. Tasavvuf tarixi (Nodirxon Hasan tarjimasi). – T.: Istiqlol, 1999.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1151-1157

ALISHER NAVOIYNING “SAB’AI SAYYOR”DOSTONIDA DILOROM OBRAZI ORQALI SHARQ AYOLLARI MILLIY XARAKTERINING OCHIB BERILISHI

Huriyat Shamsiyeva
Qarshi davlat universiteti magistratranti
Ilmiy rahbar: **Ravshanova G (f.f.f.d)**

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada “Sab’ayi sayyor”dostonidagi Dilorom obrazi orqali sharq ayollarining milliy xarakterining ochib berilishi haqida fikr mulohazalar bildirildi.

Kalit so‘zlar: “Sab’ai sayyor “, Dilorom, qaqnus, ma’shuqa, Shoh Bahrom, Xorazm, sarv, kavkab, la’l, Xo’tan.

KIRISH

Sharq ayollari azal zaldan vafo sadoqat, nazokat va nafosat timsoli sifatida vasf etilgan. Sharq ayoli o‘zining qalb go‘zalligi bilan boshqalardan ajralib turgan,mehnatidan baxt topgan,niyati pok, o‘zi pok nozik xilqatdir.Ana shunday vafo va sadoqatni o‘zida mujassam etgan qahramonni Hazrat Alisher Navoiy o‘zining “Sab’ai sayyor “dostonida Dilorom obrazi orqali yaratdi.

So‘z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy sharq ayollari tavsifida vafoga shunday go’zal misralar bitadi: “Vafo shunday bir pokiza matlubaki, u ko’ngli pok bo’lmagan kimsaga yaqinlashmaydi,Vafo shunday asl gavharki,u insoniyat tojiga ziynatdir.U vafo va hayoni egizak holda ko’radi.Har bir yurakda vafo bo’lsa,u yerda hayo ham bo’ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hazrat Alisher Navoiy Dilorom tavsifida oy, quyosh, yulduz, kabi tabiat unsurlariga murojaat qiladilar. Ulug’ shoir dostonning XIII bobida yana Dilorom tavsifini yuksak husn-u tavajjuh bilan chizar ekan, tabiatdan ma’shuqa husniga mos qiyoslar topadi. Suyukli qahramonning yuzi oila va nasrin gallariga, ko’zlari ohu ko’zlariga tashbeh qilinadi. Ulug’ mutafakkir talqinicha, bu Sharq go’zalining ikki chakkasidan osilib turgan ikki qora kokili tabiatning ajralmas bir bo’lib, tun va kechaga o’xshaydi. Tasvir davomida ulug’ shoir ruju sa’natiga rag’bat ko’rsatadi. Go’yoki oldingi tasvirdan voz kechgandek bo’ladi. Ularni kokil ham, tun ham emas, tuzoq deyavering, - deya ta’kidlaydi. Tasvir va talqin yana tabiat tunga kelib ulanaveradi. Chunki har doim har bir tuzoq Laylini, ya’ni kechani va go’zalni eslatadi. Tuzoq ostida esa, yuqorida ta’kid etilganidek, lola va nasrin gullari kabi oq qizil yuzida ikki ohu ko’zlari kulib turadi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1151-1157

Diloromning ko'zlari uning qarochig'i esa, Xo'tan kiyimidan olingan anor hidli qora mushkni eslatadi. Diloromning yuz gulzoru, ikki labi ikki ajib gulbargdir:

Zulf yo'q, laylikim, ochib iki dom.
Lek har doim laylidin bir lom.
Domi ostida lolavu nasrin,
Tushub anda iki g'azolayi chin.
Ko'zi jayran, qarosi mushki xo'tan,
Tomizib holi mushkin ul jayran.
Nuqtayi xoli rangi shomi visol,
Yuzining subxi nuqtasi ul xol.
Yuzi gulzoru iki lab anda,
Iki gulbargi bulajab anda.

Ulug' shoir Diloromning labini tabiatning qimmatbaho ne'mati-la'lga o'zini ona tabiatning xush isli inomli gulga qiyos qiladi. Shunisi hayratlanarliki, u lablarini ochganda, og'zidan so'z o'rniga dur sochiladi. Diloromning tishlari la'l ichidagi dur, balki obi hayot ichidagi shudringdir.

Ma'shuqaning qulog'idagi halqalar tasvir qilinar ekan, yana yulduz va quyosh timsollari tashbih uchun zamin vazifasini bajaradi. Ikki qulog'ida ikki isirg'a yulduzdek yaltirib turadi. Ammo bu yulduzlar shunday yulduzlarki, ular quyosh atrofida qiron qilmoqchi bo'lgan fitnagar yulduzlarni eslatadilar:

Har qulog'ida durri raxshanda,
Ikki kavkab kibi duraxshanda.
Mehr atrofida makon aylab,
Fitna qilmoq uchun qiron aylab
Dema qad , nozanin niholi bixisht,
Ruh sarmoyasidin anga sirisht.
Jilva qilmoqtakim, ravon ko'runub,
Ruhdin go'yiyo nishon ko'rinub.

Odatda, mumtoz she'riyatda mashuqa qaddi-qomati sarv daraxtiga qiyos qilinadi. "Sab'ayi sayyor" qahramoni qomatini ulug' shoir jannatdagina bo'ladigan nozanin niholining xuddi o'zginasi, deya ta'rif etadi..

Dostonning XIX bobida Diloromning sozandalik xususiyati to'g'risida mulohaza yuritgan shoir ona tabiatdan yana yangidan yangi qiyoslar topadi. Binobarin, sarvqad go'zal nastarin guli kabi oq badaniga gulrang jon iplarini uzmoq uchun changni qo'liga oladi.

Tasvir va talqin gullar dunyosidan qushlar olamiga ko'chadi. Dilorom afsonaviy qaqnus qushicha tashbih qilinadi. Baytdan bayotgacha ko'chgan sari qushlar davrasi yana

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1151-1157

kengayib boradi. Bu davraga tovus, bulbul ham kelib qo'shiladi. Ulug' shoir fikricha, Dilorom xuddi qaqnus qushiga o'xshaydi. Qaqnus xushovoz qush bo'lib uning tumshug'idagi 360 teshik dan 360 xil ovoz va ohang chiqadi. Aslida musiqa ohanglari qaqnus ovozlaridan olingan. Mazkur qush ming yil umr ko'rgach, o'zini o'tga tashlab yonib ketar ekan. Dilorom ham o'sha qaqnus qush misol ohanglari bilan olamga o't solur edi. Chang teshiklaridan mungli ovozlar chiqarkan, o't sachragandek tuyulardi. Uzoqdan kuzatgan kishiga bu manzara qaqnus bilan tovus jo'r bo'lib bir ohanga kirayotganini eslatadi. Diloromning jamoli tovusdek jilvagar bo'lsada, ovozi bulbul ohangidek yoqimli. U bulbul kabi ming ohangda doston o'qiydi, qaqnus esa unga qo'shilib kuylaydi:

Tor ila nag'ma beadad bo'lubon,
Tor yo'q, nag'malarga mad bo'lubon.
Chunki har suqbadin chiqib bir lahn
Bo'lubon pur sado etinchi sahn.
Chunki qaqnuslik aylabon izhor,
O't solib olam ichra qaqnusvor.
Suqbadin lahni zorlar bilinib,
Sekribon o'tkim torlar bilinib.
Bo'yla qaqnusqa bu sifat tovus,
Hamnavolig' aro bo'lib ma'nus.
Garchi tovusdek jamoli aning,
Bulbul alhon ila maqoli aning.
Bulbul oso chekib bu ming daston,
Bo'lubon qaqnus anga hamdaston.
Ul navolardin o'rtanib olam,
Xossakim bulbul o'lsa, gurux ham

Baxrom va Dilorom munosabatlarini yoritishda tabiatning yer, falak osmon, quyosh, sahro, dasht kabi unsurlaridan ulug' shoir mohirona foydalangan. Ulug' mutafakkir talqinicha , shoh yer yuzida bu parizod bilan, falak esa, osmonda o'z quyoshi bilan bazm tuzadi. Ikki oshiq-ma'shuq sahrolarni kezib, dashtlarni aylanadi. Ijodkor dostonning barcha boblarida Diloromga nisbatan kiyik, ohu ishorasini kuylashdan erinmaydi, tabiatning gulzor, maysazor, lola, sabza kabi unsurlariga tez-tez murojaat qiladi. Navoiy talqinicha, ohu ko'zli Dilorom go'zal Chin diyorida parda ichida tug'ilib, yashab, istiqomat qilgan. O'sha yurtning gulzorlarida o'ynab kulgan. Shuningdek muattar hid sochuvchi bu kiyik lolalar ichida ulg'aygan. Shuning uchun ham u cho'l-u biyobonlarda sayr etishni xush ko'radi:

Aslida ul g'azolayi mushkin
Chin fazosida erdi hajla nishin.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1151-1157

Ham Xo’tan dashtida maqom etgan,
Ham gulu sabzada xirom etgan.
Dasht uzra g’azoli mushkin bo’,
Lolavu sabza uzra qilg’on xo’.
Chun anga bu sifat shamoyil edi,
Dasht sayrig’a asru moyil edi.
Shahga xud dasht sori ish chopmoq,
Sayd qilmoq bila farah topmoq.
Ikisi tabig’a muloyim sabr,
Bu jihatdin alarg’a doim sayr.

Alisher Navoiy salbiy xodisalar talqinida ham tabiat lavhalariga murojaat qiladi. Shohning merganlik mahoratiga “har kim bir narsani mashq qilaversa, mahoratga ega bo’ladi”, – deya javob bergani uchun Dilorom shoh g’azabiga uchraydi. Jallodlar Diloromni maxofadan chiqazib, biyobon tomon sudraydilar. Biyobon ham tabiatning bir bo’lagi. Ammo bu dasht shundayki, unda o’sgan har bir giyoh xuddi o’qqa o’xshaydi. Unda suv yo’q. Tabiat mo’jizalari – jonivorlar umriga zomin bo’ladigan zaharli o’tdan boshqa hech qanday giyoh u biyobonda bitmaydi:

Maxddin oyin chiqirdirlar,
Bir biyobong’a elta bordilar.
Har giyohi aning nechukkim o’q
Davrida necha kunchilik suv yo’q
Jonivar umrini qilurg’a taboh
Butmay anda bag’ayri zahr giyoh

Go’zal Diloromni shu biyobonga olib borib ikki o’rim sochi bilan oyoq qo’lini tortib bog’lab, tashlab ketadilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shoh Bahrom may va g’azabning harorati bilan shunday farmon bergan edi. U har kuni tongda may bilan og’iz ochar, shu payt yonida Dilorom ham bo’lar edi. Saharda uyg’onib, tong mayini talab qilganida yonida sevgilisi yo’qligini sezib qoladi. Nima qilganini anglaydi. Dunyo ko’ziga qorong’u bo’lib ketadi. G’azab mastligidan hushyor va g’aflat uyqusidan bedor bo’lgan shoh biyobondan Diloromni izlashga tushadi. Alisher Navoiy shu o’rinda chaqmoq , la’l, tosh kabi tabiat unsurlaridan mohirona foydalanib, hajr iztiroblarini boshidan kechirayotgan oshiq holatini o’quvchi ko’zi oldida jilolantiradilar. Shohning ichiga shunday chaqmoq tushdiki, uning butun vujudi alanga ichida qoldi. Falak uning la’l javoxirlar bilan ziynatlangan boshiga behisob toshlar

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1151-1157

yog'dirdi. Bahromga sidqidildan vafoli yor bo'lgan Dilorom shoh tomonidan ham hech qanday aybi bo'lmagan holda og'ir jazoga mubtalo bo'ldi. Eng yaqin odamlaridan ana shunday munosabatni ko'rgan bechora qiz taqdirga tan bermoqqa majbur edi.

Dilorom Bahrom qoshida ekanligida shohga mehr-sadoqat bilan xizmatda bo'ldi. U Bahromning ko'nglini shod etmoqni o'z vazifasi deb bildi va bu vazifani mahorat bilan amalga oshirdi. Ammo Alisher Navoiy bu vaqtda Diloromning Bahromga muhabbati bo'lganmi yoki bo'lmaganmi yozmaydi. Dilorom Bahromning g'azabiga uchragan paytida agar shu muhabbat bor bo'lgan bo'lsa u o'tmog'i mumkin edi.

Ammo Diloromda aksincha bo'ldi. U Xorazm hukmdorining uning nikohiga o'tishi to'g'risidagi taklifini rad qiladi. Xorazmda ekanida yana Bahrom bilan uchrashuv ehtimolini garchi ko'zda tutmasa-da, Bahromga sadoqatini saqladi. U hech qachon Bahromni unutmadi. Dilorom Bahromning g'azabi tufayli o'z boshiga tushgan balolar uchun o'zini ayblaydi. Diloromning Bahromga bo'lgan muhabbati uning Xorazmdan Bahrom huzuriga qaytayotganda oxirgi manzilda qilgan nolalarida ayniqsa baralla eshitiladi.

Ki bu yo'l ne balo uzog' o'ldi
Tobidin dog'im uzra dog' o'ldi.
Yetti og'zimg'a ranjdin jonim
Qolmadi g'am yemakka imkonim.
Umrdin noumid o'ldim lo
Mehnat-u hajr ichinda o'ldim lo!
Ul kun o'lg'aymu, ey sipehri daniy
Ki solib shoh xizmatiga mani
Qulog'ig'a so'zumni yetkursang
Ayog'ig'a ko'zumni yetkursang.
Vasldin hosil o'lsa darmonim
Bo'lmag'ay o'lsam o'zga armonim.

Shundan ma'lum bo'ladiki, Dilorom shoh Bahromni chin yuragidan sevar edi. Shuning uchun ham Dilorom hamisha Bahromga sadoqatini saqladi. Boshiga tushgan savdolar uchun Bahromni ayblamadi.

Alisher Navoiy bu asira, tutqun ayolning ma'naviy jihatdan qanchalar baland ekanini shu lavhalar orqali ko'rsatadilar. Bu sevgining kishini qanchalar yuksaklikka ko'tarishidan aniq bir nishonadir.

Diloromni ko'p izlab topa olmagach, Bahrom u bu foniy dunyodan ketgan degan xayollarga ham beriladi. Alisher Navoiy oshiqning ayni vaziyatdagi holatini tabiat unsurlari bilan uyg'unlikda yangi istisnolar bilan bog'lab, go'zal badiiy liboslarda aks ettiradilar. Alisher Navoiy talqinicha, Bahrom dasht-u sahrolarni qanchalik axtarmasin,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1151-1157

sarvni topa olmadi. Chunki u sarv endi jannat gulistonlarida jilva qilmoqda, behishtdagi savrlarga dasht-u biyobonlarda bo'lmaydi, uning maskani guliston-u bo'stonlardir:

Har necha kezdi dashtu sahroni;
Topmadi zod sarvi ra'noni.
Sarvg'a jilvagah gulistondur,
Xossa sarviki, nor pistondur.
Ne tilar sarv dashtu vodi aro,
Sarv o'lur bo'ston savodi aro.

Bahrom Diloromni o'z sochlari bilan bog'lab sahroga tashlagan edi. Shuning uchun ham uni garchi natijasiz bo'lsada, dasht-u sahrodan izlashda davom etaveradi. Mamlakat-u saltanat uning xotirasidan ko'tariladi, sahro vahshiy jonzotlaridek biyobonni o'ziga maskan qiladi. Mutafakkir shoir Diloromni quyoshga, tungi yulduzlarni Bahromning ko'z yoshlariga qiyos qiladi.

Yuz yoshurg'och quyosh diloromi,
Sochti ashkin sipexr bahromi
Tiyralikdin falak topib ozor,
Hajr shomi nechukki, oshiqi zor.
Shoh Bahromg'a tun ayladi zo'r,
Ko'ziga olam o'ldi o'ylaki, go'r.
Qaro qayg'u bila qolib g'am aro,
Ko'rdi o'zni g'arib olam aro.

XULOSA

Dostonni mutolaa qilar ekanmiz, Hazrat Alisher Navoiy Dilorom va sadoqatni uyg'un yaxlit holda ko'rganliklariga qat'iy ishonch hosil qilamiz. Hijronda qolgan Bahrom ruhiyati tasvirida mutafakkir shoir tabiatga murojaat qilar ekan , badiiy talqinga mos qiyoslar topadi. Yori jamolini yodiga keltirgan oshiq ahvolini tasvir qilar ekan, oy, ohu, kiyik, jayron, la'l, hatto pashsha kabi tabiat unsuridan o'rinli foydalanadi. Diloromning payvasta qoshlari Bahromni oy kabi nozik va xasta qilib qo'ydi. U yorining kiyik ko'zlarini eslar ekan, qalbini dastida yuzlab jayronlarning yugurib yurganini o'ylaganda Bahom oh tortar, uning nolasidan osmonda quyosh ham, oy ham o'rtanar edi. Uning pashsha misol qora xoli buning ko'zini ko'r qilgach, yuragiga kirib olib, ko'nglining jarohatini ortirgan edi. Ko'zidan oqqan qondan dasht biyobon qip- qizil la'lga bo'yalgan edi. Shoir nihol, sarv, ilon kabi tabiat unsurlaridan foydalanib fikrning poetik tasirini behad ortilishiga erishadi. Hazrat Navoiy talqinicha, Bahrom yori haqida o'ylar ekan, ohidan umr niholi qurir edi. Yorini xayoliga keltirar ekan bu xayol uning jismini zaiflashtirar, ko'ziga, o'ziga o'zi chirmashib to'lg'onayotgan ilondek ko'rinar edi. XVII

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1151-1157

bob davomida , hijronga o’rtanayotgan oshiqning azob – uqubatlari o’quvchi ko’zi oldida yorqin aks etiradi. Ajdaholarni zabun etgan Bahromni ishq ajdahosi chumolidek ezg’ilaydi. Sherlarni taslim etgan pahlavon ishq dardi qarshisida sichqondek ojiz va chalajon bo’lib qoladi va hokazo.

Hazrati Alisher Navoiy insonning borliq bilan aloqadorligini mukammal ifodalagan buyuk so’z sanatkoridir.Asarda sadoqat va vafo timsoli namunasi sifatida Dilorom obrazi orqali sharq ayollari milliy xarakteriga yangi-yangi sahifalar olib kirdi. Dilorom – tashqi qiyofasi bilan ham ,ma’naviy dunyosi va xulq-atvori bilan ham nihoyatda go‘zal qiz. Hazrat Navoiy Dilorom obrazini tasavvurimizga shunday go‘zal chizgilar ila muxrlaydilarki,biz bu sharqona tarbiya topgan qizni bundan boshqacha tasavvur etolmaymiz.

REFERENCES

1“Xamsa” A. Navoiy. Yangi asr avlodi. Toshkent, 2014.
2 A. Navoiy “Xamsa” F.Fulom nomidagi Adabiyot va san`at nashri. Toshkent. 1986.
3.Abdug'afurov A. Buyuk beshlik saboqlari. –Toshkent: Fan, 1995.
4. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent: Fan, 1976.
5.Inomxo'jaev C. Alisher Navoiy va badiiy so'z san'ati // O'zbekiston madaniyati. – Toshkent, 1966.
6. Yusupova D. Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1158-1162

МАКТАБГА ЎТИШ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРДА ОИЛАВИЙ АДРИЯТЛАР, УРФ-ОДАТЛАР ОРҚАЛИ ҚАДРИЯТЛИ МУНОСАБАТЛАРИНИ ШАКЛЛНАТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Акбар Эшқуватович Хўжақулов
Қарши давлат университети ўқитувчиси
xojaqulov82@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Мактабга ўтиш ёшидаги болаларда оилавий қадриятлар, урф-одатлар орқали қадриятли муносабатларини шакллнатириш йўллари болалар ва ота-оналарнинг қизиқишларига қараб Оила намунаси - бола оила тўғрисидаги билимларни, ўз оиласи мисолида кўрадиган тасаввурларнинг бола онгида акс этиши. Оила намунасини дастлабки шакллантириш ўз оиласидаги муносабатлар, шахслараро муносабатларнинг хусусиятлари, оилавий қадриятлар, урф-одатлар, оилавий байрамларда иштирок этиш, йўллари ҳақида фикр-мулоҳазалар юритилган.

Таянч сўзлар: оила, ота-она бола тарбиячи-педагог методика, муҳит, урф-одатлар оилавий байрамлар, қадриятли муносабат.

ABSTRACT

Family values in children of pre-school age, ways to form valuable relationships through traditions. Depending on the interests of children and parents. Preliminary formation of the family model reflected on the relationship in the family, the characteristics of interpersonal relationships, family values, traditions, participation in family celebrations, ways.

Keywords: family, parents, child-rearing methodology, environment, traditions, family holidays, valuable attitude.

КИРИШ

Табиийки, тарбия жараёни тарбиячининг шахсий намунасига, ўзини тутишига, тарбиячиларга бўлган муносабатига, дунёқарашига, ишчанлик сифатларига ва обрўсига бевосита боғлиқдир. Маълумки, кўпчилик тарбияланувчилар учун тарбиячи-педагог обрўси мутлақдир, улар унга барча жиҳатлардан тақлид қилишга тайёрдирлар. Қачонки тарбиячи-педагог ўз

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1158-1162

шахсий намунаси, обрўси билан тизимли ва изчил таъсир кўрсата борса, шундагина ижобий намуна кучи орта боради. Шу билан бирга, тарбияланувчилар педагогнинг сўзи билан иши ўртасида фарқ йўқлигига ишонч ҳосил қилсалар, ҳамда у барчага хайрихоҳ ва тенг муносабатда бўлишини сезсалар унинг ижобий таъсир кучи ўсиб боради.

Педагогик адабиётлардан яна бири – мунозара методидир, у шахс онгини шакллантирувчи метод ҳисобланади. Мазкур метод тарбияланувчиларни қизиқтирувчи қандайдир мавзу устида бевосита қизғин баҳс юритиш орқали амалга оширилади. Мунозара шу билан эътиборлики, қадриятли муносабат, мотивлар фикрлар тўқнашуви, турли нуқтаи назарларни таққослаш натижасида шакллантирилади. Ушбу метод мураккаб ҳисобланиб, ундан асосан бошланғич синфларда ва ундан кейинги таълим жараёнида фойдаланилади. МТТда эса мазкур методдан масалан, қадриятли муносабат ва одоб-ахлоқ мавзусидаги суҳбатларда фойдаланиш мумкин.

Шундай қилиб, педагогик жараённинг реал шарт-шароитида тарбия методлари мураккаб ва бир-бирига қарама-қарши, зиддиятли ҳолатларда ўзини намоён этади. Бу ерда алоҳида мантиқий воситалар эмас, балки бир-бирига мувофиқ равишда ташкил этилган тизим ҳал этувчи аҳамият касб этади. Албатта, тарбия жараёнининг қандайдир аниқ босқичида у ёки бу метод кўпроқ ёки камроқ тадбиқ этилиб, айри ҳолда қўлланилиши мумкин. Лекин, мос бошқа методларга таянмасдан, улар билан биргаликда боғланмасдан тарбия жараёни олиб борилса, у ўз аҳамиятини йўқотади ва кўзланган мақсад сари ҳаракат секинлашади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Оила намунаси - бола оила тўғрисидаги билимларни, ўз оиласи мисолида кўрадиган тасаввурларнинг бола онгида акс этиши. Оила намунасини дастлабки шакллантириш ўз оиласидаги муносабатлар, шахслараро муносабатларнинг хусусиятлари, оилавий қадриятлар, урф-одатлар, оилавий байрамларда иштирок этиш, меҳнат фаолиятида қатнашиш ва шу кабилар орқали содир бўлади.

Мактабга ўтиш ёшидаги болаларда оила образи икки кўринишда бўлиши мумкин: биринчиси, бадиий адабиётлар, мультфильм ва шунга ўхшашларга асосан шаклланадиган идеал оила образи бўлса, иккинчиси ўз оиласидаги ҳис-туйғулари билан боғлиқ бўлади. Бола қандай шароитда тарбияланади,

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1158-1162

унинг оиласи қандай йўл тутади, бу ўзининг келажакдаги оиласининг умидларини шакллантириш учун асосдир, шунинг учун болаларга тўғри хулқ-атвор, ота-оналар ўртасидаги яхши муносабатлар намунасини бериш жуда муҳимдир. Оила ўзининг қадрият йўналиши, шахслараро муносабатларнинг ўзига хос хусусиятлари, бутун ҳаёт тарзи тўғридан-тўғри ёки билвосита, кўпроқ ёки озроқ даражада болани келажакдаги оилавий ҳаётига тайёрлайди. Оила ва МТТнинг биргаликдаги ҳаракатлари мактабгача ёшдаги болаларда оиланинг ижобий имиджини шакллантиришга таъсир қилиши мумкин. Мактабгача ёшдаги болаларнинг доимо ёш, индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш керак. Мактабгача ёшдаги болаларнинг ўзига хослиги ҳақида қисқача айтганда, беихтиёр эътиборни, қисқа муддатли қизиқишларни таъкидлаш керак бўлади, бунда ўйин асосан боланинг ривожланишини белгилайдиган етакчи фаолиятдир.Шунинг учун болалар билан ишлашда машғулотларга ҳиссий оҳанг берадиган ва шу билан болаларнинг қизиқишини қўллаб-қувватлайдиган ўйин техникасидан фойдаланиш керак.

Ушбу йўналишда педагог-тарбиячининг болалар билан ишлаш шакллари қуйидагича бўлиши мумкин:

- якка тартибдаги ва гуруҳда суҳбатлар. Суҳбат – асосида дастлабки маълумотларни тўплаш методидир. Ушбу метод, маълум қоидаларга риоя қилган ҳолда, ўтмиш ва ҳозирги воқеалар, барқарор мойилликлар, баъзи ҳаракатларнинг мотивлари ва субъектив ҳолатлар тўғрисидаги кузатувлардагидан кам бўлмаган ишончли маълумотларни олишга имкон беради. Мазкур методдан фойдаланиш санъати - қандай сўрашни, қандай саволларни беришни, олинган жавобларга қандай ишонч ҳосил қилишни аниқлашни билишдир. Суҳбат сўроққа айланмаслиги жуда муҳим, чунки бу ҳолатда унинг самарадорлиги пасаяди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ҳикоялар тузиш, репортажлар (савол-жавоблар оқшоми, иш жойидан репортаж, севимли онаси ҳақидаги ҳикоялар тузиш ва шу кабилар);

- Тақдимотлар ва видеоларни кўриш;

-Ўйин фаолияти (дидактик ўйинлар, ўйин машғулотлари, ўйин дарслари). Дидактик ўйин - кўп томонли, мураккаб педагогик ҳодиса: бу мактабгача ёшдаги болаларни ўқитишнинг ўйин усули ва машғулот шакли, мустақил ўйин фаолияти ва бола шахсини ҳар томонлама тарбиялаш воситасидир.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1158-1162

- Нутқий билиш фаолияти (тематик машғулотлар, бадиий адабиётларни ўқиш); фаолият маҳсулдорлиги ("Менинг оилам" мавзусида расм чизиш, онасига гулдаста ясаш, барча оила аъзолари учун карточкалар тайёрлаш ва бошқалар);

- Ота-она бурчагини дизайни билан шуғулланиш. МТТда ота-оналар бурчаги - бу ота-оналар билан мулоқот қилишнинг яхши методидир. Ҳар бир педагог-тарбиячи ота-оналар билан боғланиши учун ҳар қандай имкониятдан фойдаланиши жуда муҳимдир. Ахир, ота-оналар ўз фарзандларининг ютуқлари ҳақида мунтазам равишда билиб боришлари, машғулотлар ва бошқа тадбирлар ҳақида маълумот олишлари, болаларни тарбиялаш бўйича яхши маслаҳатларни олишлари мумкин.

- Оилавий байрамларни ташкиллаштириш. Оилавий байрамлар - болалар ҳаётидаги алоҳида кунларни, қувонч ва ҳиссий кўтаринкиликни ўз ичига олади, ҳар бир бола учун ёқимли совғаларни ва дўстлар билан очиқ мулоқотга имкон беради. Оилавий байрамларни ўтказишдан мақсад - ота-оналарнинг болаларни байрамда имкони борича жалб қилиш зарурлигини тушунишларидир.

-Оилавий альбом. "Менинг оилам" фотоальбомини яратиш - оиланинг шиори жамоавий бўлиб танланган. Ҳаёт қоидалари, альбомни шакли (китоб, глобус, гуллар ва бошқалар). Оила аъзоларининг ҳар бирига алоҳида фотосуръатлар, савол-жавобларни жойлаштириш учун алоҳида саҳифа ажратилади.

- Муайян оиланинг қадриятлар тизимини, авлоддан-авлодга ўтиб келаётган анъаналарни тушунишнинг самарали воситаси бўлган оилавий музейларни яратиш. Бундай музейни ташкил этиш ҳақли равишда катталар (оила аъзолари, педагоглар) ва болаларнинг нафақат ўз оиласининг, балки бутун жамиятнинг маданий меросини ўрганиш ва ривожлантириш билан боғлиқ бўлган таълимий ва ижодий манфаатларини қондиришга қаратилган биргаликдаги фаолият шакли сифатида кўриб чиқилиши мумкин.

Оила музейи фаолиятининг принциплари: кўргазмалилик, ишончлилик, музей майдонидаги фаолиятнинг психологик қулайлиги ва хавфсизлиги, болалар боғчасида ва оилада таълим-тарбияни мувофиқлаштириш ва бошқалар.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда, МТТда оиланинг ўрни, қариндошлик тизими ҳақида бошланғич, аммо элементар хабардор қилишга, уларнинг оила аъзоси

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1158-1162

сифатидаги ўрнини аниқлашга имкон беради. Мактабгача ёшдаги болаларда оила образини шакллантириш бўйича педагог-тарбиячининг турли хил иш шакллари болалар ва ота-оналарнинг қизиқишларига қараб энг оптимални танлашга имкон беради.

REFERENCES

1. Шадиев Р.Д.,Ибрагимова Г, Набиев И Современное дошкольное образование и инновационная деятельность. Бюллетень науки и практики — Bulletin Of Science and Practice (scientific journal) №4 2018. p-457-460. DOI: 10.5281/zenodo.399225
2. Khujakulov A.E. The formation of value relations to the family pre-school as psycho-pedagogical problem. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 7 No. 2, 2019
3. Рожков, М.И. Воспитание толерантности у школьников: учеб.-метод. пособие/ М.И. Рожков, Л.В. Байбородова, М.А. Ковальчук - Ярославль: Академия развития. - 2003. -191 с.
4. Хўжақулов А.Э. МТТ тарбияланувчиларининг оилага қадриятли муносабатини шакллантиришда таълим-тарбия жараёни субъектларининг роли ҳамда уларнинг тамойиллари Педагогика ва психологияда инновациялар махсус сон журнали Тошкент, 2020. 62-67- бетлар

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1163-1174

ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИ: ТУШУНЧАСИ, ТАЪРИФИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

А. Ф. Жолдасов
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги Университети Магистратураси тингловчиси, подполковник

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада жамоат хавфсизлиги тушунчаси ва моҳиятини назарий таҳлил қилиш, унинг мазмунини очиб бериш жуда муҳим рол ўйнайди. Ўтказилган таҳлиллар асосида маълум даражада ҳуқуқни қўллаш амалиётини мураккаблаштириши мумкин бўлган "жамоат хавфсизлиги" тушунчасини тушунишга ягона ёндашув мавжуд эмаслиги аниқланди. Тадқиқот "жамоат хавфсизлиги" тушунчасини таърифлашга турли хил илмий ёндашувлар мавжудлигини кўрсатади. Хулоса шуни кўрсатадики, жамоат хавфсизлиги - бу шахс, жамият ва давлатнинг ҳаётий манфаатларини тўсқинликсиз амалга оширишни таъминлаш, хавф-хатарларнинг олдини олиш ва бартараф этишга қаратилган жамоат муносабатларини ҳимоя қилишнинг етарли ҳолати бўлиб, уларнинг мавжудлигига потенциал ёки реал хавфлар махсус ваколатли давлат органлари, нодавлат ташкилотлари ҳамда фуқароларнинг фаолияти натижасида эришилади.

Калит сўзлар: жамоат хавфсизлиги, жамоат тартиби, маъмурий-ҳуқуқий тартибга солиш, табиий офатлар, фавқулодда вазиятлар, хавфсизлик, фаолият, давлат органи, қонунчилик.

PUBLIC SECURITY: CONCEPT, DEFINITION AND FEATURES

ABSTRACT

In this article, a very important role is played by a theoretical analysis of the concept and essence of public safety, the disclosure of its content. As a result of the analysis, it was found that there is no single approach to understanding the concept of "public safety", which can, to a certain extent, complicate law enforcement practice. Research shows that there are different scientific approaches to the definition of "public safety".

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1163-1174

It is concluded that public safety is an adequate condition for the protection of public relations aimed at ensuring the unhindered realization of the vital interests of the individual, society and the state, preventing risks, potential or real threats to their existence by specially authorized state bodies, public organizations and is achieved as a result of the activities of citizens.

Keywords: public safety, public order, administrative and legal regulation, natural disasters, emergencies, security, activities, government agency, legislation.

КИРИШ

Мустақиллик эълон қилиниб, Конституциямиз қабул қилингандан сўнг, инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини давлат ҳаётининг барча соҳаларида, хусусан: иқтисодий, ижтимоий-сиёсий, маънавий, ахборот, сиёсий ва бошқа соҳаларда тизимли таъминлаш масалалари, алоҳида аҳамият касб этди. Шу билан бирга, мустақилликнинг дастлабки кунларида мамлакатимизмда шаклланган ижтимоий-сиёсий вазият мураккаб, кўпинча бир-бирига қарама-қарши бўлган жараёнлар, тенденциялар ва ҳодисалар мажмуаси, шу жумладан товарлар ва хизматлар бозоридаги оғир молиявий-иқтисодий вазият, бюджет соҳасида иш ҳақини тўлашнинг кечикиши, ҳуқуқ-тартиботни таъминлаш, жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги муаммолар ва бошқалар билан тавсифланади.

Ҳар йили минглаб жамоат тартибига қарши қаратилган жиноятлар рўйхатга олинади, ҳаттоки жамоат жойларидаги содир этилган жиноятлар натижасида одамлар ҳалок бўлади. Айтиш жоизки, турли жиноятлар ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, уларга қарши курашиш, оқибатларини бартараф этишнинг халқаро амалиёти замонавий демократик давлат учун жиддий таҳдидлардан бири жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларининг бузилиши эканлигини кўрсатмоқда.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Профессор А.М.Бандурка фикрича, “ўткир” ижтимоий зиддиятларни ҳал этишда фавқулодда чора-тадбирлардан излаш керак, уларни қўллаш “алоҳида” сиёсатчилар ташаббуси билан эмас, балки жамиятнинг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлаш, давлат ҳаётининг турли соҳаларида самарали ислоҳотларни амалга оширишда кўринади [1].

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1163-1174

Бугунги кунда давлат жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг етакчи субъекти сифатида маълум даражада мавҳум ва аниқ бўлмаган нарсаларни ҳимоя қилади, деган танқидлар тез-тез айтилади. Бироқ, эксперт ва мутахассислар буни ушбу масала бўйича илмий тадқиқотларнинг етарли эмаслиги билан боғлашади. Тадқиқотларнинг аксарияти ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича фаолиятининг ҳуқуқий ва ташкилий асосларини таҳлил қилиш доирасида амалга оширилган бўлиб, унда "жамоат хавфсизлиги" тушунчаси кенг ҳуқуқий нормалар доирасида кўриб чиқилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги ПФ-27-сон Фармони тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепцияси”да “жамоат хавфсизлигига” тушунча берилгани билан, илмий асослаш ва замонавий шакллантириш, шунингдек, бошқа шунга ўхшаш ҳуқуқий ҳодисалар билан чегараланиш ва муайян алоқаларни ўрнатиш тадқиқот фаолияти учун ҳам, ҳуқуқ учун ҳам, ижро амалиёти учун ҳам катта аҳамиятга эга. Таъкидлаш жоизки, мамлакатнинг умуман хавфсизликнинг принципиал янги концепциясига ўтиши шароитида ушбу масалани назарий тадқиқ этиш янги назарий ва амалий аҳамиятга эга бўлмоқда. Бу, биринчи навбатда, жамиятимиз ва бутун давлат ривожланиши учун ички ва ташқи шароитларнинг сезиларли ўзгариши билан боғлиқ.

Жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг аҳамияти шундаки, ушбу ҳуқуқий ҳодиса давлатда содир бўлаётган мураккаб жараёнларни диққат марказига олади. Миллий хавфсизликни, хусусан, жамоат хавфсизлигини таъминлаш маълум маънода мамлакатни ислоҳ қилишнинг шарти ва айни пайтда мақсади, деган фикр бор [2].

Умумий ёндашув нуқтаи назаридан мураккаб, ҳуқуқий ҳодисанинг барча зарур белгиларига эга бўлган "жамоат хавфсизлиги" тушунчасини аниқлашда бир қатор қийинчиликларга эътибор қаратиш лозим. Шу билан бирга, мураккаб ижтимоий жараёнлар ва ҳодисаларни акс эттирувчи "жамоат хавфсизлиги" объектив равишда аниқ тарихий (шунинг учун динамик) хусусиятга эга ва "табиат - инсон - жамият" тизимидаги ўзаро таъсирнинг барча шакллари ва йўналишлари билан чамбарчас боғлиқ [3].

Оддий шароитларда ҳам, фавқулодда вазиятларда ҳам жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги илмий ва амалий муаммоларнинг долзарблиги бир неча сабабларга кўра юзага келади, хусусан:

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1163-1174

- жамоат хавфсизлигини таъминлаш ҳуқуқий тартибга солишнинг сифат жиҳатидан янги босқичига кўтарилди, яъни у “идоравий ҳуқуқий тартибга солиш” деган қарашда намоён бўлаётган қобиқдан чиқди;

- давлат бошқаруви органлари жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича ваколатли субъектларнинг ҳаракатларини самарали амалга ошириш, муайян ҳудудда жисмоний ва юридик шахсларга нисбатан чеклаш чораларини қўллаш имконини берадиган жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича махсус чора-тадбирларга “муҳтожлик” сезмоқда;

- фаолияти тегишли даражадаги хавфсизликни, хусусан, жамоат хавфсизлигини таъминлаш зарурлигини белгилайдиган объектлар ва ҳудудлар тобора кўпайиб бормоқда. Аҳоли хавфсизлигининг тегишли даражасини таъминлаш уларнинг барқарор фаолият кўрсатиши учун шарт-шароитларни яратишга ёрдам беради;

- фавқулодда вазиятларда жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича ваколатли органлар томонидан қўлланиладиган чора-тадбирлар, бу давлат томонидан қўлланиладиган тегишли маъмурий-ҳуқуқий чора-тадбирлар ҳисобланади. Фавқулодда вазият доимо ижтимоий ҳаётнинг бекарорлашиши, унинг одатий ритмининг бузилиши билан бирга келади, бу эса ўз навбатида ушбу чораларни қўллашни тақозо этади.

Шуни таъкидлаш керакки, юридик адабиётларда ва расмий ҳужжатларда "жамоат хавфсизлиги" тушунчасига нисбатан давлатнинг турли манфаатлари ҳимоя қилинадиган, реал ва потенциал хавф, ички ва ташқи таҳдидлар эҳтимоли минималлаштирилган, шахс ва жамиятнинг самарали ривожланиши учун имконият яратилган ҳолатни тавсифлаш учун ишлатилади [4].

Ушбу умумий назарий таъриф бошқарув ва ҳуқуқий (маъмурий-ҳуқуқий) жиҳатларни ўзида акс эттиради, жамоат хавфсизлигини таъминлаш эса шахс ва жамиятни ҳимоя қилиш, уларнинг хавфсиз ҳаёти, ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш кафолати сифатидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш, қабул қилиш ва амалга ошириш билан боғлиқ [5].

“Жамоат хавфсизлиги” тушунчасини таҳлил қилишга тўхталадиган бўлсак, шуни такидлаш жоизки, бугунги кунда илмий ишларда ушбу ҳуқуқий тоифани белгилаш бўйича кўплаб қарашлар шаклланган. “Жамоат хавфсизлиги” атамаси илмий билимларнинг турли соҳаларида ва ижро этувчи ҳокимият органлари, шунингдек, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг амалий фаолиятида кенг қўлланилади. Бироқ, унинг кенг қўлланилишига

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1163-1174

қарамай, афсуски, бугунги кунда "жамоат хавфсизлиги" таърифига ягона ёндашув мавжуд эмас. Шу муносабат билан “жамоат хавфсизлиги” тушунчасининг мазмунини аниқлаш бўйича илмий адабиётлар, амалдаги қонун ҳужжатларини ҳар томонлама таҳлил қилиш мақсадга мувофиқдир.

Жамоат хавфсизлигини ҳисобга олган ҳолда Л.Рогозин уни “табиий офатлар ёки бошқа махсус шароитлар билан боғлиқ ҳолда, алоҳида шароитлар юзага келганда жамият учун ортиб бораётган хавф туғдирувчи объектлардан фойдаланган ҳолда, ҳуқуқий нормаларга мувофиқ шаклланадиган жамоат муносабатлари тизими” деб таърифлайди [6].

С.И.Гирконинг фикрича, жамиятни ички ва ташқи таҳдидлардан ҳимоя қилиш сифатида жамоат хавфсизлиги жуда муҳим назарий ва амалий муаммо эканлигини кўрсатади, уни ҳал қилиш, бошқа ижтимоий муносабатлар қатори, мамлакатда жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича ҳуқуқни муҳофаза қилиш стратегиясини белгилашга бевосита боғлиқ [7].

Профессор Л.Л.Поповнинг фикрича, жамоат хавфсизлиги деганда одамлар ва умуман жамият учун ортиб бораётган хавф-хатарни келтириб чиқарадиган объектлар ва объектлардан фойдаланишда, алоҳида шароитлар, табиий офат ёки ижтимоий ёки техноген хусусиятдаги бошқа фавқулодда вазиятлар юзага келганда, ҳуқуқий, техник ва бошқа турдаги нормаларга мувофиқ юзага келадиган жамоат муносабатлари тизими тушунилади [8].

С.В.Степашин жамоат хавфсизлиги - бу ижтимоий муносабатларнинг сифат ҳолатини, жамиятнинг муайян тарихий ва табиий шароитларда изчил ривожланишини таъминлаш, турли омиллар таъсирида мазмуни ва йўналишини ўзгартирадиган ички ва ташқи келишмовчиликлардан келиб чиқадиган хавф-хатарлардан ҳимоя қилишдир, деб ҳисоблайди [9].

Асл концепция Б.П.Кондрашов томонидан таклиф қилинган. Унинг фикрича, жамоат хавфсизлиги - бу нормаларга риоя қилиш ва амалга ошириш натижасида шаклланадиган ижтимоий-ҳуқуқий категория, дахлсизлиги давлат, жамият томонидан кафолатланган жамоат муносабатлари тизимидир [10].

Бироқ, И.Б.Григориев, К.А.Григориевалар "жамоат хавфсизлиги" атамасининг мазмунини аниқлашга ҳаракат қилишар экан, В.Лукяновнинг илмий позициясига мурожаат қилиб, жамоат хавфсизлиги агар маъмурий ҳуқуқбузарлик объекти ҳақида гап кетаётган бўлса, маълум бир ижтимоий муносабатлар эканлигини кўрсатади. Ўз-ўзидан ижтимоий муносабатлар ва моддий олам ўзига хос табиий қонуниятлари билан реал воқеликни ташкил

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1163-1174

этади, демак, жамоат хавфсизлиги бу “инсон саломатлиги, ҳаёти, мулки ва ҳайвонот дунёсига зарар етказиш имкониятини истисно этувчи воқелик ҳолатидир, чунки у ўз ҳаракатларида тегишли қоида ва меъёрларга амал қиладиган шахснинг оқилона иродаси билан бошқарилади” деб айтиш мумкин [11, 21].

Жамоат хавфсизлиги таълимотини профессор В.В.Гушин янада бойитиб, жамоат хавфсизлиги ижтимоий-ҳуқуқий ҳодиса эканлигини таъкидлаб, шахс, жамият ва давлатнинг ҳаётий манфаатларига потенциал ёки реал хавф туғдирувчи шарт-шароитлар ва омилларнинг олдини олиш, локализация қилиш ва бартараф этиш мақсадида ҳуқуқий нормалар тизими билан тартибга солинадиган жамоат муносабатлари учун хавф ортишининг билвосита манбалари мажмуи сифатида тушуниш лозимлигини таъкидлаган.

Олим шунингдек, хавфсизлик муаммоси инсониятнинг омон қолиши ва барқарор ижтимоий тараққиётнинг энг муҳим мезонига айланиб бораётганини ва айнан замонавий шароитда хавфсизликнинг етарли даражаси нафақат давлат манфаатлари, балки бутун жамият манфаатларини ҳам қамраб олиши кераклигини таъкидлайди. Шу сабабли, умуман хавфсизликнинг устуворлиги инсон ва бутун жамиятни ҳимоя қилишдир. Ижтимоий (жамоат) хавфсизликнинг моҳияти шу билан боғлиқ бўлиши керак [12]. Худди шундай позицияни Б.Т.Хамхоев ҳам билдирган. Муаллифнинг таъкидлашича, жамоат хавфсизлиги деганда жамиятнинг барқарор мавжудлигини, фуқароларнинг зарур эҳтиёжлари ва манфаатларини қондириш ва амалга оширишни, турли хил жиноятларнинг олдини олиш ёки хавф ва таҳдидларни бартараф этиш қобилиятини таъминлайдиган ижтимоий муносабатларнинг сифатли тараққиёти ва ривожланиш ҳолати тушунилиши керак. Жамоат хавфсизлиги, шахс, жамият ва давлат хавфсизлигини ўз ичига олади. Бундан ташқари, Б.Т.Хамхоевнинг фикрича, жамоат хавфсизлиги одамларнинг ҳаёти ва соғлиғига, уларнинг мол-мулкига таҳдидларнинг олдини олиш ёки бартараф этиш билан боғлиқ бўлган ижтимоий муносабатларни қамраб оладиган ажралмас қисмдир [13].

"Жамоат хавфсизлиги" тушунчаси мазмунида олимларнинг алоҳида гуруҳи уни ҳимоя қилишнинг барча объектларини белгилайди, яъни: жамоат хавфсизлиги - бу одамларнинг ҳаёти ва соғлиғига, моддий бойликлар ва атроф-муҳитга таҳдидларнинг олдини олиш ва бартараф этишни таъминлайдиган органлар ва воситалар тўпламидир, деб фикр билдиришади [14]. Жамоат

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1163-1174

хавфсизлиги нафақат хавфсизлик ҳолати, балки жамият ҳуқуқий тизимининг ажралмас элементи сифатида ҳам қаралади, унда турли таҳдидларнинг олдини олиш ва бартараф этиш учун махсус ҳуқуқий механизмлар ишлайди.

К.С.Белскийнинг фикрича, жамоат хавфсизлиги диний, миллий ва меҳнат асосидаги низоларнинг йўқлиги билан тавсифланган муҳит эканлигини таъкидлайди. Шу нуқтаи назардан, жамоат хавфсизлиги деганда, энг муҳими, жамоат осойишталиги ва фуқароларнинг уларни ҳар қандай таҳдид ва шу каби хатти-ҳаракатлардан ҳимоя қилишга ишончи ҳуқуқни муҳофаза қилиш тизими, биринчи навбатда, полиция тизими томонидан таъминланадиган давлат тушунилади [15].

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Бизнинг фикримизча, жамоат хавфсизлигининг бундай таърифи жуда оддий кўринади, чунки ҳатто энг "идеал полиция органи"нинг мавжудлиги ҳам жамоат тинчлигининг тўлиқ ҳолатини кафолатламайди.

В.М.Васиннинг позицияси ҳам алоҳида қизиқиш уйғотади. Олимнинг фикрича, жамоат хавфсизлигини бир вақтнинг ўзида бир нечта жиҳатларига қараб белгилаш мақсадга мувофиқдир, хусусан: жамоат хавфсизлиги - бу шахс ва жамият ҳаёти давомида вужудга келадиган, давлат органлари, жамоат ташкилотлари ва фуқароларнинг хавфсиз фаолият юритиши, уларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини амалга ошириши, бошқарув, маъмурий-ҳуқуқий ва ахборот-ҳуқуқий жиҳатдан аниқ белгиланган жамоат муносабатларининг маъмурий ва ахборот ҳуқуқи нормалари билан ҳимояланган ҳолатидир [16]. Бироқ, бунда муаллиф ушбу соҳада жиноят содир этганлик учун жиноий жавобгарликни таъминлаш орқали жамоат хавфсизлигини ҳуқуқий ҳимоя қилишни ҳам амалга оширувчи жиноят ҳуқуқи нормаларини ҳисобга олмаган.

Е.Б.Олховский жамоат хавфсизлиги тушунчасини кенг ва тор маънода кўриб чиқади. Унинг фикрича, жамоат хавфсизлиги кенг маънода давлат, жамиятнинг нормал фаолият кўрсатишини, ҳар бир фуқаро учун осойишталик муҳитини таъминлайдиган ҳуқуқий, жумладан, ҳуқуқни муҳофаза қилиш чоралари мажмуидир. Тор маънода жамоат хавфсизлиги - бу одамлар ҳаёти жараёнида вужудга келадиган мустаҳкам иродали ижтимоий муносабатлар, уларнинг жамоат жойларида цивилизациялашган жамиятнинг ҳуқуқий нормалари, қоидалари ва урф-одатларининг амалдаги кўрсатмаларига мувофиқ

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1163-1174

мулоқот қилиш тартибидир. Олимнинг фикрича, жамоат хавфсизлиги мазмуни тор маънода жамоат хавфсизлиги билан боғлиқ муносабатларни ва давлат органларининг, шу жумладан ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларининг амалий фаолиятини тартибга солишга қаратилган ҳуқуқий ва ташкилий чора-тадбирлар мажмуини ўз ичига олади [17].

Шубҳасиз, бу позициянинг ўрни мавжуд. Шу билан бирга, профессор А.В.Кузменконинг фикрига қўшилиш ўринлидир, унинг фикрича, тушунчанинг кенг ва тор маънодаги таърифи нафақат ҳар қандай соҳада илмий тадқиқот ишларини мураккаблаштиради, балки ҳуқуқни қўллашни сезиларли даражада мураккаблаштиради. Олимнинг тушунчага кенг ва тор маънода таъриф беришга уринишлари илм-фан тараққиётига ҳисса қўшиб, илгари берилган таърифларга нисбатан толерантлик билан муносабатда бўлишга олиб келади. Ҳуқуқий терминология ноаниқ бўлмаслиги, тушунчада конкрет ҳуқуқий ҳодиса аниқ акс этиши керак.

А.И.Парубовнинг фикрича, жамоат хавфсизлиги жамиятда ривожланиб, ҳуқуқий ва техник нормалар билан тартибга солинадиган ва одамлар хавфсизлигини таъминлашга, одамларнинг ҳаёти ва соғлиғига хавфли таҳдидларнинг олдини олишга, мулкдорларнинг мулкини сақлашга қаратилган муносабатлардир [18].

Юқорида айтилганларнинг моҳияти шундан далолат берадики, олимларнинг замонавий илмий фикрларида "жамоат хавфсизлиги" тушунчасини таърифлашда ягона қараг йўқ.

Шундай қилиб, хулоса қилишимиз мумкин: биринчидан, таърифларнинг аксарияти унинг турли томонларини ва хавфсизлик ҳамда ҳимоя қилиш объектларини акс эттиради; иккинчидан, олимлар жамоат хавфсизлигининг фақат битта мазмунли жиҳатига яъни турли таҳдидлардан (ижтимоий, техноген, табиий ва бошқалар) ҳимояланиш даражасига эътибор қаратадилар; учинчидан, айрим олимлар миллий хавфсизлик ва жамоат хавфсизлигини тенглаштирадилар.

А.Н.Позднишев жамоат хавфсизлигини ижтимоий тизим ҳаётининг шароити ва ҳолати сифатида белгилайди, унинг функцияларини амалга ошириш сифати билан тушинтиради, шунингдек, ижтимоий тизимнинг ноқулай ташқи ва ички шароитларда барқарор давлатни сақлаб туриш, жамият хавфсизлигини таъминлаш муаммоларини ҳал қилиш қобилияти билан тавсифлайди [2]. Ушбу позицияларнинг камчиликлари, биринчидан, ушбу

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1163-1174

қараш жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг асосий мақсадини акс эттирмайди, иккинчидан, жамоат хавфсизлигини ҳимоя қилиш объектлари аниқ ажратилмаган, бу эса давлат органларининг вазифалари ва функцияларини аниқ белгилаш ушбу соҳадаги давлат сиёсатини амалга ошириш учун масъул бўлган субъектлар учун жуда муҳимдир.

А.И.Сапожников жамоат хавфсизлигининг маъмурий-ҳуқуқий режими деганда ижтимоий объектив ва рухсат берувчи, назорат ва мажбурий усуллардан фойдаланадиган давлат органлари фаолиятининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича ҳуқуқий режими тушунилиши кераклигини кўрсатади [19]. Шундай қилиб, олим ушбу режимни алоҳида маъмурий-ҳуқуқий режимга, шунингдек унинг турларига: ижтимоий таъминот, йўл ҳаракати хавфсизлиги, ёнғин, санитария, техноген хавфсизлик кабиларга таснифлайди. Жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг маъмурий-ҳуқуқий режимларининг ўзига хос турлари ва уларни амалга ошириш чегаралари уларнинг мақсади, мамлакатдаги ва муайян минтақадаги вазиятнинг ҳолатини ҳисобга олган ҳолда белгиланади.

Худди шундай позицияни Н.А.Босхамджиева ҳам илгари сурган. Олимнинг фикрича, жамоат хавфсизлиги қуйидаги институтларни ўз ичига олади: терроризмга қарши кураш институти; экстремизмга қарши кураш институти; жиноий ва бошқа ноқонуний тажовузларга қарши курашиш институти; коррупцияга қарши кураш институти; аҳолини табиий ва техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан ҳимоя қилиш институти; ноқонуний миграцияга қарши курашиш институти; жамоат хавфсизлигининг айрим турларини (ёнғин, кимёвий, биологик, ядровий, радиациявий, гидрометеорологик, саноат ва транспорт хавфсизлигини) таъминлаш институтлари; жамоат хавфсизлигини таъминлашда халқаро ҳамкорликни ривожлантириш институти; экологик хавфсизлик институти; ахборот хавфсизлиги институти; озиқ-овқат хавфсизлиги институти [20].

"Жамоат хавфсизлиги" тушунчасини аниқлаш бўйича илмий позицияларни таҳлил қилиш унинг хусусиятларини ажратиб кўрсатишга имкон беради.

Биринчидан, бу етарли хавфсизлик ҳолати. Бу ҳолат шахс, жамият ва давлат учун реал ёки потенциал хавф-хатарларнинг мавжуд эмаслигини, шунингдек, бундай давлатни сақлаб қолиш чораларини билдиради, бу эса аҳолида хавфсизлик ҳиссини яратади. Жамоат хавфсизлигини самарали

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1163-1174

таъминлаш фуқароларнинг амалдаги қонун ҳужжатларида белгиланган ҳуқуқларини, айниқса, шахсий ҳуқуқларини хавфсизлик ва жамоат осойишталиги шароитида амалга ошириш имконини беради. Бошқача қилиб айтганда, бундай амалга ошириш фуқароларнинг ҳар қандай характердаги таҳдидлар мавжуд бўлмаганда, яшаш, соғлиғини муҳофаза қилиш, шахсий дахлсизлик, меҳнат қилиш, яшаш жойини эркин танлаш, дам олиш ҳуқуқларини хавфсизлик ва гигиена талабларга жавоб берадиган шароитларда амалга ошириши мумкинлигида намоён бўлади.

Иккинчидан, жамоат хавфсизлиги умумий ва махсус ваколатли давлат ҳокимияти органлари тизими, шунингдек, нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролар томонидан таъминланади. Шунга кўра, жамоат хавфсизлиги давлат томонидан таъминланади ва қўриқлаш объектларига хавф туғдирадиган вазият юзага келганда, давлат ҳокимиятининг ваколатли органлари бундай хавфларни бартараф этиш учун фавқулодда, алоҳида, вақтинчалик чоралар кўриши керак.

Учинчидан, жамоат хавфсизлигини таъминлаш жамоат тартиби мавжуд бўлганда энг самарали бўлади. Ўтказилган таҳлиллар шуни кўрсатадики, барқарор жамоат тартибини таъминламасдан туриб, аҳоли хавфсизлигини сифатли таъминлаш мумкин эмас. Шунинг учун жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги жамоат муносабатларини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, кўпинча "жамоат хавфсизлиги" ва "жамоат тартиби" атамалари ўзаро боғлиқ тушунчалар сифатида қўлланилади.

Тўртинчидан, жамоат хавфсизлигини таъминлаш, албатта, муайян меъёрлар тизими билан тартибга солинади. Бу белги аҳолини ноқонуний тажовузлардан, турли таҳдидлардан ҳимоя қилиш қонун устуворлиги асосида амалга оширилаётганидан далолат беради. Шуни таъкидлаш керакки, қонун нормалари фавқулодда вазиятларда жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги муҳим миқдордаги жамоат муносабатларини тартибга солади, хусусан: инсон ва фуқаронинг ҳуқуқ ва эркинликлари, фуқароларнинг жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги хатти-ҳаракатларининг чегаралари, жисмоний ва юридик шахсларнинг жамоат хавфсизлигини таъминлашга қаратилган муайян ҳаракатларни амалга ошириш бўйича вақтинчалик мажбуриятларини белгилайди, ноқонуний хатти-ҳаракатлар турларини белгилайди, яъни фақат қонун нормалари жамоат хавфсизлигига, ҳам оддий

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1163-1174

ҳаёт шароитида, ҳам фавқулодда вазиятларда хавфсизликка тажовуз қилувчи хатти-ҳаракатларнинг тўлиқ рўйхатини белгилайди.

Ва ниҳоят, шахснинг, жамиятнинг, давлатнинг ҳаётий манфаатларини амалга оширишдан келиб чиқадиган ижтимоий муносабатларнинг мавжудлиги, улар ижтимоий имтиёзлар, конституциявий тузум, жамоат тартиби, шахсий дахлсизлик, мулк ва бошқаларни ўз ичига олади.

ХУЛОСА

Шундай қилиб, "жамоат хавфсизлиги" тушунчасига оид илмий позицияларнинг юқоридаги таҳлили ва кўрсатилган белгилар "жамоат хавфсизлиги" деганда шахс, жамият ва давлатнинг ҳаётий манфаатларини тўсқинликсиз рўёбга чиқаришни таъминлашга, потенциал ёки реал хавф туғдирувчи шарт-шароитлар ва омилларнинг олдини олишга, маҳаллийлаштиришга ва бартараф этишга қаратилган ижтимоий муносабатларни етарли даражада ҳимоя қилиш ҳолати тушунилиши керак. Бу уларнинг мавжудлигига асос бўлиб хизмат қилади ҳамда умумий ва махсус ваколатли давлат органлари тизими, давлат ва нодавлат ташкилотлари ҳамда фуқаролар фаолияти натижасида эришилади.

REFERENCES

1. Бандурка О.М. Роль адміністративного законодавства у зміцненні правопорядку // Проблеми охорони громадського порядку і вдосконалення законодавства: матеріали науково-практичної конференції. Х.: 1994. С. 13–19.
2. Позднышев А.Н. Институт государственной службы в сфере обеспечения общественной безопасности (теоретико-методологические проблемы): дис. … докт. юрид. наук. М., 2003. 402 с.
3. Варгузова А. А. Административно-правовое регулирование деятельности органов внутренних дел в сфере обеспечения общественной безопасности в Российской Федерации: дис. … канд. юрид. наук. М., 2005. 184 с.
4. Концепция общественной безопасности в Российской Федерации от 20 ноября 2013 года URL: http://kremlin.ru/acts/news/19653.
5. Радюшин Я.Н. Компетенция органов государственной власти и органов местного самоуправления в сфере обеспечения общественной безопасности: дис. … канд. юрид. наук. М., 2004. 220 с.
6. Попов Л.Л. Административное право (вопросы административно-юрисдикционной деятельности органов внутренних дел). М.: Академия МВД СССР. 1983. 280 с.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1163-1174

7. Гирько С.И. Обеспечение общественной безопасности в системе мер защиты личности, общества и государства: состояние, проблемы, перспективы // Административное право и процесс. 2009. № 5. С. 8.
8. Административное право/под ред. Л.Л.Попова. М.: Юрист, 2002. 699 с.
9. Степашин С.В. Теоретико-правовые аспекты обеспечения безопасности в Российской Федерации: дис. … докт. юрид. наук. СПб., 1994. 246 с.
10. Кондрашов Б.П. Общественная безопасность и административно-правовые стредства её обеспечения: дис. ... докт. юрид. наук. М., 1998. 302 с.
11. Григорьев И.Б., Григорьева К.А. К вопросу о подходах к определению содержания термина «общественная безопасность» в правовой доктрине и отдельных актах концептуального характера, утвержденных указами президента российской федерации URL: http://pravozashitnik.net/ru/2014/4/5.
12. Гущин В.В. Правовые и организационные основы обеспечения общественной безопасности в Российской Федерации при чрезвычайных ситуациях: дис. … докт. юрид. наук. М., 1998. 449 с.
13. Хамхоев Б.Т. Проблемы определения общественной безопасности // Административное право и процесс. 2011. № 7. С. 40–42.
14. Туманов Г.А., Фризко В. И. Общественная безопасность и ее обеспечение в экстремальных условиях // Советское государство и право. 1989. № 8. С. 21–23.
15. Бельский К.С. Полицейское право/под ред. А. В. Куракина. М.: Изд-во «Дело и Сервис», 2004. 816 с.
16. Васин В.Н. Право на общественную безопасность. М.: Иид-во «Щит», 1999. 172 с.
17. Ольховський Є.Б. Адміністративно-правові засоби забезпечення громадської безпеки: дис. … канд. юрид. наук. Х., 2003. 191 с.
18. Парубов А.И. Организационно-правовое обеспечение охраны общественного порядка и общественной безопасности в региональных подсистемах предупреждения и ликвидации последствий чрезвычайных ситуаций: дис. … канд. юрид. наук. М., 2003. 198 с.
19. Сапожников А.И. Административно-правовой режим общественной безопасности: дис. … канд. юрид. наук. М., 2005. 198 с.
20. Босхамджиева Н.А. Административно-правовые основы обеспечения общественной безопасности в Российской Федерации: дис. … докт. юрид. наук. М., 2013. 369 с.
21. Лукьянов В. Административные правонарушения, посягающие на общественную безопасность // Российская юстиция. 2001. №8. С. 55–56.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1175-1182

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ БЕДНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Зокиржон Эргашевич Суяров
Докторант Андижанского государственного университета

АННОТАЦИЯ

В этом статье рассмотривает проблемы бедности в Узбекистане и пути сокращения бедности в стране.

Ключевые слова: бедность, общество, демография, маргинализация, расслоения, социальное проблема.

ВВЕДЕНИЕ

В настоящее время глобальной социальной опасностью является угроза обнищания населения. Безработица, экономическая и социальная нестабильность, несбыточность надежд, крушение планов интенсифицируют процесс маргинализация населения. Состояние бедности не позволяет социуму реализовать свои потенциальные возможности, а следовательно, развиваться. Именно поэтому ее связывают с регрессом в общественном развитии.Бедность является актуальной проблемой, для социальной развити Узбекистана. . В настоящее время значительная часть населения находиться за чертой бедности или близко границе «социального дна» По предварительным данным 12-15% или 4-5 миллионов населения нашей страны находится в состояния бедности. Это особенно заметно на фоне сильного расслоения, этот процесс имеет динамический характер, бедные становятся беднее, а богатые еще богат. Проблема бедности возникает в результате нарушения пропорций социального воспроизводства. Проблема бедности связана с социальными формами отчуждения человека от человека (от общества), от предпосылок и результатов труда, от самого труда, с существенным ограничением потребления основных жизненных благ, с формированием таких условий, при которых субкультура бедных превращается в фактор дестабилизации жизни общества. Бедность — крайняя недостаточность имеющихся у человека, семьи, региона, государства имущественных ценностей, товаров, денежных средств для нормальной жизни и жизнедеятельности. Порогом, чертой бедности называют нормативно

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1175-1182

Давлат ва жамоат хавфсизлиги соҳасида миллий хавфсизликка таҳдидларнинг асосий манбалари, хусусан, Ўзбекистон Республикаси хавфсизлигига зарар етказишга қаратилган шахсларнинг фаолияти, террористик ташкилотлар, гуруҳлар ва шахсларнинг Ўзбекистон Республикасининг конституциявий тузумининг асосларини мажбуран ўзгартиришга, давлат органларининг нормал фаолиятини бузишга қаратилган фаолияти, миллий, диний, этник ва бошқа ташкилотлар ва тузилмаларнинг Ўзбекистон Республикасининг бирлиги ва ҳудудий яхлитлигини бузишга, мамлакатдаги ички сиёсий ва ижтимоий вазиятни беқарорлаштиришга қаратилган экстремистик фаолиятини тушуниш мумкин.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлигини таъминлаш концепциясида “жамоат хавфсизлигига таҳдид” тушунчасига таъриф берилмаган, Россия Федерациясининг жамоат хавфсизлиги концепциясида “жамоат хавфсизлигига таҳдид - инсон ва фуқаронинг ҳуқуқ ва эркинликларига, жамиятнинг моддий ва маънавий

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1197-1205

қадриятларига бевосита ёки билвосита зарар етказиш эҳтимоли” деб таъриф берилган.

А.Н.Босхамджиеванинг фикрига кўра, жамоат хавфсизлигини таъминлаш давлат фаолиятининг мустақил, ўзига хос тармоғи бўлиб, яқин келажакда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи тузилмаларни сифат жиҳатидан ислоҳ қилиш ҳамда давлат бошқарувининг самарали, оқилона ва ихтисослаштирилган, замонавий ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий вазиятларга мос келадиган хавфсизлик тизимини яратиш бўлади[7].

Д.А.Коротченковнинг фикрича, жамоат хавфсизлиги деганда жамият ва шунга мос равишда қонун чиқарувчи орган фақат ижтимоий тараққиётнинг маълум бир босқичида ҳаётий аҳамиятга эга деб эътироф этилган шахс манфаатларини ҳимоя қилиш ҳолати тушунилади. Қонунчиликни тартибга солишдаги бўшлиқ ва "жамоат хавфсизлиги" категорияси мазмуни ва унинг жамоат тартиби тушунчаси билан боғлиқлиги бўйича турли хил фикрларнинг асосий шарти сифатида ушбу муаллиф бундай манфаатларнинг аниқ белгиланган рўйхати йўқлигини жамоат хавфсизлиги объектлари сифатида кўриб чиқади[8].

С.М.Микаилов "жамоат хавфсизлиги" атамасини талқин қилишда турли ёндашувларни таҳлил қилиб, уни фуқароларнинг ҳаёти ва соғлиғини, жисмоний ва юридик шахсларнинг мулкий манфаатларини, жамоат тинчлигини, жамоат ва давлат институтларининг нормал фаолиятининг муҳофазаси ҳолати сифатида белгилайди, бу фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқлари, эркинликлари, муносиб сифати ва турмуш даражасини, давлатнинг барқарор ривожланиши ва хавфсизлигини таъминлаш, шунингдек, тараққиёт ва ривожланиш учун турли хил хавф ва таҳдидларнинг самарали олдини олиш ёки бартараф этиш қобилиятини таъминлашга имкон беради[9].

Жамоат хавфсизлиги тўғрисида фикрлашнинг бошқа йўналиши А.И.Стаховда кўриш мумкин, у томонидан ишлаб чиқилган миллий хавфсизлик концепциясининг таърифига ўхшаш тушунчасига изоҳ беради. Яъни жамоат хавфсизлиги деганда у ҳуқуқий нормалар билан тартибга солинадиган фуқаролик жамиятининг конституциявий ва бошқа қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш ҳолатини тушунади, бу давлат томонидан назорат қилинадиган ёки давлат томонидан рухсат этилган табиий ёки техноген экологик омилларнинг йўқлигидан, ушбу манфаатларга зарар етказиш эҳтимоли билан боғлиқ бўлган табиий ёки техноген экологик омиллар, шунингдек, ушбу

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1197-1205

экологик омилларнинг пайдо бўлиши ёки ривожланишини белгилайдиган ҳуқуқбузарликлар ва ҳуқуқий ҳодисалар бўлмаган ҳолат тушинилади[10].

Шундай қилиб, ушбу муаллиф хавфсизлик объектлари сифатида манфаатлар рўйхатига эмас, балки уларнинг ташувчисига аҳамият беради, яъни ушбу ҳолатда фуқаролик жамияти тушинилмоқда.

“Жамоат тартиби” ва “жамоат хавфсизлиги” тушунчалари ўртасидаги муносабат масаласи маъмурий ҳуқуқ назариясида ноаниқдир. Ушбу тушунчаларни уларнинг муносабатлари нуқтаи назаридан тўлиқ ва қисман кўриб чиқиш зарурлиги ҳақида фикрлар хам мавжуд. Ушбу нуқтаи назарни С.В.Нестеров[11] ва бир қатор бошқа олимлар қўллаб қуввайтлайди[12].

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Яна бир эътиборга лойиқ ёндошув мавжуд бўлиб, унга кўра "жамоат тартиби" тушунчаси "жамоат хавфсизлиги" тоифасига қараганда мазмунан торроқдир. Хусусан, А.В.Готовцевнинг таъкидлашича, агар жамоат тартибининг мақсади фақат фуқароларнинг хавфсизлигини таъминлаш бўлса, жамоат хавфсизлиги дахлсизлиги ва бошқа манфаатлар ҳамда объектлар, хусусан, одамлар, мулк, жамият учун хавф туғдирадиган ва ортиб бораётган хавф манбаларининг хавфсиз ишлашини таъминлашдир. Бундан у “жамоат хавфсизлиги” тушунчасининг жамоат тартибига нисбатан кенгроқ мазмуни ҳақида хулоса чиқаради[13].

И.И.Веремеенконинг фикрига кўра, жамоат тартиби деганда жамият эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда, жамоат хавфсизлиги ва шахс хавфсизлигини таъминлайдиган, шу билан жамият ҳаётининг мувофиқлаштирилиши ва динамиклигини кафолатлайдиган жамоат жойларидаги муносабатлар тартиби тушунилиши керак. Бундан келиб чиқадики, жамоат хавфсизлиги ва шахс хавфсизлигини таъминлаш жамоат тартибини ўрнатиш ва сақлаш мақсадини ташкил этади[14]. И.И.Веремеенко билан бирлашиб, жамоат тартибини сақлашнинг ўхшаш мақсадларини кўрсатиб, Э.А.Черепанов бундай фаолиятнинг кутилаётган якуний натижасини одамларнинг ҳаёти содир бўладиган нормал муҳитни яратиш учун тегишли шарт-шароитларни таъминлаш шаклида аниқлайди[15]. Моҳиятан шунга ўхшаш позиция А.И.Павловскийнинг диссертация тадқиқотида ҳам баён этилган [16].

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1197-1205

Бу мавзуда жиноят ҳуқуқи бўйича илмий ишларда ҳам баён қилинган нуқтаи назар келтирилган. Масалан, П.Ф.Гришаев ижтимоий ўзаро муносабатлар соҳасида юзага келадиган муносабатларнинг шундай тартибини жамоат тартиби деб ҳисоблайди, унга кўра жамиятнинг барча аъзолари нафақат ҳуқуқий нормалар, балки ахлоқий меъёрлар билан тартибга солинадиган қоидаларга риоя қилишлари керак. Жамоат хавфсизлигининг кафолати жамиятнинг барча аъзолари томонидан ушбу нормаларга риоя қилиш бўлиб, фуқароларнинг хавфсиз муҳитда кундалик ҳаётини таъминлайди[17].

Фуқароларнинг ўз шаъни ва қадр-қиммати дахлсизлигини, жамоат ва шахсий тинчлигини таъминлашга бўлган эҳтиёжини англаш жамоат хавфсизлиги ва жамоат тартиби ўртасидаги муносабатларни белгилаб берувчи омил ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, олимларнинг қарашлари мунозарали бўлиб, жамоат хавфсизлиги сифатида жамият ва фуқароларни ҳимоя қилиш ҳолатини ҳисобга олади, бу фақат фуқароларнинг ҳаёти ва соғлиғига, шунингдек, уларнинг мулкига зарар етказувчи хавф омилларини зарарсизлантириш билан боғлиқ[18]. Инсон саломатлигининг ёмонлашишига субъектнинг шаъни ва қадр-қимматига тажовуз қилиш ҳам сабаб бўлиши мумкин. Шу билан бирга, инсон ҳаёти ва саломатлиги хавфсизлигини, мулк дахлсизлигини кафолатламасдан туриб, жамоат ва шахсий тинчликка эришиш қийин.

Бундан ташқари, Н.В.Баландина "жамоат тартиби" ва "жамоат хавфсизлиги" тушунчалари ўртасидаги муносабатларни давлатнинг жамият, алоҳида фуқаролар олдидаги масъулияти нуқтаи назаридан таҳлил қилиб, улар нафақат давлатнинг асосий функцияларининг мазмунини, шу жумладан стандартлар, ички тажовузлардан, жиноятлар сонидан, шунингдек, ташқи тажовузлардан ҳимоя қилиш ва таъминлаш, шунингдек, ҳуқуқнинг функцияларини (хавфсизликни ўрнатиш) акс эттиришини тўғри таъкидлайди. Қонун жамоат муносабатларини давлат томонидан тартибга солувчи, яъни, хавфсизлик стандартларини, тартибни (тартибга солиш функциясини), шунингдек ваколатли давлат органлари тизими ёрдамида ўрнатади, жамиятда хавфсизлик ва тартибни таъминлайди, кафолатлайди ва ҳимоя қилади (ҳимоя функцияси)[19].

Бир қатор олимларнинг нуқтаи назарлари таҳлилидан келиб чиқиб, Д.А.Коротченковнинг жамиятнинг хавфсизлигини таъминловчи манфаатларининг рўйхати бўлиши зарурлиги тўғрисидаги фикрига қисман

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1197-1205

қўшилиш мумкин, лекин бу масалалар қонунчиликдаги ҳаволаки диспозициялар орқали ўз-ўзидан ҳал бўлади деган фикрдамиз.

Шунингдек, И.И.Веремеенконинг “жамоат ва шахс хавфсизлигини таъминлаш жамоат тартибини ўрнатиш ва сақлаш мақсадини ташкил этади” деган фикрида шахс, жамият ва давлатнинг муҳим манфаатлари ҳисобга олинмаган, чунки ушбу манфаатларнинг қондирилмаслигини жамот хавфсизлигига нисбатан жиддий таҳдид сифатида қараш мумкин.

П.Ф.Гришаевга кўра жамиятнинг барча аъзолари нафақат ҳуқуқий нормалар, балки ахлоқий меъёрлар билан тартибга солинадиган қоидаларга риоя қилишлари кераклигини кўрсатиб, қайсидир маънода, давлатнинг қонун чиқарувчи органи томонидан ишлаб чиқиладиган ҳуқуқий ҳужжатларга асосий эътиборини қаратиб, ушбу ҳужжатлар яъни қонунлар ёки бошқада ҳуқуқий нормаларнинг сифатини эътибордан четда қолдиради.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда, бизнинг фикримизча, жамоат хавфсизлиги деганда шахс, жамият ва давлатнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, моддий ва маънавий қадриятларини, шу жумладан шаъни ва қадр-қиммати, ҳаёти ва соғлиғини ҳар хил жиноятлар, ижтимоий ва этник низолар, шунингдек, табиий ва техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлар, маъмурий ва бошқа турдаги ижтимоий хавфли қилмишлардан, ҳуқуқбузарлик ва жиноятлардан ҳимоя қилинганлик ҳолати тушуниш зарур деб ҳисоблаймиз.

REFERENCES

1. “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириши чора тадбирлари тўғрисида”ги 2021 йил 29 ноябрь кунги ПФ-27-сон фармони.
2. 467-I-сон 29.08.1997й. “Миллий хавфсизлик концепцияси тўғрисида”ги қонуни,
3. Мальцев В.А. Соотношение и взаимосвязь между различными видами безопасности в России: (конституционной, национальной, государственной, общественной, личной, информационной) // Проблемы правоведения. 2003. № 1. С. 57.
4. Собр. законодательства Рос. Федерации. 2009. № 20. Ст. 2444.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1197-1205

5. См.: Стахов А.И. Административно-публичное обеспечение безопасности в Российской Федерации. М.: ЮНИТИ-ДАНА, Закон и право, 2006. С. 23.
6. Утв. Президентом РФ 14 ноября 2013 г. № Пр-2685 // Доступ из справ.-правовой системы «КонсультантПлюс».
7. См.: Босхамджиева Н.А. Современные проблемы административно-правового обеспечения общественной безопасности в Российской Федерации // Юридический мир. 2012. № 11. С. 26.
8. См.: Коротченков Д.А. Организация административно-правовой охраны общественного порядка и обеспечения общественной безопасности при проведении массовых мероприятий: дисс. … канд. юрид. наук. Хабаровск, 2006. С. 25-26.
9. См.: Микаилов С.М. Деятельность вневедомственной охраны полиции в сфере обеспечения общественной безопасности // Закон и право. 2013. № 6. С. 80.
10. См.: Стахов А.И. Указ. соч. С. 23.
11. См.: Нестеров С.В. Общественная безопасность как правовая категория // Аграрное и земельное право. 2012. № 12. С. 104.
12. № 3. С. 164.
См.: Готовцев А.В. Организационно-правовые вопросы взаимодействия милиции и внутренних войск в охране общественного порядка: Автореф. … дис. канд. юрид. наук. М., 2000. С. 13.
13. № 3. С. 164.
См.: Готовцев А.В. Организационно-правовые вопросы взаимодействия милиции и внутренних войск в охране общественного порядка: Автореф. … дис. канд. юрид. наук. М., 2000. С. 13.
14. Веремеенко И.И. Механизм административно-правового регулирования в сфере охраны общественного порядка: Предмет и понятие. Ч. 1 М.: Изд-во ВНИИ МВД СССР, 1981. С. 18.
15. Черепанов Е.А. Общественная безопасность: теоретико-правовые и организационные проблемы ее обеспечения // Вопросы совершенствования деятельности милиции общественной безопасности. Сборник № 9. М., 2002. С. 46.
16. См.: Павловский А.И. Административно-правовые гарантии прав и свобод граждан в сфере охраны общественного порядка: дисс. … канд. юрид. наук. М., 1998. С. 23-24

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1197-1205

17. См.: Гришаев П.Ф. Преступления против общественной безопасности и порядка. М.: ВЮЗИ, 1959. С. 4.
18. См., например: Кондрашов Б.П. Общественная безопасность и административноправовые средства её обеспечения. М.: Щит-М, 1998. С. 16-17.
19. См.: Баландина Н.В. Общественный порядок и общественная безопасность – зона ответственности государства перед обществом // Правовая культура. 2011. № 2. С. 67.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1206-1213

ЎЗБЕКИСТОНДА БОЛАЛАР ҚАРОВСИЗЛИГИ МАСАЛАСИДА БОЛАЛАР КОМИССИЯЛАРИ ФАОЛИЯТИ

Фарҳод Абдираимович Усманов
Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти, “Тарих” кафедраси докторанти
farhod.usmanov.1988@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Мақолада ўтган асрнинг 20-30 йилларда Ўзбекистон ҳудудида турли омиллар сабаб қаровсиз болалар сони ошиб кетиши ва болалар қарвосизлигини бартараф этиш чора-тадбирлари, болалар ҳуқуқини муҳофаза қилиш мақсадида ташкил этилган болалар комиссиялари фаолияти, камчилик ҳамда муаммолар, болалар билан ишлаш тизими архив материаллари асосида ёритиб берилган.

Калит сўзлар: марказий болалар комиссияси, қаровсиз бола, болалар инспекцияси, меҳрибонлик уйи, тарбияланувчи.

КИРИШ

Советлар томонидан ҳокимиятнинг эгалланиши, ўз навбатида бутун мамлакатга ўзининг турли даражадаги таъсирини кўрсатди. Турли тарихий омиллар сабаб мамлакат бўйлаб катта кўринишда болалар қаровсизлиги шаклланган бўлиб, у ўзининг ижтимоий хавфини кун сайин йирик кўринишда намоён этиб бориши оқибатида, миллат ва жамият учун хавфни бартараф этиш мақсадида турли амалий ишлар қилинган.

Жумладан, болалар ҳуқуқини ҳимоя қилиш ва уларни ижтимоий қўллаб қувватлаш мақсадида турли комиссиялар ташкил этилиб фаолияти йўлга қўйилган. Аммо уларга Марказ томонидан моддий ва маънавий қўллаб қувватлашнинг етарли даражада ташкил этилмаганлиги сабабли кўплаб муаммолар пайдо бўлишига сабабчи бўлиб ҳам қолди.

Шу ўринда Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг **“Биз ёшларга доир давлат сиёсатини ҳеч оғишмасдан, қатъият билан давом эттирамиз. Нафақат давом эттирамиз, балки бу сиёсатни энг устувор вазифамиз сифатида бугун замон талаб қилаётган юксак даражага кўтарамиз.**

Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1206-1213

қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз” –деган фикрларининг ўзи бугунги кунда мазкур масалага эътибор етарлича амалга оширилмоқда.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Тарихий изланишлар ўзбекистонликларнинг кўплаб соҳалардаги фидокорлик, жонкуярлик хусусиятлари намоён бўлмоқда. Жумладан, ўзбекистонликларнинг тарихда мавжуд болалар қаровсизлигини бартараф этишдаги саъй ҳаракатлари алоҳида аҳамиятга эга фидокорлик дейиш мумкин. Совет ҳокимияти даврида мамлакатда олиб борилган бошқарувнинг ёвуз кўриниши амалда аҳолининг жабр ситам ичида ҳаёт кечиришига мажбурлади. Хусусан болалар ҳаётини яхшилаш борасидаги ҳаракатлар деярли ачинарли бўлган. Болалар ҳаётини яхшилаш мақсадида ташкил этилган турли комиссиялар Марказ томонидан қўллаб қувватланмаганлиги ва моддий асосга эга эмаслиги сабабли самарали фаолият олиб бора олмаган.

Совет даври тарихчилари илмий монографиялари [2], [3], асарлари ва эсдаликлари [4], [5] маълумотлари билан таҳлилий ўрганилди.

Шунингдек, мавзу манбаси сифатида Ўзбекистон Миллий Архиви (ЎзМА) фондларидан фойдаланилди [6], [7], [8].

НАТИЖАЛАР

Россиядаги XX аср бошларидаги иқтисодий, сиёсий ўзгаришлар аҳоли қатламига ўзининг катта таъсирини ўтказиб, болалар ҳаёти оғирлашишини таъминлади. Сабаби турли иқтисодий, сиёсий, ижтимоий муаммолар кўпайиб бориши билан оилалар пароканда бўлиши, оилаларнинг болаларини боқа олмай қолиши ва ҳоказо сабаблар билан болалар қаровсиз ҳолга ташлаб қўйилиб, ўзининг ҳаётини кўчада давом эттиришига олиб келди. Бу эса ўз навбатида болаларнинг қаровсизлигини кун сайин ошириб, улар ўртасида жиноятчиликни ҳам ошириб борди.

Болалар қаровсизлиги бутун Россияни қамраб бориши билан Ўзбекистонга ҳам катта оқим билан кириб келди. Бундай таҳликали вазиятда болалар қаровсизлигига қарши курашиш давлат томонидан амалга оширилиши замон талаби бўлган. Шу нуқтаи назардан, Ленин бошчилигидаги ҳокимият турли чоралар кўришга мажбур бўлди. Давлат сиёсатида мазкур масала билан

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1206-1213

асосан Маориф Халқ Комиссарлиги (ХК) машғул бўлиши белгиланган. Шунингдек, бу муаммо ечимида 1918 йилда ташкил этилган “Балоғат ёшига етмаган болаларни ҳимоя қилиш комиссияси” зиммасига масъулият юкланган.[9]

Мазкур комиссия 1918 йилда ташкил топган бўлсада, РСФСР Адлия ХК томонидан балоғат ёшига етмаган болаларни ҳам жиноий жавобгарликка тортиш ва озодликдан маҳрум қилиш бўйича рухсат берганлиги сабаб фаолияти жуда суст давом эттирилди. Натижада 1920 йилга келиб “Болалар милицияси” ташкил этилди. Аммо “Болалар милицияси” ҳам ўзини оқламади. 1921 йилдан эса Бутунроссия Марказий Ижро Қўмитаси (МИҚ) қошида “Болалар ҳаётини яхшилаш комиссияси” ташкил этилди.[10]

Бу комиссиянинг Туркистонда фаолияти бўйича тўхталадиган бўлсак, Волгабўйи минтақаларида очарчилик вакилларининг кўчирилишини назорат қилиш ва ташкиллаштириш мақсадида 1921 йил октябр Волгабўйидан очарчилик аҳолиси жумладан болалар оқимининг кириб келиши энг кучайган вақтда Болалар комиссияси 3 кишилик вакилдан иборат тартибда Туркистонда Очларга ёрдам комиссияси таркибида ташкил этилган. 1922 йил апрелда Волгабўйидан болаларнинг келиши тугаши билан Комиссия ўз фаолияти тўхтатиб, функционал вазифалари Маориф ХКга ўтказилган ва бу ўз навбатида худди кераксиз ташкилот сифатида мавжуд бўлган. Комиссиянинг ички муаммолари ҳам кўпайиб 1922 йил сентябрда аъзолар Туркистон МИҚга Комиссия муваффақиятсизлиги асосий сабаби раис Кадушкин билан боғлиқлигини маълум қилишган. Мурожаатлар ўрганилиб, 05.10.1922 йил ТурМИҚ қарорига кўра Болалар комиссияси Очларга ёрдам Марказий Комиссиясига топширилган ва Эвакуация маркази раҳбари Сушко комиссия раиси этиб тайинланган. 10.10.1922 йил мазкур комиссия РСФСРда “ТурМИҚ болалар ҳаётини яхшилаш комиссияси” номини олди. Шу вақт оралиғида Комиссия МИҚ ва ХКСдан бир тийин ҳам олмасдан, маблағ топиш ва имкон яратишни асосий фаолиятига айлантиришга мажбур бўлган.[11]

Шундан сўнг комиссия фаолиятида бир қанча муваффақиятлар даври бошланган. 1922-1923 йил қиш мавсумида комиссия асосий ёрдамини Фарғона водийсига қаратган. Шу даврда 5 360 червон рубл пул, 20 608 аршин мануфактура, 4 225 кийим бош, 1 631 жуфт оёқ кийим тақдим этган. 1923 йил майдан октябргача муддатда эса асосий фаолияти Волгабўйи ва Қирғизистон оч болаларини ватанига қайтариш бўлди. Ватанига юбориш тўлиқ марказий

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1206-1213

комиссия ҳисобидан қопланган бўлиб, жўнатишда уларга кийим бош, билет, нарса-буюм, 2-3 ҳафталик озиқ-овқат, тиббий воситалар, кузатувчи шифокор кабилар билан таъминланган. Умумий шу вақт оралиғида 3 200 бола Ватанига қайтарилиб, қолган болаларнинг ота-онаси билан алоқа қилиш имкони йўқлиги, чин етим эканлиги ва манзили номаълумлиги каби сабаблар билан юборилиши 1924 йилга қолдирилган. Улар сони тахминан 6 000 нафардан ортиқ бўлган. Август ойига келиб Марказий комиссиянинг вилоят, уездларда ташкилотлари тузилиб, МБК фаолияти кенгайтирилган.[12]

Туркистонининг туб аҳолиси ўртасида ҳам очарчилик ҳолатлари шаклланган бўлиб, бунга турли минтақадаги ьурли омиллар сабаб сифатида кўрсатилган. Туркистоннинг тоғли ўлкаларида қурғоқчилик келиши туфайли 11 000 га яқин, Еттисувда 1916-1917 йиллар Туркистондаги оғир очарчилик туфайли оддий деҳқон аҳоли очарчиликдан қочиб, Хитойга кетиб қолган ва кейин камбағал, яланғоч, ҳеч қандай мулксиз ҳамда ҳеч қандай яшаш воситасисиз ўз она Ватанига қайтган тахминан 70 000 киши кўринишида очарчилик вакиллари шаклланган.

Сирдарё вилоятида қурғоқчилик туфайли ва қўшимчасига Волгабўйи ва Қирғиз Республикаснинг шимолий уездлари Перовский ва Казалинский ҳудудларидан очарчилик вакиллари оқимининг кириб келиши билан кўпайиб кетган. Самарқандда – 30 168, Фарғонада – 379 500 маҳаллий аҳоли вакиллари ва очарчилик ҳудудларидан келтирилган фуқаролик уруши қурбони сифатида мавжуд бўлган.

Мисол учун Қўқон уезди Ариванская қишлоғи 1922 йил баҳорда 18 000 кишидан 12 000 аҳоли қирилиб кетган. 01.05.1923 йил санасида Волгабўйидан келган 23 000 кишидан чин етим ва ярим етим Волгабўйи болалари 12 000 нафарни ташкил қилган. Умумий ҳисобда 525 668 киши очлиги мавжд бўлиб, улардан 42 000 киши Очарчиликка ёрдам Комиссияси, 8 000 нафари Маориф ХК қарамоғига олинган. Очларга ёрдам умуман имкониятсиз қолган. Туркман вилоятида 11 000, Самарқандда 30 168, Еттисувда 6 000 келтирилиб, 64 000 киши ёрдам берилишини кутиб турган.[13]

1923 йил якуни бўйича ТМИҚ қошидаги болалар ҳаётини яхшилаш комиссияси йиғилиши А.С.Сушко берган маълумотга кўра Тошкент шаҳрида 760 нафар қаровсиз болалар рўйхати шакллантирилиб, 150 нафар бола 2 та вагонда Ватанига қайтариб юборилган. 500 га яқин бола интернатларга

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1206-1213

жойлаштирилиб, “Ташса” ва “Красная заря” фабрикаларида 400 кишига қабулхона ташкил этилган.[14]

1924 йил маълумотига кўра мамлакат бўйлаб болалар қаровсизлиги масаласи жуда ачинарли ҳолатга келиб қолган бўлиб, деярли умуман мактабгача тарбия мавжуд эмас. Ишчи ва хизматчилар куни бўйи ишда, уй бекалари уй ишлари билан банд; болалар ҳеч қандай қарови йўқ, куни бўйи кўчада санғиб, кўча ахлоқсиз ишлари билан шуғулланади. Ўсмирлар кичик болаларни сўроқ савол қилмай, ҳамма беэътибор ҳаракатланади болаларнинг соғлиғи, тарбияси билан деярли ҳеч кимнинг иши йўқ ҳолатда бўлган. [15]

Марказий болалар комиссиясининг олиб борган шунча саъй ҳаракатарига қарамасдан болалар қаровсизлиги масаласи кўплаб камчиликларини очиб берган. Жумладан, кўпчилик интернатлар ачинарли таъминотда, болалар полда думалаб ётиб, ифлос кийимда, бинолар таъмир талаб ҳолга келиб қолган, иссиқлик йўқ, барча ўлкалар бўйлаб болалар қаровсизлиги кўпайиб, болалар жиноятчилиги ва фоҳишабозлиги ачинарли рақамларни тақдим қилган. Мазкур давр Марказ мавжуд муаммоларни бартараф этиш учун керак бўладиган маблағни таъминлаб бера олмаган.[16]

Вояга етмаган ишлари бўйича комиссия 1924 йил февралда мажбурий тартибда қаровсизларни йиғиш ва муассасаларга жойлаштириш бўйича эсда қоларли муваффақиятга эришган бўлсада, мазкур болаларни қабул қилиб олган муассасалар 4 дан 3 қисм мол мулки мазкур болалар томонидан ўғирланиб бозорларда сотиб юборилишига эришилган. Бу болалардан 18 нафари йирик, эски ва янги жиноятлари учун Жиноятқидирувга берилган, 10 нафари Мудофаа бўлимига 18-19 ёшдан кичик бўлмаган чақирувдагилар ҳарбий хизмат учун топширилган. Ўғирланган кийим кечак, ёқилган ва бузилган жиҳозлар, синган ойналар (қўлга олингач қаршилик кўрсатган) жойи қопланиши бўйича ишлар қилинган. Охирги тўрт ойлик даврда Тошкент шаҳрининг ўзида 400 нафар қаровсиз болалар қўлга олиниб, улардан 100 таси ватанига қайтариб юборилган.[17]

20.12.1926 йил ЎзССР МИҚ Президиуми маълумотларига кўра Болалар комиссияси қарамоғида 1080 нафар бола мавжуд бўлиб, уларга йиллик ҳаражати 468 697 рубл ЎзССр Маориф ХК ва унинг маҳаллий бўлимларида 5 682 бола, уларга йиллик ҳаражат 2 038 527 рубл давлат бюджети қарамоғидаги болалар сони 100, уларга йиллик ҳаражат 71 386 рубл давлат ва маҳаллий бюджетларда умумий ҳисобда 6 862 нафар бола бор, уларга йиллик

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1206-1213

ҳаражат 2 578 610 рубл 1925/26 бюджет йилида давлат бюджетидаги мавжуд болаларнинг 500 нафарини маҳаллий бюджетга топширган бўлса, 1926/27 бюджет йилида барча болаларни маҳаллий бюджет ҳисобига ўтказиб юборган. Болалар комисияларининг асосий даромади КАЗИНО лар бўлиб, кутилган ҳаражатларни қоплаш имконини бермаган.

Кўчадаги қаровсиз болаларни йиғиш ва жойлаштириш ишларига масъул болалар комиссияларида бу ишни амалга ошириш моддий асоси йўқ эди. 16.10.1926 йил ЎзССР МИҚ Президиуми қарорига кўра болалар комисиялари савдо фаолияти билан шуғулланиб даромад олиши учун 50 000 рубл кредит ажратиш белгиланган ва Болалар комиссияси мазкур кредит билан таъминланиши учун СССР МИҚ қарорига асосан СССР МИҚ захира фондидан 200 000 рубл олиш ҳуқуқига эга бўлган.[18] Аммо натижа кутилгандек бўлмаган.

СССР МИҚ ва Ленин фонди келишувига кўра 4 000 кўчада қаровсизи бор ЎзССР га 942 936 рубл маблағдан атиги 20 000 рубл ажратган. 4 000 қаровсизга ҳисоб-китобга кўра 1 702 172 рубл талаб қилинган.

СССР МИҚнинг 13.08.1926 йилдаги № 56 сонли баёни қарорига кўра болалар қарвосизлигига қарши курашиш эҳтиёжлари учун портер (ўткир қора) ва эль (инглиз пивоси)нинг олиб кирилган юз килограмм ундириб тиқилган буғдойга 7-35 рубл миқдорида акциз солиғи болалар қарвосизлиги эҳтиёжи учун мўлжаллаб жорий қилинган. Ҳар бир ўйин картаси дастаси савдосига 20-25 копейка қўшимча йиғим жорий қилинган.

Давлат солиғининг фойдадан ортиғининг 50 % гача қисми болалар қаровсизлигига қарши курашишга йўналтирилган. Бу пулларнинг ҳаммаси СССР МИҚ қошидаги Ленин фондига бориб тушган. ЎзССР Молия ХК маълумотларига кўра агар йиғим 50 % миқдорда йиғилса тахминан 200 000 рубл ни ташкил этар эди.[19]

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки болалар уйларидаги ва кўчадаги умумий қаровсиз болаларнинг 80 % қисми маҳаллий бўлмаган кўпчилиги европа иттифоқдош давлатлари болалари ҳиссасига тўғри келган.

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда ЎзССР МИҚ СССР МИҚ дан 300 000 рубл субсидия ажратилиши бўйича хат юбориб, Қашқадарё вилояти Бекбуди шаҳрида, Сурхондарё вилоятининг Шеробод шаҳрида рус типига ҳар томонлама жавоб берадиган шароитда маҳаллий аҳоли болалари учун ҳар

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1206-1213

бирига 100 кишилик болалар уйлари қуриш ва бу қурилишга 150 000 рубл сарфланиши комиссия томнидан назоратга олинишини маълум қилган.[20]

МУҲОКАМА

Мавжуд маълумотлар шуни кўрсатмоқдаки, мамлакат болалари ҳаёти учун Ўзбекистонда имкониятлар кенгайиши учун ҳаракатлар қанчалик кўп бўлмасин Марказ буни қўллаб қувватламаган. Бутун мамлакат бўйлаб кенг қулоч ёйган болалар қаровсиги масаласи Ўзбекистон ҳудудида жудаям кенг кўламда намоён бўлган. Ажабланарли жиҳати, доимий мажлис, қарорлар, фармонлар марказида бўлган мазкур масала амалда катта муваффақиятга эриша олмади. Мазкур давр ижтимоий портретини қисман яратиб кўрадиган бўлсак, кўча кўйда, бозорлар, ошхоналар, вокзаллар умуман олганда одамлар гавжум бўлган барча жойларда кўча болаларини тўп тўп бўлиб юрганини кузатиш мумкин эди. Энг ёмон тарафларидан бири мазкур қаровсиз болалар майда безорилик, киссавурлик, талончилик билан шуғулланишни одат қилиб олган эди. Бундай муаммоли вазиятда барча давлат органи вакиллари имконияти доирасида чора-тадбирларни амалга ошира бошлашди. Жумладан, Болалар комиссиялари ҳар томонлама пухта ишланган фаолият билан шуғулланишга зўр берган.

Бу омилнинг ўзи мамлакат эртаси учун қанчалик долзарб муаммо эканлигини намоён қилаётган бўлса ҳам, Марказдан етарли эътибор қаратилмаган. Талаб қилинадиган маблағлар ажратиш ишлари турли йўллар билан пайсалга солиниб, кўп ҳолатларда рад қилинарди. Ваҳоланки ҳаражатсиз ишнинг самарадорлиги яхши бўлмагани сингари, болалар қаровсизлигини бартараф этишда самарадорликка эришиш учун қаровсиз болаларга кўчадаги ҳаётдан яхшироқ ҳаёт тақдим этилиши лозим эди.

Мавжуд архив маълумотларига таянадиган бўлсак, Болалар комиссиялари Ўзбекистон ҳудудида мавжуд болалар муассасаларида, айниқса меҳрибонлик уйларида, кўчаларда мавжуд қаровсиз болалар ҳаётини яхшилаш учун имкон қадар чора-тадбирлар амалга оширишга эришган.

ХУЛОСА

Мазкур мақолада келтириб ўтилган Болалар комиссиялари фаолияти бўйича умумий хулоса қилиб қуйидагиларни келтириб ўтиш мумкин;

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1206-1213

Болалар комиссиялари мавжуд вазиятда зарурат бўлганлиги сабаб ташкил этилган. Болалар қаровсизлигини бартараф этишдаги саъй ҳаракатларнинг натижадорлиги кутилган натижаларни бермаганлигининг сабаби Марказ томонидан қўллаб қувватлаш ва маблағ таъминоти бўлмаганлигидадир. Мавжуд шарт-шароитлар ва имкониятдан келиб чиқиб Болалар комиссияси Ўзбекистонда кўплаб яхши натижаларга ҳам эришган.

REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoyev. We will build free, democratic and prospering Uzbekistan with our courageous and magnanimous people. Address by Shavkat Mirziyoyev at the joint session of the Chambers of Oliy Majlis dedicated to a Solemn Ceremony of Assuming the Post of the President of the Republic of Uzbekistan / - Tashkent: Uzbekistan, 2016. – 14-p.
2. А.Н.Расулов. Туркистон халқи бағрикенглиги. -Ташкент, 2011. -монография.
3. А.А.Ерметов. Ўзбекистон ички ишлар органлари фаолияти. -Ташкент, 2018. – монография.
4. К.Фозылходжаев. Детей принимал Узбекистан.- Ташкент, 1991, 56 с.
5. А.Алматинская, А.Авдеева. Свет нашых очей. -Ташкент, 1971.
6. ЎзМА Р-17 (Туркистон АССР Марказий Ижро Қўмитаси фонди).
7. ЎзМА Р-86 (Ўзбекистон ССР Марказий Ижро қўмитаси фонди).
8. ЎзМА Р-34 (Ўзбекистон ССР фонди).
9. А.Н.Расулов. Туркистон халқи бағрикенглиги. -Ташкент, 2011. -монография. 15-бет
10. А.Н.Расулов. Туркистон халқи бағрикенглиги. -Ташкент, 2011. -монография. 17-бет
11. ЎзМА, Р.17-фонд, 1-рўйхат, 398-иш, 1-2-варақ.
12. ЎзМА, Р.17-фонд, 1-рўйхат, 398-иш, 3-варақ.
13. ЎзМА, Р.17-фонд, 1-рўйхат, 368-иш, 137-варақ.
14. ЎзМА, Р.17-фонд, 1-рўйхат, 368-иш, 150-варақ.
15. ЎзМА, Р.34-фонд, 1-рўйхат, 2419-иш, 27-варақ.
16. ЎзМА, Р.17-фонд, 1-рўйхат, 1391-иш, 282-варақ.
17. ЎзМА, Р.17-фонд, 1-рўйхат, 572-иш, 10-варақ.
18. ЎзМА, Р.86-фонд, 1-рўйхат, 4400-иш, 6-варақ.
19. ЎзМА, Р.86-фонд, 1-рўйхат, 4400-иш, 7-варақ.
20. ЎзМА, Р.86-фонд, 1-рўйхат, 4400-иш, 8-варақ.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1214-1229

АКАДЕМИК ИБРОҲИМ МЎМИНОВ: ДАВР ИНСОН ТАҚДИРИДА

Темур Аброр ўғли Мўминов
Ўзбекистон Миллий университети Тарих факультети таянч докторанти
temurmominov7@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Мақолада Тоталитар тузум даврида миллий зиёли қатламга нисбатан қўлланилган қатағон сиёсати ҳақида ёзилган. XX аср зиёли инсонлар бошига кўп оғир кунлар солган. Муаллиф, Ўрта Осиё халқларининг ижтимоий – сиёсий, фалсафий тафаккури тарихи бўйича йирик олим, фан дарғаси, тарихчи, фаннинг йирик ташкилотчиси, таниқли давлат ва жамоат арбоби, ўзбек миллий Энциклопедияси асосчиси И.Мўминовнинг ҳаёти ҳамда илмий фаолиятини ўша давр ижтимоий сиёсий жараёнлар тизимида таҳлил қилади.

Калит сўзлар: академия, зиёли, файласуф, сеъезд, миллатчи, халқпарвар, ҳақиқат, давлат арбоби, қатағон, фалсафий тафаккур тарихи, мустабид тузум, қатағон қурбонлари, фалсафа мактаби, сиёсат, илмий салоҳият, сиёсий маъруза, зиёлилар съезди, мафкура.

ACADEMICIAN IBRAGIM MUMINOV: A PERIOD IN THE DESTINY OF HUMANITY

ABSTRACT

The article examines the policy of repression against the national intelligentsia during the period of the totalitarian regime. The twentieth century brought many difficulties to the minds of educated people. The author analyzes the life and scientific activities of I. Muminov, a great scientist in the history of socio-political and philosophical thought of the peoples of Central Asia, a scientist, historian, great organizer of science, a prominent statesman and public figure. founder of the Uzbek National Encyclopedia.

Keywords: academy, intellectual, philosopher, congress, nationalist, nationalist, truth, statesman, repression, history of philosophical thought, dictatorial regime, victims of repression, school of philosophy, politics, scientific potential, political discourse, congress of intellectuals, ideology.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1214-1229

КИРИШ

Кейинги пайтларда йирик олим, фанимизнинг катта ташкилотчиси, республиканинг кўзга кўринган давлат ва жамоат арбоби, талантли устоз, Ўзбекистонда фалсафа мактабининг асосчиси, ЎзФА академиги, Беруний номидаги Ўзбекистон Республикаси Давлат мукофотининг лауреати, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби, фалсафа фанлари доктори, профессор Иброҳим Мўминовнинг ҳаёти ва фаолиятига қизиқиш яна кучайди.

Инсоният тарихи саҳифаларини мудҳиш тоталитар режим ,, қатағонлари“ билан тўлдирган совет воқелигини атрофлича ўрганиш янгича нуқтаи назардан давом этмоқда. Аслида тарихий воқеликларини англаш, мушоҳада қилиш доимо зарур. Бу жамиятда тарихий онгни мустаҳкамланишига туртки беради. Совет даврига , у давр кишилари фаолиятига баҳо берганимизда, уларни қайта ўрганганимизда бугуннинг кўзи, бугуннинг мезони билан ёндашмаслигимиз даврнинг мураккабликларини доимо ёдда тутишимиз , халқимиз тарихига катта ҳурмат билан қарамоғимиз лозим.

Ҳозирги даврда барча соҳаларда бўлаётган ислоҳотлар миллий меросимизни ўрганишга ҳам ижобий таъсир кўрсатди. 2021 йил Президентлик сайлови муносабати билан Ш.Мирзиёев Бухоро вилояти сайловчилари ҳузурида ўтказилган учрашувида зиддиятли шўро даври фанимиз ривожига катта ҳисса қўшган забардаст олим Иброҳим Мўминов ҳақида ҳам алоҳида ҳурмат билан тўхталиб ўтди.

Дунё бугун буюкларнинг таржимаи ҳолини қайтадан кашф қилмоқда. Ўзбекистон тарихидаги улуғ сиймоларнинг кечмишини ўрганиш ҳар қачонгидан ҳам долзарб.

Иброҳим Мўминов ва Ҳабиб Абдуллаев каби алломаларимиз ҳаётини тадқиқ этиш XX аср ўзбек фани тарихи саҳифаларини янги маълумотлар билан бойитиши шубҳасиз.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯСИ

Академик Иброҳим Мўминов ҳаёти ва фаолиятини ўрганишда манба ва адабиётларни қуйидагича тавсифлашни лозим топдик. Иброҳим Мўминов ва унинг даврини ўрганишда ЎзФА нинг архив фондлари (Ф-1) материаллари, олимнинг танланган асарлари тўплами, “Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида” китоби, Н.Каримовнинг 1937 – 38 йиллардаги “Катта қирғиннинг фожиаси оқибатлари” асарларидан фойдаланилди. О.Файзуллаевнинг “XX аср

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1214-1229

ўзбек зиёлилари”,Ш.И.Хаитовнинг “Ўзбекистон фалсафа тарихи”китоби, М.Ахунова ва Б.Луниннинг “”История исторической науки в Узбекистане”, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, Саид Шермуҳамедовнинг “Қомусий олим” рисолаларида академик И.Мўминовнинг ҳам инсоний , ҳам илмий қирралари самимий ёритилган.

Бундан ташқари , Эдвард Оллвортнинг “Замонавий ўзбеклар”, Ш.Эргашевнинг “Эрк истар кўнгил”, Ф.Раззоқовнинг “Шароф Рашидов: Ҳаёт ва мамот” китоби ва Г.Рашидова,Д.Комиловнинг “Шароф Рашидов: Инсон – давр кўзгусида ва давр – инсон тақдирида” деб номланган хотиралар ўша даврга янгича муносабати билан алоҳида ажралиб туради. Н.А Муҳитдиновнинг “Кремелда ўтган йилларим” мемуари кўп тарихий воқеаларга ойдинлик киритишда муҳим роль ўйнади. Бир гуруҳ тарихчи олимлар томонидан тайёрланган “Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар)” китоби ҳам бу давр тадқиқотчиси учун муҳим манбавий аҳамиятга эга.

Муаллиф мақолани ёзишда тарихийлик ва холислик методларидан фойдаланди. Мустабид тузум тарихини ёритишда ҳаққонийлик бош мезон сифатида олинди. Табиийки, қиёсий таҳлил адабиётларни ўрганишда муҳим омил бўлди.

МУҲОКАМА

Тарихга назар ташласак тақдирнинг залворли оғир синовлари кўпроқ халқнинг улуғ фарзандлари, зиёлилари бошига тушганини кўрамиз. Зиёли инсонлар доимо ҳурфикрлилик ва ҳақиқат учун бевосита ёки билвосита курашганлар.

Дунё ва ўзбек фалсафасида, тарихшунослигида зиёлилар масаласини ўрганиш, тадқиқ қилиш доимо долзарб бўлиб келган.[1]

Халқимизнинг ҳассос шоири Эркин Воҳидов зиёлилар ҳақида шундай ёзган эди: “Зиёли нур эгаси демакдир. Бу нур илм нури, одоб нури, юксак инсоний ахлоқ нури, теран маданият, олий тафаккур, мустаҳкам ички интизом, собит эътиқод, салим руҳият нуридир. Бу нур манбаи инсон қалбида. Қалб гавҳарини асраб – авайлаган инсон бахтиёр ва олижанобдир. У ўзининг ҳам, ўзгаларнинг ҳам қадр – қимматини билади. Зиёли инсонга манманлик бегона, ўз халқини қандай иззат қилса, бошқа халқларни ҳам шундай ҳурмат қила олади, ички маданияти унчалик ривожланмай қолган одамларга нисбатан кечиримли бўлади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1214-1229

...Лекин бари – бир салкам бир аср мобайнида юритилган қатағон сиёсати сўнгида ҳам, зиёлилар бошида шунча тегирмон тоши юритилганидан кейин ҳам, халқ тарихи, тили қадриятларини топташлар охирида ҳам ўз қалб зиёсини йуқотмаган юртдошларим олдида бош эгаман”[2]

Дарҳақиқат, бугун тарихимизнинг ана шундайин асл фарзандлари бўлмиш зиёлиларнинг чигал тақдирини ўрганиш жадал бошланганини қутлаш керак.

XX аср ўзбек фани ривожида муҳим роль ўйнаган донишманд олим Иброҳим Мўминовнинг долғали ҳаёти ва фаолияти мустабид даврнинг ҳақгўй, ҳалол инсонларга бўлган шафқатсиз сиёсатининг ёрқин ифодаси эди.

Ўрта Осиё халқларининг ижтимоий – фалсафий тафаккури тарихи бўйича йирик олим, тарихчи, ўзбек маданиятининг чуқур билимдони, фанимизнинг йирик ташкилотчиси, таниқли давлат ва жамоат арбоби И.Мўминовнинг ҳаёти, ҳамда илмий фаолиятини XX аср ижтимоий сиёсий жараёнлар призмасида таҳлил қилиш орқасидан кўп саволларга жавоб топилиши тайин.

Жорж Оруэлнинг “1984” романи ана шу жамиятнинг ҳақиқий башарасини юксак бадиий маҳорат билан аёвсиз фош қилган.[3]

Совет Иттифоқи даврида таъқиқда бўлган Жорж Оруэлнинг дунёга машҳур романида воқеликнинг барча қирралари, хусусан одамлар онгини назорат қилувчи тоталитар режим ҳақида санъаткорона ҳикоя қилинади.

Жамиятни орқага тортадиган, бузадиган энг катта душман қўрқувдир. Мустабид шўро тузуми даврида зўрлик, тазйиқ ва қўрқитиш Тизим сифатида шакллантирилди. Қўрқув салтанати мафкураси ҳар бир фуқаронинг онг ва шуурини тизгинлаб олди. 2005 йил РКП(б)нинг 1929 – 1934 йилларда Ўрта Осиёдаги ички назорат бўйича айғоқчилик маҳфий ҳужжатлари нашр этилган. Шунда барча жадидларнинг ким билан суҳбатда бўлгани, қандай яширин ташкилотлар тузганлиги ҳақида айғоқчилик стенограммасида баён этилган [4] Элбек, Отажон Ҳошим, Фитрат ва Чўлпон, Абдулла Қодирий каби зиёлилар ғайриинсоний қийноқлардан сўнг отиб ташланган. Ўзининг фожей қисматини олдиндан сезган Абдурауф Фитрат “Абулфайзхон” драмасида: “Ҳокимият қон билан суғориладиган бир дарахтдир, қон оқиб турмаган ерда у қуриб қолади” – дея ҳасрат билан ёзган эди.

Коммунист раҳбарлар Ўзбекистонда зиёлиларнинг 1926 йили бўлиб ўтган биринчи қурултойидаёқ ҳурфикрли шахсларни кўзини остига ола бошлайди.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1214-1229

Ғарбнинг машҳур тарихчиси Эдвард Оллворт ўзининг “Замонавий ўзбеклар” китобининг “Эски ва янги замонавийлик” дея номланувчи иккинчи қисмида шундай фактларни келтириб ўтади: “Зиёлиларнинг 1927 йили бўлиб ўтган иккинчи қурултойида Александров деган кимса “Зиёлиларнинг мафкуравий курашдаги ошиғич вазифалари” деган монологини ўқиб эшиттиради. Унда йўқсилларга ёт мафкурага қарши илм – фандан фойдаланиш; Шарқ аёлларини озод қилиш; зиёлиларни коммунистик партия раҳбарлигида бирлаштириш, шўролар ҳокимиятини тарғиб қилиш сингари вазифалар қўйилган эди. Ўша даврдан бошлаб минтақа тарихида зиёлиларни бўйсундириш бошланди. Илгари жадидлар ҳокимиятга эътироз билдирган бўлса, энди ҳокимиятга қарши чиқиш энг хавфли машғулотга айланаётган зулматли ва ҳуқуқсиз давр бошланаётган эди”[5]

Таассуфки, шўролар давридаги “катта қирғин”лар коммунистик партиянинг XX съездида қоралганлигига қарамай совет давлати ҳам, кейин унинг вориси бўлмиш Россия Федерацияси раҳбарияти ҳам бу сиёсатга расмий муносабатда хаспўшлаш сезилади.

“1937 – 1938 йиллардаги Катта қирғин Совет давлати тонгида Ленин бошлаб берган, кейин Сталин изчил давом эттирган қатағон сиёсатининг авж нуқтасидир. Тарихчиларнинг бир қисми Совет давлатининг бу ғайриинсоний сиёсатини ҳокимият учун кураш натижаси, иккинчи қисми эса бошланажак Иккинчи Жаҳон уруши арафасидаги тарихий зарурат, деб ҳисоблайдилар. Бундан бўлак фикр ва қарашлар ҳам йўқ эмас. Аммо мамлакат халқига қарши қаратилган бу қирғиннинг келиб чиқиш сабаблари қандай бўлмасин, у моҳиятига кўра, Совет давлатининг ўз халқига нисбатан амалга оширган қирғини – геноцидидир”[6]

Беломор – Болтиқ канали, Соловец лагери, Москва – Волга канали ва Колимдаги олтин конлари шахталарида айбсиз айбдорлар кафансиз кўмилдилар. КПСС нинг XX съездида Н.С. Хрушчев “Шахсга сиғиниш ва унинг оқибатлари тўғрисида”ги тарихий маърузасини қилди. Ёпиқ мажлисда сўзланган маъруза кўпчиликни саросимага солганди. Бу тарихий ҳақиқатни тиклаш сари ташланган илк қадам эди. Афсуски, ноҳақ қатағон қилинганларни реаблитация қилиш ишлари охирига етмай қолди. Бу жараёнлар ҳақида ўзбек халқининг асл фарзандларидан бири Нуриддин Муҳитдинов ўзининг ниҳоятда фактик материалларга бой “Кремелда ўтган йилларим” китобида қимматли маълумотлар бериб ўтади.[7]

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1214-1229

1985 йилда Шўролар давлатида бошланган қайта қуриш сиёсати натижаси ўлароқ тарихимиз саҳифаларидаги “ Оқ доғ”ларни тадқиқ этиш яна янгидан бошланди.

Давлат архивлари махсус фондлари, Давлат хавфсизлик комитетида сақланаётган архив ҳужжатлари кенг жамоатчиликка ошкор қилинди. Масквада Д.Волкоганов, А.Солженицин, Э.Радзиниский китоблари қўлма – қўл ўқилди. Ўзбек матбуотида ҳам Наим Каримов, Мажид Ҳасаний, Бегали Қосимов, Ислом Турсунов, Шерали Турдиев, Ислом Усмонов, Қаҳрамон Ражабов, Эркин Юсупов, Набижон Боқий, Аброр Хидировларнинг мақолалари чоп этилди. Қатағоннинг сабаб оқибатлари таҳлил этила бошланди. Бироқ кейинги сиёсий жараёнлар тўлқинида бу масала яна тугал ечимини топмасдан қолаверди. Мустақиллик даврида “Қатағон қурбонлари хотираси” музейи ва “Шаҳидлар хотираси” жамоат фондлари томонидан кўпгина савоб ишлар амалга оширилди. Мустабид даврда ноҳақ қатағон қилинган улуғ ёзувчимиз Абдулла Қодирийга “Мустақиллик ордени”нинг дастлабкиси тақдим этилди. Чўлпон, Фитратлар ҳам мустақил Ўзбекистоннинг орденлари билан тақдирланди.

Ҳар бир давр тарихий шахсларга ўз баҳосини беради. Ўзбекистон президенти Ш.Мирзиёев бошлаган кенг қамровли ислоҳотлар натижаси ўлароқ тарихимиздаги адолатни қайта тиклаш ишлари бошланди. Жадид бобокалонларимизга эҳтиром кўрсатилиб, давлат мукофотлари берилди.

Миллий истиқлолчилик ҳаракатлари етакчиларидан Иброҳим Лақайнинг номи тўла оқланди. Бу ишлар жасоратга йўғрилган ҳаракатларнинг натижаси эди.

2021 йил Президентлик сайлови муносабати билан Ш.М.Мирзиёев Бухородаги сайловчилар билан ўтказилган учрашувида шўро даврида фанимиз ривожланишига катта ҳисса қўшган забардаст олим Иброҳим Мўминов ҳақида алоҳида тўхталиб, уларнинг номини абадийлаштириш хусусида ўз фикрларини айтиб ўтгани айни тарихий адолатни қарор топиши бўлди.

НАТИЖАЛАР

Кейинги йилларда совет даври тарихини ўрганишда бир томонлама нигилистик ёндашувлар ҳам кўзга ташланди. Давр қандай бўлмасин тарихчи ҳис туйғуларга берилмасдан масалани комплекс ўрганиб хулосалар бермоғи лозим.[8]

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1214-1229

Ўзбекистон тарихининг Ш.Рашидов раҳбарлик қилган босқичи халқимиз орасида катта қизиқиш уйғотувчи ва айни пайтда, ўта зиддиятли даврлардан бири. Халқ орасида бу даврга нисбатан муносабат ўта мураккаб, ёркин ва оғир таасуротларга бой. Шу боис Ш.Рашидов даврини ўрганиш, унга кўпчиликни қаноатлантирадиган объектив баҳо бериш жуда мураккаб иш ҳали тарихчилар, сиёсатшунослар, файласуф олимлардан кўп саъй ҳаракат талаб қилинади. Айни ана шу даврда И.Мўминов фаннинг энг қалтис ва нозик соҳаси саналмиш ижтимоий гуманитар соҳада фаолият кўрсатди.

„...Бу давр тарихи – умумий маънода ўзбек халқининг XX аср мустақилликгача бўлган даври тарихи. Бу тарих – анъанавийлик билан модернизация, миллийлик билан большевикча байналмилаллик, исломий анъаналар билан коммунистик даҳрийлик ўртасидаги кураш тарихи. Бу кураш адабиёт ва санъатни, фан ва маорифни, миллий онг ва эътиқодни, кундалик турмуш ва урф – одатларни, хуллас ижтимоий ҳаётнинг барча жабҳаларини қамраб олган ва бутун XX аср бўйлаб давом этган чинакам кураш эди. Бу курашнинг энг буюк натижаси ўзбек халқининг ўзлигини, ўз миллий ғурурини сақлаб қолиши, Ватан деган муқаддас тушунчанинг халқимиз онгида чуқур илдиз отиши ва албатта, Ўзбекистоннинг мустақилликка эришиши бўлди “. [9]

Дарҳақиқат тоталитар тузум шароитида ҳам миллат тақдири учун астойдил куюнган фидоий шахслар кўп бўлган. Айниқса, ижтимоий фанлар билан шуғулланувчи зиёлилар гарданига бу пайитда оғир юк тушган. Коммунистик мафкура бу фанларни ўз „ исканжасига“ олиб қўйганди. Бу соҳа олимларига „ривожланган социализм“ ютуқларини тарғиб қилиш юклатилган. Шу мавзудаги „илмий ишлар“ рағбатлантирилган.

Қадимий тарихни ўрганиш аёвсизларча „феодал ўтмишга сажда қилиш“ деб қораланган.

ЎзКП(б) МҚ бюроси 1950 йил 1 сентябрда „Ўзбекистон ССР Фанлар академиясининг иши тўғрисидаги масалани тинглаб, мазкур иш юзасидан қабул қилинган қарор“ида Республика Фанлар академиясининг гуманитар фанлар бўлими ва унинг институтлари „ўз ишларини ВКП(б) МҚнинг масалаларига доир қарорига мувофиқ равишда қайта қурмадилар“, бу институтларга „сиёсий ишончга сазовор бўлмаган ва буржуа объективизми ҳамда космополитизм ғоясини ташиб юрадиган кишилар жойлашиб олганлар“– деб кўрсатиб ўтди. [10]

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1214-1229

1952 йил 21.22 февралда бўлиб ўтган ЎзКП(б) МҚнинг X Пленуми республикада ижодий ва илмий муассасалардаги ,,миллатчилар“, ,,пантуркчилар“, космополитларни “фош қилиш” бўйича жуда катта сафарбарлик эълон қилди. Республиканинг биринчи раҳбари А.Ниёзов нутқида Тураб Тўла, Темур Фаттоҳ (кейинчалик Ўзбекистон ССР мадҳиясининг муаллифлари), Ойбек, Мақсуд Шайхзодаларнинг ,,буржуа миллатчилик қарашларининг намоён бўлиши“да айбландилар.

Олимлар В.Зоҳидов ,,жиддий буржуа миллатчиликка оғишда“, тарихчи А.Бобохўжаев пантуркизмни тарғиб қилишда иқтисодчи О.Аминов эса буржуа миллатчилари билан алоқада бўлганликда айбландилар.

Республика биринчи раҳбарининг, айниқса Ўзбекистон халқлари тарихини ёритиш масаласидаги танқидлари жуда кескин ва шафқатсиз бўлган. Маърузада таъкидланишича, бир қатор муаллифлар ,,Чор Россиясининг Шарқдаги босқинчилик сиёсати оқибатларини характерлаб, масаланинг фақат бир томонини – чоризм томонидан Ўзбекистон ва Ўрта Осиё халқларининг миллий жиҳатдан жабрланганлигини таъкидлаб кўрсатганлар, аммо Ўзбекистоннинг Россияга **қўшилганлиги** (таъкид бизники Т.М) прогрессив аҳамиятга эга бўлган воқеа эканини мутлақо қониқарсиз ёритганлар. Тарихчи олимлар ,,тарихнинг мана шу актуал масалаларини чуқур ёритиб бериш ўрнига кўпинча узоқ давлатлардаги тарих ва маданиятни ўрганишга берилиб кетмоқдалар“. (11)

Пленумда ,,Ўзбекистон халқлари тарихи“ китобининг иккинчи жилдида Темур давлатининг маданияти ва аҳамиятини ошириб кўрсатилганлиги ,,фош этилди“. Бундан ташқари , 1898 йилда Муҳаммад Али (Дукчи Эшон) бошчилигидаги қўзғолон тарихчилар ёзганидек, ўз характери билан халқ озодлик ҳаракати эмас, балки реакцион феодал – миллатчилик ҳаракати эди, дея коммунистик баҳо берилди.

Авж отига минган комфирқа тарихчи олимларни қаттиқ танқид қилиб, ,,Бизда тарих масалаларида яна бошқа муҳим камчиликлар ҳам бор. Ўзбекистон тарихи совет даври ҳақида бирорта ҳам йирик асар ёзилган эмас. ,, Ўзбекистон халқлари тарихи“нинг совет даврига бағишланган III жилди ва ,, Ўзбекистон КП(б) тарихи очерклари“ жуда секин ёзилмоқда.

Бизнинг тарихчиларимиз ВКП(б)нинг раҳбарлик ва йўл кўрсатувчилик ролини, Ўзбекистонни социалистик негизда ўзгартиришда буюк рус халқи, ВКП(б) Марказий Комитети, улуғ йўлбошчиларимиз Ленин ва Сталин берган

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1214-1229

ғоят катта ёрдамини ҳар томонлама кўрсатиб беришга алоҳида эътибор қилишлари керак“ [12] дея олимларга тарихни қандай ёзиш кераклиги ҳақида махсус ,,кўрсатма“ берилди.

Орадан кўп ўтмай 1952 йил 17 мартда Ўзбекистон КП(б) МҚ бюросининг 1950 йил 1 сентябрдаги ,,ЎзССР Фанлар академиясининг иши тўғрисида“ги қарорининг қониқарсиз бажарилаётгани ҳақида“ қарор қабул қилинди.

DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1262-1270

O’rta Osiyoda kichik-kichik o’ziga mustaqil bo’lgan xonliklarning mavjudligi, yirik birlashgan hokimiyat tomonidan mamlakat miqyosida ma’muriy, xujalik ishlarini rejali rivojlantirilmasligi, natijasida, kup yirik xo’jalik ishlari - kanal qazib suv chiqarish, ariqlarni tozalash, machit va boshqa binolarni qurish, hosilni yig’ib-terib olish va shunga o’xshash ko’pchilik mehnatini talab qiladigan ishlarni xalq o’zi “xashar” yordamida bajargan. Shuning uchun mahallada va qo’shnilar orasida bo’lib turadigan xasharlarga chiqish har bir keksayu yoshning muqaddas burchi hisoblangan. Milliy harakterni xalq o’zida namoyon etadi. Lekin millat harakteri ayrim shaxslar harakterining oddiy yig’indisi emas. U ommaviy fenomen sifatida, individual harakterlarning umumiy bo’lgan xislatlari ijtimoiy jihatidan qayta ishlanib, yangi, maxsus sifatga aylangan vaqtda tarkib topib namoyon bo’ladi. Masalan, xor ovozi xech bir xor qatnashchisining ovoziga o’xshamaganidek, milliy harakter ham birorta millat vakilining harakteriga o’xshamaydi yoki millat harakteri hyech bir millat vakilida tulaligicha aks etmaydi.

Milliy harakter o’zgarmas, turgun narsa ham emas. U tarix maxsuli. Shuning uchun ham uni vujudga keltirgan tarixiy, ijtimoiy -iqtisodiy sharoitlarning o’zgarishi bilan u ham ma’lum darajada o’zgaradi, xatto bir ijtimoiy tizimning o’zida ham u ayrim xislatlarni yo’qotib, yangi xislatlarni paydo qilib turishi mumkin.

“XIX asr boshlarida deb yozadi I.Kon, - nemislarni amaliy faoliyatga layoqatsiz, faqat falsafaga, musiqa va nazmga moyil bo’lgan, texnikani o’rganishga uquvsiz, kam harakat xalq, deb xisoblashgan (bu fikrga ularning o’zlari ham kushilishgan). Germaniyada sanoat to’ntarilishi bo’lishi bilan, bu stereotip tushuncha ishonchsiz anaxronizmga aylanib qoldi”. Lekin bundan ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar milliy harakterning barcha xislatlarini o’zgartirib yuboradi, deb xulosa qilmaslik kerak. Uning ayrim xislatlari nisbatan barqaror bo’lib, yangi ijtimoiy sharoitlarda ham o’z vorisligini yuqotmaydi ular. Keyingi avlodlarga o’tishi, ajdodlarning moddiy va ma’naviy merosini o’zlashtirib olishligi uchun xizmat qiladi.

XULOSA

Tarix - avlodlarning birini o’rniga ikkinchisining kelishidan iboratdir. Ularning har biri avvalgi avlodlar qoldirgan barcha materiallaridan, boyliklaridan, ishlab chikaruvchi kuchlardan foydalanadi. Natijada avlodlararo vorislik paydo bo’ladi. Milliy udumlar umuminsoniy qadriyatlar bilan bog’lanib ketgan. Milliy harakter umumbashariy xususiyatlarga zid bo’lmaydi. Shuning uchun ham uni boshqa millat va elatlar harakteridan ajratib quyishi yoki qarama-qarshi quyish mumkin emas. Har

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1262-1270

bir xalq - boshqa xalq bilan yakin ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarga kirishganda undan o'zida yo'q narsalarni oladi va o'zidan ham ularda bo'lmagan narsalarni beradi.

Lekin boshqa xalqlardan olingan bu harakter xislatlari, millat vakillari tomonidan o'zlashtirilganda, aynan, o'zgarishsiz ko'chirma olmay, o'ziga xos milliy ifodani oladi.

REFERENCES

1. Ananyev B.G. O psixologicheskix aspektax sosializasii. - Minsk: Izd-vo "Universitetskoye", 1998.-321 s.
2. Andreyeva G.M. Sosialnaya psixologiya.-M.: Aspekt Press, 1999.-373s.
3. Aronson E., Uilson T.,Eykert R.Sosialnaya psixologiya.(Psixologicheskiye zakonы povedeniya cheloveka v sosiume.-SPb.:Piter,2002.-464 s.
4. Karimova V.M.Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Universitetlar va pedagogika institutlari talabalari uchun o'quv qo'llanma.Toshkent "Universitet" 1999.-95 b.
5. Karimova V.M.Psixologiya.O'quv qo'llanma-T.A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. "O'AJBNT"markazi, 2002.-171 b.
6. Karimova V.M. O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya .-T.: 1994.-312 b.
7. Bekmatov, B. D., & Bekmatova, E. E. (2021). SITUATIONAL ANALYSIS METHOD. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 1035-1040.
8. Qodirova A.T. "O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi".,p.f.n olish uchun avtoreferat.Toshkent-2007.
9. Avloniy A.Guliston yoxud axloq.Islom odobidan mumtoz namunalar.T., 1993.-120 b.
10. Besova A.K. Duxovno-nravstvennoye vospitaniye lichnosti v prosesse literaturnogo obrazovaniya uchaщixsya: Dis. ...kand. psixol. nauk. - M., 2000. - 176 s. Str. 27
11. Bekmatov, B. D., & Bozorov, N. N. (2021). FORMATION OF SOCIAL COMPETENCE AT STUDENTS OF PROFESSIONAL COLLEGES. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 200-204.
12. Behbudiy. Tanlangan asarlar.,-T.: "Ma'naviyat",1999.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1262-1270

13. Begmatov A.S..- “Milliy g’oyada e’tiqodni shakllantirishning psixologik jihatlari”// ADU Ilmiy xabarnomasi., 2010.- 2 son.
14. Bratus B.S. Psixologiya. Nravstvennost. Kultura. - M.: Rospedagentstvo, 1994. - 346 s., str.17.
15. Buyeva L.P. Sosialnaya sreda i soznaniye lichnosti. – M.:Izd-vo “Institut prakticheskoy psixologii”; Voronej: Izd-vo NPo “MODEK”, 1998.- 267 s.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1271-1275

PEDAGOGLARGA DASTURLASH TILINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Nilufar Ilxomovna Kamalova
Buxoro viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularni malakasini osirish hududiy markazi

ANNOTATSIYA

Maqolada ta'limda interfaol metodlarni qo'llashning ahamiyati. Kattalar ta'limining asosiy metodlari va pedagoglarga python dasturlash tilini o'qitishda qo'llaniladigan "sinonim kodlar" metodi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Andragogika, intefaol metodlar, python, sinonim kodlar.

ABSTRACT

This article discusses the importance of using interactive teaching methods. It provides information on the basic adult learning and synonymous codes method used by educators to teach the Python programming language.

Keywords: andragogy, interactive methods, pyton, synonymous codes.

Agar biz bugun, xuddi kechangi singari ta'lim bersak,
kelajak avloddan ertani o'g'irlagan bo'lamiz.
Djon Dyui

KIRISH

Bugungi kunda pedagog kadrlarni o'z ustida islashlari va tajriba almashishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berilgan. Jumladan, prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'simcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida:-"Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish jarayonini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirishni nazarda tutuvchi tizimga aylantirish" aytib o'tildi[1].

Malaka oshirish jarayonida informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarining dasturlash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda andragogik yondashuv talab qilinadi. Darsda beriladigan ma'lumotni sifatli o'zlashtirilishini ta'limnlash maqsadida, kattalar ta'limiga mos keluvchi va shu

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1271-1275

bilan birga aynan dasturlash tilini o’rgatishga qaratilgan interfaol metodlarni ishlab chiqish va mavzuga mos qo’llash ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Pedagogikada interaktiv metodlar quyidagicha ta’riflanadi: Bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo’lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo’ladilar, ular biladigan va o’ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo’ladilar. Interfaol darslarda o’qituvchining o’rni qisman o’quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erisishiga yo’naltirishga olib keladi[2,11].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Pedagogikaning asosiy maqsadlaridan biri, ta'lim oluvchilarga ularni shaxs sifatida bilish va o'z-o'zini anglashda zarur yordam ko'rsatishdan iborat.[3,190]

Interfaol metodlar diqqatni jamlash, xotirani mustahkamlash, tarbiylash bilan birga ijodkorlik, kreativlik, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Dars jarayoni shunday tashkil qilinadiki, unda ta’lim oluvchilar o’zaro muloqot qilishni va birgalikda harakat qilishni o’rganishadi. Turli xil muammoli vaziyatni hamkorlikda hal qilish orqali tanqidiy fikrlash va jamoa bo’lib harakatlanishni, mavjud ma’lumotlarni birga tahlil qilishni o’rganishadi. Kattalar ta’limida qo’llaniladigan interfaol metodlar ularning yosh xususiyati va tajribasini hisobga olib tanlanishi kerak bo’ladi.

A.I.Kukuyevning fikriga ko'ra, tajriba tahlili - andragogik yondashuvning asosiy metodi bo'lib hisoblanadi[4].C:

- Ta'lim oluvchilarar bir-biridan - tajribaning mavjudligi va xarakteri, shuningdek o'quv faoliyatidagi tajribalarining borligi bilan farqlanadi.
- Tajriba katta yoshli ta'lim oluvchilarning o'qishni davom ettirishga bo'lgan ehtiyojining asosidir.
- Katta yoshdagi ta'lim oluvchilar o'z tajribasini tahlili orqali yangi bilimlarga ega bo'ladilar.
- Tajriba almashinuvi bu kattalar uchun muhim rag'batlantiruvchi omil va yangi tajribaga ega bo'lishning eng qisqa yo'lidir.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, tajriba almashinuvi imkonini beruvchi metodlardan foydalanish, dasurlash bo’yicha yangi bilimlarni o’zlashtirilishini ta’minlaydi.

Bunday metodlardan biri **Sinonim kodlar** metodi. Ushbu metodning asosiy maqsadi dastur lavlarini o’xsash lavalar bilan almashtirish orqali ta’lim oluvchilarda dasturni o’qib, tushunish, tahlil qilish va uni soddalashtirish ko’nikmalarini

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1271-1275

shakllantirish, bir qiymatli dastur lavhalarini aniqlab, ulardan optimalini tanlay olish. Ushbu metoddan refleksiyani amalga oshirishda ham foydalanish mumkin.

Metodda qo'llaniladigan vositalar: Har bir tinglovchi uchun 1 ta dastur yozilgan tarqatma material.

Metodning qo'llanilishi: Ma'ruza so'ngida, amaliy mashg'ulotlarda, yakka tartibda yoki guruhda qo'llash mumkin.

Metodning amalga oshirilish bosqichlari:

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tinglovchilarga tayyor dastur tarqatma varoqlarda beriladi. Tinglovchilar dastur lavhalarining ixtiyor qismiga shunday almashtirish kiritishlari kerakki, bu almashtirish dastur natijasiga ta'sir o'tkazmasin. Masalan, x*x=>x**2

Ya'ni, sinonimik o'zgartirish talab qilinadi. Tinglovchilar imkon qadar ko'proq alamshtirishni amalga oshirishlari kerak bo'ladi. Eng ko'p almashtirishni amalga oshirgan g'olib bo'ladi. Dastur hajmidan kelib chiqib vaqt bo'yicha cheklov qo'yilishi mumkin. Vaqt so'ngida eng ko'p almashtirishni bajargan tinglovchi o'zining javoblarini izohlab, taqdimot o'tkazadi. Shundan so'ng, qolgan tinglovchilar qo'simcha javob variantlarini taqdim qilishadi.

Ko'proq almashtirish imkoni bo'lishi uchun dasturda quyidagilardan foydalanish mumkin:

- Qisqartirish amalga oshirilmagan formulalarni. 3*x+7*y-5*x => 7*y-2*x
- Takrorlanishda ortiqcha qadamlar. Masalan 10 gacha sonlar yig'indisini hisoblashda:

s=0 **for i in range(10):** **s=s+i** **print(s)**	=>	**s=0** **for i in range(1,10):** **s=s+i** **print(s)**

- Math modulining funksiyalaridan. Masalan pow(5,6) =>5**6
- Har doim bajariluvchi yoki hechqachon bajarilmaydigan dastur lavhalari. Masalan:

if True: **print("salom")**	=>	**print("salom")**
n=int(input("n=")) **if n>3 and 5>8:** **print("salom")**	=>	Shart operatorini yozmaslik mumkin.Chunki shart n ning harqanday qiymatida yolg'on natija qaytaradi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1271-1275

- Parametrli takrorlanishlarni qadamlar orqali boshqarish

for i in range(1,100): **if i % 2==0:** **print(i, end=" ")**	=>	**for i in range(2,100,2):** **print(i, end=" ")**

Metodni qo'llanilishiga misol:

Quyidagi dastur tinglovchilarga tarqatiladi. Ular harbir alamash tirishni kod ustiga yozib borishadi. Belgilangan vaqt tugaganida almashtirislar soni so'raladi.

```
print("n gacha bo'lgan natural sonlar orasida k raqami necha marta uchrashini aniqlovchi dastur ")
print("n=", end="")
n=int(input())
print("k=", end="")
k=input()
s="
p=0
for i in range(1,n+1):
   s=s+str(i)
for i in range(0,len(s)):
   if s[i]==k:
      p+=1
print(p,"marta uchraydi")
```

Tinglovchilar quyidagicha o'zgartirishlarni kiritishlari mumkin:

print("n=", end="") **n=int(input())**	=>	**n=int(input("n="))**
print("k=", end="") **k=input()**	=>	k=input("k=")
for i in range(0,len(s)):	=>	for i in range(len(s)):
p+=1	=>	p=p+1

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1271-1275

XULOSA

Ushbu metod tinglovchilardan ijodkorlikni talab qilib, xotirani rivojlantiradi. Egallagan bilimlarini mustaqil baholash va o'tilgan mavzuga oid tushuncalarni amalda qo'llashga imkon yaratadi. Turli operatorlarning qo'llanilishi bo'yicha g'oyalarni ifodalash va ular orasidagi bog'liqlikni topish malakasini shakllantiradi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'simcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori.
2. R. Ismuammedov, M. yuldashev Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogic texnologiyalar. Ta'lim tizimi xodimlari, metodistlar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma.
3. Мандель Б. Р. Андрагогика: история и современность, теория и практика. Учебное пособие для обучающихся в магистратуре. Москва Берлин 2017.
4. Александр Иванович Кукуев. Андрагогический подход в педагогике. ПИ ЮФУ, 2009

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1276-1279

ORGANIZATION OF DISTANCE LEARNING USING MOBILE DEVICES IN THE LEARNING PROCESS

Eshmurad Mustafayevich Murtazayev
Associate Professor of General Technical Sciences of Karshi Engineering and Economics Institute
E-mail: murtazaev_70@mail.ru

Tuychi Gulboyevich Abdiyev
Karshi Institute of Irrigation and Agrotechnology under the National Research University, Department of Irrigation and Land Reclamation
abdiyevtoychi46@gmail.com

ABSTRACT

This article focuses on the development of pedagogical theory and practice, the purpose, content, methods of distance learning, distance and interactive communication of listeners and teachers using teaching aids and Internet technologies, some elements of the educational process are electronic, conducted in an educational environment.

Keywords: distance learning, methods of organizing distance learning, distance-learning system, a distance-learning system in an educational institution (DE). Distance learning models, LMS, MOODLE, OOOK.

INTRODUCTION

The current rapid development of information and communication technologies has made it possible for learners (pupils, students, adults, etc.) to learn from leading experts in the most developed countries.

In today's information age, it is important to form a system of distance education in higher education institutions. Many countries use modern ICT-based distance learning (DE) to train quality staff in the education system. The experience of the education system shows that the opportunities to radically improve the quality of staff through the use of the Internet and ICT in the learning process as a means of acquiring, storing, transmitting new knowledge, and practical decision-making are expanding.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1276-1279

LITERATURE REVIEW

The purpose of teaching the subject of resistance of materials is to teach students how to determine the internal forces generated by external forces on the elements of structures and machine structures during operation, as well as to develop skills in performing basic engineering calculations.

RESEARCH METHODOLOGY

Mobile devices: Smartphones, iPhones, and tablets. Nowadays, such types of mobile phones and other mobile devices are produced that are not inferior to personal computers in terms of their functions. Using such mobile devices, you can work with documents, listen to music, watch video clips, play games, and even enjoy radio and television. Smartphone (*smartphone*) means "smartphone" in English. A mobile phone that is functionally close to a pocket PC. It combines all the functions of a pocket computer. The iPhone is a line of four-band multimedia smartphones. In addition to the main functions of the phone, the iPhone also includes the main functions of the communicator and Internet tablets.

Internet tablets are a special mobile device, a classic example of a personal computer. Tablets (such as the iPad) are completely different from computers in appearance. Tablets consist only of a screen, while other peripherals (mouse, keyboard) are arranged in a virtual view. The tablets specialize in accessing Internet services and working with documents through a fully mobile environment.

When MathCAD started, a window will appear on the computer screen as shown in Figure 1.



Figure 1. View of the main menu of MathCAD.

This form of education is called distance learning.

The technical characteristics of modern mobile devices, that is, with the help of special applications and websites created for the devices, allow students to receive distance learning.

Distance education has the following opportunities:

- secondary higher or additional education;
- education of people of volunteer age;
- education, regardless of physical and family status;

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1276-1279

- in-service training;
- Abundance of opportunities for independent study;
- education regardless of geographical location;
- speed capabilities, etc.

Distance education is education based on information and telecommunication technologies, which includes the best traditional and innovative methods, teaching tools, and forms.

It is a system that requires the learner to practice more independently, providing the learner with learning conditions and communication with the teacher based on certain standards and educational rules.

Analysis and results in Information exchange using mobile devices: Bluetooth, SMS, and MMS. Transmission of information using mobile devices is carried out using Bluetooth, SMS, and MMS technologies.

Bluetooth is a wireless technology with a small coverage area. Facilitates communication between network devices and their Internet connection. It also facilitates data exchange between different electronic devices and computers. Bluetooth is designed to transmit small data streams, so it cannot replace local and global network technologies.

E-learning has the following features:

- Independent work with electronic materials using personal computers, tablets, smartphones, MP4-players, DVD players, televisions;
- Opportunity for remote cooperation, consultation, advice, evaluation from a remote expert (teacher);
-the creation of a community of users (social networks) whose opinions coincide;
- Timely delivery of standards and applications of distance learning tools, e-learning materials, and technologies;
- Improving the information culture of managers and employees of the organization, mastering modern information technologies;
- mastering and popularization of innovative pedagogical technologies;
-Opportunity to develop educational web resources;
- to receive modern knowledge at any time and from any place in the world;
- e-learning includes e-books, educational technologies and services. In fact , it began with the use of computers in e-learning.

The formation of e-learning can be divided into three stages:

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1276-1279

- Courses on CD-ROM disks;
- Distance learning of specialist teachers;

E-learning using special interactive programs, e-books.

CONCLUSIONS AND RECOMMENDATIONS

The use of new digital technologies in education requires the improvement of its regulatory framework, which, in turn, leads to the unification of legislation in the field of innovative distance education and its direct implementation in practice. It serves to increase the efficiency of application.

REFERENCES

1. Baydenko V.I. Competence in professional education Vissheye obrazovaniye in Russia. Moscow. - 2004. -№ 11
2. Urozboyev M.T. Basic rate of material resistance. A textbook for universities. -T .: Teacher, 1973. -512 p.
3. Nabiyev A.N. Material resistance. A textbook for undergraduate programs in higher education. –T .: Yangi asr avlodi, 2008. -499 p.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1280-1285

AROMATIK BIRIKMALAR VA ULARNING HOSILALARINI DORI-DARMON SIFATIDA ISHLATILISHI

Habiba Toshboboyevna To'rayeva
Toshkent davlat agrar unversiteti assistenti

Dilorom Abduraximovna Nigmatova
Kasb-hunar maktabi o'qituvchsi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'simliklarning tarkibida uchraydigan aromatic birimalar hosilalarini dori-darmon sifatida ishlatilishini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Anilin, Streptosid, Salisilat yoki o-oksibenzoy kislota, Asetilsalisilat kislota yoki aspirin, Fenilsalisilat yoki salol-salisilat, n-aminosalisilat kislota

KIRISH

Anilin $C_6H_5NH_2$, aromatik aminlar ichida eng muhimi hisoblanadi. Chunki u anilin-bo'yoq sanoatining eng asosiy xom ashyosi bo'lishi bilan birga, bir qancha muhim dorivor moddalar, portlovchi birikmalar ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Anilin har yili bir necha o'ng ming tonnalab ishlab chiqariladi. Anilin formulasini Yu.F.Frisshe aniqlab berdi. 1842 yilda N.N.Zinin butun anilin-bo'yoq sanoatining asosi bo'lgan aromatik aminlarni nitrobirikmalardan olish usulini ochdi. Bu usulni yuqorida ko'rib chiqqan edik. Anilin havoda oksidlanishi sababli tez sarg'ayadigan va qo'ng'ir tusga kiradigan rangsiz suyuqlik. U suvda yomon eriydigan, spirt, efir va benzol bilan har qanday nisbatda aralashadi. Anilin juda zaharli moddadir. Anilin sifatini aniqlashda odatda quyidagi ancha sezgir reaksiyalardan foydalaniladi: belil ohagi bilan bo'ladigan reaksiya (binafsha rang hosil bo'ladi). Lignin bilan bo'ladigan reaksiya anilin va xlorid kislota ishtirokida lignin sap-sariq rangga bo'yaladi. Oq streptosid. Hozirgi zamon medisinasida sul'fanilamid yoki sul'fonamid deb ataluvchi preparatlar muhim rol o'ynadi. Bu preparatlarning ehg oddiy namoyandasi oq streptosiddir. Barcha sul'fanilamid preparatlar oq streptosiddir. Barcha sul'fanilamid preparatlar oq streptosed hosilasi b'lib, yiringli kasaliklar, o'pka yalig'lanishi va boshqa shunga o'xshash kasaliklarni davolashda keng qo'llaniladi. Oq streptosidning

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1280-1285

o’zi sulfanil kislotaning amididir. Sulfanil kislota esa o’z navbatida anilinni sulfolash yo’li bilan olinadi.



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Oq streptosidning ta’sir etish mexanizmi quyidagicha tushuntiriladi: u mikroblarning hayot-faoliyati uchun zarur bo’lgan, molekulasiga p-aminobenzoy kislota kiradigan moddalarni (foli kislota kabi) sintez qilish xususiyatini buzadi. Bu ta’sir, aminobenzoy kislota va streptosid shakllari hamda o’lchamlarining juda o’xshashligiga asoslangan.

Streptosid tipik “antimetabolit” moddalar kabi ta’sir ko’rsatadi. Bu moddalar bioximik prosesslarning ayrim bosqichlarida metabolit (moddalar almashinuvining normal oraliq mahsuloti) singari modda almashinuviga kirib, metabolitni siqib chiqaradi, natijada bu prosess buziladi. Antimetabolitlarni izlash hozirgi zamon farmakologiyasining muhim yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Oq streptosed-oq kristall modda bo’lib, suvda yomon eriydi. U kokk (yumaloq shakldagi mikroorganizmlar), jumladan strepkokk (streptosid nomi ham shundan kelib chiqqan) mikroblarni yo’qotishda yaxshi natijalar beradi. Oq streptosidning qo’shma zararli ta’sir qilish xususiyati mavjudligi sababli keying yillarda oq streptosid o’rnida uning hosilalari bo’lmish boshqa sul’fanilamid preparatlaridan foydalanila boshlandi. Aromatik kisloalar singari fenolokislotalar ham o’zining karboksili hisobiga spirtlar ta’sirida murakkab efirlar, galogenangidridlar va amining almashinishi hisobiga nitrolanish, sul’folanish va galogenlanish xossasiga ega.

Fenolokislotalar fenol gidroksili hisobiga spirtlar bilan oddiy efirlar, kislotalar bilan esa murakkab efirlar bera oladi; fenolar singari fenolkislotalar ham temir(III)-xlorid bilan bo’yalish reaksiyasini beradi.

Salisilat yoki o-oksibenzoy kislota (acidum salicylicum) “salisilat kislota” degan nom lotincha Salix-tol degan so’zdan kelib ciqqan. Tol po’stlog’ining tarkibida alisin glyukozidi mavjud bo’lib, u gidrolizlanganda, fenol spirit saligenin $C_6H_4(OH)CH_2OH$ vujudga keladi. Saligeninni oksidlab salisilat kislota olinadi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1280-1285

$C_6H_4(OH)CH_2OH \rightarrow C_6H_4(OH)COH \rightarrow C_6H_4(OH)COOH$

Saligenin salisil al'degid salisilat kislota

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hozirgi vaqtda salisilat kislota juda ko'p miqdorda olinadi. Buning uchun natriy fenoliyatga bosim ostida qizdirib CO_2 ta'sir ettiriladi, so'ngra hosil bo'lgan salisilat kislotaning natriyli tuziga sulfat kislota ta'sir ettirib,salisilat kislota olinadi.Salisilat kislota sovuq suvda yomon eriydigan kistall modda. U 159^0C da suyulanadi,so'ngra uchadi. Yanada ko'proq qizdirilsa, salisilat kislota fenol va CO_2 ga parchalanadi:

$$C_6H_4(OH)COOH \rightarrow C_6H_5OH + CO_2$$

Bu reaksiya ma'lum darajada fenol va CO_2 dan salisilat kislota olish reaksiyasining aksidir. Salisilat kislota $FeCl_3$ bilan binafsha rang hosil qiladi.Salisilat kislota fenoldan farqli ravishda bu rangni faqat suvli eritmada emas, balki spirtli eritmada ham hosil qiladi. Salisilat kislota antiseptic (konservalovchi) xossaga ega bo'lib, undan asosan revmatizmga qarshi va issiqni tushiradigan dori sifatida foydalaniladi. Salisilat kislota ovqat hazm qilish kanali shilliq pardasiga ta'sir etadi, shuning uchun medisinada uning tuzlari va efirlari ishlatiladi. Natriy salisilat natrium salicylicum $C_6H_4(OH)$ COONa ko'pincha revmatizmga qarshi va istmani tushiradigan vosita ifatida qo'llaniladi.

U suvda yaxshi eriydi va ichakni ta'sirlantirish xossasiga ega emas. Bu tuz shuningdek ayrim qo'shaloq tuzlarni masalan kofein bilan coffeinum natriosalicylicum olishda ham ishlatiladi. Metilsalisilat gaultheria o'simligining efir moyi tarkibiga kiradi. Metilsalisilat kuchli o'ziga xos hidga ega moysimon suyuqlikdir. Bu mdda hozirgi vaqtda aksariyat sintetik usul yordamida olnmoqda.

Asetilsalisilat kislota yoki aspirin



Sirka va salisilat kislotatadan hosil bo'lgan murakkab efirdir. Bu efirning hosil bo'lish jarayonida salisilat kislota fenol sifatida ishtirok eadi.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1280-1285

Asetilsalisilat kislotani salisilat kislotaga konsentrlangan sirka kislota yoki sirka angidrid ta'sir ettirib olish mumkin. Asetilsalisilat kislota nordonroq ta'mga ega bo'lgan kristall modadir. U suvda yomon eriydi. Bu kislota salisilat kislotadan farqli ravishda $FeCl_3$ bilan reaksiya bermaydi, chunki erkin holdagi fenol gidroksilga ega emas. Asetilsalisilat kislota sirka va fenol kislotadan (spirt o'rnida) hosil bo'lgan murakkab efir bo'lgani uchun katalizatorlar-mineral kislota yoki ishqorlar ishtiroksiz qaynatilgan suv bilan juda oson gidrolizlanadi. Asetilsalisilat kislota ham havoda turib qolsa, sirka va salisilat kislotalarga gidrolizlanadi.

Preparatning gidrolizlanganligini tekshirish uchun $FeCl_3$ bilan bo'ladigan reaksiyadan foydalanish qulay: asetilsalisilat kislota $FeCl_3$ bilan bo'yalmagan holda, gidroliz mahsuloti-salisilat kislota binafsha rang hosil qiladi. Asetilsalisilat kislota medisinada ko'pincha revmatizmga qarshi, isitmani tushiradigan va og'riqni qoldiradigan dori sifatida ishlatiladi. Fenilsalisilat yoki salol-salisilat kislotaning fenil efiri. Birinchi marta M.V. Nenskiy tomonidan olingan.



Salol-suvda juda yomon eriydigan kristall poroshok bo'lib, 42^0C da suyuqlanadi. Salol erkin holdagi fenol gidroksiliga ega. Salol suvda yomon erigani sababli eritmalarda $FeCl_3$ bilan bo'yalish reaksiyasini bermaydi, biroq uning eritmalari $FeCl_3$ bilan binafsha rangga bo'yaladi. Salol sekin-asta gidrolizlanadi. Salol medisinada ayrim ichki kasaliklarini davolashda dezinfeksiyalovchi vosita sifatida ishlatiladi. Uning dezinfeksiyalovchi ta'siri gidrolizlanishi va bunda salisil kislota hamda fenol ajralib chiqishi bilan bog'liq.

n-aminosalisilat kislota (qisqacha PASK) –sal kasalligiga qarshi qo'llaniladigan muhim preparatdir. U m-aminofenolga karbonat angidrid ta'sir ettirib olinadi.



ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1280-1285

Shunisi qiziqki, PASK izomerlari silga qarshi ta’sirga ega emas.

Gall yoki 3,4,5-trioksibenzoy kislota



Bu kislota birinchi marta fransuz vinosidan ajratib olingan. Fransiyaning ilgarigi nomi Galliya bo’lganligi sababli, “gall kislota” deb atash shundan kelib chiqqan. Gall kislota choy va oshlovchi ekstraktlar tarkibida anchagina miqdorda uchraydi. U, shuningdek, murakkab modda-taninning tuzilishida ishtirok etadi. Gall kislota odatda taninni suyultirilgan kislotalar bilan gidrolizlash orqali olinadi.

Gall kislota kristall moddadir. U 210^0 daqizdirilgandayoq CO_2 va pirogallolga parchalanadi.



XULOSA

Gall kislota faqat kislotagina emas, balki ko’p atomli fenol hamdir. Shuning uchun u oson oksidlanadi. Masalan, uning ishqorli eritmalari havoda qo’ng’ir tusga kiradi. Gall kislota $AgNO_3$ eritmasidan kumushni qaytara oladi, shuning uchun undan fotografiyada ochiltirgich sifatida foydalaniladi. Gall kislota $FeCl_3$ bilan esa ko’kimtir-qora cho’kma hosil qiladi. Gall kislota boshqa ayrim fenolkislotalar bilan birga terilarni oshlashda ishlatiladigan oshlovchi moddalar tarkibiga kiradi. Oshlovchi moddalar ta’mi taxir bo’lib, suvda yaxshi eriydi. Ular kam konsentrasiyada burishtiruvchi ta’sirga ega bo’lgani uchun ham medisinada qo’llaniladi. Hulosa o’rinda shuni aytish kerakki, hayot-turmush tarzida ishlatiladigan oq streptosid, aspirin, salol, n-aminosalisilat kislota, gall kislota o’simliklarning

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1280-1285

tarkibida ham uchraydi va hayot –turmush tarzida dori-darmon sifatida keng qullaniladi.

REFERENCES

1.Юсупов Д., Туробжонов С.М., Кодиров Х.Э., Икромов А., Каримов А.У. Органик кимёнинг бошлангич асослари. Тошкент, 2006. -290 б.
2. Sobirov Z. Organik kimyo. Toshkent, 2005. - 403 б.
3. Alovitdinov A.B., Ismatullaeva M.G., Xolmuradov N.A. Organik kimyo, T.; O'qituvchi, NMIU, 2005.-416 б.
4. Юнусов Р.Ю.Органик кимё. Т.: Ўзбекистон, 1995. -328 б.
5. Гитис С.С. Органической химии. М.: Высшая школа, 1991.
6. Степаненко Б. Н. Органик химия Т.Ўқитувчи, 1995.-370 б.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1286-1294

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФОНД БИРЖАСИ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БОЗОРИДА БАНКЛАРНИНГ ЎРНИ

Гулбаҳор Матёқубовна Бақоева
PhD, Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети “Халқаро молия ва инвестициялар” кафедраси доценти
gulibakoeva@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Мақола Ўзбекистон қимматли қоғозлар бозорининг ривожланишида банкларнинг тутган ўрни, ундаги мавжуд муаммолар ва ечимларга қаратилган. Ўзбекистон банк тизимида давлат бошқарувини қисқартириш ва банклардаги давлат улушининг акциядорларнинг олиши мумкин бўлган дивидендига таъсири ўрганиб чиқилган.

Калит сўзлар: фонд бозори, банк капиталлашуви, деривативлар, эмиссия, тренд модели, биржа келишувлари.

ROLE OF BANKS IN THE DEVELOPMENT OF THE STOCK EXCHANGE ACTIVITIES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ABSTRACT

The article is devoted to the role of banks in the development of the securities market in Uzbekistan, existing problems and ways to solve them. The influence of the reduction of public administration in the banking system of Uzbekistan and the state share in banks on the possible dividends received by shareholders has been studied.

Keywords: stock market, bank capitalization, derivatives, issue, trend model, exchange transactions.

КИРИШ

Мустақиллик йилларида кўп тармоқли иқтисодиётни шакллантиришга қаратилган ислоҳотлар сабабли милллий фонд бозорини яратиш борасида жиддий қадамлар ташланди. Айни пайтда республикада фонд биржасининг назорат органлари томонидан берилган махсус лицензиясига эга 300 дан ортиқ профессионал бозор иштирокчилари фаолият юритишмоқда. Мавжуд соҳада 160 дан ортиқ норматив актлар ишлаб турибди.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1286-1294

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Акцияларнинг ялпи эмиссия даражаси ҳар йил ўсиб бормоқда. Хусусан, 01.01.2017 муддатигача чиқарилган акциялар қиймати 17,9 трлн. сўмни ташкил этган. Ваҳоланки, 01.01.16 санаси бўйича 12,3 трлн. сўм ҳажмида бўлган эди ва бу 2015 йилдаги кўрсаткичлардан 3,8 трлн сўмга кўпроқ. Акциялар савдоси биржада ва биржадан ташқарида ҳам ўтказилиши мумкин. 01.03.2020 йил санаси ҳолатига кўра, биржа ва биржадан ташқари амалиётлар 8,90 млрд. сўмни (4031 та шартнома) ташкил этиб, шулардан 8,59 млрд.сўмлик (3920 та шартнома) савдо амалиётлари биржада ва 314,23 млн. сўмлик (111 та шартнома) савдо биржадан ташқарида олиб борилган. Ушбу муддатда облигациялар билан бирорта ҳам амалиёт ўтказилмаган. Февраль ойида биржада 3920 та листингда турувчи 55 та акциядорлик жамиятларининг акциялари билан келишувлар ўтказилди.

Жадвал 1

2020 йил февраль ойида биржа келишувлари ҳажми ва миқдори

Сектор	Келишувлар сони	Улуши(%)	Савдо ҳажми (млн. сўм)	Улуши(%)
Банк	970	24,74	5 591,29	65,10
Қурилиш	1171	29,87	1 654,31	19,26
Нефть ва газ	849	21,66	421,99	4,91
Тоғ-металлургия	328	8,37	286,38	3,33
Шиша ишлаб чиқариш	320	8,16	223,35	2,60
Кимё саноати	36	0,92	142,18	1,66
Молиявий	34	0,87	124,90	1,45
Савдо-кўргазма	134	3,42	63,29	0,74
Вино саноати	5	0,13	44,58	0,52
Кабель маҳсулотлари ишлаб чиқариш	8	0,20	21,40	0,25
Бошқалар	65	1,66	15,40	0,18
Жами	**3 920**	**100,00**	**8 589,06**	**100,00**

Ушбу жадвалдан кўриниб турибдики, февраль ойида энг юқори савдо ҳажми банк секторига тегишли бўлиб, 5,59 млрд. сўмни ташкил қилди ва жами биржа савдосининг 65,1 фоизини эгаллади. Кейинги ўринда қурилиш сектори туради. Бунга асосий сабаб «Qizilqumsement» АЖ нинг 2017 йилда 49,79 млрд. сўм ва 2018 йилда 338,77 млрд. сўм соф фойда билан чиққани бўлди.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1286-1294

Жадвал 2

2020 йил февраль ойида биржанинг савдо ҳажмига кўра энг йирик эмитентлари рўйхати

Эмитент номи	Сектор	Савдо ҳажми (млн. сўм)	Кели-шув лар сони	Ҳажмда улуши (%)	Устав капитали бўйича улуши (%)
АТБ “Агробанк”	Банк	3512,36	23	40,89	0,18
ХАТБ “Равнақ банк”	Банк	1900,00	2	22,12	1,90
АЖ “Қизилқумцемент”	Қурилиш	1534,20	1155	17,86	0,18
АЖ “Қўқон механика заводи”	Нефть ва газ	294,49	700	3,43	0,88
АЖ “Кварц”	Шиша саноати	223,35	320	2,60	0,07
АЖ “Олмалиқ кон-металлургия комбинати”	Тоғ-металлургия	152,28	151	1,77	0,02
АЖ “Биокимё”	Кимё	140,29	33	1,63	0,34
АЖ “Ўзбеккўмир”	Тоғ-металлургия	134,11	177	1,56	0,11
АЖ “Қувасойцемент”	Қурилиш	113,87	11	1,33	0,08
АТБ “Ўзсаноатқурилиш банк”	Банк	95,25	332	1,11	0,00
Бошқа АЖлар		488,87	1016	5,70	
Жами		**8589,07**	**3920**	**100,00**	

Эмитентлар ичида етакчилик қуйидаги иштирокчиларга тегишли бўлиб, АТБ «Агробанк» 3,51 млрд. сўм, ХАТБ “Равнақ банк” - 1,90 млрд. сўм ва АЖ “Қизилқумцемент” - 1,53 млрд. сўмни ташкил этди ва умумий биржа айланмасининг 40,89%, 22,12% ва 17,76% га тенг бўлди. Ушбу иштирокчиларнинг устав капиталининг биржада қатнашиш даражаси 0,18%, 1,90% ва 0,18% ни ташкил этди.

АТБ «Агробанк» эса икки йирик келишуви ҳисобига етакчиликка эришди. Акцияларнинг умумий ҳажми 2 377 998 ва 844 281 дона бўлиб, 2,49 млрд. сўм ва 986,11 млн. сўмга тенг бўлди.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1286-1294

Кўрилган муддат давомида АЖ «Ўзнефтмаҳсулот» ва АЖ «Ўзбеккўмир» нинг имтиёзли акциялари, АЖ «Alliance-Leasing» нинг оддий акциялари юқори ўзгарувчанликка эга.

Таҳлилда келтирилган фонд бозори иштирокчиларининг қарорлари, акция нархларининг ўзгариши ва турли ташкилотларнинг бирлашиши маълум бир сабабларга кўра амалга ошганини аниқлаш қийин.

Шу боис, бугунги кунда фонд биржасига тегишли бўлган маълумот ва кўрсаткичларни қўллаган ҳолда эконометрик модель ишлаб чиқиш ва айнан қайси деривативни фонд бозорида қўллаш мумкинлигини модель орқали ифодалаш имконсиз.

Лекин акцияларнинг ўзгарувчанлик даражаси юқорилиги ва янги қабул қилинган қонундаги ўзгартиришларга асосланган ҳолда шуни маълум қилиш мумкинки, инвестор учун энг қулай инструмент опцион ҳисобланади. Бозор нархига қараб олиш ёки олмаслик, сотиш ёки сотмаслик қарори ва ҳуқуқи ўз қўлида бўлади.

Бугунги кунда фонд бозори фаолияти билан боғлиқ бир қатор муаммо ва қийинчиликлар мавжуд:

- Қимматли қоғозлар бозорида амалиётлар ҳажмининг кичиклиги;
- Қимматли қоғозлар бозоридаги молиявий инструментларнинг турлари камлиги;
- Сармоядор учун фонд бозори жозибадорлигининг пастлиги;
- Қимматли қоғозлар бозоридаги иштирокчи корхоналар капиталида давлат улушининг юқорилиги;
- Фонд биржаси амалиётларида деривативларнинг умуман қўлланилмаслиги;
- Риск бошқаруви билан боғлиқ бўлган механизмнинг мавжуд эмаслиги;
- Фонд бозорида юқори малакали мутахассисларнинг етишмаслиги;
- «Тошкент» РФБ фаолиятида интеграллашув даражасининг пастлиги.

Юқорида келтирилган муаммолар қимматли қоғозлар бозорининг самарадорлигига ва инвесторларнинг ушбу бозорга бўлган қизиқишини камайтиради. Фонд бозоридаги асосий иштирокчилар тижорат банклари бўлганлиги сабабли уларнинг қимматли қоғозлар бозоридаги савдо амалиётларини амалга оширишлари биржа айланмасини юқори бўлишини таъминлайди.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1286-1294

«Тошкент» Республика фонд биржасининг 29.08.2016 йилдан 29.09.2019 йилгача бўлган 754та лаг (давр) учун Фонд биржаси индекси, савдо шартномалари сони ва умумий савдо айланмаси кўрсаткичларидан ташкил топган статистик маълумотлари асосида эконометрик таҳлил ўтказилди ва модель тузилди. Асосий кўрсаткичлар жадвали ва регрессия таҳлили натижалари иловада берилган.

Вақт қатори мезонларига асосан қилинган таҳлил қуйидаги кўринишга эга бўлди.



Расм 1. Моделнинг вақт қатори (Time series) бўйича асосий кўрсаткичлари графиги

Юқорида келтирилган расмдан кўриниб турибдики, вақт оралиғида тебранишлар жуда юқори, маълум бир қонуният ва суръатлар кузатилмайди. Ушбу кўрсаткичлар асосида тренд чиқариш имконсиз.

Минитаб дастурида ўтказилган тест натижасида тенг тақсимланганлик мавжуд эмаслиги аниқланди. Бу ҳолат ўртача қиймат билан максимум ва минимум қийматлар ўртасидаги фарқ жуда юқорилигидан дарак беради. Трендни аниқлаб башорат қилинганда хатолик даражаси юқори чиқади.

Амалиётда қўллаш таклиф этилаётган фьючерс ва Америка опциони шартномалари акция ва облигацияларнинг нархларини башорат қилиш билан боғлиқ рискни камайтиришга ва сармоядорнинг фойдасини репатриация қилишига ёрдам беради. Имитация моделида акция ва облигация нархлари

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1286-1294

ўзгариши суръатлари фьчерс нархларини белгилаш орқали ТРЕНД аниқлаш имкони яратилади. Минитаб дастурида ўтказилган тест натижасида тенг тақсимланганлик мавжуд эмаслиги аниқланди. Бу ҳолат ўртача қиймат билан максимум ва минимум қийматлар ўртасидаги фарқ жуда юқорилигидан дарак беради. Трендни аниқлаб башорат қилинганда хатолик даражаси юқори чиқади.

Амалиётда қўллаш таклиф этилаётган фьючерс ва Америка опциони шартномалари акция ва облигацияларнинг нархларини башорат қилиш билан боғлиқ рискни камайтиришга ва сармоядорнинг фойдасини репатриация қилишига ёрдам беради. Имитация моделида акция ва облигация нархлари ўзгариши суръатлари фьчерс нархларини белгилаш орқали ТРЕНД аниқлаш имкони яратилади.



Расм 2. Тренд моделнинг асосий кўрсаткичлари (имитацион модель).



Расм 3. «Тошкент» РФБ да савдо амалиётлари ҳажми ва сонини башорат қилиш тренд модели (имитацион модель).

Республикамизда қимматли қоғозлар бозори тизимининг шаклланиши ва фаолиятида асосий ўринни банклар эгаллаб, соҳада муваффақиятли ҳаракатланиш учун бошқа хўжалик субъектларига кўра кўпроқ имкониятларга эга.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1286-1294

Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги қимматли қоғозлар бозорида банклар фаолиятини ҳар томонлама либераллаштиришга йўналтирилган. Шу ўринда, банклар ўз мижозларининг хўжалик-молиявий фаолияти тўғрисидаги кенг маълумотга доимий равишда эга эканлиги сабабли бундай маълумот каналидан фойдаланишга рухсат этилмаган оддий сармоядорлардан кўра кўпроқ устунликларга эга. Шу билан бирга тижорат банклари умумий фонд бозори инфратузилмасининг бир элементи ҳисобланади, шунингдек, уларнинг ўрни ғоят катта, амалда қимматли қоғозлар бозорида фаолият юритадиган иштирокчи банк хизматидан четлана олмайди, баъзилар унда ҳисоб-китоб ёки бошқа ҳисоб рақамларини очишади, ўз пул воситаларини унда сақлайдилар, шунингдек, банкдан қимматли қоғозлар билан боғлиқ операцияларни амалга оширишда банк хизматидан фойдаландилар.

2017 йилдан тижорат банклари учун қайтадан муомалага чиқарилган акциялар ҳажмининг 25% идан кам бўлмаган миқдордаги ҳажмини ошкора тарзда фонд биржасига чиқарилиши кўзда тутилган эди. Бу чора-тадбир натижасида банкларнинг акциялар савдоси сезиларли тарзда жонланди. Ҳозирга кунга келиб “Тошкент” Республика Фонд Биржасининг рўйхатидаги 28 нафар эмитентдан 22 таси банклар ҳисобланади.

Тижорат банкларининг ўз акцияларини чиқаришлари асосида бир қатор мажбуриятлар ётади, жумладан, энг асосийси банк пассивини шакллантириш зарурияти. Инфляция, хусусий капиталнинг доимий тарзда қадрсизланиши банкларни узоқ муддатли депозитларни жалб этиш имкониятидан маҳрум этади, натижада узоқ муддатли қўйилмаларни амалга оширишда хусусий капиталдан фойдаланиш зарурати вужудга келади. Шуни таъкидлаш жоизки, банклар устав капитални ошириш ҳамда қўшимча акцияларни чиқаришдан акциядорлар улушини қайта тизимлашда ҳам фойдаланишмоқда. Ва ниҳоят, амалга оширилиши зарур бўлган назорат қилувчи органлар томонидан чиқарилган банклар учун қарорлар, иқтисодий нормалар ҳамда тижорат банкларининг устав капиталининг энг кам миқдоридаги талаблар мавжуд. Қайта тузилаётган банклар учун устав капиталининг энг кам миқдори нормаси қуйидагича: тижорат банклари учун 5 млн. евро, хусусий банклар учун эса 2,5 млн. евро миқдорида ташкил этади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1286-1294

ХУЛОСА

Келгусида банкларнинг қимматли қоғозлар бозорида фаолият олиб бориши учун зарур бўлган энг муҳим шарт-шароитлар қаторига қуйидагиларни киритиш мумкин:

- кўп қимматли қоғозлар амалиётларига хос бўлган банкларга янги хизмат турларини жорий қилиш учун етарлича молиявий ресурсларни жамлаш;
- банкларнинг барқарор молиявий ҳолати ва банк амалиётларининг юқори даромадлилиги таъминлаш;
- банклар фаолиятини қимматли қоғозлар бозорига йўналтириш ва кўпгина анъанавий банк хизматларининг фойдалилик даражасини ошириш;
- банкларни қимматли қоғозлар бозоридаги иштирокини электрон тарзда олиб боришни таъминлаш;
- банклар учун яратилган мобил иловаларга қимматли қоғозлар савдосига тегишли иловаларни ҳам қўшиш.

Банкларнинг қимматли қоғозлар бозоридаги фаолияти молиявий нуқтаи назардан таъминот учун хизмат қилади. Банклар томонидан кўрсатиладиган ҳамкорлик фонд бозорида молиявий инструментлардан фойдаланиш даражасини оширади. Банк капиталлашуви даражаси нафақат фонд бозори, балки молиявий соҳанинг ҳам барқарор фаолият юритиш кўрсаткичига айланмоқда. Банк таъминоти, шунингдек, ҳисоб-клиринг палатаси фаолияти билан ҳам амалга оширилади.

REFERENCES

1. “Тошкент” РФБ Ахборот бюллетени, 2006- 2020 йй.
2. Алексеев М.Ю. Рынок ценных бумаг. – Москва: Финансы и статистика, 2014. – 352 б.
3. Анкудинов Д. Интерес инвесторов будет расти // Экономическое обозрение. 2008, №9. – 23 б.
4. Бекмурадов А.Ш., Мирзаев Ф.И., Бердияров Б.Т., Нафасов Д., Содиқов Ш. Тижорат банкларида рискларни баҳолаш ва бошқаришда қўлланиладиган халқаро мезонлар ва стандартлар. Ўқув қўлланма. Тошкент, Ўзбекистон. 2013. - 64 б.
5. Халл Джон К. Опционы, фьючерсы и другие производные финансовые деривативы. – Москва, Санкт-Петербург. Вильямс, 2008. – 1044 б.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1286-1294

6. Шохаъзамий Ш.Ш. Финансовый рынок и ценные бумаги. Книга II. -Т.: Iqtisod-moliya, 2005.- 829 б.
7. Шохаъзамий Ш.Ш. Тадбиркор қимматли қоғозлар бозорида. -Т.: Адолат, 2002.- 331 б.
8. Finerty Johnson. Financial Derivatives: Second Edition. – Menn. Blackwell Publishers Ltd., 2009. – 770 p.
9. Graham Benjamin, Zweig Jason . The Intelligent Investor. – Dublin. HarperCollins Publishers, 2009. -640 p.
10. Hull John C. Futures, Options and other Derivatives: Fourth Edition. – Washington. Prentice-Hall Inc., 2000. – 1024 p.
11. www.uzse.uz

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1295-1302

JAMOAT XAVFSIZLIGIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O'RNI

Jumanazar Turg'unovich Azimov
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, Qo'shinlar kundalik faoliyatini boshqarish kafedrasi dotsenti.
azimov_jt@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jamoat xavfsizligida axborot texnologiyalarini o'rni batavsil yoritilgan. Shuningdek, Jamoat xavfsizligini ta’minlashda qonun xujjatlarni qabul qilingan va “Yo’l xaritasi”ni amalga oshirishda tahdidlar va chora-tadbirlar tahlil qilingan. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonini zarurligi va bu orqali mamlakatning iqtisodiy o’sishni ta’minlash mumkinligi ilmiy asoslangan. Qolaversa, axborotni muhofaza qilish sohasidagi ishlar holatining tahlili shuni ko‘rsatadiki, jamoat xavfsizligini to‘liq shakllanishi uchun konsepsiyasini joriy etilishi zarurligi tadqiqotimizda asoslangan. Bundan tashaqari, jamoat xavfsizligida axborot texnologiyalarini o'rni oshirish bo’yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: jamoat xavfsizligi, axborot texnologiyalari, “Yo’l xaritasi”, axborotni muhofaza qilish, konsepsiya, axborot texnologiyalari.

THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN PUBLIC SECURITY

ABSTRACT

This article details the role of information technology in public safety. Legislation on public safety has also been enacted and threats and measures have been analyzed in the implementation of the Road Map. It is scientifically based on the need to inform the public and the country's economic growth. In addition, the analysis of the state of affairs in the field of information security shows that the need to implement the concept for the full formation of public security is based on our research. In addition, conclusions and recommendations have been developed to enhance the role of information technology in public safety.

Keywords: public safety, information technology, roadmap, information security, concept, information technology.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1295-1302

KIRISH

Главная задача экологического образования школьников формирование у них экологической культуры, ответственного отношения к природе, понимание неразрывной связи человеческого общества и природы, включающего систему экологических знаний, умений, мышления. Экологическое образование невозможно без интеграции всех учебных предметов и внеклассных мероприятий.

В последние годы в Узбекистане все чаще говорят о необходимости широкого внедрения проектной и исследовательской деятельности в процесс обучения детей в общеобразовательной школе.

Проектно-исследовательская деятельность рассматривается как неотъемлемая часть экологического образования учащихся, которая организуется для развития их творческих возможностей, формирования первоначальных практических умений.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1413-1418

Экологическое образование мы понимаем в его первоначальном, буквальном смысле, т.е. как образование в области экологии, т.е. наука о взаимоотношениях организмов друг с другом и со средой обитания.

Для окончательной ясности подчеркнем, что под термином экологического образования мы будем понимать не только сам процесс образования, обучения, передачи конкретных знаний и умений, но и ту сферу, которую принято называть воспитанием.

Особенностью именно экологического образования и воспитания является то, что эти два, в некоторых других областях педагогики, различных процесса (обучение и воспитания), является, в данном случае, тесно взаимосвязанными.

Экологическое образования, можно условно назвать «полевой экологией», а подход, используемый при обучении и воспитание детей «натуралистическим»

Из всех многочисленных направлений и областей экологического образования в области «полевой экологии» и «натуралистического» образования оказалась, пожалуй, наименее «освоенной» и труднодоступной формой экологического образование детей, особенно в средней школе. Полевое экологическое образование предполагает, что основной формой образования детей является внеклассные учебные и исследовательские занятия- на экскурсиях, полевых практикумах, в походах, экспедициях, лагерях и т.п.

Фактически, речь идет об изучении природы в природных условиях. Образовательные методики и подходы к преподаванию естественнонаучных дисциплин, с помощью которых реализуется данная форма образования, мы называем «натуралистическими». Данный подход к образованию не является новым и существует в различных формах уже многие десятилетия- как в нашей стране, так и за рубежом.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

В настоящее время, в таких развитых, в отношении охраны природы, странах как США в экологическом образовании детей доминирует два подхода

- игровой и натуралистический.

При этом первый преобладает в начальной и средней школе, а второй – в старшей.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1413-1418

Опыт западных стран в развитии «игрового» направления в образование огромен. Многие уроки «природоведения»

(environment) построены на базе использования именно этого подхода. Выпущено много литературы

-как учебники, так и пособия для учителя, тетради для учащихся, плакаты, настольные и компьютерные игры. Игровыми методами учат не только младших школьников, но также и студентов.

Натуралистический подход в образование за рубежом.

Фактически, внеклассным (out- door, т.е. за дверьми класса / школы) экологическим образованием занимаются три категории учреждений – сами школы, общественные просветительские и природоохранные организации и полевые учебные центры.

Так, например в самих школах предусмотрены регулярные занятия с детьми на улице – на кратких (получасовых) экскурсиях, на пришкольных участках и т.д.

Многие школы, особенно начальные, имеют свои маленькие экологические площадки, оборудованные для занятий в игровой форме.

В школах средних и старших ступеней на смену игровым площадкам приходят «мини дендрарии», метеоплощадки, гелиоустановки, устройство для очистки воды, компостные кучи с установками для разведения червей, искусственный водоем для изучения водной флоры и фауны.

Вторая категория организаций, занимающихся полевым натуралистическим образование – общественным просветительские и природоохранные организации. Во многих из них существует специальные отделы, занимающиеся экологическим образованием и просвещением детей.

Во -первых, это клубы (аналогия наших кружков), в которых группа школьников под руководством, как правило – учебного- эколога занимается какой-либо одной проблемой (например, изучением миграции птиц, кольцеванием птиц и т.д.)

Во- вторых, — это участие детей в так называемых «исследовательских» или «прикладных проектов. Их суть является выполнением детьми каких-либо очень конкретных заданий в окрестностях своего места жительства – подсчет птиц и т.д. При этом общая координация сроков, методик, форм отчетности ведется общественной организацией заочно информация выпускается в виде информационных листков, публикаций в прессе.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1413-1418

Третья категория организации, занимающихся полевым, натуралистическим экологическим образованием, составляют полевые учебные центры. Их работа основана на проведении краткосрочных экологических практикумов для школьников всех возрастных ступеней.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В средних и старших классах преобладает так называемые «проектный подход» и многодневные практикумы. Сущность этого подхода и практикумов такова Учащиеся большинства школ старшей ступени (13-16 лет) обучается с использованием «проектного подхода», при котором каждый учащийся выбирает себе для использования какой-либо проект, как правило,-проведение самостоятельного исследования со всеми присущими этому виду творчества формами деятельности- постановкой задач, подбором методик, сбором материала, его обработкой, осмысливания.

Собственно учеба заключается в самостоятельной исследовательской работе школьников в природе.

REFERENCES

1. Zakirov, D. (2020). ECOLOGICAL EDUCATION IN PRESCHOOL INSTITUTIONS. *ACTA NUUz*, *1*(4), 72-74.
2. Zakirov, D., & Madaminova, G. (2020). CLUSTER TEACHING METHOD FOR DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL EDUCATION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF SCHOOLCHILDREN IN GENERAL EDUCATIONAL SCHOOLS. *Биология ва экология электрон журнали*, *2*(2).
3. Закиров, Д. У., & Гулямов, Ж. Х. (2020). ЭКСКУРСИОННАЯ МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ПО РАЗВИТИЮ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ШКОЛЬНИКОВ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНА ШКОЛАХ. *Science and Education*, *1*(Special Issue).
4. Zakirov, D., & Madaminova, G. (2020). Ekologik ta'limni rivojlantirish va umumiy o'rta maktablarida o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish. *Биология ва экология электрон журнали*, *2*(2).
5. Закиров, Д. У. (2020). ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМДА МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШ ВА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМДАН УНУМЛИ ФОЙДАЛАНИШНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. Биология ва экология электрон журнали, 4(2).

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1413-1418

6. Закиров, Д. У. (2020). МАКТАБЛАРДА БИОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎТКАЗИШДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. Science and Education, 1(7).

7. И. Алланазарова, & Д. Закиров (2021). ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ 3D-ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРОВЕДЕНИИ ЗАНЯТИЙ КУРСА: «АНАТОМИЯ ЧЕЛОВЕКА» В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ.. Academic research in educational sciences, 2 (11), 404-411.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1419-1427

JARQO`TON INSON PORTRETI

Shohzod Shuhrat o'g'li Toshturdiyev
Termiz davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Arxeologik yodgorliklarimizdan topilgan har bir moddiy ashyo tariximiz uchun kerakli arxeologik manba hisoblanadi, shunday moddiy ashyolardan biri Jarqo`ton yodgorligidan topilgan inson haykalidir, bu ashyo tarixning san`atshunoslik, diniy urf-odat, etnografiya va antrapologiya sohalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Maqolada Jarqo`ton inson haykalining diniy, manaviy, badiiy-uslubiy, va antrapologik xususiyatlari va vazifalari muhokama qilinadi.

**Kalit so`zlar:** Jarqo`ton inson portreti, Sopolli madaniyati, Jarqo`ton, Ko`zali, Mo`lali, Bo`ston, Oks sivilizatsiyasi, Turon sivilizatsiyasi, Baqtriya-Marg'iyona arxeologik majmuasi, Gonurtepa, Shimoliy Afg`oniston, Mirshodi, adobe illustrator.

KIRISH

Badiiy San`atning paydo bo`lishi davri juda qadimgi davrlarga borib taqaladi, san`at insonlarning diniy-mafkuraviy, ma`naviy, idealogik qarashli mahsuli bo`lib, bularsiz san`atni tasavur qilib bo`lmaydi. San`at qadimdan buyon din bilan bog`liq holda rivolanib keldi, diniy-mafkuraviy vazifalar bilan birgalikda o`zida badiiy estetik his-tuyg`ularni ham aks ettirdi. Shunday san`at namunalaridan biri Jarqo`ton odam haykalidir.

Tarixdan bizga malumki bronza davrida O`zbekiston hududining janubida o`troq dehqonchilik madaniyati vakillari paydo bo`ldi. Bu madaniyat arxeologiya fanida Sopolli madaniyati sifatida nomlandi. Sopolli madaniyati kelib chiqishi jihatidan Qadimgi sharq sivilizatsiyaning lokal (mahalliy) varianti bo'lib Janubiy Afg'onistondagi Dashtli, Janubiy Turkmaniston hududida tarqalgan Nomozgoh madaniyati bilan yagona tarixiy madaniy birlikda bo'lgan va arxeologiya fanida ,,Oks sivilizatsiyasi”[2] ,,Turon sivilizatsiyasi”[3] yoki ,,Baqtriya-Marg'iyona arxeologik majmuasi” (keyingi o'rinda BMAK) kabi umumiy nomlar bilan atalmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Sopolli madaniyati 1960-yillari oxiridan boshlab o`rganilib kelinmoqda. O`ZR FA Arxeologiya institutining Akademik A.A.Asqarov rahbarligidagi ekspeditsiya

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1419-1427

tomonidan dastavval Sopollitepa va Jarqo`ton kabi yodgorliklar o`rganilgan va ilk o`rganilgan yodgorlikka nisbat berilib, Sopolli madaniyati nomini olgan[1]. Sopolli madaniyati yangi xranologik davrlashtirishga ko`ra 5 davrga bo`linadi[2]. Sopolli davri mil. av. XXII asr yarmidan XX asrni, Jarqo`ton davri XIX-XVII asrlarni, Ko`zali davri XVI asrni, Mulali davri XV asrni, Buston davri esa XIV asrni o`z ichiga olgan. O`zbekiston-Germaniya arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan 1994-2003-yillarda Jarqo`ton yodgorligida qazishma ishlari olib borildi[3]. Qazishmalar natijasida Jarqo`tondan odam byusti yani portret janrida yasalgan odamning haykali topilgan. Haykal loydan yasalib quyoshda quritilgan ammo olovda kuydirilmagan shu bois haykal yaxshi holatda saqlanmagan. Shu davrga mansub haykallari asosan bronza davri qabrlaridan topilgan. Bazi qabrlardan marhum mayiti bo`lmasdan haykalchalar yoki qo`y suyagi qoldiqlari topilgan. Akademik A.A. Asqarov bunday xildagi qabrlardagi dafnlar kenataf dafnlar deb ataydi, ya`ni qabiladoshidan biror kishi bedarak yo`qolib qaytib kelmasa marhum qabriga uning mayiti o`rniga haykalcha yasalib qabrga dafn qilingan yoki marhum chorva molidan birini olib qabrga dafn qilingan[4]. Jarqo`ton ibodatxonasining xo`jalik-xizmat qismidan ham Jarqo`tondan odam haykaliga o`xshash, loydan yasalgan lekin, olovda kuydirilmagan ustidan qizil bo`yoq sepilgan haykalchalar topilgan. Jarqo`ton yodgorligida alohida ibodatxona inshoati va qabristonning paydo bo`lishi esa Sopolli madaniyatining Ko`zali davriga to`g`ri keladi[4]. Demak Jarqo`ton odam haykali Sopolli madaniyatining Ko`zali yoki Mo`lali davrlariga tegishli bo`lishi mumkin va Jarqo`ton ibodatxonasining xo`jalik-xizmat hunarmand ustalari tomonidan kenataf qabrlar uchun yoki boshqa diniy urf-odatlar maqsadida tayyorlangan.

Jarqo`ton portret haykali kuydirilmaganligi uchun, asl holicha saqlanmagan, haykal sinib bo`laklarga bo`linib ketgan, quloqlari va burni sinib, sho`rlanish natijasida yemirilib ketgan balki o`sha davr urf-odatiga binoan insonlar tomonidan atayin sindirilgan bo`lishi ham mumkin(1-rasm a).

Haykalning sinib qolgan qismi BMK-5 yelimi yordamida yopishtirilgan, haykalning buruni qayta tayyorlanib haykalning singan buruni o`rniga yopishtirilib qoyilgan, obyektning quloqlari ham qisman tiklangan xullas haykal restavratsiya qilingan(1-rasm b). Haykal restavratsiya qilinganidan so`ng uning asl qiyofasi qisman aniqlashdi. Unga qizil angob bilan rang berilgan, soch, soqol, kiprik va qoshlari qismiga qora rangli angob surtilgan ya`ni haykalda erkak kishi qiyofasi tasvirlanganligi oydinlashdi lekin, haykal restavratsiyalangan bo`lsada to`liq asl holiday tiklanmagan.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1419-1427

Quloq qismining yarmi yoq, burun shakli umumiy bajarilgan yaxshi ishlov berilmagan, obyekt ranglari o`chib ketgan bilinar-bilinmas holga kelgan. Shuning uchun haykalning badiiy qiyofasini yanada aniqlashtirish maqsadida shu satrlar muallifi kamina adobe illustrator dasturi yordamida haykalning asl qiyofasi tiklashga harakat qildi va haykalning badiiy qiyofasi yanayam aniqlashdi[2](2-rasm a,b).

a)

b)

1-rasm

a)

b)

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1419-1427

2-rasm. Restavratsiya(Adobe illustrator)



a) **b)**

3-rasm.

a) **b)**

4-rasm. a) Sargon I (er.avv 2350-2250) b) Qoratepa (eneolit davri)

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1419-1427

5-rasm. Mirshodi (er.avv II ming. Yil)

Jarqo`ton odam portretini yasagan usta haykaltarosh o`z davri uchun mohir bo`lgan, haykal simmetriya qonuniyatlari asosida yasalgan, yuz tuzilishini tasvirlashda real va hayotiy obrazlarga intilish seziladi. Burun va ko`zlar orasidagi masofa gorizantal holatda to`g`ri joylashtirilgan, ko`z, quloq, burun, og`iz, iyak qismlar vertikal holatda aniq joylashtirilgan. Ko`z shakli hayotiy, yumiq ko`z tasvirlangan, ko`z bilan qosh orasi ichkariga qarab biroz kirib ketgan, burun shakli tor va uzun, qirra burun shaklini ifodalaydi(3-rasm a). Og`zining lab qismi tasvirlanmagan lekin o`g`zini o`rtacha kattalikda ochirib qo`yibdi. Iyak qismi ham uzun og`ziga tog`ri moslashtirilgan lekin ustamiz ishlarida anatomik kamchiliklar ham yo`q emas. Haykalning peshona qismi nihoyatda qisqa qoshiga bosh qism birlashib ketgan. Yuz qismida yonoq suyaklari tasvirlanmagan yonoq o`rni ichkariga kirgizilib yuborilgan, boshning orqa tarafi pachoqlashib ketgan, shakl jihatdan yalpoqlashtirilgan(3-rasm b). Bo`yin qismi ham haykalning boshiga mos emas.

Jarqo`ton haykalida vafot etkan insonning real obrazi badiiylashtirilgan. Haykalda anatomik tuzilishiga ko`ra yevrapoid qiyofali inson tasvirlangan[1]. Bu davrda tegishli bo`lgan Sopollitepa va Jarqo`ton qabrlarning o`rganilishi natijasida Sopolli madaniyati aholisi antrapologik kelib chiqishi jihatidan yevrapoid irqining

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1419-1427

sharqiy o`rtayer dengizi tarmog`iga mansubligi aniqlangan va buni o`rganayotgan haykalimiz ham antrapologik dalil sifatida tasdiqlamoqda[2].

Tasviriy san`at tarixida real obrazlarning haykaltaroshlikda ilk bor qo`llanishi bronza davri Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi markazlari bilan bevosita bog`liqdir. Qadimgi ikki daryo oralig`idagi er.avv XXIV-XXII asrlarda Akkad podsholigi davri haykaltaroshligida real badiiylashtirilgan obrazlar ilk bor paydo bo`ladi va bu davr namunalarida inson obrazi hayotiy va anatomik aniq ifodalangan. Biz bu jarayonni Sargon I qadimiy portretida ko`rishimiz mumkin(4-rasm a).

Sopolli madaniyati bilan genetik aloqador Qaqimgi Oks sivilizatsiyasining boshqa Janubiy-g`arbiy Turkmaniston yani tarixiy Marg`iyona o`lkasi va Shimoliy Afg`oniston hududlarida joylashgan eneolit va bronza davriga mansub yodgorliklardan ko`plar kuydirilmagan va terrakotali inson haykalchalari topilgan.

Ular turli stilistik usullarda tayyorlanishiga va qanday homashyodan yasalganligiga ko`ra bir-biridan farq qiladi.

V.M Masson va V.I Sarianidilarning fikriga ko`ra eneolit davri haykalchalari uchun realistik uslubdagi inson obrazlar xos bo`lsa, bronza davri haykalchalari uchun qo`l va ayog`i tasvirlanmagan sxematik uslubdagi inson obrazlar xosdir bu sxematik uslub sivilizatsiyaning inqirozini emas balki shu davr diniy qarashlarni va urf-odatlarni ifadalovchi mahalliy ustalar tomonidan qoliplashtirilgan stildir deya fikr bildiradilar[1]. Bronza davri Janubiy-g`arbiy Turkmaniston yodgorliklaridan qo`l va ayog`i tasvirlanmagan sxematik yasalgan terrakota ayol haykalchalar juda ko`plab topilgan[2]. Ular bronza davri Oks sivilizatsiyasi kishilarining diniy urf-odati marosimi uchun yasalgan, arxeolog mutaxassislarning fikricha haykalchalarda ayol qiyofali hosildorlik va unumdorlik mabudalari ifodalangan. Va ularning aksariyati ritual o`choqlar yonidan sindirilgan holda topilgan. Haykalchalarning turli usulda yasalish jarayonini I.N Xlopin shunday tushuntiradi, shoshilinch tarzda loydan tayyorlanib, kuydirilmay yoki chala kuydirilgan va bo`yoqlar bilan har-xil detal tushurilgan haykallar bir martalik diniy urf-odat uchun foydalanish maqsadida tayyorlangan, agar haykalcha mustahkam kuydirilgan bo`lsa diniy urf-odat uchun uzoq xizmat qilishga mo`ljallangan bo`ladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Janubiy-g`arbiy Turkmaniston hududida Namozgoh III davri oxiridan boshlab haykalchalarda ayol obrazining o`rniga erkak obrazlar tasvirlana boshlaydi, buni Qoratepadan topilgan hom loydan ishlangan harbiy shlem kiygan erkak haykalchasi

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1419-1427

ham ifodalaydi(5-rasm b). Janubiy-g`arbiy Turkmanistonning Gonurtepa mozoridan va Shimoliy Afg`oniston talon-taroj qilingan mozorlaridan kelib chiqan qora tosh va qimmatbaho marmardan badiiy did bilan va bejirim ishlangan real tasvirli, antrapologik jihatdan semit qiyofali inson haykalchalari stilistik va genetik jihatdan Qadimgi ikki daryo oralig`i yodgorliklari bilan bevosita bo`g`liq hisoblanadi. Surxon vohasida joylashgan ilk temir davriga oid Mirshodi yodgorligidan erkak qiyofali haykal topilgan.

Haykalda faqat insonning bosh qismi tasvirlangan, u portret janrida anatomik jihatdan hayotiy va real uslublashtirilgan. Haykal Jarqo`ton haykalidan farqli ravishda loydan emas balki qora toshdan yo`nib yasalgan, unda inson yumaloq boshli, keng yuzli, bodom qovoqli qilib tasvirlangan(5-rasm)[1]. Mirshodi haykali stilistik yasalish jihatidan Jarqo`ton haykaliga o`xshab ketadi, ayniqsa bu jarayon ko`zlari va og`zining tasvirlanishida yaqol ifodalangan. Bundan kelib chiqadiki Jarqo`ton haykali yasalish uslubi keyingi davrlarda ham davom etgan.

XULOSA

Maqola so`nggida xulosa qiladigan bo`lsak Jarqo`ton odam portreti haykali diniy urf-odat maqsadida Jarqo`ton ibodatxonasi mahalliy ustalari tomonidan hom loydan tayyorlangan bo`lsada lekin mahorat bilan yasalgan, nima uchun kuydirilmaganligi bu biz uchun jumboq bo`lib qolmoqda.Agar haykal toshdan yoki kuydirilganligida edi balki asl qiyofasi bizning davrimizgacha yetib kelgan bo`lishi mumkin edi. U Sopolli madaniyatining Ko`zali va Mo`lali davriga mansub. Jarqo`ton haykali portret janrida yasalganligi bilan Oks sivilizatsiyasining boshqa hududlaridan topilgan odam haykalchalaridan farq qiladi, Janubiy-g`arbiy Turkmaniston yani tarixiy Marg`iyona o`lkasi va Shimoliy Afg`oniston bronza davri odam terrakotalari uchun inson tanasi umumiy tasvirlangan sxematik va hayoliy tasvirlangan uslub xos, va Gonurtepa va Shimoliy Afg`onistonning talon-taroj qilingan aristokratlar qabrlaridan kelib chiqan real va hayotiy tasvirli haykalchalar stilistik jihatdan Mesotamiyaning Shahar-davlari bilan bog`liqdir. Jarqo`ton odam portreti uchun hayotiy reallashtirilgan tasvir xos hisoblanadi. Biz haykal orqali Sopolli madaniyatining mahalliy ustalarning badiiy didi va mahorati o`sib, real obrazlarga intilib borayotganligini ko`rishimiz mumkin. Haykalda shu davrda vafot etgan shaxs qiyofasining real tasviri aks etgan. Va yana haykalimiz tarixiy antrapologiya sohasi uchun ashyoviy manba bo`lib xizmat qiladi. Jarqo`ton odam byusti O`zbekiston hududidagi eng qadimgi haykaltaroshlik namunasidir va eng qadimgi portret

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1419-1427

janridagi reallashtirilgan obraz hisoblanadi. Shu boisdan O`zbekiston san`ati tarixi darslik va monografik kitoblariga[2] Jarqo`ton portreti haykalini kirgizishi maqsadga muofiq ish bo`lar edi, ayniqsa portret janridagi inson obrazlarini O`zbekiston san`ati tarixida paydo bo`lish davrini antik davrdan bronza davrga oshirish tariximiz uchun zarurdir.

REFERENCES

1. Абдуллаев Н.У. “Санъат тарихи” Т-1. Тошкент, Укитувчи, 1987 к
2. Аскаров А.А.Сапаллитепа. Ташкент, 1973.
3. Аскаров А.А.Древнеземледельческая культура эпохи бронзы Юга Узбекистана. Ташкент, 1977.
4. Аскаров А.А., Абдуллаев Б.Н.Джаркутан. Ташкент, 1983.
5. Аскаров А.А., Шайдуллаев Ш.Б. Бактриянинг бронза ва илк тсмир даври хронологияси буйича янги маълумотлар // Узбскистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда. Ташксит, 2005.
6. Асқаров.А ,,Энг қадимги шаҳар" -Тошкент,Манавият, 2001
7. Бардески К. Д., Месопотамия колыбель человечества. М; 2008.
8. Беляева Т. В., Хакимов З.А., Древне бактрийские памятники Миршаде-В сб истории античной культуры Узбекистана. Ташкент. 1973
9. Боқиев А., Шайдуллаев А., Йўлдошева З. Окс цивилизацияси. Тошкент, 2015
10. Массон В.М.Сарианиди В.И., Среднеазиатская терракота эпохи бронзы. М. 1973.
11. Массон В.М. Алтын-Депе// Труды ЮТАКЭ. ТомXVIII. Л.: 1981.
12. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. “История искусств Узбекистана”.1 9 7 Пугаченкова Г.А. Скульптура Халчаяна. - Москва: Искусство, 1 9 7 1
13. Пулатов Д. С. Узбекистон хайкалтар ошлигининг шаклланиши ва ривожланиши. Наманган. 2017
14. Реутова М.А. Из опыта консервации археологических материаловиз необожженной глины // Археология Узбекистана журнали №1(20).Тошкент,2020
15. Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистана. Материалы Советско-Афганской экспедиции 1969-1974 гг. - М., 1977
16. Сарианиди В.И., Гонур-депе город царей и богов. Ашхабат. 2005.
17. Sarianidi V. Margiana and Protozoroastrism. Athens, 1998.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1419-1427

18. Sarianidi V. Myths of Ancient Bactria and Margiana on its Seals and Amulets. M., 1998.
19. Sarianidi V.I., Necropolis Of Gonur And Iranian Paganism.,M.2001.
20. Хлопин И. Н., Изображение короны на сосуде из Корадепе—КИИСМК,в. 1957.
21. Хлопин И. Н., Геоксюрская группа поселений эпохи энеолита.М.;Л. 1964б.
22. Хужайев Т.К., Антропологический состав населения эпохи бронзы сапаллитепа.- Тошкент, Фан, 1977к.
23. Хужайев Т., Абдуллаев К. Аждодларимиз киёфаси. - Тошкент: Фан, 1990.
24. Шайдуллаев Ш.Б, Диетрих Хуфф, К.Рахимов. Жарқўтон- 2002 // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. №2, - Тошкент, 2003.
25. Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари // Т.ф.д. диссертацияси автореферати. Самарқанд, 2009.
26. Ширинов Т.Ш. Ранняя городская култура эпохи бронзы юга Средней Азии. Автореф. дис. д.и.н. М., 1992.
27. Lamberg-Korlovskiy C. The Bronze Age of Bactria. Baktria. An Ancient Oasis Civilizations. RomaVenezia, 1989.
28. Tosi M. The Origins of Early Bactrian Civilization. Baktria. An Ancient Oasis Civilizations. RomaVenezia, 1989.
29. www.Adobe.com

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1428-1433

АЙБГА ИҚРОРЛИК ТЎҒРИСИДА КЕЛИШУВ ТУШУНЧАСИ, ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

М. З. Муқимова
Самарқанд давлат университети доценти

Г. Шерматова
Самарқанд давлат университети магистранти

АННОТАЦИЯ

Мақолада суд-ҳуқуқ ислоҳотлари даврида Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига киритилган янги қоида, яъни гумонга, айбловга рози бўлган, жиноятнинг очилишига фаол кўмаклашган ва келтирилган зарарни бартараф этган гумон қилинувчининг ёки айбланувчининг илтимосномасига асосан назорат қилувчи прокурор билан ижтимоий хавфи катта бўлмаган, унча оғир бўлмаган ва оғир жиноятлар бўйича тузиладиган келишув тушунчаси, шартлари, унинг ўзига хос хусусиятлари ўрганилган.

Калит сўзлар: суд-ҳуқуқ ислоҳотлари, жиноят, айбланувчи, гумонланувчи, айбни тан олиш, ижтимоий хавфи катта бўлмаган жиноятлар, унча оғир бўлмаган жиноятлар, оғир жиноятлар, қонунийлик, ихтиёрийлик, прокурор, келишув, енгилроқ жазо тайинлаш.

КИРИШ

Маълумки, сўнгги йилларда мамлакатимизда шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш, унинг шаъни ва қадр-қимматини ҳурмат қилиш, суд ишларини юритишнинг барча босқичларида тарафларнинг тортишув тамойили қўлланилишини янада кенгайтириш ҳамда ушбу соҳада халқаро стандартлар ва илғор хорижий тажрибани жорий этишга қаратилган бир қатор қонун ҳужжатлари қабул қилинмоқда.

Мамлакатимизда жиноят ишларини тергов қилиш фаолиятини халқаро стандартлар ва илғор хорижий тажрибани инобатга олган ҳолда яхшилаш, қонун устуворлиги ва жавобгарликнинг муқарраплиги принципларини рўёбга чиқариш, жиноят-процессуал қонунчилигини янада такомиллаштириш устувор вазифалардан бири бўлиб, Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексига «Айбни иқрорлик бўйича келишув» тўғрисидаги нормаларни

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1428-1433

киритилиши суд-ҳуқуқ ислоҳотлари даврида инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашда, назаримизда муҳим аҳамият касб этади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Хусусан ЖПК «Айбга иқрорлик тўғрисидаги келишув» бўйича нормаларни қамраб олган янги 62^1-боб билан тўлдирилиб, унинг 586^1-моддасига кўра «Айбга иқрорлик тўғрисидаги келишув жиноят ишини юритишни ўзига нисбатан қўйилган гумонга, айбловга рози бўлган, жиноятнинг очилишига фаол кўмаклашган ва келтирилган зарарни бартараф этган гумон қилинувчининг ёки айбланувчининг илтимосномасига асосан назорат қилувчи прокурор билан ижтимоий хавфи катта бўлмаган, унча оғир бўлмаган ва оғир жиноятлар бўйича тузиладиган келишувдир».

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида «**келишув**» ўзаро маслаҳатлашиб баён этилган фикр, хулоса, қарор, битим, шартнома, шунингдек «келишувчилик» - ўз манфаатларини кўзлаб муросага келиш, рози бўлиш, қўшилиш, муросасозлик маъноларини англатиши назарда тутилган. Демак келишув, бизни қизиқтираётган маънода гумонланувчи, айбланувчининг прокурор билан айбга иқрорлиги юзасидан тузган ўзаро битими бўлиб ҳисобланади.

Таъкидлаш керакки, ушбу қоидалар Ўзбекистон Республикаси ЖК ЖК 66^1-моддасида назарда тутилган ярашув битимига ўхшаб кетса-да, келишув битими ундан фарқ қилади. Тўғри, ярашув ҳам ўзига хос келишув, битим бўлиб, биринчидан, у жавобгарликдан озод қилишга сабаб бўлади, иккинчидан, ушбу битим жиноят содир этган шахс билан жабрланувчи ўртасида тузилади.

Аввало, қандай ҳолларда айбга иқрорлик бўйича келишув тузиш мумкинлигига аҳамият берсак. Жумладан, айбга иқрорлик бўйича келишув тузишда қонунга кўра қуйидагилар асос бўлиб хизмат қилади:

- гумонланувчи, айбланувчи томонидан келишув бўйича илтимоснома тақдим этилиши;
- илтимоснома ушбу шахсларнинг ўз хоҳиши билан берилиши;
- шахс томонидан содир этилган жиноятларнинг ижтимоий хавфлилик даражаси, яъни ижтимоий хавфи катта бўлмаган, унча оғир бўлмаган ёки оғир жиноятлар бўлиши керак, бу эса ўз навбатида ўта оғир жиноят содир этганлик бўйича келишув тузилмаслигидан далолат беради;
- гумондор, айбланувчи содир этган жиноятларига иқрорлик билдириши керак;

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1428-1433

- айбланувчи, гумонланувчи жиноятнинг очилишига фаол ёрдам бериши керак;

- жиноят натижасида келтирилган зарар қопланиши керак;

Келишув ҳақидаги илтимоснома суриштирув, терговнинг исталган босқичида берилиши мумкинлиги, шунингдек суд мажлисида тарафлар келишувдан воз кечиши мумкинлиги билан характерланади.

Айбга иқрорлик бўйича келишув бир қатор давлатлар қонунчилигида ўзининг самарали чоралардан бири эканлиги билан характерланади, жумладан, АҚШ, Англия, Италия, Испания, Германия, Франция, Эстония, Исроил, Ҳиндистон ва баъзи МДҲ давлатлари қонунчилиги, жумладан Россия, Молдова, Қозоғистон Республикаси, Грузия, Украина ва бошқа давлатар қонунчилиги шулар жумласидандир.

Айбига иқрорлик тўғрисидаги келишув институти АҚШ қонунчилигида узоқ тарихга эга бўлиб, 19 асрнинг бошларида АҚШда юзага келган, амалиётда 150 йилдан бери қўлланилиши билан характерланади. Маълумотларга кўра, АҚШда ҳар йили 90-95% фоизга яқин жиноят ишлари айбига иқрорлик тўғрисидаги келишув билан якунланади.

Англия қонунчилигида ушбу институт АҚШ га нисбатан кам қўлланилса-да, Англия судлари томонидан доим алоҳида эътиборга сазовордир.

Дания, Франция ва Германия қонунчилигида айбсиз кишини жавобгарликка тортилишини олдини олиш мақсадида, суд томонидан ҳақиқатни аниқлаш принципи алоҳида эътибор қаратилиб, суд ҳақиқатни аниқлаш учун барча чораларни кўриши керак.

МДҲ давлатларининг қонунчилигида жумладан, Россия, Украина, Қозоғистон, Қирғизистон Жиноят-процессуал қонунчилигида мустаҳкамланган бўлиб, ушбу қоидалар енгилроқ жазо тайинлашнинг бир кўриниши сифатида мустаҳкамланган.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Бугунги кунда суд амалиётида бу борадаги нормалар кенг қўлланилиб, жиноят содир этган шахсларга қонунчилигимизнинг рағбатлантирувчи нормаларини қўллашга сабаб бўлмоқда. Масалан, Судланувчи Б.Х. – хавфли рецидивист бўлган ҳолда, ўзганинг жуда кўп миқдордаги мулкларини қўлга кириш мақсадида, 2020 йил февраль ойида Самарқанд тумани, “Гулобод” маҳалласида яшовчи Холов А.нинг тадбиркорлик қилиш мақсадида, ер майдони

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1428-1433

олмоқчи эканлигидан хабардор бўлиб, у билан танишиб, унга ўзига тегишли бўлмаган, ер майдонини гўёки ўзига тегишли эканлигини айтиб, унга ушбу еридан 10 гектар майдонини номига расмийлаштириб бериш, ер майдонига электр токи ўтказишга ёрдамлашиш ҳамда шу ерга қурилиши лозим бўлган иншоотига арзон нархларда қурилиш материаллари олиб беришни ваъда қилиб, уни алдаб, ишончига кириб, 2020 йил февраль ойидан 2021 йил февраль ойига қадар бўлган вақт давомида 200.070.000 (икки юз миллион етмиш минг) сўмга тенг бўлган 19.000 АҚШ доллари миқдоридаги пулларини фирибгарлик йўли билан қўлга киритиб, муайян ҳуқуқ берадиган, расмий ҳужжат ҳисобланган - туман ҳокимининг 18.12.2019 йилдаги 8741-Қ-сонли қарорини, «Кенагас» маҳалласининг 14.10.2020 йилдаги далолатномасини ҳамда санаси кўрсатилмаган, туманда юридик ва жисмоний шахсларга тегишли кўчмас мулкларни хатловдан ўтказиш юзасидан тузилган ишчи гуруҳнинг 1-сонли йиғилиш баённини қалбакилаштириб ва қалбаки ҳужжатни тақдим қилиб, фирибгарлик йўли билан қўлга киритган пулларни ўз эҳтиёжларига ишлатиб юборган.

Суд томонидан судланувчи Б.Х.нинг 1-1416-2101/000-сонли жиноят иши бўйича айбга иқрорлик тўғрисидаги келишуви тасдиқланган.

Б.Х. ЖКнинг 228-моддаси 3-қисми билан оқланиб, Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 168-моддаси 4-қисми «а» банди ва 228-моддаси 1-қисми билан айбли деб топилган.

ЖКнинг 168-моддаси 4-қисми «а» банди билан, ЖКнинг 57^2-моддасини қўллаб, базавий ҳисоблаш миқдорининг 200 (икки юз) баравари миқдорида, яъни 44.600.000 (қирқ тўрт миллион олти юз минг) сўм жарима жазоси тайинланиб, давлат даромадига ундириш белгиланган ва ЖКнинг 228-моддаси 1-қисми билан ҳар ойлик иш ҳақининг 20 фоизи миқдорини давлат даромади ҳисобига ушлаб қолган ҳолда 1 (бир) йил ахлоқ тузатиш ишлари жазоси тайинлансин.

Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 59,61-моддаларига асосан жиноятлар мажмуи бўйича жазоларни тўлиқ қўшиш йўли билан, узил-кесил ўташ учун базавий ҳисоблаш миқдорининг 200 (икки юз) баравари миқдорида, яъни 44.600.000 (қирқ тўрт миллион олти юз минг) сўм жарима жазоси ҳамда ҳар ойлик иш ҳақининг 20 фоизи миқдорини давлат даромади ҳисобига ушлаб қолган ҳолда 1 (бир) йил ахлоқ тузатиш ишлари жазоси тайинланган.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1428-1433

Юқоридан кўринадики, иш бўйича ЖК 168-модданинг 4-қисмига кўра, Б.Х.га энг кўп жазонинг ярмидан (600 баравар) ошмаган ҳолда жазо тайинланган.

Албатта, бу институтни назаримизда ўзига хос камчиликлари бор. Чунки айбига иқрорлик бўйича келишув тасдиқлаш масаласи судга ҳаволга қилинганлигига қарамасдан терговдаги қонунга зид ҳолатларни, «хусусан айбини бўйнига олдириш» каби салбий ҳолатларни олдини олиш мақсадида у видео тасвирларга олиниши, шунингдек ЖПК га суд ҳар бита ҳолат бўйича келишув айнан гумонланувчи, айбланувчининг ўз-ҳохиш иродаси бўйича тузилганлигига алоҳида аҳамият беришни назарда тутадиган қоидаларни мустаҳкамлаш зарур деб ҳисоблаймиз.

ХУЛОСА

Демак, юқоридагиларга кўра, айбга иқрорлик бўйича келишув ўзига хос кўп томонлама битим бўлиб, биринчидан, гумонланувчи, айбланувчи учун қуйидагича аҳамият касб этади:

- жазо тайинлашда рағбатлантирувчи қоидаларни қўлланилиши сабаб бўлади (ЖК57-2-модда), яъни жазонинг муддати, миқдорини камайишига, хусусан жазони енгиллашишига;
- турли хил оворагарчиликларни олди олинади;
- қилган қилмишига яраша тез ва аниқ фурсатларда жавобгарликка тортилади, айниқса, эҳтиёт чораси қамоқда сақланган ҳолда суднинг мажлисини кутиб ўтиришдек, қийин шароитларидан ҳимояланади.

Иккинчидан, суриштирув, тергов, прокуратура ва суд учун:

- вақт ва маблағларни тежалиши;
- суд муҳокамасидан воз кечишлиши, судларнинг жиноят ишлари бўйича иш юкламаси камайиши ва ўта оғир, мураккаб жиноят ишларини ўз вақтида синчковлик билан кўриш имкониятининг кенгайишига сабаб бўлади.

Учинчидан, бу келишув жабрланувчи учун ҳам аҳамиятли бўлиши мумкин:

- етказилган зарарни қопланиши;
- гумонланувчи, айбланувчи билан тез-тез кўришишдек салбий жиҳатларни олдини олади (сир эмас, шахсга қарши жиноятларда, хусусан ҳаёт, соғлиқ, жинсий эркинлик ва бошқа турдаги жиноятларда жабрланувчи

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1428-1433

айбланувчи, шунингдек судланувчи билан учрашиш, унинг учун жуда оғриқли кечади);

- вақтини тежайди;

- турли хил юзлаштириш, тергов эксперментларини ўтказилиши олдини олади.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентинниг 2020 йил 10 августдаги «Суд-тергов фаолиятида шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш кафолатларини янада кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ -6041-сонли фармони //https://lex.uz/docs/4939467
2. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. – Тошкент: Юридик адабиётлар, 2021.// https://lex.uz/docs/111460
3. Жиноят ишлари бўйича Тайлоқ туман судининг 2019 йил 14 майдаги ҳукми.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилдли. – Тошкент:Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2-жилд, 347 бет.
5. Ализаде В. А., Волеводэ А. Г. Правовой институт сделки признания вины в уголовном процессе США. // Уголовное и уголовно-процессуальное право иностранных государств. №2. 2018. С. 21-24.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1434-1440

METASTATIK ME'DA ADENOKARSINOMALARIDA VEGF-R2 BLOKATORINI QO'LLANILISHI

M. M. Mallaev
R. A. Abdusattorov
B. B. Sharobidinov
Akfa Medline tibbiyot markazi

ANNOTATSIYA

O'tkazilgan randomirlashgan tadqiqotimizning maqsadi birinchi qator kimyoviy davoni qabul qilgan, Her 2neu manfiy metastatik me'da adenokarsinomali bemorlarni VEGF-R2 blokatori ramisirumab bilan davolashdagi afzalliklarini baholashdan iborat.

Kalit so'zlar: Her 2neu manfiy metastatik me'da adenokarsinoma, VEGF-R2 blokatori, : ramicirumab va irinotekan

KIRISH

Oxirgi yillarda me'da saratonining uchrash darajasi kamayganligiga qaramasdan ushbu kasallik hamon o'zining yuqori ahamiyatini saqlab qolmoqda. Hozirda me'da saratoni uchrashi bo'yicha umumiy saraton kasalliklarining 8%ni, o'lim ko'rsatkichi boýicha 10%ni tashkil etadi. Kasallik ko'proq erkaklarda kuzatilib, Osiyo mintaqasida uchrash chastotasi eng yuqori ko'rsatkichga ega. MSning yosh bo'yicha uchrashi o'rtacha 69 yoshni tashkil etib, 75-84 yosh oralig'ida eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'ladi. MS tashhisi qo'yilgan barcha bosqichdagi bemorlar uchun 5 yillik umr ko'rsatkichi 27,7%ni tashkil etadi. Shuni qayd etish kerakki, oxirgi yillar davomida MS bilan kasallanish ko'rsatkichi kamaydi. Biroq, tashxislash va davolashdagi yutuqlarga qaramasdan MSning kechki bosqichlarida 5 yillik umr ko'rsatkichi yomonligicha (3,7%) qolmoqda. Me'dada uchrovchi barcha yomon sifatli o'sma kasalliklarining asosiy ulushi me'da adenokarsinomasiga (> 95%) to'g'ri keladi. Kam uchrovchi turlari sarasiga esa mezenhimal, limfaproliferativ va neyroendokrin neoplazmlar kiradi. Oxirgi besh dekadada kasallik uchrashi kamaygandek bo'lsada hozirda ham ko'plab dunyo mamlakatlari ushbu kasallikdan aziyat chekmoqda **(1).** Hozirgi kunda endoskopiya, xirurgiya va ummumiy davo usullari hamda kasallikka multiditsiplionar yondashuv imkoni bolganiga qaramasdan hamon MAKli bemorlar 5 yillik o'rtacha yashovchanligi qoniqarsizligicha (25-30%)

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1434-1440

qolmoqda. Kasallikning erta tashhislanishi (TNM klassifikatsiyasi bo'yicha T1 bosqichda) va to'g'ri va samarali davo taktikasini tanlanishi yuqoridagi ko'rsatgichlarni yaxshilashga olib kelishi shubhasiz.

MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqot uchun "Akfa Medlayn" klinikasi sharoitida birinchi qator kimyoviy davoni standart bo'yicha qabul qilgan 39 nafar Her 2neu manfiy metastatik me'da adenokarsinomali bemorlar tanlab olindi. Bemorlarning 20 nafarida (51.3%) paraaortal limfa tugunlarining zararlanishi, hamda 8 nafar (20.6%) bemorda o'smaning qo'shni a'zo va qon tomirlarga o'sib o'tishi aniqlangan, shu sababli ushbu holatlar norezektabel kasallik sifatida baholangan. Bemorlarning 11 nafarida esa (28.2%) distant metastazlar aniqlangan (jigar, qorin parda va tana skelet suyaklari). Bemorlar birinchi qator standart davo sifatida 5-FU va platina unumli dori vositalarini qabul qilgan. Ularning 20 nafari ikkinchi qator kimyoviy davo sifatida ramicirumab va irinotekan hamda 19 nafari irinotekan va platsebo qabul qilgan.

Davolashning olib borilishi - bemorlar ramucirumab va irinotekan yoki platsebo va irinotekan oluvchi guruhlarda 1:1 nisbatda randomizatsiyalangan. Ramucirumab (8 mg/kg) 1 va 15-kunlarda vena ichiga infuziya ko'rinishida yoki davolanishning 1-21 kunlarida irinotekan 350 mg/m2 bilan birgalikda infuziya ko'rinishida yuboriladi. Bemorlar kasallikning progressiyasi, nojo'ya ta'sirlarining ortib ketganligida yoki bemorlarning davodan o'zlari bosh tortmagunicha davom ettirildi.

NATIJA VA UNI BAHOLASH

O'simtani baholash dastavval va har 6 haftada bir marta kasallikning rivojlanishiga qadar o'tkazildi. Kaplan-Meier usuli KHY (kasallikdan holi yashovchanlik) va UY (umumiy yashovchanlik) uchun yashovchanlik egri chizig'ini yaratishda ishlatilgan. O'rtacha KHY va UY tegishli 95% CI (ishonchlilik indeksi) Kaplan-Meier usuli yordamida baholandi. Davolanish samarasining xavf darajasi (HR) tabaqalanmagan Cox PH modeli yordamida, p-qiymati esa tabaqalanmagan log-darajali test yordamida hisoblangan. Kasallikni bosqichlashda Milliy Saraton Institutining me'da saratoni uchun umumiy terminologiya mezonlariga (NCI-CTCAE; versiya 4.02) muvofiq olingan. Atamalarning qisqartmalari matin ichida keltirilgan.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1434-1440

Ramicirumab va irinotekan qabul qilgan bemorlarning umumiy yashovchanligi (11.4 oy; 95% CI: 7.0-17.9), irinotekan va platsebo guruhidagi bemorlarnikiga nisbatan (7.0 oy; 95% CI: 3.4-14.6) yuqori ekanligi aniqlangan (HR-0.68 (0.33-1.41) p=0.30). Yuqori kasallikdan holi yashovchanlik ko'rsatgichi ham aynan ramiciruman kambinatsiyalangan guruh hisobiga to'g'ri kelgan.

Davoning nojo'ya ta'sirlari - ramucirumab va irinotekan hamda platsebo va irinotekan kombinatsiyasini qabul qilgan bemorlarda har qanday darajadagi kamida bitta nojo'ya ta'sir kuzatilgan. Ikkala guruhdagi har qanday darajadagi keng tarqalgan nojo'ya ta'sirlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: burundan qon ketish, neytropeniya, alopetsiya, charchoq, ishtahaning pasayishi, leykopeniya, ko'ngil aynishi, ich qotishi, gipertenziya, periferik sensorli neyropatiya, qusish, anemiya, yo'tal, periferik neyropatiya, periferik shish va pireksiya. Ramucirumab va irinotekan guruhi irinotekan va platsebo guruhiga nisbatan (nojo'ya ta'sir darajasi ≥3) yuqori neytropeniya (45,0% ga nisbatan 15,8%), leykopeniya (20,0% ga qarshi 0,0%), anemiya (10,0% ga nisbatan 0,0%) va periferik sensorli neyropatiya (10,0% va 5,35%) teng bo'lgan mos ravishda.

Ramisirumab va irinotekan (n=20) yashovchanlik medianasi 11.4 oy
Irinotekan va platsebo (n=19) yashovchanlik medianasi 7 oy



ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1434-1440

ramisirumab va irinotekan	**20**	**20**	**18**	**16**	**14**	**11**	**10**	**6**	**5**	**2**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
irinotekan va platsebo	19	17	13	10	9	8	7	5	3	3	1	0	0	0	0

Rasm 1. Her 2neu manfiy mahalliy tarqoq me’da adenokarsinomali bemorlarning umumiy yashovchanligi



ramisirumab va irinotekan	**20**	**15**	**12**	**6**	**4**	**3**	**3**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	
irinotekan va platsebo	19	12	5	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	

Rasm 2. Her 2neu manfiy mahalliy tarqoq me’da adenokarsinomali bemorlarning kasallikdan holi yashovchanligi.

TADQIQOT TAHLILI

Me’da saratonidagi so'nggi terapevtik yutuqlar asosan VEGFR-2 va HER-2 [8,15] ga qaratilgan. HER-2-musbat ko'krak bezi saratoniga asoslangan mavjud klinik ma'lumotlar HER-2 ning ortiqcha ishlab chiqarilishi va o'sma angiogenezining faollashishi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. O'sma hujayralarida HER-2 ning haddan tashqari ko'payishi VEGF tasiri doirasi va angiogenezning faollanishiga sabab bo’ladi va ushbu hususiyat tufayli o'smaning omon qolishi mexanizmlari (surveillance) yuzaga keladi va faollashadi [13,16]. Ramucirumab monoklonal antitana - VEGFR-2 antagonisti hisoblanadi, ligandlarning bog'lanishiga va endotelial hujayralardagi retseptorlar faollashishiga to'sqinlik qiladi [17]. Trastuzumab qarshiligini VEGFR-2 ingibitorlari, masalan, ramucirumab kabi angiogenez

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1434-1440

ingibitorlari orqali bartaraf etish mumkin. So'ngi nashr etilgan tadqiqot natijalariga ko'ra HER2-musbat metastatik me'da saratoni bilan og'rigan bemorlarda trastuzumabni davom ettirish klinik samaradorlikka ega [18]. Biroq, prospektiv va retrospektiv tadqiqotlar birinchi qatorli trastuzumab va kimyoterapiya kombinatsiyasida kasallik progressiyasi yuzaga kelgan bemorlarda ikkinchi qator sifatida trastuzumab kombinatsiyalaridan foydalanish UY va KHY kabi muhim prognostik omillardagi sezilarli farqni yo'q ekanligini ko'rsatadi [9,15,18]. Birinchi qator sifatida 5-FU va platina unumi olgan bemorlarning tadqiqot qilinganida, platsebo va irinotekan guruhi (7,0 oy; 95% CI: 3.4–14.6) ikkinchi qator ramusirumab va irinotekan kombinatsiyasi bilan solishtirganda yuqori o'rtacha UY (11,4 oy; 95% CI: 7,0-17,9) erishilganligini kuzatishimiz mumkin. Ramucirumab va irinotekan guruhida KHY platsebo va irinotekan guruhiga nisbatan uzun ekanligini ko'rishingiz mumkin. Hozirgi vaqtda ramucirumab uchun davo samarasini boholaydigan aniq biomarkerlar mavjud emas, shuning uchun davolanishdayuqori samaradorlikka erishadigan bemorlarni tanlash qiyin. VEGF yo'li bilan bog'liq bo'lgan asoratlar alohida qiziqish uyg'otdi: qon ketish hodisalari, gipertenziya, oshqozon-ichakdan qon ketishi va proteinuriya. Ushbu kichik guruh tahlilining cheklovlari kichik namuna hajmi va bu retrospektiv tahlil bo'lib, etarlicha quvvatga ega emas edi. Davolanish vositalarining samaradorligi va xavfsizligi bo'yicha kuzatilgan raqamli farqni statistik jihatdan ahamiyatli deb hisoblash mumkin emas va bemorlar trastuzumab bilan oldingi terapiyaning kichik guruhida randomizatsiyalanmaganligi bilan izohlashda qo'shimcha qiyinchilik tug'diradi. Bizning kichik guruh tahlilimiz, namuna hajmi bilan cheklangan bo'lsa-da, ramucirumabga asoslangan terapiyaning raqamli klinik afzalliklarini aniqladi. Oldindan trastuzumab olmagan bemorlarda ramucirumab asosidagi kombinatsiyalangan terapiyaning klinik afzalliklarini tasdiqlash uchun istiqbolli klinik tadkikotlarda qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish talab etiladi.

XULOSA

So'nggi sinovlar shuni ko'rsatdiki, HER+ manfiy bo'lgan metastatik me'da saratonida birinchi va ikkinchi qator davoni tanlashda yetarlicha samarali vositalar mavjud emas (trastuzumab). Ushbu kichik guruh tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, ramucirumab irinotekan bilan birgalikda HER+ manfiy bo'lgan metastatik me'da adenoikarsinomali bemorlarda davolashning boshqariladigan asoratlarining kamligi bilan samarali. Ramucirumabning irinotekan bilan birgalikda qo'llanilishi birinchi

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1434-1440

qator terapiyadan qat'i nazar, bemorlar uchun standart tibbiy yordam bo'lib qolmoqda.

REFERENCES

1. Berse B., Brown L., Van de Water L., et al.: Vascular permeability factor (vascular endothelial growth factor) gene is expressed differentially in normal tis- sues, macrophages and tumors./ Mol. Biol. Cell, 1992; 3:211-220.
2. Blanke C, Haller D, Benson A., et al. A phase II study of irinotecan with 5-fluorouracil and leucovorin in patients with previously untreated gastric adenocarcinoma. Ann Oncol 2001; 12: 1575-1580.
3. Gallamini A., Borra A. Role of PET in gastric cancer. Curr. Treat. Options Oncol. 2014. 15: P.248–261.
4. Koss L.G., Melamed M.R. Koss Diagnostic Cytology and Its Histopathologic Basis. Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins, 2006.
5. Pouget J.P., Navarro-Teulon I., Bardiès M., et al. Clinical radioimmunotherapy - the role of radiobiology. Nat. Rev. Clin. Oncol. 2011. 8: P.720–734.
6. Tubbs R.R., Stoler M.H. Cell and Tissue Based Molecular Pathology E-Book. Philadelphia: Elsevier Health Sciences, 2009. P. 452
7. Younes A. Beyond chemotherapy: new agents for targeted treatment of gastric cancer. Nat Rev Clin Oncol 2011; 8: P.85–96.
8. Zeldis JB, Knight R, Hussein M, et al. A review of the history, properties, and use of the immunomodulatory compound lenalidomide. Ann N Y Acad Sci 2011; 1222:P.76–82.
9. Cunningham D, Starling N, Rao S, et al. Capecitabine and Oxaliplatin for Advanced Esophagogastric Cancer. N. Engl. J. Med., Jan 2008; 358: 36 – 46
10. Edwards P. et al. Prospective comparison of Dl vs modified D2 gastrectomy for carcinoma // Br. J. Cancer. - 2004. - Vol. 90, N 10. - P. 1888-1892.
11. Eliuahu D., Michalooilz D., Oren M., et al Overexpression p53 antigen makes established cells highly tumor nic//Ibid. - 1985. - Vol. 3. - P. 158-160.
12. Ellis L.M., Liu W., et al. Vascular endothelial growth factor (VEGF) expression and alternate splicing in non-metastatic and metastatic human colon cancer cell lines./Proc. Am. Assoc. Cancer Res., 1995; 36: 88a
13. Eroglu A., Demirci S., Ayyildiz A., et al. Serum concentrations of vascular endothelial growth factor and nitrite as an estimate of in vivo nitric oxide in pa-tients with gastric cancer. Br J Cancer 80:1630-1634, 1999.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1434-1440

14. Ferrara N., Alitalo K., et al. Clinical applications of angiogenic growth factors and their inhibitors./Nat. Med., 1999; 5: 1359-1364.
15. Ferrara N., et al. Vascular endothelial growth factor: molecular and biological aspects./ Curr. Top. Microbiol., Immunol., 1999; 237: 1-30.
16. Ferrara N., Henzel W., et al. Pituitary follicular cells secrete a novel heparin-binding growth factor specific for vascular endothelial cells./ Biochem. Bio-phys. Res. Comraun., 1989; 161: 851-858.
Спорт ва ҳаракатли ўйинлар, айниқса, болалик ҳамда ўсмирлик ёшида чидамлиликни (умумий, тезлик-куч) комплекс ривожлантириш учун анча қўл келади. Шу билан бирга, шуни таъкидлаш жоизки, машғулот юкламаларини қатъий меъёрлаш, бошқариш ва ҳисобга олиш имкониятининг йўқлиги уларнинг муҳим камчилиги ҳисобланади. Умумий чидамлиликни ривожлантиришда келтирилган талабларга жавоб берадиган ациклик машқлар ёрдамида ҳам катта самарага эришиш мумкин. Одатда уларнинг самарадорлиги нафақат қандайдир алоҳида машқнинг бажарилиши билан, балки турли машқларни кўп марта такрорлаш орқали таъминланади. Шунинг эвазига етакчи функционал тизимларга зарур даражада таъсир кўрсатишга эришилади. Чидамлиликни комплекс ривожлантириш учун ёрдамчи восита сифатида нафас олиш машқларини қўллаш мақсадга мувофиқ: нафас олиш тезлиги, чуқурлиги ва маромини бошқарган ҳолда ўзгартириш; ўпка гипервентиляцияси ва меъёрланган нафасни ушлаб туриш; нафас олишни ҳаракат фазалари билан синхронлаштириш; ҳар хил типдаги: оғиздан ва бурундан, кўкракдан ва қориндан нафас олишни танлаб қўллаш. Чидамлиликни ривожлантириш учун ташқи муҳит омиллари - ҳаво ҳарорати, нисбий намлик, ультрабинафша нурлар, атмосфера босими ва бошқалардан мақсадли фойдаланиш машқларнинг самарадорлигини оширишга имкон беради. Иқлим шароитларининг ҳар қандай ўзгариши организмда физиологик ўзгаришларни келтириб чиқаради. Бунда организмнинг айнан ҳар қандай иқлим шароитига мослашиши муҳим эмас. Об-ҳаво-иқлим шароитлари ўзгаришига мослашиш натижасида вегетатив асаб тизимининг реактивлиги ошади, нафас олиш ва қон айланиш тезлашади, оксидланиш-тикланиш жараёнлари кучаяди ва натижада чидамлилик ортади. Атроф-муҳит омиллари орасида тоғ иқлими чидамлиликнинг ривожланишига кўпроқ таъсир кўрсатади. Бу унинг бир қатор ўзига хос хусусиятларига боғлиқ: паст атмосфера босими, кислороднинг паст парциал босими; ультрабинафша нурланишнинг юқори фаоллиги ва ҳ.к. Чидамлиликни ривожлантиришга қаратилган машғулотларни денгиз сатҳидан 1500 дан 2500 м гача баландликда ўтказиш мақсадга мувофиқдир. Умумий чидамлиликни ривожлантириш усулияти.Умумий чидамлиликни ривожлантириш жараёнида унинг намоён бўлишини чекловчи омилларга

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1458-1464

нисбатан машғулот таъсирини таъминлаш зарур. Бу қуйидаги вазифаларни кетма-кет ҳал қилишни тақозо этади:

-аэроб энергия таъминоти функционал тизимлари шиддатини ривожлантириш. Кислороднинг максимал истеъмол қилиниши (кислород максимал истеъмол қилиш) умумлаштирилган кўрсаткич ҳисобланади;

-энергия таъминотининг аэроб манбаи сиғимини ривожлантириш. Инсоннинг маълум бир ишни ушбу иш учун максимал кислород истеъмол қилиш даражасида имкон қадар узоқроқ бажариш қобилияти билан тавсифланади;

-аэроб энергия таъминотининг функционал тизимлари ҳаракатчанлигини такомиллаштириш;

- функционал ва техник тежамкорликни яхшилаш. Стандарт иш бирлиги учун энергия сарфланишининг камайиши билан тавсифланади;

- организмнинг буфер тизимлари қуввати ва сиғимини ҳамда уни рўёбга чиқариш имкониятларини ошириш. Инсоннинг организм ички муҳитидаги ўзгаришларни кўтариш қобилияти билан тавсифланади (тананинг ёшга хос ҳарорати, сут кислотасининг тўпланиши, тананинг алоҳида бўғинларидаги оғирликлар ва ҳ.к.). Кўрсатиб ўтилган вазифалар қатъий тартиблаштирилган ва мусобақа машқлари услублари ёрдамида самарали ҳал этилиши мумкин. Умумий чидамлиликни ривожлантириш бўйича машғулотлар давомийлигини аниқлашда мушак иши энергия таъминотининг ҳосил бўлиш вақти ва йўлларини ҳисобга олиш зарур.

(1.1-жадвал).

Мушак ишининг энергия таъминоти.

Манбалар	Ҳосил бўлиш йўллари	Ҳосил бўлиш вақти	Амал қилиш муддати	Энергиянинг максимал ажралиш давомийлиги
Алактат - анаэроб	АТФ, креатин фосфат	0	25 сониягача	10 сониягача
Лактат - анаэроб	Лактат ҳосил бўлиши билан гликолиз	15-20	25 сония дан 5-6 дақиқагача	30 сония дан 2 дақиқа 10 сония гача
Аэроб	Ҳаводаги кислород билан углеводлар ва ёғларнингоксидланиши	90-180	Бир неча соатларгача	2-5 дақиқа

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1458-1464

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Аэроб имкониятларни ошириш устида ишлаш жараёнида аэроб жараёнлар шиддатини такомиллаштириш зарурати юзага келади. Бу жараён кислородни максимал истеъмол қилиш ва аэроб унумдорликнинг юқори кўрсаткичларини узоқ вақт давомида ушлаб туриш қобилиятида намоён бўладиган аэроб жараёнлар сиғими катталиклари билан ифодаланади. Кўпчилик мутахассислар лактат остонасини инсоннинг чидамлиликни талаб этувчи жисмоний юкламани бажаришдаги потенциал имкониятининг ишончли кўрсаткичи деб ҳисоблайдилар. Лактат остонаси тинч ҳолат учун хос бўлган даражалардан ташқари, кўпайиб борувчи шиддатли жисмоний юклама пайтида лактатнинг қондаги аккумуляциясининг бошланиш пайти сифатида белгиланади. Агар мушак фаолияти шиддати кичик ёки ўрта бўлса, лактат даражаси тинч ҳолатдаги кўрсаткичдан фақат бирмунча ортиқ бўлади. Шиддатнинг ошиши лактатнинг янада тез аккумуляциясига олиб келади.

Айрим тадқиқотчиларнинг ишлари лактат остонаси анаэроб гликолиз томонга анча силжишини акс эттиради. Бунинг натижасида лактат ҳосил бўлади. Анаэроб алмашинув остонаси деганда юкламанинг шиддат зонаси тушунилади. Бу ҳолатда ишлаётган мушакларда сут кислотасининг ҳосил бўлиши ва унинг бошқа органларда қайта ишланиши ўртасида мувозанат сақланади. Лактат остонаси ва мушакдаги анаэроб метаболизм орасидаги ўзаро боғлиқликка тааллуқли анча қарама-қаршиликлар мавжуд. Мушаклар лактат остонасига эришишдан анча олдин лактат ҳосил қиладилар, бироқ уни бошқа тўқималар чиқаради. Бундан ташқари, узлуксизликнинг ажралиш нуқтаси ҳар доим ҳам кўзга кўринмайди. Шу сабабли мутахассислар кўпинча истеъмол қилинадиган кислород литрга нисбатан лактатнинг 2,0 ёки 4,0 ммоль кўрсаткичини эркин белгилайдилар. Бу қонда лактат аккумуляциясининг эталон бошланиш пайти ёки ишнинг бошланиш нуқтасидир. Лактат остонаси одатда кислород максимал истеъмол қилиш фоизларида ифодаланади. Юқори шиддатли ишни лактат тўпламаган ҳолда бажариш қобилияти катта аҳамиятга эга, чунки лактатнинг ҳосил бўлиши чарчоқни кучайтиради. Демак, кислород максимал истеъмол қилиш 80% бўлганда лактат остонаси кислород максимал истеъмол қилиш 60% бўлгандаги лактат остонасига нисбатан жисмоний юкламаларга бўлган яхши толерантлик тўғрисида гувоҳлик беради. Кислород максимал истеъмол қилиш бир хил бўлган иккита кишидан биронтасида лактат остонаси юқори бўлса, шу кишида чидамлиликни талаб қилувчи жисмоний

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1458-1464

фаолият даражаси анча юқори бўлади. Кишининг машқларда чиниққанлик даражасига қараб анаэроб алмашинув остонаси 65-90% кислород максимал истеъмол қилиш атрофида бўлади. Бу юрак қисқариш тезлиги дақиқада 150 дан 180 зарбагача бўлган кўрсаткичга мос келади.

ХУЛОСА

Юрак қисқариш тезлигининг остона кўрсаткичларига ҳам таяниш мумкин. Ўртача жисмоний тайёргарликка эга кишиларда анаэроб алмашинув остонаси индивидуал максимал юрак қисқариш тезлиги дан дақиқада 50-60 зарбага паст бўлган юрак қисқариш тезлиги даражасида чегараланади. Ушбу юклама режимини жисмонан ўртача ва яхши тайёрланган, шахсий аэроб энергия таъминоти режимида сифатли тайёргарлик кўрган кишилар билан ишлаганда қўллаш мумкин. Умумий чидамлиликни ривожлантиришни узлуксиз стандартлаштирилган машқлар услубини қўллаш билан бошлаш мақсадга мувофиқ. Машқларнинг оптимал давомийлиги жисмонан бўш тайёрланган кишилар учун 20-30 дақиқадан тортиб то юқори даражада чидамлилик намоён қилинадиган спорт турларида ихтисослашувчи малакали спортчилар учун бир неча соатларгача бўлади. Лекин узлуксиз юкламанинг оптимал давомийлигини аста-секин ошириб бориш лозим. Шуни ёдда тутиш зарурки, чарчаш юклама давомийлигидан кўра кўпроқ унинг шиддатига боғлиқ. Шунинг учун аввал узлуксиз юкламанинг зарур бўлган давомийлигига эришиш керак. Машғулотларни меъёрланган тезкор юришни енгил югуриш билан (кўпроқ юриш билан) бирга қўллаш орқали бошлаш мақсадга мувофиқдир.

REFERENCES

1. Сухорукова, И. С. (2018). Баркамол авлодни тарбиялашда жисмоний тарбия ва спортнинг роли. *Жисмоний тарбия ва спорт сохасини ривожлвнтириш истиқболлари: муаммо ечимлар*, 155-157.
2. Сухорукова, и. С. (2019). Коррупцияга қарши курашишнинг очиқлик ва шаффофлик принципи. *Коррупция ва жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легеллаштиришга қарши курашишнинг ҳуқуқий жиҳатлари*, 191-195.
3. Холбоева, Ш. (2019). Коррупцияга қарши курашишда қонунийлик принципининг ўзига хос жиҳатлари. *Коррупция ва жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легеллаштиришга қарши курашишнинг ҳуқуқий жиҳатлари, 191-195*, 187-190.
4. Холбоева, Ш. (2019). Ўсмир қизларнинг спортдаги роли ва ўрни. *Хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва манфаатлари ҳимояси:тажриба , таҳлил ва натижа*, 187-190.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1465-1471

ЮГУРИШ ВА ЧИДАМЛИЛИК

Адахамжон Алимжонович Турсунов
Андижон давлат университети факультетлараро жисмоний маданият ва спорт кафедраси

АННОТАЦИЯ

Ёш спортчилар машғулотининг тайёргарлик даврида паст ва ўртача шиддатли машқларни қўллаш мақсадга мувофиқдир. Уларнинг ҳажми сузиш ёки югуришнинг умумий ҳажмидан 65% ни ташкил этиши лозим. Бу умумий чидамлилик ва бошқа жисмоний сифатларнинг ўсишига ижобий таъсир кўрсатади ҳамда шу орқали турли масофаларда спорт натижаларининг яхшиланишига қулай шароит яратиб беради.

Калит сузлар: соматик тизим, гавда айланаси, гавда массаси, бир текис югуриш, томир уриш, кислород, спорт машгулотлари.

RUNNING AND ENDURANCE

ABSTRACT

It is advisable to use low and moderate intensity exercises during the training period of young athletes. Their volume should be 65% of the total volume of swimming or running. This has a positive effect on the growth of overall endurance and other physical qualities, and thus creates favorable conditions for the improvement of sports results at different distances

Keywords: somatic system, body circumference, body mass, a flat run, pulse, oxygen, exercise.

КИРИШ

10 ёшдаги ўғил болаларда гавда массаси кўрсаткичи соматик тизим тўғрисида кўп ахборот бера олади. У айлана ўлчамлари билан ўзаро боғлиқликда бўлади. Ушбу белгининг ўртача боғлиқлиги узунлик параметрлари ва гавда диаметрлари билан кузатилади. Билак айланаси гавда айланаси билан r=0,70-0,90 даражада, узунлик ўлчамлари билан r=0,40-0,60 ва гавда диаметри билан ўзаро боғлиқ.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1465-1471

Шундай қилиб, гавданинг ҳамма айлана ўлчамлари 10 ёшдаги ўғил болаларда бир-бири билан юқори даражада боғлиқликка эга. Қўл ва оёқлар узунлигига келсак, уларнинг ўзаро боғлиқлик даражаси r=0,78-0,87 га тенг. Елка диаметри ҳам шу белгиларда боғлиқ бўлади. Қолган диаметрлар билан узунлик ўлчамлари ўртача даражада боғлиқликка эга. Ёғ тўпланиш даражасини ифодаловчи параметр ҳам кам боғлиқликка эга. Гавда диаметрлари r=0,60-0,70 даражада бир-бири билан ўзаро боғлиқ. Ёғ тўпланиш даражаси катта даражада айлана ўлчамлари билан ва кам даражада узунлик параметрлари ҳамда гавда диаметри билан ўзаро боғлиқ.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Олинган маълумотлар шундан далолат берадики, юқори даражадаги боғлиқлик гавданинг айлана ўлчамлари, гавда массаси ва ёғ тўпланиш даражаси орасида, узунлик параметрлари, гавда диаметри орасида кузатилади. 11 ёшдаги болаларда ўрганилаётган белгилар орасида бирмунча бошқа боғлиқлик кузатилади. Энг ахборотли белги-гавда массаси-иккинчи ўринга ўтади, биринчи ўринга эса (ахборотлилиги бўйича) кўкрак қафаси айланаси чиқади. Улар ўртасидаги корреляция фарқи катта эмас, r=0,12 боғлиқликни ташкил этади. Бу белгилар ҳамма бошқа-айлана, узунлик ва гавда диаметрлари билан юқори даражада боғлиқликда бўлади.

Гавда вазни ва кўндаланг кўкрак диаметри орасидаги кучсиз ўзаро боғлиқлик бундан мустасно. Айлана ўлчамлари, олдинги ёшдаги каби, ўзаро катта даражада боғлиқликка эга. Бу боғлиқлик узунлик параметрлари билан r=0,60-0,70, диаметрлар билан r=0,5-0,70, ёғ тўпланиш билан r=0,70-0,80 даражада туради.

Узунлик параметрлари, олдинги ёшдаги каби, бир-бирига юқори даражада боғлиқ. Гавда диаметрлари орасида битта ҳолда ўртача, бошқасида ўртадан паст боғлиқликка эга.

Ёғ тўпланиш даражаси айлана ўлчамлари билан юқори, узунлик ва гавда диаметрлари билан паст ўзаро боғлиқликка эга.

12 ёшдаги соматик тизим омиллари ўртасидаги боғлиқлик бирмунча пасаяди, яъни ахборотлилик бўйича катта ўзгаришлар содир бўлмайди. Олдинги ёшлардагига ўхшаб, айлана ўлчамлари, гавда массаси ахборотли ва юқори даражада боғлиқликка эга.

Энг катта боғлиқлик гавда массаси, елка ва билак айланалари орасида

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1465-1471

кузатилади. Айлана ўлчамлари ва гавда массаси узунлик параметрлари билан кучсиз боғлиқликка эга. Баъзи ҳолларда у жуда кучсиз. Бир вақтнинг ўзида гавда,қўллар ва оёқлар узуниги 0,80-0,90 даражада умумий узунлик омилига ўзаро боғлиқ. Гавда диаметрлари орасида ўзаро боғлиқликнинг пасайиши кузатилади. Ёғ тўпланиш юқори, узунлик параметрлари ва гавда диаметрлари билан кам боғлиқликка эга.

Ички узунлик, айлана ўлчамлари ва гавда диаметрларининг ўзаро боғлиқлиги олдинги ёшларда кузатилган даражага мос. Уларнинг ахборотлилик аҳамияти бирмунча ўзгарди.

Шундай қилиб, 10,11,12 ёшдаги ўғил болаларда организмнинг ўсиши ва ривожланиши билан белгилар орасидаги ўзаро боғлиқликда ўзгаришлар кузатилади.

Машқлар давомида юрак қисқаришлари тезлиги (юрак қисқариш тезлиги) дақиқада 130-150 зарба атрофида бўлади. Иш кислород режими бўйича шиддатли турғун шароитларда кечади ва самарадорликни пасайтирмасдан бажарилиши мумкин.

Асосан паст суръатда тўлиқ координацияли ҳаракатлар билан сузиш қўлланилади. Тадкикотчиларнинг таъкидлашича, умумий чидамлилик қуйидаги услублар билан ривожлантирилади: равон ёки масофали услуб. Спортчи 20 дақиқа ичида бир текис (равон) режимда томир уриши дақиқада 150-160 зарба атрофида бўлади. Қуруқликда 20 дақиқадан 1 соат 10 дақиқагача давом этадиган кросс югуриши, чанғида югуриш ёки эшкак эшиш (3 соатгача) қўлланилганда иш шиддатига кўра томир уриш тезлиги дақиқада 165-180 зарбагача ошади. Бундай иш режими умумий чидамлиликни ошириш учун самарали ҳисобланади. Иш давомийлиги 45-90 сония атрофида, яъни 50-100 м белгиланади. Дам олиш оралиғи шундай белгиланадики, танаффус охирида томир уриши дақиқада 100-120 зарбагача пасайиши лозим.

Масофалар ўртасида дам олиш суст (масофали услуб) ёки фаол (ўзгарувчан услуб) бўлиши мумкин. Тайёргарлик даврида умумий чидамлиликни оширишга катта эътибор беришган. Ёш спортчилар машғулотининг тайёргарлик даврида паст ва ўртача шиддатли машқларни қўллаш мақсадга мувофиқдир. Уларнинг ҳажми сузиш ёки югуришнинг умумий ҳажмидан 65% ни ташкил этиши лозим. Бу умумий чидамлилик ва бошқа жисмоний сифатларнинг ўсишига ижобий таъсир кўрсатади ҳамда шу орқали турли масофаларда спорт натижаларининг яхшиланишига қулай шароит

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1465-1471

яратиб беради. Бу даврда узоқ масофаларга турли усулларда югуриш учун алоҳида ўрин ажратилади. Нисбатан катта бўлмаган шиддатда узоқ ишлаш умумий чидамлилик ривожланишини юқори даражага кўтаради ва кейинчалик юқори шиддатда бажариладиган югуришларнинг оғриқсиз енгил ўтишга имкон беради. Ёш спортчиларнинг умумий чидамлилигини тарбиялашда сузиш тайёргарлиги асосий услубларининг (равон, ўзгарувчан, оралиқли, такрорий) салбий нисбати муҳим аҳамиятга эга.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Умумий чидамлиликни оширишнинг асосий шарти - бу паст ва катта шиддатдаги ишга мувофиқ келадиган режимда машғулот юкламаларини узоқ вақт бажаришдир. Машғулот юкламасининг ҳажми катта бўлиши керак, чунки умумий чидамлиликнинг асосий таркиби уни узоқ вақт сақлаб туришни тақозо этади. Ушбу асосий тамойилларга мувофиқ умумий чидамлиликни ривожлантиришга қаратилган машғулотда равон ва ўзгарувчан услублар қўлланиши мумкин.

Умумий чидамлиликни ривожлантиришга қаратилган машғулотларда равон ва ўзгарувчан услубларни қўллашни тавсия этади. Бир текис услубли машғулот деганда 1500 м ва ундан катта масофаларга томир уриши дақиқада 140 дан 150 зарбагача бўлганда узоқ давом этадиган узлуксиз сузиш назарда тутилади (масалан, 1 марта 500 м, 2-3 марта 300 м).

Қуруқликда шуғулланганда тайёргарлик давринининг биринчи ярмида 20 м дан 3000 м гача кросс югуриши турли шиддатдаги юклама алмашинувини назарда тутади. Бу алмашинув ритмик (юқори шиддатдаги ишнинг бир хил даври билан бирга бир хил дам олиш даврлари) ёки аритмик бўлиши мумкин.

Аритмик алмашинув турларидан бири «Фартлек» (тезлик ўйинлари) ҳисобланади. Тайёргарлик давринининг биринчи босқичида «Фартлек» анча катта бўлакларни ўтишни ўз ичига олади юрак кискаришлари тезлиги (юрак қисқариш тезлиги дақиқада 150 дан 170 зарбагача). Мусобақа даврига яқин ўтиладиган бўлаклар анча қисқаради, тезлик ошади, томир уриши дақиқада 170-180 зарбагача етади.

Машғулотда аэроб имкониятларни ошириш учун оралиқли ва масофали услублар кенг қўлланилади. Масофалар ёки бўлакларни югуриб ўтиш текис ва ўзгарувчан режимларда амалга оширилади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1465-1471

Аэроб имкониятларни ошириш мақсадида оралиқли услубни қўллай туриб, қуйидаги тамойилларга амал қилиш зарур:

1. Айрим бўлакларни ўтиш давомийлиги 1-2 дақиқадан ошмаслиги лозим.

2. Машғулот жараёни узунлигига қараб дам олиш оралиқлари давомийлиги 40-90 сония атрофида бўлади.

3. Машқларни бажаришда иш шиддатини аниқлаётиб юрак-томир уриши тезлигини ҳисобга олиш лозим (дақиқада 150-160 зарба иш охирида, 120-130 зарба фаза якунида).

Машғулотда қуйидаги асосий ҳолатларни эътиборга олиш зарур. Иш шиддати юрак - томир уриш ҳажмининг ва кислород истеъмол қилиш даражасининг юқори ўлчамини таъминлаши лозим.

10 дақиқадан 1,5 соатгача бўлган иш бундай шароитларга жавоб беради. Сузишда бу 800 дан 1500 м узунликдаги масофа бўлиб, у томир уриши дақиқада 145-175 зарба атрофида босиб ўтилади.

Ушбу услублардан ташқари, аэроб хусусиятдаги ишда чидамлиликни ривожлантириш учун ўзгарувчан тезликдаги масофали югуриш кенг қўлланилади. Бунда нисбатан юқори ва нисбатан паст тезликда югуриш ўтиладиган бўлакларнинг алмашинуви «шиддатли» бўлак охирида юрак қисқариш тезлигини 140 зарбагача оширишни талаб этади.

Юқорида билдирилган фикрлардан келиб чиқиб, шундай хулоса қилиш мумкинки, кўпчилик муаллифларнинг фикрига кўра, умумий чидамлиликни бир текис ва оралиқли услублар ёрдамида ривожлантириш зарурлигини таъкидлайдилар. Бироқ мазкур услубларнинг макроциклда қай тарзда уйғунлашишига бефарқ қараб бўлмайди. Уларнинг қуйидагича уйғунлашуви самарали ҳисобланади, яъни бунда турли услублар доирасида бажариладиган машқлар нисбати ўлчанади: аввал (тайёргарлик даврининг биринчи қисмида) ишнинг умумий ҳажми бир текис (равон) сузиш асосида, кейинчалик эса тайёргарлик даврининг охирида ва мусобақа даврининг бошида оралиқли услубда бажарилади. Бундай нисбат аэроб имкониятларнинг ҳар томонлама ривожланишига ёрдам беради,бошқа сифатлар ва қобилиятларни ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади.

Машғулот жараёнида қуйидаги асосий услублар: текис, ўзгарувчан, оралиқли, такрорий, мусобақа услублари қўлланилади. Улар бир-биридан масофасининг узунлиги, югуриш шиддати, сузиб ўтиладиган масофалар сони ва дам олиш хусусиятига қараб ажралиб туради. Юклама ўлчамлари

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1465-1471

ўзгартирилганда машғулот асосан тезлик, умумий чидамлилик ёки махсус чидамлиликни тарбиялашга қаратилган йўналишга эга бўлади. 8х25 м бўлаклар серияларида бутун куч билан деярли тўлиқ тиклангунга қадар сузиш тезлигини тарбиялашга, 1500-3000 м. га кичик тезликда бир текис сузиш - умумий чидамлиликни ривожлантиришга, 6х200 м ни максимал тезликдан 85-90% шиддатда 1,5-2 дақиқа дам олиш билан сузиш – махсус чидамлиликни тарбиялашга қаратилган.

Текис машғулот услуби 400 м. дан 1500 м. гача ва ундан катта масофаларда бир текис тезликда сузишни назарда тутади. Бундай сузиш организм ҳамма тизимларининг ҳамоҳанг ишлашига ёрдам беради ва сузувчининг сувда тежамкорлик билан ҳаракат қилишига, шунингдек, ишлаётган мушакларнинг зўриқиши ва ушлашини алмашиб туришга ўргатади, томир уриши 10 сония ичида 20-25 зарба атрофида бўлади.

Масофа узунлиги тайёргарлик даражасига боғлиқ. Масалан, III ва II разрядли спортчилар 800-1500 м. гача, юқори малакали сузувчилар ундан ортиқ сузадилар.

Ўзгарувчан услуб турли шиддатдаги юкламаларнинг алмашиб туришидан иборат. Спортчи юқори тезликда масофа бўлагини (масалан, 500м) югуриб ўтиб, анча паст тезликда давом эттиради. Юқори тезликда ва ҳотиржам югуриб ўтиладиган бўлаклар узунлиги нисбати спортчи тайёргарлигига боғлиқ. Юқори шиддат билан югуриб ўтиладиган бўлаклардаги ўртача тезликда ушбу услуб умумий чидамлиликни оширишига, анча тез - махсус чидамлиликни тарбиялашга ёрдам беради.

Оралиқли машғулотда иккита йўналиш ажратилади - умумий ва махсус чидамлиликни ривожлантириш.

ХУЛОСА

Шундай қилиб, юқорида баён қилинганларга хулоса тариқасида айтиш мумкинки, умумий чидамлиликни тарбиялаш учун спорт машғулотининг комплекс услубларидан фойдаланиш ҳамда чидамлиликни ривожлантириш мақсадида шуғулланувчилар ёши ва тайёргарлик даражасига мувофиқ ҳолда югуриш ва сузиш воситаларини танлаш зарур.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1465-1471

REFERENCES

1. Сухорукова, И. С. (2018). Баркамол авлодни тарбиялашда жисмоний тарбия ва спортнинг роли. *Жисмоний тарбия ва спорт сохасини ривожлвнтириш истиқболлари: муаммо ечимлар*, 155-157.
2. Сухорукова, и. С. (2019). Коррупцияга қарши курашишнинг очиқлик ва шаффофлик принципи. *Коррупция ва жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легеллаштиришга қарши курашишнинг ҳуқуқий жиҳатлари*, 191-195.
3. Холбоева, Ш. (2019). Коррупцияга қарши курашишда қонунийлик принципининг ўзига хос жиҳатлари. *Коррупция ва жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легеллаштиришга қарши курашишнинг ҳуқуқий жиҳатлари, 191-195*, 187-190.
4. Холбоева, Ш. (2019). Ўсмир қизларнинг спортдаги роли ва ўрни. *Хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва манфаатлари ҳимояси:тажриба , таҳлил ва натижа*, 187-190.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1472-1476

ҚОРӢ РАҲМАТУЛЛОҲИ ВОЗЕҲ ВА АНЪАНАИ ТАЗКИРАНИГОРӢ ДАР НИМАИ ДУЮМИ АСРИ XIX

Парвизҷон Махамадзода Ахмадҷонов
Муаллими Донишгоҳи давлатии Фарғона
parviz95axmadjonov@gmail.com

АННОТАТСИЯ

Дар ин мақола, доир ба мавқеъ ва арзиши тазкираи “Тӯҳфат-ул-аҳбоб”-и Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳ маълумот дода шудааст, ки он яке аз сарчашмаҳои муҳими нимаи дуюми асри XIX ва ибтидои асри XX ба ҳисоб меравад. Тазкиранигорони баъдина ба “Тӯҳфат-ул-аҳбоб” такя намуда, асарҳои худро таълиф кардаанд ва анъанаи тазкиранигориро идома додаанд. Инчунин дар мақола барои муайян кардани мавқеи “Тӯҳфат-ул-аҳбоб” дар нимаи дуюми асри XIX ва анъанаи тазкиранигорӣ дар ин аҳд баъзе фикру мулоҳизоти пажӯҳишгарони соҳаи адабиёт муқоисатан таҳлилу баррасӣ шудааст, ки ба манбаи дараҷаи аввал будани ин тазкира дар давраи мазкур далел шуда метавонанд.

ABSTRACT

This article provides information on the position and value of Qori Rahmatullohi Vozeh's commentary on Tuhfat-ul-Ahbob, which is one of the most important sources of the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century. Later commentators, relying on Tuhfat-ul-Ahbob, wrote their works and continued the tradition of tazkirani. The article also analyzes some of the views of literary scholars to determine the position of "Tuhfat-ul-Ahbob" in the second half of the XIX century and the tradition of narration in this period, which can be considered as the primary source of this commentary in this period.

Вожаҳои калидӣ: Тазкира, “Тӯҳфат-ул-аҳбоб”, Қорӣ Раҳматуллоҳ, Возеҳ, анъанаи тазкиранигорӣ, сарчашмаи мӯътамад, пайравӣ, назира.

САРСУХАН

Дар нимаи дуюми асри XIX ва ибтидои асри XX чанде тазкиранависон, аз ҷумла Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳ, Мирсиддиқи Ҳашмат, Ҳоҷӣ Абдулазими Шаръӣ, Абдуллоҳхоҷаи Абдӣ, Афзал - махдуми Пирмастӣ, Ҳоҷи Неъматуллоҳи

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1472-1476

Мӯҳтарам тазкираҳое офаридаанд, ки имрӯзҳо барои таҳқиқу донистани адабиёти давраи мазкур ва баррасии масоили мухталифи ҷараёни адабии давр хеле аҳамиятнок буда, тадқиқ намудани ин тазкираҳо тасаввуроти моро бобати вазъи адабиёти нимаи дуюми асри XIX ва ибтидои асри XX мукаммалтар мекунад.

Доктори илмҳои филологӣ, профессор Х.Асозода дар китоби “Адабиёти тоҷик дар садаи XX”- и худ навиштааст: “... чанд тан аз адибони адабиёти поёни қарни XIX ва ибтидои асри XX-умро мавриди баҳси иҷтимоӣ қарор медиҳем, ки аввалтар аз шахсияти Раҳматуллоҳи Возеҳ (1817-1894) ёдовар мешавем, ки ишон бо тазкираи арзишманди “Тӯҳфат-ул-аҳбоб” ва сафарномае дар боби Ҳиҷоз миёни адибон ва равшанфикрон маъруф мебошад” [4, с-14].

Аз адибони адабиёти поёни қарни XIX ва ибтидои асри XX аввалтар аз шахсияти Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳ ёдовар шудани профессор Х.Асозода бесабаб нест. Чунки аз охири чаҳоряки асри XIX сар карда ҳаёти адабӣ дар марказҳои мадании аморати Бухоро боз ба ҷунбиш омада буд. Шаҳри Бухоро дар муттаҳид намудани дастаи эҷодкорони ҳамммаслак ва сарварӣ намудани ин ҷунбиши адабӣ мавқеи муҳимме ишғол намуд.

ТАҲЛИЛИ АДАБИЁТҲО ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Дар охири нимаи аввали асри XIX муҳити адабии Бухоро ба дараҷаи зиёде тавсиа меёбад. Ба воситаи Бухоро, ки ҳамчун маркази қувваҳои адабии ин кишвар шӯҳрат ва мақоми қалоне пайдо кард, робитаи эҷодии намояндагони адабии гӯшаву канорҳои дурдасти аморат мустаҳкамтар гардид ва ин барои ташаккул ёфтани равия ва сабки ягонаи ин муҳити адабӣ шароити мувофиқро ба вуҷуд овард. Ривоҷ ёфтани ҳаёти адабӣ бошад бисёр жанр ва анъанаҳои фаромӯшшудаи адабиёти классикиро, аз ҷумла анъанаи таълифи тазкираро аз нав зиндву эҳё кард ва аввалин шахсе, ки равияю анъанаи тазкиранависиро дар ин давра ҷони дигару таровати тоза бахшидааст, маҳз Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳ — муаллифи тазкираи «Тӯҳфат-ул-аҳбоб фӣ тазкират-ил-асҳоб» мебошад. Тамоми муаллифоне, ки пас аз Возеҳ тазкира тартиб додаанд, пешқадамии ӯро эътироф намуда, асарҳои ҳамтипи худро асосан мутобиқи тамоюли тазкираофарии вай ва ба равияи махсуси ӯ ҳамчун давоми структуруалии тазкираи ӯ навиштаанд. Ба фикри мо профессор Х.Асозода ҳамин ҷиҳатҳоро ба эътибор гирифта, дар миёни адибон ва равшанфикрони

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1472-1476

адабиёти поёни қарни XIX ва ибтидои асри XX Раҳматуллоҳи Возеҳро маъруф ҳисобида, аввалтар аз шахсияти ӯ маълумот додааст.

Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳ зодаи шаҳри Бухоро аст. Вай баъди таҳсили мактаб мутолиаро дар дабиристони қориён идома дода, бисёре аз илмҳои замонаашро аз устоди мадрасавиаш Домулло Ҳоҷибои Хӯҷандӣ омӯхтааст. Ӯ ба се забон: тоҷикӣ, арабӣ ва туркӣ шеър гуфтааст.Тазкираи ӯ “Тӯҳфату-л-аҳбоб фӣ тазкирати-л-асҳоб”, ки дар соли 1871 навишта ба охир расонида шудааст, чи хеле ки дар боло гуфта шуд, барои тазкиранависони баъдина ҳамчун манбаи асосӣ хизмат кардааст. Яъне баъди таълиф шудани “Тӯҳфат-ул-аҳбоб...” чанде тазкиранависони баъдина, ки номи баъзеи онҳо дар боло зикр гардид, чун дар таърихи адабиётамон эҷодкорон ба мутафаккирони замони худ ё пеш аз худ пайравӣ мекарданд, ба Возеҳ ва “Тӯҳфат-ул-аҳбоб...”- и ӯ низ пайравӣ карда тазкираҳои худро таълиф намудаанд ва анъанаи тазкиранигориро ривоҷ додаанд. Бо вуҷуди ахбори як ё ду тазкира баъзан такрор, гоҳо якранг бошанд ҳам, ба фикри ман агар тазкиранигорон зиёд шаванд, тазкираҳо низ бештар бошанд, арзиши илмӣ-адабии онҳо афзуда, маълумотҳои онҳо қобили муқоиса мегарданд.

Адабиётшунос И.Эшонқулов тазкираҳои Мирсиддиқхони Ҳашмат ва Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳро муқоиса намуда менависад, ки “...дар қисми аввали “Тазкират-уш-шуаро”-и Мирсиддиқхони Ҳашмат рӯзгор ва осори 92 нафар шоирони форсизабон зикр шуда, аз онҳо 57 нафар дар такя ва истифодаи “Тӯҳфат-ул-аҳбоб”-и Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳ нигошта шудаанд. Ин нукта маънии онро надорад, ки ин ду тазкира айни ҳамдигар ҳастанд ва ё Мирсиддиқхони Ҳашмат тазкираи Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳро комилан рӯбардор карда бошад. Навоварие, ки Мирсиддиқхони Ҳашмат ҳини таълифи тазкира ба анҷом расонидааст, пеш аз ҳама, дар қисмати зикри шоирон ба иттилои Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳ илова кардани номи осори нави муаллифон, зикри асолати қавмию нажодии эшон, сабаби тасмияи тахаллус, нишон додани макони зист ва таърихи саҳеҳи валодату фавти адибон ва дигар ҷузъиёти муҳим ва нуктаҳои ҷолиб мебошанд ” [1, с-97].

НАТИҶАҲО

Агарчанде муҳаққиқ истиқлолияту имтиёзҳои услубӣ ва структуравии тазкираи Мирсиддиқи Ҳашматро эътироф карданӣ мешавад ва дар асоси фикри болоӣ Мирсиддиқхони Ҳашмати Бухороӣ, ки бо “Тазкират-уш-шуаро”-и худ

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1472-1476

дар қатори тазкиранигорони маъруфи адабиёти тоҷик шинохта шудааст, ба эътибори истиноди комили шарҳу ҳоли 57 нафар шуаро (ин рақамҳо кам нестанд. А.П.) яке аз пайравони Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳ ва идомадиҳандаи анъанаи тазкиранигорӣ гӯем хато намекунем.

Тазкиранигори дигари ин давра, ки бо таълифи “Афзал-ут-тазкор фӣ зикр-уш-шуаро ва-л-ашъор”- и Афзалмахдуми Пирмастӣ рушд мегирад, ба инкишофи илми адабиётшиносӣ саҳми сазовори худро гузоштааст, Афзал-махдуми Пирмастӣ мебошад. Ӯ низ ба тазкираи “Тӯҳфат-ул-аҳбоб...”- и Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳ такя намуда, “Афзал-ут-тазкор фӣ зикр-уш-шуаро ва-л-ашъор”- и худро ба анҷом расонидааст. “Тазкираи Афзал-махдуми Пирмастӣ, – мегӯяд, И.Эшонқулов, – пас аз тазкираи Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳ дуввумин тазкирае аст, ки баъди чандин соли сукути тазкиранависӣ дар Мовароуннаҳр рӯи кор омадааст. Аз ин лиҳоз, ба сифати сарчашмаи дасти аввал барои тазкираҳои Афзал-махдуми Пирмастӣ ва Мирсиддиқхони Ҳашмат “Тӯҳфат-ул-аҳбоб...”- и Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳ хидмат кардааст ” [1, с-114].

Инчунин И.Эшонқулов дар “Афзал-махдуми Пирмастӣ ва тазкираи ӯ” ном мақолаи хеш нисбат ба “Тӯҳфат-ул-аҳбоб...”- и Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳ ва “Афзал-ут-тазкор фӣ зикр-уш-шуаро ва-л-ашъор”- и Афзал-махдуми Пирмастӣ бештар таваҷҷӯҳ намуда, чунин қайд мекунад: “Чи хеле ки аз сайри таҳаввули тазкиранависӣ дар Мовароуннаҳр (бахусус, асрҳои XIX-XX) маълум аст, “Тӯҳфат-ул-аҳбоб...”- и Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳ ба сифати манбаи дасти аввал дар таълифи тазкираҳои баъдӣ хизмат кардааст. Афзал-махдуми Пирмастӣ низ баъзе аснод ва мадорики тазкираашро аз китоби Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳ гирифта, ҷо-ҷо идомаи суханро ба тазкираи мавсуф вогузоштааст. Ин ҳолатро метавон аз муаррифии адибоне чун Сарир, Зарир, Анбар, Маҷнун ва ғ. ба мушоҳида гирифт” [2, с-93].

МУҲОКИМА

Муҳаққиқи ҳамин давраи таърихи адабиёт С.Хӯҷақулов аҳамияти ба худ хоси илмӣ-адабӣ ва аз ҷиҳати характери худ дар байни тазкираҳои охири асри XIX мавқеи муайян доштани “Тӯҳфат-ул-аҳбоб...”- и Возеҳро эътироф намуда чунин таъкид менамояд: “Ин тазкираро аз ҷиҳати дастовардҳову маълумотҳо баъд аз тазкираи Малеҳои Самарқандӣ – “Музаккир-ул-асҳоб” дар ҷои дуюм гузоштан мумкин аст” [3, с-106]. Ба хубӣ медонем, ки “Музаккир-ул-асҳоб”- и Малеҳои Самарқандӣ дар поёни қарни XVII таълиф шудааст. Пас аз ин

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1472-1476

бармеояд, ки тазкираи “Тӯҳфат-ул-аҳбоб...”- и Возеҳ на танҳо дар замони таълифи худ яъне асри XIX тазкираи боэътимодтарин ба ҳисоб меравад, балки дар байни тазкираҳои қарни XVIII таълифшуда низ мавқеи намоён дорад. Инчунин тазкираи аввалтарин ва мукаммалтарини нимаи дуюми асри XIX ва ибтидои асри XX ба шумор меравад.

ХУЛОСА

Аз ин рӯ метавон чунин хулоса кард:

Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳ дар адабиёти нимаи дуюми асри XIX ва ибтидои асри XX маъруфтарин ва пешқадамтарини тазкиранигорон аст.

Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳ бо таълиф кардани “Тӯҳфат-ул-аҳбоб” анъанаи тазкиранигориро, ки яке аз анъанаҳои фаромӯшшуда ба ҳисоб мерафт, аз нав зинда кард.

Дар “Тӯҳфат-ул-аҳбоб”-и Возеҳ маълумотҳо муфассал оварда шудааст. Агар чунин намебуд дигарон тазкираҳои худро ҳамчун давоми тазкираи ӯ наменавиштанд.

Қорӣ Раҳматуллоҳи Возеҳ бо вуҷуди шоир ва нависанда буданаш бештар ҳамчун тазкиранигор машҳуртар аст.

Тазкираҳои баъди “Тӯҳфат-ул-аҳбоб” таълифшуда ҳам ҳамчун давоми тазкираи мазкур навишта шуда бошанд ҳам, маълумотҳои онҳо имрӯзҳо аз ҷониби пажӯҳишгарон муқоиса гардида, муҳити адабии нимаи дуюми асри XIX ва ибтидои асри XX-ро боз равшантар мегардонанд.

Дар умум гуфтан ҷоиз аст, ки ривоҷ ёфтани анъанаи тазкиранигорӣ дар адабиёти мо хеле зарур аст. Зеро, бештари маълумотҳои муҳими маънавӣ, маданӣ, сиёсии даврaҳои гузашта тавассути тазкираҳо то замони мо омада мерасанд.

REFERENCES

1. Илҳом Эшонқулов. Ҳашмати бухороӣ ва тазкираҳои ӯ. – Тошканд: “TURON IQBOL”, 2019.
2. Номаи донишгоҳ №2 (43). – Хуҷанд: 2015.
3. Сироҷиддин Хӯҷақулов. Адабиёти давраи бедории миллӣ. – Тошканд: Нашриёти илмии давлатӣ “Ӯзбекистон миллий энциклопедияси”, 2014.
4. Х. Асозода. Адабиёти тоҷик дар садаи XX. – Душанбе: “Маориф”, 1999.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1477-1479

ЭФФЕКТИВНОСТИ УДОБРЕНИЙ НА ДЕФЛИРОВАННЫХ ПОЧВАХ

Н. Хакимжонова
Г. А. Абдукаххорова
М. И. Исмоилов
ФерГУ

АННОТАЦИЯ

Решающую роль в ускоренном восстановлении и повышении плодородия эродированных земель играют удобрения. Под действием удобрений возрастает устойчивость почв эрозионным процессам, растений – к почвенной засухе. Изучение эффективности минеральных удобрений на почвах, подверженных ирригационной эрозии в Центральной Азии, осуществлено К.М.Мирзажановым, С.С.Майлибаевым. Ими установлено, что в результате дифференцированного внесения минеральных удобрений можно выравнивать плодородие почв по склону и получать устойчивые, высокие урожаи хлопка–сырца на всех элементах склона.

ВВЕДЕНИЕ

Удобрение хлопчатника на почвах, подверженных ветровой эрозии, изучено К.М.Мирзажановым, Ш.Нурматовым и другими учеными. Ими установлено, что для получения высоких урожаев хлопка–сырца с хорошими технологическими качествами на почвах, подверженных ветровой эрозии, следует увеличить норму азотных и фосфорных удобрений на 25-40%.Результаты исследований норм и соотношений минеральных удобрений на почвах, подверженных ветровой эрозии, показывают, что на эродированных почвах оптимальны нормы 180 кг/га азота и 180 кг/га фосфора, 240 кг/га азота и 180 кг/га фосфора. Прибавка урожая составила 12,0-14,0% против контроля.

Большие прибавки урожая на эродированных почвах дало внесение фосфорных удобрений. Если на неэродированных почвах от внесения 180 кг/га фосфора прибавка составила 3,2 ц/га, то в этом же варианте на эродированных почвах она достигала 5,3 ц/га, или была почти на 66% больше, чем на неэродированных. С увеличением нормы азота прибавка от внесения фосфора возрастала. Аналогичные данные получены и на почвах, подверженных дефляции - 10-18 ц/га при 35-42 ц/га на неэродированной почве. На

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1477-1479

сегодняшний день остро стоят вопросы, касающиеся экологии и охраны окружающей среды, требующие разработки методов внесения экологически чистых удобрений. Органические удобрения создают условия для более эффективного использования растениями минеральных удобрений, особенно на эродированных почвах.

МЕТОДОЛОГИЯ

Внесение навоза значительно улучшает структуру почвы, ее водный режим, буферные свойства, увеличивает количество перегнойных веществ, усиливает микробиологические процессы, повышает коэффициент использования питательных веществ. Доказано также положительное влияние навоза на закрепление в малоподвижных и не доступных растениям формах радиоактивного стронция, целого ряда тяжелых металлов, на очищение почвы, загрязненной ядохимикатами, на улучшение ее санитарного состояния. Обобщение результатов опытов позволило дать методически правильную оценку эффективности сочетания навоза и минеральных удобрений и доказало, что его преимущество, выявленное на отдельных культурах, сохраняется в целом по сумме прибавок урожая всех культур севооборота.

Здесь необходимо отметить, что потребности земледелия в навозе сильно превышают реальные возможности хозяйств. Поэтому при дефиците навоза можно успешно применять отход гидролизного биохимического производства. А.Мирзажанов изучал эффективность органических удобрений под хлопчатник на светло–луговых сазовых эродированных почвах. Ими отмечена высокая эффективность применения органических удобрений на дефлированных почвах. Прибавка урожая от применения 30 т/га навоза в год действия составила 9,4 ц/га, в первый год последействия – 2,0, во второй – 4,2, в третий – 2,1 ц/га. При внесении 60 т/га лигнина и 40 т/га городских отходов получены следующие прибавки: 8,1; 2,7; 1,9; 3,7 и 13,9; 6,9; 11,2; 5,3 ц/га. Основная масса корневой системы хлопчатника распространяется до глубины 40-50 см. Поэтому обеспечение этого слоя питательными элементами, улучшение водно–физических, физико–химических свойств является важным.

Работами А.М.Панкова было установлено, что помимо природных и хозяйственных условий на подверженность почв ветровой эрозии влияют свойства самих почв – механический состав, структурное состояние, влажность и химические свойства. Исследованиям противоэрозионной стойкости почв

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1477-1479

различных широтных зон, вопросам применения на практике этих данных для разработки и проектирования почвозащитных мероприятий на сельскохозяйственных угодьях.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Использование аэродинамических установок для разработки теории ветровой эрозии позволило установить зависимость степени дефляции от гранулометрического состава почвы, ее влажности, степени защищенности почвы растениями или растительными остатками, скорости и направления ветра. Получены величины эрозионных потерь почвы и грунта в зависимости от скорости ветра. Исследованиями установлено К.М.Мирзажонов, К.Муминов что с эрозией теряется в 20 раз больше питательных веществ, чем выносится с урожаем сельскохозяйственных растений. В естественных условиях требуется 1-2 тысячи лет для создания каждых 2,5 см плодородного поверхностного слоя почвы.

ВЫВОД

Большая мощность песка и недостаток питательных элементов не позволили получать волокно с высоким качеством при глубине естественного экрана 0-110 (130) см. Разрывная нагрузка волокна в этом варианте составила 4,2 гс, что соответствует II сорту. Невысокими были также масса 1000 семян (100 г) и выход волокна (34,0%). В остальных вариантах эти показатели довольно ровные: масса 1000 семян 111,0 и 112,0 г, выход волокна 35,5 и 36,0%. Таким образом, можно сделать вывод, что физико-механические свойства волокна находятся в прямой зависимости от применяемых норм минеральных удобрений и глубины залегания экрана.

REFERENCES

1. Зокирова С., Юлдашев Ғ. Влияние экрана на свойства почв и растений //Монография. Издательство «Фан» - Тошкент, 2008.
2. Юлдашев Г., Зокирова С. Влияние механического барьера на свойства песков и хлопчатника // European Applied Sciences. ORT Publishing, Stuttgart, Germany. 1, 2015 (January). 71-74 pp. (06.00.00 №2)

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1480-1489

PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Shaxlo Mirzayeva
Qarshi davlat universitetining pedagogika instituti o`qituvchisi

ANNOTATSIYA

Zamonaviy o`quv mashg`ulotlarida, xoh o'rta, xoh umumiy, xoh kasb-hunar bo'lsin, elektron o'quv qurollari bugungi kunda jadal rivojlanmoqda, bu texnologiyaning doimiy takomillashuvi bilan bog'liq. Kerakli dasturlarni o'zlashtirish uchun interfaol doskalar va kodoskoplar (ref-proyektorlar), kompyuterlar, shuningdek, raqamli tashuvchilardan ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarishga mo'ljallangan eng yangi qurilmalar paydo bo'ldi va ulardan muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Ta’lim muassasalarida internet tarmog‘idan foydalanish munosabati bilan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqish va takomillashtirishga talablar kuchaytirilmoqda. Maqolada ham pedagogik dasturiy vositalar asosida talabalarni kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasining afzalliklari va amaliy ahamiyati xususida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: dastur, metod, electron darsliklar, pedagok, texnologiya, kompyuter

METHODOLOGY OF DEVELOPING PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL TRAINING OF STUDENTS ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL SOFTWARE

ABSTRACT

In the modern school, whether secondary, general or professional, e-learning tools are developing rapidly today, which is due to the constant improvement of technology. Interactive whiteboards and overhead projectors (ref-projectors), computers, as well as the latest devices for processing data from digital media have emerged and are being used successfully to master the necessary software. Due to the use of the Internet in educational institutions, there is a growing demand for the development and improvement of teaching aids. The article also discusses the advantages and practical significance of the method of developing professional and pedagogical training of students on the basis of pedagogical software.

Keywords: program, method, electronic textbooks, pedagogy, technology, computer

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1480-1489

KIRISH

Keling avvalo, elektron ta’lim deganda nimani tushunamiz? Ushbu kontseptsiyaning ta'rifi shuni ko'rsatadiki, bular ma'lum bir fan sohasi aks ettirilgan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda uni o'rganish mumkin bo'lgan dasturiy vositalardir. Shunday qilib, ESPlar ta'lim faoliyatining turli sohalarini amalga oshirish uchun sharoit yaratadi. Hozirgi vaqtda elektron ta'lim vositalari pedagogik jarayonni axborot-moddiy jihatdan ta'minlashda tobora ortib borayotgan o'rinni egallamoqda. Ularning tarkibiga nimalar kiradi? Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o`quv jarayonini qisman yoki to`liq avtomatlashtirish uchun mo`ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta`lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o`qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o`quv fani bo`yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo`naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta`minot, qo`shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

o`rgatuvchi dasturlar – o`quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o`zlashtirishga yo`naltiradi;

-test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko`nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo`llaniladi;

-mashq qildirgichlar - avval o`zlashtirilgan o`quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;

-o`qituvchi ishtirokidagi virtual o`quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

Pedagogik dasturiy vositalar yaratishga qo`yiladigan talablar.

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an`anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlarga ajratildi.

Pedagogik dasturiy vositalarga qo`yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarli, qat`iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o`quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta`minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o`rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to`ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko`rgazmalilik, faollashtirish (o`qitish mustaqilligi hamda faollilik

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1480-1489

xususiyatining mavjudligi), o`qitish natijalarini o`zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o`qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

1. Pedagogik dasturiy vositalar – o`quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o`zaro bog`liqligiga tayangan holda qurilishi.

2. Pedagogik dasturiy vositalar o`quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko`rinishida ta`minlashi. Fanlararo mantiqiy o`zaro bog`liqlikning hisobga olinishi.

3. Pedagogik dasturiy vositalarda ta`lim oluvchiga o`quv materialini bosqichma-bosqich o`zlashtirganligini turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish asosida aniqlash imkoniyatlarining yaratilishi.

ESP TASNIFI

Kompyuter qurilmalari va ular bilan bog'liq telekommunikatsiya va axborot texnologiyalarining keng tarqalishi jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida yangi yo'nalishlarni yaratishga olib keladi. Ta'lim ham bundan mustasno emas. So'nggi ikki-uch o'n yillikda kompyuter texnikasi, shuningdek, tegishli vositalar va texnologiyalar o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Shunday qilib, O`quv mashg`ulotlarida o'quvchilarini tayyorlash va ta'limni tashkil etish uchun axborotlashtirish vositalari qo'llaniladi, ular turli nashrlarda turlicha nomlanadi. Bular ta’lim-pedagogik vositalar, kompyuter ta’lim vositalari va pedagogik dasturlardir. Bunday atamalarning yuqoridagi ro'yxati yakuniy emas. Ammo to'g'ridan-to'g'ri O`quv mashg`ulotlarida o'quvchilarini o'qitishda ESP ta'rifi qo'llaniladi, bu ta'lim elektron nashri kabi tushuncha bilan belgilanadi. Qisqartirilgan OEI. Elektron ta'lim vositalarining mavjud tasnifiga asoslanib, ularning asosiy turlarini ta'kidlaymiz:

- umumiy maqsadli dasturiy ta'minotga xizmat ko'rsatish vositalari;
- elektron simulyatorlar;
- talabalarning malaka, ko'nikma va bilim darajasini o'lchash va nazorat qilish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot;
- simulyatsiya va matematik modellashtirishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan dasturiy ta'minot;
- ma'lumotnoma ma'lumotlarini qidirish tizimlari;
- laboratoriya dasturlari (virtual va masofaviy kirish);
- EI - elektron darsliklar;
- AOC - avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlari;

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1480-1489

- EOS - ekspert o'qitish tizimlari;
- sanoat tizimlari, shuningdek, kasbiy faoliyatni avtomatlashtirish vositalari bo'lgan ularning analoglari va boshqalar.

ELEKTRON NASHR

Қашқадарё вилояти республиканинг жануби қисмида жойлашган бўлиб, иқлими кескин континентал, қуёшли кунларнинг кўплиги ва узунлиги, ёзининг қуруқ ва иссиқлиги, қиши совуқ, ўзгариб туриши, гидротермик меъёрларни бир-биридан сезиларли фарқланиши билан характерланади.

Нўхатни суғориладиган ерларда етиштиришда ҳар хил навларини турли экиш муддат ва меъёрларда экиб, натижаларини илмий асослаб берилса сифатли ва юқори ҳосил олишни таъминланади. Шу сабабли суғориладиган ерларда нўхатни ҳар хил навларини турли экиш муддат ва меъёрларда экишнинг дон ҳосилдорлигига таъсирини ўрганиш илмий ва амалий аҳамиятга эга.

Олимлар томонидан нўхат етиштириш технологиясининг элементлари яъни, экиш муддат ва меъёрлари П.Шукуруллаев (1968), И.Ҳамдамов (1991), С.Мустанов (1993), Л.Савкина (1991), Б.Мавлонов (2005) сингари тадқиқотчилар томонидан ўрганилган.

Нўхат экини суғориладиган ерларда етиштирилса, лалмикорликда экилганида қараганда, баланд бўйли, остки дуккаги ердан баланд бўлиб ҳосилни бемалол механизация ёрдамида йиғиштириб олишга имкон туғилади.

Нўхат етиштириш технологияси. Нўхат тупроқни азотга бойитади, қатор оралари ишланадиган экин сифатида далани бегона ўтлардан тозалайди. Нўхат кузги дон экинлари учун яхши ўтмишдош ҳисобланади. Нўхатдан бўшаган далаларга экилган ғўза, картошка, маккажўхори, бошоқли дон экинлари ҳосилдорлиги ортиб, дон сифати яхшиланади.

Нўхат учун ажратилган дала кузда 25-30 см чуқурликда кузги шудгор қилинди. Ерни ҳайдаш олдидан фосфорли, калийли, органик ўғитлар солинди. Эрта баҳорда шудгор кўндалангига икки изли қилиб бороналанди. Бороналаш ерда намни сақлаш ва ерни қисман текислаш вазифаларини бажаради. Экиш олдидан тупроқ зичланиб қолган бўлса бороналанади, зарур ҳолатларда мола босилади, ер текисланади.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1527-1535

Суғориладиган ерларда нўхат экиладиган 1 гектар майдонга асосий ўғит сифатида 70-90 кг фосфор, 50-60 кг калий ва 15-20 т чириган гўнг солинди. Асосий ўғитлар ерни ҳайдаш олдидан берилди.

Нўхат уруғлари экиш олдидан турли аралашмадан тозаланди, йирик ва текислари саралаб олинди. Экиладиган уруғлар юқори репродукцияли (авлодли) 1 ва 2-синф талабларига тўла жавоб берадиган бўлиши лозим. Уруғларнинг унувчанлиги 95 ва 92%, тозалиги 99 ва 98,5 дан кам бўлмаслиги талаб қилинади.

Нўхат эрта баҳорги экин. У эрта баҳори дон экинлари билан бир вақтда экилади. Тупроқни уруғ экиладиган қатламида ҳарорат 6-7 ^{0}С га етиши уруғ экиш учун энг қулай муддат ҳисобланади. Республикамизнинг жанубий вилоятларда нўхат февралнинг охирги ва мартнинг биринчи ўн кунликларида экилади.

Нўхат уруғлари қатор оралари 60 см, ўсимликлар оралиғи 3, 6, 9 см қилиб экилди. Нўхат уруғлари СПЧ-6 М сеялкасида 5-7 см чуқурликка экилди.

Тупроқда намлик 60-70% ЧДНС даражасида ушлаб турилди. Суғоришлар меъёри 600-700 м^3/га. Уларнинг сони сизот сувлар, атмосфера ёғингарчиликлари ва бошқа омилларга қараб ўзгартирилиб турилади.

Нўхат қатор оралари 2-3 культивация қилинди, суғоришдан олдин жўяклар олинади.

Ўзбекистон шароитида нўхат ёзнинг жазирама иссиқ даври июнь ойларида етилади. Пишганда мева банди ва дуккак пўчоқлари тез қурийди. Ҳосил қисқа, энг мақбул муддатда ўриб-янчиб олинмаса нобудгарчилик кўпаяди. Ўримдан олдин комбайнлар қайта жиҳозланади, созланади, барабанлар айланиш тезлиги камайтирилиб (500-600 минутига) уларни оралиғи кенгайтирилади. Паст бўйли навлар ҳам яхши парвариш қилинганда бўйчан бўлади ва комбайн ёрдамида дон ҳосилини ўриб-янчиб олишга яроқли ҳолга келади.

Ҳосил тозаланди, қуритилди ва намлиги 12-14% дан ортиқ бўлмаган ҳолда сақланди.

НАТИЖАЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ

Нўхат навларини экиш схемаларининг вегетация даврининг давомийлигига таъсири сезиларли даражада ўзгариш кузатилмади.

1-жадвал

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1527-1535

Нўхатнинг вегетация даври давомийлигига экиш усулларининг таъсири

Нав ва экиш усуллари	Униб чиқиш		Ғун чалаш	Гуллаш		Дуккак ҳосил бўлиш	Пишиб етилиши		Веге-тация даври
	дастлаб	Ялпи		дастлаб	Ялпи		дастлаб	Ялпи	
Малхотра 60х3	4.04	7.04	22.05	25.05	14. 06	30.05	3.07	21.07	90
Малхотра 60х6	4.04	7.04	23.05	26.05	15. 06	31.05	5.07	23.07	92
Малхотра 60х9	4.о4	7.04	24.05	27.05	16. 06	1. 06	6.07	24.07	93
Юлдуз 60х3	4.04	7.04	18.05	22.05	7.06	26.05	28.06	14.07	85
Юлдуз 60х6	4.04	7.04	18.05	23.05	8.06	27. 05	29.06	15.07	86
Юлдуз 60х9	4.04	7.04	18.05	24.05	8.06	27.05	30.06	16.07	87
Полвон 60х3	4.04	7.04	15.05	16.05	1.06	19.05	20.06	6.07	77
Полвон 60х6	4.04	7.04	15.05	17.05	2.06	20.05	21.06	7.07	78
Полвон 60х9	4.04	7.04	15.05	18.05	3.06	21.05	22.06	7.07	79
Ўзбекистанский-32 60х3	4.04	7.04	18.05	23.05	8.06	27.05	29.06	15.07	86
Ўзбекистанский-32 60х6	4.04	7.04	18.05	23.05	8.06	27.05	29.06	15.07	86
Ўзбекистанский-32 60х9	4.04	7.04	18.05	24.05	9.06	28.05	30.06	16.07	87

Барча навлар бўйича ҳам энг қисқа вегетация даври 60 х 3 см экиш схемасида бўлиб, у 60 х 6 см ва 60 х 9 см экиш схемаларидаги ўсимликнинг вегетация давридан 1 – 2 кун қисқа ҳисобланади. Демак, қатордаги ўсимлик тупи оралиғи кенгайиб борган сари сезиларли даражада бўлмаса ҳам (1 – 3 кун) ўсимликнинг вегетация даври узайиб боради. Тажрибаларда кўчат оралиғи кенг бўлган вариантларда маълум бир майдон юзасида бўлган ўсимликлар тупининг камроқ бўлишига ва бу ўсимликларнинг сув ва озиқа моддалардан кўчат оралиғи тор бўлган ўсимликларга нисбатан тўлароқ фойдаланиш имкониятига эга бўлиши имконини берган. Навлар орасида энг қисқа вегетация даври (77 кун) Полвон навида ва вегетация даври энг кун Малхотра навида кузатилган бўлиб, бу кўрсаткич уларда 90 – 93 кунга тенг бўлган, ёки уларнинг уруғи (Юлдуз, Полвон) навларидан 9 – 16 кун кейин пишиб етилганини кўришимиз мумкин.

Экиш схемаларининг нўхат дуккагида шаклланган уруғлар сонига таъсири бўйича олинган маълумотлар қуйидагича бўлди.

2 – жадвал

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1527-1535

Ҳар хил усулларда экилган нўхатни 100 дона дуккагининг таҳлили

(дона ҳисобида)

Нав ва экиш усуллари	Бир уруғли	Икки уруғли	Уч уруғли	Пуч дуккаклар	Зарарланган дуккаклар	Жами дон сони
Малхотра 60х3	50.3	44.6	0.2	3.7	1.2	141.3
Малхотра 60х6	48.5	45.7	0.9	3.5	1.4	144.0
Малхотра 60х9	47.4	46.2	1.5	3.3	1.6	145.9
Юлдуз 60х3	60.9	36.1	1.3	0.7	1.0	138.0
Юлдуз 60х6	69.0	37.4	2.5	0.2	0.9	152.2
Юлдуз 60х9	57.4	36.6	3.7	1.2	2.0	143.7
Полвон 60х3	59.8	35.8	1.2	2.3	1.4	136.4
Полвон 60х6	59.0	35.1	1.5	1.6	0.9	144.6
Полвон 60х9	57.9	39.2	1.7	0.7	0.5	141.9
Ўзбекистанский-32 60х3	58.6	37.8	2.1	0.9	0.6	141.1
Ўзбекистанский-32 60х6	59.7	36.6	2.4	0.8	0.5	140.6
Ўзбекистанский-32 60х9	57.2	40.1	2.2	0.2	0.3	144.3

Маълум бўлишича, қатордаги ўсимлик тупи оралиғи кенгайиб борган сари бир уруғли дуккаклар сони камайиб, аксинча, икки ва уч уруғли дуккаклар сони эса кўпайиб борган. Чунончи, Юлдуз навида 60 х 6 см схемада экилган нўхатда бир уруғли дуккаклар 69,0 донани ва икки уруғли дуккаклар 35,1 донани ташкил этган бўлса, 60 х 9 см экиш схемасида бу кўрсаткич мутоносиб равишда 57,4 ва 36,6 донага тенг бўлди, ёки бир уруғли дуккаклар бу экиш схемасида 60 х 9 см экиш схемасидаги бир уруғли дуккалар сонидан 2 дона кам бўлган бўлса, икки уруғли дуккаклар сони эса 3,4 дона кўп бўлган. Худди шундай қонуният уч уруғли дуккаклар сонида ҳам кузатилган. Демак, қатордаги ўсимлик туп оралиғи кенгайиб борган сари маълум бир юзадаги ўсимликлар сони қатордаги ўсимлик оралиғи тор бўлган вариантдаги ўсимликлар сонига нисбатан кам бўлиши ва шу туфайли улар сув ва озиқа моддалар билан кўпроқ таъминланиши икки ва уч уруғли дуккакларнинг сонининг ортиб боришига олиб келиши мумкин.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1527-1535

Маълум бўлишича ўсимлик баландлиги экиш схемаларига боғлиқ бўлиб, қатордаги туп оралиғи кенгайиб борган сари ўсимлик бўйи қисқариб борган. Чунончи, Ўзбекистанский-32 навининг 60 х 3 см экиш схемасида ўсимлик баландлиги 97,6 см га тенг бўлган бўлса, бу кўрсаткич 60 х 9 см экиш схемасида 93,7 см га тенг бўлган, ёки биринчи схемадаги ўсимлик бўйидан 3,9 см паст бўлган. Шундай қонуният нўхатнинг бошқа навларида ҳам кузатилган. Демак, қатордаги туп оралиғи кенгайиб борган сари ўсимликда ён шохлар кўпроқ ҳосил бўлиб унинг бўйига ўсиши бироз қисқариб бориши мумкин ва шу сабабли қатордаги туп оралиғи кенг бўлган ўсимликларнинг бўйи қатордаги туп оралиғи тор бўлган вариантдаги ўсимликлар бўйига нисбатан паст бўлган.

3-жадвал

Нўхат навлари биометрик кўрсаткичларига экиш усулларини таъсири

Навлар ва экиш усуллари	Ўсимлик бўйи, см	ОДЕБ, см	Дуккаклар сони, дона	Донлар сони, дона
Малхотра 60х3	62,6	33,8	36,4	65,6
Малхотра 60х6	61,4	31,5	64,6	87,6
Малхотра 60х9	59,8	28,4	72,3	115,1
Юлдуз 60х3	79,4	36,6	22,2	34,7
Юлдуз 60х6	79,1	35,4	34,0	51,8
Юлдуз 60х9	74,7	34,4	47,5	72,9
Полвон 60х3	82,5	37,6	20,0	27,6
Полвон 60х6	81,3	26,1	31,3	58,3
Полвон 60х9	78,0	35,7	43,6	64,4
Ўзбекистанский-32 60х3	97,6	45,2	37,8	53,6
Ўзбекистанский-32 60х6	96,1	45,8	64,2	90,4
Ўзбекистанский-32 60х9	93,7	42,8	68,2	107,4

Остки дуккагининг ердан баландлиги ҳам экиш схемаларига боғлиқ ҳолда ўзгариб борганлиги кузатилган. Бу соҳада қатордаги туп оралиғи кенгайиб борган сари остки дуккагининг ердан баландлиги ҳам пасайиб бораган. Энг юқори кўрсаткич бу соҳада барча навлар бўйича ҳам 60 х 3 см экиш схемасида кузатилган. Чунончи, бу экиш схемасида Ўзбекистанский-32 навида остки дуккагининг ердан баландлиги 45,2 см бўлган бўлса, 60 х 9 см экиш схемасида бу кўрсаткич 42,8 см га тенг бўлди, ёки биринчи вариантдагига нисбатан 2,4 см паст бўлган. Худди шундай қонуният ўрганилган бошқа навларда ҳам кузатилган. Бу табиий, чунки, қатордаги ўсимлик оралиғи қисқа бўлган сари

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1527-1535

ўсимликнинг бўйи баланд бўлган ва шунга мос равишда остки дуккагининг ердан баландлиги ҳам юқори бўлиши аниқланган.

Битта ўсимлик типидаги дуккаклар ва донлар сони ҳам экиш схемалари бўйича ўзгариб бориши маълумотлардан кўриниб турибди. Қатордаги туп сони кенгайиб борган сари битта ўсимликда шаклланган дуккаклар ва дуккакдаги уруғлар сони ортиб борган. Масалан, Ўзбекистанский-32 навининг 60 х 3 см экиш схемасида битта ўсимликда шаклланган дуккаклар сони 37,8 донани ва уруғлар сони 53,6 донани ташкил этган ҳолда бу кўрсаткич 60 х 9 см экиш схемасида мутаносиб ҳолда 68,2 ва 107,4 донага тенг бўлган, ёки 60 х 3 см экиш схемасидаги дуккаклар сонидан 30,4 дона ва уруғлар сонидан эса 53,8 дона кўп бўлганлиги аниқланган. Ҳудди шундай қонуният бошқа навларда ҳам кузатилган.

Демак, туп сони кенгайиб борган сари ўсимликда ён шохларнинг кўпроқ ҳосил бўлиши битта ўсимлик тупида шаклланган дуккаклар ва уруғлар сони мос равишда ортиб бориши кузатилган.

Ҳосилдорликнинг муҳим кўрсаткичларидан бири бу 1000 дона уруғликнинг оғирлигидир. Шу сабабли ҳосилдорликни аниқлашдан олдин биз нўхат навларининг 1000 дона уруғининг оғирлигига экиш схемаларининг таъсирини ўргандик. Бу соҳада олинган маълумотлар шуни кўрсатадики, 1000 дона уруғнинг оғирлиги Юлдуз навида кузатилиб, у 356,4 – 361,0 граммни ташкил этади. Энг кичик оғирлик эса Малхотра навида бўлиб, у 285,1 – 288,0 граммга тенг бўлган.

4 - жадвал

Экиш усулларини нўхатни 1000 дона дон вазни ва ҳосилдорлигига таъсири

Навлар ва экиш усуллари	1000 дона дон вазни, г	Ҳосилдорлик, га/с			Ўртача
		1 – такрор	2 – такрор	3 – такрор	
Малхотра 60х3	285,1	35,1	33,7	34,3	34,4
Малхотра 60х6	287,0	38,1	36,2	38,5	37,6
Малхотра 60х9	288,0	35,3	33,7	35,0	34,7
Юлдуз 60х3	363,6	20,1	25,4	23,2	22,9
Юлдуз 60х6	376,4	23,2	27,0	25,9	25,3
Юлдуз 60х9	379,8	22,6	26,8	25,3	24,9
Ўзбекистанский-32 60х3	250,1	19,6	21,3	23,2	21,3
Ўзбекистанский-32 60х6	252,4	20,7	23,1	24,6	22,8

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1527-1535

Ўзбекистанский-32 60х9	257,3	20,0	22,3	24,1	22,9
Полвон 60х3	356,4	24,4	24,2	23,9	24,1
Полвон 60х6	359,6	27,8	29,0	28,3	28,3
Полвон 60х9	361,0	27,0	28,1	26,3	27,1

1000 дона нўхат оғирлиги нафақат навлар орасида, балки экиш схемалари бўйича ҳам ўзгариб турган. Қатордаги туп оралиғи кенгайиб борган сари барча навларда 1000 дона уруғ массаси оғирлашиб бориши аниқланган. Масалан, Полвон навининг 60 х 3 см экиш схемасидаги ўсимликларда шаклланган 1000 дона уруғнинг оғирлиги 356,4 граммни ташкил этган бўлса, бу кўрсаткич 60 х 6 см экиш схемасида 359,6 граммга, 60 х 9 см экиш схемасида 366,9 граммга тенг бўлган ёки биринчи вариантдаги 1000 дона нўхат уруғининг оғирлиги охирги 60 х 9 см см экиш схемасидаги 1000 дона уруғ оғирлигидан 4,6 грамм кам бўлганлиги қайд қилинган.

Бунинг сабабини қуйидагича тушунтириш мумкин. Қатордаги туп оралиғи камайиб борган сари ўсимликда шаклланган ён шохлар сони кам бўлиб ўсимлик кўпинча бўйига ўсишни кучайтирган. Демак, сув ва озиқ моддалар ҳосил элементларининг тўлиқ ривожланишига қараганда ўсимликнинг ўсишига кўпроқ сарфланган. Шу сабабли, қатордаги туп оралиғининг қисқариши 1000 дона нўхат уруғининг оғирлигига салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Ҳосилдорлик бўйича олинган маълумотлар таҳлили шуни кўрсатадики, энг юқори ҳосилдорлик навлар орасида Малхотра навининг 60 х 6 см экиш схемасида кузатилган. Бунда гектаридан 37,6 ц дан дон ҳосили олинган. Энг кам ҳосилдорлик шу экиш схемасида Ўзбекистанский-32 навида бўлган (21,3 ц/га).

ХУЛОСА

Барча навларда энг қисқа вегетация даври 60 х 3 см экиш схемасида кузатилиб, у 60 х 6 см ва 60 х 9 см экиш схемаларидаги ўсимликнинг вегетация давридан 1 – 2 кун қисқа бўлишлиги аниқланди.

Бир уруғли, икки уруғли, уч уруғли, пуч ва зарарланган дуккаклар сони экиш схемалари бўйича ўзгариб боради, яъни қатордаги туп оралиғининг кенгайиб бориши бир уруғли дуккаклар сонининг камайиб, икки ва уч уруғли дуккаклар сонининг кўпайиб боришига олиб келади. Бу ҳолатни кўпроқ озиқа, намлик ва шу каби бошқа экологик омилларнинг оптималлиги билан изоҳлаш мумкин.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1527-1535

Қатордаги туп сони кенгайиб борган сари ўсимликда шаклланган дуккаклар ва дуккакдаги уруғлар сони ҳам ортиб боради. 1000 дона нўхат уруғининг оғирлиги нафақат навлар орасида, балки экиш схемалари бўйича ҳам ўзгариб боради. Қатордаги туп оралиғи кенгайиб борган сари барча навларда 1000 дона уруғ оғирлиги ортиб бориши кузатилган.

Нўхатдан юқори ҳосил олишнинг оптимал экиш схемаси барча навлар бўйича ҳам 60 х 6 см эканлиги аниқланган. Ана шу вариантда ўсимликнинг ҳосил элементлари ва 1000 дона уруғининг массаси қолган экиш схемаларига нисбатан тўлароқ шаклланди.

REFERENCES

1. Бобомурадов З.С. Элементы технологии возделывания кормового нута на серозёмах Самаркандской области. // Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. к.с/х.н. Самарканд. 1997. с.21.
2. Бобомурадов З.С., Хамдамов И.Х., Савкина Л.В. Нут – кормовая культура. // Сельское хозяйство Узбекистана. 1996. № 6., с.11.
3. Мустанов С.Б. Элементы технологии возделывания нута на поливе // Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. к.с/х.н. Самарканд. СамСХИ. 1993. 22 с.
4. Хамдамов И.Х., Бобомурадов З.С., Умирзаков Б.Э., Усаров З. Хашаки нўхат намуналарини ўрганиш натижалари // Суғориладиган ерларда қишлоқ хўжалик экинлалари селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш технологиясининг муаммолари (Республика илмий конференцияси) 19-20 июль. 2006 й. Самарқанд 2006. 180 б.
5. Хамдамов И.Х., Ходжаева Н.Ж., Мустанов С.Б., Разветие и уражайность сортов нута при различных весенних сроках посева. // Фан чорраҳалари. Илмий тўплам. Самарқанд. 2005. 123137 б.
6. Хамдамов И.Х., Шукуруллаев П.Ш., Мустанов С.Б. Суғориладиган ерларда нўхат етиштириш технологиясига оид амалий қўлланма. Самарқанд. 1991. 14 б.

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1536-1542

СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В СИСТЕМЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Ирина Тахировна Ражабова
Преподаватель кафедры русского языка и литературы Чирчикского государственного педагогического института

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена проблеме использования современных образовательных технологий в обучении русскому языку в начальной школе. В статье раскрыт ряд вопросов, входящих в понятие «современная образовательная технология». Опыт использования современных технологий с применением технологии критического мышления в обучении русскому языку учащихся даёт основание утверждать о положительном влиянии применения данного метода на результаты образовательного процесса в билингвальном образовании.

Ключевые слова: Технологии, педагогические технологии, технология критического мышления.

MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING RUSSIAN LANGUAGE IN THE PRIMARY EDUCATION SYSTEM

ABSTRACT

This article is devoted to the problem of using modern educational technologies in teaching the Russian language in primary school. The article reveals a number of issues included in the concept of "modern educational technology". The experience of using modern technologies with the use of critical thinking technology in teaching the Russian language to students gives grounds to assert about the positive impact of the application of this method on the results of the educational process in bilingual education

Keywords: Technologies, pedagogical technologies, technology of critical thinking

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1536-1542

ВВЕДЕНИЕ

В XXI веке значительно изменились социально-педагогические условия преподавания русского языка в Узбекистане : во-первых, значительно увеличилось количество школ с русским языком обучения, а в школах с нерусским языком обучения растет число поликультурных классов, что настоятельно требует от учителя владения методикой преподавания русского языка как неродного, которая значительно отличается от методики преподавания родного языка; во-вторых, вводятся новые федеральные государственные образовательные стандарты для школ, новые формы итоговой аттестации и средства оценивания качества обучения, успешное внедрение которых зависит от скорейшей адаптации к ним учителей; в-третьих, бурное развитие новых информационных технологий, повышенный интерес к ним школьников открывают большие перспективы использования ИКТ в образовательном процессе, однако многие учителя еще не готовы к активному их включению в практику преподавания.

МЕТОДОЛОГИЯ

Сказанное определяет актуальность проведения повышения квалификации, целью которой является совершенствование профессиональной компетенции учителей русского языка как неродного в области применения современных образовательных технологий.

Повышения квалификации, с другой – содействует формированию (совершенствованию) у школьных учителей навыков использования интернета в целях образования, самообразования и обмена опытом с коллегами. Лекционные и практические занятия, принадлежащие к одной теме, формируются в вариативный модуль, который состоит из инвариантной части, обязательной для изучения всеми слушателями, и вариативной, учитывающей ступень общеобразовательной школы. В первом модуле «Эффективные педагогические технологии обучения русскому языку как неродному в школе» ставятся следующие задачи:

– ознакомить слушателей с теоретическими

основами концепции коммуникативного русскоязычного образования как концепции развития индивидуальности в диалоге культур;

– показать роль русскоязычного образовании в духовном, культурном развитии личности учащихся;

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1536-1542

– представить систему средств коммуникативной технологии;

– сформировать практические навыки и умения по организации условно-речевых и речевых упражнений.

Еще одной технологией, которая обрела особую актуальность в современной педагогике, является технология интерактивного обучения, предполагающая использование групповых и коллективных видов работы учащихся, ролевых и деловых игр. Немыслимо современное образование и без применения в учебно-воспитательном процессе метода проектов. В числе вопросов, изучаемых в рамках данной темы, – содержание и типология ученических проектов, этапы работы над проектом, критерии эффективного применения метода проектов и его ограничения, создание учебных проектов, презентация и защита проектов, организация проектного обучения в школе.

Выбор темы второго модуля «Новые информационные технологии в языку как неродному» и включение его в программу повышения квалификации учителей обусловлен тем, что возросло воздействие интеллектуальных систем на все стороны жизни человека, а информатизация стала объективным процессом в развитии общества. Использование возможностей персонального компьютера способно в значительной мере ускорить развитие системы образования. Важным требованием к учителю становится умение спроектировать свою педагогическую деятельность, а также деятельность учащихся таким образом, чтобы полученная информация стала источником новых знаний. В связи с этим возникает противоречие между необходимостью усвоения большого объема информации, перехода информации в прочные знания и ограниченными возможностями традиционной организации процесса обучения. Существенную роль в разрешении данного противоречия может сыграть эффективное использование возможностей персонального компьютера. Несмотря на проводимые исследования и многолетний опыт внедрения персонального компьютера в образовательный процесс, несмотря на наличие определенного опыта в использовании разнообразных типов электронных образовательных средств, потенциальные возможности персонального компьютера в образовании до сих пор остаются использованными не в полном объеме. Как показывает практика, особую трудность при внедрении электронных средств обучения испытывают учителя гуманитарных предметов. Основная цель модуля – оказание методической помощи практикующим учителям русского языка как неродного в разработке собственных электронных

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1536-1542

средств обучения на базе использования информационных, телекоммуникационных и аудиовизуальных технологий. Достижению данной цели должно способствовать решение следующих задач:

– обобщить результаты современных исследований в области изучения образовательного потенциала новых информационных технологий в сфере преподавания русского языка как неродного;

– сформировать умения и навыки, необходимые преподавателю русского языка для решения образовательных задач средствами информационно-коммуникационных технологий общего назначения, а также специализированных технологий и ресурсов, разработанных в соответствии с требованиями к содержанию школьного предмета «русский язык».

Исследовательские задания – это предъявляемые учащимися задания, содержащие проблему; решение ее требует проведения теоретического анализа, применения одного или нескольких методов научного

исследования, с помощью которых учащиеся открывают ранее неизвестное для них знание.

Формы заданий при исследовательском методе могут быть различны. Это могут быть задания, поддающиеся быстрому решению в классе и дома, задания, требующие целого урока, домашние задания на определенный, но ограниченный срок. Подавляющая масса исследовательских заданий должна представлять собой небольшие поисковые задачи, требующие, однако, прохождения всех или большинства этапов процесса исследования. Целостное их решение и обеспечит выполнение исследовательским методом его функций.

Даже в том случае, если учителю будет предоставлена такая совокупность заданий в определенной системе, все равно он должен будет ее использовать творчески, в зависимости от уровня подготовки класса и отдельных учеников (выборочно, в разумном сочетании, с различной степенью дифференциации). Кроме того, учитель призван при этом методе контролировать ход работы учащихся, направлять ее в случае отклонения их от правильного пути, проверять

итоги работы и организовывать их обсуждение. Именно этот метод способен играть решающую роль в развитии творческих возможностей, учащихся до уровня, обеспечивающего дальнейшее саморазвитие каждого ученика в зависимости от его природных задатков и усердия. В процессе включения младших школьников в исследовательскую деятельность перед

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1536-1542

учителем встает проблема организации решения единых исследовательских задач при различном уровне развития исследовательского опыта учащихся. В решении этой проблемы следует исходить из того, что необходимо подбирать такие приемы и формы работы, в которых ученики смогли бы проявить и обогатить свой индивидуальный исследовательский опыт.

Таким образом, использование исследовательского метода в практике преподавания, в организации процесса познания в начальной школе имеет большое значение. Оно позволяет обеспечить поисковую ориентацию учащихся, направленную на творческое развитие личности, накопление у учащихся достоверных конкретно-образных представлений об окружающей действительности фактических знаний, которые являются основой для последующего их осознания, обогащения, раскрытия причин и взаимосвязей, существующих в окружающем мире. В ходе реализации исследовательского метода на уроках младшие школьники овладевают рядом практических умений и навыков, выявляют характер и особенности объектов окружающей среды по их признакам и свойствам.

Рассмотрим несколько примеров о возможностях исследовательского метода.

Возьмем, к примеру, такое простое на первый взгляд умение, как умение формулировать гипотезы. В самом деле, первые детские гипотезы или ростки гипотетического мышления мы встречаем уже в дошкольном возрасте. По мере же развития речи и интеллектуальных операций (6-9 лет) исследовательская активность ребенка проявляется уже не только в форму самостоятельной постановки вопросов по отношению к новому и неизвестному, но и в формулировании оригинальных мыслительных задач, собственных гипотез для объяснения природных и социальных явлений. Для иллюстрации воспользуемся примером из урока русского языка (3 класс тема «Фразеологизмы»). Для создания проблемной ситуации на уроке учитель использует прием загадки. На доске размещается карточка со словом Фразеологизм.

Учитель спрашивает у детей: «Что такое фразеологизм? Что обозначает это слово?». Учитель поощряет детей к высказыванию своих предположений, дает положительную оценку каждому и по ходу выдвижения гипотез кратко фиксирует их на бумажных облачках, размещая записи на доске.

Например, дети могут высказать такие предположения:

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1536-1542

1. Может быть, фразеологизм – это логическая фраза.
2. Фразеологизм – это наука, которая изучает фразы.
3. Это фразы в диалоге.
4. Может быть, это новый вид второстепенных членов.
5. Может быть…

ВЫВОД

Учитель подводит итог, подчеркивая разнообразие идей. Учитель. Так что же все-таки это слово обозначает? Как разобраться, какая из ваших версий правильная, верная? Выслушать детей и сформулировать цель исследования: выяснить, что такое фразеологизм, найти примеры фразеологизмов. На этом примере хорошо видно, как в такой ситуации возникает эффект мозгового штурма, как выдвижение одной гипотезы стимулирует возникновение другой. Благодаря этому достигается высокий уровень активности детей, многие из которых формулируют свои предположения вслух, во внешней речи. Важно отметить, что при систематическом применении исследовательского метода в преподавании мы действительно можем планомерно формировать исследовательские умения у младших школьников.

REFERENCES

1. Завьялова О.А. Воспитание ценностных основ информационной культуры младших школьников. - Журнал «Начальная школа» №11, 2005.
2. Захарова Н.И. Внедрение информационных технологий в учебный процесс. – Журнал «Начальная школа» №1, 2008.
3. Иванов В.В., Зайцева С.А. Этическая составляющая в информационной культуре учителя. - Журнал «Начальная школа» №11, 2005.
4. Каминский В.Ю. Использование образовательных технологий в учебном процессе. – Научно-практический журнал «Завуч» №3, 2005.
5. Папшева Л.В. Технологическая культура учителя начальных классов. - Журнал «Начальная школа» №10, 2003.
6. Попова Н.Г. Информатизация учебного процесса. – Журнал «Начальная школа» №11, 2000.
7. Рекомендации по использованию компьютеров в начальной школе. - Журнал «Начальная школа» №5, 2002.
8. Стадник М.В. Использование медиауроков для развития мышления

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1536-1542

младших школьников. Библиотека сообщества учителей начальных классов. 9. Образовательный портал «Сеть творческих учителей», 2008. Хижнякова О. Н. Современные образовательные технологии в начальной школе. – С. 2006.
10. Климова М.А. Компьютерные технологии на уроках // Начальная школа плюс до и после. Издание Министерства образования Российской федерации, Российской Академии образования, Московского психолого-социального института, ООО Баласс. - № 7, 2008

Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1543-1551

ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ КЛАСТЕРИ БЎЙИЧА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ

Кахрамон Мадаминович Ибадуллаев
ТВЧДПИ Мактабгача таълим факультети декани,
физика-математика фанлари номзоди

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада таълим кластерлари бўйича хорижий мамлакатлар тажрибаси таҳлил қилинган. Хориж тажрибаси асосида миллий таълим тизимимизда педагогик таълимни кластерлаштиришнинг зарур шартлари асосланган.

Калит сўзлар: кластер, таълим кластери, инновацион таълим кластери, педагогик таълим кластери, техник университетлар уюшмаси, кластер таснифлари.

FOREIGN EXPERIENCE IN THE CLUSTER OF PEDAGOGICAL EDUCATION

ABSTRACT

This article analyzes the experience of foreign countries in creating educational clusters. On the basis of foreign experience, the necessary conditions have been created for clustering pedagogical education in our national education system.

Keywords: cluster, educational cluster, innovative educational cluster, pedagogical educational cluster, Association of technical universities, cluster classifications.

Таълим хизматлари бозорида рақобатбардошликнинг ошиши соҳага замонавий инновацион ёндашувларнинг жорий этилишини кучайтирди. Инновацияларни ривожлантириш, минтақавий ва миллий иқтисодиётларнинг рақобатбардошлигини оширишнинг самарали ташкилий шакли бу кластерлардир. Халқаро амалиётда кластер ташаббусларининг тарқалиши ва кластер ривожланиши соҳасидаги миллий сиёсатларнинг шаклланиши борасида Дания, Норвегия, Финляндия, Швеция каби мамлакатлар саноати кластерлар билан тўлиқ ёки қисман қопланган бўлса, Хитой, Россия, Ҳиндистон, Беларуссия, Қозоғистон каби мамлакатларда саноатни кластерлаштириш

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1543-1551

жараёни фаол давом эттирилмоқда, ихтисослаштирилган ахборот-таҳлил инфратузилмалари яратилмоқда. Европа кластер ҳамкорлик платформасининг маълумотларига кўра, 2017 йилда Европа Иттифоқида 460 та кластерлар мавжуд бўлган.

“Таълим кластери” ва “педагогик таълим кластери” тушунчаларининг (терминларининг) 2020 йил 15 март ҳолатига инглиз, рус ва ўзбек тилларида Internet тармоғи google қидирув тизимидаги ишлатилиш частотаси қуйидагича: “таълим кластери” – инглиз тилида 138 000 000, рус тилида 859 000, ўзбек тилида 26 100; “педагогик таълим кластери” – инглиз тилида 4 020 000, рус тилида 3 150 000, ўзбек тилида 11 700. Мавзуга мурожаат ўзбек тилидан кўра инглиз тилида ўртача 3757 марта, рус тилида ўртача 106 марта кўпроқни ташкил қилади. Ушбу маълумот қўйилган муаммонинг АҚШ ва Европада анча кенг ўрганилаётгани ҳақида муайян тасаввурни беради, деб ўйлаймиз.

Ўрганилган манбаларнинг кўрсатишича, таълим кластери муаммоси кейинги ўн йил давомида Ғарб, жумладан Россия таълим тизимида тадқиқот предмети бўлиб келган. Инглиз тилидаги манбаларнинг таҳлили шуни кўрсатдики, таълим кластерлари амалиётда кенг қўлланилмоқда, аммо муаммо бўйича назарий тадқиқотлар етарли даражада эмас. Рус тилидаги адабиётлар таҳлили эса шуни кўрсатадики, Россияда назарий тадқиқотчилар гуруҳи шаклланган ва илмий тадқиқотлар олиб борилган, аммо уларни нашр қилиш суръат бир оз паст кўрсаткични ташкил қилади. Мавжуд ўқув кластерларининг моделлари Европа амалиётида етарли даражада мавжуд. Кластер сиёсати Россия амалиётида асосан уларни шакллантириш ва ривожлантириш тамойилига асосланади. [1]

Рус тилида мавжуд манбаларда таълим кластерларининг қуйидаги таърифларини учратиш мумкин:

1. Инновацион таълим кластери – бу ОТМ, илмий тадқиқот марказлари, саноат вакилларининг маълум бир имтиёзларга эга бўлиш мақсадида бошланғич ишлардан инновацион тайёр маҳсулотгача бўлган ишлаб чиқариш занжирида ўзаро ҳамкорликнинг таъминланишидир. [2]

2. Таълим кластери – бу асосан занжир ичидаги горизонтал уланишларга асосланган таълим-технология-ишлаб чиқариш инновацион занжиридаги ўқитиш, ўзаро таълим ва мустақил ўқитиш воситалари тизимидир. [3;123-133]

3. Илмий-таълимий кластер - узлуксиз таълимнинг мактабдан ишлаб чиқаришгача бўлган ягона тизими. [4]

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1543-1551

4. Таълим кластери деганда “иш берувчилар ва ўқув юртларининг ўзаро ўтувчи дастурлар мажмуаси ёрдамидаги алоқаси” тушунилади. [5;91-97]

Интеграция шаклларини кенгайтириш узлуксиз педагогик таълимни ривожлантиришнинг асосий тенденцияларидан биридир. Беларусь Республикасида узлуксиз педагогик таълимнинг замонавий тизими ривожланиш тамойилида ишлаши очиқлик, босқичлилик, кўптармоқлилик ва кўп функциялилик каби хусусиятлари билан ажралиб туради. Шу билан биргаликда таълим амалиётини таҳлил қилиш натижасида аниқланган қуйидаги муаммолар Беларусь Республикаси таълим тизимида кластер ёндашувини амалиётга татбиқ этилишига асос бўлди:

✓ таълим муассасаларининг мутахассисларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш стратегияси ва тактикасини аниқлашда ажралиб туриши;

✓ узлуксиз педагогик таълим сифатини ошириш учун таълим муассасаларининг илмий-услубий интеграциясининг етишмаслиги;

✓ мактабгача, махсус, умумий ўрта таълим муассасаларида, болалар ва ёшларнинг қўшимча таълим муассасаларида мутахассисларни жадал шахсий-касбий ривожлантириш умҳитини яратиш учун кафедралар филиаллари, тажриба-инновацион майдончлар салоҳиятининг инобатга олинмаганлиги.

Ушбу камчиликларнинг республикамиз таълим тизимига ҳам хос эканлиги бугунги кунда Чирчиқ давлат педагогика институтининг педагогик таълимни кластерлаштириш борасида олиб бораётган илмий ва амалий фаолиятини оқлайди. Таълим турлари ўртасидаги интеграцияни мустаҳкамлаш, педагогика соҳасида самарали ворисийликни таъминлаш, ҳудуднинг замонавий педагог кадрларга бўлган эҳтиёжларини сифатли қондириш каби таълимий ва ижтимоий муаммоларни ҳал қилишда педагогик таълим инновацион кластери янги инновацион модель сифатида ўзининг ижобий самарасини беради.

5. Беларусь Республикасида педагогик таълимнинг узлуксизлигини таъминлаш ва ушбу жараёнда бевосита иштирок этаётган барча субъектларнинг самарали ҳамкорлигини таъминлашда кластер модели самарали механизм сифатида эътироф этилди. 2015-2020 йилларда педагогик таълимни ривожлантириш концепциясида “Педагог кадрларни касбий тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини ривожлантиришнинг тизимли таркибий элементлари сифатида кластерлардан фойдаланиш” назарда тутилган. [6;10]

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1543-1551

Педагогик таълим кластери битимлар асосида ўзаро ҳамкорлик қиладиган ва таълим соҳасида мутахассислар тайёрлашнинг илмий, ўқув ва инновацион мақсадларини амалга оширишда иштирок этадиган георграфик жиҳатдан маҳаллийлаштирилган муассасалар ва ташкилотлар тўпламидир.

Педагогик таълимнинг кластер ривожланиши касбий таълим, қайта тайёрлаш ва таълим мутахассисларини малакасини ошириш тизимини ривожлантиришнинг тизимли элементлари сифатида кластердан фойдаланишни назарда тутадиган концептуал ёндашувдир.

Муаммо бўйича хорижий тажрибани тизимли таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, кластер ёндашуви асосида таълимни ривожлантириш 1990 йилларда М.Портер томонидан ишлаб чиқилган кластер назарияси ва ривожланишининг амалий натижаси сифатида Европада бошланган. Охирги 20-30 йилда Европада ҳам, АҚШда ҳам университетларнинг ташкилий бирлашуви кузатилмоқда. Бу бирлашув натижасида маъмурий харажатларни қисқартириш ва халқаро рейтингларда миллий таълим тизимининг кўрсткичларини яхшилашни таъминлайдиган янги субъектлар шакллантирилмоқда. Бу йўналишда Финляндия олий таълим муассасалари изчил ривожланмоқда. Данияда эса 25 та олий ўқув юртлари негизида 8 та университет ва 3 та тадқиқот марказлари очилди. Францияда 3 та олий ўқув юртларининг бирлашиши натижасида мамлакатдаги энг йирик Страсбург университети ташкил топди. Шунингдек, Беларуссияда давлат таълим муассасалари, илмий-тадқиқот лабораториялари, бизнес компаниялари, экотуризмни такомиллаштиришга қаратилган таълим муассасаларини ўз ичига олган кластерлар фаол ривожланмоқда. Шунингдек, Францияда экотизимларни яхшилаш бўйича 71 та фаол гуруҳ мавжуд бўлиб, улар ўзига хос кластерни вужудга келтирган. Бундай кластерларга компаниялар, давлат таълим муассасалари ва илмий-тадқиқот лабораториялари киради. Улар ўзларини халқаро миқёсда энг илғор ва асосий технология соҳаларида жойлаштирадилар ва уларнинг аъзолиги хорижий фирмалар учун очиқдир. [7]

Германияда 2006 йилда иқтисодиётнинг реал сектори, ишлаб чиқариш ва бизнес билан ҳамкорликни янада яхшилаш мақсадида TU9 техник университетлар уюшмаси ташкил қилинди. 2012 йилда таълим хизматлари бозорида яхши обрўга эга бўлган 15 та университет U15 деб номланган иттифоқни ташкил қилди. Шунингдек, 1994 йилда бошланган интеграция жараёнлари Норвегияда ҳам давом этмоқда. Бу мамлакатларда интеграциянинг

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1543-1551

ўзига хос хусусияти шундаки, бирлашишга қарор қилинган университетлар бир неча йил ичида аввалги ҳуқуқий форматига қайтишлари мумкин. [8;109] Буюк Британияда таълим кластерлари кўпроқ соғлиқни сақлаш соҳасида ишлайди. АҚШ кластерлари ва минтақавий иқтисодиётини ривожлантиришда университетлар муҳим ўрин эгаллайди. М.Портерга етакчи бўлган Массачусетс ва Гарвард университетлари мисолида Массачусетс таълим кластерини таҳлил қилиш бошқа шататлар (биринчи навбатда Калифорния) ва бошқа мамлакатлар билан таққослаш натижасида таълим соҳасида кластерларнинг ролини батафсилроқ ёритиш имконини берди. [9;155]

Швед таълим кластери ҳисобланган Уппсала университети ва АҚШнинг Шимолий Королина штатидаги “Research Triangle” кластерларини инновацион таълим кластерларига намуна бўлиб хизмат қилади. Ушбу гуруҳлар бир хил ҳудудларнинг инновацион компанияларини ўз ичига олади. Шу билан бирга таълим фаолиятида устунлик барча мамлакатларда ҳам университетлар зиммасида қолмоқда. [10] Хитой Халқ Республикасида 1300 дан ортиқ саноат ва инновацион кластерлар ташкил этилган. Мазкур тизимда 560 мингдан ортиқ илмий ва муҳандислик ходимлари (жумладан, 52 мингдан ортиқ магистр, 9 мингдан ортиқ фалсафа докторлари), шунингдек коллеж битирувчиларининг учдан бир қисми (1,33 млн) фаолият олиб боришади. [11;37-47]

Университетларнинг бирлаштириш орқали уларнинг кучини ошириш истиқболли йўналиш ҳисобланади. Бугунги кунга қадар у ихтиёрий характерга эга бўлиб, асосан университетлар фаолиятининг турли соҳаларида ўқитувчилар ва олимлар ўртасида тажриба алмашиш, ўқитувчилар ва талабалар жамоасининг илмий форумларда иштирок этиши, биргаликда нашр этиш фаолияти каби кўринишларда бўлган. Умуман, меҳнат бозоридаги бугунги рақобат ҳолати олий таълим соҳасида қайта ташкил этиш фаолиятини талаб қилади. Бундай фаолиятнинг устувор йўналиши сифатида университетлар бирлашмаларини ташкил қилишни тушуниш мумкин.

Университетлар уюшмаси инсон ресурслари концентрацияси, молиявий ва бошқа ресурслар, тадқиқот ишларини зудлик билан амалиётга сафарбар қилиш имконияти, узлуксиз таълим тизимини оптималлаштириш, тадқиқот ва ишлаб чиқариш марказлари яратишга нисбатан кластер ва инновацион ёндашувлар каби жиҳатлари билан афзалликларга эга.

Илмий адабиётларни таҳлил қилиш асосида маълум бўлдики, Россия Федерициясида таълимни ривожлантиришга кластер ёндашуви индивидул

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1543-1551

субъектлар ва умуман кластер иштирокчиларининг ўзига хос афзалликларини кучайтирадиган ижтимоий ҳамкорлик асосида амалга ошириладиган кластер субъектларининг ўзини ва ўзаро ривожлантиришга асосланган (Т.И.Шамова, Е.И.Павлова, И.П.Маркина). Тадқиқотчилар Н.А.Шарай, Л.Н.Николаева, Т.В.Вдовиналарнинг фикрига кўра, таълим кластери таълим ресурсларини ташкил этишнинг интеграл тизими сифатида қаралади. Таълим кластерлари моделининг ягона типологик хусусиятлари М.Ю.Барышников, И.И.Чиннова, А.В.Симоновлар томонидан таклиф қилинди.

Инновацион таълим кластерининг ядроси тадқиқот, таълим ва тижорат ҳамкорлари ўртасидаги ўзаро алоқани ташкил қилишдан иборат. Айни пайтда таълим кластери фаол инфратузилмаларига кириш, таълимда мавжуд воқелик ва ўзгарувчи имкониятларнинг мавжудлиги каби инновацион хусусиятлари билан ажралиб туради.

Россияда бундан ўн йиллар олдин инновацион кластерларни яратиш муаммоси тикланиш босқичида бўлган. Босқичма-босқич бу масала ривожланиб келмоқда. Шунинг учун бу йўналишдаги мавжуд тажрибани таҳлил қилиш ва умумлаштириш алоҳида аҳамиятга эга.

“Claster Initiative GreenBook” монографиясининг муаллифи томонидан ўтказилган дунёнинг турли мамлакатларидаги икки юздан ортиқ кластерларни ўрганиш шуни кўрсатдики, инновацион фаолият ва технологияларни тарқатиш кластерлар фаолиятининг энг муҳим мақсадларидан бири ҳисобланади. [12] Кластерларнинг ривожланиши хўжалик юритувчи субъектларнинг инновацион фаоллигини оширишга хизмат қилади.

Айрим мамлакатларда кластерларнинг замонавий моделлари С.В.Голованова бошчилигидаги “Иқтисодиёт олий мактаби” илмий-тадқиқот университетининг рус муаллифлик жамоаси томонидан таҳлил қилинди. [13] Дунёнинг турли мамлакатларида кластерларни ташкил этишнинг институционал хусусиятлари бўйича бешта модель ажратилди: Италия, Япония, Финляндия, Шимолий Америка ва Ҳинд-Хитой. Ҳар бир модель кластернинг олтита асосий хусусиятининг аниқ комбинациясини ифодалайди: бозор муносабатлари ва рақобат даражаси; етакчи фирмаларнинг мавжудлиги; кичик бизнесни ривожлантириш; инновациялар; халқаролаштириш; тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларнинг мавжудлиги.

Европа мамлакатларида оммавий равишда кластерлаштириш жараёни қуйидаги ҳодисалар билан алоқадор:

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1543-1551

- 2000 йилда Лиссабон саммити бўлиб, у Европа Иттифоқи мамлакатлари томонидан кластер дастурларини мажбурий равишда шакллантиришни маъқуллади. Худди шу саммитда “Европа тадқиқот зонаси” (European Research Area, ERA) яратилди ва “Минтақавий инновацион тизимларни ривожлантириш дастури” (RIC) қабул қилинди;

- 2007 йилда Брюссел саммити бўлиб ўтди, унда “Европанинг кластер Манифести” тасдиқланди;

- 2008 йилда Стокголм саммитида “Европа кластер меморандуми” деб эълон қилинган Европанинг рақобатбардошлигини ошириш учун ўзига хос ҳаракат режаси ишлаб чиқилди.

Кластер ривожланиш тажрибасини таҳлил қилиш натижасида МДҲ мамлакатларида фаолият олиб бораётган кластерларни қуйидаги турларга бўлиш мумкин:

✓ фаолият йўналиши бўйича: компетенциявий-йўналтирилган, илмий-инновацион, инновацион, ижтимоий-маданий;

✓ ташкилотнинг даражаси бўйича: минтақавий, республика, шаҳар, институционал, халқаро;

✓ таълим соҳалари бўйича: таълимни бошқариш, таълим сифатини назорат қилиш, таълим-фан-ишлаб чиқариш интеграцияси, таълим воситалари ва ҳоказо.

Кластерларнинг турли хил турлари ва даражалари уларнинг ўзаро фарқланувчи муносабатда эмас, балки ўзаро тўлдирувчи муносабатда эканлиги билан характерланади.

Таълим кластерларининг юқоридаги таснифий бўлинишлари шартли бўлиб, уларнинг барчаси умумий мақсадга йўналтирилган бўлади ва уларнинг тўлақонли нуқсонсиз ишлаши учун ўзаро таъсирлари муҳимдир. Ишлаб чиқариш ва таълим кластерларини шакллантиришдан мақсад бизнес ва олий ўқув юртларининг ўзаро манфаатли ҳамкорлигига тўсқинлик қилувчи омилларни бартараф қилиш ва жараёнга инновацияларни жадал суръатда жалб қилишдан иборатдир. Аралаш кластерлар инновацион ривожланиш нуқтаи назаридан энг муҳими ҳисобланади, чунки ишлаб чиқарувчи ва таълим хизматларининг якуний истеъмолчиси, жумладан, амалиётчиларни жалб қилиш, шунингдек, иш берувчи ташкилотларнинг маблағлари ва ишлаб чиқариш базасидан фойдаланиш имконияти таъминланади. Бу инновацияларни амалиётга самарали татбиқ қилиш имкониятини беради.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1543-1551

REFERENCES

1. Распоряжение Правительства Российской Федерации от 8 декабря 2011 г. № 2227-р «О Стратегии инновационного развития РФ на период до 2020 года».
2. Терешин Е. М., Володин В. М. Современная дефиниция понятия «кластер» и подходы к формализации этого явления // Экономические науки. 2010. № 2 (63).
3. Растворцева С. Н., Череповская Н. А. Идентификация и оценка региональных кластеров // Экономика региона. 2013. № 4. С. 123–133.
4. Нормативные документы по дуальной системе обучения от 24.04.2013. URL: www.ksturu/article
5. Анисцына Н. Н. Инновационный научно-образовательный кластер как способ организации инновационной деятельности в вузе // Креативная экономика. 2010 № 4 (40). С. 91–97.
6. Концепция развития педагогического образования на 2015–2020 годы : утв. Приказом Министерства образования Респ. Беларусь, 25 фев. 2015 г., № 156. [Электронный ресурс].- Режим доступа: http://bspu.by/admin-panel/vendor/kcfinder/upload/files/klaster/The concept of teacher education.pdf. – с.10.
7. Innovation clusters in France: Innovation Comes First. URL: http://www.invest-infrance.org/us/why-choose-france/research-and-partnerships-innovation-clusters.htm)
8. Галичин, В. А. Международный рынок образовательных услуг: основные характеристики и тенденции развития / В. А. Галичин // Век глобализации. – 2013. – № 2. – С.109.
9. Соколова, Е. И. Термин «Образовательный кластер» в понятийном поле современной педагогики / Е. И. Соколова // Непрерывное образование: XXI век. – 2014. – № 2 (6). – С.155.
